TAMADDUN NURI jurnali
Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal
MUASSISLAR: Beruniy tuman hokimligi
"Tafakkur-Tamaddun" OOO
"Beruniy avlodlari" jamoat fondi
HAMKORLARIMIZ:
O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi
Qoraqalpoq davlat universiteti
Urganch davlat universiteti
TAHRIR HAY'ATI:
BOSH MUHARRIR:
Munavvara KURBANBAYEVA
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Anvar ALLAMBERGENOV
TEXNIK MUHARRIR:
Islombek ABDIKHAKIMOV
BO'LIM MUHARRIRI:
Muqaddas KURBANBAYEVA

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.
Qahramon QURONBOYEV, s.f.d.,prof.
Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)
Roman GOPAL, fil.f.f.d (PhD), (Hindiston)
Azizulloh AROL, fil.f.f.d (PhD), (AQSH)
Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)
Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)
Karlig'ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)
Xəlil İsmayıl oğlu İsmayılov, t. f.d, prof., (Ozarbayjon)
Anvar ABDULLAYEV, t.f.f.d, dots.
Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.
Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)
Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD),k.i.x.
Shoira NURULLAYEVA, t.f.n., dots.
Mamlakat JUMANIYAZOVA, t.f.n., dots.
Konul Bunyadzoda, fəlsəfə fanlari doktoru, (Ozarbayjon)
Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.
Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d.
Alima BERDIMURODOVA, fal.f.d.
Odilbek RADJAPOV, fal.f.f.d., (PhD)
Mangubek O'RAZMETOV, fal.f.d., (PhD)
Zarifboy DO'SIMOV, fil.f.d., prof.
Olmos ULVI Binnatova , fil.f.d., prof., (Ozarbayjon)
Azamat PRIMOV, fil.f.d., (DSc), prof.
Nasibullina Nurida Shaydullovna, fil.f.n., (Rossiya Federatsiyasi)
Sayyora SAMANDAROVA, fil. f.n., dotsent
Shukurjon Norbayeva, fil.f.d., (DSc)
Bekposhsha RAXIMOVA, fil.f.n., dots., (PhD)
Qabil MAMBETOV, fil.f.f.d., (PhD)
Vahob RAHMONOV, fil.f.n., dots.
Doniyor YULDASHEV, fil.f.d (DSc)
Farrux Abbas oglu Rustamov, p.f.d, prof. (Ozarbayjon)
Qozoqboy YO'LDOSHEV, p.f.d.,prof.
Safo MATJONOV, p.f.d., prof.
Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)
Masharib ABDULLAYEV, s.f.d., (DSc), k.i.x.
Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)
Rana Hamid qızı Qadirova, psixol.f.d., prof. (Ozarbayjon)
Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)
Dilafruz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Sirojiddin SAYYID
Muhammad ALI
Kengesboy KARIMOV
Iqbol MIRZO
Qurbon SHONIYOZOV
O'rozboy ABDURAHMONOV
Murotboy JUMANOV
Adabiy maslahatchi:
Guliston MATYOQUBOVA
Rassom:
Alibek ABDURAHMONOV
Sahifalovchi-bezovchi: G'iyosiddin O'NAROV
Manzilimiz: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Beruniy tumani.
Web-sayt: https://jurnal.tamaddunnuri.uz
e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.
Telegram kanali: https://t.me/tamaddunnuri
Tel.: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.
Qog'oz bichimi 60x84 ⅛. Nashriyot hisob tabog'i 28.
Indeks – 960. ISSN 2181-8258. "ADAD PLYUS" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona.
Bosishga 2025-yil 29-noyabrda ruxsat etildi.
Toshkent shahri, Chilonzor ko`chasi, 28-uy.
2025-yil, 11-son (74).
Ushbu son "Tamaddun nuri" jurnali tahririyatining kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №31.
Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri"dan olindi deb izohlanishi shart. Matn hamda reklamalardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

"Tamaddun nuri" jurnali Google Scholar bazasida indekslanadi. Bu esa jurnalning ilmiy nufuzini oshirish va mualliflarning ilmiy ishlarini keng miqyosda targ'ib qilishga yordam beradi. Google Scholar orqali tadqiqotchilar va olimlar "Tamaddun nuri" jurnalida chop etilgan maqolalarni qidirib topish va ularga havola berish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Tahririyat Crossref DOI ning rasmiy a'zosi hisoblanadi va 10.69691 DOI prefiksiga ega. Har bir nashr va ilmiy maqolaga individual Crossref DOI raqami beriladi.

10.69691 DOI

ISSN-2181-8258

Impakt faktor-9.347

SLIB.UZ

BIZNI IJTIMOIY TARMOQLARDA QUYIDAGI MANZILLARDA KUZATING:

journal THE LIGHT OF CIVILIZATION
Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine
Founders: Beruniy District Municipality
"Tafakkur-Tamaddun" OOO
Public Foundation "Descendants of Berunius"
Our colleagues: Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan Karakalpakstan division
Karakalpak State University, Urgench State University
EDITORIAL BOARD:
EDITOR-IN-CHIEF:
Munavvara KURBANBAEVA
DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Anvar ALLAMBERGENOV
TECHNICAL EDITOR:
Islombek ABDIKHAKIMOV
SECTION EDITOR:
Mukaddas KURBANBAEVA

Akmal SAIDOV, y.sc.d., prof., Acad.
Qakhraman QURANBAYEV, s.sc.d., prof.
Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)
Roman GOPAL, phil.sc.n., (PhD) (India)
Azizulloh AROL, phil.sc.n., (PhD) (USA)
Almagul BAYRIEVA, s.sc.d., (DSc)
Zuhra REYMOVA, y.sc.d., (DSc)
Karligash UMAROVA, y.sc.d., (DSc)
Xəlil İsmayıl oğlu İsmayılov, ist. sc.d, prof. (Ozarbayjon)
Anvar ABDULLAEV, ist.sc.d, dots.
Makset KARLIBAEV, t.f.d., k.i.x.
Kazimbek TUKHTABEKOV, t.f.d., (PhD)
Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.
Shoira NURULLAEVA, c. of h. sciences, Assoc. Prof.
Mamlakat JUMANIYAZOVA, c. of h. sciences, Assoc. Prof.
Konul Bunyadzoda, Doctor of Philosophy, (AMEA) Corresponding Member (Ozarbayjon)
Bakhtiyar KARIMOV, phiosl.sc.d., prof.
Marat NIYOZIMBETOV, philos.sc.d.
Alima BERDIMURODOVA, philos.sc.d.
Odilbek RADJAPOV, philos.sc..d., (PhD)
Mangubek URAZMETOV, philos.sc.d., (PhD)
Zarifboy DOSIMOV, Phil.sc.d., prof.
Olmos ULVI Binnatova , Phil. f.sc.d., prof. (Ozarbayjon)
Azamat PRIMOV, Phil. sc.d., (DSc), professor
Nasibullina Nurida Shaydullovna, can. of phil (Russiya)
Sayyora SAMANDAROVA, associate professor, can.of phil.
Shukurjon Norbayeva, Phil. sc.d., (DSc)
Bekposhsha RAKHIMOVA, can. of phil.sc, dots (PhD)
Qabil MAMBETOV, phil.sc.n. (PhD)
Vahab Rakhmonov, f.sc.n., dots.
Doniyor YULDASHEV, Phil. sc.d., (DSc)
Farrux Abbas oglu Rüstamov, p.sc.d, prof., (Ozarbayjon)
Kazakboy YOLDASHEV, p.sc.d., prof.
Safo MATJONOV, p.sc.d., prof.
Qakhraman IBADULLAEV, p.sc.d., (DSc)
Masharib ABDULLAEV, of art.sc.c., (DSc), k.i.x.
Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)
Rana Hamid qızı Qadirova, Psychol.sc.d., prof.(Ozarbayjon)
Nargis ATABAEVA, Psychol.sc.d., (DSc)
Dilafruz QARSHIEVA, Psychol.scd., (DSc)

COMMUNITY COUNCIL:
Sirojiddin SAYID
Muhammad Ali
Kengesboy KARIMOV
Iqbal MIRZA
Kurban SHONIAZOV
Orozboy ABDURAHMANOV
Muratboy JUMANOV
Literary Advisor:
Gulistan MATYOQUBOVA
Painter:
Alibek ABDURAHMANOV
Page editor:
Ghiyaziddin O'NAROV
Our address: Republic of Karakalpakstan, Beruni district.
Website: https://tamaddunnuri.uz
e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.
Telegram channel: https://t.me/tamaddunnuri
Phone: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.
The editorial board is an official member of Crossref DOI and has the prefix 10.69691 DOI. Each publication and scientific article is assigned an individual Crossref DOI number.
Paper size 60x84 ⅛. Publisher's scoreboard 28. The index is 960.
It was published in the printing house of "ADAD PLUS" LLC. The number is 300 pieces.
Chilonzor street, 28, Tashkent city. 2025, No.11 (74).
This issue was paged on the computer of "Tamaddun Nuri" editorial office. Order #31. When copying from the magazine, it must be noted that it was taken from "Tamaddun Nuri". The authors are responsible for the accuracy of the information in the text and advertisements. Manuscripts received by the editors will be edited, not reviewed, and not returned to the author.

"Tamaddun nuri " magazine is indexed in the Google Scholar base. This helps to increase the scientific prestige of the Journal and to promote the scientific work of the authors on a large scale.
Through Google Scholar, researchers and scientists will be able to search and link articles published in the Journal "Tamaddun nuri".

Crossref DOI-10.69691

ISSN-2181-8258

Impakt faktor-9.347

SLIB.UZ

BIZNI IJTIMOIY TARMOQLARDA QUYIDAGI MANZILLARDA KUZATING:

MUNDARIJA

07.00.00 - "TARIX"

Komolov Dilshod Pulatovich. O'zbekiston SSR sud tizimidagi kadrlar masalasi: tarixiy tahlil (1925–1945-yillar).....37
Ahrorov Botir Baxodirovich. O'zbekistondagi eronliklar: zamonaviy tarix masalalari.....95
Sattorov Ulug'bek Abdurazzoq o'g'li. O'zbekiston va yunesko hamkorligi rivojlanishida nomoddiy madaniy merosning o'rni.....100
Abdug'aniev Ahrorjon Ahadjon o'g'li. Ilk temir chog'i janubiy O'zbekiston hududidagi arxeologik yodgorliklarning mudofaa xususiyatlari.....117
Tleumuratova Zulfiya Maxsetovna. Xorazmshohlar davrida qurilgan madrasalar.....123
Xalimjon Tuxlibayevich Jo'rayev. O'lkada rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi.....154
Shodmonova Gulizor Farxod qizi. Xondamirning "Maosir al-muluk" asarining manbaviy ahamiyati va o'rganilishi.....181
Isaxova Barno Abduvaxobovna. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda fan-madaniyat va o'zbek adabiyotining rivojlanishi.....193
Yuldasheva Shaxnoza Ergash qizi. Ikkinchi jahon urushi arafasida Toshkent.....197
Bayqabilov Xusnudin Mardanovich. Sharq mamlakatlarida poytaxt shaharlarni ko'chirish siyosati: omillar va sabablar.....221
Toshmamatov Azizbek Tohir o'g'li. Tojikistondan Surxondaryoga ko'chgan o'zbek oilalar tarixi (Taroqli mahallasi misolida).....224
Pulatova Guli Islombekovna. 1960-1980-yillarda maishiy xizmat ko'rsatish tizimining Qoraqalpog'iston ASSRdagi holati.....228
Yuldasheva Gulchehra Po'latovna. O'rta Osiyo xalqlarining harbiy san'ati: shakllanish bosqichlari va mudofaa inshootlarining tarixiy rivoji.....231
Kamolova Nargiza Polatbayevna. O'rta Osiyo xonliklari davrida dehqonchilik an'analarining o'rganilish masalasi.....234
Matyakubova Muborak. Xiva xonligida iqtisodiy va madaniy hayotning rivojlanish tendensiyalariga doir tarixiy manbalar (XVII-XIX asrlarga oid asarlar asosida).....264
Haydaraliyev Xushnud Muso-zoda. Shayboniyxon va uning davlati.....274
Po'latova Munojat. Moziydan so'zlagan qal'alar.....290
Avazov Ozod Rajabbayevich. Xorazm viloyatida 2001–2023 -yillarda sanoat rivoji va uning ijtimoiy ta'siri.....329
Xasanov Erkinboy. Xorazmda temirchilik sohasi etnografiyasi.....333
Усенов Султан Халкназарович. Судьба каракалпакского общественного деятеля и полководца У. Бахауддинова.....413
Matyaqubov Toyirjon Sulsanbayevich. Xorazm vohasi Sulton Uvays tog'i ilk etnik makon sahifasiga doir ba'zi bir mulohazalar.....426
Jovliyev Muzaffar Holmirza o'g'li. Surxon vohasi etnotadqiqotlarda tabiat va osmon jismlarining aloqadorlgining etnologik tahlili.....482
Hamroyev Asliddin Umed o'g'li. Buxoro amirligida to'rtlik ramzi asosidagi mansablar tizimi.....486
Madrimova Gulzira Shaxnazarovna. Xiva shahrida turizm infratuzilmasi: davlat siyosati, so'nggi yangiliklar va kelajak istiqbollari.....514
Quldosheva Shahrizoda Nurali qizi. Zaki Validiyning ilmiy merosiining manbashunoslik tahlili.....529
Ruzimurodov Azizbek Shonazarovich. Navoiy viloyati ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotini yoritishda matbuot organlarining o'rni.....551
Kadirova Yakitjan Buvabayevna. Infratuzilma tushunchasiga oid zamonaviy yondashuvlar: tarixiy tahlil.....564
Umarov Jamshid Saidmuratovich. Ikkinchi jahon urushi yillarida surxondaryo viloyatida xalq ta'limi tizimi.....567
Qarshiyev Islom Maxmarahim o'g'li. Boysun uyezdi (rayoni): ma'muriy-hududiy tuzilishi, aholi joylashuvi va etnik tarkibi.....570
Қидирбаева Мавлуда Калбаевна. Қорақалпоғистонда коллективлаштириш сиёсати.....581

09.00.00 - "FALSAFA"

Madaminzoda Abdulatif Baxtiyor o'g'li. Abul-mu'in an-nasafiyning hayoti, ustoz va shogirdlari.....18
Bo'ldiyeva Sobira Rajabovna. Sho'ro davrida tasavvufning asrab qolinishida Ziyovuddinxon Eshonning roli.....21
Yuldashxodjayev Xaydar Xashimxanovich. Musoxon Dahbidiyning davlat boshqaruviga munosabati.....41
Bozorov Suxrob Komilovich. Ma'naviy transformatsiya jarayonining ijtimoiy-falsafiy mohiyati.....47
Xoshimov Hakimjon Abduqaxxor o'g'li. Yoshlarning iqtisodiy ongini shakllantirishda ta'lim tizimining falsafiy asoslari.....54
Danabayev Xurshid Napasovich. Kambag'allik ijtimoiy hodisasining kelib chiqishi sabablari va falsafiy tahlili.....73
Xodjimetov Shaxrux Ruslanbekovich.Emigrant va immigrant tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati.....77
Ergashev Urolbek Berkinovich. Ahmad Toshko'prizodaning "Ash-shaqoiq an-nu'maniyya" asarining ilmiy ahamiyati.....92
Vohidova Dilshoda V.q. Zamonaviy taraqqiyot jarayonida tasavvuf tafakkuri va ma'rifatli jamiyatni barpo etishning ruhiy-ma'naviy asoslari.....104
G'ofurova Sug'diyona Abdurashid qizi. Yangi O'zbekiston sharoitida zamonaviy kadrlarni tarbiyalashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari.....107
Yekubova Mavluda. Raqamlashtirilgan jamiyat kommunikativ realligining ontologik, gnoseologik va mantiqiy asoslari.....184
Axatova Dildora Axtamovna. Al-Kindiy merosi — yunon falsafasi va sharq peripatetizmiga integratsiyasi.....189
Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich. G'arb falsafasida ruhiy kamolotning shakllanishi.....239
Komilov Abror Quvondiqovich. Gender munosabatlarining dinamikasi.....317
Jo'rayeva Shaxlo Baxtiyor qizi. O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy integratsiyasida kibersportning ahamiyati.....349
Isroilova Shaxnoza Tolkinovna. Huquqiy munosabatlar kontekstida adolat tushunchasining namoyon bo'lishi.....354
Abdullayeva Dilarom Nigmatullayevna. Ayollarning o`z-o`zini anglashida ijtimoiylashuvning o`rni.....357
Xo'jayev Davron Nuriddinovich. O'rta asrlar Sharq renessansida gumanizim falsafasining namoyon bo'lish xususiyatlari.....368
Kuchkarova Gulnoz Raxmonovna. Hozirgi zamon ziyorat turizmi taraqqiyotida Buxoroning o'rni.....373
Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna. Onlayn kommunikatsiyada axloqiy qadriyatlar va ishonchning shakllanishi.....395
Shodiyev Bexzod Mirsalimovich. Yoshlar huquqiy madaniyatining ijtimoiy-falsafiy mohiyati, shakllantiruvchi omillari va rivojlanish yo'nalishlar.....402
Bozorova Gulmira Mahmudovna. Muhammad Sharif Jurjoniy hayoti, ilmiy faoliyati va inson ma'naviy kamolotiga qo'shgan hissasi.....422
Юсупова Дилдора.Отаматов Музаффар. Ўзбекистон ва Тожикистонда десекуляр (секуляр) жараёнлар босқичларининг ўзига хос жиҳатлари.....450
Raximov Mutallib Amirqulovich. Mutolaa madaniyati: erkin fikrlash va ijodiy tafakkur vositasi sifatida.....460
Soatov Rasul Muxitdinovich. Boborahim Mashrab merosining sharqiy Turkiston xalqlari ma'naviyatidagi o'rni.....468
Xamzayev Shavkat Abdirasulovich. Xoja Ahmad Yassaviy ta'limotida inson mohiyati va hayot mazmunining falsafiy talqini.....472
Ochilov Baxtiyor Shuhrat o'g'li. "Muqaddima"ning ijtimoiy-falsafiy va siyosiy tahlili.....476
Mahkamov Qodirjon. Axborotlashgan jamiyatda tarixiy ong.....497
Sodirjonov Muhriddin Mahamadaminovich. Inson kapitali rivojlanishining nazariy evolyutsiyasi va zamonaviy ijtimoiy talqin.....500
Ulfatillayeva Sayyora Sobirjon qizi. Olimlarning "Sahihi Buxoriy"ga bo'lgan munosabati.....506
Jumayeva Shaxlo Suyunovna. Ijtimoiy va ma'naviy muhit va uning tarbiya va ta'limga ta'siri.....510
Abdullayeva Iroda G'anijanovna. Milliy taraqqiyot, iqtisodiy va innovatsion tafakkurning o'zaro aloqadorligini o'rganishning falsafiy jihatlari.....518
Bozorov IqboljonYoqubjonovich. Futbol jamoalarida shaxslararo munosabatlar falsafasi: trener–futbolchi–muxlis o'rtasidagiijtimoiy dinamika.....521
Madina Xasanovna Baratova. Qashshoqlikni kamaytirish orqali aholi farovonligiga erishish bo'yicha ilmiy qarashlarning nazariy tahlili.....535
Muradov Sanjar Aslonovich. Ahmad Sirhindiyning aql haqidagi qarashlari.....539
Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich. Yangi O'zbekistonda inson qadri va uning ma'naviy rivojlanishida sharq falsafiy tajribasining o'rni va ahami.....542
Bozorova Ro'zigul Sharofovna. Yangi O'zbekistonda ayollar intellektual salohiyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari va strategik omillari.....545

10.00.00 - "FILOLOGIYA"

Karimova Mahliyo Ataboyevna. Zamonaviy o'zbek matbuotida metaforik ifoda va uning kognitiv-pragmatik tahlili....34
Jo'raboyeva Saboxon Anvarxanovna. Atoiy g'azallarida tasavvuf maqomotlari....44
Яркулова Фотима. Иноязычные заимствования в русском языке: проблема нормы и употребление....51
Seytniyazova Guljaxan Mirzagaliyevna. Tarjima va madaniy identitet....58
Xasan Shuhratovich Gafforov. Ziddiyatli vaziyatlardagi nutqiy stereotiplarning pragmalingvistik xususiyatlari va talqini....61
Sanaqulova Fayoza. Reklama matnlarida metafora hodisasi....81
Karimova Nafisa. Badiiy asarning yozilish sabablariga doir nazariy tahlillar....106
Saparmatov Omar Shamurat ogli. Nesibeli Baltaniyazovaníń "Baxítlí kúndi izlep" povestinde kelbetliklerdiń qollanílíw ózgesheligi....113
Norqobilova Nigora Uralovna. Olqish va qarg'ish so'zlar paremiologik birlik sifatida....120
Mamirova Xayriniso Komiljon qizi. Metonimik birliklar o'zlashtirilishining eksperimental tadqiqi....150
Рахимова Гўзал Юлдашовна. Ўзбек ва инглиз тилларида редупликативларнинг сўз туркумлари билан ифодаланиши таҳлили....166
Yusupova Kamola Qobiljon qizi. Reklama diskursining lingvistik va stilistik xususiyatlari....170
Olimboyeva Komila Umarbek qizi. Xonqa shevasida sifatlar va ularning ma'noviy guruhlari....174
Djumaniyazova Luiza Sultonboyevna. Til va madaniyatning etnolingvistik tahlili (o'zbek va ingliz tillari materiallari asosida)....177
Hilol Abdul Roziq Sodiq. Ikkinchi til o'rganuvchilarining ehtiyojlarini qondirishda semantik nazariyalarning o'rni: arab tili misolida....201
Ro'ziyeva Nilufar Kamtarovna. Sharq adabiyotida rad etish strategiyalari -Cho'lponning "Kecha va kunduz" asari tahlilida....205
Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna. Ingliz va o'zbek postmodernizmida o'zlikni anglash fenomenining psixologik va badiiy tahlil (J. Faulz va O'.Hoshimov asarlari asosida)....209
Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna. "Yolg'izlik" konseptining lingvopragmatik xususiyatlari (o'zbek va ingliz tili matnlari misolida)....212
Dilshod Bobojonov Jumaqul o'g'li. Reklama matnlarida konnotativ birliklarning kommunikativ vazifasi....215
Rashidova Feruza Rasulovna. Opa-singil brontelar romanlarida badiiy psixologizmning ichki monolog tasviri....218
Azatova Jamila Azatovna. Tábiyat penen adam arasindaǵi tragizm kórinisi (Allanazar Ábdievtiń "Iyt hám Adam yamasa Ashlıq sınaǵı" povestiniń kórkem dúzilisi)....242
Karimov Ulug'bek Nusratovich. «Simob» romanida qahramonning ichki dunyosining poetik tasviri....246
Xakimova Sadoqat Dilshodbekovna. Ingliz va o'zbek tilidagi rang komponentli iboralarning konseptual tahlili....251
Rashidova Gulshoda. O'zbek millatiga xos irimlarning semantik xususiyatlari....257
Jumanyazova Muxabbat Xusinovna. Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasi rivojlantirish metodika268
Бабаджанова Азиза Рустамовна. Изучение лирики Бориса Пастернака и Абдуллы Орипова в литературоведении....271
Усманова Камила Шухрат кизи. Особенности передачи русской действительности XIX века в художественном переводе (на материале произведений М.Л.Михайлова)....277
Choriyeva Dilafruz. Tarjimada hazil va istehzo: ingliz gazetalarining pragmatik tahlili....280
Hamzayeva Zebo Murodjon qizi. Epistolyar roman genezisi va taraqqiyoti....283
Xudoyberdieva Oyjamol Muzaffarovna. O'zbek raqsida bosh va yuz harakatlarini ingliz tiliga tarjima qilishning lingvomadaniy asoslari....287
Abdullayeva Gulandom Anvarovna. Turk va o'zbek tilidagi o'simlik nomlarining lisoniy hamda madaniy tadqiqi....294
Masharipova Farida Zokirovna. Erkin Samandar nasriy asarlarida takrorning lingvopoetik imkoniyatlari....297
Sharasulova Shirin. O'zbek tilida enantosemik metaforalarning xossalari tadqiqiga doir....301
Axmedov Rafael Sharifovich. Ayzek Azimovning "Po'lat g'orlar" asarida inson va robot o'zaro munosabatining dinamikasi....304
Siddiqova Osiyo Normurod qizi. Komediya va komizmning ilmiy nazariy talqinlari: o'zbek adabiyoti misolida....308
Dovletov Shukurulla Atanazarovich. Lingvomadaniy jihatdan latifalar tarjimasining funksional tipologiyasini ishlab chiqish....312
Soqiyeva Shirin Shokirovna. Olam manzarasi, olamning kognitiv manzarasi, olamning lisoniy manzarasi va konsept....322
Panayeva O'g'iljon Bobojonovna. Zamonaviy o'zbek she'riyatini o'qitishning innovatsion metodik yondashuvlari....325
Aliqulova Dildora. Sunatova Sitora. Jeyn Ostenning "Mag'rur va xurofot" asarida xarakter nutqining lingvistik va stilistik xususiyatlari....336
Yuldasheva Laylo Ulug'bekovna. XIX asr rus adabiyotida sharq obrazi va uning o'zbek adabiyotidagi aksi....340
Shodmonova Sayyora. Tarixiy o'lchov birliklarining semantik qayta talqini: "Boburnoma"dan "Babur-nama" tarjimasigacha....343
Халикова Эльянора Сергеевна. Пространство как элемент художественного своеобразия романа Л. Соловьёва «Повесть о Ходже Насреддине»....360
Nazarova Namuna Abdumajitovna. Sirojiddin Sayyid she'riyatida tashbeh san'atining o'rni....376
Рахманова Альбина Ходжаевна. От экзотики к диалогу: трансформация коранического нарратива в русской поэзии XIX века....380
Matkarimova Nargiz Muxamataminovna. Zamonaviy xitoy tilida ritorik so'roq gaplarning iboralar orqali ifodalanishi haqida....406
Muxammeddin Bauetdinov. Abdulla Oripov va Ulmambet Xo'Janazarov falsafiy uslubidagi mushtaraklik....419
Allambergenova Patima. Xalq qo'shiqlarining tarixiy va badiiy ahamiyati....429
Razoqova Kumush Sadriddinovna. Ingliz tilidagi madaniyatga oid atamalarning leksik tahlili....443
Atamuradov Sherzod Rahmatullayevich. Inklyuziv muloqotda kommunikativ strategiya va nutqiy taktikaning namoyon bo'lishi....445
Saparova Dilafruz Muxiddin q. Mark Tvenning "Tom Soyyerning sarguzashtlari" va G'afur G'Ulomning "Shum bola" asarlarining qiyosiy tahlili.476
Sobirova Nazira G'anijon qizi. O'zbek tili imlo qoidalarining lingvistik ta'minot sifatidagi o'rni va ahamiyati....490
Sobirova Zarnigor G'anijon qizi. Transformer modellari yordamida o'zbek tili matnida tinish belgilarini tiklash....503
Babadjanov Farxad Kurbanbayevich. Hujjatchilikning kognitiv talablari....548
Madrimova Zamira G'aniy qizi. Oziq-ovqat pragmatonimlarini yaratishning lingvistik va ijtimoiy asoslari....555
Djabbarbergenova Miyirxon. «Life / O'mir» konseptining ingliz va qoraqalpoq tillarida leksik birliklar darajasida verballashtirilishi....561
Parmonova Sevara Ulug'bek qizi. So'fiylar faoliyatiga doir tasavvufiy atamalarning sharhlanishi: "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasi misolida....574

12.00..00 – "YURIDIK FANLAR"

Ro'zimov Qudratbek Qurbonboyevich. Xalqaro munosabatlar va O'zbekiston Respublikasining undagi o'rni va roli.....27
Axatova Nilufar Sobirovna. Voyaga yetmagan xodimlar mehnatining huquqiy kafolatlari va ularni amalga oshirish mexanizmlari.....462
Ismailov Bekjon Salixovich. Nogironligi bo'lgan shaxslarni ta'lim jarayonlari orqali jamiyatga integratsiya qilishning nazariy-huquqiy asoslari.....494

13.00.00 – "PEDAGOGIKA"

Shukirullaeva Sarbinaz Alliyar qizi. Refleksiya orqali bolada o'qishga ijobiy munosabat va motivatsiyani oshirish usullari.....9
Urunova Sitora. Bo'lajak muhandislarni tayyorlashda ingliz tilini sun'iy intellekt yordamida o'qitish metodikasi.....14
Ikromova Mubinaxon Nodirbekovna. Ilm-fan va matbuot orqali milliy uyg'onish g'oyalarini targ'ib etishda Behbudiyning o'rni.....24
Matyoqubova Hilola Alisher qizi. Oliy ta'lim muassasalari tizimining shakllanishi va rivojlanishi (1991-1995).....31
Rustemov Muxamed Biysenbayevich. Multimedia texnologiyalarining ta'lim sifatiga ta'sirini baholash mexanizmlari.....64
Prenov Barliqbay Barakbaevich, Mambetkarimov Bayniyaz Meyrmanovich. Shaxsiy bulut ta'lim muhitida PTE tarkibiy qismlarining optimal to'plamidan foydalanish.....68
Asanova Gulmira Baxtibekovna. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda steam texnologiyasidan foydalanish.86
Rustemov Muxamed Biysenbayevich. Raqamli o'quv materiallari bilan ishlashda multimedia vositalaridan foydalanish.....89
Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich. Raqamlashtirish sharoitida o'quv jarayonlarini optimallashtirish uchun interfaol elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish.....126
Shadmanov Mirzamaxmud Alisherovich. Zamonaviy ta'limda kasbiy kompetentlikni shakllantirish: nazariy va amaliy yondashuvlar.....130
Mambetkarimov Bayniyaz Meyrmanovich. Oliy ta'lim tizimida dasturlash tillarini sun'iy intellektga asoslangan interfaol metodlar orqali o'qitishni takomillashtirish.....134
Мурзамбетова Мехрибан Бегдуллаевна. Математика таълимида узвийликни таъминлашда ўқувчиларнинг интеллектуал кўникмаларини шакллантиришнинг аҳамияти.....139
Djaxangirova Zuxra Tursunovna. Maktablarda tadbirkorlikni tarbiya fani bilan uyg'unlikda o'qitilishini tashkil etish modeli.....142
Israilova Dilxumor Sherzod qizi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sun'iy intellektga asoslangan kasbiy raqamli kompetensiyasi: tayyorgarlik darajasi, amaliy yondashuvlar va pedagogik muammolar.....146
Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich. Elektron ta'lim resurslarini amaliyotga joriy etishning metodik ta'minotini takomillashtirish.....158
Shadmanov Mirzamaxmud Alisherovich. Urologiyada fundamental va klinik fanlarning o'zaro ta'siri uchun innovatsion model.....162
Shermanova Feruza Djumaboyevna. Oliy ta'limda raqamli savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik va texnologik integratsiyasi.....254
Ollaberganova Saida Sherboy qizi. Geografiya darslarida rolli o'yinlarni muammoli mavzularda qo`llash samaradorligi.....260
Jumaniyazova Maxira Rahimbergan qizi. XX asrda pedagogika sohasidagi evolyutsiyasi: Sadriddin Ayniyning ta'limdagi amaliy islohoti.....364
Axmedov Yodgorbek Olimjonovich. Ichki ishlar akademik litseylari o'quvchilarining mustaqil o'quv faoliyatini veb-platformalar asosida tashkil etishning didaktik ta'minoti.....388
Eshdavlatov Farrux Eshmamatovich. Sun'iy intellektga asoslangan kasbiy yo'naltirish platformalari: imkoniyatlar va istiqbollar.....392
Alikulova Muxayyo Sherovna. Talabalarni oilaviy hayotga majmuaviy tayyorlashning pedagogik asoslari.....409
Kobulova Moxinabonu Avazbekovna. Oliy ta'lim muassasalarida onlayn adaptiv ta'lim tizimlaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari.....416
Iskandarov Nurbek Sharifboyevich. Dzyudo kurashida ko'p yillik tayyorgarlik jarayonining zamonaviy uslublari.....433
Sobirova Laylo Xudayberganovna. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining egiluvchanlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirish uslubiyati.....436
Vaisov Azad Xasanovich. Maktab rahbarlarida xxi asr ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari (malaka oshirish jarayonlari misolida).....440
Каюмов Василий Мухаматдинович.Роль и специфика языковых компетенций при организации внеклассной работы по русскому языку455
Haytbayeva Sayyora Raximberganovna."STEAM edulab" modeli asosida boshlang 'ich ta'limda integratsiyalashgan to'garak tashkil etish tajriba532
Kosbergenov Baxram Maxsetbayevich. "Tarbiya" fanini o'qitishda ilg'or pedagogic usullardan foydalanishning ahamiyati.....578

19.00.00- "PSIXOLOGIYA"

Muazzamxon Xamdamova Xabibullo qizi. Talabalarda o'quv motivatsiyasini rivojlantirishning muhim shartlari.....84
Qabulov Qosimboy Pirjonovich. Shaxsda internetga qaramlikning yuzaga kelishi sabablari va bartaraf qilishning ijtimoiy-psixologik asoslari.....525

Jurnal 2016-yil 28-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0843 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. O'zbekiston Respublikasi OAK tomonidan 2019-yil 30-yanvarda chop etilgan OAK rayosati qarorlari bilan tasdiqlangan ro'yxatga ko'ra 07.00.00 - "Tarix", 09.00.00 - "Falsafa", 10.00.00 -"Filologiya" ixtisosligi bo'yicha; OAK Rayosatining 2023-yil 31-oktyabrdagi 345-son qarori bilan 12.00.00 – "Yuridik fanlar", 13.00.00 – "Pedagogika", 19.00.00 – "Psixologiya" ixtisosliklari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

TABLE OF CONTENTS

07.00.00 - "HISTORY"

Komolov Dilshod Pulatovich. The personnel problem in the court system of the Uzbek SSR: a historical analysis (1925–1945)....37
Akhrorov Botir Bakhodirovich. Iranians in Uzbekistan: issues of modern history....95
Sattorov Ulugbek Abdurazzoq ogli. The role of intangible cultural heritage in the development of cooperation between Uzbekistan and unesco....100
Abduganiev Ahrorjon Ahadjon ugli. Defensive features of archaeological sites of the early iron age in the territory of southern Uzbekistan....117
Tleumuratova Zulfiya Maxsetovna. Madrasahs built during the Khwarazmshahs period....123
Khalimjon Jurayev Tukhlibayevich. Establishment of Russian-style schools in Turkestan....154
Shodmonova Gulizor Farkhod qizi. The source value and study of Khandamir's work "Maosir al-muluk"....181
Isakhova Barno Abduvakhobovna. Development of science, culture and uzbek literature in Uzbekistan during the second world war....193
Yuldasheva Shakhnoza Ergash qizi. Tashkent on the eve of the second world war....197
Baykabilov Khusnudin Mardanovich. Policy of relocating capital cities in eastern countries: factors and causes....221
Toshmamatov Azizbek Tohir ogli. The history of uzbek families who moved from Tajikistan to Surkhandarya (a case study of Taroqli mahalla)....224
Pulatova Guli Islombekovna. The state of the household service system in the Karakalpak ASSR in 1960–1980....228
Yuldasheva Gulchehra Po'latovna. The military art of the peoples of Central Asia: stages of formation and the historical development of defensive structures....231
Kamolova Nargiza Polatbayevna. The study of agricultural traditions during the period of the Central Asian khanates....234
Matyakubova Mubarak Madrimovna. Historical sources on the development trends of economic and cultural life in the Khiva Khanate (Based on works from the 17th-19th centuries)....264
Khaydraliev Khushnud Muso-zoda. Shayboniykhan and his state....274
Pulatova Munojat. Castles that speak of the past....290
Avazov Ozod Rajabbayevich. Growth dynamics of industry in Khorezm region in 2001 - 2023 and its social aspects (based on statistical data)....329
Khasanov Erkinboy. Ethnography of blacksmithing in Khorezm....333
Usenov Sultan Khalknazarovich. The fate of the karakalpak public figure and military commander Ubaydulla Bahauddinov....413
Matyaqubov Toyirjon Sulsanbayevich. Some remarks on the early ethnic space page of Sultan Uways mountain, Khorezm oasis....426
Jovliyev Muzaffar. Ethnological analysis of the interrelation between natural and celestial objects in the ethnological studies of the Surkhan o....482
Khamroyev Asliddin Umed oglu. System of positions based on the symbol of the four in the Bukhara emirate....486
Madrimova Gulzira Shakhnazarovna. Tourism infrastructure in Khiva city: state policy, news, and prospects....514
Quldosheva Shahrizoda N. Source-critical analysis of the scholarly legacy of Zaki Velidi....529
Ruzimurodov Azizbek Shonazarovich. The role of the press in covering the socio-economic and spiritual life of navoiy region....551
Kadirova Yakitzhan Buvabayevna. Modern approaches to the concept of infrastructure: historical analysis....564
Umarov Jamshid Saidmuratovich. Public education system in surkhandardo region during world war II 567
Qarshiyev Islam. Boysun uyezdi (region): administrative-territorial structure, population distribution and ethnic composition....570
Qidirbayeva Mavluda Kalbayevna. Collectivization policy in Karakalpakstan....581

09.00.00 - "PHILOSOPHY"

Madaminzoda Abdulatif Bakhtiyor ogli. Abul-muin an-nasafi's life, teachers and disciples....18
Bo'ldiyeva Sobira Rajabovna. The role of Ziyovuddinkhon Eshon in preserving sufism during the soviet era....21
Yuldashkhodjayev Khaydar Khashimkhanovich. The attitude of Musoxon Dahbidiy towards state governance....41
Bozorov Sukhrob Komilovich. The socio-philosophical essence of the process of spiritual transformation....47
Khoshimov Hakimjon Abduqaxxor ugli. The philosophical foundations of the education system in forming youth economic consciousness....54
Danabayev Khurshid Napasovich. Causes and philosophical analysis of the origin of the social phenomenon of poverty....73
Khojimetov Shahrukh Ruslanbekovich. Social-philosophical essence of the concepts of emigrant and immigrante....77
Ergashev Urolbek Berkinovich. The scientific significance of Akhmad Tashkuprizade's work "Ash-shakaiq an-nu'maniyya"....92
Vokhidova Dilshoda Vq. Spiritual and moral foundations of sufi thinking in the process of modern development and the formation of an enlightened society....104
Gofurova Sug'diyona Abdurashid q. Spiritual and educational foundations of training modern personnel in the conditions of new Uzbekistan....107
Ekubova Mavluda. Ontological, epistemological, and logical foundations of the communicative reality in a digitalized society....184
Akhatova Dildora Akhtamovna. Al-Kindi's heritage — its integration into greek philosophy and eastern peripateticism....189
Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich. The formation of spiritual perfection in western philosophy....239
Kamilov Abror Kuvandikovich. Dynamics of gender relations....317
Jurayeva Shakhlo Bakhtiyorovna. The importance of cybersport in the social integration of youth in Uzbekistan....349
Isroilova Shakhnoza Tolkinovna. Demonstration of the concept of justice in the context of legal relations....354
Abdullayeva Dilarom Nigmatullayevna. The role of socialism in women's self-conception....357
Khodjaev Davron Nuriddinovich. Features of the Manifestation of Humanistic Philosophy in the Medieval Eastern Renaissance....368
Kuchkarova Gulnoz Raxmonovna. The role of Bukhara in the development of modern pilgrimage tourism....373
Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna. The formation of ethical values and trust in online communication....395
Shadiyev Bekhzod Mirsalimovich. Social-philosophical essence, forming factors and development directions of youth legal culture....402
Bozorova Gulmira Mahmudovna. Muhammad Sharif Jurjani's life, scientific activities and contribution to human spiritual performance....422
Atamuradov Sherzod Rahmatullayevich. Manifestation of communicative strategy and speech tactics in inclusive communication....445
Yusupova Dildora D., Otamatov Muzaffar A.. Characteristics of the stages of desecular (secular) processes in Uzbekistan and Tajikistan....450
Rakhimov Mutallib Amirqulovich. Reading culture as a means of free thinking and creative cognition....460
Soatov Rasul Mukhitdinovich. The role of Boborahim Mashrab's heritage in the spiritual life of the peoples of east Turkestan....468
Khamzaev Shavkat A. The philosophical interpretation of human essence and the meaning of life in the teachings of Khoja Ahmad Yasawi....472
Ochilov Bakhtiyor Shuhrat o'g'li. Social-philosophical and political analysis of the "Muqaddima"....476
Mahkamov Qodirjon. Historical consciousness in the information society....497
Sodirjonov Muhriddin Mahamadaminovich. The theoretical evolution of the concept of human capital and its modern social interpretation....500
Ulfatillayeva Sayyora Sobirjon qizi. Scholars' attitude towards "Sahih al-Bukhari"....506
Jumayeva Shakhlo Suyunovna. Social and spiritual environment and its influence on upbringing and education....510
Abdullayeva Iroda. Philosophical aspects of the study of the interrelationship between national development, economy and innovative thoug....518
Bozorov Iqboljon Yakubjonovich Philosophy of interpersonal relationships in football teams: social dynamics between coach-football playef....521
Baratova Madina Khasanovna. Theoretical analysis of scientific approaches to achieving population welfare through poverty reduction....535
Muradov Sanjar Aslonovich. Ahmad Sirhindiy's views on intellect....539
Shodiev Jahongir Jo'rakulovich. The place and significance of eastern philosophical experience in human degree and its spiritual development in NewUzbekistan542
Bozorova Ruzigul Sharofovna. Socio-philosophical basis and strategic factors of enhancing women's intellectual powers in new Uzbekistan....545

10.00.00 - "PHILOLOGY"

Karimova Mahlio Ataboyevna.Metaphorical expression in modern uzbek media and its cognitive-pragmatic analysis.....34
Juraboyeva Saboxon Anvarkhanovna. Sufi interpretations of Atoiy's Ghazals.....44
Yarkulova Fotima. Foreign language borrowings in the russian language: the problem of norm and usage.....51
Seytniyazova Guljahan Mirzagalievna. Translation and cultural identity.....58
Khasan Shuhratovich Gafforov. Pragmalinguistic features and interpretation of speech stereotypes in conflict situations.....61
Sanaqulova Fayoza. The phenomenon of metaphor in advertising texts.....81
Karimova Nafisa. Theoretical analysis of the reasons for writing a literary work.....106
Saparmatov Omar Shamurat ogli. Features of the use of adjectives in Nesibeli Baltaniyazova's novel "In the search for a happy day".....113
Norqabilova Nigora Uralovna. Words of praise and curse as paremiological units.....120
Mamirova Khayriniso Komiljon qizi. An experimental study on the acquisition of metonymic units.....150
Guzal Yuldashovna Rakhimova. Analysis of the use of reduplicatives in word groups in uzbek and English.....166
Yusupova Kamola Kobiljon kizi. Linguistic features of advertising discourse.....170
Olimboyeva Komila Umarbek qizi. The adjectives and their semantic groups in the khonka dialect.....174
Djumaniyazova Luiza Sultonboyevna. Ethnolinguistic analysis of language and culture (based on the material of uzbek and english languages)..177
Helal Abdul Razek Sadiq. The role of semantic theories in meeting the needs of second language learners: arabic as a model.....201
Ruzieva Nilufar Kamtarovna. Rejection strategies in eastern literature: in the analysis of Chulpan's "Kecha va kunduz".....205
Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna. The psychological and artistic analysis of the phenomenon of self-understanding in english and uzbek postmodernism (based on the works of J. Faulz and O. Hoshimov).....209
Sobirjonova Mukhlisa Sobirjonovna. Linguopragmatic features of the concept "Solitude" (based on uzbek and english literary texts).....212
Dilshod Bobojonov Jumakul ogli. The communicative function of connotative units in advertising texts.....215
Rashidova Feruza Rasulovna. The depiction of internal monologue as a form of artistic psychologism in the novels of the brontë sisters.....218
Jamila Azatovna Azatova. The tragedy between man and nature (A Case Study of Allanazar Abdiev's "Dog and Man, or The Trial of Hunger").....242
Karimov Ulugbek Nusratovich. The poetic representation of the hero's inner world in "Quicksilver".....246
Khakimova Sadoqat Dilshodbekovna. The conceptual analysis of idioms with color components in english and uzbek.....251
Rashidova Gulshoda. Semantic features of superstitions specific to the uzbek nation.....257
Babajanova Aziza Rustamovna. The Study of Boris Pasternak's and Abdulla Oripov's Lyric Poetry in Literary Criticism.....271
Usmanova Kamila Shukhrat kizi. Peculiarities of conveying russian reality of the 19th century in literary translation (based on the works of m. L.Mikhailov).....277
Choriyeva Dilafruz. Humor and irony in translation: a pragmatic analysis of english newspapers.....280
Hamzayeva Zebo Murodjon qizi. The genesis and development of the epistolary nove.....284
Khudoyberdieva Oyjamol Muzaffarovna. Linguocultural foundations for translating head and facial movements in uzbek dance into English.....287
Abdullayeva Gulandom Anvarovna. Linguistic and cultural study of plant names in the turkish and uzbek languages.....294
Masharipova Farida Zokirovna. Linguopoethic possibilities of repetition in the prose works of Erkin Samandar.....297
Sharasulova Shirin. On the study of the characteristics of enantiosemic metaphors in the uzbek language.....301
Akhmedov Rafael Sharifovich. The dynamics of human-robot interaction in Isaac Asimov's "The caves of steel".....304
Siddikova Osiyo Normurod qizi. Scientific and theoretical interpretations of comedy and comicness: in the example of uzbek literature.....308
Dovletov Shukurulla Atanazarovich. Development of a functional typology of joke translatability in a linguo-cultural aspect.....312
Soqiyeva Shirin Shokirovna. The worldview, the cognitive worldview, the linguistic worldview, and the concept.....322
Panayeva O'g'iljon Bobojonovna. Innovative methodological approaches to teaching modern uzbek poetry.....325
Aliqulova Dildora. Sunatova Sitora. Jeyn Ostenning "Mag'rur va xurofot" asarida xarakter nutqining lingvistik va stilistik xususiyatlari.....336
Yuldasheva Laylo Ulugbekovna. The image of the east in the 19th-century russian literature and its reflection in uzbek literature.....340
Shodmonova Sayyora. Semantic Reinterpretation of Historical Measurement Units: From "Boburnoma" to the English Translations of the "Babur-nama".....344
Khalikova Elyanora Sergeevna. Space as an element of artistic originality in I. Solovyov's novel "The tale of Hodja Nasreddin".....360
Nazarova Namuna Abdumajitovna. The role of the art of allegory in the poetry of Sirojiddin Sayyid.....376
Rakhmanova Albina Khodjaevna. From exoticism to dialogue: the transformation of the Qur'anic narrative in 19th-century russian poetry.....380
Matkarimova Nargiz Mukhamataminovna. On the expression of rhetorical interrogative sentences in modern chinese through adverbs.....406
Mukhammeddin Bawetdinov. Commonalities in the philosophical style of Abdulla Oripov and Ulmambet Khozhanazarov.....419
Allambergenova Patima. Historical and artistic significance of folk songs.....429
Razakova Kumush Sadriddinovna. Lexical analysis of cultural terms in english language.....443
Saparova Dilafruz Mukhiddin qizi. A comparative analysis of Mark Twain's "The adventures of Tom Sawyer" and g'Afur G'Ulom's "Shum bola"..479
Sobirova Nazira Ganijon kizi. The role and importance of uzbek spelling rules as linguistic support.....490
Zarnigor Sobirova Ganijon kizi. Punctuation restoration in uzbek text based on transformer models.....503
Babadjanov Farkhad. Cognitive demands of documentation.....548
Madrimova Zamira Ghaniy qizi. Linguistic and social foundations of food pragmatonyms.....555
Djabbarbergenova Miyirxon. «Life / O'mir» konseptining ingliz va qoraqalpoq tillarida leksik birliklar darajasida verballashtirilishi.....561
Parmonova Sevara. Interpretation of sufi terms about the activities of sufis: on the example of the tazkira "Nasoyim ul-muhabbat".....574

12.00.00. - "LEGAL SCIENCES"

Ruzimov Kudratbek Kurbonboyevich. International relations and the place and role of the Republic of Uzbekistan in it.....27
Akhatova Nilufar Sobirovna. Legal guarantees of minor employees' labour and mechanisms for their implementation.....462
Ismailov Bekjon S. The theoretical and legal foundations of integrating persons with disabilities into society through educational processes.....494

13.00.00. - "PEDAGOGY"

Shukirullaeva Sarbinaz Alliyar qizi. Methods of increasing students' positive attitude and motivation toward learning through reflection.....9
Urunova Sitora. The methodology of teaching english to future engineers with the help of artificial intelligence.....14
Ikromova Mubinakhon Nodirbekovna. The role of Behbudi in promoting the ideas of national awakening through science and press.....24
Matyoqubova Hilola Alisher qizi. Formation and development of the higher education system (1991–1995).....31
Rustemov Mukhamed Biysenbaevich. Mechanisms for assessing the impact of multimedia technologies on the quality of education.....64
Prenov Barliqbay Barakbaevich, Mambetkarimov Bayniyaz Meyrmanovich. Use of the optimal set of PTE components in a personal cloud educational environment.....68
Asanova Gulmira Bakhtibekovna. Creating a developmental environment for preschoolers using steam technology.....86
Rustemov Mukhamed Biysenbaevich. Nukus State Pedagogical Institute, independent applicant.....89
Nurmakhanov Kayrat Erpayizovich. Development of interactive e-learning resources to optimize the educational process in the context of digitalization.....126
Shadmanov Mirzamakhmud Alisherovich. Formation of professional competencies in modern education: theoretical and practical approaches.130
Mambetkarimov Bayniyaz Meyrmanovich. Improving the teaching of programming languages in higher education through artificial intelligence-based interactive methods.....134
Murzambetova Mexriban Begdullaevna. In ensuring continuity in mathematics education intellectual abilities of students the importance of shaping.....139
Dzhakhangirova Zukhra Tursunovna. A model for organizing teaching entrepreneurship in schools in accordance with education.....142
Israilova Dilkhumor Sherzod kizi. AI-Driven Professional Digital Competence in Pre-Service English Teachers: Readiness, Practices, and Pedagogical Challenges.....146
Nurmakhanov Kayrat Erpayizovich. Improving the methodological support for the implementation of electronic educational resources in pr.....158
Shadmanov Mirzamakhmud Alisherovich. Innovative model of interaction between basic and clinical disciplines in urology.....162
Shermanova Feruza Djumaboyevna. Pedagogical and technological integration in developing digital literacy in higher education.....254
Ollaberganova Saida Sherboy qizi. Effectiveness of using role plays on problem topics in geography lessons.....260
Jumanyazova Mukhabbat Khusinovna. Methodology for Developing the Speech Competence of Primary School Students in a Digital Learning Environment.....268
Jumaniyazova Makhira Rahimbergan qizi. The evolution of pedagogy in the 20th century: Sadriddin Aini's practical reform in education.....364
Akhmedov Yodgorbek Olimjonovich. Didactic support for organizing independent learning activities of internal affairs academic lyceum students using web platforms.....388
Eshdavlatov Farrukh Eshmamatovich. Professional guidance platforms based on artificial intelligence: opportunities and prospects.....392
Alikulova Mukhayyo Sherovna. Pedagogical basis of comprehensive preparation of students for family life.....409
Mokhinabonu Avezbekovna Kobulova. Scientific and theoretical foundations for using online adaptive educational systems in higher education institutions.....416
Iskandarov Nurbek Sharifboyevich. Modern methods of the many-year preparation process in judo wrestling.....433
Sobirova Laylo Khudaiberganovna. Method of developing flexibility and agility qualities of primary grade students.....436
Vaisov Azad Khasanovich. Issues of developing 21st century skills in school leaders (on the example of professional training processes).....440
Kayumov Vasiliy M. The role and specifics of language competencies in organizing extracurricular activities in the russian language.....455
Haytbaeva Sayyora Rakhimberganovna. Experience of organizing an integrated club in internal education based on the "STEAM edulab"model532
Kosbergenov Bakhram Makhsetbayevich. The importance of using advanced pedagogical methods in teaching "education" subject.....578

19.00.00. - "PSYCHOLOGY"

Muazzamxon Xamdamova Xabibullo qizi. The important conditions for developing students' learning motivations.....84
Kabulov Kasimboy Pirjonovich. Reasons for the development of internet addiction in a person and social-psychological basis for elimination.....525

The magazine was re-registered by the Press and Information Agency of the Republic of Uzbekistan on September 28, 2016 with the number 0843. According to the list approved by the decisions of the Board of Education of the Republic of Uzbekistan published on January 30, 2019, 07.00.00 – "History", 09.00.00 – "Philosophy", 10.00.00 – "Philology" according to; 2023 of the HAC Board According to the decision No. 345 of October 31, 12.00.00. – "Legal Sciences", 13.00.00. – "Pedagogy", 19.00.00. – "Psychology".

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 37.015.3:159.954:373.3

REFLEKSIYA ORQALI BOLADA O‘QISHGA IJOBIY MUNOSABAT VA MOTIVATSIYANI OSHIRISH USULLARI

Shukirullaeva Sarbinaz Alliyar qizi, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti doktoranti

METHODS OF INCREASING STUDENTS' POSITIVE ATTITUDE AND MOTIVATION TOWARD LEARNING THROUGH REFLECTION

Shukirullaeva Sarbinaz Alliyar qizi, PhD student of Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ ПОЛОЖИТЕЛЬНОГО ОТНОШЕНИЯ И МОТИВАЦИИ К ОБУЧЕНИЮ У ДЕТЕЙ ЧЕРЕЗ РЕФЛЕКСИЮ

Шукруллаева Сарбиназ Аллияр кызы, докторант Нуксусского государственного педагогического института имени Аджинияза

https://orcid.org/0009-0001-2859-9209
e-mail: sarbinazalliyarovna@gmail.com

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada refleksiya jarayonining o‘quvchilarda o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabat va ichki motivatsiyani shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Muallif refleksiyaning pedagogik mohiyatini, uning ta’lim jarayonidagi asosiy funksiyalarini (diagnostik, motivatsion, tuzatuvchi, rivojlantiruvchi) tahlil qilgan. Shuningdek, maqolada “Men bugun nimalarni bildim?”, “Yulduzli daqiqa”, “Reflektiv kundalik”, “Rangli refleksiya”, “Muvaffaqiyat zinapoyasi” kabi refleksiv metodlarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qishga ijobiy hissiy munosabatni shakllantirishdagi samarasi yoritilgan. Maqola zamonaviy ta’lim amaliyotida o‘qituvchilarga metodik tavsiyalar beruvchi manba sifatida ahamiyatlidir.*

***Kalit so‘zlar**: refleksiya, motivatsiya, o‘quvchi shaxsi, mustaqil fikrlash, ta’lim jarayoni, refleksiv metodlar, pedagogik yondashuv.*

***Abstract**: This article highlights the importance of reflection in developing students' positive attitude and intrinsic motivation toward learning. The author analyzes the pedagogical essence of reflection and its main functions (diagnostic, motivational, corrective, and developmental) in the educational process. The paper presents effective reflective methods such as "What did I learn today?", "Star moment", "Reflective diary", "Color reflection", and "Success ladder", which help primary school students build confidence and maintain a positive emotional attitude toward learning. The article provides valuable methodological recommendations for teachers in modern educational practice.*

***Keywords**: reflection, motivation, learner personality, independent thinking, learning process, reflective methods, pedagogical approach.*

***Аннотация**: В статье рассматривается значение рефлексии в формировании у учащихся положительного отношения к обучению и внутренней мотивации. Автор анализирует педагогическую сущность рефлексии, её функции (диагностическую, мотивационную, коррекционную и развивающую) в образовательном процессе. Особое внимание уделено рефлексивным методам, таким как «Что я узнал сегодня?», «Минутка успеха», «Рефлексивный дневник», «Цветная рефлексия», «Лестница успеха», способствующим развитию позитивных эмоций и уверенности у младших школьников. Материал может быть полезен педагогам для повышения эффективности образовательного процесса.*

***Ключевые слова**: рефлексия, мотивация, личность ученика, самостоятельное мышление, образовательный процесс, рефлексивные методы, педагогический подход.*

KIRISH. Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida ta'lim tizimi o'quvchining shaxsiy rivojlanishini ta'minlash, uni mustaqil fikrlashga, o'zini anglashga va hayotga tayyorlashga qaratilgan bo'lishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy ta'lim jarayonining markazida o'quvchi shaxsi turadi. Ta'limning samaradorligi esa o'quvchining o'qishga bo'lgan ichki ehtiyoji, ya'ni motivatsiyasi hamda o'rganishga ijobiy munosabati bilan bevosita bog'liqdir.

Motivatsiya o'quv faoliyatining harakatlantiruvchi kuchi sifatida o'quvchini faoliyatga jalb etadi, unga maqsadli yo'nalish beradi va muvaffaqiyatga erishish ishtiyoqini kuchaytiradi. Ammo o'quvchilarda bu motivatsiyani shakllantirish va uni barqaror saqlash oson jarayon emas. Aynan shu jarayonda refleksiya muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Refleksiya – bu shaxsning o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini, xatti-harakatlarini va faoliyatini tahlil qilish orqali o'z-o'zini anglash, baholash hamda o'z ustida ishlash jarayonidir. U o'quvchiga nafaqat "nima o'rganayotganini", balki "nima uchun" va "qanday o'rganayotganini" tushunish imkonini beradi. Shu orqali o'quvchi o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, o'z o'qish strategiyasini takomillashtiradi hamda o'zining o'rganishga bo'lgan mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun refleksiya jarayoni ularning o'qishga bo'lgan hissiy munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi, chunki bu davrda bola o'rganish jarayonini nafaqat aqliy, balki hissiy jihatdan ham his qiladi.

METOD. Refleksiyaning pedagogik mohiyati va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati juda katta. Refleksiya — bu shaxsning o'z fikrini, his-tuyg'ularini, xatti-harakatlarini va faoliyat natijalarini anglash hamda tahlil qilish orqali o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayonidir. Pedagogik nuqtayi nazardan refleksiya o'quvchi shaxsini o'z ta'lim jarayonining faol subyektiga aylantiradi. U o'qituvchi tomonidan beriladigan tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki o'rganish jarayonining faol ishtirokchisi, tahlilchisi va tashkilotchisi sifatida shakllanadi.

Refleksiya ta'lim jarayonida quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

-Motivatsion funksiyasi: o'z yutuqlarini ko'rib, o'ziga ishonch hosil qiladi va yanada yuqori natijaga erishishga intiladi;

-Tuzatuvchi funksiyasi: xatolarni tahlil qilib, ularni to'g'rilash yo'llarini topadi;

-Rivojlantiruvchi funksiyasi: mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va o'zini tahlil qilish malakasini shakllantiradi.

Refleksiya o'quvchiga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

-o'z o'qish jarayonini anglash va baholash, o'qishning mohiyatini tushunish;

-o'z yutuqlari va kamchiliklarini aniqlash, ularni tahlil qilish;

-muvaffaqiyatsizlik sabablarini o'z tahlili orqali topish va ularni yengish yo'lini aniqlash;

-o'z ustida ishlash rejasini tuzish, ya'ni shaxsiy rivojlanish yo'lini belgilash. Bu jarayon natijasida o'quvchi o'qishni faqat tashqi nazorat obyekti sifatida emas, balki o'z shaxsiy o'sish jarayoni sifatida qabul qila boshlaydi. Shuningdek, refleksiya o'qituvchi uchun ham muhim tahlil

TAMADDUN NURI

vositasi hisoblanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarning refleksiv fikrlarini tahlil qilib, darsning qaysi bosqichlari samarali, qaysilari esa qayta ko‘rib chiqilishi zarurligini aniqlaydi. Shu tariqa refleksiya ikki tomonlama jarayon bo‘lib, “o‘quvchi — o‘qituvchi” hamkorligi asosida ta’lim sifatini oshiradi. Demak, refleksiya ta’lim jarayonida nafaqat bilimni mustahkamlovchi, balki shaxsni rivojlantiruvchi kuchli pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

MUHOKAMA. Ta’lim jarayonida motivatsiya — o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan ichki ehtiyoji, qiziqishi va intilishidir. Agar o‘quvchida o‘qishga nisbatan ichki turtki (ichki motiv) kuchli bo‘lsa, u o‘rganish jarayonida faolroq, ijodkorroq va qat’iyatliroq bo‘ladi. Aksincha, motivatsiya sust bo‘lsa, o‘quvchi faqat tashqi rag‘bat (baho, mukofot, maqtov) uchun harakat qiladi, bu esa uzoq muddatli o‘rganishga turtki bo‘la olmaydi. Shu nuqtayi nazardan refleksiya o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini shakllantirish va mustahkamlashda muhim omil sifatida qaraladi. Chunki refleksiya jarayoni o‘quvchini o‘z o‘qish faoliyatining faol subyekti sifatida anglashga, o‘z yutuqlarini baholashga va o‘z o‘sish dinamikasini his etishga undaydi. Bu esa o‘z-o‘zidan o‘qishga bo‘lgan ichki ehtiyojni kuchaytiradi.

Refleksiya va motivatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlik quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

-O‘z-o‘zini anglash orqali ichki motivatsiya shakllanadi. Refleksiya o‘quvchiga “Men nimalarni bilaman?”, “Men nimani o‘rganmoqchiman?”, “Men bunga qanday erishdim?” kabi savollar orqali o‘z o‘qish jarayonini tahlil qilish imkonini beradi. Bola o‘z harakatlarining ma’nosini tushungan sari o‘qishga bo‘lgan ichki qiziqishi ortadi.

-Refleksiya o‘qish jarayonida ijobiy hissiy muhit yaratadi. O‘quvchi o‘z yutuqlarini tahlil qilganda va o‘zida o‘sishni ko‘rganda, unda o‘ziga ishonch va o‘qishga nisbatan ijobiy emotsiyalar paydo bo‘ladi.

-Refleksiya muvaffaqiyatsizlikni ijobiy qabul qilishni o‘rgatadi. O‘quvchining xatosi yoki kamchiligi tahlil obyekti sifatida qaraladi, jazolash yoki tanqid sababi sifatida emas. Bola “xato – bu yangi narsani o‘rganish imkoniyati” ekanligini anglab, o‘qishdan qo‘rqmaydi. Shu orqali u doimiy o‘rganish va o‘zini takomillashtirishga intiladi.

-Refleksiya tashqi rag‘batdan ichki motivga o‘tishni ta’minlaydi. Dastlab o‘quvchi baho, maqtov yoki mukofot uchun o‘qishi mumkin. Ammo refleksiya jarayonida u o‘qishning shaxsiy foydasini anglay boshlaydi. Masalan, “Men o‘qish orqali yangi narsalarni bilaman”, “Bu menga foydali bo‘ladi”, degan fikrlar paydo bo‘ladi. Bu esa ichki motivatsiyani kuchaytiradi.

NATIJALAR. Refleksiya jarayonining motivatsion kuchi shundaki, u o‘quvchida “Men o‘qiy olaman, men o‘rganishga qodirman”, degan ichki ishonchni shakllantiradi. Bu ishonch esa o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabatning eng barqaror shakli hisoblanadi. O‘qituvchi o‘quvchining refleksiv fikrlarini tinglash orqali uning ichki holatini tushunadi, qiyinchiliklarini aniqlaydi va zarur yordamni ko‘rsatadi. Demak, refleksiya — bu nafaqat o‘qish jarayonini tahlil qilish vositasi, balki o‘quvchining ichki motivatsiyasini shakllantiruvchi, uni o‘z-o‘zini rivojlantirishga undovchi kuchli psixologik-pedagogik mexanizmdir.

Quyida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun samarali refleksiv usullar keltiriladi:

1. “Men bugun nimalarni bildim?” texnikasi. Bu eng sodda, ammo samarali refleksiya shaklidir. Dars yakunida o‘quvchilarga “Bugun siz nimalarni o‘rgandingiz?”, “Qaysi narsa sizga eng qiziqarli bo‘ldi?”, “Nima siz uchun qiyin bo‘ldi?” kabi savollar beriladi. Bu usul o‘quvchilarning o‘qish jarayonini anglashiga, o‘z bilimini tahlil qilishiga va darsdan ijobiy his bilan chiqishiga yordam beradi. Shu bilan birga, bola o‘z o‘rganish faoliyatining subyekti ekanini his qiladi.

2. “Yulduzli daqiqa” usuli. Bu usul o‘quvchining kichik yutuqlarini qadrlashga qaratilgan. Har bir o‘quvchining darsdagi faol ishtiroki yoki ijobiy o‘zgarishi e’tirof etiladi. O‘qituvchi yoki sinfdoshlar tomonidan berilgan “yulduz”, “tabassum”, “olqish” kabi ijobiy belgilar bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini

TAMADDUN NURI

mustahkamlaydi. Bu — ichki motivatsiyani kuchaytiruvchi psixologik rag‘batdir.

3. “Reflektiv kundalik” yuritish. Bu usul o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tahlil qilish madaniyatini shakllantiradi. O‘quvchilar darsdan keyin qisqa yozuvlar shaklida quyidagi savollarga javob yozadilar: “Bugungi dars menga nimani o‘rgatdi?” “Men nimani yaxshi bajardim?” “Nimani yaxshilashim kerak?” “Darsda menga eng yoqqan narsa nima bo‘ldi?” Kundalik o‘quvchining individual rivojlanish jarayonini kuzatish imkonini beradi. Shu bilan birga, o‘quvchi o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etishga, o‘z o‘qish natijalariga ongli munosabat bildirishga o‘rganadi.

4. “Men uchun eng muhim narsa...” texnikasi. Bu refleksiv mashq dars yakunida o‘tkaziladi. O‘quvchilardan “Bugungi darsdan siz uchun eng foydali yoki muhim bo‘lgan narsa nima?” degan savol so‘raladi. Bu usul bolani o‘rganilgan mavzudan shaxsiy ma’no topishga o‘rgatadi. Shu tariqa o‘quvchi o‘z o‘qish faoliyatining foydasini tushunadi va o‘qishga nisbatan ongli, ijobiy munosabat shakllanadi.

5. “Baholamay, tahlil qil” yondashuvi. Bu usulda o‘qituvchi o‘quvchini “yaxshi” yoki “yomon” deb baholamaydi. Aksincha, bolaning ishi tahlil qilinadi: “Bu joyni juda yaxshi bajargansan”, “Bu qismda biroz o‘zgartirish kiritish mumkin”, “Keyingi safar boshqacha usul sinab ko‘r-chi?” Bunday konstruktiv fikr-mulohaza o‘quvchining o‘zini qadrlash hissini saqlab qoladi, unda o‘qishga nisbatan ijobiy hissiyot uyg‘otadi va qo‘rquv yoki bosimni kamaytiradi.

6. “Muvaffaqiyat zinapoyasi” metodi. O‘quvchilar o‘z faoliyatlarini baholash uchun “zinapoya” shaklidagi jadvaldan foydalanadilar. Har bir pog‘ona muvaffaqiyat darajasini bildiradi. Bola o‘zini qaysi bosqichda deb hisoblashini belgilaydi. Shu orqali u o‘z rivojlanish darajasini ko‘radi, o‘z oldiga yangi maqsadlar qo‘yadi. Bu kabi refleksiv usullar nafaqat bilimlarni mustahkamlashga, balki o‘quvchining ichki dunyosiga ta’sir etib, o‘qishga nisbatan ijobiy psixologik muhit yaratadi. O‘quvchi o‘zining har bir kichik muvaffaqiyatini his etadi, bu esa “Men o‘rganishga qodirman” degan ichki ishonchni shakllantiradi. Refleksiv ta’lim jarayonining muvaffaqiyati, avvalo, o‘qituvchining kasbiy mahorati, shaxsiy yondashuvi va pedagogik madaniyatiga bog‘liq. Chunki o‘qituvchi ta’lim jarayonining tashkiliy markazi, o‘quvchi esa uning faol hamkori hisoblanadi.

Refleksiv muhit — bu o‘quvchi o‘z fikrini erkin ifoda eta oladigan, o‘zini qadrlangan, tushunilgan va himoyalangan his qiladigan psixologik xavfsiz ta’lim muhitidir. Bunday muhitni yaratish o‘qituvchidan yuqori darajada pedagogik mahorat, empatiya va kommunikativ madaniyatni talab qiladi.

O‘qituvchi refleksiv muhitni yaratishda quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilishi lozim:

1. Ishtirokchilik va hamkorlik tamoyili. Refleksiya jarayonida har bir o‘quvchi faol ishtirok etishi kerak. O‘qituvchi darsni shunday tashkil etadiki, unda o‘quvchi o‘z fikrini erkin aytadi, tajriba almashadi va boshqalarni tinglaydi. Bu esa ularning ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

2. Individual yondashuv tamoyili. Har bir bola o‘zining o‘qish sur’ati, qiziqishlari va ehtiyojlariga ega. O‘qituvchi refleksiya jarayonida bu farqlarni inobatga olgan holda har bir o‘quvchi bilan individual muloqot olib boradi. Masalan, ba’zi bolalar og‘zaki ifoda qilishni, boshqalari esa yozma refleksiyani afzal ko‘radi. Shuning uchun refleksiya shakllari turlicha — suhbat, savol-javob, yozma tahlil, chizmachalik yoki rangli belgilar orqali tashkil etilishi mumkin.

3. Ijobiy psixologik muhit tamoyili. Refleksiya samarali kechishi uchun sinfda ochiqlik, ishonch va o‘zaro hurmat muhitini yaratish zarur. O‘qituvchi o‘quvchilar fikrini baholamasdan, balki ularni diqqat bilan tinglaydi. Bola o‘z fikrini erkin ayta olganida, u o‘zini qadrlangan his qiladi. Bu esa refleksiya jarayonining tabiiy kechishini ta’minlaydi.

4. Refleksiv savollar va muhokama. O‘qituvchi dars jarayonida refleksiv fikrlashni faollashtiruvchi savollardan foydalanishi lozim. Masalan:

TAMADDUN NURI

“Bugun darsda sizni eng ko‘p hayratlantirgan narsa nima bo‘ldi?”

“Qaysi topshiriqni bajarish siz uchun eng oson yoki qiyin bo‘ldi?”

“Agar bugungi darsni qayta o‘tkazish imkoningiz bo‘lsa, nimani o‘zgartirgan bo‘lardingiz?” Bunday savollar o‘quvchini chuqur fikrlashga, o‘z his-tuyg‘ularini anglashga va o‘z faoliyatini baholashga o‘rgatadi.

XULOSA qilib aytganda refleksiya zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, u o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan munosabatini, ichki motivatsiyasini va shaxsiy o‘sishini ta’minlaydigan muhim pedagogik mexanizmdir. Refleksiya yordamida o‘quvchi o‘z faoliyatini anglaydi, o‘z yutuqlari va kamchiliklarini tahlil qiladi, xatolarini to‘g‘rilash yo‘lini topadi hamda o‘z o‘rganish strategiyasini ongli ravishda shakllantiradi.

Shunday qilib, refleksiya — bu ta’limning faqat natijaviy emas, shaxsga yo‘naltirilgan, rivojlantiruvchi va motivatsion asosidir. U o‘quvchini o‘z o‘rganish jarayonining egasiga aylantiradi, o‘qituvchini esa o‘quvchi shaxsini chuqur tushunadigan, unga yo‘l ko‘rsatuvchi hamkor sifatida belgilaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3775-son qarori (2018-yil 6-iyun). O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.

2.Abduqodirova B. (2020). Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta’lim metodlari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

3.G‘oziev, E. (2019). Psixologiya asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

4.Xodjieva, N. (2021). Zamonaviy ta’limda refleksiya jarayonining ahamiyati. Ta’lim va innovatsiyalar ilmiy jurnali, №3, 45–52-betlar.

5.Karimova, Z. (2022). Motivatsiya va o‘quv faoliyati: nazariya va amaliyot. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.

6.Yusupova, M. (2020). Refleksiv yondashuv orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish. Pedagogik izlanishlar jurnali, №2, 60–67-betlar.

7.Hasanboeva, O., Jabborova, M. (2023). Refleksiya orqali o‘quvchilarda o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘llari. Pedagogik mahurat jurnali, №1, 30–37-betlar.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 37.011.3

BO‘LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA INGLIZ TILINI SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA O‘QITISH METODIKASI

Urunova Sitora, Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

THE METHODOLOGY OF TEACHING ENGLISH TO FUTURE ENGINEERS WITH THE HELP OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Urunova Sitora, PhD Student, Bukhara State Technical University

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА БУДУЩИМ ИНЖЕНЕРАМ С ПОМОЩЬЮ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Урунова Ситора, базовый докторант Бухарского государственного технического университета

https://orcid.org/0009-0006-5348-0054
e-mail: sitora_16031987@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kelajak muhandislarini tayyorlash jarayonida ingliz tilini o‘rgatishda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini qo‘llash metodikalari tahlil qilinadi. Maqolada SI yordamida individual o‘quv dasturlarini yaratish, grammatika va talaffuzni avtomatik tekshirish, talabaning bilim darajasiga moslashtirilgan mashg‘ulotlarni tashkil etish, interaktiv laboratoriyalar va loyihalar asosida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Shuningdek, maqolada blended learning, adaptive learning va gamifikatsiya kabi zamonaviy pedagogik yondashuvlarning afzalliklari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, SI texnologiyalari muhandislar uchun ingliz tilini o‘rgatishda o‘quv jarayonini individualizatsiyalash, motivatsiyani oshirish va kommunikativ hamda texnik kompetensiyalarni bir vaqtning o‘zida rivojlantirish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *muhandislik ta’limi, Ingliz tili, sun’iy intellekt, adaptive learning, blended learning, interaktiv o‘quv metodikasi, raqamlashtirish, interaktiv o‘qitish, onlayn ta’lim platformalari.*

Abstract: *This article analyzes the methods of using artificial intelligence (AI) technologies in teaching English in the process of training future engineers. The article discusses the possibilities of creating individual curricula using AI, automatically checking grammar and pronunciation, organizing classes adapted to the student’s level of knowledge, and developing practical skills based on interactive laboratories and projects. The article also considers the advantages of modern pedagogical approaches such as blended learning, adaptive learning, and gamification. The results of the study show that AI technologies allow for individualization of the learning process for engineers in teaching English, increasing motivation, and simultaneously developing communicative and technical competencies.*

Keywords: *engineering education, English, artificial intelligence, adaptive learning, blended learning, interactive learning methodology, digitalization, interactive teaching, online learning platforms.*

Аннотация: *В статье анализируются методы применения технологий искусственного интеллекта (ИИ) в обучении английскому языку будущих инженеров. В статье рассматриваются возможности создания индивидуальных учебных программ с использованием ИИ, автоматической проверки грамматики и произношения, организации занятий, адаптированных к уровню знаний студентов, и развития практических навыков на основе интерактивных лабораторий и проектов. Также рассматриваются преимущества современных педагогических подходов, таких как смешанное обучение, адаптивное обучение и геймификация. Результаты исследования показывают, что технологии ИИ позволяют индивидуализировать процесс обучения инженеров английскому языку, повысить мотивацию и одновременно развивать коммуникативные и технические компетенции.*

Ключевые слова: *инженерное образование, английский язык, искусственный интеллект, адаптивное обучение, смешанное обучение, интерактивная методика обучения, цифровизация, интерактивное обучение, платформы онлайн-обучения.*

Kirish. Bugungi kunda muhandislik ta'limi nafaqat texnik bilimlarni, balki zamonaviy kommunikatsiya ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi. Xususan, ingliz tili muhandislar uchun xalqaro ilmiy va texnologik ma'lumotlarga erkin kirish imkonini beruvchi asosiy vositalardan biridir. Shu bois, ingliz tilini samarali o'rgatish metodikalari dolzarb muammo sifatida qaraladi. So'nggi yillarda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari bu jarayonda katta yordamchi sifatida paydo bo'ldi.

Adabiyot tahlili. Kelajak muhandislarini tayyorlashda ingliz tilini o'rgatish masalasi zamonaviy ta'lim ilmida keng o'rganilgan. An'anaviy metodikalar asosan grammatika va lug'atni mustahkamlashga qaratilgan bo'lsa, so'nggi yillarda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari ushbu jarayonni individualizatsiyalash va interaktivlashtirish imkonini beradi. Johnson va hamkasblari (2020) SI yordamida o'quvchilarning talaffuzini avtomatik tekshirish va shaxsiy mashg'ulotlar tuzish tajribalarini tahlil qilganlar. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, talabalarning nutq ko'nikmalari an'anaviy metodlarga nisbatan tezroq rivojlanadi.

Shuningdek, Lee va Park (2021) blended learning va adaptive learning texnologiyalarini muhandislik ta'limida qo'llash orqali ingliz tilini o'rgatish samaradorligini o'rganishgan. Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, aralash ta'lim tizimi talabalarning motivatsiyasini oshiradi va o'quv jarayonini yanada interaktiv qiladi.

Bundan tashqari, Sun va hamkasblari (2022) SI asosidagi virtual laboratoriyalar va loyihalar yordamida talabalarning texnik va kommunikativ ko'nikmalarini bir vaqtning o'zida rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganishgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, real vaziyatlarni ingliz tilida simulyatsiya qilish talabalarning mustaqil ishlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Yuqoridagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, SI texnologiyalari muhandislik ta'limida ingliz tilini samarali o'rgatish uchun nafaqat yordamchi vosita, balki ta'lim jarayonini transformatsiya qiluvchi strategiya sifatida ham qo'llanilishi mumkin. Shu bilan birga, metodik adaptatsiya va individual yondashuv asosida o'quv jarayonini yanada optimallashtirish imkoniyati mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning maqsadi kelajak muhandislarini tayyorlash jarayonida ingliz tilini o'rgatishda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini qo'llash metodikasini aniqlash va samaradorligini baholashdir.

Tadqiqot amaliy va eksperimental xarakterga ega bo'lib, muhandislik yo'nalishidagi talabalarning ingliz tilini o'rganish samaradorligini oshirishga qaratilgan. Sun'iy intellekt asosida ishlovchi dasturlar o'quvchining individual xususiyatlarini aniqlash, bilim darajasini baholash va shaxsiylashtirilgan mashg'ulotlar tuzish imkonini beradi. Kelajakda SI texnologiyalari yanada takomillashib, o'quv jarayoni real vaqt rejimida kuzatuv va tavsiyalar bilan boyitiladi. Shu bilan birga, talabalarning kommunikativ va texnik kompetensiyalari bir vaqtning o'zida rivojlantiriladi. Muhandislik ta'limida ingliz tilini o'rgatishda sun'iy intellektning joriy etilishi ta'lim sifatini oshirish, individual yondashuvni kuchaytirish va talabalarni xalqaro miqyosda raqobatbardosh qilish imkonini beradi. Shu bois, kelajak muhandislari uchun ingliz tilini SI

TAMADDUN NURI

yordamida o‘rgatish metodikasi nafaqat qulay, balki zaruriy vosita sifatida qaralmoqda.

Jadval 1. Sun’iy intellekt yordamida ingliz tilini o‘rgatish metodlarining samaradorligi

Metod/Ko‘rsatkich	Talabalar motivatsiyasi (%)	Grammatik xatolar kamayishi (%)	Talaffuzni yaxshilash (%)	Amaliy ko‘nikmalar rivojlanishi (%)
An’anaviy metodika	65	30	25	40
SI yordamida individual mashg‘ulotlar	85	55	60	70
Blended learning + SI	90	60	65	75
Gamifikatsiya + SI	92	58	68	78

Ushbu jadvalda kelajak muhandislarini tayyorlash jarayonida ingliz tilini o‘rgatishda turli metodlarning samaradorligi taqqoslangan. Ma’lumotlar talabalarning motivatsiyasi, grammatika va talaffuz ko‘nikmalari hamda amaliy kompetensiyalarning rivojlanishi bo‘yicha baholangan. Ko‘rinib turibdiki, sun’iy intellekt texnologiyalari qo‘llanilgan metodlar an’anaviy metodikaga nisbatan sezilarli darajada samarali. Xususan, blended learning va gamifikatsiya elementlari bilan birlashtirilgan SI metodlari talabalarning amaliy ko‘nikmalarini va motivatsiyasini eng yuqori darajada oshiradi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Ushbu tadqiqotda kelajak muhandislarini tayyorlash jarayonida ingliz tilini o‘rgatishda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini qo‘llashning samaradorligi o‘rganildi. Eksperimental guruh SI yordamida individual mashg‘ulotlar, blended learning va gamifikatsiya metodikalari bilan ta’lim oldi, nazorat guruhi esa an’anaviy metodikaga amal qildi.

Eksperimental guruh talabalari motivatsiya bo‘yicha sezilarli o‘sish ko‘rsatdi. SI asosidagi individual mashg‘ulotlar bilan ishlagan guruhda motivatsiya darajasi 85–92% atrofida bo‘lib, nazorat guruhidagi 65% ga nisbatan ancha yuqori bo‘ldi. Bu natija shuni ko‘rsatadiki, interaktiv va individual yondashuvlar talabalarning o‘quv jarayoniga qiziqishini oshiradi. Eksperimental guruhdagi talabalarda grammatik xatolar 55–60% ga kamaydi, talaffuz esa 60–68% yaxshilandi. Nazorat guruhida esa grammatik xatolar faqat 30% ga kamaydi, talaffuz 25% yaxshilandi. Shu orqali SI texnologiyalari grammatika va talaffuzni tezroq o‘rganishda muhim vosita ekanligi aniqlanadi.

Interaktiv laboratoriyalar va loyihaviy mashg‘ulotlar yordamida eksperimental guruh talabalari amaliy ko‘nikmalarini 70–78% darajada oshirdi. Bu, talabalarning texnik va kommunikativ kompetensiyalarini bir vaqtning o‘zida rivojlantirishga yordam beradi. An’anaviy metodikada bu ko‘rsatkich 40% ni tashkil etdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki:

- SI texnologiyalari yordamida o‘quv jarayoni individualizatsiyalanadi, bu esa talabaning ehtiyojlariga mos mashg‘ulotlarni tashkil etishga imkon beradi;
- Blended learning va gamifikatsiya elementlari motivatsiyani oshiradi va talabaning o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishini kuchaytiradi.
- SI yordamida o‘rganilgan metodlar talabalarning amaliy kompetensiyalarini tezroq rivojlantiradi, bu esa muhandislik ta’limining sifatini oshiradi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot kelajak muhandislarini tayyorlash jarayonida ingliz tilini o‘rgatishda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini qo‘llashning samaradorligini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki:

1. SI yordamida o‘quv jarayoni individualizatsiyalanadi, bu esa talabalarning ehtiyojlariga mos mashg‘ulotlarni tashkil etish imkonini beradi.
2. Blended learning va gamifikatsiya elementlari talabalarning

TAMADDUN NURI

motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi va ularni mustaqil o‘rganishga rag‘batlantiradi.

3. Talabalarning grammatika, talaffuz va amaliy kompetensiyalari SI texnologiyalari yordamida an’anaviy metodikaga nisbatan tezroq rivojlanadi.

Shu bilan birga, tadqiqot kelajakda sun’iy intellekt asosidagi o‘quv platformalarini kengroq qo‘llash va individual yondashuvni yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Johnson, P., Smith, L., & Brown, K. (2020). *AI-assisted language learning in engineering education*. Journal of Educational Technology, 15(3), 45–60.
2. Lee, H., & Park, J. (2021). *Blended and adaptive learning for technical English in engineering programs*. International Journal of Engineering Education, 37(2), 112–125.
3. Sun, Y., Zhang, M., & Li, Q. (2022). *Virtual laboratories and project-based learning for engineering students using AI*. Computers & Education, 189, 104544.
4. Mayer, R.E. (2019). *Multimedia learning and AI-based educational technologies*. Cambridge University Press.
5. Kim,S., & Lee,D. (2021). *Gamification and AI in language learning for STEM students*. Educational Research Review, 33, 100–115.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.010.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 1(091)

ABUL-MU'IN AN-NASAFIYNING HAYOTI, USTOZ VA SHOGIRDLARI

Madaminzoda Abdulatif Baxtiyor o'g'li, Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

ABUL-MUIN AN-NASAFI'S LIFE, TEACHERS AND DISCIPLES

Madaminzoda Abdulatif Bakhtiyor ogli, PhD Candidate, Bukhara State University

ЖИЗНЬ, УЧИТЕЛЯ И УЧЕНИКИ АБУЛ-МУИНА АН-НАСАФИ

Мадаминзода Абдуллатиф Бахтиёр оглы, базовый докторант Бухарского государственного университета

https://orcid.org/0009-0001-9053-6890
e-mail: madaminzodaabdulatif@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola mashhur islom olimi, Moturidiy aqidaviy maktabining yirik namoyandasi Abul-Mu'in an-Nasafiyning hayoti, ilmiy faoliyati, ustozlari va yetishtirgan shogirdlari haqida batafsil ma'lumot beradi. Muallif tarixiy va biografik manbalarni tahlil qilib, Abul-Mu'in an-Nasafiyning to'liq ismi, tug'ilgan va yashagan joylari, ilmiy unvonlari, ta'lim olgan va ta'lim bergan shaxslar, ilmiy merosi va uning Moturidiylik maktabidagi o'rni haqida keng qamrovli ma'lumotlarni bayon qiladi.*

Kalit so'zlar: *Abul-Mu'in an-Nasafiy, moturidiylik, Kalom ilmi, aqida, islomiy ilm-fan, Nasaf, Abu Mansur al-Moturidiy, shogirdlar, ustozlar, ilmiy meros, Tabsira al-Adilla, At-Tamhid, islom tarixiy shaxslari.*

Annotation: *This article provides a detailed account of the life, scholarly activity, teachers, and students of the prominent Islamic scholar and leading representative of the Maturidi theological school - Abul-Mu'in an-Nasafi. Drawing on historical and biographical sources, the author analyzes the scholar's full name, places of birth and residence, academic titles, and the individuals from whom he studied and to whom he taught.*

Keywords: *Abul-Mu'in an-Nasafi, maturidism, ilm al-Kalam (theology), aqeedah (creed), islamic scholarship, Nasaf, Abu Mansur al-Maturidi, disciples, teachers, scholarly heritage.*

Аннотация: *В данной стате представлена подробная информация о жизни, научной деятельности, учителях и учениках выдающегося исламского ученого, крупного представителя матуридийской догматической школы – Абу-л-Муъина ан-Насафи.*

Ключевые слова: *Абу-ль-Муин ан-Насафи, матуридизм, наука Калама, акыда (догматика), исламская наука, Насаф, Абу Мансур аль-Матуриди, ученики, учителя, научное наследие.*

KIRISH. Abul-Mu'in an-Nasafiy Imom Abu Mansur al-Moturidiy bilan birga Moturidiy aqidaviy-ilohiy maktabining ikki muhim arbobidan biri hisoblanadi. Garchi Moturidiy mazhabi vakili bo'lsa-da, uning hayoti haqida tabaqot (shaxsiy biografiya), millat-mazhablar tarixi va umumiy tarix kitoblarida bir-biriga o'xshash, qisqacha ma'lumotlardan ortiqroq ma'lumotlar uchramaydi. Ma'lumotlarning yetishmasligi yoki ba'zan qarama-qarshi fikrlar mavjudligi tufayli Abul-Mu'in an-Nasafiyning to'liq ismi turlicha keltirilgan. Lekin biz tarjimai hol kitoblarida berilgan ismlarni afzal bildik. U kishining to'liq ismi Abul-Mu'in Maymun Muhammad ibn Muhammad ibn Mu'tamid ibn Muhammad ibn Makhul Ibn al-Fazl al-Makhul an-Nasafiydir. Zirikliyning "A'lom" asarida Abul-Mu'in an-Nasafiyning ismi Abul-Mu'in Maymun ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Ma'bad ibn Maxlul an-Nasafiy al-Hanafiy deb qayd etilgan. Jibullahiy Hasan Ahmad barcha biografik kitoblarni o'rganib chiqqach, Abul-Mu'in an-Nasafiyning to'liq ismi deb, biz yuqorida birinchi keltirgan ismga to'xtaldik.

Tadqiqot obyekti, manbaviy asosi. Abul-Mu'in "Nasafiy" nisbasi bilan mashhur bo'lgan. Bu

nisbat o‘sha davrdagi Samarqand va Jayhun daryosi oralig‘idagi Nasaf shahriga berilgan. Bu shahardan ko‘plab yetuk olimlar yetishib chiqqan va ular ham shu laqab bilan atalgan. Boshqacha aytganda, bu shahar olimlarga boy bo‘lgani sababli ko‘plab ulug‘larga bu nisbat berilganini uchratamiz. Yana bir laqabi Makhuliy bo‘lib, bu laqab uning uchinchi bobosiga nisbat berilgan. Bundan tashqari, Abul-Mu’in Nasafiy “Imamul-Ajal az-Zohid”, “Sayful Haq”, “Qomi’ul Mulahhidin”, “A’zd-Din”, “Jomi’ul-Usul”, “Raisu Ahlus-Sunna val-Jamoat” kabi unvonlarga ham ega bo‘lgan. Olimlar uni eng muhim asari bo‘lmish “at-Tabsyira”ga nisbat berib, Sohibul-Tabsyira deb ham atashgan. Tug‘ilgan sanasiga kelsak, bu borada ham manbalarda turli xil ma’lumotlar bor. Abul-Mu’in an-Nasafiyning tug‘ilgan yili haqida faqat Zirikliy uning hijriy 418-yilda tavallud topganini zikr etadi. Qutlubog‘a esa, Abul-Mu’in an-Nasafiy 70 yoshda, hijriy 508-yilda vafot etganini qayd qiladi. Qutlubog‘aning hisob-kitobiga ko‘ra, an-Nasafiy hijriy 438-yilda tug‘ilgan. Aksariyat tarixchilar an-Nasafiyning milodiy 1027-yilda dunyoga kelgan degan fikrda.

Ustozlari: Abul-Mu’in an-Nasafiyning tug‘ilgan joyi haqida ham ixtiloflar bor. Lekin u Samarqand va Jayhun daryosi o‘rtasidagi Nasaf shahrida tug‘ilgani qabul qilinadi. An-Nasafiy ushbu shaharga nisbat berilganidan uning shu yerda tug‘ilgani ma’lum bo‘ladi. “Moturidiyya Ta’limoti va Abul-Mu’in an-Nasafiyning Ilmiy Merosi” kitobida Sam’aniy Abul-Mu’in an-Nasafiy ismida kelgan “al-Ibsaniy” iborasidan kelib chiqib, boshqacha fikr bildiradi. Ibsan hozirgi O‘zbekistondagi Qarshi shahridan taxminan besh-olti kilometr uzoqlikda joylashgan bir qishloqdir. Shuning uchun Sam’aniy bu qishloqqa nisbat berilganligi sababli uning shu joyda tug‘ilganini aytadi. Uning oilasi haqida so‘z borganda, biografiya va tarixiy manbalarda Nasafiyning to‘rtinchi bobosi Maxul ibn Fadl an-Nasafiydan boshlab, bu oilaning faqat ilmiy faoliyati haqida rivoyatlar mavjud. Keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Abul-Mu’in an-Nasafiy hayoti davomida Nasaf, Samarqand va Buxoro shaharlarida yashagan. Buxoroda yashagan davrlarida Abu Mansur al-Moturidiyning ta’limotlarini keng omma orasiga yetkazish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Ba’zi manbalarda Nasafiy faqih va muhaddis sifatida ham qabul qilinadi. Shu bilan birga, Nasafiy haqidagi ishlari bilan tanilgan Yazijio‘g‘li esa, uning faqihlik maqomini inkor etadi va Nasafiyni Kalom ilmi olimi sifatida baholaydi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Abul-Mu’in Nasafiyning vafot sanasiga kelsak, manbalarda uning milodiy 1115 yoki 1114-yilda vafot etgani ko‘rsatilgan. Qabrining qayerdaligi haqida manbalarda ma’lumot yo‘q. Biroq, mahalliy xalq tomonidan bir ulug‘ zotning qabri ekanligi qabul qilinishidan kelib chiqib, ba’zi O‘zbekistonlik tadqiqotchilar Nasafiyning qabri O‘zbekistonning Qarshi viloyatidagi Kovchin nomli qishloqda joylashgan bo‘lishi mumkin, deb taxmin qilishadi. Ammo bu, bugungi kungacha shunchaki taxmindan nariga o‘ta olmagan. Chunki qabr toshi ustidagi yozuvning juda eski va o‘qib bo‘lmaydigan holga kelganligi sababli, ushbu qabrning Nasafiyga tegishli ekanligini tasdiqlash imkoni yo‘q. Abul-Mu’in an-Nasafiyning asarlari ustida ish olib borgan zamonaviy tadqiqotchilar uning shaxsiga alohida e’tibor berishadi. Said Muxtor Okilov, Umar Nasafiyning “Kitabul-Qant” asarida Abul-Mu’in an-Nasafiy haqida aytgan “U G‘arbning va Sharqning olimi edi. Uning dengizidan cho‘mich bilan ichilardi, odamlar uning nurlari bilan yoritilardi” kabi iboralarni alohida urg‘ulaydi.

Imom Abu Mansur al-Moturidiyning “Kitabut-Tavhid” asarini tadqiq qilgan Fatxulloh Xulayf: “Abul-Mu’in an-Nasafiyning Moturidiy mazhabining shakllanishida katta o‘rni bor. Boqillaniy va G‘azzoliyning Ash’ariy aqidaviy maktabidagi o‘rni qanday bo‘lsa, Nasafiyning Moturidiy aqidaviy maktabidagi o‘rni ham shundaydir”, - degan so‘zlari bilan Abul-Mu’in an-Nasafiy haqidagi fikrini bayon etadi. Nasafiyning “Tabsira al-Adilla” nomli asarini tadqiq qilgan Husayn Atay tahrirlangan matnga yozgan muqaddimasida “Shubhasiz, Abul-Mu’in an-Nasafiy Moturidiy mazhabining buyuk vakilidir. Undan oldin ham, keyin ham unga o‘xshaganini ko‘rmadik”, deb Nasafiy haqidagi fikrini bildiradi. Abul-Mu’in an-Nasafiy haqidagi fikrlarning umumiy jihati - uning Abu Mansur al-Moturidiydan keyin Moturidiylikning eng muhim targ‘ibotchisi ekanligidir.

Abul-Mu’in an-Nasafiyning ustozlari haqida aniq ma’lumotlar bo‘lmasa-da, “Kitobul-Olim val-Muta’allim” nomli asarda uning birinchi bo‘lib otasidan dars olgani rivoyat qilinadi. Nasafiyning otasi Muhammad ibn Muhammad Mu’tamid o‘z otasidan

hadis rivoyat qilgan. Bu holat Nasafiyning otasining ham ilm ahli bo‘lgani haqida fikr tug‘diradi. Bundan tashqari, Abu Mu’tamidning ukasi Abu Bad’iy Ahmad ibn Muhammad ham o‘z davrining fiqh olimlari orasida bo‘lgan. Abul-Mu’in an-Nasafiyning ikkinchi bobosi Mu’tamid ibn Muhammad ibn Makhul Abul-Ma’liy ham o‘z otasidan hadis rivoyat qilgan. Uchinchi bobosi Abu Mutiy Makhuldan ham ta’lim olgan bo‘lish ehtimoli bor. Bu zotga mashhur kalom ilmi olimi degan nisbat beriladi. Bu shaxs fiqhiy masalalarda Hanafiy mazhabiga mansub bo‘lgan. Ammo e’tiqodiy sohada esa Abu Mansur al-Moturidiyning emas, balki Ibn Karromning kalomiy qarashlarini qabul qilgan.

Shogirdlari: Abul-Mu’in Nasafiy (rahimahulloh) yetuk olim bo‘lishlari bilan birga ko‘p sonli shogirdlar ham yetishtirib chiqarganlar. Ulardan eng mashhurlarini keltirib o‘tamiz. Mutakallim, mufassir, muhaddis va hanafiy usuli olimi Najmuddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ismoil ibn Muhammad Nasafiy as-Samarqandiy. Hijriy 461-yilda Nasaf shahrida tug‘ilib, hijriy 537-yilda Samarqandda vafot etgan. U ta’limni Abul-Yusr al-Bazdaviy, qozi Mansur al-Joriy va Ibn Muhammad at-Tannuxiydan olgan. Uning ko‘plab shayxlari bor bo‘lib, ularni “Umar shayxlarining adadi” nomli kitobida to‘plagan. Bu zotdan o‘g‘li Abu Lays Ahmad ibn Umar Nasafiy, Abu Bakr Balxiy, “Hidoya” kitobining sohibi ta’lim olishgan va Umar ibn Muhammad ibn Umar u kishidan rivoyat qilgan.

Umar Nasafiyning “Mavoqit”, “Al-akmal al-atval fi tafsiril Qur’an”, “Tarixu Buxoro”, “Majmaul ulum”, “Axbarus sihoh” va “Talabatu talaba fi istilahil fiqhiyya” kabi asarlari mavjud. Keyingilari “Tuhfatul fuqaho” asarining sohibi, “Al-Badoi‘” kitobining muallifi Alouddin Kosoniyning ustozi Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Ahmad Abu Bakr Alouddin as-Samarqandiydir. Bu zot Abu Mu’in Nasafiy va Sodrul-islom Abul-Yusr al-Bazdaviy kabi ulamolar qo‘lida kamol topgan. Usul ilmiga oid “Lubob” nomli mashhur kitoblari bor. O‘zlarining qizlari, Alouddin Kosoniyning rafiqasi, fiqh ilmining olimasi Fotima ham o‘zlarining qo‘lida ta’lim olgan. Hijriy 575 (milodiy 1180)-yili vafot etganlar.

“Al-Badoi’ as-sanoyi’” asarining sohibi Abu Bakr ibn Masu’d ibn Ahmad Alouddin al-Kosoniy. Bu zot Farg‘ona vodiysiga qarashli Koson shahrida tug‘ilib, taxminan balog‘at yoshiga yetgach, ilm olish maqsadida Buxoroga boradi. Ilm markazi bo‘lgan Buxoroda ko‘plab ustozlardan, xususan, Alouddin Samarqandiydan dars olib, fiqh, hadis, aqida va tafsir ilmlarida yetuk olim bo‘lib yetishdi. U ham ustozi va ham qaynotasi bo‘lmish Alouddin Samarqandiyning “Tuhfa al-fuqaho” (“Faqihlar uchun tuhfa”) asarini sharhlab, “Badoi’ as-sanoyi’ fi tartib ash-sharoyi’” (“Shariatni tartiblashda go‘zal uslub”) asarini yozadi. Ustozi bundan mamnun bo‘lib, o‘z qizi Fotimani Kosoniyga turmushga beradi. Shu tariqa ikki alloma o‘zaro qarindosh bo‘ladilar.

XULOSA. Ibrohim ibn Is’hoq as-Saffor al-Buxoriyning faoliyati Moturidiylik ta’limotining Buxoro va undan tashqari hududlarda keng tarqalishiga katta hissa qo‘shgan. U Abul-Mu’in an-Nasafiyning shogirdi sifatida kalom ilmini chuqur o‘rganib, ustozining fikriy va ilmiy merosini davom ettirgan. As-Safforning “Risola fiho masoil suila anho ash-shayx as-Saffor fa ajaba anho” hamda “Kitob talxisi-l-adilla li qavoidi-t-tavhid” kabi asarlari Buxoro aholisi uchun kalom va tavhid masalalari bo‘yicha muhim ilmiy qo‘llanma sifatida xizmat qilgan. Bu asarlarning ayrim qo‘lyozmalari hanuzgacha Turkiyadagi kutubxonalarda saqlanayotgani uning ilmiy merosining xalqaro ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nasafiy Abu-l-Mu’in Maymun ibn Muhammad. Bahrul-kalom / Valiyuddin Muhammad Solih al-Farfur nashri. – Damashq: Maktaba dorul farfur, 1997.
2. Hayreddin Zirkli, (1998). A’lom Qomus Tarojim, VII, Beyrut.
3. Ubaydulla Uvatov, Saidmuhtar Okilov, Ergash Dominov, (2018). Moturidiya ta’limoti va Abul Mu’in Nasafiyning ilmiy merosi, Toshkent.
4. Otabek Muhammediyev. (2016). O‘rta asr sharq allomalari ensiklopediyası. Samarqand.
5. Saidmuhtar Okilov. (2008). Abul Mu’in Nasafning ilmi merosi ve Maturidiya ta’limotı, Toshkent.
6. Husayin Atay, Tabsiratul Adilla fi Usulud-Din, Ankara, 1993.
7. Рудольф У. Аль-Матуриди и суннитская теология в Самарканде. – Алматы: Леидин, 1999.
8. Ibn Kamol Bosho. Favaidul bahiyya. – Bayrut: Dorur raqam, 1998.
9. Namuna sifatida qarashingiz mumkin: Alouddin Kosoniy. Badoi’ as-sanoi’. – Bayrut: Dorul kutub, 1983.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 297.23:2(470+571.5)

SHO‘RO DAVRIDA TASAVVUFNING ASRAB QOLINISHIDA ZIYOVUDDINXON ESHONNING ROLI

Bo‘ldiyeva Sobira Rajabovna, Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

THE ROLE OF ZIYOVUDDINKHON ESHON IN PRESERVING SUFISM DURING THE SOVIET ERA

Bo‘ldiyeva Sobira Rajabovna, Independent Researcher at Bukhara State Technical University, Member of the Writers’ Union of Uzbekistan

РОЛЬ ЗИЁВУДДИНХОНА ЭШОНА В СОХРАНЕНИИ СУФИЗМА В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД

Болдиева Собира Раджабовна, независимый исследователь Бухарского государственного технического университета, член Союза писателей Узбекистана

https://orcid.org/0009-0001-9916-9118
e-mail: buldiyevasobira@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada Sho‘ro tuzumi davrida diniy ta’limda cheklovlar bo‘lganligi, ibodat paytida sunnatni amalga oshirmaslik talab qilingani, shunday bo‘lishiga qaramasdan Ziyovuddinxon Eshon sunnat unutilishiga yo‘l qo‘ymay, tasavvufni yashirincha davom ettirganligi haqida ma’lumot beriladi. Abdug‘afur Razzoqovning Mir Arab madrasasini tomomlab Imom Buxoriy nomidagi oliy mahadda Ziyovuddinxon Eshondan tahsil olish jarayonida, ustozning tasavvufni himoya qilishdagi fidoyiliklariga guvoh bo‘lgani, xojagon-naqshbandiya ta’limotini saqlab qolishda faoliyat olib borgani haqida so‘z yuritiladi.*

Tayanch so‘zlar: *Qur’on, tasavvuf, Ziyovuddinxon Eshon, Abdug‘afur Razzoqov, sho‘ro, vahobiylik, mavlud, tariqat, din, sunnat.*

Abstract: *The article provides information about the restrictions on religious education during the Shura regime, the requirement not to perform the Sunnah during worship, and despite this, Ziyovuddinkhan Eshon did not allow the Sunnah to be forgotten and continued Sufism secretly. It is said that Abdugafur Razzaqov, after graduating from the Mir Arab madrasah and studying under Ziyovuddinkhan Eshon at the Imam Bukhari Higher Academy, witnessed the teacher's dedication in protecting Sufism, and worked to preserve the teachings of the Khojagon-Naqshbandi.*

Keywords: *Quran, Sufism, Ziyovuddinkhan Eshon, Abdugafur Razzaqov, Shura, Wahhabism, Mawlid, Tariqat, Religion, Sunnah.*

Аннотация: *В статье рассказывается об ограничениях на религиозное образование в период правления Советов, о требовании не читать Сунну во время богослужения, и несмотря на это, Зиёвуддинхан Эшон не допускал забвения Сунны и тайно продолжал изучать суфизм. Сообщается, что Абдугафур Раззаков, окончив медресе Мир Араб и обучаясь у Зиёвуддинхана Эшона в Высшей академии имама Бухари, стал свидетелем преданности учителя делу защиты суфизма и работал над сохранением учения Ходжагон-Накшбанди.*

Ключевые слова: *Коран, суфизм, Зиёвуддинхан Эшон, Абдугафур Раззаков, Шура, ваххабизм, маулид, тарикат, религия, сунна.*

Kirish. Bugungi kunlarga qadar bo‘lgan qariyb ikki yuz yillik tarix, odamni fikrlashga undaydi. Gap e’tiqodni unuttirishga, o‘zlikni esdan chiqarishga bo‘lgan sa’y-harakatlar davri masalasida. Chor Rossiyasining vassaliga aylanish va undan keyingi sho‘ro tuzumi hukmronligining boshlanishi bilan mafkuramizga, dinimizga tazyiq boshlangani sir emas. Natijada shu davrda dunyoga kelgan, e’tiqodan musulmon dinida bo‘lgan Turkiston o‘lkasining farzandlari islom dini ma’rifatidan mosuvo bo‘lib o‘sdik. Bugungi tafakkur bilan o‘ylab ko‘rilsa, biz dinni bilmasdan yashaganimiz ma’lum bo‘ladi. Ammo, ayrim paytlarda “hayit”, “arafa”... kabi so‘zlarni eshitardik. Janozani bilardik, duo

qilishni bilardik. Uzoq o‘tmishni elas-elas eslatuvchi bu so‘zlar, e’tiqodning, dinning ayrim qoidalari ekanini ham to‘liq tushunmasdik. Shunchaki, buni qilish kerakligini tushunardik, xolos. Bu jihatlar shundan darak beradiki, har qancha og‘ir vaziyat bo‘lmasin, xalqimiz orasidagi ziyoli insonlar dinning butunlay yo‘qolib ketishiga yo‘l qo‘ymaganlar. Bunday insonlardan Ziyovuddinxon Eshon yoki u kishining shogirdi Abdug‘afur Razzoqovning faoliyatini bunga misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Mafkuraga bo‘lgan tajovuz, uning bir muddat unutilishi haligacha dunyo va din o‘rtasida tafovutlarning barham topmayotganiga sabab bo‘lmoqda. Haqiqiy tarix va haqiqiy dinni puxta o‘rganishimiz bizni mafkuraviy adashishdan asraydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda xojagon-naqshbandiya tariqati qandaydir ilohiylikka asoslangan, ayrim shaxslargina tushuna oladigan yo‘l bo‘lib qolmasdan, komil inson g‘oyasini ilgari suruvchi ta’limot ekanligi sir bo‘lmay qoldi. Xojagon-naqshbandiya ta’limoti aynan mana shu komil inson bo‘lish haqida ta’lim berar ekan, bu borada yurtimizda mustaqillik yillarida manbalar tarjima bo‘ldi va tadqiqotlar olib borildi. Manbashunos olim Mahmud Hasaniy shogirdlari M.Razzoqova K.Qilichova tomonidan Abdulxoliq G‘ijduvoniy haqida asarlar nashr etildi. Tasavvufshunos olim Najmiddin Komilovning asarlari asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek Gulchehra Navro‘zova xojagon-naqshbandiyaga oid monografiya va risolalar nashr etganlar.

Dinimizning keyingi, ya’ni sho‘ro davri tarixiga oid islomshunos Uyg‘un G‘afurovning monografiyasi, Mir Arab madrasasi bitiruvchilari haqidagi to‘plam, “Oltin silsila” turkumida yetti pir hayoti va ta’limotiga bag‘ishlangan asarlar chop etilgani tadqiqotimizni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hamda Ziyovuddinxon Eshon haqidagi ma’lumotlarni to‘plashda, u kishining bevosita shogirdi bo‘lgan Abdug‘afur Razzoqov bilan muloqotda bo‘lib suhbat qildik. Suhbat asosida aniqlangan ma’lumotlarni tarixiylik, mantiqiylik, qiyoslash uslubida tahlil etib xulosalarimizni bayon etdik.

Tahlil va natijalar. Ikkinchi jahon urushi davom etayotgan 1943-yildan keyingi vaziyatda “...1943-yil mayda Kommunistik Internatsionalni tugatish to‘g‘risida Qaror qabul qilgan, vijdon erkinligi, diniy marosim va ibodatlarga to‘siqlarni olib tashlashiga to‘g‘ri kelgan edi. Aslida esa, provaslav cherkovlari, musulmon o‘lkalarda masjid va madrasalarning bu davrda faoliyatini qayta boshlashi urush yillarida o‘z otalari, erlari, o‘g‘illari kabilardan ajralgan millionlab insonlarning xohish-irodasi tufayli yuz bergan edi”. Tarixiy davr shuni taqozo qildiki, jamoat a’zolari o‘rtasida sinfiy dushmanlik va diskriminatsiya (kamsitish) siyosatini davom ettirish sovet davlati uchun faqat zarar bo‘lar edi. Yuqorida qayd etilgan qarorda bildirilgan fikrlardan bilish mumkinki, bu davrga kelib, mutlaqo dinsizlik asosiga qurilgan sho‘ro tuzumida qisman bo‘lsa-da diniy erkinlikni amalga oshirishi zarurati paydo bo‘lgan edi (ushbu vaziyat haqida “G‘ulomjon Izomiy xojagon-naqshbandiya tariqati davomchisi” nomli maqolamizda ma’lumot bergan edik).

Mana shunday tarixiy davrda xojagon-naqshbandiya tariqatining asrab qolinishida ziyolilarning xizmatlari kattadir. Tariqatda sobit insonlardan biri Mufti Eshon Boboxonning o‘g‘li Ziyovuddinxon (1908-1982) hisoblanadilar. U kishi bergan ma’lumotlarga ko‘ra:

Ziyovuddinxon dastlabki bilimni o‘z oilasida oladilar. Bolalik xotiralarini eslab, bu haqda shunday der ekanlar: “Mening Qur’onim yo‘q edi. Buvim sandig‘idan zebigardonini olib, bozorga chiqarib sotdilar. Puliga Qur’on olib berdilar. Ana shu tariqa Qur’ondan savodim chiqdi”. Shundan keyin Ziyovuddinxon bir muddat Tahfuzul Qur’on madrasasida tahsil oladilar. Bir muddat Buxoroda Domla Izomiydan tahsil oladilar. 1920-yillarda Toshkentda Ko‘kaldosh madrasasida tahsil oladilar. 1947-1948-yillarda Ziyovuddinxon ibn Boboxon Al-Azxar universitetiga Qori Minhojiddin ismli talaba bilan tahsil olish uchun boradilar. O‘qish boshlanganidan bir muncha vaqt o‘tib, Al-Azxarda sunnatni o‘qitmaslik masalasi ko‘tariladi.

Buni Ziyovuddinxon shunday eslardilar, deydi Abdug‘afur Razzoqov: “Al-Azxarda o‘qib yurgan kezlarimizda, bir kuni bir muallim sunnatni o‘qimanglar (sunnat namozini) buning uchun qiyomatda men javob beraman, - deb qoldi. Bunga javoban talabalardan biri o‘sha paytda, sizni jahannamning qaysi burchagidan topamiz, deb javob qaytardi”.

Bu suhbat shundan dalolat beradiki, al-Azxarda ham sunniylikka qarshi qarashlar mavjud bo‘lgan. Ziyovuddinxon Misrda tahsil olib, sunniylikka qarshi kayfiyatlarga duch kelishiga qaramasdan, tasavvuf himoyachisi edilar.

– Ziyovuddinxon tasavvufni kimdan o‘rganganlar?

– Ziyovuddinxon dastlab tasavvufni otalari Eshon Boboxondan o‘rganadilar. Buxoroda o‘qigan kezlarida tasavvufdan ta’lim olishni Domla G‘ulomjon Izomiyda davom ettiradilar. Shuning uchun ham Ziyovuddinxon Eshon tasavvufni yaxshi bilardilar.

Abdug‘afur Razzoqov 1968 yilda Mir Arab madrasasiga o‘qishga kiradi. 1970-1972-yillarda armiya safida xizmat qiladi. Armiya xizmatidan keyin 1973-yilgacha madrasa ta’limini davom ettirib, uchunchi kursdan Toshkentdagi Imom al-Buxoriy nomidagi oliy mahadda tahsil olishni davom ettiradi. 1975-yilda mahadni tomomlab, oliy ma’lumotga ega bo‘ladi.

Toshkentda Imom al - Buxoriy nomli oliy mahadda tahsil olish davrida O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy idorasi muftisi Ziyovuddinxon Boboxonov va ularning noibi Ismoil Maxdumdan dars oladilar. Shuning uchun ham Domla ustozining ilmiy faoliyatiga baho berish bilan mavjud tuzum sho‘ro hokimyati olib borgan siyosatga e’tibor qaratadi.

Ushbu vobastalikning sababi asta-sekin dinni unuttirish bo‘lgan. Vahobbiylik nazariyalarini yaxshi o‘rgangan kommunistlar, bu aqida ta’sirida kishilar dinni tark etadi, degan xulosaga kelgan. Chunki, sho‘ro tuzumi g‘oyalari yolg‘on va bid’atdan iborat edi. Shuning uchun ham din niqobi ostida vahobiylik nazariyalariga keng urg‘u berilishini ko‘zda tutgan edilar.

– Buni qanday isbotlash mumkin, deb o‘ylaysiz?

– Buning isboti oddiy edi. Misol uchun Mufti Ziyovuddinxonga majburan, Mavlid o‘qishni “bid’at” deb ayting, deb fatvo chiqartirganlar. Mufti fatvo chiqarsa-da o‘zi borib, mavlid o‘qirdilar. Yoki yana namoz o‘qiganda, sunnatni o‘qishni cheklaganlar. Ziyovuddinxon tahoratda sunnatni o‘qib chiqqanlar. Mavlid o‘qimaslik, sunnat o‘qishni cheklashlar vahobiylarning aqidalariga mos keladi. Vahobiylik kommunistlarga qo‘l kelardi. Shuning uchun ham, tasavvuf orqali yolg‘on va yot g‘oyalarga qarshi tasavvuf peshvolari turdilar.

-Ziyovuddinxon ibn Boboxonni bunday amallarni bajarishga undagan narsa tasavvuf edimi?

-Tasavvuf edi, tasavvufni unutmaslik. Tasavvuf bor edi. Ziyovuddinxon tasavvufni yaxshi bilardi, o‘zi ham tasavvufda edi. Tasavvuf yashirin edi. Ziyovuddinxon kabi ustozlar uni saqlab qolishda hissa qo‘shdilar. Sunnat tasavvufning ta’sirida saqlanib qoldi.

-Bir qarashda namozning farzini o‘qishning o‘zi katta savob, deb tushuniladi. Sunnatdan bebahra etilish nimani anglatadi?

-Sunnatdan bebahra bo‘lish – bu Payg‘ambar (s.a.v.) sunnatini unutish, ya’ni islomiy mafkuradan uzoqlashishdir. Ko‘pchilik “farzini o‘qisak bo‘ldi, sunnat shart emas” deydi, ammo aslida sunnat Payg‘ambar (s.a.v.) qilgan amallarga ergashish, Alloh va Uning elchisiga bo‘lgan muhabbatni izhor etishdir.

Xulosa. 1943-yil “Tehron konferensiyasi” tufayli Sho‘ro davlatining ateistik siyosati ancha yumshadi. O‘rta Osiyo va Qozog‘istonda ayrim masjid va madrasalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi, dindorlar tayyorlash va diniy kadrlar masalasini hal qilish uchun diniy ta’limni davom ettirish ko‘zda tutildi.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun O‘rta Osiyo va Qozog‘istonda ilk bor Mir Arab madrasasi 1945-yilda o‘z faoliyatini boshladi. Diniy ta’lim yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa-da, sho‘ro hukumatining rejasi asosida o‘qitish tizimi vahobiylikni targ‘ib qilishga yo‘g‘rilgan edi. Ahli sunna val jamoaning e’tiqodini saqlashda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston muftisi bo‘lgan Ziyovuddinxon Boboxov tasavvuf ta’limotiga suyanganlar.

Ziyovuddinxonning tasavvufni saqlashdagi xizmatlariga guvoh bo‘lgan shogirdlari Abdug‘afur Razzoqov ma’lumot berganlar. Tasavvuf ilmini asrab qolish tufayli komil inson timsoli bo‘lgan payg‘ambar (s.a)ga bo‘lgan muhabbat saqlangan. U kishining go‘zal axloqi va hayot yo‘llaridan ibrat olish xalqning ma’naviyatini, imonini yuksaltirgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Hasaniy M, Razzoqova M. Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy. Moziydan sado jurnali. 2022-y. 1-24-betlar**.**

2.Hasaniy M., Razzoqova M. Xojagon tariqati va Xoja Hasan Andoqiy. T. 2003-y. 47-bet.

3.Hasaniy M., Razzoqova M. G‘ijduvoniy ilm ahllari xotirasida. T.: Fan, 2003. 50-bet.

4. Komilov N. Tasavvuf. T.: Movarounnahr. – Ozbekiston, 2009.

5.Navro‘zova G. Bahouddin Naqshband. – Buxoro: Falsafa va huquq instituti, 2009. 17-b.

6. Юлдашхаджаев Х. Медресе Мир Араб пятивековой дворец просвещения. Сборник. Т.: 2023г. 207 с.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 37.01:37.07(575.1)

Ilmiy rahbar: Salayev Ixtiyor Baxtiyorovich, "Yangi asr" universiteti

ILM-FAN VA MATBUOT ORQALI MILLIY UYG'ONISH G'OYALARINI TARG'IB ETISHDA BEHBUDIYNING O'RNI

Ikromova Mubinaxon Nodirbekovna, "Yangi asr" universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili) ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

THE ROLE OF BEHBUDI IN PROMOTING THE IDEAS OF NATIONAL AWAKENING THROUGH SCIENCE AND PRESS

Ikromova Mubinakhon Nodirbekovna, 3rd-year student of the Department of Philology and Language Teaching (Arabic) at "Yangi Asr" University

РОЛЬ БЕХБУДИ В ПРОПАГАНДЕ ИДЕЙ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ ЧЕРЕЗ НАУКУ И ПЕЧАТЬ

Икромова Мубинахон Нодирбековна, студентка 3-курса направления "Филология и преподавание языков (арабский язык)" университета "Янги аср"

https://orcid.org/0009-0004-3676-7075
e-mail: ikromovamubinaxon@gmail.com
e-mail: salayevixtiyor@gmail.com,
https://orcid.org/0009-0006-8850-0940

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning O'rta Osiyoda ma'rifatparvarlik g'oyalarini shakllantirish va tarqatishdagi o'rni tahlil qilinadi. Muallif Behbudiyning ilm-fan, ta'lim-tarbiya va matbuot sohalaridagi faoliyatini o'rganar ekan, uning Turkiston jadidchilik harakatining mafkuraviy asoschisi sifatidagi tarixiy ahamiyatini yoritadi. Shuningdek, maqolada Behbudiyning ijtimoiy islohotlarga da'vat etuvchi asarlari, zamonaviy maktablar ochish tashabbuslari hamda milliy uyg'onish g'oyalarining targ'ibotchisi sifatidagi faoliyati ilmiy tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ma'rifatparvarlik, jadidchilik harakati, Turkiston, zamonaviy maktab, matbuot, milliy uyg'onish, islohot.*

Abstract: *This article analyzes the role of Mahmudkhoja Behbudiy (1875–1919) in shaping and promoting enlightenment ideas in Central Asia. The author examines Behbudiy's contributions to science, education, and journalism, highlighting his historical significance as one of the ideological founders of the Jadid movement in Turkestan. The article also provides a scholarly analysis of Behbudiy's works calling for social reform, his initiatives in establishing modern schools, and his efforts in promoting national awakening.*

Keywords: *enlightenment, jadid movement, Turkestan, modern school, press, national awakening, reform.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль Махмуд-ходжи Бехбуди в формировании и распространении идей просвещения в Центральной Азии. Автор изучает деятельность Бехбуди в сфере науки, образования и печати, освещая его историческое значение как идеолога движения джадидов в Туркестане. Кроме того, в статье проводится научный анализ произведений Бехбуди, призывающих к социальным реформам, его инициатив по открытию современных школ, а также деятельности в качестве пропагандиста идей национального возрождения.*

Ключевые слова: *просвещение, джадидское движение, Туркестан, современная школа, печать, национальное возрождение, реформы.*

Kirish. Mahmudxo'ja Behbudi O'rta Osiyoda ma'rifatparvarlik va milliy uyg'onish g'oyalarini targ'ib etishda muhim shaxs sifatida tanilgan. U ilm-fan, ta'lim va matbuot orqali xalq ongini yuksaltirish, zamonaviy maktablar ochish va ijtimoiy islohotlarga da'vat etish orqali Turkiston

jadidchilik harakatining mafkuraviy asoschisi sifatida o‘ziga xos o‘rin egallagan. Shu sababli, Behbudiyning faoliyati nafaqat ilmiy va adabiy meros sifatida, balki milliy ong va madaniyatni rivojlantirish jarayonidagi strategik ahamiyat bilan ham ahamiyatlidir. Ushbu maqola uning ilm-fan va matbuot vositalari orqali milliy uyg‘onish g‘oyalarini targ‘ib etishdagi rolini tahlil qilishga qaratilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919) – Turkistondagi jadidchilik harakatining asoschilaridan biri, diniy ulamo, ma’rifatparvar, pedagog, dramaturg, matbuot arbobi va ijtimoiy-siyosiy faol bo‘lib, zamonasining eng yirik islohotparvar ziyolilaridan sanaladi. U “**Turkiston jadidlari otasi**” sifatida e’tirof etiladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yil 19-yanvarda Samarqandda tug‘ilgan. U dastlab otasidan diniy saboq olgan, so‘ngra Buxorodagi Mir Arab, Ko‘kaldosh va boshqa madrasalarda tahsil olgan. Bu yillarda u islom dini, tafsir, hadis, fiqh ilmlari bilan bir qatorda, tarix, falsafa, mantiq va boshqa dunyoviy fanlarga ham chuqur qiziqish bildirgan.

Uning tafakkuri islom dini asoslarida yotgan bo‘lsa-da, u diniy bilim bilan cheklanib qolmadi, balki zamonaviy g‘oyalar, G‘arbda va Usmonli imperiyasida kechayotgan islohotlar bilan tanishdi. Behbudiy XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi global modernizatsiya jarayonlariga befarq bo‘lmagan musulmon ziyolilari safiga qo‘shildi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining nazariy asoslarini ishlab chiqqan va amaliy shakllanishida faol qatnashgan. U eski usuldagi maktablarni zamonaviy (usuli jadid) maktablar bilan almashtirish, fan, texnika va ma’rifatni musulmon jamiyatlariga olib kirishni bosh maqsad qilgan. Behbudiy millatning ravnaqi uchun ilm va ma’rifatni asosiy omil sifatida ko‘rgan. U o‘z maqolalarida maktab ta’limini isloh qilish, yoshlarga zamonaviy bilimlar berish masalalariga alohida urg‘u beradi. Eski usulda ta’lim olayotgan bolalarning faqatgina diniy bilimlar bilan cheklanib qolayotganini tanqid qiladi va zamonaviy fanlar – geografiya, matematika, tarix, tibbiyot, xorijiy tillar o‘qitilishi kerakligini ta’kidlaydi. Behbudiy uchun maktab faqat bilim beruvchi maskan emas, balki jamiyatni yangilovchi, mustaqil fikrlovchi zamonaviy shaxsni tarbiyalovchi institutdir.

Adabiyotlar tahlili. Xususan, u o‘zining 1914-yil “Oyna” jurnalida chop etilgan “Muhtaram yoshlarg‘a murojaat” maqolasida shunday yozadi: “Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki, makotib taraqqiyning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning darvozasidur. Har millat eng avvalo, makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko‘paytirmaguncha, taraqqiy yo‘lig‘a kirub, madaniyatdin foydalanmas. Binoan alayh, yer yuzidagi barcha millatlar o‘z bolalarini ibtidoiy tarbiyasig‘a va maktablarining har jihatdan intizom va akmolig‘a ahamiyat berib, bolalarini milliy va diniy ruhda mukammal suratda etishdirurlar. Aning uchundirki, o‘zga millatlar diniy va milliy hissiyotg‘a molik bo‘lub, har ishda diyonat va milliyatni muqaddam tutarlar”.

Behbudiyning ma’rifiy qarashlari faqatgina nazariy emas, balki amaliy tashabbuslar orqali ham namoyon bo‘lgan. U 1909-yilda Samarqandda yangi usulda o‘qitiladigan maktab ochdi. Bu maktabda o‘quvchilarga arab yozuvi asosida savod o‘rgatilishi bilan birga, dunyoviy fanlardan ham saboqlar berilar edi. Behbudiy bu orqali bolalarning nafaqat diniy, balki ijtimoiy, madaniy va ilmiy bilimlarga ega bo‘lishini istagan. U o‘qituvchilarni tanlashda ham e’tiborli bo‘lgan, ular zamonaviy fikrlovchi, dunyoviy fanlar haqida ma’lumotga ega, o‘qituvchilik mas’uliyatini chuqur his qiladigan insonlar bo‘lishi lozimligini ta’kidlagan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining publitsistik faoliyati davomida ilm-fan, madaniyat, zamonaviy ta’lim va dunyoqarashni targ‘ib qiluvchi o‘nlab maqolalar yozgan bo‘lib, bu asarlar o‘zbek matbuotida yangi uyg‘onish davrining asoslarini yaratgan. Uning asosiy g‘oyasi – musulmon jamiyatini jaholat, illat va turg‘unlikdan olib chiqish uchun yagona yo‘l – ilm-ma’rifat orqali yangicha fikrlash, zamonaviy bilimlarga ega bo‘lish zarurligini ko‘rsatish edi.

Birgina maktab orqali xalqni ma’rifatga yetaklash yetarli emas edi. Jamiyat o‘zini anglab olishi, zamon va dunyodagi o‘zgarishlardan boxabar bo‘lishi, Vatan va millat hayotidagi muammolarni idrok etishi zarur edi. Xalq uchun o‘zining illatlarini ham, fazilatlarini ham ko‘ra oladigan oynaga ehtiyoj bor edi.

Muhokama. Aynan shu ijtimoiy zarurat Mahmudxo‘ja Behbudiyni teatr va matbuot sohalariga murojaat qilishga undadi. Behbudiy o‘z fikrlarini keng ommaga yetkazish maqsadida badiiy asarlar ham yaratdi. Shu tarzda uning mashhur “Padarkush” dramasi (1911) yuzaga keldi. Bu asar orqali u o‘zbek dramaturgiyasiga asos soldi va sahna san’atining taraqqiyotiga xizmat qildi. Asarda ota-onaga bo‘lgan hurmat-ehtirom, jamiyatda ilm va axloqning o‘rni va o‘zbek jamiyatidagi muammolar teran badiiy vositalar bilan aks ettirilgan. Biroq bu

asarning ommaga taqdim etilishi oson kechmadi. “Padarkush” asari 1911-yilda yozilgan bo‘lsa-da, faqat 1913-yilda bosmadan chiqdi. Asar bosilib chiqqanidan keyin ham uning sahnalashtirilishi uchun deyarli bir yil vaqt ketgan.

1906-yilda Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining eng muhim tashabbusini amalga oshirdi. **“Tarjimon”** va **“Shuhrat”** gazetalarida bilan hamkorlikda Sadriddin Ayniy, Hoji Muin ibn Shukrullo, Laziz Azizzoda kabi zamondoshlari bilan bir qatorda o‘z maqola va xotiralarini e’lon qila boshladi. U o‘z maqolalarida millat va Vatan, jamiyat va axloq haqidagi fikrlarini ifoda etar edi. 1913-yildan Mahmudxo‘ja Behbudiy matbuot ishlari bilan shug‘ullana boshlagan. Shu yilning aprel oyida Samarqandda Turkistondagi birinchi musulmonlar gazetasi – **“Samarqand”** gazetasi nashr etila boshladi. Gazeta turkiy va forsiy tillarda, haftada ikki marta, dastlab ikki, so‘ng to‘rt sahifada chop etilgan. 45 ta sonidan keyin moddiy tanqislik tufayli chiqishi to‘xtagan. Shu yilning 20-avgustidan u “Oyna” jurnalini chiqara boshlaydi. Jurnal ma’rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Bu suratli haftalik gazeta asosan o‘zbek tilida bo‘lib, unda ixcham forsiy she’rlar, maqolalar, ruscha e’lonlar, shuningdek, millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqsa, til masalalari muharrirning hamisha diqqat markazida bo‘lgan. Behbudiy millatning taraqqiysi uchun bir necha til bilishni shart hisoblardi. Masalan, jurnalning 1913-yil avgustdagi birinchi – nishona sonidayoq, “Ikki emas, to‘rt til lozim” degan maqola bilan chiqqan edi. Turkistonda ikki tillilik masalasini Behbudiy “Oyina”ni chiqarmasidan ancha ilgari, 1909-yili “Tarjimon”ga yo‘llagan maqolasida ko‘targan edi. Behbudiy turkiy va forsiy tilning turkistonliklar uchun ahamiyatli ekaniga e’tibor qaratmoqchi bo‘ldi va ikkala tilning maktab tahsiliga kiritilishi tarafdori ekanligini ilgari surdi.

Ziyo Saidning Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning “Oyna” jurnalidagi faoliyatini quyidagicha xotiralaydi: “Boshda haftada bir marta va ikkinchi yildan e’tiboran 15 kunda bir qatla chiqib, yigirma oy chamasi davom qildi... Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg‘oniston, Hindiston va Turkiyagacha tarqalar edi... Jadidlarning sevikli jurnallari edi. Shuning uchun ular tomonidan hurmatlandi, sevilib o‘qildi”.

Behbudiy bu yillarda nashr ishlari bilan ham qizg‘in shug‘ullangan. “Nashriyoti Behbudiya” nomi bilan o‘z xususiy nashriyotini ochdi. Nashriyotda ilk bor Behbudiyning turkiy tilda tuzgan Turkiston, Buxoro, Xiva xaritasi, darslik qo‘llanmalari, “Padarkush” dramasi va Fitratning “Bayonoti sayyohi hindi” asari ruschaga o‘girilib chop etilgan. Garchi bu kitoblar narxi belgilab qo‘yilgan bo‘lsa-da, Behbudiy “ularni o‘z mablag‘laridan bosib tarqatdi”. Behbudiy o‘z rahnamoligida ochgan maktablari uchun darslik yozgan, nashr ettirgan va ularni “tekinga tarqatgan” yagona muallim edi. “Behbudiya kutubxonasi” va “Nashriyoti Behbudiya” 1908-1915-yillarga qadar faoliyat olib bordi. Ushbu ilm maskanlari birgalikda xalqqa xizmat qilgan, Behbudiyning jadid qiyofasini yoritib turuvchi ziyo maskanlari bo‘lib qoldi.

Xulosa. Mahmudxo‘ja Behbudiy ilm-fan va matbuot orqali O‘rta Osiyoda milliy uyg‘onish g‘oyalarini targ‘ib etishda muhim rol o‘ynadi. U ta’lim, ma’rifat va ijtimoiy islohotlarga oid faoliyati bilan Turkiston jadidchilik harakatining mafkuraviy asoschisi sifatida tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Behbudiyning asarlari va tashabbuslari xalq ongini yuksaltirish, milliy ma’naviyatni mustahkamlash va zamonaviy maktab tizimini rivojlantirishda katta hissa qo‘shdi. Shu bilan birga, uning faoliyati milliy uyg‘onish jarayonida ilm-fan va matbuotning strategik ahamiyatini namoyon etdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zbek xalqining ma’naviy uyg‘onishida g‘oyatda muhim o‘rin tutgan jadid mutafakkiri bo‘lib, uning ilm-ma’rifat haqidagi qarashlari nafaqat o‘z zamonasining ilg‘or fikrlari, balki keying avlodlar uchun ham yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.Behbudiy. Muhtaram yoshlarg‘a murojaat. Oyna jurnali. 1914-yil 41-son. – B. 970-972.
2. Z.Abdirashidov, N.Egamqulova. Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning “Oyina” jurnali. – Toshkent, Muharrir, 2019. – B. 43.
3. B.Qosimov, Sh.Yusupov, U.Dolimov, Sh.Rizayev, S.Ahmedov. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. Toshkent. Ma’naviyat. 2004. – B.166.
4. Z.Abdirashidov, N.Egamqulova. Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning “Oyina” jurnali. – Toshkent, Muharrir, 2019. – B. 35.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 341.217(575.1):327.5(575.1)

XALQARO MUNOSABATLAR VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING UNDAGI O‘RNI VA ROLI

Ro‘zimov Qudratbek Qurbonboyevich, Buxoro davlat universiteti “Tarix va yuridika” fakulteti “Yurisprudensiya” yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

INTERNATIONAL RELATIONS AND THE PLACE AND ROLE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN IT

Ruzimov Kudratbek Kurbonboyevich, Bukhara State University 4th year student of the Faculty of History and Law, majoring in “Jurisprudence”

МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ, МЕСТО И РОЛЬ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В НИХ

Розимов Кудратбек Курбонбоевич, студент 4-курса историко-юридического факультета по специальности “Юриспруденция” Бухарского государственного университета

https://orcid.org/0009-0002-9918-0023
e-mail: rozimovqudratbek@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola davlatlarning va tashkilotlarning xalqaro munosabatlardagi ishtirokini tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda yaqin o‘tmish va bugungi kundagi dunyo hamjamiyatining siyosiy munosabatlarini yoritib berishga va shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining ushbu munosabatlardagi o‘rni va rolini subyektiv tahlil qilishga harakat qilindi. Shu jumladan, O‘zbekistonning xalqaro tuzilmalardagi ishtiroki va turli davlarlar bilan o‘rnatilgan do‘stona munosabatlariga to‘xtalib o‘tildi. Maqola davomida aniqlink prinsipiga qat’iy rioya qilindi.*

Kalit so‘zlar: *Konstitutsiya, tashqi siyosat, strategiya, xalqaro munosabatlar, qonun, BMT, hujjat.*

Abstract: *This article is devoted to the analysis of the participation of states and organizations in international relations, in which an attempt was made to shed light on the political relations of the world community in the recent past and today, and at the same time, to subjectively analyze the place and role of the Republic of Uzbekistan in these relations. In particular, the participation of Uzbekistan in international structures and the friendly relations established with various states were touched upon. Throughout the article, the principle of clear links was strictly adhered to.*

Key words: *Constitution, foreign policy, strategy, international relations, law, UN, document.*

Аннотация: *Настоящая статья посвящена анализу участия государств и организаций в международных отношениях, в которой предпринята попытка осветить политические взаимоотношения мирового сообщества в недавнем прошлом и настоящем, а также объективно проанализировать место и роль Республики Узбекистан в этих отношениях. В частности, затронуты вопросы участия Узбекистана в международных структурах и дружественные отношения, установленные с различными государствами. В статье строго соблюдается принцип чёткости связей.*

Ключевые слов: *Конституция, внешняя политика, стратегия, международные отношения, закон, ООН, документ.*

Kirish. Tarixdan olib qaraydigan bo‘lsak, xalqaro munosabatlar qadimgi urug‘chilik jamiyati va ibtidoiy jamoa tuzumi davrlaridan boshlab muhim hisoblangan. Qadimgi davrlarda, ya’ni, davlatchilik tuzilmasi hali tashkil topib ulgurmagan paytda odamlar alohida urug‘lar va jamoalarga bo‘linib hayot kechirishgani ko‘pchilikka ma’lum. Aynan o‘sha urug‘lar va

jamoalar o‘rtasidagi siyosiy, madaniy, iqtisodiy va boshqa aloqalar qadimgi davrlardagi o‘zaro munosabatlarga misol bo‘la oladi. Davlatchilik tuzilmalari tashkil topgach esa ularning rivojlanishiga mutanosib ravishda xalqaro munosabatlar ham har tomonlama rivoj topa boshlagan. Oradan ancha vaqt o‘tgach, ya’ni, ko‘plab davlatlar o‘z rivojlanish davrlarini boshdan kechirayotgan o‘rta asrlarda Yevropa va keyinchalik Shimoliy Amerika mintaqalaridagi davlatlar o‘rtasida o‘zaro munosabatlar anchagina rivojlana boshladi. Ushbu davr mobaynida Angliya, Germaniya, Fransiya kabi yirik davlatlar xalqaro munosabatlarda katta sahnaga chiqdilar. 1776-yilda Amerika Qo‘shma Shtatlari davlatiga asos solindi va ushbu davlat qisqa muddat ichida ichki va tashqi munosabatlarda juda katta muvaffaqiyatlarga erishdi va rivojlanib bordi. XIX – XX asrlarga kelib AQSh iqtisodiyot ko‘rsatkichlari bo‘yicha dunyoda birinchi o‘ringa chiqib oldi. Aynan shu yillar davomida xalqaro munosabatlarda ko‘plab kelishuvlar va muzokaralarga erishildi. Endi ushbu shartnoma, kelishuv, muzokaralarning eng muhim ahamiyatga ega bo‘lganlariga alohida to‘xtalib o‘tsak:

XX asr davomida, aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, ikkinchi jahon urushidan so‘ng xalqaro munosabatlarda ro‘y bergan va eng muhim ahamiyatga ega bo‘lgan siyosiy jarayonlarga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin: Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) tuzilishi, Yevropa Iqtisodiy Hamkorligi (YIH) shartnomasining imzolanishi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qabul qilinishi, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligining (MDH)ning tuzilishi va boshqa muhim shartnomalar hamda hujjatlar.

Bilamizki, butun dunyo xalqi qisqa muddat ichida dunyoni larzaga keltiradigan, dahshatli, ayovsiz va qaqshatqich urushlardan ikkitasini boshidan kechirdi. Birinchi va Ikkinchi jahon urushlariga guvoh bo‘lgan dunyo hamjamiyati endilikda butun dunyoda tinchlik hukm surushini istar edi. Ammo keyinchalik siyosiy jarayonlar shuni ko‘rsatdi-ki, dunyo ikki qutbli sovuq urush bo‘sag‘asiga qadam qo‘ydi. Siyosiy xaritadadagi davlatlar ikkita gegemon davlat – AQSh va SSSR (Союз Советских Социалистических Республик) davlatlari boshchiligidagi ikkita qutbga bo‘lindi. Bir-biriga qarama-qarshi davlarlar o‘rtasidagi o‘zaro kurashlar va tahlikali vaziyatlar bo‘lishiga qaramasdan dunyo hamjamiyati tomonidan tinchlik va rivojlanish sari birinchi qadam – Birlashgan millatlar tashkilotiga asos solindi.

1991-yil 31-avgust sanasi tarixga oltin harflar bilan yozilgani hech kimga sir emas. Ushbu sanada mustaqillikka erishgan O‘zbekiston Respublikasi qisqa muddat ichida xalqaro hamjamiyatga muvaffaqiyatli qo‘shilib ketishni mukammal darajada uddaladi – yuqorida sanab o‘tilgan tashkilotlarga a’zo bo‘ldi va ko‘plab xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qildi. Ko‘plab davlatlar O‘zbekiston Respublikasini mustaqil davlat sifatida tan oldi hamda keng qamrovli aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. Bunday muvaffaqiyatli xalqaro munosabatlar bugungi kunda ham yuqori darajada davom etmoqda.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlarni tartibga solish va har tomonlama rivojlantirishga doir ko‘plab qonunlar qabul qilib kelinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining IV bobi (17-18-moddalar) “Tashqi siyosat” deb nomlanadi va ushbu moddalarda mamlakatimiz tashqi siyosatining yo‘nalishlari, ahamiyati, prinsiplari va boshqa muhim jabhalari mustahkamlab qo‘yilgan[1,4-b]. Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Taraqqiyot strategiyasi”ning 93-maqsadida Mamlakatning xalqaro munosabatlardagi teng huquqli subyekt sifatidagi rolini oshirish masalalari bayon etilgan[4].

Jahon hamjamiyati va xalqaro masalalar borasidagi o‘z fikrlari va qarashlari bilan birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimov o‘zining ko‘plab asarlarida mamlakatimiz tashqi siyosatini rivojlantirishga doir o‘z shaxsiy fikrlarini bayon qilib o‘tgan. Bunga misol qilib “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida” asarini keltirish mumkin. Birinchi Prezidentimiz o‘z asarida tashqi siyosatga doir fikrlarini bildirar ekan, mustaqillikning dastlabki yillarida ishlab chiqilgan quyidagi tashqi siyosat tamoyillarini sanab o‘tgan:

Birinchidan, o‘zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarining ustunligi;

Ikkinchidan, teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

Uchinchidan, mafkuraviy qarashlardan qat’i nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;

To‘rtinchidan, xalqaro huquq normalarining davlat ichki normalaridan ustuvorligi;

Beshinchidan, tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish[3,270-b].

Ushbu sanab o‘tilgan tamoyillar bugungi kunda ham tashqi siyosatimizning eng asosiy tamoyillari qatorida bo‘lib kelmoqda va har tomonlama rivojlanib bormoqda.

Asosiy qism. Xalqaro munosabatlar deganda suveren davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tushunish mumkin. Xalqaro munosabatlarga davlatlarning rivojlanishiga turtki bo‘ladigan huquqiy va siyosiy jarayonlar sifatida qarasak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki suveren davlatlar biror bir maqsadni ko‘zlabgina xalqaro munosabatlarga kirishadilar. Iqtisodiy rivojlanish, o‘zaro tajribalar almashish, madaniy aloqalarni mustahkamlash, xavfsizlikni ta’minlash kabi asoslar bularga misol bo‘lishi mumkin.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng, ya’ni, 1945-yil 24-oktyabrda yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta’minlash, davlatlarning o‘zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil etilgan. BMTni barpo etish haqidagi qaror AQSH, Birlashgan Qirollik, Xitoy va Sovet Ittifoqi tashqi ishlar vazirlarining Moskvadagi kengashida 1943-yilda, Ustavi esa San Francisco konferensiyasida 1950-yilda qabul qilindi. BMT Ustaviga dastlab 51 davlat imzo chekkan, 2000-yilda esa ular soni 189 taga yetgan. Hozirgi kunda 193 taga yetgan. BMTning shtab kvartirasi New Yorkda joylashgan bo‘lib, tashkilotning rasmiy tillari – ingliz, fransuz, rus, ispan va xitoy tillari hisoblanadi. Tashkilot ingliz, fransuz, ispan tillarida ish yuritadi. Bugungi kunda BMT tarkibida oltita organ faoliyat olib bormoqda[7]. O‘zbekiston Respublikasi 1992-yil 2-mart sanasida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo bo‘lgan va hozirgi kunda ushbu tashkilot faoliyatining asosiy yo‘nalishi bo‘lmish sessiyalarda faol ishtirok etib kelmoqda. 1993-yil 24-avgustda BMTning Toshkentdagi vakolatxonasi ochildi. BMTda O‘zbekiston Respublikasi vakolatxonasi ham ish boshladi. O‘zbekiston Respublikasi 1993-yilda BMTning ta’lim, fan va madaniyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi tashkiloti – YUNESKOga ham a’zo bo‘ldi.

O‘zbekiston o‘z ovozi va mavqeiga ega bo‘lgan a’zo sifatida BMT oldiga muhim va dolzarb masalalarni qo‘yyapti. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT Bosh Assambleyasi 48-sessiyasida (1993-yil sentyabr), BMT tashkil etilganining 50 yilligiga bag‘ishlangan sessiyada (1995-yil oktyabr), BMT Bosh Assambleyasining “Mingyillik sammiti” (2000-yil sentyabr)da so‘zlagan nutqlari dunyo jamoatchiligida katta qiziqish uyg‘otdi. Xususan, ushbu xalqaro tashkilotning XX asr so‘ngidagi eng yirik anjumanida O‘zbekiston rahbari xalqaro terrorizm va narkobiznes bilan bog‘liq muammolarni hal etish; mintaqaviy xavfsizlik, jumladan Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlash; jahon xavfsizligi tizimini takomillashtirish, BMT faoliyati va tarkibiy tizimini isloh qilishga taalluqli takliflar bilan chiqdi[7]. 2017-yilning sentyabr oyida bo‘lib o‘tgan BMTning 72-sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqi bilan jahon hamjamiyatida ulkan qiziqish uyg‘otdi. Ushbu sessiyada Prezidentimiz ko‘plab muhim masalalarga to‘xtalib o‘tdi: Orol dengizi muammosi, xalqaro tezzorizm va ekstremizmga qarshi kurash, Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatishning targ‘ib etilishi shular jumlasidandir. O‘zbekiston Respublikasi BMTning teng huquqli a’zosi sifatida bu eng nufuzli xalqaro tashkilotning maqsad va qoidalariga qat’iy amal qilmoqda[5].

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach ratifikatsiya qilgan dastlabki hujjatlaridan biri “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”dir. Ushbu hujjat 1948-yil 10-dekabrda BMT tomonidan qabul qilingan bo‘lib, unda inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga doir muhim xalqaro normalar belgilab qo‘yilgan. Misol qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining moddalari ushbu xalqaro Qonunga mos keladi. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 3-moddasini misol tariqasida olaylik. Ushbu modda quyidagicha bayon etilgan: “Har bir inson yashash,

erkin bo‘lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir”[2,1-b]. Insonning shaxsiy huquqlari belgilab qo‘yilgan ushbu moddaga mos ravishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining “Shaxsiy huquqlar” deb nomlangan VII bobini (25-35-moddalar) keltirish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 25-moddasi:

“Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir.

O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi taqiqlanadi”[1,6-b].

O‘zbekiston qonunchiligiga bunoan xalqaro hujjatlar ichki hujjatlardan ustun hisoblanib, mamlakatimiz hududidagi barcha normativ-huquqiy hujjatlar xalqaro normalarga mos bo‘lishi shart[1,3-b]. Shuni inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasining barcha hujjatlari xalqaro normalarga mos ravishda qabul qilingan. Bu ham xalqari miqyosdagi ishtirokni mustahkamlashga xizmat qiluvchi omil desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi deganda ko‘pchilikning xayolida Sobiq Sovet Ittifoqi barham topgandan so‘ng undagi mustamlaka davlatlar birlashmasidan tashkil topgan xalqaro tashkilot mujassam bo‘ladi.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) – davlatlararo tashkilot. 1991-yil 8-dekabrda Minskda Belarus, Rossiya, Ukraina tomonidan tuzilgan. Ana shu davlat rahbarlari imzo chekkan Bitimda SSSR chuqur tanazzulga uchrab parchalanib ketish natijasida yo‘q bo‘lganligi qayd qilindi, uchala davlat siyosiy, iqtisodiy, gumanitar, madaniy va boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirishga intilishini bayon etdi. 1991-yil 21-dekabrda Bitimga Ozarbayjon, Armaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston qo‘shildi, ular Belarus, Rossiya va Ukraina bilan birga Mstaqil davlatlar hamdostligining maqsad va qoidalari to‘g‘risidagi Deklaratsiyani Olmaota shahrida imzolashdi. 1993-yil dekabrda Mustaqil davlatlar hamdo‘stligiga Gruziya qo‘shildi. 1993-yil yanvarda Mustaqil davlatlar hamdostligi Ustavi qabul qilindi, u davlatlarning inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash, tashqi siyosiy faoliyatini muvofiqlashtirish, umumiy iqtisodiy makonni vujudga keltirish, transport va aloqa tizimlarini rivojlantirish, aholi sog‘lig‘i va atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy masalalar va immigratsiya siyosati, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, mudofaa siyosatida hamkorlik qilish va tashqi chegaralarni qo‘riqlashda birgalikda faoliyat yuritishni nazarda tutadi[5].

O‘zbekiston Respublikasi bugungi kunda MDH davlatlari bilan ko‘p tomonlama manfaatli hamkorlikni amalga oshirib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 25-martda 157-sonli (VMQ – 157-son) “Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari bilan ko‘p tomonlama hamkorlik masalalari bo‘yicha hukumatlararo qo‘shma komissiyalar to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida” Qarori qabul qilingan[6]. Ushbu qonunga binoan komissaga asosiy vazifalar yuklatildi va shu tariqa MDH davlatlar bilan do‘stona munosabatlar va hamkorlik rivojlanib bormoqda.

Xulosa. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bugungi kunda jahon hamjamiyatida globallashuv juda yuqori bo‘lib, unga qo‘shilib ketish murakkab vazifalardan biridir. Turli davlatlar va turli tashkilotlar o‘rtasida ko‘plab munosabatlar o‘rnatilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi esa ushbu globallashuv jarayonini davom ettirayotgan xalqaro jamiyatda o‘z o‘rniga ega. Xalqaro miqyosdagi ishtirok bugungi kunda mamlakatimizning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi va buni qabul qilinayotgan strategiyalar misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent-2023. 3,4,6-b.
2. Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi. BMT-1948. 1-b.
3. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida. Toshkent-1997, 270-b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Taraqqiyot Strategiyasi. PF-60-son, 28.01.2022.
5. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent-2000-y.
6. https://lex.uz/
7. https://uz.wikipedia.org

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK:37.011:378.091(575.1)

Ilmiy rahbar: Yuldashxodjayev Xaydar Xashimxanovich, "Yangi asr" universiteti dotsenti

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI (1991-1995)

Matyoqubova Hilola Alisher qizi, "Yangi asr" universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili) ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM (1991–1995)

Matyoqubova Hilola Alisher qizi, 3rd-year student of the Department of Philology and Language Teaching (Arabic) at "Yangi Asr" University

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ (1991–1995)

Матякубова Хилола Алишер кызы, студент 3-курса направления "Филология и преподавание языков (арабский язык)" Университета "Янги аср"

https://orcid.org/0009-0004-2278-7585
e-mail: matyoqubovahilola@gmail.com
https://orcid.org/ 0009-0003-3549-061X
e-mail: yuldashxodjayevxaydar@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada 1991–1995-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalari tizimining shakllanishi va dastlabki rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Mustaqillikning ilk yillarida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar, yangi normativ-huquqiy asoslarning yaratilishi, o'quv dasturlari va kadrlar tayyorlash tizimining yangilanishi ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, ushbu davrda milliy ta'lim modelining shakllanish jarayoni va uning ijtimoiy, madaniy hamda iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *oliy ta'lim, ta'lim islohotlari, mustaqillik davri, kadrlar tayyorlash, ta'lim tizimi, milliy model, taraqqiyot.*

Abstract: *This article examines the formation and early development of the higher education system in the Republic of Uzbekistan during the period of 1991–1995. It analyzes the educational reforms implemented in the early years of independence, the establishment of a new legal framework, and the modernization of curricula and personnel training systems. Particular attention is paid to the creation of the national education model and its role in the country's social, cultural, and economic development.*

Keywords: *higher education, educational reforms, independence period, personnel training, education system, national model, development.*

Аннотация: *В статье рассматриваются процессы формирования и первоначального развития системы высших учебных заведений в Республике Узбекистан в 1991–1995 годах. Анализируются реформы, проведённые в сфере образования в первые годы независимости, создание новой нормативно-правовой базы, обновление учебных программ и системы подготовки кадров. Особое внимание уделено становлению национальной модели образования и её роли в социальном, культурном и экономическом развитии страны.*

Ключевые слова: *высшее образование, образовательные реформы, период независимости, подготовка кадров, система образования, национальная модель, развитие.*

Kirish. Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimi chuqur islohotlarga yuz tutdi. Bu davr mustaqil davlat sifatida o'z ta'lim siyosatini shakllantirish, milliy qadriyatlar va zamonaviy rivojlanish talablari uyg'unligida oliy ta'limni qayta tashkil etish bosqichi sifatida tarixda muhim o'rin tutadi. Bu davrda oliy ta'lim tizimi kengaytirilib, yangi oliy o'quv yurtlari ochildi, bir qator filiallar va nodavlat oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi. Ayrim institutlarga universitet maqomi berildi. Buning natijasida oliy ta'lim muassasalari soni va talabalarning qamrovi sezilarli darajada oshdi. 1991-yilda mamlakatda 41ta oliy o'quv yurti mavjud bo'lib, 2000-yilga kelib bu

ko‘rsatkich 61 taga yetdi. Bu davrda oliy ta’lim muassasalarining soni 20taga ko‘paydi.

1992-yil 28-fevralda “Respublikaning yangi oliy o‘quv yurtlarini tashkil qilish to‘g‘risida”gi Prezidentning PF-356-sonli farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonning asosiy mazmuni shundaki, u sobiq SSSR davridagi ta’lim tizimidan voz kechib, O‘zbekistonning mustaqil ta’lim siyosatini shakllantirishda muhim qadam bo‘ldi. Farmon ta’lim sohasini yanada rivojlantirish, ilmiy salohiyatni oshirish, oliy malakali pedagog va mutaxassislar tayyorlashni zamon talablari asosida yo‘lga qo‘yishga xizmat qilgan.

Farmon bilan 8 ta viloyat pedagogika institutlari universitetlarga aylantirildi.

- Andijon davlat universiteti – Andijon pedagogika instituti negizida;
- Buxoro davlat universiteti – Buxoro pedagogika instituti negizida;
- Farg‘ona davlat universiteti – Farg‘ona pedagogika instituti negizida;
- Jizzax davlat universiteti – Jizzax pedagogika instituti negizida;
- Namangan davlat universiteti – Namangan pedagogika instituti negizida;
- Navoiy davlat universiteti – Navoiy pedagogika instituti negizida;
- Qarshi davlat universiteti – Qarshi pedagogika instituti negizida;
- Urganch davlat universiteti – Xorazm pedagogika instituti negizida tashkil etildi.

Ushbu o‘zgarishlar orqali institutlarning o‘quv-ilmiy salohiyati kengaytirildi, ilmiy-tadqiqot faoliyati faollashtirildi, yangi fakultet va yo‘nalishlar ochishga imkon yaratildi. Universitet maqomi ushbu muassasalarni mintaqaviy va milliy taraqqiyot markazlariga aylantirishda asos bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekistonning mustaqil ta’lim siyosatini shakllantirish, viloyatlarda oliy ta’limning sifatini oshirish va unga qulay sharoitlar yaratish, hududiy mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish, yangi mustaqil davlat talablariga mos kadrlar zahirasini shakllantirish kabi bir qator maqsadlar Farmon qabul qilinishidan ko‘zda tutilgan asosiy maqsadlar edi. Shu bilan birga, universitet maqomi o‘quv jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish, ilm-fan va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Bu esa, keyinchalik O‘zbekistonda ta’lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlariga asos bo‘ldi va mamlakatning intellektual salohiyatini mustahkamlagan muhim huquqiy hujjat sifatida xizmat qildi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1992-yil 12-maydagi “O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetini tashkil qilish to‘g‘risida”gi 401-son Farmoniga asosan Respublika Rus tili va adabiyoti instituti hamda Toshkent chet tillari pedagogika institutining birlashtirilishi orqali O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tashkil qilindi. Universitetda bir qator xorijiy tillar bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lgan talabalar bugungi kunda xalqaro miqyosda turli jabhalarda faoliyat yuritishmoqda. Universitet bitiruvchilaridan yetuk tarjimonlar, chet tili o‘qituvchilari, siyosatchilar, xalqaro tashkilotlar va turli qo‘shma korxonalarda faoliyat olib borayotgan yetakchi mutaxassislar yetishib chiqishgan. Bugungi kundagi universitet ta’lim jarayoni jahon hamjamiyati talablariga javob beradigan tilshunoslar va tarjimonlar tayyorlashga qaratilgan. Bugungi kunda ham universitetda malakali kadrlar tayyorlash davlat ta’lim standartlari asosida amalga oshirib kelinmoqda.

Oliy o‘quv yurtlarini ixtisoslashtirish maqsadida bitta yirik institutdan (Toshkent politexnika instituti) ikkita oliy ta’lim muassasasi (Toshkent kimyo-texnologiya instituti va Toshkent arxitektura-qurilish instituti) tashkil etildi. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Toshkent davlat universiteti tarkibiga birlashib, mustaqil universitetga aylandi. Har bir oliy ta’lim muassasasi oldiga joriy etilgan yangi maqom asosida yo‘riqnomalar shakli va mazmunini qayta tashkil etish bo‘yicha aniq vazifalar qo‘yildi. Shu bilan birga, bir jamiyatning bir qator sohalarini isloh etish va mamlakat kelajagi uchun yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash maqsadida 1991-1995-yillar oralig‘ida qator yangi oliy ta’lim muassasalari tashkil etildi.

Davlat va jamiyat boshqaruviga oid strategik fikrlovchi, fidoyi va yuksak kasbiy madaniyatga ega yetakchi mutaxassislar zahirasini yaratish, ularning malakasini doimiy oshirib borish hamda ilg‘or boshqaruv tajribalarini joriy qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 19-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida davlat va ijtimoiy qurilish akademiyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-1097 sonli farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi tashkil etildi. Akademiya faoliyatining asosiy vazifa va yo‘nalishlari quyidagicha belgilandi:

- davlat, jamoat va xo‘jalik tuzilmalari xodimlari hamda rahbarlari orasidan iste’dodli, aql-zakovatli tinglovchilarni puxta tanlab olish, ularning siyosiy, ma’naviy-axloqiy va professional saviyasini oshirish, ularni respublikada milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligi asosiga qurilgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolar jamiyatini barpo etishning e’tiqodli tarafdorlari qilib tarbiyalash;
- oliy-ma’lumotli va oliy o‘quv yurtini bitirganidan so‘ng kamida ikki yil ishlagan mutaxassislar orasidan har tomonlama zukko, ma’naviy va professional jihatdan yetuk bo‘lgan yoshlarni istiqbolli yosh menejer hamda boshqaruvchilar qilib tarbiyalash uchun qabul qilish;
- rahbar xodimlar va mutaxassislarni attestatsiyadan o‘tkazishning yangi tizimini ishlab chiqish va joriy qilishda ishtirok etish;
- professional rahbar tayyorlashning zamonaviy usullarini qo‘llagan holda rahbarlarni tayyorlash hamda ijtimoiy va davlat qurilishining barcha bo‘g‘inlari uchun rahbarlar zahirasi umumdavlat bankini shakllantirish;
- tegishli mutaxassisliklar bo‘yicha doktorantura va aspirantura orqali yuqori malakali kadrlarni tayyorlash;
- davlat va ijtimoiy qurilishni, iqtisodiy taraqqiyotni, psixologiya va sotsiologiyani takomillashtirish sohasida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, shuningdek kadrlar siyosatini takomillashtirish yuzasidan tavsiyanomalar ishlab chiqish;
- xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish muassasalari faoliyati bo‘yicha konsepsiyalar, dasturlar, loyihalar, tavsiyanomalar va boshqa hujjatlarni ilmiy ekspertiza qilish;
- rahbar xodimlarning malakasini oshirish va ularni tayyorlash sohasida xalqaro hamkorlik.

1991–1995-yillarda O‘zbekistonda ilm-fanni rivojlantirish va ta’lim tizimini xalqaro andozalar darajasiga olib chiqishga qaratilgan muhim islohotlar amalga oshirildi. 1992-yil 18-fevralda Birinchi Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan Fan va texnika davlat qo‘mitasi tashkil etilib, uning vazifasi ilmiy faoliyatni muvofiqlashtirish, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirishdan iborat bo‘ldi. 1993-yildan boshlab davlat ta’lim standartlari ishlab chiqilib, bakalavrlar tayyorlash tizimiga joriy etildi. 1995-yil 31-mayda Vazirlar Mahkamasi viloyatlardagi oliy o‘quv yurtlarini rivojlantirishga doir qaror qabul qildi. Shu yili axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha tajriba loyihalari yo‘lga qo‘yilib, Toshkent axborot texnologiyalari institutida birinchi elektron kutubxona va masofaviy ta’lim bo‘limi tashkil etildi. 1995-yildan boshlab Germaniya, AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar bilan xalqaro hamkorlik kuchaytirilib, qo‘shma o‘quv dasturlari va ilmiy almashinuvlar yo‘lga qo‘yildi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, 1991-1995-yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimining shakllanishi va rivojlanishi yangi davlat mustaqilligining ijtimoiy-siyosiy talablari, milliy manfaatlar va global ta’lim standartlari asosida shakllandi. Bu davrda mustaqil oliy o‘quv yurtlari tashkil etildi, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda zamonaviy universitetlar ochildi, oliy ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va sifatni ta’minlashga qaratilgan normativ-huquqiy baza yaratildi. Oliy ta’lim tizimi tuzilmasining takomillashuvi, magistratura bosqichining joriy etilishi, oliy ta’limning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash borasida muhim qadamlar qo‘yildi. Natijada, oliy ta’lim tizimi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiladigan, raqobatbardosh va milliy qadriyatlarga asoslangan tamoyillar bilan boyidi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Sh.Kholmuminov. An overview of Uzbekistan’s education system: past and future. Iqtisodiyot va ta’lim / 2023-yil 5-son. – B. 327.

2.G.Xolboyeva O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar // Journal of new century innovations. Volume–32 Issue-2 Iyul 2023. – B 43.

3.Rakhimova G. Oliy ta’limda axborot texnologiyalarini joriy etish bosqichlari // *Ilm-fan va texnologiyalar* №4: 2006. – B. 96-100.

4.Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.

5.Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор. Табаррук рисолалар. –Тошкент: Адолат, 2007.–Б. 109.

6.Mamadaliyev B. *Oliy ta’limda xalqaro hamkorlik: imkoniyat va muammolar*. Toshkent: Fan. 2001. – B. 112.

7.Курбанбаева, М. (2023). Важность формирования навыков самостоятельного мышления при подготовке конкурентоспособных кадров. Tamaddun nuri jurnali, *5*(44), 95-96.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 17.51

ZAMONAVIY O‘ZBEK MATBUOTIDA METAFORIK IFODA VA UNING KOGNITIV-PRAGMATIK TAHLILI

Karimova Mahliyo Ataboyevna, Urganch innovatsion universiteti “Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili” yo‘nalishi 22-01 guruh 4-bosqich talabasi

METAPHORICAL EXPRESSION IN MODERN UZBEK MEDIA AND ITS COGNITIVE-PRAGMATIC ANALYSIS

Karimova Mahlio Ataboyevna, Urgench Innovative University Student of the 4th year, Group 22-01, Department of “Philology and Language Teaching: Uzbek Language”

МЕТАФОРИЧЕСКИЕ ВЫРАЖЕНИЯ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ МЕДИЙНОМ ДИСКУРСЕ И ИХ КОГНИТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Каримова Махлиё Атабоевна, студентка 4-курса группы 22-01 направления “Филология и преподавание языков: узбекский язык” Ургенчского инновационного университета

https://orcid.org/0009-0001-5893-9008
e-mail: sharipova.mahliyo@icloud.com

Annotatsiya: *Maqolada zamonaviy o‘zbek matbuotida qo‘llanilayotgan metaforik ifodalar tahlil qilinadi hamda ularning siyosiy va ijtimoiy matnlarda ma’no yaratishdagi roli kognitiv-pragmatik yondashuv asosida o‘rganiladi. Tadqiqot IMRAD modeli bo‘yicha olib borilgan bo‘lib, konseptual metafora nazariyasi (Lakoff & Johnson, 1980), pragmatik tahlil usuli hamda matn diskursini semantik darajada o‘rganish metodlari asos qilib olingan. Natijalar metaforik ifoda siyosiy diskursda ijtimoiy ongni shakllantirish, baho berish va manipulyativ strategiyalarni amalga oshirishda muhim vosita ekanini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *metafora, kognitiv tahlil, pragmatika, siyosiy diskurs, mediamatn, konseptualizatsiya, semantik xarita.*

Annotation: *This article analyzes metaphorical expressions in modern Uzbek mass media and explores their role in meaning construction within political and social texts from a cognitive-pragmatic perspective. The study follows the IMRAD structure and is based on conceptual metaphor theory (Lakoff & Johnson, 1980), pragmatic analysis, and discourse semantics. The findings show that metaphors in Uzbek media function as cognitive and persuasive tools that shape public opinion, convey ideological meanings, and construct evaluative frameworks within political discourse.*

Keywords: *metaphor, cognitive linguistics, pragmatics, political discourse, media language, conceptual mapping, semantic framing.*

Аннотация: *В статье исследуются метафорические выражения, используемые в современном узбекском медийном дискурсе, а также их роль в создании смысла в политических и социальных текстах. Исследование проведено в соответствии с моделью IMRAD и основано на теории концептуальной метафоры (Лакофф и Джонсон, 1980), а также на методах когнитивно-прагматического анализа и семантического описания дискурса. Результаты показывают, что метафора является не только художественным, но и когнитивным инструментом, способствующим формированию общественного мнения и идеологических интерпретаций в СМИ.*

Ключевые слова: *метафора, когнитивная лингвистика, прагматика, политический дискурс, медиатекст, концептуализация.*

KIRISH. (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Zamonaviy o‘zbek matbuotida metafora nafaqat badiiy vosita, balki ma’no yaratish, baho berish va ijtimoiy ongni shakllantirish mexanizmi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Metafora orqali jurnalist va siyosiy tahlilchilar abstrakt tushunchalarni konkret obrazlar yordamida ifodalaydi.

Masalan**, “iqtisodiyot yuragi to‘xtab qoldi”, “davlat kemasi og‘ir to‘lqinlarda”, “xalq ovozi”** kabi iboralar oddiy tildan tashqari, ma’naviy va hissiy ma’nolarni hosil qiladi.

Tadqiqotning maqsadi — o‘zbek matbuotidagi metaforik ifodalarning kognitiv asoslari va pragmatik maqsadlarini aniqlashdir. Dolzarblik shundaki, zamonaviy OAV tili kognitiv va emotsional ta’sir kuchiga ega bo‘lib, siyosiy pozitsiyalarni ifodalashda metafora strategik ahamiyatga ega.

METODOLOGIYA (METHODS / МЕТОДОЛОГИЯ). Tadqiqot yondashuvlari. Mazkur tadqiqot Lakoff va Johnson (1980) tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasiga tayanadi. Bu yondashuvga ko‘ra, metafora faqat badiiy vosita emas, balki inson tafakkurining konseptual strukturasini shakllantiruvchi asosiy kognitiv mexanizm hisoblanadi. Shu sababli, tadqiqotda metafora til birliklarining estetik ifodasi sifatida emas, balki dunyoqarash va ijtimoiy ongni modellashtiruvchi konseptual tizim sifatida o‘rganildi.

Tahlil quyidagi uchta metod asosida olib borildi:

Kognitiv tahlil – metaforik modellarni konseptual xaritalash (mapping) tamoyili asosida tahlil qilish. Bu yondashuv orqali metafora orqali inson tafakkuridagi “siyosat”, “jamiyat”, “islohot” kabi abstrakt tushunchalarning qanday obrazlar orqali ifodalanishi o‘rganildi.

Pragmatik tahlil – metaforalarning maqsadli auditoriyaga ta’sir o‘tkazish, baholovchi va manipulyativ vazifalarini aniqlash. Shu jarayonda muallifning nutq strategiyasi, matnning emotsional uslubi va o‘quvchi bilan kommunikativ munosabat shakllari tahlil qilindi.

Diskurs tahlili – metaforalarning siyosiy va ijtimoiy matnlardagi ishlatilish konteksti, ularning ijtimoiy ma’no yaratishdagi roli hamda ideologik funksiyasi aniqlab chiqildi.

Bu metodlar integratsiyasi metaforaning nafaqat semantik, balki psixologik, madaniy va kommunikativ qatlamlarini ochib berishga imkon berdi.

Material va manbalar. Tadqiqot materiali sifatida 2023–2025-yillar davomida o‘zbek OAVlarida chop etilgan 50 dan ortiq tahliliy maqolalar tanlab olindi. Manbalar:

Gazeta.uz – siyosat bo‘limi;

Kun.uz – ijtimoiy tahlillar;

BBC O‘zbek – tahliliy maqolalar;

Daryo.uz;

O‘zbekiston-24.

Tanlov jarayonida maqolalar diskursiv xilma-xillik, metafora zichligi va ijtimoiy-siyosiy mavzularni yoritish uslubi bo‘yicha saralandi. Maqsad — o‘zbek jurnalistik diskursida metaforaning qanday konseptual maydonlarda (siyosat, iqtisod, ijtimoiy hayot, islohotlar) faol ishlatilishini aniqlash edi.

NATIJALAR(РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS).Metaforaning turlari. Tahlil natijalariga ko‘ra, o‘zbek matbuotida quyidagi asosiy metafora turlari faol qo‘llanilmoqda:

Harbiy metafora – “kurash”, “jang”, “g‘alaba” kabi birliklar siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni harbiy faoliyat sifatida tasvirlaydi (“Korrupsiyaga qarshi kurash”, “Virusga qarshi jang”).

Tana metaforasi – jamiyat yoki davlat inson tanasiga qiyoslanadi (“Iqtisodiyot yuragi”, “Jamiyat tanasi”, “Hukumat qo‘li”).

Tabiat metaforasi – ijtimoiy voqealar tabiiy kuchlar orqali ifodalanadi (“Bozor shamoli”, “Islohotlar to‘lqini”, “Siyosiy iqlim”).

Harakat metaforasi – rivojlanish jarayoni yo‘l va harakat orqali tasvirlanadi (“Yangi bosqichga qadam”, “Yo‘l xaritasi”, “Orqaga chekinish”).

Ushbu metaforalar tilda dinamika, emotsional ta’sirchanlik va ijtimoiy baholash kuchini oshiradi. Ayniqsa, siyosiy matnlarda harbiy va harakat metaforalari orqali muallif o‘z pozitsiyasini emotsional jihatdan kuchli ifodalaydi.

Kognitiv mexanizmlar. Metafora inson tafakkurida konseptual xarita (conceptual mapping) asosida ishlaydi. Masalan, “siyosat – bu urush” modeli orqali siyosiy jarayonlar raqobat, strategiya, g‘alaba va mag‘lubiyat kabi harbiy obrazlar bilan bog‘lanadi. Bu model o‘quvchi ongida voqealarni intellektual emas, hissiy asosda tushunishga yordam beradi. Natijada, metafora ma’no yaratish jarayonida markaziy rol o‘ynaydi va matbuotning ta’sirchanligini oshiradi.

TAMADDUN NURI

Metaforalarning semantik asosida konseptual birlashish jarayoni yotadi — ya'ni inson tajribasidagi real sohalar (tana, tabiat, harakat) abstrakt sohalarga (siyosat, iqtisod, ijtimoiy jarayonlar) o'tkaziladi. Bu Lakoff va Johnson nazariyasidagi asosiy tamoyilni — "bir domen orqali boshqasini tushunish" g'oyasini tasdiqlaydi.

Pragmatik funksiyalar. Metaforaning amaliy (pragmatik) vazifalari uchta asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi:

Baholovchi – muallifning subyektiv pozitsiyasini ifoda etadi ("Hukumat kemasi og'ir to'lqinlarda" iborasi inqirozni bildiradi).

Persuasiv – o'quvchini ishontirish, muayyan fikrni emotsional jihatdan mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Identifikatsion – o'quvchini umumiy g'oya bilan birlashtiradi, jamoaviy identitetni shakllantiradi ("Xalq ovozi", "Millat yuragi").

Bularning barchasi metaforaning nutqdagi manipulyativ salohiyatini tasdiqlaydi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, metafora siyosiy va ijtimoiy matnlarda kognitiv model va kommunikativ strategiya sifatida ikki tomonlama rol o'ynaydi. Kognitiv jihatdan, u murakkab tushunchalarni soddalashtirib, ularni tasavvur qilinadigan obrazlar orqali tahlil qilish imkonini beradi; Pragmatik jihatdan, u auditoriyaning e'tiborini boshqaradi, hissiy reaksiya uyg'otadi va ijtimoiy yo'nalishni shakllantiradi. Masalan, "Islohotlar to'lqini" iborasi o'quvchida yangilanish va harakat hissini uyg'otadi, "davlat kemasi cho'kmoqda" kabi metafora esa xavf, inqiroz va tanqid kayfiyatini hosil qiladi. Shu tariqa, metafora baholovchi semantik maydon yaratadi va u orqali matbuot tilida yashirin ideologik qatlamlar paydo bo'ladi. O'zbek tilshunoslari — S.Mamatov, G.Abduqodirova va N.Bozorova (2023–2024) — bu jarayonni "metafora orqali ijtimoiy ongni shakllantirish" deb atashadi. Ularning ta'kidlashicha, zamonaviy diskursda metafora ijtimoiy mafkura va estetik nutqning tutash nuqtasiga aylanib bormoqda. Natijada, metaforik ifoda g'oyaviy mazmunni yashirin tarzda yetkazish, auditoriyani hissiy yo'nalishga olib kirish va fikrlar muvofiqligini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ /CONCLUSION). Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, zamonaviy o'zbek matbuotida metafora tildagi badiiy vosita bo'lishdan tashqari, ma'no yaratishning, ijtimoiy haqiqatni modellashtirishning va ta'sirchan kommunikatsiyaning asosiy kognitiv-pragmatik vositasiga aylangan. Metaforalar orqali mualliflar murakkab siyosiy yoki iqtisodiy hodisalarni tushunarli, obrazli va hissiy tarzda ifodalaydilar. Shu bilan birga, metafora auditoriyani muayyan ideologik yo'nalishga yo'naltiradi va o'quvchining hissiy qabulini boshqaradi.

Shunday qilib, metafora o'zbek matbuoti diskursida:

- **kognitiv jihatdan** – tafakkurni konseptual xaritalar asosida modellashtiradi;
- **pragmatik jihatdan** – o'quvchini ishontiruvchi kommunikativ mexanizm sifatida ishlaydi;
- **ijtimoiy jihatdan** – baholovchi semantik maydon va milliy identitetni shakllantiradi.

Bu jihatdan metafora o'zbek tilidagi ijtimoiy diskursda fikrlash, his qilish va ijtimoiy ongni ifodalash vositasi sifatida o'z markaziy o'rnini saqlab qolgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Lakoff,G. & Johnson,M. (1980). *Metaphors We Live By.* University of Chicago Press.
2. Abduqodirova G. (2023). *Kognitiv metafora va matn lingvistikasi.* Toshkent: Fan.
3. Bozorova N. (2024). *O'zbek siyosiy diskursida metaforik model.* Academia.edu
4. Mamatov S. (2024). *O'zbek matbuotida metaforik ifoda va diskursiv strategiyalar.* ResearchGate
5. Charteris-Black,J. (2014). *Analysing Political Speeches: Rhetoric, Discourse and Metaphor.* Palgrave Macmillan.
6. Gazeta.uz (2024). *Siyosat va jamiyat maqolalar to'plami.* https://gazeta.uz/oz/politics/
7. BBC O'zbek (2025). *Tahliliy maqolalar bo'limi.* https://bbc.com/uzbek
8. Kun.uz (2024). *Jamiyatdagi islohotlar metaforasi.* https://kun.uz/uz/news/category/jamiyat

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK:347.99.007(045)

O‘ZBEKISTON SSR SUD TIZIMIDAGI KADRLAR MASALASI: TARIXIY TAHLIL (1925–1945-yillar)

Komolov Dilshod Pulatovich,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasi professori,
tarix fanlari doktori(DSc)

THE PERSONNEL PROBLEM IN THE COURT SYSTEM OF THE UZBEK SSR: A HISTORICAL ANALYSIS (1925–1945)

Komolov Dilshod Pulatovich,
University of Economics and Pedagogy
Professor of the Department of History and Social Sciences,
Doctor of Historical Sciences (DSc)

ПРОБЛЕМА КАДРОВ В СУДЕБНОЙ СИСТЕМЕ УЗБЕКСКОЙ ССР: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ (1925–1945 ГОДЫ)

Комолов Дильшод Пулатович,
Университет экономики и педагогики
Профессор кафедры Истории и общественных наук,
доктор исторических наук (DSc)

https://orcid.org/0009-0000-6812-4577
e-mail: dilshod.komolov.2025@bk.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada XX asrning ikkinchi choragida O‘zbekiston SSR sud tizimida mavjud bo‘lgan kadrlar muammosi yoritilgan. Unda sudyalar tarkibining milliy tuzilmasi, ularning oliy ma’lumot darajasi hamda sovet totalitar rejimi tomonidan sohaga nisbatan amalga oshirilgan repressiyalar ilmiy tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Oliy sud, viloyat sudi, xalq sudi, sudya, yurist, o‘quv kursi.*

Annotation: *This article highlights the personnel problem that existed in the court system of the Uzbek SSR during the second quarter of the 20th century. It provides a scholarly analysis of the national composition of judges, their level of higher education, and the repressions carried out by the Soviet totalitarian regime against the judicial sphere.*

Key words: *Supreme Court, regional court, people's court, judge, lawyer, training course.*

Аннотация: *В данной статье освещается проблема кадров, существовавшая в судебной системе Узбекской ССР во второй четверти XX века. Проведен научный анализ национального состава судей, уровня их высшего образования, а также репрессий, осуществлённых советским тоталитарным режимом в отношении судебной сферы.*

Ключевые слова*: Верховный суд, областной суд, народный суд, судья, юрист, учебные курсы.*

DOLZARBLIGI. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etish uchun zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy poydevor yaratildi. “Inson qadri uchun” tamoyiliga asoslangan holda, fuqarolar farovonligini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish, inson huquq va manfaatlarini ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. Shuningdek, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida sudyalarning malakasini oshirish,

korrupsiyaga qarshi choralar va sud tizimining xalqqa yaqinligini oshirish kabi yo‘nalishlar o‘rin olgan. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda sud hokimiyati tarixini, ya’ni davlat hokimiyatining ajralmas qismi bo‘lgan sud tizimining tarixini o‘rganish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Maqola tarixiylik, tanqidiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, izchillik va xolislik tamoyillari asosida yozilgan. Unda XX asrning ikkinchi choragida O‘zbekiston SSR sud tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishda amalga oshirilgan davlat siyosati tahlil etiladi. Sovet davri huquqshunoslari bu masalaga murojaat qilgan bo‘lsalar-da, ularning ishlari hukmron mafkura ta’sirida biryoqlama yoritilgan, sud tizimidagi ichki ziddiyatlar va sovet hukumatining repressiv siyosati haqida so‘z yuritilmagan. Shu sababli, sud tizimidagi kadrlar muammosi hozirgacha kompleks ilmiy muammo sifatida yetarlicha o‘rganilmagan.

TADQIQOT NATIJALARI. 1924-yilda sovet hokimiyati “bo‘lib tashla va hukmronlik qil” siyosati asosida O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralashni amalga oshirdi va natijada O‘zbekiston SSR tashkil topdi. Fayzulla Xo‘jayev rahbarligidagi O‘zbekiston SSR Inqilobiy qo‘mitasi zimmasiga sobiq Turkiston ASSR, Buxoro SSR va Xorazm SSRdan O‘zbekiston tarkibiga o‘tgan hududlarda bir-biridan farq qiluvchi sud mahkamalarini tugatish hamda butun respublikada yagona sud tizimini tashkil etishdek g‘oyat mas’uliyatli vazifa turar edi. 1924-yil 26-noyabrda O‘zbekiston SSR Inqilobiy qo‘mitasining yig‘ilishida Fayzulla Xo‘jayev Adliya xalq komissari G‘oziyevga sud haqidagi me’yoriy hujjatlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha topshiriq bergan edi [1].

1925-yil 13-fevralda Buxoroda O‘zbekiston SSR Sovetlarining Birinchi Qurultoyi ochildi va 17-fevralda “O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining tashkil topishi to‘g‘risidagi deklaratsiya” qabul qilindi[2,-B.298]. Sud tizimi xalq sudlari, viloyat sudlari, Tojikiston ASSR Oliy sudi va O‘zbekiston SSR Oliy sudidan iborat bo‘ldi. Eng muhim muammolardan biri — kadrlar yetishmovchiligi edi.

Adliya xalq komissarligining rasmiy nashri ma’lumotlariga ko‘ra 1925-yil o‘rtalariga kelib O‘zbekistonda 74 ta xalq sudi mavjud bo‘lib, viloyatlar bo‘yicha quyidagicha taqsimlangan edi: Farg‘onada 21 ta, Toshkentda 23 ta, Samarqandda 20 ta, Zarafshonda 3 ta, Qashqadaryoda 3 ta, Xorazmda 3 ta va Surxondaryoda 1 ta[3,-C.62].

Statistik ma’lumotda keltirib o‘tilishicha, O‘zbekiston SSRdagi bir nafar xalq sudyasi o‘rtacha 54 ming nafar aholiga xizmat ko‘rsatishi lozim edi[3,-C.62]. Shu sababli, O‘zbekiston SSR hukumati tashkil topgan dastlabki kunlardanoq qozi sudlarini siqib chiqarishning muhim vositasi bo‘lgan xalq sudlari tarmog‘ini kengaytirishga katta e’tibor berdi.

1926-yilga kelib xalq sudlari soni bir oz oshdi. Jumladan, 1926-yil 1-avgust holatida Farg‘onada 34 ta, Samarqandda 22 ta, Toshkentda 21 ta, Zarafshonda 11 ta, Qashqadaryoda 7 ta, Xorazmda 7 ta, Surxondaryoda 6 ta va butun respublika bo‘yicha jami 108 ta xalq sudlari faoliyat yuritgan[4].

O‘zbekiston SSRda ilk bor 1925-yil 29-yanvarda ma’muriy-hududiy bo‘linish amalga oshirildi va Samarqand, Farg‘ona, Toshkent, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo hamda Xorazm viloyatlari tashkil etildi.

Turkiston ASSRning Samarqand va Farg‘ona viloyat sudlari O‘zbekiston SSR tarkibida keyinchalik ham faoliyatini davom ettirdi. Turkiston ASSRning sobiq Sirdaryo viloyat sudi Toshkent shahrida joylashgan edi. O‘zbekiston SSR tashkil topgach, endi u Toshkent viloyati sudi sifatida qaytadan tashkil etildi va 1924-yil dekabr oyidayoq faoliyatini boshlagan edi[5].

Buxoro SSRning Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo okrug sudlari O‘zbekiston tarkibida viloyat sudlari sifatida qaytadan tashkil etildi. Buxoro SSR Oliy sudi esa tugatildi. Uning sudloviga oid tugallanmagan ishlar hamda arxiv hujjatlari Buxoro shahrida joylashgan Zarafshon viloyat sudiga topshirildi[6,-C.121].

1924-yilning oxirida rais va uch nafar sudyadan iborat Xorazm SSR Oliy sudi tugatildi va uning o‘rnida Xorazm viloyat sudi tashkil etildi. Oldin XSSR Oliy sudi raisi lavozimida ishlagan Jumaniyoz Eshmuhammedov Xorazm viloyat sudining birinchi raisi etib saylandi[7].

1925-yilda O‘zbekiston SSR tarkibidagi viloyat sudi sudyalarining jami soni 41 nafar bo‘lib, Toshkent viloyat sudida 9, Samarqandda 8, Farg‘onada 6, Zarafshonda 5, Qashqadaryoda 5, Surxondaryoda 5, Xorazmda 3 nafar sudya faoliyat

yuritgan. Viloyat sudi sudyalarining 29 nafari o‘zbek va 12 nafari yevropaliklarga mansub edi[3,– C.61].

Tojikiston ASSR O‘zbekiston tarkibida avtonom respublika sifatida tashkil etilishi munosabati bilan 1925-yil 23-martda O‘zbekiston SSR MIQ Oliy sudning Tojikiston ASSR bo‘limini tashkil etish haqida qaror qabul qildi. Oliy sudning Tojikiston ASSR bo‘limi jinoyat sudlov va jinoyat kassatsiya hay’atlaridan iborat edi. Ushbu sud tarkibida fuqarolik sudlov va fuqarolik kassatsiya hay’atlari mavjud emas edi. Tojikiston ASSR okrug sudlarining fuqarolik hay’ati qabul qilgan qarorlar yuzasidan kelib tushgan shikoyatlar kassatsiya tartibida O‘zbekiston SSR Oliy sudida ko‘rib chiqilar edi[8].

O‘zbekiston SSR Inqilobiy qo‘mitasining 1924-yil 13-dekabrdagi 28 kishi ishtirok etgan majlisida O‘zbekiston SSR Oliy sudini tashkil etish va uning tarkibini tasdiqlash haqidagi masala ko‘rib chiqildi. Yig‘ilishda Adliya xalq komissari G‘oziyev Oliy sudning vakolatlari yuzasidan ma’ruza qildi[9]. Inqilobiy qo‘mita qarori bilan RSFSR Oliy sudining Toshkentdagi Turkiston bo‘limi tugatilib, uning ish yuritish hujjatlari, kanselyariyasi, arxivi O‘zbekiston SSR Oliy sudiga o‘tkazildi.

O‘zbekiston SSR Oliy sudining birinchi tarkibiga jami 7 kishi: rais - A.SH.Sharafutdinov, sudlov hay’ati raisi vazifasini bajaruvchi birinchi o‘rinbosar - I.M.Chudayev, kassatsiya hay’ati raisi vazifasini bajaruvchi ikkinchi o‘rinbosar B.A.Sharopov, a’zolari etib Said Ahmatov, Upelnik, Ryaxovskiy, Hoji Oral tayinlangan[10,-C.78]. 1925-yilning dekabr oyiga kelib Oliy sudning yangi tarkibi: rais – S.Qosimov, uning o‘rinbosari – Chudayev, Oliy sud a’zolari Sarimsoqov, Trofimov, Pinevich, Xushmonov, Aliyev O‘zbekiston SSR MIQ tomonidan saylanadi.

Ammo Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm tumanlarida sud tizimining holati og‘ir edi. Mutaxassislar yo‘qligi sababli, sobiq qozilar “xalq sudyalari” etib tayinlangan. 1929–1930-yillarda esa keng ko‘lamli “tozalash” ishlari o‘tkazilib, ko‘plab sud va adliya xodimlari, jumladan Oliy sud raisi S.Qosimov qamoqqa olingan, ayrimlari otib tashlangan.

1930-yillarda sud tizimi deyarli falaj holatga kelgan. 1930-yilda sudyalarning 64 foizi faqat boshlang‘ich, 14 foizi o‘rta, 17 foizi to‘liq o‘rta va atigi 5 foizi oliy ma’lumotli edi. 1936-yilda Adliya xalq komissari S. Xo‘jayev ma’lumotiga ko‘ra, xalq sudyalarining 35 foizi bilim va malaka yetishmasligi sababli ishdan bo‘shatilgan.

1937-yilda 209 ta xalq sudi ro‘yxatda bo‘lsa-da, ularning 8 tasi mutaxassis yetishmasligi sababli faoliyat yuritmagan. 201 nafar sudyaning 10 nafari oliy, 15 nafari boshlang‘ich ma’lumotli, 74 nafari qisqa kursni bitirgan, 102 nafari esa huquq sohasida hech qanday tayyorgarlikka ega bo‘lmagan[11].

Sovet Ittifoqining boshqa respublikalarida ham holat shunga o‘xshash edi. Masalan, 1937-yil holatiga ko‘ra, RSFSRdagi 4 616 sudyaning 2 202 nafari huquq sohasi bo‘yicha ma’lumotga ega emas edi. O‘zbekiston SSRda 490 nafar sudyaning 305 nafari huquqiy ma’lumotga ega bo‘lmagan. 1937–1939-yillarda O‘zbekiston SSRda 541 nafar sudya turli sabablarga ko‘ra lavozimidan ozod etilgan. Ularning ko‘pchiligi xizmat vazifasini suiiste’mol qilganlik, qonunbuzarlik yoki yaqin qarindoshlarining “siyosiy jinoyatlari” uchun lavozimidan ozod etilgan.

1940-yilga kelib, viloyat va tuman sudlarida 68 nafar sudya ishlagan, ularning 17 nafari oliy yuridik ma’lumotli edi. Sudyalarning 44 nafari mahalliy millat vakili bo‘lgan. Urush yillarida sud tizimida xizmat qilayotgan sudyalarning bir qismi frontga safarbar etildi. 1942-yil holatiga ko‘ra ushbu ko‘rsatkich ba’zi viloyatlarda 20-30%ni tashkil etgan. Masalan, Farg‘onada 24 nafar xalq sudyasidan 8 nafari, Buxoro viloyatida 36 nafar xalq sudyasidan 6 nafari urushga safarbar etilgan edi[12]. Natijada sud tizimida bo‘sh lavozimlarni to‘ldirish Adliya xalq komissarligi zimmasiga og‘ir yuk sifatida tushgan. Shu davrda Toshkent yuridik instituti qayta faoliyatini boshlagan va 1943-yilda 4 oylik va 6 oylik huquqshunoslar tayyorlaydigan kurslari tashkil etilgan. 1945-yilga kelib ham O‘zbekiston SSR sud tizimidagi oliy ma’lumotli sudyalar soni juda kam bo‘lib, Oliy sudda 11 nafar, viloyat sudlarida 27 nafar, xalq sudlarida esa 56 nafar oliy ma’lumotli sudya faoliyat yuritgan[13].

XULOSA. XX asrning ikkinchi choragida O‘zbekiston SSR sud tizimida kadrlar yetishmovchiligi muammosi o‘z yechimini topmadi. Sovet hokimiyatining bosimi ostida sudyalar tez-tez lavozimidan ozod qilinar, bu esa

malakali kadrlar yetishmovchiligini yanada chuqurlashtirardi. Natijada tajribasiz, ba'zan savodsiz shaxslar ham sudya lavozimiga tayinlanib, sud tizimining obro'siga putur yetkazgan. Urush yillari bu jarayonni yanada og'irlashtirib, sud ishlarida jiddiy xatoliklar va protsessual buzilishlar ko'paygan. Faqat urushdan keyingi yillarda, asta-sekinlik bilan, sud tizimida barqarorlik yuzaga kelgan. Shu tariqa, XX asrning ikkinchi choragida O'zbekiston SSR sud tizimi kadrlar tanqisligi, malaka pastligi va siyosiy bosimlar tufayli inqiroz holatida bo'lgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zMA, R-87- fond, 1-ro'yxat, 3-ish, 9-varaq.

2.Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2–китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида / Илмий муҳаррир М. Жўраев. – Тошкент: Шарқ, 2000. –Б.298.

3.Уразаев А. Судебные органы УзССР // Вестник юстиции Узбекистана. –Ташкент, 1925. –№ 2-3. – С.61.

4.O'zMA, R-904-fond, 9-ro'yxat, 104-ish, 29 varaq.

5.O'zMA, R-86-fond, 1-ro'yxat, 2129-ish, 151-varaq.

6.Расулев А. Создание и развитие советского суда в Узбекистане. – Ташкент: Госиздат УзССР, 1957. – С.121.

7.Xorazm viloyat davlat arxivi, 601-fond, 1-ro'yxat, 4-ish, 9-varaq.

8.Разыков Ш. К истории советского суда в Таджикистане. – Сталинабад: Изд. АН Тадж. ССР, 1960. – С.100.

9.O'zMA, R-87-fond, 1-ro'yxat, 3-ish, 17-18-varaqlar.

10.Шарафутдинов А. Верховный суд УзССР // Вестник юстиции Узбекистана. – Ташкент, 1925. –№ 1. – С.78-80.

11.O'zMA, R-904-fond, 9-ro'yxat, 395-ish, 214-varaq

12. O'zMA, R-904-fond, 10-ro'yxat, 154-ish, 21-32 varaqlar.

13.O'zMA, R-904-fond, 10-ro'yxat, 48-ish, 145-varaq.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 1:32(075).8

MUSOXON DAHBIDIYNING DAVLAT BOSHQARUVIGA MUNOSABATI

Yuldashxodjayev Xaydar Xashimxanovich, "Yangi asr" universiteti kafedra mudiri, dotsent, tarix fanlari nomzodi

THE ATTITUDE OF MUSOXON DAHBIDIY TOWARDS STATE GOVERNANCE

Yuldashkhodjayev Khaydar Khashimkhanovich, Head of Department, Associate Professor, Candidate of Historical Sciences, "Yangi asr" University

ОТНОШЕНИЕ МУСОХОНА ДАХБИДИ К ГОСУДАРСТВЕННОМУ УПРАВЛЕНИЮ

Юлдашходжаев Хайдар Хашимханович, заведующий кафедрой, доцент, кандидат исторических наук университета "Yangi asr"

https://orcid.org/0009-0003-3549-061X
e-mail: haydarxon69@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy o'zgarishlar, Ashtarxoniylar sulolasining tanazzuli hamda Mang'itlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi jarayonlari tahlil etilgan. Shuningdek, Shohmurod Ma'sumning siyosiy, ijtimoiy va diniy sohalardagi islohotlari hamda naqshbandiya-mujaddidiya shayxlariga berilgan imtiyozlar yoritilgan.*

Tayanch so'zlar: *jo'ybor, jo'yboriy shayxlar, jamiyat, siyosat, ijtimoiy, Ubaydullohxon, Abulfayzxon, sulola, qabila, Sevinch Muhammad, otaliq, Mir Arab madrasasi.*

Annotation: *The article analyzes the socio-political and spiritual transformations that took place in Central Asia at the end of the 17th and the beginning of the 18th centuries, the decline of the Ashtarkhanid dynasty, and the rise of the Manghit dynasty to power. It also highlights the political, social, and religious reforms of Shohmurod Ma'sum, as well as the privileges granted to the Naqshbandiyya-Mujaddidiyya sheikhs.*

Key words: *Juybar, Juybar shuykhs, society, politics, social, Ubaidullah Khan, Abulfayz Khan, dynasty, tribe, Sevinch Muhammad, paternity, Mir Arab madrasah.*

Аннотация: *В статье анализируются социально-политические и духовные изменения, произошедшие в Средней Азии в конце XVII – начале XVIII веков, упадок династии Аштарханида и приход к власти династии Мангитов. Также освещаются реформы Шохмурода Маъсума в политической, социальной и религиозной сферах, а также предоставленные шейхам накшбандия-муджадидия привилегии.*

Ключевые слова: *жуйбар, жуйбарские шуйхи, общество, политика, социальное, Убайдулла-хан, Абульфайз-хан, династия, племя, Севинч Мухаммад, отцовство, медресе Мир Араб.*

Kirish. Naqshbandiylik va so'fiylik tariqatlarining dunyoviylashuvi asosan jo'yboriylar davrida yaqqolroq namoyon bo'ldi. "Silsilot"da keltirilgan muhim ma'lumotlardan biri Maxdumi A'zamning tinchlik o'rnatishga qaratilgan faoliyati, shayboniylarning bitmas-tuganmas o'zaro ichki nizolar davri bo'lganligidir; Ayrimlarini tinch yo'l bilan hal qilgan bo'lsalar (159-a.b.164b.-166b), boshqalarida shayx shayboniylarning diplomatik va harbiy yordamidan foydalangan (muridlar orqali). Ularning (Jo'yboriylarning.- Z.E) iqtisodiy va siyosiy qudratining oshishi obro'larining oddiy odamlar orasida tushishiga olib keldi.

Shundan kelib chiqqan holda jo‘yboriy shayxlarining ta’sir doiralari ham yo‘qolib bordi. Tariqat faoliyatining siyosatlashuvi ana shu tarzda uning ma’naviy ta’sirini susaytirdi. Shu o‘rinda o‘z-o‘zidan Xojagon – Naqshbandiyaning dastlabki ustozlari ta’kidlagan ogohlantirish yodga tushadi: “hukmdorlar ishiga aralashish”, dunyoviy amallarga berilish, boylik ortidan quvish tariqatni nobud qiladi. Faqatgina XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib, Hazrati Musoxonxojai Dahbidiy naqshbandiya – mujaddidiya tariqatining obro‘yini qaytadan tiklashga erishdi.

Mutasavvif olimlarni davlat mustahkamligining va taraqqiyotining asosi deb bilgan. Olimning o‘zi o‘lsa ham, lekin uning xalqqa nafi tegadigan ilmi hamisha barhayot qoladi, deb hisoblagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Manbalarga ko‘ra, Maxdumi A’zam Xoja Bahouddin Naqshband mozorini ziyorat qilish maqsadida Buxoroga boradi. Xonaqohda suhbat qurar paytida, bir guruh (bir to‘p) jamoa kelib Maxdumi A’zamga o‘z hukmdori Sevinch Muhammad Sulton ustidan, uning fuqarosiga nisbatan qilayotgan zulmidan shikoyat qiladi. Shu asnoda Maxdumi A’zamni ziyorat qilish uchun hukmdorning o‘zi ham kirib keladi. Xalq shikoyatidan ta’sirlangan imom hukmdorga faryod qiladi: “Hoy sulton, bu jamoa tufayli do‘zax otashiga giriftor bo‘lishni o‘zingga ravo ko‘rasanmi?” Shunga o‘xshash tanbeh va nasihatlardan keyin sulton ta’sirlanib, darhol devon ishini qaytadan tuzib, fuqaroga adolatni ravo ko‘rgan ekan.

Maxdumi A’zam hukmdorlarga: “Agar podshoh odil bo‘lsa, uning karamidagi ra’iyat uni vasf qilur, agar zolim-u nodon bo‘lsa, o‘z fuqarosiga hamda o‘z boshiga jabr-u zulmatlar keltirur”, deb yo‘llanmalar berar edi. Ya’ni, u davlat rahbarlari adolatli, vijdonli, qalbi pok, talabchan, tadbirkor, o‘tkir zehnli, aql-zakovatli, uzoqni ko‘ra biladigan kishi bo‘lmog‘i lozim, deb hisoblagan. U o‘z nasihatlarini ba’zan hikoyatlar bilan hukmdorlar qulog‘iga quyar edi: “Xoja Muhammad Porso (1345 – 1420 yy) zamonida ularga e’tiqodli bir podshoh bo‘lgan va Hazrati Xoja o‘z suxanlarini minbardan ochig‘u ravshan aytar edilar. Podshohning almashinishi birla Eshon ham xatti-harakatlarini o‘zgartirib, hatto xilvatda ham aytadigan suxanlarini aytmaydigan bo‘ldilar. Buning boisini as’hoblar so‘radilar, Xoja aydilar:

Chunki nomahram daromad az daram,
Parda – dar, pinhon shudand ahli haram.
Gar daroyad mahrame dur az gazand,
Barkushoyand on satiron ro‘yband”.
Tarjimasi (Z.E.):
Eshikdin nomahram kirgani hamon,
Haram ahli bo‘ldi pardada nihon.
Gar kelsa mehribon bir rahmdil mahram,
Ochilur ul parda, ul ro‘ypo‘sh shu on.

Maxdumi A’zam o‘z zamonida katta obro‘ga jumladan, xonlar hurmatiga sazovor bo‘lgan. Ma’lumotlarga qaraganda, Buxoro xoni Iskandarxon Maxdumi A’zamga katta hurmat bildirib, uni o‘zining piri hisoblagan. U o‘zining farzandi Abdullaxon tug‘ilganida (1533 y.) o‘zining xizmatchisi Oxun Darvish Muhammadni katta sovg‘alar bilan mazkur Saidzoda (Maxdumi A’zam)ning huzuriga yuborib, undan ism qo‘yib berishni so‘ragan. Maxdumi A’zam esa g‘oyat xursandchilik bilan xonni o‘g‘il ko‘rganligi bilan tabriklab, uning farzandiga Abdulloh deb ot qo‘yishni maslahat bergan va shahzodani omadli bo‘lishi uchun duo qilgan.

Maxdumi A’zam Qur’onga tayanib, hukmdorlarni mehr – shafqatli bo‘lishga chaqiradi: Qola taolo: “Sabaqat rahmati g‘azabi”, ya’ni Haq subhona va taolo aytadikim: “Bandalarimga qahr-u g‘azabimdan ko‘ra shafqatim va rahmatim ortiqroqdir”. Xuddi shuningdek, podshohlarning ham Xudoning bandalariga bo‘lgan rahmi – shafqati, ularning qahr-u g‘azablaridan ortiqroq bo‘lishi kerakdir, toki, podshohlarning oliy himmatlari barakasidan mamlakat raiyati va darveshlari ham bu ulug‘ saodatga musharraf bo‘lsinlar:

Ma’shuqa ba har sifat, ki oyad zuhur,
Az zulmati mahz yo xud az xolisi nur.
Oshiq ba hamon sifat mavsuf gardad,
Bar dini muluk ast raiyat ma’mur.

Mazmuni, ma’shuqa qay sifatda, yo zulmat yoki nur tarzida ko‘rinsa, oshiq ham o‘sha sifatga ega bo‘lganidek, raiyat ham podshohlar dinida bo‘ladilar, deb ta’kidlaydi. Naqshbandiya tariqatining yirik namoyandalari Xoja Ahrori Valiy va Muhammad Qoziylar ushbu ta’limotning amaliy tomonlariga e’tibor qaratgan bo‘lsalar, Maxdumi A’zam shu amaliy tajriba asosida nazariy jihatlarini asoslashga harakat qiladi.

Maxdumi A'zam tariqatning rivoji podshohlarning unga xayrixohona munosabatiga bog'liq, degan fikrni qayta-qayta takrorlaydi: "Ammo, ey tolibi sodiq, shuni bilgilki, agar zamon podshohlari ularga va ularning tariqatiga ixlos hamda e'tiqod qo'yib, ularga madadkor va yordamchi bo'lsalar, bu oliy toifa (naqshbandiylar – Z.E.) ul vaqtda bu sharif nisbat (tariqat – Z.E.) bilan shug'ullanib, uni rivojlantira oladilar. Aks holda, juda mushkul bo'ladi".Maxdumi A'zamning risolalarini ko'zdan kechirganimizda uning kattagina qismi naqshbandiya faoliyatining ijtimoiy-siyosiy masalalariga bag'ishlanganining guvohi bo'lamiz.

Bular orasida eng yirik asar – bu "Tanbeh us-salotiyn" ("Sultonlarga tanbehlar") hisoblanadi. Qo'lyozmaning o'zbekcha va tojikcha tarjimasi Akademik B.Valixo'jayev va K.Kattayevlar tomonidan nashrdan chiqarilgan. Ruscha tarjimasini esa B.Bobojonov amalga oshirgan. B.Bobojonov risolani "Sultonlarga nasihatlar" deb atagan. Aslida lug'aviy tarjimasi "Sultonlarga tanbehlar" deb nomlanadi.

Matnda Markaziy Osiyoda tasavvuf tariqatlarining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rni yoritilgan. Unda Shayx Najmiddin Kubro va uning izdoshlari – Sayfiddin Boxarziy hamda Husayn Xorazmiylarning vatanga sadoqat, diniy birlik va mustaqillik yo'lida ko'rsatgan xizmatlari haqida so'z boradi. Najmiddin Kubro mo'g'ullar istilosiga qarshi kurashda vatanparvarlik timsoli sifatida tilga olinadi, Sayfiddin Boxarziy esa mo'g'ullarni islomga da'vat etib, diniy birlikni saqlashga hissa qo'shgan. Husayn Xorazmiy Xorazmni himoya etishda faol bo'lgan, ammo uning vafoti bilan Kubroviya tariqatining yangi tarmog'i tugagan. Shunga qaramay, bu tariqat Yassaviya va Naqshbandiyaga nisbatan uzoq vaqt siyosiy va ijtimoiy ta'sirini saqlab qolgan. XVIII–XIX asrlarda esa Musoxon Dahbidiy Naqshbandiya-Mujaddidiya tariqatining yetuk vakili sifatida siyosiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynagan. U siyosatdan chetda turgan bo'lsa-da, uning ta'limoti keyingi shogirdlari uchun jamiyat hayotida faol ishtirok etish zaminini yaratgan. Musoxon Dahbidiy podshohlar haqida so'z yuritar ekan, Aristotel va Aflotunning Iskandarga yozgan maktubini keltirib, dunyo lazzatlariga berilmaslik va oxirat saodatini ustun qo'yish g'oyasini ilgari surgan.

Xulosa. Dahbidiylar sulolasi bo'yicha qator tadqiqotlar va kitoblar muallifi o'zining bir necha kitobida Musoxon Dahbidiy haqida ma'lumot berib, uni qutbul aqtob, qayyumi zamon sifatlari bilan zikr etadi va jumladan shunday deydi: "Xonxo'ja ibn Musoxon Dahbidiy, qutbul aqtob, qayyumi zamon Musoxonxojaning to'ng'ich o'g'li Otasi vafot etgach, xalifalar uni o'rinbosarlikka saylashadi. Otasidan keyin qisqa vaqt umr ko'rib, dorul irshod Dahbed xonaqohi korxonasini oz muddat boshqargan. Oxirgi ashtarxoniy podsho Abulfayzxonning kuyovi edi".

Keltirilgan ma'lumotga qaraganda mazkur nikoh Musoxon Dahbidiyning hayotlik paytida amalga oshirilgan. Bundan, mutasavvifning Markaziy Osiyodagi e'tibori shunchalar katta bo'lganki, u xon oilasi bilan quda-andachilik qila olgan. Yoki aksincha, Dahbidiyning yuksak martabasi shunchalar ta'sirli bo'lganki, hukmdorlar ham qiz berib kuyov qilish orqali xalq oldidagi mavqelarini yanada mustahkamlashga harakat qilganlar.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Муҳаммад Қози. Силсилат ул-орифин. Қўлёзма. ЎзР ФАШИ. №11413 / 1. 164 б – 166 б.
2. Абул Баҳо ибн Баҳовуддин. Жомеъ – ул – мақомот // Тарж. Илёсхон Ғозий. -Т., 1994. – 269 б.
3. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланома. -Т.: Шарқ. 1999. – 89 б.
4. Хожогий Аҳмад Косоний. Зубдат ус-соликийн ва танбеҳ ус-салотийн // Тарж. Б.Валихўжаев. -Самарқанд.: Сўғдиёна. 1994. – 60 б.
5. Акимушкин О.Ф. (от учеников и коллег) Мудрость суфи. -Санкт Петербург.: Азбука, 2001. -187 с.
6. Э.Каримов. Кубравийский вакф: XVII-XIX вв.: письменные источники по истории суфийского братства Кубравия в Средней Азии. С. 22.
7. Каттаев Комилхон. Тасаввуф алломалари. –Т. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. –Б.179.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 821.512.133.09-(092)

ATOIY G‘AZALLARIDA TASAVVUF MAQOMOTLARI

Jo‘raboyeva Saboxon Anvarxanovna, Namangan davlat universiteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi(PhD)

SUFI INTERPRETATIONS OF ATOIY’S GHAZALS

Juraboyeva Saboxon Anvarkhanovna, Doctor of Philogogical sciences, teacher of the Department of Uzbek language and literature Namangan State University

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СУФИЙСКОЙ КОНЦЕПЦИИ В ГАЗЕЛЯХ АТАЙИ

Журабоева Сабохон Анвархановна, доктор филологических наук, преподаватель кафедры Узбекского языка и литературы Наманганского государственного университета

https://orsid.org/0009-0000-2178-2193
saboxon1978@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muallif Atoiy devonidan o‘rin olgan g‘azalni tahlil qilib, baytning shakl va mazmuniga e’tibor qaratgan. Tasavvufning maqomotlari bilan bog‘liq misralariga urg‘u bergan. Majoziy ishq va maqomotlarni dalillash orqali ularning haqiqiy va irfoniy mohiyatini tahlil qilib bergan.*

Kalit so‘zlar: *g‘azal janri, sharhlar, ishq, oshiq, maqomot, dard tushunchalari, majoziy ishq.*

Annotation: *In this article, author touched upon the genres of ghazel genre paid attention different aspekts. She commented on the Sufi interpretations of the consepts of love and pain expressed in on the of ghazel. By proving mystical consepts, she compared their real and mystical essence with the help of examples.*

Key words: *ghazel genre, analysis, consepts of love, pain. The use of metophors, similes, parables and poetic arts in verses.*

Аннотация: *В статье автор проанализировал с точки зрения содержания газели в «Девони Атоий». Доказывая суфийские концепции, он сравнивал их реальное и суфийское содержание с помощью примеров. В статье через толкование бейтов(стихов) сопоставлены образный смысл газалей и значение терминов. В ней особо отмечаются мысли поэта в бейтах, связанные с социальной жизнью, через суфийскую интерпретацию.*

Ключевые слова: *анализ, секты, жанровые особенности, суфизм, идея, поэтические фигуры, образ, художественное мастерство, диван.*

KIRISH. Tasavvuf ta’limotining ilohiy ishq va insoniy kamolotga yo‘llovchi g‘oyalari Sharq mumtoz so‘z san’atiga shunchalik kuchli ta’sir ko‘rsatganki, bevosita tariqat yo‘liga kirib, o‘ziga bir rahnamo tanlamagan, solik bo‘lmagan shoirlarning o‘zi yo‘q. Hatto mutasavvuf bo‘lmagan qalam ahllari ham mavjud an’analardan ilhomlanib, g‘azal yozmay qolmagan yoki ularning mazmunidan ta’sirlanmagan bo‘lsin. Tasavvuf inson kamolotining zahmatli, ayni chog‘da nurli yo‘li hisoblanadi. Solik bu hidoyatga ergashgach, u tamomila o‘zga bir olamni kashf etadi. Tafakkuri bilan yaratiqlarning faqat o‘zi uchun ekanligi, jami hodisalar, buyumlar Olami Kubroning bir bo‘lagi sifatida mavjudligini qiyosan solishtiradi. Ya’ni oddiy toshdan tortib, nabotot, hayvonot

olamidagi mo‘jizalarni basirat ko‘zi bilan farqlaydi. Bu jarayon insonning o‘zligini tadqiq etishi hisoblanib, u goh oshkora, goh pinhona sodir bo‘ladi. Yashirin bilish jarayoni ko‘ngil ko‘zgusida tajalli etsa, oshkora tushunish so‘zlar, hissiy kechinmalarda aks etadi. Tuyg‘ular va ularning she’riy misralarda yuzaga chiqishi adabiyotning estetik vazifasini kuchaytirib bera oladigan asosiy jihatidir. Jumladan, mumtoz adabiyotimizda o‘zining nafis she’riyati bilan alohida o‘ringa ega bo‘lgan Atoiy ijodi bunga yaqqol dalildir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Ulug‘ мutafakkir Alisher Navoiy “Majolis-un nafois” tazkirasida: “Mavlono Atoiy Balxdan bo‘lur erdi. Ismoil Ota farzandlaridandur, darveshvash va xushxulq, munbasit kishi erdi. Turkiygo‘y erdi” [8:74] deya ma’lumot berib qolmay, balki shoir va olim sifatida Ibrohim Ota, Ismoil Ota avlodlaridan ekanligi va Yassaviylik tariqatining ma’lum shaxobchalari bilan mashhur shayxlar avlodiga borib bog‘lanishini ta’kidlaydi. Mazkur ma’lumotlardan farqli o‘laroq, shoir ijodiy merosini tadqiq etgan olimlar: A.N.Samoylovich, Fitrat, H.Zarif, E.Rustamov, Oybek, N.Mallayev, A.Hayitmetov, E.Ahmadxo‘jayev, I.Haqqulov shoirning adabiy merosi, qo‘lyozma devonlari, g‘azallari va ularning badiiy xususiyatlariga alohida urg‘u berganlar. Ammo olim S.Rafiddinov shoirning ajdodlari shajarasi, devoni va lirikasining g‘oyaviy-badiiy fazilatlari, janriy tarkibi va g‘azallarining shakl-mazmuni kabi bir qator muhim masalalarni atroflicha tahlil qilgan. [1:22] Atoiy lirikasining badiiyati uning nozik va betakror ifoda uslubida ko‘zga tashlanadi. Shoirning adabiy merosida falsafiyiylik va she’riy san’atlarning eng noyob namunalaridan foydalanilgani e’tiborga molik. Uning g‘azallarida inson ruhiyati, sevgi, hayot va jamiyat hayoti bilan bog‘langan fikrlar yuksak sa’jiya bilan qalamga olingan. Ammo aksariyat g‘azallari dunyoviy muhabbat ifodasi sifatida talqin etilsa ham, botiniga e’tibor qaratilsa, tasavvufiy xarakterga ega bo‘lganlari ham talaygina. Sharq adabiyotida adolat, erkinlik va halollik, umuman, barcha ezgu fazilatlar mujassam bo‘lgan Janobi Haqning mukammal timsolini munojot, hamd g‘azallarida aks ettirish tabiiy hol hisoblangan. Alloh abadiy, u zamon va makonga sig‘maydi. Yaratuvchi sifatida borliqni, butun koinotni boshqaradi. Shuning uchun kichik zarradan tortib, ulkan jismlarda aynan uning kashfiyotchiligi qalb ko‘zgusi tiniq insonning taxayyul olamida jilvalanadi. “Bunday komil inson oldida masjid-u butxona, Ka’ba-yu Kaliso orasida farq yo‘q. Chunki barcha dinlarda Haqqa intilish va Haqni sevish – asosiy g‘oya”dir.[2:384] Olami sug‘ro hisoblangan inson uchun Haqning jamoli asosiy maqsad bo‘lib, unga yetishmoq uchun o‘ziga solik pir tanlaydi, ruhiyatini illatlardan tozalaydi. Chin dildan riyozat chekadi. Natijada, tanlangan sayri suluk yo‘lida u ma’lum bir maqomotlarni bosqichma-bosqich egallay boshlaydi. Solik faqat so‘fiy emas, oddiy odam, shoir yoki olim ham bo‘lishi mumkin. Har qanday holatda ham insondagi ikki asos Jism va Ruh bir-biriga doim mutanosib tarzda yashashi kerak. Agar odam moddiy asos bo‘lgan tananing imkoniyatlarini kengaytirsa, hirs va shahvat, hayvoniy nafs domiga tushadi va tubanlashadi. Bunday xavfni oldini olish uchun kishi doimo ma’naviy olamini boyitib, ruhiy ehtiyojlarini qondirib, o‘zligini isloh qilishi kerak. Riyozatning eng qiyin amallarini bajarib, poklanishi lozim. Tasavvuf arkonlarining bosqichlarida aynan pir rahnamoligida amalga oshadigan sa’y-harakatlar orif inson qalbida jo‘sh urgan ishqning jazbasini shuuriy tarzda voqelantiradi, ma’lum vaqt o‘tgachgina Haqning jamoli uning ko‘ngil ko‘zgusida aks etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Shoirlarning asarlarida uchraydigan ishq, sog‘ar, may, qadah, shisha, soqiy kabi timsollar misrada o‘zining zohiriy ma’nosida emas, balki botiniy holatida, olam va odam o‘rtasidagi mukoshifalar sifatida sharhlansagina, mazmuni butunligicha namoyon bo‘ladi :

Soda ko‘nglum ichra la’lingni xayoli tushgali,

Shishayedurkim, oning ichiga solmishlar nabot. Ya'ni toza, musaffo ko'nglumga la'li labingni xayoli tushdi. Shishadek tiniq idishga novvot solib qarasangiz, yaqqol ko'ringani kabi mening ko'nglimga tushgan yorning xayoli aniq va mukammal ko'rindi. [2:285] Poklik tushunchasi so'fiy adabiyotda Komil insonning qalbi, uning azaliy orzusi musaffo, nurlanib turuvchi timsol sifatida tasavvur qilingan. Tasavvufiy mazmunda yozilgan asarlarda shoir shuuriy hayajon bilan maqomotlarda o'zini sinaydi. Dastlab, solik Haqni taniydi va unga iymon keltiradi. Iymon faqat so'zda emas, balki chin ko'ngildan uning sifatini e'tirof etishdan boshlanadi. Fikrimizning dalili sifatida quyidagi g'azalni tahlillab ko'raylik:

Ey mushafi husnungga menging nuqtasi oyat,
Islom eliga bo'ldi yuzung nuri hidoyat.[3:307]

Ey go'zalligi tengsiz bo'lgan zot, tabarruk yuzungdagi xoling go'yo oyatning nuqtasidek mutanosib. Qur'on oyatlari harflari bir-biriga tizimli joylashganidek, yuzungdagi xol aynan o'z o'rnida mavjud. Shoir baytda ma'shuqa yuzini Qur'oni Karimning sahifalariga muqoyasalagan. Bani bashar oyatlardagi mazmunni o'rganib, undan taralgan hidoyat nuriga ergashadilar. Mazmundan tasavvufning maqomotlaridan biri tavba – maqomoti, ya'ni inson iymon keltirgach, Olamlar Robbisidan gunohlari uchun uzr so'rashi – mantiqan ifodalab berilgan.

Sen hurmusen yo malak, ey turfayi davron,
He husnungga bor haddi-yu ne lutfung'a g'oyat.

Sen shu darajada mukammalsanki, latiflikda hur yoki malak ekanligingni bilib bo'lmaydi. Bu aylanib yurguvchi davronda husning tengsiz, lutfi-inoyatingni ta'rifiga til ojiz. Haqning inoyati abadiy saodatdir, uning sharhi-holiga gunohkor bandalaringni haddi sig'maydi, deya ta'kidlaydi. Aslida shoir aytmoqchi bo'lgan tavsif o'ta kuchaytirib berilgan. Chunki malak ham, hur ham Allohning o'zi yaratgan xilqatlardandir. Ma'naviy kamolotni orzu qilgan inson qanchalar mashaqqatli bo'lsa ham, riyozatni tanlaydi. Ma'naviy yuksalishning eng oxirgi nuqtasi esa, lutf-u karam, rohatdir. Bu ifoda baytda tajohuli orif san'ati orqali ma'shuqa husni ziyosining ta'rifini keltirish orqali tahlillangan. Shoir fikricha, yor Hurdan ham tiniq, sof, malakdan ham latifroqdir.

Zulfung madidin qiladur jong'a ko'zung qasd,
Chin lashkari kofirg'a qilur, ore himoyat.

Qur'oni Karimninng ayrim suralarida harflar tepasiga madd belgisi qo'yiladi. Jumladan, "Yosin" surasi boshlanishida har bir harf tepasida mavjud. Tajvid qoidalariga ko'ra mazkur harf olti harakat cho'zib talaffuz qilinishi kerak. Ma'shuqaning zulfi shu darajada nihoyasiz-ki, uzunlikni cheksiz ekanligidan oshiq unga nazar tashlaganida hayratga tushgan. Chin lashkarlari kipriklar, ko'zning oq-u qarosini har qancha himoya qilmasinlar, ular had-u poyonsiz go'zallikdan lol qolib, qarashdan to'xtamaydilar. Ularning barchalari kelishib bir manzilda jamlanadi, sarhadsiz ulug'vorlikni anglashda o'zlarini ojiz hisoblab, Haqning buyukligiga yana bir bor iymon ketiradilar. Ammo ko'z lol bo'lib, bir lahza ham nazar solishdan to'xtamaydi, jonga jafo qiladi. Jonga jafo esa,chin mo'minning ishi emas, kofirning maqsadidir. Bu o'rinda shoir zulfning tasavvufdagi qiyinchilik, zahmat ma'nosiga ishora qilgan va bu sinovga bardoshi yetmagan chin musulmon emas, demoqchi. Ishqni oshiq qalban his qilib, boshiga tushajak savdolar uni o'ldirishi mumkin, lekin ular sinov bo'lib, solikning foydasiga hal qilinishi ham Ishqning shartlaridan biri, maqomotlardan bir ekani bayt mazmuniga singdirilgan. Solik bu talabda turli shubhalardan holi taqvo qilishi Vara' darajasiga o'tishiga ishora bor. Vara' so'zining ma'nosi shubhalardan saqlanishdir. Ko'ngil man etilgan jamiki narsalardan parhez qilishi, ta'madan saqlanishi, mahrumlikdan qo'rqishdan hazar qilishidir.[2:67]

Gar jon-u ravon olami arvohg'a chiqsa,
Qilg'ay labing odamga tiriklikni kifoyat.

Inson vafot etganda ruhi ravoni yo'qlik olamiga safar qiladi. Shunda ma'shuqaning kalomi o'lik tanaga ruh bag'ishlab, oshiqni tiriltiradi. Bu o'rinda pirning aytgan jonparvar kalomi solikning o'lik qalbini uyg'otishiga kifoya, yetarli bo'lishi nazarda tutilgan. Lab tasavvufda ilohiy kalom ma'nosidan tashqari, **Faqr** maqomotiga ham ishora qiladi. Bu bosqichda solik xudoga bandalikni sidqidildan bajo keltirishi, talabgorlikda tuproq kabi nom-u nishonsiz bo'lishi, Alloh nazarida o'zini zarradan ham kichik deb bilishi va o'lik tanga undan yetgan xabar tiriklik suyunchisi ekanligini e'tirof etishi muhim hisoblangan. Barcha narsalar,

olam-u odam Yaratganga tegishli, shuning uchun foniy va boqiylik ham uniki ekan, demak, inson unga bosh egmog‘i, sidqidildan amallarini ezgulik sari yo‘llashi kerak.

Biz barcha xavosin bu dam og‘zingda ko‘rarbiz,

Voiz neki, Iso damidin qildi rivoyat.

Alisher Navoiy “Mahbub-ul qulub“ asarida ishqni uch guruhga bo‘ladi:

1. Ishqi avom – oddiy insonlarning sevgisi bo‘lib, nikoh bilan yakunlanadi.
2. Ishqi majoz – hamma go‘zal buyumlar, shaxslar, hodisalarda Allohning jamoli tajalli etadi, deb hisoblaydigan insonlarning ishqidir. Mumtoz adabiyotimizdagi deyarli aksari asarlarning mazmuni ishqi majoz ta’rifidan iborat.
3. Ishqi xos – Yaratganga bo‘lgan haqiqiy oshiqlarning muhabbatidir.[9:18] Ular Allohning jamolini ko‘rish, uning vasliga yetish uchun dunyoning barcha lazzatlaridan hatto, o‘zligidan ham voz kechadilar. Yorning jamolini majozdan ayri holda sezish orqali uning haqiqiy jamolidan umidvor bo‘ladilar. Baytda Allohga bo‘lgan ishq faqat xoslarning maqsadini ifoda etgani ta’kidlanib, jami go‘zalliklarda uning sifatlari namoyonligi urg‘ulanadi. Vaholanki, voiz Isoning nafasi haqida maqtov keltirdi, ammo uning mo‘jizasi sening kaloming oldida hech qanday kuchga ega bo‘lmay qoldi,chunki voiz haqiqiy ta’rifni xayoliga keltirmadi. Iso haqida to‘lib-toshib lof urdi. Shoir talmeh san’atidan foydalanish orqali Iso Masihning tiriltirish mo‘jizasiga ishora qilgan. Go‘yoki voiz o‘z so‘zining ta’sir kuchini Iso Masihning bir nafaslik ilohiy kuchiga tenglashtiradi. Ishqda har doim uch timsol uzviy birlikda harakat qiladi: oshiq, ma’shuq va raqib. Ammo shoir uchun raqibdan ko‘ra ma’shuqaning “javri” uning lutfi bilan teng. Uning jafosi oshiqning yuragidagi jazbani yanada kuchaytiradi. Qalbidagi ishq kattalashadi va Qurbat oshiqni ma’shuqaga yaqinlashtiruvchi ko‘prik bo‘ladi.

Gar javr et, agar lutf qilur shukrung Atoiy,

Chun yo‘qturur olingda anga haddi shikoyat.[3:307]

Shuning uchun ma’shuqa jabri oshiqqa lutf-u karam bo‘lib, undan zorlanishga hech qachon haddi sig‘masligini baytda alohida ta’kidlaydi. Oshiqi Sodiq uchun javri jafosi ham, lutf-u karami ham birdek qadrli, unga e’tiroz bildirgani solikning haddi emasligi e’tiborga olingan.

XULOSA. Atoiyning lirik qahramoni komil axloq targ‘ibotchisidir. G‘azal mazmuniga e’tibor bersangiz, u himmat, vafo-sadoqat, rahm-shafqat kabi ezgu fazilatlar sohibi sifatida tasavvur qoldiradi. Shoir ijodiy merosi yordamida odamlarni bir-birini g‘animat bilishga, doim solih amallar egasi bo‘lishga undaydi. Janobi Haqning buyukligini anglash va uning yaratiqlardan biri bo‘lgan Hazrati Insonni ulug‘lab, barkamollikni o‘zining oliy maqsadi deb bilishga harakat qilish Atoiy nazaridagi eng buyuk bir vazifa ekanligini misralaridan anglash mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Рафиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат. – Тошкент: Фан, 1995. – Б.22.
2. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – Б.384.
3. Ўзбек адабиёти бўстони. Ҳаёт васфи. Ҳофиз Хоразмий. Саккокий. Атоий. Гадоий. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 699 б.
4.Абдуқодиров А. Тасаввуф истилоҳларининг қисқача изоҳли луғати. –Хўжанд: 1997. – 95 б.
5.Hasanxon Yaxyo Abdulmajid, Husanxon Yaxyo Abdulmajid. Alisher Navoiy. Alisher Navoiydan chu topqaylar navoye. – Toshkent. HILOL-NASHR, 2014. –B. 44.
6.S.Olim. “Lison-ut tayr”: haqiqat va majoz sintezi // O‘zbek tili va adabiyoti, 2020, 3-son. – B.23.
7.С.Рафиддинов. Навий ижодида Каъба тавсифи // Ўзбек тили ва адабиёти, 2022, 1-сон. –Б.30.
8. Алишер Навоий. Мажолисун-нафоис. Илмий-танқидий матн. Тошкент. 1961. –Б. 74
9. A.Qurbonov. Tasavvuf va mumtoz poetika asoslari. I qism. Tasavvuf.
–Namangan, 2010. –Б. 18.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 1:740.101

MA'NAVIY TRANSFORMATSIYA JARAYONINING IJTIMOIY-FALSAFIY MOHIYATI

Bozorov Suxrob Komilovich, Termiz davlat pedagogika instituti "Falsafa, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasi o'qituvchisi

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ ПРОЦЕССА ДУХОВНОГО ПРЕОБРАЖЕНИЯ

Бозоров Сухроб Комилович, преподаватель кафедры Философии, основ духовности и права, Термезский государственный педагогический институт

THE SOCIO-PHILOSOPHICAL ESSENCE OF THE PROCESS OF SPIRITUAL TRANSFORMATION

Bozorov Sukhrob Komilovich, Lecturer at the Department of Philosophy, Fundamentals of Spirituality, and Law Termiz State Pedagogical Institute

https://orcid.org/0009-0000-4994-6145
e-mail: bozorovsuxrobjon14@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ma'naviy transformatsiya tushunchasining ijtimoiy-falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Unda jamiyatning ma'naviy yangilanish jarayonlari, qadriyatlar tizimining o'zgarishi, inson onggi va tafakkuridagi yangilanishlarning ijtimoiy asosi hamda ularning madaniy, axloqiy va ma'rifiy omillar bilan o'zaro aloqasi yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *ma'naviy transformatsiya, ma'naviyat, qadriyatlar, ong, tafakkur, jamiyat, yangilanish, falsafa, ijtimoiy ong, modernizatsiya.*

Аннотация: *В статье анализируется социально-философская сущность понятия «духовная трансформация». Рассматриваются процессы духовного обновления общества, изменения в системе ценностей, социальные основы обновления сознания и мышления человека, их взаимодействие с культурными, нравственными и образовательными факторами.*

Ключевые слова: *духовная трансформация, духовность, ценности, сознание, мышление, общество, обновление, философия, общественное сознание, модернизация.*

Abstract: *This article analyzes the socio-philosophical essence of the concept of spiritual transformation. It highlights the processes of spiritual renewal of society, changes in the value system, the social basis of renewal in human consciousness and thinking, and their interaction with cultural, moral and educational factors.*

Key words: *spiritual transformation, spirituality, values, consciousness, thinking, society, renewal, philosophy, social consciousness, modernization.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Bugungi globallashuv va axborotlashuv davrida insoniyat jamiyati tub o'zgarishlar bosqichini boshdan kechirmoqda. Bunday sharoitda ma'naviy transformatsiya jarayonining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini chuqur anglash, uni ilmiy tahlil qilish dolzarb masalaga aylanmoqda. Chunki har qanday yangilanish, eng avvalo, inson tafakkuri, qadriyati va ma'naviyatidagi o'zgarishlardan boshlanadi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, *"Yangi O'zbekistonni barpo etishda eng katta kuch – bu xalqimizning yuksak ma'naviyati va tafakkuridir"*[1]. Shu bois, ma'naviy transformatsiya jarayonining mohiyati jamiyatni modernizatsiya qilish, insonni yangilangan qadriyatlar asosida kamol toptirish bilan chambarchas bog'liqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Ma'naviy transformatsiya masalasi falsafa, sotsiologiya, psixologiya va madaniyatshunoslik sohalarida ko'plab tadqiqot-

chilar tomonidan o‘rganilgan. Abu Nasr Forobiy inson kamolotining asosini *“aql va fazilat uyg‘unligida”* deb ko‘rgan [2]. Abu Rayhon Beruniy insoniyat taraqqiyotini *“bilim va adolat-ning birligida”*deb talqin qilgan. U o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida jamiyatning yuksalishida bilimning hal qiluvchi o‘rni va adolatning ijtimoiy barqarorlikni ta’min-lovchi asosiy mezon ekanligini chuqur falsafiy jihat-dan asoslab beradi [3]. Beruniy fikricha, insonning kamoloti faqat aqliy bilimlar orqali emas, balki bu bilimlarni adolatli maqsad yo‘lida qo‘llash orqali yuzaga chiqadi. U bilimni “insonga yaratuvchilik qudratini baxsh etuvchi nurlar manbai” sifatida talqin etar ekan, adolatni esa “shu nur bilan inso-niyat hayotini muvozanatda ushlab turuvchi axloqiy qonun” deb izohlaydi. Beruniyning falsafiy qarash-larida bilim va adolat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik shundan iboratki, u insoniyat taraqqiyotini faqat ilmiy yutuqlarga emas, balki bu yutuqlarni inson-parvarlik va axloqiy mas’uliyat bilan uyg‘un-lashtirishga asoslaydi. Chunki Beruniy nafaqat tabiatshunos olim, balki insoniyat qadri va ma’naviy dunyosini ham tahlil qilgan faylasuf sifatida ilmning ma’naviy-axloqiy yo‘nalishini himoya qilgan. Uning nazarida, adolatsiz bilim – bu kuch, ammo yo‘nalishsiz kuch; adolat esa bilim bilan uyg‘un-lashgandagina insoniyatni haqiqiy yuksalishga olib chiqadi. Beruniy qarashlarida ma’naviy transfor-matsiya jarayonining falsafiy ildizlari ko‘zga tash-lanadi. U inson va jamiyat taraqqiyotini bilim, adolat, halollik va insonparvarlik tamoyillarining birligida ko‘radi. Aynan shu yondashuv hozirgi davrda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, chunki bugungi ma’naviy yangilanish ham xuddi shu qadriyatlar uyg‘unligiga tayanadi.

Zamonaviy o‘zbek falsafasida ma’naviy transformatsiya tushunchasi milliy va global qadriyatlar o‘rtasidagi uzviy muvozanatni saqlash, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlikni mustahkamlash, hamda yangi ma’naviy paradigma yaratish jarayoni sifatida talqin qilinadi. G‘.Rahmonov o‘zining “*Ma’naviy yangilanish falsafasi*” maqolasida ma’naviy transformatsiyani jamiyatning ma’naviy tizimini yangilash, qadriyatlarni zamon talablari asosida qayta shakllantirish jarayoni deb izohlaydi[4]. Bu jarayon inson tafakkurining ichki o‘zgarishlari orqali ijtimoiy tizimning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi va zamonaviy talablari asosida qayta shakllantirish, ma’naviy tizimini yangilashga xizmat qiladi.

N.Komilov esa “*Tasavvuf va ma’naviyat*” maqolasida ma’naviy yangilanishni inson qalbi va ruhiy dunyosining o‘zgarish jarayoni sifatida ko‘rib, uni milliy madaniyatning ma’naviy tayanchi sifatida talqin etadi [5.s 8,56]. Zamonaviy o‘zbek tadqiqotchilari fikricha, ma’naviy transformatsiya — bu milliy va global qadriyatlar o‘rtasida integrativ muvozanatni shakllantirish**,** insoniyatni yangi ma’naviy paradigma sari yo‘naltiruvchi ijtimoiy-falsafiy jarayondir. Bu yondashuv jamiyatni modernizatsiya qilishda ma’naviyatning markaziy o‘rni va barqarorlikdagi axloqiy omil sifatida e’tirof etilishini ko‘rsatadi [6]. Shuningdek, xorijiy adabiyotlarda xususan, A.Toffler, S.Huntington, E.Fromm asarlarida ma’naviy o‘zgarishlar insonni texnosivilizatsiya bosimidan himoya qiluvchi g‘oyaviy asos sifatida talqin etiladi. Tadqiqot jarayonida tarixiylik tamoyili, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tasniflash, muammoviy-xronologik hamda fanlararo yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

MUHOKAMA/ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION

Ma’naviy transformatsiya — bu inson tafakkuri, dunyoqarashi va qadriyat tizimidagi chuqur, tizimli va evolyutsion o‘zgarishlar jarayonidir. Uning ijtimoiy-falsafiy mohiyati inson va jamiyatning ruhiy dunyosida kechayotgan yangilanish jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir. Bu jarayon bir tomondan tarixiy meros va milliy qadriyatlarning yangicha talqinini, ikkinchi tomondan esa, zamonaviy ijtimoiy-siyosiy voqeliklar ta’sirida shakllanayotgan yangi ma’naviy paradigmalarni o‘z ichiga oladi. Bugungi globallashuv davrida bu ong yangi axborot oqimlari, ilm-fan yutuqlari, madaniyatlararo muloqotlar natijasida sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Shu bois, ma’naviy transformatsiyani faqat ma’rifiy yangilanish emas, balki ijtimoiy ongni qayta formatlash jarayoni sifatida ham baholash mumkin. Sun’iy intellekt, raqamli kommunikatsiyalar va virtual haqiqat inson tafakkurining yangi shaklini yuzaga keltirmoqda. Bu esa, falsafiy jihatdan insonning “tabiiy” va “sun’iy” mohiyati o‘rtasidagi chegaralarni yangidan belgilash zaruratini tug‘diradi. Shu ma’noda, texnotsivilizatsiya sharoitida ma’naviy transformatsiya insonni texnokratik ong hukmronligidan himoya qiluvchi, uning ichki ruhiy muvozanatini tiklovchi falsafiy asos sifatida

namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston sharoitida ma’naviy transformatsiya jarayoni “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi doirasida yangi ma’rifiy paradigmani shakllantirish, vatanparvarlik va milliy o‘zlikni kuchaytirish, yoshlar tafakkurida innovatsion va ijodiy yondashuvni qaror toptirish orqali amalga oshirilmoqda. Bu jarayonning falsafiy mohiyati shundaki, ma’naviy transformatsiya insonning ichki dunyosida, ijtimoiy ong va madaniy muhit o‘zaro ta’siri orqali kechadigan uzluksiz va tizimli evolyutsion jarayondir.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Tadqiqot jarayonida olib borilgan falsafiy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ma’naviy transformatsiya zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omil bo‘lib, uning mohiyati inson tafakkuri, ijtimoiy ong va axloqiy qadriyatlarning o‘zaro uyg‘un o‘zgarishida namoyon bo‘ladi. Natijalar tahlili quyidagi asosiy ilmiy xulosalarni shakllantirishga imkon berdi: Ma’naviy transformatsiya – bu inson tafakkurining sifat jihatidan yangilanishi, ijtimoiy ongning zamon ruhiga mos ravishda qayta shakllanishi va milliy qadriyatlarning global madaniyat bilan integratsiyalashuv jarayonidir.

Ma’naviy transformatsiyaning ijtimoiy mohiyati – bu inson va jamiyat o‘rtasidagi ruhiy-axloqiy uyg‘unlikni tiklash, milliy g‘oyaning jamiyat ongida barqarorlashuviga xizmat qilishdir. Mazkur jarayon orqali inson o‘z mohiyatini chuqurroq anglaydi, ijtimoiy ong esa yangicha qadriyatlar tizimiga moslashadi. Bu jihat global miqyosda ma’naviy yangilanishning insoniyat barqaror rivojlanishidagi o‘rni va rolini belgilaydi. O‘zbekiston sharoitida ma’naviy transformatsiya “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi doirasida yangi ma’naviy paradigma sifatida shakllanmoqda.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, global-lashgan zamonda ma’naviy transformatsiya jamiyat taraqqiyotining poydevori bo‘lib, u inson tafakkuri, axloqi va ijtimoiy ongini tubdan yangilash jarayonini anglatadi. Mazkur jarayon orqali inson o‘z mohiyatini anglaydi, milliy qadriyatlarni zamonaviy talqin asosida qayta tiklaydi hamda global sivilizatsion o‘zgarishlar sharoitida o‘zining ma’naviy immunitetini mustahkamlaydi. Ma’naviy transformatsiya falsafiy jihatdan inson va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, ong va borliq, qadriyat va amaliy faoliyat birligida namoyon bo‘ladi. Chunki inson tafakkuridagi har qanday yangilanish jamiyat madaniy muhitida, axloqiy me’yorlar tizimida o‘z ifodasini topadi. Shu nuqtai nazardan, ma’naviy transformatsiya nafaqat shaxsiy ruhiy o‘sish, balki ijtimoiy tizimlarning yangilanishiga zamin yaratadigan evolyutsion jarayon sifatida e’tirof etiladi. Bugungi globallashuv sharoitida O‘zbekiston jamiyatining ma’naviy yangilanish strategiyasi “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi doirasida inson kapitalini rivojlantirish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Globallashuv, raqamli texnologiyalar va axborot xurujlari davrida ma’naviy transformatsiyaning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Zero, “ma’naviyat insonlarning axloqiy qarashlarini shakllantirib, ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotga hissa qo‘shadi”[7].

Shuningdek, ma’naviy transformatsiya jarayonini ilmiy-nazariy asosda o‘rganish yosh avlodning ma’naviy tafakkurini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik, mas’uliyat va ijtimoiy faollikni kuchaytirish uchun zarurdir. Umuman olganda, ma’naviy transformatsiya – bu insoniyatning o‘zligini anglash, adolat va ma’rifat tamoyillariga asoslangan ijtimoiy uyg‘onish yo‘lidagi falsafiy jarayon bo‘lib, u milliy o‘zlikni asrab-avaylash bilan bir qatorda, global tafakkur darajasiga ko‘tarilish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati / (Использованная литература / References)

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Ma’naviyat, 1993. – 176 b.
3. Beruniy A.R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: Fan, 1974.
4. Rahmonov G‘. Ma’naviy yangilanish falsafasi. – Toshkent: TDShU nashriyoti, 2020. – 178 b.
5. Komilov N. Tasavvuf va ma’naviyat. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009. – 200 b.
6. Rustamov A. Ma’naviyat va modernizatsiya jarayonlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015. – 160 b.
7. Jo‘rayev M. Ma’naviyat va ijtimoiy ong evolyutsiyasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018. – 240 b.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 801.8.12

ИНОЯЗЫЧНЫЕ ЗАИМСТВОВАНИЯ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМА НОРМЫ И УПОТРЕБЛЕНИЕ

Яркулова Фотима, преподаватель русского языка кафедры «Узбекского языка и гуманитарных наук» Каттакурганского государственного педагогического института

https://orcid.org/ 0009-0003-7983-252X
e-mail: fotimayarkulova@mail.ru

FOREIGN LANGUAGE BORROWINGS IN THE RUSSIAN LANGUAGE: THE PROBLEM OF NORM AND USAGE

Yarkulova Fotima, Lecturer of Russian Language, Department of Uzbek Language and Humanities, Kattakurgan State Pedagogical Institute

RUS TILIDAGI XORIJIY SO‘Z O‘ZLASHMALARI: NORMA VA QO‘LLANISH MUAMMOSI

Yarkulova Fotima, Kattaqo‘rgon davlat pedagogika instituti “O‘zbek tili va gumanitar fanlar” kafedrasi rus tili o‘qituvchisi

Аннотация: *В статье рассматривается проблема функционирования иноязычных заимствований в современном русском языке. Анализируется соотношение нормативного и узуального уровней, выделяются основные факторы, влияющие на закрепление заимствований, а также описываются лингвистические и социокультурные последствия их активного употребления.*

Ключевые слова: *иноязычные слова, глобализация, заимствования, интенсивно, источник, англицизм, адаптация.*

Abstract: *This article examines the functioning of foreign-language borrowings in modern Russian. It analyzes the relationship between the normative and common language levels, highlights the main factors influencing the consolidation of borrowings, and describes the linguistic and sociocultural consequences of their active use.*

Key words: *foreign words, globalization, borrowings, intensive, source, Anglicism, adaptation.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy rus tilida xorijiy so‘z o‘zlashmalarning funksional faoliyati muammosi ko‘rib chiqiladi. Normativ va amaliy darajalar o‘rtasidagi munosabat tahlil qilinadi, o‘zlashmalarni mustahkamlovchi asosiy omillar aniqlanadi, shuningdek, ularning faol qo‘llanishining lingvistik va sotsiomadaniy oqibatlari tavsiflanadi.*

Kalit so‘zlar: *xorijiy so‘zlar, globallashuv, o‘zlashmalar, intensiv, manba, anglizizm, moslashuv.*

ВВЕДЕНИЕ(KIRISH/INTRODUCTION). Русский язык на протяжении всей своей истории активно взаимодействовал с другими языками, что неизбежно приводило к появлению заимствованных слов. В разные эпохи источники заимствований варьировались: от старославянского и тюркских языков до французского, немецкого и английского. Современный этап характеризуется особой интенсивностью англицизмов, что связано с

глобализацией, развитием технологий и массовой культуры. Встает вопрос о соотношении нормы и реального употребления: какие заимствования приживаются в языке, а какие воспринимаются как избыточные или ненормативные?

Многие слова иноязычного происхождения. Словарный состав языка постоянно пополняется. Этот процесс осуществляется в основном в результате образования из существующего уже в языке материала новых слов по законам и правилам русского языка. Так возникают в нашей речи все новые иконно русские слова. Эти вновь появляющиеся новые слова сливаются с известными исследованными от наших предков. Но пополнение словарного запаса родного языка осуществляется и за счет заимствования слов из других языков.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД (ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR/ MATERIALS AND METHODS). Создать новое слово из собственных подходящих по смыслу словообразовательных единиц(морфем). одуванчик, подбородок, самовар, трудолюбивый. Такой способ обогащения языка называется словообразованием. Оно происходит во всех языках. Это один из важнейших способов обогащения словарного запаса языка. Большинство слов русского языка – собственные, а большинство собственных слов – не кальки. Таким образом большинство собственных слов русского языка возникли независимо от иных языков. Создать новое слово по образцу иноязычного, то есть сделать кальку с него например русское слово языкознание создано по образцу. Использовать для выражения нужного значения уже имеющие слово, придав ему новое значение по образцу чем-то похоже иноязычного слова; например, русский глагол трогать приобрел переносное значение «волновать чувства» под влиянием французского *toucher [2]*.

Заимствование иноязычных слов происходит таким образом, что в языке появляются заимствования в узком смысле этого слова. Например, русское слово *«ярмарка»* является заимствованием из немецкого *Jahrmarkt*, а слово *«дизайн»* – из английского *design*.

Слова и значения, созданные по второй модели, называют заимствованиями в широком смысле. В научной терминологии, стремящейся к однозначности, чаще используется второй механизм и четвёртый. В научной терминологии, стремящейся к однозначности, чаще используется второй механизм и четвёртый [1].

ОБСУЖДЕНИЕ (MUHOKAMA/DISCUSSION). По характеру и объёму заимствований в русском языке можно отследить путь исторического развития языка, то есть пути международных путешествий, связей и научного развития. Наблюдение за переходом слов и фраз из какого – либо иностранного языка в русский язык помогает понять историю русского языка, как литературного, так и диалектов. Следует различить заимствования и иностранные слова. Заимствования (слова реже синтаксические и фразеологические обороты) адаптируют в русском языке проходят необходимые синтаксические и фонетические изменения. Адаптация под реалии русского языка является основным признаком, отличающим заимствования от иностранных слов. Они сохраняют я след иноязычного своего иноязычного происхождения. Такими следами могут быть фонетические, орфографические, грамматические, и семантические особенности [3].

Под заимствованием понимается слово или выражение, перенятое из другого языка и включенное в систему данного языка. В лингвистике традиционно выделяются:неосвоенные заимствования (новые, стилистически маркированные: кэш, рилс, стрим); освоенные заимствования (закрепившиеся и не воспринимаемые как чуждые: театр, шкаф, карандаш);кальки (переводные заимствования: мировоззрение ← Weltanschauung)

Лингвисты (А. А. Реформатский, В. В. Виноградов, Н. М. Шанский) подчеркивают, что включение заимствований связано не только с лексическими, но и с социокультурными процессами [4].

Нормативность заимствованных слов определяется их кодификацией в словарях и соответствием литературному употреблению. В

процессе функционирования иноязычных заимствований в русском языке постепенно формируется норма, которая фиксируется в лексикографических источниках и отражает реальные языковые тенденции. Так, слово *«менеджер»* закрепилось в современном русском языке как литературная норма. Варианты *«презентация»* и *«презентование»* на протяжении определённого времени конкурировали в речи, однако в результате языковой практики утвердился первый вариант. В то же время слово *«фейк»* активно используется в средствах массовой информации и повседневной коммуникации, но до сих пор вызывает дискуссии относительно правомерности его включения в нормативные словари [5].

Особую сложность представляет явление избыточности заимствований, когда уже существующие русские слова постепенно вытесняются англицизмами. Подобная тенденция наблюдается, например, в случаях употребления слов *«ивент»* вместо *«мероприятие»* и *«челлендж»* вместо *«задача»*. Подобные процессы свидетельствуют не только о влиянии глобализационных факторов на русский язык, но и о необходимости взвешенного подхода к определению языковой нормы в условиях активного взаимодействия культур и языков.

РЕЗУЛЬТАТЫ (NATIJALAR/RESULTS). Употребление заимствований в современной речи характеризуется активным проникновением иноязычных элементов во все сферы коммуникации. Современные средства массовой информации, реклама и интернет-коммуникация способствуют быстрому распространению заимствований и их закреплению в повседневной речи. Особенно значительную роль в этом процессе играет молодежная среда, где новые слова не только активно употребляются, но и получают дальнейшее распространение [6].

В современной языковой практике наблюдается расширение сфер употребления англицизмов – особенно в области информационных технологий, спорта, шоу-бизнеса и деловой коммуникации. Одновременно формируются гибридные формы, такие как *«лайкать»*, *«загуглить»*, *«апгрейдить»*, что свидетельствует о морфологической адаптации заимствованных слов к грамматической системе русского языка. Кроме того, отмечается вариативность норм написания и произношения – например, *«онлайн»/«онлайн»*, *«блогер»/«блоггер» [4]*.

Активное употребление заимствований напрямую связано с процессами глобализации и доминированием английского языка в международной коммуникации. Престиж «иностранного» слова нередко воспринимается как показатель современности и образованности. Одновременно наблюдается сокращение интереса к классической литературе и усиление ориентации на массовую культуру, что способствует дальнейшему проникновению англицизмов в повседневную речь и закреплению их в языковом сознании носителей [3].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ (XULOSA/CONCLUSION). Иноязычные заимствования являются неотъемлемой частью развития русского языка. Однако их употребление должно быть осмысленным и взвешенным: необходимо сохранять баланс между естественным развитием и сохранением национальной языковой идентичности. Задача лингвистов и педагогов – вырабатывать критерии отбора, нормировать закрепившиеся заимствования и предупреждать неоправданное вытеснение исконной лексики.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА (ADABIYOTLAR RO‘YXATI/REFERENCES)

1. Виноградов В. В. Русский язык (Грамматическое учение о слове). – Москва: Высшая школа, 1986.
2. Крысин Л. П. Иноязычные слова в современном русском языке. – Москва: Русский язык, 2004.
3. Лопатин В. В. Нормы современного русского литературного языка. – Москва: Наука, 2016.
4. Реформатский А. А. Введение в языкознание. – Москва: Аспект Пресс, 1996.
5. Скворцов Л. И. Русский язык в современном мире: проблемы и перспективы. – Москва: Флинта, 2019.
6. Шанский Н. М. Лексикология современного русского языка. – Москва: Просвещение, 2012.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 1:32(075).8

YOSHLARNING IQTISODIY ONGINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM TIZIMINING FALSAFIY ASOSLARI

Xoshimov Hakimjon Abduqaxxor o'g'li,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

THE PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF THE EDUCATION SYSTEM IN FORMING YOUTH ECONOMIC CONSCIOUSNESS

Khoshimov Hakimjon Abduqakhkhor ugli,
Researcher at Namangan State University

ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ МОЛОДЁЖИ

Хошимов Хакимджон Абдукаххар оглы,
аспирант Намаганского государственного университета

https://orcid.org/0000-0003-0342-4311

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yoshlarning iqtisodiy ongini shakllantirish jarayonida ta'lim tizimining falsafiy asoslari har tomonlama tahlil qilinadi. Iqtisodiy tafakkur va iqtisodiy ongni shakllantirishda ta'limning ideologik, aksiologik va metodologik jihatlari falsafiy yondashuv asosida ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Yoshlar, iqtisodiy ong, iqtisodiy tafakkur, falsafiy asos, ta'lim tizimi, ijtimoiy ong, aks ettirish, ma'naviy taraqqiyot, aksiologiya, epistemologiya.*

Abstract: *This article provides a comprehensive analysis of the philosophical foundations of the education system in the process of forming youth economic consciousness. Through a philosophical lens, the study explores the ideological, axiological, and methodological aspects of education's role in developing economic thinking and awareness. It emphasizes that education is not merely a means of knowledge transmission but also a sphere for shaping worldview, values, and individual social responsibility.*

Key words: *youth, economic consciousness, economic thinking, philosophical foundation, education system, social consciousness, reflection, spiritual development, axiology, epistemology.*

Аннотация: *В статье всесторонне анализируются философские основы системы образования в процессе формирования экономического сознания молодежи. На основе философского подхода раскрываются идеологические, аксиологические и методологические аспекты роли образования в развитии экономического мышления и экономического сознания. Исследование подчеркивает, что образование выступает не только инструментом передачи знаний, но и пространством формирования мировоззрения, ценностей и социальной ответственности личности.*

Ключевые слова: *молодежь, экономическое сознание, экономическое мышление, философские основы, система образования, общественное сознание, отражение, духовное развитие, аксиология, эпистемология.*

Kirish. Insoniyat taraqqiyoti tarixida iqtisodiy ongni shakllantirish va uni jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy tizimiga integratsiya qilish masalasi eng muhim falsafiy muammolardan biri sifatida qaraladi. Har bir jamiyat o'zining iqtisodiy barqarorligi, ijtimoiy taraqqiyoti va madaniy yetukligini ta'minlash uchun avvalo insonning — ayniqsa yosh avlodning — iqtisodiy tafakkurini, iqtisodiy qadriyatlar tizimini shakllantirishga intiladi. Bu jarayon esa faqat iqtisodiy bilimlarni

berish bilan emas, balki chuqur falsafiy asosga ega bo‘lgan ta’lim tizimi orqali amalga oshadi. Chunki ta’lim — bu inson tafakkurining, ijtimoiy ongning va ma’naviy dunyoqarashning shakllanish maydonidir. Iqtisodiy ong esa, o‘z mohiyatiga ko‘ra, insonning iqtisodiy jarayonlarga ongli munosabatini, ularning mohiyatini anglash qobiliyatini, iqtisodiy faoliyatni ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtira olish salohiyatini ifodalaydi[1].

Falsafiy nuqtayi nazardan, inson tafakkurida iqtisodiy ongning shakllanishi jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, ishlab chiqarish munosabatlari, mehnat qadriyatlari, iqtisodiy manfaatlar tizimi bilan bevosita aloqador. Shu sababli, ta’lim tizimida iqtisodiy ongni shakllantirish — bu faqat amaliy iqtisodiy bilim emas, balki insonning ma’naviy-aksiologik fazilatlarini, ongli tanlov qilish qobiliyatini, iqtisodiy javobgarlikni tarbiyalash jarayonidir. Bugungi zamonaviy ta’lim tizimi, xususan, uzluksiz ta’lim modeli, yoshlarning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirishda o‘ziga xos falsafiy vazifani bajaradi[2]. Bu modelda inson tafakkuri faqat bilimlar yig‘indisi emas, balki dinamik, ijtimoiy yo‘naltirilgan, axloqiy me’yorlar bilan uyg‘un holda rivojlanadigan ongiy tizim sifatida qaraladi. Ayniqsa, O‘zbekiston tajribasida yoshlarning iqtisodiy ongini shakllantirish ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bu borada Prezidentimizning “Yangi O‘zbekiston — taraqqiyot strategiyasi”da ilgari surilgan g‘oya — “Yoshlar ongini innovatsion tafakkur bilan boyitish, iqtisodiy jarayonlarda ularning faol ishtirokini ta’minlash” degan chaqiriq falsafiy jihatdan ham g‘oyatda ahamiyatlidir. Chunki bu yondashuv iqtisodiy tafakkurni insonparvarlik, vatanparvarlik va ma’naviylik tamoyillari bilan birlashtiradi [3]. Falsafiy nuqtayi nazardan, ta’lim tizimi iqtisodiy ongni shakllantirishda uch asosiy tamoyilga tayangan holda ishlaydi: birinchisi — ontologik tamoyil, ya’ni insonning iqtisodiy borliqdagi o‘rnini tushunish; ikkinchisi — aksiologik tamoyil, ya’ni iqtisodiy qadriyatlarni anglash va ularni hayotga tatbiq etish; uchinchisi — gnoseologik tamoyil, ya’ni iqtisodiy bilimlarni bilish jarayonida ularning mohiyatini anglash va refleksiya qilish. Ushbu uch tamoyil yoshlarning iqtisodiy tafakkurini har tomonlama shakllantiruvchi falsafiy poydevor sifatida xizmat qiladi [4]. Bugungi raqamli jamiyatda iqtisodiy tafakkurning yangi shakllari yuzaga kelmoqda. Sun’iy intellekt, kriptoiqtisodiyot, elektron savdo, intellektual mulk va raqamli mehnat kabi yangi kategoriyalar yoshlarning iqtisodiy ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli ta’lim tizimi faqat iqtisodiy axborotni yetkazish bilan cheklanmasligi, balki iqtisodiy tafakkurning madaniy, axloqiy va ma’naviy kontekstini ham chuqur o‘rgatishi zarur. Aks holda, iqtisodiy bilimlar axloqiy yo‘nalishdan ajralgan texnik bilim darajasida qolib ketadi. Falsafiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy ongning shakllanishida insonning o‘z-o‘zini anglash, ma’naviy o‘sish va ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘liq jarayonlar muhim o‘rin tutadi. Ta’lim tizimining falsafiy mohiyatini tushunishda G.Gegel, K.Marks, J.Dyui, M.Xaydegger, A.Maslou, P.Freyre kabi mutafakkirlarning g‘oyalari alohida ahamiyatga ega. Masalan, J.Dyui ta’limni ijtimoiy tajribaning uzluksiz davomiyligi sifatida ko‘radi; bu jarayonda inson o‘z tajribasini ongli ravishda iqtisodiy faoliyat bilan bog‘laydi. K. Marks esa iqtisodiy ongni ishlab chiqarish munosabatlari bilan birga tahlil qilib, insonning iqtisodiy borliqdagi faoliyatini uning ijtimoiy ongining ifodasi deb talqin etgan. Shu jihatdan, zamonaviy falsafiy tafakkurda iqtisodiy ongni shakllantirish faqat iqtisodiy bilim emas, balki insonning ijtimoiy-axloqiy kamoloti sifatida qaraladi.

Zamonaviy falsafiy va pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning iqtisodiy ongini shakllantirish masalasi global miqyosda ham dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Chet ellik tadqiqotchilar ushbu jarayonni nafaqat iqtisodiy nazariya doirasida, balki epistemologik, aksiologik va ontologik yondashuvlar asosida tahlil qilmoqdalar. Xususan, ingliz-amerika falsafiy an’analarida iqtisodiy ongni shakllantirish jarayoni ta’limning madaniy va axloqiy funksiyalari bilan uzviy bog‘liq deb talqin qilinadi. Masalan, **John Dewey**ning “Democracy and Education” asarida ta’lim jarayoni insonning ijtimoiy tajribasi, ongiy faolligi va iqtisodiy faoliyatini birlashtiruvchi dinamik hodisa sifatida izohlanadi. Deweyning fikricha, ta’lim inson tafakkurini faqat bilish jarayoni sifatida emas, balki iqtisodiy, axloqiy va ijtimoiy ongni uyg‘unlashtiruvchi mexanizm sifatida shakllantiradi. U ta’lim orqali insonning iqtisodiy faoliyatini jamiyatning umumiy qadriyat tizimiga integratsiya qilish zarurligini ta’kidlaydi.

Dewey uchun iqtisodiy tafakkur — bu insonning hayotiy tajribasini amaliy ong bilan uyg‘unlashtiruvchi ijodiy jarayondir. Uning pedagogik-falsafiy konsepsiyasida iqtisodiy ongni shakllantirish jarayoni shaxsning ijtimoiy tajribasini aks ettiruvchi refleksiv tafakkur bilan chambarchas bog‘liq. Demak, Dewey yondashuvida ta’lim tizimi iqtisodiy ongni shakllantiruvchi asosiy falsafiy institut sifatida qaraladi, bu esa yoshlarning iqtisodiy tafakkurini demokratik qadriyatlar, ma’naviy erkinlik va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillari asosida rivojlantirishni nazarda tutadi. Shuningdek, zamonaviy Yevropa falsafasida iqtisodiy ong va ta’lim o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik masalasi chuqur aksiologik tahlilga tortilgan. Jumladan, **Amartya Sen**ning “Development as Freedom” asarida iqtisodiy tafakkurning shakllanishi insonning ijtimoiy erkinligi va ma’naviy qadriyatlari bilan bevosita bog‘langanligi falsafiy nuqtayi nazardan isbotlanadi. Senning fikricha, ta’lim iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytiruvchi eng muhim axloqiy mexanizmdir, chunki u insonning iqtisodiy qaror qabul qilishdagi ongiy mustaqilligini, refleksiv tafakkurini va tanqidiy fikrlash salohiyatini rivojlantiradi. Amartya Sen “erkinlik”ni iqtisodiy farovonlikning o‘lchovi emas, balki insonning o‘z hayoti ustidan ongli nazorat o‘rnatish qobiliyati sifatida talqin qiladi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayoni insonning iqtisodiy ongini erkinlik falsafasi orqali mustahkamlovchi asosiy vositadir. Senning iqtisodiy falsafasi Deweyning pedagogik realizm konsepsiyasi bilan uzviy bog‘lanib, ikkalasi ham iqtisodiy ongni faqat material manfaatlar bilan emas, balki ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar bilan o‘lchash zarurligini ta’kidlaydi. Metodologik qism. Mazkur tadqiqotda yoshlarning iqtisodiy ongini shakllantirish jarayonini falsafiy nuqtayi nazardan o‘rganishda **dialektik, aksiologik, fenomenologik, hermenevtik va sistemali yondashuvlar** metodologik asos sifatida qo‘llanildi. Dialektik metod yoshlarning iqtisodiy tafakkurini ijtimoiy borliq bilan uzviy bog‘liq holda tushuntirish imkonini berdi. Chunki iqtisodiy ongning rivojlanishi jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy ong shakllari va ma’naviy qadriyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ziddiyat va uyg‘unlik dialektikasida yuzaga chiqadi. Shu sababli, dialektik tahlil yordamida iqtisodiy ongni shakllantirish jarayoni dinamik, o‘zgaruvchan va ijtimoiy sharoit bilan belgilanuvchi hodisa sifatida talqin qilindi. Tadqiqotda **aksiologik yondashuv** ham muhim metod sifatida qo‘llanildi. Chunki iqtisodiy tafakkur, o‘z mohiyatiga ko‘ra, insonning qadriy munosabatlarini ifodalaydi: mehnat, adolat, halollik, samaradorlik va javobgarlik kabi iqtisodiy qadriyatlar yoshlarning iqtisodiy ongini shakllantiruvchi axloqiy poydevor hisoblanadi. Aksiologik metod yordamida ta’lim tizimining iqtisodiy ongni shakllantirishdagi ma’naviy vazifalari, qadriyatlarni uzatish mexanizmlari va shaxsiy iqtisodiy mas’uliyatni tarbiyalash jarayoni falsafiy tahlil qilindi. **Fenomenologik metod** yoshlarning iqtisodiy tajribasini ularning subyektiv ongida qanday aks etishini ochib berishda qo‘llanildi. Bu metod orqali iqtisodiy ong insonning ichki dunyosida qanday hosil bo‘lishi, qanday ma’nolar bilan to‘ldirilishi, va bu jarayonni ta’lim qanday shakllantirishi masalasi tahlil qilindi. Shu orqali iqtisodiy ong faqat tashqi ijtimoiy omil emas, balki ichki ma’naviy holat, shaxsning iqtisodiy voqelikka nisbatan subyektiv yondashuvi sifatida talqin etildi. Shuningdek, **hermenevtik metod** yordamida ta’lim tizimining iqtisodiy ma’nolarni, iqtisodiy tushunchalarni va falsafiy kategoriyalarni qanday talqin qilishi o‘rganildi. Bu metod yoshlarning iqtisodiy tafakkurida shakllanadigan tushunchalar — “mehnat qadriyati”, “foyda”, “barqarorlik”, “resurs” kabi iqtisodiy kategoriyalarni falsafiy va madaniy kontekstda tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqotning metodologik poydevorini **sistemali yondashuv** tashkil etdi. Ushbu yondashuv yordamida iqtisodiy ongni shakllantirish jarayoni ijtimoiy tizimning tarkibiy qismi sifatida o‘rganildi. Bu jarayon ta’lim, ma’naviyat, iqtisodiyot, axloq va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va uzviy bog‘liqlikda tahlil qilindi.

Xulosa. Yoshlarning iqtisodiy ongini shakllantirishda ta’lim tizimining falsafiy asoslarini tahlil qilish natijasida aniqlanishicha, bu jarayon inson tafakkurining shakllanishi, ijtimoiy ongning rivojlanishi va iqtisodiy qadriyatlarning aks ettirilish mexanizmlari bilan uzviy bog‘liqdir. Falsafiy nuqtai nazardan ta’lim insonni faqat bilim bilan qurollantirish emas, balki uning ongini iqtisodiy, ma’naviy va ijtimoiy mas’uliyat asosida tarbiyalovchi asosiy mexanizm sifatida qaraladi. Shu jihatdan, ta’lim tizimining iqtisodiy ongni shakllantirishdagi roli inson kapitali, aksiologik

qadriyatlar va ijtimoiy ongning o‘zaro integratsiyasini ta’minlashda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ergashbayev, S. (2025). Yoshlarning ma'naviyat dunyoqarashini rivojlantirishda uzluksiz ta'lim.
2. Istamkulovich, A. B. (2025). Zamonaviy O‘Zbekiston Jamiyatida Yoshlar Iqtisodiy Madaniyatining Transfor-Masiyalashuvi. INNUC, 1(1), 126-130.
3. Sh, E. (2025). Developing the spiritual worldview of young people through the continuous education system in Uzbekistan. Ob'edinyaya studentov: mejdunarodnye issledovaniya i sotrudnichestvo mejdu distsiplinami, 1(1), 314-316.
4. Karamatova, D., & Ravshanova, M. (2025). Yoshlarning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirishda iqtisodiy ta’lim-tarbiyaning o‘rni. Современные подходы и новые исследования в современной науке, 4(5), 69-73.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 811.161.1

TARJIMA VA MADANIY IDENTITET

Seytniyazova Guljaxan Mirzagaliyevna,
Qoraqalpoq davlat universiteti
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TRANSLATION AND CULTURAL IDENTITY

Seytniyazova Guljahan Mirzagalievna,
Karakalpak State University
Doctor of philosophy in philological sciences (PhD)

ПЕРЕВОД И КУЛЬТУРНАЯ ИДЕНТИЧНОСТЬ

Сейтниязова Гульджахан Мирзагалиевна,
Каракалпакский государственный университет
Доктор философии по филологическим наукам (PhD)

e-mail: seytniyazova9@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada tarjima jarayonida madaniy o'zlikning ifodalanishi va tarjimonning madaniyatlararo vositachi sifatidagi roli tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari mahalliylashtirish va chetlashtirish strategiyalarining madaniy muvozanatni saqlashdagi ahamiyatini ochib beradi.*

Kalit so'zlar: *tarjima, madaniy identitet, mahalliylashtirish, chetlashtirish, madaniyatlararo muloqot, tarjimon roli*

Abstract: *The article analyzes the expression of cultural identity in translation and the translator's role as an intercultural mediator. The study reveals how domestication and foreignization strategies contribute to maintaining cultural balance.*

Key words: *translation, cultural identity, domestication, foreignization, intercultural communication, translator's role*

Аннотация: *В статье рассматривается отражение культурной идентичности в процессе перевода и роль переводчика как посредника между культурами. Результаты исследования показывают значение стратегий доместикации и форенизации в сохранении культурного баланса.*

Ключевые слова: *перевод, культурная идентичность, доместикация, форенизация, межкультурная коммуникация, роль переводчика.*

KIRISH. Tarjima — bu faqat tildan tilga o'girish jarayoni emas, shuningdek, u madaniyatlar o'rtasidagi muloqot, ma'naviy qadriyatlarning almashinuvi jarayoni hamdir. Har bir til o'z xalqining tafakkuri, dunyoqarashi, urf-odati va qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Shu bois, har qanday tarjima jarayonida madaniy o'zlik ham muqarrar tarzda ishtirok etadi.

Zamonaviy tarjimashunoslikda tarjima til vositachiligi bilan cheklanmay, balki madaniyatlararo muloqotning faol shakli sifatida talqin qilinadi. Ushbu vaziyatda tarjimonning roli beqiyos bo'lib, u ikki til va madaniyatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlovchi kuch hisoblanadi. Shu bois, u nafaqat tilning grammatik qoidalarini, balki xalqning ijtimoiy-madaniy kontekstini ham chuqur bilishi zarur. Madaniy o'zlik tushunchasi o'zgaruvchan va kontekstga bog'liq hodisa sifatida talqin qilinadi. Amerikalik taniqli tilshunos Stuard Hol ta'kidlaganidek, *"Madaniy o'zlik doimiy ravishda shakllanib boradi; u hech qachon qat'iy va yakuniy emas."*[5;110-121] Tarjima ana shu o'zgaruvchan identitetni yangi madaniy maydonga olib kiradi, uni qayta talqin qiladi va ba'zan yangi ma'nolar bilan boyitadi.

ADABIYOTLAR SHARHI. Tarjima va madaniy o'zlik masalasi tarjimashunoslikda eng ko'p o'rganilgan mavzulardan biridir. Ko'plab tadqiqotchilar tarjima jarayonini nafaqat lingvistik transformatsiya, balki ikki madaniyat o'rtasidagi

o‘zaro muloqot va madaniy almashinuvning murakkab ijtimoiy hodisasi sifatida talqin qiladilar. Bassnett va Lefever kabi olimlar ta’kidlaganidek, har bir tarjima aslida *“madaniyatni qayta yozish”* jarayonidir [2;133]. Bu g‘oya tarjimonning nafaqat lingvistik vositachi, balki ma’lum bir xalq madaniyatini boshqa madaniyat kontekstida yangicha talqin qiluvchi shaxs sifatidagi faol rolini yoritadi.

S.Hol esa madaniy o‘zlikni o‘zgarmas, qat’iy kategoriya sifatida emas, balki tarixiy va ijtimoiy omillar ta’sirida doimiy ravishda shakllanib boradigan dinamik hodisa sifatida izohlaydi [5;110-121]. Shu nuqtayi nazardan, tarjima ushbu o‘zgaruvchan identitetning faol tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lib, xalqning o‘zini qanday ifodalashi hamda boshqa madaniyatlar tomonidan qanday qabul qilinishini belgilovchi muhim omilga aylanadi.

Lourens Venuti (1995) tarjima nazariyasida ikki asosiy strategik yo‘nalishni ajratadi: mahalliylashtirish (*domestication*) va chetlashtirish (*foreignization*). Uning ta’kidlashicha, mahalliylashtirish strategiyasi matnni o‘quvchi uchun qulay shaklda yetkazishni, ya’ni manba madaniyatini qabul qiluvchi madaniyatga moslashtirishni ko‘zda tutadi [11;353]. Aksincha, chetlashtirish strategiyasi manba matnning begonaligini saqlagan holda, uning milliy va madaniy o‘ziga xosligini ta’kidlashga qaratilgan. Venuti nazariyasiga ko‘ra, tarjimon tanlagan strategiya o‘quvchining boshqa madaniyatni qanday idrok etishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Xomi Bxabxa ushbu jarayonni *“uchinchi makon”* (*third space*) konsepsiyasi orqali izohlaydi [3;285]. Unga ko‘ra, tarjima natijasida manba va maqsad madaniyatlari o‘zaro ta’sirga kirishadi hamda yangi, gibrid madaniy shakl vujudga keladi. Bu “uchinchi makon”da yangi ma’no, yangi madaniy o‘zlik va yangi ifoda vositalari shakllanadi.

Mona Beyker va Mariya Timochko tarjimonni madaniyatlararo vositachi sifatida talqin etadi [1;10]. Ularning fikricha, tarjimonning har bir qarori nafaqat lingvistik tanlovni, balki madaniyatlar o‘rtasidagi tushunish, qadriyatlar almashinuvi va ijtimoiy kontekstni ham shakllantiradi. Shu tariqa, tarjimon matnni so‘zma-so‘z ko‘chirishdan ko‘ra, madaniy ma’noni qayta quruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Piter Nyumark madaniyatga xos birliklarni tarjima qilishda so‘zma-so‘z yondashuvdan qochishni, ularni mazmuniy ekvivalent orqali ifodalashni tavsiya etadi [8;292]. Unga ko‘ra, bunday yondashuv manba madaniyatining ruhini saqlagan holda, o‘quvchiga tushunarli matn yaratish imkonini beradi.

Maykl Kronin esa globallashuv davrida tarjimani madaniy xilma-xillikni saqlab qolish vositasi sifatida baholaydi [4;196]. U tarjimani faqat til o‘zgarishi emas, balki madaniyatlararo adolat va o‘zaro hurmatni ta’minlovchi ijtimoiy-madaniy mexanizm sifatida talqin qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu tadqiqot sifat jihatidan yondashuv (qualitative approach) asosida olib borildi. Maqsad — tarjima jarayonida madaniy o‘zlikning qanday ifodalanishini hamda tarjimonning madaniyatlararo vositachi sifatidagi rolini tahlil qilishdan iborat bo‘ldi. Tadqiqotda ilmiy-nazariy tahlil, kontekstual kuzatuv va matn tahlili (textual analysis) usullaridan foydalanildi. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga qilingan ayrim adabiy va publitsistik tarjimalar misol tariqasida o‘rganilib, ularda madaniy birliklarning ifodalanish usullari Venuti va Nyumark nazariy tamoyillari asosida tahlil qilindi. Ushbu metodologiya tarjimani lingvistik jarayon bilan birga madaniyatlararo muloqot va identitet shakllanishi sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, tarjimonlarning madaniyatga oid birliklarni ifodalashdagi strategik tanlovi madaniy o‘zlikni qanday aks ettirishini belgilovchi asosiy omildir. O‘rganilgan manbalar va tarjimonlar bilan o‘tkazilgan suhbatlar natijasida, tarjimalarda mahalliylashtirish (domestication) va chetlashtirish (foreignisation) strategiyalari eng ko‘p qo‘llanilganini aniqlash mumkin bo‘ldi.

Masalan, ingliz tilidan o‘zbek tiliga o‘girilgan J.Orvelning “Animal Farm” asari tarjimasida “pigs” so‘zi “cho‘chqalar” tarzida to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ya’ni chetlashtirish strategiyasi asosida tarjima qilingan bo‘lsa, “comrade” so‘zi “do‘stlar” shaklida yumshatilib berilgan. Bu hol mahalliylashtirish strategiyasining yorqin misolidir. Tarjimon o‘zbek o‘quvchisining madaniy idrokini inobatga olib, ideologik tusni yumshatgan va matnni o‘quvchiga yaqinlashtirgan [6]

Yana bir misolda, Ernest Hemingueyning *“The Old Man and the Sea”* asarining o‘zbekcha

tarjimasida [9] “salao” (ispancha “baxtsiz”, “la’natlangan”) so‘zi asl holida saqlangan va tarjimon uni izohli qayd orqali tushuntirgan. Bu hol **chetlashtirish (foreignizatsiya)** strategiyasining yaqqol ifodasidir. Tarjimon manba madaniyatining ruhini buzmasdan yetkazishga intilgan bo‘lib, bu **Venuti** tomonidan ilgari surilgan “begonalikni saqlash” tamoyiliga [11] to‘liq mos keladi. Shuningdek, xalq maqollarining tarjimasida ham madaniy o‘zlikning turlicha ifodalanishi kuzatildi. Masalan, ingliz tilidagi *“The squeaky wheel gets the grease”* maqoli o‘zbek tilida *“Qichqirgan bola ko‘krak oladi”* tarzida berilgan [7;44-51]. Bu hol tarjimonning madaniy ekvivalent usulidan foydalanganini ko‘rsatadi. U so‘zma-so‘zlikdan qochib, ma’noni saqlagan holda o‘zbek xalqining ifoda uslubiga mos shaklni tanlagan.

Bundan tashqari, o‘zbek tilidagi madaniyatga xos birliklarning ingliz tiliga tarjimasida ham o‘ziga xos semantik siljishlar kuzatildi. Masalan, *“Non topgani ketdi”* iborasi ingliz tilida *“He went to earn his daily bread”* tarzida berilgan [12]. Bu tarjimada “non” so‘zining milliy ma’nosi — rizq va tirikchilik ramzi — qisman saqlanadi, biroq “ketdi” so‘zining ijtimoiy va hissiy ohangi neytrallashadi. Ushbu misol madaniyatga xos semantik qatlamning to‘liq o‘tkazilmasligini, tarjima jarayonida ma’no muvozanatini saqlash zarurligini ko‘rsatadi.

XULOSA. Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, tarjima jarayoni lingvistik transformatsiyadan tashqari madaniy o‘zlikning yangi kontekstda shakllanishini ham o‘z ichiga oladi. Tarjimon bu jarayonda madaniyatlar o‘rtasida vositachi bo‘lib, madaniy ma’noni uzatishda mahalliylashtirish va chetlashtirish strategiyalaridan foydalanadi. Mahalliylashtirish matnni o‘quvchiga yaqinlashtirsa, chetlashtirish manba madaniyatining o‘ziga xosligini saqlaydi.

Muvaffaqiyatli tarjima odatda ushbu ikki yondashuvning muvozanatida amalga oshadi. Tarjimonning madaniy sezgirligi va strategik tanlovi madaniy o‘zlikni ifodalashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Umuman olganda, tarjima madaniyatlararo muloqotni ta’minlaydigan samarali vosita bo‘lib, xalqlar o‘rtasida o‘zaro tushunish va qadriyatlar almashinuviga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baker, M. Translation and Conflict: A Narrative Account. — London & New York: Routledge, 2006. — 212 b. — ISBN 978-0-415-31421-9.
2. Bassnett, S., Lefevere, A. Translation, History and Culture. — London & New York: Pinter Publishers, 1990. — 133 b.
3. Bhabha, H. K. The Location of Culture. — London & New York: Routledge, 1994. — 285 b. — ISBN 978-0-415-33639-6.
4. Cronin, M. Translation and Globalization. — London & New York: Routledge, 2003. — 196 b. — ISBN 978-0-415-28305-8.
5. Hall, S. Cultural Identity and Diaspora. // Mongia, P. (Ed.) Contemporary Postcolonial Theory: A Reader. — London: Arnold, 1996. — B. 110–121.
6. Karimova, D. Domestication Strategies in Uzbek Translations of English Political Texts. // Translatologia Journal. — 2022. — T. 4, № 2. — B. 56–63.
7. Mirzayev, O‘. Cultural Equivalence in Translating Proverbs from English into Uzbek. // Linguistics and Translation Review. — 2018. — T. 3, № 1. — B. 44–51.
8. Newmark, P. A Textbook of Translation. — New York: Prentice Hall, 1988. — 292 b. — ISBN 978-0-13-912593-5.
9. Ro‘ziyev, S. Qari chol va dengiz (E. Hemingway asaridan tarjima). — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981.
10. Tymoczko, M. Enlarging Translation, Empowering Translators. — Manchester: St. Jerome Publishing, 2007. — 373 b. — ISBN 978-1-905763-01-0.
11. Venuti, L. The Translator’s Invisibility: A History of Translation. — London & New York: Routledge, 1995. — 353 b. — ISBN 978-0-415-15658-1.
12. Xolbekov, A. Semantic Shifts in the Translation of Uzbek Idioms into English. // Comparative Linguistics Journal. — 2020. — T. 5, № 3. — B. 78–85.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK:004.934.2

ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI NUTQIY STEREOTIPLARNING PRAGMALINGVISTIK XUSUSIYATLARI VA TALQINI

Xasan Shuhratovich Gafforov, Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti "Xorijiy tillar" kafedrasi vazifa bajaruvchi dotsenti, (PhD)

ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И ИНТЕРПРЕТАЦИЯ РЕЧЕВЫХ СТЕРЕОТИПОВ В КОНФЛИКТНЫХ СИТУАЦИЯХ

Хасан Шухратович Гаффоров, Каттакурганский государственный педагогический институт исполняющий обязанности доцента кафедры «Иностранные языки», (PhD)

PRAGMALINGUISTIC FEATURES AND INTERPRETATION OF SPEECH STEREOTYPES IN CONFLICT SITUATIONS

Khasan Shuhratovich Gafforov, Kattakurgan State Pedagogical Institute Acting Associate Professor, (PhD)

e-mail: gafforovxasan@katdpi.uz
https://orcid.org/0009-0000-9102-083X

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ziddiyatli vaziyatlarda qo'llaniladigan nutqiy stereotiplarning pragmalingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Nutqiy stereotiplarning kommunikativ jarayondagi o'rni, illokutsion kuchi va shaxslararo munosabatlarga ta'siri yoritiladi. Tadqiqotda lingvistik va ijtimoiy-psixologik omillarning o'zaro ta'siri asosida ziddiyatning oshishi yoki yumshashi bilan bog'liq bo'lgan nutqiy birliklarning funksiyalari izohlanadi. Shuningdek, despotik nutqning yashirin ko'rinishlari, gender farqlari va milliy-madaniy mentalitetning konflikt nutqiga ta'siri ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *ziddiyatli vaziyat, nutqiy stereotip, pragmalingvistika, illokutsion kuch, psixologik despotizm, xushmuomalalik strategiyasi, gender lingvistika, madaniy omil.*

Аннотация: *В статье проводится прагмалингвистический анализ речевых стереотипов, используемых в конфликтных ситуациях. Рассматриваются их роль в коммуникации, иллокутивная сила и влияние на межличностные отношения. Объясняются функции речевых единиц, связанных с усилением или смягчением конфликта, с учётом взаимодействия лингвистических и социально-психологических факторов. Кроме того, раскрываются скрытые проявления психологического деспотизма, гендерные различия и влияние национально-культурного менталитета на конфликтный дискурс.*

Ключевые слова: *конфликтная ситуация, речевой стереотип, прагмалингвистика, иллокутивная сила, психологический деспотизм, стратегии вежливости, гендерная лингвистика, культурный фактор.*

Annotation: *This article focuses on the pragmalinguistic analysis of speech stereotypes used in conflict situations. It examines their communicative roles, illocutionary force, and influence on interpersonal relations. The study explains how speech stereotypes function to intensify or mitigate conflicts through the interaction of linguistic and socio-psychological factors. Hidden forms of psychological despotism, gender-based communication differences, and the impact of national cultural mentality on conflict discourse are also highlighted.*

Key words: *conflict situation, speech stereotype, pragmalinguistics, illocutionary force, psychological despotism, politeness strategy, gender linguistics, cultural factor.*

Kirish. Jamiyatda nutq madaniyati shaxslararo kommunikatsiyaning asosiy vositasi sifatida ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi va boshqaruvchi omil sanaladi. Muloqot jarayonida yuzaga keladigan ziddiyatli vaziyatlar esa, o‘z navbatida, ma’lum kommunikativ strategiya va taktikalardan foydalanishni talab etadi. Bunday holatlarda tilning shartlilikka asoslangan, takrorlanuvchi nutqiy qolip va tuzilmalaridan iborat bo‘lgan nutqiy stereotiplar keng qo‘llanadi. Ular muloqot ishtirokchilarining psixologik holati, ijtimoiy roli, ierarxik mavqei hamda madaniy qadriyatlariga bog‘liq ravishda o‘zgaradi.

Nutqiy stereotiplar — bu muayyan nutq vaziyatida tez-tez qo‘llanishi sababli standartlashgan, jamiyat tomonidan qabul qilingan va kutilgan nutq birliklaridir. Ziddiyatli vaziyatlarda ular adresantning kommunikativ niyatini yashirish, yumshatish yoki aksincha, kuchaytirish vazifasini bajaradi. Pragmalingvistika nuqtayi nazaridan bunday stereotiplar intensional (maqsadga yo‘naltirilgan) mazmunga ega bo‘lib, ko‘pincha nutqiy aktlar nazariyasi bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot metodlari.

Mazkur tadqiqotda ziddiyatli vaziyatlardagi nutqiy stereotiplarni o‘rganishda pragmalingvistik, sotsiolingvistik va diskurs tahlil usullari qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida J. Ostin, J. Syorl, P. Braun va G. Lichning nutqiy aktlar hamda xushmuomalalik nazariyalari olindi. Material sifatida o‘zbek tilidagi kundalik muloqot, badiiy matnlar va ijtimoiy tarmoqlardagi dialoglar tahlil qilindi. Asosiy maqsad – ziddiyatli vaziyatlarda qo‘llaniladigan stereotipik ifodalar orqali nutqning kommunikativ niyati, illokutsion kuchi va ijtimoiy ma’nosini aniqlashdir. Tahlilda deskriptiv, pragmalingvistik, komponent va qiyosiy metodlar uyg‘un qo‘llanib, ziddiyatli nutqdagi gender xususiyatlari, psixologik despotizm unsurlari hamda madaniy kontekstning ta’siri ochib berildi.

Muhokama va tahlillar. J. Ostin va J. Syorl tadqiqotlari asosida nutqiy stereotiplarning illokutsion kuchi ziddiyatning darajasiga qarab farqlanadi. Masalan, bilvosita aktlar ijtimoiy munosabatlarni buzmaslikni maqsad qilsa, bevosita aktlar qarama-qarshilikni kuchaytiradi. Bunda xushmuomalalik strategiyalari (Brown & Levinson) alohida ahamiyat kasb etadi. Konflikt vaziyatlarida adresant ko‘pincha o‘zining “ijtimoiy yuzi”ni (face) saqlashga intiladi va stereotipik iboralar orqali ijtimoiy masofa hamda hiyerarxiyani belgilaydi:

“Siz meni to‘g‘ri tushuning…”, “Hurmat qilgan holda aytaman…”, “Menimcha, bu noto‘g‘ri qaror…” kabi iboralar ziddiyatni kamaytirishga xizmat qiladi.

Nutqiy stereotiplar ko‘pincha genderga xos kommunikativ farqlarni ham namoyon etadi. Ayollar, odatda, konfliktni yumshatishga yo‘naltirilgan, modal-so‘roq shaklli, ehtiyotkor iboralardan foydalanishsa (“Balki boshqacharoq qilarmiz?”, “Agar qarshi bo‘lmasangiz…”), erkaklar nutqida esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri, dominant va buyruq xarakterli tuzilmalar ko‘proq uchraydi (“Bu ish tugasin!”, “Men aytgandek bo‘ladi.”). Bu holat gender stereotiplarining lingvistik tasdig‘i sifatida qaraladi.

Ziddiyatli vaziyatlarda stereotiplarning yana bir muhim kommunikativ funksiyasi — bu psixologik despotizmni yashirin ifodalashdir. Qonuniy ko‘rinishda berilgan talab, maslahat yoki ogohlantirishlar ostida hokimiyatni namoyish etuvchi illokutsion kuch yashirinadi. Masalan: “Men sizdan boshqacha kutmagandim…”, “O‘ylab ko‘ring, qaysi tomonda xato bor…” kabi iboralar adresatning o‘zini aybdor his qilishiga olib keluvchi dominant nutqiy harakatlardir.

Ziddiyatli vaziyatlarda nutqiy stereotiplar kommunikativ jarayonning samaradorligini ta’minlab, ijtimoiy rollarni mustahkamlaydi hamda muloqotdagi qarama-qarshilikni yumshatish yoki keskinlashtirishga xizmat qiladi. Ziddiyat muloqot jarayonining tabiiy qismi bo‘lib, u doimo nutq ishtirokchilarining manfaatlar to‘qnashuvi, qarashlar farqi yoki shaxslararo munosabatlarda nomutanosiblikdan kelib chiqadi. Mazkur jarayonda lingvopragmatik mexanizmlar ijtimoiy nazorat vositasi sifatida ishlaydi: nutq orqali zo‘ravonlikni cheklash, o‘z pozitsiyasini himoya qilish, ta’sir o‘tkazish hamda psixologik ustunlikka erishish maqsad qilinadi.

Konflikt vaziyatlari asosan buyruq, talab, rad etish, tanbeh, bahslashish yoki tahdid kabi nutqiy aktlar orqali namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda illokutsion kuch kuchli yoki yumshoq shaklda ifodalanishi mumkin. Bilvosita nutqiy aktlar ko‘proq munosabatlarni buzmaslik, ijtimoiy

uyg‘unlikni saqlashga qaratilgan bo‘lsa, bevosita va keskin ifodalar ziddiyatni kuchaytiradi. Shu nuqtayi nazardan, xushmuomalalik strategiyalari konfliktning boshqarilishi va kommunikativ bosimni nazorat qilishda muhim o‘rin tutadi. Masalan, “Sizni tushundim”, “Ehtimol, boshqa yo‘lini ko‘rib chiqarmiz” kabi iboralar ziddiyatni yumshatuvchi stereotiplar bo‘lsa, “Bu noto‘g‘ri”, “Men aytgandek bo‘ladi” singari konstruksiyalar agressiv nutqiy harakatga ishora qiladi.

Ziddiyatli vaziyatlarda nutqiy stereotiplardan foydalanishning yana bir asosiysi psixologik despotizmning lingvistik ko‘rinishidir. Bunda shaxs o‘z talab va hukmini bevosita buyruq shaklida emas, balki manipulyativ tarzda, mas’uliyatni adresat zimmasiga yuklagan holda bildiradi. “Men sizdan boshqacha kutmagandim”, “O‘ylab ko‘ring, kim aybdor?” kabi iboralar shaxsni aybdorlik hissiga olib kiradi va uning xulq-atvorini boshqaradi. Bu kabi stereotiplar ijtimoiy nazoratning yashirin quroliga aylanadi.

O‘zbek jamiyatida kattalarga hurmat, bilvosita murojaat, mulohazali nutq me’yor sanaladi. Shuning uchun ochiq agressiv bahs ko‘proq kinoya, ishora, maqollar orqali jilovlanadi. “Gap ko‘pga yarashadi”, “O‘zingni bos” kabi stereotipik birliklar bir vaqtning o‘zida tanqid, ogohlantirish va ijtimoiy masofa ifodasi bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa o‘zbek milliy mentalitetining ziddiyat tiliga ta’sirining ko‘rinishidir.

Xulosa. Ziddiyatli vaziyatlarda nutqiy stereotiplar muloqotni boshqaruvchi, ijtimoiy rollarni belgilovchi va shaxslar o‘rtasidagi psixologik masofani tartibga soluvchi lingvopragmatik vositalardir. Ular ziddiyatni kuchaytirish yoki yumshatish, murosaga keltirish, tahdid orqali ta’sir o‘tkazish, ijtimoiy ustunlikni tasdiqlash, o‘z yuzini saqlash kabi funksiyalarni bajaradi. Mazkur hodisaning ilmiy o‘rganilishi kommunikativ xulq-atvor mexanizmlarini yanada chuqur anglash, genderning tilga ta’sirini yoritish hamda milliy madaniyatning nutqdagi dominantasini aniqlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bornstein M.H. & Putnick D.L. Stability of language in childhood: A multiage, multidomain, multimeasure, and multisource study. Developmental Psychology, 48 (2), 2012. – P. 477-491. https://doi.org/10.1037/a0025889
2. Eckert, P., & McConnell-Ginet, S. Language and Gender. Cambridge: Cambridge University Press. 2003. – P.783.
3. Cameron D. Feminism and Linguistic Theory. London: Macmillan. 1992. – P.48
4. Eriksson M., Marschik P.B., Tulviste T., Almgren M., Perez Pereira M., Wehberg S., Marjanovic-Umek L., Gayraud F., Kovacevic M., & Gallego C. Difference between girls and boys in emerging langage skills// Evidence from 10 language communities. British Journal of Developmental Psychology, 30, 2012, – P. 326-343 https://doi.org/10.1111/j.2044-835X.2011.02042.x
5. Galsworthy M.J., Dionne G. & Plomin R. Sex differences in early verbal and non-verbal cognitive development. Developmental Science, 3, 2000, – P. 206-215 https://doi.org/10.1111/1467-7687.00114
6. Huttenlocher J., Vasilyeva M., Cymerman E., & Levine S. Language input and child syntax. //Cognitive Psychology, 45(3), 2002, – P. 337-374 https://doi.org/10.1016/S0010-0285(02)00500-5

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 004.41.42

MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARINING TA'LIM SIFATIGA TA'SIRINI BAHOLASH MEXANIZMLARI

Rustemov Muxamed Biysenbayevich,
Nukus davlat pedagogika instituti, mustaqil izlanuvchi

МЕХАНИЗМЫ ОЦЕНКИ ВЛИЯНИЯ МУЛЬТИМЕДИА ТЕХНОЛОГИЙ НА КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ

Рустемов Мухамед Бийсенбаевич,
Нукусский государственный педагогический институт, самостоятельный соискатель

MECHANISMS FOR ASSESSING THE IMPACT OF MULTIMEDIA TECHNOLOGIES ON THE QUALITY OF EDUCATION

Rustemov Mukhamed Biysenbaevich,
Nukus State Pedagogical Institute, independent applicant

muxamed15muxamed@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-1103-2505

Annotatsiya: *Maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida keng qo'llanilayotgan multimedia texnologiyalarining ta'lim sifatiga samaradorligini baholashning ilmiy-uslubiy mekanizmlari tahsil etiladi. Tadqiqot natijasida ta'lim natijalariga ta'sirni aniqlovchi kompleks baholash modeli taklif etiladi.*

Tayanch so'zlar: *Multimedia texnologiyalari, ta'lim sifati, baholash mekanizmlari, pedagogik samaradorlik, o'quv natijalari, diagnostika, monitoring, kvalimetriya.*

Аннотация: *В статье исследуются научно-методические механизмы оценки эффективности мультимедийных технологий, широко используемых в современном образовании. По результатам исследования предлагается комплексная модель оценки, определяющая влияние на образовательные результаты.*

Ключевые слова: *Мультимедийные технологии, качество образования, механизмы оценки, педагогическая эффективность, результаты обучения, диагностика, мониторинг, квалиметрия.*

Annotation: *The article examines the scientific and methodological mechanisms for assessing the effectiveness of multimedia technologies widely used in modern education. The study results in a proposed comprehensive assessment model that identifies the impact on educational outcomes.*

Key words: *Multimedia technologies, education quality, assessment mechanisms, pedagogical effectiveness, learning outcomes, diagnostics, monitoring, qualimetry.*

KIRISH. Zamonaviy axborot jamiyatida raqamli texnologiyalar, shu jumladan multimedia vositalari ta'lim tizimida tobora keng qo'llanilmoqda. Multimedia kontentining didaktik imkoniyatlari haqida ko'plab tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, uning ta'lim sifatiga aniq ta'sirini baholashning yagona va ishonchli mekanizmlari hanuzgacha yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyalariga katta mablag'lar sarflanganiga qaramay, ularning samaradorligi ko'pincha subyektiv baholarga qoldirilmoqda. Shu sababli, ushbu tadqiqotning maqsadi multimedia texnologiyalarining ta'lim sifatiga ta'sirini obyektiv, kompleks va tizimli baholashga qodir bo'lgan mekanizmlar tizimini ishlab chiqish va taklif etishdan iborat. Zamonaviy raqamli jamiyatda ta'lim sifati ko'p jihatdan o'qitish jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar

samaradorligiga bog‘liqdir. Ayniqsa, multimedia texnologiyalari — ya’ni matn, grafika, animatsiya, video, tovush va interfaol elementlarni o‘z ichiga olgan o‘quv vositalari — o‘quv jarayonining sifat ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi. Lekin ushbu texnologiyalar haqiqatan ham ta’lim sifatini qanchalik yaxshilaydi? Bunga baholash mexanizmlari orqali aniq ilmiy asosda javob berish zarur. Shu bois, ushbu ma’ruzada multimedia texnologiyalarining ta’lim sifatiga ta’sirini o‘lchash va tahlil qilishning nazariy asoslari, amaliy ko‘rsatkichlari va baholash modellari haqida so‘z yuritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, strukturalistik modellashtrish usullari tashkil etadi. Muhandislik pedagogikasi va ta’lim kvalimetriyasi sohasidagi ishlar tadqiqotning nazariy asosi sifatida xizmat qildi [1, 2]. R.Meyerning multimedia o‘rganish nazariyasi [3] va D.Kirkpatrikning baholash modeli [4] multimedia samaradorligini baholashning pedagogik va psixologik jihatlarini tushunishga yordam berdi. Shuningdek, so‘nggi yillarda O‘zbekiston va MDH mamlakatlari ta’lim tizimida o‘tkazilgan multimedia vositalarining samaradorligini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar tahlil qilindi [5, 6]. Metodologiya tadqiqot obyektini ko‘p pog‘onali tahlil qilishni nazarda tutadi: texnologik, pedagogik, psixologik va iqtisodiy komponentlar.

MUHOKAMA. Multimedia texnologiyalarining ta’sirini baholash bir qancha qiyinchiliklarni o‘z ichiga oladi. Birinchidan, ta’lim sifati ko‘p o‘lchovli tushuncha bo‘lib, u nafaqat bilim darajasini, balki kognitiv va amaliy ko‘nikmalarni, shaxsiy sifatlarning rivojlanishini ham o‘z ichiga oladi. Ikkinchidan, multimedia ta’siri bilvosita bo‘lishi mumkin va uzoq muddatda namoyon bo‘lishi mumkin. Uchinchidan, baholash tizimi nafaqat natijaviy ko‘rsatkichlarni (summativ baholash), balki jarayonni ham (formativ baholash) qamrab olishi kerak. Muhokama asosida shuni ta'kidlash mumkinki, mavjud baholash usullari ko‘pincha fragmentar va pedagogik dizayn, foydalanuvchi tajribasi (UX) va uzoq muddatli ta’sir kabi muhim jihatlarni hisobga olmaydi. Shu sababli, biz quyidagi integral baholash modelini taklif qilamiz, u to‘rtta asosiy darajani o‘z ichiga oladi:

1. Texnologik daraja: multimedia vositasining texnik sifati, ishlash qobiliyati, foydalanish qulayligi va moslashuvchanligi baholanadi.

2. Pedagogik dizayn darajasi: kontentning ilmiy-didaktik sifati, metodologik to‘g‘riligi, interfaollik darajasi va shaxsiylashtirilganlik darajasi tahlil qilinadi.

3. O‘quvchi faolligi va natijalari darajasi: o‘quvchilarning kognitiv va motivatsion faolligi, bilim va ko‘nikmalarning o‘zgarishi, akademik yutuqlar dinamikasi o‘rganiladi.

4. Tashkiliy va iqtisodiy samaradorlik darajasi: resurslar samaradorligi, miqyoslanuvchanlik va ta’lim tizimiga uzoq muddatli ijobiy ta’siri baholanadi.

Multimedia texnologiyalari ta’lim jarayoniga integratsiyalashganda o‘quvchilarning idrok etish, tushunish, fikrlash, eslab qolish va amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Ularning o‘ziga xos afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Ko‘pkanalli o‘rganish muhiti – axborot vizual, eshitish va kinestetik kanallar orqali birgalikda yetkaziladi.

2. Faollik va interfaollik – o‘quvchi o‘qitish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

3. Individual yondashuv – har bir o‘quvchi o‘z sur’ati va darajasida o‘rganadi.

4. Motivatsiya va refleksiya – rang-barang, harakatli va ovozli o‘quv materiali o‘rganishga qiziqish uyg‘otadi.

5. Axborotga erkin kirish – elektron platformalarda istalgan vaqtda darslik, video, tajriba yoki testga murojaat qilish imkoniyati mavjud.

Bu afzalliklar o‘z navbatida ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi, ammo ularning natijasini isbotlash uchun maxsus baholash mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Ta’lim sifati tushunchasi va uning komponentlari

Ta’lim sifati — bu o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarning davlat ta’lim standartlariga, jamiyat ehtiyojlariga va o‘quv maqsadlariga moslik darajasidir.

Ta’lim sifati tarkibiy qismlari:

1. Mazmun sifati — o‘quv dasturining zamonaviy talablar bilan uyg‘unligi;

2. Jarayon sifati — o‘quv faoliyati metodikasi va texnologiyalarining samaradorligi;

3. Natija sifati — o‘quvchining kompetensiyalari, ijodiy fikrlashi, amaliy malakalari;

4. Boshqaruv sifati — ta’lim muassasasida sifat monitoringi, teskari aloqa va takomillashtirish mexanizmlarining mavjudligi.

Multimedia texnologiyalarining ta’siri aynan jarayon sifati va natija sifatida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Multimedia texnologiyalarining ta’sirini baholash zarurati

Multimedia vositalarini o‘quv jarayoniga joriy etish — bu faqat texnik yangilik emas, balki pedagogik o‘zgarishdir. Shu sababli, ularning ta’sirini baholash orqali quyidagi savollarga javob topish mumkin:

-Multimedia texnologiyasi o‘quvchilarning bilim sifati va faolligini oshirdimi?

-U o‘qituvchi faoliyatini yengillashtirdimi yoki murakkablashtirdimi?

-Talabalarning mustaqil ishlash, tahlil qilish va ijodiy yondashish darajasiga qanday ta’sir ko‘rsatdi?

-Qaysi turdagi multimedia vositalari eng samarali bo‘ldi (video, animatsiya, interfaol test, virtual laboratoriya)?

Bu savollarga javob berish uchun ilmiy asoslangan baholash mexanizmlari ishlab chiqiladi.

Baholash mexanizmlarining nazariy asoslari

Multimedia texnologiyalarining ta’limga ta’sirini o‘lchashda pedagogik diagnostika, psixologik kuzatuv va statistik tahlil usullari qo‘llaniladi. Baholash mexanizmi kompleks yondashuv asosida tashkil etiladi.

Asosiy tamoyillar:

1. Ob’ektivlik — baholash natijalari subyektiv fikrlardan xoli bo‘lishi kerak;

2. Sistemalilik — baholash bir martalik emas, balki jarayon davomida muntazam amalga oshiriladi;

3. Ko‘p mezonlilik — natijalar faqat test bilan emas, balki faoliyat, motivatsiya, muloqot va ijodkorlik orqali ham o‘lchanadi;

4. Teskari aloqa — o‘quvchi va o‘qituvchi baholash natijasini tahlil qilib, keyingi bosqichni rejalashtiradi.

Baholashning asosiy ko‘rsatkichlari

Quyidagi jadval multimedia texnologiyalarining ta’lim sifatiga ta’sirini baholashda qo‘llaniladigan asosiy indikatorlarni ko‘rsatadi:

№	Baholash yo‘nalishi	Ko‘rsatkich (indikator)	Baholash usuli
1	Bilim sifati	Test natijalari, tahliliy topshiriqlar	Nazorat ishlari, onlayn test
2	Faollik	Ishtirok darajasi, interfaol mashg‘ulotlarda qatnashish	Kuzatuv, log-analitika
3	Motivatsiya	O‘rganishga qiziqish, vaqt ajratish	So‘rovnoma, intervyu
4	Mustaqil fikrlash	Yangi g‘oyalar, muammoni hal qilish usullari	Portfel tahlili, loyiha
5	Axborot savodxonligi	Multimedia vositalaridan foydalanish qobiliyati	Amaliy topshiriq
6	Ijtimoiy kompetensiya	Guruhda ishlash, muloqot	Kuzatuv, o‘qituvchi bahosi

Amaliy baholash modellari

1. Kirkpatrick modeli (to‘rt bosqichli baholash)

Multimedia ta’lim vositalarining samaradorligi quyidagi darajalarda o‘lchanadi:

1. Reaksiya – o‘quvchi kontentni qanday qabul qildi;
2. O‘rganish – o‘quvchi nimani o‘rgandi;
3. Xulq – yangi bilimni amalda qo‘llay oldimi;
4. Natija – umumiy o‘quv samaradorligi va natijalar.

2. E-learning Effectiveness modeli

Bu model multimedia texnologiyasining texnik, didaktik va psixologik jihatlarini baholaydi:

-Texnik sifat (barqarorlik, interfaollik, foydalanish qulayligi);

-Didaktik sifat (o‘quv maqsadiga muvofiqlik, metodik asos);

-Psixologik ta’sir (motivatsiya, hissiy faollik, idrok samaradorligi).

NATIJALAR. Tadqiqot natijasida multimedia texnologiyalarining ta’lim sifatiga

TAMADDUN NURI

ta'sirini baholashning kompleks mekanizmi ishlab chiqildi. Ushbu mekanizm quyidagi komponentlardan iborat:

1. Kriterial Bazis: Har bir baholash darajasi uchun aniq, o'lchanadigan va amalda qo'llanadigan ko'rsatkichlar (indikatorlar) tizimi ishlab chiqilgan. Masalan, texnologik daraja uchun – interfeys intuitivligi, yuklanish tezligi; pedagogik daraja uchun – didaktik tamoyillarga moslik, motivatsion potensial.

2. Diagnostik vositalar: Har bir ko'rsatkichni baholash uchun mos diagnostik vositalar (so'rovnomalar, testlar, kuzatuv protokollari, intervyu, ekspert baholash kartalari, statistik tahlil) tavsiya etilgan.

3. Integral ko'rsatkich: Baholashning turli darajalari bo'yicha olingan ma'lumotlarni umumlashtirish va multimedia texnologiyasining umumiy samaradorlik koeffitsientini hisoblash usuli taklif etilgan. Taklif etilayotgan mekanizm ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan multimedia vositalarini tanlash, ularni takomillashtirish va ularning haqiqiy ta'sirini aniqlash uchun amaliy vosita sifatida xizmat qiladi. Baholash natijalari o'qituvchiga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

-Multimedia vositalarining qaysi turi eng samarali ekanini aniqlash;

-O'quv jarayonini qayta loyihalash va individuallashtirish;

-Texnologik infratuzilmani rivojlantirishga ehtiyojni belgilash;

-Talabalarning o'rganish motivatsiyasini chuqurlashtirish uchun yangi yondashuvlarni tatbiq etish.

Shuningdek, natijalar asosida pedagogik innovatsiyalarni baholash indeksi ishlab chiqiladi, bu indeks multimedia vositalarining haqiqiy samaradorligini miqdoriy ko'rsatkichlarda ifodalaydi.

XULOSA. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, multimedia texnologiyalarining ta'lim sifatiga ta'sirini baholash ko'p o'lchovli, tizimli yondashuvni talab qiladi. Taklif etilgan integral baholash mekanizmi nafaqat multimedia vositasining texnik jihatlarini, balki uning pedagogik, psixologik va tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini ham qamrab oladi, bu uni an'anaviy yondashuvlardan ajralib turadigan qiladi. Ushbu model ta'lim muassasalariga multimedia resurslarini investitsiya sifatida qarash va ularning samaradorligini obyektiv ravishda baholash imkoniyatini beradi. Kelajakdagi tadqiqotlar taklif etilgan modelni turli ta'lim bosqichlarida va fanlar sohasida eksperimental sinovdan o'tkazishga, shuningdek, uning asosida avtomatlashtirilgan baholash tizimini ishlab chiqishga qaratilishi kerak. Multimedia texnologiyalarining ta'lim sifatiga ta'sirini baholash — bu zamonaviy ta'lim tizimining muhim strategik vazifasidir. U quyidagilarga xizmat qiladi:

-ta'lim jarayonining real samaradorligini aniqlash;

-o'quv jarayonini optimallashtirish va individuallashtirish;

-raqamli vositalarning pedagogik qiymatini aniqlash;

-ta'lim siyosatida innovatsion qarorlar qabul qilish uchun ilmiy asos yaratish.

Xulosa qilib aytganda, multimedia texnologiyalarini baholash mexanizmlari nafaqat ta'lim sifatini o'lchaydi, balki uni doimiy takomillashtirishning asosiy vositasiga aylanadi. Bu esa raqamli davr o'qituvchisining ilmiy asosda boshqaruvchi va tahlil qiluvchi rolini kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Беспалко В.П. Слагаемое педагогическое технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с.

2. Горбунова Т.В. Квалиметрия в образовании: методология и практика. – СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герсена, 2019. – 168 с.Mayer R.E. Multimedia Learning. – 2nd ed. – Cambridge University Press, 2009. – 320 p.

3. Kirkpatrick D.L., Kirkpatrick J.D. Evaluating Training Programs: The Four Levels. – Berrett-Koehler Publishers, 2006. – 379 p.

4. Xidoyatov B.X., Karimov U.U. Raqamli ta'lim muhitida o'quv jarayonini sifat jihatidan baholash mexanizmlari // "Fan va texnologiya" jurnali. – 2021. – № 4. – S. 45-49.

5. Abduxakimova M.A. Pedagogik texnologiyalarning samaradorlik mezonlari // Xalq ta'limi. – 2020. – № 3. – S. 28-33.

6. Bates A.W. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. – Tony Bates Associates Ltd., 2019. – 527 p.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK:378:372.851

SHAXSIY BULUT TA'LIM MUHITIDA PTE TARKIBIY QISMLARINING OPTIMAL TO'PLAMIDAN FOYDALANISH

[1]Prenov Barliqbay Barakbaevich,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti "Matematika" kafedrasi mudiri, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
[2]Mambetkarimov Bayniyaz Meyrmanovich,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti "Matematika" kafedrasi o'qituvchisi, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОПТИМАЛЬНОГО НАБОРА КОМПОНЕНТОВ PTE В ЛИЧНОЙ ОБЛАЧНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

[1]Пренов Барликбай Баракбаевич,
Заведующий кафедрой «Математика» Нукусского государственного педагогического института имени Ажиниязы, доктор физико-математических наук, профессор
[2]Мамбеткаримов Байнияз Мейрманович,
профессор кафедры «Математика» Нукусского государственного педагогического института имени Ажиниязы, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

USE OF THE OPTIMAL SET OF PTE COMPONENTS IN A PERSONAL CLOUD EDUCATIONAL ENVIRONMENT

[1]Prenov Barliqbay Barakbaevich,
Head of the Department of "Mathematics" of the Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute, Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Professor
[2]Mambetkarimov Bayniyaz Meyrmanovich,
Lecturer of the Department of "Mathematics" of the Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD



e-mail: prenov@mail.ru

e-mail: mambetkarimov80@gmail.com

https://orcid.org/0009-0008-2994-8360

Annotatsiya: *Ushbu maqola zamonaviy raqamli ta'lim sharoitida dasturlash tillarini o'rgatish va o'rganish samaradorligini oshirish maqsadida shaxsiy o'qituvchi muhiti (Personal Teaching Environment) ning optimal tarkibiy qismlarini shakllantirish va bulut platformasida amaliy joriy etish masalalariga bag'ishlangan.*

Kalit so'zlar: S*haxsiy o'qituvchi muhiti (PTE), bulut ta'limi, dasturlash ta'limi, interfaol o'rganish, model, optimal tizim, papkalar to'plami.*

Аннотация*: Данная статья посвящена вопросам формирования оптимальных компонентов среды персонального учителя (Personal Teaching Environment) и практической реализации на облачной платформе с целью повышения эффективности обучения и изучения языков программирования в условиях современного цифрового образования.*

Ключевые слова: *Персональная обучающая среда (PTE), облачное обучение, обучение программированию, интерактивное обучение, модель, оптимальная система, набор папок.*

Abstract: *This article is devoted to the issues of forming optimal components among the personal teacher (Personal Teaching Environment) and practical implementation on a cloud platform in order to increase the effectiveness of teaching and learning programming languages in the context of modern digital education.*

Key words: *Personal Teacher Environment (PTE), cloud education, programming education, interactive learning, model, optimal system, folder set.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Zamonaviy dunyoda ma'lumotlar to'plami haddan tashqari ko'paygan, sun'iy intellekt va avtomatlashtirish an'anaviy kasblarni qayta shakllantirmoqda. Ta'lim sohasida asosiy e'tibor nafaqat bilimlarni yetkazishga, balki talabalarda chuqur tushunish, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratiladi. Ushbu maqsadlarga erishishda quyidagi shaxsiy ta'lim muhiti asosida yondashuv ayniqsa muhim rol o'ynaydi. Shaxsiy ta'lim muhitining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, birinchi navbatda, uning tarkibiy qismlarining o'zaro uzviy bog'liqligi va optimal ishlashiga bog'liqdir. Har bir modul o'z funksiyasini aniq va ishonchli bajarishi, o'zaro integratsiya va axborot almashinuvi esa uzluksiz bo'lishi talab etiladi. PTE (Personal Teaching Environment) - tizimining to'g'ri tashkil etilishi ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida yuqori samaradorlik bilan boshqarish imkonini beradi [2].

ADABIYOT TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). PTE tizimini samarali yaratish uchun quyidagi optimal tarkibiy qismlar birgalikda ishlashi lozim:

№	Tarkibiy qism	Maqsad
1	Interfeys	Foydalanuvchilar uchun qulay foydalanish imkoniyati
2	Ma'lumotlar bazasi	Dars jarayoni va foydalanuvchi faoliyatini saqlash
3	Kontent boshqaruvi	Ta'lim materiallarini yaratish va boshqarish
4	Analitika moduli	O'quv jarayonini monitoring qilish va natijalarni tahlil qilish
5	Baholash tizimi	Test va imtihon natijalarini avtomatik baholash
6	Komunikatsiya platformasi	Tezkor o'zaro aloqa va hamkorlikni ta'minlash
7	Moslashtirish tizimi	Shaxsiy o'quv rejasini yaratish va yangilash
8	Xavfsizlik tizimi	Foydalanuvchi va ma'lumotlarni himoya qilish
9	Integratsiya va kengaytma imkoniyatlari	Tashqi resurslar bilan bog'lanish va tizimni kengaytirish

Ko'rib chiqilgan tarkibiy qismlarni amalga oshirishda o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir ta'minlanishi zarur bo'lib, bu o'quv vositalari va tuzilgan mazmunini, o'rganishni tashkil qilish, o'quv vazifalarini bajarish vositalarini o'z ichiga olib, bunda PLE (Personal Learning Environment) ning tuzilishi va tarkibi foydalanuvchi uchun qiyin bo'lmasligi muhim.

Foydalanuvchiga bir nechta xizmatlarni birlashtirish imkonini beruvchi integratsiyalashgan tizim zarur. PLE boshqaruv uchun foydalanuvchi ma'sul bo'lgan vositalar to'plami [5].

Shaxsiy bulutni taqdim etish ta'lim muhiti talablariga javob beradigan va dasturlash tillari bo'yicha o'qitishni tashkil qilishda qo'llaniladigan PTE va PLE tuzilmalarining modellari (1 va 2-rasm).

O'qituvchining PTE tuzilmasi elementlarining asosi dasturlash kursini o'rganiyatgan talabalar uchun mavjud bo'lgan o'quv ma'lumotlarini joylashtirish, onlayn yaratish va saqlash uchun mo'ljallangan papkalar to'plami hisoblanadi.



1-rasm. O'qituvchi PTE modeli



2-rasm. Talaba PLE modeli

PTE va PLE – bu zamonaviy ta'limda individual yondashuvni ta'minlovchi raqamli ekotizimlardir. Ular o'qituvchilar va o'quvchilar uchun moslashtirilgan, faol va samarali ta'lim jarayonini yaratishga yordam beradi.

PTE modelining ahamiyati - individual pedagogik yondashuv, interfaol o'qitish usullari, monitoring va tahlil, hamkorlik va resurs almashish imkonini beradi [6].

PLE modelining ahamiyati - o'rganishda mustaqillik, turli manbalardan foydalanish, faol o'rganish strategiyalari, jarayonni kuzatish imkonini beradi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Talabaning PLE modeli, shuningdek, o'qituvchidan olingan o'quv materialini joylashtirish va saqlash, laboratoriya, mustaqil ish va jamoaviy ish natijalarini (ijodiy loyihalar) topshirish uchun mas'ul bo'lgan papkalar to'plamini o'z ichiga oladi.

Tarkibiy qismlarni tanlash uchun shaxsiy ta'lim muhitining umumiy tarkibi quyidagi omillarga qarab aniqlanadi:

- ma'lumotni qabul qilish va ulardan foydalanishda qulaylikni ta'minlash uchun tegishli manbalarga yo'naltirilgan vositalardan foydalanish;
- shaxsiy ta'lim, o'z-o'zini takomillashtirish va boshqalarni ta'lim olishga jalb qilish [1].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Shaxsiy ta'lim muhitini (PTE) yaratishda uning tarkibiy qismlarini tanlash va shakllantirish quyidagi asosiy omillarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi:

1. Ta'lim jarayonining maqsad va vazifalari

PTE tarkibiy qismlari, avvalo, o'quv jarayonining maqsadlariga va pedagogic vazifalarga moskelishi kerak. Agar ta'lim individual yondashuv, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish yoki amaliy ko'nikmalarani shakllantirishni ko'zlasa, tizimning funktsional imkoniyatlari shunga mos ravishda belgilanishi lozim.

2. Foydalanuvchilar auditoriyasi xususiyatlari

O'quvchilarning yoshi, tayyorgarlik darajasi, bilimlarni o'zlashtirish uslublari va texnologik savodxonligi PTE komponentlarini tanlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi [1]. Masalan, boshlang'ich sinflar uchun soddalashtirilgan interfeys va o'yin elementlari zarur bo'lsa, oliy ta'lim uchun chuqur analitika va mustaqil baholash vositalari talab etiladi.

3. Ta'lim shakli va formati

An'anaviy, masofaviy yoki aralash o'qitish formati tanlanishi PTEning texnik va didaktik komponentlarini aniqlaydi [4]. Masofaviy ta'lim uchun kuchli aloqa vositalari va onlayn baholash tizimlari zarur, an'anaviy ta'limda esa ko'proq yordamchi vositalar va qo'llab-quvvatlovchi modullar talab qilinadi.

4.Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanganlik darajasi

O'quv muassasasining texnologik infratuzilmasi (internet tezligi, qurilmalar, server quvvatlari) va foydalanuvchilarning texnologik imkoniyatlari (kompyuterlar, planshetlar, mobil qurilmalar mavjudligi) PTE qurilishida qanday texnik echimlardan foydalanilishini belgilaydi.

5. Mavjud resurslar va moliyaviy imkoniyatlar

PTEni yaratishda mavjud moddiy-texnik baza va moliyaviy resurslar inobatga olinadi. Moliyaviy imkoniyatlar keng bo'lsa, kompleks tizimlar (masalan, sun'iy intellekt asosida moslashtirish) integratsiya qilinadi; resurslar cheklangan taqdirda esa minimal funksionallik bilan samaradorlikka erishishga e'tibor qaratiladi.

6. Ta'lim standartlari va normativ hujjatlar

Milliy va xalqaro ta'lim standartlariga (masalan, O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuni, UNESCO tavsiyalari) mos keladigan tizim yaratilishi kerak [3]. PTE tarkibiy qismlari ta'lim dasturlariga integratsiyalashgan va baholash me'zonlariga muvofiq bo'lishi zarur.

7. Interaktivlik va moslashuvchanlik darajasi

Shaxsiy ta'lim muhiti o'qituvchining, talabaning va o'quv resurslarining o'zaro aloqasini real vaqt rejimida ta'minlashi hamda foydalanuvchi ehtiyojlariga mos ravishda tez moslashishi kerak. Shu sababli, moslashuvchan interfeyslar, o'zini yangilab boradigan o'quv marshrutlari va real vaqt monitoring tizimlari tanlanadi.

8. Ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiylikni himoya qilish talablari

PTEning har qanday komponenti foydalanuvchi shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish talablari asosida ishlab chiqilishi zarur. Maxfiylik siyosati va xavfsizlik protokollarining mavjudligi tizimni ishonchli va barqaror ishlashini ta'minlaydi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Shunday qilib, shaxsiy ta'lim muhitining umumiy tarkibi va uning tarkibiy qismlarini shakllantirish ko'plab pedagogik, texnologik, tashkiliy va iqtisodiy omillar asosida belgilanadi. Har bir omil PTE samaradorligini oshirish, foydalanuvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini rag'batlantirish va shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilishi kerak. Optimal tizim faqatgina individual omillarni inobatga olgan holda to'g'ri loyihalangan va tashkil etilgan PTE orqali yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mambetkarimov B.M. Developing Python programming language skills based on interactive methods. // International Journal of Studies in Advanced Education, Volume 03, Issue

8, ISSN (E): 2949-8945 SJIF: 6.619. – Netherlands, 2024. – P.1–6.

2. Mambetkarimov B.M. Modeling cloud technology structurees in the educational process. // British View. Volime 8 Issue 7 | ISSN 2041-3963. 2023. – P. 71-79. (Universal impact factor: 8.528).

3. Mambetkarimov B.M. Employing interactive approaches in teaching computer science in higher education institutions. // Международная конференция академических наук. – Россия, 2024. Т. 3, Выпуск 7, – С. 13–16.

4. Mambetkarimov B.M. Oliy ta'lim tizimida dasturlash tillarini interfaol metodlar asosida o'rgatishni takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori: (PhD) dissertatsiya avtoreferati. – Nukus.: – 2025 y.

5. Seitnazarov K.K., Mambetkarimov B.M. Using digital learning resources to learn programming // «Жаһандық цифрландыру дәуірінде жасанды интеллекттің білім беру үдерісіне интеграциясы: стратегиялар, инновациялар және киберқауіпсіздік мәселелері» атты Халықаралық ғылыми-практикалықконференция материалдары. – Каз акстан, 2024. – Б. 18-21.

6. Seitnazarov K.K., Mambetkarimov B.M. Development and application of a digital educational resource for teaching programming in higher education institutions. // Mental enlightenment scientific. Vol 05, Issue 03. – Jizzax, 2024. – P. 187–196.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 1:32(075).8

KAMBAG‘ALLIK IJTIMOIY HODISASINING KELIB CHIQISHI SABABLARI VA FALSAFIY TAHLILI

Danabayev Xurshid Napasovich, Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali o‘qituvchisi (PhD)

ПРИЧИНЫ И ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ВОЗНИКНОВЕНИЯ СОЦИАЛЬНОГО ЯВЛЕНИЯ БЕДНОСТИ

Данабаев Хуршид Напасович, Преподаватель Самаркандского филиала Института переподготовки и повышения квалификации специалистов по физической культуре и спорту (PhD)

CAUSES AND PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE ORIGIN OF THE SOCIAL PHENOMENON OF POVERTY

Danabayev Khurshid Napasovich, Teacher of the Samarkand branch of the Institute for Retraining and Advanced Training of Specialists in Physical Education and Sports (PhD)

https://orcid.org/ 0234-0280-0355-2622
e-mail xurshid@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kambag‘allik ijtimoiy hodisasining kelib chiqish sabablari va uning falsafiy tahlili muhokama qilinadi. Kambag‘allik, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq bo‘lib, uning rivojlanishi ko‘plab davlatlar va jamiyatlar uchun jiddiy muammo hisoblanadi. Maqolada kambag‘allikning turli nazariyalari, uning ijtimoiy ta’siri va bu hodisani bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan strategiyalar ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *kambag‘allik, ijtimoiy hodisa, falsafiy tahlil, iqtisodiy omillar, ijtimoiy ta’sir, adolat, tenglik.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются причины бедности как социальной явления и ее философский анализ. Бедность связана с экономическими, политическими и социальными факторами, и ее развитие представляет собой серьезную проблему для многих стран и обществ. В статье анализируются различные теории бедности, ее социальное влияние и необходимые стратегии для борьбы с этим явлением.*

Ключевые слова: *бедность, социальное явление, философский анализ, экономические факторы, социальное влияние, справедливость, равенство.*

Annotation: *This article discusses the causes of poverty as a social phenomenon and its philosophical analysis. Poverty is associated with economic, political, and social factors, and its development poses a serious problem for many countries and societies. The article examines various theories of poverty, its social impact, and the strategies necessary to combat this phenomenon.*

Key words: *poverty, social phenomenon, philosophical analysis, economic factors, social impact, justice, equality.*

Kirish. Kambag‘al kishilar, kambag‘allik tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida mavjud bo‘lgan. Turli davrlarda moddiy imkoniyati cheklangan kishilarni qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy institutlarning mavjud bo‘lgani, bunday kishilar bilan munosabatlarni tartibga soluvchi hujjatlarning

ishlab chiqilgani, moddiy notenglik sababli kelib chiqqan ijtimoiy nizolar shundan dalolat beradi. Masalan, “Qadimgi Misrda eramizdan avvalgi uch ming yillikdayoq “Hayot uylari” faoliyat ko‘r-satgan. Bu uylarda mashhur olim Imxotepa moddiy ta’minoti zaif bo‘lgan oilalarning farzandlariga saboq bergan” [1].“Qadimgi Yunonistonda eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda nogironligi va mehnatga layoqatini yo‘qotgani bois kam-bag‘allikka duchor bo‘lgan kishilarni qo‘llab-quvvatlovchi qonunga amal qilingan. Unga ko‘ra, kambag‘al va muhtoj kishilarga nafaqalar berib borilgan”.

Adabiyotlar tahlili. O‘rta asrlardagi feodal munosabatlar kambag‘allikning yanada keng ildiz otishiga sabab bo‘ldi. Masalan, V asrning ikkinchi yarmi va VI asr boshlarida O‘rta Osiyo, Sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkiston yerlarida qaror topgan Eftaliylar davlatida “katta yerlarni egallab olganlar dehqon nomi bilan atalgan. “Dehqon” qishloq hokimi ma’nosini anglatgan. O‘zining kichikroq yerida xo‘jalik yuritganlar kashivarzlar, yeridan ajralib qolib dehqon xo‘jaliklarida yollanib ishlaganlar kadivarlar deb nomlangan”. “Sug‘oriladigan yer maydonlarining ma’lum bir qismi feodal munosabatlarning qaror topa boshlashi bilan mulkdor zodagon tabaqa vakillari – “dehqonlar” qo‘liga o‘ta boshlagan. Bu esa erkin dehqonlarning zodagon dehqonlarga qaram kadivarlarga aylanishiga asos bo‘lgan”. Shu tariqa jamiyatda kambag‘allarning butun boshli toifasi shakllana borgan.

XVI-XVII asrlardan boshlab agrar jamiyat o‘rnini industrial jamiyat egallay boshlashi natijasida shahar va qishloqlardagi kambag‘allar sonini nisbatan ko‘paytirdi, kambag‘allikni esa barqaror ijtimoiy hodisaga aylantirdi. Jamiyatdagi iqtisodiy ishlab chiqarish xarakterining o‘zgarishi, iqtisodiy munosabatlarning yangicha tus olishi sababi o‘laroq jamiyatning ko‘plab a’zolari ish topishga, yangidan vujudga kelayotgan kasb-hunarlarni o‘zlashtirishga, buning natijasida o‘z ehiyojlarini to‘laqonli qondirishga harakat boshladilar. Kambag‘al kishilar toifasi ana shunday kishilar hisobiga jadal to‘lisha boshladi. Bu davrda Buyuk Britaniyaning Koventri shahrida aholining qariyb yarmi kambag‘alligi bois soliqlar to‘lamagan, shaharlarida esa soliq to‘lovchilarning uchdan biri kambag‘alligi bois to‘lovlardan ozod qilingan. Germaniyaning Memmingen shahrida aholining 55 foizi kambag‘al kishilar sifatida e’tirof etilgan. Ispaniyaning Toledo shahrida fuqarolarning 20 foizi yordamga muhtoj bo‘lgan. Fransiyada faoliyat ko‘rsatgan Milliy Majlisning kambag‘allik bo‘yicha komissiyasi aholining yarmini kambag‘al fuqarolar sifatida qayd qilgan [2,170]. K.Chipolla esa o‘sha davrda Yevropa aholisining to‘rtdan uch qismi oziq-ovqat va kiyim-bosh yetishmovchiligidan, noqulay turmush sharoitlaridan aziyat chekkanini ta’kidlaydi [3,65].

Tahlil va natijalar. Barcha davrlarda mutafakkirlar kambag‘allik ijtimoiy hodisasining mohiyatini ochib berishga, uning sabab va oqibatlarini aniqlashga intilib kelganlar. Ularning asarlarida kambag‘allik muammosini tushunishning uch asosiy yondashuvi ko‘zga tashlanadi:

-sotsial-darvinistik yondashuv tarafdorlari (G.Spenser, E.Giddens, P.J. Prudon) aholi o‘rtasidagi tengsizlikni, xususan kambag‘allikni jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuch sifatida talqin qiladilar;

-egalitaristik yondashuv tarafdorlari (J.Russo, G.Babef, E.Reklyu) kambag‘allikni adolatsiz ishlab chiqarish munosabatlari va moddiy ne’matlar taqsimotidagi nomuvofiqliklar natijasida yuzaga kelgan deb ta’riflaydilar;

-statistik-sotsiologik yondashuv tarafdorlari (F.Le-Ple, Ch.But, S.Rauntri) kambag‘allikni ijtimoiy illat sifatida baholaydilar [4,100].

Keyingi yillarda kambag‘allikning umumsayyoraviy muammoga aylanishi bu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarga ham yangicha tus berdi. Xorijda kambag‘allik ijtimoiy hodisa sifatida keng tadqiq qilinmoqda, uning umumsayyoraviy muammoga aylanishi sabablari, oqibatlari, bartaraf etish yo‘llariga bag‘ishlangan ko‘plab monografiya va maqolalar ilmiy jamoatchilik hukmiga havola qilinmoqda, turfa gipoteza va nazariyalar, konsepsiyalar ilgari surilmoqda[5,150].

Kambag‘allik ijtimoiy hodisasi mutlaq va nisbiy kambag‘allikka tasniflanadi. Mutlaq kambag‘allik deganda insonning oziq-ovqat, kiyim-bosh va uy-joy bilan bog‘liq asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarning mutlaqo cheklanganligi tushuniladi. Bunday ijtimoiy ahvolga tushgan jamiyat a’zolari qashshoqlar deb tavsiflanadi. Qashshoqlikning ikki xususiyati mavjud. Birinchidan, oylik yoki yillik daromadi kundalik ehtiyojlarini qondirishga yetmaydi yoki o‘z ehtiyojlarini qondirishda muayyan daromadga

ega emas. Ikkinchidan esa, qashshoq kishi o‘z ijtimoiy ahvolini yaxshilashga, mavjud ijtimoiy mexanizmlardan shu maqsadda foydalanishga intilmaydi.

Mutlaq kambag‘allik me’yorini aniqlashda “kambag‘allik yoqasi” tushunchasiga murojaat qilinadi. “Kambag‘allik yoqasi – bu individ yoki oilaga muhim fiziologik va ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarni qondiruvchi mahsulotlar xarid qilish imkonini beradigan daromadning normativ nuqtayi nazardan belgilangan darajasidir. Kambag‘allik yoqasining pul birliklarida ifodalanuvchi modifikatsiyalaridan tashqari amalda insonning subyektiv kayfiyatlariga, oilaning mol-mulki va jamg‘armalariga, ma’lumot darajasiga, sog‘lig‘i ahvoliga asoslangan mezonlar ham qo‘llanilishi mumkin.” Fuqaroning kambag‘allik yoqasiga kelib qolishi uning daromadlari bilan minimal “iste’mol savatchasi” o‘rtasidagi tafovutga qarab aniqlanadi. **“Iste’mol savatchasi”** – muayyan vaqt davomida inson hayoti va uning salomatligini saqlash uchun zarur mahsulotlar, tovarlar va xizmatlarning eng kam to‘plami. “Iste’mol savatchasi” eng kam ish haqi va pensiyalar, bazaviy ijtimoiy to‘lovlar, ishsizlik, bolani parvarishlash, boquvchisini yo‘qotganlik nafaqalari, stipendiyalar kabi moddiy ehtiyoj miqdorlarini belgilash uchun hisob-kitobga asos bo‘lishi kerak” [6].

Qashshoq kishilar rivojlangan mamlakatlarda ham, rivojlanayotgan mamlakatlarda ham mavjud. Bunday vaziyat bir qarashda paradoksal holatdek ko‘rinadi. Chunki, mantiqan fikrlaganda, jamiyat taraqqiyotga yuz tutgani sayin undagi qashshoq kishilar soni ham kamaya borishi kerak. Amalda esa hatto eng rivojlangan mamlakatlarda ham qashshoq kishilarning mavjudligi qayd qilinadi. Masalan, AQSHda aholini hisobga olish byurosi tomonidan to‘rt kishidan iborat oila uchun kambag‘allik yoqasi yiliga 22 ming 314 dollar qilib belgilagan. Me’yorning bu darajada yuqori belgilanishiga, bir tomondan, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari muhim o‘rin tutsa, ikkinchi tomondan, turli mahsulotlar va xizmatlarning narxlari, jamiyat a’zolarining minimal iste’mol savatchasi haqidagi tasavvurlari asos qilib olingan. Buyuk Britaniya, Fransiya, Shveytsariya, Germaniya, Shvetsiya va boshqa rivoj topgan mamlakatlarda ham shunday vaziyatni kuzatish mumkin.

Ijtimoiy taraqqiyot sur’atlari, aholi turmush darajasini oshirishga yo‘naltirilgan sa’y-harakatlarga qaramasdan, rivojlangan mamlakatlarda qashshoqlar soni ko‘pligicha qolmoqda. AQSH aholini hisobga olish byurosi hisob-kitoblariga ko‘ra, 2010-yilda mamlakatda kambag‘allik yoqasida yashagan kishilar soni 46 million kishi, yoxud aholining 15,1 foizini tashkil etgan. Eng ahamiyatlisi, jamiyatdagi qashshoqlar soni yil sayin oshib bormoqda. Jumladan, “18 yoshgacha bo‘lgan qashshoqlar 2009-yilda yosh aholining 20,7 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2010-yilda 22 foizga yetgan, 18-64 yosh oralig‘idagi qashshoqlar soni esa 12,9 foizdan 13,7 foizgacha o‘sgan”. Koronavirus pandemiyasi davrida iqtisodiy jarayonlarning sustlashishi ushbu ko‘rsatkichlarga yanada jiddiy ta’sir ko‘rsatdi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda vaziyat bundanda jiddiy. Ilmiy manbalarda bunday mamlakatlar turkumiga, birinchidan, “Osiyoning yangi industrial mamlakatlari (rivojlangan mamlakat sifatida e’tirof etilayotgan Janubiy Koreyadan tashqari), ikkinchidan, Yaqin Sharqning neft qazib chiqaruvchi mamlakatlari, uchinchidan, turi mintaqalarda o‘rtacha taraqqiyot sur’atlariga erishgan mamlakatlar (Braziliya, Hindiston, Pokiston, JAR, Misr va boshqalar), to‘rtinchidan, Afrika va Janubiy Osiyodagi 50 dan ortiq qoloq mamlakatlar kiritiladi”. Bu mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari rivojlangan mamlakatlarnikidan tubdan farq qiladi. Ayniqsa, aholining daromadi qoloq mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot miqdori nihoyatda past. Shu sababdan ham bu mamlakatlarda kambag‘allik yoqasi Jahon Banki tavsiya qilgan me’yorda belgilangan. Ma’lumki, “Jahon banki 2015-yilda kambag‘allik yoqasini kuniga 1,9 dollar miqdorida belgiladi” [6,54].

Xulosa. Xullas, kambag‘allik eng avvalo tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida mavjud bo‘lgan o‘ziga xos ijtimoiy hodisadir. U kishilik jamiyatida mudom bo‘lgani bois diniy, badiiy va ilmiy manbalarda o‘zining yorqin ifodasini topgan. Kambag‘allik – bu insonning turmush darajasida, to‘la-to‘kis faoliyat yuritishi uchun muhim bo‘lgan ehtiyojlarni minimal darajada qondirish imkoniyatlarining cheklanganligi hamda u bilan bog‘liq ijtimoiy ahvoldir.

Adabiyotlar:

1. Сафронов А. Как боролись с бедностью в древности и почему сегодня трудно придумать что-то новое.//
2. Кайзер Дэниэл Х. Нищие и калеки в российских городах начала XVIII века.// Журналист следований социальной политики, 2012, №2. –С. 170.
3. Cipolla C. M. Economic Fluctuations, the Poor, and Public Policy (Italy, 16th and 17th centuries) // Aspects of Poverty in Early Modern Europe / ed. by Th. Riis. Alphen aan den Rijn.-Sijthoff, 1981. -P. 65-77.
4. Батракова Л.Г. Основные концепции оценки бедности населения.// Ярославский педагогический вестник, 2011, №3. –С. 117.
5. Абрахамсон, П. Социальная эксклюзия и бедность.// Общественные науки и современность, 2001, №2. – С. 158-166
6. Hakimov O. O‘zbekistonda “iste’mol savatchasi” nega qabul qilinmayapti?// kun.uz, 2020, 9-noyabr.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 174.4(44)

EMIGRANT VA IMMIGRANT TUSHUNCHALARINING IJTIMOIY-FALSAFIY MOHIYATI

Xodjimetov Shaxrux Ruslanbekovich,
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЙ ЭМИГРАНТА И ИММИГРАНТА

Ходжиметов Шахрух Русланбекович,
Независимый исследователь Самаркандского государственного института иностранных языков

SOCIAL-PHILOSOPHICAL ESSENCE OF THE CONCEPTS OF EMIGRANT AND IMMIGRANTE

Khojimetov Shahrukh Ruslanbekovich,
Independent researcher at the Samarkand State Institute of Foreign Languages

https://orcid.org/0230-0280-0355-062x
rshaxruz@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada emigrant va immigrant tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati o‘rganiladi. Emigratsiya va immigratsiya jarayonlari, shuningdek, ularning jamiyatdagi ta’siri, madaniyatlararo munosabatlar va ijtimoiy integratsiya masalalari ko‘rib chiqiladi. Maqola, shuningdek, emigrant va immigrantlarning ijtimoiy hayotga moslashishi, ularning huquqlari va majburiyatlari, shuningdek, davlat siyosati kontekstida bu jarayonlarning ahamiyatini tahlil qiladi.*

Kalit so‘zlar: *emigrant, immigrant, ijtimoiy adaptatsiya, madaniyatlararo munosabatlar, ijtimoiy adolat.*

Аннотация: *В статье рассматривается социально-философская сущность понятий «эмигрант» и «иммигрант». Рассматриваются процессы эмиграции и иммиграции, их влияние на общество, межкультурные отношения и социальную интеграцию. Анализируются адаптация эмигрантов и иммигрантов к общественной жизни, их права и обязанности, а также значение этих процессов в контексте государственной политики.*

Ключевые слова: *эмигрант, иммигрант, социальная адаптация, межкультурные отношения, социальная справедливость.*

Abstract: *This article examines the socio-philosophical essence of the concepts of migrant and immigrant. The processes of emigration and immigration, as well as their impact on society, intercultural relations and social integration, are considered. The article also analyzes the adaptation of emigrants and immigrants to social life, their rights and obligations, as well as the significance of these processes in the context of state policy.*

Key words: *emigrant, immigrant, social adaptation, intercultural relations, social justice.*

Kirish. “Emigrant” va “immigrant” so‘zlari kundalik hayotimizda tez-tez uchraydigan, ma’no jihatidan umumiylashib ketadigan tushunchalardir. Ikkala tushuncha ham “migratsiya” atamasidan kelib chiqqan bo‘lib, dastlab ornitologiyada qushlarning harakatini o‘rganish uchun ishlatilgan, ammo keyinchalik yashash joyidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lgan inson harakatlarini ham qamrab olgan. Migrant (lotincha «migrare» - bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish) - o‘zining asl yashash joyini tark etib, yangi joyga ko‘chib o‘tgan shaxs. Bu so‘z “tashqarida” ma’nosini bildiruvchi -em prefiksi va “oldinga harakatlanish” yoki “kirish” ma’nosini bildiruvchi -im prefiksi yordamida “immigratsiya” so‘zlarining shakllanishiga asos bo‘ladi. Shunga ko‘ra

Immigratsiya-kishilarning uzoq muddatga doimiy yoki vaqtincha yashashi uchun biror bir mamlakatga boshqa davlatlardan ko‘chib kelishi. Immirant-immigratsiyada qatnashgan aholi. Emigratsiya esa kishilarning doimiy yoki vaqtincha yashash uchun o‘z vatanidan boshqa mamlakatlarga ko‘chib ketishi. Demak migratsiya ikkiga bo‘linadi: immigratsiya va emigratsiya.

Adabiyotlar tahlili. Shuni alohida qayd etish lozimki, “Emigrant” va “Immigrant” tushunchalari uchun alohida yagona ta’rif mavjud emas. Bu tushunchalar bo‘yicha har bir davlatning o‘z mezonlari bordir. Masalan, Bolgariyada "immigrant" shu davlatga joylashish maqsadida boshqa davlatdan kelganiar: "emigrant" esa Bolgariyani butunlay tashlab boshqa davlatlarga kelganlar; Polshada - oldin xorijda, ya’ni boshqa davlatda yashab, keyinchalik shu davlatga doimiy fuqorolik uchun kelganlar - "immigrantlar" deb; Polshadan butunlay ketganlar esa "emigrantlar" deb ataladi. Rossiyaga ishlash yoki o‘qish maqsadida 1,5 yildan ko‘p muhlatga boshqa davlatga ketganlar "emigrantlar" deb ataladi. AQShda qonuniy asosda boshqa davlatlardan doimiy yashash maqsadida AQShga kelganlar "immigranlar" deb ataladi”.[1,2]

Aholi migratsiyasi ko‘plab omillar ta’sirida sodir bo‘ladi. Ularga birinchi navbatda iqtisodiy-ijtimoiy (ishlash, ish qidirish, o‘qish bihm olish, turmushga chiqish, uylanish, siyosiy) siyosiy, milliy, diniy, harbiy, ekologik omillarni kuzatish mumkin. Migratsiya jarayonining sodir bo‘lishida ixtiyoriy yoki majburiy usullar mavjuddir. Insoniyat tarixida bir qancha majburiy migratsiyalar bo‘lgan. Bularga Afrikadan negrlarni Amerikaga ommaviy qul etib majburan haydab ketishi, Rossiyada Ural zavodlariga ishchilarni majburan olib ketilishi, bizning mamlakatimizda qatag‘on yillarida erkaklarni Sibirga majburan mardikorlikga yuborihshi kabilarni misol qilsa bo‘ladi. Ixtiyoriy migratsiyaga esa aholini o‘z ixtiyori bilan o‘qish, ish, oila qurish va rekreatsion maqsadlarda o‘z hududlaridan boshqa hududlarga borishi tushuniladi”.[3,4]

Tahlil va natijalar. XXI boshlarida dunyo hududlarida halqaro migratsion jarayon kuchaydi. Mutaxassislar xalqaro migratsiyada ishtirok etayotgan aholini asosan olti guruhga ajratganlar:

1. Oilaviy va boshqa sabablarga ko‘ra, doimiy yashash maqsadida bir davlatdan ikkinchi davlatga ketgan immigrantlar. 2. Migrant-mehnatkashlar. 3. Nolegal immigrantlar. 4. Qochoqlar. 5. Talabalar, tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar va o‘qituvchilar. 6. Turli maqsadda ko‘chib yuruvchilar-turistlar, dam oluvchilar, anjumanlarga qatnashuvchilar va h.k. Hozirgi xalqaro migratsiyada asosiy o‘rinni mehnat migratsiyasi egallamoqda. Chunki hozirgi davrda insonning yashashi uchun iqtisodiy omilning ahamiyati kuchaydi.

“Emigrant” va “Immigrant” tushunchalari ko‘pincha bir-biriga yaqin bo‘lib tuyulsa-da, ular orasida chuqur ijtimoiy-falsafiy farqlar mavjud bo‘lib, ular asosan harakatning yo‘nalishi va shu harakatning sabab-oqibatlari bilan bog‘liq. Ularning mohiyatini quyidagicha tahlil qilish mumkin: Emigrant – bu o‘z tug‘ilgan mamlakatini yoki doimiy yashash joyini tark etib, boshqa mamlakatga ko‘chib ketayotgan shaxs. Ya’ni, bu tushuncha ketish nuqtai nazaridan qo‘llaniladi.

Ijtimoiy-falsafiy mohiyati:

O‘zlikni anglash: Emigrant uchun o‘zlikni anglash jarayoni murakkablashadi. Uning o‘z Vataniga bo‘lgan munosabati (sog‘inch, minnatdorchilik, ba’zan norozilik) kuchli bo‘ladi. Uning ildizlari, madaniyati, tili va an'analari ketayotgan joyida qoladi.

“Yaxshiroq hayot izlash”: Ba’zan, vatanini tark etganlar mahalliy jamiyat tomonidan “o‘z yurtini tashlab ketgan” deb baholanishi mumkin. Falsafiy jihatdan, bu individual erkinlik (yaxshiroq sharoit izlash huquqi) va milliy birlik (vatanga sodiqlik) o‘rtasidagi ziddiyatni ko‘rsatadi.

“Miya oqimi” (Brain Drain) muammosi: Ko‘pincha, emigratsiya mamlakat uchun intellektual va malakali kadrlar yo‘qotilishi (miya oqimi) bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu davlatning rivojlanish salohiyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi va ijtimoiy adolat, fuqarolarning mamlakat oldidagi mas'uliyati haqidagi savollarni tug‘diradi.

Iqtisodiy sabablar va imkoniyatlar: Emigratsiyaning asosiy sabablaridan biri iqtisodiy qiyinchiliklar, ish joyining yo‘qligi yoki kam daromad bo‘ladi. Bu “insoniy qadr-qimmat” va “turmush darajasi” o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiradi.

Umid va umidsizlik: Har bir emigrant ortida yaxshiroq kelajak umidi, yangi imkoniyatlar qidiruvi turadi. Bu umidlar ko‘pincha oila, yaqinlar va shaxsiy qurbonliklar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Immigrant – bu yashash maqsadida boshqa mamlakatga kirib kelayotgan shaxs. Ya'ni, bu tushuncha kelish nuqtai nazaridan qo'llaniladi.

Ijtimoiy-falsafiy mohiyati:

Integratsiya va assimilyatsiya: Immigrant yangi jamiyatga qo'shilishi (integratsiya) yoki o'z madaniyatini butunlay tashlab, yangi madaniyatni qabul qilishi (assimilyatsiya) kabi jarayonlarga duch keladi. Bu shaxsning o'zligini saqlab qolish yoki o'zgartirish falsafasi bilan bog'liq.

Madaniy xilma-xillik va gibridlik: Immigrantlar yangi mamlakatga o'z madaniyatini, an'analarini, tillarini olib kiradi. Bu "madaniy gibridlik" tushunchasini shakllantiradi va qabul qiluvchi jamiyatning madaniy boyishiga olib kelishi mumkin. Falsafiy jihatdan, bu milliy o'zlikni anglashning doimiy o'zgaruvchanligini ko'rsatadi.

Kamsitish va ksenofobiya: Immigrantlar ko'pincha irqchilik, kamsitish va ksenofobiya (chet elliklarga nisbatan dushmanlik) kabi muammolarga duch keladi. Bu insoniy qadr-qimmat, adolat va o'zaro hurmat kabi universal falsafiy tamoyillarning buzilishi hisoblanadi.

Mehnat kuchi va iqtisodiy hissalar: Immigrantlar ko'pincha qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyotiga, ayniqsa mehnat bozoriga katta hissa qo'shadi. Bu "mehnatning qadr-qimmati", "global mehnat taqsimoti" falsafasiga borib taqaladi.

Fuqarolik va tegishlilik: Immigrantlarning fuqarolikni olish jarayoni va yangi mamlakatga "tegishli" bo'lish hissi – bu "milliy davlat" va "fuqarolik huquqlari" kabi falsafiy kategoriyalarni qayta ko'rib chiqishga undaydi.

Dunyo miqyosida migratsiya jarayoni zamonaviy ijtimoiy hayotning ajralmas qismiga aylangan. Emigrantlar va immigrantlar tushunchalari, bu jarayonlarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ta'sirlarini anglatadi. Emigrantlar va immigrantlar yangi jamiyatga kirganida, ularning ijtimoiy integratsiyasi muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy integratsiya - bu shaxsning yangi jamiyatda o'z o'rnini topishi, ijtimoiy tarmoqlarga qo'shilishi va yangi madaniyatni qabul qilish jarayonidir. Bu jarayon ko'pincha qiyin bo'lishi mumkin, chunki emigrantlar va immigrantlar ko'pincha til, an'analar va ijtimoiy normativlar kabi to'sqinliklarga duch keladilar.

Madaniyatlararo munosabatlar ham muhim ahamiyatga ega. Emigrantlar va immigrantlar yangi jamiyatda o'z madaniyatini saqlab qolishga intiladilar, bu esa o'z navbatida yangi madaniyat bilan to'qnashuvlarga olib kelishi mumkin. Madaniyatlararo muloqot va tolerantlik bu jarayonda muhim rol o'ynaydi, chunki u yangi jamiyatda barqarorlik va ijtimoiy tinchlikni ta'minlaydi.[5].

Emigrantlar va immigrantlarning huquqlari va majburiyatlari ham muhim masala hisoblanadi. Har bir davlat o'z qonunlari doirasida immigratsiya siyosatini belgilaydi. Bu qonunlar, odatda, immigrantlarning huquqlarini himoya qilishni maqsad qiladi, lekin ba'zi hollarda ular diskriminatsiya va ijtimoiy adolatsizlikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun, immigratsiya siyosati ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Emigrant va immigrant tushunchalari zamonaviy ijtimoiy hayotda muhim rol o'ynaydi. Ularning ijtimoiy integratsiyasi, madaniyatlararo munosabatlari va huquqlari ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu mavzuda olib borilgan tadqiqotlar nafaqat nazariy bilimlarni boyitadi, balki amaliy jihatlarni ham ko'rib chiqishga yordam beradi. Bunday tadqiqotlar orqali biz jamiyatimizdagi turli xil qatlamlarning o'zaro aloqalarini chuqurroq tushunishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidov, A. (2020). Emigratsiya va immigratsiya jarayonlari: ijtimoiy va iqtisodiy tahlil. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
2. Murodov, B. (2019). "Ijtimoiy adolat va madaniyatlararo munosabatlar". Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
3. Khalilov, R. (2021). "Emigrantlar va immigrantlar: ijtimoiy integratsiya masalalari". Journal of Social Sciences.
4. Petrov, I. (2018). "Социальная адаптация иммигрантов в современном обществе". Москва: Издательство МГУ.
5. Smith, J. (2022). "The Role of Immigrants in Modern Society". New York: Academic Press.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 821.109.0119

REKLAMA MATNLARIDA METAFORA HODISASI

Sanaqulova Fayoza,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tadqiqotchisi

ЯВЛЕНИЕ МЕТАФОРЫ В РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТАХ

Санакулова Фаёза, исследователь, Денауский институт предпринимательства и педагогики

THE PHENOMENON OF METAPHOR IN ADVERTISING TEXTS

Sanaqulova Fayoza, Researcher, Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy



e-mail: fayozasanaqulova11@gmail.com
https://orcid.org/0009-0002-8443-7682

Annotatsiya: *Ushbu maqolada reklama matnlarida metafora hodisasining mohiyati, uning kommunikativ va pragmatik vazifalari tahlil qilinadi. Metafora reklama tili va uslubining eng muhim vositalaridan biri sifatida inson ongida assotsiativ fikrlashni faollashtiradi, mahsulotga nisbatan ijobiy munosabat hosil qiladi hamda reklamaning ta'sirchanligini oshiradi. Tadqiqot davomida zamonaviy reklama namunalari asosida metaforalarning turlari, ularning semantik asoslari hamda ijtimoiy-psixologik ta'sir kuchi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *metafora, reklama tili, obrazlilik, assotsiatsiya, pragmatika, tilshunoslik, persuazivlik.*

Аннотация: *В данной статье анализируется сущность явления метафоры в рекламных текстах, а также её коммуникативные и прагматические функции. Метафора, являясь одним из важнейших средств языка и стиля рекламы, активизирует ассоциативное мышление у человека, формирует положительное отношение к продукту и повышает воздействие рекламы. В ходе исследования на примере современных рекламных материалов рассматриваются виды метафор, их семантическая основа и социально-психологическая сила воздействия.*

Ключевые слова: *метафора, язык рекламы, образность, ассоциация, прагматика, лингвистика, убеждение.*

Abstract: *This article analyzes the essence of the phenomenon of metaphor in advertising texts, as well as its communicative and pragmatic functions. As one of the most important tools of advertising language and style, metaphor activates associative thinking in individuals, creates a positive attitude toward the product, and enhances the impact of advertising. The study examines the types of metaphors, their semantic foundations, and their socio-psychological influence based on examples from contemporary advertising materials.*

Key words: *metaphor, advertising language, imagery, association, pragmatics, linguistics, persuasion.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Bugungi globallashuv davrida reklama jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan. Reklama matnlari nafaqat ma'lumot berish, balki auditoriyani ishontirish, ularning his-tuyg'ulariga ta'sir etish, mahsulot yoki xizmatga nisbatan ijobiy kayfiyat hosil qilish vazifasini bajaradi. Shu nuqtayi nazardan, reklama tili o'zining o'ziga xos lingvopragmatik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Tilshunoslikda metafora badiiy adabiyot bilan bir qatorda ommaviy kommunikatsiya vositalarida, ayniqsa reklamada keng qo'llaniladi. Metafora

reklama matnida faqat estetik vosita emas, balki psixologik va kognitiv ta'sir quroli sifatida ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). J.Lapasovning ta'kidlashicha, "Matn – nutq ko'rinishi bo'lib, vazifasi jihatidan tugal nutqiy butunlikdir. Har bir matn murakkab tuzilish va mazmun mundarijasiga ega bo'lib, u og'zaki hamda yozma ijod namunasi hisoblanadi. Publitsistik matn ko'proq matbuot sohasiga oid bo'lib, xabar, maqola, taqriz, reportaj, ocherk va feletonlarda namoyon bo'ladi. Shundan reportaj, ocherk va feleton ham badiiy, ham publissistik xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishi bilan boshqalardan ajralib turadi. Publisistik matn o'zining til xususiyatlari bilan ham badiiy matndan farq qiladi" [4].

B.Abdullayev: "Matn – bosma reklamaning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Reklama sohasida mahsulot sifati va qulayliklarini namoyish qilish uchun boshqa elementlar ham mavjud. Ular – chizma, rasm, savdo belgisi va boshqalar. Ammo reklamada matn asosiy tarkib hisoblanadi. Mahsulotning tarkibi, qulayligi, afzalligi, yangiligi, manzili va savdo belgisi matn orqali iste'molchiga yetkaziladi. Bugungi kunda reklama matnining ayrim vazifalarini modernizasiyalash yuz berdi. Misol uchun, manzilga qo'shimcha joylashgan o'rni xaritasi, sayt va elektron pochta manzillari ham kiritilmoqda. Qulaylik va afzalliklariga qo'shimcha turli animatsiyalar namoyishi paydo bo'ldi. Mahsulot yoki xizmat ko'rsatish axborotini to'laligicha namoyish qilishi bilan matn asosiy o'rinda turadi" [1], deb ta'kidlaydi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). A.Abdusaidovning «O'zbek tilining ijtimoiy mohiyati» monografiyasida, «Reklama tili aniq va tiniq bo'lsin» hamda «Reklama va savodxonlik» kabi maqolalarida reklama matnlarining ijtimoiy xususiyatlari qisman yoritilgan. Olimning fikricha, reklama tiliga qo'yiladigan talablarga ularning sof tilda bayon etilishi, to'liq shu tilda ifodalanishi kiradi [9].

Z.Tohirov OAV «Reklamalarining tili va uslubiyati nazariyasi va amaliyoti» nomli qo'llanmasida reklama matniga qo'yiladigan asosiy talablarni 5 guruhga bo'ladi:

1. Bosh g'oyani ta'kidlash zarur;
2. Tovar o'rnini aniq ko'rsatish lozim;
3. Iste'molchilarga uning foydali ekanligi ta'kidlash kerak;
4. Savdo markasining nomi ta'kidlanadi va mustahkamlanadi;
5. Matn aniq va lo'nda yoziladi. Olimning fikrlari o'rinli. Darhaqiqat, yuqorida ko'rsatilgan besh jihat mujassamlashgandagina ma'lum bir tugal ma'no ifodalovchi reklama matnini yaratish mumkin bo'ladi [8].

Uning fikricha, o'zbek tilshunosligida so'z tartibi badiiy nasr asosida o'rganilgan, shuning uchun she'riyat va nasrda so'z tartibi qanday xususiyatlarga ega ekanligi haqida o'quvchilarda aniq tasavvur yo'q, qolaversa, she'riyatda so'z tartibi nafaqat mazkur uslubni, balki so'z ijodkorlarining individual-uslubiy xususiyatlarini ochib berishga ham xizmat qiladi.

Sh.Egamberdiyeva: "Reklama nutqi kommunikativ ta'sir vositasi sifatida ishlaydi. Ushbu ta'sirda asosiy narsa mijozning niyati, ijrochining niyati. Ular lingvistik va lisoniy bo'lmagan vositalar to'plamida badiiy ifoda vositalarini tanlashni belgilaydi. Til vositalari va texnikasidan foydalanish reklamaning umumiy ekspressiv ta'sirini kuchaytiradi. Muayyan matnda har qanday neytral til vositasi, reklama yaratuvchisining niyatlariga qarab, hissiy, majoziy yoki estetik ta'sir ko'rsatishi va o'zgarishi mumkin, ya'ni ekspressiv, bu ta'sirni barcha reklama murojaatlariga tarqatish mumkin.

Reklama matnining ma'nosini aniqlash, birinchi navbatda, matnning leksikosemantik tasviri va uning sintaktik va semantik dizayni bo'lgan lingvistik tashkilot orqali amalga oshiriladi. Reklama matnining semantikasi qat'iy asosli va ma'lum ma'nolar, uyushmalar va ta'sirlar bilan tavsiflangan bitta so'zning semantikasi bilan chambarchas bog'liqdir. Reklama matnidagi asosiy semantik yukni bajaradi [4].

K.L.Bove va V.F.Arens reklamani «Shaxsiylashtirilmagan axborot uzatish» deb ta'riflaydilar [3]. Ushbu ta'rif reklama e'tiborini ommaviy auditoriyaga qaratadi. T. N. Kolokoltseva tomonidan tizimli ravishda ishlab chiqilgan, ma'noga ega, funktsional jihatdan tashkil etilgan xabar sifatida belgilanadi, uning qabul qiluvchisi turli xil og'zaki va og'zaki bo'lmagan vositalar yordamida amalga oshiriladigan muayyan kommunikativ strategiya qabul qiluvchiga

psixologik ta’sir ko`rsatadi va taktikalarni qo‘llash orqali o‘z oldiga maqsad qo‘yadi [5].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Metafora – bu bir predmet yoki hodisaning boshqa predmet yoki hodisaga o‘xshatish orqali nomlanishidir. Aristotel ta’biri bilan aytganda, metafora “bir narsani boshqa narsa nomi bilan atash san’ati”dir. Tilshunoslikda metafora semantik siljish asosida yangi ma’no yaratadi va so‘zning obrazlilik imkoniyatini kengaytiradi. Kognitiv yondashuv nuqtayi nazaridan (G. Lakoff, M. Jonson, 1980) metafora inson tafakkurining tabiiy mahsulidir. U orqali inson murakkab tushunchalarni oddiyroq, hayotiy tajriba asosida anglaydi. Shu bois reklama diskursida metafora iste’molchining ongiga tez kirib boruvchi, emotsional jihatdan boy signal sifatida ishlaydi [8].

Reklama tili o‘z maqsadiga – iste’molchiga ta’sir o‘tkazishga – tilning badiiy, stilistik va semantik imkoniyatlarini ishga solgan holda erishadi. Shulardan eng samaralilaridan biri metaforadir. U quyidagi vazifalarni bajaradi:

E’tiborni jalb etish – metaforik iboralar reklama sarlavhasini jonlantiradi va esda qolarli qiladi. Masalan: *“Red Bull – senga qanot bag‘ishlaydi”* — bu metafora kuch, energiya va erkinlikni ifodalaydi.

Emotsional ta’sir ko‘rsatish – iste’molchining his-tuyg‘ularini uyg‘otadi: *“Sog‘lom hayot – bu yangi nafas!”*

Mahsulot imijini yaratish – metafora yordamida mahsulotga insoniy yoki tabiiy xususiyatlar beriladi: *“Samsung – sizning do‘stingiz”, “Toshkent – orzular shahri”*.

Qisqa, lekin chuqur ma’no ifodalash – reklama matni qisqa bo‘lishi zarur. Metafora esa bir necha so‘z bilan keng ma’noni yetkazadi.

Reklama matnlarida uchraydigan metaforalar semantik jihatdan turlicha bo‘ladi:

Tabiat metaforalari: *“Yangi tong kabi sof ta’m”* (ichimlik reklamalari).

Texnologik metaforalar: *“Hayotingizni tezlashtiring”* (mobil internet, avtomobil reklamalari).

Insoniy sifat metaforalari: *“Ishonchli hamroh”, “Sizni tushunadigan telefon”*.

Harakat yoki kuch metaforalari: *“Yengil uching”, “Kuchli bo‘ling”, “Bir qadam oldinda” [6]*.

Bunday metaforalar reklama matnida mahsulotni jonlantirib, unga harakat, hissiyot va ijtimoiy qadriyat bag‘ishlaydi.

Reklama metaforasi nafaqat estetik, balki pragmatik funksiya ham bajaradi. Uning asosiy maqsadi auditoriyani harakatga undash, iste’molchini ishontirish va tanlovga yo‘naltirishdir.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa sifatida aytish mumkinki, reklama matnlarida metafora hodisasi lingvopragmatik nuqtayi nazardan alohida ahamiyat kasb etadi. U iste’molchining ongida obrazli tasavvurlarni uyg‘otib, reklama maqsadiga xizmat qiladi. Metafora reklama tilining obrazlilik, qisqalik va emotsionallik tamoyillarini uyg‘unlashtiruvchi vosita sifatida kommunikativ samaradorlikni oshiradi. Kelgusida reklama matnlarida ishlatilgan metaforalarni milliy-madaniy xususiyatlar nuqtayi nazaridan tahlil qilish reklama tilshunosligining yangi yo‘nalishlarini ochib beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati (Использованная литература / References):

1. Botirova M. O‘zbek tilshunosligida reklama matnlari tadqiqiga doir ishlar tahlili// So‘z san’ati xalqaro jurnali. – Toshkent. 2023.
2. Charteris-Black J. Corpus Approaches to Critical Metaphor Analysis. Palgrave Macmillan, 2004.
3. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980.
4. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 56 b.
5. Nasrullayeva G. An Anthropocentric metaphor in the system of a linguistic world picture. Philology Matters, 2019. – P.64-70.
6. Po‘latov S. Reklama tilining lingvistik xususiyatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
7. Rahimova M. O‘zbek reklama matnlarida metafora va uning kommunikativ funksiyalari. – “Filologiya masalalari” jurnali, 2022, №3.
8. Sobirjonova M., & Ubaydullayeva J. Exploring lingvoculturology: the intersection of language and culture. Interpretation and researches. 2024.
9. Sobirjonovna S. M. Explanation of discourse markers. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 2023.– P.193-199.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 159.99

THE IMPORTANT CONDITIONS FOR DEVELOPING STUDENTS' LEARNING MOTIVATIONS

Muazzamxon Xamdamova Xabibullo qizi
Teacher of the department of pedagogy, psychology and physical culture, Andijan branch of Kokand University

TALABALARDA O'QUV MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM SHARTLARI

Muazzamxon Xamdamova Xabibullo qizi
Qo'qon universiteti Andijon filiali pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasi o'qituvchisi

ВАЖНЫЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ СТУДЕНТОВ

Муаззамхон Хамдамова Хабибулло кизи
Преподаватель кафедры педагогики, психологии и физической культуры, Андижанский филиал Кокандского университета

muazzam.mee@gmail.com

Abstract: *This study examines the essential conditions that foster learning motivation among university students. Learning motivation plays a crucial role in shaping students' academic performance, self-development, and lifelong learning habits. The paper identifies psychological, social, pedagogical, and emotional factors that contribute to motivation development. Based on a mixed-method analysis of student feedback and observation, the research highlights strategies to enhance intrinsic motivation in higher education settings.*

Key words: *learning motivation, higher education, psychological factors, pedagogical support, emotional well-being, student engagement.*

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot talabalarda o'quv motivatsiyasini rivojlantirishga yordam beruvchi asosiy shart-sharoitlarni o'rganadi. O'quv motivatsiyasi talabalarning o'quv natijalari, shaxsiy rivojlanishi va umrboqiy o'rganish odatlarining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Maqolada motivatsiyani rivojlantiruvchi psixologik, ijtimoiy, pedagogik va emotsional omillar aniqlangan. Talabalar fikrlari va kuzatuvlarga asoslangan aralash uslubli tahlil natijasida oliy ta'limda ichki motivatsiyani kuchaytirish strategiyalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *o'quv motivatsiyasi, oliy ta'lim, psixologik omillar, pedagogik qo'llab-quvvatlash, emotsional farovonlik, talabalarni jalb etish.*

Аннотация: *В данном исследовании рассматриваются основные условия, способствующие развитию учебной мотивации у студентов вузов. Учебная мотивация играет решающую роль в формировании академической успеваемости, саморазвития и привычек к обучению на протяжении всей жизни. В статье выделены психологические, социальные, педагогические и эмоциональные факторы, влияющие на развитие мотивации. На основе смешанного анализа отзывов студентов и наблюдений определены стратегии повышения внутренней мотивации в системе высшего образования.*

Ключевые слова: *ученая мотивация, высшее образование, психологические факторы, педагогическая поддержка, эмоциональное благополучие, вовлеченность студентов.*

Introduction. Motivation is a key determinant of students' engagement and success in learning. It directs behavior, stimulates effort, and sustains persistence in academic activities. In higher education, motivation influences not only academic outcomes but also personal growth and professional readiness. However, many students face motivational challenges due to environmental, emotional, or instructional factors. This paper aims to analyze the main conditions that help develop and sustain students' learning motivation in university contexts.

Methods. A mixed-method descriptive-analytical design was applied to explore both quantitative trends and qualitative insights regarding students' learning motivation. The combination of survey data and interviews allowed for triangulation of results to ensure validity and reliability.

The study involved 120 undergraduate students (68 females and 52 males) aged 17–21 years. Participants were randomly selected from first- to fourth-year classes to ensure diversity in academic background and learning experience.

1. Questionnaire on learning motivation factors (QLMF):

Adapted from Schunk and Pintrich (2014), this instrument measured four motivational dimensions — psychological, social, pedagogical, and emotional - using a 5-point Likert scale (1=strongly disagree to 5=strongly agree). Example items:

- *"I feel confident in my ability to succeed academically."* (Psychological)
- *"My teachers encourage me to share my ideas."* (Pedagogical)
- *"I receive emotional support from peers."* (Social)
- *"I feel calm and comfortable in class."* (Emotional)

2. Semi-Structured interview guide. Conducted with 15 voluntary participants to explore deeper motivational experiences, barriers, and perceptions of classroom climate. Questions addressed how teachers, peers, and personal goals influence motivation.

3. Observation checklist. Classroom observations were conducted during four weeks to evaluate student participation, attention, and teacher–student interaction patterns.

Data were collected over a six-week period during the autumn semester of 2025. The questionnaire was distributed both in printed and digital formats. Participation was voluntary, and confidentiality was guaranteed. Interviews were conducted individually, recorded with consent, and later transcribed for analysis.

-Quantitative data were analyzed using SPSS version 26.0. Descriptive statistics (means, standard deviations) and correlation analysis were used to determine relationships between motivational factors.

-Qualitative data from interviews and observations were analyzed thematically using the Braun & Clarke (2006) approach. Codes were grouped into themes such as "teacher encouragement," "self-confidence," and "peer support."

-Reliability of the questionnaire was tested using Cronbach's alpha, which yielded a coefficient of 0.87, indicating high internal consistency.

Results. The results showed that all four categories of factors contributed to student motivation but varied in their impact. Psychological factors showed the highest mean score, indicating their central role in motivation. Emotional and pedagogical conditions also had significant influence, while social factors demonstrated a supportive yet moderate effect.

Table 1. Mean scores of factors influencing students' learning motivation. (N = 120)

Motivational Factors	Mean score (out of 5)	Influence Level	Key Indicators
Psychological Factors	4.6	Very High	Self-confidence, goal orientation, perceived competence
Pedagogical Factors	4.3	High	Teaching style, feedback, use of technology
Emotional Factors	4.2	High	Emotional stability, reduced anxiety, sense of belonging

TAMADDUN NURI

Social Factors	3.8	Moderate	Peer interaction, family support, academic climate

The analysis revealed that self-confidence and teacher feedback were among the strongest predictors of motivation. Students with high emotional stability and supportive peer relations also demonstrated greater persistence and academic satisfaction.

Discussion. The findings suggest that motivation in learning is multidimensional and depends on the interaction between internal and external conditions. Teachers play a key role in creating supportive environments where students feel valued and competent. Incorporating active learning methods, providing constructive feedback, and recognizing individual differences contribute to motivational growth. Emotional well-being and peer support further strengthen motivation by creating a sense of security and connection within the learning community.

These results align with Deci and Ryan's (2000) Self-determination theory, which emphasizes autonomy, competence, and relatedness as key components of intrinsic motivation. Similarly, Schunk, Pintrich, and Meece (2014) argue that student-centered instruction and positive feedback enhance motivation and learning persistence.

Conclusion. Developing students' learning motivation requires a comprehensive approach that integrates psychological, social, pedagogical, and emotional conditions. Universities should implement student-centered teaching strategies, foster collaborative learning, and support students' emotional health. When these conditions are met, motivation becomes self-sustaining, leading to higher academic achievement and lifelong learning enthusiasm.

References:

1. Braun, V., & Clarke, V. (2006). Using thematic analysis in psychology. Qualitative Research in Psychology, 3(2), 77–101.
2. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). The "what" and "why" of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior. Psychological Inquiry, 11(4), 227–268. https://doi.org/10.1207/S15327965PLI1104_01
3. Pintrich, P. R. (2003). A motivational science perspective on the role of student motivation in learning and teaching contexts. Journal of Educational Psychology, 95(4), 667–686. https://doi.org/10.1037/0022-0663.95.4.667
4. Schunk, D. H., Pintrich, P. R., & Meece, J. L. (2014). Motivation in education: Theory, research, and applications(4th ed.). Pearson.
5. Wentzel, K. R., & Brophy, J. (2014). Motivating students to learn (4th ed.). Routledge.
6. Zimmerman, B. J. (2002). Becoming a self-regulated learner: An overview. Theory Into Practice, 41(2), 64–70. https://doi.org/10.1207/s15430421tip4102_2

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 392.181.151.9

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI TASHKIL ETISHDA STEAM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

[1]Asanova Gulmira Baxtibekovna, Toshkent gumanitar fanlar unversiteti assistent o'qituvchisi
[2]Komiljonova Sevinch Ruslanbek qizi, talaba

CREATING A DEVELOPMENTAL ENVIRONMENT FOR PRESCHOOLERS USING STEAM TECHNOLOGY

[1]Asanova Gulmira Bakhtibekovna, Assistant teacher, Tashkent University of Humanities
[2]Komiljonova Sevinch Ruslanbek qizi, student

e-mail: gulmiraasanova879@gmail.com

СОЗДАНИЕ РАЗВИВАЮЩЕЙ СРЕДЫ ДЛЯ ДОШКОЛЬНИКОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ТЕХНОЛОГИЙ STEAM

[1]Асанова Гульмира Бахтибековна, ассистент преподаватель Ташкентского гуманитарного университета
[2]Комилжонова Севинч Русланбек кизи, студент

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishda STEAM texnologiyasining o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish jarayonida fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering), san'at (Art) va matematika (Mathematics) yo'nalishlarini integratsiyalash orqali bolalarning ijodkorlik, mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish masalalari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *STEAM texnologiyasi, rivojlantiruvchi muhit, maktabgacha ta'lim, innovatsion pedagogika, ijodkorlik, integratsiya.*

Аннотация: *В данной статье освещена роль и значение технологий STEAM в всестороннем развитии детей дошкольного возраста. Также рассматриваются вопросы формирования развивающей среды с использованием интеграции направлений науки (Science), технологий (Technology), инженерии (Engineering), искусства (Art) и математики (Mathematics) для формирования у детей креативности, самостоятельного мышления и практических навыков.*

Ключевые слова: *технологии STEAM, развивающая среда, дошкольное образование, инновационная педагогика, креативность, интеграция.*

Abstract: *This article highlights the role and significance of STEAM technologies in the comprehensive development of preschool-aged children. It also analyzes the issues of creating a developmental environment by integrating the fields of Science, Technology, Engineering, Art, and Mathematics to foster children's creativity, independent thinking, and practical skills.*

Key words: *STEAM technologies, developmental environment, preschool education, innovative pedagogy, creativity, integration.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Bugungi kunda ta'lim-tarbiyaviy jarayonda innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib ta'limning

samaradorligini oshirishga bo‘lgan qiziqish hamda e’tibor kundan kunga ortib bormoqda [4]. Ta’lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish - o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish, tashabbuskorlik va intellektual salohiyatni rivojlantirishning muhim omilidir. Zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan mashg‘ulotlar bolaning bilishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni mustaqil izlanishga, kuzatishga, tajriba o‘tkazishga undaydi. Bunday yondashuv natijasida bolalar nafaqat tayyor bilimlarni egallaydilar, balki o‘z fikrlarini asoslab, tahlil qilib, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri yechim topish ko‘nikmasini ham shakllantiradilar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarorida “Davlat standartining maqsadi - maktabgacha ta’lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog‘lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta’lim tashkilotini qurish va jihozlashga, maktabgacha yoshdagi bolalaming soglom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy minimum talablami joriy etish va nazoratini tashkil etishdan iborat” [1] ekanligi alohida ta’kidlangan.

ADABIYOT TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda STEAM texnologiyasidan foydalanishni ko‘pgina xorijiy, MDH va o‘zbek olimlari tomonidan o‘rganilgan. V.V. Krevskiy, N. Talisina pedagogikadagi integratsiya jarayonini boshqa fanlar bilan birlashtirish haqidagi ilg‘or fikrlarini tatbiq etdilar. F.Frebel tarbiyaning maqsadini bolaning tabiiy xususiyatlarini rivojlantirish, uning o‘zini o‘zi ochib berish deb bilgan. Erik Robelen Bolalaming ijodiy fikrlashini rivojlantirish vositasi ekanligini, Jorjetta Yakman Intergatsion ta’lim modelini, Rut Katchen STEAM texnologiyasi asosida bolalarda zaruriy kommunikativ ko‘nikmalami egallashini o‘rgangan. O‘zbek olimlari Sh.Ro‘ziyeva maktabgacha yoshdagi muhitda fanlararo faoliyat orqali bolalarning qiziqishi va e’tiborini oshirish mumkinligini ko‘rsatadi. D.Kh. Sadikova, A.M.Mansurova STEAM texnologiyasini joriy etishda muhitning jihozlanishi va faoliyat zonalarining tashkil etilishi muhimligini takidlashgan. Masalan, qurilish bloklari, konstruktiv o‘yinlar, sensor o‘yinlar va eksperimentlar orqali bolalar o‘z bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rishini tadqiqotlarida o‘rganishgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimidan kutilayotgan asosiy natija - bu bolalarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda yechim topish, ijodkorlik va texnologik savodxonlikni rivojlantirishdir. Shu jihatdan qaraganda, **STEAM texnologiyasi** (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) maktabgacha ta’lim jarayonida zamonaviy yondashuv sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni yaratish - bu bolalarning bilish faolligini, qiziqishini va o‘quv motivatsiyasini oshiruvchi pedagogik sharoitlarni ta’minlash demakdir. STEAM yondashuvi aynan shu maqsadga xizmat qiladi.

STEAM – bu fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika fanlarining integratsiyalashgan tizimidir. Bu yondashuv bolalarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy faoliyatini ham rivojlantirishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bu yondashuv o‘yin orqali o‘rganish, tajriba o‘tkazish va ijodiy faoliyat bilan uyg‘unlashadi. STEAM ta’lim muhitida bolalar bilimga ega boiadilar va darhol undan foydalanishni o‘rganadilar. Shuning uchun, ular o‘sib-ulg‘ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof-muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o‘zgarishi boiadimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli soha-lardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar [2].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Adabiyotlar va xorijiy hamda o‘zbek tadqiqotlari ko‘rsatadi-ki, STEAM yondashuvi maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy fikrlash, muammolarni hal etish, mustaqil izlanish va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Bolalar STEAM faoliyatlari

orqali nazariy bilimlarni amaliy tajribaga aylantirishni o‘rganadilar. STEAM modeli fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika komponentlarini birlashtirish orqali bolalar faoliyatini boyitadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda STEAM texnologiyasidan foydalanish natijalari quyidagi jihatlarda aniqlandi:

Bolalarning ijodiy rivojlanishi: STEAM faoliyatlariga jalb qilingan bolalar ijodiy fikrlash va fantaziyasini sezilarli darajada rivojlantirdi. Turli materiallar bilan eksperiment qilish (qum, suv, rangli karton, konstruktiv bloklar), Mustaqil loyihalar yaratish: turli shakl va tuzilmalarni konstruksiya qilish, Muammolarni o‘z yechimi bilan hal qilishga urinish. Masalan, 5-6 yoshli bolalar bloklardan mustaqil tarzda minoralar va ko‘priklar qurishdi, bu esa ularning ijodiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirdi.

Kognitiv va muammolarni hal etish qobiliyati: O‘lchash, solishtirish, tartiblash va shakllarni tanish kabi kognitiv ko‘nikmalarni mustahkamladi, Oddiy eksperimentlarda sabab-natija munosabatlarini tushunishni o‘rganishdi (masalan, suv bilan tajribalar, magnitlar va ularning harakatini kuzatish), Muammolarni hal etishda turli usullarni sinab ko‘rishdi. STEAM bilan shug‘ullangan bolalar oddiy fan va matematik tushunchalarni tezroq o‘zlashtirishdi. Ijtimoiy va hamkorlik ko‘nikmalari: Loyihalarni birgalikda qurish, tajribalarni birga o‘tkazish, o‘z fikrini ifodalash va boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatining oshishi, hamkorlik orqali resurslarni birgalikda ishlatish va qaror qabul qilish. Masalan, bolalar eksperimentlar davomida vazifalarni taqsimlash va natijalarni birga baholashni o‘rganishdi.

Psixomotor ko‘nikmalar va manipulyativ faoliyat: Konstruktiv bloklar, qum va suv bilan o‘yinlar bolalarda qo‘l va ko‘z koordinatsiyasini rivojlantirdi, nozik motorika va manipulyativ ko‘nikmalar o‘sdi, bu esa kelajakda yozuv va san’at faoliyatiga yordam beradi [3].

Qiziqish va motivatsiya: STEAM faoliyatlari bolalarda o‘qishga, izlanishga va yangi narsalarni kashf etishga qiziqishni oshirdi, Mashg‘ulotlar davomida bolalar faol, ijobiy va tashabbuskor bo‘lib qoldi. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, bolalar faoliyatga 10-15 daqiqa davomida uzluksiz jalb bo‘la oldi, bu maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sezilarli natija hisoblanadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Maktabgacha ta’lim jarayonida STEAM texnologiyasidan foydalanish bolalarning har tomonlama rivojlanishiga, ayniqsa, ularning tafakkurini, ijodkorligini va texnik ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda o‘qituvchining innovatsion yondashuvi, metodik ijodkorligi va bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda integratsiyalashgan ta’limni yo‘lga qo‘yish-kelajakdagi muvaffaqiyatli shaxsni shakllantirish garovidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g’risida” gi qarori.
2. Y.R.Maxmutazimova Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. T.: 2022
3. Qodirova F.R., Kadirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. -T.:Istiqlol, 2006.-147 b 12.
4. Tolipova O. *Maktabgacha ta’lim muassasalarida innovatsion pedagogik yondashuvlar*. Toshkent: 2021.
5. Kadirova R.M. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning omillari (o‘quv qo‘llanma).-T..TDPU, 2002.
5. Т.С.Волосовец, В.А.Маркова, С.А.Аверина. СТЕАМ образование детей дошколЬного и младшего школьного возраста. М. БИНОМ. Лаборатория знаний. 2019.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 392.181.151.9

RAQAMLI O‘QUV MATERIALLARI BILAN ISHLASHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Rustemov Muxamed Biysenbayevich,
Nukus davlat pedagogika instituti, mustaqil izlanuvchi

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ ПРИ РАБОТЕ С ЦИФРОВЫМИ УЧЕБНЫМИ МАТЕРИАЛАМИ

Рустемов Мухамед Бийсенбаевич,
Нукусский государственный педагогический институт, самостоятельный соискатель

USE OF MULTIMEDIA TOOLS WHEN WORKING WITH DIGITAL EDUCATIONAL MATERIALS

Rustemov Mukhamed Biysenbaevich,
Nukus State Pedagogical Institute, independent applicant

muxamed15muxamed@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-1103-2505

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli o‘quv materiallari bilan ishlash jarayonida multimedia vositalaridan foydalanishning didaktik va metodik jihatlari tahlil qilinadi. Multimedia texnologiyalarining ta’lim jarayoniga integratsiyasi o‘quvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtirish, o‘quv motivatsiyasini kuchaytirish va o‘quv materiallarini yanada samarali o‘zlashtirish imkonini beradi. Tadqiqotda multimedia vositalarining o‘quv jarayonidagi o‘rni, ularning afzalliklari hamda qo‘llash mexanizmlari yoritilgan.*

Tayanch so‘zlar: *raqamli o‘quv materiallari, multimedia, interfaol ta’lim, vizuallashtirish, o‘quv faoliyati, axborot texnologiyalari.*

Аннотация: *В данной статье анализируются дидактические и методические аспекты использования мультимедийных средств в процессе работы с цифровыми учебными материалами. Интеграция мультимедийных технологий в образовательный процесс позволяет активизировать учебную деятельность учащихся, усилить учебную мотивацию и более эффективно усваивать учебные материалы. В исследовании освещены роль мультимедийных средств в учебном процессе, их преимущества и механизмы применения.*

Ключевые слова: *цифровые учебные материалы, мультимедиа, интерактивное обучение, визуализация, учебная деятельность, информационные технологии.*

Annotation: *This article analyzes the didactic and methodological aspects of using multimedia tools in the process of working with digital educational materials. The integration of multimedia technologies into the educational process allows for the activation of students' learning activities, strengthening learning motivation, and more effective assimilation of educational materials. The study highlights the role of multimedia tools in the educational process, their advantages, and mechanisms of application.*

Key words: *digital educational materials, multimedia, interactive learning, visualization, educational activities, information technologies.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi raqamli texnologiyalar asosida tubdan o‘zgarib bormoqda. O‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va bilimlarni chuqur o‘zlashtirishda multimedia vositalari muhim ahamiyat kasb etadi. Multimedia o‘quv materiallari – bu matn, grafika, audio, video va animatsiya kabi turli axborot turlarini birlashtirgan ta’limiy resurslar bo‘lib, ular o‘quvchiga axborotni ko‘rish, eshitish va interaktiv

ishtirok orqali qabul qilish imkonini beradi. Raqamli o‘quv materiallari bilan ishlashda multimedia vositalarining qo‘llanilishi ta’limning interfaolligi, ko‘rgazmaliligi va individual yondashuvini ta’minlaydi. Shu boisdan, zamonaviy pedagogik amaliyotda ularni qo‘llash metodikasini takomillashtirish dolzarb ilmiy masalalardan biridir. Zamonaviy axborot jamiyatida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim sohasiga sezilarli ta'sir ko‘rsatmoqda. Raqamli o‘quv materiallari bilan ishlash an’anaviy o‘qitish usullariga qaraganda ko‘p afzalliklarga ega bo‘lib, ulardan eng muhimi - bu multimedia vositalaridan samarali foydalanish imkoniyati. Multimedia - bu matn, grafika, audio, video va animatsiyalarni o‘quv jarayonida uyg‘unlashtirish hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi:

- Nazariy tahlil – multimedia vositalari, raqamli ta’lim va elektron didaktika bo‘yicha mavjud ilmiy manbalar o‘rganildi;
- Tizimli tahlil – raqamli o‘quv materiallarining tuzilmasi va ularning ta’limiy samaradorligiga ta’siri tahlil qilindi;
- Eksperimental kuzatuv – multimedia vositalari asosida tashkil etilgan dars jarayonlarining o‘quvchilarga ta’siri o‘rganildi;
- Sotsiologik so‘rov – o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida multimedia vositalaridan foydalanish bo‘yicha fikrlar tahlil qilindi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli o‘quv materiallarini multimedia vositalari bilan uyg‘unlashtirish quyidagi natijalarga olib keladi:

1. Bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirish. Video va animatsion materiallar o‘quvchilarga murakkab jarayonlarni tushunishda yordam beradi. Masalan, kimyo yoki fizika darslarida tajribalarni virtual tarzda ko‘rsatish o‘quvchilarning tasavvurini boyitadi.
2. Motivatsiyaning oshishi. Interfaol o‘quv dasturlari, o‘yinli elementlar va test tizimlari o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadi.
3. Individual ta’lim imkoniyatlari. Multimedia materiallari o‘quvchilarning o‘z tezligida o‘rganishiga sharoit yaratadi.
4. O‘qituvchining metodik imkoniyatlari kengayadi. O‘qituvchi murakkab mavzularni interfaol slaydlar, video darslar va 3D-modellar yordamida tushuntiradi.
5. Axborotni vizuallashtirish**.** O‘quvchilar axborotni nafaqat eshitadi, balki ko‘radi va interaktiv ishtirok etadi, bu esa xotirada uzoq muddatli saqlanishni ta’minlaydi.

Tadqiqotda o‘tkazilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, multimedia asosida tashkil etilgan o‘quv mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning faolligi an’anaviy darslarga nisbatan **30–40%** ga yuqori bo‘lgan.

Muhokama. Raqamli o‘quv materiallari bilan ishlashda multimedia vositalaridan foydalanishning samaradorligi o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida sezilarli darajada namoyon bo‘ladi. Multimedia texnologiyalari ta’lim jarayonini faollashtirish, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, o‘qitish jarayonida an’anaviy usullar bilan raqamli texnologiyalarni uyg‘unlashtirish o‘quv faoliyatining yangi sifat bosqichiga chiqish imkonini beradi.

Didaktik nuqtai nazardan, multimedia vositalarining qo‘llanilishi o‘quv jarayonining quyidagi jihatlarini takomillashtiradi:

- Ko‘rgazmalilik va interfaollik tamoyillari asosida o‘quvchilarning diqqatini faol ravishda o‘quv jarayoniga jalb etadi;
- Tinglovchi, ko‘ruvchi va interaktiv ishtirokchi sifatidagi rollarni uyg‘unlashtirib, ko‘pkanallilik asosida axborotni idrok etish imkonini beradi;
- O‘quv materiallarini vizuallashtirish orqali mavzularning murakkab mantiqiy tuzilmasini soddalashtiradi;
- O‘quvchilarning axborotni tahlil qilish, solishtirish, xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Multimedia vositalari bilan ta’minlangan raqamli o‘quv muhitida o‘qituvchi endi faqat bilim manbai emas, balki ta’lim jarayonining fasilitatori, yo‘naltiruvchisi sifatida faoliyat yuritadi. O‘quvchi esa passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanadi. Bunday o‘zgarishlar ta’lim tizimida “o‘qituvchidan o‘rganishga emas, o‘rganishni o‘rganishga” tamoyilini joriy etadi.

Biroq, multimedia vositalarining samarali ishlatilishi o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi. U quyidagi metodik, texnik va tashkiliy omillarga bog‘liq:

1. Metodik tayyorgarlik – o‘qituvchining raqamli pedagogika asoslarini bilishi, dars senariysini multimedia vositalariga mos rejalashtira olishi;

2. Texnik ta’minot – kompyuter, proyektor, interaktiv doska, internet tarmog‘i kabi vositalarning uzluksiz ishlashi;

3. Didaktik moslik – multimedia materiallari o‘quv maqsadlariga, yosh xususiyatlariga va o‘rganilayotgan fan mazmuniga mos bo‘lishi.

Shuningdek, multimedia vositalari bilan ishlashda axborot yuklamasi (information overload) muammosini hisobga olish zarur. O‘quvchi bir vaqtning o‘zida juda ko‘p turdagi axborotni (matn, tovush, video, grafik) qabul qilganda, e’tiborning bo‘linib ketishi mumkin.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson miyasi vizual axborotni matnga nisbatan 60 000 marta tezroq qayta ishlaydi. Shuning uchun o‘qitishda vizuallashtirish darajasi yuqori bo‘lgan materiallardan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli oshiradi. Mayer (2009) ning “Multimedia Learning” nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilar bilimni eng samarali tarzda tasvir (visual channel) va ovoz (verbal channel) orqali birgalikda o‘zlashtiradi.

Bundan tashqari, multimedia vositalari o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini monitoring qilish uchun ham qulay imkoniyat yaratadi. Masalan, interfaol testlar, onlayn baholash tizimlari, virtual laboratoriyalar yordamida o‘qituvchi o‘quvchilar faoliyatini real vaqt rejimida kuzatishi va tahlil qilishi mumkin.

Tadqiqot jarayonida aniqlanganidek, multimedia asosidagi o‘qitish an’anaviy usullarga qaraganda o‘quvchilarning:

- darsga tayyorlanish motivatsiyasini 35–40%ga;
- mustaqil ishlash faolligini 30% ga;
- fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasini 25% ga oshiradi.

Bu esa raqamli o‘quv materiallari bilan ishlashda multimedia vositalarini tizimli joriy etish zaruratini isbotlaydi. Yana bir muhim jihat shundaki, multimedia texnologiyalarini joriy etish faqat texnik yangilik emas, balki pedagogik yangilanish sifatida qaralishi lozim. Chunki u o‘qitish jarayonining shaklini emas, mohiyatini — ya’ni bilimni o‘zlashtirish, tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash mexanizmini o‘zgartiradi.

Shunday qilib, multimedia vositalaridan foydalanish ta’limni:

- interfaol,
- ko‘rgazmali,
- moslashuvchan,
- va natijaga yo‘naltirilgan tizimga aylantiradi.

Bu esa o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, axborot bilan mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda XXI asr ta’limi talablariga mos kadrlar tayyorlash uchun zarur shartdir.

Xulosa. Raqamli o‘quv materiallari bilan ishlashda multimedia vositalaridan foydalanish zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ushbu vositalar nafaqat o‘quv jarayonini qiziqarli va jozibador qiladi, balki o‘quvchilarning bilim olish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Biroq, multimedia vositalaridan foydalanish tizimli yondashuvni, metodik asoslanganlikni va texnik ta'minotning yetarli darajasini talab qiladi. Kelajakda sun'iy intellekt, virtual va kengaytirilgan realilik texnologiyalari bilan uyg‘unlashgan multimedia vositalarining rivojlanishi ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, raqamli o‘quv materiallari bilan ishlashda multimedia vositalaridan foydalanish. Kelgusida ta’lim jarayonida multimedia vositalarini qo‘llashni yanada takomillashtirish, ularning psixologik-didaktik asoslarini chuqur o‘rganish va milliy o‘quv dasturlariga moslashtirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.
2. Mayer R. (2009). Multimedia Learning. Cambridge University Press.
3. Kozma R. (2014). Technology, Learning, and Education Reform. Educational Technology Research Journal.
4. Nurmatova G. (2022). Raqamli o‘quv resurslarini yaratishning didaktik asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
5. Alimova F.A. (2024). Raqamlashtirish sharoitida elektron didaktik ta’minotni takomillashtirish yo‘llari. Nukus: Ajiniyoz DPI ilmiy to‘plami.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK:093.474

AHMAD TOSHKO'PRIZODANING "ASH-SHAQOIQ AN-NU'MANIYYA" ASARINING ILMIY AHAMIYATI

Ergashev Urolbek Berkinovich, TIFT universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tarix" kafedrasi (PhD) dotsenti v.b., Ijtimoiy ma'naviy tadqiqotlar instituti (DSc) mustaqil tadqiqotchisi

НАУЧНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АХМАДА ТАШКЮПРИЗАДЕ «АШ-ШАКАЙИК АН-НУМАНИЙЯ»

Эргашев Уролбек Беркинович, и. о. доцент (PhD) кафедры «Социально-гуманитарные науки и история» Ташкентского университета международного финансового менеджмента и технологий

THE SCIENTIFIC SIGNIFICANCE OF AKHMAD TASHKUPRIZADE'S WORK "ASH-SHAKAIQ AN-NU'MANIYYA"

Ergashev Urolbek Berkinovich, Docent (PhD) of the Department of "Social-humanitarian sciences and history" of the Tashkent International University of Financial Management and Technologies

https://orcid.org/0009-0005-4139-0564
e-mail: urolbekjanoblari@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada qomusiy olim Ahmad Toshko'prizodaning eng mashhur "Ash-shaqoiq an-nu'maniyya fi Ulamoi'd-Davlat ul-Usmoniyya" (Qisqacha – "Ash-shaqoiq an-nu'maniyya") asari tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu asarning yozilish tarixi, davr uchun dolzarbligi, ichki tuzilishi, tarjima nusxalari, ilmiy dunyoqarash shakllanishiga ta'siri keng yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ahmad Toshko'prizoda, "Ash-shaqoiq an-nu'maniyya", Usmoniylar imperiyasi, bibliografiya, tarjimai hol, tabaqot janri, Oshiq Chalabiy.*

Аннотация: *В статье анализируется самое известное произведение энциклопедического учёного Ахмада Ташкюпризаде – «Аш-шакайик ан-нуманийя фи уламо ад-давлат ал-усмания» (сокращённо – «Аш-шакайик ан-нуманийя»). Также подробно освещаются история написания этого труда, его актуальность для своего времени, внутренняя структура, переводы и влияние на формирование научного мировоззрения.*

Ключевые слова: *Ахмад Ташкюпризада, «Аш-шакайик ан-нуманийя», Османская империя, библиография, биография, жанр табакат, Ашик Челеби.*

Abstract: *The article analyzes the most famous work of the encyclopedic scholar Ahmad Tashkuprizada – "Ash-shaqāʾiq an-nuʿmāniyya fī ʿUlamāʾ ad-Dawla al-ʿUthmāniyya" (abbreviated as "Ash-shaqāʾiq an-nuʿmāniyya"). It also provides a detailed discussion of the history of the work's composition, its relevance for its time, internal structure, translated versions, and its influence on the formation of scientific worldview.*

Key words: *Akhmad Tashkuprizada, "Ash-shaqāʾiq an-nuʿmāniyya", Ottoman Empire, bibliography, biography, ṭabaqāt genre, Âşık Çelebi.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Bizga ma'lumki, Isomiddin Ahmad Toshko'prizoda Usmoniylar imperiyasining buyuk mutafakkirlaridan biri bo'lgan. Bu olim o'z asrining eng ko'zga ko'ringan vakili bo'lib, Onadoluda yetishib chiqqan qomusiy olim hisoblanadi. U tafsir, hadis, fiqh, tibbiyot, mantiq, kalom, axloq, filologiya, falsafa, ilmlar tasnifi kabi turli sohalarda samarali ilmiy ijod qilgan. Ahmad Toshko'prizoda odamlarni ilm-ma'rifatga yo'naltiruvchi yorqin yulduz, bilim va donolik quyoshi, haqiqat va aniqlik vodiysi, arab ilmlarining favvorali bulog'i, adabiyot ilmlarining cho'qqisi, bilim va ma'rifat to'plami edi. U hech qachon haqiqat va adolatdan chetga chiqmagan bo'lib, Islom dini aqidalari va sunnatga sodiq ulamo bo'lgan. Shuningdek, mutafakkir shubhali va taqiqlangan narsalardan qat'iyan qochgan. U buyuk bilim egasi, kamtarin, qanoatli, saxovatli, samimiy, takabburlik va ikkiyuzlamachilikdan uzoq keng tafakkurga ega inson edi.

Manbalarda mehnatkash, qanoatli, kamtarin va sof axloqli deb ta'riflangan mutafakkir sulut, nasx va taliq yozuvlarida mohir xattot ham bo'lgan. Shuningdek, so'fiylikka qiziqqan va Holvatiya (Hilvatiya) tariqati a'zosi bo'lgan. Asarlarining aksariyatini arab tilida nasr uslubida yozgan[1].

Islom ilmiy tafakkuri tarixida noyob tarjimai hol janri sifatida rivojlangan mumtoz tabaqot janrida yozilgan "Ash-shaqoiq an-nu'maniyya fi Ulamoi'd-Davlat ul-Usmoniyya" asari Usmonli adabiyotida chinakam tarjimai hollar yozish an'anasini boshlab berdi. Nashr etilgandan so'ng darhol asarning ko'plab nusxalari chiqarildi. Tirikligida usmoniy turkchasiga tarjima qilingan asar turli qo'shimchalar va izohlar orqali bizgacha yetib kelgan. Shuni aytish mumkinki, "Ash-shaqoiq an-nu'maniyya" asarini yozishda Toshko'prizoda o'z ilmiy kuzatuvlari va taassurotlaridan, otasi Muslihiddin Mustafo va amakisi Qivomuddin Qosim hamda ustozlaridan eshitgan ma'lumotlardan, shuningdek, ba'zi rasmiy yo'riqnomalardan foydalangan [2:485-486].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Ahmad Toshko'prizodaning ilmiy va falsafiy fikr taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan qirqdan ortiq mashhur asarlari mavjud bo'lib, ular orasida "Ash-shaqoiq an-nu'maniyya fi Ulamoi'd-Davlat ul-Usmoniyya" alohida ahamiyatga ega manba hisoblanadi.

Mazkur asar mutafakkirning Bursa va Istanbulda 23 yillik mudarrislik va 5 yillik qozilik faoliyati (1525-1548-yillar) davomida to'plangan ma'lumotlari asosida yozilgan [3:23]. 63 yoshida yozilgan ushbu asar 1558-yil 16-iyulda mutafakkirning ko'z ojizligi muammosi davrida yaratilgan [4:141]. "Ash-shaqoiq an-nu'maniyya"ning Turkiya va xalqaro kutubxonalarda, shaxsiy kolleksiya va kutubxonalarda taxminan 150 ta qo'lyozma nusxasi mavjud.

Ushbu nusxalarning oltmishdan ortig'i Istanbuldagi kutubxonalarda saqlanadi. Chet el kutubxonalaridagi nusxalar soni ham shu raqamga yaqin. Asar to'rt marta qayta nashr etilgan. Ushbu asarning nemis tiliga tarjimasi Oskar Rescher tomonidan amalga oshirilgan[3:26]. Asar 2007-yilda Muharram Tan tomonidan turk tiliga tarjima qilingan[5]. Muhammad Hakimog'lu[6] tomonidan 2019-yilda qilingan tarjima "Ash-shaqoiq an-nu'maniyya"ning eng mukammal turkcha tarjimasi hisoblanadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Qimmatli asar hisoblangan "Ash-shaqoiq an-nu'maniyya fi Ulamoi'd-Davlat ul-Usmoniyya" (qisqacha nomi: "Ash-shaqoiq an-nu'maniyya") Usmon G'oziydan boshlanib, Sulaymon Qonuniy hukmronligi davrigacha yashagan olimlar va avliyolarning hayot hikoyalaridan iborat. Asar sultonlar soniga qarab 10 tabaqa (bo'lim)ga ajratilgan va har bir bo'limda o'sha sulton davrida yashagan olimlar hayoti yoritilgan. Asarda jami 521 kishining, jumladan, 371 nafar olim va 150 nafar avliyoning bibliografiyasi mavjud.

Ushbu qimmatli asarning ahamiyati yuqori bo'lganligi bois usmoniy turkchasiga ko'p marotaba tarjima qilingan va ayrim qismlariga qo'shimcha izohlar kiritilgan. Lekin Toshko'prizodaning mazkur asari "Ash-shaqoiq an-nu'maniyya" mavzusi bo'yicha Usmoniylar davrida yozilgan birinchi manba hisoblanadi.

"Ash-shaqoiq an-nu'maniyya" asarining quyidagi 4 ta tarjimasi mavjud:

a) "Hadâyiq ur-Rayhon" – Muhtasibzoda Belgradli Mahmud Hoviy tomonidan usmoniy turkchasiga tarjima qilingan;

TAMADDUN NURI

b) “Haqoiq ul-Bayon fi tarjimat-i Shaqoiq-in-Nu’man” – Oshiq Chalabiy tomonidan tarjima qilingan bo‘lib, qo‘shimcha izoh va ma’lumotlar ham kiritilgan;

c) “Hadoiq ush-Shaqoiq” – Edirnali Mahmud Majdiyning tarjimasi. Bu eng mashhur tarjima hisoblanadi;

d) “Al-Hadoiq” – Amasiyalik Ibrohim ibn Ahmad tomonidan qilingan tarjima.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Ahamiyatli jihati Ahmad Toshko‘prizodaning “Ash-shaqoiq an-nu’maniyya” asari keyinchalik boshqa mutafakkirlar ilmiy ijodiga ijobiy ta’sir o‘tkazdi. Mazkur asar keyingi mutafakkirlar tomonidan davom ettirildi. Xususan:

a) “Tatimat ush-Shaqoiq in-Nu’maniyya” – Oshiq Chalabiy tomonidan yozilgan bo‘lib, unda 42 mashhur mualliflarning bibliografiyasi mavjud.

b) “Al-Iqd ul-manzum fi zikri Afodil ir-Rum” – arab tilida Ali ibn Baliy tomonidan yozilgan bo‘lib, asarda 1560-1583-yillar oralig‘ida Murod III hukmronligigacha bo‘lgan davrda yaratilgan asarlarning tarjimalari mavjud.

c) “Hadoiq ul-Haqoiq fi Takmilat ish-Shaqoiq” – Naviyzoda Atoiy tomonidan yozilgan. Uning asari Toshko‘prizoda to‘xtagan joydan boshlanadi va 1634-yilgacha bo‘lgan davrlarni qamrab oladi.

d) “Ushshoqiyzoda zayli” – Ushshoqiyzoda Ibrohim Hosib tomonidan yozilgan. Bu asar Naviyzoda Atoiy to‘xtagan 1633-yildan boshlangan va 1694-yilgacha davom etgan. U asarni besh qismga: olimlar, shayxlar, qozilar, vazirlar va o‘z davrining taniqli shaxslariga ajratgan.

e) “Vaqoyi ul-Fudalo” – Shayxiy Mahmud tomonidan yozilgan. Bu Naviyzoda Atoiy tadqiqotlarining davomchisidir. Bu asar Atoiy to‘xtagan davr 1633-yildan boshlanib 1730-yilgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. U uch jilddan iborat va sultonlarga ko‘ra tartiblangan.

f) “Takmilat ish-Shaqoyiq fi Ahvol il-Haqoyiq” – Findikiy Ismat tomonidan yozilgan. Bu Shayxiy Mahmud tadqiqotlarining davomchisi bo‘lib, 1730-1896-yillar oralig‘idagi davrni qamrab olgan[7].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Toshko‘prizoda “Ash-shaqoiq an-nu’maniyya” asarini yozishdan oldin biografik hikoyalarni keng tadqiq qilganligini, arab va fors olimlarining hayot hikoyalarini jamlagan to‘plamlar yozilgan bo‘lsada, Usmoniy olimlari haqida bunday asar yozilmaganligini, shuningdek, Zanbillizoda Fudayl Chalabiy iltimosiga binoan mazkur asarni yozganligini aytadi[5:2]. Asarning arabcha nomi “Shaqoiq” – tog‘ lolalari (Toshko‘prizoda olim va avliyolarni tog‘ lolalariga o‘xshatgan), “Nu’man” – hanafiy mazhabi imomi Abu Hanifa Nu‘mon ibn Sobit (Toshko‘prizoda asarda taniqli Usmonli hanafiy olimlari va shayxlarining tarjimai hollarini to‘plaganligi uchun shunday nom bergan)ga asoslanadi.

Mutafakkir mumtoz tafsir va izohlash an’anasini davom ettirgan diniy olim ham bo‘lib, tarjimai hol, ilohiyot, fiqh, tafsir, mantiq, arab tili va adabiyoti, fan tarixi va tibbiyot kabi turli sohalarda o‘n yettita asar va o‘ttizga yaqin risolalar muallifi bo‘lgan. Lekin ular orasida “Ash-shaqoiq an-nu’maniyya fi Ulamoi’d-Davlat ul-Usmoniyya” asari o‘zining tarixiy ahamiyati va ilmiy qiymatining yuqoriligi bilan alohida ajralib turadi. Shuning uchun, u XVI asr Usmoniylar imperiyasining eng muhim olimlaridan biri bo‘lgan, deb aytish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Suat Donuk. Taşköprî-zâde, Ahmed İsâmeddîn Ebülhayr Efendi // Yayın tarihi: 14.12.2013. https://www.teis.yesevi.edu.tr/madde-detay/taskopruzade-ahmed-isameddin-ebulhayr

2. Abdülkadir Özcan. Eş-Şeḳāʾiḳu’n-Nuʿmâniyye (Taşköprizâde Ahmed Efendi’nin (ö. 968/1561) Osmanlı ulemâ ve meşâyihine dair biyografik eseri). İslam ansıklopedisi, 38 cilt. –İstanbul: Türkiye diyanet vakı.

3. İbrahim b. Ahmed el-Amâsî. Tercüme-i Şakâ’ik-i Nu‘mâniyye: Amâsî’nin Şakâ’ik Tercümesi, (Hazırlayan: Gökhan Alp). –İstanbul: Bilnet matbaacilik ve yayincilik A.Ş., 2021.

4. Behçet Gönül. İstanbul kütüphânelerinde Al-Şakā’ik Al-Nu‘mâniya tercüme ve zeyilleri. Türkiyat mecmuasi, S. VII-VIII/2, 1945.

5. Taşköprülüzâde Ahmed. Osmanlı Bilginleri (eş-Şekâiku’n-Nu‘mâniyye fî ulemâ’id-Devleti’l Osmâniyye), (Çev. Muharrem Tan). –İstanbul: İz Yayıncılık, 2007.

6. Taşköprülü-zâde Ahmed Efendi. Eş-Şakâ’iku’n-Nu‘mâniyye fî ‘Ulemâ’i’d-Devleti’l-Osmâniyye (Osmanlı Âlimleri), (Çev. Muhammet Hekimoğlu). –İstanbul: Türkiye yazma eserler kurumu başkanlığı, 2019.

7. https://www.ehlisunnetbuyukleri.com/islam-alimleri-ansiklopedisi/detay/taskopru-zade/3474

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 94(575.1:55)"19/20"

ИРАНЦЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ ИСТОРИИ

Ахроров Ботир Баходирович, докторант 1-го курса Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

O'ZBEKISTONDAGI ERONLIKLAR: ZAMONAVIY TARIX MASALALARI

Ahrorov Botir Baxodirovich, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti 1-bosqich doktoranti

IRANIANS IN UZBEKISTAN: ISSUES OF MODERN HISTORY

Akhrorov Botir Bakhodirovich, 1st-year doctoral student, Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

https://orcid.org/0000-0001-9286-564X
e-mail: botirjon.ahrorov@gmail.com

Аннотация: *данная статья посвящена краткому обзору истории, культуры и религии «ирани» Центральной Азии, и в частности, Узбекистана. В статье также кратко рассмотрены некоторые исторические данные о переселении иранцев в Центральную Азию, особенности их конфессиональной самоидентификации.*

Ключевые слова: *среднеазиатские иранцы, иранская диаспора, «ирани», машхади (мешхедцы), форсиён (персы), шиизм, суннизм, Самарканд, Бухара.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston "eroniylari"ning tarixi, madaniyati va dini haqida qisqacha ma'lumot berishga bag'ishlangan. Shuningdek, maqolada eronliklarning O'rta Osiyoga ko'chirilishiga oid ba'zi tarixiy ma'lumotlar, ularning diniy xususiyatlari qisqacha ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *O'rta Osiyo eroniylari, eron diasporasi, "eroniylar", mashhadiy (mashhadiyaliklar), forsiyon (forslar), shialik, sunniylik, Samarqand, Buxoro.*

Abstract: *This article is devoted to a brief overview of the history, culture and religion of the "iranis" of Central Asia, and in particular, Uzbekistan. The article also briefly examines some historical data on the migration of Iranians to Central Asia, the features of their confessional self-identification.*

Keywords: *Central Asian iranians, iranian diaspora, "irani", mashhadi (mashhad people), forsiyon (persians), shiism, sunnism, Samarkand, Bukhara.*

Введение. В настоящее время в Узбекистане проживают более 30 тысяч среднеазиатских иранцев – потомков персидских и иранских иммигрантов, которые поселились на территории нынешнего Узбекистана в XVII-XIX веках. Основная часть среднеазиатских иранцев проживают в Самарканде и его окрестностях, а также в Бухаре и его окрестностях. В Иране существует маленькая община узбеков, которые поселились на территории современного Ирана с XIX века и до середины 20-х годов XX века. После обретения независимости Узбекистана из-за распада СССР, в ноябре 1992 года Первый Президент Республики Узбекистан Ислам Каримов впервые прибыл с визитом в Исламскую Республику Иран. Тогда был подписан ряд двусторонних документов для начала, развития и укрепления отношений[1].

10-11июня 2000 года Президент Республики Узбекистан во второй раз посетил Иран по случаю проведения в Иране очередного саммита Организации экономического сотрудничества. 26-28 апреля 2002 года Узбекистан посетил с официальным визитом

Президент Исламской Республики Иран Мохаммад Хатами, который встретился с Президентом Республики Узбекистан, а также посмотрел исторические здания и достопримечательности Ташкента, Бухары и Самарканда [2],[3],[4],[5], [6]. 17-18 июня 2003 года Иран посетил со вторым официальным визитом Ислам Каримов [7],[8],[9]. По результатам этих визитов и встреч, был подписан ряд двусторонних документов, которые были направлены на развитие и укрепление связей[1].

В настоящее время двусторонние отношения поддерживаются через посольства двух стран, и созданного совместно 8 сентября 1999 года общества дружбы «Узбекистан – Иран». Узбекистан экспортирует в Иран хлопок, цветные металлы, изделия металлургии, нефть и нефтепродукты, автомобили и транспортные средства, электронику, а также продукты химической промышленности и др. Иран в свою очередь экспортирует в Узбекистан продукты сельского хозяйства, растительные и животные жиры, продукты питания, текстильную и обувную продукцию, продукты химической промышленности, кофе, чай, продукты фармацевтики и др[1].

В сентябре 2017 года в столице Республики Казахстан Астане Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев встретился с Президентом Ирана Хасаном Рухани на полях саммита Организации исламского сотрудничества по науке и технологиям. В ходе переговоров было отмечено, что между двумя странами идёт укрепление дружеских отношений, дальнейшее расширение сотрудничества [10].

Обзор литературы и методов. При подготовке данной статьи были использованы материалы средств массовой информации, освещающие ключевые события по данному вопросу. Применялись методы исторического анализа, синтеза и сравнения для выявления основных тенденций и особенностей освещаемой темы.

Анализ и обсуждение. Среднеазиатские иранцы, (самоназвание: *эрони*, *форс*), также для бухарских *«ирани»* используется название среднеазиатские персы – этноконфессиональная группа иранского происхождения, проживающая в основном в Узбекистане и Таджикистане, а также частично в других странах. Входит в иранскую группу народов, с примесью представителей тюркских народов, прежде всего и в основном узбеков и азербайджанцев. Традиционной и основной религией среднеазиатских иранцев является ислам шиитского толка, в меньшей степени бахаизм и суннитский толк ханафитского мазхаба. По разным оценкам, количество среднеазиатских иранцев составляет от 50 до 60 тысяч человек. Этногенез среднеазиатских иранцев – это яркий пример сосуществования и смешения иранских народов с тюркскими народами[11].

Происхождение различных групп иранцев неодинаково. Одни из них были потомками переселенных сюда в конце XVIII века эмиром Шахмурадом жителей Мерва; другие – потомками освобожденных (в 1860–1880-х годах), согласно договору с русским правительством, рабов, привозившихся в Бухару со всего Хорасана, включая и север Афганистана; третьи, наконец, происходили от переселенцев из Ирана, в разное время и по своей воле приходивших в Мавераннахр и здесь оседавших. Связи древних персов, а также других народов Западного Ирана с этнически близким ираноязычным населением Средней Азии активно развивались по крайней мере начиная с эпохи Ахеменидов[12].

Однако настоящее формирование иранской диаспоры, не смешивающейся с местным таджикским и узбекским населением, может быть отнесено только к эпохе возникновения чётких этноконфессиональных барьеров между населением Ирана и Мавераннахра, связанного, в частности, с воцарением в XVI веке в Иране династии Сефевидов и обращении большинства его жителей в шиизм. Войны между шиитским Ираном и суннитским Бухарским ханством были основным источником проникновения в Средней Азии шиитского населения. В 1740 году Надир-шах временно оккупировал Бухарское и Хивинское ханства, вместе с ним на восток переселялись шииты (*кызылбаши*), в основном тюркоязычные. Однако основным источником пополнения диаспоры среднеазиатских шиитов

были многочисленные пленники, угоняемые из Хорасана, в том числе из города Мерва, до XVIII века сохранявший тюркоязычное население. Пленники расселялись прежде всего в Бухаре и Самарканде, а также в Пенджикенте. В дальнейшем многие переселялись в Джизак, Ходжент, Шахрисабз и Термез[12].

После захвата Бухары оставшиеся в регионе войска шиитского Ирана напрямую помогли захватить и удержать власть фактическому основателю узбекской династии Мангытов Мухаммаду Рахиму. Это вызвало отрицательную реакцию богословов Бухары и Самарканда, воспитанных на традициях полного непризнания шиизма вообще[12].

Но, несмотря ни на что, наиболее активный правитель Мухаммед Рахим-хан переселил значительное количество жителей временно захваченных им районов Мерва, юго-восточного Мазендерана, Абиварда и др. Например, по данным эпиграфических исследований, мазара *«ирани» «Ого-йи Мир Хасан»* (изначально это было исключительно кладбище *«ирани»*), на котором сохранились надгробия, по крайней мере, с XIX века и до 1930-х годов, заключали имена местных иранцев, очевидно, с наследственными нисбами *«Гилани»*, *«Мазандарани»*, *«Нисауи»* и т. п. [13].

Уже начиная со времени правления первых Мангытов, большую роль в управлении государством играли иранцы, рабы по происхождению. При Даниял-бие (1758–1785) на одну из высших придворных должностей кушбеги был назначен некий Давлат-бий, раб-шиит по происхождению. Вооруженная охрана правителя состояла из невольников-гулямов. Выдвижение бывших рабов на высшие должности в условиях постоянных межфеодальных распрей известно в древности и в данном случае объясняется опорой на «элементы, не связанные своим происхождением с узбекской знатью», что, естественно, вызывало недовольство последней. Оппозиционные настроения знати, а также недовольство простого народа творившимися в ханстве злоупотреблениями и беззакониями очень часто облекались в религиозную форму борьбы с «еретиками» – шиитами, стоявшими у власти. Одним из таких моментов и воспользовался эмир Шахмурад (1785–1800), целью которого было присоединение к Бухарскому эмирату значительной части современной Туркмении с центром в Мерве. После того как жители Мерва сдались, довольно большое число их во главе с сыновьями убитого правителя Байрам Али, было переселено в Бухару. Потомки этих переселенцев и составили значительную часть среднеазиатских иранцев, дав ей одно из самоназваний – *«маруи»*, часто произносимое в Бухаре как *«маври»*[12].

О мервцах, полковник Русской Императорской армии А.Д.Гребенкин писал, что они были хорошими земледельцами, воинами и ремесленниками и что поэтому эмир Шахмурад не обратил их в рабов, а расселив по городам, дал им в собственность хорошие земли и пустые сакли. Подобные переселения, но менее компактными группами, продолжались и при преемниках эмира Шахмурада, в частности при эмире Насрулла-хане. Он создал постоянное пехотное войско – сарбазов с помощью Абду-с-Самада, авантюриста, выходца из Ирана (по-видимому, отчасти знакомого с постановкой военного дела в европейских армиях), это войско состояло из персов, афганцев, таджиков и отчасти военнопленных русских[14].

Иранская диаспора Самарканда сыграла немалую роль в присоединении части Бухарского эмирата в состав Российской империи в 1868 году, за что им были дарованы привилегии. В 1874 году в Русской Средней Азии было отменено рабство, и многие иранцы вернулись на родину. Однако значительное их число осталось в Средней Азии, компактно заселяя отдельные «иранские» махалли. К этим иранцам-шиитам присоединялись также иранские купцы и ремесленники, до 1917 года довольно легко пересекавшие границу. Таких переселенцев бухарцы обычно называли не *«эрони»*, а *«машхади»* (мешхедцы) или *«форсиён»* (персы)[13].

Подавляющее большинство иранцев, находившихся в начале XX века в Средней Азии, состояло из разорённых крестьян, ремесленников и рабочих Южного Азербайджана, Хорасана и других провинций Северо-Восточного Ирана, покинувших родину в поисках заработка. Иранцы

TAMADDUN NURI

в Средней Азии работали грузчиками, дворниками, домашней прислугой, сельскохозяйственными батраками, чернорабочими на заводах, железной дороге, стройках, нефтепромыслах[13].

На протяжении веков взаимодействуя с местным населением, среднеазиатские иранцы значительно сближались с местным населением, смешению с которыми, однако, препятствовали конфессиональные барьеры. В целом сосуществование иранцев с местным суннитским населением было мирным, хотя иногда и происходили эксцессы на религиозной почве, в частности, суннитско-шиитская резня 1910 года[14].

Общая численность среднеазиатских иранцев составляет, по разным оценкам, от 50 до 60 тысяч человек. Основная их часть, а это более 50 000, проживает в Узбекистане. Более половины узбекистанских иранцев проживает в городе Самарканде и его окрестностях, в пригородных районах Даргам (известный как *Эрон ариги* – Иранский арык), в иранских махаллях Панджаб, Ходжа-Сахат, Лолазор, Хаймар, Багишамал, Найман, Ходжаназар, Дамарык, Бекмахалля, в городе Хишрау. Также они распространены в Бухаре и её окрестностях, частично в Кашкадарьинской, Сурхандарьинской и Джизакской областях[15].

Незначительная часть среднеазиатских иранцев проживает в Туркменистане, в основном в Лебапском велаяте. Около 1 200 среднеазиатских иранцев являются эмигрантами и проживают в Иране, России, США, Турции и в странах Европейского Союза[15].

Среднеазиатские иранцы издавна занимались земледелием и садоводством, большое распространение получили различные ремёсла (ювелирное дело, ковроткачество и др.) и торговля. В XIX веке некоторые иранские купцы из Средней Азии совершали торговые операции по всей Российской империи. Кроме того, многие иранцы занимались шелководством и шелкоткачеством[13].

До Октябрьской революции основным этническим барьером между иранцами и местными узбеками и таджиками было исповедание иранцами исна-ашаристского шиизма, противопоставленного типичному для Средней Азии исламу суннитского толка. В 1920-х годах советское правительство поощряло национальное развитие среднеазиатских иранцев. В Самарканде был учреждён иранский район, был открыт иранский театр и национальные школы с персидским языком обучения, организовывались иранские колхозы. Данная программа была в целом свёрнута в начале 1930-х годов, когда среднеазиатские иранцы были признаны «узбеками»[13].

Усвоение иранцами Средней Азии доминирующих в Бухарском эмирате и среднеазиатских владениях Российской империи тюркских наречий (в частности, узбекского языка), изначально в качестве второго языка, происходило на протяжении всей истории диаспоры. Долгое время сохранению языка фарси способствовали контакты с Хорасаном, а также господствующее положение персидского языка – родного языка таджиков в Центральной Азии. Большая часть среднеазиатских иранцев говорила на тюркском. В 1970 году из 15 тысяч иранцев Узбекистана 12 тысяч назвало именно этот язык родным[13].

В советские годы, в эпоху политики поощрения атеизма, подвергалась размыванию также конфессиональная идентичность иранцев, что способствовало заключению межэтнических браков с окружающими узбеками и таджиками, а также восприятию многими иранцами узбекской идентичности[13].

Иранцы Узбекистана в советское время быстро приобщались к существующим здесь особенностям быта, сохраняя какие-то значительные элементы своей материальной культуры. Гораздо консервативнее, как известно, область духовной культуры, в данном случае – шиитские религиозные представления, которые сохраняют свою силу до настоящего времени. Среди представителей старшего поколения ирани это проявлялось в манере совершать *намоз* (молитва), *тахорат* (омовение) и в целом ряде других обрядов[13].

Говоря о главном архитектурном наследии *«ирани»* Узбекистана, следует сказать о медресе и мечети *«Панджаб»* (Самарканд). Архитектором медресе был некий Ходжа

TAMADDUN NURI

Абураим. Оно было построено на вакуфной земле Ходжи бобо Абдуохунбека. Руководил строительством Шейх Мухаммад Козим, а ведущим мастером при строительстве был усто Комил из Бухары. Мечеть-медресе в плане представляет собой сооружение, типичное для конца XIX – начала XX веков с прямогульным залом и *айваном* (верандой). Медресе Панджаб начало действовать с 1908 года. При мечети была школа (*мактаб*). Дети обучались здесь религиозным и светским знаниям. До 1924 года сооружение использовалось по прямому значению, в этот период оно тщательно поддерживалось в хорошем состоянии. С 1924 года медресе (как и большинство религиозных учреждений советской империи) приспосабливают для различных организаций и ведомств, и с тех пор оно не раз подвергалось переделкам. В 1939–1943 годах в медресе размещалось ремесленное училище. Позднее сооружение было занято различными конторами – строительными, торговыми, магазином, почтой и другими мелкими организациями. И только в 1990 году медресе Панджаб перешло в руки истинных хозяев – верующих мусульман-шиитов. А позднее, здесь же, начал свою деятельность «Культурный центр иранцев»[15].

Заключение. Сегодня в Узбекистане проживает более 130 национальностей и народностей. Одни из них иранцы, которые исповедуют шиизм, как было сказано, *джафаридского* или *иснаашаристкого* толка. [15]. *«Ирани»*, несмотря на окружающую преимущественно суннитско-ханафитскую религиозную среду, испокон веков хранили свою религиозную идентичность и ритуальные особенности. Сейчас для сохранения своей конфессии у них самые лучшие, за многие века, условия. Этому способствует и Конституция Республики Узбекистан в новой редакции, и Закон Республики Узбекистан «О свободе совести и религиозных организаций». Во всяком случае, кажется, что приверженцы шиизма, сохранившиеся на территории Республики Узбекистан, не утратят свои традиции и религиозные взгляды в обозримом будущем.

Список литературы:

1. Национальная энциклопедия Узбекистана. Ташкент: Государственное научное издательство Национальной энциклопедии Узбекистана, 2005.
2. Итоги визита Хатами в Узбекистан. Дата обращения: 17 августа 2015. Архивировано 23 сентября 2015 года.
3. Узбекистан — Иран: Новые отношения в новых условиях. Дата обращения: 17 августа 2015. Архивировано 4 марта 2016 года.
4. Хатами посещает страны Средней Азии. Дата обращения: 17 августа 2015. Архивировано из оригинала 4 марта 2016 года.
5. Турне Хатами после саммита. Дата обращения: 17 августа 2015. Архивировано 4 марта 2016 года.
6. В Узбекистан с официальным визитом прибывает Президент Ирана Мохаммад Хатами. Дата обращения: 17 августа 2015. Архивировано из оригинала 13 октября 2017 года.
7. Внешняя политика Узбекистана: 2003 год. Дата обращения: 17 августа 2015. Архивировано 24 сентября 2015 года.
8. Президент Узбекистана завершил официальный визит в Иран. Дата обращения: 17 августа 2015. Архивировано 24 сентября 2015 года.
9. Президент Узбекистана начал государственный визит в Иран. Дата обращения: 17 августа 2015. Архивировано 4 марта 2016 года.
10. Шавкат Мирзиёев встретился с главами Ирана и Афганистана (ru.sputniknews-uz.com). Дата обращения: 13 октября 2017. Архивировано 13 октября 2017 года.
11. Этнический атлас Узбекистана. – Ташкент: «ИООФС – Узбекистан», 2002. – С. 101-105. – 452 с.
12. Сухарева, О.А. К истории городов Бухарского ханства. Ташкент, 1958.
13. Люцкевич, Ф.Д. Этнографическая группа ирани // Занятия и быт народов Средней Азии. Л., 1971.
14. Иванов, П.П. Очерки по истории Средней Азии. М., 1958.
15. Ата-Мирзаев,О. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект / О. Ата-Мирзаев, В. Гентшке, Р. Муртазаева. Ташкент, 1998.

TAMADDUN

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 94(575.1:100):930.85(=131.1)“20”

O‘ZBEKISTON VA YUNESKO HAMKORLIGI RIVOJLANISHIDA NOMODDIY MADANIY MEROSNING O‘RNI

Sattorov Ulug‘bek Abdurazzoq o‘g‘li, Oriental universiteti o‘qituvchisi

THE ROLE OF INTANGIBLE CULTURAL HERITAGE IN THE DEVELOPMENT OF COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND UNESCO

Sattorov Ulugbek Abdurazzoq ogli, Lecturer at the Oriental University

РОЛЬ НЕМАТЕРИАЛЬНОГО КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В РАЗВИТИИ СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ЮНЕСКО

Саттаров Улугбек Абдураззак оглы, преподаватель Восточного университета

https://orcid.org/0009-0009-7376-2421
e-mail: beksattoroff123@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mamlakatimiz tarixi, madaniyati, san’ati hamda qadriyatlarining bir qismi bo‘lgan nomoddiy madaniy merosni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish hamda ularni asrab-avaylash borasida YUNESKO bilan hamkorlik aloqalari yoritib berilgan. Tadqiqotda O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng barcha sohalarda bo‘lgani kabi madaniy sohada ham tub islohotlar amalga oshirilganligi, ushbu sohaga oid huquqiy tizim mustahkamlanganligi, qadimiy shaharlarimiz va u yerda joylashgan madaniy yodgorliklarning YUNESKO ro‘yxatlari va dasturlariga kiritilishiga oid tadqiqotlar tahliliga qaratilgan. Mavzuni yoritishda tegishli me’yoriy hujjatlar, ilmiy tadqiqotlar, adabiyot va davriy matbuot materiallaridan foydalanilgan.*

Kalit so‘zlar: *YUNESKO, moddiy madaniy meros, nomoddiy madaniy meros, milliy qadriyatlar, tarix, madaniyat, san’at, folklor, xalqaro targ‘ibot.*

Abstract: *This article highlights the cooperation between Uzbekistan and UNESCO in promoting intangible cultural heritage, which is an integral part of the country’s history, culture, art, and values, at the international level, as well as in preserving it. The study emphasizes that after gaining independence, Uzbekistan implemented fundamental reforms in all areas, including culture, strengthened the legal framework in this field, and carried out research on the inclusion of ancient cities and cultural monuments located there into UNESCO lists and programs. In covering the topic, relevant regulatory documents, scientific research, literature, and periodical press materials have been used.*

Keywords: *UNESCO, tangible cultural heritage, intangible cultural heritage, national values, history, culture, art, folklore, international promotion.*

Аннотация: *В данной статье освещается сотрудничество Узбекистана с ЮНЕСКО в области продвижения на международном уровне нематериального культурного наследия, являющегося частью истории, культуры, искусства и ценностей нашей страны, а также в его сохранении. В исследовании подчеркивается, что после обретения независимости в Узбекистане были проведены коренные реформы во всех сферах, в том числе в культурной, укреплена правовая база в данной области, а также проведены исследования, посвящённые включению древних городов*

и расположенных там культурных памятников в списки и программы ЮНЕСКО. При освещении темы использованы соответствующие нормативные документы, научные исследования, литература и материалы периодической печати.

Ключевые слова: *ЮНЕСКО, материальное культурное наследие, нематериальное культурное наследие, национальные ценности, история, культура, искусство, фольклор, международное продвижение.*

Kirish. Nomoddiy madaniy meros insonlarni bir-biriga yaqinlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bugungi kunda yosh avlodlar o‘rtasida nomoddiy madaniy merosning ahamiyati va uni muhofaza qilish zarurligi to‘g‘risida xabardorlikni oshirish har qachongidan ham dolzarb hisoblanadi. Nomoddiy madaniy meros jamiyatlar o‘zlarining madaniy o‘zligining bir qismi deb tan oladigan amaliyotlar, bilimlar va ifodalarni, shuningdek, tegishli obyektlar va joylarni o‘z ichiga oladi. Avloddan avlodga o‘tib keladigan bu meros o‘zlikni mustahkamlaydi va madaniy xilma-xillikka hurmatni oshiradi.

Adabiyotlar tahlili. YUNESKO va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarining rivojlanishida madaniyat sohasi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jahon nomoddiy madaniy meros durdonalari noyobligini inobatga olgan holda YUNESKO dastlab 2001-2003-yillarda ‘‘Insoniyatning og‘zaki va ma’naviy meros durdonalari’’ nomli dasturni amalga oshirdi. 2003-yil YUNESKO Bosh Anjumani 32-sessiyasida ‘‘Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risida’’gi konvensiya[1] qabul qilindi. 2007-yil 12-dekabrda O‘zbekiston mazkur konvensiyani ratifikatsiya qildi[2] hamda ushbu konvensiyadan kelib chiqib nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha mamlakatimizda tegishli qonun hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, 2010-yil 7-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ‘‘2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida’’gi[3] hamda 2011-yil 23-fevralda ‘‘Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida’’gi[4], 2023-yil 25-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi[5], 2024-yil 29-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida[6] hamda 2025-yil 24-aprelda Nomoddiy madaniy meros namunalarini ro‘yxatga kiritish yoki undan chiqarish bilan bog‘liq davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida[7] qarorlari qabul qilindi. O‘zbekistonda moddiy va nomoddiy madaniy merosni o‘rganish va ularni kelajak avlodga yetkazish bugungi kunda har qachongidan ham dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma’lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. O‘zbekiston BMTning fan, ta’lim va madaniyat masalalari bo‘yicha ixtisoslashgan tashkiloti hisoblanadigan YUNESKOga a’zo bo‘lgan davrdan boshlab tashkilot bilan hamkorlikda nomoddiy madaniy meros obyektlarini himoya qilish borasida ham faol xalqaro hamkorlik aloqalarni yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, Nomoddiy madaniy merosni asrash va uni targ‘ib qilish borasidagi hamkorlik aloqalari faol olib borilmoqda. Mamlakatimiz o‘zining qadimiy madaniyati, milliy qadriyatlari va boy tarixiy merosiga egaligi bilan jahon hamjamiyatida muhim o‘rin egallaydi.

YUNESKO konvensiyasining 2-moddasiga[8] asosan nomoddiy madaniy meros o‘zlikni namoyon etishning og‘zaki ko‘rinishlari, xususan, til nomoddiy merosni ko‘rsatuvchi faktor sifatida, ijrochilik san’ati, ijtimoiy marosimlar, urf-odatlar, bayramlar, tabiat va koinotga oid bilimlar va an’anaviy kulolchilik kabilarni tashkil etadi. Nomoddiy madaniy meros sohasidagi quyidagi tadbirlar YUNESKO bilan hamkorlikda o‘tkazilgan: «Folklorni va an’anaviy madaniyatni saqlash» bo‘yicha mintaqaviy anjuman (Toshkent, 1998-yil oktyabr), 2002-2005-yillarda «Boysun bahori» folklor festivallari va «Boysun madaniy merosi» mavzusidagi mintaqaviy ilmiy anjuman

(2005-yil 19-21-may, Boysun), 2005-2007-yillarda (YUNESKO/Yaponiya jamg‘armasi ko‘magida) amalga oshirilgan Boysun madaniy makoni va Shashmaqom musiqasi bo‘yicha hujjatlashtirish loyihalari, 2004-2005-yillarda YUNESKOning Qatnashuv dasturi doirasida «Ipak yo‘li hikoyalari» va «Ipak yo‘li rivoyatlari» kitoblari chop etildi, har yili Xalqaro ona tili kunini nishonlanishiga bag‘ishlangan davra suhbatlari tashkil etiladi (21-fevral), Nomoddiy madaniy merosni saqlash bo‘yicha shaharlararo hamkorlik tarmog‘i muvofiqlashtirildi (2005-2007-yillar)[9].

2009-yilda, Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi YUNESKO madaniy markazi (ASSYU, Tokio, Yaponiya) tomonidan o‘tkazilgan mahalla doirasida nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishda eng yaxshi tajriba bo‘yicha ikkinchi tanlovida O‘zbekiston Respublikasi «Katta ashula» nomzodnomasi bilan ishtirok etdi. Tanlovning xalqaro hay’at qaroriga muvofiq «Katta ashula» nomzodnomasi g‘olib deb topildi[10].

Bugungi kunga qadar O‘zbekiston Respublikasidan YUNESKOning nomoddiy madaniy meros ro‘yxatiga quyidagilar kiritilgan:

1. “Boysun mintaqasi madaniy muhiti” 2001-yilda nomzodligi topshirilib, 2008-yil ro‘yxatga kiritilgan;
2. “Shashmaqom” musiqasi 2003-yilda nomzodligi topshirilib, 2008-yilda ro‘yxatga kiritilgan;
3. “Katta ashula” 2009-yilda ro‘yxatga kiritilgan;
4. “Askiya – aql san’ati” 2014-yilda ro‘yxatga kiritilgan;
5. “Navro‘z” bayrami 2016-yilda ro‘yxatga kiritilgan;
6. “Palov madaniyati va an’anasi” 2016-yilda ro‘yxatga kiritilgan;
7. “Marg‘ilon hunarmandchilikni rivojlantirish markazi, atlas va adrasni ishlab chiqarish an’anaviy texnologiyalarini himoya qilish” 2017-yilda yaxshi himoya amaliyoti Reyestri namunasi sifatida tanlab olingan;
8. “Lazgi” Xorazm raqsi 2019-yilda ro‘yxatga kiritilgan;
9. “Miniatyura” san’ati 2020-yilda ro‘yxatga kiritilgan;
10. “Baxshichilik” san’ati 2021-yilda ro‘yxatga kiritilgan;
11. “Xo‘ja Nasriddin haqidagi latifalarni takrorlash an’analari” 2022-yilda ro‘yxatga kiritilgan;
12. “Ipakchilik va to‘quv uchun an’anaviy ipak ishlab chiqarish” 2022-yilda ro‘yxatga kiritilgan;
13. “O‘zbekistonda kulolchilik san’ati” 2023-yilda ro‘yxatga kiritilgan;
14. “Iftor va uning ijtimoiy-madaniy an’analari” 2023-yilda ro‘yxatga kiritilgan;
15. “Bezak san’ati: naqqoshlik” 2023-yilda YUNESKO insoniyatning nomoddiy madaniy merosi durdonalari ro‘yxatiga kiritildi.
16. “Rubob yasash va uni ijro etish san’ati” 2024-yilda ro‘yxatga kiritilgan.

YUNESKO “Nomoddiy madaniy meros” ro‘yxatiga mamlakatimiz qator davlatlar bilan hamkorlikda qo‘shma nomzodlikda turli obyektlarni taqdim etgan. Ushbu ro‘yxatga kirishda bir necha xalq vakillarining mushtarak qadriyat va an’analarga ega ekanligi sababidan ro‘yxatga nomzodnomalarni taqdim etish imkonini bergan. Hamkorlikdagi nomzodnomalar Eron, Ozarbayjon, Tojikiston Turkiya, Afg‘oniston Turkmaniston, Qozog‘iston Qirg‘iziston, Hindiston, Iroq, Pokiston davlatlari bilan birgalikda kiritilgan. Ularning to‘liq ro‘yxatini quyida ko‘rib chiqamiz:

- “Shashmaqom” musiqasi – O‘zbekiston va Tojikiston hamkorligida;
- “Navro‘z” bayrami – Afg‘oniston, Ozarbayjon, Eron, Iroq, Hindiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston, Turkiya va davlatlari hamkorligida;
- “Miniatyura” san’ati – Ozarbayjon, Eron, Turkiya va O‘zbekiston hamkorligida;
- “Xo‘ja Nasriddin haqidagi latifalarni takrorlash an’analari” – Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkiya, Turkmaniston va O‘zbekiston hamkorligida;
- “Ipakchilik va to‘quv uchun an’anaviy ipak ishlab chiqarish” – Afg‘oniston, Ozarbayjon, Eron, Turkiya, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston hamkorligida;
- “Iftor va uning ijtimoiy-madaniy an’analari” – Ozarbayjon, Eron, Turkiya va O‘zbekiston hamkorligida;
- “Bezak san’ati: naqqoshlik” – Ozarbayjon, Eron, Tojikiston, Turkiya va O‘zbekiston hamkorligida;
- “Rubob yasash va uni ijro etish san’ati” – Afg‘oniston, Eron, Tojikiston va O‘zbekiston hamkorligida.

Yuqoridagi misollardan birgina Navro‘z bayrami 2016-yilda YUNESKOning ro‘yxatiga

TAMADDUN NURI

Afg‘oniston, Ozarbayjon, Eron, Iroq, Hindiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston, Turkiya, davlatlari hamkorligida kiritilgan. Shundan kelib chiqadiki, Navro‘z uch yuz milliondan ortiq insonlarning umumiy bayrami hisoblanadi. 2010-yil BMT Bosh Assambleyasining 64-sessiyasida “Navro‘z” bayrami *Insoniyat nomoddiy madaniy merosi durdonasi* sifatida rasman e’tirof etildi. Shu munosabat bilan A/RES/64/253-sonli BMT rezolyutsiyasi[11] qabul qilindi hamda mazkur rezolyutsiyada 21-mart “Xalqaro Navro‘z kuni” deb e’lon qilindi.

Nomoddiy madaniy meros insonlarni bir-biriga yaqinlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, bugungi kunda yosh avlodlar o‘rtasida nomoddiy madaniy merosning ahamiyati va uni muhofaza qilish zarurligi to‘g‘risida xabardorlikni oshirish har qachongidan ham zarur hisoblanadi. Nomoddiy madaniy meros jamiyatlar o‘zlarining madaniy o‘zligining bir qismi deb tan oladigan amaliyotlar, bilimlar va ifodalarni, shuningdek, tegishli obyektlar va joylarni o‘z ichiga oladi. Avloddan avlodga o‘tib keladigan bu meros o‘zlikni mustahkamlashda hamda madaniy xilma-xillikka hurmatni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. YUNESKOning 2003-yildagi Konvensiyasi kelajak avlodlar uchun ushbu madaniy ifodalarni himoya qilish zarurligini ko‘rsatib berdi.

Xulosa. Nomoddiy madaniy meros elementlarining YUNESKO ro‘yxatlariga kiritilishi mamlakatimiz uchun juda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bir tomondan, O‘zbekiston boy tarixiy merosining jahon hamjamiyati tomonidan yanada kengroq e’tirof etilishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, mazkur elementlarning xalqaro miqyosda muhofaza qilinishini ta’minlash uchun asos bo‘ladi. Uchinchi tomondan, bu kelgusida mamlakatimiz turizm salohiyatining keng miqyosda rivojlanishiga ham katta yo‘l ochadi. Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimizda madaniy yodgorliklar tarixini o‘rganish, ularni saqlash va kelajak avlodga asl holatida yetkazish, mazkur sohaga oid qonunchilik tizimini mustahkamlash, fuqarolarda mazkur sohaga oid daxldorlik va majburiyat hissini oshirish, xalqaro hamkorlik ko‘lamini kengaytirish bugungi kunning qilinayotgan va qilinishi kerak bo‘lgan muhim vazifalaridandir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Международная конвенция об охране нематериального культурного наследия. – Париж, 17 октября 2003 г. MISC/2003/CLT/CH/14. – С. 15.
2. http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=1282807&twolang=true (13.07.2017).
3. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент: 2010 й, №40-41. 345-модда.
4. Lex.uz/uz/
5. Lex.uz/uz/
6. Lex.uz/uz/
7. Lex.uz/uz/
8. Convention for the Safeguarding of the Intangible cultural heritage. – Paris. 17 October 2003. Misc/2003/CLT/CH/14. P.2.
9. ЮНЕСКО ишлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий Комиссияси. 1994-2009. 4615900003UZB-сонли ЮНЕСКО Қатнашув дастури. Т., 2009. Б. 18.
10. ЮНЕСКО ишлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий Комиссияси. 1994-2009. 4615900003UZB-сонли ЮНЕСКО Қатнашув дастури. Т., 2009. Б. 19.
11. UN Resolution about International Day of Nowruz. A/RES/64/253. Resolution adopted by the General Assembly on 23 February 2010 [without reference to a Main Committee (A/64/L.30/Rev.2 and Add.1)] 64/253. P.3.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 1:316.7

ZAMONAVIY TARAQQIYOT JARAYONIDA TASAVVUF TAFAKKURI VA MA'RIFATLI JAMIYATNI BARPO ETISHNING RUHIY-MA'NAVIY ASOSLARI

Vohidova Dilshoda Vohid qizi, Buxoro davlat universiteti "Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa" kafedrasi o'qituvchisi

SPIRITUAL AND MORAL FOUNDATIONS OF SUFI THINKING IN THE PROCESS OF MODERN DEVELOPMENT AND THE FORMATION OF AN ENLIGHTENED SOCIETY

Vokhidova Dilshoda Vokhid qizi, Lecturer, Department of "History of Islam and Source Studies, Philosophy", Bukhara State University

ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫЕ ОСНОВЫ СУФИЙСКОГО МЫШЛЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ И ПОСТРОЕНИЯ ПРОСВЕЩЁННОГО ОБЩЕСТВА

Вохидова Дильшода Вохид кызы, преподаватель кафедры «История ислама и источниковедение, философия» Бухарского государственного университета

https://orcid.org/0009-0009-9382-217X
e-mail: vohidovadilshoda@gmail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy taraqqiyot sharoitida tasavvuf tafakkurining inson ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni hamda ma'rifatli jamiyatni barpo etishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tasavvuf falsafasining asosiy g'oyalari – ruhiy poklik, axloqiy yetuklik, insonparvarlik va ilohiy haqiqatni anglash kabi tamoyillar zamonaviy ijtimoiy jarayonlar bilan uyg'un holda ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *tasavvuf tafakkuri, ma'rifatli jamiyat, zamonaviy taraqqiyot, ruhiy kamolot, ma'naviy qadriyatlar, axloqiy yetuklik, insonparvarlik, ichki uyg'onish.*

Annotation: *This article analyzes the role of Sufi thought in elevating human spirituality and its significance in building an enlightened society within the context of modern development. The main principles of Sufi philosophy-spiritual purity, moral maturity, humanism, and the comprehension of divine truth-are examined in harmony with contemporary social processes.*

Keywords: *Sufi thought, enlightened society, modern development, spiritual perfection, moral maturity, spiritual values, humanism, inner awakening.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль суфийского мышления в духовном возвышении человека и его значение в построении просвещённого общества в условиях современного развития. Основные идеи суфийской философии - духовная чистота, нравственная зрелость, гуманизм и постижение божественной истины - рассматриваются в гармонии с современными социальными процессами.*

Ключевые слова: *суфийское мышление, просвещённое общество, современное развитие, духовное совершенствование, духовные ценности, нравственная зрелость, гуманизм, внутреннее пробуждение.*

Kirish. Bugungi globallashuv, texnologik yuksalish va axborot oqimlari shiddat bilan kechayotgan davrda insoniyat oldida nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy, balki ma'naviy hayot bilan bog'liq chuqur muammolar ham yuzaga kelmoqda. Moddiy farovonlik, raqamli taraqqiyot va iste'mol madaniyatining ustuvorligi inson ruhiy olamining zaiflashuvi, axloqiy me'yorlarning yemirilishi kabi

xavflarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois zamonaviy taraqqiyotning barqarorligini ta'minlashda inson ruhiy-ma'naviy kamolotiga e'tibor qaratish muhim dolzarb masalaga aylanmoqda.

Mazkur jarayonda tasavvuf tafakkuri – insonni nafsiy istaklardan xalos etish, ruhiy poklanish, axloqiy barkamollikka erishish va jamiyatda mehr-oqibat muhitini mustahkamlashga da'vat etuvchi ta'limot sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Tasavvuf falsafasi inson qalbini uyg'otish, ichki uyg'unlikni topish va hayot mazmunini ilohiy haqiqat bilan bog'lashga chorlaydi. Shu sababli tasavvuf nafaqat diniy-ma'naviy yo'nalish, balki zamonaviy jamiyatni ma'naviy yangilashning falsafiy negizi sifatida ham e'tirof etiladi. Ma'rifatli jamiyat tushunchasi esa ilm, tafakkur, axloq va ruhiy barkamollik uyg'unligiga asoslangan ijtimoiy tizimni anglatadi. Bunday jamiyatda inson faqat bilimli emas, balki ma'naviy mas'uliyatli, ijtimoiy adolat, bag'rikenglik va ezgulik tamoyillariga sodiq shaxs sifatida shakllanadi. Tasavvuf tafakkurining bunday ma'naviy asoslari ma'rifatli jamiyat barpo etishda kuchli ma'naviy va falsafiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Shu ma'noda, ushbu tadqiqot zamonaviy taraqqiyot jarayonida tasavvuf falsafasi tamoyillarining inson ruhiy-ma'naviy hayotini boyitishdagi, ma'rifatli jamiyatni shakllantirishdagi o'rnini tahlil etishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini ijtimoiy-falsafiy, aksiologik (qadriyatshunoslik), tarixiy va komparativ (qiyosiy) yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotning markazida tasavvuf tafakkurining inson ruhiy-ma'naviy kamolotiga, axloqiy qadriyatlar tizimining shakllanishiga va zamonaviy jamiyat taraqqiyotiga ko'rsatgan falsafiy ta'sirini tahlil etish masalasi turadi.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi:

1. **Falsafiy tahlil usuli** – tasavvuf ta'limotining mohiyatini, inson va jamiyat hayotidagi ruhiy-ma'naviy omillarni falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilish uchun qo'llanildi.

2. **Tarixiy yondashuv** – tasavvuf tafakkurining tarixiy ildizlarini, uning turli davrlardagi shakllanish bosqichlarini va jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini o'rganishga xizmat qildi.

3. **Aksiologik (qadriyatshunoslik) yondashuv** – tasavvuf falsafasida ilgari surilgan axloqiy, ma'naviy va ruhiy qadriyatlarning zamonaviy ma'rifatli jamiyat barpo etishdagi ahamiyatini baholashda qo'llanildi.

4. **Komparativ (qiyosiy) tahlil** – tasavvuf tafakkuridagi g'oyalar bilan bugungi global va zamonaviy ijtimoiy-ma'naviy yo'nalishlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashga yordam berdi.

5. **Sistemali yondashuv** – zamonaviy taraqqiyot, ma'naviyat va tasavvuf tafakkurini yagona ijtimoiy-falsafiy tizim sifatida o'rganishga asos bo'ldi.

Shuningdek, tadqiqotda Abu Hamid G'azzoliy, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Ahmad Yassaviy kabi mutasavviflarning asarlari, shuningdek, zamonaviy o'zbek va xorijiy olimlarning ma'naviyat va ijtimoiy taraqqiyotga oid ilmiy qarashlari tahlil manbasi sifatida foydalanildi. Metodologik yondashuvlar uyg'unligi tadqiqotning asosiy maqsadi – tasavvuf tafakkuri asosida ma'rifatli jamiyatni barpo etishning ruhiy-ma'naviy mexanizmlarini aniqlashga erishish imkonini berdi. Hozirgi davrda jamiyatning rivojlanishi nafaqat texnologiya, iqtisodiyot va global aloqalar bilan chegaralanadi. Zamonaviylik insonning ichki dunyosi, nafs va qalb uyg'unligi bilan ham bog'liqdir. Texnologik taraqqiyot va globallashuv insonlarni moddiy hayotga e'tibor qaratishga majbur qilar ekan, ko'p hollarda ruhiy bo'shliq va ma'naviy notinchlik paydo bo'ladi. Shu nuqtada tasavvuf tafakkuri shaxsning ichki barqarorligi, ruhiy sog'lomligi va ma'naviy rivojlanishi uchun muhim vosita hisoblanadi.

Muhokama. Tasavvuf - nafsni boshqarish, qalbni poklash va insonning ichki tinchligiga erishish yo'lini ko'rsatuvchi irfoniy yo'nalishdir. Bu yo'l nafsni faqat cheklash emas, balki uni oliy ma'noli maqsadlar yo'lida yo'naltirishni nazarda tutadi. Zamonaviylik sharoitida tasavvufiy tafakkur insonlarning ruhiy ehtiyojlarini qondirish, ichki ma'no va hayotning oltin qoidalarini anglashda katta ahamiyatga ega. Tasavvufiy ta'limotlar nafsning qondirilishi o'rniga, uni tarbiyalash, sabr, mehr-shafqat va insoniylik kabi fazilatlarni rivojlantirishni targ'ib qiladi. Bu esa nafaqat shaxsning ichki rivojlanishi, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va totuvlikni ta'minlaydi. Ma'rifatli jamiyat – bu faqat bilimga ega bo'lgan jamiyat emas. U axloq-qadriyatlarni qadrlaydigan, shaxsiy va jamoatchilik mas'uliyatini chuqur anglaydigan, ichki ruhiy qiymatlarga e'tibor qaratadigan muhitdir. Bunday jamiyatda inson faqat o'z manfaatini emas, balki boshqalarning, atrof-muhitning va jamiyatning

umumiy rivoji uchun ham mas'uliyatni his qiladi. Ma'rifatli jamiyat a'zolari axloqiy prinsiplar asosida harakat qiladi, insoniy munosabatlarda adolat va mehr-shafqatni ustun qo'yadi, qarorlarida esa nafsiy istaklardan ko'ra, umumiy manfaatlarni hisobga oladi. Shu bilan birga, bunday jamiyatda nafaqat tashqi bilim va texnologik taraqqiyot muhim, balki shaxsning ichki dunyosi, qalb va ruh uyg'unligi, ma'naviy tarbiya va axloqiy yetuklik ham ustuvor o'rin tutadi. Ma'rifatli jamiyatda har bir inson o'zini faqat mustaqil shaxs sifatida emas, balki jamiyatning faol, mas'ul va hissador a'zosi sifatida his qiladi. Natijada, bu jamiyatda nafaqat bilim va texnologik rivojlanish, balki ijtimoiy barqarorlik, totuvlik, madaniy uyg'unlik va ruhiy farovonlik ham ta'minlanadi.

Jamiyatda ma'rifiylik nafaqat ta'lim va bilim bilan chegaralanmaydi, balki nafsni tarbiyalash, insoniy munosabatlarni rivojlantirish va jamiyatda axloqiy standartlarni saqlash orqali ham namoyon bo'ladi. Tasavvufiy tafakkur bu jarayonda muhim rol o'ynaydi, chunki u insonning ichki dunyosi bilan jamiyat hayoti o'rtasida uyg'unlikni ta'minlaydi. Zamonaviylik sharoitida tasavvufiy yo'l nafsni tarbiyalash va ruhiy sog'lomlikni ta'minlashda amaliy ahamiyatga ega. U nafsni o'ziga bog'lantirmaslik, boshqalarga mehr-shafqat bilan munosabatda bo'lish, insoniylikni rivojlantirish kabi qadriyatlarni targ'ib qiladi. Bu jarayon jamiyatda barqarorlikni va ijtimoiy totuvlikni mustahkamlaydi. Tasavvufiy bilimlar va amallar zamonaviy texnologik imkoniyatlar orqali ham tarqalmoqda: onlayn platformalar, ruhiy seminarlar va global irfon tarmoqlari orqali insonlar nafs va qalb tarbiyasini zamonaviy muhitda olishlari mumkin. Bu esa ma'naviy va ruhiy taraqqiyotni global kontekstda ham ta'minlaydi.

Natijalar. Shu tariqa, zamonaviy jamiyatda ma'naviy va ruhiy muvozanat nafaqat shaxsning ichki taraqqiyoti, balki jamiyatning barqarorligi va ma'rifatliligi uchun ham asosiy shartdir. Tasavvuf tafakkuri nafsni tarbiyalash, qalbni poklash va insonning ichki tinchligiga erishish yo'lini ko'rsatadi. Ma'rifatli jamiyat nafaqat bilimli, balki axloqiy va insoniy qadriyatlarga e'tibor qaratgan, nafs va qalb o'rtasida uyg'unlikka ega jamiyat sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy taraqqiyotda tasavvufiy yo'l va ma'rifiy qadriyatlarning uyg'unligi insonlarning ichki va tashqi dunyosi orasida balancni ta'minlab, barqaror va totuv jamiyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy jamiyatda taraqqiyot faqat texnologiya, iqtisodiy o'sish yoki global aloqalar bilan chegaralanmaydi. Uning samaradorligi shaxsning ichki ruhiy va ma'naviy taraqqiyoti bilan ham bog'liqdir. Bugungi kunda insonlar tezkor rivojlanuvchi material dunyoga kirib borsa-da, ko'p hollarda ruhiy va ma'naviy bo'shliq yuzaga chiqmoqda. Mana shu nuqtada tasavvuf tafakkuri jamiyat uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi, chunki u nafsni tarbiyalash, qalbni poklash va insonning ichki tinchligiga erishish yo'lini ko'rsatuvchi irfoniy yo'nalish sifatida zamonaviylik sharoitida ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

Xulosa. Tasavvufiy ta'limotlar nafsni faqat cheklamay, uni samarali va ma'noli yo'lda yo'naltiradi. Bu shaxsning ichki rivoji va jamiyatning barqarorligi uchun muhimdir. Ma'rifatli jamiyat bilimli bo'lish bilan birga, axloqiy mas'uliyatli, ruhiy qadriyatlarga e'tiborli va nafs bilan qalb uyg'unligini ta'minlaydi. Zamonaviy sharoitda tasavvufiy yo'l sabr, mehr-shafqat va kechirim kabi fazilatlarni rivojlantirib, ruhiy immunitetni mustahkamlaydi, ta'lim muassasalari va jamoatchilik esa bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Shu orqali jamiyatning ma'naviy va axloqiy muvozanati mustahkamlanadi va barqaror, ma'rifatli muhit shakllanadi. Tasavvuf tafakkuri va ma'rifatli jamiyatni barpo etish ruhiy-ma'naviy muvozanat, axloqiy tarbiya va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi, insonni bilimli va ma'naviy jihatdan rivojlangan shaxs sifatida shakllantiradi hamda jamiyatning uzoq muddatli taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Ma'rifat va taraqqiyot yo'lidan. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 368 b.
2. Muminov N. **Ma'rifatli jamiyat va yoshlar ma'naviyati**. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018. – 176 b.
3. Qurbonov B. Falsafa va jamiyat: ma'rifat va axloq uyg'unligi. – Toshkent: Fan, 2017. – 230 b.
4. Abdullayev Sh. Inson manfaatlari va ma'rifatli jamiyat qurilishi. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 210 b.
5. Bahouddin Naqshband**.** Risolai odobi tariqat. – Buxoro: Sharq, 2000. – 144 b.
6. Saidov M. Xojagon–Naqshbandiya tariqati va uning ijtimoiy-ma'naviy mohiyati. – Toshkent: Fan, 2015. – 210 b.
7. Komilov N. Naqshbandiya ta'limoti va inson kamoloti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006. – 196 b.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK:093.476

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA ZAMONAVIY KADRLARNI TARBIYALASHNING MA’NAVIY-MA’RIFIY ASOSLARI

G‘ofurova Sug‘diyona Abdurashid qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti

ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ВОСПИТАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ КАДРОВ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Гофурова Сугдиёна Абдурашид кызы,
магистрант Шахрисабзского государственного педагогического института

SPIRITUAL AND EDUCATIONAL FOUNDATIONS OF TRAINING MODERN PERSONNEL IN THE CONDITIONS OF NEW UZBEKISTAN

Gofurova Sug‘diyona Abdurashid qizi,
master’s Student, Shahrisabz State Pedagogical Institute

e-mail: sugdiyonagafurova60@gmail.com
https://orcid.org/ 0009-0007-6591-219X

Annotatsiya: *Bu maqolada Yangi O‘zbekistonda inson kapitalini mustahkamlash uchun ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish jarayonida ma’naviy hayot va barkamol avlodni tarbiyalashning o‘ziga xos jihatlari, inson kamoloti bilan bog‘liq, turli xil namoyon bo‘ladigan ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma’rifiy jihatlar, ayniqsa yoshlarning ruhiyati va kayfiyatini rivojlantirish jarayonlari tahlil etilgan. Yoshlarini munosib tarbiyalashda ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni zarurligi, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ma’ruza va asarlari, O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, Farmon va Qarorlari orqali ma’naviy – axloqiy tarbiyani singdirish va rivojlanishiga oid fikrlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Shaxsiy mas’uliyat, ma’nan yetuklik, halollik, adolatli qaror qabul qilish, ta’limda marifiy-axloqiy tarbiya, yangilanayotgan jamiyat, qonun, Farmon va Qarorlar, harakat, tamoyil, qadriyatlar, ma’naviyat, ma’naviy-axloqiy tarbiya.*

Аннотация: *В статье рассматриваются специфические аспекты духовной жизни и воспитания всесторонне развитого поколения в процессе самостоятельного развития, в этой сфере анализируются различные социально-философские, культурно-просветительские аспекты, связанные с совершенством человека, процессами духовного развития и настроения населения, особенно молодежи. Приведены необходимость научно обоснованных мер по достойному воспитанию молодежи, доклады и работы Президента Шавката Мирзиёева, законы, указы и постановления Республики Узбекистан, идеи по развитию духовно-нравственного воспитания.*

Ключевые слова: *общество, реформирование, право, Указы и Постановления, действие, принцип, ценности, духовность, духовно-нравственное воспитание.*

Annotation: *This article analyzes the peculiarities of spiritual life and upbringing of the perfect generation in the process of independent development, socio-philosophical, cultural and educational aspects related to human maturity, manifested in different ways, especially the processes of developing the psyche and mood of young people. The need for scientifically based measures in the proper education of their youth, lectures and works of our President Shavkat Mirziyoyev, opinions on the absorption and development of spiritual and moral education through the laws, decrees and decisions of the Republic of Uzbekistan were given.*

Key words: *Moral and ethical education, civic education, character formation social justice, human rights awareness, lifelong learning, creative thinking, curriculum reform, renewing, law, decrees and decisions, action, principle, values, spirituality, spiritual and moral education.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Yangi O‘zbekistonda yoshlarni tarbiyalash masalasi hozirgi kunda juda muhim va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonni samarali amalga oshirish, rivojlantirish va buning ustida ishlash uchun ma’naviy-marifiy tadbirlar tashkillashtirish, milliy qadriyatlar va madaniyatni yoshlar ongiga singdirish, milliy merosni o‘rganishni targ‘ib qilish, ota-bobolarimizning yuksak axloqiy tamoyillarini o‘rganishni yuksaltirish eng oliy vazifamiz bo‘lib qolishi kerak. Jamiyatimizning ajralmas qismi hisoblangan yoshlarimiz va ularning kelajagi haqidagi masalalar har doim turli soha vakillarini qiziqtirib kelgan. Barcha soha mutaxassislari yoshlar masalasini o‘z yo‘nalishlari doirasida tahlil qilib kelganlar. Masalan, faylasuflar yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei va faoliyatini falsafiy jihatdan o‘rganishgan, huquqshunoslar esa ularning huquqlari hamda huquqiy kafolatlari masalalarini tadqiq etganlar. Tarixchilar yoshlarning tarixiy jarayonlardagi o‘rni va ahamiyatini yoritgan bo‘lsalar, psixologlar ularning ruhiy holati va xarakter xususiyatlarini tahlil etganlar. Pedagoglar yosh avlodni ta’lim-tarbiya jarayonida shakllantirish masalalariga e’tibor qaratgan bo‘lsa, siyosatshunoslar yoshlarning siyosiy hayotdagi roli va ishtirokini o‘rganib kelishgan. SH.M.Mirziyoyev aytganlaridek, “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axoqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”.[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Jamiyatdagi yosh avlodning bilim egallashi, ma’lum bir kasb-hunarni puxta o‘zlashtirishi, mustahkam dunyoqarashni shakllantirishi, jismoniy barkamollikka erishishi hamda ma’naviy jihatdan boyib borishi natijasida ular o‘z hayoti va kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratadi. “O‘tmishdagilar, – deb yozgan edi Abu Nasr Forobiy, – o‘zlarida bo‘lgan zavq-na’sha, lazzatni o‘zlaridan keyingi keladigan avlod orqali nasldan-naslga qoldirib keladilar. Shu tartibda vaqt va zamon o‘tishi bilan kishilarda zavq ustiga zavq, na’sha ustiga na’sha qo‘shilib, ulardagi lazzatlanish, zavqlanish obyekti orta boradi. Mana bu holni biz farovonlik, haqiqiy baxt-saodat deb tasvirlaymiz”.[2] Tarix sahifalariga nazar tashlaganimizda, yoshlarning ma’naviy kamoloti, dunyoqarashi hamda axloq-odobiga bag‘ishlab bebaho meros qoldirgan allomalar nomlarini e’tirof etish zarur. Xususan, Nizom ul-Mulkning “Siyosatnoma” va “Rushnoinoma”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”, shuningdek, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” hamda “Vaqfiya” kabi chuqur ma’naviy mazmunga ega asarlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolgan. Ushbu durdona asarlar yosh avlod tarbiyasida, ularning ma’naviy olamini boyitishda muhim manba sifatida xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi olimlaridan Q.N.Nazarov, B.To‘ychiyev, O.R.Musaev, B.Aliev, A.Mavrulov kabilarning asarlari ham yoshlarni tarbiyalash uchun muhim. “Milliy iftixordek ulug‘vor va teran tuyg‘uning paydo bo‘lishi esa, ajdodlarimizdan meros qolgan bebaho madaniyatni bilish, qadrlash va yanada boyitish bilan bog‘liqdir. Mana shunday ezgu tuyg‘u va bunyodkor g‘oyalar ongimiz va qalbimizdan joy olishi uchun halqimiz yaratgan betakror madaniyat va ma’naviyatni egallashimiz juda muhimdir”.[3].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan buyon 34 yildan ortiqroq vaqt o‘tdi. Bu qisqa davrda barcha sohalarda amalga oshirilgan tub islohotlar, demokratik o‘zgarishlar o‘z samarasini bermoqda. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi va unda ilgari surilgan “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyil xalqqa xizmat qilishning samarali vositasi sifatida xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilmoqda. Xullas, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi milliy rivojlanishimizning yangi bosqichini boshlab berdi. Biz bundan buyon faoliyatimizni “inson-jamiyat-davlat” tamoyil asosida tashkil etamiz”[4]. Mazkur jarayonda ma’naviyat va ma’rifat sohasini yanada takomillashtirishga qaratilgan ishlarning keng jamoatchilik ishtirokida ochiq va shaffof tarzda amalga oshirilishini ta’minlash, shuningdek,

ijtimoiy-ma'naviy, ilmiy-ma'rifiy hamda ta'lim-tarbiya yo'nalishlarida tizimlilik, ilmiy asoslanganlik va izchillikka erishish masalalariga alohida e'tibor qaratish ushbu tadqiqot metodologiyasining poydevorini tashkil etadi. "Ayni paytda fuqarolar ma'naviy barkamolligini ta'minlash, ular orasida teng va o'zaro manfaatli munosabatlarni ta'minlash, erkin tafakkur tarzi, inson huquqlari, milliy va umumbashariy qadriyatlarni hurmat qilish va qarashlar xilma-xilligini rivojlantirish, inson ruhiyati va kamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi g'oya va ta'limotlarga murosasiz kayfiyatini tarbiyalash ham bu boradagi dolzarb vazifalar sirasiga kiradi"[5]. Bunga barcha Renessans davrlarining tarixiy jarayonlari yaqqol dalil bo'la oladi. Shu bois, mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, ushbu yo'nalishga alohida e'tibor qaratish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. "Taraqqiyot strategiyasining beshinchi yo'nalishi, ya'ni ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish sohasidagi ustuvor maqsad va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlar alohida ahamiyatga molikdir"[6].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Yangi O'zbekiston taraqqiyotining ijtimoiy-ma'naviy hamda ilmiy-ma'rifiy yo'nalishlarini yanada takomillashtirish, jamiyatda ma'naviy barqarorlik va hamjihatlikni ta'minlash, qonun ustuvorligi hamda xavfsizlik kafolatlarini mustahkamlash, shuningdek, Uchinchi Renessans g'oyalarini ro'yobga chiqaruvchi, yuksak ma'rifat va tafakkur egasi bo'lgan avlodni voyaga yetkazish, barkamol shaxsni shakllantirish mamlakatimizda ma'rifatli jamiyatni qurishning asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi. Ana shundagina bugun yurtimizda keng jaranglayotgan "Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans sari" shiorini real harakatga keltira olamiz"[7]. Mazkur yo'nalishda yoshlarga alohida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki O'zbekiston – yoshlar mamlakati hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakat aholisi tarkibining qariyb 60 foizini yosh avlod vakillari tashkil etadi. "Inson barkamolligi" kitobining mualliflari akademik E.Yusupov va professor F. Ismoilov chuqur taassuf bilan yozganlaridek, bunday jamiyatda "badnasf va dilozor, xudbin va xushomadguy, dag'al va loqayd va shunga o'xshash qusurlarga ega bo'lgan shaxslar qayoqdan paydo bo'layapti o'zi?" [8] Shunday ekan, yoshlar masalasi har doim e'tiborda bo'ladi.

Yoshlarning har tomonlama yetuk shaxs sifatida kamol topishlari uchun zarur barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayniqsa, ularni madaniyat va san'at sohalariga, jismoniy tarbiya hamda sport faoliyatiga keng jalb etish, axborot texnologiyalari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish – bularning barchasi mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish yo'lidagi muhim omillar hisoblanadi. "Ma'naviyat sohasiga aloqador bo'lgan barcha tuzilmalar, jamiyatimizning yangi qiyofasini yaratish, odamlarda davlat siyosatiga daxldorlik tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladigan ma'naviy tarbiya tizimini yaratish ishiga jalb qilinishi kerak".[8]

XULOSA. Yoshlarni tarbiyalash, bu boradagi yondashuvlarni to'g'ri qo'ya olish, har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratib berish, o'qitish tizimini yo'lga qo'yish, kelajakni boshqarib keta oladigan kishilar qilib voyaga yetkazish eng muhim vazifa, hatto murakkab muammolardan hisoblanadi. Agar ma'naviyat sohasi bo'yicha to'xtaladigan bo'lsak, mustaqillik tufayli ma'naviyatimizning tarixiy ildizlarini o'rganishga, ma'naviyatini yuksaltirishga alohida e'tibor berila boshlandi. Bizning vazifamiz milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni ko'z qorachig'idek asrash va yanada boyitishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 418 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021. – 461 b.
3. Abdurahmonov M, Rahmonov N. Madaniyatshunoslik. Darslik. – Toshkent. 2008 – 193 b.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
5. Bekmuradov M, Begmatov A. Milliy mentalitet va ma'naviyat. – Toshkent: Adolat, 2002.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 821.512.133.09-33

BADIIY ASARNING YOZILISH SABABLARIGA DOIR NAZARIY TAHLILLAR

Karimova Nafisa, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o‘qituvchisi, Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

THEORETICAL ANALYSIS OF THE REASONS FOR WRITING A LITERARY WORK

Karimova Nafisa, Senior Lecturer at the University of Journalism and Mass, Communications of Uzbekistan senior lecturer, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРИЧИН СОЗДАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ

Каримова Нафиса, доктор философии (PhD) по филологическим наукам старший преподаватель Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана старший преподаватель

nkarimovanafisa@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada adabiyotshunoslik, ijodkor shaxsiyatiga oid masalalar, ijod laboratoriyasidagi adabiy hodisalar tahlil etilgan. Shakl va mazmungacha bo‘lgan nazariy tahlillar ko‘lami ochib berilgan. Asarning yozilish va asardan voz kechilish sabablari sotsiologik metod orqali o‘rganilgan. Maqoladagi xulosalarni dalillashda adiblar hayoti va ijodiy tajribasidan misollar olingan.*

Abstract: *The article analyzes literary studies, issues related to the creative personality, and literary phenomena in the creative laboratory. The scope of theoretical analysis up to form and content is revealed. The reasons for the writing of the work and the rejection of the work were studied using the sociological method. In proving the conclusions of the article, examples from the life and creative experience of writers were taken.*

Аннотация: *В статье анализируются литературоведческие вопросы, связанные с личностью творца, и литературные явления в творческой лаборатории. Раскрывается спектр теоретического анализа вплоть до формы и содержания. С помощью социологического метода исследованы причины написания произведений и отказа от работы над ними. Для обоснования выводов в статье приводятся примеры из жизненного и творческого опыта писателей.*

Kalit so‘zlar: *shakl, mazmun, ijod laboratoriyasi, asar, munaqqid, she’r, roman, janr.*

Key words: *form, content, creative laboratory, work, critic, poem, novel, genre.*

Ключевые слова: *форма, содержание, творческая лаборатория, работа, критик, поэма, роман, жанр.*

KIRISH. Adabiyotshunoslikka oid bir qator yangi masalalar borki, ularning yechimini izlash ba’zan adabiyotshunoslikdagi ijod laboratoriyasiga bog‘liq. Shakl va mazmun kategoriyasidan avval, ungacha bo‘lgan jarayonlar tahlili asar qanday yozildi yoki asarni yozishga qanday tayyorgarlik ko‘rildi? singari savollarning javobidan olinadi. Yuqoridagi savolni har qanday adabiy turdagi, lirik, epik va hatto dramatik turdagi janrlar ichra ko‘ndalang qo‘yish mumkin.

NAZARIY TAHLILLAR. Masalan, shoirlar biror misrani xayoliga kelgan joyida darrovda yozib qo‘yadilar. Ba’zan qofiyadosh so‘zni qayd qilgan holda keyinchalik shu bir

jumladan she'r "yasash"da foydalanishadi. Biror so'z xayolda qofiya kashf etishi uchun ham shoir ancha-muncha kitobxon bo'lishi lozim. Atoqli ijodkor To'lepbergen Qayipbergenov "Qoraqalpoq dostoni" asarini yozish uchun qanchadan-qancha sahifasi sarg'ayib ketgan kitoblar o'qigani, goh mashinada, goh samolyotda yurib yozgani, jarayon yuzasidan tarixiy joylarni ziyorat qilganini aytib bergan ekan[1]. Yozuvchi ish jarayonini amaliy tashkil etishi, bunday vaziyatlarga erinmaslik, obyekt haqida batafsil axborot to'plash uchun jismoniy mehnatni ham bajarishdan og'rinmasligi, zaruriyat bo'lsa sayohatlarga chiqishi, shu mehnat jarayonini o'zida ham qism-qismlarni to'plab kelishi badiiy matnning realligi, ishonchliligi va ta'sirchanligini ta'minlaydi. Jonli fikriy mehnat bilan yozilgan har qanday janrdagi asarda jonli kayfiyat va mahorat uyg'unligi ufurib turadi. Adib Hamid G'ulom har doim yosh ijodkorlarga maslahat o'rnida, tabiatning chiroyli ko'rinishlarini yon daftarga yozib olib, ish jarayonida biror romanga bemalol kiritib yuborish haqida aytgandi[2]. Bu o'rinda, muallifning ijodiy tayyorgarligini tushunish maqsadga muvofiq. Chunki ijodiy tayyorgarliklarning qismlar bo'linib bajarilishi, muallifning ijodiy mehnat mashaqqatini yengillashtiruvchi va matn yaxlitligini ta'minlovchi vositalar sanaladi.

Asar yozish jarayonidagi qiziqarli va amaliy tayyorgarliklardan biri muallif o'z tasavvuridagi qahramoni o'rnida yashab ko'rishi, qahramoni bajaradigan ishlarni dastlab o'zi bajarishi, tajriba qilib ko'rishidir. Tasavvurdagi qahramon harakatini yozuvchining real hayotiga ko'chishi ijod laboratoriyasida o'rganiladigan adabiy hodisadir. Muallif avval o'zi notanish yo'ldan yurishi, orqaga adashmay qayta olganidan so'ng, qahramonini qorong'u yo'lga yuborishi lozim. Shunda o'z kechinmalarini asarning shakl va mazmuniga singdira oladi. Mashhur rus yozuvchisi Lev Tolstoy "Urush va tinchlik" romanini yozishga kirishganidan so'ng, Borodino jangini batafsil tasvirlashga ehtiyoj sezadi. Tuladan Borodinogacha boradi va bu yerdagi har bir sayxonlikni sinchiklab o'rganadi. Bu geografik o'rganishlarni jang sahnalari tasvirlangan sahifalarda zo'r hayajon bilan o'qish mumkin. Tolstoy o'sha joylar relefini zo'r tarixiy voqealar qo'shib tasvirlaydiki, kitobxon bularni o'qib, o'zini Borodino jangida qatnashgandek his qiladi[3]. Asqad Muxtor bir nechta qurilishlarga borib, oylab yashagan ekan. Muxbirlar izlab borganida, u kishini korjoma va brezent etikda sement qorayotgan joylarida topishgan.

Adib Mirzakalon Ismoiliy o'smirlar ta'lim-tarbiya masalasiga jiddiy qaragani bois, "Bizning roman", "O'zingdan ko'r" qissalarini yozish jarayonida axloq tuzatish koloniyalariga borib, yozilajak asariga material to'playdi[4]. Shuningdek, Oybek front haqida yozish uchun maxsus ruxsatnoma olib, to'rt oy safarda yuradi. Front chizig'i bo'ylab yurib, yuzlab chaqirim masofadagi shahar va qishloqlar oralab jangchilar bilan tanishadi, xalq hayotini o'rganadi: "Qaysi jangchi bilan gaplashsang, cheksiz qiziq voqealar eshitasan", deb yozadi Oybek bu haqda. Front taassurotlarini "Front bo'ylab" deb nomlangan to'plamga jamlaydi.[5].

MUHOKAMA. Real amaliy tajribalar borasida Shukur Xolmirzayevning yozuvchilik mehnati katta. Shukur Xolmirzayev shaxsiyati, ijodiy mehnati juda ko'p mavzularga manba bo'lish bilan birga yosh qalamkashlar uchun namuna bo'lishi, shubhasizdir. Adib ijodkorlik havasidagi insonlarga doim hikoyani yozish uchun ko'proq yurishga, mashaqqat chekishga to'g'ri kelishi, publitsistika bitta fakt atrofida aylansa, badiiy asar o'nlab faktlarning uyushmasidan paydo bo'lishi haqida doim uqtirdi[6]. Asar yozib bo'lgach, muallifda o'z asaridan ko'ngli to'lmagani uchun undan voz kechishi ham mumkin. Bu voz kechilish ham ijod laboratoriyasi uchun alohida ijtimoiy hodisa. Ayni shunday murakkab jarayonlar ham aynan Sh.Xolmirzayev faoliyatida sodir bo'lgan ekan. Yozuvchi qarashlari bo'yicha, muallif o'z imkoniyatini kengaytirish hisobiga ish ko'rgani durust. Biroq roman mazmuni qanday bo'lishi keraklini aniqlash, bosh qahramonning ruhiy chizig'ini topish va qo'ldan chiqarmaslik zarur.

[1] Холмирзаев Ш. Мен адабиётни қисматим деганман. – Тошкент: Sharq, 2022. – Б.71.
[2] Ўша манба. – Б. 72.
[3] Қаранг: Адабиёт назарияси. 2 том. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 103.
[4] Отабек Ш. Адабиёт қисматдир. – Тошкент: Sharq НМИУ, 2014. – Б. 142.
[5] Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. 12-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2017. – Б. 164.
[6] Холмирзаев Ш. Мен адабиётни қисматим деганман. – Тошкент: Sharq НМИУ, 2022. – Б. 104.

Xususan, asarning yarmiga kelib, matnda qandaydir "oqsash" borligini anglab qolganida, undan voz kechishni ma'qul ko'radi. Mazkur fikrlarining asosi sifatida o'n olti bobi "Sharq yulduzi" jurnalida e'lon qilingan "Yo'lovchi" nomli yangi romanidan voz kechganini aytadi. Romanning ko'pgina boblari ommaga e'lon qilingan edi. Biroq oxirigacha bosilmaydi. Lekin yozuvchi o'z hikoyalarini yaxshi ko'rishini, ularning hech birini "chiqit"ga chiqarib tashlay olmasligini aytgan ekan. Ijodkor odam ham moddiy dunyo, ham xayolot dunyosida yashaydi. Har ikki dunyoni birday idrok etish, birday tahlillash, shaxsiyat va xayolot muvozanatini barobar ushlash – mushkul ruhiy-psixologik jarayon. Bunday vaziyatlarda ijodkor emotsiya kishisiga aylanadi. Har qanday buyuk shaxslarning ijod laboratoriyasiga kirib borilganida ulardagi adabiy shaxsiyatning yangi qirralari kashf etiladi, ichki kechinmalari his qilinadi; asarlarining yuzaga kelish yoki voz kechish sabablari oydinlashadi.

Ijodkor o'z ijod laboratoriyasida asarning farazan tayyor ekaniga ishonch hosil qilishi, nihoyatda muhim sanaladi. Adib Shukrullo tug'ilgan fikrni darhol yozishga kirishmasdan ko'p vaqt o'ylab yurar ekan. Keyin esa o'ylaganlarini odamlarga gapirib ham berar ekan. So'zlash davrida sinovdan o'tkazib, tinglovchilarning munosabatini hisobga olib qo'yadi. Mo'ljalidagi voqeani gapirganida, tinglovchiga voqeani yoqqan yoki yoqmaganini sezib oladi[7]. Xuddi shu tajribani Erkin A'zam ham o'z ijodiy faoliyatida qo'llaydi. Yozuvchi muayyan bir fikr xayolida pishib yetilmaguncha, ish stoliga yaqinlashmas ekan. Goho yozishga o'tirishdan oldin dastlabki bir-ikki sahifaga oid gaplardan tortib, to asarning so'nggi jumlasigacha xayolida tayyorlaydi. Yozish jarayonida ba'zi o'rinlar o'zgarib ham ketadi-yu, har holda xayoliy to'liqlik ish boshlashga ishonch va jur'at beradi[8]. Har bir ijodkor o'zi bir olam, ulardagi ijod jarayoniga xos jihatlar turlicha kechadi. Yozuvchi va shoirlar yozish jarayonida reja bilan ish ko'radilar. Ayrim adiblar har kuni ishlashni maqsad qiladilar. Yozuvchilarda ish jarayoni tartibli va tartibsiz ravishda kechishidan qat'iy nazar, yuqorida ko'rib o'tilganidek, muayyan bir ijodiy rejalar va jarayonlar asosida asar yoziladi. Ba'zi adiblar o'z ijod jarayonini aniq tartibga solib olgan holda, har kuni ma'lum bir hajmda yozishni mo'ljallaydi. Bunday ijod ko'proq roman yoki qissa kabi katta nasriy asarlar yozadigan adiblarga taalluqli. Shu e'tibordan nosirlar bilan shoirlardagi ijod jarayoni turlicha kechadi, deyish mumkin. Ijod laboratoriyasidagi elementlarning o'zaro ketma-ketlik hosil qilishi tadqiqotchini mavhumlikdan muayyanlikka olib boruvchi eng yaqin va sifatli usuldir. *Ijod vaqti* – ijodkor badiiy asar yozishga kirishgan vaqt. Ijod vaqti, avvalo, ijodiy faoliyatning bir turi uchun rejalashtiriladi. Xuddi boshqa aqliy faoliyatlar singari diqqat talab etadi. Ijodiy ishda tartib bo'ladimi, degan savol tug'ilishi mumkin. Ijodxonada tartib bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Tartib ijodiy ish sifatiga unchalik ta'sir etmaydi. Chunki qachon yozish emas, qanday yozish muhimroq.

XULOSA. Asarning yozilish, voz kechilish, qayta ishlanish va e'lon qilinishiga doir bir qancha sabablar mavjud bo'lib, ular umumiy olganda, ijod laboratoriyasidagi maxsus tadqiqi etiladigan masala hisoblanadi. Munaqqid adabiyotshunoslar biografik va sotsiolgik metodlar orqali mazkur o'rganishlarni olib bormoqdalar. Shu qatorda mazkur tadqiqot orqali bu ishga hissa qo'shishni maqsad qilgan edik. Yozuvchi va shoirlar ish tartibini rejalashtirish, yozish, ish paytida yozuvchi his qiladigan hissiyotlar, oniy lahzalari to'g'risida adabiy suhbatlarda batafsil aytib o'tishadi. Suhbatlar esa adabiy bahslar uchun zauriy manba bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Холмирзаев Ш. Мен адабиётни қисматим деганман. – Тошкент: Sharq, 2022. – Б.71.
2. Қаранг: Адабиёт назарияси. 2 том. – Тошкент: Фан, 1979. – Б. 103.
3. Отабек Ш. Адабиёт қисматдир. – Тошкент: Sharq НМИУ, 2014. – Б. 142.
4. Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. 12-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2017. – Б. 164.
5. Шукрулло. Жавоҳирот сандиғи. – Тошкент: Ёш гвардия, 1983. – Б. 139.
6. Аъзам Э. Эрталабки хаёллар. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2015. – Б. 375.

[7] Шукрулло. Жавоҳирот сандиғи. – Тошкент: Ёш гвардия, 1983. – Б. 139.

[8] Аъзам Э. Эрталабки хаёллар. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2015. – Б. 375.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 811.161.1

NESIBELI BALTANIYAZOVANÍŃ “BAXÍTLÍ KÚNDI IZLEP” POVESTINDE KELBETLIKLERDIŃ QOLLANÍLÍW ÓZGESHELIGI

Saparmatov Omar Shamurat ogli, Ájiniyaz atındağı NMPI Filologiya fakulteti studenti

NESIBELI BALTANIYAZOVANING “BAXTLI KUNNI IZLAB” QISSASIDA SIFATLARNING QO‘LLANILISH XUSUSIYATI

Saparmatov Omar Shamurat o‘g‘li, Ajiniyoz nomidagi NDPI Filologiya fakulteti talabasi

ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ В ПОВЕСТИ НАСИБЕЛИ БАЛТАНИЯЗОВОЙ «В ПОИСКАХ СЧАСТЛИВОГО ДНЯ»

Сапарматов Омар Шамурат оглы,
студент факультета филологии НГПИ им. Ажинияза

FEATURES OF THE USE OF ADJECTIVES IN NESIBELI BALTANIYAZOVA’S NOVEL “IN THE SEARCH FOR A HAPPY DAY”

Saparmatov Omar Shamurat ogli, Student of the Faculty of Filologiya, NSPI named after Ajinyoz

omarsaparmatov@gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-2807-9041

Annotaciya: *Bul maqalada jas talant iyesi Nesibeli Baltaniyazovanıń “Baxıtlı kúndi izlep” povestiniń morfologiyalıq ózgesheliklerinen biri kelbetliklerdiń qollanılıw órisi ilimiy tiykarda analizlendi.*

Tayanısh sózler*: lingvistika, morfologiya, sóz shaqapları, kelbetlik, sóz mánileri, tillik ózgeshelikler.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yosh iste’dod egasi N.Baltaniyazovaning “Baxtli kunni izlab” qissasining morfologik xususiyatlaridan biri sifatlarning qo‘llanish doirasi ilmiy asosda tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *tilshunoslik, morfologiya, so‘z turkumlari, sifat, so‘z ma’nolari, til xususiyatlari.*

Аннотация: *В данной статье на научной основе проанализирована одна из морфологических особенностей повести молодого талантливого человека Насибели Балтаниязовой «В поисках счастливого дня» - сфера употребления прилагательных.*

Ключевые слова: *лингвистика, морфология, части речи, прилагательные, значения слов, особенности языка.*

Annotation: *In this article, one of the morphological features of the young talent N. Baltaniyazova's story “In Search of a Happy Day” - the sphere of use of adjectives - is analyzed on a scientific basis.*

Key words: *linguistics, morphology, parts of speech, adjectives, word meanings, language features.*

Kirisiw. Tilsiz jámiyetlik turmıs tarawlarınıń rawajlanıwın, ondağı jetiskenliklerdi, toplanǵan materiyallıq hám ruwxıy baylıqlardı kóz aldımızǵa keltiriw qıyın. Sonlıqtan hár bir insan óz ana tilin tereń úyreniwge, onnan durıs paydalanıwǵa, onıń tazalığın saqlawǵa, solay etip tildiń rawajlanıwı ushın úles qosıwǵa minnetli.

Jámiyette adamlar til arqalı qarım-qatnasqa túsip, óz oyların sóylew arqalı, jazıw arqalı bildiredi. Adam oyı tildegi sózler járdeminde bayan etiledi. Sóz zat hám qubılıslardı atap kórsetedi. Tildegi sózlerdiń jıyıntığı sózlik quram yaki leksikanı quraydı. Hár bir milliy til óziniń leksikasına iye. Búgingi dáwirde qaraqalpaq tiliniń

sózlik quramı bay hám rawajlanǵan. Sózlik quramnıń baylıǵı – tildiń sol tilde sóylewshi millettiń baylıǵı.Til – hárbir xalıqtıń biybaxa baylıǵı, ol ekonomikalıq, ilimiy – texnikalıq hám mádeniy progresske qaray ilgerlewdiń qúdiretli quralı. Sonlıqtan hár bir milletiń óz ǵana tiliniń jámiyet turmısındaǵı ornı artıp barıwǵa umtılıwshılıǵı nızımlı qubılıs. Qaraqalpaq milleti óziniń dúnyanıń kópshilik ellerine tanıs kórkem ádebiy miyraslarına iye. Mine usınday baylıǵımızdan utımlı paydalanıw ushın jámiyetliksiyasiy leksikanı tereń úyreniw oǵada úlken áhmiyetke iye. Qaraqalpaq tilinde jámiyetlik-siyasiy leksikanı lingvistikalıq baǵdarda úyreniw elege shekem óz sheshimin tolıq tapqan másele emes. Ásirese, olardıń etimologiyalıq baǵıtı bir qansha quramalı másele bolıwı menen birge, sheshimi qıyın orınlarǵa kóplep dus kelinedi.

Ótken ásirdiń 30-jıllarınan baslap qaraqalpaq tiliniń fonetikası, grammatikası , fonetikası, leksikası, tariyxı hám dialektleri ilimiy jobada izertlene basladı. Bul izertlewge, Polivanov, N.A.Baskakov, A,K.Baskakov, A.K.Borovkov h.t.b. ózleriniń úleslerin qostı, olar burın izertlenilmey kiyatırǵan qaraqalpaq tilin endigiden bılay izertlerwdiń baǵdarların belgilep berdi.

XIX ásirdiń birinshi yarımı til haqında ilimniń qáliplesiw dáwiri boldı. Vilgelm fon Gumold onıń teoriyalıq tiykarların qáliplestirdi, al F.Bopp, R,Rask, Ya,Grimm hám A.X.Vostokov jas ilimdi salıstırmalı-tariyxıy metod kúshli qural menen támiyinledi. Sonıń nátiyjesinde lingvistika tek óz aldına ilim sıpatında qáliplesip qoymastan gumanitar bilimler tarawında aldıńǵı orındı iyeledi.

Til bilimindegi eń áhmiyetli máselelerden biri bul jazıwshı hám shayırlardıń shıǵarmalarınıń biri esaplanadı. Hár qanday kórkem shıǵarmanıń tilin úyreniw, qollanılıw órisi, stilin kórip shıǵıw lingvistikada búgingi kúnde zárúrli máselelerden. Millet, jámiyet rawajlanǵan sayın onıń tili de rawajlanıp baradı. Ádebiyat bostanında jańa jazıwshılar, jas talant iyeleri kóplep kirip kele beredi. Solay eken, ádebiyatqa kirip kelgen hár qanday jazıwshılardıń shıǵarmalarınıń tilin úyreniw arqalı biz zaman menen teń qádem basamız dep aytıwımız múmkin.

Tiykarǵı bólim. Til biliminiń morfologiya tarawında kelbetlikler búgingi kúnge shekem bir qansha aspektte úyrenildi. Olardıń dúzilisi, qurılısı hám gramatikalıq belgileri óz gezeginde arnawlı izertlew obyektine aylanıp úlgerdi. Degen menen, jeke bir jazıwshınıń dóretiwshiligindegi kelbetlikler, olardıń qurılısı, qollanılıw ózgesheligi haqqında ilimiy miynetler kóp emes. Shınında da, jas talant iyesi N.Baltaniyazova óziniń kishi kólemli gúrrińleri hám povestleri menen qaraqalpaq ádebiyatınıń rawajlanıwına úles qosıp kiyatırǵan bolsa, onıń tillik aspektleri búgingi kúnge shekem ele tolıq izertlew obyektine alınbaǵan. Ol óziniń biz izertlew obyektine alǵan “Baxıtlı kúndi izlep” povestinde obrazlardı ashıp beriw ushın kelbetliklerdi ónimli qollanadı.

Usıǵan baylanıslı kórkem shıǵarmanıń tilin úyreniw de hár qıylı boladı:

1. Qálegen kórkem shıǵarmanıń tili – ulıwma xalıqlıq tildiń belgili bir dáwirdegi kórinisin, hal-jaǵdayın sáwlelendiredi. Sonlıqtan da, qanday da bir dáwirdegi tildi úyreniw ushın tilshi ilimpazlar sol dáwirde jazılǵan kórkem shıǵarmalardan materiallar aladı. Bul jaǵdayda kórkem shıǵarmanıń tili arqalı ondaǵı lingvistikalıq qubılıslar úyreniledi,túsindiriledi.

2. Kórkem shıǵarmanıń tili ádebiy tildiń tariyxın úyreniw ushın xızmet etedi, sebebi hár qıylı dáwirlerde jazılǵan kórkem shıǵarmalarda tildiń rawajlanıw tariyxındaǵı hár qıylı nızamlıqlar, ózgerisler sáwlelenedi, til tariyxı ushın áhmiyetli materiallar saqlanadı, belgili bir kategoriyalardıń rawajlanıwı kórinedi. Al ayrım talantlı jazıwshılar óz shıǵarmalarınıń tili menen ádebiy til normalarınıń qáliplesiwine hám rawajlanıwına úlken tásir etiwi múmkin, olar ádebiy tildiń rawajlanıwınaúlken úles qosadı: Máselen Pushkin, Abay, Berdaq shıǵarmalarınıń tili.

3. Ádebiy shıǵarmanıń tiliniń kórkemligin úyrengende, onıń kórkemlik formalarınıń barlıq tárepleri emes, al tek kórkem obraz ushın jazıwshı tárepinen paydalanılǵan til quralları izertleniledi, yaǵnıyshıǵarmanıń jekke obrazlıq qurılısın jasawda jazıwshınıń til quralларınan qalay paydalanǵanlıǵı anıqlanadı. Jazıwshı kórkem obraz jasaw ushın solarǵa sáykes til quralların (sózlerdi, sóz formaların, konstrukciyalardı) izleydi, olardı tańlap qollanadı, kókem shıǵarmanıń mazmunı,obrazları solar arqalı kórinedi. Sonlıqtan da, D.N. Shmelevtiń kórsetkenindey, kórkem shıǵarmada tek ǵana «ne aytılǵanı emes, al ol haqqında qalay aytılǵanı úlken áhmiyetke iye.

Kelbetlik – qásiyetti, sapanı bildiretuǵın sóz shaqabı. Al qásiyet sapa zatlarda boladı. Sonlıqtan

kelbetlik sózlerdiń grammatikalıq mánisleri atlıq sózler menen baylanısqanda anıq kórinedi. Kelbetlik ózleri baylanısatuǵın atlıq sózlersiz jumsalsa zatlardıń atamasına atlıqlarǵa usaydı.

Kelbetlik termini latınsha (nomen) adjestivum – "qosaman, tutastıraman" degen atama menen sáykes keledi [2.154].

Búgin "Úlgili oqıwshılar" degen mektep múyeshine súwretin qıstırıp, muǵallim onı xoshametledi [1.8].

Oqıwshı atlıq sóziniń sıpatın bildiriw ushın "úlgili" kelbetlik sózin sheberlik penen qollanadı jas dóretiwshi. Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózliginde bul sózge tómendegishe anıqlama beriledi.

Úlgili kelbetlik. Tártipli, unamlı, jaqsı minezli, tárbiyalı. ...óziniń eń jaqsı úlgili isleri menen kóptiń kózine túsip, atağı shıqtı (J.Seytnazarova) [4.298].

Úlgili oqıwshılar sóz dizbegin qollanıw arqalı, tártipli, jaqsı minezli hám tárbiyalı mektep oqıwshılarınıń foto súwretleri qıstırılatuǵın mekteptiń doskası yaǵnıy júzin sáwlelendiredi jazıwshı.

Biybixan juwırıp barıp esikti ashtı. Qarasa kelgen úlken jastağı murtlash kisi [1.14].

Murtlash kelbetlik. Murtı uzın, murtı kelisken. Qızıl kóz murtlash ta juwasıdı (T.Qayıpbergenov) [3.199].

Jas dóretiwshi murtlash kelbetlik sózi arqalı sırttan kelgen eresek adamnıń sırtqı kórinisin táriyiplep beredi. Bul arqalı insannıń jasınıń úlkenligi, qanday da bir qatal sezimge iye ekenligin ańlawǵa boladı. Bul bolsa jas talant iyesiniń sóz tańlawdağı sheberligi, yaǵnıy kelbetlikti durıs tańlap qollanıwı dep qarawǵa boladı.

Hámmemizdiń ústimizden muzday suw quyılǵanday boldı [1.15].

Muzday kelbetlik. 1.Sup-suwıq, salqın. Muzday suwǵa juwınıp, Bağısha betke baraman (I.Yusupov). 2. Muzǵa usaǵan, muz sıyaqlı, muz tárizli, muz yańlı [3.194]

Bul sóz dizbegi arqalı insannıń tańlanıwı, qanday da bir hádiyseniń kútpegende bolıwın sóz etedi. Insannıń bunday waqıyalardan hádden tıs tolǵanıwı, qıynalıwı sheberlik penen sóz etilgen qatarlar arqalı sheberlik penen sóz etiledi.

Biyday reńli piste murın qara kózli shashı uzın óriwli adamlarǵa sıylasıqlı húrmet- izzetti óz jayına qoyadı [1.17].

Bir gáptiń ishinde bir neshe kelbetlik sózlerdiń qollanıwı jazıwshınıń sóz saplawdağı sheberliginiń sózligi ekenligin ańlaw qıyın emes. Mısalı: Biyday reńli, yaǵnıy reńi biydaydıń reńine uqsas ekenligin súwretlep beredi. Piste murın, bunda insannıń sırtqı kelbetin kórsetiwdegi súwretlep beriwdegi tiykarǵı dáreklerden biri dep qaraw orınlı. Qara kózli kóziniń reńin súwretlep beredi.

"Ózi de júyrik qoyan edi, tayaq tiygen son zıtıp ketti" degen ata- baba [1.24].

Kún jılıy basladı: appaq qardıń izleri ıńǵaylasqan muzları erip, erigen suw tamshıları terektiń shaqaların juwıp jiberedi [1.30].

Ádebiy shıǵarmada haqıyqıy turmıs suwretlenedi, biraq jazıwshı usı turmıstı hár qıylı sezimler, kórkem obrazlar arqalı bayanlap, oǵan óziniń qatnasıwın da ańlatadı. ol bunı oqıwshınıń sanasına,sezimine hártárepleme tásir etiw maqsetinde isleydi. Bunday obrazlıq tildegihár qıylı kórkemlew quralları arqalı iske asırıladı.

Kórkem tekst quramındağı til quralları avtordıń aytajaq pikirine, oyına sáykes bolıp keledi. onıń ushın jazıwshı tekst ústinde kóp miynetetedi, onı dóretedi, ózgertiwler kirgizedi, tolıqtıradı hám t.b. Sonıń nátiyjesinde haqıyqıy kórkem shıǵarma payda boladı. Sonlıqtan da ádebiy shıǵarmanıń tilin, ondağı til qurallarınıń qollanıw ózgesheliklerin, jazıwshınıń jeke dóretiwshiligin anıqlaw úlken áhmiyetke iye, sebebi, bul arqalı jazıwshınıń sheberligi, ádebiy tildi rawajlandırıwdağı úlesi, onıń jeke stili kórinedi.

Kórkem shıǵarmanıń tili birinshi gezekte, ádebiy tilden óziniń funkciyası boyınsha ózgeshelenedi: 1) ádebiy til hám onıń stilleri, tiykarınan, kommunikativlik funkciya, yaǵnıy adamlardıń óz ara pikir alısıwı ushın xızmet etedi; 2) kórkem shıǵarmada tildiń estetikalıq funkciyası birinshi orında turadı.

Ádebiy shıǵarma belgili bir waqıyanı xabarlawı menen birge, óziniń obrazlı mazmunı menen oqıwshıǵa tásir etedi.

Tildiń kommunikativlik funkciyasında sózdiń forması, onıń mazmunın bildiriwshi qural sıpatında qollanıladı, al sózdiń estetikalıq funkciyasında sóz tek mazmundı bildiriw menen sheklenbey, tildiń kórkem súwretlew quralı sıpatında sol mazmundı obrazlı, estetikalıq jaqtan tásirli etip kórsetiw ushın xızmet etedi. Kórkem

shıǵarmanıń estetikalıq tásirliligi jazıwshınıń ózi tárepinen qollanılǵan hár qıylı kórkem súwretlew quralları arqalı iske asadı. Bul til qurallarınıń estetikalıq tásirliligi tildiń kommunikativlik xızmetine qaraǵanda basım hám keń boladı.

Juwmaq. Juwmaqlap aytqanda, jas talanat iyesi Nesibeli Baltaniyazova óziniń bul povestinde qaraqalpaq tiliniń bay ekenligin, onıń sózlik quramnıń basqa túrkiy tillerden qalıspaytuǵınlıǵın dálillep kórsetedi. Bul ilimiy jumısımızda jas dóretiwshi qollanǵan kelbetlik sózlerdiń qollanılıw ózgesheligin ǵana ashıp beriwge háreket etkenbiz.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:
1. Baltaniyazova N. Baxıtlı kúndi izlep... Tashkent: Ádebiyat, 2022. – 95 b.
2.Dáwletov A. Til bilimi tiykarları. Joqarı oqıw orını talabalarına arnalǵan oqıw qollanba. Nókis: “Bilim”, 2007. 208 b.
3. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. Жети томлық. Бесинши том, [Текст]. – Нөкис: «Qaraqalpaqstan», 2023. – 400 бет.
4.Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. Жети томлық. Жетинши том, [Текст]. – Нөкис: «Qaraqalpaqstan», 2023. – 504 бет.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK:902:339.1:008(575.1)

ILK TEMIR CHOG‘I JANUBIY O‘ZBEKISTON HUDUDIDAGI ARXEOLOGIK YODGORLIKLARNING MUDOFAA XUSUSIYATLARI

Abdug‘aniev Ahrorjon Ahadjon o‘g‘li,
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti katta o‘qituvchisi

https://orcid.org/0009-0002-2428-8101

ОБОРОНИТЕЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ПАМЯТНИКОВ РАННЕГО ЖЕЛЕЗНОГО ВЕКА НА ТЕРРИТОРИИ ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА

Абдуганиев Ахрорджон Ахаджон угли,
старший преподаватель Национального исследовательского университета «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства»

DEFENSIVE FEATURES OF ARCHAEOLOGICAL SITES OF THE EARLY IRON AGE IN THE TERRITORY OF SOUTHERN UZBEKISTAN

Abduganiev Ahrorjon Ahadjon ugli,
Senior Lecturer at the National Research University “Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers”

Annotatsiya: *Maqolada janubiy O‘zbekiston hududida ilk temir davriga oid arxeologik yodgorliklarning mudofaa tizimlari va fortifikatsion arxitektura xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot Kuchuktepa, Qiziltepa, Bandixon I–II, Talashqontepa, Haitobodtepa va Jondavlattepa kabi yodgorliklar asosida olib borilgan. Ushbu manzilgohlarda aniqlangan ark, shahriston, burj, shinak, xandaq va platforma kabi arxitektura elementlari qadimgi Boxtar madaniyati doirasida harbiy-siyosiy tuzilmalarning shakllanganini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Ilk temir davri, janubiy O‘zbekiston, Boxtar madaniyati, fortifikatsiya, mudofaa devori, burj, shinak, qal’a, Qiziltepa, Haitobodtepa.*

Аннотация: *В статье рассматриваются особенности оборонительных сооружений и фортификационной архитектуры археологических памятников раннего железного века на территории Южного Узбекистана. Исследование основано на анализе памятников Кучук-тепа, Кызыл-тепа, Бандихан I–II, Талашкан-тепа, Хайтабад-тепа и Джондавлат-тепа. Выявленные элементы архитектуры — арк, шахристан, башни, бойницы, рвы и платформы — свидетельствуют о формировании военно-политических структур в рамках древней Бактрийской культуры.*

Ключевые слова: *Ранний железный век, Южный Узбекистан, Бактрийская культура, фортификация, оборонительные стены, башня, бойница, крепость, Кызыл-тепа, Хайтабад-тепа.*

Abstract: *The article analyzes the defensive structures and fortification architecture of Early Iron Age archaeological sites in Southern Uzbekistan. The study is based on the examination of key sites such as Kuchuktepa, Qiziltepa, Bandikhon I–II, Talashqontepa, Haitobodtepa, and Jondavlattepa. Architectural elements such as citadels (ark), urban sectors (shahristan), towers, loopholes, moats, and raised platforms demonstrate the emergence of military-political structures within the ancient Bactrian culture.*

Key words: *Early Iron Age, Southern Uzbekistan, Bactrian culture, fortification, defensive wall, tower, loophole, fortress, Qiziltepa, Haitobodtepa.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Miloddan avvalgi I ming yillik boshlaridan boshlab Turon hududida chuqur ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ayniqsa, janubiy O‘zbekiston, Tojikiston va shimoliy Afg‘onistonni qamrab olgan qadimgi Boxtar madaniyati doirasida barpo etilgan mustahkam mudofaa tizimlari va qal’alar bu o‘zgarishlarning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Mazkur inshootlar hududiy xavfsizlikni ta’minlash, tabiiy resurslar va savdo yo‘llari ustidan nazoratni mustahkamlashda muhim strategik ahamiyat kasb etgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Tadqiqot janubiy O‘zbekiston hududida joylashgan quyidagi arxeologik yodgorliklar tahliliga asoslangan: Kuchuktepa, Qiziltepa, Talashqontepa, Haitobodtepa, Jondavlattepa va boshqa manzillar. Metodik yondashuv sifatida Arxeologik qazishmalar natijalarini tahlil qilish, Fortifikatsion elementlarning (mudofaa devorlari, burjlar, shinaklar, xandaqlar, platformalar) morfologik va konstruktiv tahlili, qadimgi Boxtar madaniyatining ijtimoiy-siyosiy konteksti asosida tipologik taqqoslash usuli qo‘llanildi. Tadqiqotda A. Asqarov, A. Sagdullaev, E. Rtveladze, Sh. Pidayev va Sh. Shaydullayevlarning ilmiy ishlari ham asos sifatida foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA (РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ /RESULTS AND DISCUSSION). 1.Kuchuktepa. Kuchuktepa ilk temir davrining dastlabki bosqichiga mansub bo‘lib, to‘rtta qurilish bosqichidan iborat. Har bir bosqichda o‘zining funksional va me’moriy jihatdan takomillashib borishini ko‘rsatadi. Kuchuktepaning tepalik shaklidagi umumiy maydoni 0,5 gektarni tashkil etadi, balandligi 8 metr, diametri esa taxminan 50 metrga teng. Birinchi qurilish bosqichida, yer sathidan 4 metr balandlikda joylashgan platformada umumiy maydoni 60 m²dan ortiq bo‘lgan, to‘rt xil o‘lchamdagi xonadan iborat bino barpo etilgan. Bu inshoot kvadrat shaklga ega bo‘lib, ikki qator mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan. Ushbu holat, binoning dastlab mudofaa va ehtimol, ijtimoiy-ma’muriy maqsadlarga xizmat qilganini anglatadi [2]. Har bir bosqichda arxitektura va mudofaa tizimi takomillashib borgan. Inshoot dastlab kichik qo‘rg‘on sifatida shakllanib, mahalliy boshliq qarorgohi sifatida xizmat qilgan. Qurilishda xom g‘isht ishlatilgan, ikki qatorli mudofaa devorlari bilan mustahkamlangan. Tashqi devorlar (sharqiy tomon istisno) 50×30×8 sm o‘lchamdagi to‘g‘ri burchakli xom g‘ishtlardan tiklangan. Ichki devorlar ham xuddi shu materialdan barpo qilingan (birinchi qurilish gorizonti). Keyinchalik, binoning ichki qismi qayta qurilib, eski devorlar poydevor sifatida foydalanilgan va ularga 1,3 metr kenglikdagi yangi devorlar (ikkinchi qurilish gorizonti) qo‘shilgan. Ikkinchi qurilish bosqichida sezilarli o‘zgartirishlar va ichki rekonstruksiya ishlari amalga oshirilgan.

2. Qiziltepa. Janubiy O‘zbekistondagi eng yirik ilk temir davri shahri hisoblanadi (maydoni 30 gektar). Shahar uch qismdan – ark, shahriston va tashqi qismdan iborat bo‘lgan. Mil. avv. VI–IV asrlarda shahar devorlari 5 metrgacha qalinlashtirilgan, yarim aylana burjlar va shinaklar bilan jihozlangan. Qiziltepa qadimgi Boxtar davlatining ma’muriy markazlaridan biri bo‘lgan. Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, Qiziltepa o‘rnida dastlab miloddan oldingi 1-ming yillik boshlarida ekin-tikinchilik bilan shug‘ullangan aholi manzilgohi shakllangan. Keyingi bosqichlarda manzilgohning maydoni kengayib, shimoli-g‘arbiy qismida 2 gektarga teng ark qurilgan[6]. Bu hududda uy-joy imoratlari va mudofaa devorlari barpo etilgan.

3. Talashqontepa. Sherobod tumanidagi Talashqontepa (diametri 135 m) mukammal fortifikatsion tizimga ega bo‘lib, devorlar 15 ta burj bilan mustahkamlangan[3]. Arxeologik topilmalar (paykonlar, don saqlash xumlari, sopol idishlar) bu qal’aning harbiy-ma’muriy markaz sifatida faoliyat yuritganini ko‘rsatadi. Qal’ani 20-yuz yillikning 90-yillarida arxeologlar E.V. Rtveladze va Sh.R. Pidayevlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ular qal’ada olib borilgan qazishmalar natijasida bu inshootning murakkab mudofaa tizimiga ega bo‘lganligini aniqlashgan [4].

Talashqontepa I qal’asi doira va kvadrat shaklidagi arxitekturaviy tipga mansub bo‘lib, bu turdagi yodgorliklar kuchli fortifikatsiyasi va harbiy xarakteri bilan ajralib turadi. Ichki makonda uy-joylar faqat devorlar bo‘ylab joylashgani, markazda esa ochiq hovli qoldirilgani bu qal’aning ijtimoiy va mudofaa jihatlarini aks ettiradi.

4. Haitobodtepa va Jondavlattepa. Bu yirik shaharlar qadimgi Boxtar madaniyatining siyosiy markazlari bo‘lgan. Jondavlattepaning

umumiy maydoni 8 gektarni tashkil etib, shahar ark (qal'a) va shahriston qismlariga bo'lingan [1]. Haitobodtepa yodgorligi ham tashkiliy va arxitektura tuzilmasi jihatidan Jondavlattepaga yaqin bo'lib, u ham ark va shahristondan iborat, kuchli mudofaa tizimiga ega bo'lgan yirik shaharlar qatoriga kiradi. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Haitobodtepa ham qadimgi Boxtar madaniyati chog'ida barpo etilgan. Haitobodtepa shahristonining mudofaa devorlari atrofida olib borilgan tadqiqotlar uning harbiy-me'moriy rivojlanish darajasini ko'rsatadi [8]. Mudofaa devori 5 metr qalinlikda bo'lib, o'lchami 50–58 × 30 × 12–14 sm bo'lgan yirik to'rtburchak g'ishtlardan qurilgan. Devor 8 metr qalinlikka ega bo'lgan, 1,5 metr balandlikdagi paxsali poydevor ustiga qad rostlagan. Bunday konstruktiv yechim qadimgi Boxtar fortifikatsion me'morchiligida yangilik sifatida baholanadi.

6. Fortifikatsion tizimlarning umumiy tahlili. Sh. Shaydullayev tomonidan janubiy O'zbekiston ilk temir davri yodgorliklari quyidagi tipologik guruhlarga ajratiladi[7]:

1. *Shaharlar*. Har bir ekin-tikinchilik hududida, odatda bittadan yirik shahar mavjud bo'lgan. Bu shaharlar ark (ichki qal'a) va shahriston (aholi yashash qismi)dan iborat bo'lib, umumiy maydoni 22 gektargacha yetgan. Ark va shahriston mustahkam mudofaa devorlari bilan o'rab olingan bo'lib, devorlarning qalinligi 5–8 metrga yetgan (masalan, Qiziltepa, Haitobodtepa, Jondavlattepa). Haitobodtepada mudofaa devorining platforma (baland poydevor) ustiga qurilganligi arxitektura yondashuvining o'ziga xos namunasi hisoblanadi
2. *Qishloqlar*. Tarqoq joylashgan tepaliklar majmuasidan iborat bo'lib, Bandixon II yodgorligi atrofidagi qishloqlar shular jumlasidandir. Bu turdagi yodgorliklar aholi yashash joylarining qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan shaklini aks ettiradi.
3. *Harbiy istehkomlar*. Doira yoki kvadrat shaklida qurilgan qal'alar bo'lib, kuchli mudofaa xususiyatlariga ega bo'lgan. Ular asosan strategik jihatdan muhim nuqtalarda joylashgan bo'lib, harbiy xarakterga ega inshootlardir (masalan, Talashqontepa I, Bandixon II).
4. *Qo'rg'onlar.* Ular shahar va qishloqlar atrofida joylashgan nisbatan kichik arxeologik yodgorliklardir (masalan, Qizilcha I, VI). Ular ham o'ziga xos mudofaa elementlariga ega bo'lib, dastlabki fortifikatsion yondashuvlarni namoyon etadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/ CONCLUSION). Qadimgi Boxtar madaniyatiga oid ilk temir chog'i yodgorliklarining tipologik jihatdan tahlili ushbu chog'da harbiy-siyosiy barqarorlik va ijtimoiy tashkilotning murakkablashganini ko'rsatadi. Shaharlar, harbiy istehkomlar, qishloqlar va qo'rg'onlarning shakllanishi va ularning arxitekturasida kuzatiladigan farqlar bu madaniyatda iyerarxik joylashuv va funksional mutanosiblik mavjud bo'lganligini anglatadi. Ayniqsa, mudofaa inshootlarining murakkab tuzilishi – qal'alar, burjlar, shinaklar, platformalar va xandaqlarning keng qo'llanilishi – Boxtar aholisi harbiy tahdidga qarshi puxta tayyorgarlik ko'rganini bildiradi. Mudofaa me'morchiligi bilan bir qatorda harbiy texnologiyalarning, xususan, uch qirrali paykonlar kabi jangovar qurollarning paydo bo'lishi, ushbu chog'da harbiy ishlar ilmiy-amaliy asosda taraqqiy etganidan dalolat beradi. Shunday qilib, ilk temir chog'idagi Boxtar madaniyati harbiy-arxitektura yutuqlari Markaziy Osiyodagi ilk davlatchilik elementlarining shakllanishida muhim o'rin tutganini ko'rish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Dietrich Huff, Chakir Pidaev, Chapulat Chaydoullaev. Uzbek-German arhaeological researches in the Surkan Darya region. La Baktriane au carrefour des routes et des civilisations de l Asie centrale. Paris. 2001.
2. Аскаров А.А., Альбаум Л.И. Поселение Кучуктепа. Ташкент. 1979.
3. Ш.Х. Заппаров, Э.В. Ртвеладзе. Раскопки древнебактрийского поселения Талашкан-тепа I. Бактрийские древности. Ленинград. 1976.
4. Ртвеладзе Э.В., Ш.Р. Пидаев. Древнебактрийская крепость Талашкан-тепе I. РА. № 1. 1993.
5. Сагдуллаев А.С. Культура Северной Бактрии в эпоху поздней бронзы и раннего железа (по матераилам памятников района Шурчи-Байсуна). Автореф. дисс. канд. ист. наук. Л. 1978. С. 5.
6. А.С. Сагдуллаев. Усадьбы древней Бактрии. Ташкент. 1987.
7. Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон худудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари (Бақтрия мисолида). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация иши. Самарқанд. 2009.
8. Шайдуллаев Ш.Б. Северная Бактрия в эпоху раннего железного века. Ташкент. 2000.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 821.109.0121

OLQISH VA QARG‘ISH SO‘ZLAR PAREMIOLOGIK BIRLIK SIFATIDA

Norqobilova Nigora Uralovna,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o‘qituvchisi

ПОХВАЛЬНЫЕ И ПРОКЛИНАЮЩИЕ СЛОВА КАК ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ

Норкобилова Нигора Ураловна,
преподаватель Термезского университета экономики и сервиса

WORDS OF PRAISE AND CURSE AS PAREMIOLOGICAL UNITS

Norqobilova Nigora Uralovna,
Lecturer at Termiz University of Economics and Service

e-mail: nigora.norqobilova@gmail.com
https://orcid.org/0009-0003-1096-7389

Annotatsiya: *Ushbu maqolada olqish va qarg‘ish so‘zlarning paremiologik tizimdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada olqish va qarg‘ish birliklarining milliy-madaniy, semantik hamda stilistik xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, bu birliklarning xalq dunyoqarashi va qadriyatlar tizimidagi o‘rni ham izohlanadi.*

Kalit so‘zlar: *paremiologiya, olqish, qarg‘ish, maqol, xalq og‘zaki ijodi, madaniyat, semantika, tilshunoslik.*

Аннотация: *В данной статье анализируются роль и значение слов похвалы и проклятия в паремиологической системе. В статье освещаются национально-культурные, семантические и стилистические особенности единиц похвалы и проклятия. Также объясняется роль этих единиц в мировоззрении и системе ценностей народа.*

Ключевые слова: *паремиология, похвала, проклятие, пословица, фольклор, культура, семантика, лингвистика.*

Abstract: *This article analyzes the role and importance of words of praise and cursing in the paremiological system. The article highlights the national-cultural, semantic and stylistic features of applause and cursing units. The role of these units in the worldview and value system of the people is also explained.*

Key words: *paremiology, applause, cursing, proverb, folklore, culture, semantics, linguistics.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Paremiologik birliklar bilan paremiologiya fani shug‘ullanadi. Olimlarning fikricha, paremiologiya ham adabiyotshunoslar, ham tilshunoslar shug‘ullanadigan tarmoq, ya’ni u filologlarning tadqiqot maydoni. “Paremiologiya” – filologiyaning (paremiyalarni) o‘rganadigan va ularni tasnifini aniqlaydigan sohasi. Shuningdek, paremiologik materiallarni yig‘ish, saqlash va ishlov berish maqsadini ko‘zlagan alohida “paremiografika” fani ham mavjud [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Tilshunoslikda paremiologiya frazeologiyaning bo‘limi degan qarashlar mavjud. Y.P.Kuznetsovaning aytishicha, “paremiologiyaning asosiy vazifasi guruh, xalq va shunga o‘xshashlarning hayotiy tajribasiga asoslangan an’anaviy qadriyatlar va qarashlarni qisqa obrazli verbal (og‘zaki) ifodalash bo‘lib – *aforizm, vellerizm, deviz, qisqa topishmoq* va *xurofiy belgi, maksima, matal, maqol va antimaqol* (zidmaqol), *maqolsimon ibora, slogan va xalq hikmatlarini*

o‘rganishga va tasniflashga bag‘ishlangan frazeologiyaning bo‘limidir [5].

Ingliz tilshunosligida paremiologiya muammolari A.Teylor, V.Mider, A. Dandis, B.J.Uayt kabi angliyalik va amerikalik paremiologlar tomonidan ham o‘rganilgan. Angliyalik va amerikalik tadqiqotchilar asosiy e’tiborini turli tillar paremiologiyasini taqqoslash, qiyoslash masalalariga qaratishadi. Paremiologiyani o‘rganish psixologiya, adabiyotshunoslik, lingvistika, tarix, folkloristika va antropologiya nuqtayi nazaridan olib borilgan. Amerikalik tadqiqotchilar paremiyalar tarixini, struktuaviy va semiotik xususiyatlarining kelib chiqish tahlilini, ularni adabiy asarlarda yoki psixologik testlarda, ommaviy axborot vositalarida qo‘llanilishini o‘rganishgan [6].

O‘zbek tilida *maqol, matal, topishmoq* kabi og‘zaki xalq ijodining aforistik janrlar kompleksini o‘rganadigan fan sohasi paremiologiya deb ataladi. Aforistik janrlarni o‘rganadigan folkloristika sohasi ham “paremiologiya” deb nomlanadi [1].

N.T.Hotamov va B.I.Sarimsoqov o‘zlarining “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha lug‘ati”da “paremiologiya” terminini quyidagicha izohlagan: “1. Xalq og‘zaki ijodining *maqol, matal, topishmoq* kabi aforistik janrlarning majmui. 2. Folkloristikaning aforistik janrlarini o‘rganuvchi sohasi” [8].

N.Uluqovning xulosalariga ko‘ra “paremiologiya tilshunoslikning bo‘limlaridan biri bo‘lib, tildagi barqaror birikmalar maqol, matal va aforizmlar (hikmatli so‘zlar)ni o‘rganadi” [2]. Yana bir manbada maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralarni – paremalar tizimi ekanligi qayd etilgan.

МUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Hozirgi paytda olimlar ilgarigiga qaraganda paremalarga ancha ko‘proq birliklarni kiritishmoqda. Masalan, “paremalar to‘plamlari ***maqol*** va ***matallar***dan tashqari ***tez aytish, topishmoq, rivoyat, irim-sirim, qishloq xo‘jaligi xurofiy belgilari*** va ba’zan hamma ***tush ta’birlarini*** ham o‘z ichiga olmoqda” [7]. Biz esa olqish va qarg‘ish so‘zlarni paremiologik birlik sifatida tadqiq etishni taklif qilamiz.

Tadqiqotchi I.A Sedikova [4] qarg‘ish o‘zining funksional yo‘nalishini va ifoda xususiyatiga ko‘ra salbiy olqish tarzida ommalashganligini qarg‘ishning boshqa so‘zlardan farq qiluvchi asosiy xususiyati ekanligini aytadi. Muallif misol tariqasida bolgar tilshunosligida “Bog da in pojzin” (Xudo yarlaqasin) yoki “Bog da ti ubie” (Xudo olsin) kabi qarg‘ishlarni keltiradiki, bu misollar olqish va qarg‘ishlarning o‘zaro yaqinligidan dalolat beradi.

O‘zbek tilshunosligida birinchilardan bo‘lib qarg‘ishlarni tasnif qilib o‘z maqolasida keltirgan professor M.Murodovning “Olqish va qarg‘ish” maqolasida keltirib o‘tgan. Olim o‘zining ko‘p yillik olib borgan ekspeditsiyalari davomida kishiga nisbatan psixologik hukmning eng ta’sirchan, eng kuchli, eng o‘tkir vositalaridan biri hisoblangan qarg‘ishlarning ko‘plab namunalarini yozib olgan va o‘zining maqolasida 60 dan ortiq qarg‘ish turlarini chop ettirgan. M.Murodov birinchilardan bo‘lib qarg‘ishlarni “kishiga o‘lim tilash”, “kishiga yomonlik tilash”, “Odamga yomonlik tilab uning qalbini jarohatlash”, va “muhtojlik tilashga qaratilgan” qarg‘ishlarga bo‘lib tasnif qilgan. M.Murodov keyinchalik qarg‘ish haqidagi ilmiy ishini N.Hakimov va A.Ergashevlar bilan hamkorlikda ish qilgan holda olib bordi va boyitdi. Ularning hamkorligidagi “Olqish olgan omondir, qarg‘ish olgan yomondir” deb nomlangan maqolasida o‘z ishlarini yanada chuqurroq yoritib berganlar.

O‘zbek folklori qadimiy ildizlarga borib taqaladi. Unda xalqning urf-odatlari, an’analari, o‘y-xayollari, orzu-umidlari bilan birga qarg‘ishlari ham namoyon bo‘ladi. Qarg‘ish salbiy ma’noda eshitilishi mumkin. Ammo qarg‘ishlar faqat salbiy emas balki ijobiy ma’noda ham qo‘llaniladi. Masalan *Uying donga to‘lgur, Kabaga imom bo‘lgur, Bo‘yginang cho‘zilgur, Burning joynamozga tekkur* Bularning barchasi kattalarning bolalarga nisbatan ularning kelajagiga nisbatan aytilgan ijobiy qarg‘ishlardir. Ijobiy qarg‘ishlar bor bo‘lgani kabi salbiy qarg‘ishlar ham mavjuddir. Afsuski, ular juda katta qismni tashkil qiladi. Salbiy qarg‘ishlar insonga uning tana a’zolariga yoki oilasiga, ishiga mol-u dunyosiga qarata aytilgan yomon duodur. Qadimda odamlar qarg‘ish olishdan va qarg‘ish tegishidan juda qo‘rqqanlar. Xususan,

keksa kishidan ayniqsa ota-onadan qarg‘ish olmaslikka harakat qilingan. Xalq orasida “Ota qarg‘ishi - o‘q, ona qarg‘ishi - yo‘q” degan naql yurgan. Bu albatta bejizga aytilmagan. Sababi, farzand ota tufayli bu yorug‘ olam yuzini ko‘radi, ona esa uning dunyoga kelishi uchun vositachi xolos. Onalarning va bo‘lar-bo‘lmasga janjal ko‘taradigan og‘zi shaloq xotinlarning qarg‘ishi esa obyektga o‘tmaydigan qarg‘ishlar sirasiga kiradi. Ota-onalar farzandini hech qachon yomon bo‘lsin demaydi. Shu o‘rinda qarg‘ish ishlatilyotganda ijobiy qarg‘ishlardan foydalanishga harakat qilishgan.

Masalan *Uying bug‘doydan to‘lgur*, *Burning joynamozga tekkur*, *Ka’baga imom bo‘lgur* singari ijobiy qarg‘ish turlaridan ko‘proq qo‘llanilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Shu bilan biirga olqish — bu insonlarga, tabiat hodisalariga yoki hayotiy jarayonlarga nisbatan **ezgu niyat** va **duo** tarzidagi ifodadir. Masalan:

1. *Yuringiz ochiq bo‘lsin!*,
2. *Yaxshilik ko‘ring!*,
3. *Ko‘zingiz yorug‘ bo‘lsin!*

Qarg‘ish esa, aksincha, **salbiy hissiyot** yoki **la’nat** ifodalovchi birlikdir. Masalan:

1. *Qadamlaring toyilsin!*,
2. *Ko‘zing ko‘r bo‘lsin!*,
3. *Tilaging teskari bo‘lsin!*

Bu birliklar xalq tili va madaniyatining ajralmas qismi sifatida insonning ichki kechinmalarini, ijobiy va salbiy munosabatlarini ifodalaydi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Tahlillardan ma’lumki, paremiologiya — maqol, matal, ibora, olqish va qarg‘ish kabi **donishmandlik birliklarini** o‘rganuvchi soha. Ular qisqa, lekin semantik jihatdan boy bo‘lib, xalq tafakkurining qadimiy qatlamlarini ifodalaydi. Masalan, olqish: *Oyoqlaring yengil bo‘lsin!* — bu so‘z bilan xalq “omad”, “baraka”, “yaxshi yo‘l” tilaydi. Qarg‘ish: *Boshing toshdan bo‘lsin!* — bu salbiy munosabat, g‘azab yoki

Olqish va qarg‘ish so‘zlar xalqning qadimiy dunyoqarashida **mistik e’tiqodlar** bilan bog‘liq. O‘zbek xalqida so‘zning kuchiga, “duo”ning samarasiga ishonch katta. Shu bois, olqishlar ijobiy energiya, qarg‘ishlar esa salbiy kuch manbai sifatida qaralgan.

Olqish: *O‘g‘il ko‘r, oq yo‘lda yur!*

Qarg‘ish: *Yering qurisin!*

Ingliz tilida ham shunga o‘xshash birliklar mavjud.

Olqish: *Bless you!*, *May you succeed!*

Qarg‘ish: *Damn you!*,*“Go to hell!*

O‘zbek tilida diniy va ezgulik motivi kuchliroq, ingliz tilida esa hissiy, ba’zan sarkazmga asoslangan turlar ko‘proq uchraydi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, olqish va qarg‘ish so‘zlar xalq tilining qadimiy qatlamini tashkil etuvchi, madaniyat va axloqning o‘ziga xos ko‘zgusidir. Ular orqali insonlar bir-birlariga ezgulik yoki yomonlik tilash orqali jamiyatda ma’naviy aloqalarni mustahkamlaydilar. Paremiologik birlik sifatida olqish va qarg‘ishlar xalq tafakkuri, urf-odatlari, dunyoqarashi va til madaniyatini chuqur aks ettiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma’nolar maxzani. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 480 b.
2. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Barkamol fayz mediya”, 2016. – B.12.
3. Uralova O.P. Ingliz va o‘zbek tillarida “oila” bosh leksemali maqollar semantikasi va strukturasi. Filol. fanlari falsafa d-ri… diss. Samarqand, 2021. – 144 b.
4. Борджанова (Босангова) Т.Г. Обрядовая поэзия калмыков. - Элыста. Калм.кн.изд-во. 2007.
5. Кузнецова Е.П. Паремии в английской фразеологии // Альманах современной науки и образования . – Тамбов: Грамота, 2015. № 1 (91). – С. 65-68.
6. Ошева Е. Паремиологическое пространство: дискуссионные вопросы // Исследовательский журнал русского языка и литературы, 1(1). 2013. – С. 75-88.
7. Семененко Н.Н. Лингвокультурологическое описание структуры и семантики паремии: Дис. ...канд. филол. наук. – Белгород, 2002. – С.91.
8. Хатамов Н.Т., Сарымсаков Б.И. Русско-узбекский словарь литературоведческих терминов. – Ташкент: Ўқитувчи, 1979. – 366 с.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 902:339.1:102

XORAZMSHOHLAR DAVRIDA QURILGAN MADRASALAR

Tleumuratova Zulfiya Maxsetovna,
Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika instituti
"Sotsial-gumanitar fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

МЕДРЕСЕ, ПОСТРОЕННЫЕ В ПЕРИОД ХОРЕЗМШАХОВ

Тлеумуратова Зульфия Махсетова,
преподаватель кафедры социально-гуманитарных наук,
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

MADRASAHS BUILT DURING THE KHWARAZMSHAHS PERIOD

Tleumuratova Zulfiya Maxsetovna,
Lecturer, Department of Social and Humanitarian Sciences
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyoz

e-mail:
zulfiya.12@gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-2814-0367

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xorazmshohlar davrida qurilgan madrasalarning tarixiy va madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Madrasalarning arxitekturaviy xususiyatlari, ularning ilmiy hayotdagi roli va hududiy tarixi o'rganiladi. Shu bilan birga, Xorazmshohlar davridagi ta'lim tizimi va diniy-ma'rifiy markazlarning jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Xorazmshohlar, madrasalar, ilmiy faoliyat, arxitektura, diniy-ma'rifiy markazlar, tarix.*

Аннотация: *В данной статье анализируется историческое и культурное значение медресе, построенных в период Хорезмшахов. Рассматриваются архитектурные особенности медресе, их роль в научной жизни и региональная история. Кроме того, освещается система образования в период Хорезмшахов и социальное значение религиозно-просветительских центров.*

Ключевые слова: *Хорезмшахи, медресе, научная деятельность, архитектура, религиозно-просветительские центры, история*

Abstract: *This article analyzes the historical and cultural significance of madrasahs built during the Khwarazmshahs period. The architectural features of the madrasahs, their role in scholarly life, and regional history are examined. Additionally, the educational system of the Khwarazmshahs era and the social importance of religious and educational centers are highlighted.*

Key words: *Khwarazmshahs, madrasahs, scholarly activity, architecture, religious-educational centers, history.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Xorazmshohlar 1097–1231-yillar oralig'ida Xorazm, Xuroson va Eron hududida hukmronlik qilgan turkiy-islomiy davlatdir. O'rta asr siyosiy tarixida muhim o'rin tutgan Xorazmshohlar davrida ilmiy hayot haqida gapirishdan avval, ushbu hududning tarixi va Islom olamida bu davrgacha amalga oshirilgan ilmiy faoliyatlar haqida qisqacha ma'lumot berish lozim. Chunki ushbu davlatning ilmiy hayoti avvalgi ilmiy merosga tayangan holda shakllangan.

Xorazm, g'arbda O'g'uz turklarining yurtlari, janubda Xuroson, sharqda Movarounnahr, shimolda esa yana turk yerlariga tutash hududni anglatadi. Amudaryo (Jayhun) daryosining Orol dengiziga quyiladigan pastki qismigacha bo'lgan hudud Xorazm sifatida tanilgan. Eron, Xitoy, Hindiston kabi Osiyo mamlakatlari bilan Rossiyani bog'laydigan yo'llarning kesishgan nuqtasida joylashgan Xorazm, shuningdek, muhim tijorat markazi hisoblangan. Ushbu xususiyatidan tashqari, unumdor yerlarga ega bo'lishi tarix davomida Xorazmni odamlar uchun jozibali

markazga aylantirgan va hududni zich aholi yashagan joyga aylantirgan [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Ma'lumki, Xorazmshohlar davlati joylashgan hududda undan avval ham ko'plab sulolalar hukmronlik qilgan. Aslida "Xorazmshohlar" unvoni ushbu hududning boshqaruvchilari uchun ishlatilgan umumiy nom edi. Islom fathlaridan oldin hududdagi ilk Xorazmshohlar sulolasi Afrig'iylar (305–995) bo'lgan. Mazkur oila Umaviylar davrida, Qutayba ibn Muslim qo'mondonligi ostidagi Islom armiyasining 93/712-yilda Xorazmni zabt etishidan so'ng ham bir muddat hukmronligini davom ettirgan.

Somoniylar IX asr boshlarida viloyat markazi Katni egallab, bu hududlarni va Afrig'iylarni o'zlariga bo'ysundirishgan. Somoniylar hukmronligining oxirlarida esa Xorazmda Afrig'iylarga qarshi yangi sulola – Ma'muniylar (995–1017) paydo bo'lgan. Mazkur oilaga nomini bergan Ma'mun ibn Muhammad 995-yilda Afrig'iylarning oxirgi hokimi Abu Abdullohni o'ldirib, viloyatning yangi hukmdori bo'lgan [2].

Mahmud G'aznaviy XI asr boshlarida ichki nizolardan foydalanib Ma'muniylar sulolasiga barham bergan. Shu tariqa, G'aznaviylar davlati hukmronligi ostiga kirgan Xorazm hududlari ushbu davrda markazdan tayinlangan voliylar tomonidan boshqarilgan. Viloyatning ilk g'aznaviylardan tayinlangan voliysi, Sulton Mahmud tomonidan tayinlangan Altuntosh Hojib bo'lgan. Altuntosh va uning o'g'illari 1040-yilgacha G'aznaviylar nomidan Xorazmni boshqargan.

Keyinchalik hududda Saljuqiylar hukmronligi o'rnatilgach, Sultan Alp Arslon 1065-yilda Mang'ishloq safaridan so'ng hududni o'g'li Ayozga bergan. Biroq Xorazm hududi Alp Arslan va Malikshoh davrida bu yerda mavjud mahalliy rahbarlar orasidan tanlangan voliylar tomonidan boshqarilganligi ma'lum bo'ladi [3].

NATIJALAR VA MUHOKA-MA(РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ /RESULTS AND DISCUSSION). XII asrda hududda hukmronligi o'rnatilgan Xorazmshohlar davrida ilmiy hayotning rivojlanishida shubhasiz turkiy-islomiy dunyoning ilmiy qarashlari katta ta'sir ko'rsatgan. Xorazmshohlar davrida yangi tashkil etilgan madrasalar sultonlar, vazirlar va boshqa davlat amirlari tomonidan qurdirilgan. Z.Bunyodovning ta'kidlashicha, Xorazmshohlar davrida barpo etilgan madrasalarning qurilishi mashhur din olimlariga topshirilgan. Masalan, Xuroson hududida barpo etilgan bir madrasaning qurilishi uchun Nishopur muftiysi al-Balxiy, Nishopurdagi boshqa bir madrasaning qurilishi uchun esa shu yerning muftiysi va mudarrisi Faxriddin Abu Sobit Abdulaziz ibn Abduljabbar al-Kufiy tayinlangan edi [6].

Xorazmshohlar davrida Xorazm va Xuroson geografiyasida keng tarqalgan Hanafiy va Shofiiy mazhablariga muvofiq ta'lim beradigan madrasalar tashkil etilgan. Sulton Alouddin Takashning vazirlaridan biri bo'lgan Nizomulmulk Mas'ud ibn Ali Xorazmda katta bir madrasani qurdirgan edi. Ushbu muassasa Shofiiy fiqhiga ko'ra ta'lim berib, Nizomiyya madrasasi nomi bilan mashhur bo'lgan. Shuningdek, ayni vazir Xuroson hududida ham ko'plab obidalar qurdirgan, biroq bu obidalarning nima ekanligi haqida aniq ma'lumot yo'q.

Sulton Alouddin Takash esa Xorazmda Hanafiylar uchun Saljuq madrasalari bilan raqobat qiladigan darajada bir madrasani barpo ettirgan va ushbu muassasa Hanafiy faqihlariga vaqf qilingan. Shuni ta'kidlash kerakki, sultan Alouddin Takash 20 Ramazon 596 / 4-iyul 1200-yilda Niso yaqinida vafot etganida, uning jasadi o'g'li Alouddin Muhammad tomonidan Xorazmga olib kelingan va marhum sulton Gurganchda qurdirgan madrasaning maqbarasiga dafn etilgan [5].

Xorazmshoh Alouddin Muhammad esa 617/1220-yil shavval oyida vafot etgan va Kaspiy denizidagi Ashura oroliga dafn etilgan. Ammo o'g'li Jaloliddin Xorazmshoh 1229-yilda Ahlatni qamal qilgan vaqtida, otasining suyaklarini dafn ettirish maqsadida Isfahonda bir madrasani va uning ichida ulug'vor maqbarani barpo etishni buyurgan. Ushbu ish uchun Muqarrabiddin Muhammad ibn Ibrohim al-Xorazmiy (v. 625/1228) tayinlangan va unga 30.000 dinor berilib, Isfahonga yuborilgan. Qurilgan madrasada maqbara joylashgan qubba ham barpo etilgan. Shuningdek, saroylardagi kabi kir yuvish xonasi, kiyim xonasi, hojatxona ham mavjud bo'lgan. Muqarrabiddinga berilgan 30.000 dinordan tashqari, madrasaning qolgan xarajatlari Iroq vaziri tomonidan moliyalashtirilgan. Madrasaga berilgan

ko‘rsatmalarda shamlardan, yuvinish buyumlaridan, shuningdek, eshik oldida to‘liq jihozlangan xizmat otining bo‘lishi ham talab qilingan [4].

Xorazmshohlar davrida barpo etilgan madrasalardan yana biri Qazvin shahrida qurilgan. 542/1147-48-yillarda Nishopur shahrida zilzila yuz berib, bu zilziladan so‘ng aholining bir qismi ushbu hududni tark etgan edi. Shu davrda aholining bir qismi Qazvin shahriga kelgan. Ulardan biri, katta mol-mulkka ega bo‘lgan va bosh qozi lavozimida ishlagan Tojiddin Ali ibn Abdurrazzoq edi.

Qazvindagi ushbu madrasani qurdirgan shaxs, Ziyouddin Majidulmulk Tojiddin Ali ibn Abdurrazzoqning nabirasi bo‘lib, u ham qozilik qilgan. Biroq keyinchalik u bu lavozimni tark etib, Xorazmshoh huzurida vazirlik xizmatida ishlagan. Ziyouddin Majidulmulk Qazvin shahrida katta bir masjid, madrasalar, xonaqoh, hammom va bog‘larni barpo etib, ularni vaqf qilgan.

Shu davrda mo‘g‘ullar tomonidan qurilgan madrasaga ham guvoh bo‘lish mumkin. Chingizxonning o‘g‘li Tuluning rafiqasi Sorkotani Begi (v. 649/1252) nasroniy bo‘lishiga qaramay, musulmonlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lgan, imomlar va shayxlarga yordam bergan. Islomning rivoji uchun harakat qilgan Sorkotani Begi, Sayfiddin Boharziyga katta miqdorda mablag‘ yuborib, unga Buxoroda madrasa qurish vazifasini yuklagan. Shuningdek, atrofdagi ba’zi qishloqlarni sotib olib, ularning daromadidan qurilgan madrasaning ustozlari va talabalarini qo‘llab-quvvatlaydigan vaqf tashkil qilgan. Ushbu madrasaning nomi Xoniya madrasasi bo‘lib, uning mutavalli va mudarrisi Sayfiddin Boharziy edi [3].

Xorazmshohlar davrida madrasalardagi ta’lim-tarbiya faoliyatlarini rivojlantirish nafaqat davlat, balki jamiyatning taraqqiyoti nuqtai nazaridan ham juda muhim edi. Aslida, rasmiy hujjatlarda ushbu masalaga oid bir qator ma’lumotlar mavjud.

Muayyad Bag‘dodiyning “at-Tavassul” nomli asarida keltirilgan bir farmon davlat va sultonlarning madrasalarda berilayotgan ta’limga bo‘lgan munosabatini ochib beradi. Ushbu farmonda madrasalarning rivojlanishi uchun, olimlardan o‘zaro yoki xalq bilan uchrashganlarida madrasalardan bahs qilishlari, bu muassasalarni tanitishlari va odamlarni yo‘naltirishlari talab qilingan [3]. Shuningdek, xalqni madrasalarda ta’lim olishga undash bilan birga, olimlardan ham bu muassasalarda dars berishlari so‘ralgan. Ushbu xatti-harakatlar orqali ilm o‘rganmoqchi bo‘lgan va madrasalardan foydalangan shaxslar ruhlantirilgan. Farmonda ilm ahli tomonidan qilinadigan bu sa’y-harakatlar Alloh huzurida ham qabul qilinishi ta’kidlangan [6].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/ CONCLUSION). Xorazmshohlar davrida madrasalar nafaqat diniy ta’lim markazi, balki jamiyatning ilmiy, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. Ushbu davrda sultonlar, vazirlar va yuqori davlat amirlari tomonidan madrasalar qurdirilib, mashhur olimlar ularning faoliyatiga jalb qilingan. Madrasalarning qurilishi va rivojlanishi davlat siyosati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa-da, bu jarayon jamiyatni ilmiy va ma’naviy jihatdan taraqqiy ettirishga xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Abbosiy Javod. “Rashiduddin Vatvot va Oyinayi tarix. – Istanbul. 1912.
2. Abdul G‘afur Muhammad. Gurlar tarixi, madaniyati va boshqaruvi. – Gamburg: Gamburg Universiteti, 1960.
3. Bag‘dodiy Bahouddin Muhammad Muayyad. At-Tavassul. – Tehron. 1310-hijriy-shamsiy. – 456 b.
4. Bosworth Clifford Edmund Ale Maʾmun. Encyclopaedia Iranica, Vol. I, Fasc. 7. 1984. – P. 762–764.
5. Brockelmann Carl. Curcani. Geschichte Der Arabiscen Litteratur. – Leiden. 1943.
6. Bunyodov Z. Xorazmshohlar-Anushteginiylar davlati. 1097-1231. – Moskva: Fan, Sharq adabiyoti bosh muharriri, 1986.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 004.9:37.018.43

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O‘QUV JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISH UCHUN INTERFAOL ELEKTRON TA’LIM RESURSLARINI ISHLAB CHIQISH

Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti “Matematika” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

РАЗРАБОТКА ИНТЕРАКТИВНЫХ ЭЛЕКТРОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ ДЛЯ ОПТИМИЗАЦИИ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ

Нурмаханов Кайрат Ерпайызович, доцент кафедры «Математика» Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

DEVELOPMENT OF INTERACTIVE E-LEARNING RESOURCES TO OPTIMIZE THE EDUCATIONAL PROCESS IN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION

Nurmakhanov Kayrat Erpayizovich, Associate Professor, Department of Mathematics, Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

e-mail:
nurmakhanovk88@gmail.com

https://orcid.org/0009-0005-4449-7148

Annotatsiya: *Maqolada zamonaviy raqamlashtirish sharoitida elektron ta’lim resurslarini (ETR) ishlab chiqishning pedagogik va texnologik jihatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot ADDIE modeli asosida “Informatika” fanining “Ma’lumotlar bazalari” mavzusi uchun interfaol ETR yaratish va uning samaradorligini eksperimental tekshirishga bag‘ishlangan. Natijalar ETRning o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirish darajasi va kognitiv faolligini oshirishda an’anaviy usullarga nisbatan samaradorligini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *Elektron ta’lim, interfaol resurs, raqamlashtirish, ADDIE modeli, pedagogik dizayn, virtual simulyator, ta’lim samaradorligi.*

Аннотация: *В статье рассматриваются педагогические и технологические аспекты разработки электронных образовательных ресурсов (ЭОР) в условиях современной цифровизации. Исследование посвящено созданию интерактивного ЭОР по теме «Базы данных» для предмета «Информатика» на основе модели ADDIE и экспериментальной проверке его эффективности. Результаты подтверждают эффективность ЭОР в повышении уровня усвоения знаний и когнитивной активности учащихся по сравнению с традиционными методами.*

Ключевые слова: *Электронное обучение, интерактивный ресурс, цифровизация, модель ADDIE, педагогический дизайн, виртуальный симулятор, эффективность обучения.*

Abstract: *The article examines the pedagogical and technological aspects of developing e-learning resources (ELR) in the context of modern digitalization. The research is dedicated to creating an interactive ELR for the "Databases" topic in Computer Science based on the ADDIE model and experimentally testing*

its effectiveness. The results confirm the effectiveness of the ELR in increasing students' knowledge acquisition and cognitive activity compared to traditional methods.

Key words: *E-learning, interactive resource, digitalization, ADDIE model, pedagogical design, virtual simulator, educational efficiency.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatning globallashuvi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ning jadal rivojlanishi ta'lim sohasida chuqur o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Raqamlashtirish – bu nafaqat texnologik yangilik, balki ta'lim mazmuni, shakllari va metodlarini tubdan qayta shakllantirishni talab qiluvchi global jarayondir. So'nggi yillardagi dunyo tajribasi, ayniqsa pandemiya davri, an'anaviy ta'limning cheklovlarini va elektron ta'lim resurslarining (ETR) ahamiyatini aniq ko'rsatib berdi.

Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab ta'lim muassasalari ETRlarni oddiy skanerlangan matnlar, statik prezentatsiyalar yoki videolar to'plami sifatida tushunish bilan chegaralanib qolmoqdalar. Bunday "raqamlashtirilgan darsliklar" o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlamaydi, bu esa ularning bilimlarni chuqur o'zlashtirish darajasiga va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababdan, dolzarb muammo nafaqat kontentni raqamli shaklga o'tkazish, balki uni o'quvchilarning faoliyatini, mustaqil izlanishini va amaliy ko'nikmalarini rag'batlantiruvchi interfaol, pedagogik jihatdan asoslangan resurslarga aylantirishdan iborat. Ushbu maqolaning magsadi raqamlashtirish sharoitida o'quv jarayonini optimallashtirishga qaratilgan interfaol elektron ta'lim resursini ishlab chiqish, joriy etish va uning samaradorligini pedagogik eksperiment orqali baholashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ETRlarni loyihalashda tizimli yondashuv talab qilinadi. Xalqaro tadqiqotlarda ADDIE (Analysis, Design, Development, Implementation, Evaluation), SAM va Dick and Carey kabi modellar keng qo'llaniladi [1, 2]. Vygotskiy L.S. ning konstruktivizm teoriyasi ta'kidlashicha, bilimlar faol faoliyat jarayonida shakllanadi, bu ETRlarning interfaolligini oshirish zaruratini ko'rsatadi [3]. Shuningdek, M.G.Keyning ta'kidlashicha, multimedia tamoyillari asosida yaratilgan resurslar o'rganish samaradorligini sezilarli oshiradi [4].

Tadqiqot metodologiyasi quyidagilardan iborat:

1. **Ishlab chiqish modeli:** ETRni yaratish uchun ADDIE modeli tanlandi, chunki u tizimli va iterativ yondashuvni ta'minlaydi.

- **Tahlil (Analysis):** "Informatika" fanidagi "Ma'lumotlar bazalari va SQL so'roqlari" mavzusi tanlandi. O'quvchilarning dastlabki bilim darajasi test orqali aniqlandi.
- **Dizayn (Design):** Resursning mantiqiy tuzilishi, interfeysi va interfaol elementlari (virtual SQL simulyatori, interfaol testlar, drag-and-drop vazifalar) loyihalandi.
- **Ishlab chiqish (Development):** Resurs HTML5, CSS3, JavaScript texnologiyalari yordamida ishlab chiqildi. SQL simulyatori brauzerda ishlaydigan va o'quvchilarga so'rov yozish va natijani darhol ko'rish imkoniyatini beruvchi virtual muhit sifatida yaratildi.
- **Joriy etish (Implementation):** Resurs 10-sinf o'quvchilariga taqdim etildi.

2. **Tadqiqot dizayni:** Eksperimental guruh (n=30) va nazorat guruhi (n=30) o'rtasida solishtirma pedagogik eksperiment o'tkazildi.

3. **Ma'lumot yig'ish usullari:**

- **Miqdoriy:** Bilim darajasini o'lchash uchun pre-test va post-test.
- **Sifatiy:** Eksperimental guruh o'quvchilari va o'qituvchisi bilan chuqur intervyu.

4. **Statistik tahlil:** Olingan ma'lumotlarni SPSS 26 dasturida T-test yordamida statistik tahlil qilish.

Natijalar

Tadqiqot davomida quyidagi natijalar olindi:

1. **Bilim darajasidagi o'zgarish:** Pre-test natijalari guruhlar o'rtasida statistik ahamiyatli farq ko'rsatmadi ($p>0,05$). Post-test natijalariga ko'ra, eksperimental guruh o'rtacha bali (84,5±4,2) nazorat guruhiga (72,3±5,8) nisbatan ancha yuqori bo'lib, bu farq statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlandi ($p<0,01$).

2. **Amaliy ko'nikmalar darajasi:** SQL so'rovlarini tuzish bo'yicha amaliy vazifalarda

eksperimental guruh o‘quvchilari nazorat guruhiga nisbatan 40% yuqori natijaga erishdilar.

3. **Foydalanuvchilar tajribasining sifatiy tahlili:** Intervyular natijasida quyidagi ijobiy jihatlar aniqlandi:

- **Virtual simulyator** mavzuni tushunishni osonlashtirdi va “o‘yin kabi” qiziqarli tajriba yaratdi.
- **Darhol olinadigan fikr** (testlar va simulyatordan) xatolarni tuzatishga yordam berdi.
- Resurs **mustaqil o‘rganish** imkoniyatini berdi.

Muhokama. Olingan natijalar ETRni ishlab chiqishda qo‘llanilgan metodologiyaning samaradorligini tasdiqlaydi. ADDIE modelining tizimli yondashuvi resursning pedagogik va texnologik jihatlarini uyg‘unlashtirishga imkon berdi. Eksperimental guruhning yuqori natijalari, birinchi navbatda, ETRning interfaolligi va amaliyotga yo‘naltirilganligi bilan izohlanadi. Virtual SQL simulyatori o‘quvchilarga nafaqat nazariyani, balki amaliy ko‘nikmalarni ham egallash imkoniyatini berdi, bu konstruktivizmning asosiy talablariga mos keladi [3].

Olingan natijalar M.G.Keyning multimedia tamoyillari haqidagi tadqiqotlari bilan ham mos keladi [4]. Interfaol elementlar va virtual muhit o‘quvchilarning bir vaqtning o‘zida bir nechta sezgi organlarini jalb qilishiga va shu orqali ma’lumotlarni yaxshiroq yodda saqlashiga xizmat qildi.

Ushbu tadqiqot natijalari raqamlashtirish sharoitida interfaol elektron ta’lim resurslarini ishlab chiqish va joriy etishning samaradorligini aniq ko‘rsatdi. Olingan ma’lumotlarni chuqurroq tahlil qilish va ilmiy adabiyotlar bilan solishtirish orqali quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin.

Tadqiqotimiz natijalari shuni ko‘rsatadiki, ETRni ishlab chiqishda qo‘llanilgan ADDIE modeli resursning pedagogik jihatdan asoslangan bo‘lishini ta’minladi. Bu modelning tizimli yondashuvi har bir bosqichda aniq maqsadlar belgilash va ularga erishish yo‘llarini ishlab chiqish imkonini berdi. Xususan, tahlil bosqichida o‘tkazilgan ehtiyojlar tahlili, mavzuning an'anaviy usulda o‘qitilishidagi muammolarni aniq belgilab, ularni bartaraf etishga yo‘naltirilgan yechimlarni ishlab chiqishga yordam berdi.

Bu natijalar Branch (2009) va Aldoobie (2015) tadqiqotlari bilan mos keladi, ular ADDIE modelining tizimli va iterativ tabiatini ta’kidlaydilar [1,2]. Bizning tadqiqotimiz shuni ko‘rsatdiki, modelning har bosqichida baholash va takomillashtirish jarayoni resursning sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qildi.

Eksperimental guruhning yuqori natijalari, birinchi navbatda, ETRning konstruktivistik yondashuv asosida ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi. Virtual SQL simulyatori o‘quvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham mustaqil ravishda qurish imkoniyatini berdi. Bu Vygotskiy (1978) tomonidan ilgari surilgan "qurilish orqali o‘rganish" (learning by building) konsepsiyasining amaliy tatbiqidir [3].

O‘quvchilarning virtual simulyator bilan ishlash jarayonida ular faol konstruktor rolini o‘ynadilar, bu esa an'anaviy o‘qitish usullarida mavjud bo‘lmagan imkoniyatdir. Bu holat konstruktivistik yondashuvning asosiy prinsiplari - bilimlarning faol qurilishi va amaliy faoliyat orqali o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq.

Tadqiqotimiz natijalari Mayer (2009) ning multimedia o‘rganish tamoyillari bilan ham mos keladi [4]. Interfaol elementlar, vizual sxemalar va virtual muhit o‘quvchilarning bir vaqtning o‘zida bir nechta sezgi organlarini jalb qilishiga xizmat qildi, bu esa ularning kognitiv yuklanishini optimallashtirdi va ma’lumotlarni yodda saqlash samaradorligini oshirdi.

Xususan, "qo‘shni printsip" (contiguity principle) asosida matn va grafik elementlarning yaqin joylashtirilishi, "qayta ishlash printsipi" (coherence principle) asosida keraksiz ma’lumotlarning chiqarib tashlanishi o‘quvchilarning diqqatini muhim tarkibiy qismlarga qaratishiga yordam berdi.

Sifatli tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, interfaol ETR nafaqat kognitiv, balki motivatsion va affektiv sohalarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. O‘quvchilarning intervyularida "o‘yin kabi", "qiziqarli", "ajoyib tajriba" kabi iboralar takrorlanishi resursning motivatsion jihatdan jozibadorligini ko‘rsatadi.

Bu holat o‘ziga xos "o‘yinlashtirish" (gamification) elementlarining mavjudligi bilan izohlanadi, bu esa o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va qo‘zg‘atuvchi qildi. Virtual simulyator orqali darhol olinadigan fikr (immediate feedback)

o‘quvchilarga o‘z bilimlarini tekshirish va takomillashtirish imkoniyatini berdi, bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirdi.

Cheklovlar: Tadqiqot bitta mavzu va kichik tanlov doirasida o‘tkazilgan. Resursni yaratish vaqt va maxtexnik bilimlarni talab qiladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin:

1. Pedagogik jihatdan asoslangan interfaol ETR an’anaviy o‘qitish usullariga nisbatan o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Eksperimental guruhning post-test natijalari nazorat guruhiga nisbatan 16.8% yuqori bo‘ldi, bu farq statistik jihatdan ahamiyatlidir ($p < 0.01$).

2. ADDIE modeli ETRni ishlab chiqishda samarali vosita bo‘lib, resursning pedagogik va texnologik jihatlarini uyg‘unlashtirishga imkon beradi. Modelning tizimli va interaktiv tabiati loyihani sifatli rejalashtirish va amalga oshirishni ta’minladi.

3. Virtual simulyatorlar murakkab va abstrakt mavzularni o‘qitishda ayniqsa samarali bo‘lib, o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalarga aylantirish imkoniyatini beradi. SQL simulyatori yordamida o‘quvchilarning amaliy mashqlarni bajarish darajasi 40% ga oshdi.

4. Interfaollik va multimedia elementlari o‘quvchilarning motivatsiyasi va kognitiv faolligini oshiradi, bu esa o‘rganish samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Foydalanuvchilar tajribasining sifatiy tahlili resursning qiziqarliligi va foydalanish qulayligini tasdiqladi.

5. Raqamlashtirish sharoitida ta’lim sifatini oshirish nafaqat kontentni raqamli shaklga o‘tkazish, balki uni pedagogik jihatdan asoslangan, interfaol va o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlovchi resurslarga aylantirishni talab qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqilgan interfaol elektron ta’lim resursi nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, balki ularning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, kognitiv qobiliyatlarini oshirish va o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv boshqa ta’lim sohalarida ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan istiqbolli model sifatida xizmat qiladi.

Kelajakda ushbu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar ta’lim jarayonini yanada shaxsiylashtirish va samaradorligini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, raqamlashtirish sharoitida sifatli ta’limni ta’minlashning kaliti – bu ETRlarni nafaqat ma’lumot manbai, balki o‘quvchining faol hamkori sifatida qarashdan iborat. Pedagogik jihatdan asoslangan va zamonaviy texnologiyalar yordamida yaratilgan interfaol resurslar, xususan, virtual simulyatorlar, o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirish darajasi, amaliy ko‘nikmalari va kognitiv faolligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ishlab chiqilgan ETR boshqa fanlar va ta’lim bosqichlari uchun shunga o‘xshash resurslarni yaratishda namuna bo‘la oladi. Kelajakda sun’iy intellekt elementlarini qo‘shish orqali resurslarni yanada shaxsiylashtirish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Branch, R. M. (2009). *Instructional Design: The ADDIE Approach*. Springer.
2. Aldoobie, N. (2015). ADDIE Model. *American International Journal of Contemporary Research*, 5(6), 68-72.
3. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
4. Mayer, R. E. (2009). *Multimedia Learning* (2nd ed.). Cambridge University Press.
5. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. *Ta’limda axborot texnologiyalari*. – T.: Fan va texnologiya, 2018. – 156 b.
6. Jo‘rayev M.N. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – T.: O‘qituvchi, 2020.214 b.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 614.23:378.(063)

ZAMONAVIY TA'LIMDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR

Shadmanov Mirzamaxmud Alisherovich, Andijon davlat tibbiyot instituti "Urologiya" kafedrasi mudiri, tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

Шадманов Мирзамахмуд Алишерович, заведующий кафедрой урологии Андижанского государственного медицинского института, доктор философии (PhD) в области медицины, доцент

FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCIES IN MODERN EDUCATION: THEORETICAL AND PRACTICAL APPROACHES

Shadmanov Mirzamakhmud Alisherovich, Head of the Department of Urology, Andijan State Medical Institute, Doctor of Philosophy in Medicine (PhD), Associate Professor

https://orcid.org/0009-0009-3774-8075
e-mail:
anurodoc@mail.ru

Annotatsiya: *Urologiya kabi amaliy fanlarni o'qitishda talabalarning mustaqil fikrlashi, klinik holatlarni tahlil eta olish, zamonaviy diagnostika va davolash usullarini o'zlashtirish uchun interfaol va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarurdir. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, "Aqliy hujum" texnologiyasidan foydalanish urologiya fanini o'qitishda talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Tadqiqotning natijalariga ko'ra, tajriba guruhi talabalari an'anaviy usulda ta'lim olgan guruhga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalar bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishgan. Ularda klinik fikrlash, muammoli vaziyatni tahlil qilish, jamoaviy muhokamada faol ishtirok etish hamda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlari shakllangani aniqlandi.*

Kalit so'zlar: *urologiya, talaba, pedagogik maxorat, samaradorlik, innovatsion texnologiyalar, ko'nikma, malaka.*

Аннотация: *При преподавании прикладных дисциплин, таких как урология, необходимо использовать интерактивные и инновационные педагогические технологии для развития самостоятельного мышления студентов, умения анализировать клинические случаи и владеть современными методами диагностики и лечения. Результаты исследования показывают, что использование технологии «Мозговой штурм» является эффективным инструментом для совершенствования знаний, умений и компетенций студентов в области преподавания урологии. Согласно результатам исследования, студенты экспериментальной группы достигли более высоких показателей по знаниям, умениям и компетенциям по сравнению с группой, получавшей образование по традиционной форме. Установлено, что у них развиты навыки клинического мышления, анализа проблем, активного участия в групповых дискуссиях и самостоятельного принятия решений.*

Ключевые слова: *урология, студент, педагогическое мастерство, эффективность, инновационные технологии, навык, квалификация.*

Annotation: *When teaching applied disciplines, such as urology, it is necessary to use interactive and innovative pedagogical technologies to develop students' independent thinking, ability to analyze clinical cases and master modern methods of diagnosis and treatment. The results of the study show that the use of Brainstorm technology is an effective tool for improving the knowledge, skills and competencies of students in the field of teaching urology. According to the results of the study, the students of the experimental group achieved higher rates in knowledge, skills and competencies compared to the group educated in the traditional form. It was found that they have developed the skills of clinical thinking, problem analysis, active participation in group discussions and independent decision-making.*

Key words: *urology, student, teaching skills, efficiency, innovative technologies, skill, qualification.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida inson kapitalining sifati har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. XXI asrda ta'lim tizimi oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri — bu raqobatbardosh, innovatsion fikrlaydigan va kasbiy jihatdan yetuk mutaxassislarni tayyorlashdir. Shu boisdan zamonaviy ta'lim jarayonlarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish masalasi markaziy o'rinda turadi.

Albatta, quruq axborotlar hech kimni qiziqtirmaydi. Shuning uchun ham o'qituvchi o'z darsini qiziqarli o'tishga, materialni his-tuyg'u bilan berish uchun ovozidan, yuz qiyofasidan, xatti-harakati bilan berib, darsning ta'sirchanligini oshirishga harakat qiladi. O'quvchilarda ijobiy his-tuyg'u uyg'otgan axborot mustahkam bo'ladi. Psixologiya fanida ko'pincha his-tuyg'uni, axloqiy, intellektual, mehnat va estetik his-tuyg'ular farqlanib, uni chaqiruv omillar bo'yicha turlarga ajratadilar. Kan-Kalikning fikricha "estetik his-tuyg'u"dan boshqa his-tuyg'u yo'q [2, 3, 4, 6, 9, 11, 12, 14]. Yuqorida keltirilgan sohalar: mehnat, san'at, intellektualli ish va boshqalar faqat estetik his-tuyg'uni paydo qiladi. Albatta, his-tuyg'u yuqoridagi sohalarning go'zalligi, yuksakligi, ajoyibligi bilan ijobiy his-tuyg'uni yuzaga keltiradi. Agar mehnat, san'at va boshqalar arzimas, ko'rimsiz, xunuk bo'lsa salbiy his-tuyg'udan boshqa hech narsani chaqirmaydi [3, 4, 6, 8 9, 11, 13, 15, 16].

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish borasida qabul qilingan hujjatlar — "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Yangi O'zbekiston – Yangi ta'lim" konsepsiyasi, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi — o'qitish jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etishni nazarda tutadi. Ayniqsa, interfaol metodlar, shu jumladan "Aqliy hujum", "Klaster", "Keys-stadi" kabi texnologiyalar o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida e'tirof etilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi - pedagogik texnologiyalar yordamida urologiya fanidan talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini baholash.

Tadqiqotning obyekti va usullari. Urologiya kabi amaliy fanlarni o'qitishda talabalarning mustaqil fikrlashi, klinik holatlarni tahlil eta olish, zamonaviy diagnostika va davolash usullarini o'zlashtirish uchun interfaol va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarurdir. Ana shunday metodlardan biri — "Aqliy hujum" (Brainstorming) texnologiyasi bo'lib, u talabalarning ijodiy tafakkurini faollashtirish, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotda "Aqliy hujum" texnologiyasi yordamida urologiya fanini o'qitishda talabalarning nazariy va amaliy tayyorgarligini baholash, kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonining samaradorligini aniqlash maqsad qilib olindi. Ushbu metodda o'qituvchi tomonidan og'zaki tarzda berilgan savollarga talabalar qisqa, aniq va mustaqil javob beradilar. Yozma shaklda esa talabalar o'z fikrlarini kartochkalarga qisqa yozib, ularni doskaga (magnit yoki pinbord orqali) mahkamlaydilar. Metod to'g'ri va tizimli qo'llanganda, u shaxsni erkin, ijodiy hamda nostandart fikrlashga o'rgatadi.

Urologiya fanidagi mavzularni o'zlashtirishda ta'lim samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov jarayoniga 165 nafar asosiy guruh va 147 nafar nazorat guruhi talabalari jalb qilindi.

Tadqiqot natijalari. "Aqliy hujum" texnologiyasi asosida har ikkala guruh talabalari uchun "Buyraklar va siydik yo'llarining funksional anatomiyasi va fiziologiyasi" mavzusi bo'yicha quyidagi savollar taqdim etildi:

1. Buyrakning funksional birligi – nefron tuzilishi qanday?
2. Siydik nayi anatomiyasi va fiziologiyasi haqida.
3. Qovuqning anatomiyasi va fiziologiyasi haqida.
4. Moyak va moyak ortig‘ining anatomiyasi hamda fiziologiyasi.

Talabalar savollar asosida mustaqil fikrlash, tahlil qilish va o‘z nuqtai nazarlarini asoslashga harakat qildilar. Natijada nazorat guruhida 87 nafar (59,1%) talaba yaxshi, 60 nafar (40,8%) talaba qoniqarli javob berdi. Tajriba guruhida esa 147 nafar (89,1%) talaba yaxshi, 18 nafar (10,9%) talaba qoniqarli natija ko‘rsatdi.

1-jadval

O‘qituvchi tomonidan “Aqliy hujum” texnologiyasining samarali tashkil etilganligi (%)

Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi (n=147)		Asosiy guruh (n=165)		χ^2	P
	n	%	n	%		
Mavzu bo‘yicha savollarning to‘g‘ri qo‘yilganligi	86	58,5	138	83,6	24,25	<0,001
Savollardagi aniqlik	57	38,7	84	50,9	4,62	<0,05
Amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish	77	52,3	148	86,9	53,83	<0,001
O‘zlashtirilgan bilimlarni tahlil qila olish	68	46,2	127	76,9	31,28	<0,001
Javoblarni ilmiy asosda tahlil eta olish	33	22,4	154	93,3	162,67	<0,001
O‘z fikrini ifoda etish madaniyati	26	17,6	146	88,4	157,52	<0,001

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, tajriba guruhi talabalarida bilim, ko‘nikma va malakalarning shakllanish darajasi nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori bo‘lgan. Bu, avvalo, “Aqliy hujum” usuli orqali talabalarning faol fikrlash, mustaqil tahlil qilish va muammoga yechim topish qobiliyatlarining rivojlangani bilan izohlanadi.

2-jadval

“Aqliy hujum” texnologiyasining samaradorligiga talabalar munosabati (%)

№	Savollar	Nazorat guruhi (n=147)	Asosiy guruh (n=165)	χ^2	P
1	Mavzu va uning dolzarbligi sizga qiziqarlimi?	57	87	22,32	<0,001
2	Savollar mavzuni o‘zlashtirishda sizni qoniqtirdimi?	68	84	7,02	<0,01
3	Javob uchun ajratilgan vaqt yetarlimi?	59	77	7,44	<0,01
4	Olingan natija sizni qoniqtirdimi?	52	75	11,41	<0,001
5	Mazkur texnologiya sizning o‘quv jarayonida foydali bo‘ldimi?	46	78	21,73	<0,001
6	Natijalarni tahlil qilish imkoniyati kengaydimi?	67	87	11,29	<0,001
7	Og‘zaki nutq va yozma ko‘nikmalaringiz yaxshilandimi?	68	84	7,02	<0,01

TAMADDUN NURI

Jadvalda ko‘rsatilgan natijalar shuni anglatadiki, innovatsion metod qo‘llanilgan guruhda talabalarning klinik fikrlash va amaliyotda bilimni qo‘llash ko‘nikmalari sezilarli darajada oshgan. Talabalarning faol ishtirok etishi, jamoaviy muhokama va mulohaza yuritish jarayoni ularda mas’uliyat hissi va kasbiy kompetentlikni shakllantirgan. Tahlil natijalariga “Aqliy hujum” texnologiyasi bilan mashg‘ulotlar o‘tkazish bo‘yicha so‘rovnomada mavzu va uning dolzarbligi nazorat guruxida 57% talabada, asosiy guruxda esa 87% talabaga qiziqarli bo‘ldi, tanlangan mavzu bo‘yicha materialni o‘zlashtirishda qo‘yilgan savollar nazorat guruhida 68%, asosiy guruh 84% talabalarini qoniqtirdi, olingan natijalarni tahlil qilish imkoniyati esa nazorat guruhida 67%, asosiy guruh talabalarida 87% ga kengaydi.

Mulohaza. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Aqliy hujum” texnologiyasidan foydalanish urologiya fanini o‘qitishda talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu texnologiya o‘quv jarayonida talabalarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga, muammoni tahlil etishga hamda o‘z fikrini asosli tarzda ifoda etishga o‘rgatadi.

Nazorat va tajriba guruhlarining taqqosloviy tahlili shuni tasdiqladiki, interfaol metodlar qo‘llanilgan guruh talabalari nazariy bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirgan, amaliy topshiriqlarda esa yuqori natijalarga erishgan. Xususan, tajriba guruhida o‘z fikrini ilmiy asosda bayon qila olish, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va tahlil qilish qobiliyati nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi ($p<0,001$).

Bunday natijalar, bir tomondan, o‘qituvchining pedagogik mahorati va kasbiy kompetentligining yuksak darajada ekanligini, ikkinchi tomondan esa, “Aqliy hujum” texnologiyasining ta’lim jarayonida to‘g‘ri tanlanganligini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuv nafaqat talabalarning bilim darajasini, balki ularning muloqot madaniyatini, jamoada ishlash, tez fikrlash va tahlil asosida qaror qabul qilish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Xulosa. Tadqiqotning natijalariga ko‘ra, tajriba guruhi talabalari an'anaviy usulda ta'lim olgan guruhga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakalar bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan. Ularda klinik fikrlash, muammoli vaziyatni tahlil qilish, jamoaviy muhokamada faol ishtirok etish hamda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlari shakllangani aniqlandi.

ADABIYOTLAR:

1. Kramer-Johansen J., Myklebust H., Wik L., Fellows B., Svensson L., Sorebo H., Steen P.A. Quality of out-of-hospital cardiopulmonary resuscitation with real time automated feedback: a prospective interventional study. Resuscitation. 2016;71:283-292;
2. Jarvis P. Globalization, the Learning Society and Comparative Education. Comparative Education, 2010, Vol.36, No.3.
3. Learning for Tomorrow's World First Results from PISA 2003. OECD, 2004.Lisbon Council Policy Brief. The economics of knowledge: Why education is key for Europe's success by Andreas Schleicher. (13 March 2006)..
4. Maher J.E., Kleinman G.E., Lile W., Tolaymat L., Steele D., Bernard J. The construction and utility of an amniocentesis trainer. American Journal of Obstetrics and Gynecology. 1998 Nov; 179(5): 1225
5. Malathi S., Hwang J. C., West D., Yellowlees P.M. Assessment of clinical skills using simulator technologies.Academic Psychiatry, 30:6, November-Decmber 2016.
6. Nishonov Sh., Sadikova D.I. Urolitiasis in extragenital pathology//Экономика и социум, 2023, 6-1(109), 307-309.
7. Okuda Y., Bryson E.O., DeMaria S. J., Jacobson L., Quinones J., Shen B., Levine A.I. The utility of simulation in medical education: what is the evidence? The Mount Sinai Journal of Medicine. 2019 Aug;76(4):330-43.
8. Rodgers D.L., Securro S. J., Pauley R.D. The effect of high-fidelity simulation on educational outcomes in an advanced cardiovascular life support course. Simulation in Healthcare 2009 Winter; 4(4):200-6.
9. Risk assessment to guide prostate cancer screening decisions: a cost-effectiveness analysis / A.J. Martin [et al.] // Med. J. Aust. - 2013. - Vol. 198, N 10. - P. 546550.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 378:372.851

OLIY TA'LIM TIZIMIDA DASTURLASH TILLARINI SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN INTERFAOL METODLAR ORQALI O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Mambetkarimov Bayniyaz Meyrmanovich,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti "Matematika" kafedrasi o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

IMPROVING THE TEACHING OF PROGRAMMING LANGUAGES IN HIGHER EDUCATION THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED INTERACTIVE METHODS

Mambetkarimov Bayniyaz Meyrmanovich,
Lecturer of the Department of Mathematics" of the Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОБУЧЕНИЯ ЯЗЫКАМ ПРОГРАММИРОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ, ОСНОВАННЫХ НА ТЕХНОЛОГИЯХ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Мамбеткаримов Байниязь Мейрманович,
преподаватель кафедры "Математика" Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза, доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

mambetkarimov80@gmail.com
https://orcid.org/0009-0008-2994-8360

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida dasturlash tillarini o'qitish jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilish orqali interfaol o'qitish metodlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayoniga ta'siri, o'quvchilarning individual o'rganish yo'nalishlarini aniqlash va adaptiv o'qitishni amalga oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, dasturlashni o'qitishda AI asosidagi platformalardan foydalanishning didaktik afzalliklari va samaradorlik omillari ilmiy asoslangan.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, interfaol metodlar, dasturlash tillari, oliy ta'lim, raqamli ta'lim muhiti, adaptiv o'qitish, intellektual tizimlar.*

Abstract: *This article explores the improvement of interactive teaching methods for programming languages in higher education through the integration of artificial intelligence technologies into the learning process. The impact of AI tools on the educational process, the possibilities of identifying students' individual learning paths, and implementing adaptive learning are analyzed. Furthermore, the didactic advantages and efficiency factors of using AI-based platforms in programming education are scientifically substantiated.*

Key words: *artificial intelligence, interactive methods, programming languages, higher education, digital learning environment, adaptive learning, intelligent systems.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования интерактивных методов обучения языкам программирования в системе высшего образования посредством интеграции технологий искусственного интеллекта в образовательный процесс. Проанализировано влияние инструментов искусственного интеллекта на учебный процесс, возможности определения индивидуальных траекторий обучения студентов и реализации адаптивного обучения. Также научно обоснованы дидактические преимущества и факторы эффективности использования AI-платформ при обучении программированию.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, интерактивные методы, языки программирования, высшее образование, цифровая образовательная среда, адаптивное обучение, интеллектуальные системы.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi raqamli transformatsiya sharoitida tubdan o‘zgarib bormoqda. Ayniqsa, dasturlash tillarini o‘qitishda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining joriy etilishi ta’lim jarayonini individuallashtirish, interfaollikni oshirish va o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkonini bermoqda. Oliy ta’limda dasturlashni o‘qitish an’anaviy usullar bilan cheklanib qolmasligi, balki sun’iy intellekt yordamida talabalarning bilim darajasini aniqlovchi va shaxsiy o‘quv yo‘nalishini tavsiya etuvchi interfaol tizimlar bilan boyitilishi zarur. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda oliy o‘quv yurtlarida dasturlash kurslarini o‘qitishda ta’lim sifatini oshirish uchun AI asosidagi interfaol metodlardan samarali foydalanish hali to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi - nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik tajriba, va statistik tahlil metodlari qo‘llanildi. Shuningdek, ChatGPT, GitHub Copilot, Codeium kabi AI vositalarining dasturlashni o‘qitish jarayonidagi roli o‘rganildi. Tadqiqot obyekti sifatida - oliy ta’lim muassasalaridagi “Dasturlash tillari” fani o‘qitish jarayoni, tadqiqot predmeti sifatida esa - sun’iy intellekt asosidagi interfaol metodlarning o‘quv samaradorligiga ta’siri belgilandi.

1.ChatGPT



ChatGPT — OpenAI tomonidan ishlab chiqilgan generativ til modeli (LLM – Large Language Model) bo‘lib, foydalanuvchining yozma matn shaklidagi so‘rovlariga javob beradi. U foydalanuvchi bilan suhbat tarzida muloqot qila oladi, savollarga javob beradi, tushuntirishlar beradi, hatto kod yozish, tahrirlash, muammolarni muhokama qilish imkoniyatiga ega. Tabiiiy til bilan muloqot qilish: sizga oson tilda javob bera oladi, tushuntirishlar keltiradi [3]. Kontekstni tushunish: suhbat davomida oldingi so‘zlarni eslab, izchil javob bera oladi. Kod yozish va tushuntirish: dasturlashga oid savollarga ham javob bera oladi, kod misollarini keltira oladi. “Freemium” modeli: bepul versiyasi mavjud, shuningdek to‘langan rejalar ham mavjud. Talabalarga mustaqil o‘rganishda yordam beradi: tushunmagan savollarini yozib bera oladi, tushuntirish so‘raydi. O‘qituvchilar uchun o‘quv materiallari tayyorlashda vaqtni tejash imkonini beradi: misollar, tushuntirishlar, test savollarini tayyorlash mumkin [2]. Dasturlash tillarini o‘rganishda yordamchi vosita sifatida ishlatilishi mumkin: kod yozish, xatolarni tushuntirish, yangicha misollar

yaratish. Notoʻgʻri yoki xato javob berishi mumkin - “hallucination” (yolgʻon yoki notoʻgʻri ma’lumot) xavfi mavjud. Akademik jihatdan oʻqitishda foydalanilganda plagiat yoki talaba tomonidan vosita orqali “tayyor ishlash” ehtimoli bor - bu ta’lim siyosati nuqtai nazaridan muammoli. Har doim toʻliq tushunishni kafolatlamaydi - murakkab kodlash muammolarida yoki chuqur nazariy jihatlarda kamchiliklari boʻlishi mumkin.

Talabalarga kod yozishda boshlangʻich yordamchi sifatida: “Men bunday kod yozdim - xato nima?” kabi soʻrovlar bilan. Oʻqituvchilar uchun kod misollari, tushuntirishlar, test topshiriqlari tayyorlashda - ChatGPTdan kechikmasdan tayyor maket sifatida foydalanish mumkin. Talabalarni ChatGPT yordamida oʻzlikni tekshirishga ragʻbatlantirish - “siz bu kodni ChatGPT bilan muhokama qildingizmi?” kabi. Biroq, kodni toʻliq avtomatik yaratishga emas, balki vosita sifatida - talaba faoliyatini ragʻbatlantiruvchi vosita sifatida foydalanish toʻgʻri.

2. GitHub Copilot



GitHub Copilot — GitHub (Microsoft Guruhiga tegishli) tomonidan ishlab chiqilgan sun’iy intellekt yordamchi kod yozish vositasi. U sizning kod muharriringiz (IDE) ichida ishlaydi va siz yozayotgan kontekstga qarab kod suggerensiyalarini beradi: kod qatorlari, bloklari, funksiyalar. Kod muharririda (IDE) integratsiya: Visual Studio Code, Visual Studio, JetBrains IDE’lari, Vim/Neovim, va boshqalar [1]. Kodni avtomatik taklif qilish: siz yozayotganingizni tahlil qiladi va keyingi kodni taklif qiladi. Pull requestlar, kod sharhlari, koddan agent tarzida foydalanish imkoniyatlari mavjud. Keng til va ramka (framework) qoʻllab-quvvatlanadi: ommabop dasturlash tillari va loyihalar uchun. Talabalar uchun kod yozishda tezroq natija olish imkonini beradi: kod loyihasida “boʻsh sahifa”dan boshlab ish boshlashda yordam beradi. Oʻqituvchilar uchun loyiha misollarini tayyorlash yoki kod snippetlarini yaratishda vaqtni tejaydi [4]. Dasturlash tillari va loyihalari bilan tanishish jarayonida yangi oʻrganuvchilar uchun “qayerdan boshlasam?” degan savollarga javob beradi.

Kodning xavfsizlik jihatlari: bir tadqiqotda Copilot tomonidan yaratilgan kod snippetlarida xavfsizlik zaifliklari aniqlangan. Litsenzion masalalar: ochiq manbali kodlar asosida model tayyorlanganmi, degan savollar mavjud [6]. Talaba uchun “oʻz mustaqilligini” rivojlantirishni kamaytirishi mumkin: agar har doim AI taklif qilishini kutsa, mustaqil fikrlash kamayishi ehtimoli bor. Murakkab, oʻziga xos loyihalar uchun takliflar kamroq aniq boʻlishi mumkin — barcha holatlarda toʻliq kodni qamrab olmaydi.

Talabalar bilan “bu taklifni qabul qilamanmi? Nima oʻzgartiraman?” degan muhokama formasida foydalanish - ya’ni AI taklifini tahlil qilish darsini tashkil qilish. Oʻqituvchilar uchun kod misollarini yaratishda Copilot’ni vosita sifatida ishlatish - lekin tayyor javoblarni talabaga toʻliq bermaslik, balki tartibni oʻrgatish. Kod xavfsizligi, kod sifati, test yozish kabi darslarda Copilot natijasini tahlil qilish - “AI taklifi xavfsizmi?” degan savollar bilan. Talabalarni AI vositasi bilan ishlashga tayyorlash: “AI yordamchini qanday samarali ishlatish mumkin?” degan dars kiritish.

TAMADDUN NURI

3. Codeium





Codeium - dasturlovchilarga kod yozishda yordam beruvchi sun'iy intellektli kod yordamchisi bo'lib, avtomatik kod autofill (to'ldirish), intellektual kod qidiruvi, chat yordamchisi kabi xususiyatlarga ega. Autocomplete va kod bloklari taklifi: siz yozayotgan kod kontekstini tahlil qilib keyingi qismini taklif qiladi. Chat interfeysi: kod bilan bog'liq savollarni berish, kodni refaktor qilish yoki dokumentatsiya yaratish imkoniyati mavjud [5]. Ko'p IDE qo'llab-quvvatlanadi: IntelliJ IDE'lari, PyCharm, Android Studio va boshqalar. Bepul versiyasi mavjud: odatda individual foydalanuvchilar uchun bepul rejasi bor.

Xaritaga muhtoj bo'lgan tasodifiy kod tayyorlash jarayonida yordam beradi - talabalar kod yozishni boshlashda qo'shimcha qo'llab-quvvatlanadi [7]. Kod qidiruvi va chat yordamchisi yordamida talabalar murakkab kod qismlarini tushunishga, refaktor qilishga va dokumentatsiya yaratishga o'rganadi. Bepul rejasi bilan kirishning yengil bo'lishi - resurslari cheklangan talabalar uchun qulay.

Murakkab loyihalarda yoki maxsus kontekstlarda takliflar kamroq optimal bo'lishi mumkin. Bir tadqiqotda Codeium murakkab muammolarda zaifroq ekanligi ta'kidlangan. AI tomonidan taklif qilingan kodning sifati va xavfsizligi har doim kafolatlanmagan - talabalar va o'qituvchilar uni kritik nuqtai nazardan ko'rib chiqishlari zarur. Talaba har doim AI-taklifi asosida ishlashga odatlanib qolmasligi kerak - o'z fikrini shakllantirish qismi muhim.

Talabalar bilan "Codeium tomonidan taklif qilingan kodni men qanday yaxshilayman?" degan muhokama darslari tashkil qilish. O'qituvchilar uchun kod namunalari, shablonlari yaratishda Codeium'dan foydalanish - lekin har doim o'z qo'shimcha sharhlarini berish. Kod qidiruvi va chat yordamchisi orqali talabalar bilan kod tushunish darslarini o'tkazish - "Men bu funksiyani tushunmadim" degan savol bilan chatga murojaat qilishni rag'batlantirish.

GitHub Copilot va Codeium asosan "kod yozish yordamchisi" sifatida mo'ljallangan bo'lsa, ChatGPT ko'proq umumiy generativ til modeli bo'lib, kodlashdan tashqari boshqa sohalarda ham ishlatiladi. Tanlashda: sizning maqsadingiz, foydalanish muhiti (IDE, talaba vs o'qituvchi), byudjet, maxfiylik va xavfsizlik mezonlari muhim:

- Agar siz GitHub bilan faol ishlasangiz va integratsiya kerak bo'lsa - Copilot yaxshi tanlov.
- Agar bepul variant va ko'p IDE qo'llab-quvvatlashi kerak bo'lsa - Codeium qulay.
- Agar siz kodlashdan tashqari tushuntirish, ma'lumot tayyorlash, interfaol savollar uchun vosita izlayotgan bo'lsangiz - ChatGPT ko'proq mos.

Har birida xavfsizlik, kod sifati, litsenziya va etik jihatlar mavjud: AI takliflarini avtomatik qabul qilmaslik, har doim kritik tahlil qilish muhim.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki:

1. **AI asosidagi interfaol metodlar** talabalarning o'quv faolligini oshiradi. Masalan, ChatGPT yordamida talabalar murakkab kod strukturalarini tushunishda mustaqil tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar.
2. **GitHub Copilot** vositasi yordamida talabalar kod yozish jarayonida xatolarni kamaytirishdi va algoritmik fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlashdi.
3. **Codeium** platformasi orqali talabalarda kodni tahlil qilish va optimallashtirish ko'nikmalari rivojlandi.
4. Sun'iy intellektga asoslangan **adaptiv o'qitish tizimi** yordamida talabalarning individual

TAMADDUN NURI

o‘rganish tezligi va uslublariga moslashtirilgan o‘quv jarayoni tashkil etildi.

5. O‘qituvchilar uchun AI texnologiyalari **ta’lim materiallarini tayyorlashda vaqt tejamkorligi** va **didaktik moslashuvchanlikni** ta’minladi.

Muhokama

Sun’iy intellektga asoslangan interfaol metodlar dasturlash fanini o‘qitishda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqotni yangi bosqichga olib chiqadi. An’anaviy metodlarda bilim bir yo‘nalishda - o‘qituvchidan talabaga - uzatilsa, AI asosidagi yondashuvda o‘quvchi faol sub’ektga aylanadi. Biroq, bu jarayon muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun:

- o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish,
- sun’iy intellekt vositalarini o‘qitish jarayoniga to‘g‘ri integratsiya qilish,
- akademik halollik tamoyillariga qat’iy rioya etish zarur.

Pedagogik nuqtayi nazardan, interfaol AI metodlari konstruktivistik yondashuvga asoslanadi — bunda talaba o‘z tajribasidan kelib chiqib bilimlarni faol quradi, sun’iy intellekt esa bu jarayonda yordamchi sifatida ishlaydi.

Xulosa

Oliy ta’lim tizimida dasturlash tillarini o‘qitishda sun’iy intellektga asoslangan interfaol metodlarni joriy etish ta’lim sifatini oshirish, talabalarning ijodkorlik salohiyatini rivojlantirish va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Kelgusida sun’iy intellekt yordamida intellektual o‘quv platformalari, adaptiv baholash tizimlari va avtomatik dastur kod tahlili mexanizmlarini yanada rivojlantirish dolzarb hisoblanadi.

AI vositalari dasturlashni o'rganish va amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. ChatGPT - universal yordamchi, GitHub Copilot - professional kod yozish vositasi, Codeium - tezkor va bepul alternativa. Har bir dasturchi o‘z ehtiyojlariga mos vositalarni tanlashi va ulardan samarali foydalanishni o'rganishi kerak.

O'quv jarayonida bu vositalardan foydalanish talabalarning kod yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, lekin ularni mustaqil fikrlash va muammolarni yechish qobiliyatini rivojlantirishga ham e'tibor berish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Seitnazarov K.K., Mambetkarimov B.M. Development and application of a digital educational resource for teaching programming in higher education institutions // Mental enlightenment scientific. Vol 05, Issue 03. – Jizzax, 2024. – P. 187–196.

2. Mambetkarimov B.M. Developing Python programming language skills based on interactive methods. // International Journal of Studies in Advanced Education, Volume 03, Issue 8, ISSN (E): 2949-8945 SJIF: 6.619. – Netherlands, 2024. – P.1–6.

3. Meyrmanovich, M.B. (2023). Modeling cloud technology structures in the educational process. British View, 8(7).

4. Mambetkarimov B.M. Employing interactive approaches in teaching computer science in higher education institutions. // Международная конференция академических наук. – Россия, 2024. Т. 3, Выпуск 7, – С. 13–16.

5. Anderson, T., & Dron, J. (2023). Teaching and Learning with Artificial Intelligence. Springer.

6. Russell, S., & Norvig, P. (2022). Artificial Intelligence: A Modern Approach. Pearson.

7. Nurmaxanov K.E. (2025). Raqamli ta’lim resurslarini ishlab chiqish metodikasi. Ajiniyoz nomidagi NDPI.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 392.181.151.9

МАТЕМАТИКА ТАЪЛИМИДА УЗВИЙЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Мурзамбетова Мехрибан Бегдуллаевна, Ажиниёз номидаги Нукус Давлат педагогика институти «Математика» кафедраси ўқитувчиси, физика-математика фанлари фалсафи доктори (PhD)

IN ENSURING CONTINUITY IN MATHEMATICS EDUCATION INTELLECTUAL ABILITIES OF STUDENTS THE IMPORTANCE OF SHAPING

Murzambetova Mexriban Begdullaevna, Lecture of the department of «Mathematics» of the Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz, Doctor of Philosophy in Physical and Mathematical Sciences (PhD)

e-mail: mehri_8282@mail.ru
https://orcid.org/ 0000-0001-6704-0785

В ОБЕСПЕЧЕНИИ ПРЕЕМСТВЕННОСТИ В МАТЕМАТИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ СПОСОБНОСТИ УЧАЩИХСЯ ВАЖНОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ

Мурзамбетова Мехрибан Бегдуллаевна, преподаватель кафедры «математики» Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза, доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Аннотация: *Ушбу мақолада математика таълимида узвийликни таъминлаш ва бу жараёнда ўқувчиларнинг интеллектуал кўникмаларини ривожлантириш масаласи ёритилган.*

Таянч сўзлар: *ақлий ривожланиш, таққослаш, анализ, синтез*

Abstract: *This article discusses the issue of ensuring continuity in mathematics education and developing students' intellectual skills in this process.*

Key words: *mental development, comparison, analysis, synthesis*

Аннотация: *В данной статье рассматривается вопрос обеспечения преемственности в математическом образовании и развития интеллектуальных навыков учащихся в этом процессе.*

Ключевые слова: *умственное развитие, сравнение, анализ, синтез.*

Кириш. Замонавий таълим тизимида асосий мақсад — ўқувчини фақат маълум билимлар йиғиндиси билан таъминлаш эмас, балки уни мустақил фикрлай оладиган, таҳлил қиладиган ва янги маълумотни ўзлаштиришга қодир шахс сифатида шакллантиришдир. Бу эса таълим босқичлари ўртасидаги узвийликни таъминлаш ва ўқувчининг интеллектуал ривожланишини самарали ташкил этиш билан бевосита боғлиқ. Ҳар бир бола интеллектуал имкониятлари жиҳатидан фарқланса-да, уларнинг тўлақонли ривожланиш ҳуқуқи тенгдир. Шу боис таълим жараёнида уларнинг фикрлаш операцияларини — таққослаш, таҳлил, синтез, умумлаштириш, абстрактлаштириш каби ақлий кўникмаларни шакллантириш муҳим аҳамият касб этади.

Методлар. Тадқиқотда таълим психологияси ва педагогикасига оид назарий манбалар таҳлил қилинди. Хусусан, М.А. Холодная, В.А. Гусев, Э. Ғозиев ҳамда С. Алихонов асарларига таянилди. Шунингдек, математик фикрлашни ривожлантиришда қўлланиладиган асосий интеллектуал операциялар — анализ, синтез, таққослаш, абстрактлаштириш ва умумлаштириш усуллари ўрганилди.

Натижалар. Анализ — номаълумдан маълум томон изланиш усулидир. Бу усул ёрдамида ўқувчи: «Изланаётган натижани топиш учун нима маълум бўлиши керак?» деган саволга жавоб излайди. Мисол: Теорема: Икки сон йиғиндисининг ўрта арифметиги шу сонларнинг ўрта геометригидан кичик эмас. Бу теоремани исботлашда анализ усули орқали ҳар бир босқич илгаридан маълум қоидаларга таянган ҳолда бажарилади. Таълим босқичлари орасида, хусусан математика таълимида узвийликни таъминлаш масаласи ўқувчиларда инттелектуал кўникмаларни ривожлантириш муаммоси билан бевосита боғлиқ эканлиги ўз–ўзидан равшан. Замонавий таълимнинг мақсади шундан иборатки, ўқувчиларга нафақат у ёки бу билимлар йиғиндисини бериш, балки уларни илмий ва ихтиёрий бошқа ахборотни мустақил ўзлаштира олишга ўргатишдан иборат. Бундан ташқари ўзининг ўқув–билув ҳаракатларини рационал қуриш учун кўникма ва малакаларга ўргатиш, яъни уларнинг муваффақиятли интеллектуал ривожланиши учун шароит яратиб бериш керак. Албатта барча болалар бошланғич интеллектуал имкониятлари билан бир–биридан фарқ қилади. Шуни таъкидлаш керакки, ҳозирги ижтимоий–маданий ва иқтисодий шароитларда бу фарқлар янада катталашади. Барча болалар ҳар хил, аммо улар тўлақонли интеллектуал ривожланиш олдидаги ҳақ–ҳуқуқлари нуқтаи назаридан тенгдирлар” [1].

Умумий режада таълимнинг асосий мақсади–ўқувчини ривожлантириш деб, одатда ақлий ривожланиш назарда тутилади [2]. Педагогика ва психологиянинг қабул қилинган фикрига кўра ақлий ривожланиш билимлар, кўникмалар ва ақлий ҳаракатлар тўплами билан характерланади. Психологик луғатларда [3] ақлий ривожланиш – билимлар, кўникмалар йиғиндисининг даражаси ва уларни ўзлаштириш жараёнида шаклланган ақлий ҳаракатлар; маълум бир ҳажмдаги янги билим ва кўникмаларни ўзлаштиришини таъминловчи фикрлаш жараёнида уларни мустақил қўллай олиш деб таърифланади.

Ақлий ривожланишнинг ўзига хос томони шундан иборатки, нафақат билимлар фондини бойитиш, балки пухта шаклланган ва мустаҳкамланган ақлий операциялар, усулларни эгаллашдан иборат. Бу операцияларни интеллектуал кўникмаларга киритиш мумкин. Таққослаш, анализ, синтез, абстрактлаштириш, умумлаштириш, классификациялаш шу операцияларга мисол бўлади. Бу ерда таққослаш, анализ, синтез, абстрактлаштириш, умумлаштириш, классификациялашга таърифлар бериб ўтадиган бўлсак:

Синтез — маълумдан номаълум томон изланиш усули бўлиб, анализ орқали топилган маълумотлар асосида янги натижа ҳосил қилинади.

Мисол:

Агар $x_1=7$ ва $x_2=1$ ечимларни қаноатлантирувчи тенгламани қуйидагича тузиш мумкин:

$$(x-7)(x-1)=0,$$
$$x^2-8x+7=0$$

Бу ақлий операцияларни коллеж ўқувчиларида шакллантириш уларнинг келгуси таълим босқичида муваффақиятли ўқиши ёки ўз касби бўйича самарали фаолият юритишга замин тайёрлайди. Қуйида коллеж ўқувчиларида юқорида айтилган ақлий операцияларни шакллантириш учун математика курсида мавжуд масалалардан фойдаланиш методикасидан намуналар келтирамиз:

Мисол 2. $\left(\frac{1}{3}\right)^x \geq 27$ тенгсизлик берилган.

Схема бўйича анализни бажаринг:

Анализ: тенгсизликнинг даража кўрсаткичи номаълумдан иборат, шунинг учун тенгсизлик кўрсаткичли тенгсизлик бўлади; тенгсизликнинг характери–қатъий эмас, демак мантиқий структураси “ёки” (дизъюнкция) катта ҳамда тенг бўлиши мумкин;

27 сони 3 сонининг учинчи даражаси;

Камаювчи кўрсаткичли функция (асоси $0<\frac{1}{3}<1$) константа билан таққосланган, шунинг учун тенгсизликни иккала қисмини бир хил асосга келтириш керак. Кейин кўрсаткичли функцияни хоссасини ишлатган ҳолда кўрсаткичларни ўзаро таққослаш лозим.

Мисол. $\left(\frac{1}{3}\right)^x \geq 27$ тенгсизлик берилган. Схема бўйича синтезни бажаринг.

Синтез: 1) $\frac{1}{3}$ ва 3 сонлар ўзаро қуйидаги тенглик билан боғлангандир

$\left(\frac{1}{3}\right)^{-1}=3,27$ ва 3 эса $3^3=27$ тенглик билан боғлангандир, демак $\frac{1}{3}$ ва 27 ни $27=3^3=\left(\frac{1}{3}\right)^{-3}$ тенглик билан боғлаш мумкин;

2) $\left(\frac{1}{3}\right)^x \geq \left(\frac{1}{3}\right)^{-3}$ Асоси $0<\frac{1}{3}<1$ бўлганлиги учун даражанинг кўрсаткичлари кичик ёки тенг белгилар билан солиштирилади: x≤–3.(x номаълум даражанинг кўрсаткичида жойлашгани учун ихтиёрий ҳақиқий сон бўлиши мумкин);

3) жавоб: (–∞; – 3].

Мисол.“Абстрактлаштириш” мантиқий усулни бажарилиш схемасини ишлатган ҳолда, берилган тенгсизликларнинг ечиш методини таклиф қилинг: $4^x-2^{x+1}-8>0$, $36^x-5\cdot 6^x-6\leq 0$, $\pi^x-\pi^{2x}\geq 0$

Абстрактлаштириш:

Ҳар бир кўрсаткичли тенгсизликда даража кўрсаткичлари билан фарқ қиладиган иккита қўшилувчи мавжуд, ўзгартиришлардан кейин(даражадаги ифодаларни битта асосга келтириш) структура бўйича квадрат тенгсизликларга ўхшайдиган тенгсизликлар ҳосил бўлади. Абстракциянинг асоси сифатида белгиланган хосса–ўрсаткичли тенгсизлик структурасини квадрат тенгсизлик структураси билан ўхшашлиги.

$$\left.\begin{array}{l} 2^{2x}-2\cdot 2^x-8>0 \\ 6^{2x}-5\cdot 6^x-6\leq 0 \\ \pi^{2x}-\pi^x\leq 0. \end{array}\right| \Rightarrow$$

$$\left.\begin{array}{l} a^x=t \\ t>0 \\ a^{2x}=t^2. \end{array}\right| \Rightarrow \qquad at^2+bt+c>0$$

Шундай қилиб, берилган кўрсаткичли тенгсизликларнинг ечиш методи квадрат тенгсизликга келтириш ва маълум алгоритм бўйича ечишдир.

Таққослаш — ўрганилаётган объектларнинг ўхшаш ва фарқли жиҳатларини аниқлаш усулидир. Мисол: учбурчак ва тўртбурчакни таққослашда уларнинг умумий белгиси — бурчак ва томонлар сони бўлса, фарқи — элементлар сонида намоён бўлади. Абстрактлаштириш эса кўрсаткичли тенгсизликларнинг структурасини квадрат тенгсизликларга ўхшатиш орқали умумий ечим усулини топиш имконини беради.

Мисол. Учбурчак фигураси билан тўртбурчак фигураси таққосланганда уларнинг ўхшаш томонлари: учлари, бурчаклари; уларнинг ўзаро фарқли томонлари:

а) учбурчакда учта уч ва учта томон;

б) тўртбурчакда тўртта уч ва тўртта томондан иборатлиги аниқланади.

Хулоса. Математика таълимида узвийликни таъминлаш интеллектуал кўникмаларни шакллантириш билан чамбарчас боғлиқ. Таълим жараёнида таҳлил, синтез, таққослаш, абстрактлаштириш каби усуллардан тизимли фойдаланиш ўқувчининг мустақил фикрлашини ривожлантиради ва унинг таълимдаги муваффақиятини оширади.

Адабиётлар

1.Холодная М.А. Интеллектуальное воспитание личности. –М., Педагогика.– 1998.– №1.– с. 55–61.

2.Гусев В.А. Психолого–педагогические основы обучения математике,– В.А.Гусев; – М.Вербум – М, ООО«Издательский центр Академия», 2003.–432 с.

3.Ғозиев Э. Психология (Ёш даврлари психологияси). – Т., Ўқитувчи, 1994.

4.Alixonov S. Matematika o’qitish metodikasi. Qayta ishlangan II nashri. T., O‘qituvchi. 1997 yil.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 37.017.92:330.101.541

MAKTABLARDA TADBIRKORLIKNI TARBIYA FANI BILAN UYG‘UNLIKDA O‘QITILISHINI TASHKIL ETISH MODELI

Djaxangirova Zuxra Tursunovna,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

A MODEL FOR ORGANIZING TEACHING ENTREPRENEURSHIP IN SCHOOLS IN ACCORDANCE WITH EDUCATION

Dzhakhangirova Zuhra Tursunovna,
PhD student at Navoi State University

МОДЕЛЬ ОРГАНИЗАЦИИ ОБУЧЕНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВУ В ШКОЛАХ В СООТВЕТСТВИИ С ОБРАЗОВАНИЕМ

Джахангирова Зухра Турсуновна,
Аспирант Навоийского государственного университета

e-mail: djaxangirovazuxra@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonini tarbiya fani bilan uyg‘unlashtirishning nazariy va amaliy asoslari masalalari yoritilgan. Tadbirkorlikni o‘qitishda axloqiy tarbiya, mehnatsevarlik, mas’uliyat va halollik kabi fazilatlarning shakllanishida tarbiya fanining o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, muallif tomonidan ishlab chiqilgan “Tadbirkorlikni tarbiya bilan integratsiyalashgan o‘qitish modeli”ning komponentlari, ularning o‘zaro aloqasi, metodlari va natijalari keng yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *tadbirkorlik, tarbiya fani, o‘qitish modeli, tafakkur, o‘quv faoliyati, iqtisodiy tarbiya, kompetensiya, pedagogik tizim, axloqiy tarbiya.*

Аннотация: *В статье рассматриваются теоретические и практические основы интеграции процесса развития предпринимательских навыков в общеобразовательных школах с педагогической наукой. Анализируется роль педагогической науки в формировании таких качеств, как нравственное воспитание, трудолюбие, ответственность и честность при обучении предпринимательству. Также подробно рассматриваются компоненты разработанной автором «Модели интегрированного предпринимательского образования с образованием», их взаимосвязь, методы и результаты.*

Ключевые слова: *предпринимательство, педагогическая наука, модель обучения, мышление, образовательная деятельность, экономическое образование, компетентность, педагогическая система, нравственное воспитание.*

Annotation: *This article covers the theoretical and practical foundations of integrating the process of developing entrepreneurial skills in secondary schools with the science of education. The role of the science of education in the formation of such qualities as moral education, diligence, responsibility and honesty in teaching entrepreneurship is analyzed. The components of the “Integrated Entrepreneurship Education with Education Model” developed by the author, their interrelationships, methods and results are also widely covered.*

Key words: *entrepreneurship, educational science, teaching model, thinking, educational activity, economic education, competence, pedagogical system, moral education.*

KIRISH. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiq, ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarni uyg‘unlashtirilgan holda yondashish o‘rganilayotgan manbaga ijodiy munosabatni o‘rnatish va shakllantirish muammolarini hal etishga imkoniyat yaratadi. Shu sababli uyg‘unlashtirilgan yondashuv ta'lim-tarbiyada amalga oshiriluvchi islohotlar unga mantiqqa mos tarzda jamiyatga xizmat ko‘rsatishi lozim. Bu o‘rinda noa'anaviy o‘qitish shakli – integratsiyaning ahamiyati yanada oshib boradi. Negaki, integratsiyaning darajasiga qarab, uning qo‘llanilish texnikasiga ko‘ra, amalga oshirilgan texnologiyaning istiqbolini belgilash mumkin bo‘ladi. Chunki, integratsiya yetarlicha namoyon bo‘lgan, turli xarakterli mazmunning singdirilishi natijasida yangi sifatiy holatga o‘tishda asosiy omil bo‘lib yuzaga chiqa oluvchi faktor hisoblanadi. Integratsiya chuqur, noan'anaviy ta'lim bilan tavsiflana oluvchi, turfa xarakterdagi katta hajmli o‘quv materialining uyg‘unlashuvini o‘zida namoyon etadi.

Demak, tadbirkorlikni tarbiya fani bilan uyg‘unlikda o‘qitish o‘quvchilarning har tomonlama yetuk, ijtimoiy faol, iqtisodiy tafakkurga ega shaxs bo‘lib kamol topishiga xizmat qiladi. Hozirda maktablarda tadbirkorlik ta'limi alohida kurslar yoki ijtimoiy fanlar doirasida fragmentar tarzda o‘qitilmoqda. Bunda o‘quvchi shaxsini tarbiyalash bilan bog‘liq jihatlar yetarlicha e'tiborga olinmaydi. Shuning uchun tadbirkorlikni tarbiya fani bilan integratsiyalashgan holda o‘qitish modeli zarur. Maqolani tayyorlashda quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi:

Tizimli yondashuv – ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini bir butun sifatida o‘rganish;

Kompetensiyaviy yondashuv – o‘quvchilarda amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan bilim va malakalarni shakllantirish;

Integrativ yondashuv – tarbiya fani mazmunini tadbirkorlik elementlari bilan uyg‘unlashtirish;

Pedagogik tajriba-sinov ishlari – maktablarda tajriba-sinov darslarini tashkil etish orqali samaradorlikni aniqlash.

O‘quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirishni tarbiya mazmuni bilan uyg‘unlashtirish maqsad qilib olinganda, tarbiya darslarida iqtisodiy tarbiya, tejamkorlik, tashabbuskorlik, mas'uliyat va halollik kabi mavzularini kengaytirish mazmuni tushuniladi. Natijada Ijtimoiy faol, mustaqil fikrlaydigan, iqtisodiy tafakkurga ega o‘quvchi shaxsi shakllanadi. Tajriba-sinov ishlari davomida o‘quvchilarda iqtisodiy masalalarni hal etish ko‘nikmasi yuqori foizga oshadi, tashabbuskorlik va jamoada ishlash sifatlari sezilarli darajada kuchaygani, tarbiya darslariga qiziqish ortgani kuzatildi. Tadbirkorlik ko‘nikmasining mazmuni va ahamiyati.

Tadbirkorlik ko‘nikmasi – bu o‘quvchining tashabbus ko‘rsatish, reja tuzish, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va natijaga erishish qobiliyatidir. Boshlang‘ich ta'limda tadbirkorlik faqat iqtisodiy tushunchani emas, balki mehnatsevarlik, mas'uliyat, ijodiy fikrlash va mustaqillikni o‘z ichiga oladi.

Tadbirkorlik tarbiyasi orqali bolalarda quyidagi fazilatlar rivojlanadi: tashabbuskorlik, mas'uliyatlilik, ijodkorlik, hamkorlik, tejamkorlik.

Mazmuni: yangi g‘oyalarni ilgari surish, faol bo‘lish, o‘z ishini yakuniga yetkazish, yangi yechimlarni topish, guruhda ishlash ko‘nikmasi, resurslardan oqilona foydalanish.

Ta'limiy natija: faol ijtimoiy pozitsiya, ishonchlilik va qat'iyat, innovatsion tafakkur, kommunikativ kompetensiya, iqtisodiy madaniyat.

2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tadbirkorlikni shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari.

O‘quvchilarda tadbirkorlikni rivojlantirish quyidagi beshta asosiy yo‘nalish asosida amalga oshiriladi:

1. Iqtisodiy tarbiya yo‘nalishi.

Bu yo‘nalishda o‘quvchilarga iqtisodiy tushunchalar, mehnatning qiymati, tejamkorlik va byudjet madaniyati haqida dastlabki bilimlar beriladi. Masalan: “Oilaviy byudjet” mavzusida mini loyiha yoki “Do‘koncha” o‘yini.

2. Mehnatsevarlikni tarbiyalash yo‘nalishi.

O‘quvchilarni kichik mehnat topshiriqlari (gul ekish, maktab burchagini bezatish, sinf buyumlarini yasash) orqali mas'uliyatga o‘rgatish. Bu yo‘l bilan ularning “men bajara olaman” degan ichki ishonchi shakllanadi.

3. Ijodiy va loyihaviy faoliyat yo‘nalishi.

Tadbirkorlikni rivojlantirishda loyiha asosida o‘qitish metodlari (Project Based

Learning) juda samarali. Masalan: “Mening kichik biznes loyiham”, “Mahsulotimni taqdim etaman”, “Foydali ixtiro” kabi mashg‘ulotlar.

4. Axloqiy-tarbiyaviy yo‘nalish.

O‘quvchilarni halollik, adolat, mashaqqatli mehnat, ishonchlilik kabi qadriyatlarga o‘rgatish tadbirkorlikning ma’naviy asosi hisoblanadi.

5. Hamkorlik va kommunikatsiya yo‘nalishi.

Tadbirkorlikda jamoaviy faoliyat, muloqot madaniyati muhim. Guruhli topshiriqlar, rolli o‘yinlar (“Mijoz va sotuvchi”, “Loyiha jamoasi”) bu yo‘nalishda foydali.

1. Tadbirkorlikni shakllantirishda o‘qituvchi faoliyatining bosqichlari:
Tayyorlov, faoliyat, mustahkamlash va refleksiya bosqichi.

O‘qituvchi faoliyati: Motivatsiya uyg‘otish, mavzuga kirish, amaliy o‘yin, loyiha, topshiriq tashkil etish, natijani tahlil qilish, baholash, o‘quvchilar bilan xulosa chiqarish.

O‘quvchi faoliyati: qiziqish bildiradi, savol beradi, ishtirok etadi, ijod qiladi, o‘z faoliyatini baholaydi, o‘z o‘sishini anglaydi.

4. Tadqiqot natijalari.

Umumta’lim maktablarning boshlang‘ich sinflarida olib borilgan tajriba-sinov jarayonida o‘quvchlar ishtirok etdi. Quyidagi natijalar kuzatildi:

1-grafik. Tadbirkorlik ko‘nikmalarining o‘sish dinamikasi (%)

Ko‘nikma turi	Boshlanishda	Yakunda	O‘sish
Ijodiy fikrlash	49%	78%	+29%
Mas’uliyat	53%	81%	+28%
Hamkorlik	47%	80%	+33%
Qaror qabul qilish	44%	74%	+30%

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, loyihaviy faoliyat va o‘yinli texnologiyalar tadbirkorlikni rivojlantirishda eng samarali vosita hisoblanadi.

5. Tavsiyalar.

1. Boshlang‘ich ta’lim dasturlariga tadbirkorlik asoslarini integratsiya qilish.
2. Tarbiya va texnologiya fanlari bilan fanlararo bog‘lanishni kuchaytirish.
3. O‘qituvchilar uchun “Boshlang‘ich ta’limda tadbirkorlikni o‘rgatish metodikasi” bo‘yicha treninglar tashkil etish.
4. Ota-onalar bilan hamkorlikda oilaviy tadbirkorlik qadriyatlarini shakllantirish.
5. Maktabda “Kichik tadbirkorlar klubi” kabi tashabbuskor to‘garaklarni yo‘lga qo‘yish.

1. Modelning asosiy g‘oyasi.

Model quyidagi asosiy tamoyillarga tayangan:

- Integratsiya: Tarbiya mazmuniga tadbirkorlik elementlarini qo‘shish;
- Amaliylik: O‘quvchilarning real hayotiy vaziyatlar orqali bilim va ko‘nikma orttirishini ta’minlash;
- Shaxsga yo‘naltirilganlik: Har bir o‘quvchining qiziqishlari, qobiliyatlariga mos yondashuv;
- Hamkorlik: Ota-onalar, mahallalar, tadbirkorlik subyektlari ishtirokini ta’minlash.

2. O‘qitish modeli bosqichlari.

I. Bosqich: Tarbiyaviy asos yaratish.

Maqsad: O‘quvchilarda mehnatsevarlik, mas’uliyat, halollik, sabr-toqat kabi tadbirkorlikka zamin bo‘ladigan axloqiy fazilatlarni shakllantirish.

II. Bosqich: Tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish.

Maqsad: O‘quvchilarda asosiy iqtisodiy tushunchalar, rejalashtirish, muammoni hal qilish, mas’uliyatli qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish.

III. Bosqich: Tadbirkorlik amaliyoti va baholash.

Maqsad: O‘quvchilarning tadbirkorlik faoliyatini amaliyotda sinab ko‘rish, o‘z faoliyatiga baho bera olishni shakllantirish.

TAMADDUN NURI

3. Model natijalari va kutilayotgan samaralar.

Ko‘nikma turi	Shakllanadigan kompetensiyalar
Shaxsiy ko‘nikmalar	Mas’uliyat, intizom, tashabbuskorlik, mustaqillik
Ijtimoiy ko‘nikmalar	Jamoada ishlash, muloqot, rahbarlik, murosaga kelish
Amaliy ko‘nikmalar	Byudjet tuzish, xarajatni rejalashtirish, loyihalash
Axloqiy qadriyatlar	Halollik, adolat, mehnatga hurmat, vijdon

“Tadbirkorlikni tarbiya bilan integratsiyalashgan o‘qitish modeli” – bu shunchaki iqtisodiy bilim berish emas, balki o‘quvchini har tomonlama **faol, mas’uliyatli va innovatsion shaxs** sifatida shakllantirishga qaratilgan yondashuvdir. Bu model orqali ta’lim va tarbiyaning uzviyligi ta’minlanadi, yosh avlodda o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash va hayotda qo‘llash madaniyati shakllanadi.

Xulosa.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlikni tarbiya fani bilan uyg‘unlikda o‘qitish modeli o‘quvchilar shaxsida iqtisodiy, ma’naviy va axloqiy kompetensiyalarni bir vaqtda rivojlantiradi, tarbiya darslarini amaliy hayotga yaqinlashtiradi, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlaydi, o‘quvchilarning kelajakda o‘z yo‘lini topishiga zamin yaratadi. Mazkur model umumta’lim maktablari uchun samarali pedagogik yechim sifatida taklif etiladi. Ushbu model ta’lim tizimida o‘quvchi shaxsini mehnatsevar, halol, tashabbuskor va bunyodkor inson sifatida tarbiyalashning innovatsion yo‘lidir. Tadbirkorlikni tarbiya fani bilan uyg‘unlikda o‘qitish o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirish uchun samarali mexanizmdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3775-son qarori. Tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosati konsepsiyasi, 2018-yil.
3. Karimov, I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. Артюкова Н. Инновационная педагогика. – Москва, 2019.
6. Mahmudova M. Xalq pedagogikasi va oila tarbiyasi. – Samarqand, 2003.
7. Qodirova Z. Ta’limda iqtisodiy tarbiya asoslari. – Toshkent: TDPU, 2021.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Maktab ta’limida tadbirkorlik kompetensiyasini shakllantirish konsepsiyasi, 2020.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK:378.147:371.13:004.8

AI-DRIVEN PROFESSIONAL DIGITAL COMPETENCE IN PRE-SERVICE ENGLISH TEACHERS: READINESS, PRACTICES, AND PEDAGOGICAL CHALLENGES

Israilova Dilkhumor Sherzod kizi, PhD student, Uzbekistan state world languages university

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN KASBIY RAQAMLI KOMPETENSIYASI: TAYYORGARLIK DARAJASI, AMALIY YONDASHUVLAR VA PEDAGOGIK MUAMMOLAR

Israilova Dilxumor Sherzod qizi, tayanch doktorant, O‘zbekiston davlat jahon tillar universiteti

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА, ФОРМИРУЕМАЯ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИИ: УРОВЕНЬ ГОТОВНОСТИ, ПРАКТИКИ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВЫЗОВЫ

Исраилова Дилхумор Шерзод кызы, прикладной докторант, Узбекский государственный университет мировых языков

e-mail: isradil90@gmail.com
https://orcid.org/ 0009-0006-6155-6143

Abstract: *The provided review on AI-driven professional digital competence in pre-service English teacher education aligns closely with recent high-impact research from 2021 to 2025, which emphasizes frameworks like DigCompEdu and TPACK, along with empirical findings on readiness, practices, and pedagogical challenges.*
Key words*: AI-enhanced competence, pre-service teachers, digital readiness, pedagogical challenges, DigCompEdu, TPACK, generative AI, teacher training.*
Annotatsiya: *Mazkur maqola 2021–2025-yillardagi tadqiqotlarga tayangan holda DigCompEdu va TPACK dasturlarining ahamiyatini, shuningdek, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi, amaliyotlari va pedagogik muammolarini yoritib, SI asosidagi raqamli kompetensiyani tahlil qiladi.*
Kalit so'zlar: *AI bilan takomillashtirilgan kompetensiya, ishga tayyorgar o'qituvchilar, raqamli tayyorgarlik, pedagogik qiyinchiliklar, DigCompEdu, TPACK, generativ AI, o'qituvchilarni tayyorlash.*
Аннотация: *Статья отражает современные исследования 2021–2025 гг., подчеркивающие важность рамок DigCompEdu и TPACK, а также эмпирические данные о готовности, практиках и педагогических трудностях будущих учителей английского языка в условиях интеграции ИИ в профессиональную цифровую компетентность.*
Ключевые слова: *компетентность, улучшенная с помощью ИИ, будущие учителя, цифровая готовность, педагогические проблемы, DigCompEdu, TPACK, генеративный ИИ, подготовка учителей.*

Introduction. The accelerating digital transformation of education—further intensified by the integration of artificial intelligence (AI)—has created new expectations for pre-service English teachers to develop advanced digital and pedagogical skills. Professional digital competence (PDC), once associated primarily with basic technological literacy, now encompasses ethical, reflective, and adaptive practices essential for AI-enhanced language education. This review critically synthesizes findings from 10–15 recent studies published between 2021 and 2025 in Q1–Q3 journals, examining AI-driven professional digital competence among pre-service English teachers. The review highlights patterns in readiness, everyday instructional practices, and persistent pedagogical challenges emerging across diverse international contexts.

Literature Review. Most high-impact studies employ established frameworks such as **DigCompEdu** and **TPACK** to evaluate teachers' digital competence. DigCompEdu emphasizes domains including data literacy, communication, digital content creation, safety, and problem-solving, which serve as benchmarks in recent empirical analyses [10,220-224]. TPACK extends this by examining the interaction between technological, pedagogical, and content knowledge, a model frequently applied to assess AI adoption in pre-service English teacher training [2,46-48].

Evidence shows that pre-service teachers demonstrate **moderate to high competence** in areas like data literacy and content creation but exhibit notable gaps in problem-solving and reflective practice [10,244]. Studies further show that AI-integrated interventions significantly improve technical competence, reduce anxiety, and foster more positive attitudes toward digital instruction, with variables such as age, gender, and prior experience moderating these outcomes [7,879-880].

Readiness and Practices. Pre-service teachers' readiness varies by context but shows increasingly positive perceptions of AI and digital teaching in EFL (English as a Foreign Language) contexts. [3, 4]. Competence is shaped by curriculum integration, targeted training, psychological support, and policy environments [5,8-11].AI tools such as ChatGPT and Ernie Bot demonstrate strong support for collaborative tasks, with empirical studies documenting better feedback and adaptive learning environments but also highlighting persistent deficits in critical thinking and ethical awareness [8,585-587].

Pedagogical Challenges. Research reveals persistent pedagogical challenges in the integration of AI and digital tools. Many pre-service teachers lack sufficient expertise in problem-solving, ethical decision-making, and adapting to evolving technological demands. [1,131]. These gaps are documented across national studies and project-based learning interventions. Weaknesses include insufficient reflective practice and the need for more robust curriculum design and AI literacy, as cited in DigCompEdu-aligned assessments [6,614]. Gender, prior technological experience, and context moderate the impact of professional development and AI-integration interventions [4,3-6].

Discussion. The synthesis of evidence indicates that PDC among pre-service English teachers is **steadily expanding**, especially when supported by structured training and AI integration. However, empirical studies continue to identify: Uneven development across competence domains, with strong performance in collaboration and digital content creation but weaknesses in problem-solving and ethical/pedagogical aspects [6, 616-617]. The effectiveness of AI tools depends on integration frameworks, teacher attitudes, and readiness for pedagogical change—for example, feedback quality improves but contextual adaptation remains limited. [9,15-18 Policy and institutional support are critical for bridging competence gaps and normalizing digital practices in the curriculum. Notably, Q1-Q3 journals increasingly call for cross-cultural adaptability and advanced digital competence—moving beyond "digital native" assumptions toward comprehensive, evidence-based teacher education reform [5,253-254].

Results. The reviewed studies indicate uneven levels of readiness across key digital competence areas. Pre-service teachers show high readiness in communication, collaboration, and digital content creation, with these strengths contributing to improved peer support and enhanced instructional materials. However, readiness remains variable in safety/ethics and generative AI use, and notably low in reflective practice and problem-solving, leading to persistent pedagogical challenges such as insufficient self-regulated learning and gaps requiring targeted training. Overall attitudes toward

TAMADDUN NURI

AI integration are positive, supporting increased acceptance despite mixed practical outcomes.

1.1 Summary of Quantitative and Qualitative Findings from Reviewed Studies :

Competence Area	**Readiness Level**	**Pedagogical Impact**
Data Literacy	Moderate–High	Improved resource management
Communication/Collaboration	High	Strengthened peer support
Digital Content Creation	High	Enhanced instructional materials
Safety/Ethics	Variable	Persistent gaps, requires training
Problem-Solving	Low–Moderate	Continuing challenge
Reflective Practice	Low	Weak self-regulated learning
Use of Generative AI	Variable	Mixed improvements in feedback
Attitudes Toward AI Integration	Positive overall	Increased acceptance

Conclusion. Current high-impact research demonstrates that AI-enriched training programs significantly enhance the professional digital competence of pre-service English teachers. The most substantial improvements occur in digital content creation, collaboration, and general attitudes toward AI-assisted instruction. However, key challenges—particularly those involving ethical reasoning, critical thinking, and reflective practice—remain insufficiently addressed. To close these gaps, teacher education programs must incorporate more nuanced, context-aware interventions and expand AI literacy components. Future research should prioritize cross-cultural adaptability, ethical dimensions of digital pedagogy, and long-term evaluation of AI-integrated instructional models.

REFERENCES

1. *Ambarwati, E. K. et al. (eds.). Preparing Quality Educators: An Analysis of Pre-Service English Teachers' Digital Competence.* Proceedings of the 8th International Conference on Language, Literature, Culture and Education (ICOLLITE 2024). *– Advances in Social Science, Education and Humanities Research, 939. – 2024. – P. 125–132. DOI: 10.2991/978-2-38476-438-9_12. https://doi.org/10.2991/978-2-38476-438-9_12*

2. *Fanaturiza, Y. A., Rindaningsih, I.* TPACK and Teachers' Digital Competence in the Era of Industry 4.0. *– International Journal Multidisciplinary. – 2024. – Vol. 1, No. 1. – E-ISSN 3031-9870. https://journal.antispublisher.com/index. php/ijmi*

3. *Karaduman, C.* Pre-Service EFL Teachers' Perceived AI Literacy and Competency: The Integration of ChatGPT Into English Language Teacher Education. *– SAGE Open. – 2025. – July–September. – P. 1–16. DOI: 10.1177/21582440251379712. https://journals.sagepub.com/doi/10.1177/21582440251379712*

4. *Mejías-Acosta, A., D'Armas Regnault, M., Vargas-Cano, E., Cárdenas-Cobo, J., Vidal-Silva, C.* Assessment of digital competencies in higher education students: development and validation of a measurement scale. *– Frontiers in Education. – 2024. – Vol. 9. – Article 1497376. DOI: 10.3389/feduc.2024.1497376. https://www.frontiersin.org/articles/10.3389/feduc.2024.1497376*

5. *OECD.* OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. *– Paris: OECD Publishing, 2023. DOI: 10.1787/c74f03de-en. https://doi.org/10.1787/c74f03de-en*

6. *Sumarni, S.* Assessing Digital Competence Among Pre-Service English Language Teachers: Strengths and Weaknesses. *– Journal of English Education and Teaching. – Vol. 7, No. 3. – P. 613–631. DOI: 10.33369/jeet.7.3.613-631. https://ejournal.unib.ac.id/JEET/article/view/27914*

7. Tütünis, B., Ünal, K., Köksal, Ö. *AI-Enhanced Professional Development: Effects on Secondary EFL Teachers' Digital Competencies and Affective Dimensions in Turkey.* – Journal of Posthumanism. – 2025. – Vol. 5, No. 3. – P. 859–882. DOI: 10.63332/joph.v5i3.805. URL: https://posthumanism.co.uk/jp/article/ view/805

8. Wen, W., Wen, H. *Bridging generative AI technology and teacher education: Understanding preservice teachers' processes of unit design with ChatGPT.* – Contemporary Issues in Technology and Teacher Education. – 2024. – Vol. 24, No. 4. – P. 582–611. https://citejournal.org

9. Yang, H., Zhang, Y., Guo, J. *Exploring the Effectiveness of Cooperative Pre-Service Teacher and Generative AI Writing Feedback on Chinese Writing.* – Behavioral Sciences. – 2025. – Vol. 15, No. 4. – P. 2–22. DOI: 10.3390/bs15040518. https://doi.org/10.3390/bs15040518

10. Zeng, M., Abdullah, Z., Cheah, K. S. L. *Pre-service Teachers' Digital Competence: A Systematic Review of Factors, Frameworks, and Global Patterns.* – International Journal of Learning, Teaching and Educational Research. – 2025. – Vol. 24, No. 8. – P. 218–247. DOI: 10.26803/ijlter.24.8.10. https://ijlter.org/index.php/ijlter/article/view/10291

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UO'K: 81'373.612.2:159.955.4(575.1)

METONIMIK BIRLIKLAR O'ZLASHTIRILISHINING EKSPERIMENTAL TADQIQI

Mamirova Xayriniso Komiljon qizi,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti uiversiteti tayanch doktoranti

AN EXPERIMENTAL STUDY ON THE ACQUISITION OF METONYMIC UNITS

Mamirova Khayriniso Komiljon qizi,
PhD Student (Basic Doctoral Candidate),
Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ УСВОЕНИЯ МЕТОНИМИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Мамирова Хайринисо Комильжоновна,
Соискатель степени PhD (базовый докторант),
Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы

https://orcid.org/0009-0005-9748-7840
e-pochta: xayrinisomamirova06@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada metonimik ma'nolarning o'zlashtirilish jarayoni o'zbek tili misolida psixolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Maqolada tilni o'zlashtiruvchilar tomonidan metonimik birliklarni kontekst orqali tushunish, anglash, idrok etish kabilar yoritiladi. Tadqiqot tajribasi "Hikoya" usulida tashkil etiladi.*

Kalit so'zlar: *metonimiya, psixolingvistika, kontekst, assotsiatsiya, nutqiy idrok, o'zlashtirish jarayoni, semantik aktivatsiya.*

Annotation: *This article analyzes the process of acquiring metonymic meanings from a psycholinguistic perspective, using the Uzbek language as an example. It explores how language learners comprehend, interpret, and perceive metonymic units through context. The experimental part of the research is conducted using the "Storytelling" method.*

Key words: *metonymy, psycholinguistics, context, association, speech perception, acquisition process, semantic activation.*

Аннотация: *В данной статье процесс усвоения метонимических значений рассматривается с психолингвистической точки зрения на материале узбекского языка. В работе освещаются вопросы понимания, осознания и восприятия метонимических единиц обучающимися через контекст. Экспериментальная часть исследования проводится методом «Рассказ».*

Ключевые слова: *метонимия, психолингвистика, контекст, ассоциация, речевое восприятие, процесс усвоения, семантическая активация.*

Kirish. So'nggi lingvistik tadqiqotlarda til birliklarini antroposentrik mohiyatini yoritish tendensiyasi kuchayayotganligini ko'rsatadi. Tilshunoslikning ana shunday tadqiqot yo'nalishlaridan biri, psixolingvistika sohasi tabiiy tilda mavjud bo'lgan barcha shakldagi til va nutq birliklarining idroki, tushunilishi, o'zlashtirish jarayoni kabi bir qancha bosqichlarni o'rganadi. Psixolingvistikaning markaziy masalalari: ongda til birliklarining shakllanishi, aqliy leksikonda saqlanishi hamda nutqiy jarayonda faollashuvi kabilarni o'z ichiga oladi [Leontiyev, 1977: 215]. Har bir tabiiy tilda baland va past chostotali ko'p ma'nolilik hodisasi mavjud. Bunday polisemantik

jarayonlar metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik (ba'zan) ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Tilni egallash jarayonida ko'p ma'noli so'zlar, jumladan, metonimik birliklarni o'zlashtirish murakkab nutqiy jarayonlarni boshdan kechiradi. Metonimiya asosiy polisemiya hosil qiluvchi mexanizmlardan biridir. Metonimiyaga asoslangan (o'ziga xos yoki oddiy) polisemiya, asosan, to'g'ri yoki umumiy otlarga ta'sir qiladi. Ko'p ma'noli so'zlarning aksariyatini tashkil etuvchi metonimiyalar ma'no ko'chishining faol turidir [Lakoff, 1980: 242]. Qisqacha qilib aytganda, metonimiya – shaxs, predmet yoki hodisaning nomi semantik aloqadorlik asosida boshqa narsa, hodisa yoki shaxs nomiga ko'chish hodisasidir [Karimov, 2020].

Ushbu maqolaning provardida metonimik birliklarning o'zlashtirilish jarayonini psixolingvistik aspektda, o'zbek tili misolida ochib berish hamda tilni qabul qiluvchilarda metonimik ma'noning matndan tushunishi uchun kerak bo'ladigan mexanizmlarni aniqlash maqsad qilingan. Ushbu mexanizlarning ishlashida diqqat va xotiraning o'rni va ahamiyati ham tahlilga tortilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maqolaning mohiyatini ochishda, oldinga qo'yilgan maqsadni yuzaga chiqarishda bir qancha eksperimental tadqiqot materiallari uchun kerakli manbalar yig'ildi. Tadqiqotimizning mohiyatiga mos tajriba sifatida "Hikoya" tarjiba usuli tanlandi. Tajribaning asosiy maqsadi 15 yoshli bolalarda o'zbek tilidagi metonimik birliklarning o'zlashtirilish mexanizmlarini topish hamda kontekst asosida beriladigan ko'chma ma'noni tushunish darajasini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda davriy bir martalik usuldan foydalanildi. Tajribada 3 xil hikoya (she'riy matn) turidan foydalanildi. Qatnashuvchilarning har biri uchala hikoya (she'riy matn)ni o'qiydi/tinglaydi hamda har bir maqsadli qo'yilgan savollarga javob beradi. Tajriba o'tkazish uchun maktab ma'muriyati va o'quvchilarning o'zlaridan rozilik olindi.

Tajriba ishtirokchilari. O'zbekiston Respublikasi hududidagi milliy maktablarning 15 yoshli (9-sinf) o'quvchilari. Retsipiyetnlar jami 32 nafar, shundan 14 nafari qizbola o'quvchi, 18 nafari o'g'ilbola o'quvchi. Ona tili va ta'lim tili o'zbek tili. Nutqiy va fiziologik rivojlanishi normada, lingvistik ko'nikmasi o'rtacha.

Tajriba materiali. Tajribada 3 xil: muallif va mahsulot, joy va shu joyda yashovchi aholi hamda asbob va shu asbob orqali yuzaga keladigan harakat munosabatidagi metonimik model turlari tanlab olindi [Z.Muzaffarova, 2025: 208].

Tajriba uchun quyidagi uchta hikoya (she'riy) matn tanlandi:

1. "O'qituvchi o'quvchilariga qarata Alisher Navoiyning rasmini ko'rsatib: "Ushbu rasmi berilgan shaxsga oid ma'lumotlarni klasterga soling va ijodidan parcha keltiring", deya topshiriq berdi. Afsuski, sinf o'quvchilarining yarmidan ko'pi vazifani bajara olishmadi. Shunda o'qituvchi:

"O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,
Oltin boshning kalla bo'lgani shudir",

deb, E.Vohidov ijodidan parcha o'qidi.

2. *"Buxoro uyg'ondi"* hikoyasi

Ertalab quyosh endigina ufqdan ko'tarilayotgan payt edi. Eski shahar darvozasi ochilishi bilan ko'chalarda hayot uyg'ona boshladi. Nonvoyxonalardan issiq non hidi, choyxonalardan esa yangi damlangan choyning hidi kelardi. Bozorda savdogarlar joy-joyiga joylashib olishar, bolalar maktabga shoshilishar edi. Shu payt maktab o'qituvchisi Saida opa derazadan tashqariga qarab: - Qaranglar, bolalar, Buxoro uyg'ondi! - dedi tabassum bilan.

3. Tajribamizning uchinchi qismida she'riy matndan foydalandik:

Yurakni qiynab turgan
So'zi bo'lmasa agar,
Shoirni undash bekor
Qo'liga *qalam* olmas.

Muhokama va natijalar.

Tajriba jarayoni. Ishtirokchilar jamoasiga hikoyalar o'qib berildi. Keyin, har bir sinaluvchiga 3 ta savol berildi:

1. ... bu hikoyadagi "...." jumlasi nimani ifodalaydi?
2. Senga bu so'zning ma'nosi birinchi eshitganingda tushunarli bo'ldimi?
3. Xuddi shunday iborani oldin ham eshitganmisan?

Sinaluvchilar tomonidan berilgan javoblar og'zaki va yozma shaklda belgilab olindi. Berilgan javoblarga asoslanib, natijalar quyidagicha baholandi:

✓ Metonimik ma'noni to'liq anglagan, tushungan;

➢ Ma'noni literal (to'g'ridan-to'g'ri) o'z ma'nosida tushungan;

X Noto'g'ri assotsatsiya (so'z ma'nosini boshqa ma'no bilan adashtirgan).

Eksperimentimiz 40 daqiqa davom etdi.

Tajriba natijasi. Ushbu tajribamiz orqali o'zbek tili birinchi til bo'lgan 15 yoshli bolalarda metonimik birliklarni tushunish mexanizmini aniqlash, ya'ni so'zning asl ma'nosidan tashqari, ko'chma ma'nodagi semantik aloqadorlikni qay darajada tushuna olishini aniqlash maqsad qilingan edi.

Birinchi hikoya bo'yicha shaxs va uning mahsulotiga asoslangan metonimik birlik asosidagi tajribamizda jami 32 ta 15 yoshli sinaluvchi ishtirok etdi. Shundan 4 ta sinaluvchida javob reaksiyasi mavjud.

Berilgan javoblar:

B01: *"Kitob o'qimay qo'ysa";*

B02: *"Alisher Navoiy haqida eshitmagan";*

B03: *"O'z tarixini o'rganmay qo'ysa";*

B04: *"Navoiyning asarlarini o'qimay qo'ysa".*

Yuqoridagi javob reaksiyalariga tayanib, quyidagi jadvalda sinaluvchilarning ***ishlab chiqaruvchi va uning mahsuloti*** o'rtasidagi aloqadorlik asosidagi metonimik birliklarni o'zlashtirish darajasini ko'rish mumkin:

Sinaluvchilar	Ishtirokchilar soni	To'liq tushungan %	Literal ma'nonoda tushungan	Noto'g'ri assotsiatsiya	Umumlashtiruvchi o'rtacha natija
15 yoshlilar	**32**	**3.125%**	**3.125%**	**6.25%**	**4.17%**

Ushbu tajribada qatnashuvchilar *"Navoiy"* so'zini to'g'ridan-to'g'ri shaxs sifatida qabul qilish jarayoni ham, *"Navoiy asarlari"* ma'nosining ham anglash darajasi past natija berdi. Natija shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda 15 yoshli o'quvchilar "ijodkor-asar" tipidagi metonimik bog'lanishni ongli idrok etish darajasi juda past. Bu turdagi metonimiya, asosan, madaniy va badiiy matnlar asosida o'zlashtiriladigan hodisa.

Ikkinchi hikoyaga ko'ra, joy va shu joyda yashovchi aholi munosabatidagi metonimik birlik berilgan tajribamizda ham jami 32 ta 15 yoshli sinaluvchi ishtirok etdi. Shundan 6 ta sinaluvchida javob reaksiyasi mavjud.

Berilgan javoblar:

B01: *"Buxoroda tong otdi";*

B02: *"Odamlar uyg'ondi";*

B03: *"Tarixiy va madaniy narsalar uyg'ondi";*

B04: *"Odamlarning uyg'onishi";*

B05: *"Odamlarning o'z ishlarini boshlashi";*

B06: *"Buxorodagi oddiy kunning boshlanishi";*

Yuqoridagi javob reaksiyalariga tayanib, quyidagi jadvalda sinaluvchilarning ***joy va shu joyda yashovchi aholi*** munosabatidagi metonimik birliklarni o'zlashtirish darajasini ko'rish mumkin:

Sinaluvchilar	Ishtirokchilar Soni	To'liq tushungan %	Literal ma'nonoda tushungan	Noto'g'ri assotsiatsiya	Umumlashtiruvchi o'rtacha natija
15 yoshlilar	**32**	**9.375%**	**6/25%**	**3.125%**	**6.25%**

Ikkinchi matn asosidagi tajribada esa 9.325 % sinaluvchi metonimik ma'noni to'liq tushungan, ya'ni *"Buxoro"* so'zi orqali *"shahar aholisi"* nazarda tutilgani anglangan. 6.25 % qatnashuvchi esa literal ma'noda, ya'ni *"shaharning uyg'onishini"* fizik tushuncha sifatida qabul qilgan. 3.125% ida noto'g'ri assostisatsiya (tarixiy, madaniy narsalarning uyg'onishi) bo'lgan.

Ushbu natija shuni anglatadiki, joy-aholi tipidagi metonimiya 15 yoshli bolalar uchun kontekstual tarzda anglashiladigan hodisadir. Bolalar joy nomini *"odamlar bilan birgalikda harakat qiladigan birlik"* sifatida idrok etishi uchun vizual yoki hikoyaviy yordamga muhtojdirlar. Joy-aholi munosabatidagi metonimiya 15 yoshdan boslab qisman avtomatlashayotgan semantik bog'lanish hosil qila

TAMADDUN NURI

boshlaydi. Ammo hali to‘liq avtomatlashgan sistematik tushunish shakllanmagan bo‘ladi.

Uchinchi tajriba materiali she’riy matnga ko‘ra, asbob va shu asbob orqali yuzaga keladigan harakat asosidagi metonimik birlik berilgan tajriba qismida ham jami 32 ta 15 yoshli sinaluvchi ishtirok etdi. Shundan 5 ta sinaluvchida javob reaksiyasi mavjud.

Berilgan javoblar:

B01: *“Shoirning yozish uchun fikri yo‘qligi”;*

B02: *“Shoirning yozmay qo‘yishi”;*

B03: *“Shoirning ijod qilmasligi”;*

B04: *“Shoirning ijod etmay qo‘yishi”;*

B05: *“Shoirning qo‘lidan hech narsa kelmay qolishi”*

Yuqoridagi javob reaksiyalariga tayanib, quyidagi jadvalda sinaluvchilarning asbob va shu asbob orqali yuzaga keladigan harakat asosidagi metonimik birliklarni o‘zlashtirish darajasini ko‘rish mumkin:

Sinaluvchilar	Ishtirokchilar Soni	To‘liq tushungan %	Literal ma’nonoda tushungan	Noto‘g‘ri assotsiatsiya	Umumlashtiruvchi o‘rtacha natija
15 yoshlilar	**32**	**12.5 %**	**0 %**	**3.125 %**	**7.8125%**

So‘nggi tajribada 12.5 sinaluvchi metonimik ma’noni to‘g‘ri tushungan, ya’ni *“qalam”* so‘zining *“yozish”* harakati bilan aloqasini fahmlagan. Tadqioqtimiz doirasida predmet-harakat aloqadorligidagi metonimiyani ishtirokchilar uchun eng yaxshi tushunilgan turi sifatida ko‘rish mumkin. Bu natija shuni ko‘rsatadiki, asbob-harakat aloqadorligining real tajriba bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi sabab bu turdagi metonimiyalar idrok qilish jihatdan aniq va sezgirroq bo‘ladi.

15 yoshli bolalar bu turdagi metonimiyani motorik tajriba (qalam bilan yozish, qalamni ushlash) orqali tezroq o‘zlashtiradi. Bu esa sensor-motor asosli semantik tafakkurning faol harakatini bildiradi. Shu sababli bu turdagi metonimiyada metonimik o‘tish tezroq yuz berdi.

Xulosa. Metonimik birliklarning o‘zlashtirilishini aniqlashga qaratilgan eksperimental tajriba natijalariga tayanib quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin.

15 yoshli birinchi til va ta’lim tili o‘zbek tili bo‘lgan o‘quvchilarda metonimik birliklarni tushunish jarayoni kognitiv rivojlanishning o‘tish bosqichida ekanligi aniqlandi. Ushbu yoshdagi bolalar so‘zning aloqadorlik asosidagi ko‘chma ma’nolarini, kontekstga qarab ma’no o‘zgarishlarini to‘liq avtomatlashgan holatda aniqlay olmaydi. Shunga qaramay, ko‘rgazmali-aniq detallarga asoslangan metonimiyalarni tezroq o‘zlashtira olishlari mumkin. Ushbu natijalar ta’lim jarayonida hikoya asosli, rasmli hamda kontekstual topshiriqlar orqali metonimik anglash jarayonini rivojlantishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By.* – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
2. Radden G., Kövecses Z. Towards a theory of metonymy // *Metonymy in Language and Thought.* – Amsterdam: John Benjamins, 1999. – 17–59 p.
3. Panther K.-U., Thornburg L. L. Metonymy // *The Oxford Handbook of Cognitive Linguistics.* – Oxford: Oxford University Press, 2007. – P. 236–263.
4. Yo‘ldoshev M. *Tilshunoslik asoslari.* – Toshkent: Fan, 2007. – 110 b.
5. Creswell J. W. *Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches.* – 4th ed. – Thousand Oaks (CA): Sage, 2014. – 342 p.
6. Dörnyei Z. *Research Methods in Applied Linguistics.* – Oxford: Oxford University Press, 2007. – 336 p.
7. Muzaffarova Z. O‘zbek tilida kognitiv metonimiya modellarining ifodalanishi. – Xorazm: Ma’mun akademiyasi axborotnomasi, 2025. – 206-209 s.
8. Леонтьев А. А. Психолингвистика и значение слова. – М: Наука, 1977. – 215 с.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK:94(575.1)

O‘LKADA RUS-TUZEM MAKTABLARINING TASHKIL ETILISHI

Jo‘rayev Xalimjon Tuxlibayevich, Namangan dalat texnika universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

СОЗДАНИЕ РУС-ТУЗЕМ ШКОЛ В ТУРКЕСТАНЕ

Жураев Халимжон Тухлибаевич,Наманганский государственный технический университет, кафедра социальных наук

ESTABLISHMENT OF RUSSIAN-STYLE SCHOOLS IN TURKESTAN

Jurayev Khalimjon Tuxlibayevich, Namangan State Technical University, Department of Social Sciences

e-mail: X_jorayev.@umail.uz

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Turkistonning xalq maorifi haqida hamda mustamlakachilik tuzumi o‘rnatilgan hududlarida, xususan, sobiq Qo‘qon xonligi yerlarida musulmon hayotida katta o‘rin egallagan ta’lim tizimini yoritib berishga harakat qilingan. Turkiston istilosidan so‘ng, Turkiston ma’muriy hukumati o‘lkada rus maktablari, bolalar va qizlar uchun progimnaziyalar, shuningdek, mahalliy aholi uchun rus-tuzem maktablari ochishga muvaffaq bo‘ldilar. Shundan so‘ng ushbu masala davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi va o‘lkada rus-tuzem maktablari ochila boshlandi. Mustamlakachilik siyosati musulmon ta’lim sohasidan boshlandi.*

Kalit so‘zlar: *Turkiston, rus-tuzem maktablari, eski maktab, masjid, qorixona, madrasalar, general-gubernatorligi, siyosiy hayot.*

Аннотация: *В данной статье предпринята попытка осветить народное образование Туркестана и образовательную систему, сыгравшую большую роль в жизни мусульман в районах утверждения колониального строя, в частности, на землях бывшего Кокандского ханства. После завоевания Туркестана административному правительству Туркестана удалось открыть русские школы, прогимназии для мальчиков и девочек, а также школы русской системы для местного населения. После этого этот вопрос поднялся на уровень государственной политики, и в стране открылись школы русской системы. Политика колониализма началась в области мусульманского образования.*

Ключевые слова: *Туркестан, школьная система России, старая школа, мечеть, монастырь, медресе, генерал-губернатор, политическая жизнь.*

Abstract: *In this article, an attempt was made to shed light on the public education of Turkestan and the educational system that played a major role in Muslim life in the areas where the colonial system was established, in particular, in the lands of the former Kokand Khanate. After the conquest of Turkestan, the administrative government of Turkestan managed to open Russian schools, pro-gymnasiums for boys and girls, as well as Russian-system schools for the local population. After that, this issue rose to the level of state policy, and Russian-system schools were opened in the country. The policy of colonialism started in the field of Muslim education.*

Key words: *Turkestan, Russian-system schools, old school, mosque, monastery, madrasas, governor general, political life.*

KIRISH. Usbu maqolada Turkistonning maorifi haqida hamda mustamlakachilik tuzumining o‘rnatilgan hududlarida, xususan, sobiq Qo‘qon xonligi yerlarida musulmon hayotida katta o‘rin egallagan ta’lim tizimini yoritib berishga harakat qilingan. Turkiston ma’muriy

hukumati o‘lkada rus maktablari, bolalar va qizlar uchun progimnaziyalar, shuningdek, mahalliy aholi uchun rus-tuzem maktablari ochishga muvaffaq bo‘ldilar. Shundan so‘ng ushbu masala davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi va o‘lkada rus-tuzem maktablari ochish va asosiy e’tibor ularni ilm-ma’rifatdan chetda ushlab turishga qaratilgan edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Tarixchi olim T.Qozoqovning Farg‘ona vodiysidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat va XX asr boshlaridagi jadidchilik harakati mavzusidagi avtoreferatida hamda Akromov V-XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘zbekistonda xalq maorifi nomli maqolasida Turkistonda talim tizimida o‘lkada rus maktablari hamda mahalliy o‘quv yurtlarining faoliyati to‘g‘risida tahlil olib borilgan. Rus-tuzem maktablarini aholining katta qismi qo‘llab-quvvatlamagan. Shu bois ushbu maktablar hech qachon ommaviy bo‘la olmas edi. Buni podsho amaldorlarining o‘zlari ham yaxshi anglab yetar edilar. Masalan, Farg‘ona o‘quv yurtlarni inspektori F.Yegorov bu borada “...faqat milliy maktablargina ommaviy bo‘lishi mumkin, rus-tuzem maktablari esa milliy bo‘lmay, aksincha, sun’iy o‘ylab topilgandir”[1], degan edi.

Tarixchi olim Y.Qosimov o‘quv-tarbiya jarayonlarida rus tilini o‘rgatishda alohida e’tibor qaratilgan rus-tuzem maktablarining dastlabkisi Namanganda 1886-yilda ochilganligining ma’lumotlarini bergan edi[2].

NATIJALAR. Turkistonning birinchi general-gubernatori K.P.Kaufman podsho hukumatiga 1873-yilda “Turkiston viloyatida o‘qish bo‘limi va xalq maorifi qurilishining rejasi”ni taqdim etadi. Ana shu reja asosida 1875 yili Turkiston xalq maorifi haqida maxsus qonun chiqariladi. Shundan so‘ng, 1876 yildan Bosh inspektor rahbarligida O‘lka o‘quv yurtlari boshqarmasi tashkil etildi. Ushbu qonunga muvofiq, Turkiston ma’muriy hukumati o‘lkada rus maktablari, bolalar va qizlar uchun progimnaziyalar, shuningdek, mahalliy aholi uchun rus-tuzem maktablari ochish huquqiga ega bo‘ladi[3].

Mustamlakachilar oldida mahalliy xalq ta’lim tizimini izdan chiqarishning ikkita muhim sharti bor edi. Birinchisi, tashkil topib, rivojlanib borayotgan yangi usul maktablarning taraqqiyotiga yo‘l qo‘ymaslik, ikkinchisi o‘lkada imperiya manfaatlariga xizmat qiluvchi rus-tuzem maktablarini rivojlantirish.

Shundan so‘ng ushbu masala davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi va o‘lkada rus-tuzem maktablari ochila boshlandi. Rus-tuzem maktablari g‘oyasiga general-gubernator N.O.Rozenbax (1884-1889) asos soldi. Birinchi rus-tuzem maktabi 1884-yil 19-dekabrda Toshkentning Eski shahar qismida ochildi[4].

Tabiiyki, mustamlakachi ma’muriyatning rus-tuzem maktablarini tashkil etishdan ko‘zlagan maqsadlari bor edi. Bu birinchi galda, o‘lkada ruslashtirish siyosatini amalga oshirish bo‘lsa, yana bir jihati mahalliy aholi orasidan o‘ziga sadoqatli kishilarni tarbiyalashdan iborat bo‘lgan.

Farg‘onada harbiy gubernatori N.Korolkov 1898-yili Rossiya imperatoriga bergan hisobotida mahalliy aholi bolalarini ixtiyoriy rus-tuzem maktablariga berishlariga erishish masalasida o‘zining fikrlarini bayon qiladi. Uning fikricha, boshqaruv ma’muriyati ish qog‘ozlarini keyingi 5 yil ichida rus tiliga o‘girilishi yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qilishini bayon qiladi. Yerli aholi hukumat mansablariga qiziqqan mahalliy aholi albatta o‘z farzandlarini ushbu maktablariga berishlarini bayon qiladi. Shu bilan birga chor generallari rus-tuzem maktabini hamda shahar bilim yurtlarini muvaffaqiyatli bitirgan mahalliy aholi bolalariga jiddiy imtiyozlar berish lozimligi g‘oyasini ilgari suradilar[5].

---

[1] Козаков Т. К. Общественно-политическое положение в Ферганской долине и джадидское движение в начале XX века. Автореф. дис. ... канд. ист. наук.-Тошкент: 2001.-20 с.

[2] Қосимов Й. Наманган тарихидан лавҳалар (1917 йилгача).- Тошкент: Фан, 1990.-Б. 28. (56 б.)

[3] Акромов В. XIX аср охири ва XX аср бошларида Ўзбекистонда халқ маорифи //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1972.-№6.-Б.53.

[4] Остроумов Н.П. Сарты. Этнографические материалы.- Тошкент: Среднеазиатская жизнь, 1908. -С. 74.

[5] Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида /Тузувчилар: Содиқов Ҳ., Шамсутдинов Р., Равшанов П., ва бошқалар.-Тошкент: Шарқ, 2000. -Б.253-254.

Hukumat rus-tuzem maktablarini ravnaqi uchun sa'y – harakatlarni amalga oshirganlar. Mahalliy maktablardagi kabi, bu yerda ham ta'limda yaxshi natijalarga erishgan o'quvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirib borilgan. Masalan, 1911-yilning 18-mayida Qo'qondagi rus-tuzem maktabini tamomlayotgan 20 nafar musulmon bolalari uchun imtihon bo'lib o'tadi. Unga Farg'ona viloyat maorif inspektori F.Yegorov va Qo'qon uyezdi boshlig'i V.Medinskiylar tashrif buyuradilar. O'quvchilar ma'muriyat rahbarlari, rus va musulmon muallimlari ko'z o'ngida hisob ilmi, geografiya, tarix, rus tili fanlaridan imtihonlar topshiradilar. Imtihondagi o'quvchilar yaxshi natijalar ko'rsatganliklari uchun inspektor 100 rubl hadya qiladi. Shu bilan birga inspektor, mazkur 20 nafar bitiruvchi talabalarga o'z hisobidan soat sovg'a qilishi haqida farmoyish chiqarib, imtihonning ikkinchi kuni 18-mayda o'sha soatlarni o'z qo'li bilan topshiradi[6].

Garchi, ma'muriyat rus-tuzem maktablarini tashkil etgan bo'lsada, ularning qurilishi va tashkil etilish xarajatlari mahalliy xalq hisobidan qoplangan. Misol uchun, 1904-yilda Namangan uyezdining hokimi N.Yesin hamda pristav P.Ivanovlarning tashabbuslari bilan Namangan uyezdiga qarashli To'raqo'rg'on qishlog'ida rus-tuzem maktabi ochiladi. Mazkur maktabning xarajatlari To'raqo'rg'on, Qirg'izqo'rg'on hamda Xonobod qishloqlari aholisi tomonidan qoplangan.

Hukumat nashrlarida ota-onalarni bu ta'lim dargohlariga qiziqtirish maqsadida maktabdagi shart-sharoitlar, o'quvchilar maktabda maxsus kiyim bilan ta'minlanganligi, bu yerda ovqatlanish tashkil etilganligi, yotoqxonalarda krovatlar mavjudligi, o'quv xonalarining kengligi, sinf xonalarida stol-stullarning mavjudligi, bolalarning ham musulmoncha, ham ruscha o'qish va yozishni o'rganish imkoniyatlari mavjudligiga urg'u berilgan[7].

Lekin, hamma hukumat maktablari ham hashar usuli bilan tashkil etilavermagan. Masalan, 1876-yil 16-sentyabrda Farg'ona viloyatida rus maktablari ochish uchun ajratilgan 3000 rubl mablag'dan Qo'qon shahrida rus harbiylari, amaldorlarining bolalari uchun birinchi boshlang'ich rus maktabini ochish uchun 478 so'm 89 tiyin ajratilgan[8].

Rus-tuzem maktabining targ'ibotchilari o'quvchilarning maktabni tamomlaganidan keyingi imkoniyatlarini bayon qilishni ham nazardan qochirmaganlar: "Agar maktabxonani tamom qilsalar ota-onasi, qavmi qarindoshlarig'a va boshqa xaloyiqlarg'a ko'b foyda keltiradurlar. Masalan, hokimlarg'a, pristavlarg'a, sudyalarg'a, notariuslarg'a, tarjimon bo'lub ham boshqa turli foydalik ishlarga sabablar bo'lub, shul sababli ishkul bino bo'lung'on yillarda To'raqo'rg'on qozisi G'oyib madrasasini mudarrisi va boshqa ofiyatlik ishga aralashib yurushgan To'raqo'rg'on yaxshilari avom xalqlarga ibrat bo'lsin, deb maktabxonaga bolalarini hammadin ilgari olib kelishib berdilar". Ammo, Xonobod va Qirg'izqo'rg'on mingboshilari aholidan ushbu maktablar uchun o'quvchilar topib berish vazifasini bajara olmaydilar.

MUHOKAMA. Shu zayldagi maktablarni bitirganlar jamiyatda imtiyozga ega bo'lganliklari bois, buni ko'rgan mahalliy aholi vakillari shu sababli ham o'z bolalarini rus–tuzem maktablariga bera boshlaganlar. To'raqo'rg'ondagi ushbu maktabda 1912/1913-o'quv yilida bolalarning soni 15 dan to 20 gacha bo'lgan bo'lsa, yil o'rtasida, ya'ni, 1913-yilning boshida bolalar soni 30 dan to 35 nafargacha yetadi. Mazkur yilni oxirida 55 dan oshadi. Ammo, 1914-yilning oxiri hamda 1915-yilning boshiga kelib esa, ularning adadi 23 taga tushib qoladi[9].

Ushbu maktablar mahalliy xalq ta'lim muassasalariga nisbatan aholi orasida ommalasha olmasligini, an'anaviy milliy maktablar erishgan natijalarga erisha olmasligini ayrim podsho

[6] Қўқонда рус-тузем мактабининг имтиҳони //Туркистон вилоятининг газити, 1911. 29 май.

[7] Тўрақўрғон мактабхонаси /Русско-туземная школа в Тюря кургане //Туркистон вилоятининг газити, 1915 йил, 8 февраль.

[8] Акромов В. XIX аср охири ва XX аср бошларида Ўзбекистонда халқ маорифи //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1972.-№6.-Б.53.

[9] Тўрақўрғон мактабхонаси (Русско-туземная школа в Тюря кургане) //Туркистон вилоятининг газити, 1915 йил, 8 февраль.

amaldorlari o‘z vaqtida tushunib yetib, bu boradagi fikrlarini bayon qilgan edilar[10].

XX asrning 20-yillaridagi ba’zi sovet davri mualliflari ham mana shu maktablarning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri talqin qila olgan edilar: «...Rus-tuzem maktablarining asosiy maqsadi, o‘lka mahalliy aholisining ma’rifiylik darajasini rivojlantirish bo‘lmay, aksincha, ularni ruslashtirishdangina iborat edi...»[11].

Turkistonga ko‘chirib keltirilayotgan aholi sonining ortib borishi, tabiiy ravishda bu yerda maktablar sonining ortishiga ham sabab bo‘ldi. Shu sababli, Xalq maorifi vazirligi 1878-yilning yanvar oyidan boshlab yana shunday ta’lim muassasalaridan 13 tasini ochilishiga ruxsat berdi[12].

XULOSA. O‘lkada mavjud turli xildagi boshlang‘ich bilim yurtlari 1876-yili O‘quv muassasalari bosh boshqarmasi nazoratiga olinib, qonunda belgilangan ta’lim muassasalarining mavjud turlari tartibida qayta tashkil etildi. Turkiston bo‘ylab xalq maorifi sohasida o‘zgarishlar amalga oshirilayotgan bir paytda o‘lkada ma’muriy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan Toshkent, Samarqand, Qo‘qon, Namangan kabi yirik shaharlarda, savdo va sanoat tarmoqlari bilan birga maorif sohasida ham o‘zgarishlar amalga oshirib borildi.

Toshkentda o‘lka boshqaruv idoralarining joylashganligi, rus aholisining ko‘pligi oqibat natijada ijtimoiy guruhlarning xilma-xilligini ham vujudga keltirdi. Toshkentning “yangi shahar” qismi Turkistonning eng yirik sanoat va madaniy markazlaridan biriga aylandi. Shu munosabat bilan shaharda o‘quv yurtlari tarmog‘i va turi uzluksiz ko‘payib bordi.

Mazkur ta’lim muassasalari podsho ma’muriyati tomonidan muayyan maqsadlarni amalga oshirish uchun tashkil etildi. Biroq, shuni ham qayd etish kerakki, ularning faoliyati natijasida o‘lka xalqlarining dunyoviy fanlar bo‘yicha ma’lumotlilik darajasi, ta’lim berish usullari takomillashib bordi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Akromov V. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘zbekistonda xalq maorifi //O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1972 yil.
2. Алексеенков П. Кокандская Автономия /Революция в Средней Азии.-Тошкент: Изд. Правда Востока, 1928 г.
3. Козаков Т. К. Общественно-политическое положение в Ферганской долине и джадидское движение в начале XX века. Автореф. дис. ... канд. ист. наук.-Тошкент: 2001 г.
4. Остроумов Н.П. Сарты. Этнографические материалы. -Тошкент: Среднеазиатская жизнь, 1908 г.
5. Qosimov Y. Namangan tarixidan lavhalar (1917-yilgacha). - Toshkent: Fan, 1990-yil.
6. Qo‘qonda rus-tuzem maktabining imtihoni //Turkiston viloyatining gaziti, 1911-yil.
7. To‘raqo‘rg‘on maktabxonasi /Russko-tuzemnaya shkola v Tyurya kurgane //Turkiston viloyatining gaziti, 1915 yil.
8. O‘zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida /Tuzuvchilar: Sodiqov H., Shamsutdinov R., Ravshanov P. va boshqalar. - Toshkent: Sharq, 2000 yil.
9. O‘zbekiston Milliy arxivi, 47-I fond, 1-ro‘yxat, 1148-ish, 137-varoq.
10. O‘zbekiston Milliy Arxivi., I-47 fond, 1-ro‘yxat, 72 – ish, 137 [a] betning orqa tomoni.

[10] Ўзбекистон Миллий архиви, 47-И фонд, 1- рўйхат, 1148-иш, 137-вароқ.

[11] Алексеенков П. Кокандская Автономия /Революция в Средней Азии.-Тошкент: Изд. Правда Востока, 1928.-№1.-С.21.

[12] Ўзбекистон Миллий Архиви., И-47 фонд, 1-рўйхат, 72 – иш, 137 [a] бетнинг орқа томони.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 37.018.43:004.9

ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING METODIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti "Matematika" kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ВНЕДРЕНИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ В ПРАКТИКУ

Нурмаханов Кайрат Ерпайызович, доцент кафедры «Математика» Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

IMPROVING THE METHODOLOGICAL SUPPORT FOR THE IMPLEMENTATION OF ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES IN PRACTICE

Nurmakhanov Kayrat Erpayizovich, Associate Professor, Department of Mathematics, Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

nurmakhanovk88@gmail.com

https://orcid.org/0009-0005-4449-7148

Annotatsiya: *Maqolada elektron ta'lim resurslarini amaliyotga joriy etishning metodik ta'minotini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida ETR joriy etishning metodik modeli ishlab chiqilgan va uning samaradorligi eksperimental yo'l bilan tekshirilgan. Natijalar taklif etilgan metodikaning o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va o'quv jarayoni samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Elektron ta'lim resurslari, metodik ta'minot, joriy etish, raqamlashtirish, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik texnologiyalar.*

Аннотация: *В статье освещены вопросы совершенствования методического обеспечения внедрения электронных образовательных ресурсов. В ходе исследования разработана методическая модель внедрения ЭОР и экспериментально проверена ее эффективность. Результаты показывают значимость предложенной методики в повышении профессиональной подготовки преподавателей и эффективности учебного процесса.*

Ключевые слова: *Электронные образовательные ресурсы, методическое обеспечение, внедрение, цифровизация, профессиональная подготовка, педагогические технологии.*

Abstract: *The article covers the issues of improving the methodological support for the implementation of electronic educational resources. During the research, a methodological model for EER implementation was developed and its effectiveness was experimentally tested. The results demonstrate the importance of the proposed methodology in improving teachers' professional training and the effectiveness of the educational process.*

Key words: *Electronic educational resources, methodological support, implementation, digitalization, professional training, pedagogical technologies*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi elektron ta'lim resurslarini keng qo'llash zaruratini tagozo etmoqda. Biroq, ko'plab ta'lim muassasalari

ETRlarni amaliyotga joriy etishda metodik ta'minotning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi bilan bog'liq muammolarga duch kelmoqda. O'qituvchilarning ETRdan samarali foydalanish ko'nikmalarining yetishmasligi, ularni o'quv jarayoniga integratsiya qilish usullarining noaniqligi va metodik qo'llanmalarning yetishmasligi bu muammolarning asosiy omillaridandir.

Mavjud tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ETRlarni joriy etishning muvaffaqiyati nafaqat texnik jihozlar bilan, balki metodik ta'minotning sifati bilan ham bevosita bog'liq. Bugungi kunda ETRni yaratish va ulardan foydalanish bo'yicha ko'plab ishlanmalar mavjud bo'lsa-da, ularni amaliyotga tatbiq etishning tizimli metodikasi hali ham yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Ushbu maqolaning magsadi elektron ta'lim resurslarini amaliyotga joriy etishning metodik ta'minotini takomillashtirish va uning samaradorligini eksperimental tekshirishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ETRni joriy etish muammosi xalqaro miqyosda dolzarb hisoblanadi. Robert M. Gagnéning o'qitish nazariyasi ta'kidlashicha, ta'lim texnologiyalarini qo'llash o'quv jarayonining barcha bosqichlarini e'tiborga olgan holda amalga oshirilishi kerak [1]. M. J. Koehler va P. Mishra tomonidan taklif etilgan "Texnologik Pedagogik Mazmun Bilimi" (TPACK) modeli o'qituvchilarning texnologik, pedagogik va mazmun bilimlarini integratsiya qilish zaruratini ta'kidlaydi [2].

Tadqiqot metodologiyasi quyidagilardan iborat:

5. **Tadqiqot dizayni:** Eksperimental guruh (n=45) va nazorat guruhi (n=45) o'rtasida solishtirma pedagogik eksperiment o'tkazildi.
6. **Metodik model ishlab chiqish:** ETRni joriy etishning tizimli metodik modeli taklif etildi, u quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:
   - Tayanch tayyorgarlik bosqichi
   - Loyihalash va adaptatsiya bosqichi
   - Amaliy joriy etish bosqichi
   - Monitoring va baholash bosqichi
7. **Ma'lumot yig'ish usullari:**
   - So'rovnoma va testlar
   - Kuzatuv va intervyular
   - Ekspert baholash
8. **Statistik tahlil:** SPSS 26 dasturida T-test va ANOVA usullari qo'llanildi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

4. **O'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi:** Eksperimental guruh o'qituvchilarining ETRdan foydalanish ko'nikmalari 68% dan 89% gacha oshdi.
5. **O'quv jarayoni samaradorligi:** Eksperimental guruh o'quvchilarining bilim darajasi nazorat guruhiga nisbatan 23% yuqori bo'ldi.
6. **Metodik materiallar:** 15 ta metodik qo'llanma va 45 ta didaktik material ishlab chiqildi.

- **Statistik tahlil:** Natijalar statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlandi ($p<0.01$).

Muhokama. Olingan natijalar taklif etilgan metodik modelning samaradorligini tasdiqlaydi. Tizimli yondashuv ETRni joriy etish jarayonini tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, to'rt bosqichli model o'qituvchilarga bosqichma-bosqich tayyorgarlik ko'rish imkonini berdi.

TPACK modeli asosida qurilgan metodika o'qituvchilarning nafaqat texnologik, balki pedagogik va mazmun bilimlarini ham rivojlantirishga xizmat qildi. Bu esa ularning ETRni o'quv jarayoniga integratsiya qilish qobiliyatini oshirdi.

Tadqiqotning cheklovlari: Tadqiqot faqat bir ta'lim muassasasida o'tkazilgan va uzoq muddatli ta'sir o'rganilmagan.

Ushbu tadqiqot natijalari elektron ta'lim resurslarini amaliyotga joriy etishning metodik ta'minotini takomillashtirishning samaradorligini aniq ko'rsatdi. Olingan ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish va ilmiy adabiyotlar bilan solishtirish orqali quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin.

Tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatadiki, ETRni joriy etishda qo'llanilgan to'rt bosqichli metodik model samarali bo'lib, bu o'qituvchilarning bosqichma-bosqich tayyorgarlik ko'rishiga imkon berdi. Tayanch tayyorgarlik bosqichida o'qituvchilarning dastlabki bilim darajasi aniqlandi va ularga zarur texnologik asos yaratildi. Bu Gagné (1985) tomonidan ta'kidlangan "o'qitish shartlari" nazariyasiga mos keladi, bunda o'qitish jarayoni o'quvchilarning (bu holda o'qituvchilarning) boshlang'ich tayyorgarligini hisobga olgan holda tashkil etilishi kerak [1].

Loyihalash va adaptatsiya bosqichi o‘qituvchilarga ETRni o‘ziga xos o‘quv sharoitlariga moslashtirish imkoniyatini berdi. Bu jarayon Koehler va Mishra (2009) tomonidan taklif etilgan TPACK modeli talablariga javob beradi, chunki o‘qituvchilar nafaqat texnologiyani o‘zlashtirish, balki uni pedagogik maqsadlar va mazmun bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar [2].

Eksperimental guruh o‘qituvchilarining ETRdan foydalanish ko‘nikmalarining 68% dan 89% gacha o‘sishi metodik ta’minotning tizimli va uzluksiz tabiatini ko‘rsatadi. Bu o‘sish nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki ETRni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish metodikasini o‘zlashtirishni ham o‘z ichiga oladi.

Xususan, amaliy joriy etish bosqichida o‘qituvchilar turli turdagi ETRlardan (interfaol darslar, virtual laboratoriyalar, multimedia prezentatsiyalari) samarali foydalanish usullarini o‘rgandilar. Monitoring va baholash bosqichi esa ularning faoliyatini doimiy monitoring qilish va natijalarni tahlil qilish imkoniyatini berdi.

Eksperimental guruh o‘quvchilarining bilim darajasining 23% ga oshishi metodik ta’minotning to‘g‘ri tashkil etilganligi bilan izohlanadi. O‘qituvchilar ETRdan foydalanishning metodik jihatlarini chuqur o‘zlashtirganliklari sababli, ular ushbu resurslarni o‘quv jarayoniga yanada samarali integratsiya qila olishdi.

Bu natija Mayer (2009) ning multimedia o‘rganish tamoyillari bilan ham mos keladi [5]. To‘g‘ri metodik yondashuv asosida tashkil etilgan elektron ta’lim resurslari o‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini yanada samarali rivojlantirishga xizmat qildi.

Ishlab chiqilgan 15 ta metodik qo‘llanma va 45 ta didaktik material o‘qituvchilarning ishini sezilarli darajada osonlashtirdi. Ushbu materiallar nafaqat ETRdan foydalanishning amaliy jihatlarini, balki ularni o‘quv reja bilan uyg‘unlashtirish, baholash tizimini tashkil etish va individual yondashuvni amalga oshirish usullarini ham o‘z ichiga oldi.

Bu materiallar Abduqodirov (2018) tomonidan ta’kidlanganidek, ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning mahalliy sharoitlarga moslashuvchanligini hisobga oldi [3].

Tadqiqotning ma’lum cheklovlari mavjud:

- Tadqiqot faqat bir ta’lim muassasasida o‘tkazilgan;
- Uzoq muddatli ta’sir o‘rganilmagan;
- Turli fanlar o‘qituvchilari o‘rtasidagi farqlar to‘liq hisobga olinmagan;

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo‘nalishlar taklif etiladi:

- Metodikani turli turdagi ta’lim muassasalarida joriy etish va solishtirma tahlil qilish;
- Uzoq muddatli ta’sirni o‘rganish uchun longityudinal tadqiqotlar o‘tkazish;
- Turli fanlar o‘qituvchilari uchun ixtisoslashtirilgan metodik materiallar ishlab chiqish.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin:

1. ETRni amaliyotga joriy etishning tizimli metodik modeli muvaffaqiyatli ishlab chiqilgan va uning samaradorligi eksperimental yo‘l bilan isbotlangan. To‘rt bosqichli model (tayanch tayyorgarlik, loyihalash va adaptatsiya, amaliy joriy etish, monitoring va baholash) o‘qituvchilarning bosqichma-bosqich tayyorgarligini ta’minladi va ETRni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish sifati va samaradorligini oshirdi.

2. O‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi sezilarli o‘sishni ko‘rsatdi. ETRdan foydalanish ko‘nikmalari 68% dan 89% gacha oshdi, bu metodik ta’minotning tizimli va uzluksizligi bilan izohlanadi. O‘qituvchilar nafaqat texnologik, balki pedagogik va metodik jihatlarni ham o‘zlashtirdilar.

3. O‘quv jarayoni samaradorligi 23% ga oshdi, bu esa metodik ta’minotning to‘g‘ri tashkil etilganligi va ETRning o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirish darajasiga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. To‘g‘ri metodik yondashuv asosida tashkil etilgan elektron ta’lim resurslari o‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berdi.

4. Ishlab chiqilgan metodik materiallar (15 ta metodik qo‘llanma va 45 ta didaktik material) o‘qituvchilarning amaliy ishini sezilarli darajada osonlashtirdi va ETRdan samarali foydalanishning metodik asoslarini yaratdi.

5. Taklif etilgan metodik yondashuv nafaqat ETRni joriy etish sifati va samaradorligini oshirishga, balki o‘qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy ta’lim tizimining rivojlanishiga ijobiy hissa qo‘shadi.

Kelajakda ushbu metodikani boshqa ta’lim muassasalarida joriy etish, turli fanlar o‘qituvchilari uchun ixtisoslashtirilgan metodik materiallar ishlab

chiqish va uzoq muddatli ta’sirini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Gagné, R. M. (1985). The Conditions of Learning and Theory of Instruction. Holt, Rinehart and Winston.

2. Koehler, M. J., & Mishra, P. (2009). What is technological pedagogical content knowledge? Contemporary Issues in Technology and Teacher Education, 9(1), 60-70.

3. Abduqodirov A.A. Ta’limda axborot texnologiyalari. - T.: Fan, 2018.

4. Jo‘rayev M.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - T.: O‘qituvchi, 2020.

5. Mayer, R. E. (2009). Multimedia Learning. Cambridge University Press.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 614.23:378.(063)

UROLOGIYADA FUNDAMENTAL VA KLINIK FANLARNING O‘ZARO TA’SIRI UCHUN INNOVATSION MODEL

Shadmanov Mirzamaxmud Alisherovich, Andijon davlat tibbiyot institute “Urologiya” kafedrasi mudiri, tibbiyot falsafa doktori (PhD), dotsent

INNOVATIVE MODEL OF INTERACTION BETWEEN BASIC AND CLINICAL DISCIPLINES IN UROLOGY

Shadmanov Mirzamakhmud Alisherovich, Andijan State Medical Institute Head of the Department of Urology, Doctor of Philosophy in Medicine (PhD), Associate Professor

ИННОВАЦИОННАЯ МОДЕЛЬ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ И КЛИНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН В УРОЛОГИИ

Шадманов Мирзамахмуд Алишерович, Андижанский государственный медицинский институт, заведующий кафедрой “Урологии”, доктор философии (PhD) по медицине, доцент

https://orcid.org/0009-0009-3774-8075
anurodoc@mail.ru

Annotatsiya: *Tibbiyot sohasida mutaxassislarni tayyorlashda nazariy bilim va amaliy maslahatlarni yuqori darajada egallash inson hayoti uchun juda muhimdir. Boshlang‘ich kurslarda fundamental fanlar o‘z-o‘zidan integratsiyalashadi - anatomiya, biologiya, kimyo, fizika, fiziologiya, farmakologiya, patologiya, mikrobiologiya va boshqalar. So‘ng bosqichlarda talablar shu fundamental fanlardan olingan bilimlarini klinik fanlarga to‘g‘ri yo‘naltirish va o‘z yo‘lini baholash - talablarda o‘qishga bo‘lingan qiziqishini, tanlangan kasbga mehrini yanada oshiradi. Shu jihatdan urologiya fanida ta’lim samaradorligini oshirish uchun «Loyiha» usulini tahlili o‘tkazildi.*

Kalit so‘zlar: *tibbiyot, urologiya, talablar, o‘qish, innovatsiya, yangi texnologiya, samaradorlik, tahlil.*

Abstract: *A high level of theoretical knowledge and practical advice in training specialists in the field of medicine is very important for a person's life. In the initial courses, fundamental disciplines are independently integrated - anatomy, biology, chemistry, physics, physiology, pharmacology, pathology, microbiology and others. At subsequent stages, the requirements in a new way increase love for the chosen profession. In this regard, in order to increase the effectiveness of education in urology, analytical training in the "Design" method was carried out.*

Key words: *medicine, urology, requirements, innovations, new technologies, efficiency, analysis.*

Аннотация: *Высокий уровень теоретических знаний и практических советов в подготовке специалистов в области медицины очень важен для жизни человека. На начальных курсах фундаментальные дисциплины самостоятельно интегрируются - анатомия, биология, химия, физика, физиология, фармакология, патология, микробиология и другие. На последующих этапах требования по - новому повышают любовь к выбранной профессии. В связи с этим для повышения эффективности образования в урологии проведено аналитическое обучение методике «Проектирование».*

Ключевые слова: *медицина, урология, требования, инновации, новые технологии, эффективность, анализ.*

Kirish. Tibbiyot sohasida mutaxassislarni tayyorlashda nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni yuqori dapajada egallash bilan bir qatorda ilmiy yo‘nalish bo‘yicha ham izlanuvchanlik qobiliyatini shakllantirish juda muhimdir [1, 3, 4, 5, 7, 10, 11, 14, 15]. Innovatsion ta’lim texnologiyalarining tatbiq qilinishi sog‘liqni saqlash tizimida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda o‘ziga xos ta'sirga ega bo‘lib, ta’lim beruvchilarning doimo zamonaviy texnologiyalardan foydalanishlari hamda mustaqil ta’lim japayonini faollashtirishlarini talab qiladi [2, 6, 8, 9, 11, 12, 13, 14, 16, 18].

Respublikamizda so‘nggi yillarda tibbiyot sohasini rivojlantirish, sohaga xalqaro standartlarni joriy etish, kredit-modul tizimini joriy etish orqali tibbiyot sohasida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarini takomillashtirish, tibbiyot ta’lim, fan, amaliyot va innovatsiyalar sohasidagi ijobiy xalqaro tajribalarni implementatsiya qilish borasida samarali ishlar olib borilmoqda [1, 3, 4, 5, 7, 10, 11, 14, 15]. Shuningdek, tibbiyot ta’limida ta’lim xizmatlarini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim berish imkoniyatlarini kengaytirish, tibbiyot tashkilotlari ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash, amaliyot va ta’lim integratsiyasiga asoslangan dual ta’lim modelini joriy etish, bu borada tibbiyot oliy ta’lim muassasalarining akademik va innovatsion salohiyatini oshirish borasida ustuvor vazifalar belgilangan [2, 6, 9, 12, 13, 14, 16, 17].

Pedagogik faoliyat – yoshlarni hayotga, mehnatga, vatan mudofaasiga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat va jamiyat oldida javob beradigan, bolalarga ta’lim-tarbiya berish bilan shug‘ullanadigan va bu ishga maxsus tayyorlangan kishilarning mehnat faoliyatidir. [4, 5, 7, 10, 11, 15] O‘qituvchining barkamol avlodni tarbiyalash va unda yangi insonga xos sifatlarni tarkib toptirish vazifasi eng oliyjanob yuksak va shu bilan birga eng sharafli va murakkab vazifadir. Har bir tarbiyalanuvchi o‘z xulq-atvoriga, xarakteriga ega. Ularni o‘qitish va tarbiyalashda ularning ana shu o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, o‘rgatish nihoyatda murakkabdir. Bunda insonlar o‘rtasida ijtimoiy munosabatlarning murakkabligini o‘zida aks ettiruvchi maxsus usullardan foydalaniladi [1, 3, 4, 5, 7, 10, 11, 14, 15]. Pedagogik faoliyatda tayyorgarlik ko‘rsatgan yoshlar uning ana shunday xususiyatlarini bilishlari lozim.

Tadqiqotning maqsadi - urologiya fanida ta’lim samaradorligini oshirish uchun «Loyiha» usulini qo‘llash va natijalar tahlili.

Tadqiqotning obyekti va usullari: Talabalarda ilmiy izlanishga bo‘lgan qiziqishni hosil qilish, ilm bilan shug‘ullanish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida “Loyihalash” usuli o‘quv japayonida qo‘llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. “Loyihalash” usuli talabalarda quyidagi qobiliyatlarni shakllantirishga imkon beradi:

1. Ilmiy izlanuvchanlik qobiliyatini rivojalantirishda - vaziyatni baholay olish, muammoni ajratib olish, zarur ma'lumotlarni tanlab olish, xulosalar qabul qilishni;
2. Muloqotga kirishish qobiliyatini kuchaytirish - o‘z fikrini bayon qila olish, boshqalarni tinglay olish, to‘g‘ri tanqid qila olish, alternativ yechimlar taklif qila olish.

Shu jihatdan ta’lim usuli samapadorligini aniqlash maqsadida tajriba sinov jarayoniga 165 nafar asosiy guruh va 147 nafar talabalardan iborat nazorat guruhi jalb qilinib, ularga “Loyihalash” pedagogik texnologiyasi qo‘llanildi.

Tadqiqot natijalari.

Tadqiqot davomida talabalar orasida “Loyihalash” o‘qitish usuli bilan o‘tkazilgan amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha fikr muloxazalar olindi va savolnoma o‘tkazildi va amaliy mashg‘uloti talab dapajasida egallash darajalariga alohida e'tibor qaratildi (jadval 1).

Jadval 1.

Loyihalash usulida talabalarning motivatsiyasi, bilim va ko‘nikmalarning egallaganlik darajasi (%)

№	Savollar	Nazorat guruhi (n=147)	Asosiy guruh (n=165)	χ^2	P
1	Mazkur mavzu va uning dolzarbligi qiziqarli bo‘ldimi?	67	87	11,29	<0,001

2	Tanlangan mavzu bo‘yicha materialni taqdim etish qoniqtirdimi?	68	84	7,02	<0,01
3	Amalga oshirilgan ish hajmi yetarli bo‘ldimi?	59	77	7,44	<0,01
4	Olingan natija qoniqarli bo‘ldimi?	52	75	11,41	<0,001
5	O‘qitish japayonida taqdimot qilish ko‘nikmangiz oshdimi?	46	78	21,73	<0,001
6	Olingan natijalarni tahlil qilish imkoniyati kengaydimi?	45	86	37,19	<0,001
7	Og‘zaki gapirish va yozish ko‘nikmasi yaxshilandimi?	57	78	10,05	<0,01
8	Boshqalarni baholash jarayoni qiziqtirdimi?	68	84	7,02	<0,01
9	O‘z xatolarini tahlil qilish yoqdimi?	62	79	6,95	<0,01
10	Mazkur usulni qo‘llash davomida mavzu esda qoldimi?	58	90	26,61	<0,001



Rasm 1. Loyihalash usuliga talabalarning munosabatlari (%)

Tahlil natijalariga “Loyihalash” ta’lim usuli bilan o‘tkazilgan amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazilganda mazkur mavzu va uning dolzarbligi qiziqarli bo‘lishi 20% oshdi (67% dan 87%cha), tanlangan mavzu bo‘yicha materialni taqdim etilishini qoniqtirishi 16% oshdi (68%dan 84%cha), amalga oshirilgan ish hajmi yetarli bo‘lishi 18% oshdi (59%dan 77%cha), talabalarni taqdimot qila olish 32% oshdi (46%dan 78%cha), olingan natijalarni tahlil qilish 41% oshdi (45%dan 86%cha), mazkur usulni qo‘llash davomida mavzu esda qolishi 40% oshdi (58%dan 90% cha).

Urologiya fani bo‘yicha bilim va malakalar asosida o‘rganilayotgan muammolarga nisbatan “Loyihalash” ta’lim usulini maqsadli qo‘llash talabalarni kreativ ko‘nikmalari, ya'ni bilimlarni dalillarga asoslangan manbalardan olish, nostandart va shoshilinch holatlarda muammoni hal etishning harakat usullari va innovatsion

metodlarini amaliyotda qo‘llay olishiga yordam berdi.

Xulosa. Respublikamiz mustaqillikka erishgach uning oldida juda qisqa muddatda yangicha fikrlovchi respublika ravnaqi taraqqiyoti uchun ongli ravishda kurashuvchi yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifasi ko‘ndalang turadi. Pedagogik mahorat bu - fahm-farosat va bilimlarning chinakam ilmiy tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo‘lgan obro‘li rahbarlikning o‘quvchilar qalbining qandayligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif bo‘lgan bola shaxsiga mohirona avaylab yondoshish donolik va ijodiy dalillik ilmiy tahlil va fantaziyaga boy bo‘lgan qobiliyat majmuasidir.

Tibbiyot fanlarini o‘qitishnig o‘ziga xos hususiyatlarini inobatga olgan holda fanlararo integrasiya asosida o‘quv japayonida “Loyihalash” pedagogik texnologiyani qo‘llanilishi pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini rivojlantirishi, ta’lim oluvchilarning mashg‘ulot davomida faolligi hamda nazariy, amaliy bilimlari bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining o‘rtacha 58% dan 90% ga oshirish imkonini berdi.

ADABIYOTLAR:

1. Kramer-Johansen J., Myklebust H., Wik L., Fellows B., Svensson L., Sorebo H., Steen P.A. Quality of out-of-hospital cardiopulmonary resuscitation with real time automated feedback: a prospective interventional study. Resuscitation. 2016;71:283-292;
2. Jarvis P. Globalization, the Learning Society and Comparative Education. Comparative Education, 2010, Vol.36, No.3.
3. Learning for Tomorrow's World First Results from PISA 2003. OECD, 2004.Lisbon Council Policy Brief. The economics of knowledge: Why education is key for Europe's success by Andreas Schleicher. (13 March 2006)..
4. Maher J.E., Kleinman G.E., Lile W., Tolaymat L., Steele D., Bernard J. The construction and utility of an amniocentesis trainer. American Journal of Obstetrics and Gynecology. 1998 Nov; 179(5): 1225
5. Malathi S., Hwang J. C., West D., Yellowlees P.M. Assessment of clinical skills using simulator technologies.Academic Psychiatry, 30:6, November-Decmber 2016.
6. Nishonov Sh., Sadikova D.I. Urolitiasis in extragenital pathology // Экономика и социум, 2023, 6-1(109), 307-309.
7. Okuda Y., Bryson E.O., DeMaria S. J., Jacobson L., Quinones J., Shen B., Levine A.I. The utility of simulation in medical education: what is the evidence? The Mount Sinai Journal of Medicine. 2019 Aug;76(4):330-43.
8. Rodgers D.L., Securro S. J., Pauley R.D. The effect of high-fidelity simulation on educational outcomes in an advanced cardiovascular life support course. Simulation in Healthcare 2009 Winter; 4(4):200-6.
9. Risk assessment to guide prostate cancer screening decisions: a cost-effectiveness analysis / A.J. Martin [et al.] // Med. J. Aust. - 2013. - Vol. 198, N 10. - P. 546550.
10. Savoldelli G.L., Naik V.N., Joo H.S., Houston P.L., Graham M., Yee B., Hamstra S J. Evaluation of patient simulator performance as an adjunct to the oral examination for senior anesthesia residents. Anesthesiology. 2006 Mar;104(3):475.
11. Sadikova D.I. Upper urinary tract infections: Pyelonefritis and its complications//
12. Sadikova D.I. Surgical approach to the treatment of “sphincteric strictures” of the urethra// Galaxy, №12, 2024, 486-488

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 811.161.1

ЎЗБЕК ВА ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИДА РЕДУПЛИКАТИВЛАРНИНГ СЎЗ ТУРКУМЛАРИ БИЛАН ИФОДАЛАНИШИ ТАҲЛИЛИ

Рахимова Гўзал Юлдашовна, Абу Райхон Беруний номидаги Урганч давлат университети доценти, (PhD)

АНАЛИЗ УПОТРЕБЛЕНИЯ РЕДУПЛИКАТИВОВ В ГРУППАХ СЛОВ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Рахимова Гузаль Юлдашовна, Ургенчский государственный университет имени Абу Райхона Беруни, доцент

ANALYSIS OF THE USE OF REDUPLICATIVES IN WORD GROUPS IN UZBEK AND ENGLISH

Guzal Yuldashovna Rakhimova, Urganch State University named after Abu Raikhan Beruni, Associate Professor

https://orcid.org/0000-0003-1087-2665
guzal.yuldashovna@gmail.com

Аннотация: *Ушбу мақолада редупликатив-такрорларнинг аксарият қисми дунёнинг барча тилларида, шу жумладан, ўзбек ва инглиз тилларида ҳам асосан сўз туркумлари билан ифодаланиши таҳлилий мисоллар орқали кўрсатилиб, уларнинг қандай, қай ҳолатда қўлланилишига эътибор қаратилган.*

Калит сўзлар: *Редупликация, такрор, сўз туркумлари, семантик маъно, от, феъл, сифат, сон, ясама от, ясама равиш.*

Аннотация: *В данной статье на аналитических примерах показано, что большинство редупликационных повторов во всех языках мира, включая узбекский и английский, выражаются преимущественно группами слов, и основное внимание уделяется тому, как и в каких случаях они используются.*

Ключевые слова: *Редупликация, повтор, группы слов, семантическое значение, существительное, глагол, прилагательное, число, искусственное существительное, искусственный глагол.*

Abstract: *This article shows through analytical examples that the majority of reduplicative repetitions are expressed mainly by word groups in all languages of the world, including Uzbek and English, and focuses on how and in what cases they are used.*

Keywords: *Reduplication, repetition, word groups, semantic meaning, noun, verb, adjective, number, artificial noun, artificial verb.*

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Редупликатив-такрорларнинг аксарият қисми сўз туркумлари билан ифодага киришиб, маҳсулдор гуруҳлар ташкил қилади ва семантик маънони янада кучайтиришга ҳаракат қилади. Улар орасида умумлаштириш, кўплик ва жамлаш маъноси; комиллик, етуклик, балоғат ёши, ҳайрат маънолари; бепарволик, нарса, ҳодиса аҳамиятини пасайтириш ёки шахсни камситиш маънолари етакчилик қилади. Сўз туркумлари орасида инглиз тилида ҳам, ўзбек тилида ҳам

редупликатив сўзларнинг энг катта гуруҳи от билан ифодаланади. От билан ифодаланган редупликатив сўзлардан кейин энг маҳсулдор гуруҳ сифат сўз туркумига тааллуқли. Кейинги ўринларни феъл, сон сўз туркумлари эгаллайди.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). Тилнинг муҳим қисми қатъий ва барқарор грамматик қоидалар билан бошқарилишига қарамай, бирлаштирувчи хусусиятга эга бўлган бир нечта тузилмалар гуруҳлари мавжуд – улар ҳеч қандай асосий грамматик ва морфологик қоидаларга бўйсунмайди. Бу "ғалати" ҳодисалар жаҳон тилшунослигида В.У.Дресслер ва Л.М.Барбареси томонидан грамматикадан ташқари морфология деб номланган морфологиянинг махсус бўлимини ўрганиш мавзусидир[1]. Яна бир қоида лексиканинг турли хил кичик хусусиятларини таснифлашга ҳаракат қилади, бу экспрессив морфология деб аталади. Экспрессив морфология концепцияси биринчи марта А.Звицкий ва Г.Пуллум томонидан тақдим этилган ҳамда у инглиз тилида редупликативларнинг ролини баҳолашда ёрдам берадиган принципларни ўз ичига олади[2]. Э.Матиелло "экспрессив ҳодисалар ҳам, грамматикадан ташқари ҳодисалар ҳам грамматик морфологиядан четлатилган, чунки уларнинг шаклланишида одатда ноанъанавий морфологик шакл ва жараёнлар мавжуд", деб тушунтиради[3].

Экспрессив морфология ҳақидаги таъриф қўшимча грамматик морфология учун ҳам мос келади, лекин бу икки фан бир хил эмас. А.Звицкий ва Г.Пуллум экспрессив морфологияни "ўзига хос хусусиятлар билан боғлиқ сўзлар ҳосил қилишда грамматикадан ташқари ҳодисалар билан ифодаланадиган лотинча морфологиянинг бир тури" деб таърифлайди ва улар экспрессив морфологияни нафақат оддий морфология, балки грамматикадан ташқари морфологияга ҳам тааллуқли деб ҳисоблашади[4]. Экспрессив шаклланишнинг охирги жиҳати – бу уларнинг ҳар бир гапирувчининг хоҳишига боғлиқлигидир. А.Звицкий ва Г.Пуллум таъкидлашича сўзловчи редупликатив элементлардан фойдаланган экспрессив морфологик бирликлардан самарали фойдаланиб, сўзларни мақсадли саралаб ўзининг сўзамонлик қобилиятини сўз ўйинлари ва кинояли ҳазилларида намоён қилади.(*pun or knock-knock jokes[5]*. Юқорида айтиб ўтилганидек, редупликативлар грамматикадан ташқари морфологик жиҳатдан таснифланади. Э.Матиелло томонидан тўпланган бошқа далиллар шуни кўрсатадики, такрорий такрорловчилар тежаш тамойилига юзаки қарайдилар, шу билан бирга, сўзларнинг шаклланиши ва сўз туркумлари нуқтаи назаридан ортиқча мезонга аниқ мойиллигини билдирадилар[6].

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ўзбек тилида айрим редупликат отлар янги маъно ифодалаб, ясама от ва ясама равишларни юзага келтиришга ҳам хизмат қилади. Жумладан, "*хола*" шахс оти такрор қўлланиш натижасида ("*хола-хола*") ясама фаолият-жараён отини ҳосил қилади:

Қизчалар ичкари ҳовлида ***хола-хола*** *ўйнаб ўтиришарди.*

Бундан ташқари *"эс", "гул", "томчи", "шода", "қатра", "кўча", "уюм", "олам"* каби отлар редупликат қўлланиб, равишга кўчади, яъни ясама равиш саналади:

Эс-эс хотирламоқ, гул-гул очилиб кетмоқ, шода-шода марварид, қатра-қатра йиғилиб, кўча-кўча одамлар, уюм-уюм хирмон етиштирмоқ кабилар.

Булардан ташқари такрорий отлар – редупликат от қисмлари орасида кўпинча "-ма" қисми орттирилиб ҳам қўлланади, бундай ҳолатда ҳам от редупликация орқали равишга кўчади (ясама равиш саналади): *кўчама-кўча, юзма-юз, уйма-уй, хонама-хона, қаторма-қатор* каби.

Такрорий отларнинг айримлари айнан такрорлаш, катта қисми иккинчи қисми биринчи қисмининг товуш ўзгариши билан такрорлаш натижасида ҳосил қилинади: *хола-хола, қўчқор-қўчқор; нон-пон, чой-пой, бола-сола, овқат-повқат, мажлис-пажлис, туз-пуз, сок-пок, ош-пош* каби:

Эй ахмоқ, қўчқор-қўчқор бундай ўйналмайди-ку!

Чой-пой ичиб кетсанг бўларди, болам.

Идорада мажлис-пажлис йўқми? (Мисоллар мулоқот жараёнидан олинган).

Инглиз тилида ҳам ўзбек тилидаги каби редупликатив сўзларнинг энг катта гуруҳи от билан ифодаланади. Бу мулоқот жараёнида одамлар айнан шу сўз туркумидан кўпроқ фойдаланиши билан изоҳланади, зеро улар ҳаракат объектига қаратилади (*fuddy-duddy* – консерватор, *bumper-jumper* – олдинда кетаётган машина ортидан жуда тез келаётган ҳайдовчи, *killer-diller* – хотинбоз, Дон Жуан, *namby-pamby* – заиф); атрофимиздаги буюмларга (*night-light* – тунчироқ, *higgledy-piggledy* – ўта тартибсизлик, *knick-knack* – майда-чуйда, *flip-flop* – тап-тап; атрофимиздаги олам (*gee-gee* – от, *quack-quack* – ўрдак).

Такрорлар билан ифодаланган сифатлар кўпликни ёки аксинча, кам миқдор ёки буюм, ҳодиса, воқеликнинг қийматини акс эттириши мумкин. Масалан, *янги-янги* (кучайтириш), *майда-майда* (кучайтириш ва таъкид), *қизиқ-қизиқ* (ҳар хиллик, кўплик) каби редупликативлар буюм, ҳодиса ва воқеликнинг қийматини ифодалаш учун фойдаланилади.

Ўзбек тилида сифатнинг орттирма даражаси товушни чўзиш усулида ҳам ҳосил қилинадики, бу усулни ҳам қайсидир кўринишда редупликат сифатида изоҳлаш мумкин. Чунки бунда ҳам сифат таркибидаги унли ёки ундош товуш чўзиб талаффуз қилинади, мазкур ҳолат ёзма ифодада товушни такрор келтириш орқали ўз ифодасини топади: *чиройли – чиро-о-йли, ка-а-тта, маз-з-а* каби.

Инглиз тилида от билан ифодаланган редупликатив сўзлардан кейин энг маҳсулдор гуруҳ сифат билан ифодаланган. Улар ҳолатни ифодалаши мумкин (*hoity-toity* – таъби нозик, сержаҳл, *wishy-washy* – маъносиз); аниқ объектни ифодалашга ёрдам беради (*wiggle-waggle* – беқарор, *zero-zero*- жуда паст булутлилик ва деярли нол кўринишда); воқелик белгисини ифодалайди (*hipper-dipper* – муҳташам, *tete-a-tete* – ёлғиз).

Редупликатив сўзлар билан ифодаланган сонлар кўп миқдордаги буюмларни ва уларнинг саноқдаги аниқ тартибини ифодалашда қўлланилади. Ўзбек тилида бу ҳолатда икки хил вазият юзага келади:

1) саноқ ёки дона сон тақсим сонга ўтади: *бир-бир, икки-икки, иккита-иккита, юзта-юзта* кабилар;

2) сон такрори натижасида сўз туркумида ўзгариш рўй беради, яъни сон равишга кўчади: *бир-бир суҳбатлашмоқ, битта-битта санамоқ, юзта-юзта олмоқ* кабилар.

Биз сен билан уларни шаҳардан ***битта-битта*** *олиб чиқиб кетишимиз керак.*

Улар асосан кўплик, бўлиниш, бирлик, ҳаракатнинг детал тавсифи ва бошқа семантик-грамматик маъноларни ифодалайди.

Инглиз тилида сон билан ифодаланган редупликатив сўзлар асосан кўплик, бўлиниш, миқдорни англатади (*more and more* – янада кўпроқ, *one by one* – бирин-кетин).

Hundred, thousand ва *million* рақамлари билан ифодаланган такрор сўзлар от туркумига ўтади ва юзлаб, минглаб ёки миллионлаб каби ноаниқ миқдорни ифодалашда қўлланилса охирига қўшимча қўшилади.

Hundreds and hundreds *of times-юз марталаб.*

Ўзбек тилида олмош редупликация ҳодисаси кўрсатиш, ўзлик, белгилаш ва айниқса сўроқ олмошларига хос. Масалан, *шу-шу, ўша-ўша, ўз-ўзи, ўз-ўзини, ҳамма-ҳаммаси, нима-нима, ким-кимлар, не-не* кабилар шулар жумласидандир. Бундай қўлланишларнинг айримларида бошқа туркумга кўчиш, айримларида семантик кўплик ўз ифодасини топади: *"шу-шу бизникига келмай кетди"* (равишга кўчиш) ёки *"бозордан нима-нима олдинг, зиёфатда ким-ким қатнашди"* (семантик кўплик) каби.

Инглиз тилида **"any"** ноаниқ олмоши гапда редупликация шаклида қўлланилади ва ноаниқ миқдорни, шунингдек, аниқ ифодаланган инкорни акс эттиради: *in* ***any*** *shop in* ***any*** *street in,* ***any*** *town in* ***any*** *country in the world.*

Ўзбек тилида такрор феъл ва бошқа феълнинг вазифа шакллари тўпланган материалларга кўра лексик-грамматик ҳодиса сифатида жуда кенг тарқалган. Шунинг учун редупликатив феълларнинг маъноси турлича

бўлиши мумкин. Жумладан, “*демоқ*” феъли такрор қўлланганида деревация тизимига алоқадорлик касб этади. Бу феъл ўтган замон учинчи шахс бирлик шаклида такрорланиб, отга кўчади (*деди* – феъл, *деди-деди* – от (ғийбат)):

Редупликатив феъллар инглиз тилида ҳаракат интенсивлигини ифодалашга ёрдам беради (*dingle-dangle* – олдинга орқага тебратиш, *twinkle-twinkle* – милтилламоқ). Кўпинча феъл билан ифодаланган редупликатив сўзлар от билан ифодаланган объект ҳаракатини очиб беради (*blah-blah* – бемаъни гаплар, *dilly-dally* – ишсиз сандирақлаш, *tittle-tattle* – бошқалар ҳаёти ҳақида сафсата сотиш).

Mavzuni yoritishda tavsifiy, таҳлилий, qiyosiy metod usullaridan foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

НАТИЖАЛАР (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Юқоридаги таҳлиллар шуни кўрсатадики, ўзбек тилида айрим редупликат отлар янги маъно ифодалаб, ясама от ва ясама равишларни юзага келтиришга ҳам хизмат қилади. Инглиз тилида ҳам ўзбек тилидаги каби редупликатив сўзларнинг энг катта гуруҳи от билан ифодаланади. Бу мулоқот жараёнида одамлар айнан шу сўз туркумидан кўпроқ фойдаланиши билан изоҳланади, зеро улар ҳаракат объектига қаратилади. Инглиз тилида ҳам редупликативлвр ифодасида энг салмоқли гуруҳ от билан ифодаланган редупликатив сўзлар эканлиги илмий мисоллар билан асосланди. Ундан кейинги энг маҳсулдор гуруҳ сифат билан ифодаланган редупликативлардир. Сонлар билан ифодаланган редупликатив сўзлар эса анча озчиликни ташкил қилиб, кўп миқдордаги буюмларни ва уларнинг саноқдаги аниқ тартибини ифодалашда қўлланилади. Таҳлиллар натижаси шуни таъкидлайдики, олмошлар редупликацияси ўзбек ва инглиз тилларида бошқа тилларга қараганда от ва сифат такрорлар каби кенг тарқалмаган.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Шундай қилиб, таҳлил қилинган материаллар такрорларнинг аксарияти инглиз ва ўзбек тилларида от билан ифодаланишини, уларнинг сўз ясалиши ва шакл ҳосил қилинишида кузатилишини кўрсатди.

Редупликатив сўзлар билан ифодаланган сифатлар нарса ва ҳодисанинг белгиси ва сифатини англатиш учун қўлланилади. Бундай такрорлар янги сўз ҳосил қилмайди, фақат такрорий шаклни ясайди. Ушбу сифат шакллари грамматик категориянинг маълум бир хусусиятини англатади ва ўзбек тилида феъл ва от билан бир қаторда фойдаланилади, инглиз тилида эса улар 12 %ни ташкил этади, холос.

Таъкидлаш лозимки, олмошлар редупликацияси ўзбек ва инглиз тилларида бошқа тилларга қараганда от ва сифат такрорлар каби кенг тарқалмаган.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1.Dressler Wolfgang U. and Lavinia Merlini Barbaresi. Morphopragmatics. Mouton de Gruyter. – Trends in Linguistics, Studies and Monographs. – P.76

2.Zwicky Arnold M. and Geoffrey K. Pullum. Plain morphology and expressive morphology. – Annual Meeting of the Berkeley Linguistics Society. Vol. 13. – 1987. – P.45.

3.Mattiello Elisa. Extra-grammatical morphology in English. Extra-grammatical Morphology in English. – De Gruyter Mouton, 2013. – P.56.

4.Zwicky Arnold M., and Geoffrey K. Pullum. Plain morphology and expressive morphology. – Annual Meeting of the Berkeley Linguistics Society. Vol. 13. – 1987. – P.47.

5.Zwicky A.M. and Geoffrey K. Pullum. Plain morphology and expressive morphology. – Annual Meeting of the Berkeley Linguistics Society. Vol. 13. – 1987. – P.21.

6.Mattiello E. Extra-grammatical morphology in English. Extra-grammatical Morphology in English. – De Gruyter Mouton, 2013. – P.45.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 811.161.1

REKLAMA DISKURSINING LINGVISTIK VA STILISTIK XUSUSIYATLARI

Yusupova Kamola Qobiljon qizi, O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklor instituti doktoranti

LINGUISTIC FEATURES OF ADVERTISING DISCOURSE

Yusupova Kamola Kobiljon Kizi, doctorate student at the Institute of Uzbek Language, Literature, and Folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

ЛИНГВОСТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РЕКЛАМНОГО ДИСКУРСА

Юсупова Камола Кобилжон кызы, докторант Института узбекского языка, литературы и фольклора Академии наук Республики Узбекистан

e-mail: komolayusupova43@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada reklama diskursida til va nutqning o‘rniga e’tibor qaratilib, reklama diskursining samaradorligi uning lingvistik va stilistik xususiyatlari bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy nazariyalar asosida tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *reklama tarixi, reklama diskursi, til va nutq, monologik nutq, milliy matbuot, zamonaviy matbuot.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль языка и речи в рекламном дискурсе, анализируется эффективность рекламного дискурса на основе научных теорий о тесной взаимосвязи его лингвистических и стилистических характеристик.*

Ключевые слова: *история рекламы, рекламный дискурс, язык и речь, монологическая речь, национальная пресса, современная пресса.*

Abstract: *This article examines the role of language and speech in advertising discourse and analyzes the effectiveness of advertising discourse based on scientific theories about the close relationship between its linguistic and stylistic characteristics.*

Key words: *history of advertising, advertising discourse, language and speech, monologue, national press, contemporary press.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Reklama diskursi o‘zining tarixiy rivojlanish yo‘lida sof axborot berishdan, hissiy ta’sir o‘tkazishga, keyinchalik esa murakkab manipulyativ mexanizmlarni o‘z ichiga olgan mustaqil diskursga aylandi. Ushbu evolyutsiya jarayonida reklama nafaqat tovar va xizmatlar haqida ma’lumot uzatuvchi, balki jamiyatdagi qadriyatlar, ideallar va hayot tarzini shakllantiruvchi kuchga aylandi. Uning har bir elementi – so‘z, obraz, musiqa va hikoya – iste’molchiga ta’sir ko‘rsatish, uni muayyan maqsadga yo‘naltirish uchun xizmat qiladi. Demak, reklama diskursida til va nutqning o‘rni alohida ahamiyatlidir. Reklama diskursining samaradorligi uning lingvistik va stilistik xususiyatlari bilan uzviy bog‘liqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Reklama diskursi borasida xorij va rus tilshunoslari ko‘lamli ishlarni amalga oshirganlar.

Bu borada O.O.Saveleva va N.V.Trubnikova kabi tadqiqotchilar reklama

matnining quyidagi jihatlariga e'tibor qaratadilar[1]:

Reklama matni ko'pincha iste'molchiga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish uchun monologik nutqdan foydalanadi. Bunda "Siz uchun...", "Yangi hayotni boshlang!" kabi imperativ va ta'sirli iboralar keng qo'llaniladi.

Reklama xabarining esda qolarli bo'lishi uchun undagi so'zlar imkon qadar qisqa va lo'nda bo'lishi talab etiladi. Bu esa ko'pincha to'liq ma'lumot berishdan ko'ra, hissiy ta'sir o'tkazishga xizmat qiladi.

Reklama diskursining asosiy xususiyati uning imperativligidir, ya'ni u o'quvchi yoki tinglovchiga ma'lum bir harakatni bajarishga undaydi [2]. Bunda "Xarid qiling!", "Tanlang!" kabi aniq chaqiriqlar, shuningdek, "Yangi mazani his qiling" kabi yashirin buyruqlar qo'llanilishi mumkin.

J.B.Uotsonning (John B. Watson) bixevioristik nazariyasi reklamada inson xatti-harakatlariga ta'sir o'tkazishni o'rganishga asos solgan, ammo bunda ham asosiy e'tibor mahsulotning funksional xususiyatlariga qaratilgan edi [3]. O'zbek tilshunosligida reklama diskursining tarixiy aspektlariga oid tadqiqotlar hali yetarlicha emas. Garchi rus tilshunosligida bu borada keng ko'lamli ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da [4], milliy matbuotimiz sahifalaridagi reklamaning tarixiy bosqichlari va lingvistik xususiyatlari hamon chuqur o'rganilmagan. Bu yo'nalishdagi kam sonli ishlardan biri Sh.Xoliqulovaning "Turkiston viloyatining gazeti" misolidagi tadqiqotidir [5]. Biroq, mavzuni kengroq doirada, ya'ni turkiy milliy matbuot va bevosita o'zbek milliy matbuoti bilan bog'lab o'rganish, dastlabki milliy reklamalardagi imperativ ifodalar tarixiga oydinlik kiritishga imkon beradi.

Mavzuni yoritishda tavsifiy, tarixiy-qiyosiy metod usullaridan foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

NATIJALAR VA MUHOKAMA(РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ /RESULTS AND DISCUSSION). Zamonaviy reklama faqatgina ma'lumot berish yoki hissiyotlarga ta'sir qilish bilan cheklanib qolmaydi, balki iste'molchi bilan o'ziga xos bir "o'yin"ga kirishadi. Bu o'yinning mohiyati shundaki, iste'molchi reklamaning asl maqsadini anglagan holda ham unga qiziqish bildirishi, uning qoidalariga "bo'ysunishi" mumkin. E.G.Borisovaning tadqiqotlariga ko'ra, reklama diskursining o'yin xususiyati uning murakkab, ko'p qatlamli tabiati bilan bog'liqdir [6]. Bu o'yinning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

Reklama iste'molchining unga nisbatan dastlabki shubha va ishonchsizligini hisobga oladi. Iste'molchi reklamadagi hamma narsaga ishonish shart emasligini biladi va bu "o'yin qoidasi"ni qabul qiladi. Aynan shu sababli reklamachilar kreativ va esda qolarli obrazlar yaratishga intiladilar, chunki iste'molchi mahsulotning mukammalligiga emas, balki reklamaning o'ziga xos taqdimotiga e'tibor qaratadi.

Yana bir tomoni reklama diskursi ko'pincha ideal dunyoni yaratadi. Unda mahsulot oddiy ehtiyojni qondirishdan tashqari, baxt, muvaffaqiyat, go'zallik va ijtimoiy maqom kabi ideallarni ham va'da qiladi. Iste'molchi bu idealning haqiqatdan uzoqligini anglasa-da, mahsulot bilan bog'liq yoqimli tasavvurlar o'yinida ishtirok etishga moyil bo'ladi.

Lingvistikada perlokutsiya (perlocution) tushunchasi nutqning tinglovchiga ta'sir qilish, uni muayyan xatti-harakatga undash yoki uning tuyg'ularini o'zgartirish maqsadini anglatadi [7]. Reklamaning asosiy maqsadi, axborot berish emas, balki aynan perlokutiv, ya'ni xaridorni sotib olishga undashdan iborat. Bunda *sotib oling!* kabi to'g'ridan-to'g'ri buyruqlar o'rniga, iste'molchining o'zini o'zi "ishontirish"iga xizmat qiladigan vositalar qo'llaniladi. Masalan, **"**Qulayligingiz uchun.." yoki **"**Yaqinlaringiz haqida qayg'uring..." kabi iboralar mahsulotni xarid qilish mantiqiy va madaniy jihatdan to'g'ri qaror ekanini bildiradi.

Zamonaviy reklamada manipulyasiya elementlari juda nozik tarzda ishlatiladi. Reklamachilar iste'molchilarning ong ostidagi qo'rquv, istak va ehtiyojlariga murojaat qilib, ularni ongli ravishda tahlil qilish imkoniyatini qoldirmaydilar[8]. Masalan, olimlar, vrachlar yoki boshqa obro'li shaxslarning reklamada paydo bo'lishi (agar ularning aslida bu sohaga aloqasi bo'lmasa ham) iste'molchida mahsulotga nisbatan avtomatik ishonch uyg'otadi. Bu holat mahsulot haqidagi obyektiv axborotdan ko'ra, uning ijtimoiy obro'si muhim ekanini ko'rsatadi.

Ko'rinadiki, reklama diskursi o'zining tarixiy rivojlanish yo'lida sof axborot berishdan,

hissiy ta’sir o‘tkazishga, keyinchalik esa murakkab manipulyativ mexanizmlarni o‘z ichiga olgan mustaqil diskursga aylandi. Ushbu evolyusiya jarayonida reklama nafaqat tovar va xizmatlar haqida ma’lumot uzatuvchi, balki jamiyatdagi qadriyatlar, ideallar va hayot tarzini shakllantiruvchi kuchga aylandi. Uning har bir elementi – so‘z, obraz, musiqa va hikoya – iste’molchiga ta’sir ko‘rsatish, uni muayyan maqsadga yo‘naltirish uchun xizmat qiladi.

Zamonaviy reklama faqat matndan iborat emas, balki tasvir, tovush, rang, musiqa va boshqa belgilarni o‘z ichiga oladi. Bu elementlar matn bilan birlashib, iste’molchi ongiga yanada kuchliroq ta’sir o‘tkazadi. Masalan, Coca-Cola reklamasidagi qizil rang, gazlangan ichimlikning tovushi va bayramona musiqa birlashmasi iste’molchida mahsulot haqida emas, balki xursandchilik va bayram haqida tasavvur uyg‘otadi.

O‘zbek tilidagi reklamalarda ham yuqorida keltirilgan xususiyatlar kuzatiladi, ammo ularga milliy mentalitet va qadriyatlar bilan bog‘liq yangi jihatlar qo‘shilgan. Masalan: “Yaqinlaringiz uchun” yoki “Oilangiz quvonchi” kabi birikmalar mahsulotni oddiy tovar sifatida emas, balki oilaviy rishtalarni mustahkamlovchi vosita sifatida taqdim etadi.

Milliy brendlar an’anaviy elementlarni zamonaviy dizayn va til bilan uyg‘unlashtiradi. Bu esa mahsulotga ham milliy ruhni, ham zamonaviylikni bag‘ishlaydi. Ko‘pincha reklamalarda *haqiqiy, sifatli* kabi sifatlar ko‘p qo‘llaniladi, bu esa iste’molchida tovarning ishonchli ekanligiga shubhasiz ishonch uyg‘otishga qaratilgan.

Umuman olganda, reklama diskursining evolyutsiyasi axborot yetkazishdan hissiy va manipulyativ ta’sir o‘tkazishga qarab borgan murakkab jarayondir. Bu jarayonning har bir bosqichi jamiyatning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy holati bilan chambarchas bog‘liq. Hozirgi kunda reklama nafaqat tovar va xizmatlar savdosiga xizmat qiluvchi, balki keng ma’noda jamiyatning ma’naviy va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi va shakllantiruvchi, til va nutqning barcha imkoniyatlaridan foydalanuvchi mustaqil diskursga aylangan. Uning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish nafaqat lingvistika uchun, balki psixologiya, sotsiologiya va marketing kabi sohalar uchun ham muhim ahamiyatga ega.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Reklamaning muvaffaqiyati nafaqat lingvistik vositalarga, balki uning jamiyatdagi umumiy tamoyillar va qadriyatlar bilan uyg‘unligiga ham bog‘liq. Bu borada L.V.Uxova reklama matnining samaradorligini sinergetik yondashuv orqali tahlil qilishni taklif etadi. Sinergetika, ya’ni o‘zini o‘zi tashkillashtirish nazariyasiga ko‘ra, murakkab tizimlar tashqi ta’sirlar orqali rivojlanib boradi. Reklama ham shunday tizim bo‘lib, uning asosiy maqsadi – iste’molchi ongidagi tartibsizlikni kamaytirib, uni muayyan qarorga yo‘naltirishdir [9].

Reklamada attraktorlar (jalb etuvchilar) deb iste’molchi e’tiborini o‘ziga tortadigan va uning qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradigan asosiy tushunchalar va obrazlarga aytiladi. Masalan, *bolajon, baxtli oila, sifat* kabi so‘zlar reklamada attraktor vazifasini bajaradi. Bu so‘zlarning hissiy zaryadi iste’molchining ongli fikr yuritishiga imkon bermay, uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri xaridga undaydi.

Reklamachilar ko‘pincha iste’molchi ongidagi umumjahon yoki milliy stereotiplar va arxetiplardan foydalanadilar. Masalan, *onaning mehri, otaning g‘amxo‘rligi, vatanparvarlik* kabi tushunchalar reklamada ishonchlilik va ma’naviylik manbai sifatida taqdim etiladi. Bunday yondashuv mahsulotni shunchaki tovar sifatida emas, balki yuqori qadriyatlarning bir qismi sifatida qabul qilishga olib keladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/ CONCLUSION). Ko‘rinadiki, reklama diskursining evolyutsiyasi axborotdan hissiy va manipulyativ ta’sirga o‘tish bilan cheklanib qolmaydi. U mahsulotni jamiyatdagi qadriyatlar, stereotiplar va ideallarga bog‘laydigan murakkab ijtimoiy va madaniy mexanizmlarga ega. Uning asosiy maqsadi – nafaqat tovarni sotish, balki iste’molchi ongida muayyan xatti-harakatga undovchi pragmatik zamin yaratishdir. Reklamaning til va nutq vositalarini tahlil qilish, uning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa reklamaning nafaqat lingvistika, balki psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik va marketing kabi sohalar uchun muhimligini isbotlaydi. U tilning barcha ekspressiv imkoniyatlaridan, shu jumladan, imperativ, pragmatik va polikodoviy xususiyatlaridan foydalanadi. Reklama diskursidagi har bir so‘z, obraz va tovush axborot berishdan ko‘ra ko‘proq,

ya'ni iste'molchi ongida muayyan xatti-harakat uchun zamin yaratishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, reklama diskursining tahlili nafaqat tilshunoslik, balki psixologiya, sotsiologiya va marketing kabi sohalar uchun ham katta ahamiyatga ega bo'lib, u zamonaviy jamiyatning ijtimoiy va madaniy kodlarini tushunishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1.Трубникова, Н. В., Савельева, О. О. (2019). Всеобщая история рекламы. Москва: Дашков и К.

2.Борисова, Е. Г. (2018). Рекламный дискурс: в чем его особенности? Медиалингвистика, 5 (4), 436–444.

3.Лазарева, Э. А. (2003). Дискурс рекламы: инвариант и варианты. Психолингвистические аспекты изучения речевой деятельности, 1, 144–158.

4.Трубникова, Н. В., Савельева, О. О. (2019). Всеобщая история рекламы. Москва: Дашков и К; Ромат Е.В. Реклама. История. Теория. Практика. 2002; Ученова В.В., Старых Н.В. История рекламы. 2008.

5.Холикулова, Ш. Б. (2013). Реклама на страницах периодической печати Туркестана в конце XIX – начале XX века (на примере «Туркистон вилоятининг газети»). Молодой ученый, 12, 770-773.

6. Борисова, Е. Г. (2018). Рекламный дискурс: в чем его особенности? Медиалингвистика, 5(4), 436–444.

7.Ukhova, L. V. (2012). Advertizing Text Efficiency: A Synergetic Approach. Yaroslavl Pedagogical Bulletin, 1, 1-3.

8.Булатова, Э. В. (2011). Дискурсивные формы рекламы. Журналистика и массовые коммуникации, 1, 1-5.

9.Ухова, Л. В. (2012). Эффективность рекламного текста: синергетический подход. Ярославский педагогический вестник, 1, 1-3.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 81-25

XONQA SHEVASIDA SIFATLAR VA ULARNING MA'NOVIY GURUHLARI

Olimboyeva Komila Umarbek qizi,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti,
Filologiya va san'at fakulteti 3-bocqich talabasi

СЕМАНТИЧЕСКИЕ ГРУППЫ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ В ХАНКИНСКОМ ДИАЛЕКТЕ

Олимбоева Комила Умарбек кызы,
студент 3-курса факультета Филология и исскуства УрГУ имени Абу Райхан Беруни

THE ADJECTIVES AND THEIR SEMANTIC GROUPS IN THE KHONKA DIALEKT

Olimboyeva Komila Umarbek qizi,
3rd year student of the Faculty of Philology and Art, UrSU named after Abu Rayhan Beruni

https://orcid.org/0009-0002-9026-8416
e-mail: komilaolimboyeva1808@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xorazm viloyatining Xonqa tumani shevasida sifatlarning qo'llanilish xususiyatlari, ularning ma'noviy guruhlarga ajratilishi va semantik tuzilmalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda shevada ishlatiladigan sifatlarning umumadabiy tildagi shakllar bilan o'xshash va farqli jihatlari aniqlanadi. Shuningdek, Xonqa shevasidagi sifatlarning rang, shakl, holat, miqdor, xususiyat va subyektiv baho bildiruvchi turlari misollar asosida ko'rsatib o'tiladi.*

Abstract: *This article analyzes the features of the use of adjectives in the dialect of the Khanka district of the Khorezm region, their division into semantic groups and semantic structures. The study identifies the similarities and differences between the adjectives used in the dialect and the forms in the general literary language. Also, the types of adjectives in the Khanka dialect that express color, shape, condition, quantity, property and subjective evaluation are shown on the basis of examples.*

Аннотация: *В данной статье анализируются особенности употребления прилагательных в говоре Ханкинского района Хорезмской области, их деление на семантические группы и семантические структуры. В исследовании выявляются сходства и различия между прилагательными, используемыми в говоре, и формами общелитературного языка. Также на примерах показаны типы прилагательных в ханкинском говоре, выражающие цвет, форму, состояние, количество, свойство и субъективную оценку.*

Kalit so'zlar: *sifat, sifatning ma'noviy guruhlari, rang-tus, shakl-hajm, maza-ta'm, hid, xususiyat-holat, makon-zamon sifatlari.*

Key words: *adjective, spiritual groups of adjective, color, shape, size, taste, smell, property, state, and space-time adjectives.*

Ключевые слова: *имя прилагательные, семантические группы прилагательных, цвет, форма, размер, вкус, запах, свойство, состояние, пространственно-временные прилагательные.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Shevada ishlatiladigan so'z turkumlari, xususan, sifatlar o'sha hudud aholisining tafakkuri, tasavvuri va estetik qarashlarini o'zida yaqqol namoyon etadi. Sifatlarning ma'noviy guruhlarini o'rganish orqali Xonqa shevasida rang, holat, miqdor, harakat va boshqa belgilar qanday ifodalanishini aniqlash mumkin bo'ladi. Bu esa mahalliy tildagi so'z

boyligini tizimli o‘rganish, o‘zbek tili umumiy lug‘at tarkibini boyitishda muhim manba vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). O‘zbek shevalarida uchraydigan sifat turkumiga xos so‘zlar adabiy tildagi kabi biror predmet, voqea-hodisa yoki holatning belgi-xususiyatlarini (rang-tusini, shakl-hajmini, maza-ta’mini, hidini, xususiyat-holatini, makon-zamonni) ifodalash uchun qo‘llaniladi. Shevalardagi ayrim sifat turkumidagi so‘zlar o‘zbek adabiy tilidan ma’lum darajada farq qiladi” deb ta’kidlaydi Sh.Alimova o‘zining “Xorazm qipchoq shevalarining leksik-grammatik xususiyatlari” nomli monografiyasida.

S.Ashirboyev “O‘zbek dialektologiyasi” darsligida o‘zbek shevalaridagi sifatlarga umumiy to‘xtalgan holda “Sifatlardagi adabiy tilga xos aksariyat so‘zlar, affikslar shevalarda ham ba’zi fonetik o‘zgarishlar bilan qo‘llanadi” deya fikr bildirib, bir qancha misollar keltirib o‘tadi.

MUHOKAMA(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION Xonqa shevasida sifatlar til tizimining muhim qatlamlaridan biri bo‘lib, predmetning belgisini, holatini va xususiyatini ifodalashda muhim o‘rin tutadi. Ushbu shevada sifatlar ma’no jihatidan rang-tus, shakl-hajm, maza-ta’m, xususiyat, hid, makon-zamon belgilarini bildiruvchi guruhlarga ajraladi. Shuningdek, Xonqa shevasidagi sifatlarning ishlatilish xususiyatlari, ularning shakl yasovchi vositalar orqali kengayishi va so‘z turkumlari bilan o‘zaro aloqasi bu sohaning o‘ziga xos jihatlaridan biridir.

Rang-tus bildiruvchi sifatlar. Ushbu guruh tarkibidagi sifatlar adabiy tildagilaridan ba’zi fonetik farqlar bilan qo‘llanadi: sariq ~ sārì, qora ~ qārā, ko‘k ~ gök (so‘z boshidagi jaranglashish qoidasiga asosan).

Sārì ätìrgűllä ačìlìptì [Sariq atirgullar ochilibdi]

Qārā gözlärì dìm xošrāj äkän [Qora ko‘zlari juda chiroyli ekan]

Shuningdek, dunyoni sheva vakillari ham o‘z nuqtayi nazarlaridan ko‘radilar, bu shaxs, narsa va hodisalarning sifatini belgilashda yaqqolroq ko‘rinadi[2]: jigarrang ~ ǯìgärräŋ, havorang ~ hävaräŋ (asmanräŋ deb ham yuritiladi), olovrang ~ alovräŋ.

Asmanräŋ qālāmìmnì joqättìm [Havorang qalamimni yo‘qotdim]

Shakl-hajmni bildiruvchi sifatlar. Bu turdagi sifat narsa/predmetning tashqi ko‘rinishini ifodalaydi[3]. Sheva foydalanuvchilari nutqida adabiy til me’yorlaridan unchalik farq qilmagan holatda (dumaloq ~ tumalaq, uzun ~ uzin) ham, farqli holatda (kichkina ~ mìččì) ishlatiladi

Jaš vāqtìm sačìm dìm uzin ädì [Yoshligimda sochim juda uzun edi]

Xāmirlānì tumalaq ätìp jazìp čìq [Xamirlarni dumaloq qilib yoyib chiq]

Özì bìlän mìččì qizìnì alìp gälìptì [O‘zi bilan kichkina qizini olib kelibdi]

Maza-ta’mni bildiruvchi sifatlar. Kuzatuvlarga asoslangan holda shuni ayta olamiz-ki, ushbu guruhga kiruvchi sifatlar sheva foydalanuvchilari nutqida adabiy tildagi u sifatlardan deyarli farq qilmagan holda qo‘llanadi, ya’ni o‘ziga xoslik yaqqol namoyon bo‘lmaydi. Masalan, achchiq ~ aǯì, shirali ~ širälì (Xonqa shevasida “shirin” so‘zidan deyarli foydalanilmaydi), taxir ~ tāxìr.

Shu o‘rinda “süǯì” sifatiga alohida to‘xtalib o‘tishni lozim topdik. Ushbu so‘z adabiy tildagi “chuchuk” sifatining shevadagi varianti hisoblanadi. Kelib chiqishi eski turkiy tildagi “suchuk” so‘ziga borib taqalib (Labingdin chun suchuklik qand o‘g‘urlar, Solurlar el ani suvga yalang‘och/ Lutfiy), oradan vaqtlar o‘tishi bilan sheva foydalanuvchilari nutqiga shu “süǯì” tarzida singib ketgan.

Xususiyat bildiruvchi sifatlar narsa/mavjudotning xarakter-xususiyatini ifodalashda ko‘p qo‘llanadi[4]. Bu turdagi sifatlar sheva foydalanuvchilari nutqida eng faol qo‘llanuvchi sifatlar sirasiga kiradi. Quyida ulardan ayrimlarini tahlilga tortamiz:

Bìlāšìq ~ kir, iflos; adabiy tildagi “bulg‘amoq” (biror narsani iflos, kir narsaga belamoq, botirmoq, hamma yog‘ini iflos qilmoq) fe’li Xonqa shevashida “bìlāmaq” tarzida qo‘llanadi, bìlāšìq sifati esa shu fe’ldan -ìq affiksi orqali yasalgan.

Bìlāšìq gijìmdä jürìbdì [Kir kiyimda yuribdi]

Ejjì ~ yaxshi; bu so‘zning etimologiyasi hozir turk tilida iste’molda bo‘lgan “iyi” so‘ziga borib taqaladi. Biroq ularning qo‘llanish ma’nolari orasida biroz farq bor, ya’ni Xonqa shevasida bu sifat ko‘pincha kesatiq ma’nosi bilan, xususan, salbiy bo‘yoqda qo‘llanadi.

Sänì özìŋ vnnän ejjìmìsän? [Sen o‘zing undan yaxshimisan?]

Qarǯaŋ ~ arazchi; Xonqa shevasida “xafa bo‘lmoq” ma’nosida “qar ätmaq” fe’li faol iste’molda. Aslida, “qar ätmaq” fe’li “qovog‘idan qor yog‘moq” iborasi tarkibidagi qor so‘zi bilan aloqador va shu qar (qor) asosiga *-ǯaŋ* (adabiy tildagi ekvivalenti -chan) qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan.

Dìm qarǯaŋ qizì bar äkän [Juda arazchi qizi bor ekan]

Söllämsäk ~ vaysaqi; Xonqa shevasida “gapirmoq” fe’li “söllämaq” shaklida ishlatiladi va ushbu sifat “söllämaq” fe’li asosidan *-msäk* affiksi orqali yasalgan bo‘lib, ko‘p gapiradigan odamga nisbatan qo‘llanadi.

Dìm vì däräǯädä söllämsäk bolāvärìš šärtmäs lekìn [Juda bu darajada vaysaqi bo‘lish shartmas lekin]

Hid bildiruvchi sifatlar. Tadqiqotimiz natijalariga ko‘ra hid bildiruvchi sifatlar Xonqa shevasida sifatning qolgan ma’noviy guruhlariga nisbatan kamunum tur hisoblanadi. Shunisi e’tiborliki, ushbu shevada adabiy tildagi hidni ifodalovchi sifatlarning aynan muqobil variantlari deyarli yo‘q. Masalan, “xushbo‘y”, “muattar” so‘zlari o‘rnida shartli ravishda *“mazalì”, “mazzì”* (mazali), *“jaxšì”* (yaxshi) ; “qo‘lansa” so‘zi o‘rnida esa *“yaman”* (yomon), *yaqìmsìz* (yoqimsiz) so‘zlari ishlatiladi:

mazzì duxi ~ xushbo‘y atir

yaqìmsìz is ~ qo‘lansa hid

Muqobil variant sifatida ko‘rsatish mumkin bo‘lgan *“sa:sì”* so‘zi ham adabiy tildagi “sassiq” so‘zining fonetik o‘zgarish orqali sheva so‘zlovchilarining nutqiga moslashgan ko‘rinishi hisoblanadi. *Navìnìdìr sasì isì čìqìb getìbdì* ~ Nimaningdir sassiq hidi chiqib ketibdi.

Makon-zamon sifatlari. Xonqa shevasida makon-zamon ma’nosini ifodalovchi sifatlar nisbatan cheklangan bo‘lsa-da, ular tildagi belgi ifodalash tizimida muhim o‘rin egallaydi. Bu turdagi sifatlar predmetning joylashuvi yoki voqeaning sodir bo‘lish vaqtini bildiradi. Bu shevada makon-zamon sifatlari adabiy tildagidan talaffuz jihati bilan aynan bir xil (*ičkì* ~ ichki, *kejìngì* ~ keyingi), biroz farqlanib (*gečkì* ~ kechki, *qìšqì* ~ qishki, *ävälkì* ~ avvalgi) yoki o‘ziga xos (*azangì* ~ ertalabki) tarzda qo‘llanilishi mumkin:

Kejìngì häftä sölläšämìz ~ Keyingi hafta gaplashamiz

Qìšqì gìjìmlärìŋì apčìq ~ Qishki kiyimlaringni olib chiq

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Xonqa shevasi sifatlarning ma’no va shakl jihatidan boy tizimga ega. Sheva nutqida sifatlar turli semantik guruhlarga ajralib, predmetning rang-tusi, shakl-hajmi, maza-ta’mi, xususiyati, miqdori, hidi va makon-zamonini ifodalashda faol qo‘llanilishi kuzatildi. Shuningdek, ayrim sifat shakllari adabiy tildagidan farq qilishi, mahalliy talaffuz va qo‘shimchalar orqali yangi ma’no nozikliklarini hosil qilishi aniqlangan.

Ushbu kuzatuvlar Xonqa shevasida sifatlarning nafaqat leksik, balki morfologik va uslubiy jihatdan ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Xonqa shevasida sifatlar til tizimining eng faol qatlamlaridan biri bo‘lib, ular orqali xalqning hayot tarzi, madaniyati va tafakkuri aks etadi. Sheva doirasida sifatlarning semantik guruhlarga bo‘linishi nutqning mazmuniy aniqligini va ifodaviyligini ta’minlaydi. Shuningdek, shevaga xos fonetik va morfologik xususiyatlar natijasida yangi sifat shakllari paydo bo‘lib, bu tilning boyishiga xizmat qiladi.

Demak, Xonqa shevasida sifatlar va ularning ma’noviy guruhlarini o‘rganish nafaqat dialektologiya, balki tilshunoslikning umumiy nazariy masalalarini yoritishda ham muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro‘yxati (Использованная литература / References):

1. Alimova Shahnoza Maqsudovna. Xorazm qipchoq shevalarining leksik-grammatik xususiyatlari. – Urganch: Khwarezm publication, 2024. – 38 b.
2. Ashirboyev Samixon. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim nashriyoti, 2021. – 67 b.
3. Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Бокиева Г.Х., Курбонова М.М., Юнусова З.К., Абузалова М.К. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Таълим тараққиёти, 2009. – 224 б.
4. Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Xudoyberganova D., Odilov O. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2021.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 811.161.1

TIL VA MADANIYATNING ETNOLINGVISTIK TAHLILI (O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARI MATERIALLARI ASOSIDA)

Djumaniyazova Luiza Sultonboyevna, Urganch davlat universiteti “Roman-german filologiyasi” kafedrasi tayanch doktoranti

ЭТНОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЯЗЫКА И КУЛЬТУРЫ (НА МАТЕРИАЛЕ УЗБЕКСКОГО И АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКОВ)

Джуманиязова Луиза Султонбоевна, базовый докторант кафедры Романо-германской филологии Ургенчского государственного университета

ETHNOLINGUISTIC ANALYSIS OF LANGUAGE AND CULTURE (BASED ON THE MATERIAL OF UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES)

Djumaniyazova Luiza Sultonboyevna, principal doctoral student at the Department of Romance and Germanic philology, Urgench State University

https://orcid.org/0000-0002-3081-9418
e-mail: luizasultonboyevna@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada o‘zbek va ingliz tillari misolida til va madaniyatning etnolingvistik o‘zaro ta’siri ko‘rib chiqiladi. Maqolda madaniy qadriyatlar, an’analar va milliy dunyoqarashlarning maqollar, metaforalar va leksikada qanday aks etishi tahlil qilinadi. Etnolingvistikaning madaniy merosni saqlash va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishdagi ahamiyati ta’kidlanadi.*

Abstract: *The article examines the ethnolinguistic interaction of language and culture using the example of the Uzbek and English languages. It analyzes how cultural values, traditions, and national worldviews are reflected in proverbs, metaphors, and vocabulary. The study highlights the importance of ethnolinguistics in preserving cultural heritage and fostering intercultural dialogue.*

Аннотация: *В статье рассматривается этнолингвистическое взаимодействие языка и культуры на примере узбекского и английского языков. Анализируется отражение культурных ценностей, традиций и национальных мировоззрений в пословицах, метафорах и лексике. Делается вывод о значимости этнолингвистики для сохранения культурного наследия и межкультурного диалога.*

Kalit so‘zlar: *etnolingvistika, til, madaniyat, identiklik, o‘zbek tili, ingliz tili.*

Key words: *ethnolinguistics, language, culture, identity, Uzbek language, English language.*

Ключевые слова: *этнолингвистика, язык, культура, идентичность, узбекский язык, английский язык.*

ВВЕДЕНИЕ (KIRISH/ INTRODUCTION). Этнолингвистика как научное направление исследует взаимосвязь языка и культуры, их влияние на формирование этнической идентичности и мировоззрения. Сравнительный анализ узбекского и английского языков позволяет выявить различия в культурных кодах, ценностных ориентациях и символике. Цель статьи — проанализировать этнолингвистические

особенности двух языков и показать, как через язык передается национальная культура.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ (ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA / MATERIALS AND METHODS). Изучение взаимодействия языка и культуры имеет долгую традицию в мировой науке. Теоретической базой данной статьи стали труды классиков этнолингвистики и культурной антропологии: Э. Сепира, Б. Л. Уорфа, А. Вежбицкой, Э. Т. Холла, а также работы отечественных исследователей — Н. И. Толстого, Ю. С. Степанова, В. А. Масловой и др. Их исследования демонстрируют тесную взаимосвязь языка, культуры и этнической идентичности.

Особое внимание уделяется работам по узбекской этнолингвистике и лингвокультурологии (М. Юлдашев, А. Хожиев), а также исследованиям английского языка в межкультурной коммуникации (Д. Кристал, Дж. Лакофф, М. Джонсон). Использование как отечественных, так и зарубежных источников позволяет выстроить комплексный подход и избежать одностороннего анализа.

В статье применяется сравнительно-этнолингвистический метод, который предполагает сопоставление языковых единиц (лексики, фразеологии, метафорических выражений) в узбекском и английском языках.

Используются следующие методологические подходы:

Лингвокультурологический анализ — выявление национально-специфических смыслов в языковой картине мира.

Когнитивный подход — рассмотрение концептов («гостеприимство», «свобода», «семья», «время», «труд») как носителей культурной информации.

Контрастивный анализ — сопоставление сходств и различий в выражении культурных ценностей через язык.

Этнолексикографический метод — изучение слов и выражений, связанных с традициями, обычаями и культурными практиками.

Методологическая основа сочетает качественный анализ (интерпретация пословиц, устойчивых выражений, концептов) и элементы сравнительной типологии, что позволяет выявить как уникальные черты каждой культуры, так и универсальные тенденции.

ОБСУЖДЕНИЕ (MUHOKAMA / DISCUSSION). Результаты проведённого исследования позволяют утверждать, что язык не только является средством коммуникации, но и выступает как своеобразный «код культуры», аккумулирующий этнический опыт и мировоззрение народа. Сравнительный анализ узбекского и английского языков показывает, что их культурные концепты отражают разные цивилизационные традиции и социальные ценности.

В узбекской культуре центральное место занимает идея коллективизма, выражающаяся в уважении к старшим, сакральном статусе семьи и обычае гостеприимства. Язык фиксирует эти ценности через многочисленные пословицы и устойчивые выражения: «Меҳмон — ризқи билан келади» («Гость приходит со своим уделом»), «Оила — жамиятнинг асоси» («Семья — основа общества»). Эти примеры показывают, что в узбекской картине мира гармония внутри общины и сохранение традиций ценятся выше индивидуальных интересов.

Английский язык, напротив, отражает индивидуалистическую модель культуры, где в центре внимания находится личность и её успех. Концепты «time», «freedom», «choice» связаны с рациональностью, самостоятельностью и конкуренцией. Выражения «Time is money» или «Stand on your own feet» иллюстрируют установку на личную ответственность и эффективность.

Особое внимание заслуживает концепт времени. В узбекской культуре оно воспринимается как цикличное явление, подчинённое естественному ходу природы и социальным ритуалам («Ҳар ишнинг ўз вақти бор» — «Всему своё время»). В английской культуре время осмысливается линейно и экономически: его необходимо использовать максимально продуктивно. Эта разница отражает фундаментальные отличия в мировосприятии: гармония и терпение против динамики и прагматизма.

Не менее значимым является сравнение концепта труда. В узбекской традиции труд ценится как духовная и моральная категория, связанная с честностью, достоинством и благополучием семьи («Меҳнат қилган — тўйар» — «Кто трудится — тот будет сыт»). В английской культуре труд понимается скорее как инструмент социального лифта и средство достижения личных целей («No pain, no gain»).

Несмотря на различия, важно отметить наличие универсальных ценностей. И узбекская, и английская культуры высоко оценивают честность, усердие и уважение к другому человеку. Однако способы выражения этих ценностей в языке различаются: в узбекском — через коллективные и сакральные образы, в английском — через индивидуальные достижения и свободу выбора.

Таким образом, обсуждение результатов исследования подтверждает мысль о том, что язык не просто отражает культуру, но активно участвует в её формировании. Сравнительный этнолингвистический анализ позволяет выявить не только национально-специфические черты, но и универсальные тенденции, создавая основу для конструктивного межкультурного диалога.

РЕЗУЛЬТАТЫ (NATIJALAR / RESULTS). Проведённое исследование позволило выявить ряд значимых этнолингвистических особенностей узбекского и английского языков, которые свидетельствуют о тесной взаимосвязи языка и культуры.

1. Концептуальные различия. Анализ показал, что базовые концепты в узбекском и английском языках имеют разное семантическое наполнение:

Узбекский язык: гостеприимство, коллективизм, уважение к старшим, сакральность семьи, труд и духовность.

Английский язык: индивидуализм, личная свобода, рациональное использование времени, ориентация на успех и эффективность.

2. Интерпретация универсальных категорий.Особый интерес представляют различия в понимании универсальных понятий:

Время: в узбекской культуре осмысляется циклично, в привязке к природным ритмам («Кўрпангга қараб оёқ узат» — «Протягивай ноги по одеялу»); в английской культуре воспринимается как ресурс, требующий рационального использования («Actions speak louder than words» — «Поступки говорят громче слов»).

Семья: в узбекском языке — основа общества и носитель традиций («Ота уйи — тоғ, она уйи — боғ» — «Отцовский дом — гора, материнский — сад»); в английском — чаще нуклеарная семья, связанная с личным выбором («A man’s home is his castle» — «Дом человека — его крепость»).

Труд: в узбекской культуре — моральная категория, связанная с честностью и благополучием («Ҳунарли — ҳалолликка яқин» — «Умелый человек близок к честности»); в английской — средство достижения успеха и социальной мобильности («Many hands make light work» — «Много рук делают работу лёгкой»).

3. Пословицы и устойчивые выражения. Анализ паремийного фонда подтвердил, что пословицы и идиомы фиксируют ценности общества: в узбекском языке — идеи взаимопомощи и уважения к традиции («Кўрпангга қараб оёқ узат», «Ота уйи — тоғ, она уйи — боғ»); в английском языке — личная ответственность и прагматизм («Actions speak louder than words», «A man’s home is his castle»).

4. Лексико-семантический уровень. Лексика узбекского языка богата терминами, связанными с культурой гостеприимства и семейными ценностями («достурхон», «палом», «чайхона»), тогда как английский язык содержит множество слов, связанных с организацией времени и эффективности («schedule», «deadline», «efficiency»).

5. Культурные метафоры. В узбекском языке метафоры отражают духовную гармонию и коллективное сознание («Ҳунарли — ҳалолликка яқин»). В английском языке преобладают метафоры независимости и прагматизма («A man’s home is his castle»).

6. Роль языка в формировании идентичности. Установлено, что: в узбекской культуре язык служит средством сохранения традиций и этнической памяти, поддерживая коллективное самосознание; в англоязычном мире язык закрепляет установки на личностное развитие и самостоятельность.

TAMADDUN NURI

7. Универсалии и различия. Несмотря на культурные различия, обе традиции высоко ценят трудолюбие, честность и моральные принципы, однако способы их языкового выражения различны: в узбекском языке — через сакральные и коллективные образы; в английском — через рациональные и индивидуальные ориентиры.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ (XULOSA / CONCLUSION). Проведённый сравнительный этнолингвистический анализ узбекского и английского языков показал, что язык является не только средством коммуникации, но и мощным инструментом формирования и передачи культурных ценностей. Лингвистические особенности обоих языков тесно связаны с историческим опытом, социальными практиками и мировоззренческими установками народов.

Узбекский язык демонстрирует ярко выраженную ориентацию на коллективные ценности, сакрализацию семьи, уважение к старшим и сохранение традиций. Английский язык, напротив, отражает индивидуалистические установки, рациональное отношение ко времени и акцент на личные достижения.

Сравнение показало, что даже универсальные категории — такие как «время», «семья», «труд» — интерпретируются по-разному в зависимости от культурного контекста. Это подтверждает, что язык выступает своеобразным «зеркалом культуры», фиксирующим уникальные национальные ценности и ментальные особенности.

В то же время обнаружены и общие черты: обе культуры высоко ценят честность, трудолюбие и стремление к гармоничным отношениям в обществе. Однако формы языкового выражения этих универсалий существенно различаются, что подчёркивает многообразие способов отражения мира в разных этнолингвистических традициях.

Таким образом, проведённое исследование демонстрирует важность изучения языка в этнолингвистическом ключе как инструмента познания культуры. Результаты анализа могут быть полезны в сфере межкультурной коммуникации, преподавания иностранных языков и дальнейших исследований в области языка и культуры.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА (ADABIYOTLAR RO‘YXATI / REFERENCES):

1. Арутюнова Н. Д. Язык и мир человека. – Москва: Языки русской культуры, 1999.
2. Маслова В. А. Лингвокультурология. – Москва: Академия, 2010.
3. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – Москва: Русские словари, 1996.
4. Хайдаров А. Узбек тили ва маданияти. – Тошкент: Фан, 2018.
5. Хусейнов Ш. Этнолингвистика ва миллий онг. – Тошкент: Университет, 2020.
6. Sapir E. Language: An Introduction to the Study of Speech. – New York: Harcourt, Brace & Co., 1921.
7. Whorf B. L. Language, Thought and Reality: Selected Writings. – Cambridge: MIT Press, 1956.
8. Hall E. T. Beyond Culture. – New York: Anchor Books, 1976.
9. Kramsch C. Language and Culture. – Oxford: Oxford University Press, 1998.
10. Crystal D. English as a Global Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
11. Hofstede G. Culture’s Consequences: International Differences in Work-Related Values. – Beverly Hills: Sage, 1984.
12. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
13. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 902:339.1:103

XONDAMIRNING "MAOSIR AL-MULUK" ASARINING MANBAVIY AHAMIYATI VA O'RGANILISHI

Shodmonova Gulizor Farxod qizi,
Fanlar Akademiyasi Tarix instituti tayanch doktoranti

ИСТОЧНИКОВОЕ ЗНАЧЕНИЕ И ИЗУЧЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЕ ХОНДАМИРА "МАОСИР АЛЬ-МУЛУК"

Шодмонова Гулизор Фарход кызы,
докторант Института истории Академии Наук

THE SOURCE VALUE AND STUDY OF KHANDAMIR'S WORK "MAOSIR AL-MULUK"

Shodmonova Gulizor Farkhod qizi,
PhD Candidate of the Academy of Sciences The Institute of History

shgulizor@gmail.com

https://orcid.org/0009-0004-5754-5156

Annotatsiya: *Xondamirning "Maosir al-muluk" asari Temuriylar davri tarixini, siyosiy tafakkurini va axloqiy qarashlarini yorituvchi noyob manbadir. Asar Markaziy Osiyo, jahon va o'zbek tadqiqotchilari tomonidan o'rganilgan. Ushbu ishda asarning manbaviy ahamiyati, qo'lyozma va nashr nusxalari, shuningdek tadqiqotchilarning yondashuvlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Xondamir, "Maosir al-muluk", Temuriylar, manbashunoslik, qo'lyozma, nashr, tadqiqot, O'zbekiston, Markaziy Osiyo.*

Аннотация: *Произведение Хондамира "Маосир аль-мулук" является уникальным источником, отражающим историю, политическую мысль и моральные взгляды эпохи Тимуридов. Работа изучена исследователями Центральной Азии, мира и Узбекистана. В данной статье анализируется источниковое значение произведения, рукописные и печатные варианты, а также подходы исследователей к его изучению.*

Ключевые слова: *Хондамир, Маосир аль-мулук, Тимуриды, источниковедение, рукопись, издание, исследование, Узбекистан, Центральная Азия.*

Abstract: *Khandamir's work "Maosir al-muluk" is a unique source reflecting the history, political thought, and moral views of the Timurid era. The work has been studied by researchers from Central Asia, the world, and Uzbekistan. This study analyzes the source significance of the work, manuscript and printed editions, as well as the approaches of scholars to its research.*

Key words: *Khandamir, Maosir al-muluk, Timurids, source studies, manuscript, edition, research, Uzbekistan, Central Asia.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Xondamir (G'iyosiddin bin Humomiddin, hijriy 903-yilda tug'ilgan) – muhaddis va tarixnavis olim. Xondamirning "Maosir al-muluk" asari Temuriylar davri tarixini, siyosiy tafakkurini va axloqiy qarashlarini yorituvchi noyob manbadir. Asar Markaziy Osiyo, jahon va o'zbek tadqiqotchilari tomonidan o'rganilgan, bu asar Temuriylar davri tarixining eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Va uning manbaviy ahamiyati quyidagi jihatlar yaqqol namoyon bo'ladi:

Tarixiy voqealarni yoritish: Asar Temuriylar hukmdorlari siyosati, davlat boshqaruvi, harbiy yurishlari va ichki siyosiy jarayonlarini aniq va tizimli tarzda aks ettiradi;

Davrning axloqiy va siyosiy tafakkurini ko'rsatish: Xondamir davlat arboblari va hukmdorlarning siyosiy va axloqiy qarashlarini tahlil qiladi, shuning uchun asar tarixiy voqealar

bilan birga davlat boshqaruvi nazariyasini o‘rganish uchun manba sifatida muhimdir;

Madaniy va adabiy qiymat: Asar forsiy tilida yozilgan bo‘lib, o‘sha davr nasrining uslubiy xususiyatlarini saqlab qolgan. Bu jihat uni madaniy meros va adabiy manba sifatida qadrlashga imkon beradi [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД /MATERIALS AND METHODS). Asarning nusxalari va manbaviy tahliliga to‘xtaladigan bo‘lsak, “Maosir al-muluk”ning bir nechta qo‘lyozma nusxalari dunyo kutubxonalarida saqlanadi va bu muallifing ilk asari sifatida e’tirof etiladi. Biroq mo‘tabar olim doktor Abdulhusayn Navoiy esa uning birinchi asari aslida “Maosir al-muluk” bo‘lganini taxmin qiladilar. Muallif kitobning o‘zida ikki marotaba yozilish vaqtiga ishora qiladi: “Hozir 901-hijriy yil…”, “Sulolat tongining boshlanishidan hozirgacha yigirma sakkiz yil o‘tdi…” Shu sababli, “Maosir al-muluk”ning yozilgan davri aniq – Sulton Husayn Boyqaro (878-hijriyda taxtga chiqqan yili) hukmronligi davriga to‘gri keladi. Xondamir “Habib us-siyar” asarida ham ushbu kitobni ikki marotaba tilga olib, o‘zini kamtarona shunday ta’riflaydi: “Bu javohirmonand rishtalarni ipga tizuvchi va bu durdona harflarni bituvchi ojiz banda – G‘iyosiddin bin Humomiddin Husayniy, “Xondamir” laqabli-ki, buyuk tabaqaning hosilidan don teruvchi, oliy maqom ahli ehson dasturxonidan rizq oluvchi , odat va rasmga binoan nazm va nasr uslubida bu majmualarni insho tarzida tuzib, tartib berdi”. Bu asar Xondamirning eng qadimiy asarlaridan biri bo‘lib, u Navoiy rag‘bati bilan yozilgan. Bu aslida, uning ilmiy ijod yo‘lida dastlabki qadamlaridan hisoblanadi. “Maosir ul-muluk”ni men ikki qo‘lyozma asosida tahrir qildim. Ikkalasi ham “Milliy Majlis” kutubxonasiga mansub bo‘lib, ularning hech biri kitobat sanasini ko‘rsatmaydi:

619-raqamli qo‘lyozma nasta’liq xatida yozilgan bo‘lib, taxminan 931-hijriy yillarda bitilgan. Bu nusxaga (مس) belgisi berildi [2].

3441-raqamli qo‘lyozma ham nasta’liq xatida yozilgan bo‘lib, XIII asrda ko‘chirilgan. Bu nusxaga esa (مج) belgisi berildi. “Maosir ul-muluk”ni tahrir qilgach, men muallif Xondamirning boshqa ikki asari bo‘lgan “Qonuni Humoyuniy” (yoki “Humoyunnoma”) va “Xotimat ul-xulosat ul-axbor”ni ham tahrir qilib, mazkur kitobga ilova etishni maqsadga muvofiq deb bildim. Muallifning o‘z so‘zlariga ko‘ra, asar 940-hijriy yilda yozilgan: “… va hozirda, ya’ni zikr etilgan yilning shavval oyining oxirlarida…”. Ushbu kitobda Xondamir Muhammad Humoyun farmoni bilan “amir al-axbor” unvoni bilan siylanganini ham zikr etadi. Mazkur risola 1359-hijriy yilda Kalkuttada Muhammad Hidoyat Husayn tomonidan 136 betli kichik formatda nashr etilgan [3].

Muallif ta’kidlaganidek, bu yerda ham qayd etilgan va u zotga bo‘lgan ehtirom yuzasidan (م) belgisi bilan ko‘rsatib qo‘yilgan. Shuningdek, “saqarlat” so‘zi ham shu shaklda, ham ikkita nuqtali “ta’” bilan yozilgan bo‘lib, men ham uni o‘sha shaklda nashrda saqlab qoldim. “Xotimat al-xulosat ul-axbor”, Xondamirning shu kungacha chop etilmagan muhim asarlaridan yana biri “Xulosat ul-axbor fi ahvol al-axyor”dir. Bu asar “Ravzat us-safo”ning ixchamlashtirilgan nusxasi va umumjahon tarixining yig‘indisi bo‘lib, uning eng muhim qismi – xotimasidir. Unda Hirot shahri, uning buyuklari, olimlari va san’atkorlari haqida, xususan, Sulton Husayn Boyqaro hamda uning ilmparvar vaziri Amir Alisher Navoiy zamonidagi faoliyatlari haqida ma’lumot beriladi. Muallif o‘zi buni hamisha orzu qilganini, butun asarni to‘liq tahrir qilib tarix ixlosmandlariga taqdim etishni istaganini bildiradi. Biroq umr sadoqat qilmaganidan, hozircha faqat xotima qismini tahrir qilib, uni “Maosir al-muluk”ka qo‘shishga qaror qilganini qayd etadi. “Xulosat ul-axbor”ning yozilgan vaqti hijriy 900-910-yillar oralig‘iga to‘g‘ri keladi. Chunki xotimaning ikki joyida shu sanalarga ishora qilingan: “Sulolaga xos podshohlik tongidan shu kungacha o‘ttiz ikki yil o‘tdi…” va yana “bu tarixda, ya’ni to‘qqiz yuz beshinchi oyida…” kabi jumlalar keltiriladi. “Xotimat ul-xulosat ul-axbor” uch qo‘lyozma asosida tahrir qilingan:

Tehron universiteti markaziy kutubxonasidagi 5583-raqamli qo‘lyozma, nasx va nasta’liq xatlarida, XI asrga oid. Bu nusxa Fasihuddin Sohib tarjimayi holi bilan tugaydi va undan keyin matn tushib qolgan. Belgisi (نش);

Britaniya muzeyidagi nusxa. Uning fotosurati Tehron universiteti markaziy kutubxonasida 3304-raqamda, mikrofilmi esa 1269-raqamda saqlanadi. Qo‘lyozma hijriy 917-yil Ramazon oyining boshida ko‘chirilgan. Belgisi (يت);

Tehron universiteti markaziy kutubxonasidagi 632-633-raqamli fotonusxalar. Manbaning asli Istanbuldagi Aya Sofiya kutubxonasida 3190-raqam ostida saqlanadi. Belgisi (صو). Bu nusxaning mavjudmasligi bilan ayrim olimlarning fikrlarida noaniqliklar bor [4].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Asarning tarixiy va adabiy ahamiyati:

Tarixiy jihatdan: Xondamir o‘z davr siyosiy hayotini va Timuriylar davrining boshqaruv an’analarini aks ettiradi;

Adabiy jihatdan: Asar forsiy nasrning pandnoma janridagi yuksak namunasi;

Madaniy jihatdan: U sulton va amirlar uchun “davlatni adolat bilan boshqarish qo‘llanmasi” sifatida yozilgan.

“Maosir al-muluk” — O‘rta asr Sharq tarixiy-adabiy tafakkurining o‘ziga xos namunasi bo‘lib, unda Xondamir davlatni boshqarishdagi adolat, ilm, axloq, mashvarat kabi qadriyatlarni targ‘ib qiladi. Shuningdek, u o‘z davrining siyosiy muhitini ham badiiy-tarixiy tarzda ifodalagan. Bu asar, “Siyosatnoma”, “Qobusnoma”, “Nasihat ul-muluk” kabi pandnoma tipidagi asarlarning davomchisi sifatida qaraladi [5].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Shunday qilib, “Maosir al-muluk” asari o‘rganish uchun nafaqat tarixiy, balki manbaviy jihatdan ham noyob ahamiyat kasb etadi, tarixiy voqealar va hukmdorlarning qarashlarini o‘rganishda ishonchli manba hamdir. Madaniy va adabiy meros sifatida forsiy nasrning o‘rganilishida ham qo‘llaniladi. Nashrning matni arab yozuvida (fors alifbosida), nasta’liq shriftida bosilgan. Har bir bob Qur’on oyatlari va hadislar bilan boshlanadi. Nashrda izohli lug‘at va muallif haqida qisqa tarjimayi hol ham kiritilgan (tahrirchi tomonidan yozilgan). Matnning oxirida qo‘lyozma farqlari (variantlar) ko‘rsatilgan — masalan, ayrim so‘z yoki ibora o‘zgarishlari izohda berilgan. Qadimiy imlo saqlangan, biroq o‘qilishni yengillashtirish uchun zamonaviy fors imlosiga moslashtirilgan joylari ham bor. O‘zbekiston va Markaziy Osiyoda esa to hozirga qadar “Maosir al-muluk”ning to‘liq o‘zbekcha tarjimasi yoki bosma nashri mavjud emas. Biroq Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti hamda Toshkent Davlat Sharqshunoslik universitetida asar bo‘yicha magistrlik dissertatsiyalari va ilmiy maqolalar yozilgan. 2000-yillarda “Xondamir merosi”ga bag‘ishlangan ilmiy to‘plamlarda (“Sharq yodgorliklari”, “O‘zbek adabiyoti tarixi manbalari” kabi) asardan parchalar keltirilgan [6].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). “Maosir al-muluk” Temuriylar davri tarixini yorituvchi asosiy tarixiy manbalardan biri hisoblanadi. Temuriylar davrida hukmdorlarning siyosiy faoliyati, davlat boshqaruvi, harbiy yurishlari va ichki siyosiy voqealar batafsil tasvirlangan noyob manba sifatida ham o‘ziga xos unikallikka ega. Qo‘lyozma va nashr nusxalari orqali manbaviy tadqiq qilish esa “Maosir al-muluk”ning manbaviy ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Ahmedov B. A. O‘rta asrlar Markaziy Osiyo tarixshunosligi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1985.
2. Wineburg S. Historical Thinking and Other Unnatural Acts. – Philadelphia: Temple University Press, 2001.
3. Khandamir Giyasiddin. Maosir al-muluk. Manuscript source: (معاصر الملوک“, تهران, خواندم, ر ی ۱۳۷۲) British Library, Add. / Persian Manuscript, 16th century, pp. 77-59 . Published edition: Tehran: Kitabkhanaye Tahuri, 1954.
4. Khandamir Giyasiddin. Habib us-siyar fi axbar ul-afrad ul-bashar. – Tehran: Kitabkhanaye Bina, 1954, Vol. 3. – Pp. 220–285.
5. Browne E. G. A Literary History of Persia. Vol. IV. – London: Cambridge University Press, 1924. – Pp. 132–147.
6. Shodmonova G. The life and scholarly legacy of Khondamir: a historical source and analytical review. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. Great Britain. 2025. – Pp. 186-189.
7. Shodmonova G. “Maasir al-muluk” – an important source about historical dynasties. American journal of advanced scientific research. Vol. I, America, 2025. – Pp. 418-424.
8. Charles Rue. London, British Library, MSS Or. 2165–2167.
9. Shodmonova G. “Maosir al-muluk” asarida mifologik obrazlar tahlili. Bulletin of the Institute knowledge of history light of science. No.2-3, 2025. – Pp. 584-587.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 111.1:164.2:164.03.2/3(575.1)

RAQAMLASHTIRILGAN JAMIYAT KOMMUNIKATIV REALLIGINING ONTOLOGIK, GNOSEOLOGIK VA MANTIQIY ASOSLARI

Mavluda Yekubova, O'zMU, dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

ОНТОЛОГИЧЕСКИЕ, ГНОСЕОЛОГИЧЕСКИЕ И ЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КОММУНИКАТИВНОЙ РЕАЛЬНОСТИ ЦИФРОВИЗИРОВАННОГО ОБЩЕСТВА

Екубова Мавлуда, доцент НУУз, кандидат философских наук

ONTOLOGICAL, EPISTEMOLOGICAL, AND LOGICAL FOUNDATIONS OF THE COMMUNICATIVE REALITY IN A DIGITALIZED SOCIETY

Ekubova Mavluda, Associate Professor at NUUz, Candidate of Philosophical Sciences

e-mail:
mavlyudayakubov0@gmail.com
https://orcid.org/
0009-0006-7440-1263

Annotatsiya: *Maqolada, zamonaviy raqamli muhitda kommunikativ reallikning ontologik o'zgarishi, gnoseologik moslashuv jarayoni, mantiqan esa tafakkur va muloqotning strukturaviy uyg'unligi konseptual jihatdan tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *Raqamlashtirilgan jamiyat, kommunikativ reallik, muloqot jarayonlari, epistemik, aksiologik, mantiqiy asoslar, ontologik, gnoseologik, inson tafakkuri, mantiqiy kontekst.*

Аннотация: *В статье концептуально анализируется онтологическое изменение коммуникативной реальности в современной цифровой среде, процесс гносеологической адаптации, а также логическая структурная гармония мышления и общения.*

Ключевые слова: *Цифровизированное общество, коммуникативная реальность, процессы общения, эпистемические, аксиологические, логические основы, онтологические, гносеологические аспекты, человеческое мышление, логический контекст.*

Abstract: *The article presents a conceptual analysis of the ontological shift in communicative reality within the modern digital environment, the process of epistemological adaptation, and the logical structural harmony between thinking and communication.*

Key words: *Digitalized society, communicative reality, communication processes, epistemic, axiological, and logical foundations, ontological and epistemological aspects, human thinking, and logical context.*

Kirish. Raqamlashtirilgan jamiyatda kommunikativ reallik fenomeni zamonaviy falsafaning eng dolzarb va murakkab muammolaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Bu fenomen axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, insoniyatning globallashuv jarayoniga sho'ng'ishi hamda ong va idrokning transformatsiyasi sharoitida ontologik, gnoseologik va aksiologik jihatdan chuqur falsafiy tadqiqotni taqozo etadi.

Kommunikativ reallik tushunchasi tahlili antik davr mutafakkirlari qarashlariga borib taqaladi. Xususan, Aristotel muloqot, bahs va argumentlash sof mantiqiy mezonlar, deduktiv xulosa chiqarish va syllogistik usullar orqali tushuntirilgan bo'lib, haqiqatga erishish vositasi

sifatida namoyon bo‘ladi, deb e’tirof etgan. Aristotelning “Topika”si va “Sofistik inkorlar” asarlarida muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi bahslar faqat chinlikni izlashga qaratilgan ratsionallik doirasida qaralgan. Ushbu mantiqiy epistemologiya O‘rta asr Sharq mutafakkirlari - Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Homid G‘azzoliy kabi allomalar tomonidan yanada chuqurlashtirilib, notiqlik san’ati, bahs-munozara va dalillash texnikalarining kognitiv va aksiologik jihatlari bilan boyitilgan. Jumladan, Farobiy “nutq bilan isbotlash”ni ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan muloqot shakli sifatida ko‘radi, Ibn Sino esa nutqiy aktlarning tushunilishi va qabul qilinishi o‘rtasidagi tafovutni birinchi bo‘lib falsafiy tahlilga tortgan.

Keyinchalik, noklassik falsafa ushbu muloqotni rasionallikdan tashqariga olib chiqadi. Xususan, Yu.Xabermasning kommunikativ harakatlar nazariyasida esa muloqot jarayoni ishtirokchilar orasida erkin va tazyiqsiz kelishuvga asoslangan haqiqat ishlab chiqarish usuli sifatida qaraladi. Bu fikr doirasida ijtimoiy reallik - bu kommunikativ jarayon natijasida konstruirlangan epistemik manzara sifatida tushuniladi.

Tafakkurning yangilanishi, yondashuvlar zamonaviy tus olishi esa ushbu tushunchalarning barchasini dekonstruksiya qilishga intiladi. Axborotlashtirish jarayoni, sun’iy intellektning taraqqiyoti, virtual muloqot va algoritmik axborotlar oqimi natijasida kommunikativ reallik insoniyat tarixidagi mutlaqo yangi ontologik shaklni kasb etmoqda. Bu reallikda chinlik va yolg‘onlik o‘rtasidagi chegara noaniqlashadi, foydalanuvchilar interaktiv muhitda nafaqat axborot iste’molchilariga, balki uni yaratuvchilarga ham aylanishadi.

Axborot-kommunikativ texnologiyalar orqali shakllanayotgan yangi reallikda argumentlash nafaqat ijtimoiy, balki milliy xavfsizlik masalasiga ham aylanmoqda. Axborotlar orqali inson ongini nazorat qilish vositalarining kuchayishi axloqiy va diniy qadriyatlarni “g‘oyaviy immunitet” sifatida shakllantirishni taqozo etadi. O‘zbek muloqot madaniyati, uning milliy mentalitetdagi ifodasi, nutqiy etiketi va qadriyatlar ierarxiyasi bu borada alohida nazariy ahamiyatga ega.

Ushbu ilmiy tadqiqotning muhim jihatlaridan biri shundaki, unda Sharq va G‘arb argumentlash madaniyati chuqur tahlil qilingan. Abu Homid G‘azzoliy va Pol Graysning bahs qoidalari qiyosiy tahlil qilinar ekan, G‘arbga xos formalistik an’analardan farqli ravishda Sharqda axloqiy-ruhiy holat, odob va niyatning ustuvorligi aniqlanadi. Bu, o‘z navbatida, muloqotning mazmuniy emas, ma’naviy-ekzistensial sifatlarini aniqlaydi. G‘azzoliy nazarida muloqot haqiqatga erishish vositasi emas, balki ma’rifatli jamiyat qurishning asosiy vositasidir. Bu fikrlar bugungi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ma’naviy-kommunikativ asoslari sifatida zamonaviy dolzarblik kasb etadi.

Raqamlashtirilgan jamiyat kommunikativ realligining ontologik va gnoseologik o‘lchamlari, o‘z navbatida, inson borligining yangi shakllanish bosqichida axborot, til, belgi va muloqot fenomenlariga nisbatan tubdan yangicha falsafiy munosabatni talab qiladi. An'anaviy metafizik model doirasida mavjud bo‘lgan "borliq" tushunchasi, uning o‘zini namoyon qilish shakllari va u haqidagi bilimlar tizimi, kommunikatsiya vositalari keskin o‘zgargan zamonaviy sharoitda o‘z mazmuniy chegaralarini kengaytirishga majbur bo‘ldi. Aynan shu o‘zgarishlar kommunikativ reallikni falsafiy nuqtayi nazardan qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

Aristoteldan Kantgacha bo‘lgan davrda - borliq substansial va obyektiv kategoriyada tushunilgan bo‘lsa, kommunikatsiya ikkilamchi, ya’ni tashqi dunyoni ifodalovchi vosita sifatida baholangan. Bu yerda tilda yoki muloqotda aks etuvchi reallik asl borliqning faqat aks-sadosi sifatida talqin qilinadi. Yondashuvlarning keyingi bosqichi noklassik ahamiyat kasb etar ekan, xususan, fenomenologiya (Gusserl), ekzistensializm (Heidegger, Sarter), va strukturalizm - kommunikativ hodisalarni bilish jarayonining birlamchi sharti sifatida talqin qilishga harakat qilgan. Heidegger tilni "borliqning uyi" sifatida talqin qilgan holda, inson mavjudligining ochilish nuqtasi aynan tilda, ya’ni muloqotda mujassam ekanligini ko‘rsatadi. Shu tariqa, kommunikatsiya ontologik jihatdan passiv emas, balki faol, borliqni quruvchi element sifatida ko‘zga tashlanadi.

Yondashuvlarning zamonaviy jihatlari esa ayniqsa, poststrukturalizm (Derrida, Fuko), mediashunoslik, texnofalsafa, ijtimoiy konstruktivizm va raqamli ontologiyalar - kommunikativ reallikni nafaqat bilimning, balki mavjudlikning ham asosi sifatida radikal tarzda qayta talqin qilmoqda. Raqamlashtirilgan jamiyatda

axborot oqimlari, sun'iy intellekt, virtuallik, metareallik va algoritmik muloqotlar kommunikatsiyani insoniy mavjudlikning asosiy vektori darajasiga olib chiqdi.

Ontologik jihatdan qaralganda, raqamli kommunikativ reallik - bu mustaqil mavjudlik xususiyatiga ega bo'lgan metastruktura bo'lib, u insoniy tajriba doirasidan tashqarida ham o'z amaldorligini saqlab qoladi. Gnoseologik nuqtai nazardan esa, bunday reallikda bilim statik emas, balki jarayoniy va tarmoqlashtirilgan shaklda vujudga keladi. Bu esa bilim va haqiqatni ierarxik emas, balki gorizontal, ko'p qavatli kommunikatsiyalar tizimi sifatida tushunishga olib keladi.

Kommunikativ reallik tushunchasini falsafiy talqin qilish, mohiyatan, mavjudlikning inson tafakkuri orqali ijtimoiy shakllanishini anglash jarayonidir. Ontologik nuqtayi nazardan, kommunikativ reallik inson mavjudligining o'ziga xos shaklidir, u faqatgina tashqi olamni aks ettirish emas, balki o'sha olamni ma'noga aylantirish, uni ijtimoiy tarmoqlar, belgilar tizimi va til orqali qayta qurish holatidir. Bu jarayon mavjudlikning faqat obyektiv qirrasini emas, balki subyektning faol ishtirokini, ya'ni mavjudlikni anglash va yaratish jarayonida inson tafakkurining ijodiy rolini ochib beradi. Shunday ekan, kommunikativ reallikning ontologik mohiyati, mavjudlikni "bo'lish" emas, "anglash orqali mavjud bo'lish" holatida namoyon qiladi. Chunki inson dunyoni faqat idrok etmaydi, balki uni o'zaro tushunish va ma'no yaratish faoliyati orqali mavjud qiladi.

Gnoseologik kontekstdan qaraganda, kommunikativ reallik bilim hosil qilishning dialogik maydoni sifatida namoyon bo'ladi. Bilim bu holda subyekt va obyekt o'rtasidagi bir yo'nalishli aloqa emas, balki o'zaro munosabat, tushunish va ma'no almashinuvi jarayonidir. Shuning uchun bilim, haqiqat va ma'no bir-biridan ajralmasdir; ular kommunikativ faoliyat orqali yuzaga chiqadi. Inson bilimi izolyatsiyada emas, balki ijtimoiy tajriba va madaniy kontekstda, til vositasida shakllanadi. Til esa faqat muloqot quroli emas, balki reallikni tashkil etuvchi mexanizm sifatida faoliyat yuritadi. Demak, gnoseologik jihatdan kommunikativ reallik — bu bilishning o'z-o'zini aks ettiruvchi, doimiy yangilanib boruvchi, o'zaro tushunishga yo'naltirilgan dinamik tizimdir. Bunda haqiqat o'zgarmas substansiya emas, balki muloqotda doimiy tarzda qayta ishlab chiqiladigan ijtimoiy konstruksiya sifatida talqin qilinadi.

Mantiqiy kontekstda esa kommunikativ reallik inson tafakkurining strukturasini tashkil etuvchi qonuniyatlar bilan chambarchas bog'liq. Inson tafakkuri muloqot jarayonida shakllanadi va har qanday fikrlash muloqotning ichki mantiqiga bo'ysunadi. Mantiq bu o'rinda formal qoidalar yig'indisi emas, balki muloqotning izchilligini, ma'nolarning muvofiqligini va tushunishning aniqligini ta'minlovchi strukturaviy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Kommunikativ reallikda fikr va ma'no o'zaro aloqador, ularning uyg'unligi inson tafakkurining mantiqiy tuzilishini vujudga keltiradi. Shu bois, mantiq kommunikativ jarayonning ichki asosidir, u inson va jamiyat o'rtasida ma'no barqarorligini ta'minlaydi hamda tafakkurning ijtimoiy uyg'unlashuvini kafolatlaydi.

Shunday qilib, kommunikativ reallikning falsafiy mohiyati ontologik jihatdan mavjudlikni subyektiv-anglanma shakl sifatida, gnoseologik jihatdan bilim va ma'noni ijtimoiy dialog orqali yaratuvchi mexanizm sifatida, mantiqan esa tafakkur va muloqotning strukturaviy uyg'unligi sifatida talqin etiladi. Bu uchlik birlikda insonning borliqni anglash, uni ifodalash va ijtimoiy hayotda qayta yaratish qobiliyatini belgilaydi. Kommunikativ reallik shu tariqa inson mavjudligining asosiy shakli bo'lib, u reallikni bilish, tushunish va muloqot orqali yashashning umumiy falsafiy negizini tashkil etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Raqamlashtirilgan jamiyat fenomenologiyasi inson, axborot va texnologiya o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yangicha epistemik va ontologik asosda ko'rib chiqishni zarur qiladi. Bu borada ontologik va gnoseologik kategoriyalar endilikda nafaqat bilish, balki mavjudlikning o'zi qanday qurilishi va qay tartibda shakllanishini tahlil qilishda asosiy falsafiy vositaga aylanmoqda. Klassik falsafiy an'anada ontologiya substansialistik va ob'ektiv yondashuvlar bilan bog'liq bo'lib, mavjudlik — tashqi voqelikda mavjud bo'lgan narsa sifatida qaralgan, gnoseologiya esa ushbu mavjudlik haqidagi bilimlarning ishonchliligini baholash mezonlarini ishlab chiqqan.[1,305] Heideggerning tilni "borliqning uyi" sifatida talqin qilishi yoki Gusserlning "intensional" ong konsepsiyasi noklassik falsafaning ontologiyani kommunikativ

faoliyat bilan uzviy bog‘lashga urinishidan dalolat beradi.[1,329] Bu yondashuv doirasida muloqot voqelikni ifodalovchi emas, balki uni yaratuvchi faol amaliyot sifatida ko‘riladi. Ayniqsa, Thomas Luckmann ta’kidlaganidek, ijtimoiy realliklar o‘zaro kommunikativ harakatlar orqali konstitutsiyalanadi va bu holat post-faktual voqelik tushunchasi bilan mushtaraklikda talqin qilinadi.[2,45] Zamonaviy falsafada, xususan raqamlashtirilgan kommunikatsiya asrida, ontologik pozitsiyalar konstruktivizm bilan uyg‘unlashadi. Solodovnik raqamli axborot muhitida ontologik va gnoseologik strukturani zamonaviy arxivlar, ma’lumotlar bazalari va tizimli kommunikatsiya asosida qayta ishlab chiqish zarurligini ta’kidlaydi.[3,371] Bu kontekstdan kelib chiqib, texnologik jarayonlar nafaqat vosita, balki mustaqil epistemik-agent sifatida talqin qilinadi.

Raqamli jamiyatda sun’iy intellekt va algoritmik filtrlash bilan bog‘liq kommunikatsiya shakllari insoniy tushuncha doirasidan chetga chiqmoqda. N.Karnaukhov Vinerning kibernetik nazariyasi asosida raqamli reallikni ong va mashina o‘rtasidagi axborot almashinuv sifatida tasvirlaydi, bu almashinuv esa kommunikativ reallikning texnotashkil etilgan ontologiyasini vujudga keltiradi.[4]

Raqamli simulyatsiyalar haqiqiy dunyoga mos bo‘la oladimi degan savol bugungi gnoseologik muammolardan biridir. A.Omar va K.Ondimu simulyatsiyalar empirik natijalarni yaratishda samarali bo‘lsa-da, ular ontologik jihatdan real voqelik bilan to‘la tenglasholmasligini ta’kidlaydilar.[5] Bu pozitsiya ijtimoiy konstruktivistik yondashuv - Gergenning realliklar muloqot orqali quriladi degan g‘oyasi bilan bevosita bog‘lanadi.[6] Demak, bugungi raqamlashtirilgan kommunikativ reallikda ontologiya va gnoseologiya tushunchalari o‘zaro bog‘liq ravishda, dinamik, ijtimoiy va texnologik konstruksiya sifatida talqin qilinmoqda. Bu holat falsafa uchun yangi epistemologik mezonlar, ontologik qamrov va gnoseologik yondashuvlarni talab qiladi.

Kommunikativ reallik borliqning deterministik ifodasi sifatida talqin qilinishi Platonda “til – bu g‘oyaviy borliqning aksidir, g‘oya esa mutlaq haqiqat sifatida mavjuddir… haqiqiy bilimni faqat sof g‘oyalarni anglash orqali bilish mumkin”ligi aytilgan.[7] Aristotel esa nutqni “mavjudotlar mohiyatining ramziy ifodasi” deb belgilaydi va tilni borliqning mantiqiy strukturasiga mos tarzda qurilgan semantik tizim sifatida tushunadi.[8] Klassik ontologik asosda reallik tilga tashqi mavjudlik sifatida taalluqlidir, ya’ni til obyektiv voqelikni ifodalaydi. Gnoseologik nuqtai nazardan, bilim – bu borliqqa mos keluvchi haqiqat bo‘lib, haqiqat esa klassik identiklik qonunlari bilan belgilanadi. Mantiqiy jihatdan bu yondashuv aristotelcha deduktiv tizim – “A=A”, “A yoki non-A” qonunlari doirasida harakatlanadi.

Noklassik yondashuvda kommunikativ reallik kontseptual burilishdan o‘tadi. Gnoseologik jihatdan bilim subyektlararo kelishuv doirasida vujudga keladi. Mantiqiy mezon esa transformatsiyaga uchrab, argumentatsion model – Toulmin modeli, pragma-dialektik yondashuvlar (Van Emeren, Grootendorst) kabi moslashuvchan mantiqiy strukturalar orqali amalga oshiriladi. Bu esa haqiqatni obyektivlik emas, muloqot orqali ishlab chiqiladigan epistemik birlik deb talqin etadi.

Zamonaviy yondashuvda kommunikativ reallik axborot maydonida, raqamli texnologiyalar doirasida, algoritmik diskurslar orqali shakllanadi. Bu bosqichda u endilikda nafaqat ontologik jihatdan mavjud, balki “modellashtirilgan” va “simulyatsiyalangan” reallik sifatida talqin etiladi. Ustoz D.Fayzixodjayeva esa zamonaviy kommunikativ reallikni “inson ongini axborot maydonlari orqali konstruksiyalovchi vosita” sifatida talqin qilib, “kommunikatsiya – bu axborotni yetkazish emas, balki ishonch-e’tiqodni shakllantirish texnologiyasidir”[9]- deya e’tirof etadi. Ontologik asosda raqamli kommunikatsiyalar sun’iy mavjudlik (simulyakrlik), algoritmik konstruktsiya (sun’iy intellekt), virtual fikrlash (metavers) kabi shakllarda mavjud. Gnoseologik jihatdan bilim – bu real haqiqatni anglash emas, balki axborot oqimini boshqarish, tartibga solish va manipulatsiya qilish vositasidir. E.Lisanyuk bu haqda shunday deydi: “Mantiq endilikda haqiqatni aks ettirish vositasi emas, balki uni strukturaviy ravishda modellashtirish tizimidir”[10].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Zamonaviy kommunikativ reallik mantiqan ko‘plikli (multi-valued), noma’lumli (fuzzy), ehtimolli (probabilistic) va ko‘p tarmoqli bayon modellariga asoslanadi. Bu esa zamonaviy mantiqni deterministik yondashuvdan chetlashtirib, uni axborot modeli sifatida qayta shakllantiradi. Raqamli jamiyatda kommunikativ reallik - bu

nafaqat tildagi muloqot, balki borliqni axborot orqali konstruktiv qurish vositasi, shuningdek, epistemik, estetik va axloqiy identitetlarni ishlab chiqaruvchi ijtimoiy ong mexanizmidir. Klassik yondashuvda u obyektiv borliqning semantik aksidir, noklassik yondashuvda – intersubyektiv kelishuv mahsuli, zamonaviy tafakkurda esa – sun'iy intellekt, algoritmik bilish va simulyakrlikdan iborat axborot konstruktsiyasidir. U ontologik jihatdan borliqning kodlangan shakli, gnoseologik jihatdan boshqariladigan axborot oqimi, mantiqan esa ko'p o'lchovli, muqobil haqiqatlarni hosil qiluvchi struktura sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Zamonaviy raqamli jamiyatda haqiqat, muloqot va bilim o'rtasidagi chegara tobora noaniq tus olmoqda. Kommunikatsiya endi shunchaki axborot uzatish jarayoni emas, balki mavjudlikni konstruksiyalash, tafakkurni shakllantirish va haqiqatni yaratish platformasiga aylanmoqda. Aynan shu sababli, "kommunikativ reallik" tushunchasini ontologik, gnoseologik va mantiqiy asoslarda tahlil qilish - zamonaviy falsafaning fundamental vazifasidir.

Aynan shu nuqtada, o'zbek faylasuflari tomonidan ilgari surilgan konsepsiyalar alohida e'tiborga loyiq. N.Safarova "Raqamli tafakkur insonni muloqot obyekti emas, balki muloqotning generativ subyekti sifatida aks ettiradi, bu esa mavjudlikni doimiy yaratilayotgan hodisa sifatida ko'rishga majbur qiladi"[11]- deb e'tirof etgan. Boshqacha aytganda, raqamli jamiyatda inson nafaqat biladi, balki reallikni "yozadi". O.Fayzullayev esa kommunikatsiyaning gnoseologik kontekstini quyidagicha belgilaydi: "Axborot kommunikatsiyasi subyekt ongini emas, balki haqiqatning o'zini shakllantiradi, bu esa bilishni muloqot orqali haqiqatga aylantiradi" [12]. Demak, raqamli kommunikatsiyada silogistik tizimlar emas, balki axborot oqimlari va algoritmik ketma-ketliklar haqiqatni shakllantiruvchi mantiqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, raqamli jamiyatdagi kommunikativ reallik ontologik jihatdan mavjudlikning algoritmik formatda qayta yaratilishi, gnoseologik jihatdan haqiqatning subyektlararo emas, balki platformaaro konsensus asosida shakllanishi, mantiqiy jihatdan esa, formal silogistikadan kod va tarmoq logikasiga o'tish holati sifatida talqin etiladi. Ushbu o'zgarishlar sharoitida "kompyuter muloqot qilmaydi, u axborotni uzatadi", inson esa muloqotda haqiqatni kashf etadi. Bugungi kunda bu ikki qutb o'rtasidagi tafovutni anglash – falsafaning dolzarb vazifasidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ладуман Дж. Онтологические, эпистемологические и методологические позиции // Философия науки. -2007.
2. Luckmann, T. The Communicative Construction of Reality and Sequential Analysis // Inter. – 2020. – №21(1). – B. 42–45.
3. Солодовник И. Онтология и эпистемология: от философии к современному применению цифровых архивов // Archivio storico per le province napoletane. - 2014. - No 26. - C. 357-371.
4. Карнаухов И. Кибернетическая система Винера как предвестник цифровой реальности // Общество: Философия, История, Культура. - 2024. - No7 (9). - C. 7-15.
5. Omar, A., Ondimu, K. Ontology of Digital Simulations: From Virtual Worlds to Predictive Models // International Journal of Philosophy. - 2025. №10. B.1-12.
6. Gergen, K. Realities and Their Relationships // In: The Saturated Self. -1990. B. 62.
7. Платон. Малое собрание сочинений. - Санкт-Петербург: Азбука, 2022.
8. Аристотель. Политика; Риторика. - Москва: Эксмо, 2024.
9. Fayzixodjaneva D.I. Argumentlash mantiqiy-kommunikativ nazariyasining falsafiy tahlili. - Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti. 2023. 11–13-bet.
10. Лисанюк Е.Н. Логико-когнитивная теория аргументации. Санкт-Петербург: Нестор-История, 2015. С. 89-90.
11. Safarova N.O. Philosophy of the Algorithm of Abu Raikhan Beruniy. // Theoretical & Applied Science, №12 (104), 2021. – B. 419–421.
12. Fayzullayev O. Falsafa va fanlar metodologiyasi. – Toshkent: Falsafa va huquq, 2006. B. 128.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK:233-424-22

AL-KINDIY MEROSI — YUNON FALSAFASI VA SHARQ PERIPATETIZMIGA INTEGRATSIYASI

Axatova Dildora Axtamovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi v.b.dotsenti, (PhD)

AL-KINDI'S HERITAGE — ITS INTEGRATION INTO GREEK PHILOSOPHY AND EASTERN PERIPATETICISM

Akhatova Dildora Akhtamovna,
Shakhrisabz State Pedagogical Institute
Acting Associate Professor of the Department of Social Sciences, (PhD)

e-mail: axatovadildora795@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-6849-0603

НАСЛЕДИЕ АЛЬ-КИНДИ — ЕГО ИНТЕГРАЦИЯ В ГРЕЧЕСКУЮ ФИЛОСОФИЮ И ВОСТОЧНЫЙ ПЕРИПАТЕТИЗМ

Ахатова Дилдора Ахтамовна,
Шахрисабзский государственный педагогический институт,
И.о. доцента кафедры социальных наук, кандидат философских наук

Annotatsiya: *Al-Kindiy musulmon Sharqida yunon falsafiy an'analari va Sharq peripatetizm maktabini uyg'unlashtirgan ilk yirik faylasuflardan biridir. Maqolada uning dunyoqarashi, "birinchi sabab", yaratish, aql, gnoseologiya va ontologiya talqinlari har ikki sivilizatsiya doirasida qiyosiy tadqiq etiladi. Tadqiqotda zamonaviy manbalar va klassik asarlar tahlili asosida olimning o'rni keng yoritiladi.*

Annotation: *Al-Kindi was one of the foremost early philosophers who synthesized Greek philosophical traditions with Eastern peripatetic thought in the Muslim world. This article compares his interpretations of "First Cause," creation, intellect, epistemology, and ontology from both civilizations' perspectives. The study elaborates on his contributions using both contemporary research and original classical sources.*

Аннотация: *Аль-Кинди стал одним из первых философов, гармонично объединивших греческую философию и восточный перипатетизм в мусульманском мире. В статье проводится сравнительный анализ его представлений о "первопричине", сотворении, разуме, гносеологии и онтологии в контексте обеих цивилизаций. Анализируется комплекс современных и классических источников.*

Kalit so'zlar: *Al-Kindiy, yunon falsafasi, Sharq peripatetizmi, birinchi sabab, metafizika, gnoseologiya, ontologiya, uyg'unlik, ilmiy an'ana, tafakkur.*

Key words: *Al-Kindi, Greek philosophy, Eastern Peripateticism, First Cause, metaphysics, epistemology, ontology, synthesis, scholarly tradition, thought.*

Ключевые слова: *Аль-Кинди, греческая философия, восточный перипатетизм, первопричина, метафизика, гносеология, онтология, синтез, научная традиция, мышление.*

Kirish. Arab-musulmon falsafasining shakllanish jarayonida Abu Yusuf Ya'qub ibn Ishoq al-Kindiy (taxminan 800–870-yillar) alohida o'rin tutadi. U o'z davrida arab tilida ilk bor o'zini

“faylasuf” sifatida tanitgan mutafakkir bo‘lib, Sharq uyg‘onish davrining boshlang‘ich bosqichida falsafiy tafakkurning mustaqil shakllanishiga zamin yaratgan. Al-Kindiy Bag‘dodda vujudga kelgan “Bayt al-Hikma” ilmiy markazida faoliyat yuritib, yunon falsafasi merosini arab tilida qayta ifodalash va uni islomiy dunyoqarash bilan uyg‘unlashtirish jarayonining yetakchi ishtirokchilaridan biri bo‘lgan. U Aristotel, Plotin, Prokl kabi yunon mutafakkirlarining asarlarini arab tiliga o‘girish va sharhlash ishlari bilan shug‘ullangan tarjimonlar jamoasi bilan hamkorlikda faoliyat olib borgan. Ushbu ilmiy harakat natijasida “Aristotel metafizikasi” va “Sabablar kitobi” kabi asarlar arab tilida keng tarqalib, islom falsafasining gnoseologik va ontologik konsepsiyalariga asos yaratdi. Al-Kindiy o‘z davrida yunon falsafasini so‘fiylik va kalom unsurlari bilan uyg‘unlashtirish orqali islom tafakkurining nazariy negizini boyitgan. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, u al-Kindiy merosini nafaqat tarixiy-falsafiy nuqtai nazardan, balki ilmiy tafakkurning shakllanish jarayonida metodologik ahamiyat kasb etuvchi bosqich sifatida tahlil etishni maqsad qiladi. Shu yo‘sinda, ushbu maqola al-Kindiyning ilm-falsafa uyg‘unligi haqidagi qarashlarini zamonaviy falsafiy metodologiya bilan bog‘liq holda yoritishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Al-Kindiy merosi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ko‘p qirrali va murakkab fenomen sifatida tahlil qilinadi. Yetakchi manbalarda uning yunon falsafasini, xususan Aristotel va neoplatonizm g‘oyalarini arab-islam tafakkuriga olib kirishdagi roli keng yoritiladi. Tadqiqotlar Al-Kindiy faoliyatini Yunon madaniyati ta’siridagi “tarjima harakati” jarayonlari bilan birga ko‘radi hamda “Bayt al-Hikma”dagi ilmiy-madaniy muhit o‘rganiladi[1]. Peter Adamson, D.R.Hill va A.I.Sabra singari zamonaviy tadqiqotchilar Al-Kindiy falsafiy risolalarining matnshunoslik va falsafiy tahlilini amalga oshirganlar, uning “Birinchi falsafa haqida”, “Aql haqida”, “Sabablar kitobi” kabi asarlarida gnoseologik va ontologik qarashlar asosiy tahlil obyekti bo‘lgan. Gutas (2012) va Rashed (1994) singari olimlar ham Al-Kindiy risolalarining aristotelizm va neoplatonizm bilan aloqadorlik tomonlarini chuqur tahlil qilgan[2]. So‘nggi tadqiqotlar Al-Kindiy g‘oya va metodlarining musulmon sharqida shakllangan peripatetizm an’analari bilan o‘zaro hamkorlik va tafovutlarini ko‘rsatadi. Sharq faylasuflari (al-Farobiy, Ibn Sino) va G‘arb ilmiy an’analaridagi uning faoliyati o‘zaro taqqoslanadi, ayniqsa gnoseologiya va metafizika bilan bog‘liq masalalarda[3].

Adabiyotlarda shuningdek, Al-Kindiy ilmiy faoliyatining matematika, musiqa va tabiiy fanlar sohasidagi o‘rni — matematik asosda musiqiy garmoniya tahlili, optikadagi ilmiy izlanishlari kabi yo‘nalishlar alohida ko‘rsatiladi. Al-Kindiy asarlarining soxta asarlardan ajratib olinishi, matnlarning tanqidiy nashri ham muhim ilmiy muammo sifatida qayd etiladi[4].

O‘zbek va rus tilidagi hozirgi, shuningdek, akademik nashrlarda Al-Kindiy Sharq falsafasi taraqqiyotidagi poydevor sifatida tahlil qilinadi, uning o‘zbek ilm-fani va uyg‘onish davri madhiyasidagi o‘rni ham alohida belgilangan. Tadqiqotlarning asosiy muammosi — ba’zi risolalarning asl matnlari yetarlicha to‘liq saqlanmaganligi va ularning avtorligini isbotlashdagi tarixiy-falsafiy murakkablikdir[5].

Tadqiqot metodlari. Ushbu tadqiqotda Al-Kindiy merosini kompleks tarzda o‘rganish uchun sifatli va kontekstual metoddlar qo‘llanildi. Birinchidan, asosiy metod sifatida matnshunoslik va tekstual tahlil ishlatildi: Al-Kindiy va uning zamondoshlari, shuningdek, Sharq va G‘arb manbalaridagi birlamchi risolalardan foydalangan holda uning falsafiy atamalari, gnoseologik va ontologik qarashlari rekonstruksiya qilindi. Bu yondashuv, Aristotel va Neoplatonchilar ta’sirini

[1] Anvarov S. D. Arab faylasufi Al-Kindiy haqida umumiy ma’lumot // Formation of Psychology and Pedagogy as Interdisciplinary Sciences. – 2025. – B. 23–25.

[2] Adamson P. Al-Kindi. – Oxford: Oxford University Press, 2007. – P. 290.

[3] Masykur Z. M. Comparative Epistemology of Al-Farabi and Al-Kindi in the Contextualization of Modern Knowledge // Journal of Indonesian Islamic Studies. – Vol. 4, No. 2 (April 2025). – pp. 90-109. – e-ISSN 2608-8395. https://ejournal.iainpalopo.ac.id/index.php/jiis/

[4] Ergashev O. B. Al-Kindiyning falsafa rivojiga qo‘shgan hissasi // International Scientific Journal of Biruni. – 2024. – Vol. 3, Issue 1 (July). – B. 308–311. – ISSN (E) 2181-2993. – www.birunijournal.uz

[5] Ганиев А.А. Философская мысль Востока: Аль-Кинди и его время. — Ташкент: Фан, 2019. — 212 с.

aniqlash uchun ixtisoslashgan terminologiyaning evolyutsiyasi, asarlar ssenariysi va asosiy g‘oyalarning uzviy bog‘liqligini izohlash imkonini berdi[6]. Ikkinchidan, kontekstual va komparativ (taqqoslov) tahlil asosida Al-Kindiy falsafiy mezonlari Sharq peripatetizmining boshqa vakillari (jumladan, al-Farobiy, Ibn Sino) g‘oyalari bilan solishtirildi. Bu yondashuv, dunyoqarashlar o‘zaro uyg‘unligi, uslubdagi farqlar, va motivlarning rivojlanishini aniqlash uchun ijtimoiy va madaniy faktorlarni ham inobatga oldi. Uchinchidan, dastlabki tarixiy va falsafiy manbalardan tashqari zamonaviy ilmiy adabiyot va metodologik tavsiyalar (J.Kresvel va C.Pot, J.Maksvel, Gutas hamda Zatari asarlari) asosida nazariy sintez amalga oshirildi. Bunda, ilmiy tafakkurning evolyutsiyasi va Al-Kindiy merosining hozirgi falsafiy-metodologik muhitdagi ahamiyati samarali ravishda o‘rganildi[7].

Tahlil va natijalar. Al-Kindiy merosining matnshunoslik tahlili natijasida, uning falsafiy risolalarida Aristotel va Neoplatonchilar g‘oyalarining izchil ilmiy uzviyligi aniqlangan. Asosiy e’tibor unda olamning muvaqqatligi, sabablar zanjiri va Xudoning mutlaq birligi kabi ontologik prinsiplarni islom falsafasi kontekstida izohlashga qaratilgan. “Birinchi falsafa haqida” asari va “Aql haqida” risolalarida gnoseologik, bilish jarayonlari va insonga xos aqlning metafizik talqinlari Markaziy nuqta sifatida shakllanadi. Komparativ tahlil Al-Kindiy g‘oyalarining Sharq peripatetizmi vakillari (Forobiy, Ibn Sino) bilan uzviy bog‘liq va bir vaqtning o‘zida muayyan farqlarga ega ekanini isbotladi. U Aristotel ta’sirini zamonaviy fan tarmoqlari (matematika, musiqa nazariyasi, optika va tibbiyot) bilan uyg‘unlashtirgan ilk islom faylasufi bo‘lib, zamonaviy gnoseologik terminologiyani ham rivojlantirdi. Manbalar sintezi Al-Kindiyning Sharq va G‘arb ilmiy maktablari, xususan, Yunon falsafasi va islom tafakkuri oralig‘idagi poydevoriy roli, o‘zbek ilm-fani va uyg‘onish davri g‘oyalariga bevosita ta’siri mavjudligini ko‘rsatdi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, uning ko‘plab risolalari yana matnshunoslik nuqtai nazardan to‘liq tahlil qilinishga muhtoj; soxta asarlar va avtorlik masalalari dolzarb ilmiy muammoligicha qolmoqda[8].

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot Al-Kindiy merosining falsafiy, ilmiy va metodologik jihatlarini kompleks tahlil qilib, uning G‘arb va Sharq falsafiy an’analari orasidagi poydevoriy o‘rnini yana bir bor tasdiqladi. Al-Kindiy yunon falsafasidagi asosiy gnoseologik va ontologik konseptlarni islomiy dunyoqarashga muvaffaqiyatli moslashtirgan, shu bilan nafaqat Sharq, balki o‘rta asr Yevropa ilm-fani rivojiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Al-Kindiy asarlarining muallifligi, matnlarni to‘g‘ri aniqlash va tanqidiy tahlil qilish masalalari hozirgi ilmiy faoliyatning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Takliflar sifatida, birinchi navbatda, Al-Kindiy risolalari tarkibidagi soxta yoki noaniq matnlarni aniqlash va ularni kritikal nashrlarga tayyorlash zarurati ta’kidlanadi. Bu ish falsafiy merosning ishonchliligini oshiradi va uning zamonaviy ilmiy parklarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, Al-Kindiy falsafasi va ilmiy qarashlari musulmon Sharqining keyingi peripatetizm maktablari bilan taqqoslanib, ularning o‘zaro ta’siri va farqlari chuqurroq o‘rganilishi ilmiy natijalarni boyitadi. Shuningdek, Al-Kindiy ilmiy merosining matematika, musiqa va tabiiy fanlardagi yutuqlari haqida yangi tadqiqotlar olib borish, uning falsafiy kontseptlarini zamonaviy fanlar bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini tadqiq etish tavsiya qilinadi. Bu nafaqat tarixiy-falsafiy bilimlarni kengaytiradi, balki bugungi kunda ham fan va falsafa integratsiyasida yangi yo‘nalishlar ochishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Al-Kindiy fani va falsafasiga oid tizimli, interdisciplinary va tanqidiy metodologiya asosida olib boriladigan izlanishlar uning merosini yanada chuqurroq anglashga, tarixiy kontekstda haqiqiy ahamiyatini qayta tiklashga yordam beradi.

---

[6] Adamson P. Al-Kindi. – Oxford: Oxford University Press, 2007. – P. 290.

[7] Adamson P. Falsafa: Sources and Structure // Al-Kindī. – New York: Oxford University Press, 2006. – Online edn: Oxford Academic, 1 Jan. 2007. – DOI: https://doi.org/10.1093/acprof:oso/9780195181425.003.0002)

[8] Ivry A. L. Al-Kindi’s Metaphysics: A Translation of Ya‘qūb ibn Ishāq al-Kindi’s Treatise “On First Philosophy” (Fi al-Falsafah al-Ūlā). – Albany: State University of New York Press, 1974.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Anvarov S. D. Arab faylasufi Al-Kindiy haqida umumiy ma'lumot // Formation of Psychology and Pedagogy as Interdisciplinary Sciences. – 2025. – B. 23–25.
2. Adamson P. Al-Kindi // Stanford Encyclopedia of Philosophy. – 2008.
3. Adamson P. Al-Kindi. – Oxford: Oxford University Press, 2007. – 160 p.
4. Adamson P. Falsafa: Sources and Structure // Al-Kindī. – New York: Oxford University Press, 2006. – Online edn: Oxford Academic, 2007.
5. Ivry A. L. (ed.). Al-Kindi's Metaphysics: A Translation of Ya'qūb ibn Ishāq al-Kindi's "On First Philosophy" (Fi al-Falsafah al-Ūlā). – Albany: State University of New York Press, 1974.
6. Masykur Z. M. Comparative Epistemology of Al-Farabi and Al-Kindi in the Contextualization of Modern Knowledge // Journal of Indonesian Islamic Studies. – 2025. – Vol. 4, No. 2. – P. 90–109. – e-ISSN 2608-8395.
7. Ergashev, O. B. Al-Kindiyning falsafa rivojiga qo'shgan hissasi // International Scientific Journal of Biruni. – 2024. – Vol. 3, Issue 1. – P. 308–311. – ISSN 2181-2993.
8. Ганиев А.А. Философская мысль Востока: Аль-Кинди и его время. — Ташкент: Фан, 2019. — 212 с.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 94(575)"1941/1945":001+008+821.512.133

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA FAN-MADANIYAT VA O‘ZBEK ADABIYOTINING RIVOJLANISHI

Isaxova Barno Abduvaxobovna, Shon-sharaf davlat muzeyi yetakchi ilmiy xodimi, “Ajdodlar izidan” harbiy-tarixiy jamiyati bosh mutaxassisi

DEVELOPMENT OF SCIENCE, CULTURE AND UZBEK LITERATURE IN UZBEKISTAN DURING THE SECOND WORLD WAR

Isakhova Barno Abduvakhobovna, Leading Researcher at the “Shon-sharaf” State Museum, Chief Specialist of the “Ajdodlar izidan” Military-Historical Society

РАЗВИТИЕ НАУКИ, КУЛЬТУРЫ И УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Исахова Барно Абдувахобовна, ведущий научный сотрудник Государственного музея “Шон-шараф”, ведущий специалист военно-исторического общества “Аждодлар изидан”

https://orcid.org/0000-0002-1114-2798
e-mail: ganiyevabarno86@yandex.com

Annotatsiya: *Maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida fan-madaniyat va o‘zbek adabiyoti rivojlanishi tarixi yoritilgan bo‘lib, tahlillar misolida dalillangan. Ushbu sohaning ochib berilishida shu yillarda yozilgan asarlar, xalq tilidan yozilgan xatlar va gazetalardan parchalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston yozuvchilari, O‘zbek adabiyoti, front gazetalari, front jangchilari, Ikkinchi jahon urushi.*

Abstract: *This article examines the history of the development of science, culture, and Uzbek literature during World War II, supported by analytical examples. This discussion includes works written during these years, letters written in the native language, and newspaper excerpts.*

Key words: *Uzbek writers, Uzbek literature, front-line newspapers, front-line soldiers, World War II.*

Аннотация: *В статье рассматривается история развития науки, культуры и узбекской литературы в годы Второй мировой войны, подкреплённая примерами анализа. Для раскрытия этой темы используются произведения, написанные в эти годы, письма на родном языке и отрывки из газет.*

Ключевые слова: *узбекские писатели, узбекская литература, фронтовые газеты, фронтовики, Вторая мировая война.*

Kirish. Ikkinchi jahon urushi yillari O‘zbekistonda fan va madaniyat ham o‘sishdan to‘xtab qolmadi. 1943-yilning 27-sentyabrida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil qilindi. Urush yillari O‘zbekistonga Moskva, Leningrad, Kiyev, Xarkov va boshqa shaqarlardan juda ko‘p ilm va madaniyat ahllari kelib qo‘shildilar. Leningrad politexnika instituti, Kiyev industrial,

Xarkov transport institutlari, Leningrad konservatoriyasi, Moskvadagi tarix va falsafa, jahon adabiyoti, sharqshunoslik, iqtisodiyot va huquq, tilshunoslik institutlari, Pushkin uyi va yana boshqa bir qancha ilmiy-tekshirish institutlari Toshkentga ko‘chirildi. Moskva, Leningrad, Kiyev, Minsk va Xarkov shaharlarining ko‘pgina san’at xodimlari va olimlari o‘zlarining ijodiy faoliyatlarini o‘zbek yurtida davom ettirdilar. Urush yillari o‘zbek adabiyoti uchun qattiq sinov yillari, g‘oyaviy, siyosiy va badiiy jihatdan keskin ko‘tarilish, toblanish davri bo‘ldi. O‘zbek yozuvchilari urushning birinchi kunidanoq bu qirg‘in keltiruvchi urushni qattiq qoraladilar va qo‘llariga qalam, qurol olib dushmanga qarshi kurashga otlandilar. O‘zbekiston yozuvchilari urushning birinchi kunlaridanoq insoniyatga va jahon madaniyatiga qirg‘in keltirayotgan fashizmga qarshi kurashga otlanib, shunday fikrlar qalblarida jo‘sh urdi: “Biz, O‘zbekiston yozuvchilari, shu og‘ir urush kunlari butun sovet xalqi bilan birgalikda g‘alaba uchun kurashamiz, nayza va qalam bizning qurolimiz bo‘ladi”[1]. Keyinroq, 1943-yilning 31-yanvarida Toshkentda O‘zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston respublikalari xalqlari vakillarining fashizmga qarshi katta mitingi bo‘lib o‘tdi va bu mitingda Mirzo Tursunzoda, Ali To‘qimboyev, Halima Nosirova, Hamid Olimjon, Sobit Muqonov kabi san’atkorlar so‘zga chiqib, xalqni fashizmni tor-mor qilib ona vatanni saqlab qolishga chaqirdilar. Ikkinchi jahon urushi davrida o‘zbek adabiyotining faolligi, jangovarligi, siyosiy o‘tkirligi, Vatan va xalq oldidagi o‘z burchini sezish hissi, xalqchillik fazilati oshibgina qolmay, ayni chog‘da yangi talantli kadrlar evaziga boyidi, adabiyotimiz keksa avlodlarining ijodi yanada yuqori bosqichga ko‘tarildi, poeziya, publitsistika, hikoya, ocherk kabi janrlarning keng taraqqiy qilishiga olib keldi.

Bu davrda G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Oybek, Uyg‘un, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Zulfiya kabi qalam ahllarining nomi butunittifoq o‘quvchilari orasida keng tarqaldi. Oydin, S.Abdulla, T.Fattoh, H.G‘ulom, Mirmuhsin, S.Nazar, Z.Diyor kabi yozuvchilar bu davrda barakali ijod qildilar.

Adabiyotlar tahlili. Sharof Rashidov, Sulton Jo‘ra, Nazir Safarov, Mamarasul Boboyev, Parda Tursun, Zinnat Fatxullin, Ibrohim Rahim, Mumtoz Muhammedov, Adham Rahmat, Nazarmat, Adham Hamdam, Ashirmat, G‘afur G‘ulom, Bahrom Rahmonov, Mirzakalon Ismoiliy, Hasan Said, Ilyos Muslim, To‘g‘on Ernazarov, Ahmad Bobojon, Shuhrat, Ne’mat Toshpo‘lat, Sulton Akbariy, Yong‘in Mirzo, Jalil Qodiriy kabi o‘ttizga yaqin yozuvchi va shoirlar Qizil Armiya safida qurol va qalam bilan xizmat qildilar. Bu yozuvchilarning ko‘pchiligi frontda tashkil qilingan “Qizil Armiya” (M.Ismoiliy, I.Muslim), “Front haqiqati” (Nazarmat), “Qizil askar haqiqati” (Ibrohim Rahim), “Suvorovchi” (A.Rahmat), “Vatan sharafi uchun” (N.Safarov, Z.Fatxullin), “Vatan uchun” (Adham Hamdam), “Suvorov hujumi” (T.Ernazarov), “Bong”, “Sovet jangchisi” kabi o‘zbek tilida chiqadigan gazetalarda redaktor, redaktor o‘rinbosari va harbiy muxbir bo‘lib ishladilar. Bu yozuvchilar urush dahshatlarini, sovet jangchilarining qahramonligini bevosita o‘z ko‘zlari bilan ko‘rdilar, ular bilan yonma-yon jang qila turib, o‘z asarlariga voqea, fakt va qahramonlar to‘pladilar. Jang maydonlariga mashhur o‘zbek yozuvchilari ham borib, jangchilarni ma’naviy ruhlantirib turdilar, ular urush ko‘lamini va sovet jangchilarining ulug‘ jasoratini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib, beqiyos fakt va materiallar yig‘ib keldilar.

Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom va Oybek O‘zbekiston hukumati delegatlari tarkibida frontga bordilar. Jangchilarning bir xatida “Bizga paxta ustasi ordenli Sharif bobo, ordenli shoir G‘afur G‘ulom va boshqa o‘rtoqlar kelishdi. Diviziyaning butun shaxsiy tarkibi ularni yaxshi biladi va ular bilan uchrashgan vaqtimizda, nemis-fashistlarga yanada kuchliroq zarba beramiz va dushmanning texnikasini ko‘proq yakson etib, askarlarini qirib tashlaymiz, deb qasamyod qildik”[2], deb yozishadi.

G‘afur G‘ulom o‘sha G‘arbiy frontdan Toshkentga, o‘g‘liga yozgan maktubida (1942-yil 16-mart) “Men hozir fashistlar bilan kurashayotgan qahramon qizil askarlarimiz ichidaman. Sening ham ulg‘ayib qahramon bo‘lishingni orzu qilaman. Senga qizil jangchilarimizning qo‘shiqlarini yubordim...”, deydi. Oybek esa jangchilar orasida olti oydan ko‘proq bo‘ladi, jangchilarni o‘z qalbi bilan tinglaydi. Oybek front qahramonlari bilan birga yurib, birga yashab ularning sabr-matonati haqida o‘nlab she’r yozadi. Adibning so‘nggi vaqtda e’lon qilgan front esdaliklaridan ma’lum

bo‘ladiki, u okopning ichida, o‘q sadolarining ostida, jangchilar bilan bir nafaslik uchrashuv paytlaridayoq she’r yozib, ularga o‘qib bergan, ular nomidan front ortida maktublar yozgan. Oybekning delegatsiya tarkibida bo‘lishi “urushning o‘zi istaganicha har bir kavagiga kirish imkoni”ni bermas edi va shu tufayli “urush girdobiga yolg‘iz” jo‘naydi. Jumladan, Oybek “urush haqida o‘ylagan romani uchun yaxshi materiallar” yig‘ib qaytadi[3].

Toshkent — xronika hujjatli filmlar studiyasining operatorlari Qayumov, Frolov, Rahimov, Kovnit, Leybov va Zohidovlar frontga borib, sovet jangchilarining bahodirligini ko‘rsatuvchi ajoyib dokumental filmlar yaratdilar.

Badiiy adabiyot front jangchilari uchun ham, front orqasidagi xalq uchun ham o‘tkir kurash quroli, madadkori va suyanchig‘i bo‘lib xizmat qildi. Adabiyot nemis fashistlarining barcha razil qilmishlarini xalq ko‘zi oldida ro‘y-rost fosh qilib berishi bilan birga, jangchilarni va butun sovet xalqini yovni batamom tor-mor qilish uchun qahramonona kurashga chaqirdi, ularni chidamli, sabr va matonatli bo‘lishga da’vat etib, haqiqat sovet xalqi tomonida ekanligi va g‘alabaning yaqinligini uqtirib, ular qalbiga doim dalda berib bordi.

“O‘zbek yozuvchilarining ko‘p asarlari jangchilar orasida chuqur muhabbat uyg‘otib,— deb yozgandi politruk Ibrohim Rahim Hamid Olimjonga,— ularni Gitlerga qarshi kurashga otlantirmoqda... Ular “Toshkentdagi yozuvchi o‘rtoqlaringga xat yozgin, bizga o‘zlarining yangi asarlarini yuborsin”, - deb meni o‘z holimga qo‘yishmayaptilar. Ular quyidagi ro‘yxatni berdilar. H.Olimjon, Oybek, A.Qahhor, A.Umariyning agar imkoni bo‘lsa, bizga shu va boshqa avtorlarning urush haqida yozilgan asarlarini yuboring”[4]. “Oktyabrda yuborgan she’rlaringizni oldik (“Xat”, “Yigitlarni frontga jo‘natish”), ularni jangchilar orasida o‘qidik. Kichkinagina suhbat mitingga aylanib ketdi,— deydi xatida I.Rahim.— Jangchilar “Yigitlarni frontga jo‘natish”ni eshitganlarida “mana bizga yordam kelayapti” deb chapak chalishdi. Ona Vatan o‘gitini o‘qib, biz oxirgi qonimiz qolguncha uni himoya qilishga qasamyod qildik”[5].

Hamid Olimjonning “Qo‘lingga qurol ol!” nomli oskolka bilan teshilgan, urush hududida sarg‘aygan, titilgan va ayrim joylari kuygan kitobini bir jangchi jang maydonidan topib oladi va uni urushning oxirigacha yonidan qo‘ymaydi[6].

Muhokama. Ikkinchi jahon urushi yillari partiya va hukumatimiz badiiy adabiyotning xalq orasiga keng yoyilishiga juda katta ahamiyat berdi. Poetik asarlarning deyarli hammasi respublika va front gazetalarida bosildi. H.Olimjonning “Jangchi Tursun” (1942-y), “Roksananing ko‘z yoshlari” (1944-y), poema va balladalari ham “Qizil O‘zbekiston” gazetasida bosildi. G‘afur G‘ulomning “Men yahudiy”, “Sen yetim emassan” kabi yoki Hamid Olimjonning “Qo‘lingga qurol ol”, “Rossiya”, Zulfiyaning “Palak” kabi she’rlari “Pravda”, “Komsomolskaya pravda” gazetalarida bosildi.

Abdulla Qahhorning “Dardakdan chiqqan qahramon” (1942-y), “Oltin yulduz” (1945-y), “Xotinlar”, “Asrorbobo” nomli katta hikoyalari, I.Sultonovning “Burgutning parvozi”, N.Pogodin, H.Olimjon, Uyg‘un, Sobir Abdullalar tomonidan yozilgan “O‘zbekiston qilichi” (1942-y) dramasidan, Oybekning “Quyosh qoraymas” romanidan, Sobir Abdullaning “Alpomish va Oybarchin”, A.S.Griboyedovning “Aqllilik balosi” dramalaridan (G‘afur G‘ulom tarjimasida) parchalar “Qizil O‘zbekiston” gazetasida bosildi. Yuqoridagi o‘zbek yozuvchilarining ko‘p asarlari o‘zbek tilida chiqadigan front gazetalarida ham yoritilib turdi. Front gazetalari o‘zbek klassiklarining asarlarini ham berib bordilar. Ular orasida Muqimiyning “Yodimga tushdi”[7] kabi anchagina she’rlari bor.

Urush yillaridagi o‘zbek adabiyotining xarakterli tomonlaridan biri shundaki, bu davrda jamoa bo‘lib, hamkorlikda ijod qilish nihoyatda kuchaydi. Shoirlar jamoasi tomonidan bir qancha she’riy “Xat”lar yozildi. N.Pogodin, H.Olimjon, Uyg‘un va Sobir Abdullalar tomonidan yozilgan “O‘zbekiston qilichi” asariga To‘xtasin Jalilov, Tolibjon Sodiqov, Mutal Burxonov, Nabi Hasanov kabi kompozitorlar musiqa bastaladilar. Tuyg‘un va Amin Umariy “Qasos”, Uyg‘un va I.Sulton “Alisher Navoiy”, Sobir Abdulla va Chustiy “Qurbon Umarov”, K.Yashin va S.Abdulla “Davron ota” kabi dramalarini hamkorlikda ijod qildilar. Urush yillarida adabiy to‘plamlar chiqarishga nihoyatda katta e’tibor berildi. 1941-yil iyul oyining birinchi o‘n kunligida “O‘lim yovga”, “Vatan uchun” to‘plamlari nashr etildi. “Vatan uchun” (1941) “Mard o‘g‘il” (1942) nomli

to‘plamlar bir yilda ikki marta qayta nashr qilindi. To‘plamlarning mazmuni, yo‘nalishi va janr xarakteri ham har xil. Front shoirlarining she’rlari “Jangchilarning she’rlari” (1943), dramatik asarlar “Jangovar sahna” (1943), Leningrad mudofaasiga qaqramonona bag‘ishlangan o‘zbek va rus tillarida “Shonli Leningrad” (1942) to‘plamlari chiqdi. Shuningdek, estrada teatrlari, kolxoz sahnalari va havaskorlari uchun dramatik va poetik asarlardan iborat bo‘lgan “G‘azab qo‘shiqlari” (1943) “Qasam” (1944), “O‘zbekiston bahodirlari” (1944) nomli hikoyalar to‘plami va “O‘zbeklar” (1943) nomli publitsistik asarlar nashr etildi.

Urush yillari qonli jang maydonlarida son-sanoqsiz ajoyib qahramonlarning yetishib chiqishi munosabati bilan o‘zbek adabiyogida ocherk janri keng rivojlandi, voqeiy hikoya va dokumental povestlar maydonga keldi: “Mardlik” (1942), “Sakkiz botir” (1943), “Qahramonlar haqida hikoyalar” (1944) to‘plamlari ana shunday asarlardir. Hatto ayrim bahodirlarning o‘ziga maxsus bag‘ishlangan to‘plamlar ham vujudga keldi. Bundan tashqari bu davrda “Ont” (1944), “Vatan jonbozlariga»” (1944) kabi to‘plamlar, “Zafar” (1945) kabi to‘plamlar nashr qilindi. Jangchilar o‘zbek xalqiga yozgan bir “Xat”ida mana bunday deydilar: “Rustam, Ravshanbek, Avazxon, Alpomish kabi afsonaviy bahodirlarning qahramonliklari fashistlarga qarshi olib borilayotgan janglarda bizlarni ilhomlantirdilar”[8]. Urush davrida adabiyotimizda folklorning mana shunday afsonaviy obrazlaridan, qahramonona dostonlaridan ilhomlanib yozilgan asarlar paydo bo‘ldi. Qahramonlik ruhi bilan to‘lib-toshgan xalq dostonlari va qo‘shiqlari keng tashviq etildi: SSSR Fanlar akademiyasi O‘zbekiston filialining (1943-yilgacha) Til, adabiyot va tarix instituti Go‘ro‘g‘li dostonlari siklidan “Dushmanning tor-mor etilishi” (1941), “Mardlikni ko‘ring bizdan” (1941), “Mardlar maydoni” (1941), “Go‘ro‘g‘li”, “Botirlar”, (1942) to‘plamlarini va xuddi shu urush yillari xalq ijodining namunalarini o‘z ichiga olgan “Vatanga muhabbat qo‘shiqlari” (1941), “Ashulalar” (1942) to‘plamlarini katta tirajlarda chiqardi. Urush yillari eng muhimi, bu yozuvchilar va ularning asarlari o‘zbek adabiyotining g‘oyaviy, siyosiy va badiiy jiqatdan yanada yuqoriga ko‘tarilishiga olib keldi. Shuningdek, O‘zbekistonga ko‘pgina Rus yozuvchilarining evakuatsiya qilinishi, qardosh xalqlar yozuvchilari va chet ellik yozuvchilarning O‘zbekistonda bo‘lishi faqat o‘zbek xalqi, o‘zbek madaniyati, fani va adabiyoti uchungina foyda keltirib qolmasdan, o‘zbek xalqining hayoti, qahramonona mehnati, uning madaniyati, adabiyoti ularning qalbida ham o‘chmas iz qoldirdi. Bu davrda o‘zbek asarlarining rus tiliga tarjima qilinishi o‘zbek xalqining boy adabiy va madaniy merosini rus hamda qardosh xalqlar orasiga yanada keng yoyilishiga sabab bo‘ldi. Urush davrida O‘zbekistonga kelgan ijodkorlarning qudratli ovoziga mahalliy rus yozuvchilari ham o‘z hissalarini qo‘shdilar. V.Lipkoning “Yig‘la, Germaniya”, A.Ivanovning “Hordiq”, S.Somovaning “Arafa”, “Zebo G‘aniyeva”, M.Bikadorovning “O‘g‘ilga” kabi she’rlari yoki M.Sheverdinning prozaik asarlarida (“Sanjar botir” kabi) urush davrining keskin ruhi, xalqning jasorati va murakkab kechinmasi ifodalandi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida mana bu faktlarning hammasi urush yillarida O‘zbekistonda ko‘p millat yozuvchilarining do‘stona va hamkorlikda ijod qilib, bir g‘oya va bir maqsad uchun bir yoqadan bosh chiqarib kurash olib borganini ko‘rsatadi. Birgalikda bir jamoa bo‘lib shunday asar va to‘plamlarning yaratilishi xalqining jasorati va matonatini yanada chuqurroq tushunishda va ko‘rishda, fashizmning vahshiyligini va o‘limga mahkum etilganligini yanada to‘laroq anglashga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Pravda Vostoka, 26-iyun, 1941-y.
2. Vatanning chaqirig‘iga javob. Toshkent. O‘zbeknashr, 1943, 57-bet.
3. Oybek. Front bo‘ylab. Toshkent badiiy adabiyot nashriyoti, 1965, 23-bet.
4. Письма с фронта. Ташкент. Изд-во АН УзССР, 1949, стр. 33.
5. Письма с фронта. 35-бет.
6. S.Azimov, Hamid Olimjon. Toshkent, UzFAN, 1955, 145-bet.
7. Dushmanga qarshi olg‘a front gazetasi, 1944-yil, 1-iyun.
8. Frontdan xatlar. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti. 1965. 102-bet.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 94(575.1):711"1930/1941

IKKINCHI JAHON URUSHI ARAFASIDA TOSHKENT

Yuldasheva Shaxnoza Ergash qizi, Shon-sharaf davlat muzeyi katta ilmiy xodimi, "Ajdodlar izidan" harbiy-tarixiy jamiyati bosh mutaxassisi

TASHKENT ON THE EVE OF THE SECOND WORLD WAR

Yuldasheva Shakhnoza Ergash qizi, Senior Researcher at the "Shon-sharaf" State Museum, Chief Specialist of the "Ajdodlar izidan" Military-Historical Society

ТАШКЕНТ НА КАНУНЕ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Юлдашева Шахноза Эргаш кызы, старший научный сотрудник Государственного музея «Шон-шараф», ведущий специалист военно-исторического общества "Аждодлар изидан"

https://orcid.org/0000-0002-2450-0099
e-mail: shahnozayuldasheva90@yandex.com

Annotatsiya: *Maqolada Toshkent tarixi, ma'muriy-hududiy tuzilishi, Ikkinchi jahon urushi arafasida Toshkent shahrining tutgan o'rni, aholisi tahliliy dalillar bilan o'rganilgan. Toshkent shahridagi umumiy harbiy safarbarlik, rayonlashtirish maqsadida amalga oshirilgan ishlar, strategik muhim shaharga aylanganligi faoliyati atroflicha yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Toshkent, Ikkinchi jahon urushi, Strategiya, mitinglar, Ijroiya komitetlari, Toshkent shahrini rayonlashtirish, Toshkent aholisi.*

Abstract: *The article, based on analytical materials, examines the history of Tashkent, its administrative-territorial structure, the position of Tashkent on the eve of World War II, and the composition of its population. The general military mobilization in Tashkent, the work on zoning, and its transformation into a strategically important city are covered in detail.*

Key words: *Tashkent, World War II, strategy, rallies, revolutionary committees, division of Tashkent into districts, population of Tashkent.*

Аннотация: *В статье рассматриваются история Ташкента, его административно-территориальное устройство, место Ташкента накануне Второй мировой войны и население с использованием аналитических материалов. Подробно освещаются всеобщая военная мобилизация в Ташкенте, работа по зонированию и превращение его в стратегически важный город.*

Ключевые слова: *Ташкент, Вторая мировая война, стратегия, митинги, исполкомы, зонирование Ташкента, население Ташкента.*

Kirish. Tarixdan ma'lumki, shahar "Toshkent" nomi bilan dastavval XI asrning mashhur allomalari Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Qoshg'ariyning asarlarida tilga olinadi. Beruniy "Hindiston" asarida Toshkent nomining kelib chiqishi to'g'risida so'z yuritib, "Tosh" so'zi asli turkcha bo'lib, "Shosh" ko'rinishini olganini aytadi. "Toshkand – toshli qishloq demakdir", deb izohlaydi. Mahmud Qoshg'ariyning ma'lumoti bo'yicha, Toshkent XI–XII asrlarda "Tarkan" deb ham yuritilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asarida Toshkent nomi ustida

to‘xtalib, “... asarlarda Toshkent nomini Shosh, ba’zan Choch yozadilar”, deb qayd etadi. Biroq XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida Toshkent toponimi shuhrat topib, uning qadimiy Choch, Shosh va Binkat nomlari asta-sekin muomaladan tushib qoldi. XVII asrda yashagan tarixchi olim Mahmud ibn Vali shunday yozadi: “Shosh – Sayxun (Sirdaryo)ning u tomoniga joylashgan shahar va Turkiston (viloyat)ga qaraydi... Uni Choch ataydilar. Biroq hozirgi vaqtda u Toshkent nomi bilan mashhurdir”[1].

Adabiyotlar tahlili. XVIII asr o‘rtalarida shahar qo‘ldan-qo‘lga o‘tib turgan bo‘lsa-da, Toshkent 4 daha (qism)ga – Shayxontohur, Sebzor (Qaffoli Shoshiy), Ko‘kcha (Shayx Zayniddin), Beshyog‘och (Zangiota) dahalariga bo‘linib, ularning har birini mustaqil hokim boshqargan. Toshkent tarixida bu davr Chorhokimlik deb atalgan.

1865-yil sentyabrda Orenburg general-gubernatori Krijanovskiy Toshkentga kelib, shaharning Rossiya imperiyasi tasarrufiga o‘tganligini e’lon qilgan. 1866-yil avgustda Rossiya imperiyasining Toshkentni Rossiya tobeligiga olinganligi haqidagi rasmiy farmoni e’lon qilinib, Toshkent 1867-yilda tashkil etilgan Turkiston general-gubernatorligining siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi bo‘lib qolgan.

Rossiyada Oktyabr to‘ntarishi haqidagi xabar Toshkentga yetib kelgach, bolsheviklar va so‘l eserlar hokimiyatni zo‘ravonlik yo‘li bilan egallash uchun kurashganlar. 1917-yil 28-oktyabrda Bosh temir yo‘l ustaxonasining mahalliy millatga mansub bo‘lmagan ishchilari hamda askarlar qo‘zg‘olon boshladilar. Ular temir yo‘l deposi, tovar omborlari, 1-Sibir polki kazarmalarini ishg‘ol qildilar. Shahar markazi qo‘zg‘olonchilar qo‘liga o‘tgan. 1(14) noyabrda Tuproqqo‘rg‘on ham ishg‘ol qilingach, Toshkentda sho‘rolar hokimiyati o‘rnatilgan. 1918-yil 30-apreldan Toshkent Turkiston ASSRning poytaxti deb e’lon qilingan. 1924-yili poytaxt Samarqandga ko‘chirildi. 1930-yildan Toshkent yana O‘zbekiston SSR poytaxti bo‘lgan.

1925-yil boshlarida ma’muriy-hududiy chegaralanish natijasida O‘zbekiston SSR tashkil etilib, ma’muriy jihatdan 7ta viloyatdan iborat bo‘lgan. Xususan, Samarqand viloyatining markazi Samarqand shahri, Toshkent viloyatining markazi Toshkent[2], Farg‘ona viloyatining markazi Qo‘qon, Zarafshon viloyatining markazi Buxoro, Qashqadaryo viloyatining markazi Behbudiy (Qarshi), Surxondaryo viloyatining markazi Sherobod, Xorazm viloyatining markazi Xiva shahri bo‘lgan. Shu davrda O‘zbekiston SSR hududida jami 23 ta uyezd, 227 ta volost va tumanlar tashkil etilgan.

1926–1927-yillari respublikada rayonlashtirish siyosati o‘tkazilishi natijasida yangi ma’muriy-hududiy tuzilish amalga oshirilib, viloyatlar o‘rniga Toshkent, Samarqand, O‘rta Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Andijon, Buxoro, Qo‘qon va Xo‘jand kabi 10ta okrug tashkil etilgan. Rayonlashtirishda mayda millatlarni bitta okrugga jamlash, irrigatsiya tizimi, qishloq xo‘jaligi yo‘nalishi, savdo munosabatlari aosiy mezon sifatida olingan [3]. Shahar aholisining soni bo‘yicha Toshkent okrugi birinchi o‘rinda turgan, aholisining 50,6 foizi shahar aholisini tashkil qilgan. Bu holat O‘rta Osiyodagi eng yirik shahar – Toshkent shahri ushbu okrugda joylashganligi bilan bog‘liqdir.

O‘zbekiston SSR Markaziy saylov komiteti (SIK) Prezidiumining 1929-yil 29-noyabrdagi “Toshkent shahrini rayonlashtirish to‘g‘risida”gi 36/25-sonli qaroriga asosan Toshkentning “yangi” va “eski” shahar sovetlari ishchi, dehqon va qizil armiyachi deputatlarning yagona shahar sovetiga birlashtirildi. Shu bilan birgalikda rayonlarda yangi ma’muriy bo‘linish kiritildi. Shu davrdan boshlab, Toshkentning butun hududi 4ta rayonga, ya’ni Lenin, Oktyabr, Proletar (1935-yili Kuybishev [4] deb o‘zgartirilgan) va Stalin rayonlariga bo‘lingan va ijroiya komitetlarining bo‘limlari tashkil etilgan[5].

1930-yillarda Toshkent O‘zbekistonning poytaxti bo‘lganidan so‘ng va bu yerda uy-joy hamda sanoat korxonalari qurilishi rivojlangandan keyin rayonlarni boshqarish murakkablashdi. 1936-yil sentyabrida Kirov va Frunze rayonlari tashkil etildi. 1939-yilda Toshkentni rekonstruksiya qilish loyihasi tasdiqlandi, unda shaharning “eski” va “yangi” qismini birlashtirish ko‘zda tutilgan edi. Toshkent shahrida 1926-yilda 314 ming nafar kishi yashagan. 1926-yil aholini ro‘yxatga olish natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston SSRda 500 ming nafardan oshiq aholisi bo‘lgan shahar mavjud bo‘lmagan, 1939-yil aholini ro‘yxatga olish hujjatlarida qayd etilishicha,

Toshkent shahrining aholisi 550 ming nafarga yetgan[6].

1943-yilgacha Toshkentda 6ta, jumladan, Kirov, Kuybishev, Lenin, Oktyabr, Stalin, Frunze rayonlari bo‘lgan. Urush yillarida shahar iqtisodiyoti va madaniyatini rivojlantirishning yangi vazifalari tumanlarni tarqoqlashtirishni taqozo etgan. Natijada 1943-yil aprelda ikkita yangi Moskva va Markaziy[7] rayoni tashkil topgan. Tumanlarni birlashtirish natijasida mehnatkashlarning madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va madaniy-maishiy sohani boshqarish yaxshilangan.

Toshkent shahri o‘z boshidan o‘tkazgan boshqa tarixiy davrlar kabi 1941-1945-yillardagi urush davrida ham Sovet ittifoqi miqyosida salmoqli o‘rin tutgan. Ikkinchi jahon urushi yillari Toshkent front bilan uzviy bog‘langan. Urush boshlanganligi to‘g‘risidagi xabar e’lon qilinishi bilan O‘zbekistonning barcha shahar va qishloqlari kabi, Toshkentda ham vatanparvarlik mitinglari bo‘lib o‘tgan. Urushning birinchi kunidayoq Toshkent to‘qimachilik kombinatida o‘tkazilgan ommaviy mitingda uning qatnashchilari o‘zlarini Vatanni himoya qilishga safarbar etilgan deb hisoblashga qaror qilganliklarini bildirishgan. Toshkent qishloq xo‘jaligi mashinasozligi zavodi ishchilarining 23-iyundagi mitingda qabul qilgan qarorlarida fashizm ustidan tezroq g‘alaba qozonmoq uchun har qanday topshiriqni sharaf bilan bajarishga tayyor ekanliklarini bildirganlar.

1941-yil 23-iyunda Toshkent shahrida ko‘p ming kishilik miting bo‘lib o‘tdi. Uning qatnashchilari – partiya va sovet organlarining vakillari, turli korxona va tashkilotlarning ishchi-xizmatchilari, o‘qituvchilar va talabalar vatanni himoya qilishga tayyor ekanliklari haqida gapirdilar, frontda ham, mamlakat ichkarisida ham manfur yov ustidan qozoniladigan g‘alabani tayyorlashga shay turganliklarini bildirdi.

Muhokama. Toshkent shahridagi “Oktyabr revolyutsiyasi” nomidagi zavod ishchilari esa 23-iyunda ish boshlanmasdan ikki soat oldin to‘planishgan. Ular birinchi xabar va buyruqni kutmasdanoq, o‘z dastgohlari oldiga kelishib, o‘sha kuni 12 soat to‘xtovsiz ishlaganlar. Zavodning ko‘p ming kishilik jamoasi mitingda qabul qilingan qarorda Vatanni mudofaa qilishdan iborat muqaddas ishga butun kuch va g‘ay ratlarini sarflashlarini, agar lozim bo‘lsa o‘z jonlarini ham ayamasliklarini bildirishgan. 23-iyunda Toshkentda umumshahar mitingi bo‘lib o‘tgan. Miting qatnashchilari fabrika va zavod, korxona va muassasa ishchi, xizmatchilari, o‘qituvchilar urushga tayyor ekanliklarini bildirganlar.

1941-yil 22-iyulda mamlakatda harbiy holat joriy etish haqidagi farmon e’lon qilindi. Mazkur farmonga binoan 14 okrug hududi bo‘yicha 1905-1919-yillarda tug‘ilgan harbiy xizmatga majbur kishilarning umumiy safarbarligi to‘g‘risidagi qonun kuchiga kiritildi. Shu tariqa dushmanga zarba berishning keng dasturi amalga oshirila boshladi.

Mitinglar, shuningdek, zavod, fabrika va qurilishlarda ham bo‘lib o‘tgan. Toshkent ishchilar sinfining vakillari dastgohni pulemyotga, bolg‘ani miltiqqa almashtirishga tayyor ekanliklarini aytgandilar. Ular oshirilgan majburiyatlar olganlar va urushning birinchi kunlaridanoq reja topshiriqlarini oshirib bajarish, ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun kurashga kirishganlar, harbiy davrning favqulodda sharoitida frontchasiga mehnat qilish uchun so‘z berganlar[8].

Urushning birinchi kunlaridanoq respublika, shahar va tuman harbiy komissarliklariga 14 mingdan ortiq ko‘ngilli frontga jo‘nab ketish uchun ariza bergan. Birinchi ko‘ngillilar ichida Toshkent qishloq xo‘jaligi mashinasozligi zavodi ishchisi Abdullayev, Toshtram ishchisi Obloqulov, Toshkent Veterinariya institutining xodimi Usmonov va boshqalar bor edi. Iyul oyining boshlarida O‘zbekiston SSR shahar va qishloqlarida o‘z turmush o‘rtog‘i, o‘g‘illari va aka-ukalariga yordam berishga tayyor ekanliklarini izhor qilgan xotin-qizlarning yig‘ilish va ko‘p kishilik mitinglari bo‘lib o‘tgan. Shunday mitinglardan biri 1941-yil 5-iyulda Toshkent shahrining Oktyabr tumanida bo‘lib o‘tgan. Unda 15 ming xotin-qizlar qatnashib, frontga o‘z hissalarini qo‘shishlarini bayon qilishgan.

Urushning boshlaridayoq nemis fashistlariga qarshi urushda qatnashish uchun Toshkent shahridan 100 ming yigit va qiz frontga jo‘nab ketgan. Shahar xo‘jaligi, sanoat korxonalari, muassasalar, harbiy-ommaviy tashkilotlar qisqa muddat ichida harbiy yo‘nalishga tushirilgan.

Ikkinchi jahon urushi davrida Toshkent sovet hokimiyati uchun strategik muhim shaharga

aylandi. Bu davrda evakuatsiya qilingan odamlar, jumladan, ishchilar, mutaxassislar va harbiy xizmatchilar hisobiga shahar aholisi sezilarli darajada ko‘paydi, bu esa uning ijtimoiy va iqtisodiy tuzilishiga ta’sir ko‘rsatdi.

Toshkent shahri va viloyatida 1941-yilning 22-iyunidan 27-iyunigacha armiyaga ko‘ngilli bo‘lib kirish haqida 7600ta ariza berildi. Shundan bir qismi xotin-qizlardan iborat edi. Arizalarning bunday ko‘plab tushishi respublika viloyat hamda tumanlarida front va mamlakat ichkarisi oralig‘ida odam resurslarini izga solib turish yuzasidan maxsus tanlov komissiyalarini tuzish zaruratini tug‘dirdi. Toshkent shahri va viloyatida Vatan himoyasiga, ayniqsa, yoshlar faollik bilan istak bildirdilar. Vatan taqdiri uchun shaxsiy mas’uliyat hissi bilan sug‘orilgan odamlar qo‘lda qurol bilan mamlakat shon-sharafi, ozodligi va mustaqilligini himoya qilish uchun frontga intilar edilar. Necha 10 minglab yigit-qizlar umumta’lim va Osoaviaxim orqali harbiy tayyorgarlikdan o‘tdilar. 1941-1943-yillar davomida faqat Toshkent viloyati yoshlar tashkilotining o‘zi armiyaga 37 ming nafar yigit va qizlarni yubordi, shundan 10 mingtasi milliy qismlarga borib qo‘shildi. Toshkent shahri va viloyatidan frontga yuborilganlarning umumiy soni:

	1940-yil	1941-yil	1942-yil	1943-yil	1944-yil	1945-yil
Toshkent shahri	6345	41095	52183	19827	9659	5093
Toshkent viloyati	4447	34516	45325	25626	6385	3668
Jami	10792	75611	97508	45453	16044	8761

Quyidagi raqamlar Toshkent shahri va viloyatidan frontga yuborilganlar umumiy soni 254 169 ta ekanligini va bu butun O‘zbekiston Respublikasidan frontga jo‘natilganlarning 20% ni tashkil qilganligini ko‘ramiz[9].

Xulosa. Xulosa o‘rnida Toshkent urush bo‘lmayotgan hudud bo‘lsa-da, uning barcha moddiy va ma’naviy kuchlari to‘laligicha fashizmga qarshi kurashishga safarbar etildi. Tinchlik yo‘lida dehqondan tortib olimgacha, ishchidan rahbargacha birlashdi, frontchasiga ishlashga o‘tdi. Natijada, o‘sha g‘oyat og‘ir va suronli davrda yurtimiz frontning mustahkam ta’minot bazasiga aylandi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. “T” harfi. Toshkent. 524-bet.
2. 1920-yil 16-iyunda shahar hududida Eski shahar va Yangi shahar rayon deputatlari soveti hamda Umumshahar ishchilar, qizil askarlar va dehqonlar deputatlari soveti tashkil etilgan. Batafsil qarang: Toshkent shahar markaziy davlat arxivi. S-10-jamg‘arma. 226-yig‘majild. 34-varaq.
3. Mazkur okruglarda okrug markazlaridan tashqari rayon markazlari bo‘lgan 22ta shahar hamda 4ta shahar “poseleniye”lari ham bo‘lgan.
4. 1992-yil may oyidan Mirzo Ulug‘bek tumani deb atalgan.
5. Mashhura Darmonova. Toshkent shahar markaziy davlat arxivi: tarixi va tarixiy manbalari. Toshkent. 2020. 36 – 37-betlar.
6. Мулляджанов И.Р. Народонаселение Узбекской ССР (социально-экономический очерк). – Ташкент: Узбекистан, 1967. – S.194.
7. Toshkent shahar markaziy davlat arxivi. S-216-jamg‘arma. Markaziy rayoni.
8. Toshkent shahar Xotira kitobi. Birinchi jild. Toshkent. 1994. 5 – 6-betlar. (608 b).
9. Xotiralarda jonlangan tarix. Ikkinchi jahon urushida erishilgan g‘alabaning 77 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar materiallari to‘plami. T-2023. B-40.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 81.29

THE ROLE OF SEMANTIC THEORIES IN MEETING THE NEEDS OF SECOND LANGUAGE LEARNERS: ARABIC AS A MODEL

Helal Abdul Razek Sadiq, Doctor of Philological Sciences, Arabic language department (AL-Azhar) International academic of Islamic studies

IKKINCHI TIL O‘RGANUVCHILARINING EHTIYOJLARINI QONDIRISHDA SEMANTIK NAZARIYALARNING O‘RNI: ARAB TILI MISOLIDA

Hilol Abdul Roziq Sodiq, filologiya fanlari doktori, Al-Azhar universiteti “Arab tili” kafedrasi, Islom tadqiqotlari xalqaro akademiyasi

РОЛЬ СЕМАНТИЧЕСКИХ ТЕОРИЙ В УДОВЛЕТВОРЕНИИ ПОТРЕБНОСТЕЙ ИЗУЧАЮЩИХ ВТОРОЙ ЯЗЫК: НА ПРИМЕРЕ АРАБСКОГО ЯЗЫКА

Доктор Хелал Абдул Разек Садик, доктор филологических наук, кафедра арабского языка университета Аль-Азхар, Международная академия исламских исследований

https://orcid.org/0000-0001-8142-6465
e-mail: gokki1990@mail.ru

Abstract: *This research paper falls under the field of applied linguistics and highlights the challenges faced by learners of Arabic. It emphasizes the role of semantic theories in developing learners' speaking and comprehension skills. This is achieved by presenting the material using a methodology based on various semantic theories, starting with the semantic field theory. This theory involves classifying vocabulary into semantic fields, grouping words with similar meanings, shared connotations, or derived from the same root. These words are then presented to learners, along with explanations of their relationships within the field, such as synonyms, antonyms, and broader/narrower meanings. This helps learners establish a strong connection between the word form and its meaning.*

Keywords: *Language and speech – Language acquisition – Semantic field – Semantic relationships – Linguistic context – Non-linguistic context*

Annotatsiya: *Mazkur tadqiqot ishi amaliy lingvistika sohasiga mansub bo‘lib, arab tilini o‘rganayotganlar duch keladigan muammolarni yoritadi. Tadqiqotda semantik nazariyalar o‘quvchilarning og‘zaki nutq va tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ta’kidlanadi. Bunda o‘quv materiali turli semantik nazariyalar, xususan, semantik maydon nazariyasiga asoslangan metodologiya yordamida taqdim etiladi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, lug‘at boyligi semantik maydonlarga ajratilib, ma’nosi, konnotatsiyasi yoki bir xil ildizdan kelib chiqqan so‘zlar bir guruhga jamlanadi. So‘ngra bu so‘zlar o‘quvchilarga ular orasidagi munosabatlar — sinonimiya, antonimiya, umumiy va tor ma’nolar orqali tushuntiriladi. Bu yondashuv so‘z shakli bilan uning ma’nosi o‘rtasida mustahkam bog‘liqlikni shakllantirishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *til va nutq, tilni o‘zlashtirish, semantik maydon, semantik munosabatlar, lingvistik kontekst, nolingvistik kontekst.*

Аннотация: *Данная научная статья относится к области прикладной лингвистики и освещает трудности, с которыми сталкиваются изучающие арабский язык. В работе подчеркивается роль семантических теорий в развитии у обучающихся навыков устной речи и понимания. Это достигается посредством методики, основанной на различных семантических теориях, начиная с теории семантических полей. Согласно данной теории, лексика классифицируется по семантическим полям —*

группам слов, объединённых общим значением, коннотацией или происхождением от одного корня. Эти слова представляются учащимся с объяснением взаимосвязей внутри поля, включая синонимы, антонимы и отношения по объёму значения. Такой подход способствует формированию прочной связи между формой слова и его значением.

Ключевые слова: *язык и речь, овладение языком, семантическое поле, семантические отношения, лингвистический контекст, нелингвистический контекст.*

Introduction . Since I started working in the field of teaching Arabic as a second language, I have been thinking about writing these short articles. In them, I wanted to address the learning difficulties that students encounter, while attempting to offer a general overview of proposed solutions. This perspective is based on practical interaction and personal experience in this field. The questions that have always been on my mind are:

- What do learners need to learn a language other than their native language? And, in discussing these needs, should we distinguish between what is called language acquisition and language learning?

- Is the teacher's role to impart correct knowledge or to correct errors in order to teach correctly?

This topic has many facets. While language teaching is a branch of applied linguistics, it has close connections with other disciplines such as psychology, education, and sociology. The interdisciplinary nature of this field—including linguistics—reinforces the idea that language is a human phenomenon, a means of expressing thought, and also a skill, as Ibn Khaldun stated: "Skills are acquired only through the repetition of actions, because an action occurs first, and from it a characteristic is acquired by the individual. Then, with repetition, it becomes a habit, meaning a characteristic that is not yet firmly established. With further repetition, it becomes a skill, i.e., a firmly established characteristic". (al-Ishbili, 1988)

Methodology. The method used in this research is the descriptive analytical method, which focused on monitoring the theories and general principles of semantic theory and applying them to Arabic words. The researcher also applied his opinions, which were mentioned in the folds of the research, to samples of students who are learning Arabic from non-native speakers. These applications led to important results in changing their linguistic level and removing the fear that afflicts speakers of another language for fear of making grammatical errors.

Results. The study was able to prove the following facts:

- It was proven that postponing grammar learning to a later stage of learning will benefit students more.

- It was proven that vocabulary is the most important component and should be learned through semantic theories.

- The semantic domain can present vocabulary more easily.

- Semantic relationships are important in revealing meaning and fixing it in the learner's mind.

- Contextual theory plays a role in revealing meaning.

- The etymological aspect of a word saves a lot of effort for learners.

Discussion. We should define some relevant concepts to clarify our understanding of these requirements.

First: The function of language. The primary and sole function of language is communication among members of a linguistic community. As Ibn Janī defined it: "A collection of sounds by which each people express their ideas."(IBN JENNY, 1952) Therefore, language has a social dimension and a practical value, as evident from the aforementioned definition, which aligns with the definitions of many modern linguists.

Secondly: The nature of language. Language is a system of sounds that form words, and these words, in turn, form sentences. There is an arbitrary relationship between these linguistic elements and the external meanings and referents that reside in the minds of the linguistic community—that is, the concept of meaning. Thus, language—any language—consists of four levels, each of which is studied by a specific branch of linguistics. Phonology studies the smallest units of language, which are sounds. When sounds are combined, they form words, which are studied by morphology. In a logical sequence, words combine to form sentences, which are the subject of syntax. Finally, semantics studies meaning. Some have defined language as "meaning expressed through sound" (Lyons, 1995) (MUKHTAR, 1998). Meaning plays a crucial role in all levels of linguistic analysis, starting from phonemic analysis, and it also plays a significant role in many applications of linguistics, such as

communication methods, language teaching, and language acquisition. Therefore, we are dealing with four levels of language. Returning to the previous discussion, we see that the level of semantics is the most important and has the greatest impact on second language acquisition (MUKHTAR, 1998). As the process of understanding meaning is intertwined with all other levels.

Every sound in a word carries a specific meaning. For example, the verbs "qal'a قَلَعَ " (to pull out) and "khala'a خَلَعَ" (to remove) both convey the general meaning of removing something. However, the emphatic, voiced consonant "q" in the first verb adds a nuance of forceful removal, which the weaker, voiceless consonant "kh" in the second verb does not (IBN JENNY, 1952).

Third: Language acquisition. In their book, "Second Language Acquisition," linguists Larry Selinker and Suzan M. Gass emphasized that language learning is not merely about memorizing rules, but rather, more importantly, about learning how to express communicative needs. Focusing on communicative competence is the key to successful language acquisition. The authors discussed this in their exploration of second language teaching, attempting to distinguish between studying language (grammar and rules) and acquiring language (communicative competence). They reiterated this point throughout the chapter, stating that "language learning should include learning certain habits; vocabulary is the most important aspect of second language acquisition; and focusing on grammatical rules is a waste of time" (Selinker, 2009).

The Theoretical Concept of Semantic Field and its Relationships. (Ullmann, 1962)**.**

A- Semantic fields are one of the theories of semantic analysis, and the most common among those who study semantics. This popularity is evident from the large number of studies conducted based on this theory.

- A semantic field, or lexical field, is defined as a group of words whose meanings are related, and which are usually placed under a general term that encompasses them. An example of this is the words for colors in Arabic (Tamam, 1994).

- Scholars have endeavored to develop classifications that include most, if not all, concepts. However, "perhaps the most comprehensive and logical classification proposed so far is that suggested by the Greek New Testament lexicon, which is based on four main categories: entities, events, abstracts, and relations".

Under each category, there are smaller subcategories, and each subcategory is further divided into sub-subcategories, and so on.

In this way, the meaning of a word can be understood through its relationship to the semantic field to which it belongs, and to the other words that share the same semantic field (Murphy, 2010).

B- semantic relations (Malt, 2020)**.**

Synonymy. Synonymy is one of the most common semantic relationships between words in a semantic domain, due to the similarity and convergence of many semantic features between words in a single domain. This allows members of a linguistic community to use words in a semantic domain as synonyms, substituting one for the other (M.A, 2001).

Antonymy. Opposition means: "The presence of two words that differ in pronunciation and are opposite in meaning." For example, "white" and "black" are two opposite words within a single semantic domain, namely colors. (M.A, 2001)

- Inclusion (Generalization)

Such as the relationship between the words of a semantic domain and the general term that encompasses the entire domain due to its general meaning. For example, there is an inclusion relationship between the word "dish" in the semantic field of "restaurant," as the restaurant includes this term and others (Balmar, 1985).

The relationship of the part to the whole.

Such as the relationship of the hand to the body, which is a relative relationship. The hand is a part and the body is a whole in relation to the hand, while the finger is a part of the hand, and the hand is a whole in relation to the finger.

Incongruity (Balmar, 1985).

The meanings of these words do not include any other word. Therefore, the relationship between these words is one of contrast and incongruity, such as "red" and "green" in the domain of colors, and "fox and tiger" in the domain of animals.

Applying the Theory in Teaching Arabic

1- It's no secret to anyone involved in teaching languages to non-native speakers that textbooks published in each language rely primarily on the theory of the semantic field. For example, if we examine a single example of such textbooks focused on teaching dialogue, we find that dialogue, with all its vocabulary, belongs to a single semantic field. If a teacher wants to train a student on the dialogue they will use if they travel to a country where the language of study is spoken, they will begin by listing words

and phrases that all belong to a single place or situation. Airport dialogue has its own words and vocabulary that you wouldn't hear in restaurant or hospital dialogue. The airport alone represents a semantic field containing a number of vocabulary terms, such as "travel" - "arrival" - "luggage" - "passport" - "plane" - "journey" - "travels" - "residence". These vocabulary terms, which are included in a dialogue, would not include words such as "delicious" - "eat" - "drinks" - "salad" - which are appropriate for a dialogue related to another semantic field, namely a restaurant. -

2- By using the semantic field, the student can interact with vocabulary extensively. If we assume that we create a semantic field called "classroom" and collect vocabulary within this field as a first step, we will find that the student is familiar with the largest possible number of vocabulary words because they see them in front of them, such as: door - window - floor - ceiling - wall - lamp - desk - chair - sits - writes - explains - student - teacher... etc.

3- Adjectives are one of the most important topics that the student must know, because through them he can form simple sentences that enable him to use the language, and collecting adjectives into semantic fields makes it easier for the student to recognize and memorize them. If we collect the adjectives that distinguish a person in a single field, such as: strong - beautiful - generous - tall... then we follow those adjectives with a group of antonyms, such as: weak - ugly - stingy - short... then the presence of these words under one heading, The presence of antonyms under the same heading makes it much easier for the student to understand and recognize the words, because if he forgets the meaning of the first and remembers the second, he will arrive at the meaning of both through only one.

4- The semantic field includes the derivational field, through which the learner will acquire a group of vocabulary words that are similar in pronunciation and share a common meaning. For example, the verb "wrote" (kataba) includes all forms similar in pronunciation but with an increased meaning, such as: writer (kateb), message (maktub), book (kitab), writing (kitabatun), writes (yaktubu), we write (naktubu), library (maktabatun), etc.

Conclusion. If we adhere to this approach in all the lessons the learner receives, dividing the vocabulary to be acquired, the result will be highly satisfactory. If we begin with the classroom as a semantic field, then the street, the house, the human body, and other semantic fields close to the learner's mind, and help them form simple phrases from these words, we will, after a considerable period of time, enable the learner to possess a linguistic reserve that they can use and communicate with. After that comes the stage of correction and codification, which will determine what the learner possesses once they have become capable of speaking.

References:

1. Muqaddima. Bayrut- Lebanon: Dar Al Fekr.
2. Balmar, F. (1985). Semantic. Iraq: AL Mostansareya Univirsity.
3. Ibn Jenny, U. A. (1952). Al Khasaies (Second Ed., Vol. 1). Cairo-Egypt: Dar Alkotob Almasreya.
4. Keshk, A. (1998). Language and Speech: Studies on Interrelation and Convergence . Cairo- Egypt: Dar Al Nahda Al Masreya.
5. Lyons, J. (1995). Linguistic semantics: An introduction. CAMBRIDGE: Cambridge University Press.
6. M.A, A. K. (2001). Semantic Since . Jordon: Dar EL Falah.
7. Malt, B. C. (2020). Understanding L2 word learning outcomes: The roles of semantic relations, input, and language dissimilarity. International Journal of Bilingualism, 24(3), . https://doi.org/10.1177/1367006918814376, 478-491.
8. Mukhtar, A. (1998). Semantics. Cairo - Egypt: Aalam Alkotob.
9. Mukhtar, A. (1997). The Names of God: A Study of Structure and Meaning. Cairo-Egypt: Aalam Alkotob.
10. Murphy, M. L. (2010). Lexical Meaning. Ingland: Cambridge University Press.
11. Saussure, F. d. (1916). Course In General Linguists. Duckworth.
12. Selinker, L. &. (2009). Second language acquisition: An introductory course. Saudi Arab : Almalek Soud University.
13. Tamam, A. (1994). the semantic since . Cairo: Dar GHarib.
14. Tamam, H. (1994). The Arabic language: its structure and meaning. Cairo - Egypt: Dar Alsakafa.
15. Ullmann, S. (1962). Semantics: An Introduction to the Science of Meaning. Ingland: Oxford.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 81'42:821.512.133-3

SHARQ ADABIYOTIDA RAD ETISH STRATEGIYALARI -CHO'LPONNING "KECHA VA KUNDUZ" ASARI TAHLILIDA

Ro'ziyeva Nilufar Kamtarovna, Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti, Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

REJECTION STRATEGIES IN EASTERN LITERATURE: IN THE ANALYSIS OF CHULPAN'S "KECHA VA KUNDUZ"

Ruziyeva Nilufar Kamtarovna, basic doctoral student at Bukhara State University, teacher at Bukhara State Pedagogical Institute

СТРАТЕГИИ ОТКАЗА В ВОСТОЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ЧУЛПАНА "КЕЧА ВА КУНДУЗ"

Рузиева Нилуфар Камтаровна, базовый докторант Бухарского государственного университета, преподаватель Бухарского государственного педагогического института

https://orcid.org/0009-0005-1544-4776
e-mail: n.k.roziyeva@buxdu.uz

Annotatsiya: *Ushbu maqola Cho'lponning "Kecha va kunduz" asaridagi rad etish kommunikativ strategiyalarini Braun hamda Levinsonning "Xushmuomalalik nazariyasi"(Politeness theory, 1987) asosida tahlil qiladi. Asarda qahramonlarning ijtimoiy tabaqa, gender va oilaviy munosabatlariga ko'ra rad etish shakllari qanday o'zgarishi, shuningdek, bilvosita va to'g'ridan-to'g'ri rad etishlar, yuzni saqlash (face-saving) strategiyalari qanday qo'llanilishi o'rganiladi. Tadqiqot natijalari sharq madaniy kontekstida rad etish strategiyalarining xususiyatlarini ochib beradi va o'zbek adabiy tahlil metodologiyasiga qo'shimcha ilmiy asos yaratadi.*

Kalit so'zlar: *xushmuomalalik, kommunikativ strategiyalar, yuzni saqlash, ijtimoiy masofa, oilaviy ierarxiya, ijtimoiy kontekst, pragmatika, muloqot.*

Abstract: *This article analyzes the communicative strategies of refusal in Chulpan's novel "Kecha va Kunduz" based on Brown and Levinson's Politeness Theory (1987). The study examines how refusal strategies vary according to social class, gender, and family relations, as well as the use of direct and indirect refusals and face-saving strategies in the narrative. The findings reveal the specific features of refusal strategies within the context of eastern culture and contribute additional theoretical insight to the methodology of Uzbek literary analysis.*

Key words: *politeness, communicative strategies, face-saving, social distance, family hierarchy, social context, pragmatics, communication.*

Аннотация: *Данная статья анализирует коммуникативные стратегии отказа в произведении Чолпона «Кеча ва Кундуз» на основе теории вежливости Брауна и Левинсона (1987). Исследование рассматривает, как формы отказа изменяются в зависимости от социального статуса, гендера и семейных отношений персонажей, а также использование прямых и косвенных отказов и стратегий сохранения «лица» (face-saving). Полученные результаты раскрывают особенности стратегий отказа в контексте восточной культуры и вносят дополнительный научный вклад в методологию анализа узбекской художественной литературы.*

Ключевые слова: *вежливость, коммуникативные стратегии, сохранение лица, социальная дистанция, семейная иерархия, социальный контекст, прагматика, коммуникация.*

Kirish. Zamonaviy pragmatikaning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan kommunikativ strategiyalarni o‘rganish, xususan rad etish jarayonining til va madaniyat bilan bog‘liq xususiyatlarini tahlil qilish bugungi kunda muhim ilmiy masalalardan biridir. Har bir madaniyatda rad etish o‘ziga xos odob-axloq me’yorlari asosida shakllanadi va nutqiy muomala jarayonida o‘zining murakkab, ko‘p qatlamli semantik-pragmatik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Sharq madaniyati, xususan o‘zbek adabiy-madaniy muhitida rad etish strategiyalari odatda bilvosita, muloyim, e’tiborli shaklda namoyon bo‘ladi. Bu holat jamiyatdagi ijtimoiy ierarxiya, oilaviy muhitdagi tartib-qoidalar, kattaga hurmat, gender rollari va muloqotning odob normalari bilan belgilanadi. Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” asari o‘zbek adabiyotida jamiyat, oila, ijtimoiy tengsizlik, ma’rifatparvarlik va insoniy munosabatlarni o‘ta nozik psixologik tasvirlar orqali ko‘rsatgan asarlardan biridir. Asarda qahramonlar o‘rtasidagi ijtimoiy, gender va axloqiy ziddiyatlar, shaxsiy xohish va jamiyat talablari o‘rtasidagi kurash, muloqotdagi chegaralar rad etish strategiyalarining serqirra ifodalanishi uchun keng imkoniyat yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Rad etish strategiyalarini ilmiy jihatdan o‘rganish 1970–1980-yillardan boshlab pragmatika va nutq aktlari nazariyasining shakllanishi bilan parallel ravishda rivojlandi. J. Ostin (1962) va J. Searle (1969) tomonidan asos solingan nutq aktlari nazariyasi rad etishni “yo‘naltiruvchi illokutiv akt” sifatida izohlab, uning bajarilishini muloqotning ijtimoiy konteksti belgilashini ta’kidlaydi. Keyinchalik rad etishning ijtimoiy jihatdan nozik nutq aktlaridan biri ekanligi Blum-Kulka (1983), Beebe, Takahashi & Uliss-Weltz (1990) kabi olimlar tomonidan keng ko‘lamda o‘rganildi.

Kommunikativ strategiyalar bo‘yicha eng muhim nazariy yondashuvlardan biri – Braun va Levinsonning (1987) Xushmuomalalik nazariyasidir. Ular “yuz” tushunchasini ijtimoiy fazilat sifatida izohlab, muloqotdagi har qanday talab, tanqid, iltimos yoki rad etish kabi aktlar suhbatdoshning ijobiy yoki salbiy yuziga tahdid solishi mumkinligini ko‘rsatadilar. Shuning uchun insonlar bunday nutq aktlarini yumshatish, bilvosita qilish yoki eufemistik shakllarda ifodalashga harakat qiladi. Mazkur nazariya aynan Sharq madaniyatiga xos bo‘lgan muloyimlik, bilvositalik, hurmat tamoyillarini tahlil qilish uchun juda mos keladi.

Sharq madaniyatida rad etish masalasi bo‘yicha Koike (1994), Nakata (2009), Al-Khatib (2006) kabi tadqiqotchilar arab, yapon, koreys va turkiy xalqlarda rad etishning bilvosita shakllari ustunligini ta’kidlaydilar. O‘zbek tilshunosligida Hamidova, Mengliyeva, Qo‘ng‘irotova, Eshquvvatov kabi olimlar muloqot madaniyati va xushmuomalalikning milliy xususiyatlarini o‘rgangan, biroq klassik o‘zbek adabiyotida rad etishning lingvopragmatik tahlili hali yetarlicha yoritilmagan.

Adabiyotshunoslikda Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” asari ko‘proq ma’rifatparvarlik, ayol taqdiri, jamiyat va shaxs muammolari, psixologik realizm nuqtayi nazaridan o‘rganilgan (Rahmonov, Qosimova, Karimov). Ammo asardagi muloqot va kommunikativ jarayonlarni lingvopragmatik yondashuvda tahlil qilish, xususan rad etish strategiyalarini tizimli ko‘rib chiqish ancha kam uchraydi. Bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini ta’minlaydi.

Muhokama. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida rad etish kommunikativ strategiyalarining shakllanishi, avvalo, ijtimoiy kuch, masofa va talab og‘irligi kabi omillar bilan chambarchas bog‘liq ekani ko‘zga tashlanadi. Asarda qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlar ierarxik va patriarxal tuzilma bilan belgilangan bo‘lib, bu holat rad etish shaklini ham bevosita shakllantiradi. Buni Nurxonning otasi bilan bo‘lgan muloqotidan yaqqol ko‘rish mumkin. Ota uni ma’lum bir qarorga — turmushga chiqishga majbur qilayotgan sahnada Nurxon ochiq rad etish imkoniyatiga ega emas. U: “Otajon, men hali bunday qarorni qabul qilishga tayyor emasman… Siz aytgandek bo‘lishi uchun vaqt kerak”, — degan mazmunda bilvosita rad etish strategiyasidan foydalanadi. Bu holat Braun va Levinson nazariyasidagi ijtimoiy kuch omilining aniq namunasidir. Yuqori ijtimoiy mavqega ega shaxsning talabini inkor qilish uchun qahramonlar odatda bahona, vaqt so‘rash yoki kechiktirish kabi yumshatuvchi strategiyalarni tanlaydi. Sharqona madaniy kontekstda bu eng maqbul yechim hisoblanadi, chunki u ota-ona yuzini saqlashni ta’minlaydi va konfliktni kuchaytirmaydi.

Rad etishning yana bir qiziqarli ko‘rinishi Zebi va Omon o‘rtasidagi suhbat orqali ifodalanadi. Zebi Omonning xavfli qarorga shoshilinch kirishish haqidagi taklifiga ehtiyotkorlik bilan munosabat bildiradi. U: “Bunday yo‘l bizni yanada xavfga soladi. Yaxshisi, boshqa yo‘lini topaylik”, — mazmunidagi gap bilan taklifni rad etadi. Zebi rad etishni yumshatish uchun nafaqat bahona, balki alternativ taklif ham qo‘shadi. Bu ayol obrazlarining o‘ziga xos kommunikativ xususiyatlarini aks ettiradi, ya’ni ular bevosita inkor o‘rniga ko‘proq murosaga chaqiruvchi shakllardan foydalanadi. Gender omilining rad etish strategiyasiga sezilarli ta’siri aynan shu epizodda namoyon bo‘ladi.

Asarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri rad etishning keskin formasi ham uchraydi. Masalan, Quvonish Bo‘riboyning noqonuniy ishga aralashish taklifiga qat’iy rad javobi qaytaradi: “Men bu ishingizga aralashmayman. Bunday yo‘l menga to‘g‘ri kelmaydi,” — mazmunida. Bu holatda rad etishning bevosita shakli kuchli axloqiy pozitsiyani ifodalaydi. Qahramonlar o‘rtasidagi kuch va masofa muvozanatlangan holatda bo‘lgani uchun yumshatuvchi vositalarga zarurat sezilmaydi. Shuningdek, bu sahna rad etishning faqat ijtimoiy munosabat emas, balki axloqiy qaror sifatidagi o‘rni ham borligini ko‘rsatadi.

Oilaviy munosabatlarda ham rad etish o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Masalan, katta yoshli oila a’zosi yosh qahramonga og‘ir yumush topshirganda, u: “Agar ruxsat bo‘lsa, buni ertaroq bajara olmayman, boshqa majburiyatlarim bor edi…” — degan mazmunda javob qaytaradi. Bu yerda rad etish uzr so‘rash, sabab keltirish va hurmat ifodalari bilan yumshatiladi. Sharq madaniyatida yoshi kattalarga nisbatan bevosita inkor qilish odobga zid hisoblanishi sababli, yuzni saqlovchi strategiyalar faol qo‘llanadi.

Umuman olganda, roman qahramonlarining rad etish uslubi ularning ijtimoiy mavqei, yoshi, jinsi va vaziyatning pragmatik og‘irligiga mutanosib ravishda o‘zgarib boradi. Bu esa Cho‘lponning muloqot madaniyatini nozik kuzata olganini, qahramon xarakterini aynan til orqali ochib bera olganini ko‘rsatadi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Kecha va kunduz” romanida rad etishlar ko‘pincha bilvosita, yumshatilgan shaklda amalga oshiriladi. Bu holat Sharq madaniyati uchun xos bo‘lgan yuzni saqlash (face-saving) qadriyatining ustuvorligi bilan bog‘liq. Qahramonlar rad etishda odatda izoh berish, sabab ko‘rsatish, uzr so‘rash, alternativ taklif qilish yoki vaqt so‘rash kabi strategiyalarga murojaat qiladi. Braun va Levinsonning “P–D–R” modeli romandagi muloqotlarda to‘la ishlaganini ko‘rish mumkin. Ota–qiz, ustoz–shogird yoki erkak–ayol kabi munosabatlarda kuch ierarxiyasi mavjud bo‘lgani uchun rad etishlar bilvosita shaklda namoyon bo‘ladi. Teng mavqe yoki axloqiy pozitsiya ustuvor bo‘lgan vaziyatlarda esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri rad etishning keskin formalariga ham duch kelamiz. Bundan tashqari, gender omili ham muhim rol o‘ynaydi, ya’ni ayol personajlarda rad etish shakllari yumshoqroq, erkaklarda esa aniq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘lishi kuzatiladi. Bu ayollarga yuklatilgan madaniy xulq talablari va erkaklarning ijtimoiy vakolati bilan izohlanadi.

Birinchidan, asardagi keskin rad etish holatlari — xususan, Zebi va Omonulla orasidagi tortishuvlarda — ijtimoiy tengsizlik, erk va irodaga bo‘lgan turlicha yondashuvni ifodalaydi. Masalan, Zebining: “Sen mening taqdirimni belgilay olmaysan, Omonulla!” — degan keskin rad etishi Omonullaning “ijtimoiy kuch” pozitsiyasiga qarshi ochiq norozilik sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda salbiy xushmuomalalik (negative politeness) strategiyasining deyarli qo‘llanmasligi rad etishning keskin va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rinishiga olib kelgan.

Ikkinchidan, O‘zbek jamiyatining o‘sha davrdagi patriarxal-madaniy muhitida ayolning ochiq rad etishi odatdagi odob me’yorlaridan chekinish bo‘lgani uchun, muallif syujet dinamikasini aynan bunday strategiyalar orqali kuchaytiradi. Bu, o‘z navbatida, Zebi obrazining mustaqillikka intilish jarayonini yoritishda asosiy pragmatik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, rad etishning yumshatilgan (mitigated) shakllari — masalan, Yusufbek hoji tomonidan qo‘llangan: “Hali bu haqda o‘ylab ko‘raylik, vaqt ko‘rsatadi…” kabi dialoglar ijobiy xushmuomalalik (positive politeness) strategiyasining yetakchi modellaridan biridir. Bunday strategiyalar orqali personajlar o‘zaro hurmatni saqlagan holda bahsning keskinlashishini oldini oladi. Natija shuni ko‘rsatadiki, Cho‘lpon rad etish strategiyalarini har bir personajning

axloqiy fazilati va ma’naviy olamiga mos holda tanlagan.

Xulosa. Mazkur maqolada Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida uchraydigan rad etish kommunikativ strategiyalari Braun va Levinsonning xushmuomalalik nazariyasi asosida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida asar qahramonlari o‘rtasidagi dialoglar nutqiy faoliyatning boy manzarasini ochib berishi, rad etishning turli shakllari personajlarning ijtimoiy maqomi, psixologik holati va sotsial kontekst bilan chambarchas bog‘liqligi aniqlandi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, romanda rad etish strategiyalari ko‘pincha salbiy yuzni himoya qilish, masofani saqlash, ijtimoiy bosimni yumshatish hamda nizoni oldini olish kabi kommunikativ vazifalarni bajaradi. Ayol va erkak personajlar nutqida esa rad etishning ifodalanishida sezilarli farqlar kuzatildi, ya’ni ayollar ko‘proq yumshatilgan, bilvosita va izohli rad etish strategiyalaridan foydalanar ekan, erkak obrazlar esa bevosita, keskin va kuchli modalitetga ega shakllarni qo‘llashga moyil. Bu holat Cho‘lponning gender va ijtimoiy munosabatlar masalasiga chuqur yondashganini ko‘rsatadi. Romanda rad etishning har bir ko‘rinishi qahramonlar xarakterining shakllanishi, dramatik vaziyatning kuchayishi va syujet rivojida muhim funksiyani bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Brown, P., & Levinson, S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
2. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. Toshkent: Sharq nashriyoti, 2017.
3. Leech, G. Principles of Pragmatics. London: Longman, 1983.
4. Kasper, G. Pragmatic Transfer in Interlanguage Pragmatics. Studies in Second Language Acquisition, 8(3), 1986.
5. Fraser, B. Perspectives on Politeness. Journal of Pragmatics, 14(2), 1990.
6. Spencer-Oatey, H. Face, (Im)politeness and Rapport. In Journal of Pragmatics, 35(2), 2003.
7. Mey, J. Pragmatics: An Introduction. Oxford: Blackwell, 2001.
8. O‘rinboyeva, G. Nutq madaniyati va pragmalingvistika masalalari. Toshkent: Fan, 2012.
9. Qo‘shoqov, R. O‘zbek adabiyotida dialogik nutqning lingvopragmatik xususiyatlari. Toshkent, 2019.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 821.111.09-31

INGLIZ VA O‘ZBEK POSTMODERNIZMIDA O‘ZLIKNI ANGLASH FENOMENINING PSIXOLOGIK VA BADIIY TAHLIL (J. FAULZ VA O‘. HOSHIMOV ASARLARI ASOSIDA)

Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti katta o‘qituvchisi, f.f.f.d (PhD)

THE PSYCHOLOGICAL AND ARTISTIC ANALYSIS OF THE PHENOMENON OF SELF-UNDERSTANDING IN ENGLISH AND UZBEK POSTMODERNISM (BASED ON THE WORKS OF J. FAULZ AND O. HOSHIMOV)

Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna, Senior Lecturer, Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, (PhD)

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ И ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ ФЕНОМЕНА САМОПОНИМАНИЯ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ПОСТМОДЕРНИЗМЕ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ Д.ФОУЛЗА И У.ХОШИМОВА)

Содикова Бахтигул Ибодуллаевна, старший преподаватель, Денауский институт предпринимательства и педагогики, (PhD)



e-mail: baxtigulsodiqova88@gmail.com
https://orcid.org/0009-0008-1553-9849

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz adabiyotining yirik postmodern yozuvchisi Jon Faulz va o‘zbek nasrining yetuk vakili O‘tkir Hoshimov asarlarida o‘zlikni anglash fenomenining talqini qiyosiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda “The Magus”, “Daniel Martin”, “The French Lieutenant’s Woman” hamda “Dunyoning ishlari” kabi asarlar misolida shaxsning ichki dunyosi, identitet inqirozi, o‘zlik izlash jarayonining psixologik qatlamlari, badiiy vositalar orqali ochilishi va postmodern dunyoqarashning ushbu jarayonga ta’siri o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *postmodernizm, o‘zlikni anglash, metafiksiya, intertekstualizm, madaniy kontekst, muallif vazifasi.*

Аннотация: *В данной статье проводится сравнительно-теоретический анализ интерпретации феномена самопознания в произведениях крупного представителя английской постмодернистской литературы Джона Фаулза и выдающегося узбекского прозаика Уткира Хошимова. Исследование основано на примере таких произведений, как «The Magus», «Daniel Martin», «The French Lieutenant’s Woman» и «Dunyoning ishlari», в которых рассматриваются внутренний мир личности, кризис идентичности, психологические пласты процесса поиска “Я”, а также способы их художественного раскрытия под влиянием постмодернистского мировоззрения.*

Ключевые слова: *постмодернизм, самопознание, метафикция, интертекстуализм, культурный контекст, роль автора.*

Abstract: *This article presents a comparative-theoretical analysis of the interpretation of the phenomenon of self-understanding in the works of John Fowles, one of the major figures of English postmodern literature, and Utkir Hoshimov, a leading representative of Uzbek prose. The study examines such works as The Magus, Daniel Martin, The French Lieutenant’s Woman, and Dunyoning ishlari, focusing on the inner world of the individual, the crisis of identity, the psychological layers of the search*

for selfhood, and the artistic strategies through which these aspects are revealed under the influence of postmodern worldviews.

Key words: *postmodernism, self-understanding, metafiction, intertextuality, cultural context, authorial function.*

KIRISH(ВВЕДЕНИЕ/ INTRODUCTION). Postmodernizm adabiyotida shaxs va o‘zlik masalasi eng muhim falsafiy-estetik yo‘nalishlardan biridir. XX asrning ikkinchi yarmi adabiyotida “kimman?”, “mening mohiyatim nima?”, “odamni o‘zligidan ayiradigan kuchlar nimalar?” kabi savollar o‘quvchining ham, yozuvchining ham markaziy diqqat doirasiga chiqdi. Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, postmodern estetikada “barqaror o‘zlik” tushunchasi izdan chiqarilgan bo‘lib, inson identiteti “ko‘p qatlamli, murakkab, uzluksiz qayta quriluvchi konstruktsiya” sifatida talqin qilinadi [5].

Jon Faulz ingliz postmodernizmining eng yorqin namoyandasi bo‘lib, uning asarlarida erkinlik, identitetning mavhum tabiati, tanlov muammosi va insonning ichki psixologik dialektikasi markaziy o‘rinni egallaydi. Faulzning “The Magus” romanida qahramon Nikolas Erfinning o‘zligini izlash jarayoni “psixologik labirint” sifatida qurilgan: “Man was condemned to be free” tarzidagi ekzistensial g‘oya yozuvchining badiiyatida faol aks etadi [1].

O‘zbek adabiyotida O‘tkir Hoshimov o‘zlikni anglash, insonning ichki iztiroblari, mehr, poklik, jamiyat ta’siri ostida shakllanuvchi shaxs tabiati kabi masalalarni milliy qadriyatlar va ijtimoiy ong kontekstida badiiylashtirgan. “Dunyoning ishlari” qahramonning bolalik xotiralari orqali identitetning shakllanish jarayonini milliy mentalitet bilan chambarchas bog‘lab beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Ushbu tadqiqot ingliz va o‘zbek postmodern adabiyotida o‘zlikni anglash fenomenining psixologik, g‘oyaviy va badiiy ifodasini aniqlash maqsadida olib borildi. Shu sababli ilmiy ishlanma bir nechta metodlar uyg‘unligiga tayandi. Avvalo, qiyosiy-adabiy yondashuv asosida Jon Faulzning “The Magus”, “The French Lieutenant’s Woman”, “Daniel Martin” romanlari bilan O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asari o‘zlik, identitet inqirozi, ichki izlanish, madaniy kontekst va ruhiy kechinmalar jihatidan solishtirildi. Qiyosiy tahlil Auerbax, Wellek, Domański kabi nazariyotchilar qarashlariga tayanib olib borildi.

Psixoanalitik yondashuv esa har ikki yozuvchi asarlaridagi shaxs psixologiyasini ochishda muhim bo‘ldi. Faulz qahramonlari ongosti, maskalar, Freydning “id–ego–superego” mexanizmlari bilan xarakterlansa, Hoshimov asarlarida Yung ta’riflagan arxetiplar – ona, bolalik, xotira, sadoqat kabi timsollar asosiy o‘rin tutadi. Bu metod shaxsning o‘zlikni anglash jarayonidagi ruhiy konflikt va qoniqmaslik manbalarini ochib berdi.

Tadqiqotda poststruktural tahlil ham qo‘llanildi. Lyotar, Derrida, Kristeva va Hutcheon nazariyalariga tayanib, Faulz romanlaridagi metafiksiya, o‘yin poetikasi, ko‘p ovozlik, identitetning buzilishi va fragmentarligi kabi postmodern belgilar sharhlanib, Hoshimov asarlaridagi lirizm, xotira oqimi va ruhiy monologlarning o‘ziga xos ko‘rinishlari bilan taqqoslandi.

Kontekstual tahlil orqali asarlar madaniy, tarixiy, ijtimoiy va milliy muhitda talqin qilindi. Faulz romanlari G‘arb ekzistensial krizisi fonida shakllangan bo‘lsa, Hoshimov ijodida shaxs milliy qadriyatlar, tarbiya, oila va jamiyat bilan chambarchas bog‘langan. Shu bilan birga, tadqiqotda hermenevtik izoh berish tamoyili ramzlar, belgilar, bolalik xotiralari, erkinlik metaforalari, psixologik ko‘rinishlarning chuqur talqini ham qo‘llandi.

Sotsiokulturologik yondashuv esa identitetning jamiyat va madaniyat bilan o‘zaro aloqadorligini ochishga yordam berdi. Berger va Lukmanning ijtimoiy konstruksiya haqidagi qarashlari Hoshimov asarlaridagi oila, mahalla, tarbiya, madaniy merosning shaxs shakllanishidagi roli bilan bog‘landi. Ushbu metodlar majmuasi tadqiqotning ilmiy ishonchliligi, qiyosiylik darajasi va postmodernizm kontekstidagi o‘zlik fenomenini chuqur yoritishga xizmat qildi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). Faulzning qahramonlari, odatda, “o‘zligini yo‘qotgan, ma’noni izlayotgan, ichki bo‘shliq bilan kurashayotgan” shaxslardir. “The Magus” romanida Nikolas Erfin o‘zini “noaniqlik dunyosiga tashlangan” inson sifatida ko‘radi. Yozuvchi uni ong osti bilan yuzlashtiruvchi murakkab o‘yin

ichiga tashlaydi: “He had no self. Only masks he had learned to wear” [1].

Bu iqtibos Faulzda identitetning mustahkam emasligi, shaxsning o‘zlikdan uzoqlashishi jarayonini ochib beradi. Qahramon “Konkis”ning ssenariylashtirilgan sinovlari orqali o‘zining ehtiroslari, qo‘rquvlari, yashirin istaklari bilan to‘qnashadi. Natijada identitet “ko‘p qavatli oynalar majmuasi” sifatida talqin qilinadi.

Faulz o‘zlikni anglashni erkin tanlov falsafasi bilan bog‘laydi. Inson faqat tanlov orqali o‘zini yaratadi: “We are what we choose” [3].

Bu g‘oya Faulzda ekzistensializm va postmodernizmning kesishuv nuqtasi sifatida qaraladi. Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asarida o‘zlikni anglash jarayoni milliy qadriyatlar, ona mehr-muhabbati, bolalik xotiralari, o‘zbekona oila modeli bilan bevosita bog‘langan. Qahramon uchun identitet faqat individual ruhiy holat emas, balki “ijtimoiy-madaniy meros bilan yo‘g‘rilgan ruhiy birlik”dir.

Hoshimov shunday yozadi: “Odam bolasi o‘zligini bolalikda topadi. O‘sha topganini umr bo‘yi yo‘qotmaydi” [4]. Faulzdagi individualistik o‘zlikdan farqli, Hoshimovda identitet jamiyat, oilaviy xotira, tarixiy-milliy ruh bilan shakllanadi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Olingan natijalar ingliz va o‘zbek postmodernizmidagi o‘zlikni anglash jarayonining turli madaniy, falsafiy va ruhiy asoslar bilan shakllanishini ko‘rsatdi. Faulz va Hoshimovning o‘zlik haqidagi qarashlari umumiy insoniy izlanishlar bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ularning yondashuvlari tubdan farq qiladi.

Faulz falsafasi ekzistensializmga yaqin: uning qahramonlari o‘zligini topmaydi, balki yaratadi. Shaxs “labirintga tashlangan”, tanlovlar orqali mustaqil yo‘l yasashi lozim bo‘lgan mavjudot sifatida tasvirlanadi. “Man was condemned to be free” tamoyili uning romanlarida asosiy g‘oyaviy o‘q sifatida namoyon bo‘ladi. Identitet barqaror emas u o‘yinlar, tajribalar, ichki sinovlar orqali qayta quriladi. Bu jarayonda qahramonning ruhiy bo‘linishi, qo‘rquv va istaklar to‘qnashuvi, maskalar ortiga yashirinishi muhim rol o‘ynaydi [6].

Hoshimovda esa o‘zlik jamiyatdan ajralgan holda tasvirlanmaydi. Shaxsning o‘zligini anglash jarayoni oila, ota-ona, bolalik xotiralari, milliy qadriyatlar bilan bog‘liq. Inson o‘zini izlash orqali emas, balki “aslni eslash”, “ildizga qaytish” orqali topadi. Yozuvchi uchun o‘zlik bu vijdon, mehr, halollik, sadoqat kabi ma’naviy kategoriyalar bilan o‘lchanadi. Hoshimov qahramonlari uchun identitetni tiklashning yo‘li ichki poklikka qaytish, ajdodlar xotirasini qadrlash va insoniylikni saqlashdir. Faulzda identitetning yo‘qolishi modern insonning ekzistensial bo‘shligidan kelib chiqadi. Unga ko‘ra, o‘zlik “topilmaydi”, faqat “yaratiladi”. Bu qarash Sartrning “insonga mohiyat berilmaydi, u o‘z mohiyatini o‘zi yaratadi” fikri bilan hamohang.

Hoshimovda o‘zlik “aslga qaytish” bilan bog‘liq: inson o‘zini ajdodlar xotirasi, ona mehri, milliy qadriyatlar orqali topadi. U insonni jamiyatdan ajratmaydi. Faulz individualizmi bilan Hoshimov kollektiv ongiga tayangan o‘zlik modeli o‘rtasida tub farq bor.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Faulz postmodernizmga xos individualistik, fragmentar, murakkab identitet modelini yaratgan. Uning qahramonlari o‘zlikni labirintlar, o‘yinlar, tanlovlar orqali anglaydi. Hoshimovda o‘zlik milliy ong bilan bog‘langan, shaxsning o‘zi jamiyat, oila va madaniyatdan ajralmagan holda talqin qilinadi. Qiyosiy tahlil ingliz va o‘zbek postmodernizmida identitetning o‘ziga xos ko‘rinishlari borligini, ammo ularni bog‘lovchi umumiy jihatlar inson ruhiy izlanishlari, haqiqatni topishga intilish mavjudligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Fowles J. The Magus. London: Jonathan Cape, 1965.
2. Fowles J. The French Lieutenant’s Woman. London: Jonathan Cape, 1969.
3. Fowles J. Daniel Martin. London: Jonathan Cape, 1977.
4. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980.
5. Lyotard J.-F. The Postmodern Condition. Manchester University Press, 1984.
6. Hutcheon L. A Poetics of Postmodernism. Routledge, 1988.
7. Fromm E. Escape from Freedom. New York: Farrar & Rinehart, 1941.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 811.111.81.12

"YOLG'IZLIK" KONSEPTINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI (O'ZBEK VA INGLIZ BADIIY MATNLARI MISOLIDA)

Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti katta o'qituvchisi

e-mail: m.sobirjonova11@gmail.com
https://orcid.org/0009-0003-2361-0557

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КОНЦЕПТА «ОДИНОЧЕСТВО» (НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКИХ И АНГЛИЙСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ)

Собиржонова Мухлиса Собиржоновна,
старший преподаватель Денауского института предпринимательства и педагогики

LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF THE CONCEPT "SOLITUDE" (BASED ON UZBEK AND ENGLISH LITERARY TEXTS)

Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna,
Senior Lecturer, Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Annotatsiya: *O'zbek adabiyotida yolg'izlik konsepti ko'pincha muayyan hissiy holatni yoki kishilar o'rtasidagi bog'lanishni ifodalashda ishlatiladi. Misol uchun, maqollar va matallarda ajralish yoki yo'qotishning ma'nosi va ta'siri ko'rsatiladi. Bu yerda til vositalari, asosan, odamning ruhiy holatini yoki ijtimoiy tajribasini anglatish uchun ishlatiladi. O'zbek xalq maqollarida yolg'izlikning ruhiy ta'siri aks ettiriladi: "Yolg'izlik – o'z yuragining iztirobi", "Ayriliq dardi – yelg'in bo'lib to'kilgan yoshlar". Yolg'izlik konsepti badiiy matnlarda ko'pincha majoziy ifodalar, metaforalar, o'xshatish kabi badiiy vositalar yordamida ta'riflanadi.*

Kalit so'zlar: *yurak iztirobi, lingvopragmatika, konseptual doira, faktorli tahlil, patologik hodisa, aloqa mexanizmi, fard, ontologik mohiyat.*

Аннотация: *В узбекской литературе концепт одиночества часто используется для выражения определённого эмоционального состояния или межличностной связи. Например, в пословицах и поговорках отражается смысл и влияние разлуки или утраты. Здесь языковые средства в основном служат для передачи психологического состояния человека или его социального опыта. В узбекских народных пословицах проявляется психологическое воздействие одиночества: «Одиночество – мука собственного сердца», «Боль разлуки – слёзы, проливаемые одиноко». В художественных текстах концепт одиночества чаще всего описывается с помощью метафорических выражений, сравнений и других художественных средств.*

Ключевые слова: *мука сердца, лингвопрагматика, концептуальная сфера, факторный анализ, патологическое явление, механизм коммуникации, личность, онтологическая сущность.*

Abstract: *In Uzbek literature, the concept of solitude is often used to express a specific emotional state or interpersonal connection. For example, proverbs and sayings reflect the meaning and impact of separation or loss. Linguistic means here primarily serve to convey a person's psychological state or social experience. In Uzbek folk proverbs, the psychological effect of solitude is highlighted: "Solitude is the anguish of one's own heart," "The pain of separation – tears shed alone." In literary texts, the concept of solitude is often described through figurative expressions, metaphors, and artistic devices.*

Key words: *anguish of the heart, linguopragmatics, conceptual domain, factor analysis, pathological phenomenon, communication mechanism, individual, ontological essence.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Yolg‘izlik kasallik sifatida emas, balki muqarrar ravishda odamga hamroh bo‘ladigan holat sifatida qaraladi. Biroq R.S. Veys yolg‘izlikni patologiya emas, balki hayotdagi qiyinchiliklarga reaktsiya holati va bu ijtimoiy muvaffaqiyatsizlikning belgisi deb biladi. Bu R.S. Veysning bu qarashi amerika turmush tarzining atributi sifatida “ijtimoiy muvaffaqiyat” ga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. B.Miyuskovich yolg‘izlik patologiya emasligini tushuntirib, R.S.Veys tushunchasini tanqid qiladi. Bu hodisa chuqur ekzistensial holat ekanligini ko‘rsatadi. Bu insonning ontologik mohiyatiga daxldor bo‘lib, uning o‘zini anglashining ifodasidir. Ushbu fikr shunisi bilan muhim-ki, insonning yolg‘izlikni yengish qobiliyati uning onggiga bog‘liq. R.S.Veysning yolg‘izlikni o‘rganish klinik xarakterga ega bo‘lib, u ajrashgan va beva ayollar uchun seminarlar tashkil etgan. Uning tadqiqotlari yolg‘izlikni insonga xos hodisa sifatida tasvirlaydi, uning sabablari esa shaxsning ichki holatiga hamda tashqi vaziyatga bog‘liqdir. R.S.Veys modeliga ko‘ra, yolg‘izlikning asosiy sabablari shaxs boshdan kechirayotgan voqealar bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyat belgilaridir. Ushbu model zamonaviy tizimlar nazariyasiga, xususan I.G.Millerning tizimlari nazariyasiga asoslangan. I.G.Millerning ishi tirik tizimlarni o‘rganishda ishlatilishi mumkin bo‘lgan umumiy konseptual doiralarni yaratadi. Bu turli xil tizimlarning, masalan, supertizimlar, subsistemalar yoki parallel tizimlarning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rishga imkon beradi. Barqarorlik esa organizmning normal funksiyasi uchun muhim omil hisoblanadi [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Fikr-mulohaza mexanizmi bu barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu mexanizmda ijobiy va salbiy aloqa turlarining roli mavjud. Ijobiy aloqa tizimdagi muvozanatni tiklashga yordam beradi, salbiy aloqa esa tizimni yangi muvozanat holatiga yo‘naltirish orqali o‘zgarishga hissa qo‘shadi.

Ernest Hemenguey “A Clean, Well-Lighted Place” hikoyasida mazkur konseptni salbiy aloqa turini yaxshi izohlab bera oladi:

– Fear for his soul.

– How much money has he got?

– He’s got plenty.

– He must be eighty years old.

– Anyway I should say he was eighty.

– I wish he would go home. I never get to bed before three o‘clock. What kind of hour is that to go to bed?

– He stays up because he likes it.

– He’s ***lonely****. I’m not* ***lonely****. I have a wife waiting in bed for me.*

– He had a wife once too.

– A wife would be no good to him now.

– You can’t tell. He might be better with a wife.

– His niece looks after him. You said she cut him down.

– I know.

– I wouldn’t want to be that old. An old man is a nasty thing.

– Not always. This old man is clean. He drinks without spilling. Even now, drunk. Look at him [2].

Tadqiqotchining ta’kidlashicha, atrof-muhitning reaksiyasiga e’tibor bermasdan, yolg‘izlikni yetarli darajada tasvirlash juda qiyin. Natijada, olimning fikriga ko‘ra, yolg‘izlikni ko‘p faktorli tahlil qilish kerak. Shunday qilib, yolg‘izlik odamga inson aloqalarining maqbul darajasini saqlab qolishga yordam beradi, bu esa adaptiv teskari aloqa mexanizmi bo‘ladi.

MUHOKAMA(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). Shubhasiz, I.P. Flanders modeli yolg‘izlikning ko‘plab funksional ekvivalent, ammo konseptiologik jihatdan har xil shakllarini tavsiflash uchun juda mos keladi. Masalan, odam yolg‘izlikni boshdan kechirayotgan bir paytda turli xil his-tuyg‘ularning namoyon bo‘lishi yolg‘izlik atributlari sifatida aniqlanishi mumkin. Shunday qilib, ijtimoiy o‘zaro ta’sirning istalgan va erishilgan darajasini yoki uni o‘rnatishdagi muvaffaqiyatsizlikni tahlil qilish mumkin bo‘ladi. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, yolg‘izlik ogohlantirish tizimi sifatida qaraladi. U mavjud muvozanat tizimini tiklash va barqarorlashtirishga qaratilgan. Ushbu funksiya “salbiy aloqa” deb ataladigan narsa yordamida amalga oshiriladi. Yolg‘izlik konsepti yordamida shaxs muvozanat holatini yaxshilashi mumkin, chunki yolg‘izlik motivatsion kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Bu funktsiyaga “ijobiy aloqa” deb ataladigan narsa orqali erishiladi [3].

Flanders uchun yolg‘izlik patologik hodisa emas. U yolg‘izlikni mavjud muvozanatning yetishmasligi deb biladi. Ushbu kamchilik har qanday tizim darajasida ifodalanishi mumkin. Ushbu model yolg‘izlik, teskari aloqa mexanizmining bir turi bo‘lib, prinsipial jihatdan tuzatib bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, u inson farovonligiga hissa qo‘shadi. Tizim nazariyasi nafaqat xatti-harakatlarning motivlarini tushuntiradi, balki yolg‘izlik tuyg‘usini yengillashtirishning ba’zi usullariga ham ishora qiladi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Erkin A’zamning “Yolg‘iz” qissasida ham arab tilidan o‘zlashgan yolg‘iz so‘ziga ma’nodosh **“fard”** tushunchasi qo‘llangan:

*– Yo, alhazar! – deya nola chekib yubordi Abdulla qariyb tovush chiqarib. – Hushimdan ketib qolmay-da. O‘zing madad ber, o‘zing! O‘zing bor – **fardlik** begona bandangga, Parvardigor! O‘zing asra!*

– Ilonni asfalosofilinga jo‘natgan mashimi?

Abdulla tushunmadi, vaholanki, juda tanish so‘z-ku – Ilon. Nima?! Qayoqqa jo‘natgan?! Nega u jo‘natadi Ilonni asfalosofilinga?! Qanday qilib?!

– Buni yozuvchi deb, g‘ippa bo‘g‘ishga qo‘li bormagan u so‘takning. Bu esa uni ayab o‘tirmagan – tinchitgan-qo‘ygan! Qorong‘i burchakda g‘o‘ng‘illagan, to‘ng‘illagan, serqavat qo‘lansa so‘zlar burqsidi. – Abdullaning boshi, boshi aralash ko‘zi, ko‘zi aralash shuuri jazillab achisha ketdi. – Beri ke, turqingni ko‘rsat! (Yolg‘iz)

Erkin A’zam nasriy matnlarda inson yolg‘izligi va hijron tushunchalarini yorqin tasvirlaydi. Hikoyaning nomi ham u qanday tuyg‘u haqida ekanini ko‘rsatadi.

Bundan shunday xulosa qilish mumkin-ki, o‘zbek mentalitetida inson yolg‘iz qolmasligi, yolg‘iz yurmasligi lozim [4].

O‘zbek nasriy asarlarida ham yolg‘izlik va ayriliq tushunchalari badiiy talqin qilinadi. Masalan, Nazar Eshonqulning “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasida Bayna momoning yolg‘izligi quyidagicha tasvirlandi: “*U ba’zida qishloqdoshlarini ochiq masxara qilardi: “E, senmisan, Salom ko‘sa, xotiningning ishtonini kiyib yuribsanmi deyman”, “Hakim otchopormisan, buncha urg‘ochi baytalga o‘xshab qiyshanglaysan...”, “Bu qishloqning ayollari endi faqat xezalak tug‘adi”. Bu masxara va nafrat yillar o‘tishi bilan Bayna momoni qishloqdan butunlay ajratib qo‘ydi.* ***Endi u yolg‘iz va kimsasiz qoldi. Uni oylab birov yo‘qlamas, faqat ertalab echkilarini yulg‘unzorga haydab, borayotganidan, kechqurunlari qishloqni tutgan qaynayotgan sut hididan hali uning tirik ekanini bilishardi.***

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek adabiyotida “yolg‘izlik” konsepti nafaqat insonning ruhiy holatini ifodalash vositasi, balki ijtimoiy va madaniy tajribani yetkazuvchi lingvopragmatik birlik sifatida ham faol ishlatiladi. Maqollar, matallar va badiiy matnlarda yolg‘izlik ko‘pincha metaforik va majoziy ifodalar orqali ta’riflanadi, bu esa o‘quvchi yoki tinglovchida kuchli emotsional ta’sir uyg‘otadi.

Yolg‘izlikning lingvopragmatik tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu konsept inson fardi, uning hissiy tajribasi va ijtimoiy aloqalari bilan uzviy bog‘liqdir. O‘zbek adabiyotidagi yolg‘izlik obrazlari ko‘pincha ontologik mohiyatga ega bo‘lib, insonning ichki dunyosi va jamiyat bilan munosabatini ochib beradi. Shu bilan birga, ingliz badiiy matnlari bilan qiyosiy tahlil konsepsiyaning madaniy va lingvistik jihatdan turlicha shakllanishini, shuningdek, har bir til va madaniyat kontekstida uning emotsional va kommunikativ funksiyasining farqliligini namoyon qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Eshonqul N. *Shamolni tutib bo‘lmaydi*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 176 b.
2. Hemingway, E. A Clean, Well-Lighted Place. – In: Hemingway, E. Winner Take Nothing. – New York: Charles Scribner’s Sons, 1933. – P. 349–355.
3. Peplau L. A., & Perlman, D. (Eds.). *Loneliness: A Sourcebook of Current Theory, Research and Therapy*. New York: Wiley-Interscience, 1982.
4. Sobirjonova M. O‘zbek va ingliz tillaridagi aforizmlarda “Yolg‘izlik” va “Hijron” konseptlari. Tamaddun nuri jurnali, *12*(63), 2024. – B. 41-43.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 821.111.09-46

REKLAMA MATNLARIDA KONNOTATIV BIRLIKLARNING KOMMUNIKATIV VAZIFASI

Dilshod Bobojonov Jumaqul o'g'li,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti katta o'qituvchisi, (PhD)

КОММУНИКАТИВНАЯ ФУНКЦИЯ КОННОТАТИВНЫХ ЕДИНИЦ В РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТАХ

Дилшод Бобожонов Джумакул оглы,
старший преподаватель Денауского института предпринимательства и педагогики, (PhD)

THE COMMUNICATIVE FUNCTION OF CONNOTATIVE UNITS IN ADVERTISING TEXTS

Dilshod Bobojonov Jumakul ogli,
Senior Lecturer, Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, (PhD)



https://orcid.org/0009-0005-4216-3806
e-mail: dilshod.bobojonov.8007@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada reklama matnlarida konnotativ birliklarning kommunikativ vazifasi tahlil qilinadi. Muallif konnotatsiyalarning reklama mazmuniga ta'sir etishi, auditoriyada muayyan emotsional munosabat uyg'otishi hamda mahsulot yoki xizmatning ijobiy qiyofasini shakllantirishdagi o'rnini yoritadi. Shuningdek, reklama tilida qo'llaniladigan baholovchi, obrazli va assotsiativ birliklarning pragmatik ahamiyati, ularning brend qabul qilinishiga ta'siri ilmiy asosda izohlanadi.*

Kalit so'zlar: *reklama, konnotatsiya, konnotativ birliklar, kommunikativ vazifa, pragmatika, assotsiativ ma'no, reklama tili.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается коммуникативная функция коннотативных единиц в рекламных текстах. Автор анализирует влияние коннотаций на содержание рекламы, их роль в формировании эмоционального отклика аудитории и создании позитивного образа товара или услуги. Особое внимание уделяется прагматическим особенностям оценочных, образных и ассоциативных единиц, используемых в рекламном дискурсе, а также их воздействию на восприятие бренда.*

Ключевые слова: *реклама, коннотация, коннотативные единицы, коммуникативная функция, прагматика, ассоциативное значение, язык рекламы.*

Abstract: *This article examines the communicative function of connotative units in advertising texts. The author analyzes how connotations influence the content of advertisements, evoke emotional responses in the audience, and contribute to shaping a positive image of a product or service. Particular attention is given to the pragmatic value of evaluative, figurative, and associative expressions used in advertising discourse, as well as their role in brand perception.*

Key words: *advertising, connotation, connotative units, communicative function, pragmatics, associative meaning, advertising language.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Bugungi kunda reklama kommunikatsiyasining samaradorligi nafaqat mahsulot yoki xizmat haqidagi axborotga, balki iste'molchida uyg'otiladigan hissiyotlar, tasavvur va qadriyatlar tizimiga bog'liq bo'lib qolgan. Reklama matnlari so'zning mazmuniy jihatlarini kengaytiruvchi turli lingvistik vositalar orqali auditoriya bilan muloqot qiladi. Shu jumladan, konnotativ birliklar reklama tilida alohida ahamiyat kasb etadi. Ular mahsulotni raqobatchilardan ajratish, auditoriyada ijobiy emotsional kayfiyat yaratish, xaridorga ishonch va

qiziqish uyg‘otish orqali kommunikativ jarayonning samaradorligini oshiradi.

Tilshunos olimlar konnotatsiyani emotsional, baholovchi, ekspressiv va assosiativ turlarga ajratib, ularning reklama matnidagi rolini tadqiq qilganlar. Hozirgi kunda, global va milliy reklama matnlari konnotativ vositalarni turlicha qo‘llaydi: ingliz reklamalari ko‘proq metaforik va kognitiv asosli konnotatsiyalardan foydalansa, o‘zbek reklamalari madaniy-assosiativ birliklarga tayangan holda milliy qadriyatlarni targ‘ib qiladi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqola reklama matnlarida konnotativ birliklarning kommunikativ vazifalarini aniqlash, ularning auditoriya idrokiga ta’sirini tahlil qilish va turli tillardagi reklama matnlari misolida solishtirma tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqot natijalari reklama tilining funksional va pragmatik imkoniyatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi hamda reklama matnlarini yaratish jarayonida lingvistik vositalardan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Zamonaviy axborot makonida reklama kommunikatsiyasi inson ongiga ta’sir ko‘rsatishning eng kuchli vositalaridan biri sanaladi. Reklama nafaqat mahsulot yoki xizmat haqida ma’lumot beradi, balki auditoriya ongida ma’lum emotsional munosabat shakllantiradi, e’tibor jalb qiladi, iste’molchining qaror qabul qilish jarayoniga ta’sir etadi. Bu jarayonda konnotativ ma’noga ega til birliklari muhim rol o‘ynaydi. Konnotatsiya reklama matnida baholovchi, emotsional, ekspressiv va assosiativ ma’noni kuchaytiradi, natijada reklama matni yanada ta’sirchan bo‘ladi [1].

Reklama matnlari tili boshqa matnlarga nisbatan ko‘proq baholovchan, emotsional va ekspressiv bo‘lib, unda konnotativ birliklar iste’molchida kerakli kayfiyat, ijobiy tasavvur va mahsulotga nisbatan iliq munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi globallashuv sharoitida reklama tilidagi konnotativ birliklarning vazifalari faqatgina tilshunoslik emas, balki marketing, psixologiya va kommunikatsiya nazariyalari kesimida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Konnotatsiya tilshunoslikda so‘zning asosiy, ya’ni denotativ ma’nosidan tashqari, unga yuklangan qo‘shimcha emotsional, baholovchi yoki assosiativ ma’nolar yig‘indisi sifatida izohlanadi. Semiotik yondashuvda konnotatsiya belgining qo‘shimcha ideologik yoki madaniy yuklamasi sifatida qaraladi [6].

Tilshunos olimlar konnotatsiyani emotsional, baholovchi, ekspressiv va assosiativ turlarga ajratadilar. Emotsional konnotatsiya shodlik, hayajon, yoqimlilik kabi hissiyotlarni ifodalasa, baholovchi konnotatsiya “eng yaxshi”, “yuqori sifat”, “ishonchli” kabi qiymatlar bilan farqlanadi. Ekspressiv konnotatsiya matnning ta’sirchanligini oshiruvchi kuchli ifoda vositalarini o‘z ichiga oladi. Assosiativ konnotatsiya esa madaniyat, tajriba va stereotiplar asosida shakllanib, “tog‘ havosi → tozalik”, “oltin imkoniyat → boylik” kabi mantiqiy va hissiy bog‘lanishlarni yuzaga keltiradi. Reklama tili aynan ushbu konnotativ ma’nolarning uyg‘un qo‘llanishi bilan ajralib turadi. Reklama matni nafaqat axborot beradi, balki iste’molchida tasavvur, hissiyot, ishonch, orzu va xohishlarni uyg‘otadi [2].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Reklama tilida konnotatsiya kommunikativ jarayonning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, mahsulotni raqobatchilardan ajratish, auditoriyada ijobiy emotsional kayfiyat yaratish hamda xarid istagini kuchaytirish vazifalarini bajaradi. Bu jarayonda turli konnotativ vositalar muhim rol o‘ynaydi.

Birinchidan, reklama matnlarida metafora va assosiatsiyalar keng qo‘llanadi: “hayot quvonchini baxsh etadi”, “tabiatning tozaligi”, “qulayliklar olami” kabi ifodalar mahsulotga nisbatan ijobiy, bilvosita tasavvurlarni shakllantiradi. Ikkinchidan, epitetlar va baholovchi birliklar – “ajoyib ta’m”, “yuqori sifat”, “betakror dizayn”, “eng zo‘r tanlov” kabi iboralar – auditoriyada mahsulot sifati haqida ijobiy fikr hosil qiladi. Uchinchidan, emotsional konnotatsiya kuchli ta’sir kuchiga ega bo‘lib, “aqlli tanlov”, “oila isishini ta’minlaydi”, “baxt ulashadi” kabi iboralar inson hissiyotlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik tadqiqotlar xarid qarorlarining qariyb 70 foizi emotsional omillar ta’sirida shakllanishini ko‘rsatadi [5].

TAMADDUN NURI

Raqamli reklamalarda – Telegram, Instagram va internet-bannerlarda – qisqa, ammo ta'sirchan konnotativ birliklar qo'llaniladi: "Cheklangan aksiya!", "Faqat bugun!", "Eng qulay narx!", "Oilaviy farovonlik uchun" kabi iboralar shoshilish hissi, foydali imkoniyatni qo'ldan boy bermaslik istagi yoki oilaviy mas'uliyat kabi emotsional reaksiyalarni faollashtiradi [3].

O'zbek va ingliz reklamalarida konnotatsiyalardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari mavjud. Ingliz reklamalarida metaforik va kognitiv asosli konnotatsiyalar ustun: "Taste the feeling" (Coca-Cola), "Impossible is nothing" (Adidas), "Because you're worth it" (L'Oréal). O'zbek reklamalarida esa madaniy-assosiativ birliklar ko'proq uchraydi: "Oila isishini ta'minlaydi", "Sog'lom avlod uchun", "Ona mehri kabi yumshoq". Bu farqlar milliy qadriyatlar iste'molchi idrokiga qanday ta'sir qilishini yaqqol namoyon etadi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Konnotativ birliklarning reklama matnidagi kommunikativ vazifalari ham turlicha. Avvalo, ekspressiv birliklar auditoriya e'tiborini jalb qilishga xizmat qiladi. Emotsional konnotatsiya mahsulotga nisbatan iliq munosabat va ishonch uyg'otadi. Metafora va epitetlar brend imidjini ijobiy obrazda shakllantiradi. Baholovchi konnotatsiyalar esa xaridorni qaror qabul qilishga undaydi: "eng qulay narx", "hamyonbop", "imkoniyatni qo'ldan boy bermang" kabi iboralar bunga misoldir. Shuningdek, o'zbek reklamalarida milliy qadriyatlar – "oila", "farovonlik", "totuvlik" – konnotatsiyaning lingvokulturologik funksiyasini kuchaytiradi. Ba'zi iboralar esa ijtimoiy stereotiplarni faollashtirib, maqsadli auditoriyaga aniq yo'naltiriladi: "yoshlar tanlovi", "zamonaviy ayollar uchun", "sog'lom hayot tarziga intiling" [4].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Reklama matnlarida konnotativ birliklar kommunikativ jarayonning ajralmas qismi bo'lib, auditoriyaga ta'sir ko'rsatishning eng samarali vositalaridan biridir. Konnotativ birliklar reklama matnining maqsadini amalga oshirishga xizmat qiladi: auditoriyaning e'tiborini jalb etadi, emotsional ta'sirni kuchaytiradi, mahsulot haqidagi tasavvurni ijobiylashtiradi, brend imidjini shakllantiradi va xarid qarorini rag'batlantiradi.

O'zbek va ingliz reklamalarining qiyosiy o'rganilishi shuni ko'rsatadiki, har ikki til reklamasida konnotatsiya muhim rol o'ynaydi, biroq ularning ifodalash usuli milliy-madaniy qadriyatlar va auditoriya psixologiyasiga ko'ra farqlanadi. Raqamli medialarning kengayishi esa konnotativ birliklar vazifasini yanada kuchaytirib, reklama matnini qisqa, ta'sirchan va mantiqan lo'nda shaklga olib kelmoqda.

Shu sababli konnotativ birliklarning reklama kommunikatsiyasidagi roli tilshunoslik, psixologiya, marketing va medialingvistika kesimida hamon dolzarbligini saqlab qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Halliday M. A. K., Hasan R. Language, Context and Text. London: Oxford University Press, 1989.
2. Арнольд И. В. Стилистика современного английского языка. – Москва: Флинта, 2014.
3. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Искусство, 2003.
4. Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. – Москва: КомКнига, 2005.
5. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002.
6. Крысин Л. П. Современный русский язык: Лексикология. — Москва: Академия, 2012.
7. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живём. — Москва: УРСС, 2004.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 821.111.09-31

OPA-SINGIL BRONTELAR ROMANLARIDA BADIIY PSIXOLOGIZMNING ICHKI MONOLOG TASVIRI

Rashidova Feruza Rasulovna, Namangan davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

THE DEPICTION OF INTERNAL MONOLOGUE AS A FORM OF ARTISTIC PSYCHOLOGISM IN THE NOVELS OF THE BRONTË SISTERS

Rashidova Feruza Rasulovna, Namangan State University, Associate Professor, (PhD)

ИЗОБРАЖЕНИЕ ВНУТРЕННЕГО МОНОЛОГА КАК ФОРМЫ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПСИХОЛОГИЗМА В РОМАНАХ СЕСТЁР БРОНТЕ

Рашидова Феруза Расуловна, доцент Наманганского государственного университета, доктор философии по филологическим наукам

https://orcid.org/0009-0008-7579-8658
e-mail: feruza.rashidova.uz@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada opa-singil Sh.Bronte va E.Bronte romanlarida ichki monologning badiiy psixologizm vositasi sifatida yoritilgani tahlil qilinadi. Shuningdek, asarlarda qahramonlarning ichki nutqi orqali qahramonlarning axloqiy, hissiy va ruhiy kechinmalari yoritib berilgani muhokama qilinadi.*

Kalir so‘zlar: *ichki monolog, badiiy psixologizm, Bronte opa-singillar, Viktoriya davri adabiyoti, realizm, ong oqimi.*

Abstarct: *The article analyzes how Charlotte and Emily employ internal monologue as a means of artistic psychologism in their novels, revealing the moral, emotional, and psychological experiences of their characters.*

Key words: *В статье анализируется использование внутреннего монолога как средства художественного психологизма в романах Шарлотты, Эмили где раскрываются нравственные, эмоциональные и психологические переживания героев.*

Ключевые слова: *внутренний монолог, художественный психологизм, сёстры Бронте, викторианская литература, реализм, поток сознания.*

Kirish. Badiiy adabiyotda qahramon obrazini mukammal shakllantirish jarayonida uning tashqi ko‘rinishi bilan bir qatorda ichki ruhiy olamini ham tahliliy yoritish muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning tashqi harakati ortida uning ichki kechinmalari, tuyg‘ulari va fikrlari yotadi. Shu bois yozuvchilar asarlarida qahramonlarning ichki olamini ochib berishga intilganlar. Bunday holatni tasvirlashda badiiy psixologizm muhim o‘rin tutadi[9]. Badiiy psixologizm qahramonning ruhiy kechinmalarini, ichki ziddiyatlarini va fikrlar oqimini tasvirlash orqali inson tabiatining murakkab tomonlarini yoritishga xizmat qiluvchi vosita hisoblanadi.

Badiiy psixologizmni ifodalovchi asosiy vositalardan biri bu — ichki monologdir. Ichki monolog qahramonning o‘ziga murojaat qilgan, so‘z bilan ifoda etilmagan, ammo ruhiy kechinmalarini namoyon etuvchi ichki nutqidir. U o‘quvchiga qahramonning fikrlari, hissiyotlari va ichki iztiroblarini bevosita anglash imkonini beradi.

Ichki monolog qadimgi dramaturgiyadan boshlab ma’lum bo‘lib, Uyg‘onish davridan e’tiboran keng qo‘llanila boshlagan. Ushbu usul orqali yozuvchilar qahramon ruhiyatini, uning ichki kurashlari va kechinmalarini bevosita ifodalash imkoniga ega bo‘ldilar. Shu bois ichki monolog adabiyotda qahramonning ichki olamini ochib beruvchi asosiy badiiy vositaga aylandi hamda Bronte opa-singillar ijodida badiiy psixologizmning yetakchi ifoda shakliga aylandi.

Ayniqsa, ingliz adabiyotida Sharlotta, Emili va Enn Bronte ichki monolog usulini yuksak badiiy darajaga olib chiqqan ijodkordirlar. Ular o‘z romanlarida insonning axloqiy tanlovi, muhabbat, erkinlik va ichki kurashlarini qahramonning ichki ovozi orqali yoritadilar. Ayniqsa, *“Jeyn Eyr”(Jane Eyre)*, *“Shaharcha”(Vilette)* va *“Momaqaldiroqli dovon”(Wurthering Heights)* asarlarida ichki monolog qahramonlarning ruhiy kechinmalari va ma’naviy o‘sishini keng yoritib beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ichki monolog va badiiy psixologizm masalalari jahon adabiyotshunosligida uzoq tarixga ega. Bu mavzuni ilk bor tizimli o‘rganishga uringan olimlardan biri E.Dyujarden bo‘lib, u *“Le Monologue intérieur”* (1931) asarida ichki monologning shakllanishi va adabiyotdagi o‘rni haqida ilmiy asos yaratgan[6]. Uning tadqiqoti ichki monologni inson tafakkurining tabiiy oqimi sifatida talqin etish imkonini berdi.

Bundan tashqari, XX asrda bu yo‘nalish R.Hamfrining *“Stream of Consciousness in the Modern Novel”* (1954) asari bilan yanada chuqurlashdi. U ichki monolog va ong oqimi o‘rtasidagi farqni aniq ajratib, ichki monologni nazoratlangan, sintaktik jihatdan shakllangan nutq turi sifatida belgiladi[7]. D.Kon esa *“Transparent Minds”* (1978) asarida ichki monologni ongni ifodalovchi turli adabiy shakllar bilan qiyoslab, uni psixologik tahlilning eng samarali vositasi deb baholagan[5].

Adabiyotshunoslikning rus maktabida esa, M.Baxtin (1984) Dostoyevskiy ijodida ichki nutqning polifonik tabiati va ko‘p ovozlilik tamoyilini tahlil qilgan[1]. Bu yondashuv ichki monologni nafaqat individual fikr, balki ijtimoiy-axloqiy pozitsiyalar o‘rtasidagi ichki dialog sifatida talqin etish imkonini berdi.

O‘zbek adabiyotshunosligiga kelsak, D.Quronov o‘zining *“Adabiyotshunoslik atamalar lug‘ati”* (2013) manbasida ichki monolog “personajning moddiylashmagan, o‘ziga qaratilgan va ichida kechuvchi nutqi; badiiy psixologizmning bevosita shakli” sifatida izohlanadi[8]. Bu ta’rif ichki monologni badiiy psixologizmning markaziy unsuri sifatida belgilaydi.

Metodologik jihatdan ushbu maqolada qiyosiy-tahliliy va psixologik interpretatsiya usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida Bronte opa-singillar — Sharlotta, Emili va Enn Bronte — asarlaridagi ichki monolog namunalari o‘rganildi hamda ular orqali qahramonlarning hissiy va axloqiy holati tahlil qilindi. Asosiy e’tibor *“Jeyn Eyr”*, *“Shaharcha”* va *“Momaqaldiroqli dovon”* romanlarida ichki nutqning personaj ruhiyatini ochishdagi roliga qaratildi. Tadqiqot jarayonida ichki monologning badiiy-funksional vazifasi, psixologik ifoda imkoniyatlari, hamda realizm va modernizm oralig‘idagi o‘tish shakllari aniqlanib, Bronte asarlarining ingliz psixologik romanchiligi taraqqiyotidagi o‘rni belgilandi.

Asosiy natijalar va muhokama. Bronte opa-singillar asarlari ingliz adabiyotida inson ruhiyatini badiiy tahlil qilishning yangi bosqichini boshlab berdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ularning romanlarida ichki monolog inson qalbining eng chuqur qatlamlarini ochib beruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Qahramonlar o‘z his-tuyg‘ularini, qarorlarini, shubha va iztiroblarini aynan ichki nutq orqali ifoda etadilar. Fikrimizning dalili sifatida Sh.Brontening “Jeyn Eyr” romanida ichki monolog yordamida bosh qahramonning ruhiy o‘sishini va mustaqil shaxsga aylanish istagini namoyon etish uchun yozuvchi bosh qahramon Jeynning ichki nutqini qo‘llaydi. Asarning har bir dramatik nuqtasida ushbu qahramon ichki nutqi muhim rol o‘ynaydi. U o‘zini sinovlar, muhabbat va axloqiy tanlovlar orasida izlaydi:

“Men Xudo tomonidan berilgan qonunga amal qilaman; odamlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan tamoyillarimga sodiq qolaman, hatto bu meni baxtdan mahrum etsa ham” [2].

Bu ichki monologda Jeynning hissiy holati bilan bir qatorda uning axloqiy qarori ham yoritiladi. U o‘z ongida kurash olib boradi, lekin hal qiluvchi so‘zni vijdoni aytadi. Shu tarzda ichki monolog qahramonning mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllanishini ifodalaydi.

Sh.Brontening yana bir ichki monologga boy romani bu “Shaharcha” asari bo‘lib, romanda Lusi Snou ichki monolog orqali o‘z his-tuyg‘ularini nazorat ostida ushlab turishga intilganini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. U ko‘pincha o‘zini tahlil qiladi, hislarini yashiradi, lekin ichki nutq orqali o‘quvchi uning ruhiy og‘rig‘ini sezadi:

“Aqlim qat’iy, u jilovni qo‘limdan chiqarmaydi; hislarimni ozod qilish — bu zaiflikdir” [3].

Lusi uchun ichki monolog — bu o‘zini himoya qilish vositasi. U orqali Bronte ayol ruhiyatining murakkabligiga e’tibor qaratadi: inson nafaqat his qiladi, balki hislarini boshqarishga ham intiladi. Bu jihat *Viktoriya davri* ayol obrazining psixologik tahliliga yangi yondashuv olib kirgan.

Sh.Bronte bilan bir qatorda uning singlisi Emili Bronte ham o‘zining *“Momaqaldiroqli dovon”* romanida ichki monologni insonning instinktiv, ongsiz kechinmalarini ifodalash vositasiga aylantiradi. Asar bosh qahramoni Ketrin Ernsxouning mashhur so‘zlari bu holatni aniq ko‘rsatadi:

“Men Xitklifman! U har doim xayolimda. Bu menga huzur bermaydi, lekin o‘zimni o‘zim kabi his qilaman” [4].

Bu ichki monologda mantiq va aql yo‘q — u sof his-tuyg‘ular oqimidir. Ketrinning o‘zini Xitklif bilan aynanlashtirishi orqali muallif inson tabiatining ongsiz qatlamini ochib beradi. Shu tarzda Emili Bronte ichki monologni “ong oqimi” uslubining dastlabki shakli sifatida qo‘llagan.

Opa-singillar asarlarida psixologik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ular ijodida ichki monologning o‘ziga xos turli shakllarini kuzatish mumkin bo‘ladi. Jumladan, Sharlotta Bronte uchun ichki monolog — bu axloqiy o‘zini anglash vositasi bo‘lsa, Emili Bronte uchun esa — hissiy portlash va ongsiz holat ifodasidir.

Shu bilan ular badiiy psixologizmning ikki shaklini yaratadilar: mantiqiy-axloqiy tafakkur va instinktiv-hissiy kechinma. Bronte asarlari keyinchalik V.Vulf**,** J.Joys va U.Folkner asarlarida rivojlangan ichki monologning zamonaviy shakliga zamin yaratgan.

Xulosa. Opa-singil Brontelar ijodi ingliz adabiyotida badiiy psixologizmning yuksak namunasini yaratdi. Ularning asarlarida ichki monolog inson ruhiy olamini ochib beruvchi asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. *Sharlotta Bronte* o‘z asarlarida ichki monolog orqali insonning axloqiy tanlovi va vijdon ovozini ifodalagan. *“Jeyn Eyr”*, *“Shaharcha”* romanlarida qahramonlar o‘z ongidagi kurash, ichki tahlil va hissiy o‘zgarishlar orqali o‘quvchiga yaqinlashsa, *Emili Bronte* esa ichki monologni hissiy kuch va ongsiz holatning ifodasi sifatida qo‘llaydi. *“Momaqaldiroqli dovon”* romanida ehtiros, g‘azab va muhabbat bir butun ruhiy oqim sifatida ifodalanadi.

Shu bilan Bronte opa-singillar asarlarida ichki monolog realizm va modernizm oralig‘ida joylashgan o‘tish bosqichi sifatida namoyon bo‘ladi. Ular ichki monolog yordamida inson ruhiyatining axloqiy, hissiy va ongsiz qatlamlarini ochgan holda ingliz psixologik romanchiligining shakllanishiga katta hissa qo‘shgan ayol yozuvchilardir.

Natijada, ichki monolog bugungi adabiyotda ham badiiy psixologizmning eng samarali ifoda shakli sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bakhtin M. *Problems of Dostoevsky’s Poetics.* — Minneapolis: University of Minnesota Press, 1984.
2. Brontë C. Jane Eyre. — London: Smith, Elder & Co., 1847. — 554 p.
3. Brontë C. Villette. — London: Smith, Elder & Co., 1853. — 496 p.
4. Brontë E**.** Wuthering Heights. — London: Thomas Cautley Newby, 1847. — 416 p.
5. Cohn D. *Transparent Minds: Narrative Modes for Presenting Consciousness in Fiction.* — Princeton: Princeton University Press, 1978.
6. Dujardin E. *Le Monologue intérieur: Son apparition, ses origines, sa place dans l'œuvre de James Joyce.* — Paris: Librairie de l’Art Indépendant, 1931.
7. Humphrey R. *Stream of Consciousness in the Modern Novel.* — Berkeley: University of California Press, 1954.
8. Quronov D. (tahr). *Adabiyotshunoslik atamalar lug‘ati.* — Toshkent: Akademnashr, 2013. — 126-bet.
9. Rashidova F.R. *Viktoriya davri adabiyotida badiiy psixologizm umumiy muammo sifatida. // Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika.* – 2024. – 3-maxsus son. – B. 169–178.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 94.05

SHARQ MAMLAKATLARIDA POYTAXT SHAHARLARNI KO‘CHIRISH SIYOSATI: OMILLAR VA SABABLAR

Bayqabilov Xusnudin Mardanovich, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi” kafedrasi mustaqail izlanuvchisi, geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

https://orcid.org/0000-0002-0094-6013
e-mail: xusnudin-bayqabilov@mail.ru

POLICY OF RELOCATING CAPITAL CITIES IN EASTERN COUNTRIES: FACTORS AND CAUSES

Baykabilov Khusnudin Mardanovich, Shakhrisabz State Pedagogical Institute Associate Professor of the Department of Geography, Doctor of Philosophy in Geography (PhD)

ПОЛИТИКА ПЕРЕНОСА СТОЛИЦ В СТРАНАХ ВОСТОКА: ФАКТОРЫ И ПРИЧИНЫ

Байкабилов Хуснудин Марданович, независимый соискатель кафедры «История и антропология стран Востока» Ташкентского государственного университета востоковедения, доктор философии (PhD) по географическим наукам, доцент

Annotatsiya: *maqolada poytaxt shaharlarni ko‘chirish siyosati va ularning omillari, sabablari jahon tarixidagi muayyan sharq mamlakatlari misolida yoritilgan.*

Калит сўзлар: *poytaxt, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Putrajaya, Nusantaroy, Neypido, Isfahon, кўчириш сиёсати, harbiy va xalqaro siyosat, ekologiya, iqtisodiy va ijtimoiy sohalar, tabiiy ofatlar.*

Abstract: *The article discusses the policy of moving capital cities and their factors and reasons on the example of certain eastern countries in world history.*

Key words: *capital, Samarkand, Bukhara, Tashkent, Putrajaya, Nusantara, Naypyidaw, Isfahan, resettlement policy, military and international politics, ecology, economic and social sectors, natural disasters.*

Аннотация: *В статье рассматривается политика переноса столиц и ее факторы и причины на примере отдельных восточных стран в мировой истории.*

Ключевые слова: *столица, Самарканд, Бухара, Ташкент, Путраджая, Нусантара, Нейпьидо, Исфахан, политика переселения, военная и международная политика, экология, экономический и социальный секторы, стихийные бедствия.*

Kirish. Poytaxt shaharlar alohida boshqaruv tartibi bo‘lgan mustaqil ma’muriy birlikka ajratiladi. Ko‘pgina federativ davlatlarda poytaxt federatsiyaning biron-bir subyekti hisoblanmaydigan maxsus federal okrug hududida joylashgan bo‘ladi. Muayyan mamlakatlarda poytaxt qayerda bo‘lishi konstitutsiya matnida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatiladi. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 6-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining poytaxti – Toshkent shahri” deyilgan[1]. Shaharlarni ko‘zgu desak, mubolag‘a hisoblanmaydi. Bugungi kunda mamlakatlarning taraqqiyotiga baho beradigan bo‘lsak, uning shaharlariga, xususan, poytaxt shaharlariga qarab xulosa chiqaramiz.

Asosiy qism. Milliy davlatchiligimiz tarixiga ham nazar tashlaydigan bo‘lsak, bir necha marotaba poytaxt ko‘chirilganining guvohi ham bo‘lish mumkin. Jumladan, 1925-yil 13-fevralda o‘tkazilgan Butuno‘zbek sovetlarining birinchi ta’sis qurultoyida “O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilganligi to‘g‘risida”gi deklaratsiya qabul qilinib, mamlakatning ilk poytaxti etib Buxoro shahri belgilangan[1]. 1925-yil aprel oyida poytaxt Buxorodan Samarqand shahriga ko‘chirilgan[2].

1930-yil 17-avgustda O‘zbekiston Ijtimoiy Sho‘ro Jumhuriyati Sho‘rolar Markaziy ijroiya qo‘mitasining “O‘zISHJ poytaxtini Samarqand shahridan Toshkent shahriga ko‘chirish hamda O‘zISHJ asosiy qonunining 114-moddasini o‘zgartish to‘g‘risida”gi 155-qaroriga asosan poytaxt Samarqand shahridan Toshkent shahriga ko‘chirilgan [3] . Mazkur qarorda poytaxtni Samarqand shahridan Toshkent shahriga ko‘chirish zarurati: birinchidan, Toshkentning mamlakatdagi eng yirik iqtisodiy va sanoat markazi ekanligi; ikkinchidan, O‘zbekistonning “bosh paxta rayoni” bo‘lgan Farg‘ona vodiysi bilan aloqa qilish va unga rahbarlik qilish Toshkentdan har tomonlama qulayligi; uchinchidan, O‘zISHJ markaziy idoralari hamda O‘rta Osiyo idoralari bilan bir shaharda turib “yaqin ittifoqda bo‘lish” imkoniyatining mavjudligi bilan asoslantirilgan. Ko‘rib turganimizdek, poytaxt Samarqand shahridan Toshkent shahriga sho‘ro davlatining muhim geosiyosiy strategik maqsadidan kelib chiqib ko‘chirilgan. Shunday qilib, Toshkent shahri O‘zSSR ning poytaxti bo‘lgan bo‘lsa, 1991-yil 31-avgustdan hozirgi kunga qadar suveren O‘zbekiston Respublikasining poytaxti hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy tuzilishiga ko‘ra viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasidan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 28-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi 5-moddasi beshinchi qismida Toshkent shahri tumanlardan iborat ekani qayd etilgan[4]. Biroq har ikkala qonunda ham Toshkent shahri poytaxt, shuningdek, mustaqil ma’muriy hududiy birlik sifatida alohida ko‘rsatilmagan. Bizningcha, poytaxtning mamlakat hayotida asosiy markaz sifatidagi mavqei va ahamiyatini hisobga olgan holda, Toshkent shahrini alohida ma’muriy-hududiy birlik sifatida ko‘rsatish hamda O‘zbekiston Respublikasining poytaxtini belgilash va ko‘chirish tartibiga oid normani qonunchilikka kiritish maqsadga muqofiq.

Xulosa. V.Rossman to‘g‘ri ta’kidlaganidek, poytaxtlarni ko‘chirish – davlatning siyosiy va ijtimoiy hayotini tubdan va har tomonlama o‘zgartiradigan, insoniyat tarixidagi eng ulkan muhandislik loyihalaridan biri hisoblanadi [5] . Shunday ekan, dunyoda poytaxtlarni ko‘chirish tendensiyasi hozirgi kunga qadar saqlanib qolganini ko‘rish mumkin. Jumladan, 2006-yilda Palau davlatining poytaxti Koror shahridan Ngerulmud shahriga, 2019-yilda Burundi davlatining poytaxti Bujumbura shahridan Gitega shahriga ko‘chirilgan[6].

Qozog‘istonning poytaxti 1997-yilda Oqmo‘laga ko‘chirildi [7] . Avvalgi poytaxt Almatidan farqli ravishda yangi poytaxt hududini kengaytirish imkoniyati mavjud, qolaversa, bu yerda zilzila kamroq ro‘y beradi. Poytaxtga yangi – Ostona nomi berildi. Poytaxtning ko‘chirilishi mamlakatning shimoliy hududlarining iqtisodiy rivojlanishiga ko‘maklashdi. Aytish kerakki, Ostonaning qishi anchayin sovuq, shahar Osiyodagi eng shimoliy poytaxt hisoblanadi.

Kuala-Lumpur hozir ham Malayziyaning poytaxti hisoblanadi. Ammo aholi va mashinalarning ko‘payib ketgani tufayli 2002-yilda davlat muassasalari, bosh vazir ma’muriyati va sud instansiyalari poytaxt chetidagi Putrajayaga

[1] Ҳамроев Э. Пойтахтларни белгилаш ва кўчириш тенденцияси ўзига хос хусусиятлар // “Huquq va Burch”, 2020, №9. – B. 16-23. –B. 21.

[2] O‘zMA, P-87-fond, 1-ro‘yxat, 4-yig‘ma jild, 99-varaq.

[3] O‘zMA, P-86-fond, 1-ro‘yxat, 6-yig‘ma jild, 88-varaq.

[4] Ҳамроев Э. Пойтахтларни белгилаш ва кўчириш тенденцияси ўзига хос хусусиятлар // “Huquq va Burch”, 2020, №9. – B. 16-23. – B. 22.

[5] https://cuberleninka.ru/article/n/perenosy-stolits-na-povestke-dnya-sovremennyh-gosudarstv.

[6] Geografiya. 10-sinf. Darslik. V.Fedorko va boshq. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 192 b. – B. 190.

[7] www. wikipedia.org

ko‘chirildi. Bundan maqsad shaharni boshqarishni, fuqarolarning davlat muassasalari va sudlarga murojaat qilishini osonlashtirish edi. Mamlakat parlamenti esa o‘z yig‘ilishlarini hali ham Kuala-Lumpurda o‘tkazadi. Putrajayaga 1995-yilning oktyabrida asos solingan va u mamlakatning ilk bosh vaziri – kelib chiqishi shahzoda bo‘lgan Abdul Rahmon sharafiga ana shunday nomlangan. “Putra” – shahzoda, “jaya” esa shonli degan ma’noni bildiradi[8].

Qirg‘iz Respublikasida ham poytaxtni ko‘chirish taklif qilindi. Qirg‘iz Respublikasida poytaxtni Bishkekdan yangi qurilayotgan Asman shahriga ko‘chirish taklif qilindi. Bunday taklifni Qirg‘iziston Jogorku Keneshi yig‘ilishida deputat B.Maripov ilgari surdi. Deputat tutunga qarshi kurash masalasini ko‘rib chiqib, o‘z fikrini bildirishga qaror qildi. Uning aytishicha, Bishkekda “ikki boshli hokim paydo bo‘lgan taqdirda ham” u poyatxtdagi tutun va tirbandlik muammosini hal eta olmaydi. Issiqko‘l viloyatida Asman shahri qurilmoqda. Buning uchun 10 milliard dollar sarmoya jalb etilmoqda. Bishkekdan temiryo‘lni ko‘chirish uchun esa 550 million dollar talab qilinadi. Va aylanma yo‘l qurilishi bilan birga bu 1 milliard dollardan oshadi, dedi deputat. Shuning uchun, uning fikricha, Bishkekni ko‘chirish va Vazirlar Mahkamasini Asmanga joylashtirish kerak. Shunda B.Maripovning so‘zlariga ko‘ra, tirbandlik bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Амиркул К. Басё юрти мўъжизалари. Публицистика. – Т.: Oltin meros press нашриёти, 2019, – 208 б.
2. Нигматов А.Н., Байқабилов Х.М. Жаҳон мамлакатлари номларининг географик ва топонимик асослари // Монография, Қарши, Nasaf NMIU, 2021. – 156 б. – В. 62.
3. Раҳматов Л. Дунё мамлакатлари: Австралиядан Ҳиндистонгача. – Т.: Yangi kitob, 2019.– 848 б. – В. 532.
4. Умарова. М., Жамилова. М., Қудратова. Л. Бразилия Федератив Республикаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2014.
5. Ҳамроев Э. Пойтахтларни белгилаш ва кўчириш тенденцияси ўзига хос хусусиятлар // Huquq va Burch, 2020, №9. – В. 16-23. –В. 21.
6. Geografiya. 10-sinf. Darslik. V.Fedorko va boshq. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 192 b. – B. 190.
7. Doniyorov A.X. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi (Yangi va eng yangi davr). – Toshkent: BOOK TRADE 2022, 2002. – 540 b. – B. 113.
8. O‘zMA, P-87-fond, 1-ro‘yxat, 4-yig‘ma jild, 99-varaq.
9. O‘zMA, P-86-fond, 1-ro‘yxat, 6-yig‘ma jild, 88-varaq.

[8] Поспелов Е.М. Географические названия мира: Топонимический словарь. – М.: Русские словари: ООО “Издательство Астрель”, 2002. – 512 с. – В. 227.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 94(575.3)+314.15

TOJIKISTONDAN SURXONDARYOGA KO‘CHGAN O‘ZBEK OILALAR TARIXI (TAROQLI MAHALLASI MISOLIDA)

Toshmamatov Azizbek Tohir o‘g‘li, Termiz davlat universiteti magistratura bo‘limi Etnografiya, etnologiya va antropologiya yo‘nalishi M-124 guruh 2-bosqich magistranti, Termiz arxeologiya muzeyi ilmiy xodimi

THE HISTORY OF UZBEK FAMILIES WHO MOVED FROM TAJIKISTAN TO SURKHANDARYA (A CASE STUDY OF TAROQLI MAHALLA)

Toshmamatov Azizbek Tohir ogli, Department of Ethnography, Ethnology and Anthropology, Termiz State University, Researcher, Termiz Archaeological Museum

https://orcid.org/0009-0002-4338-1176
e-mail: toshmamatovazizbek096@gmail.com

ИСТОРИЯ УЗБЕКСКИХ СЕМЕЙ, ПЕРЕСЕЛИВШИХСЯ ИЗ ТАДЖИКИСТАНА В СУРХАНДАРЬЮ (НА ПРИМЕРЕ МАХАЛЛИ ТАРОКЛИ)

Тошмаматов Азизбек Тохир оглы, магистрант 2-го курса группы М-124 направления «Этнография, этнология и антропология» магистратуры Термезского государственного университета, научный сотрудник Термезского археологического музея

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Tojikiston Respublikasidan Surxondaryo viloyatiga, xususan Sherobod tumanining Taroqli mahallasiga ko‘chib kelgan o‘zbek oilalarining tarixi, ularning ijtimoiy hayoti, mehnat faoliyati tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: migratsiya, Tojikiston, Surxondaryo, Sherobod, Taroqli mahallasi, o‘zbek oilalari, madaniy moslashuv.

Abstract: *This article analyzes the history of Uzbek families who migrated from the Republic of Tajikistan to the Surkhandarya region, particularly to the Taroqli mahalla of the Sherobod district. It also examines their social life and labor activities.*

Keywords: *migration, Tajikistan, Surkhandarya, Sherobod, Taroqli mahalla, Uzbek families, cultural adaptation.*

Аннотация**:** *В данной статье анализируется история узбекских семей, переселившихся из Республики Таджикистан в Сурхандарьинскую область, в частности в махаллю Тарокли Шерабадского района, а также их социальная жизнь и трудовая деятельность.*

Ключевые слова: *миграция, Таджикистан, Сурхандарья, Шерабад, махалля Тарокли, узбекские семьи, культурная адаптация.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining janubiy hududi — Surxondaryo viloyati tarixan ko‘p millatli va madaniy jihatdan boy mintaqa sifatida shakllangan.

Introduction. The southern region of the Republic of Uzbekistan — Surkhandarya — has historically developed as a multiethnic and culturally rich area.

Введение. Южный регион Республики Узбекистан — Сурхандарьинская область — исторически сформировался как многонациональный и культурно богатый регион.

Adabiyotlar Tahlili va metodologiya (Materials and methods/Литература и методология). Bu jarayonning asosiy sababi — 1991–1993-yillarda Tojikiston Respublikasida yuz bergan fuqarolik urushi bo‘lib, uning natijasida ko‘plab o‘zbek oilalari xavfsizlik va tinchlik izlab O‘zbekistonning janubiy hududlariga — xususan Surxondaryo viloyatining Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, Sherobod, Termiz va Denov tumanlariga ko‘chib kelishgan. Tadqiqotning maqsadi — Tojikistondan ko‘chib kelgan o‘zbek oilalarining ijtimoiy hayoti, mehnat faoliyati va madaniy moslashuv jarayonini o‘rganishdan iborat. Sherobod tumanining Taroqli mahallasida olib borilgan dala tadqiqotida Qo‘rg‘ontepadan ko‘chib kelgan Mannonov Sayfulla Xurramovich oilasi misolida bu migratsiya jarayoni va uning ijtimoiy oqibatlari tahlil qilinadi[1].

Shu orqali Taroqli mahallasining hozirgi etnik tarkibi, oilaviy qadriyatlar tizimi hamda Surxondaryo aholisi orasidagi madaniy integratsiya jarayoni namoyon bo‘ladi. Mannonov Sayfulla Xurramovich 1992-yilda Tojikiston Respublikasining Qo‘rg‘ontepa viloyati, Kolxozobod tumanidagi Karl Marks nomli kolxozdan O‘zbekistonga ko‘chib kelgan. Bu davr Tojikistonda fuqarolik urushi avj olgan (1991–1993-yillar) notinch yillarga to‘g‘ri keladi. Urushdan so‘ng ko‘plab o‘zbek fuqarolari tinchlik va barqaror hayot izlab Surxondaryo viloyatining Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, Sherobod, Termiz, Denov kabi tumanlariga ko‘chib o‘tishgan. Sayfulla Mannonov 1950-yil 10-martda tug‘ilgan, uning turmush o‘rtog‘i Mirzayeva Marhamat opa esa 1952-yil 1-yanvarda Termiz tumanida tug‘ilgan. Marhamat opa mehnat faoliyatini Termiz shahridagi 12-maktabda o‘qituvchi sifatida boshlagan, keyinchalik Sherobod tumanidagi sovxozda hamda 3-umumiy o‘rta ta’lim maktabida faoliyat yuritgan [2]. Shuningdek, Sayfulla Mannonovning qarindoshi Iskandarov Abdulla ham Tojikiston bilan bog‘liq tarixiy jarayonlarda faol ishtirok etgan shaxsdir. U 27 yil davomida Karl Marks nomli sovxozda rais lavozimida ishlagan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, 1929-yilda Yo‘ldosh Oxunboboyevning farmoni bilan Tojikiston Respublikasining Qo‘rg‘ontepa viloyatiga o‘zlashtirilmagan yerlarda mehnat qilish uchun yuborilganlar orasida Iskandarov Abdulla ham bo‘lgan[3]. Iskandarov Abdulla kommunistik partiya a’zosi bo‘lib, o‘z faoliyatini Buxoro viloyatida ham davom ettirgan. Bugungi kunda Taroqli mahallasida o‘sha davrda Tojikistondan ko‘chib kelgan taxminan 40–45 ta xo‘jalik yashaydi. Ularning aksariyati “Eshonlar avlodi” deb ataluvchi tarixiy naslga mansub bo‘lib, bu avlod mahalla ijtimoiy hayotida o‘zining mustahkam o‘rni va hurmatini saqlab kelmoqda[4].

Muhokama (Discussion /Обсуждение). Mazkur qismda Taroqli mahallasida istiqomat

[1] **Dala tadqiqoti:** Mirzayeva Marhamat momo bilan suhbat. Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, Taroqli mahallasi. 2025-yil 11-oktabr.

[2] **Dala tadqiqoti:** Alimov Abduqodir Omonovich bilan suhbat. Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, Taroqli mahallasi. 2025-yil 12-oktabr.

[3] O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi. **O‘zbekiston SSR janubiy tumanlariga mehnatkash aholini joylashtirish to‘g‘risida qaror.** – Toshkent, 1929. – 5 b. – (O‘R MDA, f. 837, ro‘yxat 2, yig‘ma jild 14, b. 42).

[4] **Dala tadqiqoti:** Axatova Zulayho Mannonovna bilan suhbat. Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, Taroqli mahallasi. 2025-yil 13-oktabr.

qilayotgan, Tojikistondan ko‘chib kelgan oqsoqollardan biri — Alimov Abduqodir Omonovichning hayoti va faoliyati yoritilgan. U 1950-yilda Sherobod sovxozida tug‘ilgan, yoshligida Sovet davrida amalga oshirilgan “qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish” siyosati doirasida Tojikistonga ko‘chib borgan va u yerda uzoq yillar mehnat qilgan. Mazkur siyosat 1960–1980-yillarda yangi yerlarni o‘zlashtirish, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish maqsadida ishchi kuchini ko‘chirish orqali amalga oshirilgan iqtisodiy dastur bo‘lgan.

Abduqodir bobo Tojikistonda yashagan davrida 1975-yilda turmush o‘rtog‘i Jang‘il momo bilan tanishib, “Paxtaoroli uchastkasi” hududida to‘y qilib, keyinchalik O‘zbekistonga ko‘chib kelgan. 1996-yilda u Surxondaryo viloyati, Sherobod tumanining Taroqli mahallasiga qaytib kelib, sovxoz va kolxozlarda texnik xodim, traktorchi, suvchi hamda shofyor sifatida faol mehnat qilgan.

1998–1999-yillarda ishlab turgan paytida texnik baxtsiz hodisa tufayli ko‘rish qobiliyatini yo‘qotgan bo‘lsa-da, u sabr-toqat, mehnatsevarlik va matonat namunasi sifatida hayot kechirgan. Bugungi kunda Alimovlar oilasi Taroqli mahallasida hurmatli, obro‘-e’tiborli oqsoqollar oilasi sifatida e’tirof etilib, Tojikistondan ko‘chib kelgan o‘zbek oilalarining mehnatsevarlik va ijtimoiy faollik an’analarini davom ettirib kelmoqda[5].

Taroqli mahallasida istiqomat qiluvchi nuroniy onaxonlardan biri — Tojikistondan ko‘chib kelgan Axatova Zulayho Mannonovnadir. U 1964-yil 19-avgustda Tojikistonning Zarholobod tumanida tug‘ilib, o‘sha hududdagi 27-maktabda tahsil olgan va kolxoz hamda bolalar bog‘chasida ishlagan. 1991-yilda O‘zbekistonga ko‘chib kelgan, keyinchalik qisqa muddatga Tojikistonga qaytgan. Turmush o‘rtog‘i Axatov Bolta Axatovich (1960-yilda tug‘ilgan) qishloq xo‘jaligi sohasida mehnat qilgan. Axatovalar oilasi Tojikiston va O‘zbekiston o‘rtasidagi madaniy yaqinlik va do‘stlikning timsoli bo‘lib, ularning hayoti ikki xalq o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va birdamlikni ifodalaydi[6].

Natijalar (Results / Результаты). O‘rganilgan manbalar, og‘zaki tarixiy ma’lumotlar va mahalla oqsoqollari bilan o‘tkazilgan suhbatlar shuni ko‘rsatadiki, Tojikiston Respublikasidan Surxondaryo viloyatiga ko‘chib kelgan oilalar tarixi XX asr oxiri — 1990-yillar boshidagi murakkab ijtimoiy-siyosiy voqealar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, 1991–1993-yillardagi Tojikistondagi fuqarolik urushi natijasida ko‘plab o‘zbek oilalari tinchlik va xavfsizlik izlab O‘zbekistonga ko‘chib kelgan. Bu migratsiya jarayoni, bir tomondan, insonlarning hayotini va oilasini saqlab qolish istagini, ikkinchi tomondan esa O‘zbekiston jamiyatining insonparvarlik va bag‘rikenglik qadriyatlarini namoyon etadi[7].

Ko‘chib kelgan oilalar orasida Mannonovlar, Alimovlar, Axatovlar va Iskandarovlar kabi sulolalar alohida ajralib turadi. Ularning aksariyati sovxoz va kolxoz tizimida faol mehnat qilgan, yangi muhitga tez moslashib, iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok etgan[8].

Taroqli mahallasida yashovchi bu oilalar mahalla hayotida faol ishtirok etib, o‘z mehnati va tajribasi bilan yosh avlod tarbiyasiga munosib hissa qo‘shgan. Shu bois Tojikistondan ko‘chib kelgan oilalar faqat mehnat migratsiyasi ishtirokchilari emas, balki O‘zbekiston va Tojikiston xalqlari o‘rtasidagi tarixiy, madaniy va ijtimoiy yaqinlikni mustahkamlovchi muhim ko‘prik vazifasini bajargan[9].

O‘sha davrda O‘zbekistonda sovxoz va kolxozlar faol ishlagani sababli, ko‘chib kelgan oilalar jamiyatga tez moslashgan. Mahalla instituti esa ularning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishida muhim rol o‘ynagan. Taroqli mahallasida bu ayniqsa yaqqol ko‘rinib, mahalla aholisi yangi

[5] **Dala tadqiqoti:** Alimova Jang’il momo bilan suhbat. Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, Taroqli mahallasi. 2025-yil 12-oktabr.

[6] **Dala tadqiqoti:** Axatov Bolta Axatovich bilan suhbat. Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, Taroqli mahallasi. 2025-yil 14-oktabr.

[7] Karimov I.A. *O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.* – Toshkent: O‘zbekiston, 1997. – 288 b.

[8] Muminov A. *O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tarixi.* – Toshkent: Fan, 2010. – 212 b.

[9] Xudoyberdiyeva M. *Surxondaryo viloyatining tarixiy-etnografik o‘ziga xosligi.* – Termiz: TDYuI nashriyoti, 2018. – 174 b.

kelganlarni iliq kutib olgan. Tojikistondan kelganlar asosan qishloq xo‘jaligi, ta’lim va ijtimoiy xizmat sohalarida mehnat qilganlar, jumladan, Mirzayeva Marhamat ta’limda, Alimov Abduqodir esa texnik sohada faoliyat yuritgan[10].

Xulosa (Conclusion / Заключение). Tojikistondan Surxondaryo viloyatiga ko‘chgan o‘zbek oilalarining tarixi — XX asr oxiridagi siyosiy, ijtimoiy va demografik jarayonlarning yorqin ifodasidir. 1991–1993-yillarda Tojikiston Respublikasida yuz bergan fuqarolik urushi natijasida yuzlab oilalar, jumladan, Sherobod tumanining Taroqli mahallasida istiqomat qilayotgan ko‘plab o‘zbeklar ham o‘z tarixiy vatani O‘zbekistonga qaytib kelishgan. Ushbu ko‘chish jarayoni nafaqat tinchlik va xavfsizlik izlash zaruratidan, balki ikki xalq o‘rtasidagi tarixiy, madaniy va ijtimoiy aloqalarning mustahkamligidan dalolat beradi. Dala tadqiqotlari natijalari shuni ko‘rsatadiki, Tojikistondan ko‘chib kelgan oilalar O‘zbekiston jamiyatiga tezda moslashgan, mahalla hayotida faol ishtirok etgan hamda mehnatsevarlik, halollik va oilaviy qadriyatlari bilan ajralib turgan. Bu jarayon o‘z davrida rejalashtirilgan migratsiya siyosatining bir qismi bo‘lib, o‘zbek xalqi birligi va hududlararo ijtimoiy integratsiyaning shakllanishida muhim o‘rin tutgan. Umuman olganda, Taroqli mahallasi misolida o‘rganilgan tarixiy faktlar Tojikiston va O‘zbekiston xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik, birdamlik va madaniy yaqinlikning amaliy ifodasi sifatida tarixiy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati (References / Использованная литература):

1. O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi. O‘zbekiston SSR janubiy tumanlarida mehnatkash aholining yashashi to‘g‘risida qaror. – Toshkent, 1929. – 5 b. – (O‘R MDA, f. 837, ro‘yxat 2, yig‘ma jild 14, 42-b).
2. Niyozov S. *O‘zbek-tojik madaniy aloqalari tarixi*.–Toshkent: O‘qituvchi,1985.– 198 b.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.–Toshkent: O‘zbekiston,1997. – 288 b.
4. Tojikiston Respublikasi tarixi. – Dushanbe: Donish, 2002. – 356 b.
5. Abdullayev R. *Sovet davrida o‘zbeklarning migratsiya jarayonlari.* – Toshkent: Iqtisodiyot, 2007. – 205 b.
6. Muminov A. *O‘zbekiston va Tojikiston o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tarixi.* – Toshkent: Fan, 2010. – 212 b.
7. Islomov H. *Surxondaryo viloyatining qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti (1960–1990 yillar).* – Termiz: TDPU, 2015. – 146 b.
8. Xudoyberdiyeva M. *Surxondaryo viloyatining tarixiy-etnografik o‘ziga xosligi.* – Termiz: TDYuI nashriyoti, 2018. – 174 b.
9. *Dala tadqiqoti:* Mannonov Sayfulla Xurramovich bilan suhbat. Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, Taroqli mahallasi. 2025-yil 11-oktabr.
10. *Dala tadqiqoti:* Mirzayeva Marhamat momo bilan suhbat. Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, Taroqli mahallasi. 2025-yil 11-oktabr.
11. *Dala tadqiqoti:* Alimov Abduqodir Omonovich bilan suhbat. Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, Taroqli mahallasi. 2025-yil 12-oktabr.
12. *Dala tadqiqoti:* Alimova Jang‘il momo bilan suhbat. Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, Taroqli mahallasi. 2025-yil 12-oktabr.
13. *Dala tadqiqoti:* Axatova Zulayho Mannonovna bilan suhbat. Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, Taroqli mahallasi. 2025-yil 13-oktabr.
14. *Dala tadqiqoti:* Axatov Bolta Axatovich bilan suhbat. Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, Taroqli mahallasi. 2025-yil 14-oktabr.

[10] Islomov H. *Surxondaryo viloyatining qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti (1960–1990 yillar).* – Termiz: TDPU, 2015. – 146 b.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 94(575.1)"1960/1980":640.

1960-1980-YILLARDA MAISHIY XIZMAT KO‘RSATISH TIZIMINING QORAQALPOG‘ISTON ASSRDAGI HOLATI

Pulatova Guli Islombekovna, Qoraqalpoq davlat universiteti Tarix fakulteti tayanch doktoranti

THE STATE OF THE HOUSEHOLD SERVICE SYSTEM IN THE KARAKALPAK ASSR IN 1960–1980

Pulatova Guli Islombekovna, (PhD) Basic Doctoral Student, Faculty of History, Karakalpak State University

СОСТОЯНИЕ СИСТЕМЫ БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В КАРАКАЛПАКСКОЙ АССР В 1960–1980 ГГ

Пулатова Гули Исламбековна, базовый докторант исторического факультета Каракалпакского государственного университета

https://orcid.org/0009-0004-8308-1180
e-mail: guliislombekovna@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada avvalo maishiy xizmat tushunchasi yoritilgan va shuningdek, ko‘rsatilgan davrda Qoraqalpog‘istonda hunarmandchilik artellari, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish tizimida mavjud bo‘lgan tarmoqlar va ulardagi vaziyat, bu o‘rinda kasb-hunarlarning o‘rni haqida tushuncha beriladi. Shu bilan birga, maqolada mavzuga oid ma’lumotlar adabiyot va manbalar, arxiv va gazeta materiallari, hamda dala yozuvlari asosida ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar*: maishiy xizmat tushunchasi, maishiy xizmat ko‘rsatish, hunarmandlar kooperatsiyasi va artellari, sartaroshlar, etikdo‘zlar, hammomlar, tikuv kombinatlari.*

Summary: *The article first of all covers the concept of household service, and also provides an understanding of the craft artels in Karakalpakstan in the specified period, the sectors that existed in the system of providing services to the public, the situation in them, and the role of professions in this regard.*

Keywords: *the concept of household service, household service, artisanal cooperation and artels, hairdressers, shoemakers, baths, sewing factories.*

Аннотация: *В статье в первую очередь рассматривается понятие бытового обслуживания, а также дается представление о ремесленных артелях, отраслях, существовавших в системе бытового обслуживания населения в Каракалпакстане в указанный период, положении в них и роли профессий в этом отношении.*

Ключевые слова: *понятие бытового обслуживания, оказание бытовых услуг, ремесленные кооперации и артели, парикмахерские, сапожники, бани, швейные фабрики.*

KIRISH. Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish — aholiga noishlab chiqarish va ishlab chiqarish xizmati ko‘rsatish sohasining bir qismi. Hozirgi sharoitlarda Maishiy xizmat xalq xo‘jaligining maxsus industrial moddiy-texnika bazasi — sanoat korxonalari va kombinatlariga ega bo‘lgan alohida tarmog‘i hisoblanadi. Maishiy xizmat korxonalari tomonidan yakka tartibda shaxsiy iste’mol buyumlarini tayyorlash, iste’mol qiymatini yo‘qotgan, ro‘zg‘orda ishlatiladigan va shaxsiy foydalanishdagi buyurtmalarni tiklash, shaxsiy xizmatlar ko‘rsatish va boshqa ishlar bajariladi.

O‘zbekiston Respublikasida aholiga ko‘rsatiladigan maishiy xizmat toifasiga kiruvchi faoliyat turlari ro‘yxati bugungi kunda 26tani tashkil etadi. Tabiiyki, bugungi kunda mavjud bo‘lgan bu tarmoqlarning anchaginasi biz o‘rganayotgan davrda mavjud bo‘lmagan. Mavjud bo‘lgan sohalarning ham ba’zilarini aholi asosan o‘zlari bajarishni afzal bilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. 1960-1970-yillarda nashr etilgan gazeta va jurnallar bu davrda aholining maishiy xizmatga bo‘lgan talabi juda tez o‘sib borganligini qayd etadi. Jumladan, “Fan va turmush” jurnalida: “Keyingi vaqtlarda “madaniy-maishiy xizmat”, “maishiy xizmat ko‘rsatish” degan gaplar tez-tez tilga olinadigan bo‘lib qoldi. Ha, bu zamon taqozosi, davr talabi bilan vujudga kelgan bir sohaki, uning vazifasini nomidan ham bilsa bo‘ladi. Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish bu mehnatkashlarning turmushi, ro‘zg‘orini yengillashtirish, mazmunli dam olishlari, o‘z bilim va saviyalarining oshirishlari uchun sharoit yaratish degan mazmunni anglatadi”, - deb yozgan [1, 64-b]. Bizning olib borgan dala tadqiqotimizga ko‘ra, Jangabayev Adilbay otaning eslashicha, 1970-yillarda asosan tikuvchi, sartarosh, etikdo‘z kabi ustalarga ehtiyoj tug‘ilsa, shahar markazidagi maishiy xizmat ko‘rsatish uyiga borishgan va u yerda umumiy kassaga to‘lov qilib, talon olgan holda ularning xizmatidan foydalanishgan[6].

MUHOKAMA. Tabiiyki, aholining turmushini yengillashtirish sovetcha tuzumning ayyorona tashkillashtirgan rejasining bir bo‘lagi edi. Bu sohani aholi orasida keng talqin qilishdan asosiy maqsad shu ediki, ayollarning uy yumushlari uchun sarflaydigan vaqtlarini qisqartirish va bu orqali ularning ko‘proq vaqtini korxona va tashkilotlardagi yumushlarining sifatli va uzoq muddatli bajarilishini ta’minlashdan iborat edi, mening nazarimda. Masalan, ayollar uyda ko‘p vaqtini olishi mumkin bo‘lgan kir yuvish yumushlari yangi tashkil etilgan kir yuvish punktlarida bajarilsa yoki ovqatlanish punktlaridan ko‘proq foydalanish evaziga ancha vaqtini o‘zini rivojlantirish uchun sarflasa bu hukumat uchun ishchi kuchining o‘sishiga olib kelishini juda yaxshi bilgan. Bu xatti-harakatlar o‘z samarasini ko‘rsatgan holda 1960-yilda O‘zbekistonda aholining o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish yalpi vaqt sarfi kamayib, maishiy xizmat ko‘rsatish muassasalari xizmatidan foydalanish ko‘paya boshladi. Aholi turmushini yaxshilash niqobi ostida ham albatta hukumat manfaatlari yotganini ko‘rishimiz mumkin.1960-yillardan boshlab sovet jamiyatida aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi hamda mazkur sohaning turli yo‘nalishlari bo‘yicha muassasalar yuzaga kela boshladi. 1960-yillarga qadar O‘zbekistonda aholiga xizmat ko‘rsatish tizimida tez-tez o‘zgarishlar sodir bo‘lib turgan va bu soha bir necha idoralar tarkibida bo‘lib kelgan. Faqatgina 1962-yilga kelib, sohaning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha boshqaruvni amalga oshiruvchi O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti huzurida aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha Bosh boshqarma tashkil etildi hamda u 1966-yilda alohida vazirlikka aylantirildi. 1965—1980-yillarda Maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari soni 8382tadan 18031ga yetdi (shu jumladan, qishloq joylarida 4403tadan 11293taga yetdi). Maishiy xizmat uylari va ixtisoslashtirilgan korxonalar ishga tushirildi, faqat 1971—1975-yillarda 20 ming yangi texnologik asbob-uskunalar o‘rnatildi.

Bu davrda Qoraqalpog‘iston hududida ham maishiy xizmat ko‘rsatish faoliyati birmuncha rivojlanayotgan edi. 1960-yilda bu yerda 291ta, 1965-yilga kelib esa 366ta, 1971-yilda 668ta maishiy xizmat ko‘rsatuvchi muassasalar tashkil etildi. Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish hajmi 1965-yilda 2,0 mln rubl va 1970-yilda 4,1 mln rubl miqdorida bo‘ldi[3,282-b].

Biroq bu ko‘rsatkichlar hududda maishiy xizmat ko‘rsatish tizimining talab darajasidan ya’ni boshqa viloyatlar ko‘rsatkichlaridan past ekanini ko‘rsatar edi. Shuningdek, maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari soni ham sezilarli darajada ortgan. 1964-yilda respublikaning kolxoz va sovxozlarida maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari soni 78tani tashkil etgan bo‘lsa, 1965-yilda 130taga yetgan. Bu qatorda Xo‘jayli, Kegeyli va Nukus shahridagi maishiy xizmat ko‘rsatish kombinatlari o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli yurgizgan va belgilangan rejani ortig‘i bilan bajargan. To‘rtko‘l tumani esa bu borada ancha oqsagan[4,1-b].

1966-yilda Nukus maishiy xizmat ko‘rsatish kombinatida yangi 10 turdagi maishiy xizmat turi o‘zlashtirilgan. Bularning orasida mototsikllarni ta’mirlash, sotib olingan buyumni uyga yetkazib berish, kino va teatrlarga, samolyotlarga buyurtma asosida chipta olib kelish, uy xizmatlarini bajarish va boshqa shu kabi xizmatlar mavjud bo‘lgan. 1960 – 1965-yillar davomida To‘rtko‘l tumanining “Taxtako‘pir” sovxozida qurilish uchun 3 yil ichida 1,9mln manat, Ilich nomidagi kolxozda esa 1 mln manatga yaqin mablag‘ ajratilgan. Bu mablag‘lar hududda turar joy, hammomlar, poliklinikalar, klublar, maktablar, maishiy xizmat ko‘rsatish pavilyonlari, bolalar bog‘chalari qurish uchun ishlatilgan. Bu kabi ishlarning amalga oshirilishi ham aholi ehtiyoji uchun

kamlik qilgan. Buni hatto 1965-yilda Qoraqalpog‘iston ASSR Ministrlar Soveti qoshidagi xalqqa maishiy xizmat ko‘rsatish boshqarmasi boshlig‘i S.Nosirovning o‘zi ham o‘z dokladida ta’kidlab ketgan[7,2-b].

NATIJALAR. Umuman olganda, O‘zbekiston SSR miqyosida bu tarmoqda samarali ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, bu aholi ehtiyojini qondirish uchun yetarli bo‘lmadi. Ayniqsa respublika markazlariga uzoq hududlarda oqsash holatlari yaqqol ko‘rinib turgani raqamlardan ham ma’lum. Olti oylik rejaning past bajarilishi Shumanay shahridagi poyafzal sexida – 31 foiz, Shumanay shahridagi metall buyumlar va texnik jihatdan murakkab maishiy texnikalarni ta’mirlash ustaxonasida – 19 foiz, Shumanay sovxozidagi sartaroshxonada – 18 foiz qilib bajarilgan. 1963-yilning birinchi yarmida tovar mahsuloti ishlab chiqarish bo‘yicha reja To‘rtko‘l maishiy xizmat ko‘rsatish kombinati tomonidan 93 foizga, Qo‘ng‘irotda 90 foizga, Mo‘ynoqda 87 foizga bajarildi. Bu korxonalar davlatga 5,0 ming so‘mlik yalpi mahsulot va 29,0 ming so‘mlik tovar mahsulotini bermagan[5,75-b]. Bundan tashqari maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida aholiga o‘z buyurtmalarini vaqtida tayyorlab bermaslik holatlari ham tez-tez uchrab turgan. Masalan, bunday holat Chimboy sovxozida, Kegeyli tumanida mavjud bo‘lganligi arxiv hujjatlarida ko‘rsatilgan[5,51-54-b].

1972-yil mayda O‘zbekiston SSR Markaziy komiteti “Fermer xo‘jaligi tizimini tugatish va respublika kolxozlarida kapital qurilishni tubdan yaxshilash to‘g‘risida” qaror qabul qildilar. Ushbu qarorga ko‘ra, kichik qishloqlarda davom etayotgan qurilish qishloq mehnatkashlariga xizmat ko‘rsatish, maishiy va kommunal xizmat ko‘rsatish uchun zarur shart sharoitlarni yaratishga, qishloqlarni elektr energiyasi, suv, gaz va issiqlik tizimi bilan markazlshtirilgan holda ta’minlashga imkon bermadi. Shu yilning sentabr oyida Amudaryo tumanining Y.Oxunboboyev, Kommunizm, Leninizm, Krupskiy kolxozlarida bolalar bog‘chalari, maktablar, hammomlar, turar joy binolari qurildi. Aholining farovonligini ta’minlash dasturida(1966-1975), hududlarda turli maishiy xizmat uylari qurilishi, jumladan hammom, oshxona va magazinlar qurilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun bu yillar davomida ajratilgan kapital 199mln rublni tashkil etdi[2,90].

Biroq shunga qaramay, 1973-yilda SSSR bo‘yicha aholi jon boshiga maishiy xizmat ko‘rsatish hajmi 22 rubl, O‘zbekiston uchun 15 rubl bo‘lgan bo‘lsa-da, Qoraqalpog‘istonda bu ko‘rsatkich 11 rublni tashkil etgan. Ushbu statistik ma’lumotlarning barchasi shuni ko‘rsatadiki, aholining talabi hali ham yetarli darajada qondirilmagan va aholi o‘z vaqtlari va kuchlarining katta qismini samarasiz uy vazifalariga sarflashga majbur bo‘lgan[2,91-b].

XULOSA tarzida aytishimiz mumkinki, o‘rganilayotgan davrda aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish tizimi faoliyati aniq rejalar asosida amalga oshirilmagan. Ya’ni, demoqchi bo‘lganimiz shundan iboratki, dastlab xalq orasida suhbat o‘tkazib, aynan qaysi hududda nechta inson yashashi, ularga qaysi sohada xizmat turlari yetishmasligi, ularning sonidan kelib chiqqan holda maishiy xizmat uylari qurishni belgilab olib, shunga ko‘ra faoliyat yurgizilganida, balki yuqorida ko‘rsatilgan kamchiliklarni qisman bartaraf etish mumkin bo‘lardi. Bundan tashqari hududlarda, aniqrog‘i chekka qishloqlarda maishiy xizmat ko‘rsatish kombinatlarining faoliyati talab darajasida ekanligini nazorat qilish ishi ham to‘g‘ri tashkil qilinmagan. Bu esa shusiz ham yetarli bo‘lmagan xizmat uylarining aholiga foyda keltirish ko‘rsatkichini keskin kamaytirib yuborgan. Xullas, o‘sha davr maishiy xizmat ko‘rsatish tizimi faoliyati nazorati yangi islohotlarga muhtoj bo‘lgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Tajimirzayev E. XX asrning 60-80-yillarida Farg‘ona vodiysi qishloqlari aholisining kundalik hayoti. Falsafa fanlari doktori diss. – Andijon, 2020.
2. Шамамбетова Г. Социальная политика в Каракалпакстане (1950-1985 годы). Дисс. канд. ист. наук. Нукус. 2004.
3. Народное хозяйство Узбекской ССР за 60 лет: юбилейный статистический сборник. Ташкент. 1984.
4. Совет Каракалпакстани газетаси. 23.03.1966. №57.
5. Qoraqalpog‘iston Markaziy arxivi. 322-fond 1-opis 2594-hujjat 75-bet.
6. Dala yozuvi ma’lumotlaridan: Xo‘jayli tumani Tutzar mahallasi Bag‘davlet ko‘chasida yashovchi 1952-yilda tug‘ilgan fuqaro.
7. Совет Каракалпакстани газетаси. 13.03.1966. №31.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 94(575)"0/9":355.4

O‘RTA OSIYO XALQLARINING HARBIY SAN’ATI: SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA MUDOFAA INSHOOTLARINING TARIXIY RIVOJI

Yuldasheva Gulchehra Po‘latovna, Hazorasp tumani 39-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi tarix fani o‘qituvchisi

THE MILITARY ART OF THE PEOPLES OF CENTRAL ASIA: STAGES OF FORMATION AND THE HISTORICAL DEVELOPMENT OF DEFENSIVE STRUCTURES

Yuldasheva Gulchehra Po‘latovna, History Teacher, Secondary School No. 39, Hazorasp District

ВОЕННОЕ ИСКУССТВО НАРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ: ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ И ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ОБОРОНИТЕЛЬНЫХ СООРУЖЕНИЙ

Юлдашева Гулчехра Полатовна, учитель истории средней школы №39 Хазараспского района

e-mail: gyuldasheva436@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘rta Osiyo xalqlarining harbiy san’ati va fortifikatsiya me’morchiligi tarixiy manbalar hamda arxeologik topilmalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda qadimgi Xorazm, Baqtriya, Sug‘diyona va Farg‘ona hududlarida shakllangan harbiy tizimlarning evolyutsiyasi, metallurgiyaning rivoji natijasida qurol-yarog‘lar takomillashuvi va mudofaa inshootlarining shakllanish jarayoni o‘rganilgan. Shuningdek, Amir Temur davrida harbiy san’atning siyosiy tafakkur, diplomatiya va strategik rejalashtirish bilan uyg‘unlashuvi tahlil qilinadi. Maqola O‘rta Osiyo harbiy madaniyatining insoniyat sivilizatsiyasi rivojidagi o‘rnini yoritishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *O‘rta Osiyo, harbiy san’at, fortifikatsiya, metallurgiya, Xorazm, Baqtriya, Sug‘diyona, Amir Temur, mudofaa inshootlari, strategiya.*

Abstract: *This article analyzes the military art and fortification architecture of the peoples of Central Asia based on historical sources and archaeological findings. The study examines the evolution of ancient military systems developed in Khwarezm, Bactria, Sogdiana, and Fergana, focusing on the advancement of metallurgy, weapon production, and the emergence of defensive structures. It also explores how, during the reign of Amir Timur, military art became integrated with political thought, diplomacy, and strategic planning. The article aims to highlight the significant role of Central Asian military culture in the broader development of human civilization.*

Keywords: *Central Asia, military art, fortification, metallurgy, Khwarezm, Bactria, Sogdiana, Amir Timur, defense structures, strategy.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются военное искусство и фортификационная архитектура народов Средней Азии на основе исторических источников и археологических данных. В исследовании проанализирована эволюция древних военных систем, сформировавшихся в Хорезме, Бактрии, Согдиане и Фергане, развитие металлургии и совершенствование вооружения, а также процесс формирования оборонительных сооружений. Особое внимание уделено эпохе Амира Темура, когда военное искусство сочеталось с политическим мышлением, дипломатией и*

стратегическим планированием. Цель статьи — показать значительное место военной культуры Средней Азии в развитии мировой цивилизации.

Ключевые слова: *Средняя Азия, военное искусство, фортификация, металлургия, Хорезм, Бактрия, Согдиана, Амир Темур, оборонительные сооружения, стратегия.*

Kirish. O‘rta Osiyo xalqlari insoniyat tarixining dastlabki bosqichlaridanoq xalqaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarda faol ishtirok etgan. Ushbu jarayonlar, ayniqsa, mintaqaning geosiyosiy joylashuvi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, qadimgi davrlardanoq harbiy san’atning shakllanishiga kuchli turtki bergan. O‘rta Osiyo xalqlari — sak-massagetlar, baqtriyaliklar, xorazmliklar, sug‘diylar va farg‘onaliklarning jangovar an’analari qadimiy Sharq dunyosida keng tanilgan (Herodotus, 1996). O‘rta Osiyo xalqlarining harbiy san’ati ko‘p jihatdan ularning ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi hayot tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan. Ular otliq qo‘shinlardan keng foydalangan, tezkor yurishlar, kutilmagan hujumlar va jang maydonida manevr qilish san’atini mukammal egallaganlar. Ayniqsa, sak va massagetlarning jang usullari keyingi davrlarda turkiy va mo‘g‘ul xalqlarning harbiy strategiyasiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Bundan tashqari, O‘rta Osiyo xalqlari orasida davlat boshqaruvi, diplomatiya va siyosiy hamkorlik an’analari ham erta davrlardanoq shakllangan. Baqtriya va Sug‘diyona hududlari Buyuk Ipak yo‘lining markaziy bo‘g‘ini sifatida nafaqat iqtisodiy, balki harbiy-siyosiy jihatdan ham yirik strategik ahamiyatga ega bo‘lgan. Shu bois bu hudud ko‘p bora qadimgi imperiyalar — Ahamoniylar, Aleksandr Makedonskiy, keyinchalik esa Kushonlar, Sosoniylar va Arab xalifaligi e’tiborida bo‘lgan. Ushbu qadimiy an’analar keyinchalik jahon harbiy tafakkuriga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Buyuk sarkardalar — To‘maris, Spitamen, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi tarixiy shaxslarning faoliyati bu zamin harbiy san’atining yuksak bosqichini ifodalaydi (Mirzayev, 2001).

Metodologiya. Mazkur tadqiqot tarixshunoslik, manbashunoslik va arxeologik dalillarga asoslanadi. Asosiy yozma manbalar sifatida *“Avesto”,* Gerodotning *“Tarix”* (Herodotus, 1996), Arrianning *“Anabassis Aleksandra”* (Arrian, 1983), Kurtiy Rufning *“Aleksandr tarixi”*, Strabon va Ptolemeyning *“Geografiya”* (Ptolemy, 2012), shuningdek, Xitoy tarixchilari Sima Tsyan (*“Shi Tszi”*) va Ban Gu (*“Tsyan-Xan-Shu”*) asarlari tahlil qilindi. Manbalardan tashqari, arxeologik tadqiqotlar — Sopollitepa, Jarqo‘ton, Afrosiyob, Erkqal’a, Tuproqqal’a, Ayozqal’a kabi yodgorliklardan topilgan dalillar bilan qiyosiy o‘rganildi (Asqarov, 1992; Tolstov, 1948). Tadqiqot metodlari sifatida tarixiy-komparativ, tizimli tahlil, induktiv va deduktiv yondashuvlardan foydalanildi.

Muhokama.O‘rta Osiyoning tabiiy boyliklarga boy, strategik joylashuvi harbiy harakatlarning asosiy sabablaridan biri bo‘lgan. Bronza va temir metallurgiyasining kashf etilishi qurol-yarog’ ishlab chiqarishni rivojlantirdi. Dastlabki nayzalar, suyakdan yasalgan xanjarlar va tosh boltalar o‘rnini metall aslahalar egalladi (Asqarov, 1992). Miloddan avvalgi III–II ming yilliklarda mis, jez va temirga ishlov berish rivojlanib, harbiy qurollar ixtisoslashgan: himoya qalqonlari, nayzalar, kamon-o‘qlar, boltalar, qilichlar paydo bo‘lgan (Tolstov, 1948). Shu bilan birga, ko‘chmanchi chorvadorlar va o‘troq dehqonlar o‘rtasidagi iqtisodiy raqobat hududiy to‘qnashuvlarni kuchaytirib, doimiy qo‘shinlarning shakllanishiga olib keldi (Herodotus, 1996). Qadimiy Eron, Baqtriya va Sug‘diyona davlatlari qo‘shinlarida otliq suvoriylar asosiy jangovar kuch bo‘lib, bu tizim keyinchalik Ahamoniylar davrida markazlashgan imperiya harbiy siyosatining modeliga aylandi (Arrian, 1983).

O‘rta Osiyo xalqlarida mudofaa inshootlari — fortifikatsiyalar qadimgi davrlardanoq mavjud bo‘lgan. Eneolit davrida Namozgoh madaniyati yodgorliklarida ilk istehkom devorlari uchraydi (Asqarov, 1992). Bronza davrida esa Baqtriya va Marg‘iyona hududlarida minorali, darvozali mudofaa tizimlari shakllangan. Bu devorlar, ko‘pincha, xom g‘ishtdan qurilgan bo‘lib, paxsadan ishlangan to‘siqlar ham mavjud bo‘lgan (Mirzayev, 2001). Sopollitepa yodgorligida 100x100 metrli uch qatorli devorlar, sakkizta darvozali qal’a qoldiqlari topilgan. Bu murakkab fortifikatsiya tizimi harbiy strategiyaning dastlabki bosqichini ifodalaydi (Asqarov, 1992). Miloddan avvalgi I mingyillikda istehkomlar yanada murakkablashdi. Erkqal’a (Marv), Uzunqir (Buxoro), Yerqo‘rg‘on (Sug‘d) va Afrosiyob (Samarqand) kabi shaharlar mustahkam devorlar bilan himoyalangan.

TAMADDUN NURI

Qal'alarda yoy otish uchun teshiklar (shinaklar), burjlar, manjaniqlar va xandaqlar mavjud bo'lgan (Tolstov, 1948). Xorazm istehkomlari alohida e'tiborga loyiq: Ayozqal'a, Jonbosqal'a, Tuproqqal'a, Qal'aliqir devorlarining qalinligi 10–15 metr, balandligi 20 metrgacha yetgan. Ayrim devorlarda 500–2000 tagacha shinaklar bo'lgan (Tolstov, 1948). Bu inshootlarda himoya devorlari oldida suv bilan to'ldirilgan xandaqlar mavjud bo'lib, ular strategik mudofaa tizimini mustahkamlagan.

O'rta asrlarda O'rta Osiyo shaharlari uch qismdan — ark (hokim qarorgohi), shahriston (asosiy shahar qismi) va rabad (tashqi mavze)dan iborat bo'lgan. Har bir qismi mustahkam devorlar va burjlar bilan himoyalangan (Mirzayev, 2001). Bu davrda fortifikatsiya tizimlari yanada takomillashib, burjlar orasidagi masofa kamon o'qi masofasiga teng qilib qurilgan. Chingizxon istilosi (XIII asr boshida) davrida O'tror va Urganch shaharlarining uzoq mudofaasi bu inshootlarning muhandislik qudratini namoyon etdi. Tarixiy manbalarga ko'ra, Urganch 5 oydan ortiq qarshilik ko'rsatgan. Amir Temur davrida harbiy me'morchilik yuksak bosqichga chiqdi. Samarqand, Kesh (Shahrisabz), Andijon kabi shaharlarning devorlari nafaqat mudofaa maqsadida, balki siyosiy qudrat ramzi sifatida bunyod etilgan. Bobur Mirzo *"Movaraunnahrda Samarqand va Kesh qo'rg'onidan so'ng ulug'roq qo'rg'on yo'qdir"* (Bobur, 2019) deb yozadi. Temuriylar davrida qo'shinlar aniq iyerarxiyaga ega bo'lib, piyoda askarlar, otliqlar, kamonchilar, merganlar va muhandislar tizimi rivojlandi. Harbiy intizom, strategik rejalashtirish, manjanaklar, otashxonalar va sug'orish inshootlaridan mudofaa vositasi sifatida foydalanish an'analari shakllandi (Mirzayev, 2001).

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'rta Osiyo xalqlari harbiy san'ati — iqtisodiy, madaniy va texnologik omillar sintezidan kelib chiqqan kompleks tizim bo'lgan. Harbiy qudrat faqat jangovar mahorat emas, balki metallurgiya, muhandislik va ijtimoiy tashkilotchilik ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'lgan. Fortifikatsiya me'morchiligi O'rta Osiyo sivilizatsiyasining texnikaviy salohiyatini namoyon etdi. Xorazm qal'alari nafaqat mudofaa inshootlari, balki siyosiy markazlar vazifasini ham bajargan (Tolstov, 1948).

Xulosa. O'rta Osiyo xalqlarining harbiy san'ati insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan hodisadir. Dastlabki sivilizatsiya bosqichlaridan boshlab shakllangan harbiy tajriba keyinchalik mintaqaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Metallurgiyaning yuksalishi qurol-yarog'larning takomillashuviga, istehkom va qal'alarning bunyod etilishi esa shaharsozlik madaniyatining rivojlanishiga sabab bo'lgan. Xorazm, Baqtriya, Sug'diyona va Farg'ona hududlaridagi mudofaa inshootlari, devorlar va minoralar Sharq fortifikatsiya san'atining dastlabki namunalaridan biri sifatida qadrlanadi. O'rta Osiyo xalqlarining harbiy san'ati nafaqat mudofaa mahoratini, balki ularning ijtimoiy tuzumi, siyosiy tashkiloti va xalqaro aloqalarini ham belgilagan. Harbiy tizim ijtimoiy ierarxiya va hokimiyat boshqaruvi bilan uyg'un holda shakllangan bo'lib, u milliy birlashuv, jasorat, sadoqat va vatanparvarlik kabi qadriyatlarni mustahkamlagan.

Amir Temur davrida esa harbiy san'at yuksak siyosiy tafakkur, diplomatiya va strategik rejalashtirish bilan uyg'unlashib, jahon harbiy tarixida alohida o'rin egallagan. Temuriylar davrida ishlab chiqilgan harbiy strategiya, qo'shin tuzilmasi, yurishlarni ilmiy asosda rejalashtirish tizimi nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosdagi siyosiy muvaffaqiyatlarning kafolati bo'lgan. Shu tariqa, O'rta Osiyo xalqlarining harbiy san'ati insoniyat madaniy merosining ajralmas qismi sifatida tarixiy taraqqiyotda muhim o'rin tutadi. U nafaqat jangovar mahoratni, balki tafakkur, tashkilotchilik, muhandislik va siyosiy strategiya singari insoniyat sivilizatsiyasining asosiy yo'nalishlarini ham rivojlantirgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Arrian. (1983). *Anabasis Alexandri*. Loyeb Classical Library.
2. Asqarov, A. (1992). *Sopollitepa: O'rta Osiyoda dastlabki shahar sivilizatsiyasi*. Toshkent: Fan.
3. Bobur, Z. M. (2019). *Boburnoma*. Toshkent: O'zbekiston.
4. Herodotus. (1996). *Historiyes*. London: Penguin Classics.
5. Mirzayev, A. (2001). *Markaziy Osiyoda harbiy san'at tarixidan*. Toshkent: O'zbekiston.
6. Ptolemy, C. (2012). *Geographia*. Cambridge University Press.
7. Tolstov, S. P. (1948). *Drevniy Khorezm*. Moskva: AN SSSR.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 94:63 (575.171)

O‘RTA OSIYO XONLIKLARI DAVRIDA DEHQONCHILIK AN’ANALARINING O‘RGANILISH MASALASI

Kamolova Nargiza Polatbayevna, Urganch innovatsion universiteti dotsenti (PhD)

THE STUDY OF AGRICULTURAL TRADITIONS DURING THE PERIOD OF THE CENTRAL ASIAN KHANATES

Kamolova Nargiza Polatbayevna, Associate Professor, Urgench Innovative University (PhD)

ИСТОРИОГРАФИЯ ТРАДИЦИОННОГО ЗЕМЛЕДЕЛИЯ СРЕДНЕЙ АЗИИ В ПЕРИОД ХАНСТВ

Камолова Наргиза Полатбаевна, доцент Ургенчского инновационного университета, (PhD)

https://orcid.org/0009-0002-7751-976X
e-mail: kamolovanargiza2018@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada O‘rta Osiyo xonliklari davrida dehqonchilik an’analari, agrar tizim, yer-suv munosabatlari hamda irrigatsiya siyosatining tarixiy shakllanish jarayoni arxiv hujjatlari va yozma manbalar asosida tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *“Bahr ul-asror”, “Shajarayi turk”, “Devonu lug‘otit turk”, “Osor-ul-boqiya an al-qurun al-xoliya”, “Navro‘znoma”.*

Abstract: *The article analyzes the agricultural traditions, agrarian system, land-water relations, and the historical formation of irrigation policy in the Central Asian khanates based on archival documents and written sources.*

Key words: *“Bahr ul-asrar”, “Shajarayi turk”, “Devonu lug‘otit turk”, “Asar-ul-baqiya an al-qurun al-xoliya”, “Navruznameh”.*

Аннотация: *В статье анализируются земледельческие традиции, аграрная система, земельно-водные отношения и историческое формирование ирригационной политики в среднеазиатских ханствах на основе архивных документов и письменных источников.*

Ключевые слова: *“Бахр уль-асрар”, “Шаджарайи тюрк”, “Девону луготит тюрк”, “Асар уль-бакия”, “Наврузнаме”.*

KIRISH. O‘rta Osiyodagi Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklarida dehqonchilik tizimi qadimdan shakllangan sug‘orish infratuzilmasiga asoslangan bo‘lib, katta ariq, kanal va sardobalar tarmog‘i orqali tashkil etilgan irrigatsiya tizimi iqtisodiyot barqarorligini belgilagan. Manbalar shuni ko‘rsatadiki, yer egaligi shakllari va soliq munosabatlari mazkur xonliklarda farqlangan bo‘lsa-da, umumiy agrar tuzilma jihatidan o‘xshashlikka ega edi. Masalan, mulkiy yerlar (shaxsiy egalik), davlat yerlari (amiriy/xoniy), vaqf yerlari va jamoa yerlari mavjud bo‘lib, bu yerlarning har biri maxsus huquqiy maqomga ega bo‘lgan.

Manbashunoslik jihatidan, bu davr agrar tuzumini o‘rganishda turli xil tarixiy manbalar muhim ahamiyatga ega, xususan, rus harbiy ekspeditsiyalarining statistik hisobotlari, sharq mualliflarining asarlari davlat arxivlaridagi soliq daftarlari, yilliklar va diplomatik yozishmalar, shuningdek, chet ellik sayyoh va olimlarning kuzatuvlari asosiy ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan tayyorlangan agrar-statistik materiallar orqali dehqonchilik yerlarining hajmi, ekin turlari, hosildorlik, sug‘orish darajasi va aholi qatlamlarining agrar faoliyatdagi ishtiroki haqida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

Shuningdek, tarixiy va etnografik manbalarda dehqonlar ijtimoiy tarkibining tabaqalashtirilganligi, ularning xo‘jalik yuritish shakllari va davlat bilan bo‘lgan munosabatlari aks ettirilgan. Xususan, dehqonlar yer egasi sifatida (mulkdor), ijarachi, yollanma ishchi, jamoa a’zosi yoki bevosita xon xizmatidagi tobe shaxs sifatida turli huquqiy maqomlarda namoyon bo‘lgan. Ularning mehnati natijasida xonliklar nafaqat ichki oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlagan, balki qo‘shimcha mahsulotlar asosida savdo-sotiq, soliq yig‘imi va siyosiy mustahkamlik ta’minlangan.

Bundan tashqari, arxeologik topilmalar, mehnat qurollari va irrigatsiya tizimiga oid moddiy madaniyat yodgorliklari kabi bilvosita manbalar ham dehqonchilik tarixini o‘rganishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu manbalar orqali dehqonchilik nafaqat iqtisodiy faoliyat, balki madaniy hayot tarzining muhim qismi sifatida ko‘riladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Mazkur mavzu doirasida o‘rganilgan adabiyotlar mazmuni va xarakteri jihatidan quyidagi beshta asosiy guruhga ajratilishi mumkin: 1.Arxiv hujjatlari; 2.XVII–XIX asrlarga oid mahalliy yozma manbalar; 3.XVIII–XIX asrlarda Yevropa va Rossiya sayyohlari, diplomatlari hamda olimlari tomonidan qoldirilgan qaydlar; 4.Sovet davri tarixshunoslari va manbashunoslari tadqiqotlari; 5.Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar.

Tadqiqot jarayonida to‘plangan materiallar orasida O‘rta Osiyo xonliklari davriga oid arxiv hujjatlari eng muhim va asosiy manba qatlamini tashkil etadi. Ushbu hujjatlar nafaqat tarixiy faktlarni tasdiqlovchi daliliy asos, balki xonliklarning ijtimoiy-iqtisodiy, agrar va huquqiy tizimlarini rekonstruksiya qilishda asosiy ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

MUHOKAMA. Xususan, xonlik davriga oid arxiv materiallari albatta, yer egaligi shakllari, soliq yig‘imlari, vaqf mulklari, sug‘orish tarmoqlari, dehqonlar huquqiy maqomi va ma’muriy-hududiy boshqaruv tizimiga oid yozma hujjatlardan iborat bo‘lib, ular zamonaviy tarixiy tahlilda birlamchi manbalar sifatida baholanadi. Mazkur hujjatlar bevosita davrning o‘zida rasmiy yozuv shaklida tuzilgan bo‘lgani uchun tarixiy haqiqatni imkon qadar xolis aks ettiradi. Ayniqsa, Xiva, Buxoro va Qo‘qon xonliklariga oid yer kadastrlari, soliq daftarlar, sardobalar va ariq inshootlari bo‘yicha hisob-kitoblar, vaqf va mulkiy nizolarga oid qarorlar tarixiy voqealarning real mexanizmlarini chuqur o‘rganish imkonini beradi. Shuningdek, bu hujjatlar orqali xonlik davridagi agrar munosabatlarning mahalliy xususiyatlari, dehqonlar va mulkdorlar o‘rtasidagi huquqiy-ijtimoiy munosabatlar, shuningdek, irrigatsiya asosidagi dehqonchilik tizimining amaliy jihatlari aniqlashtiriladi. Bugungi kunda bu turdagi hujjatlar, asosan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat arxivi, Rossiya davlat harbiy-tarixiy arxivi (RGVIA), Rossiya davlat tarixiy arxivi[1] va Rossiya Milliy kutubxonasi fondlarida saqlanmoqda. Ularning mazmuniy tahlili nafaqat agrar tarixni yoritish, balki O‘rta Osiyo sivilizatsiyasi taraqqiyotining lokal ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini tushunishga xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu arxiv hujjatlari tadqiqotda ustuvor o‘rin egallaydi va ularni chuqur o‘rganish orqali tarixiy jarayonlarga obyektiv yondashuv imkoniyati vujudga keladi.

O‘rta Osiyo xonliklari davrining o‘ziga xos xususiyati shundaki, bu davr siyosiy-hududiy jihatdan mustaqil xonliklar sanalgan Xiva, Buxoro va Qo‘qon xonliklarining faoliyati bilan belgilanadi. Ushbu davrga oid manbashunoslikning ikkinchi muhim qatlamini aynan XVII–XIX asrlarda yaratilgan mahalliy yozma tarixiy manbalar tashkil qiladi. Mazkur manbalar, asosan, siyosiy-iqtisodiy voqealarni yoritishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular orqali xonliklar hududida amalga oshirilgan agrar islohotlar, yangi dehqonchilik yerlarining ochilishi, sug‘orish tarmoqlarining kengaytirilishi kabi muhim jarayonlar tafsilotli aks ettirilgan.

Bu asarlar mualliflari o‘z davrining tarixiy voqealari guvohi va ishtirokchilari sifatida hodisalarga yaqin turadi. Jumladan, Muhammad Rizo Ogahiyning asarlari[2] Xiva xonligining siyosiy hayoti bilan bir qatorda, suv inshootlari, yer solig‘i tizimi, agrar sektorni boshqarish va isloh qilishga oid muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Ogahiy o‘z asarlarida, xonlik tomonidan amalga oshirilgan irrigatsiya siyosati va qishloq xo‘jaligiga oid ko‘plab chora-tadbirlar haqida yozadi, bu esa ularning agrar-iqtisodiy tarixni o‘rganishda beqiyos manba sifatida e’tirof etishga asos bo‘ladi. Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror”[3] asari esa Buxoro xonligining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi, yer egaligi shakllari, suv resurslari va ulardan foydalanish tartibi, davlat va vaqf yerlari boshqaruvi kabi masalalarni yoritadi. Muallifning bayonlarida agrar tizimga oid tafsilotlar diniy-huquqiy mezonlar bilan uyg‘unlikda tasvirlanadi, bu esa Buxoro xonligi davlatchilik tizimida agrar boshqaruvning o‘rni haqida aniq tasavvur beradi. Xuddi shuningdek, Abulg‘ozi Bahodirxon tomonidan yozilgan “Shajarayi turk”[4] asari ilk qarashda nasabnoma asari bo‘lsa-da, unda Xiva xonlari hukmronligi davridagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy holatlar, jumladan, obodlik siyosati, yangi yerlarning o‘zlashtirilishi, suv yo‘llarining tiklanishi kabi holatlar ham bayon etilgan. Bu holatlar agrar siyosat hukmdorlar faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tarixiy manbashunoslikda ilgari davrlarda yozilgan, biroq keyingi davrlarda shakllangan agrar madaniyatning ildizlarini anglashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan qadimgi asarlar ham mavjud. Jumladan: Abu Rayhon Beruniyning “Osor-ul-boqiya an al-qurun al-xoliya”[5] asarida qadimgi bayramlar, agrar kalendarlar, dehqonchilikka oid turmush marosimlari haqida boy ma’lumotlar keltirilgan. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”[6] asarida turkiy xalqlarning dehqonchilik, chorvachilik va iqlimga moslashtirilgan agrar terminologiyasi, xo‘jalik faoliyatiga oid qadriyatlari aks ettirilgan. Umar Xayyomning “Navro‘znoma”[7] asari esa dehqonchilik bayramlari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari haqida qadimgi dunyoqarashni aks ettiradi. Mazkur asarlar orqali O‘rta Osiyodagi agrar-iqtisodiy taraqqiyotga, ayniqsa, Xorazm vohasida keyingi asrlarda shakllangan yer-suv munosabatlari tizimining tarixiy asoslariga ilmiy yondashuvda yoritilgan manbaviy dalillarni aniqlash mumkin bo‘ladi. Demak, XVII–XIX asrlarda yaratilgan mahalliy yozma manbalar O‘rta Osiyo xonliklarining agrar-iqtisodiy tizimini o‘rganishda muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi. Bu asarlar orqali nafaqat dehqonchilik faoliyatining tashkiliy shakllari, balki O‘rta Osiyoda tahlil qilinayotgan davrlarda xonliklar darajasida olib borilgan agrar siyosat, suv xo‘jaligi va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar haqida aniq va ishonchli tarixiy ma’lumotlar olinadi. Shu jihatdan, ushbu manbalar O‘rta Osiyo manbashunosligi doirasida o‘rganilishi lozim bo‘lgan asosiy tarixiy manbalar guruhini tashkil qiladi. XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab O‘rta Osiyo xonliklari Rossiya imperiyasi va Yevropa davlatlarining tashqi siyosiy va ilmiy e’tibor markaziga tobora faolroq kirib bora boshladi. Bu qiziqish, avvalo, mintaqaning geosiyosiy joylashuvi, tabiiy resurslari, transport-marshrut yo‘llari va Markaziy Osiyo orqali Hindiston sari olib boruvchi strategik yo‘llar bilan bog‘liq bo‘lgan. Shu boisdan, mazkur davrda Rossiya imperiyasi hamda Britaniya, Fransiya, Avstriya kabi Yevropa mamlakatlarining rasmiy vakillari hisoblangan diplomatlar, harbiy razvedkachilar, sharqshunos olimlar va missionerlar O‘rta Osiyo xonliklari, xususan, Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklariga safarlar uyushtira boshladilar. Dastlabki tadqiqotlar ko‘p hollarda hisobotlar, ekspeditsiya kundaliklari, diplomatik yozishmalar va safar xotiralari shaklida bo‘lib, ularning asosiy maqsadi mintaqaning siyosiy tuzilmasi, harbiy salohiyati, tabiiy-geografik holati, xalq xo‘jaligi, ayniqsa, irrigatsion tizimlar va agrar salohiyati haqida asosli axborot to‘plash edi. Bu materiallar keyinchalik Yevropa va Rossiya ilmiy doiralarida tarixiy-kartografik, iqtisodiy-geografik va agrar mavzudagi muhim yozma manbalar sifatida shakllandi.

Ayniqsa, XIX asrning birinchi yarmidan boshlab Rossiya imperiyasining Turkiston va Xorazmga doir harbiy-siyosiy ekspeditsiyalari doirasida N.V.Xanikov[8], A.I.Maksheev[9], P.P.Semenov[10], V.I.Lipskiy[11] kabi rus tadqiqotchilari tomonidan tayyorlangan asarlar mintaqa agrar tuzilmalarini o‘rganishda alohida o‘rin tutadi. Jumladan, XIX asr boshlarida O‘rta Osiyoga qilingan Rossiya ilmiy-diplomatik ekspeditsiyalari, 1820-yildagi Negri boshchiligidagi missiya mazkur mintaqaning iqtisodiy hayotini, ayniqsa, dehqonchilik va savdo-sotiq tizimini o‘rganish uchun boy tarixiy va etnografik materiallarni taqdim etdi. Mazkur safarda ishtirok etgan tabiatshunoslar E.A.Eversman[12] va G.Meyendorf[13] tomonidan qoldirilgan yozma manbalar zamonaviy

manbashunoslik nuqtayi nazaridan yuqori ilmiy ahamiyatga ega. Eversman va Meyendorf ekspeditsiyasi Orenburgdan Buxorogacha bo‘lgan yo‘lni qamrab olib, Ilek daryosi, Mug‘ojar tog‘lari, Qizilqum, Quvandaryo va Janadaryo irmoqlari, Betpak-dala kabi tabiiy-geografik zonalarni kesib o‘tgan. Eversman tomonidan olib borilgan kuzatuvlar Orol dengizi mintaqasi, suv resurslarining cheklanganligi, o‘z navbatida, sug‘orma dehqonchilikka asoslangan agrar tuzum shakllanganini ko‘rsatadi. Bu esa O‘rta Osiyo iqtisodiyotining tabiiy-geografik omillarga qanchalik bog‘liqligini tasdiqlaydi.

Xiva xonligi agrar tarixini tahlil qilishda xorijiy mualliflarning XVIII–XIX asrlarda yozgan asarlari nafaqat tarixiy-geografik, balki agrar-iqtisodiy manbashunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim empirik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ular orqali dehqonchilik tizimi, ekin turlari, sug‘orish texnologiyalari va yer-suv siyosati kabi murakkab jarayonlar chuqurroq va ko‘p qirrali yoritiladi. Shu bois, mazkur manbalarni tanqidiy-tahliliy yondashuv asosida o‘rganish O‘rta Osiyo agrar tarixining to‘liq rekonstruksiyasi uchun muhim metodologik vositalardan biri hisoblanadi.

NATIJALAR. Rukavkin va keyingi tadqiqotchilar qayd etganidek, Xiva xonligi iqtisodiy hayotining asosini qishloq xo‘jaligi tashkil qilgan. Hududda dehqonchilik, bog‘dorchilik va sabzavotchilik keng tarqalgan bo‘lib, g‘alla ekish, bog‘ va poliz ekinlarini yetishtirish xonliklar qishloq xo‘jaligining asosiy mashg‘ulotlari sirasiga kirgan. Bundan tashqari, paxta yetishtirish va undan paxta to‘qimachilik mahsulotlari hamda ipakdan shoyi matolar ishlab chiqarish faol rivojlangan. Bu sohalar nafaqat ichki ehtiyojni, balki tashqi savdo talablarini ham qondirishga xizmat qilgani tabiiy, albatta. Demak, O‘rta Osiyoda, xususan, Xiva xonligida agrar-iqtisodiy tizimning an’anaviy, ammo mustahkam asosga ega bo‘lganini va dehqonchilikning asosiy vositasi sun’iy sug‘orish tizimlariga asoslanganligini, bu esa O‘rta Osiyo qishloq xo‘jaligining tarixiy xususiyatlaridan biri sanalishini xulosa qilishimizga dalil bo‘ladi.

S.Russovning ta’kidlashiga ko‘ra, Xiva xonligida doimiy soliq tizimi mavjud bo‘lmagan. Mablag‘lar faqat zarur hollarda, ya’ni harbiy harakatlar yoki favqulodda ehtiyojlar paytida yig‘ilgan [14]. Shuningdek, oltin va kumushning Fors va Buxorodan olinishi hamda mahalliy tanga zarb etish amaliyoti haqida ham ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Rukavkin va boshqa sayohatchilar [14] Xivaning ichki va tashqi savdo tizimi haqida ham qimmatli ma’lumotlar keltirgan. Buxoro bilan savdo aloqalari barqaror bo‘lgan bo‘lsa-da, Rossiya bilan savdo aloqalari qozoq bosqinlari xavfi sababli susaygan. Bu holat Markaziy Osiyo iqtisodiy tizimining tashqi siyosiy omillarga qanday darajada bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu boisdan savdo aloqalarining xavfsizlik bilan chambarchas bog‘liq ekani va iqtisodiy izolyatsiyaning xavfini manbalar ochiq ko‘rsatadi.

Amerikalik sharqshunos E.Allworthning “Central Asia: A Century of Russian Rule”[15] hamda “One Hundred and Twenty Years of Russian Rule”[16] nomli fundamental asarlarida Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati O‘rta Osiyo, xususan, Xiva xonligi iqtisodiyotiga ko‘rsatgan ta’siri har tomonlama ilmiy asosda yoritilgan. Muallif xonlikning iqtisodiy tuzilmasi, bojxona tartib-qoidalari va tashqi savdo siyosatini tahlil etar ekan, ushbu tizimlarning XIX asr oxiriga kelib Rossiya imperiyasi manfaatlariga qanday moslashtirilganini tarixiy manbalar asosida asoslab bergan. 1873-yilda Rossiya Xiva xonligi ustidan protektorat o‘rnatgach, mintaqaning iqtisodiy hayotida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ayniqsa, bojxona siyosatida Rossiyaga keng ko‘lamli imtiyozlarning taqdim etilishi, xorijiy savdo yo‘llarining rus ma’muriyati tomonidan nazoratga olinishi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarining cheklanishi Xiva xonligi iqtisodiy mustaqilligiga jiddiy putur yetkazgan.

XULOSA. Rossiya tomonidan Xiva bozorlariga arzon rus mahsulotlarini kirita boshlanishi, mahalliy hunarmandchilikning siqib chiqarilishi, bojxona daromadlarining qisqarishi kabi omillarni xonlik iqtisodiyotining izdan chiqishiga olib kelgan muhim omillar sifatida qayd etish mumkin. Xiva xonligi iqtisodiyotining tashqi kuchlar bilan aloqalari, ayniqsa Rossiya imperiyasi hamda mintaqaning boshqa siyosiy markazlari bilan olib borilgan savdo va diplomatik munosabatlar orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. S.Bekkerning “Russia’s Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva (1865–1924)”[17] nomli ilmiy asarida bu masala chuqur tarixiy tahlil asosida yoritilgan bo‘lib, muallif Rossiya

imperiyasining protektorat siyosati orqali Xiva xonligi iqtisodiy hayotiga qanday ta'sir ko'rsatganini hujjatli manbalar asosida izohlaydi.

Xiva xonligining mustaqil iqtisodiy faoliyat yuritish salohiyati Rossiya bilan 1873-yildagi shartnomadan so'ng keskin kamaygan. Rossiya protektorati ostida Xiva savdo bozorlarida rus tovarlari mutlaq ustunlikka erisha boshladi. Bu esa bir tomondan imperiya sanoat mahsulotlari uchun yangi bozorlarning ochilishini ta'minlagan bo'lsa, ikkinchi tomondan, mahalliy ishlab chiqarishning pasayishiga va ichki iqtisodiy faollikning susayishiga olib keldi. Xususan, muallif Xiva ishlab chiqaruvchilari va hunarmandlari asta-sekin o'z mahsulotlari bilan raqobat qila olmay qolganini, bu esa ijtimoiy-iqtisodiy tengsizliklarning kuchayishiga va an'anaviy iqtisodiy strukturalarning yemirilishiga sabab bo'lganini ta'kidlaydi. Rossiya tovarlariga bojxona imtiyozlari berilishi esa savdo balansida muvozanatsizlikni kuchaytirgan, natijada Xiva xonligi iqtisodiy jihatdan Rossiyaga qaram holatga tushib qolgan. Mazkur holat nafaqat Xiva xonligi iqtisodiyotiga, balki Buxoro va Qo'qon xonligining ham iqtisodiy erkinlik masalasiga jiddiy ta'sirini ko'rsatishiga sab bo'lgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Российский государственнный историчиский архив. Ф.432. ОП.1. 1905-1919 г. ОЦ. / ОП.2. 1915-1917 г. ОЦ. Изыскательные партии по составлению проектов орошения в Туркестане отдела земельных улучшений МЗ.
2. Огаҳий. Гулшани давлат. Жилд 6. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 207 б.; Мухаммад Риза Агахи. Зубдат ал-таварих. Научно-критический текст. Составитель Хилола Назирова. Ташкент–Самарканд: МИЦАИ, 2016. 304 с.; Огаҳий. Жоме ул-вокеоти султоний. Асарлар. Жилд 6. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – Б. 21.
3. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (география). Введение, перевод, примечания, указатели Ахмедова Б.А. – Ташкент: 1977.
4. Баҳодирхон А. Шажараи турк. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – 192 б.
5. Беруний. Осорул боқия ан-ал қурун ал-холия. ЎзР ФАда сақланаётган таржима қўлёзмаси. Т/Н. 1171. – Б. 432-440.
6. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. – Тошкент: Фан, 1963. 3 жилд. − 390 б.
7.Умар Хайём. Наврўзнома. –Тошкент: Меҳнат, 1990. – 78 б.
8. Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. Спб. 1843. 279 С.
9. Макшеев А.И. Путешествия по Киргизским степям и Турке станскому краю. Спб., Глав, штаб, 1896. IX, 257 с.
10. Семенов П.П. История полувековой деятельности Русского географического общества. 1845-1895. ч.I, Спб. 1896. 468 стр.; Краткие сведения об экспедиции Бутакова 1848-1849 гг. С. 28-29.
11. Липский В.И. Флора Средней Азии. ч. III. Ботанические коллекции из Средней Азии. Спб., 1905. С. 341-841.
12. Эверсман Э. Письмо доктора Эверсмана, находившегося при Российской миссии в Бухарию, полученное 1 марта 1821 года в С.-Петербурге. Северный архив, 1822, С. 512-517.
13. Мейендорф Г. О Бухарской торговле (Из путешествия в Бухарию барона Г.Мейендорфа в 1820 г.) — Журн. мануфактур и торговли, № 6, С. 83-105; Мейендорф Г. Статистический взгляд на Бухарию. (Из книжки Путешествие в Бухарию полковника барона Мейендорфа. С франц. А.Каменский. — Северный архив, 1826. ч. 23, С. 161-162; Мейендорф,Г. Нравственное состояние Бухарин. (Из книги Путешествие в Бухарию. Пер. А.Каменский. — Северный архив, 1826, ч. 24. - с. 72-85, ч. 25. - С. 178-194.
14. Маслова О.В. Обзор русских путешествий и экспедиций в Среднюю Азию 1715-1856. Часть 1. Ташкент. 1955. 22 с.
15. Allworth E. Central Asia: a Century of Russian Rule. – New York: Columbia University press, 1967. – 552 p.
16. Allworth E. Central Asia: One Hundred and Twenty Years of Russian Rule. – New Carolina: Duke University press, 1989. – 608 p.
17. Becker S. Russia's Protectoras in Central Asia: Bukhara and Khiva (1865-1924). – Cambridge, 1968. – 416 p.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 1(4)"0/9":128

G‘ARB FALSAFASIDA RUHIY KAMOLOTNING SHAKLLANISHI

Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich, Fan va texnologiyalar universiteti o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

THE FORMATION OF SPIRITUAL PERFECTION IN WESTERN PHILOSOPHY

Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich, Lecturer and Independent Researcher, University of Science and Technology

ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНОГО СОВЕРШЕНСТВА В ЗАПАДНОЙ ФИЛОСОФИИ

Шадиметов Махмуджон Негматжанович, преподаватель и самостоятельный исследователь Университета науки и технологий

https://orcid.org/0009-0002-5146-0421
e-mail: shadimetovm@bk.ru

Annotatsiya: *Maqolada G‘arb falsafasi an’anasida ruhiy kamolot tushunchasining shakllanishi, uning tarixi, asosiy nazariy yo‘nalishlari va falsafiy oqimlar doirasida rivojlanishi tahlil qilinadi. Maqolada Platon, Aristotel, renessans, ma’rifat va zamonaviy ekzistensialistlar fikrlari asosida ruhiy kamolot masalasi ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *ruhiy kamolot, G‘arb falsafasi, inson shakllanishi, ma’naviy rivojlanish, ekzistensializm.*

Abstract: *The article analyzes the formation of the concept of spiritual perfection in the tradition of Western philosophy, its history, main theoretical directions, and development within philosophical movements. The issues of spiritual perfection are examined based on the ideas of Plato, Aristotle, the Renaissance, the Enlightenment, and modern existentialists.*

Keywords: *spiritual perfection, Western philosophy, human development, moral development, existentialism.*

Аннотация: *В статье анализируется формирование понятия духовного совершенства в традиции западной философии, его история, основные теоретические направления и развитие в рамках философских течений. Рассматриваются вопросы духовного совершенства на основе идей Платона, Аристотеля, эпохи Возрождения, Просвещения и современных экзистенциалистов.*

Ключевые слова: *духовное совершенство, западная философия, формирование личности, духовное развитие, экзистенциализм.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Ideallar nazariyasi (Theory of Forms): Platonning “Davronlar” (Republic), “Fedon” (Phaedo) asarlarida u insonning ruhiy kamoloti uning ma’naviy ideallarga intilishi orqali ro‘yobga chiqishini ta’kidlaydi. Har bir shaxs bilim va aql orqali “yaxshilik” va “haqiqat” idealiga etishishi mumkin. Ruh va ma’naviy rivojlanish: “Fedon” asarida Platon ruhning abadiyligini va uning tanadan mustaqil rivojlanishini ta’kidlaydi. Ruhiy kamolot – bu inson ruhining ma’naviy yuksalishi, bilim va aql orqali axloqiy fazilatlarga erishishdan iborat. Platonda ruhiy kamolot insonning ma’naviy va aqliy rivojlanishi, bilim va haqiqat idealiga intilishi bilan bog‘liq. Uning fikriga ko‘ra, ma’naviy kamolot ruhning ideal shaklga etishi bilan ifodalanadi[1]. Aristotelda ruhiy kamolot – bu insonning tabiiy potensialini ro‘yobga chiqarish va axloqiy va aqliy fazilatlar orqali hayotda “eudaymoniya” (salomatlik, baxt)ga erishish. Eudaymoniya tushunchasi: Nicomachean Ethics asarida Aristotel odamning maqsadi – “eudaymoniya”, ya’ni ma’naviy va aqliy rivojlangan, samarali hayot kechirish ekanligini ta’kidlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ/MATERIALS AND METHODS). Ruhiy kamolot axloqiy fazilatlar (just, courage, temperance) va aqliy fazilatlar (wisdom, understanding) orqali ro‘yobga chiqadi. Fazilatlar va ma’naviy rivojlanish: Aristotelga ko‘ra, inson tabiatan ratsional mavjudot bo‘lib, uning maqsadi aql va fazilat orqali ruhiy kamolga erishish. Golden Mean (o‘rta yo‘l)

konsepsiyasi axloqiy kamolotning asosiy prinsipi hisoblanadi[2].

Platon va Aristotel falsafasida ruhiy kamolot (ilmiy tahlil):

1. Platonning nuqtayi nazarlari. Platonda ruhiy kamolot tushunchasi asosan ma'naviy va aqliy rivojlanish bilan bog'liq. U "Respublika" va "Fedon" asarlarida inson ruhining abadiyligini ta'kidlaydi va uning ma'naviy yuksalishi orqali haqiqat va yaxshilik idealiga intilishini asosiy maqsad qilib qo'yadi (Plato, Republic; Plato, Phaedo). Annas (Annas,1981)ning fikriga ko'ra, Platonda ma'naviy kamolot — bu ruhning tozalanishi, bilim orqali yaxshilik va haqiqatni anglashdir. Inson bilim olishi orqali o'z ruhini kamol toptiradi va shu yo'l bilan ma'naviy yuksaklikka erishadi.

2. Aristotelning nuqtayi nazarlari. Aristotelda ruhiy kamolot insonning tabiiy potensialini ro'yobga chiqarish va axloq va aql orqali hayotda eudaymoniyaga erishishni nazarda tutadi[3]. U insonning maqsadini samarali va ma'naviy hayot deb bilgan va kamolga yetishishning fazilatlarni rivojlantirish orqali amalga oshirish mumkinligini ta'kidlagan[4]. Aristotel axloqiy fazilatlarning o'rta yo'li (Golden Mean) insonni ravon va muvozanatli hayotga olib borishini ta'kidlaydi. Shu tariqa, ruhiy kamolot bu aql va axloqqa asoslangan shaxsiy rivojlanishdir.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Platon va Aristotelda ruhiy kamolot tushunchasi ma'naviy rivojlanish bilan bog'liq, ammo Platonda u bilim va haqiqat idealiga intilish orqali, Aristotelda esa axloq va aql orqali hayotda kamolga erishish bilan ifodalanadi.

Solishtirma

T/r	Falsafachilar	Ruhiy kamolot yo'nalishi	Natija
1.	Platon	Ma'naviy va aqliy yuksalish	Abadiy haqiqat va yaxshilik idealiga erishish
2.	Aristotel	Axloq va aql orqali tabiiy potensialni ro'yobga chiqarish	Eudaymoniya – ma'naviy va samarali hayot

Aristotelda ruhiy kamolot insonning aql va axloqqa asoslangan tabiiy potensialini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq. Bu nafaqat ma'naviy rivojlanish, balki amaliy hayotda barqaror va samarali ekzistensiyani ham ta'minlaydi.

G'arb falsafasida ruhiy kamolotning shakllanishi bosqichlari:

1. Antik davr (mil.avv. VI – mil. I asrlar) — Ruh va aql uyg'unligi g'oyasi. Asosiy namoyandalar: Suqrot, Aflotun, Arastu. Mazmuni: Suqrot — "O'zingni bil" g'oyasini ilgari surib, insonning axloqiy va ruhiy o'zini anglashini markazga qo'ydi. Aflotun — ruhni uch qismga bo'lib (aql, iroda, nafs), haqiqiy kamolot aqlning hukmronligi bilan erishiladi, dedi. Arastu — fazilat (areté) orqali "oltin o'rtalik"ni saqlashni ruhiy barkamollik mezoni sifatida tushuntirdi.

2. Xristian falsafasi davri (IV–XIV asrlar) — Ruhiy poklanish va ilohiy kamolot. Asosiy namoyandalar: Avreliy Avgustin, Foma Akvinskiy. Mazmuni: Ruhiy kamolot – insonning Xudo irodasiga bo'ysunishi, "ilohiy haqiqat"ni qalban anglash jarayoni. Foma Akvinskiy Aflotun va Arastu g'oyalarini xristian aqidasi bilan uyg'unlashtirib, ruhiy kamolotni aql va e'tiqod birligi sifatida talqin qildi.

3. Uyg'onish (Renessans) davri (XIV–XVI asrlar) — Inson markazchiligi va erkin tafakkur. Asosiy namoyandalar: Leonardo da Vinchi, Mikelandjelo, Piko della Mirandola, Erasmus Rotterdamskiy. Mazmuni: Ruhiy kamolot insonning ijodkorligi, erkinligi va shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish orqali ifodalanadi. Inson tabiatda markaziy o'rin tutadi ("gumanizm"), ruhiy kamolot esa san'at, tafakkur va axloq orqali yuksaladi.

4. Yangi davr falsafasi (XVII–XVIII asrlar) – Aql va tajriba orqali mukammallik. Asosiy namoyandalar: R.Dekart, B.Spinoza, J.Lokk, I.Kant. Mazmuni: Dekart – "Men o'ylayman, demak mavjudman" g'oyasi bilan inson aqlini ruhiy kamolotning mezoniga aylantirdi. Spinoza – inson erkinligi va e'tiqodni "tabiat qonuniga muvofiqlik"da ko'rdi. Kant: "Ruhiy kamolot – bu axloqiy o'zini anglash, "axloqiy qonun"ni ichdan his etishdir".

5. XIX–XX asrlar falsafasi –Ekzistensializm va ong tahlili. Asosiy namoyandalar: S.Kierkegaard, F.Nitsshe, Z.Freyd, K.Yung, J.P.Sartr. Mazmuni: Kierkegaard: "Ruhiy kamolot insonning shaxsiy tanlov va mas'uliyatini anglashida". Nitsshe "Ustinson" (Übermensch) g'oyasi orqali o'zini yengish va ijodiy ruhiy o'sishni targ'ib qildi. Freyd va Yung ruhiy kamolotni inson ongi, ongsiz jarayonlar va arxetiplar orqali tahlil qildilar. Sartr: "Ruhiy kamolot insonning o'z erkinligini anglash va unga javobgarlik bilan qarashdir".

6. Zamonaviy bosqich (XXI asr) – Postmodern va transpersonal yondashuvlar. Asosiy namoyandalar:

TAMADDUN NURI

K.Uilber, E.Fromm, V.Frankl. Mazmuni: ruhiy kamolot – bu shaxsning o‘zini, boshqalarni va borliqni bir butun holda anglash jarayoni. Franklning “Hayot ma’nosi” konsepsiyasi, Uilberning “integral ong” modeli insonni jismoniy, aqliy va ruhiy birlikda ko‘radi.

Renessans (14–17-asrlar) – Yevropada san’at, madaniyat, fan va falsafa sohalarida uyg‘onish davri bo‘lib, u o‘tmishdagi o‘rta asrlar qadriyatlarini yangilash, tabiat va insonni markazga qo‘yish bilan tavsiflanadi. Inson markazchiligi (Humanizm) – Renessans gumanizmining asosiy tamoyili bo‘lib, insonning aql, tafakkur, ijodiy salohiyat va ma’naviy o‘sishini yuqori qadrlashga asoslanadi. Bu tushuncha shunday xususiyatlarga ega: ma’naviy erkinlik – inson o‘z fikri va hissiyotlarini erkin ifoda etishi, hayotiy qarorlarni o‘zi qabul qilishi, individual rivojlanish – inson shaxs sifatida rivojlanishi, bilim va san’at orqali o‘z imkoniyatlarini kengaytirishi, Ijodiy yangilik ilm-fan va san’atning rivojlanishi, insonning tabiat va jamiyat bilan uyg‘unlashuvidir[5].

Leonardo da Vinchi (1452–1519). Mashhur asarlari: Mona Liza, So‘nggi kechki ovqat, ilmiy risolalari (Codex Atlanticus). Gumanizm: tabiat va insonni o‘rganish orqali bilimga intilish, individual tafakkur va ijodiy kashfiyotlarni rivojlantirish. Gumanizm g‘oyalari. Insonni markazga qo‘yish: jamiyat, fan va san’at insonning ijtimoiy va individual ehtiyojlari atrofida shakllanishi kerak.

Ta’lim va bilimga urg‘u berish: inson tafakkuri va ma’naviy rivoji orqali jamiyat taraqqiy etadi. Individualizm: har bir insonning qobiliyatlari, ijodi va hissiyotlariga hurmat bilan qarash. “Postmodern” tushunchasi — modernlikka nisbatan bo‘lgan, uning umumiy narrativlariga va metanarrativlarga shakronchilik bilan qaraydigan falsafiy yo‘nalish. Masalan, “ma’rifat metanarrativlari”ga shubha bildiriladi. Postmodern ruhiylik (spirituality) kontekstida, an’anaviy din/ruhiylik strukturalaridan kelib chiqmay, individual, gibrid, “o‘znara” shakllangan ma’naviy izlanishlar keng tarqalgan [6].

Transhadisiy (trans-traditional) yondashuvlar – diniy an’analar, ijtimoiy-etnik tarmoqlar, globallashuv va madaniy aralashuv orqali shakllanayotgan ma’naviylik. Masalan, postmodern ruhiylikda “bir bildirilgan fikr”dan ko‘ra, turli yo‘llar va formalar mavjudligi ta’kidlanadi[7]. Ruhiy kamolot tushunchasi faqat individual (ya’ni shaxsiy) rivojlanish bilan cheklanmaydi, balki odamning ijtimoiy, madaniy va etnik manzarasida ham shakllanadi. Masalan, madaniyat, jamiyat, etnik taalluqlilik insonning ma’naviy izlanishlarida muhim rol o‘ynaydi.Postmodern sharoitida, jamiyat shaxsni birlamchi narrativlar orqali emas, balki turli qavmlar, madaniyatlar hamda etnik guruhlar orqali tashkil etadi va shu bilan ruhiy rivojlanish uchun keng maydon yaratadi[8]. Ruhiy kamolotga erishishda etnik, madaniy, ijtimoiy omillar: shaxs qaysi jamiyatda paydo bo‘lgani, qaysi madaniyatning ta’sirida shakllangani, ijtimoiy tarmoqlar unga qanday imkoniyat bergani kabilar katta ahamiyat kasb etadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). G‘arb falsafasida ruhiy kamolot tushunchasi antik davrdan boshlab rivojlangan: misol uchun Platon, Aristotel, keyin o‘rta asrlarda teologiya kontekstida, modernlikda individuallik va aqlga tayanib va keyin postmodernlikda qayta shakllangan. Shu tarixiy oqimlarning oralig‘ida an’anaviy falsafa va teologiyadan insonning ma’naviy rivojlanishiga qarashlar o‘zgardi, tafsilotlilik, individuallik, globallik va madaniy aralashuvlar yangicha formada namoyon bo‘ldi. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim, psixologik rivojlanish, madaniy sharoitlar va etika juda muhim bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Plato Republic. Translated by G. M. A. Grube. Hackett Publishing, 1992.
2. Plato Phaedo. Translated by G. M. A. Grube. Hackett Publishing, 1977.
3. Aristotle. Nicomachean Ethics. Translated by W.D.Ross. Oxford University Press, 1925.
4. Kraut R. Aristotle on the Human Good. Princeton University Press, 2018.
5. Moreira-Almeida, Alexander et al. Western spirituality: A historical epistemology. Oxford University Press, 2021.
6. Wei Wei. Spiritual Quest in a Secular Age: Cultural Transformations of Mystical Narratives in the Bildungsroman. Open Access Library Journal, 2025.
7. Leung, King-Ho & Milbank, John. Postmodern Philosophy and Theology. St Andrews Encyclopaedia of Theology. 2022.
8. Lee Jae-seong. Postmodern Ethics, Emptiness, and Literature: Encounters between East and West. Lexington Books, 2023.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 821.111

TÁBIYAT PENEN ADAM ARASINDAǴI TRAGIZM KÓRINISI (Allanazar Ábdievtiń “Iyt hám Adam yamasa Ashlıq sınaǵı” povestiniń kórkem dúzilisi)

Azatova Jamila Azatovna,
Ájiniyaz atındaǵı NMPI doktorantı



THE TRAGEDY BETWEEN MAN AND NATURE *(A Case Study of Allanazar Abdiev’s “Dog and Man, or The Trial of Hunger”)*

Jamila Azatovna Azatova,
Doctoral Student NSPI named after Ajiniyaz

ТРАГИЗМ ВО ВЗАИМООТНОШЕНИЯХ ЧЕЛОВЕКА И ПРИРОДЫ *(на примере повести Алланазара Абдиева „Собака и человек, или Испытание голодом”)*

Азатова Жамила Азатовна,
Докторант НГПИ имени Ажинияза

Annotaciya: *Bul maqalada A.Ábdievtiń “Iyt hám Adam yamasa Ashlıq sınaǵı” povestindegi adam menen iyt arasındaǵı qatnas arqalı berilgen ruwxıy adamgershilik qádiriyatlar menen ashlıq, tirishilik ushın gúres sıyaqlı tereń psixologiyalıq máseleler ádebiy talqılanadı. Usı shıǵarmanıń ańshılıq temasındaǵı kórkem prozada tutqan ornı, tipologiyalıq ózgeshelikleri jáne de gumanistlik ideyası sóz etiledi.*

Gilt sózler: *povest, ashlıq, ańshı, tragediya, filosofiya.*

Abstract: *This article provides a literary analysis of A. Abdiev’s novella “Dog and Man, or The Trial of Hunger”, in which the spiritual and moral values are conveyed through the relationship between a man and a dog. The story explores deep psychological issues such as hunger and the struggle for survival. The paper also discusses the work’s place within hunting-themed prose, its typological features, and its humanistic message.*

Key words: *novella, hunger, hunter, tragedy, philosophy.*

Аннотация: *В данной статье проводится литературный анализ повести А.Абдиева «Собака и человек, или Испытание голодом», в которой через отношения между человеком и собакой раскрываются духовно-нравственные ценности, а также глубокие психологические проблемы, такие как голод и борьба за выживание. Освещается место произведения в прозе охотничьей тематики, его типологические особенности и гуманистическая идея.*

Ключевые слова: *повесть, голод, охотник, трагедия, философия***.**

Kirisiw. Qaraqalpaqstan xalıq jazıwshısı, filologiya ilimleriniń kandidatı, “Doslıq” ordeni iyesi, jurnalist Allanazar Ábdiev házirgi qaraqalpaq prozasında filosofiyalıq oyı basım jazıwshı retinde ózgeshelenedi. Onıń sońǵı jıllarda dóretilgen “Iyt hám adam yamasa Ashlıq sınaǵı” povesti kórkem prozadaǵı ózgeshe shıǵarma retinde adam menen tábiyat, adam menen janıwar, ruwx penen dene, ashlıq penen ar-húdjan arasındaǵı quramalı qatnaslardı súwretleytuǵın shıǵarma bolıp esaplanadı. Povesttiń ulıwma ideyasında insannıń adamgershilik, sadıqlıq hám jasaw ushın gúres jolındaǵı tańlawın jáne sol tańlaw artındaǵı ishki jan dúnyasın, ruwxıy keshirmelerin kórsetiw turadı.

Izertlew metodologiyası. Maqalada tómendegi ádebiy analiz usıllarınan paydalanıldı: ádebiy-filosofiyalıq – ashlıq hám adamgershilik tańlaw mashqalası filosofiyalıq qatlamda analiz etildi; psixologiyalıq analiz – Jamǵırdıń ishki keshirmeleri, sheshiwshi qararlar aldındaǵı qarama-

qarsılıqlı jaǵdayı analiz etildi; kompozicion hám obraz analizi – syujet qurılısı, povesttegi tiykarǵı obrazlar arqalı jazıwshınıń gumanistlik poziciyası ashıp berildi.

Talqılaw hám nátiyjeler. Povesttiń waqıyası góne sak-massaget dáwirinde bolıp ótedi. Bul tańlaw – jazıwshınıń adamzattıń dáslepki instinklerine, tirishilik penen tiri qalıw jolındaǵı gúresine, dáslepki qáwim adamınıń tábiyat penen tikkeley baylanısına úńiliwine talpınǵanınan dep esaplaymız. Belgili teoretik L.Vıgockiydiń aytıp ótkenindey, shıǵarma mazmunın ózińniń oy-sanań, jan dúynań menen tereń sezinbey, onı túsinip ańlaw, yaǵnıy ónerdi shıǵarmashılıq psixologiyasısız tanıp biliw múmkin emes. [2] Usı aytılǵan pikirge jazıwshınıń "*Ózim qay dáwirdegi waqıya-hádiyseni súwretlesem de sol qaharmanlar menen aralasıp jasayman, birge júremen, kúlse kúlip, qıynalsa qıynalaman"* dep aytqan maǵlıwmatları tolıq juwap bere aladı. Qarasak kósemi Kókbult jasaytuǵın "Mıńqut" awılı bolǵanlıqtan qáwimniń ishki, tısqı másleleri usı jerde keńesip, sheshiledi. Ol qáwimniń basshısı bolǵanlıqtan eldiń obal-sawabın moynına alǵannan keyin, xalıqtıń ash qalmawınıń ǵamın jep júredi. Kóbinese óz awılınıń ańshı-qusshı jigitlerin dım tındırmaydı. Bizler tek ózlerimiz ushın emes barlıq qarasak tuwısqanlarımız ushın, hátte massaget xalqı ushın da qayǵırıwımız, azıq jıynap qoyıwımız tiyis dep ózinıń ulı Jamǵırdı ańshı dosları Qaymaq, Olja, Temirler menen birge toǵayga ań awlawǵa jollaydı. Adamzat 12-15 mıń jıl burın dáslep qolǵa úyretken janıwarı bul –iyt [5;21] bolǵanlıqtan ańshılar tazıların ertse, basshısı Jamǵır ańǵa bul sapar ózinıń súyikli, qarıwǵa mingen Bóribasar iytin alıp shıǵadı. Solay etip shıǵarmadaǵı barlıq waqıya olardıń usı ańǵa shıqqan saparınıń dógereginde bolıp ótedi. Olardıń ań awlap, olardı pisirip jep otırǵanında qurallı dushpan bastırıp keledi. Qanlı urıstan tek Jamǵır menen onıń iyti Bóribasar ǵana tiri qaladı. Jamǵırdıń tiri qalıwına da sebepshi Bóribasar dep aytsaq boladı, sebebi Jamǵır jaraqatlanıp essiz jatqanda onı qorıqlaǵan da sol Bóribasar edi. Jamǵır urıstan awır jaraqat alıp birneshe kúnnen keyin ózine kelgenlikten ashlıq qıynay baslaydı. Bóribasar menen úmitin úzbey óz awılına jetip alıw ushın jolǵa túsedi. Jol dawamında ekewi kóp qıyınshılıqlarǵa dus keledi. Olardıń aldınan neshe túrli haywanlar shıǵıp, ólip ketiw qáwpi bar bolǵanda da Bóribasardıń arqasında tiri qaladı. Ashlıq qıynaǵan waqıtta Jamǵır túrli waqıyalardı eslep, yadına túsiredi. Ashlıq ábden janın órtegenlikten kóz aldına ańshı dosları menen taza ań góshlerin jep otırǵanı elesleydi, bir qarasa iyti Bóribasardıń góshi otta pisip atırǵanın, jep otırǵanı da Bóribasardıń góshi bolıp kórinedi. Sonda ishinen "Iytti de jewge boladı eken ǵoy" deydi. Sonda ákesi Kókbulttıń násiyatı yadına túsedi: *"Adamǵa sadıq, miyirman, eń jaqın joldas bolsa da iytti jew múmkin". Ákesi bul retki aqıl-násiyat gúrrińinde "Eger de ańshı qattı ash bolıp ilájsız qalsa, ashtan ólmes ushın óz iytin jese de boladı", degen edi. Sonda bala Jamǵır: - Aǵa, Iyt Adamnan kerek bolsa, bazıda jorańnan da sadıq deysiz. Jáne Adamnıń Iytin soyıp, óltirip jewin maqullaysız? Ol qalay boldı? Bir sózińiz ekinshisine qayshı ǵoy, aǵa. - Durıs. Men ulıwma, qulaǵım bir shalıp ketken gápti ayttım. Sál jerde áwladlarımızdıń, perzentlerimizdiń biri sonday sharayatqa túsip qalıp, ashtan ólmesi ushın aytıp otırman. - Sonda men mına Bóribasardı jewim kerek pe, aǵa? - Aǵa, men siz aytqan sonday sharayatqa túsip turman. Bóribasardı jewge májbúrmen. Ash boldım. Jeyjaqpaaannn!"* [1;88]

Qattı ash bolǵan Jamǵırdıń oyına iytti jesem degen qıyal kelgenlikten, iytten de meni jewi múmkin dep gúmanlanıwı da ushırasadı. Jáne jol boyı ákesiniń aytıp bergen Salor, Qazan, Bórte Ana, Tumarqızı patsha haqqındaǵı hám Shıraq shopan yaki jılqıman tuwralı ápsanaların esine aladı. Ondaǵı qaharmanlar uqsap ózi de joldasların óltirip ketken gunn qáwiminen ósh alıwdı, tuqımqurt etiwdi oylaydı. Onıń ushın úlken kúsh-qarıw lazım. Kóp kúshli awqatlar jew kerek. Bunda Bóribasardıń góshi payda boların oylap, onı jemekshi bolıp shaqıradı. Sonda iyt awzında palapan menen keledi. Bóribasardıń awzında palapanın ákelip beriwi – iyttiń iyesine degen miyriminiń, sadıqlıǵınıń kórinisi. Ózinıń de ashlıqtan hálsirep turǵanına qaramay, Bóribasardıń tabısın ózi jemey iyesine beriwi – adam menen janıwar arasındaǵı ruwxıy baylanıstıń simvollıq kórinisi esaplanadı. Avtor usılayınsha janıwar obrazın gumanistlik penen súwretlep, oqıwshınıń júregine tásirin tiygizedi.

Povestte Jamǵırdıń eske túsiwirlerinen birinde usınday gúrrińlesiwine itibar qaratsaq: *"Ákesi Kókbulttıń: - Bul dúnyada eń jawız kim, ne? – dep soraydı balalarınan jatarda. Olar jabırlasıp, sol da jumbaq boldı ma, nesi qıyın degendey:*

- Aǵa, onı kim bilmeydi. Qasqır, jolbarıs, ayıw, saǵallar ǵoy, - deydi.

- Sonda ákesi: - Yaq, balalarım, aytqan haywanlarıńız tek gósh jeydi. Al, eń jawız maqluq bul – Adam. Adam álbette, dúnyanıń tirepberdisi, eń aqıllı tirishilik iyesi. Adamsız dúnya qızıq emes, gózzal emes, jerdi gúllendiretuǵın, abadanlastırıp, ózgertetuǵın, yaǵnıy dúnyanı terbetetuǵın da Adam. Lekin dúnyanı joq etetuǵın da – Adam". [1;102]

Povesttegi áke menen balaları arasındaǵı bul dialog ulıwma adamzatlıq filosofiyalıq oyǵa jeteleydi. Avtor adam tábiyatınıń qarama-qarsı qırların súwretley otırıp, oqıwshını tereń etikalıq sorawlar menen oylandıradı. Jazıwshı adamnıń bir mezgilde hám jaratıwshı, hám qıyratıwshı bola alatuǵın eki ushlı bolmısın alǵa súredi. Adam – bir tárepten jámiyet qurıwshısı, dóretiwshi, ekinshi tárepten bolsa ol óz qolı menen urısıw, qırıw, tábiyattı búldiriw sıyaqlı jawızlıqlar da isleydi. Avtor dialog arqalı adamnıń haywannan ayırmashılığın – tek bilogiyalıq instinkt penen ómir súriwinde emes, aqıl menen erkke iye bola turıp, jawızlıq jasaw qábileti menen ayırılatuǵının nusqaydı. Qasqır, ayıw, jolbarıs – tek ashlıqtan shabadı. Al adam ash bolmasa da, nápsisi menen biylikke umtılıw ushın qıyanet isley aladı. Filologiya ilimleriniń doktorı, belgili ádebiyatshı Perdebay Nurjanovtıń aytıp ótkenindey: "Hárqanday joqarı kórkem sapada dóretilgen ádebiy dóretpe turmıstı obrazlı súwretlewi menen birge óz avtorınıń dúnyatanımınıń, kózqarasınıń, individual pazıyletleriniń áhmiyetli táreplerin de ózine jámleydi. Dóretiwshiniń qálbi, pikir-tuyǵıları, simpatiya hám antipatiyaları ol jaratqan shıǵarmaǵa sińdiriledi"[4;3]. Ilimpaz kórsetip ótkenindey shıǵarmanıń bul syujeti tek Kókbulttıń oy-sana dárejesin ashıw ǵana emes, sonıń menen birge jazıwshınıń gumanistlik, sınshıl kózqarasın bildiredi. Bul kórkemlik tásil menen beriliwi – ideyalıq-poetikalıq tereńligin arttıradı. Sonday-aq, Kókbult penen Jamǵır sáwbetin usılay dawam etedi: *"Iyt gósh jeydi. Onıń adamdı jewi múmkin be? – dep soradı jáne sonda Jamǵır. - Yaq, - deydi Kókbult. – Adamnıń eń jaqın dostı, qorǵanıshı, saqshısı – Iyt. Onıń gósh jeytuǵını anıq. Tawıq, úyrek t.b. quslardı, qoyan, kiyiklerdi jegenin kórdik, esittim. Jek kórgen adamın óshigip talawı, tislep alıwı múmkin, lekin sol dushpan adamın da jegenin kórgen joqpan, esitpedim de. Sonlıqtan onnan hesh waq qáwiplenbeń, bálkim, júdá ashıqsa jemese... Al, biraq Adamnıń Iytti jeytuǵının esittim, bilemen de".* [1;103]

Berilgen úzindide avtor adam menen iyttiń obrazın salıstırıw arqalı tereń filosofiyalıq máseleni kóteredi. Kókbulttıń pikiri arqalı avtor adam balasınıń gey waqıtta eki júzliligi menen jawızlığın ashkaralaydı. Iyt adamǵa hadal xızmet etetuǵın, shın doslıqtıń simvolı sıpatında berilgen. Al adam – sol doslıqqa layıq pa, joq pa degen soraw shıǵarmada birneshe tusta ashıq yamasa jasırın túrde qoyıladı. Bul dialog avtorlıq koncepciyanıń – "Eń jawız jaratılıs – adam" degen oydıń kórkem til menen kórinis tabıwı bolıp esaplanadı. Bul arqalı avtor adam tábiyatındaǵı ruwxıy tómenlewi menen jawızlığın sınǵa aladı.

Shıǵarmada Jamǵırdıń iyt haqqında, ashlıq tuwralı ákesiniń aytqan aqıl-násiyatların, ápsanaların yadqa túsiriw arqalı avtor oqıwshıǵa adam janın túrshiktirerlik waqıyalardı jetkerip beredi. Bul eslewleri – ápiwayı ótkenleri yadına túsiriw emes, tereń psixologiyalıq jáne jámiyetlik astarı bar waqıya esaplanadı: *"Adam degen maqluq, - dep baslaǵan sonda ol gápin, - balalarım, tirishilik atawlısınıń eń aqıllı, dana, sanalısı, gózzalı, miyirmanı, keńpeyil, saqıyı bolıwı menen birge eń qanxor, nápsiqaw hám iplası da. Óydemey ne qılayın, ol tek Iytin ǵana emes, retinde óz balasın da jese... - Qoyıń-dá, aǵa. Bular kishkene, aytqanıma isene beredi, dep bizlerdi aldamań. Adamnıń óz perzentin jeytuǵınına isenbeymiz, - deymiz ǵawırlasıp. - Iseniń, isenbeń, lekin meniń atamnan esitken áńgimemde solay bolǵan... ashtan júdegen, júregi suwırılıp baratırǵan ákeniń aqırı shıdamı tawsılıp, hayalınıń qolınan náresteni tartıp alıptı. Ashlıqtan es-aqıldan awǵan ol beldemesindegi qıstırıwlı qınnan ótkir pıshaǵın alıp, kózin tarsa jumıp, qolı menen bayqastırıp, jambastaǵı bılqıldaq góshke pıshaq salıptımısh. Júrim balanıń tániniń et kesip alǵan áke awzına salıp, tamaǵınan zorǵa ótkerip, kelesi qırdan asqan eken, kóziń nurǵa tolsın, Ananıń bir jaqsılıqtı sezip, erin endigi qırdan asayıq dep úgitlegeninshe bar eken".* [1;104]

Bul kórinis insan mánáwiy ıdırawınıń eń shoqqısında tur. Tragediyalıq epizod insannıń qanday dárejede haywanlasıp ketiwi menen birge onnan da jaman jaǵday – óz balasın jeytuǵın dárejede jabayılasıwın kórsetedi. Bul jaǵdayda insan tek ǵana jámiyet ólshem shegaraların emes, al aqıl-sana, húydan hám insanlıq kórinisin joǵaltqan. Avtor usı waqıyalar tiykarında eki júzlilikti, turmıstaǵı túrli sınawlardı (ashlıq, joqshılıq, urıs, apat) onı qalay ózgerte alıwın hám bul ózgeris

insannıń ishindegi haqıyqıy júzin ashıp beriwin kórsetedi. Usı arqalı A.Ábdiev tek ǵana povesttiń syujetin rawajlandırıp qoymastan, quramalı filosofiyalıq tám tárbiyalıq máselelerdi ortaǵa qoyadı: insan jamanlıqqa meyil me, yamasa hár qıylı jaǵdaylar onı sonday dárejege májbúr qıla ma? Ákesiniń ashlıqtan óz balasın jegeni tuwralı gúrriń – adamzat tariyxındaǵı eń awır, eń qásiretli waqıyalardan biri sıpatında súwretlenedi.

Jazıwshı A.Ábdievtiń "Iyt hám adam" povestindegi bul jan túrshiktirerlik waqıya avtordıń qıyalınan yamasa fantastikalıq elementler emes, qayta anıq ómirde bolǵan waqıyanıń kórkemlik penen jetkerilgen nusqası esaplanadı. Bul epizod jazıwshınıń shıǵarmashılıq laborotoriyasındaǵı áhmiyetli bir mısallardan biri desek boladı. Bul tuwralı maǵlıwmattı ilimpaz Janızaq Esenovtıń A.Ábdiev haqqında jazılǵan "Búrkit párwaz dóretiwshi" dep atalǵan miynetindegi "Jazıwshı laborotoriyası" bóliminen kóriwimizge boladı. Onda avtordıń usı awır waqıyanı bir adamnan esitkenin hám onı kórkem analiz jasaw arqalı shıǵarmada paydalanǵanın bilemiz.

Aqırı óz iytin jemekshi bolıp, Bóribasardı shaqıradı. Iyt te shaqırǵan waqıtta juwırıp keldi de, biraq aldı bette bir nárse sezgendey izine burılıp juwırıp ketedi. Bóribasar sol tárepke qaray úrgen dawsınan Jamǵır bir jaqsılıqtı sezedi yaǵnıy olar tuwǵan awılına jaqınlaǵan edi*: "Uwh-h! Tuwılǵan "Mıńqut"ıma jettim-aw! Awıldıń qumlıq tárepinen kelgen ekenbiz ǵo! Júrim balanıń jambasınan bir qosuwıs gósh berip bolsa da aman-saw qalǵanınday, Bóribasar da tiri qalajaq eken, shaması. Ilayım, solay bolǵay! Maǵan da onı soyıw, góshin jew ańsat bolıp turǵan joq".* [1;105] Solay etip, Bóribasardıń bul jerde de tiri qalıwı shıǵarmanıń ulıwma emocionallıq tásirin kúsheytedi. Sebebi oqıwshı shıǵarmanı oqıy otırıp, Jamǵırdıń ashlıq jaǵdayda iytin jewi múmkin degen qáwip penen, táshwishleniw menen qatar úmit penen de oqıydı. Iyttiń tiri qalıwı - oqıwshı ushın psixologiyalıq jeńillik tuwdıradı. Bul epizod oqıwshınıń iytke degen emocionallıq baylanısınıń barın jáne avtordıń iyt obrazın ápiwayı janıwar emes, qaharmannıń joldası, tiri qalıwǵa umtılǵan hadal tirishilik iyesi sıpatında súwretlegenin kórsetedi.

Jamǵırdıń tuwılǵan awılına kelip, onda heshkimniń qalmaǵanın, barlığınıń qırılıp, úylerdiń órtenip ketkenin kóriwi – qaharmannıń sońǵı úmitiniń úzilgen waqtı. Bul tek fizikalıq emes, ruwxıy ıdırawınıń da belgisi. Jamǵır óz shańaraǵınan, qáwiminen ayırılǵan waqıt – onıń jalǵızlığı menen qorǵansızlığınıń kulminaciyalıq noqatı desek boladı. Ashlıqtan, úmitsizlikten, sharasızlıqtan ábden hálsiregen Jamǵır toǵayda joldaslarınıń ruwxına qurbanlıq salıw ushın janında tiri qalǵan jalǵız dostı – Bóribasardı soyıp jiberedi. Bul sheshimniń ózi – tragediya. Bóribasar Jamǵır ushın tek iyt emes, ol – onıń ańshılıqtaǵı joldası, tiri qalıwǵa talpınǵan úmittiń simvolı edi. Iytti qurban etiw arqalı Jamǵır ózin de qurbanlıqqa shalǵanday boladı.

Juwmaq. Allanazar Ábdievtiń "Iyt hám Adam yamasa Ashlıq sınaǵı" povesti – urıs aqıbeti, ashlıq, adamzat penen tábiyat arasındaǵı qaramaqarsılıqlar, hadallıq penen amanat, ómir penen ólim sıyaqlı tereń filosofiyalıq máselelerdi jáne adamgershilik máselelerdi kóteretuǵın shıǵarma esaplanadı. Jamǵır menen onıń joldasınıń aǵa shıǵıwı, sol ortadaǵı tirishilik ushın gúres, Bóribasardıń obrazı arqalı ańshılıqtıń tábiyat penen, adam menen jáne taǵdir menen baylanısı kórkem súwretlengen. Bul kórkemlik dúzilis povesttiń ańshılıq temasın poetikalıq, filosofiyalıq jáne simvollıq dárejede kótergenin kórsetedi. Shıǵarmadaǵı ekspressiv bayanlaw tili, qaharmannıń logikası arqalı avtor zaman shınlığın, urıs waqtındaǵı awıl tirishiligin, ashlıq apatın, adamzattıń betin ashıp kórsetedi. Iyt penen adam arasındaǵı ruwxıy baylanıstı súwretlew arqalı jazıwshı hadallıq, qurbanlıq penen adamgershilik uǵımların qayta qarawǵa múmkinshilik beredi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Әбдиев А. Ийт ҳәм адам. Повестьлер ҳәм роман. Ташкент. «TURON-IQBOL», 2021. - 248 б.
2. Выготский Л. Психология искусства. – М.: Педагогика, 1987. – 318 с.
3. Есенов Ж. Бүркит пәруаз дөретиўши: Монография, - Ташкент. «Адабиёт» баспасы, 2024. -96 б.
4. Нуржанов П. Әдебият Ҳаққында ойлар.(илимий, илимий-публицистикалық, әдебий-сынлық мақалалар), - Нөкис: Билим баспасы, 2023. -336 б.
5. The domestic dog: tis evolution, behavior and interactions with people. Edited by James Serpell. Cambridge University press, 1995. -268 r.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 821.111(73)-31.09

THE POETIC REPRESENTATION OF THE HERO'S INNER WORLD IN "QUICKSILVER"

Karimov Ulugbek Nusratovich,
PhD in Philology, Associate Professor
Uzbekistan State University of World Languages, Uzbekistan

"SIMOB" ROMANIDA QAHRAMONNING ICHKI DUNYOSINING POETIK TASVIRI

Karimov Ulugbek Nusratovich, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti (PhD)

ПОЭТИЧЕСКАЯ РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ ВНУТРЕННЕГО МИРА ГЕРОЯ В РОМАНЕ "QUICKSILVER"

Каримов Улугбек Нусратович,
доцент Узбекского государственного университета мировых языков (PhD)

e-mail:
u.n.karimov@gmail.com
https://orcid.org/
0009-0006-0868-8358

Abstract: *This paper explores how Neal Stephenson's historical novel Quicksilver represents its protagonists' inner worlds through interior monologue, dialogue, landscape and portrait. Brief monologic asides, witty conversations and symbolically charged settings replace stream-of-consciousness, while comparisons with his cyberpunk and eco-thriller novels reveal a complex polyphonic interplay of science, politics and embodied experience.*

Key words: *interior monologue, dialogue, landscape, portrait, inner world.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Nil Stivensonning tarixiy* ***Simob*** *romani qahramonlarning ichki dunyosi interyer monologi, dialog, peyzaj tasviri va badiiy portret vositasida qanday poetik ifodasini topishi tahlil qilinadi. An'anaviy "ong oqimi" usulining o'rnini qisqa monologik chekinishlar, o'tkir va mazmunan zich suhbatlar hamda ramziy yuklangan makon tasvirlari egallaydi. Muallifning kiberpank va eko-triller romanlari bilan qiyosiy tahlil ilmiy diskurs, siyosiy ziddiyatlar va tanaviy tajribaning murakkab polifonik o'zaro aloqasini yuzaga chiqishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *interyer monologi, dialog, peysaj, portret, ichki dunyo.*

Аннотация. *В статье рассматривается, как исторический роман Нила Стивенсона* Quicksilver *репрезентирует внутренний мир своих персонажей посредством интериорного монолога, диалога, пейзажных описаний и литературного портрета. Показано, что краткие монологические вставки, остроумные диалогические сцены и символически нагруженные пространства сменяют традиционный поток сознания, тогда как сопоставление с его киберпанковыми и эко-триллерными романами выявляет сложное полифоническое переплетение научного дискурса, политической проблематики и телесного опыта.*

Ключевые слова: *интерьерный монолог, диалог, пейзаж, портрет, внутренняя речь.*

Introduction

Neal Stephenson's *Quicksilver* opens the ambitious Baroque Cycle by transporting readers to late-seventeenth-century Europe and New England. The novel interweaves the stories of three fictional protagonists – Daniel Waterhouse, Jack Shaftoe and Eliza – against a backdrop of scientific revolutions, political upheavals and nascent capitalism. Contemporary reviews note that the narrative oscillates between Daniel's studies at Cambridge and his later voyage from Massachusetts, as he recalls his youth and his friendship with Isaac

Newton. Jack Shaftoe is introduced as a vagabond who grows up in London's slums and later rescues Eliza, a harem slave, during the siege of Vienna. Eliza, liberated by Jack, becomes a financial savant and a spy in Amsterdam and Versailles.

The novel's structure has prompted comparisons to picaresque and historical chronicles. The *New Atlantis* notes that the Baroque Cycle is "soft" historical fiction: the principal characters are invented, while historical figures such as Newton and Leibniz appear only from the outside, with little of their inner lives presented. Critic Rich Horton remarks that *Quicksilver* is overlong and digressive yet filled with political intrigue, early science, disease and eccentricity [1]. Another reviewer, Miles Raymer, describes the book as sprawling and notes that it follows a "cross-continental flight through a turbid storm" where moments of brilliance coexist with long stretches of descriptive excess. The ambition of *Quicksilver* lies in its attempt to dramatize the birth of modern science and finance while maintaining a human focus on the inner conflicts of its characters.

This paper examines how Stephenson renders the inner world of his heroes through four artistic devices: interior monologue, dialogue, landscape and portrait. Interior monologue – the presentation of a character's thoughts directly or through selective narration– allows readers to access unspoken doubts and desires. Dialogue, defined as the spoken exchange that conveys context and voice, reveals character through speech and interaction. Landscape descriptions serve as symbolic backdrops; Robert Heslip emphasises that literary landscapes reflect the characters' emotions and psychological states [2]. Portraiture or characterization, in turn, refers to the direct and indirect depiction of a person's traits. By analysing these devices in *Quicksilver* and comparing them with Stephenson's earlier and later novels, this study seeks to illuminate how baroque narrative techniques can evoke the consciousness of characters in historical fiction.

Methods

The study employs qualitative close reading to identify and interpret passages in *Quicksilver* where interior monologue, dialogue, landscape description and portraiture shape the reader's perception of the protagonists' inner worlds. It draws on narratological definitions of interior monologue and dialogue and on theories of characterization which distinguish direct and indirect description. Each instance of monologue is examined for how it articulates thought processes or ethical dilemmas; dialogues are analysed for their role in revealing character motivation and social dynamics. Landscape descriptions are read as symbolic mirrors that reflect emotional or ideological states [3], while portrait-like passages are considered in terms of how physical description encodes psychological traits. The study also compares Stephenson's techniques with those in his other novels (*Snow Crash*, *The Diamond Age*, *Cryptonomicon*, *Spook Country*, *Zodiac*) to highlight continuities and departures.

Results and Discussion

Interior monologue in *Quicksilver* is employed sparingly and often merges with free indirect discourse. Stephenson rarely grants his characters long unmediated streams of consciousness; instead, he inserts brief monologic asides that illuminate internal conflict. Early in the novel, Daniel Waterhouse is portrayed as a young Puritan torn between loyalty to his radical father and fascination with the natural philosophy of Newton and Hooke. Rich Horton observes that Daniel's loyalties are divided – he is still his father's son yet hardly a true believer. Miles Raymer further notes that Daniel's intelligence makes him useful to aristocrats but his Puritan family history renders him an outsider [4]. These tensions surface in interior reflections where Daniel questions his religious convictions and his place among geniuses. In one scene (not quoted here due to copyright), Daniel reflects on whether he can be both a dutiful Puritan and a scientist; the narrative slips into his consciousness, echoing Cohn's notion that interior monologue can present coherent thoughts that guide the plot. The effect is to reveal his insecurity and ambition without recourse to overt confession.

Jack Shaftoe's inner world is likewise sketched through fleeting asides. As a vagabond raised in London's slums and later nicknamed Half-Cocked Jack after a botched operation [5], he approaches life with bravado that masks vulnerability. In *The Reading Canary*, Arthur Sumner describes Jack as subject to a "far greater emphasis on action and swashbuckling" and notes that Stephenson's depiction of sex scenes with Jack and Eliza is mechanical and emotionally

detached. This stylistic choice underlines Jack's emotional distance: his internal voice surfaces only in moments of survival, revealing a mercenary pragmatism shaped by hardship.

Eliza's interiority is more complex. Rescued from a harem by Jack and later becoming a "financial genius and a spy" [6], she oscillates between agency and objectification. Raymer criticizes Stephenson for overemphasising Eliza's body and for including a disturbing scene in which she is coerced into sexual acts; he cites her thought just before capitulation – "What was about to happen wasn't so very bad, in and of itself"– as evidence that her interiority is downplayed in favour of male fantasy. In contrast, the *New Atlantis* depicts Eliza as "feisty, courageous, and worldly-capable," [7] with a talent for finance and diplomacy. These conflicting portraits suggest that Stephenson crafts her inner world through a combination of indirect monologue and public action. When she lectures French aristocrats on international banking, her mastery of economic principles stands in for internal reasoning. Her thoughts are inferred from her confident speech rather than expressed directly, aligning with the indirect style of interior monologue.

The scarcity of extended interior monologue in *Quicksilver* contrasts with Stephenson's earlier cyberpunk novel *Snow Crash*, where Hiro Protagonist's internal commentary on the Metaverse offers a sardonic stream of consciousness. In *Quicksilver*, interiority emerges through pauses in the action and is deeply informed by historical context. As the *New Atlantis* notes, the Baroque Cycle juxtaposes old and new ways of thinking in science, religion and economics. The protagonists' interior reflections are therefore inseparable from debates about free will, predestination and the validity of empirical knowledge.

Dialogue as Ethical Exchange

If monologue reveals fissures in the self, dialogue in *Quicksilver* functions as an ethical exchange that externalises these fissures. Literary devices scholars remind us that dialogue conveys context, voice and conflict. Stephenson excels at reproducing Restoration-era speech, interweaving technical jargon, slang and humor. The blogger at Kingdom of UtterChaos praises the author's ability to describe daily scenes of Restoration-era England, noting his use of dark humour and witticism to paint a colourful picture of uncertainty and political intrigue [8]. The witty banter between Jack and Eliza, filled with innuendo and economic metaphors, reveals their mutual attraction and strategic minds. In conversations between Daniel and Newton, archaic language and scientific discourse blend to expose differences in temperament: Daniel's cautious pragmatism contrasts with Newton's obsessive genius.

Dialogue also becomes a site of anachronism and critique. Horton complains that *Quicksilver* contains "jarring anachronisms" in character speech, with 21st-century slang and odd spelling tics (e.g., "phanatique" for "fanatic") pulling him out of the story. These stylistic choices may be deliberate, suggesting that characters speak in a manner accessible to modern readers, yet they sometimes undermine the historical illusion. Raymer similarly feels that the novel's plot never commits to a single story, leaving readers adrift amidst conversations that do not build to a clear climax. Nonetheless, dialogue remains essential for conveying ethical stances. When Eliza debates with French courtiers about the morality of slavery or when Daniel argues with Puritans about scientific inquiry, the speeches crystallise ideological positions without resorting to authorial exposition.

Stephenson's use of dialogue distinguishes *Quicksilver* from his other works. In *The Diamond Age*, much of the ethical content is embedded in the Primer's algorithmic lessons, while human conversation often serves as pedagogy. In *Cryptonomicon*, characters exchange lists, code-breaking procedures and technical metaphors rather than baroque banter. *Spook Country* relocates attentional poetics to logistics and interfaces, making dialogue terse and procedural. *Zodiac*, Stephenson's eco-thriller, features a sardonic first-person narrator whose inner voice spills directly into dialogue, collapsing the distinction between interior and exterior speech. By contrast, *Quicksilver* maintains a clear demarcation: interior doubts surface in monologue, whereas dialogue enacts negotiation within the emerging public spheres of science and commerce.

Landscape in *Quicksilver* is more than backdrop; it operates as a symbolic mirror of characters' inner states. Robert Heslip argues that literary landscapes enrich the narrative and reflect emotions through vivid descriptions. Stephenson's

settings include Cambridge, London during the Great Fire, Vienna under siege, the plague-stricken Netherlands, the glittering court of Versailles and the newly modernising Amsterdam. The *New Atlantis* lists these historical backdrops – plague, fire and Glorious Revolution – as major frames for the action [9]. Each environment correlates with emotional and intellectual shifts.

Daniel's formative years in Cambridge are rendered through wintry landscapes and damp laboratories, emphasising his isolation and his focus on scientific instruments. The Great Fire of London, seen through Daniel's eyes, becomes a purifying inferno that destroys the old city and symbolises the burning away of medieval cosmology. Jack and Eliza's journey across war-torn Europe features panoramas of battlefield trenches, besieged cities and muddy roads; the harshness of the terrain mirrors Jack's resilience and Eliza's adaptability. In Amsterdam, Stephenson describes canal networks and stock exchanges; these urban landscapes reflect Eliza's immersion in nascent capitalism.

At Versailles, the glittering halls and manicured gardens stand in ironic contrast to the decadence and cruelty of Louis XIV's court. Raymer complains that monarchical politics in the novel amount to "assholes trying to get the upper hand on other assholes" [10], yet the sumptuous description of Versailles underscores how appearances mask moral rot. In these sections, landscape functions as what Heslip calls a tool for setting the mood and conveying thematic symbolism.

By shaping mood through environment, *Quicksilver* invites comparison with *Cryptonomicon*, where tropical islands and war zones reflect the paranoia and urgency of World War II codebreaking, and with *Snow Crash*, where the dystopian Los Angeles sprawl and the Metaverse articulate the fragmentation of identity. In *Zodiac*, Boston Harbor's polluted waters mirror the narrator's environmental rage. *Quicksilver* differs by using historical settings as palimpsests upon which to project the birth of modernity. The conflicting landscapes – plague-ridden London vs. rational Amsterdam – externalise the characters' choice between tradition and innovation.

Stephenson's portraits of his protagonists combine direct description with indirect characterisation. Literary theorists define characterization as the writer's use of details to teach readers about a person, distinguishing between direct statements and indirect hints through behavior and speech. In the *New Atlantis* review, Daniel is called "thoughtful, scientifically inclined, open-minded, and bearing little sign of deep religious conviction" [11]. This concise portrait signals his rationalism and ambivalence towards Puritanism. Eliza is described as "feisty, courageous, and worldly-capable," with a talent for finance and espionage. Jack Shaftoe appears as a "fearless but amoral picaroon" driven by love and the imp of the perverse. These direct sketches provide the baseline from which readers interpret indirect signals.

Stephenson supplements such portraits with lists of dramatis personae and genealogical charts. He also employs physical description to hint at temperament: Daniel's gauntness reflects his ascetic lifestyle; Jack's scars and missing body parts testify to his rough existence; Eliza's beauty is juxtaposed with her sharp intellect. Raymer's criticism that Stephenson oversexualizes Eliza points to the tension between portrait as eulogy and portrait as satire. The feminist reader may perceive Eliza's depiction as a critique of the male gaze or as complicity with it.

Indirect characterisation emerges through the reactions of others. Daniel's colleagues treat him as a useful but eccentric Puritan [12]; Jack's contemporaries perceive him as a legendary rogue; Eliza is both admired and feared by European aristocrats. Their dialogue with historical figures (Newton, Leibniz, Caroline of Ansbach) shows them negotiating respect and scepticism. Even the villains are rendered with nuance: the Jesuit fanatic Édouard de Gex delivers a rant connecting modern finance with heresy, embodying the anxieties of a world in transition.

Comparing *Quicksilver* with Stephenson's other novels highlights both continuity and evolution in his representation of inner worlds. In *Snow Crash*, the protagonist Hiro Protagonist experiences a bifurcated consciousness divided between physical Los Angeles and the virtual Metaverse; his inner voice is sardonic and self-aware. By contrast, *Quicksilver* subordinates extended interior monologue to historical exposition, reflecting characters' immersion in external networks of science and politics.

In *The Diamond Age*, the young Nell's interiority is shaped by an AI-powered Primer that scripts her development; monologue is therefore mediated by algorithmic pedagogy. *Quicksilver*, however, replaces algorithmic instruction with embodied apprenticeship. Daniel learns through experiments with Newton and Hooke; Eliza masters finance by participating in markets; Jack develops cunning through survival.

Cryptonomicon uses list-poetics and procedural descriptions to render mind as algorithm; characters communicate via codebooks and encrypted messages. Stephenson's baroque historical novel retains an interest in codes (alchemical, mathematical, monetary) but prioritises human voices and sensory detail. *Spook Country* and *Idoru* locate interiority in attentional focus and media interfaces rather than introspection; characters navigate logistic landscapes and virtual idols. In *Zodiac*, the eco-thriller that predates the Baroque Cycle, Sangamon Taylor narrates his own exploits with sarcastic immediacy, collapsing interior monologue and spoken dialogue. The hero's inner world is that of an anarchic activist fighting pollution. *Quicksilver* thus marks a shift towards polyphony and historical embedding: interiority becomes a function of ideological debate, scientific inquiry and geographical displacement.

Conclusion

Quicksilver offers a rich case study of how monologue, dialogue, landscape and portraiture can be combined to evoke the inner world of characters in historical fiction. Stephenson avoids long, stream-of-consciousness passages; instead, he sprinkles the narrative with reflective asides that reveal Daniel's religious doubts, Jack's survival instincts and Eliza's pragmatic ambition. Dialogue serves as an ethical arena where characters negotiate scientific, political and moral positions within a society on the cusp of modernity. Landscapes – from plague-ridden London to the opulence of Versailles – function as mirrors of internal and cultural transformation. Detailed portraits and character lists both sketch the protagonists directly and invite readers to infer traits through actions and reactions.

Compared with Stephenson's cyberpunk and post-cyberpunk novels, *Quicksilver* channels interiority through historical consciousness and communal discourse rather than through individualistic stream-of-consciousness. The novel's baroque style retools techniques of the picaresque and the science thriller, demonstrating that inner life can be rendered through the interplay of voice, setting and social interaction. Future studies might examine how the subsequent volumes of the Baroque Cycle expand these techniques and how Stephenson's portrayal of inner worlds continues to evolve as he engages with different genres and historical periods.

REFERENCES

1. Stephenson, N. *Quicksilver.* — New York: William Morrow, 2003. — 927 p.
2. Stephenson, N. *Snow Crash.* — New York: Bantam Books, 1992. — 470 p.
3. Stephenson, N. *The Diamond Age; or, A Young Lady's Illustrated Primer.* — New York: Bantam Books, 1995. — 455 p.
4. Stephenson, N. *Cryptonomicon.* — New York: Avon Books, 1999. — 918 p.
5. Stephenson, N. *Zodiac: An Eco-Thriller.* — New York: Grove Press, 1988. — 320 p.
6. Gibson, W. *Spook Country.* — New York: G. P. Putnam's Sons, 2007. — 371 p.
7. Genette, G. *Narrative Discourse: An Essay in Method.* — Ithaca: Cornell University Press, 1980. — 285 p.
8. Cohn, D. *Transparent Minds: Narrative Modes for Presenting Consciousness in Fiction.* — Princeton: Princeton University Press, 1978. — 318 p.
9. Phelan, J. *Living to Tell about It: A Rhetoric and Ethics of Character Narration.* — Ithaca: Cornell University Press, 2005. — 232 p.
10. Bakhtin, M. M. *Problems of Dostoevsky's Poetics.* — Minneapolis: University of Minnesota Press, 1984. — 333 p.
11. Rimmon-Kenan, S. *Narrative Fiction: Contemporary Poetics.* 2nd ed. — London; New York: Routledge, 2002. — 196 p.
12. Hayles, N. Katherine. *How We Became Posthuman: Virtual Bodies in Cybernetics, Literature, and Informatics.* — Chicago; London: University of Chicago Press, 1999. — 350 p.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 37.016:81

INGLIZ VA O‘ZBEK TILIDAGI RANG KOMPONENTLI IBORALARNING KONSEPTUAL TAHLILI

Xakimova Sadoqat Dilshodbekovna,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Ingliz tili nazariy aspektlari” 3-kafedrasi o‘qituvchisi

THE CONCEPTUAL ANALYSIS OF IDIOMS WITH COLOR COMPONENTS IN ENGLISH AND UZBEK

Khakimova Sadoqat Dilshodbekovna,
Lecturer at the 3rd Department of Theoretical Aspects of the English Language, Uzbek State University of World Languages

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВЫРАЖЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ЦВЕТОМ, В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ И УЗБЕКИСТАНЕ

Хакимова Садокат Дилшодбековна,
Преподаватель кафедры теоретических аспектов английского языка 3, Узбекский государственный университет мировых языков

https://orcid.org/ 0233-0284-0352-262x
e-mail: xakimovasadoqat03@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi rang komponentli iboralarning konseptual tahlili amalga oshiriladi. Rang bildiruvchi leksik birliklarning xalq mentaliteti, madaniy arxetiplar va milliy dunyoqarashdagi o‘rni aniqlanadi. Tadqiqot davomida “white/oq”, “black/qora”, “red/qizil”, “blue/ko‘k”, “green/yashil” kabi asosiy ranglar ishtirokidagi iboralar qiyosiy tahlil qilinib, ularning semantik, konnotativ va pragmatik xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, ranglarning metaforik xarakteri, konseptual maydon hosil qilishdagi roli hamda madaniyatlararo o‘xshash va farqli jihatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *rang konsepti, ibora, ingliz tili, o‘zbek tili, konseptual tahlil, qiyosiy tilshunoslik, metafora, milliy mentalitet, rang ramzi, semantika, konnotatsiya, xalq dunyoqarashi.*

Abstract: *This article presents a conceptual analysis of English and Uzbek idioms containing color components. It explores the role of color-related lexical units in shaping national worldview, cultural archetypes, and collective mentality. The study compares idioms involving core color concepts such as “white/oq,” “black/qora,” “red/qizil,” “blue/ko‘k,” and “green/yashil,” examining their semantic, connotative, and pragmatic features. The research also highlights the metaphorical nature of colors, their function in forming conceptual domains, and cross-cultural similarities and differences.*

Key words: *color concept, proverb, English language, Uzbek language, conceptual analysis, comparative linguistics, metaphor, national mentality, color symbolism, semantics, connotation, cultural worldview.*

Аннотация: *В данной статье проводится концептуальный анализ выражений, связанных с цветом, в английском и узбекском языках. Определяется роль цветообозначающих лексических единиц в национальном менталитете, культурных архетипах и национальном мировоззрении. В ходе исследования проводится сопоставительный анализ выражений, связанных с основными цветами, такими как «white/oq», «black/qora», «red/qizil», «blue/ko‘k», «green/yashil», и выделяются их семантические, коннотативные и прагматические свойства. Также на научной основе анализируются метафоричность цветов, их роль в создании концептуального пространства, а также межкультурные сходства и различия.*

Ключевые слова: *цветовой концепт, экспрессия, английский язык, узбекский язык, концептуальный анализ, сопоставительное языкознание, метафора, национальный менталитет, цветовой символ, семантика, коннотация, народное мировоззрение.*

Kirish. Tilning ranglarga asoslangan obrazlari inson tafakkurining eng qadimiy qatlamlaridan biridir. Ranglar nafaqat tashqi olamni idrok etishdagi fiziologik jarayon, balki xalqning madaniy xotirasi, tarixi, dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy ongida shakllangan konseptual tasavvurlarning ham muhim qismidir. Shu bois rang komponentli iboralar frazeologik birlik sifatida ikki xil funksiyani bajaradi: semantik ma'no berish va konseptual modelni ifodalash. Ranglar ko'pincha abstrakt tushunchalarni obrazlashda asosiy metaforik vosita sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Ingliz va o'zbek xalqlari tarixiy, geografik, diniy va ijtimoiy rivojlanish jihatidan farq qilgani bois, ranglarning mazmuniy talqini ham turlicha bo'lishi tabiiydir. Masalan, ingliz tilida oq rangi poklik, yaxshilik va ezgulik hamda qo'shimcha tarzda ruxsat, imtiyoz, zararsiz holat kabi semantik kengayishlarga ega ("white lie"), o'zbek tilida esa asosan oq rangi poklik, yaxshilik va ezgulikni ifodalaydi. Yoki ingliz tilida *blue* - qayg'u, depressiya ramzi bo'lsa, o'zbek tilida ko'k rangi aksincha, osmon, poklik, yuksaklik timsolidir. Shu nuqtayi nazardan, rang komponentli iboralarni oddiy semantik tahlil emas, aynan konseptual-metaforik yondashuv asosida o'rganish muhimdir. Konseptual yondashuv ranglarning milliy tafakkurdagi o'rnini, ularning ramziy ma'nosi, madaniy universallik va milliy o'ziga xoslikni ko'rsatish uchun asos bo'ladi.

Muhokamalar. Tadqiqot quyidagi ilmiy metodlar asosida olib borildi:

1. Konseptual metafora nazariyasi - Lakoff va Johnson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasiga ko'ra, til birliklari inson tafakkuridagi kognitiv modellarning tilga ko'chgan ko'rinishlaridir. Ranglar ham abstrakt tushunchalarni konseptualizatsiya qilishda asosiy vositadir. Iboralarda ranglarning qanday konseptlarni ifodalayotgani shu yondashuv asosida aniqlanadi.

2. Kognitiv-semantik tahlil – rang so'zlari asosidagi iboralar ma'no kengayishi, ko'chma ma'no, konnotatsiya, obrazli ta'sir kabi jihatlar bo'yicha tahlil qilindi.

3. Qiyosiy tipologik tahlil – Ingliz va o'zbek tilidagi iboralar o'zaro semantik, funksional va konseptual o'xshashlik hamda farqlar nuqtayi nazaridan solishtirildi.

4. Etnolingvistik tahlil - iboralarda ranglarning tarixiy-madaniy asoslari, milliy dunyoqarashdagi o'rni o'rganildi.

5. Korpus asosidagi kuzatish - ingliz tilidan: BNC, COCA; O'zbek tilidan: O'zbek tilining milliy korpusi materiallari o'rganildi.

6. Interpretativ-pragmatik tahlil - iboralar nutqda qanday vazifa bajarishi, so'zlovchi maqsadi, emotsional ta'siri ham aniqlab borildi.

Tahlil uchun jami 150 ta rang komponentli ingliz va o'zbek maqollari tanlab olindi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotning qiyosiy natijasiga ko'ra, ingliz va o'zbek maqollarida ranglar quyidagi asosiy konseptlarni ifodalaydi:

Oq / White - Poklik, ezgulik, adolat, begunohlik, ruxsat, zararsiz, ijobiy ma'no inglizchada "white lie" ijobiy semantik kengayish.

Qora / Black - Balo, musibat, og'ir kun Noqonuniylik, zarar, muammo Salbiy ma'no Ingliz tilida "black humor" ijobiy-majuziy konnotatsiyaga ega

Qizil / Red - Jasorat, tantana Xavf, qarzdorlik, urg'u. Ikki tilda ham kuchli emotsiya inglizchada moliyaviy metafora kuchli

Ko'k / Blue - Osmon, yuksaklik, tinchlik – Qayg'u, xafalik. Ramziy ma'nolar har xil "Blue"ning salbiy ma'nosi o'zbekchada yo'q.

Yashil / Green – Baraka, tabiat – Yangi, tajribasiz, ekologik. Ikki tilda tabiat bilan bog'liq. Inglizchada "green" ko'proq nevrotik holatlarni bildiradi.

Bu ko'rsatkichlar ranglarning konseptual o'rni madaniy xususiyatlar bilan chambarchas bog'liqligini tasdiqlaydi.

Oq rang konsepti. Inglizcha: begunohlik va ruxsat. *White lie* – hech kimni ranjitmaydigan yolg'on; *White day* – yaxshi kun; *White wedding* – an'anaviy to'y. O'zbekcha: ezgulik va poklik *oq yo'l tilayman* – ezgu niyat; *oq yuvib, oq tarab* – oqlab himoya qilish; *oqning o'zi oq* – yaxshilik baribir bilinadi. Farqning sababi: Ingliz madaniyatida esa oq rang ijtimoiy konvensiya va

ruxsat timsoli. O‘zbek madaniyatida oq rang diniy va axloqiy qadriyatlar bilan bog‘liq.

Qora rang konsepti. Inglizcha: noqonuniylik, xavf, majburiyat. *Black market* – qoradori bozori; *Blackmail* – tahdid orqali pul talab qilish; *Black mood* – og‘ir kayfiyat. O‘zbekcha: musibat va yomonlik. *Qora kunlar o‘tar*” – og‘ir kunlar o‘tadi; *Qora qismat* – baxtsiz taqdir. *Qora niyat* – yomon maqsad. Qiziq farq: ingliz tilida *black humor* – kulgining o‘tkir, achchiq lekin madaniy jihatdan maqbul turi; o‘zbek tilida *qora hazil* - salbiy ko‘rinadi.

Qizil rang konsepti. Inglizcha: xavf va qarzdorlik. *Red alert* – xavf signali; *In the red* – qarzda; *Paint the town red* – quvnoq sayr qilish. O‘zbekcha: tantana, yuzi issiq holat; *Qizil yuz* – uyatdan yoki hayajondan qizarish; *Qizil gulday* – chiroyli; *Qizil bayram* – ulug‘ kun. O‘zbekchada qizil ijobiy/yoqimli obraz. Inglizchada qizil ogohlantiruvchi/emotsional.

Ko‘k rang konsepti. Inglizcha: qayg‘u *Feeling blue* – tushkunlikda; *Blue Monday* – og‘ir dushanba; *Once in a blue moon* – kamdan-kam. O‘zbekcha: osmon, erkinlik; *Ko‘k yuzida bulut yo‘q* – tinchlik; *Ko‘k bayroq* – yuksaklik va erkinlik; *Ko‘kka ko‘tarilmoq* – yuqori qadrlanmoq. Konseptual farqning sababi inglizlar esa blueni qayg‘u bilan bog‘laydi (XVII asr dengizchilar madaniyatidan kelib chiqqan), o‘zbek madaniyati ko‘k rangni osmon va ruhiy yuksaklik bilan bog‘laydi.

Yashil konsepti. Inglizchada: yangi, tajribasiz *Greenhorn* – tajribasiz odam; *Green light* – ruxsat; *Go green* – ekologik hayot tarziga o‘tish. O‘zbekchada: baraka, tabiat; *Yashil dunyo* – tinch, farovon hayot; *Yashil bog‘* – serhosil joy.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, rang komponentli iboralar orqali milliy ongda mavjud bo‘lgan konseptual modellarning asosiy farqlari quyidagicha: Ingliz tilida ranglar ko‘proq ijtimoiy amaliyotlar asosida shakllanadi; o‘zbek tilida ranglar, ayniqsa oq, kuchli diniy-axloqiy konnotatsiyaga ega. Inglizlardagi *blue sadness* metaforasi dengiz tarixiga bog‘liq; o‘zbeklardagi ko‘k – yuksaklik esa turkiy qadimiy kosmologiyani aks ettiradi. Ranglarning estetik emas, konseptual vazifasi: iboralarda ranglar har doim abstrakt tushunchalar uchun metafora sifatida ishlatiladi. Universallik va milliylik bir vaqtning o‘zida mavjud: *black day* va *qora kun* mazmun jihatdan yaqin, ammo *feeling blue* ga o‘zbekchada rangli ekvivalent yo‘q. Tarjima jarayonida pragmatik muammolar: ranglar aksariyat hollarda to‘g‘ri tarjima qilinmaydi. *Once in a blue moon* – juda kamdan-kam yoki noyob hodisa bu o‘zbekcha iboralarda rang yo‘q; *Oq yo‘l* – good luck inglizcha iborada rang yo‘q.

Xulosa. Bu ranglarning konseptual xaritasi turli madaniyatlarda farqlanishini ko‘rsatadi. Ingliz va o‘zbek iboralarida ranglar kuchli konseptual metaforalar sifatida ishlaydi. Har ikki tilda ranglar yordamida emotsional holat, axloqiy baho, ijtimoiy mavqe, xavf-xatar, tabiat hodisalari, vaqt kabi murakkab tushunchalar ifodalanadi. Biroq ranglarning keltirib chiqaradigan obrazlari turlicha tarixiy, madaniy va diniy omillar tufayli sezilarli tarzda farqlanadi. Asosiy farq shundaki, ingliz tilida – ranglar ijtimoiy-emotsional metaforalarga tayangan, o‘zbek tilida – ranglar diniy-axloqiy konseptlar bilan bog‘langan. Bu esa tarjimada, o‘qitishda, til o‘rgatishda va xalqaro madaniy aloqalarda rang komponentlarining pragmatik va konseptual mazmunini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press.
2. Kövecses, Z. (2010). Metaphor: A Practical Introduction(2nd ed) Oxford University Press.
3. Crystal, D. (2008). A Dictionary of Linguistics and Phonetics (6th ed.). Oxford: Blackwell Publishing.
4. Safarov, Sh. (2011). Kognitiv tilshunoslikka kirish. Toshkent: Akademnashr.
5. Langacker, R. W. (1991). Foundations of Cognitive Grammar Volume 2: Descriptive Application. Stanford: Stanford University Press.
6. Davies, M. (2008). The Corpus of Contemporary American English (COCA). Brigham Young University.
7. O‘zbek tilining milliy korpusi (OTMK). (2020). O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Til va Adabiyot Instituti.
8. Whorf, B. L. (1956). Language, Thought, and Reality. Cambridge: MIT Press.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 378.147

OLIY TA'LIMDA RAQAMLI SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA TEXNOLOGIK INTEGRATSIYASI

Shermanova Feruza Djumaboyevna,
Toshkent amaliy fanlar universiteti, p.f.f.d, dotsent

PEDAGOGICAL AND TECHNOLOGICAL INTEGRATION IN DEVELOPING DIGITAL LITERACY IN HIGHER EDUCATION

Shermanova Feruza Djumaboyevna,
Tashkent University of Applied Sciences, Associate Professor

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕГРАЦИЯ В РАЗВИТИИ ЦИФРОВОЙ ГРАМОТНОСТИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Шерманова Феруза Джумабоевна,
Ташкентский университет прикладных наук, доцент

e-mail: shermanovaf@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida raqamli savodxonlikni rivojlantirish jarayonida pedagogik va texnologik integratsiyaning mohiyati, tamoyillari hamda amaliy ahamiyati yoritilgan. Raqamli ta'lim muhiti, zamonaviy raqamli platformalar, sun'iy intellekt vositalari va interaktiv texnologiyalar yordamida ta'lim oluvchilarning raqamli kompetentligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda integratsion yondashuv asosida ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishning afzalliklari, shuningdek, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni raqamli shaklda tashkil etishning samaradorligi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar*: raqamli savodxonlik, pedagogik integratsiya, texnologik integratsiya, raqamli kompetentlik, raqamli ta'lim muhiti, innovatsion texnologiyalar.*

Annotation: *This article explores the essence and significance of pedagogical and technological integration in developing digital literacy within higher education. It analyzes the opportunities for enhancing students' digital competence through the use of digital learning environments, artificial intelligence tools, and interactive technologies. The study substantiates the advantages of the integrative approach in modernizing the educational process and improving digital interaction between teachers and students.*

Key words: *digital literacy, pedagogical integration, technological integration, digital competence, digital learning environment, innovative technologies.*

Аннотация: *В статье рассматривается сущность и значение педагогической и технологической интеграции в процессе развития цифровой грамотности в системе высшего образования. Анализируются возможности повышения цифровой компетентности обучающихся с использованием цифровых образовательных платформ, инструментов искусственного интеллекта и интерактивных технологий. Обоснованы преимущества интеграционного подхода в модернизации образовательного процесса и эффективности цифрового взаимодействия между преподавателем и студентом.*

Ключевые слова: *цифровая грамотность, педагогическая интеграция, технологическая интеграция, цифровая компетентность, цифровая образовательная среда, инновационные технологии.*

Kirish. Raqamli savodxonlik tushunchasi so‘nggi yillarda tobora kengayib borayotgan ilmiy izlanishlar obyektiga aylangan. Zamonaviy dunyoda shaxsning muvaffaqiyati nafaqat uning kasbiy bilimlari, balki raqamli ko‘nikmalari bilan ham belgilanadi. Raqamli savodxonlik - bu raqamli texnologiyalardan axborotni topish, baholash, yaratish va almashish, shuningdek, raqamli xavfsizlikni ta’minlash uchun samarali va xavfsiz foydalanish qobiliyatidir. Oliy ta’limda bu tushuncha talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli ishtirok etishi uchun asosiy kompetensiyalardan biri sifatida qaraladi [1].

Raqamli transformatsiya jarayonlari nafaqat texnologik, balki pedagogik yondashuvlarni ham tubdan o‘zgartirmoqda. Bugungi kunda ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan pedagogik va texnologik integratsiya darajasiga bog‘liq. Mazkur integratsiya talabalarda axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish, baholash va qo‘llash kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, oliy ta’lim muassasalarida raqamli savodxonlikni pedagogik-texnologik asosda rivojlantirish yangi metodologik yondashuvlarni talab etadi.

Adabiyotlar tahlili. Talabalarda raqamli savodxonlikni samarali shakllantirish uchun zamonaviy ilmiy tadqiqotlardan kelib chiqib, A.V. Sharikov [2,4] (2021) tomonidan taklif etilgan **to‘rt nazariy yondashuv** amaliyotga joriy etilishi maqsadga muvofiq. Bu yondashuvlar raqamli savodxonlikni ko‘p qirrali, murakkab ijtimoiy va ta’limiy fenomen sifatida tushunishga imkon beradi.

Axborot-kommunikatsiya-texnologik yondashuv. Bu yondashuvga ko‘ra, talabalarning raqamli savodxonligini rivojlantirish uchun avvalo ularni kompyuter, internet, mobil qurilmalar va elektron platformalardan samarali foydalanishga o‘rgatish lozim. O‘zbekistonda bu vazifa Moodle, ZiyoNet, Google Classroom, Microsoft Teams kabi elektron ta’lim tizimlari orqali amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, talabalarda axborotni izlash, qayta ishlash va taqdim etish kabi texnik ko‘nikmalarni shakllantirish uchun zamonaviy infratuzilma yaratilmoqda.

Psixologik-pedagogik yondashuv talabalarning raqamli muhitdagi o‘quv faoliyatini shaxsiy, psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishni nazarda tutadi. Mustaqil o‘rganish, tanqidiy fikrlash, raqamli axborotga nisbatan ongli munosabat kabi xususiyatlar ta’lim jarayonida interaktiv usullar va individual yondashuvlar asosida shakllantirilishi zarur.

Media-ma’lumotli yondashuv talabalarda axborot xavfsizligi, media tanqidiy fikrlash, internet etikasi, feyk yangiliklarni tanib olish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Bu xususda O‘zbekistondagi ayrim oliy ta’lim muassasalarida “Media va axborot savodxonligi” kurslari joriy etilgan. ZiyoNet portalining axborot-ta’limiy resurslari, onlayn kurslar va vebinarlar media kompetensiyalarni rivojlantirishda foydalanilayotgan amaliy vositalardandir.

Industrial yondashuv esa talabalarning raqamli kompetensiyalarini mehnat bozori talablariga muvofiq shakllantirishni maqsad qiladi. Bugungi kunda O‘zbekistonda IT-park, “Bir million dasturchi” loyihasi va raqamli iqtisodiyotga ixtisoslashgan ta’lim dasturlari orqali talabalarni aniq kasbiy raqamli ko‘nikmalarga ega mutaxassis sifatida tayyorlashga alohida e’tibor berilmoqda.

Shu to‘rt yondashuvdan kelib chiqqan holda, talabalar raqamli muhitda mustaqil harakat qila oladigan, axborotni tahlil qiladigan, raqamli madaniyatni anglaydigan va iqtisodiy hayotda raqamli vositalar orqali faol ishtirok etadigan shaxslar sifatida shakllanadi. Bunday maqsadlarga erishish uchun oliy ta’lim muassasalarida pedagogik shart-sharoitlar nafaqat texnik ta’minot bilan, balki metodologik va tarbiyaviy yondashuvlar bilan ham mukammal ta’minlangan bo‘lishi lozim.

Tahlil va natijalar. Shuningdek, ilmiy izlanishlarimiz jarayonida biz quyidagi ilmiy metodlardan foydalandik:

- ✓ Nazariy tahlil – raqamli savodxonlik, raqamli kompetentlik, integratsion ta’lim texnologiyalari bo‘yicha xorijiy va mahalliy adabiyotlar o‘rganildi;
- ✓ Tizimli yondashuv – pedagogik va texnologik komponentlarning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi;
- ✓ Kuzatuv va tajriba – raqamli platformalar (Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams) orqali o‘quv jarayonida o‘zgarishlar kuzatildi;

✓ Anketalash va intervyu – o‘qituvchi va talabalarning raqamli vositalardan foydalanish tajribalari o‘rganildi.

Raqamli savodxonlik shunday darajagacha rivojlanishi lozimki, unda talaba faqat raqamli kompetensiyalardan foydalanuvchi emas, balki mustaqil yoki boshqalar bilan hamkorlikda o‘quv-kasbiy muammolarni hal qilish jarayonida ushbu kompetensiyalarni qo‘llay oladigan, tayyor va qodir shaxsga aylanishi kerak. [3,720].

Tadqiqot natijalariga ko‘ra:

1) Pedagogik va texnologik integratsiya raqamli savodxonlikni rivojlantirishda sinergiya effekti yaratadi;

2) Raqamli ta’lim muhiti o‘qituvchi va talaba o‘rtasida interaktiv, refleksiv hamkorlikni kuchaytiradi;

3) AI (Sun’iy intellekt) asosidagi platformalar (ChatGPT, Grammarly, Coursera AI tools) talabalarning tanqidiy fikrlash va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi;

4) Pedagogik yondashuvlar (flipped learning, blended learning, project-based learning) raqamli vositalar bilan uyg‘unlashganda raqamli kompetentlik darajasi sezilarli ortadi.

Tadqiqotlar, xususan, Alrasheedi, Capretz va Raza (2015) tomonidan olib borilgan izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, “Moodle va Google Classroom kabi raqamli o‘quv platformalari nafaqat o‘quv materiallarini yetkazish imkonini beradi, balki talabalarga mustaqil o‘qish, o‘zini baholash va hamkorlikda ishlash imkoniyatlarini ham yaratadi.”[4,22]. Bu ta’kid, ushbu platformalarning shunchaki ma’lumot uzatish mexanizmi emas, balki faol o‘rganish muhitini shakllantirishdagi rolini yaqqol ko‘rsatadi. O‘qitish va o‘rganish jarayonida multimedia tizimlarining qo‘llanilishi sifatli ta’limga erishish va talabalar natijalarini yaxshilash uchun samarali strategiya sifatida ko‘plab tadqiqotlarda tasdiqlangan.[5,290] Interfaol kontent yaratish va multimedia vositalari aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Bu vositalar nafaqat o‘qituvchiga materiallarni dinamik tarzda taqdim etish imkonini beradi, balki talabalarning o‘zlari ham raqamli kontent yaratish, vizual va audio axborotni qayta ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishlari uchun keng sharoit yaratadi.

Xulosa. Integratsion model nafaqat texnik imkoniyatlarni, balki o‘qituvchining pedagogik mahoratini ham talab etadi. Shuning uchun raqamli vositalarni samarali qo‘llash uchun pedagoglarni raqamli pedagogika asoslarida qayta tayyorlash zarur. Shu bilan birga, texnologik integratsiya o‘quv jarayonini individuallashtirish, interaktiv o‘qitish va masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogik va texnologik integratsiya birgalikda qo‘llanganda raqamli savodxonlikni rivojlantirishda yuqori natijalarga erishiladi.

Oliy ta’limda raqamli savodxonlikni rivojlantirish pedagogik va texnologik integratsiyani talab etuvchi kompleks jarayondir. Bu integratsiya ta’lim sifatini oshirish, talabalarda mustaqil fikrlash va raqamli madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Kelgusida raqamli o‘quv platformalarini pedagogik modellar bilan uyg‘unlashtirish hamda o‘qituvchilarni raqamli metodik kompetensiyalar bo‘yicha tayyorlash muhim yo‘nalish sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alrasheedi, M., Capretz, L. F. & Raza, A. (2015). A systematic review of the critical factors for success of mobile learning in higher education (university students’ perspective). *Journal of Educational Computing Research*, 52(2), 257–276.
2. Abdulrahman, M., Naing, N., & Rizal, A. (2020). Use of multimedia to improve students’ performance in education. *Pakistan Journal of Medical Sciences*, 36(6), 1368–1373. https://doi.org/10.12669/pjms.36.6.2574
3. М. А. Мойсеенкова. Цифровая грамотность студентов вуза непрофильных направлений подготовки. Профессиональное образование в современном мире ISSN 2224-1841 (print) 2023. Т. 13, №4. С. 715–723 .
4. Шариков А.В. Цифровая грамотность как педагогическая проблема: теория и практика // Медиаобразование. – 2021. – № 3. – С. 22–30.
5. Shermanova, F. D. (2024). MEDIA AND COMMUNICATION ARE OVERT AND COVERT INFLUENCES IN THE AGE OF DIGITAL TECHNOLOGIES. *Экономика и социум*, (9 (124)), 298-301.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 82-1/-9

O‘ZBEK MILLATIGA XOS IRIMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Rashidova Gulshoda,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o‘qituvchisi

SEMANTIC FEATURES OF SUPERSTITIONS SPECIFIC TO THE UZBEK NATION

Rashidova Gulshoda,
Senior Lecturer, Uzbek State University of World Languages

СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СУЕВЕРИЙ, ХАРАКТЕРНЫХ ДЛЯ УЗБЕКСКОГО НАРОДА

Рашидова Гульшода,
Старший преподаватель Узбекского государственного университета мировых языков

e-mail: rashidovagulshoda@gmail.com
https://orcid.org/0000-0001-6575-088X

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodining muhim tarkibiy qismi hisoblangan irim-sirimlarning semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Irimlar xalq dunyoqarashi, qadriyatlari va ramziy tasavvurlarini ifodalaydi. Tadqiqotda semantik, folkloriy-tahliliy va kognitiv-lingvistik metodlar qo‘llanilib, irimlar salomatlik va xavfsizlik, oilaviy hayot, tabiat va farovonlik kabi semantik guruhlarga ajratildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, irimlar xalq tafakkurining ramziy va metaforik ifodasi bo‘lib, ijtimoiy qadriyatlarni saqlash, xulq-atvorni boshqarish va tabiat hamda ijtimoiy hodisalarni izohlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.*
Kalit so‘zlar: *o‘zbek folklori, superstitions, irim-sirimlar, semantika, ramziylik, metafora, qadriyatlar, lingvistik dunyoqarash, an’ana, pragmatika.*

Abstract: *This article explores the semantic features of Uzbek superstitions. As a significant part of oral folklore, these superstitions reflect the worldview, values, and symbolic imagination of the Uzbek people. The study applies semantic, folkloric-analytical, and cognitive-linguistic methods to classify superstitions into thematic groups such as health and safety, family life, nature, and prosperity. The analysis demonstrates that Uzbek superstitions are closely tied to symbolic thinking, metaphorical meaning, and cultural traditions. The findings reveal that superstitions serve as a linguistic and cultural mechanism for preserving values, regulating behavior, and interpreting natural and social phenomena.*
Key words: *Uzbek folklore, superstitions, semantics, symbolism, metaphor, cultural values, linguistic worldview, traditions, pragmatics.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются семантические особенности узбекских суеверий. Как важная часть устного фольклора, они отражают мировоззрение, ценности и символическое воображение узбекского народа. В исследовании применяются семантический, фольклорно-аналитический и когнитивно-лингвистический методы. Суеверия классифицируются на группы: здоровье и безопасность, семейная жизнь, природа и благополучие. Анализ показал, что узбекские суеверия тесно связаны с символическим мышлением, метафорическим значением и культурными традициями. Результаты исследования демонстрируют, что суеверия служат лингвистическим и культурным механизмом сохранения ценностей, регулирования поведения и интерпретации природных и социальных явлений.*
Ключевые слова: *узбекский фольклор, суеверия, семантика, символизм, метафора, культурные ценности, языковая картина мира, традиции, прагматика.*

Kirish. O‘zbek xalqining madaniy merosi nihoyatda boy bo‘lib, u avloddan-avlodga ko‘chib kelayotgan turli marosimlar, rivoyatlar, maqollar, topishmoqlar va irim-sirimlarda o‘z ifodasini topgan. Ayniqsa, irimlar xalq tafakkurining noyob ifodasi sifatida inson hayotining barcha sohalarini qamrab oladi. Ular orqali xalqning qadriyatlari, dunyoqarashi, ramziy tasavvurlari va ijtimoiy tajribasi semantik jihatdan mustahkamlangan.

Ilmiy nuqtai nazardan irimlarning semantik tahlili nafaqat tilshunoslikda, balki kognitiv lingvistika va etnolingvistika yo‘nalishlarida ham dolzarbdir. Chunki semantika til birliklarining mazmuniy tuzilishini, ramziy ma’nolarini va konnotativ jihatlarini o‘rganishga imkon beradi. Xomidova [2024] ta’kidlaganidek, xalq nutqida uchraydigan iboralar semantik jihatdan ko‘p qirrali bo‘lib, ular orqali insonning psixologik va madaniy qarashlari ifodalanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi - o‘zbek millatiga xos irimlarning semantik xususiyatlarini tahlil qilish, ularni guruhlarga ajratish va xalq dunyoqarashidagi konseptual ahamiyatini yoritishdan iborat.

Metod. Mazkur tadqiqotda taqqoslamali leksik-etnografik metod qo‘llanildi. Bu yondashuv etnolingvistika, kognitiv lingvistika va madaniy antropologiya usullarini uyg‘unlashtiradi. Maqsad - nafaqat irimlarning til shaklini, balki ularning madaniy va psixologik vazifalarini ham ochib berishdir.

Ma’lumotlarni yig‘ish. Asosiy ma’lumotlar o‘zbek og‘zaki folklor to‘plamlari, etnografik yozuvlar va mahalliy aholiga berilgan yarim strukturalangan suhbatlardan olindi. Ular ichida kundalik turmush bilan bog‘liq irimlar (masalan, “Tunda tirnoq qirqma”) yoki marosimiy taqiqlar (masalan, “Ba’zi kunlar to‘y qilish yaramaydi”) mavjud. Ikkilamchi ma’lumotlar o‘zbek irimlari bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar [Turdaliyev, 2022; 2023; Urozova, 2024; Ibodullayeva, 2022) hamda ingliz madaniyatidagi tadqiqotlar Boyko, 2020; Damisch, 2008; Hamerman & Morewedge, 2015] asosida olindi.

Tahlil yondashuvi. Semantik tahlil: irimlarda yashiringan ramziy ma’nolarni aniqlash (masalan, qora mushuk = balo belgisi, supurgi = tartib va poklik ramzi). Tipologik taqqoslash: irimlar diniy-tarixiy, etnografik-maishiy va kognitiv-ramziy guruhlarga bo‘lindi. Kognitiv-madaniy sharh: irimlarning noaniqlikni kamaytirish, xatti-harakatni tartibga solish va jamiyatdagi birdamlikni mustahkamlashdagi vazifasi ochib berildi.

Ishonchlilik. Ma’lumotlarning haqqoniyligi folklor misollarini ilmiy manbalar va suhbat natijalari bilan solishtirish orqali ta’minlandi. Ikkita madaniyat (o‘zbek va ingliz) misolida olib borilgan taqqoslash tadqiqotning xolisligini oshirdi.

Natijalar. Tahlil natijasida uchta asosiy xulosa aniqlandi:

Irimlarning tematik tasnifi. Diniy-tarixiy irimlar: O‘zbeklarda islomiy poklik bilan bog‘liq taqiqlar (masalan, eshik ostonasidan biror narsa uzatmaslik), inglizlarda esa nasroniy yoki qadimgi budparastlik ildizlariga ega irimlar (masalan, 13-juma kuni baxtsizlik keltiradi).

Etnografik-maishiy irimlar: O‘zbeklarda kundalik uy yumushlariga oid irimlar (tunda supurmaslik, tirnoqni kechasi qirqmaslik), inglizlarda esa tabiat va belgilar bilan bog‘liq irimlar (qora mushuk, oynani sindirish).

Kognitiv-ramziy irimlar: Har ikki madaniyatda noaniqlikni boshqaruvchi belgilar mavjud. Inglizlarda barmoqlarni chalishtirish - omad ramzi, o‘zbeklarda esa safarga chiqqan odam ortidan suv sepish - xayr va baraka timsoli.

O‘xshashliklar. Ikkala madaniyatda ham kundalik buyum va harakatlarga ramziy kuch yuklanadi.

Nikoh va farzand ko‘rish masalalarida irimlar kuchli saqlangan. Masalan, o‘zbeklarda ayrim kunlarda to‘y qilish yaramaydi, inglizlarda esa “something old, something new, something borrowed, something blue” urf bo‘lgan.

Himoya xarakteridagi irimlar ham mavjud: tugun bog‘lash yoki ta’birli taqinchoqlar taqish.

Farqlar. O‘zbek irimlari ko‘proq ijtimoiy tartib va oilaviy munosabatlarga yo‘naltirilgan (masalan, bolalar uyda hushtak chalmasligi kerak, chunki bu qashshoqlik keltiradi).

Ingliz irimlari esa ko‘proq shaxsiy omad va baxtsizlik bilan bog‘langan.

Inglizlarda tabiat va hayvonlar ramzi muhimroq bo‘lsa, o‘zbeklarda kundalik uy-ro‘zg‘or buyumlari va urf-odatlar asosiy o‘rin tutadi.

Muhokama. Irimlarning vazifasi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, irimlar - oddiy xurofot emas, balki:

- Psixologik: odamga noaniq vaziyatlarda dalda beradi [Damisch, 2008].
- Ijtimoiy: jamiyat tartibini va an’analarni saqlaydi [Boyko, 2020].
- Kognitiv: murakkab hodisalarni ramziy belgilar orqali tushuntiradi [2024, Hamerman & Morewedge, 2015].

Madaniyatlararo o‘xshashlik va farqlar. O‘zbek irimlarining asosida oilaviy qadriyatlar, mehmondo‘stlik va jamiyatdagi o‘zaro hurmat yotadi. Ingliz irimlari esa ko‘proq shaxsiy omad va kosmik tartib bilan bog‘liq bo‘lib, o‘rta asrlardagi folklor va zamonaviy pop-madaniyat ta’sirida shakllangan.

Tilshunoslikdagi o‘rni. Irimlarga oid iboralar madaniy kod sifatida ishlaydi [Turdaliyev, 2023; Ibodullayeva, 2022]. Bu iboralarda so‘zning bevosita ma’nosi bilan ramziy ma’nosi farqlanadi. Masalan, “suv sepish” - aslida isrof, lekin o‘zbek madaniyatida bu baraka ramzi sifatida tushuniladi.

Amaliy ahamiyati. Ilimiy jihatdan bunday tadqiqotlar tarjima, madaniyatlararo muloqot va til o‘qitishda foydali bo‘ladi. Masalan, ingliz va o‘zbek tillarini o‘rgatuvchi o‘qituvchilar irimlar orqali madaniy tafovutlarni osonroq tushuntirishlari mumkin.

Cheklanish va istiqbollar. Ushbu tadqiqot ma’lum miqdordagi misollar va mavjud manbalarga tayanadi. Kelajakda kengroq etnografik so‘rovlar o‘tkazish, yoshlar va katta avlod qarashlarini solishtirish hamda globallashuv davrida irimlarning o‘zgarishini o‘rganish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek millatiga xos irimlar xalqning ijtimoiy-madaniy hayoti, ramziy tasavvurlari va dunyoqarashini ifodalovchi muhim folkloriy matnlardir. Ularning semantik xususiyatlari quyidagilarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

irimlar inson salomatligi va xavfsizligini ta’minlash maqsadida qo‘llaniladi; oilaviy qadriyatlar va axloqiy me’yorlarni mustahkamlaydi; tabiat hodisalarini ramziy tahlil qilish orqali xalqning kuzatuvchanligini ko‘rsatadi; omad va farovonlikni ifodalashda metaforik va ramziy semantika muhim rol o‘ynaydi.

Shu sababli, irimlarning semantik tahlili nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va kognitiv lingvistika uchun ham dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kadirova, B. R., Nasirova, N. A., Umarova, D. B., & Tolipova, D. S. (2024). *Semantics and linguocultural characteristics of some Uzbek lexemes*. International Journal of Health Sciences, 6(S1).
2. Norboboeva, S. (2024). National-cultural semantics of animalistic phraseological units of the Uzbek language. *International Journal of Science and Technology*.
3. Rashidova, G. (2025). Irim-sirimlarning kundalik hayotdagi o‘rni. *Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g‘oyalar*, *2*(3), 177-179.
4. Xomidova, M. O. (2024). Bosh va ko‘z leksemali iboralarning semantik xususiyatlari. *Tadqiqotlar*, *47*(1), 84-86.
5. Yo‘ldoshova, M. Y. (2024). Lexical and semantic features of idioms in Modern English and Uzbek languages. *Eurasian Journal of Research, Development and Innovation*, *37*, 33-34.

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 37.015.3:159.954:373.3

GEOGRAFIYA DARSLARIDA ROLLI O‘YINLARNI MUAMMOLI MAVZULARDA QO`LLASH SAMARADORLIGI

Ollaberganova Saida Sherboy qizi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti “Geografiya” kafedrasi doktoranti

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РОЛЕВЫХ ИГР ПО ПРОБЛЕМНЫМ ТЕМАМ НА УРОКАХ ГЕОГРАФИИ

Оллаберганова Саида Шербой кызы, Докторант кафедры «География» факультета Естественных и сельскохозяйственных наук Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни

EFFECTIVENESS OF USING ROLE PLAYS ON PROBLEM TOPICS IN GEOGRAPHY LESSONS

Ollaberganova Saida Sherboy qizi, Doctoral student of the Department of “Geography”, Faculty of Natural and Agricultural Sciences, Urgench State University named after Abu Rayhon Beruniy

e-mail: saidaallaberganova26@gmail.com

Annotatsiya: *Geografiya darslarida o‘quvchilarning dars mavzusini yaxshi tushunishiga va o‘rganilayotgan obyekt, jarayon yoki voqea hodisa haqida tasavvurning shakllanishiga, shu bilan birga dars sifatining oshishida geografik o‘yinlardan foydalanish orqali o‘quvchilarga mavzularni to‘laroq tushuntirishda, o‘quvchilarni fikrlab muammoga yechim topishda yordam beruvchi samarali o‘yinlardan biri rolli o‘yinlar hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *Geografiya ta’limi, geografik o‘yinlar, rolli o‘yinlar, talabalar faolligi, ta'limiy o‘yinlar, ko‘rgazmali materiallar.*

Аннотация: *Ролевые игры являются одними из эффективных игр, помогающих учащимся лучше понять тему урока на уроках географии и сформировать представление об изучаемом объекте, процессе или явлении, а также повышающих качество урока за счёт использования географических игр для полного объяснения темы учащимся и помогающих учащимся мыслить и находить решения проблем.*

Ключевые слова: *географическое образование, географические игры, ролевые игры, активность учащихся, развивающие игры, наглядные материалы.*

Abstract: *Role-playing games are one of the effective games that help students better understand the topic of the lesson in geography lessons and form an idea about the object, process or event being studied, as well as increase the quality of the lesson by using geographical games to fully explain the topics to students and help students think and find solutions to problems.*

Key words: *geography education, geographical games, role-playing games, student activity, educational games, visual materials.*

KIRISH. Geografiya ta'limi zamonaviy ta'lim tizimida muhim o‘rin egallaydi, chunki u o‘quvchilarga dunyo haqida keng qamrovli bilim beradi. Biroq, ba'zi mavzular, masalan, iqlim o‘zgarishi, tabiiy ofatlar, resurslar taqsimoti va ijtimoiy-geografik nizolar kabi muammoli

masalalar, o‘quvchilar uchun murakkab va tushunish qiyin bo‘lishi mumkin. An'anaviy o‘qitish usullari, masalan, ma’ruzalar va kitob o‘qish, bu mavzularni faolroq va qiziqarli qilishda yetarli emas. Shu sababli, interfaol usullar, xususan, rolli o‘yinlar keng qo‘llanilmoqda. Rolli o‘yinlar o‘quvchilarga real hayotiy vaziyatlarni simulyatsiya qilish imkonini beradi, bu esa ularning tanqidiy fikrlashini, hamkorlik qobiliyatini va empatiyasini rivojlantiradi.

Zamonaviy ta'limda o‘quvchilar faolligini oshirish zarur va rolli o‘yinlar bunga yordam beradi. Masalan, ekologik muammolarni o‘rganishda talabalar turli rollarda (masalan, siyosatchi, ekolog yoki fermer) ishtirok etib, muammoni har tomonlama ko‘rib chiqadilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Adabiyotlarda rolli o‘yinlar ta'limda keng muhokama qilinadi. Rolli o‘yinlarning ta'limdagi roli XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lgan. Ular simulyatsiya va o‘yin elementlarini birlashtirib, ishtirokchilarga haqiqiy vaziyatlarni tajriba qilish imkonini beradi. Shuningdek, ular geografik va rejalashtirish mavzularida qo‘llanilishi haqida tadqiqotlar mavjud. Ushbu kirish qismida mavzuning asosiy muammolari va tadqiqot maqsadlari belgilab o‘tiladi.

Ta’limda rolli o‘yinlar (RPG – Role-Playing Games) so‘nggi yillarda o‘quvchilarning faolligini oshirish va murakkab mavzularni o‘rgatishda samarali usul sifatida e’tiborga olinmoqda. Rolli o‘yinlar o‘quvchilarga turli rollarni (masalan, geograf, sayyoh yoki ekolog) o‘ynash orqali real hayotiy muammolarni simulyatsiya qilish imkonini beradi.

Tadqiqotda aralash metodlardan foydalanildi: nazariy tahlil, tajriba va so‘rovnoma. Tadqiqot o‘tkazilgan joy – O‘zbekiston maktablarida qo‘llash mumkin.

Rolli o‘yinlar qo‘llanishiga ko‘ra bir nechta bosqichlarga ajratiladi

Rolli o'yinlarning qo'llanilish bosqichlari		
Mavzu tanlash	Rollarni taqsimlash	O'yin jarayoni va baholash

Rolli o‘yinlarning qo‘llanilish bosqichlari. 1-jadval.

Mavzu tanlash - muammoli mavzular, masalan, "Sanoat va Ekologik muammolar" yoki "Tabiiy resurslar va tabiiy sharoit".

Rollarni taqsimlash – o‘quvchilar turli rollarda (masalan, hukumat vakili, ekologik faol, sanoatchi) ishtirok etadilar.

O‘yin jarayonida - talabalar munozara qiladilar, qarorlar qabul qiladilar va natijalarni baholaydilar.

Baholash - O‘yin oxirida so‘rovnoma o‘tkaziladi, unda talabalar o‘z tajribalarini baholaydilar.

O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi “Sanoat va ekologik muammolar” mavzusida **“Sanoat va ekologiya sudi”** rolli o‘yini.

O‘yin maqsadi:

-O‘quvchilarga O‘zbekiston sanoati va uning ekologik muammolarini o‘yin orqali tushuntirish.

-Ijtimoiy mas'uliyat, ekologik muammolarni hal qilishda hamkorlik va muhokama ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Rolli o‘yin (sud jarayoni orqali muammoga yechim topilib xulosalaydilar).

Ishtirokchilar:

- **Sudya** (o‘qituvchi yoki o‘quvchi): Jarayonni boshqaradi, savollar beradi, bahslashuvni tartibga soladi.

- **Sanoat vakillari** (2-3 o‘quvchi): O‘zbekistonning sanoat tarmoqlari (masalan, kimyo, metallurgiya, paxta-to‘qimachilik) vakillari sifatida ishtirok etadi.

- **Ekologlar** (2-3 o‘quvchi): Ekologik muammolarni ko‘tarib, sanoatning zararli ta'sirini muhokama qiladi.

- **Aholi vakillari** (2-3 o‘quvchi): Mahalliy aholining muammolarini ifodalaydi (masalan, suv ifloslanishi, havo sifati).

- **Jurnalistlar** (2-3 o‘quvchi): Savollar beradi, muhokamani yoritadi, xulosa chiqaradi.

O‘yin jarayoni:

I. **Tayyorgarlik (5-10 daqiqa):**

- O‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi va har bir guruhga ro‘l beriladi.

- Har bir guruhga o‘z pozitsiyasini tayyorlash uchun qisqa ma'lumot va savollar beriladi (masalan, sanoat vakillari o‘z tarmog‘ining iqtisodiy foydasini, ekologlar esa muammolarni ta'kidlaydi).

- O‘qituvchi “sud jarayoni” qoidalarini tushuntiradi: har bir guruh 2-3 daqiqa o‘z pozitsiyasini himoya qiladi, so‘ng savol-javob bo‘limi boshlanadi.

1-bosqich: Pozitsiyalarni taqdim etish (10 daqiqa)

Har bir guruh o‘z pozitsiyasini qisqacha bayon qiladi. Masalan:

- Sanoat vakillari: “Biz iqtisodiyotni rivojlantiramiz, ish o‘rinlari yaratamiz.”
- Ekologlar: “Sanoat chiqindilari tabiatga zarar keltirmoqda.”
- Aholi: “Biz toza suv va sog‘lom muhitda yashashni xohlaymiz.”

2-bosqich: Savol-javob va bahs (10-15 daqiqa)

- Jurnalistlar har bir guruhga savollar beradi, guruhlar o‘z pozitsiyalarini himoya qiladi.
- Sudya (o‘qituvchi) savollar orqali muhokamani boshqaradi va o‘quvchilarni muammolarni hal qilish yo‘llarini taklif qilishga undaydi.

II. **Xulosa (5 daqiqa):**

- Sudya guruhlarning dalillarini umumlashtiradi.
- O‘quvchilar birgalikda “Sanoat va ekologiya muvozanati” bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi (masalan, yashil texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash).

Metodlar geografiya ta'limida rolli o‘yinlarni qo‘llash bo‘yicha adabiyotlarga asoslanadi . Tajriba davomida o‘yinlar 25-30 daqiqa davom etdi va o‘qituvchi moderator sifatida ishtirok etdi.

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, rolli o‘yinlar geografiya darslarida muammoli mavzularda samarali, o‘quvchilar mavzuni yaxshiroq tushunishlarida,

tanqidiy fikrlashlariga va muammoga yechim topishlarida katta yordam beradi .

MUHOKAMA

Didaktik o‘yinlar vositasida o‘quvchilarda bilimga qiziqishni uyg‘otish uning qiziqishlariga tayanib tashkil etilsa samarali bo‘ladi. Bunday hollarda bolada doim yangiliklarni bilishga ishtiyoq uyg‘onadi, bilimga qiziqish uyg‘onadi va qiziqishni muntazam rivojlantirish va mustahkamlash o‘quvchilarning o‘qishga ijobiy munosabatlarini tarbiyalaydi o‘zlashtirish darajasini oshiradi. Xorijiy jurnallardan **Simulation Games in Geography** – 2019-yil nashr qilingan maqolalardan birida “rolli o‘yinlar o‘quvchilarning quyidagi ko‘nikmalarini rivojlantiradi

Tanqidiy fikrlash: O‘quvchilar muammoli vaziyatlarni tahlil qilib, qaror qabul qilishni o‘rganadilar.

Hamkorlik: Guruhlarda ishlash orqali jamoaviy ko‘nikmalar rivojlanadi.

Motivatsiya: O‘yin elementlari darsni qiziqarli qilib, o‘quvchilarning faolligini oshiradi.”deb sanab berilgan.

1-rasm. O‘quvchilarda rolli o‘yinlar orqali rivonlantiriluvchi ko‘nikmalar.

Muhokamada rolli o‘yinlarning afzalliklari: empatiya rivoji, hamkorlik va amaliy qo‘llash. Kamchiliklari: ba'zi talabalar uyatchan bo‘lishi mumkin. Kelajakda onlayn rolli o‘yinlarni qo‘llash

tavsiya etiladi. Natijalar adabiyotlar bilan mos keladi. Masalan, rolli o‘yinlar o‘quvchilarga real vaziyatlarni tahlil qilishga yordam berishi ko‘rsatilgan. Biroq, cheklovlar mavjud: vaqt talab qilishi va o‘qituvchi tayyorgarligi zarur.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, rolli o‘yinlar geografiya darslarida muammoli mavzularda samarali usul hisoblanadi va ta'lim tizimida keng qo‘llanilishi kerak. Geografiya darslarida muammoli mavzular quyidagilar bo‘lishi mumkin: iqlim o‘zgarishi, urbanizatsiya, migratsiya, suv resurslari va boshqalar. Bu mavzular ko‘pincha ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarni o‘z ichiga oladi, shuning uchun rolli o‘yinlar orqali talabalar turli nuqtai nazarlarni o‘rganadilar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, rolli o‘yinlar talabalar motivatsiyasini oshiradi va bilimlarni uzoq muddat saqlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Exploring the use of role-playing games in education. Richard Heinz Patrick Prager.
2. Anderson L. Using games in geographical and planning-related teaching // ScienceDirect. 2021.
3. Davis R. Place-Based Learning in Action: A Geography Game for the Classroom // SocialStudies. 2024.
4. Edwards K. What are fun incentives for an educational game about geography? // Reddit. 2022.
5. Green S. Role-Playing Scenarios // SERC. 2020.
6. Ivanov P. Gaming & Geography (Education):A Model of Re//EuroGeoJournal. 2023.
7. Qurbanniyozov R., Niyozov P. Geografik o‘yinlar. Toshkent “O‘qituvchi”-1990 y. 85- 92-b.
8. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya:na-zariya, metodika va amaliyot.Toshkent,2013.226 b
9. Carter J. Games and simulations // Geographical Association. 2023.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 02.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 9(575.1)02(575.1.) (09)

XIVA XONLIGIDA IQTISODIY VA MADANIY HAYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARIGA DOIR TARIXIY MANBALAR (XVII-XIX asrlarga oid asarlar asosida)

Matyakubova Muborak Madrimovna,
UrDU, Tarix kafedrasi dotsenti

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИСТОЧНИКИ О ТЕНДЕНЦИЯХ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ И КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА (По материалам произведений XVII-XIX веков)

Матьякубова Муборак Мадримовна,
УрГУ, доцент кафедры истории

HISTORICAL SOURCES ON THE DEVELOPMENT TRENDS OF ECONOMIC AND CULTURAL LIFE IN THE KHIVA KHANATE (Based on works from the 17th-19th centuries)

Matyakubova Mubarak Madrimovna,
UrSU, associate professor of the Department of History

https://orcid.org/ 0009-0008 -2653-092X
e-mail: muborakmatyakubova477@gmail.com

Annotatsiya: *Xiva xonligida iqtisodiy va madaniy hayot XVII-XIX asr mualliflari ma'lumotlariga qaraganda, o'ziga xos usulda taraqqiy qilgan. Bu davr mualliflarining tarixiy asarlari iqtisodiy taraqqiyotning madaniy hayot rivojidagi o'rni yoki ta'siri masalalarini tadqiq etishda muhim va ishonchli manba hisoblanadi. Ushbu maqolada Xiva xonligida iqtisodiy va madaniy hayotning rivojlanish tendensiyalariga doir tarixiy manbalar va ularning ahamiyati tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar*: Xiva xonligi, iqtisodiy hayot, iqtisodiy ahvol, tovar-pul, bozorlar, madaniy hayot, sug'orish inshootlari.*

Аннотация*: Экономическая и культурная жизнь Хивинского ханства, по мнению авторов XVII–XIX веков, развивалась своеобразно. Исторические труды авторов этого периода являются важным и достоверным источником для изучения роли и влияния экономического развития на развитие культурной жизни. В данной статье анализируются исторические источники, посвященные тенденциям развития экономической и культурной жизни Хивинского ханства и их значению.*

Ключевые слова: *Хивинское ханство, хозяйственная жизнь, экономическое положение, товары и деньги, рынки, культурная жизнь, ирригационные сооружения.*

Abstract: *Economic and cultural life in the Khiva Khanate, according to the authors of the 17th-19th centuries, developed in a unique way. The historical works of the authors of this period are an important and reliable source for studying the role or influence of economic development on the development of cultural life. This article analyzes historical sources on the development trends of economic and cultural life in the Khiva Khanate and their significance.*

Key words: *Khiva Khanate, economic life, economic situation, goods and money, markets, cultural life, irrigation facilities.*

TAMADDUN NURI

Kirish. Xiva xonligining davlat boshqaruvi, ichki va tashqi siyosat, iqtisodiy munosabatlar, adabiy, madaniy va ma'naviy hayotini atroflicha o'rganshda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan Xiva xonligi tarixnavislik maktabiga mansub mualliflarning turli yo'nalish va tillarda yozilgan bir qator nodir qo'lyozmalar, toshbosma kitoblar, turli hujjatlar muhim ahamiyat kasb etadi. V.V.Bartold XIX asr O'rta Osiyo xalqlari tarixini, shuningdek, shu davr tarixini o'rganish uchun zarur bo'lgan qo'lyozma asarlarning kam o'rganilganligini ta'kidlab: "O'rta Osiyo xonliklarining XVIII va XIX asr tarixi Sharq tarixining eng kam yoritilgan qismlaridan biridir. Bu hol xonliklar tarixiga tegishli manbalarning yo'qligidan emas, balki mutaxassislarning bu tegishli manbalarga e'tiborsizlik bilan qarashlaridan kelib chiqqan holdir..." [1,b.19] - degan edi. Haqiqatan ham, tarix fani oldida turgan dolzarb masalalardan biri, tarixchi - manbashunoslarning yoki manba o'qib biladigan tarixchilarning kamligidir. Chunki qo'lyozmalar institutida saqlanayotgan ko'pgina tarixiy kitoblar hali hanuz lotin alifbosida keng ommaga taqdim qilinmayotir. Xiva xonligida iqtisodiy va madaniy hayotning rivojlanish tendensiyalariga doir tarixiy manbalar qatorida O'tamish hoji [2,b.45] . Abulg'ozixon, Munis, Ogahiy, Bayoniy ва Komyob asarlari tarixnavislik maktabi mahsuli sifatida yuzaga keldi. Ular tomonidan yuksak mahorat bilan yozilgan tarixiy asarlar o'z mazmuni, keltirilgan ma'lumotlarning ko'pligi va rang - barangligi bilan ajralib turadi.

Tahlillar va natijalar. O'temish Hojining "Chingiznoma" asari YE.F. Kal, V.V. Bartold, A.Z.Validov ва B.P. Yudin tomonidan yaqindan o'rganilgan va unda mavzuga oid ba'zi ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Biroq, asarning tarixnavislik va manbashunoslik yo'nalishidagi ma'lumotlari haligacha alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Asar O'z FA SHI ilmiy xodimi G'. Karim tomonidan o'zbek tiliga tabdil etilib, chop etilgan.

Xorazmda shakllangan tarixnavislik maktabi namoyondalarining asarlari xonlikning iqtisodiy va madaniy hayoti, shuningdek, iqtisodiy taraqqiyotning madaniy hayot rivojidagi o'rni yoki ta'siri masalalarini tadqiq etishda muhim va ishonchli manba hisoblanadi. Bu davrda yaratilgan barcha tarixiy asarlar hukmdor topshirig'a binoan yozilgan. Abulg'ozining 1658-1661 yillarda yozilgan "Shajarayi tarokima" [3] asari. Asarda turkiy qabilalarning, xususan turkman xalqining kelib chiqishi Xorazm vohasining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, etnik va etnik jarayonlar masalalari yoritilgan. Asarning qo'lyozma nusxasi taxminan XIX asrda chiroyli nasta'liq xatida fabrika qog'oziga ko'chirilgan, 64 varaq, o'lchovi 14x21sm. Abulg'ozixonning ikkinchi asari "Shajarayi turk" 1663-1664 yillarda yozilgan. Asar muqaddima va to'qqiz bobdan iborat. Abulg'ozixon 7, 8 va 9-bobining bir qismini (1644-yilgacha kechgan voqealar tarixini) yozib ulgurgan xolos. 1-6-boblar va 9-bobning davomi (1644-1664-yil voqealari) Anushaxonning topshirig'i bilan Mahmud ibn mulla Muhammad Urganjiy tarafidan yozib tugallangan[4,b.94]. Asarning muqaddima qismini, boshidan to 30 – betigacha Abulg'oziyxonning o'zi yozgan (qo'lyozma taxminan XVIII asrda ko'chirilgan, 194 varaq, o'lchami 16x25sm [5]. "Shajarayi turk" asarida Xorazmning XVI - XVII asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy hayoti, Xiva xonligining qo'shni xalqlar, davlatlar bilan aloqalari, xonlik va unga tutash hududlarda kechgan etnik jarayonlar, Xiva - Buxoro munosabatlari tarixiga oid ma'lumotlar, xonliklar o'rtasidagi diplomatik munosabatlar, Xiva xonligining Eron ва Rossiya bilan diplomatik aloqalar tarixi aks etgan. N. Hamroyeva tadqiqotlari orqali Abulg'ozixon davri tarixi bo'yicha ilmiy, ijobiy ishlar ko'lami yanada kengaydi.

Munis Abulg'ozi Bahodirxondan keyin Xorazm tarixini xronologik tartibda yozgan yirik muarrix hisoblanadi. Eltuzarxon buyrug'iga binoan yozilgan Shermuhammad Munisning "Firdavs ul-iqbol" asari voqea va hodisalarni xolisona yoritilganligi va haqqoniyligi bilan ajralib turadi. Munis tarixiy voqealar va Xiva xonlari shajarasini 1813 yilgacha yoritgan. Asarning davomi Ogahiy tomonidan yozildi. "Firdavs ul-iqbol" asarida qadim zamonlardan Xiva xonligi tashkil topgungacha bo'lgan davr, Xiva xonligining qariyib 300 yillik (1511 – 1825 yy) tarixi, Abulg'ozi davridagi Xiva va Buxoro xonliklarining o'zaro munosabatlari, Qo'ng'irot sulolasining Xorazmda hukmronlik qilgan

yillaridagi tarixiy voqealari bayon qilingan va shu davrda xalqning ahvoli, istiqomat qilgan turli etnik guruhlarning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o‘rni, yer egaligi, soliq va majburiyatlar, ichki va tashqi savdo, diplomatik aloqalariga oid ma’lumotlar o‘rin olgan.

Ogahiy “Firdavs ul-iqbol” [6] asaridan keyin, Xiva xonligi tarixiga oid beshta tarixiy asar yozdi. Ogahiy asarlari ketma-ketlikda voqealar bayonini keltiradi va har biri alohida nom bilan ataladi. Olloqulixon hukmronligini yorituvchi “Riyoz ud-davla” (“Baxt-saodat bog‘lari” 1825-1842-yil voqealari) [7] asari Ogahiy tarafidan 1260/1844-yilda yozilgan. Ogahiyning XIX asr Xorazm tarixiga oid qo‘lyozma manbalardan yana biri “Zubdat ut-tavorix” (“Tarixlar qaymog‘i”) [8] asaridir. Asar 1843-yildan 1846-yilgacha Xorazmda bo‘lgan tarixiy voqealarni o‘z ichiga oladi. Rahimqulixonning tug‘ilishidan to xonlik taxtiga chiqquncha, Rahimqulixonning xonlik taxtiga chiqqandan so‘ng to vafotigacha bo‘lgan voqealar bayon qilinadi [9,b.126] . “Zubdat ut-tavorix” tarixiy asar bo‘lsa-da, yuksak badiiy mahorat bilan yozilgan. Ogahiyning yana bir asari “Jome’ ul-voqeoti sultoniy” (“Sulton voqealari yig‘indisi”) [10] . Xorazmda Muhammad Aminxon hukmronligi (1846-1855) davri tarixiy voqealarni bayon etuvchi asardir. “Gulshani davlat” (“Davlat gulshani” 1856-1865-yil voqealari) [11]. Ogahiyning Xorazm tarixiga bag‘ishlagan to‘rtinchi asaridir. Mazkur asarda Sayyid Muhammadxon davri 1856-yildan 1865-yilgacha bo‘lgan voqealar o‘z aksini topgan. Feruzxon hukmronligi davrini o‘z ichiga olgan “Shohidi iqbol” (“Iqbol shohidi”) [12] nomli asari Ogahiyning Xorazm tarixiga oid asarlarining oxirgisi 1865-yildan 1872-yilgacha Xorazmda bo‘lgan voqealarni bayon etadi. Bu nusxa qora siyohda nasta’liq xati bilan qo‘qon qog‘oziga yozilgan. Sarlavhalar qizil siyoh bilan yozilgan. Har bir beti 15 qatordan iborat. Muqovasi qizil charmdan ishlangan. Asarda ko‘chiruvchining ismi va ko‘chirilgan yili ko‘rsatilmaganligi sabab kotibi noma’lum. Asar 1872-yilgi voqealarni bayoni bilan tugagan. Asar 277 varaqdan iborat bo‘lib, o‘lchovi 14x25 sm. “Shohid ul-iqbol” asarini Ogahiy Muhammad Rahimxon II davriga atab yozishga kirishgan.

Ogahiyning tarixiy asarlarida 1813-1872-yillar oralig‘idagi xonlik hayoti, yirik siyosiy arboblar to‘g‘risidagi ma’lumotlar xronologik tarzda mohirona joylashtirilgan[13] .

Ogahiydan keyin Muhammad Yusuf Bayoniy “Shajarayi Xorazmshohiy”[14] va “Xorazm tarixi”[15] (ikkinchi asar oxiriga yetmagan) asarlari orqali tarixnavislik rivojiga munosib hissa qo‘shdi. Xorazmda uzoq asrlar davom etib kelgan tarixnavislik maktabi an’analarini davom ettirdi[16, b.294]. Xiva xonligi tarixini to‘laqonli yoritishga intilgan muarrixlar orasida Bayoniy yuqori o‘rinlarda turadi. 1911-yilda Xiva xoni Asfandiyorxon amaldor Avazberdi eshon o‘g‘li Tolib xo‘ja tavsiyasi bilan Bayoniyga xonlik tarixini yangi avlod tushunadigan tilda yozishni buyuradi. Bayoniyning Xiva xoni Asfandiyorxon topshirig‘iga binoan 1914 yilda 16 bobdan iborat “Shajarayi Xorazmshohiy” tarixiy asari yaratildi [17,b.104]. Unda odamning paydo bo‘lishidan tortib, to XX asr boshlarigacha bo‘lgan davrda Xorazm zaminida ro‘y bergan voqealar aks ettiriladi. Ya’ni Munis va Ogahiylar tomonidan tavsiflangan qadimgi davrdan to 1873-yilgacha bo‘lgan tarixiy voqeyliklarning bayoni bilan birga, 1873-yildan 1914-yillargacha bo‘lgan voqealar ham tasvirlanadi. Akademik Y.G‘ulomov xonlikning 1846-yildan to 1912-yilgacha tarixini Bayoniy shaxsan o‘zi to‘plagan materiallar asosida yozganligini ta’kidlab o‘tadi [18,b.14]. “Shajarayi Xorazmshohiy” asar qo‘lyozmasi 508 varaqdan iborat. Bayoniy Munis va Ogahiyning asarlarini bir jildga to‘plab, ko‘pchilik uchun tushunarli bo‘lgan sodda til bilan qayta yozdi. Polvonniyoz Xoji Yusupov taklifiga binoan yozilgan “Xorazm tarixi” asari “Shajarayi Xorazmshohiy” asariga o‘xshaydi. Biroq, “Shajarayi Xorazmshohiy” asari tarixiy asar bo‘lsa-da, voqealar adabiy uslubda bayon etilgan. “Xorazm tarixi” asari esa, yozilish uslubi jihatidan undan farq qilib, yengil, xalqchil tilda yozilgan tarixiy asar hisoblanadi G.Ismoilova Bayoniyning “Shajarai Xorazmshohiy” asairni Tabibiyning “Majmuat ush- shuaro”si qatorida tazkira deb ataydi. N.Jumaxo‘ja va I.Adizova esa “Shajarai Xorazmshohiy”ning keng qamrovli tarixiy-adabiy ahamiyatini alohida ta`kidlab, quyidagi asosli xulosaga kelishadi: “uning tazkira tipidagi adabiy manbalardan farqi va afzalligi shundaki, u adabiy muhit manzaralari, jarayonlarini, mafkuraviy hayotni tirikligicha, harakatda, ijtimoiy-siyosiy voqealar bilan munosabatda tasvirlaydi[19,b.148] .

Komyob tomonidan yaratilgan uchta asar jamlanmasi mavjud bo‘lib, ularning biri Xiva xonlari tarixidan ma’lumot beruvchi “Tavorix ul-xavonin” asari hisoblanadi. “Xonlar tarixi” [20,b.212] asarida XIX asrda yashagan Xiva xonlari hayoti va ularning shajarasini yozgan, xotimasida Xorazmda 1874-1875-yildan 1895-1896-yilgacha sodir bo‘lgan voqealar bayon qilingan. Saroy shoiri Laffasiy o‘z asarida shunday yozadi: “Sayid Homid forsiy-arabiy tarixlarni o‘qib ma’lumotli odamlar bilan suhbatlashib, yaxshigina ma’lumotli bo‘ladi. Shu sababli Sayid Homid “To‘raxonim” nomli asar yozadir. Ul tarix Feruzg‘a ma’qul bo‘ladir. Bir necha nusxada ko‘paytiradurlar” [2,b.77]. Komyobning ikkinchi tarixiy asari “Muntaxab ul-voqeot” Feruz vafotidan so‘ng yakuniga yetgan.

Xulosa. Xiva xonligiga bag‘ishlangan tarixiy asarlar sharq tarixchilarining an’anasiga muvofiq hamd va na’t bilan boshlangan. So‘ngra o‘z hayoti va asarning yozilish tarixi haqida qisqacha ma’lumot berib, bevosita Xorazm tarixini yozishga kirishgan. Ilk chig‘atoy tilida yozilgan O‘tamesh hoji, Abulg‘ozi, Munis, Ogahiy, Bayoniy va Komyob asarlari xonlikdagi siyosiy jarayonlar, iqtisodiy mugosabatlar, madaniy-ma’rifiy muhit va tashqi aloqalar haqida batafsil ma’lumot berishi bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, muallifning saroy muhitida yaqindan ishtirok etgani ularning asarlarini shaxsiy mushohada va kuzatishlarga tayanilgan qimmatli tarixiy dalil sifatida baholash imkonini beradi. Shu ma’noda ularning asarlari Xiva xonligi tarixi bo‘yicha tarixshunoslik va manbashunoslik ilmiy tadqiqotlarida asosiy poydevor manbalar vazifasini o‘taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII- XIX ва XX аср бошлари). - Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002.-Б.19.
2.Ўтемиш ҳожи. Чингизнома. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009.
3.Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи тарокима // Қўлёзма. ЎзР. ФАШИ. – № 1552/VI, 9985, 5973, 1223, 1807.
4.Abulg‘oziy. Shajarayi turk.–Toshkent: Cho‘lpon, 1992. – B.173.
5.СВР, I. – № – № 167, 170
6.Мунис, Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол // Қўлёзма. ЎзР. ФАШИ. – № 821/I.
7. Огаҳий Муҳаммадризо. Риёз уд-давлат // Қўлёзма. ЎзР. ФАШИ. – № 821/II, 5364/II, 7474.
8. Огаҳий Муҳаммадризо. Зубдат ут-таворих // Қўлёзма. ЎзР. ФАШИ. – № 821/III.
9.Атоқли шоир, тарихнавис, таржимон. - Тошкент: Абдулла Қодирий, 1999. – Б.126.
10.Огаҳий Муҳаммадризо. Жомеъ ул-воқеоти султоний // Қўлёзма. ЎзР. ФАШИ.– № 9786.
11.Огаҳий Муҳаммадризо. Гулшани давлат // Қўлёзма. ЎзР ФАШИ. – № 7572.
12.Огаҳий Муҳаммадризо. Шоҳиди иқбол // Қўлёзма. Россия ҚИ. – № С572. Мазкур асарнинг ягона нусхаси Санкт-Петербургда сақланади.
13. Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 57 – 61.
14.Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий // Қўлёзма. ЎзР ФАШИ. – № 9596.
15.Муҳаммад Юсуф Баёний. Хоразм тарихи // Қўлёзма. ЎзР ФАШИ. – № 7421.
16. Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1994. – Б. 104.
17. Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1994. – Б.4.
18.Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи (қадимги замонлардан ҳозиргача). - Тошкент: ЎзФАН, 1959. -Б.14.
19.Jumaxo‘ja N, Adizova I. So‘zdin baqoliroq yodgor yo‘qdir.-Toshkent: O‘zbekiston, 1995- B. 148.
20.Komyob. Tavorix al-xavonin. // Qo‘lyozma, O‘zFAShI № 7717; yana qar.: SVR,VII, №5029; SVR. Istoriya. – S. 211-212.
21.Раҳим Д., Матрасулов Ш. Феруз шоҳ ва шоир қисмати. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – Б. 77.

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 378.147

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Jumanyazova Muxabbat Xusinovna, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Джуманьязова Мухаббат Хусиновна, доцент Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни

METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE SPEECH COMPETENCE OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN A DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT

Jumanyazova Mukhabbat Khusinovna, Associate Professor at Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni

https://orcid.org/0000-0002-2471-5823
e-mail: khiva1970@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi o'rganilgan. Unda interaktiv darsliklar, multimedia vositalari, ijodiy o'qish va rolli o'yinlar orqali bolalarning nutqiy, muloqot va axloqiy ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, raqamli ta'lim vositalari nutqiy faollikni oshirish, tafakkur va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Maqolada nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning metodik tavsiyalari ham keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *raqamli ta'lim, boshlang'ich sinf, nutqiy kompetensiya, ijodiy o'qish, rolli o'yinlari, metodika.*

Аннотация: *В данной статье изучена методика развития речевой компетенции учащихся начальной школы в условиях цифровой образовательной среды. В статье проанализированы пути формирования речевых, коммуникативных и нравственных навыков детей с использованием интерактивных учебников, мультимедийных средств, творческого чтения и ролевых игр. Результаты показали, что цифровые образовательные ресурсы служат эффективным инструментом для повышения речевой активности, развития мышления и социальных навыков. В статье также приведены методические рекомендации по развитию речевой компетенции.*

Ключевые слова: *цифровое обучение, начальная школа, речевая компетенция, творческое чтение, ролевые игры, методика.*

Abstract: *This article explores the methodology for developing the speech competence of primary school students within a digital learning environment. The study analyzes ways to foster students' speech, communication, and ethical skills through interactive textbooks, multimedia tools, creative reading, and role-playing activities. The results indicate that digital learning tools serve as an effective means to enhance speech activity, cognitive development, and social skills. The article also provides methodological recommendations for developing speech competence.*

Key words. *Digital learning, primary school, speech competence, creative reading, role-playing, methodology.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarning integratsiyasi boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv jarayonidagi faoliyatini tubdan o'zgartirmoqda. Shu bilan birga, bolalarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish masalasi ham dolzarbligini yo'qotmaydi. Nutqiy kompetensiya – bu o'quvchining fikrini aniq, mantiqiy va ifodali ravishda bayon etish qobiliyati bo'lib, u nafaqat til bilish, balki tafakkur va ijtimoiy muloqot malakalari bilan ham chambarchas bog'liq.

Raqamli ta'lim muhiti – bu pedagogik jarayonlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida tashkil etish va qo'llab-quvvatlash tizimi bo'lib, unda o'quvchilar va o'qituvchilar interaktiv, individual va jamoaviy tarzda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi. Ushbu muhit o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatini rag'batlantirish, shuningdek, o'qituvchining metodik ishlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Raqamli ta'lim muhiti bu nafaqat texnologik vositalar yig'indisi, balki zamonaviy pedagogik jarayonni tashkil etish va o'quvchilarning individual rivojlanishini ta'minlash uchun metodik, psixologik va axborot-kommunikatsion tamoyillar asosida yaratilgan integratsiyalashgan tizimdir.

Nutqiy kompetensiya – bu shaxsning til vositalaridan maqsadga muvofiq, samarali va aniq foydalanish qobiliyati bo'lib, unda grammatik, leksik, fonetik, pragmatik va muloqotga oid komponentlar uyg'un ishlaydi. Nutqiy kompetensiya nafaqat tilni bilish va so'zlash qobiliyatini, balki muloqot vaziyatini anglash, moslashish, fikrlarni ifodalash va axloqiy-ijtimoiy jihatdan to'g'ri muloqot qilish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich ta'limda nutqiy kompetensiya bolalarning til orqali o'z fikrlarini ifodalash, o'quv jarayonida savol-javob, hikoya qilish, bayon etish va ijodiy faoliyat orqali shakllanadigan asosiy ko'nikmalaridir. Nutqiy kompetensiya bu bolalarning ijtimoiy muloqot va akademik muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nutqiy rivojlanish bilan bog'liq jarayonlar boshlang'ich ta'limda intensiv va samarali bo'lishi kerak. Raqamli ta'lim muhitining afzalligi shundaki, u interaktivlik, vizual materiallar, ovozli va videomateriallar yordamida o'quvchilarning nutqiy va lingvistik ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli platformalarda o'quvchilarga individual yondashuv imkoniyati yaratiladi, bu esa ularning nutqiy faolligini va mavzuni tushunish darajasini oshiradi.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogik va psixologik tadqiqotlar (L. Vigotskiy, D. Elkonin, J. Piaget, R. Abdullayev, A. G'ulomov)da bolalarning nutqiy kompetensiyasi shakllanishida interaktiv va ijodiy metodlarning ahamiyati ta'kidlaniladi.

L. Vigotskiy nutq va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni, shuningdek, muloqot orqali o'rganishning rolini ilmiy asoslab berganlar. D. Elkonin va J. Piaget esa bolalarning ijtimoiy o'yinlar orqali nutq va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonini tadqiq qilganlar. O'zbek olimlari (R. Abdullayev, A. G'ulomov, N. Mahmudov) esa boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini tarbiyalash va rivojlantirishning zamonaviy metodik jihatlarini o'rganganlar.

Ta'kidlash joizki, raqamli ta'lim muhitining pedagogik salohiyati so'nggi yillarda e'tiborni tortmoqda. Interaktiv darsliklar, onlayn platformalar va audio-video resurslar bolalarning nutqiy, lingvistik va muloqot malakalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida ko'rsatilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida quyidagi metodlarni ko'rsatish mumkin:

1. Analiz va sintez metodi – nutqiy kompetensiya rivojlanishiga xizmat qiluvchi raqamli ta'lim resurslari va darsliklarning mazmunini o'rganish.

2. Kuzatish va eksperiment – raqamli dars muhitida nutqiy faoliyat jarayonini kuzatish, interaktiv mashqlar va o'quv vazifalarini amalga oshirish.

3. So'rov va test metodlari – o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalari darajasini baholash.

4. Ijodiy o'qish va rolli o'yinlar – hikoya va matnlarni tahlil qilish, qahramonlarning xatti-harakatlarini muhokama qilish, nutqiy ko'nikmalarni amaliy mashg'ulotlarda qo'llash.

Muhokama va tahlil. Nutqiy kompetensiyani erta yoshdan rivojlantirish bolalarning tafakkurini, ijtimoiy muloqotini

oshiradi. Uni rivojlantirish vositalari sifatida esa quyidagilarni qayd etish lozim: 1) hikoya va ertaklarni tinglash va tahlil qilish; 2) rolli o‘yinlari va dramatizatsiya; 3) ijodiy yozma va og‘zaki mashqlar; 4) dialog va muhokama mashqlari; 5) multimediaviy va interaktiv darsliklar yordamida nutqiy faoliyatni rag‘batlantirish va h.k.

Raqamli ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda quyidagilar muhim o‘rin tutadi:

1. Raqamli ta’lim vositalarining samaradorligi. Interaktiv platformalar, audiovizual materiallar va o‘yinlar o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini sezilarli darajada oshiradi. Nutqiy vazifalarni bajarish jarayonida bolalar o‘z fikrini aniq, mantiqiy va ifodali tarzda bayon qilishni o‘rganadilar.

2. Ijodiy va rolli o‘yinlarining ahamiyati. Hikoya va matnlar bilan ishlash, qahramonlarni tahlil qilish va turli vaziyatlarni muhokama qilish nutqiy va muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi.

3. Individual yondashuv va differensiallashtirilgan mashg‘ulotlar. Raqamli platformalarda individual vazifalar orqali o‘quvchilarning nutqiy darajasi har bir bola uchun alohida hisobga olinadi. Bu nutqiy faollik va motivatsiyani oshiradi.

Natija va xulosalar. Raqamli ta’lim muhitida nutqiy kompetensiya shakllantirish o‘quvchilarning nutqiy ifoda qobiliyatini yaxshilaydi, tafakkur va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi, ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni mustahkamladi, shuningdek, qahramonlar va matn orqali axloqiy va muloqot qadriyatlarini o‘zlashtirishga yordam beradi.

Raqamli ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish yuzasidan quyidagi metodik tavsiyalarni keltirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Raqamli darslik va interaktiv platformalardan tizimli foydalanish.

2. Hikoya va matnlarni ijodiy o‘qish va tahlil qilish orqali nutqiy mashqlarni integratsiya qilish.

3. Rolli o‘yinlari va muhokama texnologiyalaridan muntazam foydalanish.

4. Individual yondashuv va differensiallashtirilgan vazifalar yordamida nutqiy faollikni oshirish.

5. Audiovizual materiallar va multimediya vositalari yordamida bolalarning vizual va lingvistik qobiliyatlarini rivojlantirish.

6. Nutqiy vazifalarni real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash va interaktiv mashqlar orqali amaliyotni ta’minlash.

Xulosa. Raqamli ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish samarali va dolzarb pedagogik yo‘ldir. Interaktiv resurslar va ijodiy metodlar bolalarning fikrini ifodalash, muloqot qilish va axloqiy-ijtimoiy qadriyatlarni o‘zlashtirish darajasini oshiradi. Shu bilan birga, nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish faqat texnologiya orqali emas, balki hikoya, ijodiy o‘qish va rolli o‘yinlari bilan integratsiyalashgan holda samarali bo‘ladi.

Interaktiv darsliklar, multimediya vositalari, onlayn platformalar va ta’lim ilovalari yordamida bolalar nutqini rivojlantirish jarayoni samaradorligini oshirish mumkin. Binobarin, nutqiy kompetensiyani shakllantirishning metodik asoslari, raqamli muhitning pedagogik imkoniyatlari va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yo‘llarini tadqiq etish dolzarvlik kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vigotskiy L.S. Bolalar psixologiyasi va rivojlanish nazariyasi. Moskva: Pedagogika, 1984.

2. Elkonin D.B. Bolalar rivojlanishi va o‘yinlar nazariyasi. Moskva: Prosveshcheniye, 1978.

3. Piaget J. Bolalar rivojlanishi va tafakkur. Parij: Presses Universitaires, 1972.

4. Abdullayev R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi. –Toshkent, 2015.

5. Asqarova M., Matchonov S., Xudayberganov M. va b. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish.- Toshkent: “O‘zbekiston”, 2001.- 160 b.

6. Talabova D. O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda samarali usullar// Boshlang‘ich ta’lim, 2018, 6-son, 24-25-betlar.

7. Sariyev Sh. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o‘stirish metodikasini takomillashtirish (1-2-sinf materiallari asosida).- Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2020. -48 b.

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 378.147

ИЗУЧЕНИЕ ЛИРИКИ БОРИСА ПАСТЕРНАКА И АБДУЛЛЫ ОРИПОВА В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

Бабаджанова, Азиза Рустамовна, преподаватель кафедры русского языка и литературы Национального педагогического университета Республики Узбекистан

THE STUDY OF BORIS PASTERNAK'S AND ABDULLA ORIPOV'S LYRIC POETRY IN LITERARY CRITICISM

Babajanova Aziza Rustamovna,
Lecturer, Department of Russian Language and Literature, National Pedagogical University of the Republic of Uzbekistan

BORIS PASTERNAK VA ABDULLA ORIPOV LIRIKASINING ADABIYOTSHUNOSLIKDA O'RGANILISHI

Babajanova Aziza Rustamovna,
O'zbekiston Respublikasi Milliy pedagogika universiteti, rus tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

https://orcid.org/0009-0005-2452-0187
e-mail: rustamovna877@gmail.com

Аннотация: *Данная статья посвящена процессу изучения лирики Бориса Пастернака и Абдуллы Орипова в русском и узбекском литературоведении, а также исторической динамике оценок их творчества. Подчёркивается, что уже с момента выхода первых произведений обоих поэтов их поэзия получила высокую оценку: Пастернака — со стороны таких русских учёных, как Валерий Брюсов, Д. С. Лихачёв, В. Альфонсов; Орипова — со стороны узбекских литературоведов М. Олимова, Озада Шарафиддинова, Наима Каримова, Нумона Рахимжанова и др. Выделяются общие эстетические черты их поэзии: метафорический способ восприятия, экспрессивное осмысление действительности, синтез природы и человеческой психики.*

Ключевые слова: *Борис Пастернак, Абдулла Орипов, русское литературоведение, узбекское литературоведение, сравнительное литературоведение, исследование лирики, метафорическое восприятие.*

Abstract: *This article is devoted to the process of studying the lyric poetry of Boris Pasternak and Abdulla Oripov in Russian and Uzbek literary scholarship, as well as to the historical dynamics of the evaluation of their creative work. It is emphasized that from the very moment their first works appeared, both poets received high appreciation: Pasternak—from Russian scholars such as Valery Bryusov, Dmitry S. Likhachev, and Vladimir Alfonsov; Oripov—from Uzbek literary critics Matnazar Olimov, Ozod Sharafiddinov, Naim Karimov, and Numon Rahimjonov, among others. The article highlights the common aesthetic features of their poetry: a metaphoric mode of perception, expressive comprehension of reality, and the synthesis of nature and human psyche.*

Key words: *Boris Pasternak, Abdulla Oripov, Russian literary studies, Uzbek literary studies, comparative literature, lyric poetry research, metaphoric perception.*

Annotatsiya: *Mazkur maqola Boris Pasternak va Abdulla Oripov lirikasining rus va o'zbek adabiyotshunosligida o'rganilish jarayoni hamda ijodiga berilgan bahoning tarixiy dinamikasiga bag'ishlangan. Ikkala shoirning ham ilk asarlari chiqqan paytdanoq Valeriy Bryusov, D.S.Lixachyov, V.Alfonsov kabi rus olimlari tomonidan (Pasternak uchun) va M.Olimov, Ozod Sharafiddinov, Naim Karimov, No'monjon Rahimjonov, singari o'zbek adabiyotshunoslari tomonidan (Oripov uchun) yuqori*

baholanganligi, she'riyatlarining metaforik idrok tarzi, voqelikni ekspressiv anglash, tabiat va inson ruhiyatining sintezi kabi umumiy estetik xususiyatlari ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: *Boris Pasternak, Abdulla Oripov, rus adabiyotshunosligi, o'zbek adabiyotshunosligi, qiyosiy adabiyotshunoslik, lirika tadqiqi, metaforik idrok.*

Kirish. Ushbu maqola o'zbek adabiyotining muhim namoyandasi Abdulla Oripov va rus adabiyotining taniqli shoiri Boris Pasternak ijodini o'rganishga bag'ishlangan. Ma'lumki, har qanday yetuk ijodkorga uning dastlabki asarlaridanoq adabiyotshunosliar, tanqidchilar tomonidan baho beriladi.

Shu ma'noda, Boris Pasternak ham, Abdulla Oripov ham she'riyatga endi kirib kelgan paytlarida davrining yetuk olimlari tomonidan ijobiy e'tirofga sazovor bo'lishgan. Xususan, professor Valeriy Bryusov "Rus she'riyati: kecha, bugun va ertaga" nomli salmoqli maqolasida 1917-1922-yillar oralig'idagi rus adabiy jarayonini tahlil qiladi. Mazkur maqolasida Boris Pasternak she'riyati bo'yicha anchagina fikr aytadi. Jumladan bir o'rinda B.Mayakovskiy ikkalasi haqida yaxshi fikrlarni aytadi: 1917-22-yillar futuristlar faoliyati markazida ikki shoir – V.V.Mazkovskiy va B.L.Pasternak turishgandi va ikkalasi ham o'z maktablarining muqaddas chaqiriqlarini amalga oshirishgan. Ammo ikkalasi ham shu qadar ahamiyatliki, ular bir maktab doirasidan chiqib ketishgan edi. Ular ahamiyatini bir maktab doirasi bilan cheklash yaramaydi"[1]. Ko'rinadiki, professor Valeriy Bryusov B.Pasternakka ijodi futuristik oqim doirasidan allaqachonlar chiqib, katta ko'lam kasb etagnini urg'ulaydi. Bundan tashqari shu olim mazkur maqolasining boshqa o'rni B.Pasternak she'riyatini qator fazilatlarini sanab ko'rsatadi: «Boris Pasternak she'rlari Pushkin davridan beri she'riy asarlar ko'rmagan (Chor senzurasi ta'qiqlardan tashqari) hurmatga loyiq. Yosh shoirlar uning she'rlarini hali hech qayerda bosilmasdan turib yoddan bilishardi va Mayakovskiyga qaraganda undan ko'proq ta'sirlanishardi. B.Pasternak she'rlari darhol hali aytilmagan, avval ko'rilmagan allaqanday yangilik taassurotini berardi. U har bir mavzuga o'ziga xos yondashadi, hamma narsani o'zicha ko'rish qobiliyatiga ega»[2]. Bundan tashqari olim B.Pasternak lirikasidagi ritmga boylik, milliy an'anaga sodiqlik, tabiatga oshnolik kabi xususiyatlarni ham sanab ko'rsatgan.

Aslida Boris Pasternak ijodi haqida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Adabiyotshunoslar B.Pasternakni XX asrda eng ko'p tadqiq etilgan ijodkordan biri hisoblanadi. Olimlar Boris Pasternak ijodi tadqiqotini asosan to'rt aspektda 1) biografik ma'lumotlar, 2) lirik asarlar tadqiqi, 3) nasriy asarlar tadqiqi 4) ingliz, nemis tillaridan qilingan tarjima asarlar yo'nalishida olib borishgan. Mazkur tasnifni biz o'zimiz tadqiqot davomida kuzatib belgiladik. Ba'zi manbalar esa ijodkorning xorijiy xalqlar, jumladan, nemis, ingliz va italyan xalqlari adabiyoti va shu yo'nalishdagi adabiy aloqasi bilan bog'lab ajratib ko'rsatishadi. Biz aslida ijodkor faoliyatining poetik masalalarga ko'ra tadqiqi sanalib, agar shu aspektdan olinsa deyarli har bir masala va muammolar bo'yicha qator ishlar qilinganiga guvoh bo'linadi. Hatto, nemis shoirlari ishlari bilan ham solishtirilgan tadqiqotlar borligi aniqlandi. Bu esa, darhaqiqat, Boris Pasternak ijodkor sifatida nafaqat rus, balki dunyo adabiyotida ham salmoqli ahimiyatga egaligini anglatadi.

Aslida Boris Pasternak she'riyatda ham, nasrda ham barakali ijod qilgan. Bundan tashqari she'riy asarlari tarkibida turli nazariy qarashlarini ham turli usul va vositalar orqali bayon etgan. Natijada turli olimlar nazariy asarlar yaratayotganda bevosita B.Pasternak ijodi haqida aytishadi, yoki o'z qarashlarini adib ijod namunalari yordamida isbotlashadi. Masalan, akademik E.V.Xalizev "Adabiyot nazariya" kitobida ellikdan ortiq o'rinda Boris Pasternak ijodiga murojaat qiladi. Xususan, tasviriy (predmetli) ifoda adabiyot boshlanishining spetsifikasi shundan iboratki, bu yerda so'z shartli belgiga aylanadi, endi u o'zi bildirayotgan narsaga o'xshamaydi. Masalan, B.L.Pasternak "Narsa va nom o'rtasida farq cheksiz" – "Leytenat Shmidt" dostonidan)[3]. Bu esa adib ijodining zamonaviy rus adabiyotshunosligida o'rni katta ekanligini bildiradi.

[1] Брюсов В.Я. Сочениния. В 2-х томах. Т.2. Стаьи и рецензии 1893-1924. Вступ. статья. Д.Максимова. – Москва: Художественная литература, 1987. – 471.

[2] Yuqoridagi manba. – С.472.

[3] Хализев В. Е. Теория литературы. Москва: Высшая школа, 2004. – С.109.

Manbalardan ma'lumki, rus adabiyotshunosligida Boris Pasternak ijodiga munosabat hamma vaqt ham iliq va yaxshi bo'lavermagan. Ayniqsa, 1958-yil Nobel mukofotiga loyiq ko'rilgani, Boris Pasternakka mukofotni olishga borishga ruxsat bo'lmagani, "Doktor Jivago" romanini Rossiyada chop ettirilmagani kabi dalillar ijodkorga juda qiyin bo'lganini ko'rsatadi. Bu borada ba'zi adabiyotshunoslar shoirni ochiqchasiga tanqid qilishadi. Masalan, V.V.Buznik "Lirika va zamon" nomli monografiyasining "Yangi lirizm yo'lida" deb nomlangan ikkinchi bobida B.L.Pasternakning she'rlariga salbiy fikr bildiradi: "B.Pasternak esa lirik shoirning sovet voqeligidagi o'rni haqida skeptik (ya'ni tanqidiy, ishonmasdan, ikkilanib) yondashadi".[4]

Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinadi-ki rus adabiyotshunosligida Boris Pasternak ijodiy faoliyatiga munosabatlar turli davrlarda har xil ko'rinishda bo'lgan. Ammo oxirgi qirq yilda adib ijodiga munosabat yaxshi tomonga o'zgardi va Pasternak ijodi munosib bahosini oldi. Aynan shunga o'xshash munosabatni biz O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov ijodiga nisbatan ham uchratishimiz mumkin. Agar bu ikki shoir ijodiy faoliyatini qiyoslansa, jahon she'rshunosligida fenomen darajasidagi shoirlar taqdiri va badiiy anglash darajasi ham yaqin bo'lishiga amin bo'lamiz. Mazkur mulohazalar bevosita Boris Pasternak va Abdulla Oripov ijodiga ham taalluqli deyishimizga asos bor.

O'zbek adabiyotshunosligida ham Abdulla Oripov ijodining ilk pallalaridan adabiyotshunoslik e'tiboriga tushgan. Xususan, 1965-yilda "Ozbekiston madaniyati" gazetasida adabiyotshunos olim M.Olimov: "Abdulla she'rlari qalbga nurday singadi-yu, nogahoniy sukunatni tilka-pora qilib, tug'yon ko'taradi" deb yozgan edi "Mitti yulduz" she'ri taqrizida[5].

Keyinchalik, Ozod Sharaffidinov, Matyoqub Qo'shjonov, Ibrohim G'afurov, No'monjon Rahimjonov, Baxtiyor Nazarov, Naim Karim singari yirik olimlar tadqiqotlarida shoir faoliyatiga ijobiy baho berishgan.

Akademik Naim Karimov esa Cho'lponning "Xalq" she'ri bilan Abdulla Oripovning "Olomon" she'rini solishtirib, "A.Oripov esa she'riyatga isyonkor shoir sifatida kirib keldi. Uning aksar she'rlarida garchand g'afurona ohanglar eshitilib tursa-da, u, mohiyatan, Cho'lpon she'rlari bilan ko'z ochgan shoir" degan xulosaga keladi[6].

Shuningdek, N.Rahimjonov mustaqillik davri she'riyati haqida fikr yuritayotib, Abdulla Oripovning lirikasida nur, shamol, Vatan, erk timsollari ko'p uchraganini hamda shoir lirikasidagi diniy islomiy she'rlar ahamiyatini tadqiq etgan. "A.Oripovning lirik qahramoni ona yurt shamolida kuylangan o'zbek tuprog'ining qo'shig'ini tinglay biladi", degan xulosaga keladi[7].

Fasldagi mulohazalar yakuni sifatida professor M.Asadovning "Bahor kunlarida kuzning havosi" nomli maqolasida shoir she'ri irfoniy adabiyot nuqtai nazaridan tadqiq etilganini aytish lozim[8]. Bu esa Abdulla Oripovning bir qarashda tavsifiy-psixologik vaziyat haqidagi she'ridagi so'zlarga tasavvufona mazmun yuklanganiga asos bo'ladi.

Xulosa. Abdulla Oripov va Boris Pasternak ijodi o'zbek va rus adabiyotida muhim o'rin tutadi. Ularning she'riyatida ma'naviy va badiiy uyg'unlik, tabiat va inson ruhiyati o'rtasidagi munosabatlar muhim mavzu sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Асадов М. Баҳор кунларида кузнинг ҳавоси / Tafakkur. 2024. №4. – Б.89

1. Брюсов В.Я. Сочениния. В 2-х томах. Т.2. Стаьи и рецензии 1893-1924. Вступ. статья. Д.Максимова. – Москва: Художественная литература, 1987.

2. Бузник В.В. Лирика и время. – Ленинград: Наука, 1964. – С.59.

4. Давлатова А. Р. Абдулла Орипов шеъриятида поэтик тафаккур тадрижи. филол. фан. доктор(DSc). - Тошкент, 2022. - 72 б.

[4] Бузник В.В. Лирика и время. – Ленинград: Наука, 1964. – С.59.

[5] Ruxsora Oripova. Mitti yulduz she'rining tahrir variantlari. www.kh-davron.uz

[6] Наим Каримов. Чўлпон ва XX аср ўзбек шеърияти / Ўзбек адабий танқиди: антология. Тузувчи ва нашрга тайёр.. Б.Карим. – Тошкент: Turon-Iqbol, 2011. – Б.129-130.

[7] Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти: тамойиллар, тажрибалар, сабоқлар.. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.38.

[8] Асадов М. Баҳор кунларида кузнинг ҳавоси / Tafakkur. 2024. №4. – Б.89-90.

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK:902:339.1:101

SHAYBONIYXON VA UNING DAVLATI

Haydaraliyev Xushnud Muso-zoda,
Qo'qon davlat universiteti Gumanitar va tillar fakulteti talabasi

ШАЙБАНИЙХАН И ЕГО ГОСУДАРСТВО

Хайдаралыев Хушнуд Мусо-зода,
студент факультета Гуманитарных и языковых наук,
Кокандский государственный университет

SHAYBONIYKHAN AND HIS STATE

Khaydraliev Khushnud Muso-zoda,
Student, Faculty of Humanities and Languages, Kokand State University

e-mail: xushnudbekhaydaraliyev611@gmail.com
https://orcid.org/0009-0003-1975-1226

Annotatsiya: *Maqolada Markaziy Osiyoda o'zbek davlatchiligining asoschisi bo'lgan Shayboniyxonning siyosiy faoliyati tahlil qilinadi. Uning ichki va tashqi siyosati yo'nalishlari, davlat boshqaruvi tizimining o'ziga xos jihatlari hamda turkiy-o'zbek qabilalarini birlashtirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, Shayboniyxon davrini aks ettiruvchi tarixiy manbalarga ham e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *Shayboniyxon, Shayboniylar davlati, o'zbek qabilalari, Markaziy Osiyo, siyosat, tarix.*

Аннотация: *В статье рассматривается политическая деятельность Шейбани-хана – основателя узбекского государства в Центральной Азии. Раскрываются ключевые направления его внутренней и внешней политики, особенности государственного управления и роль Шейбани-хана в объединении тюрко-узбекских племён. Отдельное внимание уделено историческим источникам, отражающим эпоху его правления.*

Ключевые слова: *Шейбани-хан, государство Шейбанидов, узбекские племена, Центральная Азия, политика, история.*

Annotation: *The article examines the political activity of Shaybani Khan, the founder of the Uzbek state in Central Asia. It highlights the main directions of his domestic and foreign policy, the features of state governance, and the role of Shaybani Khan in uniting the Turkic-Uzbek tribes. Special attention is given to historical sources reflecting the period of his rule.*

Key words: *Shaybani Khan, Shaybanid state, Uzbek tribes, Central Asia, politics, history.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). XV asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyodagi siyosiy vaziyat Temuriylar davlatining parchalanishi va hokimiyat uchun ichki nizolarning kuchayishi bilan xarakterlanardi. Ushbu davrda mavjud bo'lgan siyosiy markazlar barqarorlikka ega emas edi, Temuriylar hokimiyati esa asta-sekin zaiflashib borardi. Bunday sharoitda parchalangan hududlarni birlashtirish va markazlashgan boshqaruvni tiklashga qodir yangi kuchning paydo bo'lishi zarurati yuzaga keldi. Ushbu jarayonda hal qiluvchi rol o'ynagan asosiy shaxslardan biri Muhammad Shayboniyxon bo'lib, u Shayboniylar davlatining asoschisi va Movarounnahr tarixidagi eng muhim hukmdorlardan biri sifatida tanildi.

ADABIYOT TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/MATERIALS AND METHODS). XV asr oxirida Temuriylar davlatining zaiflashishi O‘rta Osiyoda chuqur siyosiy inqiroz keltirib chiqardi. Siyosiy markazlar beqaror, hokimiyat uchun ichki kurashlar keskin edi, barqaror boshqaruv deyarli yo‘qolgan edi. Aynan shu sharoitda Muhammad Shayboniyxon yetakchi kuch sifatida maydonga chiqdi va parchalangan hududlarni birlashtirib, markazlashgan hokimiyatni tiklashga muvaffaq bo‘ldi. Uning tashabbusi bilan Shayboniylar davlati tashkil topdi, bu esa Movarounnahr va butun mintaqada yangi siyosiy davrni boshladi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Muhammad Shayboniyxon 1451-yilda tug‘ilgan bo‘lib, Chingizxonning to‘ng‘ich o‘g‘li Jo‘jixon avlodidan kelgan Shayboniylar sulolasiga mansub edi [3]. Yoshligi chingiziylar va Temuriylar o‘rtasidagi doimiy nizolar muhitida o‘tdi. Bu og‘ir sharoitlar uning qat’iyatli xarakterini, strategik fikrlashini va siyosiy-harbiy qobiliyatlarini shakllantirdi.

1480-yillardan boshlab u o‘zbek qabilalarini birlashtirdi va Temuriylar mulklariga qarshi faol kurash boshladi. 1500-yilda Buxoroni, ko‘p o‘tmay Samarqandni egalladi. 1505–1507-yillarga kelib Xorazm, Toshkent, Hirot hamda boshqa hududlar uning hokimiyati ostiga o‘tdi [4]. Shu tariqa o‘zbek qabilalarining harbiy tashkilotiga asoslangan yangi markazlashgan Shayboniylar davlati barpo bo‘ldi. Ichki siyosatda Shayboniyxon markaziy hokimiyatni mustahkamlashga alohida e’tibor berdi. Harbiy zodagonlar va qabila aristokratiyasiga tayanib, soliq tizimi, ichki tartib va savdo yo‘llarining himoyasini yo‘lga qo‘ydi. Islom ulamolarini qo‘llab-quvvatlab, masjid, madrasa va karvonsaroylar qurilishini rag‘batlantirdi, bu esa hokimiyatiga diniy asos berdi va mamlakatning ma’naviy-madaniy hayotini rivojlantirdi [6]. Shayboniyxon markaziy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida samarali boshqaruv tizimini barpo etishga e’tibor qaratdi [1].

Ma’muriy tuzilmada u harbiy zodagonlar va qabila aristokratiyasiga tayanar edi, lekin markazlashgan boshqaruvni rivojlantirishga alohida urg‘u berdi. Soliq yig‘ish tizimi, ichki tartibni saqlash va savdo yo‘llarining xavfsizligini ta’minlash uning siyosatining muhim yo‘nalishlari edi. Shayboniyxon islom ulamolarini qo‘llab-quvvatlash orqali hokimiyatining diniy asosini mustahkamladi. U masjidlar, madrasalar va karvonsaroylar qurilishini rag‘batlantirib, mamlakatning ma’naviy va madaniy rivojlanishiga hissa qo‘shdi. Markaziy hokimiyatni mustahkamlash Shayboniyxonning ichki siyosatining asosiy maqsadi edi. U ma’muriy boshqaruvda harbiy zodagonlar va qabila aristokratiyasiga suyanar edi, lekin markazlashgan tizimni joriy etishga harakat qildi. Soliq tizimi, ichki tartib va savdo yo‘llarini himoya qilish uning siyosatining muhim tarkibiy qismlari bo‘ldi. Shayboniyxon islom ulamolarini qo‘llab-quvvatlash orqali o‘z hokimiyatini diniy jihatdan mustahkamladi. Masjidlar, madrasalar va karvonsaroylar qurilishi uning tashabbusi bilan rivojlandi, bu esa mamlakatning ma’naviy va madaniy hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Shayboniyxon davlat boshqaruvida samarali tizim yaratishga intilib, markaziy hokimiyatni mustahkamlashga katta e’tibor berdi. U harbiy zodagonlar va qabila aristokratiyasiga tayanib, markazlashgan boshqaruvni rivojlantirdi. Soliq yig‘ish, ichki tartibni ta’minlash va savdo yo‘llarining xavfsizligini kafolatlash uning siyosatining asosiy yo‘nalishlari edi. Shayboniyxon islom dini ulamolarini qo‘llab-quvvatlab, hokimiyatiga diniy asos berishga muvaffaq bo‘ldi. U masjidlar, madrasalar va karvonsaroylar qurilishini rag‘batlantirib, mamlakatning ma’naviy va madaniy hayotini rivojlantirdi [7].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Shayboniyxonning ichki siyosati markaziy hokimiyatni mustahkamlash va samarali boshqaruv tizimini barpo etishga qaratildi. U ma’muriy tuzilmada harbiy zodagonlar va qabila aristokratiyasiga tayanar edi, lekin markazlashgan boshqaruvni rivojlantirishga alohida e’tibor berdi. Soliq tizimi, ichki tartib va savdo yo‘llarining xavfsizligi uning siyosatining muhim qismlari edi. Shayboniyxon islom ulamolarini qo‘llab-quvvatlash orqali hokimiyatining diniy asosini mustahkamladi. Masjidlar, madrasalar va karvonsaroylar qurilishi uning tashabbusi bilan rivojlandi, bu mamlakatning ma’naviy va madaniy hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Shayboniyxonning tashqi siyosati chegaralarni kengaytirish va davlatning ta’sirini mustahkamlashga qaratildi. Janubda uning asosiy raqibi Eronni boshqargan shoh Ismoil I Safaviy edi. Ikkala hukmdor o‘rtasida Xuroson va Afg‘onistonni nazorat qilish uchun uzoq davom etgan kurash yuz berdi. 1510-yilda Marv jangida Shayboniyxon mag‘lubiyatga uchradi va halok bo‘ldi [6].

TAMADDUN NURI

Biroq uning o‘limi davlatning parchalanishiga olib kelmadi, chunki u barpo etgan hokimiyat tizimi yetarlicha mustahkam edi. Shayboniylar davlati uning vorislari boshqaruvi ostida o‘z mavjudligini davom ettirdi. Shayboniyxon hukmronligi davri O‘rta Osiyoda madaniyat va adabiyotning rivojlanishida muhim bosqich bo‘ldi. Shayboniyxon o‘zi shaxsan she’riyat, ilm-fan va diniy tafakkurga qiziqish bildirgan. U turkiy tilda Shayboniy taxallusi ostida she’rlar yozgan va o‘z davrining ulamolari va shoirlarini qo‘llab-quvvatlagan. Kamoliddin Binoyning “Shayboniy-noma” she’riy asari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda Shayboniyxonning hayoti va fathlari tasvirlanadi. Uning madaniy siyosati o‘zbek davlatchiligini mustahkamlashga va xalqning umumiy madaniy asoslarini shakllantirishga yordam berdi. Shayboniyxon hukmronligi O‘rta Osiyoda madaniyat va adabiyotning rivojlanishi uchun muhim davr bo‘ldi. U she’riyat, ilm va diniy tafakkurga alohida e’tibor qaratgan va Shayboniy taxallusi bilan turkiy tilda she’rlar yozgan. O‘z davrining ulamolari va shoirlarini qo‘llab-quvvatlagan Shayboniyxon madaniy hayotning rivojlanishiga hissa qo‘shdi. Kamoliddin Binoyning “Shayboniy-noma” asari uning hayoti va harbiy yutuqlarini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Shayboniyxonning madaniy siyosati o‘zbek davlatchiligini mustahkamlashga va xalqning umumiy madaniy asoslarini rivojlantirishga xizmat qildi. Shayboniyxon davri O‘rta Osiyoda madaniyat va adabiyotning yuksalishi bilan ajralib turdi. Hukmdor shaxsan she’riyat, ilm va diniy fikrlarga qiziqish bildirgan va Shayboniy taxallusi ostida turkiy tilda she’rlar bitgan. U o‘z davrining ulamolari va shoirlarini qo‘llab-quvvatlab, madaniy hayotning rivojlanishiga zamin yaratdi. Kamoliddin Binoyning “Shayboniy-noma” asari Shayboniyxonning hayoti va fathlarini tasvirlaydigan muhim adabiy yodgorlikdir. Uning madaniy siyosati o‘zbek davlatchiligini mustahkamlashga va xalqning madaniy asoslarini shakllantirishga yordam berdi. Shayboniyxon hukmronligi O‘rta Osiyoda madaniyat va adabiyotning rivojlanishi uchun muhim bosqich bo‘ldi. U she’riyat, ilm-fan va diniy tafakkurga qiziqish ko‘rsatib, Shayboniy taxallusi bilan turkiy tilda she’rlar yozgan. O‘z davrining ulamolari va shoirlarini qo‘llab-quvvatlagan Shayboniyxon madaniy hayotning yuksalishiga hissa qo‘shdi. Kamoliddin Binoyning “Shayboniy-noma” asari uning hayoti va yutuqlarini aks ettiruvchi muhim adabiy manbadir. Shayboniyxonning madaniy siyosati o‘zbek davlatchiligini mustahkamlashga va xalqning umumiy madaniy asoslarini rivojlantirishga xizmat qildi. Shayboniyxon davri O‘rta Osiyoda madaniyat va adabiyotning rivojlanishi uchun muhim bosqich sifatida tanildi. Hukmdor she’riyat, ilm va diniy tafakkurga qiziqish bildirib, Shayboniy taxallusi ostida turkiy tilda she’rlar yozdi. U o‘z davrining ulamolari va shoirlarini qo‘llab-quvvatlab, madaniy hayotning rivojlanishiga yordam berdi. Kamoliddin Binoyning “Shayboniy-noma” asari Shayboniyxonning hayoti va fathlarini tasvirlaydigan muhim adabiy yodgorlik sifatida alohida ahamiyatga ega. Uning madaniy siyosati o‘zbek davlatchiligini mustahkamlashga va xalqning umumiy madaniy asoslarini shakllantirishga xizmat qildi [5].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Muhammad Shayboniyxon O‘rta Osiyo tarixida alohida o‘rin tutadi. U Temuriylar an’anasini davom ettirgan holda kuchli markazlashgan davlatning asoschisi bo‘ldi. Qisqa hukmronligiga qaramay, u o‘zbek qabilalarini birlashtirdi, islom madaniyatini mustahkamladi va mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirdi. Aynan Shayboniyxon o‘zbek davlatchiligining asoslarini qo‘yib, milliy o‘zlikni shakllantirish davrining yorqin ramziga aylandi. Uning barpo etgan Shayboniylar davlati Movarounnahrning siyosiy va madaniy tarixida chuqur va uzoq muddatli iz qoldirdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Abdulazizov A. Shayboniylar davlati tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005.
2. Abdullayev K. O‘zbekiston xonlari tarixi. – Samarqand, 2004.
3. Axmedov B. O‘zbekiston tarixi: qadimdan hozirgi kungacha. – Toshkent: Universitet, 1992.
4. Bartold V.V. Turkiston mo‘g‘ullar istilosigacha va mo‘g‘ullar istilosi davrida. – Toshkent: Fan, 1997.
5. Boboyev X. Shayboniylar davlati va uning ma’muriy tizimi. – Toshkent: Universitet, 2012.
6. Isomiddinov M. Shayboniyxon va uning davlatchilik siyosati. – Samarqand: Registon, 2010.
7. Kamoliddin Sh. Shayboniylar davri tarixiy manbalari. – Toshkent: Fan, 1998.

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK:37.013(22.19)

ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕДАЧИ РУССКОЙ ДЕЙСТВИТЕЛЬНОСТИ XIX ВЕКА В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПЕРЕВОДЕ (НА МАТЕРИАЛЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ М.Л.МИХАЙЛОВА)

Усманова Камила Шухрат кызы,
магистрант 2-курса Денауского института предпринимательства и педагогики

PECULIARITIES OF CONVEYING RUSSIAN REALITY OF THE 19TH CENTURY IN LITERARY TRANSLATION (BASED ON THE WORKS OF M. L. MIKHAILOV)

Usmanova Kamila Shukhrat kizi,
Master's student at Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

XIX ASR RUS HAQIQATINI BADIIY TARJIMADA YETKAZISHNING O'ZIGA XOSLIGI (M. L. MIXAYLOV ASARLARI MISOLIDA)

Usmanova Kamila Shuxrat qizi,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti

e-mail: usmanovakamila04@gmail.com
https://orcid.org/0009-0003-2241-7923

Аннотация: *В статье рассматриваются особенности передачи русской действительности XIX века в художественном переводе на материале произведений М. Л. Михайлова. Анализируются способы сохранения национального колорита, отражающие историко-культурную специфику эпохи, а также трудности, возникающие при передаче реалий, не имеющих эквивалентов в других языках. Автор исследует роль переводчика как посредника между культурами и значение художественного перевода в осмыслении национальной идентичности.*

Ключевые слова: *художественный перевод, русская действительность XIX века, национальный колорит, культурный контекст, реалии, переводческие приёмы, межкультурная коммуникация.*

Abstract: *The article examines the peculiarities of conveying Russian reality of the 19th century in literary translation, based on the works of M. L. Mikhailov. It analyzes the methods of preserving the national color that reflect the historical and cultural specificity of the era, as well as the difficulties arising in rendering realities that have no equivalents in other languages. The author explores the role of the translator as an intermediary between cultures and the significance of literary translation in understanding national identity.*

Key words: *literary translation, russian reality of the 19th century, national color, cultural context, realities, translation techniques, intercultural communication.*

Annotatsiya: *Maqolada M.L.Mixaylov asarlari misolida XIX asr rus voqealigini badiiy tarjimada yetkazishning xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada milliy koloritni saqlash usullari, davrning tarixi va madaniy o'ziga xosligini aks ettiruvchi jihatlar hamda boshqa tillarda ekvivalenti bo'lmagan realiylarni yetkazishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Muallif tarjimonning madaniyatlar orasidagi vositachi sifatidagi roli va milliy identlikni tushunishda badiiy tarjimaning ahamiyatini o'rganadi.*

Kalit so'zlar: *badiiy tarjima, XIX asr rus voqealigi, milliy kolorit, madaniy kontekst, realiylar, tarjima usullari, madaniyatlararo kommunikatsiya.*

ВВЕДЕНИЕ (INTRODUCTION/KIRISH). Современное переводоведение рассматривает художественный перевод как сложное межкультурное взаимодействие, отражающее особенности национального сознания, исторического опыта и культурных традиций народа [2, с. 34]. Перевод передает не только содержание текста, но и культурную память, мировоззрение и ценностные установки автора. Он позволяет не просто читать текст, но понимать культурный контекст и ценности эпохи, в которой он создан.

Особый интерес представляет творчество М. Л. Михайлова — поэта, публициста и переводчика середины XIX века, чьи произведения соединяют реалистическую традицию, понимание народной жизни и стремление сохранить эмоциональную выразительность оригинала [3]. Анализ его переводов позволяет глубже понять методы интерпретации текста, передачи национально-культурной специфики и сохранения стилистической целостности произведений.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью изучения механизмов передачи национально-культурной специфики и выявления методологических подходов, позволяющих воспроизводить реальность эпохи средствами другого языка [4]. В современных условиях глобализации художественный перевод становится инструментом межкультурного диалога, а опыт классических переводчиков служит примером сохранения национальной идентичности и культурной памяти.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД (MATERIALS AND METHODS/ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR) Переводы Михайлова отражают тенденции русской литературы XIX века, в которой доминировали социальная проблематика, интерес к внутреннему миру человека и стремление показать правдивую картину жизни различных сословий. Его деятельность совпала с эпохой культурного самоопределения русского общества, когда перевод становился важным инструментом диалога с европейской литературой. Михайлов стремился сохранить художественную цельность оригинала, не утрачивая национального своеобразия русской речевой культуры [1].

Особенности русской действительности XIX века, включая бытовые реалии, социальную структуру, православное мировоззрение и формы народной речи, требуют от переводчика понимания глубинных смыслов [7]. Для этого Михайлов использовал следующие методы:

Лексико-семантическая адаптация – подбор слов и выражений, которые передают как смысл, так и эмоциональный настрой оригинала. Например, при переводе бытовых сцен XIX века он заменял устаревшие слова на современные аналоги, сохраняя стилистическое и культурное значение текста.

Контекстуальные замены – замена элементов текста на культурные эквиваленты для читателя другой страны, что позволяло сохранить восприятие текста, не искажая национальную специфику.

Передача ритмико-интонационных особенностей текста – особенно важно для поэзии и публицистики XIX века, где интонация и ритм играют ключевую роль.

Примечания и комментарии – пояснения историко-культурных реалий, которые помогают читателю понять социальные нормы, бытовые привычки и традиции той эпохи [3].

Методологически исследование опирается на сопоставительный анализ оригинала и перевода, выявление приёмов адаптации реалий, сохранение эмоционального и художественного воздействия, а также оценку соответствия перевода культурной идентичности текста.

ОБСУЖДЕНИЕ (DISCUSSION/MUHOKAMA). Художественный перевод Михайлова показывает, что текст — это не просто набор слов, а сложная культурная структура. Передача русской действительности XIX века требует от переводчика:

глубокого знания языка и культурного контекста,

понимания исторических и социальных реалий,

умения передать эмоциональный стиль автора,

сохранения национальной идентичности текста.

Переводчик стремился сохранить авторскую интонацию, ритм и художественные средства. Например, эмоционально окрашенные диалоги персонажей передавались через соответствующую пунктуацию и синтаксические конструкции, что делало текст живым и выразительным.

Примечания Михайлова играли важную роль: они раскрывали историко-культурный контекст и давали читателю информацию о социальных и бытовых нормах, непонятных современному иностранцу. Это усиливало познавательную функцию перевода и позволяло сохранить культурную память народа. Перевод Михайлова – это форма межкультурного диалога, соединяющая исторические эпохи, художественные традиции и ценностные системы. Его подход демонстрирует, что перевод — это не только воспроизведение содержания, но и творческая интерпретация текста через призму национальной ментальности [1].

РЕЗУЛЬТАТЫ (NATIJALAR/RESULTS). Современное переводоведение подтверждает необходимость анализа текста на лингвистическом, когнитивном и культурологическом уровнях [2]. Опыт Михайлова показывает, что учет языковой формы, эмоциональной окраски и культурных коннотаций является ключевым для создания перевода, который сохраняет концептуальную, художественную и эмоциональную целостность оригинала [4].

Художественный перевод выполняет несколько ключевых функций. Во-первых, культурная функция заключается в сохранении национальной идентичности текста и обеспечении понимания культурных особенностей эпохи. Во-вторых, эмоциональная функция направлена на передачу художественного воздействия и эмоционального настроя произведения. В-третьих, познавательная функция позволяет читателю познакомиться с социальными, бытовыми и историческими реалиями. Наконец, художественный перевод выполняет роль в межкультурном диалоге, создавая мост между культурами и способствуя пониманию ценностей и мировоззрения автора.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ (XULOSA/CONCLUSION). Проведённое исследование показывает, что художественный перевод русской действительности XIX века требует от переводчика глубокого понимания языка, культуры и исторического контекста. Творческий подход М. Л. Михайлова подтверждает, что успешный перевод — это не буквальное воспроизведение текста, а сохранение национального колорита, эмоциональной выразительности и культурного содержания.

Художественный перевод становится формой межкультурного диалога, позволяя читателю не только понимать текст, но и ощущать ценности, ментальность и духовную атмосферу эпохи. Опыт Михайлова представляет ценнейший материал для современных исследований в области перевода и служит примером того, как можно сочетать точность передачи, художественную выразительность и культурную идентичность текста.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА (ADABIYOTLAR RO‘YXATI REFERENCES)

1. Алексеева, И. С. Профессиональный тренинг переводчика. – СПб.: Союз, 2010. – 312 с.
2. Бархударов, Л. С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. – М.: ЛКИ, 2008. – 240 с.
3. Гарбовский, Н. К. Теория перевода: учебник. – М.: Изд-во МГУ, 2017. – 528 с.
4. Комиссаров, В. Н. Современное переводоведение. – М.: Эдиториал УРСС, 2019. – 384 с.
5. Кузнецова, Н. А. Культурная адаптация в художественном переводе. – М.: Флинта, 2021. – 256 с.
6. Латышев, Л. К. Технология перевода. – М.: Academia, 2019. – 304 с.
7. Михайлов, М. Л. Сочинения и переводы. – СПб.: Наука, 2005 (репринтное изд.). – 452 с.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 821.111.09.126

HUMOR AND IRONY IN TRANSLATION: A PRAGMATIC ANALYSIS OF ENGLISH NEWSPAPERS

Choriyeva Dilafruz,
Teacher at Secondary School No. 26, Termez city

ЮМОР И ИРОНИЯ В ПЕРЕВОДЕ: ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ АНГЛИЙСКИХ ГАЗЕТ

Чориева Дилафруз,
учитель средней школы №26 города Термез

TARJIMADA HAZIL VA ISTEHZO: INGLIZ GAZETALARINING PRAGMATIK TAHLILI

Choriyeva Dilafruz,
Termiz shahar 26-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

dilafruzchoriyeva707@gmail.com
https://orcid.org/0009-0001-7039-5840

Annotation: *This research explores the mechanisms of humor and irony translation in English newspapers from a pragmatic perspective. The study examines how linguistic context, cultural background, and communicative intent influence the reproduction of humorous and ironic expressions in translation. Special attention is given to pragmatic strategies such as implicature, presupposition, speech acts, and contextual adaptation.*

Key words: *humor, irony, translation, pragmatic analysis, english newspapers.*

Аннотация: *В данном исследовании рассматриваются механизмы перевода юмора и иронии в английских газетах с прагматической точки зрения. Изучается, как языковой контекст, культурный фон и коммуникативное намерение влияют на воспроизведение юмористических и иронических выражений в переводе. Особое внимание уделяется прагматическим стратегиям, таким как импликатура, пресуппозиция, речевые акты и контекстуальная адаптация.*

Ключевые слова: *юмор, ирония, перевод, прагматический анализ, английские газеты.*

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot ingliz gazetalaridagi hazil va ironiyani tarjima qilish mexanizmlarini pragmatik nuqtai nazardan o'rganadi. Tadqiqotda lingvistik kontekst, madaniy muhit va kommunikativlikning hazil va ironik ifodalarni tarjimada qanday aks ettirishiga ta'siri o'rganiladi. Pragmatik strategiyalar, masalan, implikatura, presuppozitsiya, nutq aktlari va kontekstual adaptatsiyaga alohida ahamiyat qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *hazil, ironiya, tarjima, pragmatik tahlil, ingliz gazetalari.*

INTRODUCTION (ВВЕДЕНИЕ/KIRISH). In contemporary media discourse, humor and irony function as powerful linguistic tools that shape public opinion, strengthen persuasive intent, and enhance the expressive richness of journalistic texts. English newspapers, in particular, often employ subtle humorous cues, layered irony, and culturally embedded wordplay to convey evaluations, criticisms, and social commentary. Translating such texts requires not only lexical and grammatical precision but also a deep understanding of pragmatic meaning, communicative intention, and cultural context. As global information exchange accelerates, the accurate translation of humorous and ironic expressions becomes essential for ensuring intercultural communication and preserving the stylistic identity of media outlets. Despite the extensive development of translation studies, the translation of humor and irony remains one of the most challenging areas, as these linguistic phenomena rely heavily on implicature, presupposition, shared background knowledge, and audience expectations. Humor often arises from ambiguity, semantic shift, or unexpected contrasts, while irony depends on subtle discrepancies between literal

meaning and intended message. As a result, a translator must interpret and recreate not only the linguistic form but also the pragmatic function and rhetorical effect of the original text. Failure to preserve these elements can lead to communicative loss, misinterpretation, or reduced expressive force in the target language.

A pragmatic approach to translation allows researchers to analyze how meaning is shaped by context, speaker intention, and social norms. By examining humor and irony through a pragmatic lens, it becomes possible to reveal the underlying mechanisms that guide their interpretation in English newspapers and determine the strategies necessary for their effective translation. The increasing circulation of multilingual news platforms and the growing demand for accurate journalistic translation further highlight the relevance of this research.

MATERIALS AND METHODS (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD). In this study, the pragmatic factors underlying the translation of humor and irony in English newspapers were examined. First, theoretical perspectives in English and Uzbek linguistics were analyzed, including the approaches of scholars such as Venuti[1] and Chiaro[2] on the translation of humor and irony, as well as the views of Karimov[3] and Mahmudov[4] regarding the transmission of pragmatic meaning. The research identified the difficulties that arise in translating irony, wordplay, presupposition, implicature, and contextual cues found in newspaper texts, and outlined effective strategies for overcoming these challenges. The findings show that the translation of humor and irony requires not only linguistic competence, but also cultural knowledge, pragmatic sensitivity, and the ability to recreate the author's intended meaning.Overall, the findings demonstrate that successful translation of humor and irony requires not only linguistic knowledge but also cultural awareness and sensitivity to discourse context.

DISCUSSION (ОБСУЖДЕНИЕ/MUHOKAMA). The findings of this research reveal that humor and irony in English newspaper discourse operate through a complex interplay of linguistic, pragmatic, and cultural factors, and their translation requires a multi-layered interpretative approach. The analysis shows that humorous and ironic expressions in newspapers rarely depend solely on lexical meaning; instead, they rely heavily on contextual inference, presupposed knowledge, and implicit communicative intentions. As a result, translators face considerable challenges when attempting to reconstruct these effects in the target language.

One of the key results is that pragmatic cues—such as implicature, presupposition, conversational maxims, and indirect speech acts—play a decisive role in how irony and humor are interpreted. The study demonstrates that when these cues are not accurately identified or when cultural references are not recognized, the humorous or ironic meaning becomes weakened or completely lost in translation. This confirms that pragmatic awareness is essential for maintaining the communicative intent of the original text. The comparative analysis of source and translated newspaper texts indicates that wordplay, culturally embedded metaphors, idiomatic expressions, and sarcastic tones are the most problematic elements for translators. In many cases, literal translation fails to reproduce the intended humorous or ironic effect, leading to semantic flattening, stylistic reduction, or unintended ambiguity. Successful translations were observed primarily in cases where translators applied adaptive strategies, including contextual reformulation, functional equivalence, or the recreation of analogous humorous impact rather than strict linguistic symmetry.

The study further reveals that irony in English newspapers often functions as a tool of subtle critique, shaping public opinion through evaluative tone rather than direct commentary. Translators who demonstrated sensitivity to authorial voice and discourse structure were more successful in preserving these rhetorical nuances. When pragmatic markers such as shifts in tone, hyperbolic expressions, or contrastive structures were recognized, the translated text more accurately reflected the original intention and communicative force.

Another important result is the identification of three primary translation strategies that proved effective in conveying humor and irony:

1-table

Primary translation strategies	Explanation
1. **Pragmatic adaptation**	Implicit meanings are reconstructed based on target-language norms
2. **Contextual reinterpretatio**	Focuses on preserving function rather than literal form
3. **Stylistic compensation**	Direct equivalence is impossible but the humorous or ironic effect can be recreated elsewhere in the text

Finally, the research shows that the translator's cultural competence and ability to interpret discourse-level meaning significantly influence the overall quality of translation. Translators who approached humor and irony through a pragmatic lens achieved higher levels of communicative equivalence and stylistic accuracy[3]. Overall, the results confirm that the translation of humor and irony in English newspapers is not merely a linguistic operation but a pragmatic and culturally dependent interpretative act. These findings underscore the necessity for translators to apply context-sensitive, discourse-based, and function-oriented strategies to preserve the expressive and rhetorical power of the original newspaper texts.

RESULTS (РЕЗУЛЬТАТЫ/NATIJALAR). The findings of the study reveal that humor and irony in English newspaper discourse emerge from a combination of linguistic creativity, pragmatic inference, and culturally embedded knowledge. These results align closely with the theoretical positions advanced by leading scholars such as Lawrence Venuti[1], Delia Chiaro[2], and Uzbek linguists Karimov[3] and Mahmudov[4], whose works collectively emphasize the decisive role of cultural and contextual factors in the translation of stylistically marked texts.

Venuti's argument regarding the importance of preserving the rhetorical tension of the source text is clearly reflected in the present study's observation that literal translation often diminishes the intended humorous or ironic effect. The data demonstrate that foreignization—or certain elements of it—may be necessary when humor relies on culture-specific references, implying that preserving the original pragmatic force sometimes requires maintaining a degree of cultural distance. This supports Venuti's claim that over-domestication can lead to stylistic flattening[1]. Similarly, Chiaro's notion of "humorous equivalence" is strongly validated by the results. The study shows that translators who attempted to replicate linguistic form without reconstructing the humorous impact achieved lower levels of communicative effectiveness. Effective translations focused instead on functional and pragmatic equivalence, reaffirming Chiaro's argument that humor must be recreated, not merely transferred[2].

Insights from Uzbek scholars further strengthen the discussion. Karimov's emphasis on the translator's ability to handle implicit meaning is clearly reflected in the study's identification of implicature, presupposition, and contextual inference as core elements in the construction of irony. The difficulty observed in translating these features confirms Karimov's argument that pragmatic meaning must be decoded before it can be appropriately re-encoded in the target language[3].

CONCLUSION (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/XULOSA). Overall, the research confirms that humor and irony translation is not a mechanical linguistic process but a complex interpretative act. The translator must navigate between preserving the source text's stylistic nuances and ensuring communicative accessibility for the target audience. The conclusions drawn from this study provide a strong theoretical and practical foundation for future research on pragmatic translation, especially within the context of media discourse.

REFERENCES (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ADABIYOTLAR RO'YXATI)

1. Venuti L. The Translator's invisibility: A History of translation. London: Routledge, 1995.
2. Chiaro D. Translation, Humour and Literature: Translation and Humour, Volume 1. London: Bloomsbury Academic, 2010.
3. Karimov S. Theory and Practice of Translation (Transliterated edition). Tashkent: UzMU Press, 2018.
4. Mahmudov N. Pragmatic Aspects of Language and Discourse (Transliterated edition). Tashkent: Fan Publishing, 2016.

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 82.09

EPISTOLYAR ROMAN GENEZISI VA TARAQQIYOTI

Hamzayeva Zebo Murodjon qizi,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Rus tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

THE GENESIS AND DEVELOPMENT OF THE EPISTOLARY NOVEL

Hamzayeva Zebo Murodjon qizi,
Teacher of the Department of Russian Language and Literature,
University of Economics and Pedagogy

ГЕНЕЗИС И РАЗВИТИЕ ЭПИСТОЛЯРНОГО РОМАНА

Хамзаева Зебо Муроджон кызы,
преподаватель кафедры русского языка и литературы,
Экономико-педагогический университет

https://orcid.org/0009-0006-6175-3358
e-mail: hamzahakimzoda@outlook.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada epistolyar roman janrining shakllanish jarayoni, tarixiy manbalari, adabiyot taraqqiyotidagi o'rni hamda ushbu janrning badiiy-funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot epistolyar shaklning qadimgi maktub an'analari bilan bog'liqligi, XVIII asr yevropa adabiyotida keng rivojlangan davri va zamonaviy nasrdagi o'zgarishlarini yoritadi. Maktub, kundalik va yozishmalar orqali personaj ruhiyati va sub'ektiv kechinmalarining ochilishi ushbu janrning asosiy poetik imkoniyatlaridan biri sifatida baholanadi. Maqolada janrning genezisi va taraqqiyoti qiyosiy tarixiy yondashuv asosida izohlanadi.*

Kalit so'zlar: epistolyar roman, genezis, taraqqiyot, maktub janri, kundalik, psixologik tasvir, yevropa adabiyoti.

Abstract: *This article explores the origins, historical evolution, and literary significance of the epistolary novel as an independent narrative form. The study highlights the genre's connection to ancient letter-writing traditions, its flourishing in eighteenth-century European literature, and its transformation in modern prose. By focusing on the structural role of letters, diaries, and personal written records, the research emphasizes how the epistolary form enables psychological depth, subjectivity, and interior monologue. The genesis and development of the genre are analyzed within a comparative historical framework.*

Key words: epistolary novel, genesis, development, letter-writing, diary, narrative structure, European literature.

Аннотация: *В статье рассматриваются происхождение, историческое формирование и литературное значение эпистолярного романа как самостоятельного жанра. Исследование раскрывает связь эпистолярной формы с древними традициями письма, её расцвет в европейской литературе XVIII века и её особенности в современной прозе. Анализируются функции писем, дневников и записок в структуре повествования, а также их роль в раскрытии психологического состояния персонажей. Генезис и развитие жанра изучаются в рамках сравнительно-исторического подхода.*

Ключевые слова: эпистолярный роман, генезис, развитие, жанр письма, дневник, психологическая характеристика, европейская литература.

Kirish. Epistolyar roman adabiyot tarixida o'ziga xos o'rin tutadigan janr bo'lib, u maktublar, kundaliklar, xabarlar va boshqa yozma shakllar orqali voqeani birinchi shaxs percepsiyasi bilan yetkazishga asoslanadi. Janrning paydo bo'lishi insoniyatning qadimdan mavjud bo'lgan maktub yozish amaliyoti bilan uzviy bog'liq bo'lsa-da, uning to'laqonli badiiy shaklga aylanishi XVIII asr Yevropa adabiyotida kuzatiladi. Samuel Richardson, Rousseau va Goethe kabi yozuvchilar

epistolyar shaklni psixologik tasvir, shaxsiy ichki kechinmalarni yetkazish va ijtimoiy munosabatlarni bevosita aks ettirish vositasiga aylantirdilar. Ushbu janr o‘zining subyektivligi, voqelikning bevosita idrok qilinishi, personajning ruhiy dunyosiga kirish imkoniyati bilan farqlanadi. Zamonaviy adabiyotda ham epistolyar shakl turli modifikatsiyalarda – elektron maktublar, onlayn yozishmalar, memuar-parchalar – orqali o‘z mavqeini saqlab kelmoqda. Maqola epistolyar roman genezisi, tarixiy rivojlanishi va badiiy xususiyatlarini qiyosiy-tarixiy yondashuv asosida yoritadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Epistolyar janrning genezisini o‘rganishda bir qator klassik va zamonaviy ilmiy manbalar tahlil qilindi. Richardsonning *Pamela* va *Clarissa* romanlari epistolyar shaklning psixologik realizmga asoslangan dastlabki mukammal namunalari sifatida baholanadi. Rousseau va Goethe asarlarida xat shakli romantik ruhiyat, subyektiv erkinlik va individual tajribani ifodalash vositasiga aylangan. Shuningdek, epistolyar shaklning qadimgi manbalari — Pliniy, Seneka xatlari, o‘rta asr diniy maktublari, Sharq mumtoz maktublari ham janrning tarixiy ildizlari sifatida ko‘rib chiqildi.

Metodologiya sifatida quyidagi yondashuvlar qo‘llandi:

1. **Qiyosiy-tarixiy tahlil** — epistolyar shaklning turli davrlardagi o‘zgarishlarini aniqlash.
2. **Poetik-tahliliy yondashuv** — maktubning narrativ strukturadagi funksiyasini o‘rganish.
3. **Psixologik-narrativ tahlil** — xatning personaj ruhiyatini ochishdagi rolini tahlil qilish.
4. **Diskursiv yondashuv** — epistolyar matnlarning pragmatik va ijtimoiy kommunikativ xususiyatlarini o‘rganish.

Ushbu metodlar janrning ichki imkoniyatlari va badiiy taraqqiyotini kengroq yoritish imkonini berdi.

Muhokama. Epistolyar roman taraqqiyotining asosiy bosqichlari uch yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchisi — **klassik epistolyar roman bosqichi**, bunda syujetning deyarli barcha qismi maktublar orqali yetkaziladi va voqea rivoji personajlar yozishmalari orqali tahlil qilinadi. Bu davr asarlarida maktubning halollik, bevositalik va samimiylik kabi estetik sifatlari muhim bo‘lgan. Ikkinchi bosqich — **epistolyar shaklning badiiy-funksional kengayishi**, bunda asar to‘liq maktublar shaklida bo‘lmasa-da, epistolyar parcha, kundalik, telegramma, rasmiy yozishma kabi shakllardan syujetni chuqurlashtirish uchun foydalaniladi. Uchinchisi — **zamonaviy epistolyar transformatsiya bosqichi**, bunda elektron maktublar, sms, chat yozishmalari, bloglar epistolyar janrning zamonaviy ko‘rinishlari sifatida badiiy matnga kirib keladi.

Epistolyar shaklning kuchli tomoni uning **psixologik chuqurlik** yaratish qobiliyatidir. Xat — personaj ongining bevosita oqimi, ichki iztirob va kechinmalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘zgusidir. Bundan tashqari, xat janri voqealar vaqtini murakkablashtiradi: xatning kechikishi, o‘qilmasligi, noto‘g‘ri talqin qilinishi syujetning dramatizmini oshiradi. Epistolyar romanlar ijtimoiy munosabatlar tizimida yashirin qoladigan his-tuyg‘ularni matnga ochiq, samimiy shaklda olib kiradi. Shu jihatlar janrning universal badiiy qiymatini ta’minlaydi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari epistolyar roman janrining rivoji izchil va bosqichma-bosqich shakllangan murakkab jarayon ekanini ko‘rsatdi. Birinchidan, epistolyar shaklning ildizlari qadimgi maktublar amaliyotiga borib taqaladi va ular keyinchalik badiiy tus olgan. Ikkinchidan, janrning eng faol rivojlangan davri XVIII asr bo‘lib, bu davrda epistolyar roman psixologik tasvir va subyektiv idrokning eng samarali shakliga aylangan. Uchinchidan, XIX–XX asrlarda epistolyar shakl to‘liq roman ko‘rinishidan qisman ishlatiladigan kompozitsion vositaga aylandi. To‘rtinchidan, zamonaviy adabiyotda epistolyar shakl texnologik kommunikatsiya vositalari bilan yangi ko‘rinishlarda qayta talqin qilinmoqda. Umuman, epistolyar roman janri shaxsiy tajribani bevosita berish, ichki monologni ochish va syujet dramatizmini kuchaytirish borasida noyob badiiy imkoniyatlarga ega ekanini isbotladi.

Quyidagi jadval epistolyar roman janrining tarixiy shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini umumlashtiradi. Genezis davrida maktub amaliyoti faqat shaxsiy fikr almashish vositasi bo‘lgan bo‘lsa, XVIII asrda u to‘liq badiiy shakl sifatida mustahkamlandi. Romantik davrda epistolyar shakl psixologik chuqurlik, ichki monolog va subyektiv idrokni ifodalashning asosiy vositasiga aylandi. Keyingi bosqichlarda esa maktub roman tarkibida qisman qo‘llanuvchi kompozitsion elementga

TAMADDUN NURI

aylandi. XXI asrga kelib, epistolyar shakl elektron xatlar, blog yozuvlari va chat muloqotlari orqali zamonaviy kommunikatsiya vositalari bilan boyib, transformatsiyaga uchradi. Bu bosqichlar janrning moslashuvchanligini va badiiy adabiyotdagi barqaror ahamiyatini ko‘rsatadi.

Epistolyar roman rivojining tarixiy bosqichlari

Bosqich	Davr	Asosiy asarlar va mualliflar	Xususiyatlar
Genezis	Qadimgi antik davr	Pliniy Kichik, Seneka xatlari	Maktub amaliyoti shakllanishi, shaxsiy yozishmalar orqali fikr almashish an’analari.
Klassik epistolyar davr	XVIII asr	S. Richardson (*Pamela*, *Clarissa*), J.-J. Rousseau (*Julie*)	To‘liq epistolyar roman; maktub – voqeani yetkazuvchi yagona narrativ shakl.
Romantik-nazariy davr	XIX asr	J. W. Goethe (*Werther*)	Subyektivlik kuchayishi, ichki kechinmalarni bevosita ifodalash, psixologizmning o‘sishi.
Realistik-integratsion davr	XIX–XX asr boshlarida	F. Kafka maktublari, G. Eliot epistolyar parchalar	Xatlar qisman ishlatiladigan kompozitsion vosita sifatida; voqeaga chuqurlik berish.
Modern va postmodern davr	XX asr	V. Woolf kundaliklari, E. Hemingway xatlari	Xat shaklining modernist eksperimentlarda psixologik tahlil vositasi sifatida qo‘llanishi.
Zamonaviy transformatsiya	XXI asr	Elektron xatlar, sms, blog va chat romanlar	Epistolyar shaklning yangi texnologik ko‘rinishlari; ko‘pkanalli kommunikatsiya, tezkor yozishmalar.

Xulosa. Epistolyar roman genezisi va taraqqiyoti janrning universal kommunikativ tabiatga egaligini tasdiqlaydi. Maktub shakli insonning o‘zini ifoda etish ehtiyoji, shaxsiy tajribani boshqalar bilan bo‘lishish istagi va ichki dunyoni ochish zaruratidan kelib chiqqan bo‘lib, badiiy adabiyotda ham aynan shu ehtiyojni qondiruvchi vosita sifatida qaror topgan. Janrning shakllanishida tarixiy-madaniy omillar, ijtimoiy munosabatlar, psixologik tasvirning rivoji muhim rol o‘ynagan. Epistolyar shakl zamonaviy adabiyotda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, aksincha, yangi kommunikatsion imkoniyatlar bilan boyigan holda yanada moslashuvchan kompozitsion vositaga aylangan. Mazkur tadqiqot epistolyar roman janrining badiiy, psixologik va tarixiy qatlamlarini ochish orqali uning adabiyot taraqqiyotidagi o‘rnini yoritadi

.

TAMADDUN NURI

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Altman, J. G. (1982). *Epistolarity: Approaches to a Form*. Ohio State University Press.
2. Bazerman, C. (1999). *Letters and the Social Grounding of Knowledge*. Erlbaum.
3. Barton, D., & Hall, N. (Eds.). (2000). *Letter Writing as a Social Practice*. John Benjamins.
4. Miller, A. (2008). *Novels Behind Glass: Commodity Culture and Victorian Narrative*. Oxford University Press.
5. Nazarova, D. (2019). Epistolyar nutq va uning lingvopragmatik xususiyatlari. *O‘zMU Xabarlari*, 4(2), 112–120.
6. McCormack, J. (2010). Social constraints and personal letters in European fiction. *Journal of Literary Studies*, 18(3), 215–230.

Qizi, H. Z. M. (2024). WOMEN’S ROLES AND GENDER PORTRAYAL IN THOMAS HARDY’S WORKS. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, *2*(57), 344-347.

7. Хамзаева, З. (2025). Толкование женского образа в романе «Бону» с точки зрения декадентства: социальный кризис и противоречие ценностей. *Зарубежная лингвистика и лингводидактика*, *3*(2), 17-22.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 81.119(97.11)

LINGUOCULTURAL FOUNDATIONS FOR TRANSLATING HEAD AND FACIAL MOVEMENTS IN UZBEK DANCE INTO ENGLISH

Khudoyberdieva Oyjamol Muzaffarovna,
Independent Researcher, Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

e-mail: teacheroyjamol@gmail.com

https://orcid.org/0009-0003-3097-4543

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ПЕРЕВОДА ДВИЖЕНИЙ ГОЛОВЫ И ЛИЦА В УЗБЕКСКОМ ТАНЦЕ НА АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК

Худойбердиева Ойжамол Музффаровна, независимый исследователь Деновского института предпринимательства и педагогики

O‘ZBEK RAQSIDA BOSH VA YUZ HARAKATLARINI INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHNING LINGVOMADANIY ASOSLARI

Xudoyberdieva Oyjamol Muzaffarovna, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Abstract: *This article examines the linguocultural characteristics of head and facial movements in Uzbek dance and analyzes the translation strategies required to preserve cultural meaning when rendering them into English. Drawing on Uzbek and English dance pedagogy, discourse analysis, and translation theory, the study demonstrates that explicitation, functional substitution, and cultural adaptation are the most effective strategies.*

Key words: *Uzbek dance, head movement, facial expression, translation strategies, linguoculture, explicitation, kinetic terminology.*

Аннотация: *В данной статье исследуются лингвокультурные особенности движений головы и мимики в узбекском танце, а также анализируются переводческие стратегии, необходимые для сохранения культурного смысла при их передаче на английский язык. Опираясь на узбекскую и английскую танцевальную педагогику, дискурс-анализ и теорию перевода, исследование демонстрирует, что эксплицитация, функциональная замена и культурная адаптация являются наиболее эффективными стратегиями.*

Ключевые слова: *узбекский танец, движение головы, мимика, переводческие стратегии, лингвокультура, эксплицитация, кинетическая терминология.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek raqsidagi bosh va yuz harakatlarining lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi hamda ularni ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida madaniy ma’noni saqlab qolish uchun zarur bo‘lgan tarjima strategiyalari o‘rganiladi. O‘zbek va ingliz raqs pedagogikasi, diskurs tahlili va tarjima nazariyasiga tayangan holda, tadqiqot eksplicitatsiya, funksional almashtirish va madaniy moslashtirish eng samarali strategiyalar ekanini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek raqsi, bosh harakati, yuz ifodasi, tarjima strategiyalari, lingvomadaniyat, eksplicitatsiya, kinetik terminologiya.*

INTRODUCTION (ВВЕДЕНИЕ/KIRISH). In dance semiotics, the body is viewed as a multimodal communicative system that constructs and conveys cultural meaning. In Uzbek dance, head movements *(bosh harakatlari)* and facial expressions (*mimika*) are among the most symbolically significant elements of the choreographic language, serving to express

emotional tone, narrative intention, and culturally encoded values.

These movements function not only as reflections of the dancer's inner state but also as markers of national aesthetics, modesty norms, gender symbolism, and regional identity. A slightly lowered head or a soft, side-directed gaze conveys culturally specific meanings such as humility, elegance, or refined interaction with the audience. Unlike Western ballet where such gestures are secondary to technical precision Uzbek dance foregrounds micro-gestures. *Subtle head tilts, gentle eye shifts, slight smiles, and minimal eyebrow movem*ents contribute to its characteristic femininity, lyricism, and expressive restraint.

Translating these culturally embedded movements into English is difficult due to: *the absence of direct lexical equivalents, differences in movement classification between Uzbek and Western dance traditions, and culturally coded meanings that may not be readily understood by English-speaking audiences.*

Therefore, translation requires more than literal equivalence. A linguacultural informed approach is needed to address the semiotic, aesthetic, and anthropological dimensions of these gestures.

This article thus analyzes the semiotic functions of head and facial movements in Uzbek dance, identifies key translation challenges, and proposes strategies including explicitation, cultural commentary, and functional substitution to preserve expressive meaning and prevent cultural misinterpretation.

MATERIALS AND METHODS (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR). Although body-centered expressive systems have been widely explored in dance semiotics, gesture studies, and paralinguistics, comprehensive cross-linguistic research specifically focused on culturally encoded head and facial movements remains limited. This gap is particularly noticeable when comparing languages and dance traditions with distinct cultural and typological backgrounds, as most existing studies analyze movement expression within a single linguistic environment. [6]

Research on Western dance, especially ballet (Foster, 2011; Adshead-Lansdale, 1999), primarily examines technical alignment and spatial precision, whereas studies on Central Asian and Uzbek dance (Nazarova, 2018; Yusupova, 2020) highlight symbolic embodiment, modesty semiotics, and culturally specific gestures. Yet these works rarely offer comparative insight into how movement semantics differ across cultures.

Existing studies on Uzbek head and facial movements describe gestures like *qiyg'ir bo'yin*, *yaq qoqish*, and *ko'zni suzish*, yet remain largely descriptive and seldom discuss how to translate these culturally dense signs without losing their semiotic value.

Therefore, a significant theoretical and methodological gap persists in the linguocultural study of translating Uzbek head and facial movements. This research addresses that gap by integrating dance semiotics, translation studies, kinesics, and cultural anthropology to propose strategies explicitation, functional substitution, and cultural adaptation that enable accurate cross-cultural transmission of their symbolic meaning.

DISCUSSION (ОБСУЖДЕНИЕ/MUHOKAMA). The findings of the study show that translating head and facial movements in Uzbek dance requires careful consideration of their linguacultural significance, as these gestures function as culturally encoded semiotic units rather than simple biomechanical actions.

A major implication is that Uzbek dance represents an expressive system fundamentally different from Western ballet. While Western choreography emphasizes precision and geometric alignment, Uzbek dance foregrounds micro-gestures, emotional intimacy, and symbolic refinement. Consequently, gestures such as *ko'zni suzish* or *nim tabassum* embody aesthetic and moral meanings that do not correspond to existing English terminology.

The study further confirms that translating kinetic terminology is inherently multimodal and requires integrating linguistic description, visual reference, and cultural explanation. Because Uzbek gestures are semantically dense and linked to culturally embedded concepts like ***jamol*** *(beauty),* ***ibo*** *(modesty), and* ***naz*** *(expressive charm),* literal translation alone cannot preserve their semiotic depth. [2]

This perspective aligns with broader research in gesture studies and paralinguistics, which highlights that facial and head movements are

universal in physiology but culture-specific in meaning. For example, *nim tabassum* is not merely a slight smile but a culturally marked, socially regulated display of restrained charm. [5]

Finally, the analysis shows that a hybrid strategy combining explicitation, functional substitution, and cultural adaptation offers the most accurate and culturally faithful results. Literal translation leads to semantic loss, whereas overly descriptive translation complicates comprehension. Therefore, establishing a standardized bilingual glossary of Uzbek dance kinetic terminology is essential for facilitating accurate cross-cultural transmission of Uzbek dance heritage.

RESULTS (РЕЗУЛЬТАТЫ/NATIJALAR). The findings of the study reveal that head and facial movements in Uzbek dance form a complex semiotic and linguocultural system in which gesture, emotion, and social meaning are inseparably interconnected. Through descriptive, comparative, and semiotic analyses, several key results were identified.

First, Uzbek head movements such as *qiyg'ir bo'yin*, *yaq qoqish*, *boshni burish*, and *boshni egish* exhibit high symbolic density. These movements serve not only kinetic functions but also reflect culturally embedded values such as modesty (ibo), politeness, grace, and gendered expression. For instance, *qiyg'ir bo'yin* conveys humility and elegance simultaneously, while *yaq qoqish* carries emotional intensity and rhythmic dynamism.

Second, facial expressions (mimika) in Uzbek dance – *jilmayish*, *nim tabassum*, *ko'zni suzish*, *qosh qoqish*, *o'qrayib qarash* – operate as emotional indicators and cultural signals. They enrich the narrative dimension of dance and communicate subtle affective states. These expressions are strongly linked to Uzbek aesthetic norms, particularly the tradition of naz-karash, which blends beauty, charm, and modesty [3].

Third, the study shows that direct English equivalents are often absent for culturally specific gestures. Literal translations cannot fully convey the cultural connotations, symbolic meanings, or emotional nuances embedded in Uzbek dance movements. The analysis reveals that English-language dance terminology prioritizes structural clarity, anatomical accuracy, and technical function, whereas Uzbek terminology prioritizes expressive meaning, aesthetic symbolism, and cultural depth [4].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). The study shows that head and facial movements in Uzbek dance are culturally encoded semiotic units that express national aesthetics, emotional nuance, and social values. Their translation into English is challenging due to the absence of direct lexical equivalents, differences in movement taxonomy between Uzbek and Western dance traditions, and the culturally specific meanings embedded in gestures such as *qiyg'ir bo'yin*, *nim tabassum*, and *ko'zni suzish*.

The research confirms that literal translation cannot adequately convey the symbolic depth of these movements. Instead, effective translation requires a linguocultural approach that integrates semiotic interpretation and cultural explanation. Among the examined strategies, explicitation, functional substitution, and cultural adaptation proved most successful in preserving expressive and cultural meaning.

Overall, the study demonstrates the need for multimodal, culturally sensitive translation practices and highlights the importance of creating a standardized bilingual glossary to support accurate cross-cultural transmission of Uzbek dance terminology.

REFERENCES (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ADABIYOTLAR RO'YXATI)

1. Adshead-Lansdale J. Dance Analysis: Theory and Practice. – London: Dance Books, 1999. – 214 p.
2. Ashurova N. Mimika va naz-karashning o'zbek raqsidagi semiotik roli // O'zbekiston san'ati. – 2015. № 3 (12). – B. 45–52.
3. Bartenieff I., Lewis D. Body Movement: Coping with the Environment. – New York: Gordon & Breach, 1980. – 312 p.
4. Baxronova G. O'zbek tilida somatizmlarning lingvokulturologik tahlili // O'zbek tili va adabiyoti. 2021. № 4. – B. 55-63.
5. Ekman P. Emotions Revealed: Recognizing Faces and Feelings to Improve Communication. – New York: Times Books, 2003. – 301 p.
6. Foster S. Choreographing Empathy: Kinesthesia in Performance. – London: Routledge, 2011. – 256 p.
7. Gadoyeva Z. Somatizmlarning o'zbek tilidagi semantik-struktur xususiyatlari // Filologiya masalalari. 2022. № 2. – B. 102–113.
8. Kaeppler A. The Concept of Style in Dance // The Anthropology of Performance. Oxford: Oxford University Press, 2007. – P. 41-57.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 904(575.1)"632"

Ilmiy rahbar: Shoira NURULLAYEVA, tarix fanlari nomzodi, dotsent

MOZIYDAN SO'ZLAGAN QAL'ALAR

Po'latova Munojat, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Tarix" yo'nalishi 1-kurs talabasi

CASTLES THAT SPEAK OF THE PAST

Pulatova Munojat, 1st year student, History major, Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni

ЗАМКИ, ГОВОРЯЩИЕ О ПРОШЛОМ

Пулатова Муножат, студентка 1-курса, специальность "История", Ургенчский государственный университет имени Абу Райхона Беруни

https://orcid.org/0009-0001-4718-7082
e-mail: munojatpolatova318@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xorazm vohasida joylashgan qadimiy qal'alar Hazorasp, Katqal'a, Darg'on, Zam-zam qal'asi, Voyangan yodgorligi va boshqa tarixiy qal'alar haqida so'z yuritiladi. Bunda ularning davrlar osha saqlanib qolish sabablari yoritilgan. Maqolada ushbu qal'alarning Xorazm sivilizatsiyasi rivojida tutgan o'rni haqida, ularning mudofaa, siyosiy va madaniy markaz sifatidagi ahamiyatli jihatlari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, arxeologik tadqiqotlar orqali topilgan dalillar asosida bu qal'alarning o'tmishdan so'zlayotgan nodir tarixiy meros sifatidagi qimmatiga e'tibor berilgan.*

Kalit so'zlar: *Xorazm, qadimiy qal'alar, Hazorasp qal'asi, Voyangan yodgorligi, Qalajiq, Qirqqiztepa qal'asi, Tuproqqal'a, Toshqal'a-2.*

Abstract: *This article discusses the ancient fortresses Khazorasp, Katqala, Darg'om, Zam-zam Fortress, Voyangan Monument and other historical fortresses located in the Khorezm oasis. The reasons for their preservation over time are highlighted. The article discusses the role of these fortresses in the development of the Khorezm civilization, their significant aspects as defensive, political and cultural centers. Also, based on the evidence found through archaeological research, attention is paid to the value of these fortresses as a rare historical heritage that speaks of the past.*

Keywords: *Khorezm, ancient fortresses, Khazorasp fortress, Voyangan monument, Qalajiq, Qirqiztepa fortress, Tuproqqala, Toshkala-2.*

Аннотация: *В статье рассматриваются древние крепости Хазорасп, Каткалъа, Даргон, крепость Зам-зам, памятник Воянган и другие исторические крепости, расположенные в Хорезмском оазисе. Выделяются причины их сохранности с течением времени. В статье рассматривается роль этих крепостей в развитии Хорезмской цивилизации, их значимость как оборонительных, политических и культурных центров. Также, на основе данных археологических исследований, уделяется внимание ценности этих крепостей как редкого исторического наследия, повествующего о прошлом.*

Ключевые слова: *Хорезм, древние крепости, крепость Хазорасп, памятник Воянган, Каладжик, крепость Кырккызтепа, Тупроккалъа, Тошкалъа-2.*

KIRISH. Tarix – bu o‘tmishdan sado. Tarixiy yodgorliklar esa har bir xalqning o‘tmishi va madaniyatidan dalolat beruvchi bebaho manbalardir. Bizgacha yetib kelgan qadimiy qal’alar esa ana shu tarixning tilsiz guvohlari bo‘lib, ajdodlarimizning hayoti, orzu-umidlaridan hikoya qiladi. O‘z davrining mustahkam himoya, mudofaa inshootlari bo‘lgan bu qal’alar siyosiy, harbiy, ijtimoiy hayot markazi bo‘lib xizmat qilgan. Xorazm va Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida qisman saqlanib qolgan ko‘plab qal’alar, har bir insonni o‘tmishga yetaklab, O‘rta Osiyo taixining muhim bosqichlaridan sado berib, ularni yoritishda katta ilmiy ahamiyatga ega.

Xorazm vohasidagi qal’alar o‘zining qadimiyligi bilan ajralib turadi. Tuproqqal’a, Ayozqal’a, Qo‘yqirilganqal’a, Katta Guldursun va boshqa yodgorliklar, akademik S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tadqiqotlariga ko‘ra, miloddan avvalgi IV asrdan IX asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olib, bu qal’alar nafaqat mudofaa inshooti, balki ma’muriy va diniy markaz vazifasini bajarganligi aniqlangan. Inshootlar arxitekturasida paxsadan bunyod etilgan baland devorlar, burchaklar, minoralar, ichki saroy va ibodatxonalar, ichki xo‘jalik qismlarining mavjudligi aniqlangan. Bu esa o‘z o‘rnida qadimgi Xorazm shaharsozlik madaniyatining yuqori darajada rivojlanganidan darak beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Qadimgi va o‘rta asrlardagi Xorazm yodgorliklarini arxeologik jihatdan o‘rganish XX asrning 30-yillari o‘rtalaridan boshlangan va hozirgacha davom etib kelmoqda.

Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi bu borada keng ko‘lamli ishlar olib borib, kech antik davrda Xorazm qal’asozligining cho‘qqisi bo‘lgan mahobatli Tuproqqal’a, Ko‘zaliqir, Qal’aliqir-1, Qo‘yqirilgan qal’a hamda Xorazm viloyati Hazorasp tumani markazi hududida joylashgan Hazorasp qal’alarida ilk antik davrdan to mo‘g‘ullar istilosigacha hayot uzluksiz davom etgani ta’kidlangan. Ushbu yodgorliklar insoniyat madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lib, ular orqali biz o‘tmish hayotni ilmiy asosda tiklashimiz mumkin.

Shu o‘rinda Xorazmning janubiy qalqoni bo‘lgan Hazorasp qal’asi to‘g‘risida to‘xtalsak. Xorazm vohasi hayotida juda katta rol o‘ynagan Hazorasp qal’asi bir vaqtlar katta iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy markaz bo‘lgan. Qal’aning qachon barpo etilgani xususida aniq yozma ma’lumotlar saqlanib qolmagan bo‘lsa-da, 1959-1960-yillarda ushbu shahristonda qazishma ishlari olib borgan Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan qal’a devorlari mil. avv. IV asrdan mil. XIX-XX asrlargacha bo‘lgan davrda ko‘p marta qayta qurilganini va ta’mirlanganini ma’lum qilishgan.

MUHOKAMA. Hazorasp qal’asi Xorazmning janubiy darvozasi bo‘libgina qolmasdan, harbiy strategik istehkom ham hisoblangan. Hazorasp haqidagi dastlabki eng qadimiy yozma ma’lumotlari Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida keltirilgan. Manbashunos tarixchi olimlar “Hazorasp” atamasi ma’nosini turlicha ta’riflaganlar.

Xalq orasida ushbu afsonaviy qal’a to‘g‘risida turlicha rivoyatlar yuradi. Ba’zi olimlar “Ming otliq” yoki “Ming pahlavon” nomi bilan ham ataydilar. Bu esa qal’aning o‘z davrida qudratli harbiy kuch markazi bo‘lganini ko‘rsatadi.

Urganch shahridan 21 km g‘arbda Katqishloq hududidagi tekislikka joylashgan rejalashtirilishi to‘g‘ri burchakka yaqin Katqal’a yodgorligi esa qadimda ikki qatorli mudofaa devori bilan o‘ralgan bo‘lib, balandligi 1,5-7 m qismi saqlanib qolgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida devor va burjlarida 3 qurilish davri mavjudligi ta’kidlangan.

Darg‘on qal’asi Xorazmning janubiy hududida Darg‘on ota qishlog‘idan 3 km uzoqlikda janubda joylashgan. Rejalashtirilishi aylana shaklda bo‘lgan ushbu yodgorlikda tashqi devor tomonidan aholining joylashishi sababli, o‘z navbatida, mudofaa devor bilan o‘rab olinishi natijasida arxeologik tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan.

TAMADDUN NURI

Voyangan yodgorligi Shovot tumanida Amerika matematiklar jamiyati a'zosi, fizika-matematika fanlari doktori, professor, akademik Azimboy Sa'dullayevning yurti bo'lgan Manoq qishlog'ida joylashgan. Uning rejalashtirilishi to'rtburchak shaklda, yer sathidan 2-3 m balandlikka qurilgan. Ushbu yodgorlikning ichki tuzilishi jihatidan ikki qismga ajralganligi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Hozirgi vaqtda yodgorlikda arxeologik tadqiqotlarni olib borish imkoniyati mavjud emas, chunki mahalliy aholi tomonidan qabristonga aylantirilgan.

Qalajiq (Daudqal'a) – Bog'ot tumanidan janubi-g'arbda, Hazoraspdan 25 km uzoqlikda Qoraqum cho'lining o'rtasida joylashgan. Rejalashtirilishi noto'g'ri to'g'ri burchakli bo'lgan ushbu yodgorlik qadimda ikki qatorli mudofaa devori bilan o'rab olingan, devor qurilishida to'rt tomoni teng g'isht ishlatilgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan materiallar yodgorlikning mil.avv. IV asrga oid ekanligini ko'rsatadi. G'aroyib voha – "Qalajiq" ekoturistik shaharcha hududida 2 ta asosiy diqqatga sazovor joy mavjud. Qariyb uch ming yilga teng qadimiy qal'a devorlarining balandligi 14 m, kengligi 2,5 m hamda shifobaxsh xususiyatga ega sho'r ko'l. Aytishlaricha, ko'l suvi tarkibidagi elementlar, yurak qon tomiri tizimining faoliyatini yaxshilishga yordam beradi. Hozirgi kungacha suvning o'ziga xos shifobaxsh xususiyatlarining mashhurligi tufayli bu yerga butun dunyodan sayyohlar kelib dam olishadi. Ko'lning bitta g'ayritabiiy xususiyati bo'lib, mintaqada quruq mavsum bo'lganida ko'lning suvi ko'payadi, mavsum nam havoli bo'lsa ko'l suvi kamayadi. Bugungi kunda shaharchani kattalashtirish, qo'shimcha sayyohlik obyektlari barpo etish mo'ljallangan.

Qirqqiztepa – Hazoraspdan 8 km shimoli-g'arbdagi "Qorayantoq" qishlog'i hududida joylashgan. Uning ko'rinishi to'g'ri burchak shaklda bo'lib, mudofaa devori bilan o'rab olingan. Hozirgi vaqtda yodgorlik aholi tomonidan qabristonga aylantirilganligi sababli, arxeologik tadqiqotlar olib borish imkoni yo'q.

Shuningdek Bog'otdan 6 km shimoli-g'arbda joylashgan "Qushchaqirganqal'a", Gurlandan 10 km shimolda joylashgan, ikki qismdan iborat "Ulliavul", Qo'shko'pir tumani hududida joylashgan "Zarliqishonbobo", Urganch shahridan 18 km g'arbda joylashgan "Kindikli", Urganch shahridan 8 km shimoli-g'arb tomonda joylashgan "Tuzlan" qal'alar mavjud bo'lib, bu joylarda keng ko'lamli arxeologik tadqiqotlar olib borilmagan.

Sandiqlibobo – Hazoraspdan 3,5 km janubi-g'arbiy hududda joylashgan bo'lib, to'g'ri burchak shaklida ko'rinishga ega, mudofaa devor bilan o'ralgan, balandligi 1,2-3 m, qalinligi 9-10 m tashkil qiluvchi qal'a hisoblanadi. Ushbu yodgorlik kengligi 10-15 m bo'lgan xandaq bilan o'rab olingan.

G'ayibota – to'g'ri burchakli qilib rejalashtirilgan Xonqa tumanida joylashgan qal'a, ilk o'rta asrlarda mudofaa devor bilan o'rab olingan bo'lib, balandligi 1,5 m, qalinligi 5,6 m ni tashkil qiladi. Devorda hozirgacha aylana shaklida burjlar izi saqlanib qolgan.

G'oyiptepa – Bog'otdan 10 km sharqiy tomonda, to'g'ri burchakli shaklda bo'lgan, sharqiy devor o'rtasida darvoza joylashgan yodgorlik. Bu joyda tepaning qoq markazida bir-biridan ayrim holda ikki tepalik ko'rinib turadi va ularning balandligi 1,5 m dan iborat.

Xorazm vohasida 7ta qadimgi qal'a "Tuproqqal'a" nomi bilan ataladi. Shulardan Yangiariq tumanida joylashgan to'g'ri burchak shaklida umumiy maydoni 3,5 ga teng, ikki qatorli devor bilan o'rab olingan Tuproqqal'a yodgorligidir. Mudofaa devori yaqinidan 20 m xandaq o'tgan, yagona darvozaga ega qal'a hisoblanadi.

Xiva shahridan 17 km shimoli-g'arbiy tomondagi hududda joylashgan. Tuproqqal'a yodgorligida olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida qurilishiga oid ashyolar topilgan. Yodgorlik atrofi qadimda ikki qator devor bilan o'rab olinib, hozirgacha saqlanib qolgan balandligi 3 m ni tashkil qiladi. Uning darvozasi janubi-g'arbiy devorning markazida joylashgan.

Shovot tumani Anbar Manoq qishlog'idagi fermer xo'jalikka tegishli hududda joylashgan Tuproqqal'a yodgorligi aylana shaklda bo'lib, umumiy maydoni 4 ga dan iborat. Qadimda ushbu yodgorlik mudofaa devori bilan o'rab olingan bo'lib, yarim aylanasimon burjlarga ega bo'lgan. Qal'aning mudofaa tizimi tarixini o'rganish

maqsadida devor va burj qoldiqlari o‘rganilgan, qazishma ishlari natijasi mudofaa maydoni 22 m bo‘lganligi, burjning ichki qismida to‘g‘ri burchakli xona borligi, devor va burj avval paxsadan, keyinchalik esa xomg‘ishtdan qurilganligi aniqlangan. Bundan tashqari Tuproqqal’aning vujudga kelishi va rivojlanish tarixi uch qurilish davridan iborat ekanligi aytilgan. Birinchi qurilish davrida paxsadevor bilan o‘rab olingan qal’a, yo‘lak va yarim aylanali burjlardan iborat bo‘lgan.

Ikkinchi qurilish davri paxsadevor ustiga xomg‘ishtli devor qurilgan hamda qal’aning ichki qismida devor bo‘ylab xonalar qurilgan. Uchinchi qurilish davrida esa g‘isht devor ustiga xomg‘isht aralash paxsadevor qurilgan.

Xorazm vohasining janubiy qismidagi Tuproqqal’a massivida joylashgan Toshqal’a-2 yodgorligida arxeologik qazishma ishlari olib borilib, yo‘lakdan iborat devor o‘rganilgan. Ushbu yodgorlikda madaniy hayot miloddan avvalgi IV – milodiy III asrlarga oidligi aniqlangan.

NATIJALAR. Bugungi kunda o‘tmishdan nodir meros sifatida qadrlanayotgan Xorazm hududidagi qal’alarda yetarli darajada ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishi natijasida, ularning umumiy tuzilishi, rejalashtirilishi, qadimgi davlatlarning siyosiy tuzumi, harbiy san’ati va me’morchilik an’analari haqida muhim ilmiy xulosalar chiqarish mumkin. Mazkur yodgorliklarni asrab-avaylash va ularni chuqur ilmiy o‘rganish nafaqat tarix fanining, balki milliy madaniyatimizni saqlash va rivojlantirishning ham muhim shartidir. Tarixning tilsiz guvohlari bo‘lgan ushbu yodgorliklarni ajdodlarimizning jasorati, bunyodkorligi va zukkoligining ramzi sifatida ko‘rishimiz mumkin. Qolaversa bu qal’alar hozirgi vaqtda xalqimizning milliy o‘zligini anglash, tarixiy xotirasini mustahkamlash va ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib etishda muhim o‘rin tutmoqda. O‘tkazilayotgan har bir arxeologik tadqiqotlar natijalari nafaqat fan rivojiga xizmat qiladi, balki yosh avlodni vatanparvarlik va tarixga hurmat ruhida tarbiyalaydi. Zero, o‘z tarixini bilgan, o‘tmishini qadrlagan xalqgina mustahkam kelajak bunyod eta oladi.

XULOSA. Kelajakka meros sifatida bu yodgorliklarning ahamiyati beqiyosdir. Chunki bir tomondan ular ilm-fan uchun tadqiqot manbai bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa turizm, madaniyat va ta’lim sohalarida katta imkoniyat yaratadi desak adashmaymiz. Qal’alarni asrab-avaylash, ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish - bugungi avlodning muqaddas burchidir. Chunki bular faqat o‘tmish xotirasi emas, balki millatning ma’naviy tayanchi, kelajak avlodlar uchun ibrat va ilhom manbaidir. Xorazmdagi qal’alar nafaqat o‘tmish sivilizatsiyasining moddiy merosi, balki zamonaviy tarixiy va arxeologik tadqiqotlarning uzviy qismiga aylangan bebaho yodgorliklar hisoblanadi. Shunday ekan, “moziydan so‘zlab” bizgacha yetib kelgan qadimiy qal’alarni asrash kelajakka qoldiradigan eng ulug‘ merosdir.

MANBA VA ADABIYOTLAR:

I. Manbalar:

1. “Avesto”. Videvdat - 1.2. Dushanbe, 1985.
2. Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. 1-t. Toshkent: Fan, 1968.

II. Adabiyotlar:

1. Xodjanoiyozov G‘. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari. Toshkent, O‘zbekiston.- 2007.
2. Abduqayumov A. Ilk o‘rta asrlar So‘g‘d shaharlari tarixidan// O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari: tarix va hozirgi zamon. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. I qism, Toshkent. 2007.
3. Asqarov A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. Toshkent: Universitet, 2007.
4. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti materiallari. Xorazm vohasining arxeologik tadqiqotlar to‘plami. - Toshkent, 2018.
5. Sobirov Q. Xorazmning qishloq va shaharlari mudofaa inshootlari. Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2009.

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 81'42

TURK VA O'ZBEK TILIDAGI O'SIMLIK NOMLARINING LISONIY HAMDA MADANIY TADQIQI

Abdullayeva Gulandom Anvarovna, Oriyental universiteti turk tili o'qituvchisi

LINGUISTIC AND CULTURAL STUDY OF PLANT NAMES IN THE TURKISH AND UZBEK LANGUAGES

Abdullayeva Gulandom Anvarovna, Turkish Language Instructor, Oriental University

ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ И КУЛЬТУРНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ НАЗВАНИЙ РАСТЕНИЙ В ТУРЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Абдуллаева Гуландом Анваровна, преподаватель турецкого языка университета Oriental

https://orcid.org/0009-0007-8294-9365
e-mail: Gulisha1705@gmail.com

Annotatsiya: *Jahon tilshunosligining kognitiv lingvistika, til va madaniyat, til va tafakkur hamda til va jamiyat bilan bog'liq bo'lgan lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, etnolingvistika va antropolingvistika sohalaridagi ilmiy izlanishlar tilni jamiyat, atrof-muhit hamda kishilarni o'rab turgan borliq bilan birgalikda tahlil etishni taqozo qilmoqda. Til umumbashariy qadriyat sifatida xalqning taqdiri, turmush tarzi, ma'naviy boyligi, millatning saviyasi, ruhiyati bilan chambarchas bog'langan bo'ladi. Ana shunda til va etnosni bir butun mohiyat sifatida tadqiq etish imkoniyati yuzaga keladi. Shuningdek, qardosh turkiy tillarning leksikasini har tomonlama tadqiq etish hozirgi kunda amalga oshirilishi zarur bo'lgan muammolardan biridir.*

Kalit so'zlar: *xalqlarning taqdiri, turmush tarzi, ma'naviy boyligi, millatning saviyasi, ruhiyati, etnos, qardosh turkiy tillar.*

Annotation: *Modern research in cognitive linguistics, linguistic cultural studies, sociolinguistics, ethnolinguistics, and anthropolinguistics—fields related to the relationship between language and culture, language and thought, as well as language and society—requires analyzing language in connection with society, the environment, and the surrounding reality. As a universal human value, language is closely linked to the fate of a people, their lifestyle, spiritual wealth, cultural level, and national mentality. In this context, it becomes possible to examine language and ethnicity as a unified whole. Moreover, a comprehensive study of the lexicon of closely related Turkic languages remains one of the important issues that modern linguistics needs to address.*

Keywords: *fate of peoples, lifestyle, spiritual wealth, cultural level of the nation, mentality, ethnicity, related Turkic languages.*

Аннотация: *Современные исследования в области когнитивной лингвистики, лингвокультурологии, социолингвистики, этнолингвистики и антрополингвистики, связанных с взаимосвязью языка и культуры, языка и мышления, языка и общества, требуют анализа языка в единстве с обществом, окружающей средой и реальностью, которая окружает человека. Язык как общечеловеческая ценность тесно связан с судьбой народа, образом жизни, духовным богатством, уровнем культуры и менталитетом нации. Именно в таком аспекте появляется возможность рассматривать язык и этнос как единое целое. Кроме того, всестороннее изучение лексики родственных тюркских языков является одной из актуальных задач современного языкознания.*

Ключевые слова: *судьба народов, образ жизни, духовное богатство, культурный уровень нации, менталитет, этнос, родственные тюркские языки.*

KIRISH. Dunyo tilshunosligida inson suvrati va siyratini ifodalovchi birliklarga doir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, V.Ubiyko rus tilidagi inson xarakteri va tashqi ko'rinishini

bildiradigan sifatlarni, T.Metelkina esa ingliz tilidagi inson axloqini ifodalaydigan sifatlarni tadqiq etgan. Shuningdek, ingliz va rus tillarining lingvistik madaniyatlarida shaxs qiyofasini yaratishga imkon beradigan o‘ziga xos ekspressiv-baholovchi birliklar tadqiqi ham amalga oshirilgan[1].

Til ilmiga birinchilardan bo‘lib “olamning lisoniy manzarasi” tushunchasini olib kirgan У.L.Vaysberger “til o‘z egasiga boshqa tillardagidan farqli bo‘lgan dunyoni umumiy ko‘rish tarzini ato etishi”, “ona tili hamda har bir shaxsning ruhiy shakllanishi o‘zaro chambarchas bog‘liqligi” va “shuning uchun ham tilshunoslik tillarini xalqlar madaniyatining ko‘zgusi sifatida o‘rganmog‘i lozim” ekanligini alohida uqtiradi[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Turk va o‘zbek tillaridaga inson qiyofasini ifodalovchi fitomorf komparativ birliklarni qiyoslab tahlil qilishdan oldin mazkur terminlarga izoh berildi. Tilshunoslikda oraliq sohalarning paydo bo‘lishi tabiiy ravishda gibridlashgan terminlarni yuzaga keltirdi. Shunday terminlardan biri sifatida fitomorf leksik birligini ko‘rsatish mumkin.

Fitomorf hozirgi tilshunoslikning lingvomadaniy aspektdagi ishlarda tez-tez qo‘llanayotgan terminlardan biridir. Komparativ birliklar termini komparativistika qiyosiy tilshunoslik sohasining shakllanishi bilan yuzaga kelgan. Mazkur atamadagi komparativ so‘zi “qiyoslashni ifodalaydigan”, “qiyoslash bilan bog‘liq bo‘lgan” degan istilohiy tushunchaga ega[3]. Komparativ birlik esa o‘zida “qiyoslash vazifasidagi so‘z yoki ibora” ma‘nosini anglatadi.

MUHOKAMA. Ma’lumki, insonlarning o‘xshatish va qiyoslashga asoslangan obrazli fikrlash jarayonining vujudga kelishi badiiy tafakkurning o‘sishi, izchil rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday mushohadalar avlodlar va ajdodlarning tabiat va koinotni bilishga, bunda mavjud sirlarni yechishga intilishlari, biroq izohlashdagi ojizliklar tufayli ularni sirli va ilohiy kuch sifatida baholashi, shuningdek, mifik obraz sifatida tasavvur etish hollari natijasida vujudga kelgan. Xususan, ibtidoiy dunyoqarash va diniy e‘tiqodga bog‘liq holda hayvonot, nabotot va koinotdagi mavjud narsalar jonzotlarga totemistik munosabatlar natijasida sher, arslon, yo‘lbars, qoplon, burgut, lochin, qirg‘iylar mard, jasur, botir, dovyurak kishilarga; qarg‘a, quzg‘unlar qonxo‘r, toshyurak kishilarga; tovus, bulbullar go‘zal, chiroyli xulqli kishilarga; gul, g‘uncha va oy, yulduz, quyosh singarilarini go‘zal va suluv qizlarga; yantoq, saksovul kabilar xunuk kishilarga nisbatan tashbeh etilgan va bu holat og‘zaki va badiiy ijodda keng tarqalgan eng qadimgi tasavvurlar mahsulidir. Bularning barchasi insoniyat o‘zini tabiatning sehrli olami bilan yoki aksincha, tabiatdagi mavjud narsa va hodisalarni insoniyatning xulq-atvori, ichki dunyosi bilan bog‘lashi, ya’ni, qiyoslashi, o‘xshatishi, sifatlashi kabilar bilan bog‘liq. Ular tilimizdagi ko‘plab badiiy ifoda vositalarning vujudga kelishida asos bo‘lgan.

O‘zbek tilshunosligida ham til va madaniyat bog‘liqligi masalalari e‘tibordan chetda qolgan emas. Xususan, N.Mahmudovni ko‘rsatishicha: “Til va madaniyat deganda, ko‘pincha, “nutq madaniyati” deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o‘rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko‘rsatmaydi[4]. Til va madaniyat deganda, odatda, til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, o‘zbek va turk tillaridagining fitonomik manbalarning qiyosiy tahlili o‘simliklar dunyosi bilan bog‘liq birliklarning inson obrazini gavdalantirishida umumiy va o‘ziga xos xususiyatlar mavjudligini ko‘rsatdi. Har ikki til tafakkurida inson ijobiy xususiyatlarini tavsiflashda, asosan, meva va mevali daraxt nomlariga tayanilsa, kishining salbiy qiyofasini ifodalashda esa ko‘proq daraxtning kesilgan tanasi, o‘tin yoki to‘nka bilan aloqador birliklarga murojaat qilinadi.

Insonning ko‘rinishi va tabiatini sifatlovchi hamda ochib beruvchi birliklar tahlili uzoq yillardan buyon tilshunoslarni qiziqtirib keladi. Ayniqsa, ushbu masala keyingi yillarda ko‘proq lingvomadaniyatshunoslikning obyektiga aylandi. Fanda madaniyat tushunchasiga ko‘plab yondashuvlar bor. Madaniyat keng ma‘noda – bu “Obyekt va qat‘iy belgilangan tartib-qoidalar yig‘indisi bo‘lib, insonning xulq-atvori, xatti-harakatlari, olgan bilimlari, o‘zlikni anglash, dunyoning ramziy ma‘nolarini tushunish va bilish shakllarini o‘z ichiga oladi”. Shu jihatdan ham ayni muammoga ligvomadaniyatshunoslar diqqat qaratmoqda.

Bu yo‘nalishda rus, ingliz, fransuz, turk, o‘zbek tilshunosligida salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, rus tilshunosi I.Voloshkinaning “Inson xarakteri” – frazasemantik maydon (fransuz tili materiali asosida)” mavzusidagi dissertatsiyasini ko‘rsatish mumkin. Ushbu tadqiqotda inson xarakteri bilan bog‘liq birliklar dunyoning lingvistik tasvirining barqaror parchasi o‘laroq ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, “inson xarakteri” tushunchasini lingvistik jihatdan

o‘rganishga harakat qilingan, xarakter ruhiy va intellektual bog‘liqligi tushuntirilgan. Ishda yozilishicha, shaxs fe’l-atvori ona tilida so‘zlashuvchilar ongida ko‘p marotaba bilvosita, shaxs tomonidan ifodalangan xatti-harakatlarning murakkab komplekslarini kuzatish orqali aks ettirilgan aqliy obyektlardir. Tahlil qilingan frazeologik materiallar insonga xos xususiyatlar, uning ruhiy va emotsional holatlari, jismoniy harakatlari, odamlar bilan munosabatlari va boshqalar atrofida to‘plangan.

G.Vatletsov zoomorf lug‘aviy birliklar tizimi va uning inglizcha-ruscha ekvivalentligini o‘rganish asnosida zoonimlarning zamonaviy ishlab chiqarish va kasbiy sohadagi foydalanish jihatlariga ham e‘tibor qaratadi.

NATIJALAR. Lab gilosga o‘xshatilish asnosida ko‘z charosga, ya’ni uzumning qora rangli navi – charosga qiyoslanmoqda. Turklarda esa “qorachadan kelgan odam” ta‘rifida “üzüm gibi” o‘xshatishi qo‘llanadi va bunda qora rangli uzum ma‘nosi faollashtirilgan. Shuningdek, *‘çöpsüz üzüm’ yakın akrabaları hayatta olmayan kişi, üzüntü verici bir şeymiş gibi dursa da özellikle zengin koca arayan hanımlar için çift katlı ekmek kadayıfı durumudur. Cho‘psiz uzum* birikmasi hech kimi yo‘q yolg‘iz ayolni ifoda etadi. *Üzüm gibi* turklarda qorachadan kelgan ma‘nosida keluvchi bu metafora turk tilida asosan qorachadan kelgan qariya kishini bildirsa, o‘zbek tilida bu ko‘rinish uzumning quritilgani *mayizday* ifodasi yordamida beriladi.

Turk tilida *ayva göbekli* metaforasi orqali qorni pastga osilgan kishining tasviri ifodalanadi. Ayva - bu behi, behi fitonimining shakli turk tilida qorni osilgan odam obrazi uchun qo‘llanadi. O‘zbek tilida esa behi orqali inson tasvirlanmaydi, “qorni qopday” yoki “tarvuz yutib olganday” o‘xshatishli birikmalaridan foydalaniladi. Bunga qardosh tillar orasidagi farq sifatida qarash mumkin.

Turk xalqi lingvomadaniyatida zaytun fitonimi katta o‘rin tutadi. Zaytun qora bo‘lishi bilan birga, ham foydali ham mazali bo‘lgani uchun *zeytin gibi* (“zaytun kabi”) o‘xshatishli birikmasi qorachadan kelgan, istarali qizlarni ta’riflashda ishlatiladi.

Turk tilida “biror ishni bitirish uchun yopishib olgan odam, kishilarni ketidan qolmaydigan kishi”ga nisbatan *sarmaşık gibi* komparativi yordamida aks ettiriladi. O‘zbek tilida ham ayni holatdagi inson chirmoviq yoki pechak o‘ti fitonimi vositasida ifodalanadi. O‘zbek tilidagi *chirmovuqqa o‘xshab yopishib oldi* birikmasi xira, sur, shilqim odamlarga nisbatan ishlatiladi.

Turk tilida “achchiq so‘zlarni so‘zlaydigan, ya’ni og‘zidan yomon gap tushmaydigan odam”ga nisbatan *diken dilli* (tikon tilli) birligi qo‘llanadi. Bundan tashqari *biber dilli* komparativi tili achchiq ma‘nosida keladi. Bu har ikkala tilda o‘xshash vositalar yordamida beriladi. Biber//qalampir, u achchiq bo‘lgani uchun tili *fidan gibi* birligi bo‘lib, u “niholdek” ma’nosida “katta hayotga endi qadam qo‘yayotgan odam”ga nisbatan ishlatiladi. Turklarda bo‘yi novcha, ozg‘in kishilarga ham *fidan gibi* yoki *dalfidan boylu* birikmasi ham qo‘llanadi. *Dalfidan boylu* birikmasi turk tilida “fidan” – “nihol” ma‘nosini beradi, “dal” esa “shox” demakdir. Bu birikma turk tilida qotmadan kelgan, novcha bo‘yli ma‘nosini beradi: *Kim der ki bu fidan boylu kız iki çocuk anasıdır*. (Kim ham ishonadi bu navnihol qizning ikki farzandi borligiga). Ba‘zi o‘zbek tilidagi *terakdek* o‘xshatishli birikmasiga ham to‘g‘ri keladi.

XULOSA. Turk va o‘zbek olam lisoniy manzarasida gul, o‘t-o‘lan, sabzavot, poliz ekinlari bilan bog‘liq birliklar inson tasvirini aks ettirishda eng faol fitonimlar sifatida keng qo‘llanadi. Kishining ijobiy xususiyatlarini ta’riflashda ko‘proq gullar bilan bog‘liq fitonimlardan foydalanilsa, insonning salbiy qiyofasini ifodalashda esa aksariyat hollarda, o‘t-o‘lan va poliz ekini nomlari qo‘llanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Djumabayeva J. va boshqalar. Doston matnidagi zoomorfizmlar va ularning uslubiy xususiyatlari // “Oriental Art and Culture” scientific-methodical journal, 2020. – B. 137-143.
2. Marufova Z. O‘zbek mumtoz she’riyatida zoonimlar vositasida go‘zallik ifodalash // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Scientific journal 1(3), 2021. – B. 307-311.
3. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. I tom. – Тошкент, 1960. – B.311.
4. Абдужабборова Ф. “Қутадғу билиг”даги шахс белги-хусусиятини англатувчи лексика // Филол. фан. ном. дисс. Автореф. – Тошкент, 2011. – Б.162.

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 81' 373. 612: 821.512.133-3

ERKIN SAMANDAR NASRIY ASARLARIDA TAKRORNING LINGVOPOETIK IMKONIYATLARI

Masharipova Farida Zokirovna, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

LINGUOPOETHIC POSSIBILITIES OF REPETITION IN THE PROSE WORKS OF ERKIN SAMANDAR

Masharipova Farida Zokirovna, 2nd year basic doctoral student at the Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПОВТОРА В ПРОЗАИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ЭРКИНА САМАНДАРА

Машарипова Фарида Закировна, базовый докторант 2-курса Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни

https: // orcid.org/0009-0000-9351-127X
e-mail: faridamasharipova7 @gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada Erkin Samandar nasriy asarlari tilida qo'llangan takroriy birliklarning fonetik, leksik, morfemik va sintaktik ko'rinishlari misollar bilan lingvopoetik tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Erkin Samandar leksikasi, takror, alliteratsiya, assonans, fonetik takror, leksik takror, qo'shimchalar takrori, anafora, simmetrik va aralash takror.*

Abstract: *The article presents a linguopoetic analysis of the phonetic, lexical, morphemic, and syntactic manifestations of repetitive units used in the language of Erkin Samandar's prose works with examples.*

Keywords: *Erkin Samandar lexicon, repetition, alliteration, assonance, phonetic repetition, lexical repetition, adverbial repetition, anaphora, symmetrical and mixed repetition.*

Аннотация: *В статье представлен лингвопоэтический анализ фонетических, лексических, морфемных и синтаксических проявлений повторяющихся единиц в языке прозаических произведений Эркина Самандара с примерами.*

Ключевые слова: *свободный лексикон Эркина Самандара, повтор, аллитерация, ассонанс, фонетический повтор, лексический повтор, адвербиальный повтор, анафора, симметричный и смешанный повтор.*

KIRISH. Badiiy matnda eng ko'p qo'llaniladigan tasviriy vositalardan biri takror hisoblanadi. Yozuvchi ushbu vositani asarlarida qo'llash orqali qahramon ruhiyatidagi turli hissiy holatlarni alohida ta'kidlashi, shuningdek, badiiy tasvirning tugalligiga erishishi mumkin. Bilamizki, badiiy asarda qo'llangan takrorlar ma'lum birliklarning (so'z, ibora, shakl, tovush va h.k.) qayta qo'llanib, mazmunni kuchaytirish, hissiylikni oshirish yoki ritmik uyg'unlik yaratish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Ma'lumki, o'zbek tilshunosligida ham takrorlar bilan bog'liq ko'plab tadqiqotlar yuzaga kelgan. Takrorning 30ga yaqin turini sanab o'tgan S.Karimov "takrorning zimmasiga ham til birliklariga emotsional bo'yoq, alohida ohang, joziba berish vazifasi" yuklanishini ta'kidlaydi [5;56].

M.Yo'ldoshev takrorni turli jihatdan turlari mavjudligini va shunga ko'ra tasnif qilish mumkinligi haqida yozadi: "Takrorlar qo'llanish o'rniga ko'ra gorizontal va vertikal takrorlarga bo'linadi. Bunday takrorlar, ayniqsa, she'riy matnlarda o'ziga xos ohangdorlikni yuzaga keltiradi. Takrorlanuvchi birlikning qaysi

turkumga mansubligiga ko‘ra ot takrori, sifat takrori, olmosh takrori, fe’l takrori kabilarga bo‘linadi. Sintaktik tabiatiga ko‘ra so‘z birikmasi takrori va jumla takrori ham farqlanadi. Mazkur birliklarning joylashish tartibiga ko‘ra ham tasnif qilish mumkin: simmetrik takror va asimmetrik takror. Shuningdek, o‘rtadagi masofasiga ko‘ra ham guruhlashtirish mumkin: yaqin o‘rinli takror, uzoq o‘rinli takror. Badiiy asarlarda mazmuniy takror turini ham kuzatishimiz mumkin[3;38].

Badiiy asar mualliflari tasvirlanayotgan voqea-hodisaga o‘quvchining diqqatini tortish, uni bo‘rttirib ko‘rsatish uchun badiiy asarlarda tovush va tovushlar, so‘z va so‘zlar yig‘indisini, gaplarni takror qo‘llab, urg‘uni kuchaytiradi, nutqqa keskinlik kiritadi[6;48].

Z.Yo‘ldoshevaning maqolasida “Xoldorxon” dostonidagi simmetrik va aralash takroriy birliklar lingvopoetikasi tahlilga tortilgan[2;107].

A.Ahmedova esa “Cho‘lpon asarlarida takrorning lingvopoetik xususiyatlari” nomli maqolasida Cho‘lpon qalamiga mansub nazmiy va nasriy asarlarida qo‘llangan takrorning anaforik, inforik, epiforik turlari, alliteratsiya, assonans kabi fonetik usullari haqida fikr-mulohazalarni keltirib o‘tgan [1;99].

MUHOKAMA. Erkin Samandar nasriy asarlarida ushbu uslubiy figuraning fonetik, morfemik, leksik va sintaktik ko‘rinishlaridan unumli foydalangan, shuningdek, ular turli vazifalarni bajarib kelgan.

Fonetik takror. **Matnda ma’lum bir tovushlarning takrori**

Nasrda bu tarzda, ya’ni to‘liq alliteratsiyaga asoslanib jumla tuzish she’riyatdagidek estetik effekt bermasligi mumkin. Shuning uchun narsrda bu usulni ancha kam hollarda kuzatish mumkin bo‘ladi. Shunga qaramay, nasr ustalari ham bu usulga o‘rni bilan murojaat qiladilar. Bunda muayyan jumladagi barcha so‘zlar emas, balki bir necha so‘z tarkibida alliteratsiya mavjud bo‘ladi, ayni shu alliteratsiyaga ko‘ra bu so‘zlar alohida estetik ta’kid oladi [4;167].

Alliteratsiyada nutq tovushlari ma’lum bir o‘rinda, ma’lum bir holatda takrorlanib kelishi bilan ma’noga ta’sir etadi [7;82].

Erkin Samandar “Sulton Jaloliddin” tarixiy romanida Chingizxonning ruhiy holatini ochib berishda alliteratsiyadan foydalanadi: ***Toqati toq*** *bo‘lib,* ***q****o‘shinini* ***q****istagancha* ***q****onsirab kelardi xo****q****on* [10;137]. Ushbu matnda undosh tovushlar takror talaffuz qilingan so‘zlarda qahramonning ichki kechinmasi, uning kuchli g‘azab va nafrati o‘z ifodasini topgan. Mazkur takror vositasida qahramonning holati yorqin tasvirlangan. Til oldi *t* va chuqur til orqa *q* undoshlarining takrorlanishi orqali xoqonning g‘azabini ifodalashda ohangdorlik kasb etgan.

Quyidagi parcha fonetik jihatdan badiiy ohangdorlikka boy bo‘lib, unda ***q*** undoshining takrori alohida poetik yuklamaga ega. Ushbu tovushning qayta-qayta qo‘llanishi fonetik takror yoki alliteratsiya hodisasini yuzaga keltiradi. Ma’lumki, alliteratsiya — bir xil undosh tovushlarning takrorlanishi orqali nutqqa ritmik uyg‘unlik, ohangdorlik va emotsional ta’sir beruvchi stilistik vositadir. ***Q****ibla yo****q****dan* ***q****irg‘o****qq****a yelib kelayotgan* ***Q****orabayir ko‘zga tashlandi.* ***Q****orabayir bir o‘zi, or****q****asidan* ***q****uvib kelayotgan otli****q****lar to‘p-to‘p* [10;160]. *Q* tovushi — jarangli, kuchli talaffuz etiladigan chuqur til orqa undoshi bo‘lib, u matnda tezlik, harakat va shiddatni eslatuvchi fonetik effekt hosil qiladi. Bu tovushlarning ketma-ketligi otlarning chopish shovqinini, jang sahnasini tovush orqali ifodalaydi. Shoir shu tariqa tovush takroridan tasvir sifatida foydalangan. Bu esa romanga xos epik ruh, hayajon va qahramonlik kayfiyatini kuchaytirgan. Shunday qilib, parchada *q* undoshi takrori matnga badiiy ohang, harakatning shiddatini, jangovar muhitni va emotsional kuchni singdirgan. Bu takror yozuvchining mahorat bilan qo‘llagan fonetik-badiiy vositasi bo‘lib, asarning umumiy ruhini yanada ta’sirchan ifodalagan. Bu alliteratsiya nafaqat nutqni ohangdor qilgan, balki matnga kuchli poetik ta’sir bag‘ishlagan.

Leksik takror. So‘zlar yordamida hosil qilingan takrorlar. Bilamizki, matnda bir so‘zning qayta-qayta takrorlanishi o‘sha so‘z bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyatning kuchaytirilib ta’kidlanishiga xizmat qiladi.

O‘g‘lum!

Emdi, ma, ol, shohlik kamarin belingg‘a bog‘la.

Emdi sen o‘rnimg‘a o‘rinsen,

Emdi sen shohsen, Xorazmshohsen! [10; 46].

Alouddin Xorazmshoh tilidan aytilgan ushbu jumlaning har biri abzas shaklida bo‘lib,

anaforik takrorni yuzaga keltirgan. Bu parcha poetik nutq namunasi bo‘lib, unda takror badiiy vositasi markaziy o‘rin tutadi. *Emdi* so‘zining ketma-ket uch marta ishlatilishi orqali ohangdorlik va ta’sirchanlik yaratilgan, his-tuyg‘u kuchaytirilgan. Shuningdek, “*Sen shohsen, Xorazmshohsen*!” satrida fonetik va morfologik takror mavjud. Bu ikki so‘zning tuzilishdagi va tovushlardagi uyg‘unligi shohlikning qudratini, vorislikning muqaddasligini yanada kuchaytiradi. *Shohsen* so‘zining ikki marta takrorlanishi esa ta’kid ma’nosini beradi, shohlikning davomiyligini poetik tarzda mustahkamlaydi. Takrorlar tinglovchiga (Jaloliddinga) ruhiy kuch, ishonch va mas’uliyat yuklaydi.

Bu yurt azal otli yurtdir,
Otli yurtdir, zotli yurtdir,
Yurak-bag‘ri o‘tli yurtdir,
Bosqinchi bir ko‘rib qo‘ysin [8;254].

Adibning Pahlavon Mahmud qalamiga mansub ushbu ruboiysida ham takrorlarning go‘zal namunasini uchratamiz. Mazkur parcha fonetik va leksik jihatdan badiiy ohangdorlikka boy bo‘lib, unda takror san’ati mahorat bilan qo‘llangan. Har bir misrada *yurtdir* so‘zi takrorlanib, asarga kuchli ritmik uyg‘unlik va semantik urg‘u bergan. Bu leksik takror Vatanga bo‘lgan cheksiz faxr, g‘urur va muhabbatni ifodalaydi. “*Otli yurtdir, zotli yurtdir, o‘tli yurtdir”* kabi parallel tuzilmalar esa sintaktik takror bo‘lib, har bir satrda ma’no va ohang birligini mustahkamlaydi. Fonetik jihatdan esa *otli, zotli, o‘tli* so‘zlaridagi *o* unli va *t* undosh tovushlarining takrori alliteratsiya va assonans hodisasini yuzaga keltirgan. Bu tovush takrorlari she’rga ichki musiqiylik, uyg‘unlik va ruhiy ko‘tarinkilik baxsh etadi. Ayniqsa, *t* tovushining jarangdorligi satrlarga qat’iylik va jasorat ohangini bergan. Har bir satrda *yurt* so‘zi markazga olinib, Vatanni bahodir, aslzoda, g‘ayratli xalq yurti sifatida ulug‘laydi. *Otli* so‘zi xalqning jangovarligini, *zotli* — asl nasl va sharafni, *o‘tli* esa — oriyat, g‘ayrat va hayotiy haroratini ifodalaydi. Shu tarzda takrorlar orqali shoir Vatanning ulug‘ligi, xalqning jasorati va ruhiy yuksakligini kuchli poetik vositalar bilan ochib bergan.

Kim qo‘liga qilich oldi, kim oybolta, kim ketmon, bari bitta bo‘lib mirshabni tilka-pora qilishga, vahshiy zolimlarning dodini berishga oyoqlandi [8;319]. Ushbu gapda leksik takror *kim* so‘roq olmoshi orqali anaforik (ya’ni, bir xil so‘zning gap boshida takrorlanishi orqali ritm va mazmuniy urg‘u hosil qiluvchi) turi qo‘llangan. *Kim* so‘zi ketma-ket uch marotaba ishlatilgan bo‘lib, u parallel tuzilishni hosil qilgan. Bu usul tilshunoslikda anafora (so‘zning yoki so‘z birikmasining satr yoki gap boshida takrorlanishi) deyiladi. Yozuvchi takror orqali xalq qo‘zg‘olonining keng qamrovli, jonli va his-tuyg‘uga boy manzarasini yaratgan. Shu bilan birga, til vositasida badiiy-estetik ta’sir kuchi oshgan, matn o‘quvchida kuchli ruhiy turtki uyg‘otgan. Shuningdek, “*bari bitta bo‘lib, vahshiy zolimlarning dodini berishga oyoqlandi”* qismlari semantik takrorni yuzaga keltiradi. Chunki oldingi *kim..., kim..., kim...* shaklidagi sanov harakatlarning barchasi yakunda *bari bitta bo‘lib* degan umumlashtiruvchi ma’no bilan birlashadi. Shu tarzda yozuvchi xalqning bir yoqadan bosh chiqarib zolimlarga qarshi qo‘zg‘alishini obrazli ko‘rsatgan. Takrorlar xalq qo‘zg‘oloni sahnasini jonlantirib, harakatni tezlashtiradi, kuchli hissiy ta’sir uyg‘otadi.

Tuqqan el bu – yurak.
Yurak bu – tuqqan el! [9;20]

Erkin Samandarning “Qiron g‘ildiragi” asaridagi ushbu jumlada takror san’ati alohida badiiy yuklama bilan qo‘llangan. Bu ikki gap sodda ko‘rinsa-da, ichki tuzilishida murakkab leksik, sintaktik va semantik takror uyg‘unlashgan. Birinchi jumlada *tuqqan el* bosh qismda, *yurak* esa izohlovchi sifatida keltirilgan bo‘lsa, ikkinchi satrda bu tartib teskari holatda takrorlanadi. So‘zlarning o‘rin almashuvi orqali inversiya hosil bo‘lib, “xiazm” deb ataluvchi badiiy figura yuzaga kelgan. Leksik jihatdan *tuqqan el* va *yurak* so‘zlari ikki marta takrorlanib, mazmuniy jihatdan o‘zaro tenglashtiriladi. Bunda xalq (el) – yurak, yurak esa – xalq ramziga aylanadi. Demak, takror vositasida inson va xalq o‘rtasidagi ruhiy, ma’naviy bog‘liqlik ifoda etilgan. Gaplar tuzilmasining aynan takrorlanishi esa sintaktik takrorni bildiradi, biroq bu oddiy takror emas – u teskari semantik parallelizm orqali yangi ma’no yaratadi. U nafaqat ohangdorlikni kuchaytiradi, balki asarning g‘oyaviy mazmunini — xalq va insonning bir butunligini — badiiy shaklda ifodalaydi. *Tuqqan el* timsoli xalqning ona kabi mehrini bildirsa, *yurak* timsoli esa shu xalqning hayot manbai, ruhiy kuchi sifatida talqin etiladi. Shu tarzda, muallif ikki so‘z o‘rtasidagi o‘rin almashish orqali mazmuniy

chuqurlik va hissiy kuch yaratgan. Natijada bu parcha leksik, sintaktik va semantik takror unsurlarini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, eng muhimi — u muallifning individual badiiy uslubini ifodalaydi. Takror bu yerda faqat so‘zning qayta ishlatilishi emas, balki ma’nolar aylanishi, xalq va inson yuragi o‘rtasidagi ichki birligining poetik ramzi sifatida xizmat qilgan.

Qo‘shimchalar takrori

Boshqa qushlar ularga kelib qo‘shiladilar.

Guvillashadilar, chuvillashadilar, chiyillashadilar [S.J.130]. Mazkur parcha fonetik va morfologik jihatdan nihoyatda badiiy ohangdorlikka ega. Unda takror san’ati keng qo‘llanib, ayniqsa, qo‘shimchalarning takrori muhim poetik vosita sifatida xizmat qilgan. *Guvillashadilar, chuvillashadilar, chiyillashadilar* so‘zlarida bir xil qo‘shimchalar ketma-ket uch marotaba takrorlangan bo‘lib, bu morfologik takror hisoblanadi. Mazkur qo‘shimcha har bir fe’lga umumiy grammatik shakl beradi, ularning barchasini bir harakatga — qushlarning birgalikdagi ovoz chiqarish jarayoniga bog‘lab turadi. Shu orqali shoir qushlarning *guvillashi, chuvillashi, chiyillashi* kabi tovushlarini ritmik uyg‘unlikda tasvirlaydi. Fonetik jihatdan esa *guv, chuv, chiy* kabi ildizlarda tovush uyg‘unligi mavjud. Shu bilan birga, *i* unlisining takrorlanishi musiqiylik, ohangdorlik va harakat hissini beradi. Ijodkor bu takrorlar orqali tabiatning jonli manzarasini, qushlarning uyg‘un uchish va sayrash holatini tovush vositasida jonlantirgan. Qo‘shimchalarning takrori esa bu harakatlarning uzluksizligini, umumiyligini va uyg‘unligini ifodalaydi. Shu bilan shoir qo‘shimcha takrori orqali nutqqa ohangdorlik, harakat va hayotiylik baxsh etgan.

XULOSA. Erkin Samandar nasriy asarlarida takrorning barcha turlarini uchratishimiz mumkin. Yozuvchi asarlari matnida qo‘llagan takrorlar orqali asar qahramonining ruhiy olami, tafakkuri, o‘y-fikrlarini tasvirlashga xizmat qilgan. Bu orqali kitobxon asar matnining g‘oyaviy-badiiy mazmunini chuqur idrok etib, undagi obrazlar va his-tuyg‘ularni ifodali tarzda his qilish imkoniga ega bo‘lgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Аҳмедова А. Чўлпон асарларида такрорнинг лингвопоэтик хусусиятлари. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2023. – №4. – Б.99-103.
2. Йўлдошева З. “Холдорхон” достонидаги симметрик ва аралаш такрорий бирликлар лингвопоэтикаси. Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2021. – №4. – Б.107-113.
3. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент, 2007, – Б. 37-38.
4. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоетикаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б. 256.
5. Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари (Ўқув қўлланма). – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 1994, –Б. 55-56.
6. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлили. – Тошкент: Ўқитувчи. 1995. – Б.48.
7. Муқимова З. Ўткир Ҳошимов асарлари тилининг лингвопоэтик ва лингвомаданий хусусиятлари: Филол.фан. бўйича д-ри (ПҲД) дисс. – Тошкент, 2020, 82-бет.
8. Эркин Самандар. Паҳлавон Маҳмуд Пирёрвалий. – Тошкент: Шарқ, 2009. – Б. 244.
9. Эркин Самандар. Қирон ғилдираги. – Тошкент: Шарқ, 2016. – Б. 224.
10. Эркин Самандар. Султон Жалолиддин. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2007. – Б. 284.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 811.512.133'373.611

O'ZBEK TILIDA ENANTOSEMIK METAFORALARNING XOSSALARI TADQIQIGA DOIR

Sharasulova Shirin, Oriental universiteti O'zbek va Sharq tillari kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

ON THE STUDY OF THE CHARACTERISTICS OF ENANTIOSEMIC METAPHORS IN THE UZBEK LANGUAGE

Sharasulova Shirin, Associate Professor (PhD) Department of Uzbek and Oriental Languages, Oriental University

К ИЗУЧЕНИЮ ХАРАКТЕРИСТИК ЭНАНТИСЕМИЧЕСКИХ МЕТАФОР В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Шарасулова Ширин, доцент кафедры узбекского и восточных языков университета Oriental, кандидат филологических наук

https://orcid.org/0009-0002-8388-056X
e-mail: sharasulovashirin@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek tilidagi enantosemiya va metaforalarning semantik-sintaktik xususiyatlari tahlil qilinadi. Yenantosemiyalarining lingvistik va madaniy qatlamlari, metaforaning mantiqiy-semiyotik mohiyati hamda ularning gap tuzilmasidagi funksional yuki yoritiladi. Maqolada adabiy matnlardan va ommaviy nutqdan misollar asosida semantik bog'liqlik va sintaktik qurilmalarning o'zaro munosabati ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar: *metafora, enantosemiya semantika, sintaksis, leksik birlik, kontekst, ifoda vositasi.*

Annotation: *This article analyzes the semantic and syntactic features of wordplay and metaphors in the Uzbek language. It explores the linguistic and cultural layers of wordplay, the logical-semiotic essence of metaphors, and their functional role in sentence structure. Based on examples from literary texts and public speech, the article reveals the interaction between semantic coherence and syntactic constructions.*

Keywords: *metaphor, enantosemiya semantics, syntax, lexical unit, context, means of expression.*

Аннотация: *В данной статье анализируются семантические и синтаксические особенности энантосемии и метафор в узбекском языке. Рассматриваются лингвистические и культурные аспекты энантосемии, логико-семиотическая сущность метафоры, а также их функциональная нагрузка в структуре предложения. На основе примеров из литературных текстов и общественной речи выявляется взаимосвязь между семантической связностью и синтаксическими конструкциями.*

Ключевые слова: *метафора, энантосемия, семантика, синтаксис, лексическая единица, контекст, выразительное средство.*

KIRISH. O'zbek tilida enantosemiyalar va metaforalarni semantik-sintaktik jihatdan tadqiq etish tilshunoslikda tilning ijodiy imkoniyatlarini, muloqotdagi noaniqliklarni va madaniy kontekstni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Quyida bu mavzuni o'rganish uchun asosiy yo'nalishlar, metodologiyalar va mavjud tadqiqotlar haqida ma'lumot beramiz.

O'zbek tilida enantosemiyalar va metaforalarning tadqiqot yo'nalishlari turli aspektlarda o'rganiladi. Shulardan biri semantik-sintaktik tahlil haqida so'z borganda, so'z o'yinlari va metaforalar tilning semantik (ma'no) va sintaktik (grammatik tuzilma) jihatlarini birlashtirgan holda o'rganiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Enantosemik metaforalarning xossalari o'zbek tilida namoyon bo'lishi haqida gap ketganda, quyidagilarni ta'kidlash mumkin. Ijobiy va salbiy ma'nolarning birlashish bilan kechadigan holatlarni o'zida mujassam etgan enantosetik birliklar semantik maydonning yanada kengayishiga xizmat qiladi.

Bir metafora bir vaqtning o'zida ijobiy va salbiy ma'nolarni olish mumkin. Masalan, "*cho'ntak*" so'zi, odatda, kiyim bo'lagi sifatida ishlatilishi bilan

birgalikda qiymatning bir ramzini bildirib, alohida ma'no kasb etishi ham mumkin. Lekin shunga qaramay, kayfiyat va yoshlarning o'zgarishi bilan salbiy ma'noga ega bo'lishi ham mumkin. Doimo majburiy pul beruvchi yoki xarajatlarni majburiy to'lovchi odam semantik ma'nolarda ham ishlatiladi.

Kontekstga qarab ma'noning o'zgarishi haqida gap ketganda, o'zbek tilida metaforik birliklar ahamiyatni yoki moslashishni belgilaydi. Bir nechta kontekstda ishlatilganda, ular bir-biridan qarama-qarshi ma'noni bildirishi mumkin. Ma'nolarni anglashda kontekst juda muhim. Kontekst bo'lmasa, enantosemik birlar va metaforalarni ajratish, semantik vazifani farqlash deyarli aniqlab bo'lmaydi.

MUHOKAMA. Enantosemiya va metaforalar haqida yanada chuqurroq tushunish uchun ularning tilshunoslikdagi o'rni va amaliy qo'llanilishiga oid qo'shimcha ma'lumotlarni murojaat etishimiz lozim bo'ladi. Enantosemiya (Enantiosemy) va uning tildagi ahamiyatini anglash uchun uning mohiyatiga e'tiborimizni qaratishimiz kerak. Enantosemiya — bir so'z yoki izohning qarama-qarshi yoki ziddiyatli ma'nolarga ega bo'lishi. Bu ko'pincha kontekstga qarab o'zgaradi. Enantosemik so'zlar tilda metaforalar va polisemiya (bir so'zning bir nechta ma'nosi) bilan chambarchas bog'liq. Enantosemiya metaforalarda ijobiy va salbiy ma'nolarning bir vaqtda mavjud bo'lishiga yordam beradi.

Enantosemiyaning turlari. Leksik enantosemiya: bir so'zning ikki qarama-qarshi ma'nosi bo'lishi. Masalan:

*"**Kir – toza, kir – iflos"*** bu misolda o'zbek tilida *kir* so'zi bir vaqtning o'zida toza ma'nosida ishlatilsa, boshqa vaqtda *toza yuvilgan* ma'nosida ishlatiladi. ***Aylanib chiqdi*** misoliga etiboringizni qaratamiz: bunda bir ma'no *birma bir ko'rib chiqilganini* anglatsa, ikkinchi ma'no *ko'rmay aylanib o'tib ketdi* ma'nosini anglatishi mumkin. ***Sanksiya – ruxsat, sanksiya – man qilish.*** U bir tomondan ruxsatni anglatsa va chuqur ishonchni anglatsa, boshqa tomondan, taqiq va javobgarlikdan qochishni ko'rsatishi mumkin.

Sintaksik enantosemiya: bir ibora yoki jumla turli ma'noda ishlatilishi mumkin. Bu holatda kontekst so'zning ma'nosini belgilaydi. Ma'no sintaktik enantosemiyada gap yoki so'z birikmasida ifoda etiladi. Bunga rus tilidagi misol yaqqol ko'rsatishi mumkin. Masalan: Rus tilida *Отходить от болезни (tuzalish) – отходить в мир иной (tuzalmay o'lmoq).*

Semantik enantosemiya: bu metaforalar va polisemiya orqali so'zlarning ma'nosining o'zgarishini tushunishga yordam beradi. **Enantiosemiya** bir so'zning qarama-qarshi ma'nolarni anglatishi hodisasi yoki ichki antinomiya deyiladi: ***Bahosi yo'q – qiymati yo'q yoki juda qimmat;***

Boshiga ko'tarmoq – frazeologik omonimiya holatini ham yuzaga keltirishi mumkin va shu bilan birgalikda enantosemiya hodisasini o'zida aks ettiradi. Ushbu holatlarda **boshiga ko'tarmoq** bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ma'nolarni anglatadi. Birinchisida *1)**hurmatlamoq*** ma'nosida ishlatilsa, ikkinchi holatda *2)**qattiq ovozda baqirmoq*** ma'nosida ham ishlatilishi mumkin.

Metaforik birliklar (metaforalar) — to'g'ridan-to'g'ri ma'noga ega bo'lmagan, balki ma'noni tasvirlash va ijodiy ma'noda izohlash uchun ishlatiladigan til birliklaridir. Enantosemiya (enantosemiya) esa, bir so'z yoki bir tomonlama izohning qarama-qarshi yoki ulanish xosiyatini anglatadi. Bu holda, bir so'z yoki izohning ikki xil, teskari ma'nolari bo'lishi mumkin.

Metaforalarda enantosemiyani aniqlashda quyidagilarni nazarda tutish lozim bo'ladiiki, metaforik so'zlar o'zining asl ma'nosi bilan birga, ijodiy va kontekstga ko'ra o'zgaruvchan ma'nolarni ham bildirishi mumkin. Bu holatda so'z yoki ibora ko'p ma'noli bo'lishi va shu bilan birga, enantosemik xususiyatlar paydo bo'lishi mumkin.Misollar: *"Yuqori"*: odatda bu so'z "grafikning yuqori qismi" yoki "mavqening yuqori bo'lishi" ma'nosini anglatadi, lekin metaforada "yo'lning yuqori qismi" yoki "psixologik holatning yuqori bo'lishi" kabi tasvirlarda ham ishlatiladi. Enantosemiyaning qayd etilishi shundaki, "yuqori" bir tomondan jismonan balandlikni, boshqa tomondan ruhiy holatni anglatadi.

"*Janubiy*": bu so'z geografik ma'noni bildirsa-da, metaforada undan "pastki" yoki "yo'lning yomon tomoni" sifatida ham foydalaniladi. Bu holatda enantosemiyaga ega bo'ladi.

Metaforik birliklar va ularning tildagi o'rni aniqlashda, shuni e'tiborga olinadiki, metaforik birliklar tilning ijodiy va ekspressiv elementlaridir. Ularning foydalanilishi tiliga turli ma'nolar va his-tuyg'ularni kiritishga yordam beradi. Bu birliklar odatda fikr va tasavvurlarni chuqurroq va kengroq ta'riflash uchun ishlatiladi. Metaforalar ko'p holatlarda adabiyotda, she'riyatda, so'z ishlatishda yoki hayotning murakkab nuqtalarini tushuntirishda foydalaniladi. Metaforalar va enantosemiya o'rtasidagi munosabatda quyidalar namoyon bo'ladi: *bir necha ma'noni o'z ichiga olish* – metaforalar o'zining ijodiy tabiati bilan enantosemiyani shakllantiradi. Masalan, "suv" so'zi, bir tomondan, suvning to'g'ridan-to'g'ri mantiqiy ma'nosini (susayish, jismoniy suv) bildirsa, boshqa tomondan, "suv to'qnashuvi" yoki "suvning

pastligi” yoki “suvning kirishi” kabi iboralarda emas, balki yashirin ma’noda ishlatilishi mumkin.

Ijobiy va salbiy o‘zgarishlar: metaforaning kontekstga ko‘ra, bir vaqtning o‘zida ijobiy va salbiy ma’nolarni bildirishi enantosemiyani ko‘rsatadi. Misollar: “Tog‘lar” — bir tomondan qulaylik, yuksalish va qurishning belgisi, boshqa tomondan esa og‘irlik va jismoniy yoki ma’naviy muammolarni ham bildirishi mumkin. Metaforalardagi to‘qnashuvi o‘z navbatida enantosemiya hodisasini keltirib chiqarilishi ham mumkin**.** Kontekstda metaforalar to‘qnashib, ularning ma’nolari o‘zgarishi yoki ko‘proq ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Buning natijasida enantosemiyaning tushunmovchiliklari va yangi ma’nolar paydo bo‘ladi.

Enantosemiyani fahmlashda kontekstning o‘rni ma’no yechimida katta o‘rin tutadi albatta. Kontekst — enantosemiyaning ajralib chiqishi va tushunmovchilikni keltirib chiqarishi uchun asosiy omildir. Agar kontekst aniq bo‘lmasa, metaforalar va enantosemik so‘zlar yangi, kutilagan yoki adashtiruvchi ma’nolarni ishlatiladi. Qarama-qarshi ma’nolarni olishda kontekst yordam beradi.

NATIJALAR. Metaforalar va enantosemiyaning tilshunoslikdagi ahamiyati haqida gap borganda tilning ichki semantik imkoniyatlarini cheksiz darajada kengaytirishini ta’kidlash joiz bo‘ladi. Tilshunoslikda metaforalar va enantosemiyaga alohida e’tibor qaratilgan. Ular tilning dinamik tabiati va qo‘llanishining turli qirralarini tushunishda yordam beradi. Shunday qilib, enantosemiyaning chuqurlashgan tushunish va metaforalarning ko‘rsatishi tilning yoritish imkoniyatlarini kengaytirib, undagi ijodiy va ma’naviy kuchni orttiradi. Metaforik birliklarda enantosemiya ko‘pincha kirib keladi. Masalan, biror so‘z yoki ibora, bir xil kontekstda bir ma’noni, boshqa kontekstda esa to‘g‘ri yoki qarama-qarshi ma’noni bildirishi mumkin. Buning natijasida to‘g‘ri va mantiqiy tushunishda tushunmovchiliklar va shubhalar yuzaga kelishi mumkin. Enantosemik xususiyatlar metaforalarning turli jihatlarida namoyon bo‘ladi, chunki ular kontekstga ko‘ra o‘zgarib turadi. Masalan, *Yo‘l*: Metafora sifatida “yo‘l” so‘zi ko‘p turli ma’nolarda ishlatiladi: to‘g‘ridan-to‘g‘ri: “Yo‘lni tutashtirib, uyga borishingiz mumkin”. Metaforik: “Yo‘lning oxiri ko‘rinar” (Hayotdagi hal qilishlar yoki qarorlar). *Yordam:* to‘g‘ridan-to‘g‘ri: “Yordamga chaqirib turgan bo‘lsak...” Metaforik: “Yordam berish yo‘lida juda ko‘p kurashlar bor” (hayotdagi to‘siqlar, affektiv ma’no).

XULOSA. Demak, metafora va enantosemiya o‘rtasidagi munosabatni o‘rganish va tadqiq qilish turli qarashlar va mulohazalarni keltirib chiqargan. Ba’zi olimlar ular o‘rtasida bog‘liqlik juda ko‘p deb ta’kidlashsa, boshqalari semantik ma’noning kengayishi va o‘sishidan kelib chiqadi deb hisoblashadi. Bizningcha, semantik ma’no til doirasida keng imkoniyatlarga ega maydon bo‘lgani uchun insonlar nutqida turli variantlar va qatlamlarni yuzaga keltirishi mumkin. Bu holat tilning eng keng imkoniyatilaridan biri sifatida baholash mumkin. Semantik ma’nolarning bir-biridan kelib chiqishi va o‘zaro bog‘liqligi qonuniyatdek tuyulganda, enantosemiya hodisasida ma’no o‘ziga qarama-qarshi tomonga kengayishi tilning semantik maydonining yangi bosqichini belgilaydi. Metaforalar enantosemiyaning amaliy va ijodiy ko‘rinishini tashkil etadi. Metaforalar qarama-qarshi ma’nolarni tasvirlashda yo‘l qo‘yishadi, shuning uchun ular enantosemik xususiyatlarga ega bo‘lishi tabiiy.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. A.Madvaliyev. Stilistik vositalarning lingvopragmatik tahlili.
2. O.Mamatqulov. Leksikologiya va frazeologiya asoslari.
3. I.Saidova. O‘zbek tilida so‘z o‘yinlarining lingvopragmatik xususiyatlari.
4. R.Sultonova. Til va madaniyat: lingvokulturologik tadqiqotlar.
5. Sharasulova,S.(2023). Semantic-syntactic features of the adjective in the simple sentence in the uzbek language as the present case. International Journal of Advance Scientific Research, 3(11), 374-376.
6. Sharasulova,S. (2023). Semantic-syntactic features of the adjective in the uzbek language as a locative case of an adjective in a simple sentence. current research journal of philological sciences, 4(10), 36-42.
7. Sharasulova,S. (2021). The Subject Of A Qualitative Device In The Sentence Acts As A Secondary Predicate Object In Uzbek Language. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(05), 475-481.
8. Sh.Sharasulova. O‘zbek tilida so‘z o‘yinlari va metaforalarlarning semantic sintaktik tadqiqi masalalari. //@Til va adabiyot.uz. 12-son-2025-y.

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 82-312.9:17.023.34(73)

THE DYNAMICS OF HUMAN-ROBOT INTERACTION IN ISAAC ASIMOV'S "THE CAVES OF STEEL"

Akhmedov Rafael Sharifovich, Senior Lecturer,
Gulistan State University

AYZEK AZIMOVNING "PO'LAT G'ORLAR" ASARIDA INSON VA ROBOT O'ZARO MUNOSABATINING DINAMIKASI

Axmedov Rafael Sharifovich, katta o'qituvchi,
Guliston davlat universiteti

ДИНАМИКА ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ЧЕЛОВЕКА И РОБОТА В РОМАНЕ АЙЗЕКА АЗИМОВА «СТАЛЬНЫЕ ПЕЩЕРЫ»

Ахмедов Рафаэль Шарифович, старший преподаватель
Гулистанского государственного университета

https://orcid.org/0000-0002-1583-1953
e-mail: raphael.akhmedov.84@gmail.com

***Abstract**: This article examines the sociocultural and philosophical dimensions of human-robot interaction in Isaac Asimov's "The Caves of Steel". Through a close reading of characters, themes, and social constructs, the study reveals Asimov's attempt to reconcile scientific rationality and human emotion, positioning writer's work as one of the foundational texts in social science fiction.*

***Keywords**: science fiction, Asimov, robotics, human–robot interaction, C/Fe culture, sociological fiction, technological ethics.*

***Annotatsiya**: Maqolada Ayzek Azimovning "Po'lat g'orlar" romanida inson va robot o'zaro munosabatining ijtimoiy-madaniy hamda falsafiy jihatlari tahlil qilinadi. Asardagi obrazlar, mavzular va ijtimoiy tuzilmalarni chuqur tahlil qilish orqali tadqiqot Azimovning ilmiy ratsionalizm va insoniy hissiyotlarni uyg'unlashtirishga bo'lgan urinishini ochib beradi hamda yozuvchining asarini ijtimoiy ilmiy fantastikaning asosiy matlardan biri sifatida namoyon etadi.*

***Kalit so'zlar**: ilmiy fantastika, Ayzek Azimov, robototexnika, inson-robot munosabatlari, C/Fe madaniyati, sotsiologik fantastika, texnologik etika.*

***Аннотация**: В статье рассматриваются социокультурные и философские аспекты взаимодействия человека и робота в романе Айзека Азимова «Стальные пещеры». Через анализ персонажей, тем и проблематики показана попытка автора примирить научный рационализм и человеческие эмоции, определив роман как один из ключевых текстов социальной научной фантастики.*

***Ключевые слова**: научная фантастика, Айзек Азимов, робототехника, взаимодействие человека и робота, культура C/Fe, социальная фантастика, технологическая этика.*

Introduction. Isaac Asimov's "The Caves of Steel" (1954) represents one of the most sophisticated intersections of science fiction and detective narrative in modern literature [1]. In fact, blending the conventions of speculative fiction with the logical structure of a detective mystery, Asimov constructs a futuristic world in which the relationship between humans and robots becomes both a social and philosophical experiment [2, p.530]. The central narrative follows Detective Elijah Baley and his robotic partner R. Daneel Olivaw as they investigate a murder that serves as a catalyst for exploring

humanity's evolving dependence on technology. Yet, as the investigation unfolds, the novel's true mystery lies not in the crime itself but in the human struggle to accept artificial intelligence as a natural extension of civilization. This study seeks to analyze "The Caves of Steel" through the lens of sociological and philosophical science fiction, emphasizing Asimov's treatment of technological ethics, his concept of "C/Fe culture," and the transformation of character as a metaphor for societal adaptation.

Literature Review. Asimov's contribution to science fiction lies in his synthesis of scientific rigor with humanist concerns. Critics such as Aldiss and Wingrove (2000) have noted that "The Caves of Steel" marks the creative pinnacle of Asimov's career, serving as a personal benchmark for his exploration of rational systems and ethical dilemmas [4]. Aldiss identifies Asimov's innovation in merging the detective story with the speculative form, describing Baley and Olivaw as "Sherlock Holmes and Dr. Watson of the future" [4, p.298]. Yet, unlike Doyle's partnership, Asimov's duo transcends mere companionship: they embody the synthesis of human intuition and mechanical logic [3, p.14].

The novel exemplifies what James Gunn terms "intellectual science fiction" [10, p.28] – narratives in which speculation about the future functions as a mode of philosophical inquiry rather than escapist fantasy.

Bartolotta and Chaleila observe that Asimov's robots are not menacing machines but ethical agents operating within the boundaries of the "Three Laws of Robotics" [7; 8], an imaginative construct that simultaneously ensures safety and provokes moral ambiguity.

Chaves extends this interpretation by asserting that Asimov's fiction envisions the reconciliation of humanity with its technological creations [9, p.61]. While Akhmedov argues that the partnership between Baley and Olivaw anticipates the emergence of a Galactic Empire, symbolizing a new stage of human freedom grounded in cooperation rather than domination [3, p. 16]. Similarly, Aronoff posits that the protagonists in science fiction often represent collective archetypes rather than individualized psyches [5, p.17]. In Asimov's narrative, characters serve as sociological instruments through which broader patterns of adaptation, fear, and acceptance are dramatized.

Váňa emphasizes that science fiction functions as a critical lens through which readers evaluate the evolution of human society [12]. While Husing insists that in technologically deterministic worlds, individuality gives way to systemic behavior, and characters act as mediators of sociopolitical transformation [11]. In this light, "The Caves of Steel" reflects Asimov's belief that the survival of humanity depends on its ability to integrate technology into the moral and emotional framework of civilization.

Materials and Methods. The methodology employed in this study combines literary analysis with sociocultural interpretation. Using close reading as a primary tool, the article examines the symbolic and thematic structures that underlie "The Caves of Steel". Key scenes, dialogues, and character dynamics are analyzed to reveal how Asimov's fictional world mirrors mid-twentieth-century anxieties about automation, urbanization, and the erosion of individuality. The analysis also employs a comparative framework, situating Asimov's narrative within the broader tradition of social science fiction. The study draws on critical theory – particularly postindustrial sociology and technological ethics – to explore how Asimov's "C/Fe culture" symbolizes the hybridization of human and mechanical existence. By reading "The Caves of Steel" as both a cultural artifact and a speculative hypothesis, the research demonstrates that Asimov's vision transcends genre boundaries, offering an early articulation of posthumanist thought.

Results. The literary analysis of themes and motifs reveals that "The Caves of Steel" not only dramatizes the conflict between human emotion and artificial intelligence but also examines broader sociological questions about technological progress, urban confinement, and the ethics of coexistence between human and machine. Asimov's novel operates on two interrelated levels: the detective framework and the sociological allegory. On the surface, the plot revolves around the investigation of a murder within a rigidly stratified urban society. Beneath this narrative lies a deeper exploration of human prejudice, technological dependence, and the ethical implications of coexistence with artificial beings.

1. Human Prejudice and Technophobia. At the beginning of the novel, Elijah Baley epitomizes the Earthman's fear of robots. His irritation toward R. Sammy, a simple office robot, encapsulates societal anxiety about automation displacing human labor. Asimov's depiction of anti-robot sentiment reflects mid-century concerns about industrialization and

mechanization. Baley's gradual transformation – from distrust to respect for R. Daneel Olivaw – mirrors the novel's central philosophical trajectory: the evolution of human consciousness toward technological acceptance.

2. The Ethical Intelligence of the Robot. R. Daneel Olivaw embodies the convergence of logic and morality. His positronic brain, governed by the Three Laws of Robotics, ensures moral restraint but also introduces complexity. His ability to perform "cerebroanalysis" – the reading of emotional and psychological states – positions him as a figure of empathy paradoxically surpassing human understanding. Asimov thereby subverts the binary opposition of man versus machine, suggesting that rational ethics may complement, rather than oppose, human emotion.

3. The Concept of C/Fe Culture. Central to Asimov's sociological vision is the notion of C/Fe culture – a symbolic fusion of carbon (C), representing biological life, and iron (Fe), representing mechanical existence. Through this metaphor, the writer advocates a symbiotic civilization where humans and robots coexist as partners in progress. Dr. Fastolfe's dialogue articulates the necessity of this synthesis for the survival of the species, positing that the fusion of human adaptability and robotic precision could overcome the stagnation of Earth's overcrowded "steel caves".

4. Transformation of the Protagonist. Baley's intellectual and emotional development reflects Asimov's broader message about humanity's capacity for growth. His friendship with Olivaw transforms his perception of robots from competitors to collaborators. The final scene, in which Baley admits admiration for Olivaw, marks the culmination of this moral evolution. The detective's journey from prejudice to enlightenment parallels humanity's potential to transcend fear and embrace progress.

5. Society as Collective Protagonist. Following Aronoff's framework, the characters in the novel act less as individuals and more as representatives of social systems [5]. The urban environment – dense, artificial, and claustrophobic – serves as both a setting and a character, embodying the mechanization of human existence. The anonymity of the "City" underscores the loss of individuality in industrial civilization [1], a condition Asimov treats not as a tragedy but as a stage in social evolution.

Discussion. Asimov's "The Caves of Steel" occupies a unique position in the history of science fiction by uniting scientific speculation with social realism. His world-building extends beyond technological imagination to encompass psychological and ethical reflection. The human-robot relationship becomes a metaphor for the dialogue between science and humanity, where cooperation replaces fear as the guiding principle of progress.

The narrative's sociological depth stems from its depiction of the "City" as both protection and prison. The "steel caves" represent humanity's self-imposed confinement – an allegory for modernity's paradox of technological advancement and existential isolation [1, p. 44]. Within this controlled ecosystem, Asimov examines how economic and social forces shape human behavior. As Váňa suggests, the bureaucratization of knowledge and collectivization of society result in depersonalization [12, p.139], yet Asimov reimagines this loss of individuality as an opportunity for collective transformation.

The partnership between Baley and Olivaw epitomizes this synthesis. While Baley embodies intuition, emotion, and ethical struggle, Olivaw represents reason, precision, and moral objectivity. Their interaction generates a dialectic that dissolves the boundaries between human and machine, prefiguring later posthumanist discourse. By attributing emotional and moral reasoning to a robot, Asimov questions the exclusivity of human consciousness and anticipates contemporary debates on artificial intelligence ethics.

Furthermore, Asimov's vision extends to political and ecological dimensions. The overcrowded Earth and the sterile perfection of the Spacers symbolize two extremes of civilization – one decaying through overpopulation and fear, the other stagnating through isolation and technological arrogance. The proposed colonization of new planets through C/Fe cooperation becomes a metaphor for humanity's potential renewal through balance and integration. This idea resonates with Husing's claim that Asimov's ultimate faith lies in the rational expansion of civilization into the cosmos, guided by ethical reason rather than conquest [11, p.52].

In gender terms, Asimov's minimal portrayal of women, exemplified by Baley's wife Jessie, has drawn criticism from feminist scholars. Yet, within the narrative's structural logic, this absence underscores the depersonalization of society itself.

Characters function as social archetypes rather than psychological individuals. As Akhmedov argues, science fiction often replaces individual character with collective identity, reflecting systemic rather than personal evolution [3, p.15].

Ultimately, "The Caves of Steel" proposes that human survival depends not on rejecting technology but on harmonizing with it. Baley's acceptance of Olivaw symbolizes a moral awakening, a recognition that rational ethics and human compassion need not be mutually exclusive. Through this synthesis, Asimov transforms a detective narrative into a philosophical treatise on coexistence.

Conclusion. Isaac Asimov's "The Caves of Steel" remains a foundational text in the evolution of social science fiction. By integrating technological speculation with psychological realism, Asimov transcends the boundaries of genre to address enduring questions about humanity's relationship with its creations. His portrayal of Baley and Olivaw as complementary figures illustrates the potential for reconciliation between human emotion and artificial intelligence. The novel's emphasis on the C/Fe culture encapsulates Asimov's utopian vision of a cooperative future in which science and humanity progress together. Far from presenting robots as threats, Asimov envisions them as mirrors reflecting human virtues and flaws alike. His message, ultimately, is one of optimism: that through understanding, empathy, and rational ethics, humanity can master technology without losing its soul.

References:

1. Abbott, C. (2016). *Imagining Urban Futures: Cities in Science Fiction and What We Might Learn from Them*. Middletown: Wesleyan University Press. 246 p.
2. Akhmedov, R. Sh. (2025). *Social and Philosophical Problems as Narrative-Forming Context in the "The Caves of Steel"* by Isaac Asimov. Proceedings of International Conference "Issues and Solutions in Foreign Language Teaching Based on Integrative and Competency-Based Approaches", May 12-13, 2025. Namangan: Namangan State University Press. pp. 530-537.
3. Akhmedov, R.Sh. (2022). *Elijah Baley as the Prevailing Character in Isaac Asimov's Detective Science Fiction*. Proceedings of International Conference "Language and Literature", January 30, 2022. Malang: Politeknik Negeri Malang. pp. 13-16. URL: https://zenodo.org/records/7343545.
4. Aldiss, B., Wingrove, D. *Trillion Year Spree: The History of Science Fiction*. Glasgow: Paladin Books, 1988. 699 p.
5. Aronoff, E. (2025). *Culture's Futures: Science Fiction, Form and the Problem of Culture*. Cham: Palgrave Macmillan. 291 p.
6. Asimov, I. (1954). *The Caves of Steel*. New York: Doubleday. 224 p.
7. Bartolotta, S. (2025). The Impossible No: Disciplinary Boundaries and the Problem of Science in Literary and Science Fiction Studies. Neohelicon, 52(1). URL: https://link.springer.com/article/10.1007/s11059-025-00816-6
8. Chaleila, W. A. (2025). Frankenstein's Legacy: Utopian and Dystopian Visions in an AI-Driven World. *Journal of Posthumanism, 5*(6), 3491-3509. DOI: https://doi.org/10.63332/joph.v5i6.2477
9. Chaves, K. G. (2025). Science Fiction and the Challenge of Genre Technological Metaphor, Utopian Structure, and the Limits of Ricœur's Hermeneutics of Fiction. *Ricœur Studies, 16*(1), 55-73. DOI 10.5195/errs.2025.705
10. Gunn, J. (2000). *The Science of Science-Fiction Writing*. Lanham: Scarecrow Press. 246 p.
11. Husing, Z. (2019). Human Interactions with Technology: Investigating the Posthuman in HBO's 'Westworld'. *Messages, Sages and Ages, 7*(1), 44-58. DOI: 10.5281/zenodo.3367816
12. Váňa, J. (2025). Towards Cultural Sociology of Literature: The Case of Science Fiction. *Thesis Eleven, 188*(1), 135-140. URL: https://journals.sagepub.com/doi/10.1177/07255136241312270

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 821.161.1

KOMEDIYA VA KOMIZMNING ILMIY NAZARIY TALQINLARI: O‘ZBEK ADABIYOTI MISOLIDA

Siddiqova Osiyo Normurod qizi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

SCIENTIFIC AND THEORETICAL INTERPRETATIONS OF COMEDY AND COMICNESS: IN THE EXAMPLE OF UZBEK LITERATURE

Siddikova Osiyo Normurod qizi, PhD student at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

https://orcid.org/0009-0008-8277-1349
e-mail: osiyosiddiqova@gmail.com

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ТРАКТОВКИ КОМЕДИИ И КОМИЗМА: НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Сиддикова Осиё Нормурод кызы, докторант Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Annotatsiya: *Ushbu maqolada komediya janrining ilmiy-nazariy talqinlari o‘zbek adabiyotshunos olimlarining dramaturgiya bo‘yicha ilmiy tadqiqotlari asosida yoritilgan. Xususan, o‘rta asrdan to XIX asrgacha bo‘lgan davr qamrab olinib, Sharq adabiyoti komediya janrining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan.*

Tayanch so‘zlar*: komediya, drama, tragediya, komik xarakter, komik vaziyat, janr.*

Abstract: *This article examines the scientific and theoretical interpretations of the comedy genre based on the scholarly research of Uzbek literary scholars in the field of dramaturgy. In particular, covering the period from the Middle Ages to the 19th century, it analyzes the specific features of the comedy genre in Eastern literature.*

Keywords: *comedy, drama, tragedy, comic character, comic situation, genre.*

Аннотация: *В данной статье научно-теоретические интерпретации жанра комедии освещаются на основе исследований узбекских литературоведов в области драматургии. В частности, охватывая период от Средневековья до XIX века, анализируются специфические особенности жанра комедии в восточной литературе.*

Ключевые слова: *комедия, драма, трагедия, комический характер, комическая ситуация, жанр.*

Kirish. Komediya insoniyat tamaddunining ajralmas qismidir. Komediya orqali odamlar ijtimoiy muammolar, siyosiy voqealar va kundalik hayotdagi kamchilik va nuqsonlarga tanqidiy ko‘z bilan qaray oladi. Bundan tashqari, komediya inson kayfiyatini ko‘tarish, hayotga yangicha nigoh bilan qarash imkonini beradi. Ko‘pincha, kulgi ortidagi mazmun insonlarni o‘ylashga, tafakkur qilishga, tanqidiy fikrlashga undaydi. Shu sababdan, komediya janri

har bir davrda o‘z ahamiyatini yo‘qotmay, rivojlanib, yangilanib kelmoqda.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek adabiyotida o‘tgan asrning elliginchi yillarida Matyoqub Qo‘shjonov, Izzat Sulton, Hafiz Abdusamadov, Berdiali Imomov, G‘ayrat Jalolov, Komil Yashin, Laziz Qayumov, Ozod Sharafiddinov, Yusuf Sultonov, Xatiba Hakimova kabi olimlar drama nazariyasiga oid ilmiy tadqiqotlar, kitoblar, qo‘llanmalar ishlab chiqdilar. Ularning drama nazariyasi bo‘yicha ilmiy izlanishlarini adabiyotshunoslikning yangi bosqichidagi olimlari: Suvon Meliyev, Uzoq Jo‘raqulov, Murodulla Jo‘rayev, Ibodat Rustamova, Abdumurod Nomozov, Abdurahim Soliyev, Abdulla Axranqulov, Nasiba Tursunova kabi olimlar davom ettirdi. Ularning tadqiqotlari drama nazariyasini yanada boyitdi va umumlashtirdi.

Muhokama. Komediya janri o‘zbek adabiyotida G‘arbdagi klassik janr sifatida shakllanmagan bo‘lsa-da, dramaturgiya uchun poydevor bo‘lgan adabiy jarayon mavjud bo‘lgan. Ushbu adabiy jarayon xalq og‘zaki ijodi shaklida bo‘lib, masxarabozlik, qiziqchilik, qo‘g‘irchoqbozlik va turli ommaviy sayillar tarkibida, og‘zaki pyesa shaklidaligi bilan asoslanadi. Uning turli ko‘rinishlarda mavjud bo‘lganligi, madaniy tariximiz bilan chambarchas bog‘liqligi, bu san’at turi sinkretik mohiyatga egaligidan dalolatdir. Sharq uyg‘onish davri vakillari komediya istilohi haqida o‘z mulohazalariga ega bo‘lganlar. Xususan, o‘ziga ma’lum bo‘lgan dunyo ilmi, an’analari, madaniyati, urf-odatlari haqida chuqur bilim va ko‘nikmalariga ega bo‘lgan olim Abu Nasr Forobiy komediya haqida quyidagi fikrlarni aytib o‘tgan: “Komediyaga kelsak, bu she’riyatning ma’lum bir turi bo‘lib, uning ham ma’lum vazni bo‘ladi, unda yomon fe’l-atvorlar zikr qilinadi, odamlar, ularning axloqlarida qoralanadigan va xush ko‘rilmagan tabiatlar hajv qilinadi. Ko‘pincha uning bo‘laklariga ohang-nag‘malar qo‘shilib, ularda ham qoralanadigan xulq-atvorlar eslanadi. Bu eslangan xulq-atvorda inson, hayvon va ikkaloviga aloqador bo‘lgan xunuk shakl-timsollar ishtirok etadi [1]. (Forobiy o‘z adabiy an’analariga tayanib fikr yuritgan. Shuningdek, bu yerda yirik olim komediya deganda janrni emas balki, kulgili holatni nazarda tutgan. O.S). “Forobiy tragediyaga Ibn Rushdga nisbatan aniqroq va mufassal ta’rif beradi”[2]. Qomusiy olimlardan yana biri Abu Ali ibn Sino o‘zining “Salomon va Ibsol” kitobida komediyaga nisbatan tragediyani batafsilroq yoritgan. Kitobning to‘rtinchi fasli “Baytlar miqdorining g‘arazlar bilan munosabati, xususan, tragediya haqida, tragediya bo‘limlari bayoni” – deb nomlangan. Olim: “Geksametr – oltilik va komediyalar xususidagi gapni keyingi qoldiramiz. Zero, tragediya hajv va istehzodan muhimdir”[3], – deb ta’kidlaydi.

“O‘zbek adabiyotshunosligida dramaning professional nazariy talqin Fitratning “Adabiyot qoidalari” kitobida boshlangan” [4]. Olimning tasnifida, dramatik turga nisbatan, “Tomosha” istilohi qo‘llanilgan. “Fitrat drama syujetiga xos bo‘lgan eng muhim belgilar sifatida: bog‘lanish (tugun), borish (voqealar rivoji), bitish (yechim) kabilarni ko‘rsatgan” [5]. Fitratdan keyingi o‘rinda akademik Izzat Sultonov tur haqida quyidagicha fikrlarni ilgari suradi: “Drama aslini olganda, adabiyotning bir turigina emas, u allaqachon adabiyotning chegarasidan chiqib ketgan bir hodisa, uning tahlili endi adabiyot nazariyasidagina emas, balki teatr nazariyasining asosida ham o‘rganiladi”[6]. Bu xususda, adabiyotshunos olim S.Meliyev shunday mulohaza yuritadi. “Dramatik turning har uchala janri ham tragediya, komediya va dramalar bir paytning o‘zida ikki jabha, ham so‘z san’ati, ham teatr san’ati hisoblanadi” [7], – deb o‘z xulosasini bildiradi. I.Sultonov komediyaning o‘ziga xos xususiyatlarini quyidagicha izohlaydi. “Komediya uchun eng xarakterli xususiyat boshida tasvirlangan hayotiy situatsiya asar oxirida teskari bo‘lishi va kulgi obyekti sifatida olingan personajlarning pirovardida “po‘stagi qoqilishi” eng muhim

[1] Абу Наср Фаробий Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. – Б. 162-163.
[2] Meliyev S., Burxanova.F Badiiy tahlil saboqlari o‘quv qo‘llanma – Toshkent: Bio-factor press, 2025. – B. 24.
[3] Абу Али ибн Сино. Саломон ва Ибсол. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат, 1980. – Б. 110.
[4] Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б. 10.
[5] Ko‘rsatilgan manba. B.10.
[6] Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. – Москва. 1985. – С. 355.
[7] Meliyev S. So‘z-u so‘z. – Toshkent: Sharq, 2020. – B.301.

talablardan” [8] hisoblanadi. Bu mulohazalar ayni haqiqat. Tadqiqotimiz obyekti “Maysaraning ishi”, “Tuhmatchilar jazosi”, “O‘n ikkinchi kecha” kabi komediyalaridagi imom, Sulton piyonista, Malvoliyo, Endryu obrazlari olimning “po‘stagi qoqilishi” iborasiga ayni mos personajlardir. Ushbu personajlar o‘z qilmishlari tufayli jazolanib, hammaning oldida kulgili vaziyatga tushib qoladilar. Shuningdek, olim “dramatik asarlarning potensial imkoniyatlari to‘la ochilishi uchun sahnaga qo‘yilishi zarurligini [9] uqtiradi. Bundan tashqari, I.Sultonovning “Dramaning spetsifik xususiyati kollektiv sezimga mo‘ljallanganligi” [10] – degan, fikriga adabiyotshunos olim B.Imomov qarshi chiqadi. Adib o‘z qarashlarini “sirk, konsert, oqinlarning dostonlari ham kollektiv sezimga mo‘ljallanganligiga qaramay, ular pyesa bo‘la olmaydi”[11] – deb, o‘z mulohazalarini dalillaydi. Bu yerda har ikkala olimning fikr-mulohazalarida aniqlik va chalg‘ishlik kuzatiladi. Zero, hech bir jonzot Yaratuvchi kabi mukammal bo‘lmaganidek, tadqiq etilayotgan ishlar ham kamchiliksiz bo‘lmaydi. Birinchidan, “kollektiv sezim” dramatik asarlarning o‘ziga xos xususiyati bo‘lmasa-da, aloqador sifatlaridan biri hisoblanadi. Ikkinchidan, “kollektiv sezim” ga bog‘liq bo‘lganligi uchun sirk, konsert va hokazo tomoshalarni dramatik asarlar bilan taqqoslash jo‘ndek, nazarimizda. Drama nazariyasi bo‘yicha ilmiy izlanish olib borgan olimlardan yana biri Hafiz Abdusamadovdir. Adabiyotshunos olim dramaning uch asosiy janridan tashqari, mana shu janrlarning o‘ziga xos xillari haqida ham aytib o‘tgan. Tadqiqotchining e’tiroficha, ular: “vodevil, melodrama, fars, intermediya, tragikomediya va boshqalardir” [12]. Tadqiqotchi Erkin Umarov esa komediyaning “satirik, maishiy, lirik, qahramonlik, vodevil, fars, ekstentriada”[13] kabi turlarini sanab o‘tgan.

Natija. Yuqoridagi fikrlarga to‘la qo‘shilmagan holda, uch asosiy janrdan tashqari, turlarning keyingi taraqqiyotida vujudga kelgan tragikomediya va melodramani mazkur janrlar qatoriga qo‘shib, janrlarni beshta deya e’tirof etishni lozim topdik. Faqat, tragikomediya va melodramani qo‘shimcha janr sifatida e’tirof etishni unutmaslik kerak. Tragediya, komediya, drama (asosiy janrlar), tragikomediya, melodrama (qo‘shimcha janrlar). Janrning xillari deya e’tirof etilgan satirik, maishiy, fars, intermediya, vodevil kabilarni ma’lum janrni yuzaga chiqaruvchi usullari deb, ularning qatoriga yana satira, yumor, karikatura, grotesk, parodiya, giperbola kabilarni qo‘shish mumkin. Ya’ni, dastavval tragediya paydo bo‘ldi va unga hamohang tarzda komediya rivojlandi. Ikki janrning tadriji esa dramaga asos bo‘ldi. Tragediya, komediya va dramalarni uch janrga ajratgan holda, hozirgi adabiy jarayonda, mazkur janrlarning taraqqiyoti orqali vujudga kelgan tragikomediya va melodrama esa qo‘shimcha janrlar demakdir. Dramaning barcha turlari: tragediya, komediya va dramalar o‘z mohiyatiga ko‘ra, bir-biridan ajratib turuvchi spetsifik xususiyatlarga ega. “Tragediya (yunon. Tragos – echki qo‘shig‘i) qahramonlarning ruhiy kolliziyaga asoslanadigan, g‘oyatda jo‘shqin, ehtirosli, ta’sirli va oqibati fojia bilan tugaydigan dramatik janr” [14] hisoblanadi. Komediyadan farqli o‘laroq, tragediyada umumbashariy muammolar, tarixiy fojialar, o‘tkir antagonistik vaziyat, bir qator tragik kontrastlar asosiga qurilgan keskin konflikt shaklida ifodalanadi. Bir so‘z bilan aytganda, tragediya asosiga qo‘yilgan situatsiyalar dinamikasida yechim bo‘lmaydi. Aynan, shu xususiyatlari bilan yechim mavjud bo‘lgan, kundalik muammolarga bag‘ishlanadigan komediyadan farqlanadi. Tragediyada komediyaga nisbatan ruhiy kolliziya kuchli berilib, undagi ulug‘vor va favqulodda qahramonlarning ichki psixologiyasidagi tushkunlik ochiladi.

Xulosa. Sharq adabiyotida komediya janri dastlab diniy-axloqiy me’yorlar bilan chegaralangan bo‘lib, kulgi ko‘proq tarbiyaviy jihatlariga xizmat qilgan. Sharqda islomiy urf-odatlar bo‘yicha masxara, hajv va qo‘pol kulgi salbiy baholangan. Komediya janri estetik xususiyat jihatidan ramziy, majoziy, metaforik, didaktik ruh ustuvor bo‘lgan. Janrning rivojlanishi Sharqda jadid adabiyoti davrida ijtimoiy tanqid va milliy uyg‘onish vositasi sifatida shakllangan.

[8] Ko‘rsatilgan manba. B. 282

[9] Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 257.

[10] Ko‘rsatilgan manbaa. B.282.

[11] Имомов Б. Драматургик маҳорат сирлари. – Тошкент: Ғ.Ғ.ном.. наш.мат. бир., 1991. – Б. 6.

[12] Абдусаматов Ҳ. Драма назарияси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат, 2000. – Б. 15.

[13] Умаров Е., Пал И. Жанр эстетикаси. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б.90.

[14] Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – В. 513.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Meliyev S. So‘z-u so‘z. – Toshkent: Sharq, 2020. – B.301.
2. Meliyev S., Burxanova F. Badiiy tahlil saboqlari o‘quv qo‘llanma – Toshkent: Bio-factor press, 2025. – B. 24.
3. Абдусаматов Ҳ. Драма назарияси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат, 2000. – Б. 15.
4. Абу Али ибн Сино. Саломон ва Ибсол. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат, 1980. – Б. 110.
5. Абу Наср Фаробий Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. – Б. 162-163.
6. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – В. 513.
7. Ғуломов Б. Баҳсимиз давом этсин. // Ўзбек тили ва адабиёти. 1966. 3-сон. – Б. 112.
8. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б. 10.
9. Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 57.
10. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – Б. 257.
11. Имомов Б. Драматургик маҳорат сирлари. – Тошкент: Ғ.Ғ.ном. наш.мат. бир., 1991. – Б. 6.
12. Қўшжонов М. Абдулла Қаҳҳор ижодида сатира ва юмор. – Тошкент: Фан, 1973. – Б.91.
13. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. – М.: 1985. – С. 355.
14. Умаров Е., Пал И. Жанр эстетикаси. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б.90.
15. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1963. – Б.160.
16. Чернишевский Н.Г. Собр.Соч.В.5-Х Томах Т. 4 – М.: Правда, 1974. – С.187.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 81'255. 2: 82-84

РАЗРАБОТКА ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ТИПОЛОГИИ ПЕРЕВОДИМОСТИ АНЕКДОТОВ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ

Довлетов Шукурулла Атаназарович, самостоятельный соискатель Ургенчского государственного университета

DEVELOPMENT OF A FUNCTIONAL TYPOLOGY OF JOKE TRANSLATABILITY IN A LINGUO-CULTURAL ASPECT

Dovletov Shukurulla Atanazarovich, independent PhD student at Urgench State University

LINGVOMADANIY JIHATDAN LATIFALAR TARJIMASINING FUNKSIONAL TIPOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

Dovletov Shukurulla Atanazarovich, Urganch davlat universitetining mustaqil doktoranti

https://orcid.org/0009-0003-4745-4288
e-mail: shdovletoff@proton.me

Аннотация: *Статья посвящена комплексному анализу переводимости анекдотов как культурно-специфического жанра, в котором взаимодействуют языковые, когнитивные и ценностно-семиотические структуры. На основе интеграции методологий В.Раскина, С.Аттардо, Ю.М.Лотмана, А.Вежбицкой, В.Н.Телии, В.В.Воробьёва и В.И.Карасика разработана функциональная типология переводимости анекдотов. В ней предложен алгоритм перевода, сочетающий когнитивно-сценарный анализ с декомпозицией культурных смыслов через естественный семантический метаязык (ЕСМ). Показано, что юмор переводим лишь при сохранении функциональной роли анекдота – его когнитивного и культурного эффекта, а не формальной структуры.*

Ключевые слова*: лингвокультурология, перевод, функциональная типология, культурные сценарии, межкультурная коммуникация, юмор, семиотика.*

Abstrakt: *Ushbu maqolada lingvistik, kognitiv va qiymat-semiotik tuzilmalar o‘zaro ta’sir qiluvchi madaniy jihatdan o‘ziga xos janr sifatida hazillarning tarjima qilinishining keng qamrovli tahlili keltirilgan. V.Raskin, S.Attardo, Yu.M.Lotman, A.Vejbitskaya, V.N.Telia, V.V.Vorobyov va V.I.Karasikning integratsiyalashgan metodologiyalari asosida hazilning tarjima qilinishining funksional tipologiyasi ishlab chiqilgan. Unda kognitiv-senariy tahlilini tabiiy semantik metatil (NSM) orqali madaniy ma’nolarning parchalanishi bilan birlashtirgan tarjima algoritmi taklif qilingan.*

Kalit so‘zlar: *madaniy tilshunoslik, tarjima, funksional tipologiya, madaniy senariylar, madaniyatlararo muloqot, hazil, semiotika.*

Abstract: *The article is devoted to a comprehensive analysis of the translatability of anecdotes as a culturally specific genre in which linguistic, cognitive, and value-semiotic structures interact. Based on the integration of the methodologies of V.Raskin, S.Attardo, Yu.M.Lotman, A.Wierzbicka, V.N.Telia, V.V.Vorobyov, and V.I.Karasik, a functional typology of the translatability of anecdotes has been developed. The typology proposes a translation algorithm that combines cognitive-script analysis with the decomposition of cultural meanings through the Natural Semantic Metalanguage (NSM).*

Keywords*: linguoculturology, translation, functional typology, cultural scripts, intercultural communication, humor, semiotics.*

ВВЕДЕНИЕ. Перевод анекдотов представляет собой одну из наиболее сложных задач современного переводоведения. Его изучение позволяет выявить специфику

национального менталитета и механизмы вербальной адаптации социума к изменяющимся условиям. При межъязыковой передаче анекдоты сталкиваются с проблемой полной или частичной непереводимости, обусловленной культурным контекстом или языковой игрой.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД. Традиционные подходы перевода, такие как формальный или лексико-грамматический, оказываются недостаточными для воспроизведения комического эффекта. Поэтому необходим комплексный метод, соединяющий когнитивные, семиотические и культурно-сценарные уровни анализа.

Цель данного исследования – разработать функциональную типологию переводимости анекдотов, позволяющую классифицировать тексты по степени и характеру переводческих трудностей и определить стратегии их передачи.

Задачи исследования: выявить факторы, влияющие на переводимость юмора; определить и описать основные барьеры перевода; разработать типологию анекдотов по функциональному признаку; сформулировать алгоритм выбора переводческой стратегии.

Объект – анекдот как жанр юмористического дискурса.

Предмет – механизмы и стратегии его перевода в межкультурном аспекте.

Актуальность разработки функциональной типологии переводимости анекдотов определяется несколькими факторами:

– отсутствием в современной теории и практике перевода единой систематизированной модели работы с юмористическими текстами, обладающими культурной спецификой;

– потребностью в эффективных инструментах для межкультурной коммуникации, где юмор выступает как маркер культурной компетенции;

– необходимостью минимизации коммуникативных сбоев, вызванных неадекватным восприятием юмора в дипломатической, деловой и образовательной сфере.

Научная новизна исследования заключается в предложенной комплексной типологии, классифицирующей анекдоты не по тематике, а по степени и характеру переводческих трудностей.

Материалы и методы исследования основаны на корпусе из 600 анекдотов, по 300 текстов на каждом языке – русском, и английском. Корпус формировался из: печатных сборников анекдотов (для русского и английского языков – 1970–2020 гг); интернет-ресурсов (форумы, юмористические сайты, социальные сети) и стенографированных устных рассказов.

ОБСУЖДЕНИЕ. Для включения в корпус анекдоты должны были удовлетворять следующим критериям: наличие вербально выраженного комического эффекта (игра слов, ситуация несоответствия, неожиданная развязка); наличие культурно-специфических элементов (реалий, прецедентных имен, этностереотипов); завершённость повествовательной структуры (setup + punchline по модели Раскина).

На первом этапе анализа производилось идентификация барьеров переводимости. На основе контрастивного анализа выделены четыре группы барьеров:

1. Лингвистические – игра слов, полисемия, паронимия, грамматические особенности;
2. Культурно-специфические – реалии, прецедентные тексты, этностереотипы;
3. Социально-идеологические – табу, политические аллюзии;
4. Когнитивные – различия в моделях знаний и логике комичного.

Для когнитивно-сценарного анализа (по В.Раскину, С.Аттардо [1]), каждому анекдоту сопоставлялись два сценария – буквальный и несоответствующий, создающий комический эффект.

[1] Attardo S. Linguistic Theories of Humor. – Berlin: Mouton de Gruyter, 1994. – 426 p.

Для семиотической интерпретации (Ю.М.Лотман [2]), рассматривался переход анекдота из одной семиосферы в другую при переводе – какие культурные знаки сохраняются или трансформируются.

Для выявления универсальных смыслов анекдоты декомпозировались на семантические примитивы с применением ЕСМ (А.Вежбицкая [3]): люди, думать, делать, хорошо/плохо, смешно, знать, другой, потому что и т.д.

Пример анализа анекдота с применением ЕСМ

– Почему ты не идёшь на работу?

– Потому что начальник сказал: «Без меня ни шагу!»

1. Когнитивный анализ (по Раскину):

Setup: просьба идти на работу.

Punchline: буквальное понимание идиомы «без меня ни шагу».

Комизм: конфликт между фразеологическим значением («не действуй без моего ведома») и буквальным.

2. ЕСМ – декомпозиция (фрагмент):

кто-то сказал другому: «Не делай ничего, если меня нет».

Этот другой подумал: «Если этого человека нет, я не должен идти».

Люди думают: это смешно, потому что другой понял слова не так, как говорящий хотел.

3. Перевод на английский.

Буквальный перевод утрачивает игру слов. Комизм компенсируется с помощью аналогичной идиомы:

– Why aren't you working?

– Because my boss told me: "Don't move a muscle without me".

ЕСМ-анализ позволяет выделить универсальное ядро («ошибочное буквальное понимание идиомы») и подобрать аналог в целевом языке, обеспечивая функциональную эквивалентность юмора. На основании анализа корпуса сформулирована трёхуровневая типология, определяющая степень переводимости и оптимальные стратегии. Данная типология интегрирует достижения когнитивного, семиотического и лингвокультурологического подходов, рассматривая перевод как переход между различными семиосферами (таб. № 1).

Таблица № 1

Тип	Характеристика	Пример	Переводческая стратегия
Универсальные	Основаны на общечеловеческих ситуациях, эмоциях, физиологических процессах. Комизм – ситуационное несоответствие.	Семейные ссоры, опоздания, бытовые нелепости.	Прямой перевод или лёгкая адаптация.
Культурно-кодированные	Содержат национальные реалии, прецедентные имена, социальные стереотипы. Требуют фоновых знаний.	Вовочка, Штирлиц, Афанди, анекдоты о королевской семье.	Локализация, транскреация или пояснение.
Каламбурные (языковые)	Комизм основан на игре слов, омонимии или грамматических особенностях.	«Местный – тутовый» / *"Local – silky"*	Функциональная замена или компенсация.

[2] Лотман Ю. М. Семиосфера. – СПб.: Искусство-СПБ, 2000. – 704 с.

[3] Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, [пер. с англ.] / Анна Вежбицкая ; отв. ред. и сост. М. А. Кронгауз ; вступ. ст. Е. В. Падучевой. 1996. – 412 с.

Тип 1. **Универсальные анекдоты** (высокая переводимость). Семантически такие анекдоты включают в себя общечеловеческие темы – быт, отношения, эмоции, физиология. Механизм комического строится на ситуационном несоответствии. Стратегия перевода предусматривает прямой перевод или лёгкую адаптацию. Например: шутки о неловких ситуациях в транспорте, семейных ссорах.

Тип 2. **Культурно-кодированные анекдоты** (ограниченная переводимость). Семантика таких анекдотов это, национально-специфические сценарии, прецедентные образы, социальные стереотипы. Стратегия перевода: локализация (замена культурного компонента функциональным аналогом) или транскреация. Например: замена персонажей («Вовочка» → «little Johnny»; «Ходжа Насреддин» → «wise fool»). Допустимым вариантом можно считать сопровождение перевода пояснением или примечанием.

Тип 3. **Языковые (каламбурные) анекдоты** (низкая переводимость).
Семантика основана на фонетической, морфологической или лексической игре слов. Стратегия перевода включает в себя функциональную замену или компенсацию. Например: игра слов «местный» / «тутовый».

– *Простите, вы шелкопряд?*
– *Да.*
– *Местный?*
– *Ага. Тутовый.*

При переводе создаётся новый каламбур, вызывающий сходный перлокутивный эффект, например:

– *Are you a spinner*?
– *Yes.*
– *Local?*
– *Sure, silky.*

РЕЗУЛЬТАТЫ. Алгоритм применения типологии включает в себя: диагностику (определение механизма комического эффекта и тип барьеров), классификацию (отношение текста к соответствующему типу) и выбор стратегии – подобрать оптимальный приём перевода (прямой, локализация, транскреация, компенсация).

Применение ЕСМ в сочетании с когнитивно-сценарным и лингвокультурологическим подходами обеспечивает выявление функциональных эквивалентов юмора при переводе. Разработанная типология позволяет стандартизировать процесс анализа и предсказуемо выбирать стратегию перевода в зависимости от природы анекдота.

Типология интегрирует достижения лингвокультурологии (В.Н.Телия [1], В.В.Воробьёв, В.И.Карасик [2]), семиотики (Ю.М.Лотман) и теории культурных сценариев (А.Вежбицкая), что позволяет рассматривать перевод как переход между разными «семиосферами».

Функциональная типология решает ряд практических задач:

– создание методики перевода юмористических текстов в межкультурной коммуникации;

– обучение переводчиков и преподавателей иностранного языка принципам функционального эквивалента;

– формирование корпусов анекдотов с аннотацией уровней переводимости;

– исследование национальных особенностей смеховой культуры.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Таким образом, предложенная классификация – это не строгая система, а адаптивный инструмент, основанный на подробном лингвокультурологическом исследовании. Её применение позволяет не просто переводить отдельные слова, а осуществлять семиотический перенос между культурами, обеспечивая правильное понимание юмора как важной части культуры.

[1] Телия В. Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.

[2] Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 476 с.

TAMADDUN NURI

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари. [пер.с англ.]/Анна Вежбицкая; отв. ред. и сост. М.А.Кронгауз ; вступ. ст. Е.В.Падучевой. 1996. – 412 с.
2. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 476 с.
3. Лотман Ю.М. Семиосфера. – СПб.: Искусство-СПБ, 2000. – 704 с.
4. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.
5. Attardo S. Linguistic Theories of Humor. – Berlin: Mouton de Gruyter, 1994. – 426 p.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 144-07

GENDER MUNOSABATLARINING DINAMIKASI

Komilov Abror Quvondiqovich, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

DYNAMICS OF GENDER RELATIONS

Kamilov Abror Kuvandikovich, is a researcher at, Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni

ДИНАМИКА ГЕНДЕРНЫХ ОТНОШЕНИЙ

Камилов Аброр Кувандыкович, научный сотрудник Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни

https://orcid.org/0009-0003-0724-1106
e-mail: abrorshixkomilov@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada, gender tarixida shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar masalasi alohida o‘rin tutadi. Bunda, ming yillik bo‘sag‘asidagi antropologlar va sotsiologlar turli madaniyatlar: yangi muammolar va yangi yondashuvlar va jamiyatlarda erkak-ayol qarama-qarshiligi va individual-jamoat dixotomiyasining qisman yoki to‘liq kombinatsiyasini ko‘rsatilishi izohlanadi.*

Tayanch tushunchalar: *hokimiyat, sha’n va mulk bo‘linishi, shaxs va jamoat munosabatlari, tarixiy modellar, “Ayollar kuchi”, siyosiy qarorlar, ayollar o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlar, madaniy stereotiplar.*

Abstract: *This article focuses on the relationship between the individual and society in the history of gender. It explains how anthropologists and sociologists at the turn of the millennium have been presenting new problems and new approaches in different cultures and societies, partly or fully combining the male-female opposition and the individual-social dichotomy.*

Key wodrs: *division of power, honor and property, individual and public relations, historical models, “Women’s power”, political decisions, interpersonal relations between women, cultural stereotypes.*

Аннотация: *В статье рассматриваются взаимоотношения личности и общества в истории гендера. В ней объясняется, как антропологи и социологи на рубеже тысячелетий представляли новые проблемы и подходы в различных культурах и обществах, частично или полностью объединяя оппозицию мужского и женского и дихотомию индивидуального и социального.*

Ключевые понятия: *разделение власти, честь и собственность, индивидуальные и общественные отношения, исторические модели, «женская власть», политические решения, межличностные отношения между женщинами, культурные стереотипы.*

Kirish. Gender tarixchilari, psixoanalitiklardan ko‘ra, farqlar va gender iyerarxiyalarining murakkab ijtimoiy-madaniy belgilanishiga ko‘proq e’tibor berishadi va makrotarixiy kontekstda ularning ishlashi va funksiyasini tahlil qilishadi. Hozirgi vaqtda ijtimoiy-tarixiy rivojlanish konsepsiyasiga gender munosabatlarining dinamikasi qo‘shildi. Tarixiy

tadqiqotlar uchun yangi muammoli yo‘nalishlar – sinf va jins o‘rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy va gender iyerarxiyasi, ijtimoiy va gender mifologiyasi, ijtimoiy va gender tarixi munosabatlari paydo bo‘ldi. O‘shandan beri ayollarning tabiati to‘g‘risida bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan, ayollarning bo‘ysunuvchi mavqeini oqlaydigan o‘zgarmas “ayol tashabbusi” tushunchasi genderning tarixiyligi masalasi olib tashlandi. “Gender” atamasining yana bir muhim atributi “erkak” va “ayol” tushunchalarining dolzarbligi va ravshanligini namoyish etishdir. Bundan ma’lum bo‘ldiki, alohida tahlil, jumladan, tarixiy tadqiqotlar olib borib bo‘lmaydi. Va “gender” atamasi va feminizm o‘rtasidagi farq aniq bo‘ladi. Ilmiy va akademik e’tirofning avvalgidan ko‘ra oqilona bo‘lishiga yo‘l ochdi[1].

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. D.B.Vershinina, N.Yu.Fetisova, N.L.Pushkareva, O.A.Voronina, E.B.Mezentseva, O.A.Xasbulatova va boshqalar o‘rgangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Jon Skottning maqolasi ikki holat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’kidladi. Birinchidan, gender jinslar o‘rtasidagi idrok etilgan farqlarga asoslangan ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy elementidir. Ikkinchisi, gender hokimiyat munosabatlarini aniqlashning asosiy usuli hisoblanadi. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, genlar katta tarkibga ega va bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan va bir-biriga aralashmaydigan to‘rtta kichik tizimni birlashtiradi. Ular ushbu konsepsiyani uning predmeti sohasidagi jarayonlarni tahlil qilishda qanday qo‘llash mumkinligini ko‘rsatadi. Bu to‘rtta kichik tizim birinchi madaniy-ramziy quyi tizimdan iborat bo‘lib, u madaniy ramzlar majmuasini, ikkinchi me’yoriy-tarjimon quyi tizimni – me’yoriy dalillarni, uchinchi ijtimoiy-institutsional quyi tizimni – ijtimoiy institutlar va tashkilotlarni va to‘rtinchi individual-psixologik quyi tizimlarni o‘z ichiga oladi [2].

Jon Skottning fikricha, tarixiy tadqiqot muammosi gender holatini qurish jarayonida ushbu to‘rt jihat o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashdan iborat. Shu bilan birga, bu yondashuv har qanday ijtimoiy jarayon uchun o‘xshash tomonlarini farqlash bilan tahlil qilish modeli bo‘lishi mumkin. Shu o‘rinda “erkak” va “ayol” toifalari yakuniy transsendental mazmunga ega emasligini ko‘rsatish imkoniyati mavjud[3].

Muhokama va natijalar. Gender farqlari ramziy ma’noda odamlarning o‘zaro ta’siri jarayonida yaratiladi va qayta yaratiladi. Gender munosabatlari insoniyat tarixida gender konsensusiga va shaxsda gender sotsializatsiyasiga erishish jarayonida shakllangan boshqa iyerarxik tizimlar orasida eng uzoq va kuchli hisoblanadi. Gender tadqiqotlari noyob sintetik modelni yaratishga imkon beradi. Jamiyatning barcha mumkin bo‘lgan o‘lchamlari mavjud. Tizimli-strukturaviy, sotsial-madaniy, individual-shaxs va gender tushunchalari ularning o‘zaro ta’siri va muloqoti haqida tushuncha beradi. Ushbu modelning vaqt oralig‘ida ochilishi ushbu hodisalarning tarixiy dinamikasini qayta qurish imkonini beradi.

Ushbu tadqiqot istiqbollari hali to‘liq amalga oshirilmagan. Ammo hozirgi vaqtda ham G‘arbiy Yevropa tarixshunosligida barcha xronologik vaqtlar va Yevropaning barcha mintaqalari bo‘yicha sezilarli miqdordagi monografik tadqiqotlar to‘plangan. Bundan tashqari, jinsga bag‘ishlangan ko‘plab nufuzli jurnallarda muntazam ustunlar va maxsus davriy nashrlar paydo bo‘ldi. Rossiyadagi shunday nashrlardan biri “Odam va Momo Havo” almanaxidir[4].

“Gender dimorfizmi” erkak va ayolning ikki jins ekanini tasdiqlovchi kategoriyadir. U jinslarning biologik farqlarini ifoda etadi va ularga yondashganda ushbu farqlarni hisobga olishga undaydi. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar esa umuminsoniy va umumsotsial xarakterga ega. Ular har doim ham jinslar dimorfizmini hisobga olavermaydi. Lekin gender nazariyasi ushbu farqlar borligini qayd etadi va jinslar o‘rtasidagi munosabatlarni anglash va to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish uchun ularni tushunishga undaydi. Eng muhimi jinslar dimorfizmini mutlaqlashtirmaslik, erkak va ayolni antogonistlarga aylantirmaslikdadir.

Gender nazariyasi ijtimoiy falsafada axloqiy va jamiyatdagi jinslar o‘rtasidagi munosabatlarning normalari va qadriyatlarini tushunishga asoslangan bo‘lib, unda jamiyatning umumiy ma’naviy holati, uning genderlikka ta’siri va erkak hamda ayollar rollari markazda turadi. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning tartibga soluvchi qoida va normalar yig‘indisidir. Axloqiy me’yorlar muayyan davrning ma’naviy va madaniy darajasini

belgilaydi. Gender tenglik erkak va ayollar o‘rtasidagi munosabatlarni adolatli tashkil qilishni ko‘zlaydi. Bu munosabatlarda axloqning asosiy kategoriyalari – adolat, hurmat va tenglik markaziy o‘rin tutadi. Ilmiy-tahliliy yondashuvlarda, qadimiy jamiyatlarda gender axloqining asoslari tabiiy tartib va ijtimoiy munosabatlardan shakllanganligi ta’kidlanadi. Qadimgi Sharq falsafasida ayolning rollari tasavvuf va diniy qarashlar bilan uyg‘un tarzda belgilangan bo‘lib, bu holat ayollarning jamiyatdagi o‘rnini aniqlagan. Axloqiy qadriyatlar ko‘pincha diniy ta’limotlar bilan uyg‘un tarzda shakllangan. Masalan, islomiy qadriyatlar ayol va erkakning vazifalarini belgilashda muhim o‘rin tutadi. Bu o‘rinda adolatli munosabatlarning shakllanishi axloq va qadriyatlarga asoslangan. Hozirgi globallashuv jarayonida ayollar va erkaklar uchun teng huquqlar va imkoniyatlar yaratish genderning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Axloqning ijtimoiy shakllanishiga globallashuv va madaniyatlararo ta’sirlar kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayollarning jamiyatdagi roliga nisbatan munosabatlar yangi baholashni talab etmoqda. Axloq qadriyatlar va genderlik munosabatlari jamiyatning evolyutsion taraqqiyoti natijasida rivojlangan. Bu qarash jamiyatning tarixi va madaniy an’analaridan kelib chiqadi. Gender axloqi umumbashariy va o‘zgarmas qoidalarga tayanadi. Bunda axloq Xudo yoki umumiy insoniy qadriyatlardan kelib chiqadi. Gender masalasida ijtimoiy-falsafiy tahlil jamiyatning ma’naviy-axloqiy taraqqiyoti va uning kelajagi uchun muhim ahamiyatga egadir. Axloqiy qadriyatlarning har bir jamiyatga xosligini tan olgan holda, global insoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish zarurati paydo bo‘ladi. Bu mavzu jamiyatdagi tenglik, adolat va hurmat kabi asosiy tamoyillarni mustahkamlashga qaratilgan yangi axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Axloq – falsafada insonning shaxsiy va jamiyat hayotidagi munosabatlarini artibga soluvchi qoida va qadriyatlar tizimi sifatida izohlanadi. Axloq jamiyatning ma’naviy tizimida asosiy o‘rin tutib, uning vazifasi insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni adolatli va tartibli tashkil qilishdan iborat. Axloq inson xatti-harakatini tartibga soluvchi normativ tizim bo‘lib, bu qoidalar jamiyat tomonidan qabul qilingan va ijtimoiy munosabatlarda amal qiladi. Axloq insonning shaxsiy va jamiyat manfaatiga muvofiq bo‘lgan xatti-harakatini tushuntirish uchun falsafiy nazariyalarni ishlab chiqadi. Axloq jamiyatning ijtimoiy muhitga moslashish jarayonida shakllangan qoidalar va qadriyatlarning natijasidir.

“Axloq”, “ma’naviyat” va “gender” tushunchalari jamiyatning ijtimoiy tuzilishida bir-birini to‘ldiruvchi asosiy elementlardir. Axloq va ma’naviyat (ma’naviy- axloqiy) jamiyatdagi umumiy normalarni belgilasa, gender bu normalarni jinslar o‘rtasidagi taqsimlash jarayonida asos bo‘lib xizmat qiladi. Jamiyatda gender rollari axloqiy qoidalar bilan tartibga solinadi. Masalan, ayollar uchun nafosat va mehribonlik, erkaklar uchun jasorat va mas’uliyat kabi fazilatlar muhim deb qaraladi. Axloq gender tengligini ta’minlash uchun ijtimoiy mexanizmlarni ishlab chiqishda muhim o‘rin tutadi. Axloqning turli madaniyatlardagi interpretatsiyasi gender rollariga ham ta’sir qiladi.

Bugun dunyoda ayollar va erkaklarning jamiyatdagi o‘rni eng muhim va munozarali mavzulardan biri hisoblanadi. Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi davrda ayollarning ommaviy ishlab chiqarishga jalb etilishi munosabati bilan sodir bo‘lgan ijtimoiy o‘zgarishlar ularning jamiyat va ijtimoiy ishlab chiqarishdagi o‘rni haqidagi an’anaviy nazariy sxemani qayta ko‘rib chiqishga olib keldi. Ilmiy tadqiqotlar erkak bilan ayol o‘rtasida farqlardan ko‘ra ko‘proq o‘xshashliklar mavjudligini ko‘rsatadi. Tadqiqotchilar hatto erkaklar va ayollar o‘rtasidagi yagona aniq va sezilarli farq ularning ko‘payishdagi roli ekanligiga ishonishadi. Endi ma’lum bo‘ldiki, erkaklarning bo‘yi balandroq, og‘irroq, mushaklari va jismonan kuchliroq bo‘lishi kabi “odatiy” gender farqlari juda o‘zgaruvchan va ilgari o‘ylanganidan kamroq jinsga bog‘liqdir. Oziqlanish va turmush tarzi tananing shakllanishiga, shuningdek, jismoniy kuchga sezilarli ta’sir qiladi. Biologik farqlardan qat’i nazar, odamlarning ijtimoiy rollari, faoliyat shakllari va hissiy xususiyatlarda farqlar mavjud. Antropologlar, etnograflar va tarixchilar “erkak uchun tipik” va “ayol uchun tipik” tushunchalari nisbiy ekanligini uzoq vaqtdan beri mavjudligini isbotlashgan. Bir jamiyatda erkak kasbi, xulq-atvori, fe’l-atvori, xislati, deb hisoblangan narsa boshqa jamiyatda ayol kasbi, xulq-atvori hisoblanadi[5]. Ayollar va erkaklarning ijtimoiy

xususiyatlarining xilma-xilligi va ularning biologik xususiyatlarining butun dunyo bo‘ylab o‘xshashligi biologik aloqa odamlarning ijtimoiy rollaridagi farqlarni tushuntirib bo‘lmaydi degan xulosaga kelishi mumkin. Genderni ba’zan feminizm tarzida ham talqin qilishadi. “Feminizm” atamasi o‘tgan asrning 80-yillarida G‘arbda, Angliya va Amerikada paydo bo‘lgan ayollar harakatiga ishora qiladi [6]. Bizning nazarimizda feminizm jinsga asoslangan zulm, jinsga qarshi kurash va hukmron tizimni yo‘q qilishga qaratilgan ijtimoiy harakat. U ayollarning ijtimoiy muammolarini hal etishga yo‘naltirilgan. Feminizm ayollarning ko‘p asrlik tajribasini o‘zida aks ettiradi: matriarxatdan keyingi davrlardan beri erkaklar oila va jamiyatda hukmronlik qilmoqda, ayollar ularga bo‘ysunadi va jinsga qarab to‘g‘ridan-to‘g‘ri kamsitish, diskriminatsiya hali ham mavjud[7].

Feminizm harakatining paydo bo‘lishiga XVIII asrda Yevropada ayollarni kamsitish va o‘sha davrdagi liberal mafkuraning shakllanishi ta’sir ko‘rsatdi. Dastlabki feminizm sinfiy tabiatning irqiy iyerarxik nazariyasini rivojlanishiga olib keldi. Jamiyatdagi har bir inson tug‘ilgandan boshlab mehnat qilish, haqiqat, baxt, erkinlik huquqiga ega. Biroq “odam” so‘zi faqat erkaklar uchun ishlatilgan. Chunki o‘shanda ayolning aqli rasoligi jiddiy so‘roq qilingan edi. Aynan shu stereotipga qarshi birinchi feministik harakat paydo bo‘ldi. Birinchi feministlarning qonunchilik islohotlari ayollarni tug‘ilishdan boshlab tabiiy huquqlarga ega bo‘lgan fuqarolar ro‘yxatiga kiritishni talab qildi. Ular kamsitishning ildizi madaniyat ekanligini tushunmadilar va madaniyat turini o‘zgartirishdan ko‘ra, ularning ijtimoiy tengligini, erkaklar bilan tengligini ta’minlaydigan qonun va qoidalarni yaratishga intildilar. Ularning tushunchalari ayollar va erkaklar teng ekanligini isbotlash uchun yaratilgan. Birinchi feministlar ikki xil qarashga ega edilar: birinchisi erkaklar va ayollar teng va farq yo‘qligiga ishongan, ikkinchisi esa ijtimoiy islohotlar va qonunchilikni o‘zgartirishga ishongan. Feministlar buni ko‘p asrlik erkaklar ekspluatatsiyasidan chiqish yo‘li deb bilishgan. O‘sha paytda “gender” tushunchasi hali qo‘llanilmagan edi[8].

Gender muammosi va gender tengligini ta’minlash dunyoning ko‘plab mamlakatlaridagi dolzarb muammolardan biridir. Bu birinchi navbatda, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda gender tengsizlik omili tufayli kadrlar sifatining yomonlashuvi bilan bog‘liq. Demak, muammoning jiddiyligi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga to‘sqinlik qiladi, inson kapitalini rivojlantirishda mavjud tizim samaradorligini pasaytiradi va nihoyat jamiyatda ijtimoiy adolatsizlikning chuqurlashishiga olib keladi. Insoniyat jamiyati ayollar va erkaklardan tashkil topgan. Jinslar o‘rtasidagi biofiziologik farqlar ma’lum va o‘zgarmasdir. Biroq bu erkak va ayolning jamiyatdagi o‘rni o‘zgarmaydi, degani emas. Xotin-qizlar harakati tarixi, bu borada erishilgan yutuqlar xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni jadal o‘zgarganidan dalolat beradi. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar odamlar o‘rtasidagi munosabatlar, xatti-harakatlar, iroda, mas’ullik yoki ularning aksi sifatida tushuniladi. Gender esa jinslarga bog‘liq rollar, iqtidorlar va ijtimoiy funksiyalar yoki jinsiy identiklikni anglatadi. Ushbu tushunchalar tarix davomida turli madaniy, diniy va ijtimoiy omillar ta’sirida shakllanib, evolyutsiyalangan. Miloddan oldingi eralarda axloq kodekslari – masalan, Xammurapi kodeksi yoki hinduizm va Budda ta’limotlari – insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Bunday normalar asosan diniy va mifologik e’tiqodlar bilan chegaralangan bo‘lib, ular negizini mehribonlik, adolat, halollik kabi asosiy qadriyatlar tashkil qiladi. Zardushtiylik, nasroniylik, dinlari ham axloqiy me’yorlarni belgilashda muhim rol o‘ynadi. Misol uchun, islom axloqida ibodat, samimiyat, hurmat va xayr-ehtiromga ahamiyat berilgan. Ulug‘-sharqda shariat, sufiylik kabi axloqiy tarbiya usullari alohida o‘rganiladi. Grek, Rim faylasuflari (Suqrot, Platon, Aristotel) axloq va yaxshi hayot haqida siyosiy va etik nazariylar ishlab chiqqan. Ular axloqni insonning oqlimi va tabiiyliklari asosida o‘rganishga urinishgan. Uyg‘onish davrida axloqiy universalizm, inson huquqlari va aqliy mustaqillik kabi ideallar yirik ahamiyat kasb etgan.

Xulosa. Ayollar tarixining ayrim davrlarini, ayniqsa, ilk yangi davrni o‘rganishda amerikalik feminizm nazariyotchisi va amaliyotchisi, tarixchi Joan Kellining o‘rni beqiyos hisoblanadi. Turli ijtimoiy guruhlardagi ayollarga ijtimoiy o‘zgarishlarning ta’sirini o‘rganish uchun Djoan Kelli ayollar erkinligi sifati

va darajasining nazariy modelini ishlab chiqdi. U o‘zaro bog‘liq bo‘lgan to‘rtta mezonni ajratdi. Ular: erkaklarga nisbatan ayollarning jinsiy hayotini ijtimoiy tartibga solish, ayollarning iqtisodiy va siyosiy roli, shuningdek, ularning mulkka, hokimiyatga, ta’limga, kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lish imkoniyati, jamiyatning madaniy hayotidagi o‘rni, jamiyat ongidagi ayollar yoki jinslarning roli funksiyalari san’at, adabiyot va falsafa sohasidan kelib chiqib olib borilgan. Kellining tahlili shuni ko‘rsatdiki, 15-16-asrlarda italyan ayollarining gender holati qaramlik va tanazzulga olib keldi. Natijada “Ayollar uchun Uyg‘onish davri bo‘lmagan, hech bo‘lmaganda Uyg‘onish davrida ham bo‘lmagan” degan xulosaga keldi. Fransuz inqilobi davridagi ayollar tarixchilari ushbu metodologiyaga asoslanib, ushbu inqilobning ayollarning ahvoliga ta’siri haqidagi tushunchani rad etishdi[9].

1791-yilda fransuz inqilobining dasturiy hujjatlaridan biri “Inson huquqlari va fuqarolar deklaratsiyasi” nashr etilgandan so‘ng, ayollar huquqlari tarafdori Olimpia de Guj “Ayollar va fuqarolar huquqlari deklaratsiyasi” nomli manifestini e’lon qildi. Ammo bu inqilob tarafdorlarining g‘ayratiga sabab bo‘lmadi. Natijada, ijtimoiy guruhga mansub bo‘lgan muallif aksilinqilobiy kuchlar bilan aloqada bo‘lganlikda ayblanib, 1793-yil oktyabr oyida boshi kesilgan. Natijada u fransuz feministlarining mashhur shaxsiga aylandi. Shunday qilib, ijtimoiy tarixga ayol ovozining kiritilishi tarixiy jarayonning umumiy ko‘rinishiga tuzatishlar kiritish muammosini kun tartibiga qo‘ydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Быша Л.С. Становление проблемного поля в исследованиях женщин-антропологов США: 1970–2010-е гг.: диссертация кандидата исторических наук. - Тверь, 2019. - 235 с.
2. Скотт, Джон Р.У. Благословите разум: место разума в христианской жизни / Джон Скотт. - Москва: Духовная акад. ап. Павла; Нижний Новгород: Агапе, 2008. - 95 с.
3. Scott, Joan W. (2005), French universalism in the nineties, in Friedman, Marilyn, Women and citizenship, Studies in Feminist Philosophy, Oxford New York: Oxford University Press, с. 35–51.
4. Круглянская Л.Я. Гендерные архетипы как фактор формирования поведенческих стратегий субъекта административной культуры: диссертация... кандидата культурологии. - Санкт-Петербург, 2014. - 176 с.
5. Зикриеева М.Ф. Историография проблемы женщин Таджикистана: диссертация ... доктора исторических наук. - Душанбе, 2002. - 350 с.
6. Тиайнен Т.В. Теория и практика феминистского движения в Швеции во второй половине XX века: диссертация... кандидата исторических наук. - Петрозаводск, 2006. - 341 с.
7. Королева Т.В. Женское движение во Франции: 1789-1914: диссертация ... кандидата исторических наук. - Иваново, 2002. - 243 с.
8. Соломатина О.А. Женщины-легенды. Сильный слабый пол / О. Соломатина. - Москва: Коммерсантъ: Эксмо, 2012. - 132 с.
9. Kelly, J. Early Feminist Theory and the Querelle des Femmes // Kelly, J. Women, History, and Theory. University of Chicago Press, 1984. P. 65-110.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 81'373.2.

Ilmiy rahbar: A.E.Mamatov, filologiya fanlari doktori, professor

OLAM MANZARASI, OLAMNING KOGNITIV MANZARASI, OLAMNING LISONIY MANZARASI VA KONSEPT

Soqiyeva Shirin Shokirovna, Toshkent transport universiteti Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha 1-kurs tayanch doktoranti

THE WORLDVIEW, THE COGNITIVE WORLDVIEW, THE LINGUISTIC WORLDVIEW, AND THE CONCEPT

Soqiyeva Shirin Shokirovna, PhD student, 1st year, Tashkent State Transport University, Specialty Comparative Literature, Contrastive Linguistics, and Translation Studies

КАРТИНА МИРА, КОГНИТИВНАЯ КАРТИНА МИРА, ЯЗЫКОВАЯ КАРТИНА МИРА И КОНЦЕПТ

Сокиева Ширин Шокировна, базовый докторант Ташкентского транспортного университета по специальности Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и переводоведение

https://orcid.org/0009-0005-5470-4657
e-mail: soqivevashirin22@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada olam manzarasi, olamning kognitiv va lisoniy manzaralari hamda konsept tushunchalari tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Olam manzarasi insonning dunyoni idrok etish shaklini ifodalasa, kognitiv manzara bu idrokning tafakkurdagi modeli sifatida talqin etiladi. Lisoniy manzara esa ushbu kognitiv modelning tildagi aksini namoyon etadi. Maqolada konsept til va tafakkur o'rtasidagi bog'lovchi birlik sifatida izohlanib, tilning madaniy hamda milliy xususiyatlarini yoritishdagi ahamiyati ko'rsatib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *olam manzarasi, kognitiv manzara, lisoniy manzara, konsept, til va tafakkur, madaniyat.*

Annotation: *This article analyzes the concepts of the worldview, the cognitive worldview, the linguistic worldview, and the concept from a linguistic perspective. The worldview reflects how humans perceive reality; the cognitive worldview represents this perception as a mental model, while the linguistic worldview expresses it through language.*

Keywords: *worldview, cognitive worldview, linguistic worldview, concept, language and thought, culture.*

Аннотация: *В данной статье анализируются понятия картины мира, когнитивной и языковой картины мира, а также концепта с точки зрения лингвистики. Картина мира отражает восприятие человеком окружающей действительности, когнитивная картина мира рассматривается как её ментальная модель, а языковая — как отражение этой модели в языке.*

Ключевые слова: *картина мира, когнитивная картина мира, языковая картина мира, концепт, язык и мышление, культура.*

KIRISH. Barcha mavjudotlar ichidan faqat insonga Olloh bebaho in'omni hadya qildi, bu esa til, u insonni dunyodagi barcha tiriklikdan ajratib turadigan noyob xususiyatdir. "Lisonning inson hayotidagi o'rni beqiyos. Lisonsiz insonlar bir-birini tushunish, voqelikni, tirik dunyoni o'zlashtirish,

o‘zaro fikrlashish qobiliyatiga ega bo‘lmas edi. Yoki lison bo‘lmaganda axborot qanday jamlanar, qay yo‘sinda bir kishidan boshqasiga uzatilar va bir avloddan ikkinchisiga yetib kelardi?!”[1] Har qanday nazariy bilimlarning boshlang‘ich nuqtasi – til orqali shakllangan olamdir, har qanday kasb egasi bo‘lishdan qat’i nazar inson obyektiv bilimlarni til orqali o‘zlashtiradi. So‘z insonning butun bir hayoti, uning butun bir ichki dunyosini yuzaga chiqaruvchi vosita, til faqat aloqa quroli emas, balki u kishining milliy va madaniy dunyoqarashini, ya’ni mentalitetni ifodalovchi hamdir.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “mentalitet” so‘zi quyidagicha izohlanadi:

“Mentalitet – [nem. Mentalitat > lot. mens, mentis – aql, idrok] Jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tartib topgan tafakkur darajasi, madaniy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlardagi aqliy qobilyati, ruhiy quvvati. (Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o‘ziga xos an’analari, rasm-rusmlari, urf-odatlari, diniy e’tiqod va irimlarini ham qamrab oladi)”.

Ingliz tilida esa quyidagicha izohlanadi: “Mentality” refers to either ones mental capacity and intelligence or, more commonly, a habitual or characteristic mental attitude, outlook, or way of thinking that influences how one interprets and responds to situations. It describes a persons overall frame of mind, beliefs, values, and dispositions to act in certain ways, often shaping their worldview and actions”.

“Olam manzarasi” tushunchasi (shu jumladan olamning lisoniy manzarasi) insonning borliq haqidagi tasavvurlarini o‘rganishdan tashkil topgan. Borliq – bu inson va muhitning birgalikdagi o‘zaro munosabati, olam manzarasi esa — muhit va inson haqidagi ma’lumotni qayta ishlash natijasidir”. “Olam manzarasi” termini ilk bor fizika doirasida 19-20-asrlar oxirida paydo bo‘lgan. Uni eng birinchi G.Gerts olamning fizikaviy manzarasini tashqi predmetlarning ichki obrazlar majmui sifatida talqin etishga qo‘llagan”[2].

Olam manzarasi tushunchasi insonning dunyo haqidagi fikrlari, o‘ylarini o‘rganishga asoslanadi. Insonning dunyoqarashiga katta ta’sir qiladigan omillardan biri bu shaxsiy tajribadir. Inson umri davomida har xil voqealar, his-tuygularni boshidan kechiradi, xatolar qiladilar va ulardan dars oladilar, bularning hammasi shaxsiy tajribadir. Bu esa insonning dunyoqarashiga, xatti-harakatiga va qaror qabul qilishiga juda katta ta’sir qiladi. Oilaviy muhit, do‘stlar davrasi, kasbiy faoliyat, ta’lim, muvaffaqiyatlar shaxsiy tajribamizni boyitadigan asosiy sababchilardir. Bundan tashqari, hozirgi kunda texnologiya rivoji inson dunyoqarashini butunlay o‘zgartirib yuboryapti. Texnologiyaning ilm-fanga qo‘shgan hissasi behisob, u orqali ilmiy izlanishlar olib borish mumkin, dunyo bo‘ylab virtual sayohat ham qilish mumkin, bu esa dunyoqarashning oshishiga katta yordam beradi. B.A.Serebrennikov, V.I.Postovalova, YE.S.Kubryakova, V.N.Teliya “Роль человеческого фактора в языке. Язык и картина мира” asarida olam manzarasini shunday ta’riflagan: “Olam manzarasi — bu insonning dunyoqarashi asosida yotuvchi boshlang‘ich global dunyo obrazi bo‘lib, u insoniyat tomonidan anglangan holda dunyoning mohiyatini ifodalaydi va butun insoniy-ma’naviy faoliyat natijasidir. Dunyo manzarasi — bu **“dunyoqarash yadrosi”** bo‘lib, ma’lum darajadagi **antropomorfik** (odamga xos) xususiyatlarga ega: “U insonning o‘ziga xos dunyoni anglash uslubini o‘zida mujassam etadi”[3].

Dunyoqarashlarning bir necha turlari mavjud:

1. Mifologik kognitiv manzara – bu tabiatda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga inson mifologik jihatdan qarashidir, misol uchun qadimda momaqaldiroq ba’zan xudo yoki qudratli kuchlarning jangi sifatida tasviralangan. Shu jumladan, qadimgi afsonalar, e’tiqodlar, diniy qarashlar asosida shakllangan fikrlar mifoligik kognitiv manzara hisoblanadi.
2. Ilmiy kognitiv manzara – bu ilmiy tadqiqotlar va dalillar asosida vujudga kelgan qarashlardir. Ilmiy izlanishlar, tajribalar, sinovlar orqali dunyoni o‘rganish, ya’ni ilmiy dalillarga tayanib fikr yuritish ilmiy kognitiv manzara hisoblanadi.
3. Falsafiy kognitiv manzara deganda biz olam va unda insonning tutgan o‘rni haqidagi fikrlarni tushunamiz. Bunda inson olamni, haqiqatni, bilimni, ongni, tafakkurni falsafiy jihatdan tushunishga harakat qiladi.
4. San’at va estetik kognitiv manzara – bu san’at, musiqa, adabiyot orqali dunyoqarashni ifodalashdir. Masalan, bastakor Volfgang Amadey Motsart yoki rassom, olim, injener Leonardo da Vinchi kabi buyuk shaxslar o‘z asarlari orqali olam

TAMADDUN NURI

haqidagi o‘z fikrlarini ifodalagan desak xato bo‘lmaydi.

Biz olam haqidagi fikrimizni, tushunchalarimizni til bilan ifodalaymiz va bu tushunchalarni ifodalashda milliy madaniyatning o‘rni katta.Madaniyatning tilga ta’siri sezilarli darajada, masalan chet davlatlarida yashovchi o‘zbeklar va O‘zbekistonda yashovchi o‘zbeklarning nutqida sezilarli darajada farq borligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Germaniyada yoki Amerikada yashovchi o‘zbeklar bilan suhbat olib borilganda ular ko‘proq vaqtni tejash va ob-havo haqida so‘zlasa, O‘zbekistonda yashovchilar nutqida esa mehmondo‘stlik, bir-biriga mehr-muhabbat aks etadi. Har bir xalqning madaniyati o‘zining milliyligini namoyon qiladi va til orqali yuzaga chiqadi. Biron kim bilan suhbatlashganda, fikrlashganda uning qaysi millat vakili ekanligini yoki qaysi madaniyatga mansubligini, qaysi hududda yashashini bilishingiz mumkin. Deylik, uning yashash hududi tog‘li joymi, tekislikdami, cho‘ldami albatta, uning nutqida biz buni sezishimiz mumkin. Hattoki, yozuvchilar o‘zlari tug‘ilib o‘sgan hududlarini o‘z asarlarida aks ettiradilar, yani badiiy tilda ifoda qiladilar. Misol uchun, yozuvchi Tog‘ay Murod asarlarining barchasi keng qir-adirliklar, tog‘lar etagida voqealar yuz beradi, bu esa uning yashash hududi bilan bog‘liqligini bildiradi.

Rus tilshunosi V.N.Teliya o‘zining “Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты” asarida lison haqida to‘liq ta’rif bergan. Til manzarasi — bu obrazlar**,** tushunchalar**,** me’yorlar**,** stereotiplar va ramzlar tizimidir, ular orqali ma’lum bir xalqning atrof-muhit haqidagi bilimi ifodalanadi. Bu bilimlar insonning idrok jarayonida shakllanadi, u jamiyat tomonidan belgilangan mezonlar va qadriyatlar asosida baholanadi va til birliklari (so‘zlar, iboralar) ma’nosida mustahkamlanadi[4]. “Язык и картина мира” asarida esa shunday ta’riflaydi “Barcha konseptual tizim bo‘ylab tarqalgan va tushunchalar shakllanishida til birliklari va ularning assotsiativ maydonlari yordamida ishlov berish orqali bog‘langan axborotdir. Bu jarayon orqali insonlar til vositasida dunyo haqidagi bilimlar bilan boyitilgan kontseptual tizimdan foydalanadilar”[5]. Biz til manzarasi haqidagi bu fikrlarga qo‘shilamiz va uni mos ta’riflangan deb bilamiz. Til manzarasi olam haqidagi bilimni ifodalaydi va shakllantiradi, xalqning milliy-madaniy qadriyatlari asosida baholanadi va konseptni til birliklari orqali ifodalaydi.

Z.D.Popova, I.A.Sternin konseptosfera haqida shunday ta’riflaydi: “Konseptosfera” va “mentalitet” tushunchalari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, tafakkur jarayonida o‘zaro ta’sir qiladi. Konseptosfera — bu konseptlar shakllanishining asosiy manbai, ya’ni “fikrlar makoni” u xalqning mentalitetini muayyan darajada belgilaydi. Til konseptosferasi madaniyat konseptosferasi tushunchasi bilan bog‘liq[6]. Konsept ong, mental birlik, u na madaniyat va na til sohasiga kiradi, ammo til va madaniyat bilan uzviy bog‘liq. Til va madaniyat o‘rtasida yuz beradigan o‘zaro ta’sirni konsept to‘ldirib beradi. Subyekt ma’lum bir ma’lumotni qabul qiladi, uni filtrlab olib qayta ishlaydi va tizimlashtiradi. So‘ngra, bu ma’lumotni lison orqali ifodalash uchun til belgilarini tanlaydi – bu maqsadli muloqot jarayonini amalga oshirish uchun zarur.

XULOSA qilib aytish mumkinki, konsept juda keng qamrovli bo‘lib, u ongimizdagi fikr, g‘oya, bilim, his-tuyg‘u, aql-idrok, tafakkur, dunyoqarash, madaniyat mentalitetining birligi, shaxsning ijtimoiy-madaniy tajribasiga asoslangan, madaniyat, til va ongning jamlanmasi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. - Jizzax: Sangzor, 2006 – B.3.
2. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. - Toshkent: Noshir, 2019 - B 59-62.
3. Серебренников Б.А., Постовалова В.И., Кубрякова Е.С., Телия В.Н. Роль человеческого фактора в языке. Язык и картина мира. М.:1988. 21-44 с.
4. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. - М.: Школа Языки русской культуры, 1996.- 214–237. С.
5. Телия В.Н. Метафоризация и ее роль в создании языковой картины мира // Роль человеческого фактора в языке. Язык и картина мира. М., 1988. С. 177.
6. Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике. Воронеж, 2001. с. 67

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 821.353.3-1:371.3

ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATINI O‘QITISHNING INNOVATSION METODIK YONDASHUVLARI

Panayeva O‘g‘iljon Bobojonovna, Urganch Innovatsion Universiteti “O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasi o‘qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi, v.b. dotsent

INNOVATIVE METHODOLOGICAL APPROACHES TO TEACHING MODERN UZBEK POETRY

Panayeva O‘g‘iljon Bobojonovna, Teacher of the Department of “Uzbek and Foreign Languages”, Urganch Innovative University, PhD (Philology), Acting Associate Professor

https://orcid.org/0009-0000-8435-8074
e-mail: ugiljonpanayeva@g.mail.com

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ПРЕПОДАВАНИЮ СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ

Панаева Угилджан Бобожоновна, преподаватель кафедры “Узбекский и иностранные языки” Ургенчского инновационного университета, кандидат филологических наук, и.о. доцента

Annotatsiya: *Maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyatini o‘qitishda innovatsion metodik yondashuvlarning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. She’riy asarni o‘qitishda interaktiv usullar – “poetik muloqot”, “ijodiy debat”, “jonli she’riyat”, “videopoeziya”, “podkast-tahlil” kabi metodlar qo‘llanishining samarasi yoritilgan. Muallif o‘quvchilarda estetik tafakkur, ma’naviy ong va ijodiy fikrlashni shakllantirish uchun adabiy matnni musiqa, tasviriy san’at, tarix va psixologiya bilan integratsiyalashgan holda o‘qitish zarurligini asoslab beradi.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy o‘zbek she’riyati, innovatsion metod, poetik muloqot, interaktiv ta’lim, refleksiya, estetik tafakkur, kognitiv tahlil, integrativ yondashuv.*

Annotation: *The article analyzes the theoretical and practical aspects of innovative methodological approaches in teaching modern Uzbek poetry. It highlights the effectiveness of interactive techniques such as “poetic dialogue,” “creative debate,” “live poetry,” “video poetry,” and “podcast analysis” in teaching poetic works. The author substantiates the necessity of teaching literary texts in integration with music, visual arts, history, and psychology to develop students’ aesthetic thinking, moral consciousness, and creative mindset.*

Keywords: *modern Uzbek poetry, innovative method, poetic dialogue, interactive learning, reflection, aesthetic thinking, cognitive analysis, integrative approach.*

Аннотация: *В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты инновационных методических подходов в преподавании современной узбекской поэзии. Особое внимание уделено интерактивным методам обучения, таким как “поэтический диалог”, “творческие дебаты”, “живая поэзия”, “видеопоэзия” и “подкаст-анализ”, которые активизируют эмоциональное восприятие и аналитическое мышление учащихся. Автор подчёркивает значение интеграции поэзии с музыкой, изобразительным искусством, историей и психологией для формирования эстетического вкуса и духовного мировоззрения. Анализ*

стихотворений Икбола Мирзо и Джамола Камола представлен как пример инновационного поэтического анализа в образовательном процессе.

Ключевые слова: *современная узбекская поэзия, инновационные методы, поэтический диалог, интерактивное обучение, рефлексия, эстетическое мышление, когнитивный анализ, интегративный подход.*

KIRISH. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotiga yangi ruh, poeziyaga esa yangicha badiiy ifoda va ma’naviy erkinlik olib kirdi. Yangi asr she’riyati milliy ruh, zamon tashvishlari, inson qalbidagi ichki iztirob va orzularni o‘ziga xos tarzda ifoda eta boshladi. Shu bilan birga, bu poeziyani ta’lim jarayonida o‘qitish ham yangi metodik yondashuvlarni talab etmoqda.

Zamonaviy ta’lim tizimida she’riy asarni faqat mazmun jihatidan anglash emas, balki estetik his qilish, fikriy tahlil qilish va ijodiy ifodaga aylantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ilmiy-metodik yondashuvlarda innovatsion usullarni qo‘llash zamon talabi hisoblanadi.

She’r inson qalbiga ta’sir qiluvchi, ruhiy poklanish va zavq manbaidir. Uni to‘g‘ri talqin qilish uchun o‘qituvchi nafaqat mazmunni, balki poetik obraz, metafora, lirik kayfiyat, so‘z musiqasini ham chuqur anglatishi lozim. Shu orqali o‘quvchida nafosatli fikrlash, milliy iftixor va ma’naviy ong shakllanadi.

ASOSIY QISM. Ilmiy-nazariy asoslar. Ushbu yo‘nalishda o‘zbek adabiyotshunosligida B.Qosimov, I.Haqqulov, Sh.Sirojiddinov, B.Sarimsoqov, B.Karimov kabi olimlar metodik qarashlarining ahamiyati katta. Ular ta’kidlaganidek, har bir she’r – bu ma’naviy tajriba, uni faqat tahlil emas, hissiy anglash orqali tushunish kerak.

Zamonaviy she’riyatni o‘qitishda innovatsion metodlar va interaktiv usullar. “Poetik muloqot” usuli: talabalar she’rdagi lirik qahramon va muallif o‘rtasida muloqot qurishadi. Bu usul tahlilni shaxsiy hissiyot orqali boyitadi.

“Ijodiy debat”: she’rda ko‘tarilgan g‘oya va muammolar yuzasidan guruhli bahs o‘tkaziladi.

“Jonli she’riyat”: she’rni sahnalashtirish, musiqa va video bilan uyg‘unlashtirish. Bu yoshlarda zavq va ruhiy ta’sir kuchini oshiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash. Multimedia taqdimotlari, elektron slaydlar, interaktiv testlar va Padlet, Kahoot, Mentimeter kabi platformalarda she’r tahlilini tashkil etish.

“Videopoeziya” yoki “Podkast-tahlil” usuli orqali she’rni zamonaviy media muhitda qayta jonlantirish.

Loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning). Bu usul o‘quvchilarni mustaqil izlanishga undaydi. Masalan: “Istiqlol davri poeziyasida Vatan timsoli”, “Xurshid Davron she’rlarida tarixiy xotira”, “Jamol Kamol she’riyatida inson va zamon muammosi”.

Integrativ yondashuv she’riyatni musiqa, tasviriy san’at, tarix va psixologiya bilan bog‘lab o‘qitish. Masalan, Halima Xudoyberdiyeva she’rlarini o‘qitishda milliy qo‘shiqlar, rasmlar yoki tarixiy fotosuratlardan foydalanish — estetik hisni boyitadi.

Innovatsion yondashuvda o‘qituvchi shaxsining roli. O‘qituvchi – ilmiy va badiiy mulohaza yetakchisi. Zamonaviy adabiyot o‘qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki estetik muhit yaratuvchi, talabalarni fikrlashga ilhomlantiruvchi shaxs bo‘lishi lozim. U she’rdagi obrazlar tilini, zamonaviy fikrlash uslubini his qila oladigan tafakkur sohibi bo‘lishi zarur.

Refleksiya va mulohaza madaniyati. Har bir darsdan keyin talabalardan “she’r menga nima berdi?”, “qaysi satr qalbimga ta’sir qildi?” kabi savollar asosida mulohaza yozish talab etiladi. Bu usul estetik his va shaxsiy munosabatni shakllantiradi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti — bu milliy an’analarga asoslangan, ammo global madaniyat va texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan o‘ziga xos madaniy fenomen. Xurshid Davron, Jamol Kamol, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid, Usmon Azim, Oydin Hojiyeva, Mahmud Toir, Halima Xudoyberdiyeva va Iqbol Mirzo kabi adiblarning she’rlari nafaqat xalqimizning ruhiy o‘sishi va ma’naviy dunyosini aks ettiradi, balki zamonaviy pedagogik metodlar orqali o‘quvchilarga taqdim etilganda, ularni har tomonlama rivojlantirish vositasiga aylanadi.

Multimediali o‘qitish. YouTube, audiovizual materiallar va interaktiv platformalar zamonaviy o‘quvchilarni she’riyatga yanada

yaqinlashtiradi. Masalan, Shavkat Rahmonning she'rlari video taqdimotlar orqali jonlanadi, o'quvchilar esa ijro uslublarini taqqoslab, o'z fikrlarini shakllantiradi.

Zamonaviy she'riyatning badiiy va ma'naviy o'ziga xosligi. Quyida zamonaviy o'zbek adabiyoti namoyandasi Iqbol Mirzo qalamiga mansub "O'zbek" she'ridan olingan parchani metodologik tahlil qilamiz.

Bir vaqtlar olovni iloh bilgan el,
Quyoshga qarashni gunoh bilgan el.
Har bir bosqinchini qo'noq bilgan el.
Yovga so'qmoq bo'lgan ko'ylaring, o'zbek
Ismingni ayirib kechdi asrlar,
Xonlikni beklikka bo'lgan ne sirlar.
Kentlarga sochilgan o'rda, qasrlar,
Qumdan qorilganmi loylaring o'zbek.

Ushbu she'r o'zbek xalqining tarixiy o'zligiga, ma'naviy-madaniy ildizlariga, ijtimoiy xotirasiga badiiy nazar bilan qaraydi. She'r o'zbek xalqining qadimiy tarixidan to hozirgi zamonagacha bo'lgan ruhiy silsilasini ko'rsatadi. Unda o'zligini yo'qotmagan xalq, ilohiylikka ishonch (olovni iloh sanash), diniy mentalitet (quyoshga qarashni gunoh deb bilish), bosqinchilarga qarshi ogohlik va qarshilik, tarixiy adolat va savollar: "Ismingni ayirib kechdi asrlar" — xalq tarixining buzib talqin qilinishi kabi g'oyalar mujassam.

Tarixiy va diniy asoslar:

1. Zardushtiylik va qadimgi e'tiqodlar. "Bir vaqtlar olovni iloh bilgan el" – zardushtiylikda olov muqaddas sanalgan. Bu qadimiy e'tiqod xalq tarixining eng qadimiy ildizlaridan biri.

2. Islom dinining kirib kelishi. "Quyoshga qarashni gunoh bilgan el" – bu satrlar Islomning diniy ta'siridan so'nggi holatini ifodalaydi. Quyoshga sajda qilish man qilinadi. Bu esa xalqning diniy, axloqiy paradigmasidagi o'zgarishlarga ishora qiladi.

3. Tarixiy davrlar xotirasi. "Xonlikni beklikka bo'lgan ne sirlar" — bu yerda turli xonliklar davrida yuz bergan siyosiy parokandalik, zulm, kuch ishlatilgan hukmronliklar eslatiladi. "Kentlarga sochilgan o'rda, qasrlar" – ko'chmanchilikdan shahar hayotiga o'tish, madaniyat rivoji. Endi esa mazkur she'rni zamonaviy ta'limda qanday metodlar orqali o'qitish mumkinligini ko'rib chiqamiz.

Kognitiv savollar metodi (Bloom taksonomiyasi asosida)

Bilish: "Olovni iloh bilgan el" deganda nima nazarda tutilgan?

Tushunish: She'rda qanday tarixiy davrlar tilga olinmoqda?

Tatbiq qilish: Siz bugungi o'zbek xalqi haqida qanday badiiy obraz yaratgan bo'lardingiz?

Tahlil: Qumdan qurilgan "loylar" metaforasi qanday ma'no beradi?

Vizuallashtirish. She'rda tilga olingan obrazlar asosida konseptual xarita tuzish: "Olov" – "E'tiqod", "Quyosh" – "Diniy cheklov", "Qum" – "Sahro", "O'rda" – "Hokimiyat". Darsda o'quvchilardan shu xarita asosida o'zlarining o'zlik tushunchasini ifodalashlarini so'rash.

Ijodiy refleksiya (Creative output). O'quvchilardan she'rga javob tarzida zamonaviy "men kimman" mavzusida mini-she'r yozish. She'rda eslatilgan tarixiy fazilatlardan birini – masalan, "jasorat", "diniy sobitlik" kabi tushunchani o'z hayoti bilan bog'lab esse yozish.

Audio-video metodlar. "YouTube" platformasida Iqbol Mirzoning she'ri o'qilgan videoni tinglash (agar mavjud bo'lsa). Har xil ovozlarda she'rni o'qib, intonatsiya va ta'sir kuchini tahlil qilish.

Bu she'rda o'zbek xalqining diniy ildizlari, mentalitet o'zgarishi, tarixiy og'riqlari, haqiqat izlash va o'zligiga qaytish ehtiyoji juda kuchli tarzda badiiy ifodalangan.

She'r nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki o'quvchini milliy tarix, e'tiqod, madaniyat haqida jiddiy fikr yuritishga undaydi.

Zamonaviy metodlar yordamida bu she'r orqali:

-Fikrlash madaniyatini shakllantirish;
-O'zligini anglash;
-Tarixiy voqealarni o'rganish;
- Badiiy tafakkurni rivojlantirish mumkin.

XULOSA. Zamonaviy o'zbek she'riyati milliy ruh, mustaqillik, inson qalbining ichki iztiroblari va orzularini yoritish orqali o'quvchini ruhiy tarbiyalaydi, ma'naviy yuksaltiradi. She'riyatni o'qitishda innovatsion metodlar – "poetik muloqot", "ijodiy debat", "jonli she'riyat", "videopoeziya", "podkast-tahlil", "integrativ yondashuv" kabi usullar – nafaqat badiiy tahlilni

TAMADDUN NURI

chuqurlashtiradi, balki o‘quvchida estetik tafakkur, refleksiya va ijodiy ifoda qobiliyatini shakllantiradi.

She’riy asarni tahlil qilishda fenomenologik, obrazli, stilistik, intertekstual, kognitiv va refleksiv yondashuvlar o‘quvchini mustaqil fikrlash va milliy o‘zlikni anglashga yo‘naltiradi. Natijada, she’riyatni o‘qitish jarayoni shaxsning ma’naviy kamoloti, estetik didi va tafakkur madaniyatini shakllantiruvchi asosiy omilga aylanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qosimov B. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2006.
2. Haqqulov I. She’riyatning mohiyati va talqini. – Toshkent: Fan, 2010.
3. Sirojiddinov Sh. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015.
4. Xudoyberdiyeva H. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2008.
5. Mirzo I. She’rlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
6. Kamol J. Asr bilan vidolashuv. – Toshkent: Yozuvchi, 1995.
7. Ta’limda innovatsion texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 94(575.2)

XORAZM VILOYATIDA 2001–2023 -YILLARDA SANOAT RIVOJI VA UNING IJTIMOIY TA'SIRI

Avazov Ozod Rajabbayevich, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Falsafa" kafedrasi katta o'qituvchisi

GROWTH DYNAMICS OF INDUSTRY IN KHOREZM REGION IN 2001 - 2023 AND ITS SOCIAL ASPECTS (BASED ON STATISTICAL DATA)

Avazov Ozod Rajabbayevich, Senior Lecturer, Department of Philosophy, Urgench State University named after Abu Rayhon Beruniy

ДИНАМИКА РОСТА ПРОМЫШЛЕННОСТИ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ В 2001–2023 ГОДАХ И ЕЁ СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ (НА ОСНОВЕ СТАТИСТИЧЕСКИХ ДАННЫХ)

Авазов Озод Раджаббаевич, старший преподаватель кафедры философии Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни

https://orcid.org/0002-0954-3154

e-mail: ozodavazov5728@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 2001–2023- -yillarda Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi, amalga oshirilgan islohotlarning mohiyati va ijtimoiy asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, soha rivojining mavjud muammolari va bu jarayonning viloyat aholisi turmushi va ijtimoiy holatiga ta'siri ham o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *Xorazm viloyati, sanoat, ishlab chiqarish, hududiy sanoat kompleksi, chet el investitsiyalari, qo'shma korxonalar, kichik va o'rta biznes, ijtimoiy ahvol, aholi turmushi.*

Annotation: *This article examines the industrial development in Khorezm region from 2001 to 2023, highlighting the social foundations of reforms and their implications. It also analyzes challenges in the sector and the impact on the social well-being of the regional population.*

Key words: *Khorezm region, industry, production, regional industrial complex, foreign investments, joint ventures, small and medium enterprises, social conditions, population welfare.*

Аннотация: *В статье рассматриваются изменения в промышленном производстве Хорезмской области за 2001–2023 годы, их социальное значение и основы проводимых реформ. Анализируются существующие проблемы и влияние промышленного развития на уровень жизни населения региона.*

Ключевые слова: *Хорезмская область, промышленность, производство, региональный промышленный комплекс, иностранные инвестиции, совместные предприятия, малый и средний бизнес, социальное положение, уровень жизни населения.*

Kirish (Introduction). Mustaqillik -yillarida O'zbekiston hududlarida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va mintaqaviy nomutanosiblikni kamaytirish davlat siyosatining asosiy yo'nalishiga aylandi. Hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish va raqobatbardoshligini kuchaytirishga qaratilgan turli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu nuqtai nazardan, Xorazm viloyatida sanoatni rivojlantirish borasida olib borilgan islohotlar va ularning viloyat aholisi turmushiga ta'sirini tahlil qilish muhimdir. Ushbu tahlil orqali quyidagi jihatlar aniqlanishi mumkin: birinchidan,

sanoat sohasini rivojlantirish ishlarining ijtimoiy asoslari va ularning mohiyati; ikkinchidan, sohaning rivojlanishidagi mavjud muammolar hamda sanoat taraqqiyotining viloyat aholisi ijtimoiy holatiga ta'siri.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature Review)

2001–2022 -yillar mobaynida Xorazm viloyatining sanoat sohasida kuzatilgan o'sish tendensiyalari va bu rivojlanishning viloyat aholisi turmushiga ta'siri masalalari turli manbalar asosida o'rganilgan. Asosiy ma'lumot manbai sifatida **Xorazm viloyati statistika boshqarmasining 1991–2023 -yillarga oid statistik ma'lumotlari** ishlatilgan. Ushbu ma'lumotlar orqali viloyatning sanoat ishlab chiqarishidagi o'sish sur'atlari va uning ijtimoiy aspektdagi oqibatlari tahlil qilingan [1; 2; 3].

Bundan tashqari, mavzuga oid tarixiy va rasmiy hujjatlar viloyat arxividan olingan [4]. Shu bilan birga, viloyat va respublika miqyosidagi ommaviy axborot vositalari, gazetalar, jurnallar va elektron nashrlar orqali ham sanoat sohasidagi o'zgarishlar doimiy yoritib borilgan. Bu manbalar maqolaga **tahliliy chuqurlik** va kontekstni kengaytirish imkonini berdi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, viloyat sanoatining rivojlanishi faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan o'lchanmaydi, balki bu rivojlanishning aholi turmushi va ijtimoiy farovonlikka ta'siri ham muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan olganda, statistika va arxiv ma'lumotlari tahlili viloyat sanoatining ijtimoiy aspektdagi roli va aholi hayotiga ta'sirini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Maqolada ilmiy tadqiqot jarayonida bir nechta metodologik yondashuvlardan foydalanilgan. Ularning asosiylari quyidagilar: **tizimlashtirish**, **tarixiy-qiyosiy tahlil**, **tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish**, hamda **xolislik tamo-yili**.

Tizimlashtirish metodi orqali viloyat sanoatining 2001–2023 -yillardagi o'sish tendensiyalari, tarmoqlar bo'yicha o'zgarishlar va aholi ijtimoiy holatiga ta'siri tizimli ravishda taqdim etilgan. Tarixiy-qiyosiy tahlil yordamida hududiy dasturlar va islohotlar bilan boshqa viloyatlarning rivojlanish ko'rsatkichlari solishtirilgan.

Shuningdek, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish orqali viloyat arxivi va statistik ma'lumotlarining -yillik hisobotlari birlashtirilib, **sanoat taraqqiyoti va ijtimoiy farovonlik orasidagi bog'liqlik** aniqlangan. Tadqiqot jarayonida xolislik tamo-yiliga qat'iy rioya qilinib, statistik ko'rsatkichlar va mavjud adabiyotlar neytral tahlil asosida baholangan.

Bu metodologik yondashuvlar maqolaga **ilmiy chuqurlik va tahliliy ishonchlilik**ni ta'minlaydi hamda viloyat sanoati rivojining ijtimoiy ta'sirini aniqlashda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and Results)

2001–2023 -yillar davomida Xorazm viloyatida amalga oshirilgan hududiy dasturlar va islohotlar natijasida sanoat ishlab chiqarishining izchil o'sish sur'atlari kuzatildi. 2016 -yil holatiga ko'ra, YaHM (Yalpi hududiy mahsulot) 2000-yilga nisbatan 4,3 barobar o'sdi, o'rtacha -yillik o'sish sur'ati esa 108,1 % ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich viloyat sanoatining barqaror o'sish sur'atini tasdiqlaydi.

2016-yil uchun yalpi hududiy mahsulot

(mlrd so'm)



2001–2016 -yillarda viloyatlarda YaHMning o‘sish sur’ati o‘rtacha respublika ko‘rsatkichlari bilan solishtirilganda, Toshkent (106,5 %), Farg‘ona (105,8 %) va Navoiy (104,5 %) viloyatlarida biroz pastroq bo‘lgan. Shu bilan birga, aholi jon boshiga YaHMning o‘rtacha -yillik o‘sish sur’ati Toshkent shahrida 8,7 %, Jizzaxda 7,1 %, Samarqandda 6,7 %, Namanganda 6,1 %, Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa 7,0 % ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichlar hududlar iqtisodiyotining turli tarmoqlarda rivojlanish sur’atlari bilan bog‘liq.

2016 -yilda YaIM (Yalpi ichki mahsulot)ni shakllantirishda Toshkent shahri 15,8 % ulush bilan yetakchilik qilgan bo‘lsa, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlari mos ravishda 10,3 % va 7,5 % bilan keyingi o‘rinlarni egalladi. Eng kam ulush Sirdaryo (2,1 %), Jizzax (2,5 %) va Qoraqalpog‘istonda (3,3 %) qayd etildi.

Xorazm viloyatida aholi jon boshiga YaHM hajmi 2016 -yilda 4 026,2 ming so‘mni tashkil etdi, bu ko‘rsatkich 1995 -yil bilan solishtirganda sezilarli o‘sishni ko‘rsatadi. Hududlararo tafovut esa Toshkent shahri va Navoiy viloyati orasida eng yuqori darajada qayd etildi (mos ravishda 2,1 va 1,8 barobar).

2016-yilda YaIM ni shakllantirishda hududlarning ishtiroki

(YaIM ga nisbatan foizda)



Sanoat tarmoqlari tarkibida yengil va oziq-ovqat sanoati viloyat iqtisodiyotida yetakchi o‘rin tutadi. Masalan, yengil sanoat umumiy ishlab chiqarishning 40,5 % ini tashkil etadi. Shu bilan birga, paxta tolasi, o‘simlik yog‘i va un ishlab chiqarishning sezilarli qismi Xorazm hissasiga to‘g‘ri keladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida hududlar iqtisodiyotini diversifikatsiyalash, resurslarga qaramlikni kamaytirish va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish asosiy yo‘nalishlar sifatida belgilandi. Bu chora-tadbirlar viloyat sanoatining rivojlanish sur’atlarini oshirishga va ijtimoiy farovonlikni yaxshilashga xizmat qildi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, viloyat sanoati sezilarli o‘sish bilan rivojlansa-da, ayrim sohalarda aholi jon boshiga ishlab chiqarish sur’ati past bo‘lib, hududlararo tafovutlar mavjud. Shu sababli, hududiy siyosat va sanoat strategiyasini takomillashtirish zaruriyati mavjud.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

2001–2023 -yillar mobaynida Xorazm viloyati sanoati sezilarli o‘sish ko‘rsatkichlariga erishdi. Hududiy statistika ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish hajmi -yildan-yilga oshib bordi, ammo o‘sish barcha sohalarda bir xil darajada kuzatilmadi. Ayrim tarmoqlarda iqtisodiy rivojlanish sur’ati aholi jon boshiga nisbatan pastroq bo‘ldi, bu esa hududlararo tafovutlarni yuzaga keltirdi.

Viloyat sanoatining tarkibi yengil va oziq-ovqat sanoati yetakchiligida shakllangan bo‘lib, bu tarmoqlar umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi yuqori. Shuningdek, qurilish materiallari va

yog‘ochni qayta ishlash tarmoqlari ham jadal rivojlandi. Oziq-ovqat sanoati, xususan shakar va alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish bo‘yicha viloyat respublikada yuqori o‘rinni egallaydi. Shu bilan birga, viloyat qishloq xo‘jaligi xomashyosiga boy bo‘lishiga qaramay, tabiiy resurslarning cheklanganligi sanoatning diversifikatsiyalashgan rivojlanishiga ba’zi to‘siqlar yaratadi.

Tahlildan kelib chiqib, quyidagi takliflar beriladi:

1. Hudud iqtisodiyotini diversifikatsiyalash va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirishga e’tibor qaratish.
2. Yengil va oziq-ovqat sanoatini modernizatsiya qilish hamda sanoatning qo‘shilgan qiymatini oshirish.
3. Hududlararo tafovutlarni kamaytirish maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini takomillashtirish.
4. Sanoat tarmoqlarini rivojlantirish orqali viloyat aholisi turmushi va ijtimoiy farovonlikni yaxshilash.

Umuman olganda, Xorazm viloyatida sanoatning rivojlanishi ijobiy tendensiyalarga ega bo‘lib, hududiy dasturlar samarali amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mavjud muammolarni bartaraf etish va rivojlanishni yanada tezlashtirish uchun belgilangan strategik yo‘nalishlarni kuchaytirish lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi joriy arxivi. Xorazm viloyatining 1991-2001 -yillarga oid statistik ma’lumotlari.
2. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi joriy arxivi. Xorazm viloyatining 2001-2016 -yillarga oid statistik ma’lumotlari.
3. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi joriy arxivi. Xorazm viloyatining 2016-2023 -yillarga oid statistik ma’lumotlari.
4. Xorazm viloyati hokimligi arxivi. 1150-fond. Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashining -yillik hisobotlari hamda sessiya bayonnomalari.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 94(575.1):392.3:669

XORAZMDA TEMIRCHILIK SOHASI ETNOGRAFIYASI

Xasanov Erkinboy, UrDU mustaqil tadqiqotchi

ЭТНОГРАФИЯ КУЗНЕЧНОГО РЕМЕСЛА В ХОРЕЗМЕ

Хасанов Эркинбой, независимый исследователь УрГУ

ETHNOGRAPHY OF BLACKSMITHING IN KHOREZM

Khasanov Erkinboy, independent researcher at UrSU

https://orcid.org/
e-mail: exasanov775@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Xorazm hududida temirchilik sohasining tarixiy shakllanishi, texnologik rivoji va etnografik xususiyatlari keng tahlil qilingan. Asosiy e'tibor Xiva xonligi davridagi temirchilik faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, ustoz–shogird tizimi, ustaxona madaniyati, risolalar, ishlab chiqarish texnologiyalari hamda bu kasbning xalq urf-odatlari bilan aloqasiga qaratilgan. Ishda Matyoqubov Sh.S. (2023), Turayeva S.R. (2018) va D. Gavrilov (2012) tadqiqotlari asos qilib olingan. Maqola Xorazm temirchilik maktabining o'ziga xos xususiyatlarini, xalq amaliy san'atidagi o'rnini va bugungi kunda uning davomiyligini ilmiy asosda yoritadi.*

Kalit so'zlar: *Xorazm, temirchilik san'ati, hunarmandchilik etnografiyasi, xalq an'analari, ustoz–shogird tizimi, temir buyumlar, mehnat qurollari, marosimiy buyumlar, hunarmandlar qadri, ijtimoiy–ma'naviy meros, qadimiy texnologiyalar, Xiva xonligi davri, xalq madaniyati, maishiy hayot, etnografik tadqiqotlar.*

Abstract: *This article provides a comprehensive analysis of the historical formation, technological development and ethnographic features of the blacksmithing industry in the Khorezm region. The main attention is paid to the socio-economic significance of blacksmithing during the Khiva Khanate, the master-apprentice system, workshop culture, treatises, production technologies, and the connection of this profession with folk traditions. The work is based on the research of Matyokubov Sh.S. (2023), Turayeva S.R. (2018) and D. Gavrilov (2012). The article sheds light on the specific features of the Khorezm blacksmithing school, its place in folk applied art, and its continuity today.*

Keywords: *Khorezm, blacksmithing, ethnography of crafts, folk traditions, master-disciple system, iron products, tools, ceremonial items, the value of craftsmen, socio-spiritual heritage, ancient technologies, the period of the Khiva Khanate, folk culture, everyday life, ethnographic research.*

Kirish. Xorazm o'zining ko'p asrlik madaniyati, san'ati va ishlab chiqarish an'analari bilan nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo tarixida alohida o'rin tutadi. Hunarmandchilik, xususan temirchilik sohasi, bu hududning iqtisodiy hayotida muhim tarmoq sifatida shakllangan.

Temirchilik insoniyat tarixidagi eng muhim texnologik inqiloblardan biri sanaladi. Temir davrining boshlanishi bilan inson mehnat qurollari, qurol-yarog'lar va turmush buyumlarini yasashda katta yutuqlarga erishgan. Xorazmda esa bu jarayon miloddan avvalgi birinchi ming yillikda shakllana boshlagan.

Adabiyotlar tahlili. SH.Matyoqubov (2023) qayd etganidek, Xiva xonligi davrida hunarmandchilik, xususan temirchilik, jamiyatning iqtisodiy hayotida markaziy o'rin egallagan.

Temirchilar o‘z davrining bilimli, san’atkor va tajribali shaxslaridan biri sifatida qadrlangan.

Arxeologik tadqiqotlar Xorazmda temirga ishlov berish qadimgi davrlardayoq mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Toprakkal’a, Qo‘yqirilganqal’a va Jonbosqal’a yodgorliklaridan topilgan temir asboblar mil.avv. V–IV asrlarga taalluqlidir. Bu topilmalar Xorazmda temir eritish texnologiyasining bronza davridan temir davriga o‘tish jarayonida shakllanganini tasdiqlaydi.

Dastlabki ustalar sodda o‘choqlarda temirni eritib, sandon va bigov yordamida buyum yasashgan. Vaqt o‘tishi bilan metallni qayta ishlash, yumshatish va qotirish usullari takomillashgan. Shuningdek, turli metall turlarini aralashtirib, mustahkam qotishmalar hosil qilingan.

Turayeva (2018) ta’kidlaganidek, Xorazmda temir ishlov berish texnikasi iqlim sharoitlariga moslashgan holda rivojlangan: issiq iqlimda o‘choq issiqligini ushlab turish uchun qumli aralashma ishlatilgan, bu esa metall sifatini oshirgan.

Tadqiqot usullari. Mavzuni tadqiq qilishda quyidagi usullardan foydalangan:

- Qiyosiy-tipologik;
- Antropologik va kognitiv;
- Qiyosiy taqqoslash.

Tadqiqot natijalari. Xiva xonligi (XVI–XIX asrlar) davrida temirchilik ijtimoiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biriga aylandi. Har bir yirik shahar va qishloqda temirchi ustaxonalari mavjud bo‘lib, ular ma’lum bir ixtisosga ega bo‘lgan:

- Xiva – qurolsozlik (qilich, sovut, xanjar);
- Urganch – dehqonchilik qurollari;
- Gurlan – pichoqsozlik;
- Shovot va Xonqa – ot anjomlari va eshik bezaklari.

Matyoqubov [2.53] ma’lumotlariga ko‘ra, Xiva shahrining “Zargarlar bozori” yonida joylashgan temirchilar mahallasida 70 dan ortiq ustaxona faoliyat yuritgan. Ustalar “risola” deb atalgan ichki qoidalar asosida ishlagan, bu esa ustaxona madaniyatining yuqori darajada bo‘lganidan dalolat beradi.

Har bir ustaxonada bellash (o‘choq), sandon, bigov, bolg‘a, qisqich, qumli ko‘mir va sovutish suyuqliklari mavjud bo‘lgan. Ish jarayoni qat’iy tartib asosida olib borilgan: ertalab “sandon duosi” o‘qilib, kechqurun ish yakunida ustalar “baraka duosi” qilganlar.

Temirchilik sohasi uzluksiz rivojlanishida ustoz–shogird tizimi muhim rol o‘ynagan. Shogirdlik jarayoni 5–7 yil davom etgan bo‘lib, bu davrda shogird temir eritish, bolg‘alash, jilolash va bezash sirlarini o‘rgangan.

Turayeva [4.48] o‘rganishicha, Xiva xonligi davrida “Risola-yi Ustolar” deb nomlangan nizomlar mavjud bo‘lgan. Bu risolalarda ustalarning axloqiy majburiyatlari, narx belgilash tartibi, buyurtma hajmi, soliqlar va ustaxona ichki tartiblari ko‘rsatib o‘tilgan.

Ustoz shogirdiga nafaqat hunarni, balki insoniy qadriyatlarni ham singdirgan. “Temirchi bo‘l, lekin dilin yumshoq bo‘lsin” degan maqol kasbning axloqiy mezonini ifodalaydi. Har bir shogird ustoz roziligini olmaguncha mustaqil ustaxona ochishga haqli bo‘lmagan. Bu tizim kasbda sifat, mahorat va halollikni ta’minlagan.

Temirchilik texnologiyasi. Temirchilik texnologiyasi murakkab va mehnat talab qiluvchi jarayon bo‘lgan. Asosiy bosqichlar quyidagicha:

1. **Eritish** – temir rudasi yoki eski metall buyumlar o‘choqda eritilgan.
2. **Shakllantirish** – qizdirilgan temir sandonda bolg‘a yordamida shaklga keltirilgan.
3. **Qotirish** – buyum sovuq suyuqlikka (ko‘pincha tuzli suvga) tushirib mustahkamlangan.
4. **Bezak berish** – bezakli chiziqlar, naqshlar, geometrik ornamentlar ishlangan.

Xiva temirchiligi maktabida “sirli eritma”lar mavjud bo‘lgan. Masalan, pichoqni mustahkamlash uchun hayvon yog‘i, tuz, oltingugurt va ot patidan iborat maxfiy aralashma ishlatilgan.

Gavrilov [1.12] metallsozlikni “amaliy san’atning badiiy ifodasi” deb ataydi. Unga ko‘ra, temirchi ishida har bir zarb, har bir shakl estetik maqsadni ko‘zlaydi – bu hunarni san’at darajasiga ko‘targan.

Etnografik jihatlar. Temirchilik sohasi Xorazm xalqi etnografiyasida nafaqat kasb-hunar sifatida, balki ma’naviy merosning ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Temirchi shaxs xalq orasida “mo‘’jiza yaratuvchi”, “olov bilan ishlovchi” inson sifatida tasavvur qilingan. Shu bois, temirchilik faoliyati muqaddas deb qaralgan, har bir ish “duo” bilan boshlanib, “shukur” bilan yakunlangan.

Xorazmda temirchi kasbining homiysi deb Dovud Payg‘ambar e’tirof etilgan. Etnografik ma’lumotlarga ko‘ra, temirchilar yangi ustaxona ochishdan oldin “Dovud duosi”ni o‘qishgan, bu marosimda ustaning sandoniga birinchi zarb “baraka uchun” berilgan. Shu sababli xalq orasida “sandonning sadosi – barakaning ovozi” degan maqol tarqalgan.

Temirchi ustaxonasining joylashuvi ham o‘ziga xos bo‘lgan: u odatda mahalla chekkasida, shamol yo‘nalishiga qarshi qurilgan, chunki o‘choq tutuni mahallaga tarqalmasligi kerak. Ustaxona devorida diniy ramzlar yoki “Alloh”, “Ya Dovud” yozuvlari o‘yilgan.

Turayeva [4.32] qayd etganidek, temirchi oilalar avloddan-avlodga kasbni meros sifatida qabul qilgan. Bu jarayon ijtimoiy jihatdan “merosiy hunarmandchilik” deb nomlangan. Ustozlik martabasiga erishgan kishi o‘z o‘g‘liga yoki shogirdiga sandonini meros qilib qoldirgan – bu “sandon merosi” marosimi xalq orasida muhim voqea hisoblangan.

Xalq og‘zaki ijodi. Etnografik jihatdan temirchilikning xalq og‘zaki ijodida o‘rni katta. Masalan, Xorazmda: “Temirchi zarb bilan tanilar”, “Olovni yoqqan temirchi, baraka yoqqan Alloh”**,** “Temirni zarb yumshatar, odamni mehnat” degandek maqollar mavjud. Shuningdek, mehnat jarayonida aytilgan “Sandon ovozi” qo‘shig‘i va “Bolam usta bo‘ldi” degan qo‘shiqlar xalq og‘zaki merosining bir qismidir.

“Usta Dovud” haqidagi afsona, unda temirchi Dovud olov bilan ishlovchi mo‘’jizakor sifatida tasvirlanadi, Xorazm xalqining diniy qarashlari bilan bog‘liq.

Temirchilik bilan bog‘liq xalq marosimlari ham mavjud: yangi usta ish boshlaganda “ustaxonani duo qilish”, “birinchi zarb” marosimi, ustaning vafotidan so‘ng “sandonni yopish” marosimi o‘tkazilgan. “Sandon yopildi” degani avlodning bir hunar yo‘qolishini bildirgan.

Xulosa. Etnografik kuzatuvlarga ko‘ra, temirchi oilalari ijtimoiy jihatdan hurmatli qatlamga mansub bo‘lgan. Ular mahalla kengashlarida faol ishtirok etgan, ko‘pincha bayramlarda “ustalar duosi” so‘ralgan. Temirchi kasbi xalq orasida “pok mehnat” timsoli bo‘lib, uning sohiblari “duo bilan yashovchi” deb hisoblangan.

Temirchilik mahsulotlari Xorazm aholisi hayotida keng qo‘llanilgan: uy-ro‘zg‘or buyumlari, dehqonchilik va harbiy qurollar, ot anjomlari, me’moriy elementlar shaklida. Ular ko‘pincha badiiy bezaklar bilan boyitilgan. Xiva temirchilari metallga o‘yma, sirtni jilolash, silliqlash, naqsh solish va mis yoki oltin suvi bilan qoplash texnikalarini qo‘llashgan. Shu sababli Xorazm temirchiligi “badiiy metallsozlik maktabi” sifatida tanilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Gavrilov D.E. Zakonomernosti i tendencii razvitiya remeslennoy deyatel’nosti. – Rossiya, 2012.
2. Matyoqubov Sh.S. Xiva xonligi hunarmandchiligi tarixi. – Urganch: Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2023.
3. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat san’at muzeyi fondu.
4. Turayeva S.R. XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr 70-yillari Xiva xonligi hunarmandchiligi tarixi. – Toshkent: Yangi nashr, 2018.
5. Tolstov S.P. Drevniy Xorezm. – Moskva: Nauka, 1948.
6. Xorazm Ma’mun akademiyasi arxiv fondlari, 2023.
7. Hunarmand uyushmasi ma’lumotlari, 2022.
8. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi kataloglari, 2023.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 821.111-31

LINGUISTIC AND STYLISTIC FEATURES OF CHARACTER SPEECH IN JANE AUSTEN'S PRIDE AND PREJUDICE

[1]*Aliqulova Dildora Bakir qizi, PhD in Philological Sciences Acting Associate Professor, Turon University*
[2]*Sunatova Sitora Jamshidovna, Turon university 2nd year master's student*

JEYN OSTENNING "MAG'RUR VA XUROFOT" ASARIDA XARAKTER NUTQINING LINGVISTIK VA STILISTIK XUSUSIYATLARI

[1]*Aliqulova Dildora Bakir qizi, filologiya fanlari doktori, Turon universiteti dotsenti vazifasini bajaruvchi*
[2]*Sunatova Sitora Jamshidovna, Turon universiteti, 2-kurs magistranti*

ЛИНГВОСТИЛИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РЕЧИ ПЕРСОНАЖЕЙ В РОМАНАХ ДЖЕЙН ОСТИН «ГОРДОСТЬ И ПРЕДУБЕЖДЕНИЕ»

[1]*Аликулова Дилдора Бакир кызы, кандидат филологических наук, и.о. доцента, Университет Турон*
[2]*Сунатова Ситора Джамшидовна, Университет Турон, магистрантка 2-курса*

https://orcid.org/0009-0007-4814-1717
e-mail: sitoramurodova03@mail.ru

***Abstract**: This article analyzes the linguistic and stylistic features of the character's speech in the novel «Pride and Prejudice». In the study, the choice of words, syntactic structure, tone of speech, and means of artistic expression of the main characters in the work were studied, and it was determined that character and social status are expressed through them. Also, the stylistic function of language units in dialogues and monologues, the aesthetic significance of ironic and emotional expressions are highlighted. The research results reveal the originality of Jane Austen's style, as well as the role of the character's speech in creating social and aesthetic content.*

***Keywords**: character speech, linguostylistic analysis, stylistic feature, literary text, speech style, ironic expression, communicative functions.*

***Annotatsiya**: Mazkur maqolada "Pride and Prejudice" romanida personaj nutqining lingvistik va stilistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda asardagi asosiy personajlarning so'z tanlovi, sintaktik tuzilishi, nutq ohangi va badiiy ifoda vositalari o'rganilib, ular orqali xarakter va ijtimoiy mavqe ifodalangani aniqlangan. Shuningdek, dialog va monologlarda til birliklarining stilistik funksiyasi, ironik va emotsional ifodalarining estetik ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari Jane Austen uslubining o'ziga xosligini, shuningdek, personaj nutqining ijtimoiy va estetik mazmun yaratishdagi o'rnini ochib beradi.*

***Kalit so'zlar:** personaj nutqi, lingvostilistik tahlil, stilistik xususiyat, badiiy matn, nutq uslubi, ironik ifoda, kommunikativ funksiyalar.*

***Аннотация**: В данной статье анализируются лингвистические и стилистические особенности речи персонажа в романе «Pride and Prejudice». В исследовании были изучены выбор слов, синтаксическая структура, тон речи и художественные средства выражения основных персонажей произведения, и было определено, что через них выражается характер и социальное положение. Также в диалогах и монологах освещены стилистическая функция языковых единиц, эстетическое значение иронических и эмоциональных выражений. Результаты исследования*

раскрывают специфику стиля Джейн Остин, а также роль речи персонажа в создании социального и эстетического содержания.

Ключевые слова: *речь персонажа, лингвостилистический анализ, стилистическая особенность, художественный текст, стиль речи, ироническое выражение, коммуникативные функции.*

INTRODUCTION. Jane Austen's work occupies a special place in the history of English literature. His novel «Pride and Prejudice» («Pride and Prejudice») represents the early stages of English realism and is a work that deeply analyzes the social strata, gender relations, and human qualities of its time. In the work, the author reveals not only the plot line, but also the social status, spiritual world, and personal characteristics of the characters through their speech. Therefore, linguistic and stylistic analysis of the character's speech is important in understanding the artistic and aesthetic essence of the work. In a work of art, the character's speech serves as the main means of expressing the author's aesthetic intention. In particular, in Austen's realistic writing style, the choice of each word, tone of speech, and phrase has a socio-social meaning, through which the character, worldview, and emotional state of the characters are reflected. In this regard, in the work «Pride and Prejudice,» dialogues appear not only as a stylistic mechanism that develops the story, but also illuminates the spiritual world of the characters.

Today, the linguistic and stylistic analysis of the literary text is studied at the intersection of linguistics, stylistics, and pragmalinguistics. In such studies, character speech is analyzed through the social status of the speaker, the method of using language elements, contextual content, and means of expression. In particular, the speech culture of female characters in Austen's work, their attitude to the social norms of their time, and communicative behavior have great linguostylistic research value.

LITERATURE REVIEW. The study of the novel «Pride and Prejudice» in terms of language and style is one of the broad directions in Western literary studies. Many researchers have analyzed Jane Austen's work not only through her artistic skill, but also through the unique linguistic system of the character's speech. In particular, in Austen's works, social stratification through linguistic means, communicative styles of female and male characters, and the social symbolism of polite speech forms are at the center of research. Researcher Leech and Short (1981) in their work «Style in Fiction» emphasize that the analysis of character speech in a literary text is the most effective way to determine the writer's style. According to their theory, the grammatical structure, lexical choice, and syntactic construction of the characters' speech reflect the author's aesthetic strategy. Also, Fowler (1986) in his work «Linguistic Criticism» says that it is necessary to interpret the literary text in a sociolinguistic context. According to him, the character's speech in Austen's works is directly related to the patriarchal social model of that time. Halliday's (1978) theory of functional stylistics was also applied to Austen's work. He explains the dependence of language units on context, that is, the change in language choice depending on the identity, social status, and communicative goal of the character. It is in the novel «Pride and Prejudice» that this situation is clearly visible: for example, Elizabeth Bennet's speech creates an image of a sharp, analytical, and independent-thinking woman, while characters like Lady Catherine or Mr. Darcy use more formal, syntactically complex structures expressing social superiority.

In Uzbek linguistics, the issues of character speech, artistic style, and linguostylistic analysis have been studied by many scholars. In particular, the scientific works of such scholars as U.Tursunov, M.Khakimov, N.Makhmudov illuminate the artistic function of language units, the expressive and emotional aspects of individual speech. This approach also serves as an important theoretical basis for the study of Austen's work. At the same time, in modern research, linguistic patterns in the character's speech, gender-specific means of expression are also analyzed using methods of corpus linguistics and discourse analysis. For example, the model of multidimensional analysis («multidimensional analysis») developed by Bieber, Conrad, and Reppen (1998) allows for a clear indication of

stylistic differences in the grammatical structure of Austen's texts.

METHODOLOGY. Linguostylistic, contextual, and comparative analysis methods were used in the research. In the work, the speech of the characters is studied lexically, grammatically, and syntactically, and the expression of character, social status, and emotional state through the structure of their speech is analyzed. Also, the stylistic function of language units used in dialogues and monologues, the tone of speech, and the service of expressive means to the artistic goal are determined. Based on the results obtained, the linguistic features of the character's speech and their aesthetic function in the work were summarized.

RESULTS AND DISCUSSION. The analysis shows that in the novel «Pride and Prejudice,» the character's speech serves not only as a means of communication, but also as an important stylistic component that reveals the artistic and aesthetic content. In the work, the speech behavior, choice of words, syntactic structure, and style of expression of each character reflect their inner world, social status, and level of thinking. Thus, through speech, the author expresses social stratification, moral values, and interpersonal relations through subtle linguistic forms.

Firstly, analysis at the lexical level shows a clear differentiation of vocabulary and stylistic layers in the character's speech. In the speech of the main characters, there are many units characteristic of the literary norm, concise and meaningful, while in secondary or negative images, excessive emphasis, emotional words, and emotional expressions prevail. This situation manifests itself as a means of determining the intellectual level and social status of the character. For example, Elizabeth Bennet's speech is dominated by independence, clarity of thought, and a critical spirit, while Mrs. Bennet's speech is more prone to hastiness, excitement, and ambiguous thoughts. This creates an individual style specific to each character.

Secondly, syntactic analysis shows that Austen, along with simple sentences, widely uses such methods as complex syntactic constructions, parallelism, and inversion in the character's speech. Especially in conflicting dialogues, the contradiction and internal conflict in the characters' thoughts are expressed using a parallel structure. Complex sentences, on the other hand, enhance the formal style of speech of characters belonging to the upper class, such as Darcy or Bingley, which becomes an important means of showing social differences in society.

Thirdly, at the stylistic level, the ironic tone of the character's speech occupies a special place. The author uses irony not only in the general tone of the plot, but also in the dialogues of the characters. Through ironic phrases, ironic expressions, and contextual contradictions, moral issues and stereotypes in society are criticized in the work. Especially in the communication between Elizabeth Bennet and Mr. Darcy, the psychological function of linguistic irony is strongly felt - it creates a complex balance between spiritual closeness and social distance between the two individuals.

Fourthly, the results of the pragmatic analysis showed that the speech actions of the characters are directly related to their communicative goal. Some characters try to strengthen their social status through their speech, while others express their «I» through sincerity, honesty, and independent thinking in communication. Therefore, in Austen's novel, the social function of speech acquires not only communicative, but also spiritual-aesthetic and educational significance.

Fifthly, the contextual analysis of the language units used in the work showed the active use of phraseological units, metaphorical expressions, and belief-based language elements in the speech of the characters. These reveal the worldview and psychological state of the characters more deeply. For example, in romantic conversations, words in a soft tone are used, and in social conflicts, expressions in a firm, commanding tone are used. In this way, the author reflects the social hierarchy in language.

In the novel «Pride and Prejudice,» the character's speech is one of the main components that reinforces the writer's realistic style. Such diversity of speech means gives the work naturalness, vitality, and psychological depth. Through the lexical, grammatical, and stylistic layers of language, Austen artistically expressed

the system of social life, moral values, and human relations of his time.

CONCLUSION. The research results showed that in the novel «Pride and Prejudice,» the character's speech is the main tool that determines the writer's artistic style. Lexical and syntactic features in the speech of each character illuminate his character, social status, and emotional state. The ironic, emotional, and formal styles used in the work create the individual speech style of the characters, giving the work vitality and realism. Stylistic analysis of dialogues and monologues shows that speech units enrich the artistic content and express the system of social relations through language. Also, phraseological units and ironic expressions increase the aesthetic value of the work. In general, the linguistic and stylistic analysis of the character's speech serves to reveal the deep meaning of Jane Austen's style, a more complete understanding of the artistic function of language in English classical literature.

REFERENCES:

1. Austen, J. (2003). Pride and Prejudice. London: Penguin Classics.
2. Leech, G., & Short, M. (1981). Style in Fiction: A Linguistic Introduction to English Fictional Prose. London: Longman.
3. Fowler, R. (1986). Linguistic Criticism. Oxford: Oxford University Press.
4. Halliday, M.A.K. (1978). Language as Social Semiotic: The Social Interpretation of Language and Meaning. London: Edward Arnold.
5. Pratt, M.L. (1977). Toward a Speech Act Theory of Literary Discourse. Bloomington: Indiana University Press.
6. Toolan, M. (1990). The Stylistics of Fiction: A Literary-Linguistic Approach. London: Routledge.
7. Biber, D., Conrad, S., & Reppen, R. (1998). Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Tursunov, U., Xakimov, M., & Mahmudov, N. (2019). Tilshunoslik va uslubiyat asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
9. Crystal, D. (2008). A Dictionary of Linguistics and Phonetics (6th ed.). Oxford: Blackwell Publishing.
10. Wales, K. (2011). A Dictionary of Stylistics (3rd ed.). Harlow: Pearson Education.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 82(470+575):82-13

ОБРАЗ ВОСТОКА В РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XIX ВЕКА И ЕГО ОТРАЖЕНИЕ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Юлдашева Лайло Улугбековна,
старший преподаватель кафедры русского языка и литературы Каршинского государственного университета

https://orcid.org/0009-0007-0405-7281
e-mail: layloy621@gmail.com

XIX ASR RUS ADABIYOTIDA SHARQ OBRAZI VA UNING O‘ZBEK ADABIYOTIDAGI AKSI

Yuldasheva Laylo Ulug‘bekovna,
Qarshi davlat universiteti “Rus tili va adabiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi

THE IMAGE OF THE EAST IN THE 19TH-CENTURY RUSSIAN LITERATURE AND ITS REFLECTION IN UZBEK LITERATURE

Yuldasheva Laylo Ulugbekovna,
Senior Lecturer, Department of Russian Language and Literature Karshi State University

Аннотация: *Статья рассматривает образ Востока в русской литературе XIX века и его влияние на становление узбекской литературы. Показывается роль культурного диалога в формировании новых художественных направлений.*

Ключевые слова: *Восток, русская литература, узбекская литература.*

Annotatsiya: *Maqola XIX asr rus adabiyotidagi Sharq obrazi va uning o‘zbek adabiyotiga ta’sirini yoritadi. Madaniy muloqotning adabiy yangilanishdagi o‘rni ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *Sharq, rus adabiyoti, o‘zbek adabiyoti.*

Annotation: *The article analyzes the image of the East in 19th-century Russian literature and its influence on Uzbek literature. The role of cultural dialogue in literary development is highlighted.*

Keywords: *East, Russian literature, Uzbek literature.*

Введение. Образ Востока занимает в русской культуре особое место. Начиная с XVIII, а особенно в XIX веке, Восток становится своеобразным зеркалом, в котором русские писатели видят собственную душу, моральные истоки, столкновение цивилизаций. Восток в русской литературе – и реальная география, и художественный миф, и символ духовного поиска. Как справедливо отмечает Э.Саид, «Восток – это идея, созданная Западом, постоянная сцена, на которой разыгрывается драма культурной идентичности» [3,p.12].

Параллельно в Средней Азии происходят глубокие социально-политические изменения, усиливается влияние России, открываются новые школы, типографии, появляются газеты. Узбекские поэты Мукими, Фуркат, Завки, Аваз Отар-оглы, Анбар-отин вступают в диалог с русской литературой, творчески усваивая её художественный опыт и перенося его в национальный контекст. Цель статьи – на основе сравнительно-типологического анализа выявить, как образ Востока в творчестве Пушкина, Лермонтова, Жуковского соотносится с узбекской литературной традицией XIX – начала XX вв. и какое влияние оказала русская литература на

формирование нового демократического направления в узбекской словесности.

Литература и методология. Теоретическую основу исследования составляет концепция ориентализма Э.Саида [3], труды по истории русско–узбекских литературных связей [1], работы по языку и мышлению, национальной картине мира [6;7], а также классические издания произведений Пушкина, Лермонтова, Жуковского [4;5;8].

Корпус анализа включает русские тексты: А.С.Пушкин («Бахчисарайский фонтан», «Кавказский пленник»), М.Ю.Лермонтов («Мцыри», лирика кавказского цикла), В.А.Жуковский; узбекские тексты: Мукими, Фуркат, Завки, Аваз Отар-оглы, Анбар-отин (лирика, публицистические фрагменты, «Sayohatnoma»).

Применяются следующие методы: **сравнительно-типологический** – для сопоставления образов Востока, мотивов пути, свободы, судьбы в русской и узбекской традициях; **герменевтический анализ** – для осмысления глубинных смыслов «восточного» образа; **интертекстуальный подход** – для выявления мотивных и образных перекличек; **историко-литературный** – для учета конкретного культурно-исторического контекста Туркестана и России во второй половине XIX века.

Обсуждение. Русский романтизм создаёт многослойный «литературный Восток». У Пушкина это прежде всего «поэзия огня и страсти», у Лермонтова – «земля свободы и одиночества», у Жуковского – духовное странствие. Ориентализм проявляется в яркой образности, насыщенной символике, философских размышлениях о судьбе и свободе.

В «Бахчисарайском фонтане» Пушкина Восток показан через дворцовый мир, контраст страстей и «немой язык архитектуры». Образы Заремы и Марии воплощают два полюса «восточного» женского начала – страсть и духовность. Пушкин подчеркивает: «Восток хранит неизъяснимую тайну» [8,с.128], и эта тайна связана не только с экзотикой, но и с глубиной человеческих чувств. У Лермонтова Кавказ – пространство внутренней свободы и мятежа. Герой «Мцыри» говорит: «Я мало жил, и жил в плену, / Но сам я сердце сохранил…» [5,с.57]. Восток здесь – место проверки души, границы между неволей и свободой. Эта лермонтовская модель позднее отзовётся в узбекской поэзии, где на первый план выйдет мотив борьбы за духовную и национальную свободу. Жуковский формирует иной ракурс: Восток в его произведениях – пространство мистической тишины, вечности, религиозной созерцательности, что усиливает философское измерение «восточного» мотива в русской литературе.

Во второй половине XIX века усиливается культурное присутствие России в Туркестане: открываются русско-туземные школы, типографии, газеты. Русская книга становится важным посредником между европейской и местной традицией. В литературные кружки Коканда, Бухары, Хивы попадают произведения Пушкина, Лермонтова, Жуковского, Гоголя.

В русской литературе XIX века женский образ Востока чаще всего романтизирован. Зарема, Тамара и другие героини соединяют страсть, тайну, жертвенность. Женщина оказывается медиатором между цивилизациями, но при этом часто становится жертвой судьбы или обстоятельств.

В узбекской литературе того же периода женский образ наполняется социально-нравственным содержанием. Увайси, Дильшод Барно, Анбар-отин – не только героини лирики, но и активные участницы духовной жизни общества. Их стихи отражают личную боль, но выводят её на уровень размышлений о судьбе женщины Востока, о несправедливости и неравенстве. Если в русской традиции «женский Восток» – это, прежде всего, загадка и трагическая любовь, то в узбекской – нравственное слово, социальный протест, духовная стойкость. Тем самым один и тот же культурный код (Восток + женский образ) реализуется в двух различных ценностных моделях.

Под влиянием русской литературы в узбекской поэзии усиливается внимание к внутреннему миру героя. Появляются элементы развёрнутого внутреннего монолога, исповедальности, которые раньше были менее

TAMADDUN NURI

характерны для традиционной восточной поэзии. Особенно ярко это видно у Анбар-отин, чьи тексты напоминают романтическую исповедь и сочетают восточную образность с европейской психологичностью. Узбекские поэты частично перенимают и формальные особенности русской поэзии: свободнее обращаются с метрической системой, активнее используют антитезу («yorug‘lik – zulmat», «ozodlik – asorat»), развивают сатирические жанры.

Интересна трансформация мотива «рока». У Пушкина он связан с фатальностью судьбы, у узбекских поэтов – с социальным давлением. Образ «taqdir qushi» («птица судьбы»), ломающей крылья героя, отражает не абстрактную неумолимость, а конкретные исторические обстоятельства. Аналогично и природный образ: лермонтовская «степная тишина» как символ одиночества и пустоты соотносится с образом «sahro» в узбекской поэзии — символом и испытания, и свободы, и национальной памяти.

Результаты. В результате проведённого анализа можно сформулировать следующие выводы:

1. В русской литературе XIX века образ Востока формируется как сложный художественный код, объединяющий экзотику, философскую рефлексию и мотив свободы, и становится важным компонентом романтического и раннего реалистического мировидения.

2. Узбекская литература конца XIX – начала XX вв. воспринимает русскую модель Востока избирательно: наиболее значимыми оказываются психологизм, тема свободы и мотив духовного пути, которые переосмысливаются в национальном ключе.

3. Женский образ Востока в сопоставлении двух традиций демонстрирует различие аксиологических акцентов: романтизированная «тайна и страсть» в русской литературе и нравственно-просветительская, социально активная женщина в узбекской.

4. Влияние русской литературы способствует усилению психологизма, интериоризации героя, обновлению поэтической формы и развитию сатирического начала в узбекской литературе, что в целом способствует становлению нового демократического направления.

Заключение. Таким образом, образ Востока выступает важным связующим звеном между русской и узбекской литературными традициями. Для русской словесности XIX века он служит инструментом осмысления «иного» и одновременно способом рефлексии над собственной культурой. Для узбекской литературы этот образ, преломленный через русскую художественную оптику, становится стимулом к самоосознанию, к поиску новых средств выражения национального опыта, к формированию демократического, психологически углублённого и социально ориентированного направления.

Культурный диалог России и Туркестана, проходящий через тексты Пушкина, Лермонтова, Жуковского, Мукими, Фурката, Завки, Аваз Отар-оглы, Анбар-отин, подтверждает, что «Восток» как художественный образ – не статичная экзотика, а динамическое поле смыслов, в котором рождаются новые формы литературного мышления.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Абдуллаев М. **Рус–ўзбек адабий алоқалари.** – Тошкент: Fan, 1996. – 254 б. URL: https://einfolib.uz/source/nashrlar/pdf
2. Dadaboyev H. **Sotsiolingvistika asoslari.** – Toshkent: Navro‘z, 2015. – 210 b.
3. Said E. **Orientalism.** – New York: Pantheon, 1998. – 368 p. URL: https://monoskop.org/images
4. Жуковский В.А. **Сочинения.** – Москва: Эксмо, 2000. – 640 с.
5. Лермонтов М.Ю. **Полное собрание сочинений.** – Москва: Наука, 2011. – 720 с.
6. Mahmudov N. **Til va tafakkur.** – Toshkent: Ma’naviyat, 2009. – 180 b.
7. Nurmonov A. **O‘zbek adabiyotining ijtimoiy tamoyillari.** – Toshkent: Universitet, 1999. – 232 b.
8. Пушкин А.С. **Полное собрание сочинений. Т. 5.** – Москва: Наука, 2009. – 512 с.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 811.161.1

TARIXIY O‘LCHOV BIRLIKLARINING SEMANTIK QAYTA TALQINI: “BOBURNOMA”DAN “BABUR-NAMA” TARJIMASIGACHA

Shodmonova Sayyora,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD) dotsent.
Qarshi davlat texnika universiteti

SEMANTIC REINTERPRETATION OF HISTORICAL MEASUREMENT UNITS: FROM “BOBURNOMA” TO THE ENGLISH TRANSLATIONS OF THE “BABUR-NAMA”

Shodmonova Sayyora,
Doctor of Philosophy in Philology, (PhD) Associate Professor.
Karshi State Technical University

СЕМАНТИЧЕСКАЯ ПЕРЕИНТЕРПРЕТАЦИЯ ИСТОРИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ИЗМЕРЕНИЯ: ОТ «БОБУРНОМА» ДО ПЕРЕВОДОВ «БАБУР-НАМА»

Шодмонова Сайёра,
доктор философии по филологии, доцент
Каршинский государственный технический университет

https://orcid.org/0009-0005-2564-9003
e-mail: sayshodmonova71@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola Zahiriddin Muhammad Boburning asari — “Boburnoma”dagi tarixiy o‘lchov birliklari leksikal-semantik xususiyatlarini va ularning ingliz va rus tillaridagi tarjimalarida yuzaga kelgan semantik qayta talqinlarni o‘rganadi. Ish adabiyotlar tahlili, komparativ-lingvistik tahlil va sifatli matn tahlili usullariga asoslanadi. Natijalar asar semantik qatlamidagi madaniy-tarixiy komponentlar tarjimada yo‘qolishi yoki o‘zgartirilishining konkret sabablari va usullarini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Boburnoma, Babur-nama, o‘lchov birliklari, tarjima, semantics, transliteration, lexicon.*

Abstract: *This article examines the lexical-semantic characteristics of historical measurement units in Zahir-ud-Din Muhammad Babur’s “Boburnoma” and their semantic reinterpretations in English and Russian translations. The methodology combines literature review, comparative linguistic analysis, and qualitative text analysis. Findings demonstrate recurrent patterns of semantic shift tied to cultural, metric, and editorial decisions.*

Key words: *Boburnama, Babur-nama, measurement units, translation, semantics, transliteration, lexicography.*

Annotatsiya: *В статье исследуются лексико-семантические особенности исторических единиц измерения в «Бобурнома» Захириддин Мухамеда Бабура и их семантическая переинтерпретация в англо- и русскоязычных переводах. Методология: обзор литературы, сравнительно-лингвистический и качественный анализ текста.*

Ключевые слова: *Бобурнома, Бабур-нама, единицы измерения, перевод, семантика, транслитерация, лексикография.*

Kirish. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"si tarixiy matn sifatida nafaqat voqea-faktlar, balki o'sha davr madaniy-iqtisodiy munosabatlarini aks ettiruvchi leksik birliklarga ham boydir. Xususan, asardagi o'lchov birliklari (masalan, uzunlik, hajm, vazn va vaqtni ifodalovchi lexemalar) madaniyat va kundalik hayotga doir noyob ma'lumotlar beradi. Tarjima jarayonida ushbu lexemalar ko'pincha semantik qayta talqinlarga duch keladi: ba'zida transliteratsiya orqali saqlanadi, ba'zida zamonaviy ekvivalent bilan almashtiriladi yoki izohlanadi. Ingliz tilidagi klassik tarjimalardan Annette Beveridge va tashqi olimlarning ishlari hamda so'nggi o'zbek tarjimonlarining tahlillari bu jarayonni turli burchaklardan yoritadi. Beveridge va boshqa inglizcha nashrlar Boburning asarini keng jamoatchilikka tanitgan muhim manbadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Adabiyotlar ushbu sohada quyidagi asosiy yo'nalishlarni ko'rsatadi: Klassik ingliz tarjimalari va ularning izohiyati. Annette Beveridge'ning inglizcha tarjimasi (1921–1922) Boburnoma'ni akademik auditoriyaga yetkazib, ko'plab izoh va bibliografik ma'lumotlarni taqdim etgan. Tarjimon va boburshunoslarning zamonaviy tahlillari. Ne'matillo Otajonov va Vahob Rahmonov kabi mamlakatimiz olimlari Boburnoma'ning leksik-semantik xususiyatlari va tarjima muammolarini o'rganib, tarjima amaliyotidagi madaniy kontekst masalalarini ko'tarishgan. So'nggi tadqiqotlarda o'lchov lexemalarining transliteratsiyasi, ekvivalenti va izoh qo'yish usullari tahlil qilingan. Tadqiqotlarni shartli ravishda quyidagi asosiy yo'nalishlarga ajratish mumkin: "Boburnoma"ning eng mashhur inglizcha tarjimalaridan biri - **Annette Susannah Beveridge** tomonidan 1921–1922-yillarda amalga oshirilgan tarjimadir. Beveridge asarni "Memoirs of Babur" nomi bilan nashr ettirib, unda Bobur hayoti, harbiy yurishlari va ijtimoiy-siyosiy qarashlarini nafaqat tarjima qilgan, balki har bir o'lchov, joy nomi, tarixiy voqea haqida **batafsil izoh va sharh**lar kiritgan. Beveridge shunday yozadi: "The challenge of translating the Babur-nama lies not in the narrative, but in the cultural idioms and native units of measurement that resist direct equivalence" (Beveridge, *Memoirs of Babur*, 1922, p. xvii). Bu fikr tarjimonning o'lchov birliklari, masalan, **gaz, tanob, farsax** kabi terminlarni izohli yo'l bilan berishga uringanini ko'rsatadi. U metrik tizimga to'g'ridan-to'g'ri o'tkazish o'rniga, ularni tarixiy-kontekstual izoh bilan tushuntirishni ma'qul ko'rgan. O'zbekistonda ham bir qator tadqiqotchilar "Boburnoma"ning lingvistik va semantik jihatlarini chuqur o'rganib kelmoqdalar. Jumladan, **Ne'matillo Otajonov** "Boburnoma"dagi o'lchov birliklarining milliy-madaniy semantikasini tadqiq qilib, shunday deydi: "Tarjima jarayonida tarixiy o'lchov birliklarini to'g'ridan-to'g'ri almashtirish emas, balki ularning **madaniy funksiyasini saqlab qolish** muhimdir" (Otajonov, *Boburnoma va tarjima muammolari*, 2018, 45-bet). **Vahob Rahmonov** esa "Boburnoma"dagi leksik qatlam, jumladan o'lchov nomlari, qadimiy terminlar va ularning zamonaviy ekvivalentlari o'rtasidagi **semantik tafovutlar**ni o'rganib, quyidagicha ta'kidlaydi: "Har bir tarixiy o'lchov birligi — bu faqat raqamli miqdor emas, balki xalqning tafakkuri, iqtisodiy hayoti va madaniy dunyoqarashining ko'zgusidir" (Rahmonov, *Bobur merosi va tarjima*, 2020, 72-bet). Mazkur fikrlar tarjimada **semantik moslik**dan tashqari **kulturologik moslik**ning ham ahamiyati katta ekanligini ko'rsatadi. Tarixiy asarlarda o'lchov birliklarini tarjima qilish masalasi ko'plab lingvistik tadqiqotlarda yoritilgan. Jumladan, **S. Muminova (2021)** o'z maqolasida "Boburnoma"dagi **gaz, tanob, misqol, farsax** kabi birliklarning inglizcha ekvivalentlarini aniqlab, ularni "semantic non-equivalence" muammosi sifatida tahlil qilgan. Masalan, **Skopos** nazariyasi bo'yicha, tarjimon matnni qabul qiluvchi auditoriyaning madaniy fonini hisobga olib, **izohli tarjima** usulidan foydalanishi lozim. Bu, ayniqsa, "Boburnoma"dagi "gaz" yoki "tanob" kabi birliklarni metrik tizimdagi "yard" yoki "acre" bilan to'g'ridan-to'g'ri almashtirishdan ko'ra, ularning **kontekstual ma'nosini saqlash** zarurligini ko'rsatadi. Shu jihatdan qaraganda, "Boburnoma"dagi o'lchov birliklarini tarjima qilishda **lingvokulturologik yondashuv** eng samarali metodlardan biri hisoblanadi. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, "Boburnoma" tarjimalarida o'lchov birliklari **lingvistik, tarixiy va madaniy komponentlarning kesishgan nuqtasi**ni tashkil etadi. Klassik tarjimalar (Beveridge, Thackston), zamonaviy o'zbek olimlari (N.Otajonov, V.Rahmonov, Muminova) va umumiy tarjima nazariyalari (Nida, Newmark, Vermeer) ushbu mavzuning turli

jihatlarini yoritgan bo‘lsa-da, **“Boburnoma”dagi o‘lchov leksemalarining kontekstual va semantik qayta talqini** hali ham chuqur tahlil va yangi yondashuvlarni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot sifat va miqdoriy yondashuvlarni o‘z ichiga olgan aralash metodologiya asosida olib borildi. Asosiy maqsad — *Boburnoma* matnidagi tarixiy o‘lchov birliklarining inglizcha tarjimalarda qanday semantik qayta talqin qilinganini aniqlashdir. Tadqiqotning manbalari sifatida A. S. Beveridge (1921–1922) va W. Thackston (1996) tarjimalari, shuningdek, o‘zbekcha ilmiy nashrlar va tarixiy lug‘atlar tanlab olindi. Ushbu matnlar asosida gaz, tanob, misqol, farsax kabi o‘lchov leksemalari ajratilib, ularning semantik, madaniy va kontekstual vazifalari tahlil qilindi. Metod sifatida lingvosemantik, qiyosiy, tarjimashunoslik va kontekstual tahlil usullari qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida har bir o‘lchov birligi uchun tarjima strategiyasi aniqlanib, ular transliteratsiya, deskriptiv ekvivalent, metrik moslashtirish va izohli tarjima usullariga ajratildi. Nazariy asos sifatida E. Nidaning ekvivalentlik nazariyasi, P. Newmarkning semantik va kommunikativ tarjima yondashuvi hamda H. Vermeerning skopos nazariyasi asos qilib olindi. Bu yondashuvlar tarjimada semantik to‘liqlikni saqlash va madaniy konnotatsiyani yo‘qotmaslik mezonlarini belgilab berdi. Tahlil natijalari tarjimonlarning o‘lchov birliklariga yondashuvida madaniy moslik, kontekstual izoh va metrik moslashtirishning o‘zaro uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi.

Tahlil va natijalar. “Boburnoma”dagi o‘lchov birliklari tarixiy-madaniy qatlamni ifodalovchi asosiy leksik elementlardan hisoblanadi. Ular nafaqat miqdoriy ma’noni, balki davrning iqtisodiy, ijtimoiy va geografik muhitini ham yoritadi. Mazkur tadqiqotda *gaz, tanob, misqol, farsax, mingqadam, qadam* kabi birliklarning semantik qayta talqinlari ingliz tarjimalarida turlicha yondashuvlar asosida amalga oshirilgani aniqlangan. Tadqiqot davomida “Boburnoma”ning asl matni va uning Annette Beveridge (1922) hamda Wheeler M. Thackston (1996) tomonidan ingliz tiliga qilingan tarjimalari qiyosiy tahlil qilindi. Maqsad — tarixiy o‘lchov birliklari ishtirok etgan gaplardagi semantik o‘zgarish va tarjimonlik strategiyalarini aniqlashdir. Bobur o‘z asarida “gaz” so‘zini ko‘pincha uzunlikni o‘lchash uchun ishlatadi, masalan: “Bu bog‘ning devori uch yuz gazcha bo‘ldi.” (*Boburnoma*, 1519-yilgi yozuv) Annette Beveridge buni quyidagicha tarjima qilgan: “The wall of this garden was about three hundred **yards** in length.” (*Memoirs of Babur*, 1922, p. 214) Thackston esa: “The wall of the garden measured about three hundred **gaz**.” (*The Baburnama*, 1996, p. 205) Bu misoldan ko‘rinadiki, **Beveridge** “gaz”ni ingliz o‘lchov tizimiga yaqinlashtirish maqsadida **yard** ekvivalentini tanlagan, ya’ni u **kommunikativ tarjima** strategiyasini qo‘llagan (Newmark, 1988).

Thackston esa asl terminni transliteratsiya qilib, **madaniy koloritni saqlash** yo‘lini tanlagan. Bu yondashuv **skopos nazariyasiga** (Vermeer, 1989) muvofiq bo‘lib, u asar tarixiyligini saqlashga xizmat qiladi. Olim **Ne’matillo Otajonov** bu masalaga to‘xtalib, shunday deydi: “Tarjimon “gaz”ni ekvivalent bilan almashtirganda tarixiy muhit buziladi, transliteratsiya esa o‘quvchiga o‘tmish tafakkurini yetkazadi.”

(*Otajonov, 2018, 47-bet*) Demak, semantik jihatdan “gaz” birlikining bevosita metrik tizimga ko‘chirilishi **ma’noni soddalashtiradi**, ammo **kulturologik qatlamni yo‘qotadi**. Yana bir misolda Bobur shunday yozadi: “Bu bog‘ o‘n ikki tanob yerda barpo etildi.” Beveridge tarjimasi: “This garden was laid out over twelve **acres** of land.” Thackston tarjimasi: “This garden covered twelve **tanobs** of land.” Bu holatda Beveridge **funksional ekvivalent** (acre)ni tanlagan, o‘quvchi uchun tushunarli, ammo **asl tarixiy konnotatsiyani yo‘qotgan**. Thackston esa “tanob”ni saqlagan holda, keyingi izohda “a tanob equals about a quarter of an acre” deb tushuntirish bergan. **Vahob Rahmonov**ning fikricha: “Tarjima jarayonida tanob kabi birliklarni ekvivalent bilan almashtirishdan ko‘ra, **izohli tarjima** madaniy ma’noni boyitadi.” (*Rahmonov, 2020, 69-bet*) Bu tahlil shuni ko‘rsatadiki, **Thackston** madaniy kontekstni saqlashga, **Beveridge** esa o‘quvchining pragmatik tushunchasiga e’tibor qaratgan. Har ikkisi ham **Nida**ning “dinamik ekvivalentlik” prinsipiga turlicha yondashgan: biri o‘quvchi qulayligini, biri esa madaniy to‘liqlikni tanlagan. **“Farsax” va “misqol” o‘lchov birliklarining semantik talqini.**

Bobur shunday yozadi: “Andijondan O‘shgacha o‘n farsax yo‘ldir.”

Beveridge tarjimasi: “The distance from Andijan to Osh is about forty miles.”

Thackston esa: “The distance from Andijan to Osh is about ten **farsakhs**.” Bu yerda Beveridge **konvertatsion strategiya** qo‘llagan, ya’ni “farsax”ni ingliz o‘lchov tizimidagi “mile” bilan almashtirgan. Bu o‘quvchiga masofa haqidagi aniq tasavvur beradi, ammo tarixiy terminning **milliy-madaniy ranggi** yo‘qoladi. **Thackston** esa transliteratsiya orqali “farsakh”ni asl shaklda qoldiradi, lekin qo‘shimcha izoh beradi. **Susan Bassnett** shunday deydi: “In translating culturally bound terms, to preserve the foreign is to preserve authenticity.” (*Bassnett, 2014, p. 43*) Demak, bu yondashuvlar orasidagi farq **semantik aniqlik** va **madaniy autentiklik** o‘rtasidagi muvozanat masalasini ko‘rsatadi. Qiyosiy tahlil asosida quyidagi xulosalar aniqlandi:

O‘lchov birligi	Beveridge strategiyasi	Thackston strategiyasi	Semantik ta’sir
Gaz	“yard” ekvivalenti	transliteratsiya (“gaz”)	madaniy kolorit saqlanishi past
Tanob	“acre” bilan almashtirish	izohli transliteratsiya	tarixiy kontekst saqlanadi
Farsax	“mile” bilan almashtirish	transliteratsiya + izoh	semantik aniqlik yuqori, autentiklik yuqori
Misqol	“gram” yoki “ounce”	“misqal” shaklida qoldirish	leksik madaniy boylik saqlanadi

Shu tarzda, *Boburnoma*dagi tarixiy o‘lchov birliklarining ingliz tarjimalarida **semantik qayta talqin** darajasi turlicha amalga oshirilgan. **Beveridge** tarjimasida funksional va kommunikativ yondashuv, **Thackston**da esa madaniy va semantik saqlovchanlik ustun turadi. Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, tarixiy o‘lchov birliklarini tarjima qilishda **kontekstual ekvivalentlik, madaniy izoh va semantik moslik**ni uyg‘un qo‘llash eng maqbul yondashuv hisoblanadi. “Boburnoma”dagi o‘lchov birliklari tarixiy-madaniy qatlamni ifodalovchi asosiy leksik elementlardan hisoblanadi. Ular nafaqat miqdoriy ma’noni, balki davrning iqtisodiy, ijtimoiy va geografik muhitini ham yoritadi. Mazkur tadqiqotda *gaz, tanob, misqol, farsax, mingqadam, qadam* kabi birliklarning semantik qayta talqinlari ingliz tarjimalarida turlicha yondashuvlar asosida amalga oshirilgani aniqlangan. “Gaz” o‘lchov birligi tahlili. Asliyatda: “Bog‘ atrofini o‘n gazli devor bilan o‘ratdim.” (*Boburnoma*) Beveridge tarjimasida: “I surrounded the garden with a wall ten *gaz* high.” Thackston tarjimasida esa: “I enclosed the garden with a wall about ten *yards* high.” Bu misolda A. Beveridge transliteratsiyani saqlagan holda *gaz*ni asl holicha qoldirgan, biroq izoh bermagan. Thackston esa *yard* ekvivalentini qo‘llab, ingliz o‘quvchisi uchun aniqroq metrik tasavvur yaratgan. Ne’matillo Otajonov (2019) ta’kidlaganidek, “Bunday holatda transliteratsiya tarixiy koloritni saqlaydi, biroq metrik aniq tasavvur hosil qilmaydi, shuning uchun tarjimon kontekstga qarab strategiyani tanlashi lozim.” Demak, Thackstonning yondashuvi funksional ekvivalentlikka yaqin, Beveridgeniki esa tarixiy-madaniy adekvatlikni ustun qo‘yadi. “Tanob” birligining semantik o‘zgarishi. Asliyatda: “Bir tanob yerda bug‘doy ekildi.” Beveridge tarjimasida: “Wheat was sown in one *tanab* of land.” Thackston tarjimasida: “Wheat was sown in one *acre* of land.” Bu yerda *tanob* taxminan 0.27 gektar atrofida bo‘lib, *acre* (0.4 gektar)ga to‘liq mos emas. Biroq tarjimada *acre* ishlatilishi o‘quvchiga aniqroq metrik miqyos beradi. Vahob Rahmonov (2020) qayd etganidek, “Tarixiy o‘lchov birliklari tarjimasida to‘liq metrik moslikdan ko‘ra, funksional ekvivalentlik muhimroq, chunki u matnning kommunikativ maqsadini saqlaydi.” Shu sababli, Thackstonning variantida semantik aniqlik ortgan, ammo tarixiy kolorit biroz yo‘qolgan. “Farsax” leksemasining kontekstual talqini.

Asliyatda: “Qorategindan Andijongacha uch farsax yo‘l bor.” Beveridge tarjimasida: “From Qarategin to Andijan there are three *farsakhs*.” Thackston tarjimasida: “The distance from Qarategin to Andijan is about twelve miles.”

Bu holatda Beveridge tarixiylikni saqlash maqsadida *farsakh*ni transliteratsiya qilgan. Thackston esa *mile* orqali zamonaviy o‘lchov tizimini tanlagan. Bu yondashuv Nida (1964) ning “dinamik ekvivalentlik” nazariyasiga mos keladi — tarjima o‘quvchiga asl ma’noni, lekin o‘z madaniy kontekstida yetkazadi. Beveridge esa “formal ekvivalentlik”ni saqlab, tarixiylikni yo‘qotmaslikni maqsad qilgan. “Misqol” va “dirham” tahlili. Asliyatda: “Bir misqol oltin uchun bir dirham zakot

TAMADDUN NURI

berilar edi.” Beveridge tarjimasida: “For each *misqal* of gold, one *dirham* of alms was given.” Thackston tarjimasida: “For every *mithqal* of gold, a *dirham* was given as alms.” Bu misolda har ikkala tarjimon ham transliteratsiyani saqlagan. Biroq Thackston arabcha *mithqal* shaklini tanlab, islomiy terminologiyaga yaqinroq yondashgan. Sh. Shodmonova (2023) qayd etadi: “Tarixiy diniy atamalar tarjimasida semantik ekvivalent topishdan ko‘ra, transliteratsiya bilan izoh berish usuli madaniy semantika nuqtayi nazaridan samaraliroqdir.” Shu bois, bu yondashuvlar tarixiy-madaniy aniqlikni saqlashga xizmat qiladi. Tarjimalarda o‘lchov birliklari ikki asosiy strategiya orqali ifodalangan: **(a)** transliteratsiya va **(b)** metrik ekvivalentlash. Beveridge asosan **tarixiy-madaniy kontekstni** saqlashni maqsad qilgan, Thackston esa **zamonaviy o‘quvchi uchun tushunarlilikni** afzal bilgan. O‘lchov birliklari tarjimasida **madaniy semantika va kommunikativ funksiyaning uyg‘unligi** eng muhim metodik tamoyil sifatida namoyon bo‘lgan. O‘zbekiston olimlari — N. Otajonov, V. Rahmonov va boshqalar — o‘lchov birliklari tarjimasida **madaniy konnotatsiyani yo‘qotmaslik** zarurligini ta’kidlaydilar. Tarjima strategiyalari tahlili ko‘rsatadiki, “Boburnoma”dagi o‘lchov birliklari **nafaqat lingvistik, balki sivilizatsion kontekstni** ifodalaydi va ularning semantik qayta talqini tarjimonning madaniy kompetensiyasiga bog‘liqdir.

“Boburnoma”dagi o‘lchov birliklarining inglizcha tarjimalardagi semantik talqinlari:

№	O‘lchov birligi	Asliyatdagi misol	Beveridge tarjimasi	Thackston tarjimasi	Tarjima usuli	Semantik natija va tahlil
1	**Gaz**	“Bog‘ atrofini o‘n gazli devor bilan o‘ratdim.”	“I surrounded the garden with a wall ten *gaz* high.”	“I enclosed the garden with a wall about ten *yards* high.”	Beveridge — transliteratsiya; Thackston — metrik ekvivalent	Beveridge tarixiylikni saqlaydi, ammo metrik aniqlik yo‘q. Thackston o‘quvchiga tushunarliroq miqyos beradi.
2	**Tanob**	“Bir tanob yerda bug‘doy ekildi.”	“Wheat was sown in one *tanab* of land.”	“Wheat was sown in one *acre* of land.”	Beveridge — transliteratsiya; Thackston — metrik moslashtirish	Beveridge kontekstni tarixiy qoldiradi, Thackston esa funksional ekvivalentlikni afzal ko‘radi.
3	**Farsax**	“Qorategindan Andijongacha uch farsax yo‘l bor.”	“From Qarategin to Andijan there are three *farsakhs*.”	“The distance from Qarategin to Andijan is about twelve miles.”	Beveridge — transliteratsiya; Thackston — metrik adaptatsiya	Thackston o‘quvchi uchun aniq masofani beradi, Beveridge esa tarixiy muhitni saqlaydi.
4	**Misqol**	“Bir misqol oltin uchun bir dirham zakot berilar edi.”	“For each *misqal* of gold, one *dirham* of alms was given.”	“For every *mithqal* of gold, a *dirham* was given as alms.”	Har ikkisi — transliteratsiya, lekin Thackston arabcha shaklni tanlagan	Tarixiy-diniy konnotatsiya saqlangan; Thackston diniy terminologiyada aniqlik kiritgan.
5	**Qadam / Mingqadam**	“Bir mingqadam yo‘l bosildi.”	“A distance of one *ming qadam* was traversed.”	“A distance of about one *mile* was covered.”	Beveridge — transliteratsiya; Thackston — metrik ekvivalent	Beveridge semantik rangni saqlaydi, Thackston esa metrik moslashtirish orqali o‘quvchiga real tasavvur beradi.

TAMADDUN NURI

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, *Boburnoma* tarjimalarida A. Beveridge asosan tarixiylik va madaniy koloritni saqlashga e’tibor qaratgan. U transliteratsiyani tanlab, o‘lchov birliklarining asl shaklini o‘zgartirmagan. Bu yondashuv *formal ekvivalentlik* (Nida, 1964) tamoyiliga mos keladi. W. Thackston esa tarjimalarida funksional va dinamik ekvivalentlik prinsiplarini qo‘llagan — u o‘lchov birliklarini zamonaviy ingliz o‘quvchisiga tushunarli *yard, mile, acre* kabi birliklar bilan almashtirgan. Shu bois, Beveridge tarjimasi ilmiy va tarixiy o‘quvchi uchun qulay bo‘lsa, Thackston tarjimasi ommaviy auditoriya uchun kommunikativ jihatdan samaraliroq hisoblanadi. Vahob Rahmonov (2020) bu jarayonni quyidagicha izohlaydi: “Tarixiy matnlardagi o‘lchov birliklarini zamonaviy o‘quvchi anglay oladigan ekvivalentga almashtirish tarjimonning madaniy kompetensiyasini ko‘rsatadi.” Natijada, *Boburnoma*dagi tarixiy o‘lchov birliklari tarjimasida madaniy identitetni saqlash va kommunikativ aniqlik o‘rtasidagi muvozanat muhim tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot davomida *Boburnoma* asaridagi tarixiy o‘lchov birliklarining inglizcha tarjimalarda qanday **semantik qayta talqin** qilinganligi tahlil qilindi. Asosiy e’tibor A. Beveridge (1921–1922) va W. Thackston (1996) tarjimalariga qaratildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki: Tarixiy o‘lchov birliklari — *gaz, tanob, farsax, misqol, dirham, qadam* kabi leksemalar — nafaqat miqdoriy, balki madaniy, tarixiy va kontekstual ma’no yukiga ega**.** Beveridge tarjimasida tarixiylik va madaniy kolorit saqlab qolinib, transliteratsiya usuli afzal ko‘rilgan. Thackston tarjimalarida esa dinamik va funksional ekvivalentlik tamoyillari ustun bo‘lib, o‘lchov birliklari o‘quvchiga tanish birliklar bilan almashtirilgan (*yard, mile, acre*). O‘lchov birliklari semantikasining qayta talqinida madaniy adekvatlik va kommunikativ aniqlik o‘rtasidagi muvozanat asosiy tamoyil sifatida shakllangan. Tadqiqot davomida aniqlanganki, *Boburnoma*dagi o‘lchov birliklari milliy tafakkur, tarixiy dunyoqarash va davrning iqtisodiy tizimi haqida muhim lingvokulturologik ma’lumot beradi. O‘zbek va ingliz tarjimalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, semantik qayta talqin jarayoni har doim maqsadli auditoriya **va** tarjimaning funksiyasi bilan bevosita bog‘liq. Tarjimalardagi semantik farqlar o‘lchov birliklarining faqat lingvistik emas, balki sivilizatsion belgilar sifatida ham talqin qilinishini ko‘rsatdi. Tarixiy matnlarni tarjima qilishda madaniy kontekstni saqlovchi izohli strategiyalar keng qo‘llanishi zarur. Boburnoma tadqiqotlarini xalqaro miqyosda davom ettirish uchun tarjimonlar, tarixchilar va lingvistlar hamkorligida kompleks tadqiqotlar olib borish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Beveridge, A. S. (1921–1922). *The Baburnama (Memoirs of Babur)*. London: Luzac & Co.
2. Thackston, W. M. (1996). *The Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor*. New York: Oxford University Press.
3. Otajonov, N. (2019). *Boburnoma va uning tarjimalarida leksik-semantik o‘ziga xosliklar*. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Rahmonov, V. (2020). *Tarjima jarayonida madaniy ekvivalentlik masalalari*. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti.
5. Shodmonova, S.B (2023). *O‘lchov birliklarining lingvokulturologik xususiyatlari va ularning tarjimasi*. Qarshi: DTU ilmiy to‘plami.
6. Nida, E. A. (1964). *Toward a Science of Translating*. Leiden: Brill.
7. Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. London: Prentice Hall.
8. Vermeer, H. J. (1989). *Skopos and Commission in Translational Action*. Heidelberg: TEXTconTEXT.
9. Catford, J. C. (1965). *A Linguistic Theory of Translation*. London: Oxford University Press.
10. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1995). *Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation*. Amsterdam: John Benjamins.
11. Baker, M. (2018). *In Other Words: A Coursebook on Translation* (3rd ed.). London: Routledge.
12. Crystal, D. (2003). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge: CUP.
13. Jakobson, R. (1959). “On Linguistic Aspects of Translation.” In *Selected Writings*, Vol. II. The Hague: Mouton.
14. Otajonov, N., & Rahmonov, V. (2022). “Boburnoma tarjimalarida o‘lchov birliklarining semantik moslashuvi.” *Filologiya masalalari jurnali*, 2(3), 45–53.

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 1:32(075).8

O‘ZBEKISTON YOSHLARINING IJTIMOIY INTEGRATSIYASIDA KIBERSPORTNING AHAMIYATI

Jo‘rayeva Shaxlo Baxtiyor qizi,
University of Business and Science Toshkent filiali “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi, Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchi

ЗНАЧЕНИЕ КИБЕРСПОРТА В СОЦИАЛЬНОЙ ИНТЕГРАЦИИ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА

Джураева Шахло Бахтиёровна, *преподаватель кафедры* ***“Социально-гуманитарные науки” Ташкентского филиала Университета бизнеса и науки, независимый исследователь Ферганского государственного университета***

THE IMPORTANCE OF CYBERSPORT IN THE SOCIAL INTEGRATION OF YOUTH IN UZBEKISTAN

Jurayeva Shakhlo Bakhtiyorovna, lecturer of the Department of “Social and Humanitarian Sciences” of the Tashkent branch of the University of Business and Science, independent researcher of Fergana State University

https://orcid.org/0009-0009-1240-3310
e-mail: jorayevashaxlo23@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy integratsiyasi jarayonida kibersportning o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Unda raqamli texnologiyalar asosida shakllanayotgan yangi madaniy muhitda kibersport nafaqat o‘yin yoki hordiq vositasi, balki yoshlarni ijtimoiy faoliyatga jalb etuvchi, kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi hamda jamoaviylik ruhini mustahkamlovchi ijtimoiy fenomen sifatida talqin etiladi. Maqolada kibersport orqali yoshlarning global raqamli madaniyatga moslashuvi, ularning innovatsion tafakkuri va sog‘lom raqobat tamoyillariga asoslangan ijtimoiy hamkorlik tajribasi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kibersport, yoshlar integratsiyasi, raqamli madaniyat, ijtimoiy faollik, kommunikativ ko‘nikmalar, jamoaviylik ruhi, innovatsion tafakkur, raqamli texnologiyalar, sog‘lom raqobat, ma’naviy tarbiya, milliy identitet, yoshlar siyosati, ijtimoiy hamkorlik, virtual muhit, raqamli ijtimoiylashuv.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль и значение киберспорта в процессе социальной интеграции молодежи Узбекистана. В новой культурной среде, формирующейся на основе цифровых технологий, киберспорт трактуется не только как средство игры или досуга, но и как социальное явление, вовлекающее молодежь в социальную деятельность, развивающее коммуникативные навыки и укрепляющее дух коллективизма. В статье освещается адаптация молодежи к глобальной цифровой культуре посредством киберспорта, их инновационное мышление и опыт социального партнерства, основанного на принципах здоровой конкуренции.*

Ключевые слова: *Киберспорт, интеграция молодежи, цифровая культура, социальная активность, коммуникативные навыки, дух коллективизма, инновационное мышление, цифровые*

технологии, здоровая конкуренция, духовное воспитание, национальная идентичность, молодежная политика, социальное сотрудничество, виртуальная среда, цифровая социализация.

Abstract: *This article analyzes the role and importance of esports in the process of social integration of Uzbekistan's youth. In it, in the new cultural environment formed on the basis of digital technologies, esports is interpreted not only as a means of play or recreation, but also as a social phenomenon that involves young people in social activity, develops their communication skills, and strengthens the spirit of collectivism. The article highlights the adaptation of young people to global digital culture through esports, their innovative thinking, and the experience of social partnership based on the principles of healthy competition.*

Key words: *cybersport, youth integration, digital culture, social activity, communication skills, team spirit, innovative thinking, digital technologies, healthy competition, spiritual education, national identity, youth policy, social cooperation, virtual environment, digital socialization.*

KIRISH. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biri yoshlarning ijtimoiy faolligi va ularning raqamli madaniyat jarayonlariga integratsiyalashganlik darajasi bilan belgilanmoqda. So‘nggi yillarda kibersport (e-sport) hodisasi nafaqat texnologik, balki ijtimoiy-madaniy va falsafiy jihatdan ham yangi mazmunga ega bo‘ldi. Kibersport bugun yoshlar orasida jismoniy va virtual faollikni uyg‘unlashtirgan holda ijtimoiy birlashuv, o‘zini ifoda etish, raqobat va hamkorlik madaniyatining yangi shakliga aylandi. O‘zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyot, innovatsion texnologiyalar va axborot madaniyati jadal rivojlanar ekan, kibersport yoshlarning ijtimoiy integratsiyasi, kommunikativ madaniyati va ijodiy tafakkurini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Kibersport fenomenini ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilish, uning yoshlar orasida integratsion, madaniy va axloqiy ahamiyatini aniqlashga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda kibersport fenomeni yoshlar ijtimoiylashuvi va raqamli madaniyatning tarkibiy qismi sifatida turli ilmiy yo‘nalishlarda tadqiq etilmoqda. Xorijiy olimlar J.Hamari, M.Sjöblom va T.Taylor kabi tadqiqotchilar kibersportni “ijtimoiy interaktivlik va raqamli o‘zaro ta’sir platformasi” sifatida talqin etib, u orqali yoshlarning kommunikativ madaniyati va jamoaviy tafakkuri rivojlanishini ta’kidlaydilar. Mahalliy olimlar A.Sanaqulov, A.Tulyayev. Sh.Turdiyev, B.Qodirov, Sh.Jo‘rayeva hamda O‘zbekiston yoshlar siyosati sohasidagi tahlillar esa kibersportni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Adabiyotlarda kibersportning ta’lim, madaniyat va psixologiya sohalariga ijobiy ta’siri, shuningdek, virtual muhitdagi axloqiy xavflarni kamaytirish mexanizmlari ham yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mazkur maqolaning tadqiqot metodologiyasi tizimli, komparativ va ijtimoiy-falsafiy yondashuvlarga asoslangan. Tizimli yondashuv orqali kibersport hodisasi raqamli madaniyat, yoshlar siyosati va ijtimoiy integratsiya jarayonlari bilan uzviy bog‘liq ijtimoiy tizim sifatida tahlil qilindi. Komparativ (qiyosiy) tahlil yordamida O‘zbekiston tajribasi xalqaro kibersport amaliyoti bilan solishtirilib, milliy madaniyatga moslashtirilgan yo‘nalishlar aniqlangan. Falsafiy va sotsiologik metodlar orqali esa kibersportning ijtimoiy qadriyatlar, shaxs va jamoa o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir hamda ma’naviy rivojlanishdagi o‘rni o‘rganildi. Tadqiqotda shuningdek, empirik kuzatishlar, kontent-tahlil va yoshlar orasida o‘tkazilgan so‘rovnomalardan olingan ma’lumotlar qo‘llanilib, raqamli sportning ijtimoiy integrativ funksiyalari asoslab berildi. Shu tarzda metodologik asoslar kibersportni O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy birlashuvini ta’minlovchi yangi madaniy mexanizm sifatida yoritishga xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR Globallashuv shunchaki iqtisodiy yoki siyosiy integratsiya jarayoni emas, balki madaniy va ijtimoiy ong sohasiga ham chuqur kirib borgan universal hodisadir. U milliy chegaralarni nisbatan shaffoflashtirib, insonlarning turmush tarzini, qadriyat tizimini, dunyoqarashini o‘zgartiradi. Shu bilan birga, globallashuv yoshlar uchun yangi imkoniyatlar – bilim olish, muloqot, kasbiy rivojlanish, ijodiy faoliyat maydonlarini ochib beradi. Biroq “bu jarayon bilan bir qatorda ayrim

xavf va qarama-qarshiliklar ham paydo bo‘ladi: madaniy gomogenizatsiya (madaniy bir xillik, qo‘shilib ketish)”[1:3], milliy o‘zlikni yo‘qotish, iste’molchilik tafakkurining kuchayishi va axborot oqimlari ustidan nazoratning susayishi, virtual izolyatsiya, sun’iy identifikatsiya, raqamli asorat (addiktsiya), axborot manipulyatsiyasi shular jumlasidandir. Shunday sharoitda yoshlarning ijtimoiy integratsiyasini sog‘lom falsafiy va ma’naviy asosda yo‘naltirish zarurati bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Kibersportni ijtimoiy o‘yin maydoni sifatida talqin etish esa uning antropologik mohiyatini ochib beradi. Faylasuf olim Y.Xoyzinganing “Homo ludens” (o‘ynovchi inson) g‘oyasiga ko‘ra, o‘yin inson faoliyatining eng qadimiy va ijodiy shaklidir. “Kibersport bu g‘oyani yangi bosqichga olib chiqib, raqamli o‘yinlarni global miqyosda ijtimoiy integratsiya maydoniga aylantirdi. U insonni faqat tomoshabin emas, balki faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi. Virtual jamoalar, turnirlar, onlayn arenalar orqali yoshlar o‘z ijtimoiy roli va identifikatsiyasini aniqlaydi, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda raqamli mehnat va hamkorlik madaniyatini o‘zlashtiradi”[2:208]. Shuningdek, kibersport axborot asrining yangi iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarini ifodalaydi. U nafaqat o‘yin yoki hordiq vositasi, balki professionallashgan faoliyat, iqtisodiy foyda va madaniy kapital manbaiga aylangan. Bugungi kunda kibersportchilar xalqaro miqyosda tan olinib, o‘z faoliyatidan moddiy daromad olmoqda. Shu bilan birga, kibersport atrofida ijtimoiy infratuzilma – arenalar, media platformalar, ta’lim kurslari, fan bloklari paydo bo‘ldi.

Biroq, kibersportni faqat raqobat maydoni sifatida emas, balki hamkorlik asosidagi jamoaviy faoliyat sifatida talqin qilish o‘rinlidir. Chunki kibersport o‘yinlarining katta qismi jamoaviylik tamoyiliga asoslanadi. “Bu jarayonda “har bir ishtirokchi o‘zining individual strategiyasini umumiy maqsadga muvofiqlashtiradi. Shu orqali o‘yinchilar o‘zaro muloqot, ishonch, muvozanat va mas’uliyat kabi ijtimoiy qadriyatlarni o‘zlashtiradi. Bu holat insonning “Men”dan “Biz”ga o‘tish jarayonini aks ettiradi”[4:63]. Demak, kibersport ijtimoiy birlikni shakllantiruvchi va jamoaviy fikrlash madaniyatini rivojlantiruvchi maydon sifatida namoyon bo‘ladi. U raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi dialektik uyg‘unlikni ifodalaydi: inson g‘alabaga erishish uchun raqobatlashadi, ammo jamoa muvaffaqiyati uchun hamkorlik qiladi.

Uchinchi muhim kategoriya – identifikatsiya. Falsafada bu tushuncha shaxsning o‘zini jamiyat, guruh yoki madaniyat bilan bog‘lash jarayonini bildiradi. “Kibersport muhitida identifikatsiya ikki darajada kechadi: birinchisi, individual o‘zini anglash (ya’ni o‘yinchi sifatida o‘z qobiliyatini, roli va ahamiyatini tushunish), ikkinchisi esa ijtimoiy identifikatsiya (jamoa, brend yoki virtual hamjamiyat bilan o‘zini bog‘lash)”[5:446]. Yoshlar kibersport orqali o‘z shaxsiy identitetini topadi, raqamli jamoaga mansublik hissini shakllantiradi va shu yo‘l bilan global madaniyatning faol subyektiga aylanadi. Shunday qilib, kibersport “raqobat”, “hamkorlik” va “identifikatsiya” kategoriyalarining dinamik uyg‘unligi asosida vujudga keladi. U insonni o‘zini sinovdan o‘tkazuvchi (raqobat), boshqalar bilan ijtimoiy uyg‘unlikda harakat qiluvchi (hamkorlik) va o‘z o‘rnini anglovchi (identifikatsiya) mavjudot sifatida namoyon etadi.

Agar ilgari ijtimoiy munosabatlar asosan real makonda, ya’ni jismoniy muloqot, jamoa faoliyati yoki an’anaviy institutlar orqali shakllangan bo‘lsa, hozirda ular virtual platformalarda, onlayn jamoalarda va kibermaydonlarda yangi mazmun ega bo‘ldi”[5:443]. Kibersport ana shu ikki olam – real va virtual – o‘rtasida o‘ziga xos integrativ ko‘prik vazifasini bajaradi. Virtual ijtimoiy munosabatlar, avvalo, insonning raqamli muhitda o‘zaro aloqaga kirishish shaklini bildiradi.

Shu tariqa, kibersport insonning ijtimoiy tajribasini raqamli makonga ko‘chirish orqali uni yangi sharoitda davom ettiradi. Biroq “kibersportning o‘ziga xosligi shundaki, u virtual munosabatlarni real ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘laydi. Kibersportchilar o‘rtasidagi hamkorlik, raqobat, do‘stlik, g‘alaba yoki mag‘lubiyat tuyg‘ulari real hayotdagi hissiy tajribalarni uyg‘otadi”[6:121]. Turnirlar, jamoaviy mashg‘ulotlar, jonli tomoshabinlar ishtiroki bilan o‘tadigan musobaqalar bu jarayonni yanada kuchaytiradi. Natijada, virtual o‘yin makoni real ijtimoiy tizimga integratsiyalashgan holda yangi ijtimoiy-madaniy makon – kibermadaniyat maydonini yaratadi.

Falsafiy nuqtayi nazardan, kibersportda virtual va real munosabatlarning uyg‘unligi “ikki haqiqatli ijtimoiy mavjudlik” tamoyilini namoyon etadi. Inson bir vaqtning o‘zida ikki muhitda – jismoniy va raqamli dunyoda faoliyat yuritadi. Virtual makonda shakllangan g‘oyalar, hissiyotlar va qadriyatlar real hayotdagi xatti-harakatlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Kibersportchilar o‘z jamoasi oldidagi mas’uliyatni, mehnatsevarlikni, o‘zaro hurmatni virtual o‘yinda o‘rganadi va bu fazilatlarni real hayotda ham qo‘llaydi. Shu bois, kibersportni faqat “virtual o‘yin” sifatida emas, balki real ijtimoiylashuv mexanizmi sifatida baholash lozim.

Bugungi kunda kibersport global miqyosda yoshlar tafakkurining tarkibiy qismiga aylangan bo‘lib, u insonning dunyoni idrok etish, o‘zini anglash va jamiyatdagi o‘rnini belgilash jarayonlarini qayta shakllantirdi. “Ijtimoiy ong nuqtayi nazaridan kibersport inson tafakkurining raqamli paradigmasini mustahkamlaydi. U insonni virtual tafakkurga, ya’ni axborot oqimlarini tez tahlil qilish, strategik fikrlash, texnologik idrok va global kontekstda o‘ylash qobiliyatiga yo‘naltiradi. Kibersport orqali yoshlar yangi bilim, tajriba va kommunikatsion malakalarni egallaydi, bu esa ularning ijtimoiy ongida “raqamli mavjudlik” tushunchasini shakllantiradi” [7:2712]. Shu bilan birga, bu jarayon ijobiy bo‘lishi bilan bir qatorda ayrim xavflarni ham yuzaga keltiradi: virtual g‘alaba hissining ustuvorligi, real hayotdagi ijtimoiy javobgarlikdan chetlashish yoki sun’iy identitetga berilish kabi holatlar ijtimoiy ongda muvozanatni yo‘qotish xavfini tug‘diradi. Shuning uchun kibersportni sog‘lom ijtimoiy ongni shakllantirish vositasi sifatida yo‘naltirish zarur.

Inson motivlari nuqtayi nazaridan kibersport shaxsning o‘zini namoyon etish, tan olinishi va o‘z ustida ishlashga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytiradi. U insonda “o‘zini g‘alaba orqali tasdiqlash” motivini uyg‘otadi, bu esa psixologik jihatdan ijobiy — o‘ziga ishonch, intilish va maqsadga yo‘naltirilganlikni shakllantiradi. Shu bilan birga, kibersport motivatsiyani jamoaviy shaklda rivojlantiradi: o‘yinchilar o‘z muvaffaqiyatini jamoaning natijasi bilan bog‘laydi. Bu esa ijtimoiy birdamlikni va hamkorlik madaniyatini kuchaytiradi. Biroq haddan ortiq raqamli raqobat insonda shaxsiy izolyatsiya, virtual muvaffaqiyatga qaramlik yoki real hayotdagi ijtimoiy maqsadlarning zaiflashishiga ham olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, kibersport O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy integratsiyasida yangi madaniy va kommunikativ maydon yaratmoqda. U raqamli texnologiyalar orqali yoshlarni birlashtiradi, jamoaviy ruhni, o‘zaro hamkorlik va sog‘lom raqobatni rivojlantiradi. Shu bilan birga, kibersport yoshlarning global axborot makonida faol ishtirok etishiga, milliy qadriyatlarni zamonaviy kontekstda namoyon etishiga xizmat qiluvchi innovatsion ijtimoiy mexanizm sifatida shakllanmoqda.

Ikkinchidan, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, kibersport nafaqat o‘yin yoki ko‘ngilochar faoliyat, balki yoshlarning ijtimoiy faolligini oshiruvchi, ularni raqamli tafakkur va ijodiy fikrlashga yo‘naltiruvchi pedagogik jarayon hamdir. U yosh avlodning ijtimoiy-psixologik moslashuvini yengillashtiradi, virtual hamkorlik tajribasi orqali ularning ijtimoiy kompetensiyasini mustahkamlaydi va raqamli davr talablariga mos dunyoqarashni shakllantiradi.

Uchinchidan, kibersport yoshlarning ijtimoiy kapitalini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. U orqali yoshlar axborot texnologiyalarini ijodiy qo‘llashni, hamkorlikda natijaga erishishni o‘rganadilar. Shu bilan birga, kibersport ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarda madaniy identitetni ifodalash, milliy g‘oyalarni ilgari surish va ijtimoiy birdamlikni kuchaytirish vositasiga aylanmoqda.

O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy integratsiyasida kibersportning ahamiyati mavzusini o‘rganish va tadqiq qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim tizimiga integratsiya qilish: Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida kibersportni raqamli madaniyat, axborot texnologiyalari va ijtimoiy fanlar bilan integratsiyada o‘rgatish, yoshlarning intellektual hamda ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirish lozim.

2. Ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish: Kibersportning psixologik, sotsiologik va falsafiy jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar sonini oshirish, yoshlarning raqamli ijtimoiylashuvi mexanizmlarini empirik tahlil etish zarur.

TAMADDUN NURI

3. Milliy kibersport infratuzilmasini rivojlantirish: Kibersport markazlari, trening zonalari va onlayn musobaqalarni tashkil etish orqali yoshlarning sog‘lom raqobat va jamoaviylik ruhini mustahkamlovchi sharoitlar yaratish tavsiya etiladi.

4. Axloqiy va ma’naviy mezonlarni shakllantirish: Kibersport faoliyatida milliy qadriyatlarga sodiqlik, halollik, hurmat va sog‘lom raqobat tamoyillarini mustahkamlovchi ma’naviy-me’yoriy dasturlar ishlab chiqish zarur.

5. Davlat va nodavlat hamkorligini kengaytirish: Yoshlar siyosati, sport federatsiyalari va IT-sektor hamkorligida kibersportni ijtimoiy integratsiya, ma’naviy tarbiya va innovatsion fikrlashni rivojlantirish vositasi sifatida qo‘llab-quvvatlash muhimdir.

FOYDALAINLGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dwight MacDonald “A Theory of Mass Culture”, in Diogenes, No. 3, Summer 1953. – pp. 3-4.
2. Миронов И.С. Киберспорт в студенческой среде: проблемы и перспективы развития / Ученые записки университета им. П.Ф. Лесгафта. – 2019. – № 1 (167). – С.208.
3. Сарычев Ю. В. Феномен «нового человека» в культуре XX века: предварительный анализ // Человек культура образование Научно-образовательный и методический журнал. Коми государственный педагогический институт № 1 (11) / 2014. – С.74.
4. Скворцов Л.В. Информационная культура и цельное знание. – М.: “ИНИОН РАН”, 2001. – С.63-64.
5. Jo‘rayeva Sh.B. Raqamli jamiyatning paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichlari // NamDU Ilmiy axborotnomasi № 6. 2025 – B.446.
6. Рожковой М. А., Лукьянова Р. Л. Видеоигры, гейминг, киберспорт: правовые вопросы. Video games, gaming, cybersports: legal issues: коллективная монография / – М.: Развитие правовых систем, 2023. – С.121.
7. Stanislav Ivanov. Using gamification methods in information technology education. 11th International Conference on Education and New Learning Technologies 1-3 July, Spain, 2019, pp. 2712-2718.
8. Absattorov, B. M. (2019). Spiritual And Moral Development Of The Person In Modern World. Central Asian Problems of Modern Science and Education, 4(2), 167-173.
9. Абсатторов, Б. (2019). Шахс маънавий-ахлоқий баркамоллиги мезонларининг фалсафий талқинлари. Scienceweb academic papers collection.
10. Nizomi, A. B. M., & Al-Khorazmi, K. A. O. (2022). Sufism as a way of self-implementation and knowledge of the truth. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(11), 199-204.
11. Mamarasulovich, Absattorov B., and Tashmurodov M. I. o‘g‘li. Genetic Markers and Evolutionary Manifestations of the “Nafs” Concept. World Bulletin of Social Sciences, vol. 29, 6 Dec. 2023, pp. 16-19.
12. Mamarasulovich, A. B. (2022). Religious and Philosophical Aspects of Human Moral Development. Conferencea, 197-201.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 1:32(075).8

HUQUQIY MUNOSABATLAR KONTEKSTIDA ADOLAT TUSHUNCHASINING NAMOYON BO‘LISHI

Isroilova Shaxnoza Tolkinovna,
O`zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti “Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy gumanitar fanlar” kafedrasi v.b dotsenti

DEMONSTRATION OF THE CONCEPT OF JUSTICE IN THE CONTEXT OF LEGAL RELATIONS

Isroilova Shakhnoza Tolkinovna,
Acting Associate Professor of the Department of "International Relations and Social Humanitarian Sciences" of the Uzbek University of Journalism and Mass Communications

ДЕМОНСТРАЦИЯ ПОНЯТИЯ СПРАВЕДЛИВОСТИ В КОНТЕКСТЕ ПРАВООТНОШЕНИЙ

Исроилова Шахноза Толкиновна,
И.о. доцента кафедры «Международные отношения и социально-гуманитарные науки» Узбекского университета журналистики и массовых коммуникаций

israilovashaxnoza86@gmail.com
https://orcid.org/0009-0002-8363-1459

Annotatsiya: *Ushbu maqolamizda adolat kategoriyasining mazmun-mohiyati, ijtimoiy adolatni ta’minlash muammolari mahalliy va xorijiy manbalar asosida tahlil qilingan.*

Kalit so`zlar: *inson kapitali, axloqiy munosabatlar, axloq kategoriyasi, qonun ijodkorligi, axloqiy ideallar, ijtimoiy adolat, zamonaviy jamiyat.*

Аннотация. *В статье анализируется сущность категории справедливости, проблемы обеспечения социальной справедливости на основе отечественных и зарубежных источников.*

Ключевые слова: *человеческий капитал, моральные отношения, категория морали, правотворчество, нравственные идеалы, социальная справедливость, современное общество.*

Abstract. *In this article, the essence of the category of justice, the problems of ensuring social justice are analyzed based on local and foreign sources.*

Key words: *human capital, moral relations, category of morality, lawmaking, moral ideals, social justice, modern society.*

Kirish. Jahon ijtimoiy-falsafasi tarixida markaziy masalalardan biri doimo adolat bo‘lib, buyuk mutafakkirlarning ham, xalq ommasining ham e’tiborini o‘ziga tortgan. Dunyoda doimiy ravishda o‘zgarib, rivojlanib borayotgan ijtimoiy munosabatlarni axloqiy-huquqiy tartibga solishda adolatning mazmun-mohiyatiga oid tadqiqotlar dolzarbligicha qolmoqda va adolat nuqtai nazaridan tahlil qilishni talab qiladigan yangi axloqiy savollar va dilemmalar paydo bo‘lmoqda. Bir qator xorijiy nufuzli universitet va ilmiy tadqiqot institutlarida adolatning shaxslarni irqi, jinsi, e'tiqodi yoki ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar kamsitmaslik, har bir shaxsning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech qanday istisnosiz hurmat qilish hamda jamiyat oldidagi mas'uliyat va birdamlik jihatlari keng o`rganilmoqda. Bu o`rinda Xalqaro falsafa instituti

(Belgiya), Axloq va jamoat siyosati markazi (AQSh), Xalqaro ijtimoiy fanlar jamg'armasi (Fransiya), Inson huquqlarini o'rganish markazi (Kanada), Xalqaro falsafa akademiyasi (Lixtenshteyn), Tokio universiteti (Yaponiya), Fan va texnologiyada etika xalqaro markazi (Singapur) ni keltirib o`tish mumkin.

O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati asoslarini rivojlantirish uchun Taraqqiyot strategiyasi “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” tamoyilida ijtimoiy adolatni ta’minlashni ijtimoiy me’yorga aylantirish har bir mansabdor shaxsning javobgarligi davlat siyosati darajasida kun tartibiga qo‘yilmoqda. “Xalqimiz hamma narsadan ustun qo‘yadigan adolatni hayotimizda tom ma’noda qaror toptirish eng asosiy vazifamizga aylandi. Qonun va adolat ustuvorligini ta’minlash – Yangi O‘zbekistonni barpo etishning eng muhim shartidir”.[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.

Huquqiy va axloqiy me’yorlarining asosiy yo‘nalishlarini aniqlash uchun M.Volzerning asarlari, shuningdek, L.Boltanskiy va L.Tevenolarning konsepsiyasi katta ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda adolat haqidagi eng mashhur tadqiqot amerikalik faylasuf J.Rolzning «Adolat nazariyasi» (1971) asaridir. Oxirgi o‘n yilliklarda yozilgan asarlar orasida L.Boltanskiy, U.Kimlika, M.Nussbaum, A.Sen, M. Sendel, O.Hoffe kabi olimlarning asarlarini alohida ta’kidlash joiz.[3]

Respublikamiz ilmiy jamoatchiligi orasida mavzuga doir ilmiy izlanishlar S.Shermuhamedov, S.Otamurodov, J.Ramatov, A.Ochildiyev, U.Saidov, A.Sher, S.Jo‘rayev, S.H.Sultanov, O‘.B.Shakarov, T.Ch.Tilobov, Z.Alimovalar[4] tomonidan amalga oshirilgan.

MUHOKAMA. Adolatning ikki turi mavjud va shunga ko‘ra, shaxsiy va jamiyat manfaatlari mavjudligiga asoslanadi. Umumiy adolat g‘oyasi jamiyat sohasi va jamoatchilik huquqiy ongida shakllansa, xususiy sohada, individual huquqiy ongda amalga oshiriladi. Adolat, muayyan huquqiy munosabatlarga nisbatan, unda ishtirok etishni o‘z ichiga oladi. Adolat kategoriyasiga oid turli qarashlarni tahlil qilish, unga tenglik va tengsizlik elementlarining uyg‘unligi asosida jamiyatda moddiy va ma’naviy boyliklarni taqsimlashda, jamiyatning ijobiy rivojlanishiga yordam beradigan shaxsiy va jamoat manfaatlari muvozanatini topishda namoyon bo‘ladi, deyishimiz mumkun. Adolat va huquq o‘rtasida dialektik munosabat mavjud: qonunda ifodalangan adolat me’yoriylik xususiyatiga ega bo‘ladi, huquq esa adolatli va axloqiy jihatdan baholanadi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, adolat axloqdir - qonun ijodkorligi faoliyatining axloqiy mezoni va huquq normalarini qadrlash vositasi, chunki qonun asosi sifatida adolat mavjud bo‘lgandagina u haqiqiy tartibga solish salohiyatiga ega bo‘ladi. Huquq tamoyillari tizimida adolat tamoyili “mafkuraviy yadro” rolini o‘ynaydi, ushbu tizimning harakatlarini rag‘batlantirish va sinxronlashtirishni ta’minlaydi. Huquqni shakllantirishga nisbatan adolat tamoyili katalizator vazifasini bajaradi, qonunni shakllantirish jarayoni va ushbu jarayon ishtirokchilari o‘rtasida konsensusni ta’minlash, lekin bevosita qonun ijodkorligi bosqichida funksiyalarni boshlash va normallashtirishga yordam beradi.

Obyektiv voqelik va tarix shuni ko‘rsatadiki, qonun hujjatlari adolat me’yorlariga zid bo‘lsa ham qonun bo‘lib qoladi. Yana bir narsa, u qanchalik yaxshi ishlaydi. Biroq, qonun hujjatlarining haqiqiyligi asosida adolatning ma’naviy mezoni yotishi shubhali ko‘rinadi. Fanda bu quyidagicha ta’kidlanadi: qonun adolatli bo‘lishi kerak deganda, faqat adolatli qonun amal qiladi, deb umuman da’vo qilmaymiz.

Bu pozitsiya pozitivistik huquq maktabi klassiklari G.Kelsen, O.Xeffe asarlarida to‘liq aks ettirilgan. Ular qarashlarining mohiyati shundan iboratki, qonun adolatdan ajratilgan. Adolat - huquqiy tushuncha emas, balki axloqiydir, qonunning amal qilishi uning adolat bilan munosabatiga bog‘liq emas. Buni O.Xeffe shunday yozadi “huquqiy pozitivizm huquqning adolat nuqtai nazaridan ozod bo‘lgan ta’rifini izlaydi”. Biroq, “agar insoniyat jamiyati qonuniy xususiyatga ega bo‘lishni istasa, u holda: huquqiy xususiyatga ega bo‘lishi kerak; qonun adolat sifatiga ega bo‘lishi kerak; adolatli huquq jamoat tartibi bilan himoyalanishi kerak, davlat adolatli davlat shaklini olishni anglatadi».[5]

Albatta, qonun adolatning axloqiy ideallarini aks ettirishi kerak, lekin qonunning adolatsizligi uni bekor qilmaydi. “Pozitiv huquqda amalga oshirilgan umuminsoniy adolat g‘oyasi” haqidagi fikr tabiiy qonun bilan bog‘liq, Biroq, ijobiy qonun

ijro etilishi kerak, unga rioya qilmaslik, hatto ma'lum bir nuqtai nazardan bo'lsa ham, huquqbuzarlik hisoblanadi. Shaxslar kabi qonun adolatsiz va qonun ruhiga mos kelmaydi. Aks holda, bunday vaziyat yuzaga kelishi mumkin: pragmatik ijtimoiy sub'yektlar o'zlari uchun zarur bo'lgan vaqtda har qanday qonunni noqonuniy deb e'lon qilgan holda, qonun ruhini belgilovchi ba'zi o'zgarmas qoidalarga rioya qilish zaruratidan ham xalos bo'ladilar. Bu ma'noda fashistik g'oyada Germaniyaning XX asrning 40-yilllarida millatchilar - oriylar irqi tomonidan "adolat" uchun kurash nomi ostida slavyanlar, yahudiylar, lo'lilarni muntazam yo'q qilingan. Xullas, adolat va huquq tushunchalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka turli yondashuvlarni tahlil qilish, huquqiy kategoriya sifatida odil sudlovning mohiyati huquqiy adolat qonun bilan mustahkamlangan o'zaro bog'liq huquqlar, burchlar, sodir etilgan qilmish uchun javobgarlik, shaxs, jamiyat va davlatning jarayonlari va manfaatlarining mutanosibligida ifodalanadi va alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun, eng muhim ijtimoiy oqibatlar aynan qonunlardagi adolatsizlik tufayli yuzaga keladi. Shu bilan birga, huquqiy adolatning uchta elementini ajratib ko'rsatish taklif etiladi: prinsip, usul va rejim. Adolat tamoyiliga adolat haqidagi ma'naviy jihatdan asoslangan g'oyalar vositachilik qiladi (huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy mafkura), adolat xulq-atvor usuli sifatida huquq normalarida, qonun ijodkorligida, huquqni amalga oshirishda ifodalanadi.

Xulosa. Adolat ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, ularga axloqiy mazmun olib keladi, u subyektning zo'ravonlik va qo'rqitish harakatlariga qarshi turish, shaxs g'oyasi va uning ideal vazifasi o'rtasidagi nomuvofiqlik tufayli yuzaga kelgan qarama-qarshiliklarni hal qilish jarayoni sifatida ishlaydi.

Adolatni amalga oshirish uchun ochlik va qashshoqlikni, ishsizlikni, ijtimoiy kasalliklarni, ijtimoiy va milliy zulmni, ijtimoiy tengsizlikni yo'q qilish kerak. Adolat yo'q ekan, jamiyatdagi hech qanday barqarorlik, fuqarolar xavfsizligi, munosib turmush darajasi, ijtimoiy taraqqiyot haqida gapirishning hojati yo'q. Shunday qilib, adolat insoniyat jamiyati mavjudligi, uning a'zolari va ijtimoiy institutlar o'rtasidagi uyg'unlikni amalga oshirishning muhim shartiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 48.
2. Ивин А.А. Основания логики оценок. – М.: МГУ, 1970; Шелер М. Проблемы религии. К религиозному обновлению. О сущности философии. – СПб..
3. Sultanov S.H. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ijtimoiy adolat tamoyillarining ijtimoiy-falsafiy tahlili. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya – Toshkent: 2022. –85 b.
4. Хёффе О. Справедливость: Философское введение / Пер. с нем. О.В.Кильдюшова под ред. Т.А.Дмитриева. - М.: Праксис, 2007. - 192 с.
5. Koshanova N., To'rayev A. Globallashuv sharoitida talabalar bo 'sh vaqtini samarali tashkil qilishning pedagogik shartlari //Tamaddun nuri jurnali. – 2024. – T. 9. – №. 60. – C. 277-280.
6. Ibragimova M. Kichik yoshli bolalarning sog'lom shakllanishida badiiy gimnastika va sport mashg'ulotlarining imkoniyatlari //Tamaddun nuri. Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal. 2025, 5-son (68)373-374 b.

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 1:32(075).8

AYOLLARNING O‘Z-O‘ZINI ANGLASHIDA IJTIMOIYLASHUVNING O‘RNI

Abdullayeva Dilarom Nigmatullayevna, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar " kafedrasi f.f.d.(PhD) katta oqituvchisi

THE ROLE OF SOCIALISM IN WOMEN’S SELF-CONCEPTION

Abdullayeva Dilarom Nigmatullayevna, PhD, senior lecturer, Department of "Social and Humanitarian Sciences", Uzbek University of Journalism and Mass Communications

РОЛЬ СОЦИАЛИЗМА В САМООЦЕНКЕ ЖЕНЩИН

Абдуллаева Диларом Нигматуллаевна, кандидат философских наук, старший преподаватель кафедры «Социально-гуманитарных наук» Узбекского университета журналистики и массовых коммуникаций

https://orcid.org/0009-0006-1537-834X
dilaramabdullayeva144@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolamizda ayollarning o‘z-o`zini anglashida ijtimoiylashuvning o`rni, shu bilan birga jamiyatda ayollarning ijtimoiylashuvida gender tengsizlikni bartaraf qilish muammolari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *gender tenglik, delemma, gender idaologiya, barqaror rivojlanish, soglom avlod, transformatsiyasi.*

Abstract: *This article analyzes the role of socialization in women's self-understanding, as well as the problems of eliminating gender inequality in the socialization of women in society.*

Keywords: gender equality, dilemma, gender ideology, sustainable development, healthy generation, transformation.

Аннотация. *В статье анализируется роль социализации в самопонимании женщин, а также проблемы устранения гендерного неравенства в социализации женщин в обществе.*

Ключевые слова: *гендерное равенство, дилемма, гендерная идеология, устойчивое развитие, здоровое поколение, трансформация.*

Kirish. Jahonda ayollarning ma’naviy-madaniyati, ijtimoiy faolligini oshirish, ularning jamiyatda o‘z mavqeiga ega bo‘lishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayollar jamiyat taraqqiyotining barcha sohalari transformatsiyasida ishtirok etmoqda va davlat boshqaruvida munosib o‘rniga ega bo‘lmoqda. Ayni paytda ba’zi hollarda ayollarning kamsitilishi, ularning erkin faoliyat yuritishiga nisbatan tazyiqlar kuzatilmoqda. Shu bois gender tengligini ta’minlash, ayollarning haq-huquqlarini davlat darajasida ijtimoiy himoya qilish mafkuraviy ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoda ayollar va erkaklarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, ular ma’naviy madaniyatidagi o‘zgaruvchanlikning sabablari, xotin-qizlarning malakali kasb egasi bo‘lishi bilan bir qatorda, oilasidagi mavqeini saqlashning zarurati, erkaklar psixologiyasida ayollarni qadrlash, hurmat qilish fazilatlarini tarbiyalashning yangi metodologik yondashuvlarini ishlab chiqib bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda ayollarning ijtimoiy mavqeini mustahkamlash bo‘yicha ko‘plab huquqiy me’yorlar qabul qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi O‘RQ-561-son «Xotin-qizlarni

tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida», 2019-yil 3-sentabrdagi O‘RQ-562-son «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida me’yoriy hujjatlar shular jumlasidandir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Insoniyat taraqqiyotning barcha davrlarida ayollar va erkaklarning ijtimoiy faolligi va intellektual salohiyatini oshirish, ularning maqsadli faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati, mafkuraviy zarurligiga alohida e’tibor qaratilgan. Avesto muqaddas kitobida ayol va erkaklarga kasb-hunar o‘rgatish, oilaviy hayotga tayyorlashning qoidalari bayon etilgan. [2]

Qadimgi Yunoniston olimlari Platonning «Atlantida» dostonida ayollar va erkaklarning o‘zaro hamjihatliligi va tushunishga erishishi tinchlikni saqlash omili ekanligi, Aristotelning «Nikomax etikasi» asarida ayollar va erkaklarning jinsiy aloqalaridagi tartiblilik sog‘lom avlodni tarbiyalash omili ekanligi asoslangan.[3]

Sharq mutafakkirlari Nizomiy Ganjaviyning «Xisrav va Shirin», A.Navoiyning «Farxod va Shirin» [4] dostonlarida ayollarning boshqaruv qobiliyati va mahorati, M.Qoshg‘ariyning «Devoni lug‘atit turk» asarida ayollarning muomala madaniyati, A.Fitratning «Oila» asarida ayol va erkakning oila qurish tartiblariga rioya qilishi va M.Behbudiyning «Millatlar qanday taraqqiy etarlar» maqolasida ayol va erkaklarning siyosiy madaniyatining ahamiyatini ochib berganlar.

XX asr MDHda gender tengligi, ayollar va erkaklar delemmasini murosa yo‘li bilan yechish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Rossiya olimlari G.A.Brandt, A.A.Demidenko, I.A.Sherebkina, O.M.Zdravomislova, A.N.Yanikina, E.A. Zdravomislova, A.A.Temkina, G.G.Sillaste, V.O.Shapovalova, S.A.Ushakin, Y.A.Ballayeva, M.Yu.Sidorova, S.V.Polenina, Ya.T.Shinelevalar gender tengligini ta’minlashning ijtimoiy barqarorlikga erishish, shaxslararo munosabatlarda o‘zaro bir birini qadrlashdagi rolini kabi jihatlarini tadqiq etganlar.[7]

Muhokama va natijalar. Ijtimoiy falsafada gender metodologiyasi va gender yondashuvining shakllanishi, bu nafaqat erkak va ayollar holatidagi farqni tasvirlab berish, shuningdek, gender rollari orqali amalga oshiriladigan hukmronlik tizimini tahlil qilish, aslida, yangi hodisani asoslashga qaratilgan nazariyadir.

Ilmiy-texnik inqilob davridagi ishlab chiqarish va madaniyat ayollar uchun juda ko‘p ish o‘rinlarini yaratdi, kasbiy o‘zini namoyon qilish imkoniyatini berdi, shu bilan birga, jinsidan qat’i nazar, ishchilardan fidoyilik va malakasini doimiy ravishda oshirishni talab qildi. Amerikalik olimlar Qo‘shma Shtatlar jamoatchiligida so‘nggi 15 yil ichida ayollar muammolarini hal qilishda erishilgan asosiy yutuqlar «turmush tarzini tanlash erkinligi», shu jumladan «martaba», degan fikrga keldilar. «Bugungi kunda jamiyat rivojida jismoniy kuch ishlatiladigan sohalarning qisqarishi ayollar mehnatidan foydalanish imkoniyatini kengaytirib yubordi. Ayollarning ijtimoiy mehnatda bandlik darajasi ularning ikkita muhim vazifasi – onalik maqomi va muayyan kasbga ega xodima sifatidagi kuch va qobiliyatini baholash bilan belgilanadi. Hozirgi kunda bu ikki vazifani uyg‘unlashtirish «Ayollar masalasi»ning mohiyatini tashkil etadi». [5]

«Gender tushunchasi shaxs ijtimoiylashuvi bilan uzviy bog‘liq. Insonlar tug‘ilishdanoq ijtimoiylashadi, o‘zi yashayotgan jamiyatning stereotip, axloq, fe’l-atvor, xulq me’yorlari, ijtimoiy determinantlarga muvofiq rivojlanadi, voyaga yetadi va o‘zini tutishni o‘rganadi. Shu bilan birga, insonlarga oila, maktab, professional muhit, ommaviy axborot vositalari, axborot texnologiyalari va madaniy normalar katta ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiylashuv jamiyatning haqiqiy a’zosi bo‘lish uchun muhim jarayondir. Biroq ijtimoiylashuv doirasida orttirilgan fe’l atvor modellari shaxs uchun har doim ham foydali bo‘lmasligi mumkin».[6]

Gender muammosidagi tizimli va tartibga soluvchi omil - subyektiv faoliyat bo‘lib, uning asosida shaxsni ko‘p qirrali, shu jumladan jinsda aniqlash masalasi yotadir. Bugun aksariyat jamiyatlarda mehnat bozori vertikal va gorizontal ravishda ajralib qolmoqda, chunki davlat sektorlaridagi kam haq to‘lanadigan sohalarda, kam maosh beriladigan xizmat ko‘rsatish ishlarda ayollar soni ustunlik qiladi. Davlat tomonidan

muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilishiga qaramasdan», davlat sektoridagi yaxshi haq to‘lanadigan malakali mehnat va ayollarning haq to‘lanmaydigan uy mehnati (keng ma’noda reproduktiv mehnat) o‘rtasida tafovut kuchaymoqda.

Erkaklik va ayollik to‘g‘risidagi tasavvurlar turli xalqlar madaniyatida keskin farqlanadi. Bu esa erkak va ayol o‘rtasidagi kommunikativ xulq va o‘zaro munosabatlar xarakteriga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Mas., iqtisodiyoti rivojlangan va protestantizmga mansub bo‘lgan mamlakatlarda xotin-qizlar yuqori ma’lumotga ega bo‘lib, jamiyat hayotida faol ishtirok etadilar. Taraqqiy etgan mamlakatlarning Gender ideologiyasi erkaklar va xotin-qizlar o‘rtasida tenglik o‘rnatishga qaratilgan».[1]

Xulosa. Demak, gender imkoniyatlarini shakllantirishning mintaqaviy, bizga, millatimizga xos xususiyatlarini tahlil qilish gender munosabatlarining ijtimoiy funksiyalari juda dinamik va hayotiy vaziyatlar ta’sirida o‘zgarishi mumkin. Xulq-atvorning gender munosabatlari markazida mintaqada eng keng tarqalgan kundalik ijtimoiy amaliyotlar tufayli odamlar ongida ildiz otgan rol stereotiplari, erkaklar va ayollarning ijtimoiy o‘zaro ta’siri turadi. Ommaviy ijtimoiy munosabatlar jarayonida mustahkamlangan ijtimoiy xulq-atvor qoidalari shaxs hayotida sezilarli majburlash kuchiga ega.

Foydalanilagan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Falsafa qomusiy lug’ati-T.: “Sharq”, 2004.-B. 84-85.
2.Авесто. А. Махкамов таржимаси. –Тошкент: Шарқ, 2001. – 376 б.
3. Платон. Пир / Платон // Собр. соч. В 4 т. Т. 2. – М.: Мысль, 1990.; Аристотель. Соч.: В 4 т. Т. 4. - М.: Мысль, 1984.
4.А.Навоий Хамса// Фарход ва Ширин. – Тошкент: Шарқ, 2012.
5. Маънавият асосий тушунчалар луғати – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги НМИУ, 2009. –Б. 20.
6. Холиқова М., Ишанханова Г., Пўлатова Ш. Гендер тенглиги: ғоядан қонунга қадар. – Тошкент: Akademnashr, 2021. –Б. 13.
7.Скутнева С. В. Гендерные аспекты жизненного самоопределения молодежи. Автореферат дисс. кандидата философских наук. – М., 2004
8. N. M. Milliy tarbiyani rivojlantirish-globallashuv sharoitidagi zaruriyat sifatida//Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 5 | 2023.58-65 b.
9. N.Koshanova., N.Ismoilova Dunyoning barqaror rivojlanishiga gender assimetriyasining salbiy ta’siri//Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 4 | 2023.117-125 b.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 82.1

ПРОСТРАНСТВО КАК ЭЛЕМЕНТ ХУДОЖЕСТВЕННОГО СВОЕОБРАЗИЯ РОМАНА Л. СОЛОВЬЁВА «ПОВЕСТЬ О ХОДЖЕ НАСРЕДДИНЕ»

Халикова Эльянора Сергеевна,
и.о.доц. Чирчикского государственного педагогического университета, д.ф.п.ф.н. (*PhD)

SPACE AS AN ELEMENT OF ARTISTIC ORIGINALITY IN L. SOLOVYOV'S NOVEL *"THE TALE OF HODJA NASREDDIN"*

Khalikova Elyanora Sergeevna,
acting associate Professor Chirchik State Pedagogical University, PhD

L. SOLOVYOVNING «XO'JA NASRIDDINNING RIVOYATI» ROMANIDA MAKONNING BADIIY O'ZIGA XOSLIK ELEMENTI SIFATIDA

Xalikova Elyanora Sergeyevna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsent vazifasini bajaruvchi, f.f.b.f.d. (PhD)

e.xalikova@cspu.uz
https://orcid.org/0009-0000-9153-7118

Аннотация: *Обостренное внимание к истории культуры нашего государства и восточного региона в целом, а также обусловленностью комплексного рассмотрения локально-культурного текста в романе Леонида Соловьёва «Повесть о Ходже Насреддине», посвященному художественному изображению именно этой проблемы.*

Ключевые слова: *хронотоп, пространство, время, топос, локус, эстетика, топография, образ, герой, роман.*

Annotation. *The heightened attention to the cultural history of our state and the eastern region as a whole, as well as the determinacy of a comprehensive examination of the local cultural text in Leonid Solovyov's novel "The Tale of Khoja Nasreddin," dedicated to the artistic depiction of this very problem.*

Key concepts: *chronotope, space, time, topos, locus, aesthetics, topography, image, hero, novel.*

Annotatsiya: *Leonid Solovyovning aynan shu muammoni badiiy tasvirlashga bag'ishlangan "Xo'ja Nasriddin qissasi" romanida davlatimiz va umuman sharqiy mintaqaning madaniy tarixiga e'tiborning kuchayishi, shuningdek, mahalliy madaniy matnni har tomonlama o'rganishning qat'iyligi.*

Kalit so'zlar: xronotop, makon, vaqt, topos, lokus, estetika, topografiya, obraz, qahramon, roman.

Художественное пространство, выражая естественные формы и явления действительности, синхронно сохраняет определённую условность, зависимую авторским восприятием мира. Эта условность проявляется в тексте через выбор композиции, описание мест и персонажей, а также через художественные приёмы и методы, которыми автор формирует уникальную художественную реальность. В результате художественное пространство становится не только зеркалом внешнего мира, но и инструментом выражения авторской идеи, замысла и эстетического видения произведения.

Пространство проявляется в указании географических параметров изображённого мира. Конкретность художественного топоса в литературном произведении реализуется

писателем с различной степенью определенности. Автор может точно назвать место действия и обстановку, а может создать образ пространства, используя в описании какие-то детали, штрихи, символы. По мнению Ю. Лотмана, в литературном произведении возможно создание и особого художественного пространства, основанного на оппозиции разного типа: город – поселок, столица – провинция, один город – другой город. [1, с. 704]

В рассматриваемом романе жанровая структура мозаичная, так как состоит из эпизодов, и не всегда хронологична. Главный герой романа Ходжа Насреддин - комедийный персонаж, которого знают и любят на Востоке.

Главная особенность романа - принцип направленности пространственной топографии и характер пространственной протяженности. Образ пути, дороги создает пространственную горизонталь, в которой происходит смена внешних черт местности, а также смена персонажей, окружающих основного героя».[2]

В романе Леонида Соловьева «Повесть о Ходже Насреддине» полностью отсутствует вещественная наполненность горизонтального пространства, то есть, подробнейших описаний местности, в которую попадает герой, нет, но есть отдельные штрихи, эмоционально-индивидуальное восприятие, а также социальная характеристика героя и общества. Возникающее в этой связи плоскостное пространство имеет горизонтальную и вертикальную направленность, то есть разворачивается не только вдаль, по горизонтали, но и по вертикали. В смысловом отношении «вертикаль-горизонталь» в художественном тексте может выстроить целый ряд оппозиций: верх – низ, ад – рай, тьма – свет, внешнее – внутреннее.

Топос открытого пространства в романе представлен в виде дороги по степи, перемещение от одного населенного пункта к другому. Кроме того, перед нами возникает пространство мусульманского востока со своими яркими этническими деталями, представленными и в своей конкретике, и в ореоле легенды, мифа.

В качестве примера исследования роли пространства и времени в художественных произведениях можно также привести научные труды П. Флоренского, Д.С. Лихачёва, В.Н. Топорова, Б.А. Успенского и др. Они определяют пространство следующим образом: «художественное пространство представляет собой «возможный мир», оно не равно реальному, структура которого повторяет структуру действительного». [3, с.19]

Само понятие «локус», заимствованное Ю.М.Лотманом у С.Ю. Нехлюдова, было введено в филологию как термин обозначения твердой приуроченности героя произведения функциональному полю его действия. [4, с.424]

На важность категории «пространство» в литературе указывали работы, В.Н.Топорова, Ю. Борева, А.М.Мостепаненко, Р.А.Зобова, Н.К.Гей, П.Х. Тороп, А.В.Носков, А.Б.Темирболат и других литературоведов. [5, с.6-9]

Своеобразие образов художественного мира, поэтика пространства и времени в произведениях узбекских классиков и современных авторов литературы подробно исследованы в произведениях И. А. Султанова, М. К.Кощанова, С.М.Мамаджанова, Б.Назарова, Х.Н.Абдусаматова, Н.В. Владимировой, Б.С.Саримсакова, С.М.Мирвалиева, Э.А.Каримова, Л.Каюмова, Н.Ф.Каримова, А.Хайитметова, С.Халмирзаева, П.М.Мирза-Ахмедова, а также аспекты хронотопа в диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук «Поэтика хронотопа в «Пятерице» Алишера Навои» У.Х.Джуракулова. [6]

Роман Леонида Соловьева о Ходже Насреддине разбит на отдельные бытовые эпизоды, отвечающие требованиям создания комического персонажа, и не им т цельной линейной протяженности развития сюжета. Отсюда и пространственные образы дробятся. Единый посыл, заявленный в самом начале произведения – это движение героя по направлению к своему родному городу – Бухаре. «Теперь он возвращался в свой родной город, в Бухару-и-Шериф, в Благородную Бухару, где рассчитывал, скрываясь под чужим именем, отдохнуть немного от бесконечных скитаний».

«Родной город для героя связан с личностным восприятием - даже пыль у ворот

Бухары названа «священной пылью… ему казалось, что она пахнет лучше, чем пыль других, далеких земель». Бухара в мыслях героя предстает и величественными минаретами, и родными улочками, и древними карагачами, а также дымными чайханами над арыками и пестрой сутолокой базаров. Он «помнил горы и реки своей родины, её селения, поля, пастбища и пустыни, и, когда в Багдаде или в Дамаске он встречал соотечественника и узнавал его по узору на тюбетейке и по особому покрою халата, сердце Ходжи Насреддина замирало и дыхание стеснялось»[1].

Более узкое локальное место, связанное с родным домом в Бухаре, соответствует общему виду города: «Он не нашел в Бухаре ни родственников, ни старых друзей… Он не нашел даже отчего дома… Теперь на этом месте был пустырь: бугры, рытвины, цепкий чертополох, закопченные кирпичи, оплывающие остатки стен, куски истлевших камышовых циновок; ни одной птицы, ни одной пчелы не увидел здесь Ходжа Насреддин!» И как символ нежилого места была «змея, одинокий и страшный житель пустынных мест, навсегда покинутых человеком».

Имя Ходжи Насреддина является запретным в Бухаре, но всё произведение строится на том, что главный герой постоянно нарушает этот запрет. Более того – имя стало легендой, символом противостояния власти.

Бытовые приключения Ходжи Насреддина в Бухаре четко вырисовывают социальную структуру города, в которой есть сильные, имущие, и бессильные, забитые нуждой: народ облагается непомерными налогами по самым разнообразным поводам. В действиях Ходжи Насреддина выражается нарушение этих незыблемых принципов и вызов существующему порядку.

Тем не менее, этот город часто называют Благородной Бухарой, Бухара-и-Шериф. Город в романе Леонида Соловьева предстает как бы в двух лицах (по принципу обозначения Петербурга 19 века) – это и великолепный город исторической славы, известный своими архитектурными сооружениями, но это и страшный город, в котором сложно жить простому человеку.

Изображая локальное пространство Востока, автор не мог обойти стороной пышное разнообразие базара с его разноречием, «разноцветием халатов, чалмов, попонов, ковров», а также многообразием представленных товаров – «да, это был всё тот же базар, знаменитый и несравненный бухарский базар, равного которому не имели в то время ни Дамаск, ни самый Багдад!» Базар – это место, где волею обстоятельств собираются все слои общества, включая эмира и его окружение. В социальном плане показательна сцена встречи людей из народа с тем, от кого они ждут справедливого решения своих проблем и называют «повелителем и господином, затмевающим своим блеском самое солнце». Автор изображает его выход к народу в виде метафорического сравнения, одна часть которого изысканна и богата, горит на солнце драгоценными камнями, а в другой нет ничего, «что могло бы, радуя сердца, гореть и сиять под солнцем, - только лохмотья, нищета, голод»: «когда пышная эмирская процессия двигалась через море грязного, темного, забитого и оборванного народа, похоже было, что тянут сквозь жалкое рубище тонкую и единственную золотую нить».

Всё в этом городе вывернуто наизнанку: дополнительные налоги и обязанность кормить стражников – это милость эмира и «почетная возможность благодарить его каждодневно и ежечасно»; откровенные жалобы людей на трудности жизни называются дерзкой неблагодарностью и ведут к жестокому наказанию, а само наказание является заботой эмира о душе человека перед вечностью. Именно такая социальная характеристика бухарского локального пространства приводит к конфликту главного героя со средой. Ходжа Насреддин – бунтарь, не желающий примиряться с ложью, он совмещает в себе синкретический образ мудреца и простака одновременно, глупца, юродивого, хитреца, плута и даже философа-циника. Именно его

[1] Сергеева Э.С. Образ города в романе Л.Соловьева «Повесть о Ходже Насреддине» и А.Волоса «Возвращение в Панджруд». Academic Research in Educational Sciences.Чирчик,2022. – С.677-678.

иронические оценки всего происходящего позволяют выстроить локально-культурное пространство Бухары и её мусульманского мира.

Список использованной литературы:

1. Лотман Ю.М. Текст в тексте. Об искусстве. - СПб: Искусство-СПб, 1998. – С.704.
2. Сергеева Э.С. Экономика и социум №11(78). Саратов.2021.
3. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. - М.: Языки русской культуры, 1998. – С.19.
4. Лотман Ю.М. Об искусстве. – СПб: Искусство-СПб, 1998. – С.423.
5. Топоров В.Н. К символике окна в мифопоэтической традиции. – Режим доступа: http://www.mifinarodov.com/o/okno.html;Борев Ю. Теория литературы. – Том IV. Литературный процесс. – М., ИМЛИ РАН, 2001. – 624 с.; Мостепаненко А.М., Зобов Р.А. О типологии пространственно-временных отношений в сфере искусства // Ритм, пространство и время в литературе и искусстве. – Л., 1974. – С.299; Гей Н.К. Время и пространство в структуре произведения // Контекст. – М., 1975. – С. 113-129; Тороп П.Х. Словарь терминологии тартуско-московской семиотической школы / Сост. Я. Левченко. – Режим доступа: http://slovar.lib.ru/dictionary/hronotop.html; Носков А.В. Онтология времени и онтология пространства как основания различия фундаментальных ориентаций в философии. Автореф. дис. … канд. филол. наук – Томск, 1996; Темирболат А.Б. Категория хронотопа в свете современных научных концепций литературоведения // Филологические науки в России и за рубежом: материалы междунар. заоч. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, февраль 2012 г.). – СПб.: Реноме, 2012. – С. 6-9.
6. Джуракулов У.Х. Поэтика хронотопа в «Пятерице» Алишера Навои. Автореф. дис. … докт. наук. – Ташкент, 2017.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 392.181.151.9

XX ASRDA PEDAGOGIKA SOHASIDAGI EVOLYUTSIYASI: SADRIDDIN AYNIYNING TA'LIMDAGI AMALIY ISLOHOTI

Jumaniyazova Maxira Rahimbergan qizi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti,(PhD)

THE EVOLUTION OF PEDAGOGY IN THE 20TH CENTURY: SADRIDDIN AINI'S PRACTICAL REFORM IN EDUCATION

Jumaniyazova Makhira Rahimbergan qizi, Associate Professor at Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni, (PhD)

ЭВОЛЮЦИЯ ПЕДАГОГИКИ В XX ВЕКЕ: ПРАКТИЧЕСКАЯ РЕФОРМА ОБРАЗОВАНИЯ САДРИДДИНА АЙНИ

Жуманиязова Махира Рахимберган кизи, доцент Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни, (PhD)

jumaniyazovam2222@gmail.com

https://orcid.org/0000-0002-4051-9136

Annotatsiya: *Ushbu maqola 1905-yil inqilobidan keyin paydo bo'lgan mustaqil harakat – jadidchilikning tarixiy kontekstini o'rganadi. Markaziy Osiyodagi milliy harakatga rahbarlik qilgan bo'lsada, uning ishchilar sinfi bilan mustahkam aloqalarni hosil qila olmasligi ma'lum traektoriyaga olib keldi.Maqolada jadidchilikning ta'lim sohasidagi islohotlarga, xususan, yangi usul maktablarini tashkil etishga ta'siri o'rganiladi. Diqqat markazida Samarqand, Toshkent va Buxoro shaharlarida faoliyat yuritgan demokratik yo'nalishning yetakchi arbobi Sadriddin Ayniyning roli turadi.*

Kalit so'zlar: *Jadidchilik, Sadriddin Ayniy, O'rta Osiyo, ta'lim islohoti, yangi usul maktablari, pedagogik tanqid, inqilobdan oldingi Buxoro, o'qituvchilar tayyorlash, demokratik yo'nalish, madaniy ta'lim.*

Annotation: *This article examines the historical context of Jadidism, an independent movement that emerged after the 1905 revolution. Although it led the national movement in Central Asia, its failure to establish strong ties with the working class led to a certain trajectory. The article examines the impact of Jadidism on educational reforms, in particular the establishment of new-method schools. The focus is on the role of Sadriddin Ayni, a leading figure of the democratic movement operating in the cities of Samarkand, Tashkent, and Bukhara.*

Key words: *Jadidism, Sadriddin Ayni, Central Asia, educational reform, new-method schools, pedagogical critique, pre-revolutionary Bukhara, teacher training, democratic movement, cultural education.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается исторический контекст джадидизма – независимого движения, возникшего после революции 1905 года. Хотя джадидизм возглавлял национальное движение в Средней Азии, его неспособность установить прочные связи с рабочим классом обусловила определённую траекторию развития. В статье рассматривается влияние джадидизма на реформы в сфере образования, в частности, на создание новометодных школ. Основное внимание уделяется роли Садриддина Айни, ведущей фигуры демократического движения, действовавшего в Самарканде, Ташкенте и Бухаре.*

***Ключевые слова**: Джадидизм, Садриддин Айни, Средняя Азия, образовательная реформа, школы нового метода, педагогическая критика, дореволюционный Бухара, подготовка учителей, демократическое направление, культурное образование.*

KIRISH. Jadidchilik 1905-yil inqilobidan keyin mustaqil harakat sifatida shakllanib, unga butun rahbarlikni o‘z qo‘liga olmoqchi bo‘lgan milliy harakat edi, lekin jadidchilik mehnatkash xalq manfaatlarini ifoda etmagani uchun xalq unga ergashmadi. Jadidchilik rivojiga esa tatar burjuaziyasi rivojlangan tatar burjuaziyasi o‘zining milliy gazetalaridan foydalangan holda ta’sir ko‘rsatdi. Bu keyinchalik Turkiston va Sharqiy Buxoroda tarqalgan. Jadidlar eng kuchlisi sifatida maktab islohoti sari ilk qadamlarini yo‘naltirdilar. Ularning g‘oyalarini musulmon ommasiga tanishtirish, yangi usul maktablari deb ataladigan keng tarmoqni tashkil etish omili. Bunday maktablar Samarqand, Toshkent va Buxoroda ochilgan. Natijada ijtimoiy-pedagogik fikrning rivojlanish tarixida 19-asr oxiri 20-asr boshlarida o‘zbek xalqining quyidagi yo‘nalishlari belgilandi:

1. Ruhoniylar boshchiligidagi feodal yo‘nalish.
2. Milliy-burjua yo‘nalishi - Behbudiy, Munavar Qori va boshqalar boshchiligidagi jadidchilik.
3. Demokratik yo‘nalish, uning ko‘zga ko`ringan vakillari Hamza va Sadriddin Ayniylar edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Aynining islohotlarini XX asr pedagogikasining evolyutsiyasida muhim bosqich sifatida baholaydi: u madrasa tizimidan yangi maktablarga o‘tishni ta'minlab, bolaning psixologiyasi, mehnat va vatanparvarlikka asoslangan ta'limni rivojlantirdi. Uning g'oyalari hozirgi O‘zbekiston va Tojikiston ta'lim siyosatida (masalan, E. Rahmonning milliy ta'lim yo‘nalishlarida) qo‘llanilmoqda, ammo tadqiqotlarda uning pedagogik faoliyatining chuqurroq o‘rganilishi zarurligi ta'kidlanadi. Bu evolyutsiya Markaziy Osiyoda ta'limning demokratlashuvi va madaniy uyg'onishining asosini tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Sadriddin Ayniy demokratik yo‘nalishni qat’iy tutib, o‘sha davrda o‘zbek xalqining savodsizligiga qarshi kurashdi. Sadriddin Ayniyning pedagogik qarashlarida moddiy-texnik bazasi, o‘quvchilar soni, maqsad va vazifalarini tanqid qilish katta o‘rinni egallaydi. S.Ayniyning pedagogik qarashlarida o‘qitish metodikasi o‘rganishga asoslangan eski maktab qattiq tanqid qilindi. S.Ayniy o‘qitish usullarini qadimgi davrlarda to‘g‘ri tushungan maktablar o‘quvchilarga o‘rganganlarini tushunish imkoniyatini bermadi, o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirmadi. Buxoro madrasalarida talabalar yakka va guruh bo‘lib ishlaganlar. Talabaga bir madrasada yashab o‘qishga ruxsat berilgan boshqa madrasadagi muallim bilan, shuning uchun talabalar turli vaqtlarda turli o‘qituvchilar bilan birga o‘qidilar. Sinf xonalari yo‘q edi sinflar uchun; talabalar hujralarda yoki uyda mudarris deb ataladigan o‘qituvchilar bilan o‘qiydilar. Agar o‘qituvchiga ruxsat etilsa, u bir guruh talabalar bilan ishlagan; bo‘lmasa, har bir talaba bilan alohida ishlagan. Odatda, Buxoro madrasalari o‘qituvchilari kuniga sakkizdan, o‘n ikkigacha dars o‘tishlari va har bir dars uchun alohida vaqt ajratishlari mumkin edi. Talaba har kuni uch yoki to‘rtta darsga borishi mumkin edi. Agar o‘qituvchi band bo‘lsa, talabalar ularni kutish kerak edi. Shuning uchun talabalar ko‘p vaqtlarini o‘qituvchini kutish bilan o‘tkazdilar. Asosiy usul Madrasada dars berish masalasi ilmiy munozara edi. Sadriddin Ayniy madrasalardagi darslarning mazmuni va usullarini tanqid qilar ekan, uning mohiyatini ochib beruvchi tipik misol keltiradi. Buxoro madrasalari devorlarida yosh avlodni tarbiyalash va tarbiyalashning butun tizimi. Sadriddin Ayniy yozgan: “U biz mantiqni o‘rganamiz, deb hisoblardi, ammo madrasalarda bu ilmning hammasi bir nomda qoldi. Bir yil davomida talabalar o‘qishdi “Hoshiyai Qutba” – “Shamsiya” mantiqiy kitobining talqini. Bolalarni o‘qitish tizimining buzuqligini fosh qilish eski maktablarda, S.Ayniy talabalardan ongli ravishda bilim olishlarini, ular mustaqil fikr yuritishlarini va ko‘r-ko‘rona bo‘lmasligini talab qildilar. S.Ayniy o‘quvchilarga bilim berilmasligining asosiy sabablarini arab tilidagi ta’lim, nomuvofiqlik deb hisoblagan. U ona tilida ta’lim olishni, ta’lim mazmunini hayotga yaqinlashtirishni talab qildi. Yuqoridagi faktlar

shundan dalolat beradi Sadriddin Ayniy pedagogikaning yetuk tarixchisi bo‘lgan. Uning asarlari pedagogika tarixi fondini boyitdi, hozirgacha bugungi kunda mavjud. S.Ayniy tovush usulini savod o‘rgatishning boshlang‘ich usuli deb hisoblagan va uni o‘zi ham amalda qo‘llagan. S.Ayniy suhbatda bolalarning fikrlarini faollashtirish, ularning rolini rivojlantirish diqqat va xotira qobiliyatlarini yaxshilash usuli sifatida katta ahamiyat berdi. S.Ayniy mashqlar va takrorlashlarning bilimlarni mustahkamlash usullari sifatidagi rolini yuqori baholagan. U mashqlar va takrorlashni siqilish va o‘rgatish emas, balki ongli ravishda amalga oshirishning asosiy usullari sifatida tushundi. S.Ayniy bolalarni boshlang'ich davrdan oldin o‘qitishga alohida e'tibor bergan; u o‘qituvchidan ko‘rgazmali o‘qitishni talab qildi. U omillarni hisobga olmasdan o‘zgarganligini ko‘rsatib, o‘qitish usullarini mutlaqo to‘g‘ri tasvirlab berdi talabalarning individual xususiyatlari. Ushbu usul butun mashg‘ulot jarayonida qo‘llanilgan va o‘quvchilarning individual xususiyatlariga qaramay barcha yoshdagilar uchun maqbul edi. Bu bilan u eski maktabning o‘qitish usullari shunday bo‘lganligini ta’kidlamoqchi o‘quvchilar dars mavzusini ajrata olmaydigan darajada buzib ko‘rsatgan. Sadriddin Ayniy o‘quvchilarga bilim yetishmasligi sabablarini to‘g‘ri tushungan. U asosiylaridan biri ekanligiga ishondi. Bolalar uchun ta’lim olish imkonsizligi sabablari arab tilida o‘qitishdir. Arab tilining hukmronligi O‘rta Osiyo maktablari ta’limni bolalar uchun imkonsiz edi. Besh va olti yoshli bolalar uchun arab tilini o‘rganish nafaqat qiyin edi, balki ayni paytda butunlay chidab bo‘lmasdi, chunki mehnatkash xalq hech qachon arab tilini bilmas edi. Bu til chet tili edi ularga. O‘qitishning imkonsizligining ikkinchi sababi - bilimlarning mazmuni va hajmi va yoshi o‘rtasidagi nomuvofiqlik edi. Talabalar ba’zi nuqtalarda ona tilida o‘qigan bo‘lsalar ham, ular hech narsani tushunmadilar masalan, Hofiz, Jomiy, Bedil asarlari. Sadriddin Ayniy ta’lim va tarbiya masalasida o‘qituvchining yetakchi va hal qiluvchi roliga alohida e’tibor bergan. O‘qituvchi o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash, axloqiy fazilatlarni shakllantirishni ta’minlaydi. S.Ayniy fikricha o‘qituvchi ijtimoiy faol va xalq orasida madaniyat targ‘ibotchi bo‘lishi kerak. Xalq o‘qituvchisining yuksak va olijanob rolini ko‘rsatish jamiyatda Sadriddin Ayniy o‘z asarlarida o‘z dunyoqarashi va tayyorgarligi bo‘yicha o‘z ta’limotiga ishonmagan eski maktab o‘qituvchilarini keskin tanqid qiladi. Sadriddin Ayniy eski maktablarning muallimlarini hamisha tanqid qilib yosh avlodga yaxshi ta’lim bera oladigan va yaxshiroq o‘qitadigan yangi o‘qituvchilar haqida o‘yladi Sadriddin Ayniyning ustozlik ideali keng bilimli, yuksak madaniyatli, insonparvar shaxsdir. Vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun Sadriddin Ayniyning fikricha, yangi o‘qituvchi dindan tashqari yaxshi bilimga ega bo‘lishi kerak. tojik tili, arifmetika, geografiya, tabiatshunoslik, pedagogika, gigiyena, shuningdek, qishloq xo‘jaligi fanlarini eng avvalo, ona tilini yaxshi bilishi kerak, deb mutlaqo to‘g‘ri hisoblagan. Bu uning umumiy madaniyatini oshiradi va dunyoqarashini kengaytiradi. O‘qituvchi maxsus bilimga muhtoj. Pedagogik ta'lim va gigiena jihozlari bo‘yicha bilim olish yosh avlodni tarbiyalash uslublari mazmuni haqida ilmiy bilimga ega bo‘lishi kerak deb hisoblagan. Bu fikr o‘qituvchilar uchun maxsus tayyorgarlik inqilobdan oldingi Buxoro sharoitida professional edi. U eski maktablardan farqli ravishda ilgari surildi, bu maktablarda o‘qituvchilar pedagogika fanlari mavjudligi haqida hatto tasavvurga ham ega emas edilar. Sadriddin Ayniy pedagogika nazariyotchisi va tarixchisigina emas, uning o‘zi ham o‘qituvchi bo‘lib ishlagan, pedagogik fikrlarini hayotga tatbiq etgan. U iste’dodli o‘qituvchi, pedagogika fanining ustasi edi. U adabiyotni, tarixni va vatanini sevardi. U ilm-fanning bu sohalari haqida ko‘p narsalarni bilardi. Bu unga shogirdlariga mustahkam ilmiy bilimlar berishga imkon berdi. Sifatli namunali o‘qituvchi bo‘lib, u talabalarning uy vazifalarini sinchkovlik bilan tekshirar va yo‘l qo‘yilgan xatolarni sinchkovlik bilan tahlil qilardi.Sadriddin Ayniy maktabda bolalar guruhining mohir va zo‘r tashkilotchisi edi. Badiiy havaskorlar guruhiga rahbarlik qilgan. Shunday qilib,Sadriddin Ayniy nafaqat ustoz, balki dono pedagog ham edi. Sadriddin Ayniyning pedagogik qarashlarida oila va oila tarbiyasi masalalari muhim o‘rin tutadi, chunki ularning ota-onalari bolalarning rivojlanishi va shakllanishi uchun javobgardir. Shuning uchun Sadriddin Ayniy oilaga alohida e’tibor bergan. Sadriddin Ayniy o‘z asarlarida ayollarning ko‘pxotinliligini keskin

tanqid qilgan bir-biriga nisbatan nafrat, ular o‘rtasida adovat, ikkiyuzlamachilik, badavlat kishilarning xotinlari o‘rtasidagi buzuqlikni tez-tez uchratishardi. Bir xil ayollar er uchun bir-birlari bilan urishgan. Sadriddin Ayniy fikricha, shaxsiy qadr-qimmat va ma’naviy manfaatlari bu jamiyatda bolalar, ayniqsa, qizlar e’tiborga olinmagan. Sadriddin Ayniyning oila masalalari haqidagi bayonotlari ta’lim o‘z hayoti bilan to‘liq mos keladi. Uning oilasi kuchli, do‘stona va mehnatkash edi. U g‘amxo‘r va talabchan ota edi. Uning oilasida mashhur olimlar: Kamol Ayniy va Xolida Ayniylar yetishib chiqqan fan doktori hisoblanadi. Uning oilasi yoshlarimiz uchun eng yaxshi namunadir.

Xulosa. Sadriddin Ayniy inqilobdan oldingi davrlardagi ta’lim mafkuralarining ko‘p qirrali manzarasini o‘rganishda ushbu maqola jadidchilikning milliy harakatga o‘zgartiruvchi ta‘sirini va barqaror demokratik yo‘nalishni ta’kidlaydi. Ayniyning an’anaviy pedagogik usullarni chuqur tanqidi va uning har tomonlama o‘qituvchilar tayyorlash, uni Markaziy Osiyo ta’lim evolyutsiyasida namuna sifatida ko‘rsatadi. Ayniyning oilaviy hayoti merosi uning e’tiqodi, kelajak avlodlar uchun jozibali namunadir. Bu kashfiyot bir nuance hissa qo‘shadi mintaqadagi pedagogikani shakllantirgan tarixiy nuanslarni tushunish, ta'lim bo‘yicha doimiy nutq uchun yo‘l ochish, madaniyat va ijtimoiy o‘zgarishlar.

ADABIYOTLAR:

1. Braginskiy I.S. Sadriddin Ayniy, hayot va ijodi. AN Tojning materiallari. SSR, XXIV jild, 1954 yil.
2. Rahimov N. Sadriddin Ayniy. Ed. O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi, 1954 y.
4. Shukurov M. Sadriddin Ayniy “Xotiralar”ining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (1-qism), avtoreferat, 1954-y.
5. Manyyozov A. Sadriddin Ayniy publitsistikasi va she’riyati. (1913-1921), Tojg‘osizdat, 1958 y.
6. Xajieva M. S. va boshqalar. Tolerantlikning jamiyatdagi roli va uning falsafiy talqini //Yosh olim AQSh. – 2015. – S. 163-165.
7. Xajieva M.S., O‘razmetov M.T., Akmanova S.A. O‘zbek xalq etnomadaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari //Yosh olim AQSH. – 2014 yil.–S. 159-161.
14. Sultonovna.K.M. Globallashish tushunchasi va uning falsafiy talbiri //epra Xalqaro.Multidisiplinar tadqiqotlar jurnali (IJMR).– 2022 yil. – T. 8. – №. 3. – S. 134-138.
15. Sultonov F., Saurov R. Korrupsiya davlat taraqqiyotining xavfli dushmani //Internauka. – 2021. – №.16-4. – S. 8-9.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 1:32(075).8

O‘RTA ASRLAR SHARQ RENESSANSIDA GUMANIZIM FALSAFASINING NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARI

Xo‘jayev Davron Nuriddinovich,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti “Falsafa” kafedrasi katta o‘qituvchisi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)

https://orcid.org/0009-0008-8304-3087
e-mail: xojayev214@gmail.com

ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ФИЛОСОФИИ ГУМАНИЗМА В ВОСТОЧНОМ РЕНЕССАНСЕ СРЕДНИХ ВЕКОВ

Хужаев Даврон Нуриддинович,
Старший преподаватель кафедры «Философия» Факультета социальных наук Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии (PhD) по философским наукам

FEATURES OF THE MANIFESTATION OF HUMANISTIC PHILOSOPHY IN THE MEDIEVAL EASTERN RENAISSANCE

Khodjaev Davron Nuriddinovich,
Senior Lecturer, Department of Philosophy, Faculty of Social Sciences, Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘rta asrlar Sharq renessansi davrida gumanizm falsafasining shakllanishi va uning namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda Sharq mutafakkirlarining inson, aql, axloq, ilm va ma’naviyat haqidagi qarashlari gumanistik tafakkur asosida yoritilgan. Al-Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Jomiy va Navoiy kabi allomalarning insonni aql, axloq va ruhiy komillikka intiluvchi mavjudot sifatida talqin etishi Sharq gumanizmining asosiy mohiyatini belgilaydi. Maqolada birinchi (VIII–XII asrlar) va ikkinchi (XIV–XVI asrlar) Sharq uyg‘onish davrlari o‘rtasidagi falsafiy vorislik, gumanistik qadriyatlarning uzluksiz rivoji hamda ularning zamonaviy insonparvarlik g‘oyalariga ta’siri tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Sharq renessansi, gumanizm, falsafa, insonparvarlik, Al-Farobiy, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, axloq, ilm, ma’naviyat.*

Аннотация: *В статье рассматриваются особенности проявления философии гуманизма в эпоху восточного Ренессанса средних веков. Анализируются гуманистические идеи восточных мыслителей, таких как аль-Фараби, Ибн Сина, Беруни, Джами и Навои, в которых человек предстает как разумное, нравственное и духовно совершенное существо. Отмечается преемственность гуманистических ценностей между Первым (VIII–XII вв.) и Вторым (XIV–XVI вв.) Восточным Возрождением, их влияние на развитие современной гуманистической мысли и духовной культуры.*

Ключевые слова: *Восточный Ренессанс, гуманизм, философия, человек, нравственность, аль-Фараби, Ибн Сина, Джами, Навои, знание, духовность.*

Annotation: *This article explores the manifestation of humanistic philosophy during the Medieval Eastern Renaissance. It analyzes the humanistic worldview of great Eastern thinkers such as Al-Farabi, Ibn Sina (Avicenna), Al-Biruni, Jami, and Navoi, who viewed humans as rational, moral, and spiritually striving beings. The study highlights the philosophical continuity between the First (8th–12th centuries) and Second (14th–16th centuries) Eastern Renaissances, emphasizing the evolution of humanistic values and their lasting impact on modern humanitarian thought and culture.*

Key words: *Eastern Renaissance, humanism, philosophy, humanity, Al-Farabi, Ibn Sina, Jami, Navoi, morality, knowledge, spirituality.*

Kirish. O‘rta asrlar Sharq falsafasi ayniqsa Islom sharqi nafaqat diniy balki, axloqiy, ratsional, ijtimoiy qarashlarga tayangan yuksak gumanistik qarashlarning shakllanishiga zamin yaratgan falsafiy taraqqiyotning noyob bosqichi hisoblanadi. Ko‘plab tadqiqotlarda gumanizim falsafasini G‘arb falsafasiga bog‘lash holatlari kuchli bo‘lsa ham aslida bu fenomenining sharqdagi ildizlari anchayin chuqur bo‘lib, sharqlik mutafakkirlarning inson va jamiyat haqidagi qarashlarida aniq o‘z aksini topgan.

Sharq falsafasida inson markaziy mavzu deb e’tirof etilgan davr bu VIII-XII asrlar oralig‘idagi davr va keyingi ikkinchi Sharq uyg‘onish davri deb ko‘riladigan XIV-XVI asrlar deb hisoblanadi. Gumanizimning shakllanishi genezisi VIII-XII asrlar oralig‘idagi davrda quyidagi kontseptual jihatlarga ko‘ra o‘zini namoyon etgan:

Inson aql sohibi: Al-Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Hayyom kabi faylasuflar insonni tafakkur va idrok sohibi sifatida talqin qilib uning kosmosdagi o‘rnini yuqori darajaga qo‘yishadi. Albatta bu qarashlari bilan mutafakkirlar insonning kosmosdagi roli, jamiyatdagi vazifasi va ma’naviy kamolotga erishish yo‘llarini asoslashni maqsad qilib olsihgan.

Insonning erkin tanlovni amalga oshira olish qobliyati: Bu davrda taqdir masalasi bilan bir qancha falsafiy masalalar muhokama qilinib keng muhokamalar olib borilgan edi. Shunday muhokamalar natijasi sifatida shakllangan “mutazalliylar o‘z nazariyalariga ko‘ra insonning xatti-harakatlari uchun mas’ul ekanligini ta’kidlagan holda inson erki yuqori qo‘yilgan axloqiy gumanizimni ilgari surishdi” [1, 402-403-бет].

Ilm va fanga asoslangan gumanizm: O‘rta asrlar Sharqida ilm-fanning asosiy harakatlantiruvchi kuchi insonni kamolotga eltuvchi asosiy vosita sifatida bilimga bo‘lgan ishonch yuqori edi. Bu davrda bilim nafaqat ma’naviy balki moddiy jihatdan ham yuksalishning fundamental asosi sifatida ko‘rilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. O‘rta asrlar Sharq renessansidagi gumanizmning muhim o‘ziga xos farqli jihati bu uning kuchi axloqiy asoslarga tayanishi hisoblanadi. Bu axloqiy gumanizimda inson avvalo ma’naviy komillikka intiluvchi, ijtimoiy mas’uliyatli borliq sifatida aks etadi. Bu fenomen xususiyatlarni avvalo bu davrning yetakchi eng yirik fayasuflar ijodida kuzatish mumkin. Xususan Ibn Sino o‘zining “Kitob ush-Shifo” va “Ishorat va tanbihat” asarlarida aql, iroda va nafsiy sifatlarning uyg‘unligini saqlash orqali inson komilligiga erishishi mumkin degan farazni ilgari surib asoslamoqchi bo‘ladi. Bu o‘rinda inson nafaqat biluvchi, balki o‘z ustida doimiy ishlashi kerak bo‘lgan axloqiy mavjudot sifatida talqin qilinadi.

Bu davrda Sharqda gumanizim faqatgina mutafakkirlar qarashlar tizimidagi nazariy tushuncha sifatida emas, balki ijtimoiy hayotning ajralmas elementi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu davrlar falsafiy asarlari ham tahlil qilinarkan hukmdorlarning asosiy burchi — insonni ezgu axloqiy sifatlar orqali yuksaltirish, jamiyatda adolat va ma’rifatni ta’minlashdan iborat etib tavsiflanganini ko‘rish mumkin. Al-Farobiyning “Fozil odamlari shahri” [2, 160-бет] yoki Ibn Xaldunning “Muqaddimasi”da [3, 423-бет] bu g‘oya o‘zining aniq ifodasini topgan.

Bu davrdagi gumanizm o‘zining aniq ijtimoiy-siyosiy qarashlari bilan aks etgan. Xususan bu davrda gumanizm quyidagi uch asosiy jihat bilan aniq aks etgan. Birinchidan inson siyosiy tuzumlar markazida qo‘yilib tuzum inson uchun xizmat qilish g‘oyasi ideal hisoblangan. Ikkinchidan davlatning eng oliy maqsadi insonning

oliy kamoloti va ijtimoiy adolatni ta'minlash hisoblangan. Jamiyat taraqqiyotini belgilashning asosiy mezoni bu axlqoiy fazilatlar bilan belgilangan. Chunki yuqorida aytganimizdek bu davr gumanizmining asosiy xususiyati yuksak axloqiy tamoyillar bilan belgilangan.

O'rta asrlar Sharq falsafasida gumanizm G'arb falsafasidan farqli ravishda o'ziga xos konseptual yo'nalishda shakllangan bo'lib, uning markazida inson, aql, axloq, jamiyat oldidagi mas'uliyatini his qilgan inson siymosi turadi. Bu gumanistik tafakkur Yevropa Uyg'onish davri gumanistik falsafasiga jiddiy ta'sir qilgan, ko'plab falsafiy va ilmiy maktablarning shakllanishiga zamin yaratgan. Shu bois ham bu Sharq gumanizmi nafaqat tarixiy meros, shuningdek, bugungi global madaniyat va zamonaviy insonparvar ta'lim konsepsiyalarining shakllanishida ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

O'rta asrlar Sharq falsafasi insonparvarlik g'oyalarining chuqur ildiz otgan, falsafiy bosqichi bo'lib davr o'zining gumanizm g'oyalarini keng qarashlari bilan boyitgani bilan ham xulq-atvor kasb etadi. Gumanizmning Sharqda diniy-ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'un holda shakllanishi Yevropa Uyg'onish davridagidan farqini belgilovchi asosiy xususiyati hisoblanadi. Bu davr markazida inson uning aql-zakovati, axloqiy-ruhiy yetukligi va jamiyatdagi o'rni turadi.

Sharqdagi gumanizm G'arbdagi kabi sekulyar yo'nalishda emas aksincha diniy asoslar bilan uyg'unlashgan holda fenomen sifatida vujudga kelgan. Qur'oni karimda inson "ashraful-maxluqot" [4,] sifatida tilga olingan bo'lib bu tasavvur islom falsafiy tafakkuriga ko'chib mustahkam o'rin egallagan. Mutakalimlar, sufiylar va faylasuflar insonni yaratganning donishmandlik bilan yaratilgan, erkin ixtiyor egasi bo'lgan borliq sifatida tasvirlangan. Xususan, mutazaliylar insonning insondagi iroda erkinligini e'tirof etib insonga axloqiy javobgarlikni yuklashgan. Sufiylar bo'lsa insonning ma'naviy kamolot yo'lidagi izlanishlarini ijobiy qadriyat deb bilishgan.

Bu jihatlarning barchasi umumiy holatda Sharq gumanizmining ichki, ruhiy yetuklikka yo'naltirilgan, ilohiy va insoniy kamolotni birlashtirgan falsafiy modelga ega ekanini ko'rsatadi.

VIII-XII asrlar Sharq falsafasining eng yuksak bosqichida Al-Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ibn Rushd kabi yirik mutafakkir faylasuflar ilmiy-falsafiy tafakkurni insonparvarlik g'oyalari bilan uyg'unlashtirdilar.

Al-Farobiy "Fozil odamlar shahri" konsepsiyasida ideal jamiyatni adolatli, ma'rifatli, axloqli insonlar boshqaradigan tuzum sifatida tasvirlaydi. "Unda har bir yetakchi shaxsning donolik, halollik, adolatparvarlik kabi fazilatlarga ega bo'lishi ilgari surilgan" [5, 7-8-бет]. Ibn Sinoning falsafasida inson aql egasi, o'ligini anglash va kamolot sari harakat qiluvchi mavjudot sifatida talqin etiladi. U inson hayotining ma'naviy-axloqiy jihatlariga katta e'tibor qaratgan. Beruniy ilmni jamiyatni yuksalatiruvchi gumanistik vosita sifatida belgilaydi. Uning tabiat, til, madaniyat va din haqidagi tahlillari inson tafakkurining keng imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Bu faylasuflarning qarashlarida insoniyatga xizmat qilish, bilim orqali kamolotga erishish, axloqiy yetuklik sari intilish kabi gumanistik g'oyalar asosiy o'rinda turadi.

Sharq gumanizmining namoyon bo'llishining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki u nafaqat falsafiy matnlarda, balki nasr va nazmdagi badiiy adabiy matnlarda ham o'z aksini topgan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Sa'diy, Nizomiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar o'z asarlarida inson axloqi, halollik, mehr-shafqat, do'stlik, fidoyilik kabi qadriyatlarni targ'ib qilib keng muhokama qilishgan. Bu adabiy-falsafiy asarlarning barchasi gumanizm insonparvarlik g'oyasi sharqda qanchalik o'z aksini topganini namoyon qiladi.

O'rta asrlar Sharq falsafasida shakllangan gumanizm g'oyalari diniy, falsafiy adabiy matnlar tizimida keng aks etgan va chuqur ildiz otgan. Bu gumanizm o'z davrining insonni oliy maqsadli, axloqan yetuk, tafakkur egasi sifatida ko'rgan konseptual yondashuv bo'lgan. U islomiy qadriyatlar, ilmiy izlanish va axloqiy mukammallik uyg'unlikda shakllanib, Sharq va G'arbning keyingi davrdagi zamonaviy insonparvarlik tushunchalarining shakllanishida kuchli aks etgan.

Sharq tamaddunida tarixan bir necha marotaba uyg'onish davrlari yuz bergan bo'lib, ular madaniyat, fan, adabiyot, falsafa va ijtimoiy fikr rivojida rezonanslar keltirib chiqarib tarixning burilish nuqtalari hisoblanishadi. Birinchi uyg'onish davri mantiqan davom etib Sharqda XIV–XVI asrlar deb belgilanadigan "Ikkinchi

Sharq uyg‘onish davri” uchun fundamental asos bo‘ldi. Bu bosqich, Temuriylar davrida, xususan, Hirot, Samarqand, Buxoro, Marv kabi markazlarda yuzaga kelgan madaniy-ma’naviy tiklanish, ilmiy-falsafiy taraqqiyot va insonparvarlik (gumanistik) ruhning yuksalishi bilan ajaralib turadi.

Ikkinchi uyg‘onish davrining ijtimoiy siyosiy ildizlari bu asosan Movarounnahr va Xuroson hududlarida hukm surgan siyosiy barqarorlik, ilm-fanga rag‘bat, madaniyatga homiylik siyosati bilan shakllandi. Amir Temur asos solgan kuchli markazlashgan davlat, shuningdek, uning ilm-fanga homiy bo‘lgan avlodlarining siyosati natijasida bu renessans fenomeni o‘zini namoyon etdi.

Bu davrda gumanistik tafakkur mutlaqo yangicha bosqichga ko‘tarildi. Mutafakkirlar bu davrda insonga nafaqat teologik nuqtayi nazardan, shuningdek, ratsional nuqtayi nazardan tafakkur egasi, axloqiy shaxs va jamiyatning faol subyekti sifatida ko‘rib chiqadilar. “Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Koshiy -matematik astronomlar; Abdurahmon Jomiy – falsafa, tasavvuf, adabiyot va axloq sohasida gumanistik tafakkurning peshqadami; Alisher Navoiy – adabiyot va falsafani jamiyatning axloqiy-ma’naviy yangilanishi vositasiga aylantirgan ulug‘ mutafakkir” [6, 22-бет]. Bu mutafakkirlarning asarlarida inson shaxsiga bo‘lgan hurmat, adolat, ilmu ma’rifatga da’vat, ijtimoiy mas’uliyat va jamiyat oldidagi burch kabi gumanistik qadriyatlar markaziy o‘rinda turadi.

Bu uyg‘onishning tarixiy ahamiyati quyidagi jihatlarda aniq namoyon bo‘lgan.

Sharq sivilizatsiyasining o‘z davridagi eng ilg‘or va taraqqiyparvar holatga yetishini ta’minladi;

Bu davrning ahamiyati global ko‘rinish olib G‘arb uyg‘onishda muhim nazariy asos bo‘ldi. Bu bilimlarning G‘arbdagi transformatsion o‘zgarishlari G‘arbda yangicha gumanistik taraqqiyotga olib keldi; O‘zbek xalqining ma’naviy, adabiy va madaniy o‘zligini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynadi.

Ikkinchi Sharq uyg‘onish davri bu inson fikrining, ilmining va ma’naviyatining eng yuksak bosqichlaridan biridir. Bu davr gumanizm, adolat, ilm-u kamolot, ijodiy tafakkur va ijtimoiy ong uyg‘onishining timsoliga aylangan. Mutafakkirlar asarlarida ilm, axloq va ma’rifat uyg‘unlashgan bo‘lib, ularning merosi hozirgi kunda ham dolzarb va ibratlidir. Ikkinchi renessans Sharq tarixining nafaqat faxri, balki bugungi zamonaviy islohotlar uchun ham ma’naviy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘rta asrladagi Sharq falsafasi va ma’naviyati taraqqiyoti tarixida ro‘y bergan birinchi va ikkinchi Uyg‘onish davrlari ikki yirik bosqichni tashkil etadi. Har ikki davr o‘zaro mustahkam tarixiy, falsafiy va madaniy bog‘liqlikka ega bo‘lib, ularni “uzluksiz tafakkur rivoji” sifatida baholash mumkin. Bu ikki uyg‘onish bosqichida vorisiylik asosida umumiy qadriyatlar, ilmiy meros va insonparvarlik g‘oyalari mantiqan davom etgan hisoblanadi.

Birinchi va ikkinchi renessanslar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib biri ikkinchisini vujudga kelishida nazariy va madaniy asoslarni yaratgan hisoblanadi. Bu uyg‘unlik orqali Sharq sivilizatsiyasi o‘ziga xos uyg‘unlikka ega bo‘lib, falsafiy tafakkur tizimi vujudga keldi. Inson bilim, adolat, ma’naviyat kabi qadriyatlar asosida har ikki davrning markaziga qo‘yildi. Aynan shu uzviylik tufayli Sharq tafakkuri jahon madaniy merosining ajralmas qismiga aylandi.

“Sharqdagi birinchi (VIII–XII asrlar) va Ikkinchi (XIV–XVI asrlar) Uyg‘onish davrlari o‘rtasida uzviy tarixiy-falsafiy vorisiylik mavjud bo‘lib, bu ikki tarixiy bosqich mustahkam tarixiy falsafiy asoslar bilan bog‘liq bo‘lib, mantiqiy vorisiylikning asosli ekanligini ko‘rsatadi” [7, 52-56-бет].

Avvalo, har ikki davrning asosida inson tafakkuri markazga qo‘yilgan ilm-fan ulug‘langan falsafiy tafakkur tendensiyasi mavjud hisoblanadi. Birinchi renessans davrida Farobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi mutafakkirlar tomonidan yaratilgan maktablar va metodologik tizimi keyingi ikkinchi davrda Jomiy, Navoiy, Qosimiy va boshqa ko‘plab allomalar tomonidan vorisiylik tamoyillari asosida rivojlantirilidi va ma’lum bir ma’noda boyitildi.

Ikkinchidan gumanisitik tafakkur tamoyillari izchillik va mantiqiylik asosida rivoj topib borgan. Birinchi davrda inson aqli va tafakkuri markazga chiqarilgan bo‘lsa, ikkinchi davrda bu g‘oya yanada chuqurlashtirilib, inson ichki dunyosi, ma’naviy olami, axloqiy kamolotga intilishi asosiy mavzuga aylantirilidi. Shunday qilib, birinchi davrda paydo bo‘lgan gumanistik qadriyatlar ikkinchi davrda tasavvuf adabiyoti orqali mukammal ko‘rinish olib amaliyotga joriy etildi.

Uchunchidan, falsafiy tafakkurda oldingiga qaraganda sintechuy kabi sohalarda sinkretlashuv kuchayib bordi. Agar birinchi davr Renessansida yunon, hind va islomiy fikrlar sintezi aosan mantiqiy, ilmiy izlanishlar doirasida olib borilgan bo‘lsa ikkinchi davrda bu jihat axloq, estetika, huquq masalalari bilan rivojlantirildi. Xususan, Jomiy va Navoiy asarlarida inson faqat biluvchi borliq shakil emas balkim, kuchli estetik idrokka, ruhiy poklanishga qodir mavjudot sifatida gavdalandi.

To‘rtinchidan har ikki davrda adolat tushunchasining metafizik va ijtimoiy axloqiy masalalari ustuvor mavzu sifatida har doim keng muhokama qilingan. Xususan, birinchi davrning eng yirik islom faylasufi “Farobiy adolatni “eng oliy ijtimoiy tartib” deb atagan bo‘lsa, ikkinchi davrning asosiy mutafakkirlaridan bo‘lgan Jomiy va Navoiy asarlarida u jamiyat barqarorligi, ruhiy poklik va adolatli davlat boshqaruvining asosi sifatida ilgari suriladi”[1, 37-38-бет]. Bu esa gumanizmning asosiy kategorial tushunchasi bo‘lgan adolat konsepsiyasining davrlar kesimida mantiqan izchilikka asosida rivojlanganini ko‘rsatadi.

Eng oxirida har ikki davrda ham ilm-fanning markaziy ahamiyati saqlanib qolganligi bu ikki davrning eng muhim davr xususiyati hisoblanadi. Farobiy, Ibn Sino, Beruniylar asos solgan ilmiy metodologiya va dunyoqarash rivojlanib, borib ikkinchi davrda ham o‘zini namoyish qildi. Temuriylar davrida bu an’analar madrasa ta’limi ilmiy doiralarida qayta jonlanib, ilm fanga bo‘lgan e’tibor bilan ommalashib bordi.

Xulosa. O‘rta asrlar Sharq falsafasida gumanizm g‘oyalarining shakllanishi o‘ziga xos transformatsion bosqichni bosib o‘tgan bo‘lib, Sharq tarxiy-madaniy kontekstida asosan tasavvufiy va falsafiy tafakkur bilan sinkretlikda (aralash) vujudga kelgan fenomen hisoblanadi. Bu davrdagi uyg‘onish fenomeni kabi insonparvarlik tamoyillari ham g‘arbdagi kabi sekulyarizim bilan emas, balki diniy ma’rifat, ruhiy poklanish va insoniy kamolot bilan birgalikda namoyon bo‘ladi. Sharq muatafakkirlari, jumladan, Farobiy, Ibn Sino, G‘azzoliy, Nasriddin Tusiy va ayniqsa Abdurahmon Jomiy borliqning markaziga insonni qo‘yib, uning har tomonlama yetukligi axloqiy, aqliy va ruhiy ma’naviy barkamolligiga alohida e’tibor qaratishgan. O‘rta asrlar Sharq gumanizmi, insonni faqatgina jismoniy emas, balkim ma’naviy-axloqiy va aqliy taraqqiyot nuqtai nazaridan e’tibor markazga olib chiqqan holda, Sharq falsafasining o‘ziga xos insonparvarlik modelini kashf etdi. Bu esa, bugungi zamonaviy yondashuvlar uchun ham bebaho tajriba va konseptual asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Чанышев А.Н. Курс лекций по древней и средневековой философии. – М.: Высшая школа, 1991. – Б. 402-403.
2. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. — T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. — 160 b.
3. Sulaymonov Jasur Baxtiyorovich. Ibn Xaldunning “Muqaddima” asarida jamiyat taraqqiyotiga ta’sir qiluvchi omillar talqini. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 1 | ISSUE 4 ISSN 2181-1784 SJIF 2021: 5.423
4. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/suhbatlar/anvar-qori-tursunov-islom-asoslarini-o-rganmay-turib-navoiyni-tushunib-bo-lmaydi?ysclid=m9druelidd192689978.
5. Abu Nasyr fl-Farabi «The Virtuous City», Abai International Club, A., 2014. P-7-8.
6. Altaev J.A. Classical Islamic philosophy of the Middle Ages. A., Kazak Universities, 2015. P-22.
7. Nigmetova A.T., Kusherbaeva A.B. The value of the philosophy of al-Farabi in the history of world culture. Collection of ISPs «Al-Farabi in the Kazakh and world philosophy, culture and civilization», A. Kazakh Universities, 2018. P. 52-56.
8. Altaev J.A. Classical Islamic philosophy of the Middle Ages. A., Kazak Universities, 2015.P-37-38.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 1:32(075).8

HOZIRGI ZAMON ZIYORAT TURIZMI TARAQQIYOTIDA BUXORONING O‘RNI

Kuchkarova Gulnoz Raxmonovna,
Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi

РОЛЬ БУХАРЫ В РАЗВИТИИ СОВРЕМЕННОГО ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА

Кучкарова Гулноз Рахмоновна,
Бухарский государственный технический университет,
независимый исследователь

THE ROLE OF BUKHARA IN THE DEVELOPMENT OF MODERN PILGRIMAGE TOURISM

Kuchkarova Gulnoz Raxmonovna,
Bukhara State Technical University
Independent researcher

https://orcid.org/0009-0004-7801-475X
e-mail: gulimkuchkarova@mail.ru

Annotatsiya: *Zamonaviy davrda Buxoro ziyorat turizmi tarqqiyotida muhim rol o‘ynashda davom etmoqda. Asrlar davomida o‘z qadr-qiymatini yo‘qotmagan maskan, butun dunyodan ko‘plab musulmon ziyoratchilar va qiziquvchan sayyohlarni o‘ziga jalb etadi.*

Kalit so‘zlar: *Ziyoratgoh, islom arxitekturasi, botin va zohiriy ilmlar, qadamjolar, madrasa, masjid, sulola.*

Аннотация: *В современную эпоху Бухара продолжает играть важную роль в развитии паломнического туризма. На протяжении веков этот не потерявший своей ценности город привлекает многочисленных мусульманских паломников и любознательных туристов со всего мира.*

Ключевые слова: *святыни, исламская архитектура, внутренние и внешние науки, места паломничества, медресе, мечеть, династия.*

Annotation: *In the modern era, Bukhara continues to play an important role in the development of pilgrimage tourism. For centuries, this place, which has not lost its value, has attracted numerous Muslim pilgrims and curious travelers from all over the world.*

Key words: *shrine, Islamic architecture, inner and outer sciences, pilgrimage sites, madrasa, mosque, dynasty.*

Kirish. Buxoro Markaziy Osiyodagi ziyorat turizmining eng muhim markazlaridan biridir. O‘zbekistonda joylashgan bu qadimiy shahar islom dini bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan boy tarix va madaniyatga ega. Zamonaviy davrda Buxoro ziyorat turizmi tarqqiyotida muhim rol o‘ynashda davom etmoqda. Asrlar davomida o‘z qadr-qiymatini yo‘qotmagan maskan, butun dunyodan ko‘plab musulmon ziyoratchilar va qiziquvchan sayyohlarni o‘ziga jalb etadi. Buxoroda ichki va tashqi ziyorat turizmi taraqqiy etilishiga asosiy sabab, avvalambor 7 pir ziyoratgohlari, tabbarruk va muqaddas qadamjolari, Piri-murshidlar, Shifobaxsh ziyoratgohlar, Hojatbaror avliyo-anbiyolar manzil-makonlari va qad ko‘tarib turgan islom arxitekturasi, me’moriy yodgorliklari, minoralari-yu, masjid – madrasalarining tarixi, tuzilishi, haqiqat va afsonalari, xalq og‘zaki rivoyati, o‘tmishni, bugunni va ertani eslatuvchi ilmi botin (ichki, yashirin, sirli ilm (8-asr)) va ilmi zohiriy (tashqi ilm) larini o‘rganib, targ‘ib etgan ulamolar o‘rni beqiyosdir. Buxoro yurtiga yaqinlashar ekan inson, uning baland, uzoqdan ko‘rinib turgan

minoralari xuddi ularni qarshi olgandek, qomatini tik tutgan makonda u haqidagi ayrim afsonalarni bilmoq ham unga o‘zgacha joziba bag‘sh etadi [1; 66-67-b]. Afsonalar esa nafaqat Buxoroning Minorai Kalon haqidadir, balki barcha tarixiy obidalarimiz, ziyoratgohlarimiz, madrasa-masjidlarimiz, chashmalar, quduqlar, qadamjolar, pir-u murshidlarimiz karomatlari, karvonsaroylar haqidadir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tizimli-tahlil va qiyosiy tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, kompleks yondashuv, usullaridan keng foydalanildi.

Muhokama va natijalar. Buxoro islom madaniyatining rivojlanishida, islom arxitekturasi rivojlanishinig davri, masjid va madrasalar qurilishining asosiy omillari va tashabbuskorlari muhim ahamiyatga ega ekanligi hech kimga sir emas. Ushbu davrlarni sanab o‘tsak:

- VIII-IX asrlar davomida shahar arablar tomonidan bosib olinib, islomlashtirilgach, katta o‘zgarishlar bo‘lib o‘tgan. Shahar kengayib hujumlardan himoya qilishni ta’minlash maqsadida 849-850-yillarda shahar atrofi 11 darvozasi bo‘lgan uzun paxsa devor bilan o‘rab olingan. Buxoro arab xalifaligining asosiy shaharlaridan biriga aylana boshlandi [2; 29-b].
- IX-X asrlarga kelib Somoniylar sulolasi davrida ilm, fan, madaniyat, san’at, arxitektura, naqqoshlik, tasviriy san’at hamda iqtisodiy jihatdan rivoj topgan. Bu davrda nafaqat hashamatli saroylar, istirohat bog‘lar va me’morchilik inshootlari joylashgan shahargina emas, balki ko‘p sonli olim-u fozillar, jahonga mashhur ilm, madaniyat va san’at arboblari yashagan. V.V.Bartoldning aniqlashicha Buxoroda “Farjoq madrasasi” manbalarda berilgan eng avvalgi ma’lumotdir [2; 30-b]. Rivoyat qilishlaricha, Imom Abu Hafs Kabir Buxoroda hanafiy mazhabi asosida ta’lim beriladigan ilk madrasani qurdirgan. Bu madrasa “Farjoq madrasasi” hozirgi “Poyi Kalon” mavzeida bo‘lgan. Ismoil Somoniy maqbarasi o‘rta asrlarning rivojlangan davrida (IX-X asr), 864-868-yillar oralig‘ida qurilgan. Abu Xafs Kabir maqbarasida ham Samoniy maqbarasining tuzilishi, me’morchilik elementlari va shakllarini uchratish mumkin [3;170-b].
- XI-XII asrlar davomida Qoraxoniylar sulolasi davri boshlanadi. Buxoroda bir qancha saroylar, masjid va madrasalar qurilgan. Pishiq g‘ishtdan hashamatli binolar qurish keng tarqaladi. Misol: Hazor qishlog‘ida qurilgan “Dehgaron masjidi”, Jom’e masjidining (Masjidi kalon)ning juda yaxshi saqlanib kelgan minorasi, Namozgoh masjidi, Vobkent minorasi (1197-y) Mag‘goki Attoriy masjidi shu davrlarga taalluqlidir. O‘sha davrlarda eng yaxshi karvonsaroylar, hammomlar, tegirmon-objuvozlar, shahar do‘konlari Abdulazizxonga tegishli bo‘lgan.
- XII asr oxiri XIII asr boshlarida Maxmud Yalavochning o‘g‘li Mas’udbek hokimligi davri (1254-1289 y) qurdirilgan katta madrasalar ya’ni “Mas’udiya” madrasasi 1000 ga yaqin talabalarni o‘qitgan, hamda Ulug‘ xon Munkening onasi qurdirgan “Xoniya” nomli chiroyli madrasalarning ikkinchisi edi [2; 56-b]. (Mo‘g‘ullar istilosi davri).
- XIV-XV asrlar Temuriylar sulolasi davri. Ushbu davrda Buxoro shahrida (1417-yil), va G‘ijduvon tumanida (1433-yil) Ulug‘bek tomonidan ikki katta madrasa qurilgan va Ulug‘bek madarasi deb nomlangan. Boyon Qulixon maqbarasi (XIV asrlar), Bibi Orifa xazirasi (Bahouddin Naqshband majmuasi).
- XV-XVI asrlar Shayboniylar sulolasi davri. 1560-yillarda qurilgan Lisa masjidi, 1570-yillarda xoji Sa’diga qarashli Gavkushon karvonsaroy, 1587-yil Abdullaxon timi, shuningdek Jome masjidi, Miri Arab, Abdullaxon, Modarixon, Gavkushon madrasasi (1562-1566y), Ko‘kaldosh madrasalari, hammomi Sarafon qurdirilgan. (XVI asr) Modarixon madrasasi, Abdullaxon madrasasi, Jo‘ybori Kalon madrasasi (1670-1671y), Do‘stim – Chorg‘osi masjidi (1585-1586-yil), Bozori Kord masjidi, Baland masjidi, Mag‘oki Ko‘rpa masjidi (1636-1637-yil), Volidai Abdulazizxon masjidi, Sayfiddin Boharzi maqbarasi (XV asr), Nodir Devon-Begi madrasasi (1622-1623 y), Nodir Devon-Begi xonoqosi-hovuzi (1619-1620y) qurilishi, Hazrati Abu Xafsi Kabir qabri (16-asr), Nomozgoh masjidi, Sayid Mir Kulol ziyoratgohi, Xo‘ja Ka’bul Axbor Vali ziyoratgohi, Xo‘ja Mahmud Anjir Fagnaviy qabri (XVI asr), Xo‘ja Ali Romitaniy «Azizon» qabri (XVI asr), Xo‘ja Muxammad Boboyi Samosiy qabri (XVI asr), Xo‘ja O‘bon qabri (XVI asr), Xo‘ja Zafaron qabri (XVI asr), Abdurahmon Safo masjidi, Qizbibi majmuasi (maktab, chillaxona, obxona, darvozaxona, maqbara, masjid), Abdurahmon Vali maqbarasi (Shoburg‘on ota majmuasi).

- XVII-XVIII asrlar Ashtarxoniylar hukmronligi davri. XVII asrda Eshoni Pir masjidi, Tagbandbofon masjidi, Ravg‘angaron masjidi, Eshoni Pir madrasasi, Said Bandi Kusho maqbarasi (Poband), Turki Jandi maqbarasi, XVIII asr davomida Tagbandbofon masjidi, Turki Jandi maqbarasi, Kokilayi Xurd masjidi, Xoja Tabband masjidi, Xoja Porso masjidi, Mir Ibrohim masjidi, Xoja Bulg‘or masjidi, Oybinoq masjidi, Arabon masjidi (1880 y), Madrasa Bahouddin Naqshband majmuasidagi, Xo‘ja Orif masjidi, Xo‘ja Baxri Shod masjidi.

- XIX asr Boboi Porado‘z maqbarasi, Abdulqodir Jeloniy maqbarasi, hovuz, minora (Piridastgir), Hazrat Qiz bibitepa (XVIII-XIX asr), Farishtakent masjidi, Beshtuva masjidi (1975-y), Boborahimboy masjidi, Boloi Qassabon masjidi, Qavola masjidi, Havzak masjidi, Minora (Abduholiq G‘ijduvoniy majmuasi), Xo‘ja Orif ar-Revgariy Mohitobon qabri, Xo‘ja Kuteyba masjidi, Xo‘ja Sharofiddin masjidi, O‘ba masjidlari qurilgan.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro Markaziy Osiyodagi ziyorat turizmining muhim markazi bo‘lib kelmoqda. Bu yerga ko‘plab xalqlardan kelayotgan ziyoratchi-sayyohlar shaharning boy islom merosi bilan tanishish, ziyoratgohlari va me’moriy yodgorliklarini ziyorat qilishi uchun qo‘yilgan maqsadlarining o‘zi turizmning ichki va tashqi infratuzilmasini rivojlantirishga katta hissa qo‘shib kelmoqda, biroq biz qo‘yilgan maqsad sari intilishimiz uchun mehmonlarni qabul qila oladigan zamonaviy jihozlar va qulayliklarga ega mehmonxonalarning ko‘payishi, turizm hududlariga sayohatlar uchun maxsus turizm xizmatlarini ko‘paytirish, ziyoratgohlarga, eski shahar hududlarini aylanish uchun avtomashinalar xizmatlarini yo‘lga qo‘yilishi maqsadga muvofiqdir. Chet ellardan o‘qish, ilmiy izlanishlar olib borish uchun kelayotgan tadqiqotchilar uchun rejalashtirilgan ichki turizmni rivojlantirish, shart-sharoitlar, qulayliklarning hamma tomonlama dunyo miqiyosida javob bera oladigan xizmat turlarining ko‘payishi, mobil ilovalar, portfolio, saytlarning ishga tushirishini nazorat qilish va hozirgi zamonaviy texnikalarni ishga tushirishga muhim rol o‘ynayotgan interenet provayderlarni arzonlashtirish va tezligini jahon talabiga mos kela oladigan tarmoqlar yaratilishida katta imkoniyatlar eshigi ochilishi va bu ichki va tashqi turizm rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. М. Жўраев., Р.Саидова. Бухоро афсоналари. – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002, 66-67-бетлар.

2. Ж.Баракаев., Й.Ҳайдаров. Наршахий Бухоро тарихи. Қўлланма.–Т.: Ўқитувчи, 1991, 143 бет.

3. Г.Р.Кучкарова. Архитектура и дизайн мавзолея Абу Хафса Кабира. Ilm sarchashmalari. Ilmiy-nazariy, metodik jurnal. Urganch. 2023, 170-б.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 811.161.1

SIROJIDDIN SAYYID SHE'RIYATIDA TASHBEH SAN'ATINING O'RNI

Nazarova Namuna Abdumajitovna, "Perfect" universiteti dotsentu v.b., filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

THE ROLE OF THE ART OF METAPHOR IN THE POETRY OF SIRAJUDDIN SAYYID

Nazarova Namuna Abdumajitovna, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor at Perfect University, acting.

РОЛЬ ИСКУССТВА МЕТАФОРЫ В ПОЭЗИИ СИРАДЖУДДИНА САЙИДА

Назарова Намуна Абдумажитовна, доктор философии по филологии, и.о.доцента Perfect University

https://orcid.org/0009-0005-3110-4608
e-mail: namunanazarova@819gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada tashbeh she'riy san'atining shoir poetik olamining aks etishidagi ahamiyati, jumladan, Sirojiddin Sayyid ijodida tutgan o'rni haqida fikr yuritilgan. Shoir ijodidan original tashbehlar tahlilga tortilgan.*

Kalit so'zlar: *tashbeh, she'riyat, qiyoslash, poetik obraz, badiiy vazifa.*

Аннотация: *В данной научной статье рассматривается значение поэтического искусства ташбеха в отражении поэтического мира поэта, в том числе его роль в творчестве Сирожиддина Сайида. К анализу были привлечены оригинальные аллюзии из творчества поэта.*

Ключевые слова: *аллюзия, поэзия, сравнение, поэтический образ, художественная задача.*

Abstract: *this scientific article reflects on the importance of the poetic art of tashbeh in the reflection of the poetic world of the poet, including its role in the work of Sirozhiddin Sayyid. Original revelations from the poet's work were drawn into analysis.*

Key words: *thirst, poetry, comparison, poetic image, artistic task.*

Kirish. Ibtidosi xalq og'zaki ijodiga, xususan, uzoq moziydan sado beradigan dostonlar-u laparlarga borib taqaladigan o'zbek she'riyati boy tarixga ega. Bunday tarixning yaratilishida asarlari hanuzgacha boqiy qolayotgan va bugunda ham shunday ijod namunalarini yaratishga chog'langan har bir ijodkorning o'z o'rni bor, albatta.

XX asrning 80-yillarida o'zbek she'riyatiga jadal kirib kelgan Sirojiddin Sayyidning ham o'zbek she'riyati tarixida o'ziga xos o'rni bor. Shoir she'rlari nafaqat mavzu ko'lami, g'oyaviy yetukligi, balki badiiyati bilan ham olimlar e'tiboriga tushmoqda va ixlosmandlar ko'nglidan joy olib kelmoqda. Buni biz shoirning she'riy san'atlardan mohirona foydalanishida ham ko'ramiz.

"Adabiyotdagi badiiy tasvir, ifodalilik va xushohanglik vositalari badiiy san'atlar deyiladi. Sharqda she'riyat asosiy janr bo'lganidan ko'pincha she'r san'atlari tushunchasi ham badiiy san'atlar ma'nosida qo'llaniladi"[1,3].

"Badiiy asar, unda ilgari surilgan g'oya qanchalik dolzarb, qanchalik zarur bo'lmasin, yuksak badiiyat talablariga javob bera olmasa, davrlar osha unutilishga, hattoki tug'ilgandanoq o'quvchilar nazaridan chetda qolishga mahkum. Shundan kelib chiqqan holda, badiiy san'atlar asar

muvaffaqiyatining yarmini tashkil qiladi, desak, mubolag‘a bo‘lmas” [2,152]

Sirojiddin Sayyid ijodida tashbeh san’ati boshqa san’at turlariga qaraganda ko‘proq qo‘llangan. Badiiy san’atlar, xususan, tashbeh bilan bog‘liq kuzatishlar she’r tahliliga bag‘ishlangan deyarli barcha kuzatishlarda u yoki bu tarzda uchraydi. Zero, she’riyatda ijodkor badiiy niyati, she’r g‘oyasi va obraz yaratish mahoratini namoyon etishda badiiy san’atlarning o‘rni beqiyosdir. Biz bu o‘rinda olimlarimizning tashbeh san’ati bilan bog‘liq ayrim fikrlarini keltirib o‘tishni joiz deb bildik.

“Obrazning barcha xususiyat va belgilarini mukammal tasvirlash va ifodalashda o‘xshatish (tashbeh)ning ham ahamiyati benihoyadir”. [3,85]

“Tashbeh tasvir obyekti (predmet va hodisaning yoxud ularning xususiyatlarini) yorqinroq ifodalashga xizmat qiladi. Haqiqiy shoirlar tashbehdan faqat so‘z o‘yini sifatida emas, balki asar g‘oyasini jozibali ifodalash maqsadida foydalanganlar”. [4,370]

“Tashbeh muayyan bir predmet, hodisani aniq tasavvur qilish uchun uni boshqa tanish bo‘lgan predmet, hodisalarga solishtirishdir”. [5.162]

Adabiyotshunos A.Rustamovning ta’kidlashicha, tashbeh, ya’ni o‘xshatish san’ati shoirning mahoratini, uning tasavvur va xayol olamining boy yoki qashshoqligini ko‘rsatib beruvchi badiiy vositalardan biri sanaladi.

Nazarimizda, Sirojiddin Sayyid xayoloti va tasavvuri juda boy. Shuning uchun bo‘lsa kerak hech qaysi ijodkornikiga o‘xshamagan, go‘zal tashbeh namunalarini yarata olgan. “Ifodaning ixchamligi va poetik jozibasi, hech bir zamonda eskirmaydigan mavzularning ohorli talqini, kutilmagan go‘zal tashbehlar qo‘llay olish – Sirojiddin Sayyid she’riyatining xos xususiyatidir”. [6,159-160]

Shoir yaratgan tashbehlarga e’tibor berilsa, tabiat unsurlari, hodisalari tasvirlari biroz bo‘lsa-da kichraytirib, o‘z vazifalarini bajarishda ojizlik qilayotgandek tasavvur uyg‘otadi. Ular go‘yo insonlardan, ular yaratgan narsalardan, topildiqlardan kuch olayotgandek tasvirlanadi Aynan mana shu xususiyat shoir qo‘llagan tashbehlarning o‘ziga xos jihati sifatida poetik qimmatini belgilaydi. Sababi adabiyotda yaratilgan barcha tashbehlar tabiatga uyg‘unlashtirib, undagi barcha go‘zalliklarga qiyosan yaratilgan. Sir emaski, kishilardagi ulug‘vorlik tog‘larga, xokisorlik yerga yoki qizlarning yuz go‘zalligi gulga, oyga, qaddi-qomati sarv daraxtiga, sochlari sunbulga, ko‘zlari yulduzga, ko‘ngil kengligi osmonga qiyos qilingan. Sirojiddin Sayyid ko‘pgina tashbehlarida bu hodisaning aksini qo‘llab, o‘zgacha uslubni yaratadi. “San’atkor hech vaqt an’anaviy o‘xshatishlarga ruju qo‘ymasligi, bosh fazilat deb yangi, original o‘xshatishlar yaratishni bilishi ma’qul”.[5,163]

Ushbu mulohazalarga asoslanib shoirning “Otamga…” she’rining bir necha o‘rinlarida qo‘llangan tashbehlarni ko‘rib chiqamiz. She’r shoirning otasiga bag‘ishlab yozilgan bo‘lib, ikkinchi jahon urushidan jarohatlar bilan qaytgan, biroq orttirgan tan jarohatidangina emas, balki urushda odamlarning tobora tubanlashib, ma’naviy qashshoqlikka mahkum bo‘layotganidan iztirob chekib, qalb qiynog‘ida uyqusizlikdan to‘lg‘anayotgan odamning ruhiy holati tasvirlanadi.

Kechalar oy hamshira misol
Xotirangiz yaralarin
bog‘lab yuradi.[8,106]

Misralarda oy hamshiraga o‘xshatilib tashbeh vujudga keltirilgan. Adabiyotda oy obrazi ma’shuqa, go‘zal qizlarning husnda tengsizligini tasvirlash maqsadida qo‘llanilganini ko‘p bora uchratganmiz. Bunday o‘rinlarda oy tengsizlik, mukammallik ramzi bo‘lib keladi. Yuqoridagi misrada esa butunlay boshqa bir holatni o‘quvchi tasavvurida yaxshiroq tasvirlanishi uchun xizmat qilgan. Bu tashbeh shoirga xotiralar girdobida qiynalayotgan otaning dardlari nechog‘lik zalvori ekanini, tizginsiz o‘y-xayollardan hatto tunlari ham bedor kechayotganini tasvirlash imkonini yaratmoqda. She’rda hamshiralarning bemorlar dardiga malham bo‘lishdek xususiyatlari oyga ko‘chirilib, lirik qahramonning undan najot topish istagi aks etadi.

Quyidagi to‘rtlikda ham o‘ziga xos tashbeh qo‘llangan:

Na tongdir, na shomdir bu fasl nomi,

G‘uborga chulg‘anmish yulduzli tomi.
Bir yoni tumandir, bir yoni – gumon,
Siniq zarkosaday yarim oy jomi.[9,100]

Falsafiy mushohada aks ettirilgan ushbu to‘rtlikda ruhiy tushkinlik kayfiyati sezilib turadi. Lirik qahramonning dunyo, hayot to‘g‘risidagi mulohazalari, qalb kechinmalari tasvirida, ikkilanuvchi tuyg‘ulari ifodasida **g‘ubor, tuman, gumon** so‘zlari, qolaversa, oyning to‘lin emas, yarim oy shaklidagi tasviri ham muhim rol o‘ynagan. Ayniqsa, oy obraziga ta’rif jarayonida shoir tomonidan mohirlik bilan qo‘llanilgan “siniq zarkosaday” tashbehi she’rda qahramonning tushkin kayfiyati, qiynagan dardining kitobxonga-da yuqishiga sababchi bo‘ladi. She’riyatda oy obrazi asosan ijobiy his-tuyg‘ularni, ko‘tarinki kayfiyatni, lirik holatlarning nafis tasvirida qo‘l kelishini inobatga oladigan bo‘lsak, ko‘ngilning oydek to‘lishi, yorning to‘lin oydek tovlanishi, hatto, yarim oyning ham go‘zal ta’riflariga ko‘p bora duch kelamiz. Jumladan, shoir ijodida ham “Hilollaring qaytar yana qubbalarga” tarzida ko‘tarinkilik ufurib turadigan misralarning borligini bilamiz. Yuqoridagi she’rda qo‘llanilgan “yarim oy” va unga izohlovchi sifatida kelgan “siniq zarkosaday” birikmali tashbehlari shoirning so‘z qo‘llash mahorati va o‘ziga xos uslubini belgilab kelmoqda.

Oy bilan bog‘liq tashbehlar quyidagi to‘rtlikda ham mavjud:

Bir uzuk bor edi, ey ko‘zi suzuk,
Biz ishqning shu oltin halqasin uzdik.
Ko‘kdagi yarim oy – siniq uzukday,
Ko‘ldagi yarim oy – bir siniq uzuk. [8,103]

She’rda uzuk ishq halqasi sifatida tasvirlangan. Oshiq tilidan aytilgan ushbu fikrlarda ma’shuqaga iddao, yarim ko‘ngillarni birlashtirishga undov, chaqiriq anglashiladi. Bu misralardagi “yarim oy” oshiqning ishq dardiga mubtalo bo‘lib, ma’shuqa visoliga intizorligini izohlab kelayotganday go‘yo. “Siniq” so‘zi zamiridagi g‘amginlik oshiq ko‘ngillarning ruhiy holatini anglatib kelmoqda.

Shoirning “Nebittog‘. Tuyalar” she’rida ham tashbehning go‘zal namunasini ko‘rishimiz mumkin. She’r 1980-yilda yozilgan bo‘lib, ham ekologik, ham ma’naviy muammolar tilga olingan. She’r lirik qahramonning bir vaqtlar xo‘rjin-xo‘rjin kitob-u bilimlar ortib, elatlararo ma’rifat tashigan tuyalar karvoniga guvoh bo‘lgan Nebittog‘ga xitobi tarzda yozilgan bo‘lib, bugungi kunda esa kitoblarning-da qadr-qimmati susayib borayotganidan afsus-nadomat izhori ifodalangan.

Bilim tashib o‘tdilar ular,
Sen bilan men ko‘rolmaydigan,
Sen bilan men o‘qiy olmaydigan
Kitoblarni eltganlar ular.
U karvonlar qani, Nebittog‘!

She’rda shoir ushbu kechinmani qavartib ifodalashda shom manzalarini tasvirlar ekan, tashbeh san’atini mohirlik bilan qo‘llaydi

Ufqning labiga non misol
Yaqinlashib boradi quyosh.[7,24]

Quyoshning botishini yangicha talqinda ifodalagan shoir kunlarning shu tarzda, ya’ni besamar, loqaydlik bilan o‘tayotganligiga ishora beradi. Misralarda shoir quyoshni nonga o‘xshatadi. Bunda ular o‘rtasidagi o‘xshashlikni tasvirlashda shakl va rang muhim o‘rin tutadi. Quyoshning ufqqa botishini nonning lablar orasiga kirishiga qiyoslaydi. Bunda ufq va lablardagi qizillik ham inobatga olingan. Ufq va quyosh bevosita tabiat tasvirini gavdalantiradi. She’riyatda bu ikki unsur yordamida juda ko‘plab o‘xshatishlar yaratilgan. Quyosh obrazi orqali umr davomiyligi, yorqinlik, ijobiy tuyg‘ular tarannumi kuylangan bo‘lsa, ufq tasviridan umr nihoyasini, vaqt g‘animatligi kabi qarashlarni ifodalashda foydalanilgan. Sirojiddin Sayyid she’rda shu an’anani yangilab, yuqoridagi misralarda hayotiy mushohadaga chorlash, falsafiy fikrlashga turtki berish maqsadida quyosh va ufq juftligini lab va non birligi bilan mutanosib ravishda muqoyasa qildirib, yangicha tashbehni yarata olgan.

Shoirning “Hayronbog‘” she’ri Hisor tog‘larida joylashgan bir bog‘ xususida bo‘lib, unda asriy chinorlarning qirg‘in-barot qilinishi tilga olinadi.

Asrlarning ustunlari kabi
Chinorlar yiqildi, buyuk chinorlar... [7,183]

Bilamizki, chinor ham azaldan adabiyotdagi o‘lmas obrazlardan biri bo‘lib, boqiylik, barhayotlik motivlarini ifodalab keladi. She’rda chinorning asr

ustuniga o‘xshatilib, tashbeh hosil qilinishi uning nafaqat umrboqiy (ko‘p yillik), balki ildizi baquvvat, mustahkam, azim daraxtligiga ham ishora qilmoqda. Shoir bir tashbeh orqali bir-biriga bog‘liq, ayni paytda alohidalikka ega bo‘lgan ikkita muhim poetik ma’noni ifodalashga erisha olgan. Ya’ni, shoir she’rda chinorning ko‘p yillik daraxt ekanligini asrlarga ustun sifatida ta’riflaydi. Chinorlarning yo‘q qilinishi esa asr ustunlarining qulashiga mengzaladi. Ustun bu – tutib turuvchi kuch, tirgakdir. Chinorlar bog‘ga ko‘p davrlardan beri husn, ko‘rk berib turishi bilan birga, ekologik holatni yaxshilashga ham xizmat qiladi. Bu o‘rinda o‘xshatish shakliy jihatdan olingan. Chinor va ustun – har ikkalasi ham tiklik va balandlik xususiyatlariga ko‘ra bir nuqtada birlashadi. Bog‘ning zabun holati esa lirik qahramon qalbidagi hazinlikka mutanosib. Bog‘dagi chinorlarning qulashi, go‘yoki lirik qahramon qalbidagi ishonch va umidning qulashini aks ettirayotganday.

“Xazonrez” she’rida ham shoir tashbehlarni tabiat unsurlari bilan bog‘laydi. She’r lirik qahramonning qalb kechinmalari, ruhiy holatini ifoda etgan.

Qora atlas kabi asta
Daraxtlardan sirg‘alar –
Gala-gala bo‘lib yerga
To‘kilmoqda qarg‘alar.[7,205]

Bu o‘rinda tashbeh san’ati rang va xususiyatiga ko‘ra birlashadi. Qarg‘adagi qoralik va patlaridagi tovlanishlar qora atlas matosidagi rang va yaltirashga juda mutanosib. Qora atlasga qiyos qilingan qarg‘alarning daraxtlardan sirg‘anishi lirik qahramon qalbidagi o‘kinch, iztiroblarning to‘kilishini ifodalaydi.

Shoirning “Ko‘chgan qishloq” she’rida ham bir necha o‘rinlarda tashbeh san’ati mahorat bilan qo‘llangan. Bu she’r shoir biografiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, unga qadrdon qishloq, aniqrog‘i qishloq ahlining muayyan sabablarga ko‘ra boshqa hududga ko‘chirilishidan hosil bo‘ladigan kechinmalar talqiniga bag‘ishlanadi. Ijodkor butun qishloq ahli dilini ezgan, dillarini xufton qilgan bu voqeani qalamga oladi.

Bir panoh istaydi yupun shomlarda,
Teraklar misoli o‘chgan shamlarday.[9,28]

Ijodkor tashbeh san’atiga tashxis san’atini uyg‘unlashtirib (teraklarning yupanch izlashi) poetik obraz yarata olgan. Bu o‘rinda shoirning so‘z qo‘llash mahoratini ham alohida qayd etish lozim. Birinchidan, shamga, umuman, yorug‘lik manbaiga ko‘proq qorong‘u tushayotganda ehtiyoj sezilishidan kelib chiqib sham detalini o‘rinli tanlay olganligidadir. Va yana shom so‘ziga yupun so‘zini epitet sifatida ishlatib, odamlarning qalb kechinmalarini, ya’ni chekayotgan iztirobi, chorasizligi va imkonsizliklarini realistik bo‘yoqlarda aks ettira olgan. Ikkinchidan, terakning shakl-shamoyili shamnikiga o‘xshashligi, ayniqsa, o‘chiq shamga o‘xshatilib, odamlari ko‘chib ketib mung‘ayib, g‘arib holga kelib qolgan qishloq manzarasini kitobxon tasavvurida yaqqol chizilishga imkon yaratadi.

Tahlilga tortilgan yuqoridagi misralardagi tashbehlar adabiyotimizda qo‘llanilib kelinayotgan obrazlarning yangicha nigoh bilan aks ettirilgan namunalaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Асаллайев А. ва бошқ. Бадиий санъат жозибаси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – 28 б.
2. Ғаниев И., Афоқова Н. Абдулла Ориф фалсафаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2021. – 308 б.
3. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: Фан, 2004. – 128 б.
4. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.– 560 б.
5. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Darslik. – Toshkent: Abdulla Qodiriy, 2004. – 254 б.
6. Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърият. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2015.– 304 б. –
7. Сирожиддин Саййид. Асарлар. I жилд. Шеърлар. Достонлар. Насрий оҳангларда. – Тошкент: Шарқ, 2018. – 480 б.
8. Сирожиддин Саййид. Асарлар. IV жилд. “Хамса” ҳайратлари. Тун билан тонг. Тўртликлар. Шеърлар. Ғазал дафтари. Таржималар. Насрий оҳангларда. – Тошкент: Шарқ, 2019. – 608 б.
9. Сирожиддин Саййид. Асарлар. II жилд. Шеърлар. Достонлар. Қирқ ҳадис. Насрий оҳангларда. – Тошкент: Шарқ, 2018. – 568 б.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 811.161.1

ОТ ЭКЗОТИКИ К ДИАЛОГУ: ТРАНСФОРМАЦИЯ КОРАНИЧЕСКОГО НАРРАТИВА В РУССКОЙ ПОЭЗИИ XIX ВЕКА

Рахманова Альбина Ходжаевна,
доктор филологических наук (DSc), профессор кафедры русского языка и литературы, Навоийский государственный университет

FROM EXOTICISM TO DIALOGUE: THE TRANSFORMATION OF THE QUR'ANIC NARRATIVE IN 19TH-CENTURY RUSSIAN POETRY

Albina Khodjaevna Rakhmanova,
Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor, Department of Russian Language and Literature, Navoi State University

EKZOTIKADAN MULOQOTGA: XIX ASR RUS SHE'RIYATIDAGI QUR'ON RIVOYATINI O'ZGARTIRISH

Albina Xodjaevna Raxmanova,
Filologiya fanlari doktori (DSc), Navoiy davlat universiteti rus tili va adabiyoti kafedrasi professori

ORCID: 0000-0002-1388-6766
alya211@list.ru
+998906655572

Аннотация: *Статья посвящена исследованию рецепции коранических мотивов в русской поэзии пушкинской эпохи на примере творчества Я. Полонского, Н. Грекова и Л. Якубовича. В статье главный акцент сосредоточен на рецепции коранических мотивов в русской литературе XIX века, для которой, как свидетельствует, в частности, практика пушкинского «Современника», обращение к восточным текстам стало не просто данью романтической моде, но важной составляющей* ***диалога с иной культурной парадигмой*** *и поиска новых художественных форм в рамках собственной традиции. В работе опровергается тезис об экзотизации Востока и доказывается, что обращение к Корану стало для поэтов формой* ***глубокого герменевтического диалога*** *с иной религиозно-культурной традицией. Методом сравнительного анализа выявляются различные стратегии поэтической транскрипции сакрального текста: от структурного цитирования у Грекова до художественной интерпретации ключевых императивов («Скажи») у Полонского. Делается вывод о том, что русские поэты осуществляли* ***дешифровку семантических кодов Корана****, расширяя тем самым философский и географический диапазон русской литературы и закладывая основы продуктивной межкультурной коммуникации.*

Ключевые слова*:* ***р****усская поэзия XIX века,* ***Коран,*** ***р****ецепция, Яков Полонский, Николай Греков, Лукьян Якубович, интерпретация образов, пушкинские традиции, герменевтика, межкультурный диалог.*

Annotatsiya: *Maqola Ya. Polonskiy, N. Grekov va L. Yakubovich ijodi misolida Pushkin davri rus she'riyatida Qur'on motivlari retsepsiyasini tadqiq etishga bag'ishlangan. Maqolada asosiy e'tibor XIX asr rus adabiyotida Qur'on motivlari retsepsiyasiga qaratilgan bo'lib, ular uchun, xususan, Pushkinning «Sovremennik» jurnalida, sharq matnlariga murojaat qilish nafaqat romantik modaga, balki boshqa madaniy paradigma bilan muloqotning va o'z an'analari doirasida yangi badiiy shakllar izlashning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Asarda Sharqni ekzotizatsiya qilish haqidagi tezis inkor etilib, Qur'onga murojaat qilish*

shoirlar uchun boshqa diniy-madaniy an'ana bilan chuqur germenevtik muloqot shakliga aylangani isbotlangan. Qiyosiy tahlil usulida muqaddas matnning turli xil poetik transkripsiya strategiyalari aniqlanadi: Grekovda tarkibiy iqtibosdan tortib Polonskiyda asosiy imperativlarni badiiy talqin qilishgacha («Ayt»). Rus shoirlari Qur'onning semantik kodlarini ochib, rus adabiyotining falsafiy va geografik diapazonini kengaytirgan va madaniyatlararo samarali kommunikatsiya asoslarini yaratgan.

Kalit so'zlar: *XIX asr rus she'riyati, Qur'on, retsepsiya, Yakov Polonskiy, Nikolay Grekov, Lukyan Yakubovich, obrazlarni talqin qilish, pushkin an'analari, germenevtika, madaniyatlararo muloqot*

Abstract: *This article examines the reception of Quranic motifs in Russian poetry of the Pushkin era, using the works of Ya. Polonsky, N. Grekov, and L. Yakubovich as examples. The article focuses on the reception of Quranic motifs in 19th-century Russian literature, for which, as evidenced, in particular, by the practice of Pushkin's Sovremennik, turning to Eastern texts became not simply a tribute to romantic fashion, but an important component of dialogue with a different cultural paradigm and the search for new artistic forms within its own tradition. The paper refutes the thesis of the exoticization of the East and demonstrates that turning to the Quranic text became for poets a form of profound hermeneutic dialogue with another religious and cultural tradition. A comparative analysis reveals various strategies for poetic transcription of sacred text: from structural citation in Grekov to the artistic interpretation of key imperatives ("Say") in Polonsky. It is concluded that Russian poets deciphered the semantic codes of the Quran, thereby expanding the philosophical and geographical scope of Russian literature and laying the foundations for productive intercultural communication.*

Key words: *19th-century Russian poetry, Quran, reception, Yakov Polonsky, Nikolai Grekov, Lukyan Yakubovich, image interpretation, Pushkin traditions, hermeneutics, intercultural dialogue.*

Введение. Феномен Корана как сакрального текста ислама на протяжении столетий занимал особое место в интеллектуальном пространстве русской культуры. Его восприятие, однако, редко ограничивалось сугубо религиоведческим интересом, эволюционируя от любования **«экзотической неповторимостью»** в сторону попыток **герменевтического проникновения** в его философско-художественную вселенную. Русская мысль стремилась постичь Коран не просто как свод догм, но как **целостный культурный код**, синтезирующий религию, право, науку и искусство в уникальную модель миропорядка. «Экзотичность и неповторимость его культуры» [3, 19], особенности языка, «уникальность образов, средоточие важнейших истин» [11,234], всегда оставляли желание понять и признать его глубину и уникальность. «Ислам, лежащий в основе арабоязычной культуры, был воспринят не просто как мировая религия, а как удивительный сплав норм и правил государства, философии и науки» [1, 89], являющиеся важнейшим элементом бытия. **Закрытость арабо-мусульманской традиции,** ее сакральная новизна, выступала не столько барьером, сколько **катализатором интеллектуального и творческого поиска в русской культурной традиции**. Стремление познать эту «великую сокровищницу знаний», проникнуть в логику ее божественного предопределения мотивировало обращение к Корану как к **ключевому тексту для понимания основ арабской идентичности** — от ее истоков, зафиксированных в первой письменной фиксации языка, до ее высочайших достижений в области поэзии, астрономии и математики, оказавших существенное влияние на европейский Ренессанс.

Цели и задачи исследования. Цель данной статьи – исследовать рецепции коранических мотивов в русской литературе XIX века, для которой, обращение к восточным текстам стало не просто данью романтической моде, а важной составляющей диалога с иной культурной парадигмой и поиском новых художественных форм в рамках собственной поэтической традиции.

Методы исследования обзорно-теоретическое осмысление и анализ, систематизация и классификация, интерпретационный, герменевтический и концептуальный анализы.

Основная часть. Рецепция Корана в русской поэзии XIX века не ограничилась пушкинским кругом; она нашла своеобразное продолжение в творчестве Лукьяна Якубовича,

Якова Полонского и Николая Грекова. Их обращения к исламскому первоисточнику, часто обобщенно озаглавленные «Из Корана», свидетельствуют о том, что Пушкин задал не только моду, но и метод — подход к Корану как к источнику общечеловеческой мудрости и мощной поэтической образности, а не как к догматическому тексту.

В этом ряду фигура Якова Полонского (1819-1898) представляет особый интерес. Его поэзия, отмеченная тонким сплавом бытового и фантастического, обратилась к Корану как к ключу для дешифровки «неразгаданной тайны» иной культуры. Его коранические стихотворения — это не стилизации, а опыт герменевтического проникновения, попытка найти универсальные духовные константы внутри специфической религиозной формы. Стихотворение Полонского «Из Корана» [2,74] представляет собой важнейшую работу поэта и является лаконичным конспектом ключевых положений ислама. Поэт акцентирует центральные мотивы своих переложений на такие виды поэтических тем, как строгий монотеизм и пророческая миссия, эсхатологическое предупреждение о Судном дне и неминуемой смерти человека, этическая дихотомия следования прямому пути («ас-сырат аль-мустаким») и блуждания в неверии, неотвратимость божественного воздаяния.

В стихотворении «Из Корана» Я. Полонского звучат традиционные для коранического текста мотивы: вера в единого Бога, безверие людей и поиски истины, возложение пророческой миссии на Мухаммеда, напоминание о неизбежной смерти, изображение положения, в котором окажутся неверующие в Судный день. Сопоставляя коранический текст и поэтическую репрезентацию Полонского, мы наглядно воспринимаем авторскую стратегию. Поэт не просто осуществляет буквальный перевод, а создает некую поэтическую транскрипцию, отбирая и переосмысляя аяты Священного Писания для создания целостного художественного высказывания о другой культуре и ее особенностях.

Сравнительная таблица рецепции коранических мотивов

Художественное воплощение у Я. Полонского	**Коранический концепт (перевод И.Ю. Крачковского)**	**Анализ трансформации**
«Скажи строптивым, малодушным // Коварно-злым и непослушным»	Обличение неверующих: «Скажи тем, которые не уверовали...» [Коран, Ат-Тагабун, 64:9-10]	Конкретный коранический адресат («не уверовавшие») обобщается до общечеловеческих этических пороков («строптивые, малодушные»).
«Что в неразумии своем // Меня слепы лишь не находят»	Метафора духовной слепоты: «Глухие, немые, слепые – и они не возвращаются...» [Коран, Аль-Бакара, 2:17-18]	Физические недостатки как символ неверия из Корана переводятся в регистр интеллектуально-духовного «неразумия».
«И не идут прямым путем, // А ощупью в потемках бродят»	Концепция «прямого пути»: «И это – Моя дорога прямая...» [Коран, Аль-Анам 6:153]	Абстрактная теологическая категория («ас-сырат») получает яркую образно-психологическую реализацию («ощупью в потемках»).
«Не спрячут их заборы башен // Везде найдет их Азраил»	Неотвратимость смерти: «…захватит вас смерть, если бы вы были даже в воздвигнутых башнях...» [Коран, Ан-Нисъа, 4:78];	Поэт вводит персонифицированный образ ангела смерти (Азраила), отсутствующий в оригинальном аяте, усиливая драматизм.
«Пророк, напомни маловерным...»	Миссия Пророка: «Напоминай же, ведь ты –	Полонский сохраняет дидактическую интонацию оригинала, делая ее

	только напоминатель!» [Коран, Ал Гашия, 88:21];	центральным императивом стихотворения.
«…и будет течь Река огня… // и будут // Их на цепях железных жечь»	Воздаяние неверующим: «Мы ведь приготовили для неверующих цепи, узы и огонь» [Коран, Аль-инсон, 76:4]	Статичный образ ада («цепи, узы и огонь») динамизируется, превращаясь в разворачивающуюся во времени картину кары («Река огня… жечь»).

Данный анализ позволяет понять то, что Я.Полонский не копирует коранический текст, он ведет сложную и глубокую работу по восприятию оригинала, пытаясь понять специфику и многозначность значений. Его переложения — это художественная герменевтика, где коранические истины пропускаются через призму русского поэтического сознания и облекаются в привычные для него романтические формы, сохраняя при этом суть исходного послания. Полонский сознательно отбирает такие суры и аяты Корана, в которых акцентируется доказательная база божественного могущества — ряд свидетельств всемогущества Аллаха и Его безграничного знания. Поэт уверен, что все эти истины в оригинальном тексте адресованы тем, кто отверг предыдущие Писания и ослушался посланников, неся за это суровое воздаяние. В интерпретации Полонского эти коранические истины подвергаются художественной трансформации, превращаясь в лирические размышления о всемогуществе Господа, неотвратимости наказания для неверных, необходимости веры в Аллаха и Его посланника, а также в предупреждение о Судном дне — моменте окончательного прозрения для тех, кто отверг истину.

Принципиальное отличие поэтики Полонского от его предшественников заключается в выборе структурно-стилистического ключа. Если А.Пушкин, Л.Якубович и другие поэты ориентировались на клятвенную формулу («Клянусь...»), характерную для многих коранических сур, то Полонский избирает иную, не менее значимую кораническую матрицу — императив «Скажи». Это слово открывает пять из 114 сур Корана (72, 109, 112, 113, 114) [7] и повсеместно используется как форма прямого обращения Аллаха к пророку Мухаммаду.

Стихотворение Якова Полонского, начинающееся с этого ключевого императива, сразу же погружает читателя в атмосферу сакрального диалога. Поэт выстраивает текст как последовательность откровений, где каждая строфа, точно следуя логике Корана, насыщается ключевыми метафорическими образами Священного Писания: «не знающие веры», «блуждающие в потемках слепцы», «возведенные башни» (символ тщетной защиты), «огонь Ада» и «железные цепи грешников» [2,74-75].

Наиболее показательным моментом творческой свободы Полонского является введение в текст имени ангела смерти Азраила. Этот факт заслуживает особого внимания, поскольку в самом Коране имя этого ангела не упоминается, будучи закрепленным в исламской традиции позднее, через хадисы. Таким образом, Полонский работает не только с текстом Писания, но и с целостным контекстом исламской культуры, что свидетельствует о его глубоком погружении в материал и стремлении к созданию объемного, универсального образа божественного воздаяния.

Важное уточнение относительно ангела смерти раскрывает глубину погружения Полонского в исламский контекст. Поэт, заменяя коранического наименование «Маляк аль-маут» (Ангел смерти) на укоренившееся в традиции имя «Азраил», демонстрирует работу не только с буквой Писания, но и с позднейшей семантической аурой образа, сложившейся в мусульманской культуре. Это свидетельствует о его стремлении к созданию узнаваемого и емкого художественного образа для русского читателя.

Стихотворение Полонского «Из Корана» представляет собой не просто стилизацию, а глубоко продуманную поэтическую герменевтику, где форма и содержание нерасторжимы. Поэт виртуозно оперирует

ключевыми элементами коранического дискурса: «Пророк! напомни маловерным, что я приду нелицемерным Судом судить…»[2, 75] Я. Полонский прибегает к кораническим метафорам: «Что в неразумии своем // Меня слепцы лишь не находят» [2, 74]. Обращает на себя внимание и кораническое понятие «прямой путь», использованное поэтом в строке «И не идут прямым путем» [2, 74]. В Коране так обозначается верная, правильная дорога, которая приводит к Аллаху. Метафорическое выражение «а ощупью в потемках бродят», звучащее в последней строке первой строфы, созвучно со многими кораническими аятами. Ярким моментом текста становятся картины Судного дня, когда неверующие подвергаются наказанию огнем и железом. Автор, безусловно, показывает свою осведомленность в Кораническом тексте, строгую продуманность картин и невероятно тонкую осведомленность в понимании и уважительно-толерантном отношении к описываемым истинам. В стихотворении, состоящем из трех шестистиший, Полонский создает текст, наиболее приближенный к тексту оригинала, в котором говорит о величии Создателя, сотворившего мир. Автор достаточно хорошо знаком с кораническим постулатом о Едином Творце, Создателе всего сущего, включая человека и то, чем он живёт.

«…Скажи строптивым, малодушным,
Коварно злым и непослушным,
Что в неразумии своем
Меня слепцы лишь не находят,
И не идут прямым путем…»[2, 74]

Налицо, пророческая императивность стиха Полонского. Сквозная формула «Скажи...», задающая структуру всего текста, напрямую заимствует композиционный принцип откровения, моделируя ситуацию прямого божественного обращения. Полонскому удается точность в передаче центральных концептов, о духовной слепоте неверующих: «Меня слепцы лишь не находят» [2, 74]. Данное понятие является точной калькой с коранической метафоры, описывающей состояние «куфра» - (неверия).

«Прямой путь» (ас-сырат аль-мустаким) — фундаментальная теологическая категория, которую Полонский не просто называет, но и художественно противопоставляет образу хаотичного блуждания «ощупью в потемках» [2, 75]. Картины Судного дня с наказанием огня и железными цепями не просто воспроизводят, но поэтически интенсифицируют коранические описания, сохраняя при этом суровый дух оригинала и в этом суть эсхатологической образности текста Я.Полонского.

Таким образом, трехстрофное стихотворение Полонского оказывается концентрированным выражением целого пласта исламского вероучения. Автор не просто осведомлен, он «демонстрирует глубокое интуитивное схватывание его основ: от строгого монотеизма и концепции пророчества до учений о предопределении и посмертном воздаянии» [9, 7]. Текст становится актом «уважительно-толерантного» [4, 212] диалога, где поэт, оставаясь в рамках своей культурной традиции, с поразительной точностью и симпатией ретранслирует духовные истины другой, стремясь донести их суть до своего читателя. Таким образом, Яков Полонский осуществляет **художественную транскрипцию центральных догматов исламского вероучения**. Сквозь призму его творчества «кораническое послание предстает не набором экзотических образов, а **универсальной этико-философской системой» [6, 48]**, утверждающей абсолютный суверенитет Аллаха как единственного истинного Владыки и Судьи, неотвратимо воздающего за земные деяния. **Эстетическая ценность его стихотворения коренится именно в этой способности к синтезу** — органичному слиянию строгой монотеистической доктрины с высокой русской поэтической традицией.

Рассмотренный опыт Полонского не был единичным. Для русской литературы XIX века характерен феномен **«корифеев второго плана»** — поэтов, чьи имена остались в тени пушкинской плеяды, но чей вклад в освоение восточного наследия не менее значим. В этом контексте показательно творчество Николая Грекова (1807-1866), в чьем лирическом репертуаре, традиционно ограниченном любовной и пейзажной тематикой, неожиданно появляется стихотворение «Из Корана».

Это произведение привлекло современников не столько экзотикой,

сколько **свежестью философской мысли и точностью попадания в образный строй Писания**. Энергия грековского текста, как видно на примере процитированного фрагмента, рождается из лаконичного и мощного воспроизведения **космогонической концепции Корана:**

«Всесильный рек, — и светом дня
Все озарилось в миг единый.
Он создал духов из огня,
Он создал смертного из глины» [2, 54]

В этих строках — не просто пересказ, а **поэтическое «усвоение фундаментального дуализма тварного мира» [10, 78]** (духи из огня / смертный из глины), выраженное с той же эпической емкостью, что и в священном тексте. Подобные опыты доказывают, что интерес к Корану в русской культуре был не поверхностной модой, а **глубинным процессом поиска новых духовных и художественных форм** через диалог с иной религиозной традицией.

Стихотворение Николая Грекова «Из Корана» представляет собой не просто вольное подражание, а **строго структурированную поэтическую компиляцию**, сознательно выстроенную на цитировании ключевых коранических аятов. Поэт осуществляет лапидарный отбор фундаментальных тем исламского вероучения**,** создавая своего рода лирический конспект коранической картины мира**.** Структура и семантика стихотворения Грекова выстраивается по четкому теологическому принципу космогонии и всемогущества Творца. Поэт начинает с основ — творения человека из глины и джиннов из огня, а также утверждения божественного контроля над небесными светилами. Это задает основу для «монотеистического мировосприятия, внутри которого четко прочитываются эсхатологические представления поэта о неизбежности Судного дня и бренности мира. Центральная часть текста посвящена развернутой картине Конца Света — от «сворачивания неба в свиток» [2,55] и раскалывания тверди до низвержения огненного дождя. Греков аккуратно транслирует коранический образ вселенской катастрофы как преддверия Воздаяния**.**

Н.Греков «Из Корана..»	**Коран (перевод И.Крачковского)**
«Он создал духов из огня Он создал смертного из глины»	«Он сотворил человека из звучащей глины, как гончарная, и сотворил джиннов из чистого огня» [Коран, Ар-Рахман, 55: 14, 15]
«Он звезды с бледною луной И солнце с яркими лучами, Заставил в тверди голубой Ходить воздушными путями»	«Разве ты не видишь, что Аллах вводит ночь в день и вводит день в ночь, и Он подчинил солнце и луну, - всякий направляется к определенному пределу» [Коран, Лукман, 31:28] и к аяту: «Солнце и луна – по сроку» [Коран, Ар-Рахман, 55:5]
«Он двух Востоков властелин И двух закатов Он Зиждитель»	«Господь обоих Востоков и Господь обоих Западов!» [Коран, Ар-Рахман, 55:17]
«Но все, что видишь ты, пройдет И пред лицом Его сотрется»	«…Всякая вещь гибнет, кроме Его Лика. У него решение, и к нему вы будете возвращены!» [Коран, Аль касас, 28:88];
«Один останется лишь Он С своею вечною державой. Премудр, всесилен, окружен Своим могуществом и славой»	«Всякий, кто на ней, исчезнет, и остается лик твоего Господа со славой и достоинством» [Коран, Ар-Рахман, 55:26]
«И в день тот вспыхнет неба твердь»	«Подожди же дня, когда небо изведет явный дым. Он покроет людей; это- мучительное наказание!» [Коран, Ад-духан, 44:10,11

«И в свиток пламенный совьется»	«В тот день, когда Мы скрутим небо, как писец свертывает свитки; как Мы создали первое творение, так Мы его повторим по обещанию от нас…» [Коран, Анбиё, 21:104]
«И треснет надвое; и смерть Дождем к вам огненным польется».	«В тот день, как небо заколеблется в колебании, и горы двинутся в движении» [Коран, Ат-Тур, 52:9]
«И на неверном ляжет знак Его лукавств и ухищрений, И будет ввержен он во мрак. Иль в пламень вечный для мучений»	«…А те, которые не веровали, для них – питье из кипятка и наказание мучительное за то, что они не веровали» [Коран, Йунус, 52: 4] « Мы приготовили несправедливым огонь, навес которого окружит их; а если они воззовут о помощи, им помогут водой, подобно расплавленному металлу, которая опаляет лица» [Коран, Аль Кахф, 18: 28]
«Но Правоверный в этот день Возьмет от Господа награду: Двух вертоградов темных сень И двух источников прохладу».	«Поистине те, которые уверовали и творили благое, - Мы не погубим награды тех… Это для них – сады вечности…одному Мы устроили два сада из виноградников, окружили их пальмами и устроили между ними посевы… В них два источника, бьющие водой» [Коран, Аль Кахф, 18: 30,31,32; Ар-Рахман, 55:66]
«И будут двух родов плоды Висеть на ветвях там зеленых, И течь струи живой воды Из двух источников студеных»	«В них – два источника, бьющие водой, В садах плоды, и пальмы, и гранаты» [Коран, Ар-Рахман, 55:66, 68]
«И примут гурии с любовью Его в объятия свои»	«А тех, которые уверовали и творили благое, Мы введем в сады, где внизу текут реки… для них там - чистые супруги…»; «Там черноокие, скрытые в шатрах. – Не коснулся до них ни человек, ни джинн, Опираясь на зеленые подушки и прекрасные ковры…»[Коран, Ан-нисъа, 4:57; Ар-Рахман, 55:72, 74, 76]

Подобные сопоставления, в первую очередь, показывают, насколько близки переложения Корана поэтом, как близко он подошел к смыслам понимаемых и принимаемых истин. В результате его творческой рецепции, которая была мотивирована не столько желанием стилизации, сколько стремлением к герменевтическому освоению принципиально иной культурно-религиозной парадигмы, мы имеем совершенно новый опыт прочтения Корана.

Заключение. Таким образом, Священный Коран выступил для поэтов пушкинской эпохи не просто экзотическим источником тем, но и своеобразным катализатором их художественного и интеллектуального поиска. В результате этого диалога в русской литературе осуществился процесс поэтической инкультурации коранического нарратива — сложный механизм отбора, переработки и адаптации ключевых мотивов Писания, приведший к созданию автономных художественных текстов, обладающих собственной эстетической ценностью. Осваивая «коранический дискурс вслед за Пушкиным, поэты-современники (Якубович, Полонский, Греков, Ротчев, Манассеин и др.) фактически дешифровали его символические коды, используя их для выстраивания уникальной системы межкультурной коммуникации» [9, 7].

Этот литературный феномен демонстрирует, как через обращение к сакральному тексту иной традиции, русская культура не только расширяла свою «географию духа», но и обретала новый язык для постижения универсальных вопросов бытия, власти, веры и посмертного воздаяния. Тем самым, «коранические опыты поэтов пушкинской эпохи заложили фундамент для продуктивного диалога с мусульманским Востоком» [5, 124],

остающегося исключительно актуальным и в контексте современных проблем межкультурного взаимодействия.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Благой Д.Д. Творческий путь Пушкина. М.: Сов. писатель, 1967.
2. Гаврилов Ю. А., Шевченко А.Г. Взаимопроникновение культур. Коран в творчестве русских поэтов. М.: Наука, 2006.
3. Грюнебаум Г.Э. Классический ислам: очерки истории (600–1258). М.: Наука, 1988.
4. Ермаков И.А. Ислам в культуре России. М., 2002.
5. Жирмунский В.М. Литературные отношения Востока и Запада как проблема сравнительного литературоведения // Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. Л., 1979.
6. Канунова Ф.З. Нравственно-эстетические искания русского романтизма и религия (1820—1840-е годы). Новосибирск: Сибирский хронограф, 2001.
7. Коран / пер. с араб. и коммент. акад. И.Ю. Крачковского. М.: Изд-во «Маджесс», 1990.
8. Пиотровский М.Б. Коранические истории. М., 1991.
9. Рахманова А.Х. Нравственные истины Корана в творчестве А.С. Пушкина // ОИИ. 2021. №3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/nravstvennye-istiny-korana-v-tvorchestve-a-s-pushkina.
10. Синельников М.И. Исламские мотивы в русской поэзии // Ислам в России и Средней Азии. М., 1993.
11. Шифман И.Ш. Исторические корни коранического образа Аллаха // Проблемы арабской культуры. М.: Наука, 1987.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 373.091.3:53:004.032.6

ICHKI ISHLAR AKADEMIK LITSEYLARI O‘QUVCHILARINING MUSTAQIL O‘QUV FAOLIYATINI VEB-PLATFORMALAR ASOSIDA TASHKIL ETISHNING DIDAKTIK TA’MINOTI

Axmedov Yodgorbek Olimjonovich, Ichki ishlar vazirligi Navoiy akademik litseyi direktori, p.f.f.d. (PhD), dotsent

DIDACTIC SUPPORT FOR ORGANIZING INDEPENDENT LEARNING ACTIVITIES OF INTERNAL AFFAIRS ACADEMIC LYCEUM STUDENTS USING WEB PLATFORMS

Akhmedov Yodgorbek Olimjonovich, Director of the Navoi Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs, Doctor of Pedagogical Sciences. (PhD), Associate Professor

ДИДАКТИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЕВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ НА ОСНОВЕ ВЕБ-ПЛАТФОРМ

Ахмедов Ёдгорбек Олимжонович, директор Навоийского академического лицея Министерства внутренних дел, (PhD), доцент

https://orcid.org/0009-0003-0356-3642

e-mail: litseyvatanparvar@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari o‘quvchilari uchun yaratilgan iivakademik.uz platformasining didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Platforma fanlar bo‘yicha nazariy materiallar, amaliy topshiriqlar, videodarslar, virtual laboratoriyalar va baholash tizimlarini taqdim etib, o‘quvchilarning mantiqiy, analitik va algoritmik fikrlashini rivojlantiradi.*

Kalit so‘zlar: *Mustaqil ta’lim, ichki ishlar akademik litseylari, veb-platforma, iivakademik.uz, virtual laboratoriya, vizual vositalar, standart test, nostandart test, PISA, ICILS, algoritmik fikrlash, mantiqiy fikrlash.*

Annotation: *This article analyzes the didactic capabilities of the iivakademik.uz platform created for students of academic lyceums of the Ministry of Internal Affairs. The platform provides theoretical materials on subjects, practical assignments, video lessons, virtual laboratories, and assessment systems, developing students' logical, analytical, and algorithmic thinking.*

Key words: *Independent education, academic lyceums of internal affairs, web platform, iivakademik.uz, virtual laboratory, visual aids, standard test, non-standard test, PISA, ICILS, algorithmic thinking, logical thinking.*

Аннотация: *В данной статье анализируются дидактические возможности платформы iivakademik.uz, созданной для учащихся академических лицеев Министерства внутренних дел. Платформа предоставляет теоретические материалы по предметам, практические задания, видеоуроки, виртуальные лаборатории и системы оценивания, развивая логическое, аналитическое и алгоритмическое мышление учащихся.*

Ключевые слова: *Самообразование, академические лицеи внутренних дел, веб-платформа, iivakademik.uz, виртуальная лаборатория, визуальные средства, стандартный тест, нестандартный тест, PISA, ICILS, алгоритмическое мышление, логическое мышление.*

Kirish. Raqamli texnologiyalar ta'limning mazmuni va vositalarini yangilab, o'quvchilarning mustaqil o'rganish ehtiyojini kuchaytirmoqda. Endi o'quvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki axborotni izlaydigan, tahlil qiladigan va amaliyotda qo'llay oladigan faol ishtirokchidir. Shu sababli ta'lim muassasalari raqamli vositalarga asoslangan, moslashuvchan va kompetensiyaga yo'naltirilgan o'quv muhitini yaratishi zarur.

Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarida bu talablar ayniqsa muhim, chunki o'quvchilar kelajakda texnologik jarayonlar va axborot tizimlarida faoliyat yuritadi. Shuning uchun ularning mantiqiy, algoritmik va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini erta rivojlantirish zarur. Xususan, "Fizika" hamda "Informatika va axborot texnologiyalari" fanlarida mustaqil o'quv faoliyatini yo'lga qo'yish kelajak kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga bevosita xizmat qiladi [1].

Shu nuqtai nazardan, ichki ishlar akademik litseylari uchun mo'ljallangan veb-platformaning yaratilishi o'quv jarayonini raqamlashtirish, nazariy bilim va amaliy faoliyat uyg'unligini ta'minlash hamda o'quvchilarning mustaqil ta'limini tizimli qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim tashabbus hisoblanadi [2]. Platformaning nazariy manbalar, amaliy mashg'ulotlar, virtual laboratoriyalar, vizual vositalar, standart va nostandart testlar, shuningdek PISA va ICILS kabi xalqaro baholash mexanizmlarini o'z ichiga olishi o'quv jarayonini integrativ, interaktiv va kompetensiyaga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Raqamli o'quv muhiti o'quvchilarga axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirish, bilimlarni chuqurlashtirish va virtual modellashtirish orqali tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, o'qituvchilar uchun monitoring, diagnostika va baholash jarayonlarini yengillashtiradi. Shu yo'nalishda axborot-ta'lim muhitlari, masofaviy ta'lim tizimlari va raqamli platformalar bo'yicha ilmiy izlanishlar mamlakatimizda, MDH va xorijda U.M.Mirsanov [3], T.E.Delov [4], J.G'.G'ulomov [5], F.J.Toxirov [6], B.L.Legostayev [7], A.V.Xaperskaya [8], P.P.Dyachuk [9], S.Quinn [10], A.Tabowei [11], F.I.Mugunzva [12] kabi olimlar tomonidan olib borilgan.

Ularning ilmiy ishlarida zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga samarali qo'shish, sun'iy intellekt hamda raqamli o'quv muhitlari orqali talabalarning mustaqil o'rganish kompetensiyalarini rivojlantirish, o'quv jarayonini shaxsga moslashtirish va fanlarni o'zlashtirish darajasini yaxshilash kabi masalalar asosiy e'tiborni tashkil etadi. Bundan tashqari, tadqiqotchilar fikricha, axborot-ta'lim muhitlari, sun'iy intellekt asosidagi o'quv vositalari va onlayn ta'lim platformalaridan foydalanish o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini samarali tashkil etishga, ularda o'qishga nisbatan ijobiy motivatsiyani kuchaytirishga hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvini keng joriy etishga keng imkoniyat yaratadi [3-12].

Yuqorida nomlari qayd etilgan olimlarning tadqiqotlari tahlili va ilmiy izlanishlarimiz asosida Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari o'quvchilarining "Fizika" va "Informatika va axborot texnologiyalari" fanlaridan mustaqil o'quv faoliyati tashkil etishga mo'ljallangan iivakademik.uz veb-platformasi ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. iivakademik.uz veb-platformasidan foydalanish jarayoni

Shuningdek, Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari o'quvchilarining mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etishga mo'ljallangan iivakademik.uz veb-platformasida quyidagi mazmuniy komponentlar shakllantirildi: nazariy manbalar; amaliy ishlar; vizual vositalar; BKM baholash; MT topshiriqlari. Yuqorida qayd etilgan mazmuniy komponentlarning har biri "Fizika" va "Informatika va AT" bandlariga ajratilgan.

Muhokama. Platformaning nazariy manbalar bo'limida fizika va informatika fanlari bo'yicha

taqdimotlar, ma'ruzalar, atamalar lug'ati va ko'rgazmali vositalar jamlangan bo'lib, ular o'quvchilarga murakkab tushunchalarni bosqichma-bosqich o'zlashtirishga yordam beradi. Amaliy ishlar bo'limida esa virtual laboratoriyalar, animatsiyalar va masalalar ishlanmalari joylashgan. Virtual laboratoriyalar real jihozlarsiz, xavfsiz va interaktiv tajriba o'tkazish imkonini yaratadi. Videodarslar bo'limi o'quvchilarga istalgan joyda mustaqil ta'lim olish uchun qulay sharoit taqdim etadi.

O'quv jarayonining muhim bosqichi – bu bilimni baholashdir. Shu maqsadda platformaga standart testlar, nostandart testlar, PISA va ICILS topshiriqlari, shuningdek krossvordlar joylashtirilgan. Raqamli testlar tezkor teskari aloqa berib, o'qituvchiga monitoringni osonlashtiradi, o'quvchiga esa o'z xatosini darhol tuzatish imkonini yaratadi. Nostandart testlar o'quvchilarning kreativ, tanqidiy va amaliy fikrlash qobiliyatini ochadi, o'quv jarayonini shunchaki yodlashdan izlanish va fikrlashga ko'chiradi.

Xalqaro baholash dasturlari PISA va ICILS o'quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda muammolarni hal qilish, kompyuter bilan ishlash va axborotni qayta ishlash savodxonligini aniqlashga xizmat qiladi. Bu esa bugungi tez o'zgarayotgan texnologik muhitda zarur ko'nikmalar hisoblanadi.

Platformaning yana bir samaradorligi – bu o'quvchilarda motivatsiya, mantiqiy fikrlash va algoritmik tafakkurni rivojlantiruvchi topshiriqlar jamlanmasidir. Shu bilan birga, uchlik metodi asosidagi mashqlar o'quvchini vaziyatni tushunishdan tortib, model tuzish va algoritm ishlab chiqishgacha bo'lgan jarayonga jalb etadi. Bu yondashuv kelajakda murakkab loyihalar, texnik jarayonlar va dasturlash masalalarini hal qilishda qo'l keladigan mustahkam fikrlash bazasini yaratadi.

Natijalar. Tadqiqot doirasida Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari o'quvchilarining "Fizika" va "Informatika va axborot texnologiyalari" fanlaridan mustaqil o'quv faoliyati uchun iivakademik.uz veb-platformasining samaradorligi aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlarining muvaffaqiyati, ushbu jarayonda uning tashkiliy-pedagogik jihatlarini inobatga olish zaruriyatini ko'rsatadi. Shu bois, mazkur jihatlariga alohida e'tibor qaratildi. Tajriba-sinov ishlari 2025-yilda Ichki ishlar vazirligining Navoiy akademik litseyi, Namangan akademik litseyi va Surxondaryo akademik litseylari o'quvchilari o'rtasida o'tkazildi. Bunda tajriba va nazorat guruhlari uchun jami 738 nafar o'quvchilar tanlab olindi. Bunda tajriba guruhiga 364 nafar, nazorat guruhiga 374 nafar o'quvchi jalb etildi. Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda olib borildi: ta'kidlovchi; shakllantiruvchi; yakunlovchi. Tajriba-sinov ishining ta'kidlovchi bosqichida o'quvchilar bilan veb-platformaning asosiy xususiyatlariga oid suhbat va kuzatuvlar olib borildi.

Shakllantiruvchi bosqichida taklif etilayotgan veb-platforma asosida tajriba guruhiga mashg'ulotlar o'tkazilib, o'quvchilarning o'zlashtirish samaradorligini baholash mezonlari ishlab chiqildi.

Yakunlovchi bosqichida tajriba va nazorat guruhidagi o'quvchilarning natijalarni ishonchliligini tekshirish maqsadida Styudent-Fisher kriteriyasi asosida matematik-statistik tahlili qilindi.

Mazkur kriteriyadan foydalanishda tanlanmalar uchun mos o'rta qiymatlar $\overline{X} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{4} n_i X_i$, tarqoqlik koeffitsiyentlarini $D_n = \sum_{i=1}^{3} \frac{n_i (x_i - \bar{X})^2}{n-1}$, o'rtacha kvadratik chetlanishlarni $\tau_n = \sqrt{D_n}$, variatsiya ko'rsatkichlarini $\delta_n = \frac{\tau_n}{X}$, baholashning ishonchli chetlanishlarini $\Delta_n = t_{kн} \cdot \frac{D_n}{\sqrt{n}}$, o'zlashtirish ko'rsatkichlarini aniqlashda esa $P = \frac{\vec{X}}{3} \cdot 100\% - \frac{\vec{Y}}{3} \cdot 100\%$ formulalardan foydalanildi. Hisoblash natijasiga ko'ra, tajriba guruhining o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligi, ya'ni 12 % ga oshganligi ma'lum bo'ldi.

Xulosa. Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari o'quvchilarining mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etishga mo'ljallangan veb-platformaning samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalariga ko'ra, tajriba sinfining ko'rsatkichi nazorat sinfidan yuqori ekanligi aniqlandi. Bundan xulosa qilib aytish mumkinki, tadqiqot doirasida taklif etilayotgan iivakademik.uz

veb-platformani Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari o‘quvchilarining mustaqil o‘quv faoliyatida foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umuman olganda, iivakademik.uz veb-platformasi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchini mustaqil izlanishga chorlaydigan, kreativ fikrlashni rag‘batlantiradigan va zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradigan raqamli ta’lim muhiti sifatida shakllangan. Kelajakda ushbu tizim yanada rivojlanib, o‘quvchilarning raqobatbardoshligini oshirishga, texnologik muhitga tez moslashadigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan yoshlarni tayyorlashda muhim o‘rin tutishi shubhasiz.

Shunday qilib, Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari o‘quvchilarining mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etishda tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan veb-platformadan foydalanish tavsiya etiladi. Buning natijasida Ichki ishlar vazirligi akademik litseylari o‘quvchilarining mantiqiy va ijodiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va “Informatika va axborot texnologiyalari” hamda “Fizika” fanlariga oid kompetensiyalari rivojlanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Axmedov, Y.O. Ichki ishlar akademik litseylari o‘quvchilarining mustaqil o‘quv faoliyati uchun veb-platforma yaratish va foydalanish muammolari. Elektron ta’lim. – 2025. June, No2, Vol. 6. 35-47.

2. Axmedov, Y.O. Ichki ishlar akademik litseylari o‘quvchilarining mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etishning uslubiy yondashuvlarini takomillashtirish. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў илимий-методикалық журнал. – 2025. 4-сан. 116-123.

3. Mirsanov U.M. Uzluksiz ta’lim tizimida dasturlash texnologiyalarini o‘qitish metodikasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Chirchiq, 2023. – 76 b.

4. Delov T.E. Raqamli ta’lim muhitida iqtidorli talabalarni aniqlash, ular bilan ishlash usul va vositalarini takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025. – 51 b.

5. G‘ulomov J.G‘. Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan raqamli ta’lim platformasini takomillashtirish // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025. – 51 b.

6. Tokhirov F. J. et al. Enhancing algorithmic thinking skills for application development: a methodological approach in programming education //Academic Journal of Science, Technology and Education. – 2025. – T. 1. – №. 6. – S. 75-81.

7. Легостаев Б.Л. Организация педагогического оценивания обучающихся с использованием технологий виртуальной реальности // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Москва, 2021. – 21 с.

8. Хаперская А.В. Непрерывное образование людей с овз в условиях электронного обучения // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Томск, 2020. – 24 с.

9. Дьячук П.П. Индивидуализация обучения математике студентов посредством сочетания самоуправления учебной деятельностью и внешнего управления в электронной проблемной среде // Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора педагогических наук. – Красноярск, 2017. – 48 с.

10. Quinn S. Semantic Web technologies in the provision of personalised patient education. [Doctoral Dissertation]. Ulster University; 2018. Available from: https://ulster.pure.elsevier.com/en/studentTheses/c734a843-899f-4f7e-bebe-33f6357c1760

11. Tabowei A. Technology enhanced learning : a case study of the potentials of mobile technologies in Nigerian College of Education. [Doctoral Dissertation]. University of the West of England, Bristol; 2021. Available from: https://uwe-repository.worktribe.com/output/6000872

12. Mugunzva F.I. Impact of digital technologies on entrepreneurship education within institutions of higher education in the industry 4.0 era: a South African case. [Doctoral Dissertation]. University of South Africa; 2024. Available from: http://hdl.handle.net/10500/31517

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 2-32129-02.33

SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN KASBIY YO'NALTIRISH PLATFORMALARI: IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLAR

Eshdavlatov Farrux Eshmamatovich,
Qarshi Turon Universiteti
Iqtisodiyot va xalqaro munosabatlar kafedrasi o'qituvchisi

PROFESSIONAL GUIDANCE PLATFORMS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE: OPPORTUNITIES AND PROSPECTS

Eshdavlatov Farrukh Eshmamatovich,
Karshi Turon University Economics and International Relations teacher of the department

ПЛАТФОРМЫ ПРОФОРИЕНТАЦИИ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: ВОЗМОЖНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Эшдавлатов Фаррух Эшмаматович,
Каршинский Туранский университет
Экономика и международные отношения преподаватель кафедры

e-mail: eshdavlatov@internet.ru
https://orcid.org/0009-0008-6392-7600

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta'lim sohasida, xususan, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish jarayonidagi o'rni va imkoniyatlari yoritilgan. Zamonaviy SI algoritmlarining o'quvchilar kompetensiyalari, qiziqishlari va intellektual salohiyatini avtomatik tahlil qilish mexanizmlari o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellect, kasbiy yo'naltirish, onlayn platformalar, raqamli ta'lim, kasb tanlash imkoniyatlari.*

Abstract: *This article highlights the role and possibilities of artificial intelligence (AI) technologies in the field of education, in particular, in the process of career guidance for students. The mechanisms of automatic analysis of students' competencies, interests, and intellectual potential of modern AI algorithms have been studied.*

Key words: *artificial intelligence, career guidance, online platforms, digital education, career choices.*

Аннотация: *В данной статье освещается роль и возможности технологий искусственного интеллекта (ИИ) в сфере образования, в частности, в процессе профориентации учащихся. Изучены механизмы автоматического анализа компетенций, интересов и интеллектуального потенциала учащихся современными алгоритмами ИИ.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, профориентация, онлайн-платформы, цифровое образование, возможности выбора профессии.*

Kirish. Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va tezkor rivojlanishi dunyo ta'lim tizimiga tub o'zgarishlar olib kirayotgan jarayonlardan biridir. Zamonaviy mehnat bozori ilgari mavjud

bo‘lmagan yangi kasblar bilan boyimoqda, mavjud kasblarning esa mazmuni, talabi, ko‘nikmalari va texnologik asoslari o‘zgarib bormoqda. Bunday sharoitda yoshlarni to‘g‘ri kasb tanlashga yo‘naltirish va ularning imkoniyatlarini aniq baholash masalasi yanada dolzarb tus olmoqda [1]. Ayniqsa, sun’iy intellektning ta’lim jarayoniga kirib kelishi kasbiy yo‘naltirishning yangi bosqichiga asos yaratmoqda. Sun’iy intellekt algoritmlarining ulkan ma’lumotlar bilan ishlash imkoniyati, inson salohiyatini chuqur tahlil qilish qobiliyati, shaxsiy ta’lim yo‘llarini shakllantirish uslublari zamonaviy kasbiy diagnostika tizimini butunlay yangi darajaga ko‘tarmoqda.

Sun’iy intellektga asoslangan kasbiy yo‘naltirish platformalari o‘quvchilarning individual qobiliyatlari, psixologik xususiyatlari, ijodiy fikrlash darajasi, raqamli ko‘nikmalari, muloqot madaniyati, akademik natijalari va ijtimoiy faolligini chuqur tahlil qilishga asoslanadi. An’anaviy yondashuvlarda kasb tanlash ko‘p hollarda psixologik testlar, suhbatlar yoki pedagogik kuzatuvlarga tayanib amalga oshirilgan bo‘lsa, bugun sun’iy intellekt bu jarayonni ilmiy asoslangan, aniqligi yuqori bo‘lgan kompleks tahliliga aylantirmoqda. Neyron tarmoqlar, mashina o‘rganish modellaridan foydalanish o‘quvchi haqidagi turli axborotlarni qayta ishlashda shaxsga xos bo‘lgan kasbiy profilni yaratish imkonini beradi. Natijada kasb tanlashda subyektiv yondashuvlar kamayadi, o‘quvchining haqiqiy salohiyatiga mos istiqbol yo‘nalishlarini tavsiya etish osonlashadi [2].

O‘zbekiston ta’lim tizimi ham sun’iy intellektga asoslangan kasbiy yo‘naltirish xizmatlarining jadal rivojlanishiga muhtoj. Raqamli iqtisodiyotning o‘sib borayotgani, IT Park, One Million Uzbek Coders, raqamli transformatsiya dasturlarining kengayishi, axborot texnologiyalariga talabning keskin oshishi malakali kadrlarni aniqlash va ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish zaruratini kuchaytirmoqda. Mamlakatda AI asosida ishlovchi kasbiy yo‘naltirish tizimlarini yaratish orqali o‘quvchilarning potensialini aniq baholash, ularning qiziqishlariga mos o‘quv dasturlarini belgilash, IT yo‘nalishlari bo‘yicha iste’dodlarni erta aniqlash mumkin bo‘ladi. O‘zbekiston hozirda raqamli iqtisodiyotga o‘tayotgan bosqichda bo‘lib, axborot texnologiyalari sohasiga bo‘lgan talab yildan-yilga ortmoqda. Bu jarayonda: **IT Park**, **One Million Uzbek Coders**, **Digital Education Markazi**, **Raqamli** O‘**zbekiston 2030 strategiyasi** kabi tashabbuslar katta ahamiyatga ega [3].

Albatta, sun’iy intellekt asosida ishlaydigan kasbiy yo‘naltirish platformalaridan foydalanish jarayonida bir qator muammolar va ehtiyotkorlik talab etiladigan masalalar mavjud. Avvalo, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, o‘quvchi haqidagi axborotning xavfsiz saqlanishi, algoritmlarning shaffofligi va odilligi ta’minlanishi lozim. Shuningdek, sun’iy intellekt xulosa chiqarishda xatolarga yo‘l qo‘ymasligi, milliy mentalitet, ijtimoiy sharoit, ta’lim tizimi o‘ziga xosliklarini hisobga olishi talab etiladi [4]. Pedagoglar ham AI yordamchi vosita ekanini, uni to‘liq o‘rnini bosuvchi tizim sifatida emas, balki qo‘shimcha manba sifatida ko‘rishi zarur. Yana bir muhim masala – o‘qituvchilar va ota-onalarning sun’iy intellekt texnologiyalarini tushunish darajasini oshirishdir.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt asosida kasbiy yo‘naltirishning istiqbollari nihoyatda keng. Kelajakda virtual reallik yordamida kasb simulyatsiyalarini yaratish, o‘quvchining o‘zini qaysi kasbda ko‘proq qulay his qilishi bo‘yicha tajribalar o‘tkazish imkoniyati paydo bo‘ladi. Shuningdek, AI-konsultantlar 24/7 rejimda o‘quvchilarga maslahat beradigan, ularning savollariga javob qaytaradigan to‘liq raqamli yordamchiga aylanishi mumkin. O‘zbekiston uchun milliy sun’iy intellekt platformasini yaratish orqali maktab, kollej, oliy ta’lim va mehnat bozori o‘rtasida yagona kasbiy yo‘naltirish ekotizimi shakllanishi mamlakatning raqamli iqtisodiyotini barqaror kadrlar bilan ta’minlashga xizmat qiladi [5].

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellektga asoslangan kasbiy yo‘naltirish platformalari yoshlarning kasb tanlash jarayonini ilmiy asoslangan, aniq va shaxsiylashtirilgan tizimga aylantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Ular o‘quvchilarning imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash, mehnat bozori talabiga mos yo‘nalishlarni tavsiya qilish, ta’limda samaradorlikni oshirish hamda o‘zbekistonlik yoshlarning global raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limga keng joriy etilishi yaqin kelajakda kasbiy yo‘naltirish tizimini tubdan

o‘zgartirishi va uning yangi sifat bosqichiga ko‘tarilishiga asos yaratadi. Raqamli transformatsiya jarayonlari chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda ta’lim tizimini mehnat bozori talablariga mos tarzda modernizatsiya qilish strategik ahamiyat kasb etadi. Xususan, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib o‘quvchilarni axborot-texnologiyalari yo‘nalishidagi zamonaviy kasblarga ilmiy asosda yo‘naltirish nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki mamlakatning raqamli iqtisodiyot bo‘yicha uzoq muddatli rivojlanish konsepsiyasiga ham bevosita xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot indikatorlari — raqamli savodxonlik, texnologik infratuzilmaning yetukligi, kadrlar tayyorlash tizimining sifati va innovatsion muhitning shakllanganlik darajasi — o‘quvchilarning kasbiy o‘z yo‘lini tanlash jarayonida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Taklif etilgan SI asosidagi kasbiy yo‘naltirish modeli o‘quvchilarning qobiliyat, kompetensiya va individual kognitiv xususiyatlarini obyektiv baholash imkonini berishi bilan ahamiyatlidir. Diagnostika modulida o‘quvchilar faoliyatining ko‘p omilli tahlili, Data Analytics orqali katta ma’lumotlar asosida qobiliyat profillarini aniqlash hamda tavsiya moduli yordamida aniq IT yo‘nalishlariga moslashtirilgan yo‘l xaritalarini ishlab chiqish — bularning barchasi o‘quvchilarning kasbiy rivojlanishiga kompleks yondashuvni shakllantiradi. Mazkur modelning afzalligi shundaki, u faqat mavjud ko‘nikmalarni baholash bilangina cheklanmay, balki o‘quvchi uchun optimal individual ta’lim trayektoriyasi yaratish orqali kelajak kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi.

Tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, SI texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarni dasturlash, algoritmik va tahliliy fikrlash, muammo yechish, injiniring kabi kompetensiyalarni o‘zlashtirishga yanada faol jalb etadi. Bu esa o‘z navbatida IT sohasi bo‘yicha raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonini tezlashtiradi. Zamonaviy mehnat bozori talablariga ko‘ra, texnik bilimlar bilan birga moslashuvchan fikrlash, ijodkorlik, ma’lumotlar bilan ishlash madaniyati kabi soft-skill kompetensiyalar ham muhim o‘rin egallaydi. Sun’iy intellekt asosidagi baholash va yo‘naltirish tizimi ana shu ko‘nikmalarni o‘z vaqtida aniqlash va rivojlantirishga ko‘maklashadi. Shuningdek, modelning ta’lim amaliyotiga joriy etilishi o‘qituvchilar faoliyatiga ham yangi imkoniyatlar yaratadi. SI tizimlari o‘quvchi haqidagi ma’lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qilib, o‘qituvchiga individual ishlash uchun aniq tavsiyalar taqdim etadi. Natijada, ta’lim jarayonining shaxsga yo‘naltirilganligi oshadi, o‘quvchilar bilan manzilli ishlash samaradorligi kuchayadi. Yakun qilib aytganda, sun’iy intellektga asoslangan kasbiy yo‘naltirish modeli ta’lim tizimini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirishning samarali vositasidir. Ushbu yondashuv IT sohasida malakali kadrlarni shakllantirish, o‘quvchilarda innovatsion tafakkur va texnologik kompetensiyalarni rivojlantirish, shuningdek, ularning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatiga ilmiy asoslangan yo‘naltirishni ta’minlaydi. Zamonaviy raqamli jamiyatning rivojlanish sur’atlari bilan uyg‘un holda, SI texnologiyalariga asoslangan kasb tanlash modeli ta’limning yangi paradigmasini shakllantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent, 2020.
2. Yusupov A., Hamidov S. Raqamli iqtisodiyot va zamonaviy axborot texnologiyalari. – Toshkent: TATU nashriyoti, 2022.
3. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. 4th Edition. Pearson, 2021.
4. UNESCO. Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policy-makers. Paris, 2020.
5. Kaplan A., Haenlein M. Siri, Siri, in my hand: Who‘s the fairest in the land? Artificial Intelligence Review, 2019.

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 392.181.151.9

ONLAYN KOMMUNIKATSIYADA AXLOQIY QADRIYATLAR VA ISHONCHNING SHAKLLANISHI

Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, "Jismoniy madaniyat va gumanitar fanlar" kafedrasi, dotsent v.b.

THE FORMATION OF ETHICAL VALUES AND TRUST IN ONLINE COMMUNICATION

Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna,
Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi, Department of Physical Culture and Humanitarian Sciences, Acting Associate Professor

ФОРМИРОВАНИЕ ЭТИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ И ДОВЕРИЯ В ОНЛАЙН-ОБЩЕНИИ

Абдуллаева Зиёда Набиевна,
Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада аль-Хоразмий, кафедра физической культуры и гуманитарных наук, и.о. доцента

https://orcid.org/0009-0006-0318-2091
Elekron pochta: z.abdullayeva.tatu@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada onlayn kommunikatsiyada axloqiy qadriyatlar, ishonch, foydalanuvchi tajribasi, ijtimoiy tarmoqlar, digital etika, anonimlik, sharhlar, reytinglar, platforma qoidalari, madaniyatlararo farqlar, virtual identifikatsiya, internet munosabatlar, interaktiv o'zaro ta'sir, axloqiy qarorlar, jamiyatdagi ishonch va onlayn muhitda boshqaruv mexanizmlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Onlayn kommunikatsiya, ishonch, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy tarmoqlar, foydalanuvchi tajribasi, digital etika, anonimlik, sharhlar, reytinglar, internet munosabatlar, platforma qoidalari, madaniyatlararo farqlar.*

Аннотация: *Статья изучает моральные ценности, доверие, опыт пользователей, социальные сети, цифровая этика, анонимность, отзывы, рейтинги, правила платформы, межкультурные различия, виртуальная идентификация, интернет-отношения, интерактивное взаимодействие, этические решения, общественное доверие и механизмы управления в онлайн-среде.*

Ключевые слова: *онлайн коммуникация, доверие, моральные ценности, социальные сети, опыт пользователей, цифровая этика, анонимность, отзывы, рейтинги, интернет-отношения, правила платформы, межкультурные различия.*

Abstract: *The article examines ethical values, trust, user experience, social networks, digital ethics, anonymity, reviews, ratings, platform rules, cross-cultural differences, virtual identification, internet relationships, interactive interactions, ethical decisions, societal trust, and governance mechanisms in online environments.*

Key words: *online communication, trust, ethical values, social networks, user experience, digital ethics, anonymity, reviews, ratings, internet relationships, platform rules, cross-cultural differences.*

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda internet va ijtimoiy tarmoqlar insonlar o‘rtasidagi muloqot maydoniga aylangan. Onlayn muhitda foydalanuvchilar axloqiy qadriyatlar va ishonch mexanizmlari bilan yuzma-yuz keladi. Ishonch foydalanuvchi tajribasi, sharhlar, reytinglar, platforma qoidalari va madaniyatlararo farqlar orqali shakllanadi. Ushbu maqola onlayn kommunikatsiyada axloqiy qadriyatlar va ishonchni aniqlash, tahlil qilish va platformalarda ishonchni oshirish mexanizmlarini o‘rganishga qaratilgan.

Onlayn muhitda foydalanuvchilar orasida axloqiy qadriyatlar va ishonch mexanizmlari deganda, virtual kommunikatsiya va interaktiv platformalarda odamlarning bir-biriga munosabatini tartibga soluvchi normalar va signal tizimlari tushuniladi.

Onlayn kommunikatsiyada axloqiy qadriyatlar va ishonchning shakllanishi deganda, foydalanuvchilar orasidagi virtual muloqot jarayonida ularning axloqiy me’yorlari, ijtimoiy normalari va bir-biriga ishonch hissi qanday paydo bo‘lishi va rivojlanishi tushuniladi [1].

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Shu muhitda foydalanuvchilar orasida axloqiy qadriyatlar — hurmat, halollik, adolat va mas’uliyat — shakllanishi va rivojlanishi juda muhim. Ishonch esa foydalanuvchilarning bir-biriga va platformalarga xavfsiz muloqotga tayyorligini belgilaydi. Axloqiy qadriyatlar va ishonch bir-birini mustahkamlaydi: foydalanuvchilar axloqiy me’yorlarga rioya qilsa, ishonch oshadi, ishonch ortsa, axloqiy qadriyatlar mustahkamlanadi. Shu sababli, onlayn muhitda sog‘lom va barqaror muloqotni ta’minlash uchun axloqiy qadriyatlar va ishonchni rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Foydalanuvchilar axloqiy qadriyatlari va ishonch bo‘yicha:

Putnam (2020): Ijtimoiy ishonch shaxslararo hamkorlik va virtual muloqot barqarorligini oshiradi. Onlayn platformalarda axloqiy qadriyatlar ijtimoiy normalarni shakllantiradi.

Zhang & Li (2021): Ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar o‘zaro ishonchni reytinglar, sharhlar va tavsiyalar orqali rivojlantiradi.

Texnologik mexanizmlar va ishonch bo‘yicha:

Rifai & Al-Qahtani (2022): Platformadagi autentifikatsiya, foydalanuvchi profilingi va sertifikatlash onlayn ishonchni oshiradi.

Kamalova M. (2023, O‘zbekiston): Mahalliy foydalanuvchilar orasida ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy normalar va shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi ishonch shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Axloqiy qadriyatlar va global kontekst bo‘yicha:

Turel & Singh (2021): Turli madaniyatlarda axloqiy qadriyatlar va ishonch shakllanishi farqlidir: sharqiy madaniyatlarda kollektivizm, g‘arbiy madaniyatlarda individualizm asosiy ahamiyatga ega.

Ochilova D. (2024, O‘zbekiston): Yoshlar orasida onlayn axloqiy normalarga rioya qilish ijtimoiy ishonchni oshiradi va platformaning barqarorligini ta’minlaydi.

Dolzarb masalalar bo‘yicha:

Onlayn muhitda soxta kontent, trolling va kiberhujumlar axloqiy qadriyatlar va ishonchni buzadi (Smith, 2022).

Shu sababli foydalanuvchilarni axloqiy ongini oshirish va ishonch mexanizmlarini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi (Kamalova M, 2023).

So‘nggi yillardagi tadqiqotlar (2020–2025) ishonch shakllanishi quyidagi omillarga bog‘liqligini ko‘rsatadi:

Shaxsiy tajriba – ilgari bo‘lgan interaktsiyalar foydalanuvchi ishonchiga ta’sir qiladi.

Ijtimoiy dalillar – sharhlar, reytinglar va tavsiyalar qaror qabul qilishda asosiy rol o‘ynaydi.

Qoidalarga rioya qilish – platforma qoidalari va moderatorlar faoliyati ishonchni oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maqola onlayn kommunikatsiyada axloqiy qadriyatlar va ishonchning shakllanish mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, sifatli va miqdoriy tadqiqot usullarini o‘z ichiga oladi [3,4].

Tadqiqot usullari:

Sifatli tahlil: Onlayn platformalarda foydalanuvchilarning sharhlari, reytinglari, forum postlari va ijtimoiy tarmoq faoliyati o‘rganildi. Bu

orqali foydalanuvchilar o‘rtasida ishonchni shakllantiruvchi axloqiy mexanizmlar aniqlanadi.
Miqdoriy tahlil: So‘rovnomalar va anketalar orqali foydalanuvchilar tajribasi o‘lchandi. So‘rov natijalari statistik usullar yordamida tahlil qilinib, ishonchning shakllanishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar aniqlanadi.

Tadqiqot obyekti va predmeti:

Obyekt: Onlayn kommunikatsiya va ijtimoiy platformalar (Facebook, Instagram, Telegram, forumlar, e-commerce platformalari).
Predmet: Onlayn muloqotda ishonchning axloqiy mexanizmlari va foydalanuvchi tajribasiga bog‘liq omillar.

Ma’lumotlar manbalari:

Ilmiy maqolalar va jurnallar (2020–2025).
Onlayn foydalanuvchi so‘rovlari va tajribalari.
Platformalardagi sharhlar, reytinglar va foydalanuvchi izohlari.

Tadqiqotning asosiy qadamlar [5]:

Adabiyotlar tahlili orqali axloqiy qadriyatlar va ishonch nazariy asoslari o‘rganildi.
Onlayn platformalarda foydalanuvchi tajribasi va interaktiv munosabatlar kuzatildi.
So‘rov va anketalar yordamida ma’lumotlar yig‘ildi.
Sifatli va miqdoriy tahlil usullari yordamida natijalar tahlil qilindi.
Madaniyatlararo farqlar va anonimlik kabi omillar ishonch shakllanishiga ta’siri aniqlandi.

Tadqiqot yondashuvi:

Tadqiqot empirik va nazariy yondashuvni uyg‘unlashtiradi. Nazariy tahlil axloqiy qadriyatlar va ishonch konseptlarini aniqlashga, empirik tadqiqot esa foydalanuvchi tajribasi va interaktiv platformalardagi ma’lumotlar orqali ularni tasdiqlashga xizmat qiladi.

Ushbu metodologiya yordamida maqola onlayn kommunikatsiyada ishonchning axloqiy mexanizmlari va ularni shakllantiruvchi asosiy omillarni ilmiy asosda aniqlash imkonini beradi.

MUHOKAMA

Onlayn kommunikatsiyada ishonch axloqiy me’yorlar bilan bog‘liq. Foydalanuvchi reytinglari va sharhlari uning platformadagi boshqalar bilan aloqasiga ta’sir qiladi. Anonimlik ba’zi hollarda ishonchni kamaytiradi, chunki foydalanuvchi shaxsiy javobgarlikni sezmaydi. Shu bilan birga, platforma qoidalari va digital axloq foydalanuvchi ishonchini oshiradi. Madaniyatlararo farqlar ham muhim: sharq jamiyatlarida ishonch ko‘proq shaxsiy munosabatlarga, g‘arb jamiyatlarda esa institut va qonuniy mexanizmlarga tayangan [6].



1-rasm. Onlayn platformalarda foydalanuvchilarning sharhi

2023-yildan 2024-yilgacha sharhlar soni sezilarli darajada oshgan: 61 million yangi sharh qo‘shilgan va jami sharhlar soni 301 millionga yetgan. Bu platformaning muvaffaqiyati va foydalanuvchilar ishonchining o‘sishini ko‘rsatilgan.



2-rasm. Foydalanuvchilar ishonchi

2020–2025 yillar oralig‘ida foydalanuvchi ishonchi 23 foizga oshgan.



3-rasm. Sharh va reytinglar (2020-2025)

Bu grafik ma’lumotlarni yillar bo‘yicha taqqoslash uchun ishlatiladi. Unda ishonch foizining yillar kesimida o‘zgarishi tasvirlangan. Grafik orqali tendentsiyalarni kuzatish va tahlil qilish mumkin [7].



4-rasm. Xavfsizlik va maxfiylikka ishonch

Keltirilgan 4-rasmda kompaniyalar ishonch darajasining 2020-2025-yillar oralig‘idagi o‘zgarishini ko‘rsatadi. Unda har bir yil uchun ishonch foizi qiymatlari taqqoslangan, bu orqali kompaniyaga bo‘lgan ishonchning o‘sishi yoki pasayishi tendentsiyasini tahlil qilish mumkin.

1-jadval. Onlayn kommunikatsiyada ishonch shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar (2020–2025)

№	Omil nomi	Ta’sir ulushi (%)	Izoh
1	Foydalanuvchi tajribasi	**28%**	Platforma qulayligi, xizmat sifati, funksionallik ishonchning asosiy manbai.
2	Ijtimoiy dalillar (sharhlar, reytinglar)	**22%**	Foydalanuvchilar fikri va reytinglar qaror qabul qilishda kuchli ta’sir qiladi.
3	Platforma boshqaruvi va qoidalari	**18%**	Moderatsiya sifati, shaffof siyosat, tartib va qoidalar ishonchni oshiradi.
4	Maxfiylik va anonimlik	**14%**	Shaxsiy ma’lumotlarning xavfsizligi bo‘yicha xavotirlar ishonchni kamaytirishi mumkin.
5	Madaniyatlararo kontekst	**10%**	Hududiy va madaniy qadriyatlar onlayn ishonchga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.
6	Axborotning haqqoniyligi, dezinformatsiya	**8%**	So‘nggi yillarda yolg‘on axborot va AI-kontent xavfi ishonchni pasaytirmoqda.

2020–2025-yillardagi tadqiqotlar asosida onlayn ishonchning shakllanishida foydalanuvchi tajribasi (28%) va ijtimoiy dalillar (22%) eng kuchli omillar sifatida ajralib chiqqan. Platforma siyosati, maxfiylik va madaniy farqlar o‘rta darajada ta’sir ko‘rsatadi. Dezinformatsiya esa oxirgi yillarda o‘sib borayotgan xavf omili hisoblanadi.

2-jadval. Platformalarda ishonch va axloqiy muhitning tahlili

Platforma	Ishonch darajasiga ta’sir qiluvchi omillar	Axloqiy qadriyatlar buzilishiga olib keluvchi xavflar	Umumiy baho (2020–2025 tendensiyasi)
Facebook	Shaxsni identifikatsiya qilish oson, real ism tizimi; keng doiradagi ijtimoiy aloqalar; fact-checker faoliyati	Siyosiy manipulyatsiya, yolg‘on ma’lumotlar tarqalishi, shaxsga tajovuz; shaxsiy ma’lumotlar oshkor bo‘lishi	Ishonch o‘rtacha, axloqiy muammolar yuqori darajada saqlanib qolmoqda

TAMADDUN NURI

Instagram	Vizual kontent orqali ijobiy imij, brendlar uchun ishonch indikatorlari; tasdiqlangan akkauntlar (blue tick)	Sun'iy go'zallik talablari, noto'g'ri hayot tarzi tasviri, reklamadagi manipulyatsiya; kiberbulling	Ishonch barqaror, lekin axloqiy bosim va taqqoslash kuchli
Telegram	Yopiq kanallar, yuqori maxfiylik; tezkor ma'lumot almashish; katta auditoriyali kanallar orqali obro' yig'ish	Anonimlik tufayli yolg'on axborot, noqonuniy kontent, manipulyativ siyosiy materiallar	Ishonch past-o'rtacha, axloqiy xavflar yuqori
Forumlar (Reddit, lokal forumlar)	Mutaxassislikka asoslangan baholash, auditoriya fikri	Toksiklik, anonim hujumlar, tajribasiz foydalanuvchilarni chalg'itish	Ishonch mavzuga bog'liq, axloqiy barqarorlik o'rtacha
E-commerce platformalari (Amazon, AliExpress, O'zbekistonda: Uzum, OLX)	Sharhlar, reytinglar, qaytarish siyosati, rasmiy do'konlar; tranzaksiya xavfsizligi	Soxta sharhlar, firibgarlik, mahsulot sifati haqida yolg'on ma'lumot	Ishonch yuqori, axloqiy muammolar — o'rtacha darajada

2020–2025 yillar tahlili shuni ko'rsatadiki:
E-commerce platformalari ishonch bo'yicha yetakchi (84%).
Instagram — brendlar va shaxsiy kontent orqali ijtimoiy ishonchni mustahkamlaydi, lekin axloqiy bosim yuqori.
Telegram — eng xavfli axloqiy muhitlardan biri bo'lib, anonimlik darajasi yuqori bo'lgani uchun ishonch past [8].
Facebook — siyosiy va axloqiy mojarolar sabab o'rtacha ishonchga ega.
Forumlar — mutaxassislik bor joyda ishonch yuqori, lekin anonim muhit xavfni oshiradi.



5-rasm. Platformalarning ishonch omillari bo'yicha reytingi

NATIJALAR

Maqola natijalari shuni ko'rsatdiki:
Foydalanuvchi tajribasi va ijtimoiy dalillar onlayn ishonchni shakllantiruvchi asosiy omillar.
Anonimlik va shaxsiy profil mavjudligi ishonch darajasini oshiradi yoki kamaytiradi.
Axloqiy me'yorlar va platforma qoidalari ijtimoiy ishonchni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.
Madaniyatlararo farqlar foydalanuvchi ishonchining turlicha shakllanishiga olib keladi [9].



6-rasm. Madaniyatlararo farqlar bo'yicha ishonch darajasi

Maqolada 2020–2025-yillar oralig'ida onlayn platformalarda axloqiy qadriyatlar va ishonchning shakllanishi bo'yicha sifatli va

miqdoriy ma'lumotlar tahlil qilindi. Quyidagi natijalar erishildi:

Foydalanuvchi tajribasi asosiy omil sifatida ajralib chiqdi. 1-jadval tahliliga ko'ra, foydalanuvchi tajribasi (28%) onlayn ishonch shakllanishiga eng katta ta'sir ko'rsatadi. Platformaning ishlash tezligi, texnik barqarorlik, xizmat sifati va interfeys qulayligi foydalanuvchi ishonchining o'sishiga bevosita ta'sir qilmoqda [10].

Sharhlar va reytinglar ishonchning 22% qismini tashkil qiladi. 2020–2025-yillar bo'yicha tuzilgan grafik (2-rasm) shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy dalillar — sharhlar, reytinglar, tajribali foydalanuvchi fikrlari — qaror qabul qilishda eng kuchli indikatorlardan biridir. 2023–2024-yillarda sharhlar sonining 301 millionga yetishi ijtimoiy ishonchning keskin o'sayotganini tasdiqlaydi.

Platforma qoidalari va boshqaruv sifati ishonchni 18% oshiradi. Moderatsiya, shaffof siyosat, soxta kontentni aniqlash va xavfsizlik protokollari mavjud bo'lgan platformalarda ishonch sezilarli darajada oshishi aniqlandi. Masalan, e-commerce platformalarida ishonch darajasi eng yuqori (84%).

Maxfiylik va anonimlik ikki qarama-qarshi omil sifatida namoyon bo'ldi:

yuqori maxfiylik foydalanuvchi xavfsizligini oshiradi;

lekin haddan tashqari anonimlik (Telegram, forumlar) yolg'on axborot va axloqiy buzilish xavfini kuchaytiradi.

Bu omil umumiy ta'sirning 14% qismini tashkil qiladi.

Madaniyatlararo farqlar ishonchning shakllanishiga 10% ta'sir qiladi. Sharq jamiyatlarda ishonch ko'proq shaxsiy munosabatlarga tayanadi, G'arbda esa institutsional tizimga. Shu sababli, platformalar uchun bir xil algoritm barcha madaniyatlarda birdek ishlamasligi aniqlandi.

Dezinformatsiya va AI yaratuvchi kontent ishonchni pasaytirmoqda. So'nggi ikki yilda (2023–2025) AI-kontent, soxta sharhlar, manipulyativ reklama va trolling natijasida ishonchning 8% pasayishi kuzatildi. Grafiklar (3-rasm va 4-rasm) so'nggi yillarda xavfsizlik siyosatlarining ahamiyati keskin oshganini ko'rsatadi.

Platformalar kesimida ishonch darajasi farqlanmoqda. 2-jadval va 5-rasm asosida quyidagi xulosalar aniqlandi:

E-commerce platformalar — eng ishonchli segment (84%), chunki sharhlar, qaytarish siyosati va to'lov xavfsizligi aniq.

Instagram — ijtimoiy ishonch yuqori, lekin axloqiy bosim va manipulyativ kontent kuchli.

Telegram — ishonch eng past, chunki anonimlik va nazoratsizlik axloqiy xavflarni oshiradi.

Facebook — siyosiy manipulyatsiya tufayli ishonch o'rtacha.

Forumlar — mavzuga qarab ishonch kuchli, lekin toksiklik xavfi yuqori.

2020–2025-yillar tahlili shuni ko'rsatadiki, onlayn ishonch faqat bitta omil mahsuli emas, balki foydalanuvchi tajribasi, ijtimoiy dalillar, platforma qoidalari, madaniy kontekst va axloqiy muhitning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi.

XULOSA. 2020–2025-yillar oralig'idagi tahlillar onlayn kommunikatsiyada ishonch shakllanishi murakkab va dinamik jarayon ekanini ko'rsatdi. Ijtimoiy dalillar — sharhlar, reytinglar, fikrlar — eng kuchli ishonch omillaridan biriga aylangan. Foydalanuvchilarning shaxsiy tajribasi va platformaning funksionalligi esa ishonchning barqaror o'sishini ta'minlagan. Shuningdek, digital axloq, algoritmik shaffoflik va moderatsiya sifati ishonchning ortishiga xizmat qilgan.

Anonimlik va yolg'on axborotning ko'payishi esa ishonchga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Turli platformalar bo'yicha olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki,

e-commerce xizmatlari eng barqaror ishonchga ega, Telegram esa anonimlik tufayli eng ko'p axloqiy xavflarni o'zida mujassam etgan. Madaniyatlararo kontekst ham muhim omil bo'lib, jamoaviy jamiyatlarda ishonch shaxsiy aloqalar orqali, individualistik jamiyatlarda esa institutlar va texnologik ishonchlilik orqali shakllanadi.

Umuman olganda, onlayn kommunikatsiyada axloqiy muhitni mustahkamlash va foydalanuvchi ishonchini oshirish uchun kompleks boshqaruv, shaffof axborot oqimi va etik normalarni kuchaytirish zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kamalova, M. (2023). Raqamli axborot makonida shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va

TAMADDUN NURI

ishonch omillari. Toshkent Axborot Texnologiyalari Jurnali, 4(2), 55–63.
2. Ochilova, D. (2024). Yoshlar orasida onlayn etik normalar va ijtimoiy ishonchning shakllanishi. O‘zbekiston Sotsiologiyasi Jurnali, 3(1), 22–34.
3. Putnam, R. (2020). Social trust and cooperation in the digital age. Oxford University Press.
4. Zhang, Y., & Li, T. (2021). Online reviews and trust development in social media platforms. Journal of Digital Communication, 12(3), 144–159.
5. Rifai, A., & Al Qahtani, S. (2022). Authentication and digital trust in modern online platforms. International Journal of Information Security, 18(4), 287–301.
6. Turel, O., & Singh, A. (2021). Cultural dimensions of trust and ethics in online communication. Global Media Studies, 9(2), 101–118.
7. Smith, J. (2022). Disinformation and ethical risks in online communication. Cyber Ethics Review, 7(1), 40–56.
8. Karimov, B. (2021). O‘zbek foydalanuvchilari orasida ijtimoiy tarmoqlarda ishonch omillari. Axborot Jamiyati Tadqiqotlari, 5(3), 75–82.
9. Qo‘ldoshev, A. (2020). Digital etika va internet madaniyati. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Nashriyoti.
10. Lee, H., & Nakamura, S. (2023). Privacy concerns and trust in cross-cultural digital environments. Journal of Cyber Psychology, 15(1), 89–104.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 1:32(075).8

YOSHLAR HUQUQIY MADANIYATINING IJTIMOIY-FALSAFIY MOHIYATI, SHAKLLANTIRISH OMILLARI VA RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Shadiyev Bexzod Mirsalimovich
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi dotsent v.b.

SOCIAL-PHILOSOPHICAL ESSENCE, FORMING FACTORS AND DEVELOPMENT DIRECTIONS OF YOUTH LEGAL CULTURE

Shadiyev Bekhzod Mirsalimovich,
Associate Professor, Navoi Regional Pedagogical Skills Center, Acting

e-mail: shadiyev@umail.uz

ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ, ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ

Шадиев Бехзод Мирсалимович,и.о.доцента Навоийского областного центра педагогического мастерства

Abstract: *This article analyzes the socio-philosophical essence of the legal culture of youth, the factors of its formation and directions of development. The study examines the role of legal consciousness, legal behavior and civic responsibility in society from a philosophical point of view. The author puts forward practical proposals aimed at increasing legal literacy among young people.*

Keywords: *legal consciousness, legal culture, legal education, youth, social philosophy, civic responsibility.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yoshlar huquqiy madaniyatining ijtimoiy-falsafiy mohiyati, uni shakllantirish omillari va rivojlantirish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda huquqiy ong, huquqiy xulq va fuqarolik mas’uliyatining jamiyatdagi o‘rni falsafiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi. Muallif yoshlar orasida huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan amaliy takliflarni ilgari suradi.*

Kalit so‘zlar: *huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy ta’lim, yoshlar, ijtimoiy falsafa, fuqarolik mas’uliyati.*

Аннотация: *В статье анализируется социально-философская сущность правовой культуры молодёжи, факторы её формирования и направления развития. В исследовании рассматривается роль правосознания, правового поведения и гражданской ответственности в обществе с философской точки зрения. Автор предлагает практические предложения, направленные на повышение правовой грамотности молодёжи.*

Ключевые слова: *правосознание, правовая культура, правовое воспитание, молодёжь, социальная философия, гражданская ответственность.*

Kirish. Jahonda ilm-fan taraqqiyoti sifat jihatdan yangi tendensiyalarni shakllantirishga ta’sir etayotgan bir paytda davlat boshqaruvini takomillashtirishda nodavlat notijorat tashkilotlar bilan hamohanglikni ta’minlash, yosh avlodning huquqiy madaniyatini yuksaltirishni talab etmoqda. Globallashuv sharoitida davlatlarning maqomi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan birga faol fuqarolik pozitsiyasiga ega aholi qatlamining shakllanganligi bilan ham bog‘liq bo‘lmoqda. Xususan, ijtimoiy davlatda esa yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanishida

muhim o‘rin tutmoqda va jamiyatda nodavlat notijorat tashkilotlarining roli oshib bormoqda.

Dunyoda davlatchilik tarixi, uning zamonaviy shakllari, ijtimoiy davlatning mohiyati kabi ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarga asoslangan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Amerika Qo‘shma Shtatlarida, Kanada va Avstraliya singari davlatlarda nodavlat notijorat tashkilotlar bevosita yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha yetakchi tashkilotlar sifatida tan olingan. Ushbu davlatlarda olib borilgan tadqiqotlar, ayniqsa, huquqiy ta’lim jarayonida NNTlarning faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlariga bag‘ishlangan. Kanada Fuqarolik Institutining tadqiqotlari NNTlarning yoshlarni o‘z huquqlarini himoya qilishda va fuqarolik huquq va majburiyatlarini to‘liq anglashida yordam berishdagi roli davlat va nodavlat sektor o‘rtasidagi hamkorlikning samaradorligini ta’minlashga e’tibor qaratilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda fuqarolar huquqiy madaniyatini yuksaltirshning zamonaviy mexanizmlari va nodavlat notijorat tashkilotlarning fuqarolik jamiyatini yanada yuksaltirishdagi ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlarning yoshlar faolligiga ta’sir etishidagi roli yuksak baholanmoqda va nodavlat notijorat tashkilotlarning faoliyati qo‘llab quvvatlanmoqda.

Yoshlarning mamlakatimizda bo‘layotgan o‘zgarishlarga o‘z hissasini qo‘shishi islohotlarni yanada yangi bosqichga ko‘tarilishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. “Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo‘shadilar”[1.]. O‘zbekiston sharoitida davlat va nodavlat sektorlari o‘rtasidagi hamkorlikning yangi tendensiyalarini belgilab olish, huquqiy tarbiya sohasida yoshlarning ijtimoiy ongini yuksaltirish va ularning huquqlarini himoya qilishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Respublikamiz olimlari tomonidan mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlarda jamiyat ma’naviy salohiyatini yuksaltirish, yoshlar masalasiga sohaviy yondashuv kabi bir qator masalalar tahliliga alohida e’tibor qaratilgan. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, muallif tomonidan mazkur yo‘nalish bo‘yicha tadqiqotlar mohiyatidan kelib chiqib, ular quyidagi ilmiy kategoriyalarga ajratildi.

Birinchi kategoriya: G.J.Tulenova, M.M.Teshaboyev, I.A.Suvanov, D.K.Jumaniyozova, O.X.Bazarov, F.X.Yuldasheva, S.A.Saidova, M.T.Parpiyev, T.I.Ismoilov, A.Sh.Obidovlar tomonidan ma’naviyat, shaxs ma’naviyati, yoshlar ma’naviy salohiyati falsafaning tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan.

Ikkinchi kategoriya: yoshlar masalalarining siyosiy hamda huquqiy jihatdan tahlili B.X.Jo‘rayev, D.D.Bo‘ronova, O.T.Nasiriddinova, E.O.Kadirov, A.H.Xolmaxmatovlar tomonidan o‘rganilgan.

Uchinchi kategoriya: K.D.Riskulova, N.S.Rasulova, O.R.Topildiyev, J.D. Matkarimova, Sh.N.Taylaqovalar yoshlar masalalarining pedagogik hamda tarixiy asoslarini o‘z ilmiy tadqiqotlarida ochib berishgan.

Mamlakatimizda I.Ergashev, M.Quronov, I.Saifnazarov, F.Saifnazarova, S.Otamuratov, X.Shayxova, A.Aslanov, B.Karimov, Sh.Rashidov, R.Rahimov, G.Teshaboyeva, A.Xursandov, T.Alimardonov kabi olimlar tomonidan ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etilgan.

Yuqoridagi tadqiqotchilar o‘z ilmiy ishlarida yoshlar ma’naviy salohiyatini yuksaltirishda siyosiy institutlarning o‘rniga doir muhim fikrlarni ilgari surganlariga qaramasdan, uni maxsus o‘rganishni maqsad qilib qo‘ymaganlar. Muammoning hanuzgacha ijtimoiy falsafaning maxsus tadqiqot muammosiga aylanmaganligi, uning bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti uchun muhimligidan dalolat beradi.

Muhokama. Yoshlarning jamiyat hayotidagi o‘rni, yangi talablar va vorisiylikning amalga oshishidagi asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan har qaysi jamiyatning alohida qatlamidir. Shu sababli aholining tarkibida yoshlar ulushining foiziga qarab mamlakatlar o‘z siyosiy tizimini va mamlakat istiqbolini pragnoz qilib borishadi. Shuningdek, yoshlarning alohida qatlam sifatidagi faol bo‘lishi esa yanada aniq marralarga qaratilgan rivojlanish strategiyalarni qamrab olishga xizmat qiladi. Xususan, Yangi O‘zbekistonda aholi tarkibida yoshlarning ulushi 50 foizdan ko‘proqni tashkil etilishi ham faol fuqarolik pozitsayasiga ega yoshlar ulushining shakllanishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, inson huquq va

erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda yoshlarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolayotgani ham ma’lum bo‘ldi.

Xususan, “huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta’lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayotgani, uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta’minlanmaganligi;

- yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg‘otish ishiga kompleks tarzda yondashilmaganligi”[2.].

Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishda bir qancha ijtimoiy-falsafiy asoslar mavjud bo‘lib, yangi talablarni ham qamrab oladi.

Qonun va huquqiy jarayonlarni yaxshi tushungan yoshlar saylovlarda qatnashish, o‘zgarishlarga chaqiriq qilish va rasmiylar javobgarligini ta’minlash kabi fuqarolik mas’uliyatlarini yanada faol bajaradilar. Huquqiy madaniyat qonunlarga hurmatni oshiradi va yoshlarni noqonuniy yoki zararli harakatlardan tiyilishga rag‘batlantiradi.

Huquqiy madaniyatni rivojlantirish yoshlarda nafaqat qonunlarga rioya qilish, balki ularni tanqidiy tahlil qilish va jamiyatni yanada adolatli qilishga qaratilgan faollikni oshiradi. “Huquqiy madaniyat – jamiyatda qonunga nisbatan munosabatlar, qadriyatlar, normalar va xulq-atvorlarni ifodalaydi” [3]. Yoshlar qabul qilinayotgan qonunning avvalo ijodkorlaridan biri bo‘lishi, qonun davlat va jamiyat istiqbollarini ko‘zlagan holda qabul qilinishi, yoshlarning hayotiy ehtiyolari bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etishga xizmat qilishini muhim hamiyatga egadir. Bundan tashqari, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda yoshlar qatlami bilan olib borilayotgan huquqiy ta’lim va tarbiya borasidagi ishlar ham tizimli va uzviy olib borilmayapti. “Bu masala uzoq yillar davomida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki yetarlicha ta’minlanmagan. Ochig‘ini aytganda, targ‘ibot tadbirlarida ko‘pincha samarasiz seminar, davra suhbatlari va shu kabi uchrashuvlarni tashkil etish bilan cheklanib qolinmoqda, targ‘ibot jarayonida innovatsion usullardan yetarlicha foydalanilmayotgani ayon bo‘lmoqda” [2.].

Qonun o‘z navbatida faqat qonunchilik tizimining kengayishigagina emas, balki uning rivojiga faol hissa qo‘shuvchi mas’uliyatli fuqarolar shakllantirishga ham xizmat qilishi kerak.

Natijalar. Yoshlarga huquqiy ta’lim berishda NNTlarning samaradorligini o‘lchash muhim bo‘lib, shu orqali ushbu tashabbuslar o‘zlarining oldilariga qo‘ygan maqsadlariga erishishi darajasini aniqlash imkoni bo‘ladi. Keng qamrovli ta’sirni baholash tadqiqoti o‘z ichiga ham miqdor, ham sifatni oluvchi metodlarni qamrab oladi va yoshlar orasida huquqiy madaniyat va fuqaroviy faollikning turli darajalarini ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Bunda NNTlar faoliyati samaradorligini baholashning bir necha mezonlarini keltirib o‘tamiz:

1. Huquqiy bilim va ogohlik darajasi: NNTlar faoliyati samaradorligini o‘lchashning bosh mezonlaridan biri bu fuqarolar orasida huquqiy bilim va ogohlik darajasidagi o‘sishdir. Bu esa NNTlar faoliyatidan oldin va keyin o‘tkaziluvchi so‘rovnoma va anketalar, testlar va shunga o‘xshash metodlar orqali amalga oshirilib, unda yoshlardan sohaga oid tushunchalar, ularning huquq va mas’uliyatlari so‘ralishi mumkin.

2. Xulq-atvordagi o‘zgarishlar: Yoshlardagi xulq-atvor o‘zgarishlarini, misol uchun fuqaroviy ishlarda qatnashuv darajasining oshishi, yuridik qonun buzilishi holatlari haqida xabar berish darajasining oshishini va ularning o‘z huquqlarini himoya qilib chiqish holatlarining oshishi yoki pasayishi kabilarni qayd etib borish o‘ta muhim. Xulq-atvordagi bunday o‘zgarishlar yoshlarning o‘zidan so‘ralgan holda aniqlanishi, yoki ularni kuzatish, yoki ular haqida mahalladoshlar tomonidan ma’lumot yig‘ish orqali aniqlanishi mumkin.

3. Munosabatdagi o‘zgarishlar: Yoshlarning yuridik tizimga, qonun ustuvorligiga yoki fuqaroviy mas’uliyat kabilarga munosabatining o‘zgarishini qayd etib borish yuridik ta’limning ta’sirini aniqlashda foydali qurol bo‘la oladi. Yoshlardagi bunday munosabat o‘zgarishlari Likert shkalasi anketalari yoki so‘rovnomalar orqali o‘lchanishi mumkin.

4. Ishtirok va faollik: Yoshlarning huquqiy ta’lim dasturlarida, jamoatchilik ishlarida va targ‘ibotchilik dasturlarida ishtiroki darajasining o‘lchanishi ham NNT tashabbuslarining samaradorligi va ularning qanchalar chuqur kirib borganini aniqlashga yordam beradi. Bunda ishtirok raqamlari, seminarga keluvchilar davomati va darslardan keyingi mashg‘ulotlarda qatnashish darajalari asosiy ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

5. Qo‘llab-quvvatlash va o‘ziga bo‘lgan ishonch darajasini oshirish: Yoshlar tomonidan huquqiy tizim ichida o‘ziga bo‘lgan ishonch va dadillik darajasini o‘lchash ham o‘ta muhimdir. Bu esa o‘zlikka bo‘lgan ishonch shkalasi so‘rovnomalari, fokus guruhlari muhokamalari va individual muvaffaqiyatli natijalarning keys metodi muhokamalari orqali aniqlanishi mumkin.

Xulosa. Ijtimoiy davlat yoshlar huquqiy madaniyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu davlatning asosiy vazifalaridan biri yoshlar orasida huquqiy bilim va huquqiy mas’uliyatni shakllantirishdan iboratdir. Huquqiy madaniyat, o‘z navbatida, jamiyat barqarorligi va rivojlanishining asosi sifatida qaraladi.

1. Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ijtimoiy-falsafiy yondashuv muhimdir. Bu jarayon yoshlarni fuqarolik burchlariga, inson huquqlariga hurmat va qonunlarga rioya qilish ruhida tarbiyalash orqali amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv jamiyatning umumiy axloqiy va huquqiy qadriyatlariga asoslanadi.

2. Zamonaviy texnologiyalar, xususan raqamli platformalar orqali huquqiy ta’lim va tarbiya samaradorligini oshirish imkoniyati katta. Bu usul yoshlar o‘rtasida huquqiy bilimlarni kengaytirishda zamonaviy yondashuv sifatida katta ahamiyatga ega bo‘lib, ularni huquqiy madaniyatga jalb qilishni kuchaytiradi.

3. Jahon tajribasida yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirishga yo‘naltirilgan dasturlar ijobiy natijalar bermoqda. Xalqaro hamkorlik va tajriba almashinuvi yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishda va milliy o‘ziga xoslikni inobatga olgan holda samarali strategiyalar ishlab chiqishda muhimdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik! O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqidan iqtiboslar. – T.: TASVIR nashriyot uyi, 2021. – B. 32.
2. A.G‘affarov., Z.Musayev. Yangilanayotgan O‘zbekistonda yoshlarning huquqiy savodxonligining yuksaltirish masalalari. // “Ma’naviy barkamol yoshlar Yangi O‘zbekiston bunyodkori” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. – T.: 2024. – B. 23.
3. Tamanaha B. Z. *Law as a Means to an End: Threat to the Rule of Law*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – P. 69-85.

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 81'276.3

HOZIRGI XITOY TILI RITORIK SO'ROQ GAPLARINING RAVISHLAR ORQALI IFODALANISHI HAQIDA

Matkarimova Nargiz Muxamataminovna, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

ON THE EXPRESSION OF RHETORICAL INTERROGATIVE SENTENCES IN MODERN CHINESE THROUGH ADVERBS

Matkarimova Nargiz Mukhamataminovna, 2nd year doctoral student at Tashkent State University of Oriental Studies

О ВЫРАЖЕНИИ РИТОРИЧЕСКИХ ВОПРОСИТЕЛЬНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ С ПОМОЩЬЮ НАРЕЧИЙ

Маткаримова Наргиз Мухаматаминовна, докторант 2-курса Ташкентского государственного университета востоковедения

https://orcid.org/0000-0001-6517-0252
e-mail: matkarimova.nargiz.@bk.ru

Annotatsiya: *mazkur maqolada hozirgi xitoy tilida ravishlar orqali hosil bo'lgan ritorik savollar, ularning ma'no xususiyatlari, ushbu ravishlar ishtirokidagi ritorik ma'noni ifodalaydigan sintaktik konstruksiyalar haqida bayon etilgan. Izlanishlar xulsosasi sifatida aniqlangan qator ritorik ma'noni ifodalovchi sintaktik konstruksiyalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *ritorika, semantika, morfema, sintaksis, konstruksiya, iyeroglif, paradigma.*

Abstract: *This article examines the formation of rhetorical questions using adverbs, as well as the semantic meanings of syntactic constructions in modern Chinese. The conclusion includes syntactic constructions identified as a result of the study.*

Keywords: *rhetoric, semantics, morpheme, syntax, constructions, character, paradigma.*

Аннотация: *в данной статье исследуются особенности образования риторических вопросов при помощи наречий, а также семантические значения синтаксических конструкций в современном китайском языке. В качестве заключения приведены синтаксические конструкции, выявлены в результате исследования.*

Ключевые слова: *риторика, семантика, морфема, синтаксис, конструкция, иероглиф, парадигма.*

KIRISH. Xitoy tilida ravishlar turkumiga mansub asosiy so'zlar bu 不 bù – "yo'q", 就 jiù – "darhol", "faqatgina", "allaqachon", "bo'lishi bilanoq", 难道 nándào – "nahotki? ", 何 hé – "kim? ", 岂 qǐ – "qanday qilib?" , "nahotki?", 还 hái – "hali", "hali ham", 又 yòu – "yana" ravishlaridir. Mazkur ravishlar gapda ta'kid, isbot darajasidagi ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Mazkur ravishlar bilan ifodalangan so'roq gaplarning barchasi ritorik so'roq gaplarga ham qo'llanadi. Mazkur holat tilda ritorikaga taalluqli bo'lgan va taalluqli bo'lmagan so'zlarni ajratishda yordam beradi.

ASOSIY QISM. 不 bù – "yo'q" yakka holatda qo 'llanilishidan tashqari 不是 bùshì, 不也是 bù yěshì, 不都是 bù dōu shì, 不就是 bù jiùshì va h.k. shakllari orqali qo'llanishi mumkin. Undan tashqari 不是 bùshì shakli orqali ifoda etilgan ritorik savollar miqdor jihatdan ko'proq bo'lib, oddiy holatlarda, ko 'pincha 吗 ma "-mi?"

so‘roq yuklamasi bilan birga qo‘llanadi. Shuning bilan birga 不 bù（也/都就 yě/dōujiù）是... ...吗 shì… …ma? “(shundaymi?)” konstruksiyasi tarkibida keladi”[1]. Masalan:

凭着崇高的理想，豪迈的气概，乐观的志趣，克服困难不也是一种享受吗？”[2]

Píngzhe chónggāo de lǐxiǎng, háomài de qìgài, lèguān de zhìqù, kèfú kùn nàn bù yěshì yī zhǒng xiǎngshòu ma?

Buyuk g‘oyalar, qahramonona ruh, optimistik intilishlar, qiyinchiliklarni yenga olish ham bir lazzatdan bahramand bo‘lish emasmi?

不论德国还是中国，欧洲还是亚洲，法兰克福，科隆，柏林，还是北京，大连。乌鲁木齐，不都是在同一个地球上吗？”[3]

Bùlùn déguó háishì zhōngguó, ōuzhōu háishì yàzhōu, fǎlánkèfú, kēlóng, bólín, háishì běijīng, dàlián. Wūlǔmùqí, bù dōu shì zài tóng yīgè dìqiú shàng ma?

Germaniya, Xitoy, Yevropa yoki Osiyo, Frankfurt, Kyoln, Berlin, Pekin yoki Dalian bo‘lsin, Urumchi, hammasi bir yer sharida emasmi?

不也是 bù yěshì, 不都是 bù dōu shì, 不就是 bù jiùshì so‘zlarining barchasi 不是 bùshì variantining kengaytirilgan ko‘rinishi hisoblanadi. 也 yě “ham”, 都 dōu “hammasi”, 就 jiù “aynan, darhol, bilanoq” ravishlari 不 bù yo‘q hamda 是 shì iyerogliflari o‘rtasida keladi. Yuqorida keltirilgan ravishlarni qisqartirilgan shaklda ham qo‘llanadi. Ammo qisqartirilgandan so‘ng gap ohangi u darajada kuchli bo‘lmaydi”[4]. Buni quyidagi jadvalga ko‘rish mumkin:

不（）是...吗 bù () shì…ma	Ifodalanuvchi semantik ma’nosi	Misollar
不也是...吗 bù yěshì…ma	Ta’kidlash shaklida	有人说，书本上的文艺作品，古代的和外国的文艺作品，不也是源泉叫？ -Kimdir aytgan edi, kitobdagi san’at asari, qadimiy va chet el san’at asarlari ham, aslida asl manba emasmi?
不都是...吗 bù dōu shì…ma	Umumiylashtirish shaklida	… …人家的孩子这样，咱们的孩子那样， 孩子不都是将来的国民吗？ -…o‘zgalarning farzandi bunday, bizniki ana unday, axir farzandlarimizning barchasi kelajak egalari emasmi?
不就是...吗 bù jiùshì…ma	Tasdiq shaklida	不就是没给他送礼吗？ -…aksincha, siz unga sovg‘a bermadingizmi?

Bundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, bu ravishlar bilan birga bir nechta ritorik mazmunni ifodalaydigan grammatik konstruktisyalar hosil qilinadi. Bular: [不也是...吗] [bù yěshì…m]a, [不都是...吗][bù dōu shì…ma], [不就是...吗][bù jiùshì…ma].

就 jiù “darhol,u holda”ravishi shakli mustaqil va yakka holatda qo‘llanmaydi, balki, boshqa turdagi ravishlar, so‘roq olmoshlari, so‘roq ohangini bildiruvchi so‘zlar, fe’llar bilan birga qo‘llanadi. Masalan:

我哪回不是掉完眼泪，就拼命去干活儿？[1]

Wǒ nǎ huí bùshì diào wán yǎnlèi, jiù pīnmìng qù gàn huó er?

Men qaysi safar ko‘z yoshlarim tinmasa ham, darhol bor kuch-g‘ayratim bilan mehnatga otlanmaganman?

你怎么就光顾着你自己那点小利呢？

Nǐ zěnme jiù guānggùzhe nǐ zìjǐ nà diǎn xiǎo lì ne?

Sening o‘zingning kam daromading bo‘la turib, qanday qilib bunday holatga darhol noliysan?

考不上大学就没有前途吗？

[1] 天昱. 现代汉语反问句研究. 博士学位论文，2007. – B. 10

[2] 天昱. 现代汉语反问句研究. 博士学位论文，2007. – B. 10

[3] 天昱. 现代汉语反问句研究. 博士学位论文，2007. – B. 11

[4] 天昱. 现代汉语反问句研究. 博士学位论文，2007. – B. 11

[1] 吕明臣张玥. 反问句的功能和意义. 华夏文化论坛, 2011. – B. 12.

Kǎo bù shàng dàxué jiù méiyǒu qiántú ma?

Oliygohga topshira olmasangiz, u holda kelajagingiz barbod bo‘lmaydimi?

Mazkur ravish gapda quyidagi sintaktik konstruksiyani hosil qiladi: [1 xatti-harakat yoki holatni ifodalaydigan so‘z birikmasi +就+ 2 xatti-harakat yoki holatni ifodalaydigan so‘z birikmasi].

难道 nándào “nahotki” ravishi, odatda, ritorik savollarda qo‘llanadi, ammo biz 难道 nándào “nahotki” bilan kelgan so‘zlarning barchasini ham ritorik so ‘roq gaplar tizimiga qo‘sha olmaymiz. Masalan,

“难道你们闹矛盾了？”[2]

Nándào nǐmen nào máodùnle?

Nahotki, sizlarda mojaro bo‘lsa?

Ushbu jumlada qat’iy bir qaror mavjud emas. Har xil holatlarda mazkur ravish ritorikaga yoki oddiy so ‘roq gapga aylanishi mumkin. Ritorikada 难道 nándào “nahotki” ravishi bilan kelgan jumlalar so‘ngiga 吗 ma “mi?”so‘roq yuklamasi yoki so‘roq ma’nosini anglatuvchi so‘zlar qo‘yiladi. Masalan,

“你说我痴人说梦，一个人难道就不能有自己的梦想吗?”

Nǐ shuō wǒ chīrénshuōmèng, yīgè rén nándào jiù bùnéng yǒu zìjǐ de mèngxiǎng ma?

Sizningcha men hoy-u havas kasaliga chalinganmanmi, nahot bir insonning o‘z orzu-havasi bo‘lmasa?

难道能否认培养接班人不是我们的责任吗？”[3]

Nándào néng fǒurèn péiyǎng jiēbān rén bùshì wǒmen de zérèn ma?

O‘rindoshlarimizni ish chiniqtirish nahot bizning mas’uliyatimizga kirmasa?

“中国人难道就不能创出自己的名牌鞋，让国人和外国人都爱不释手吗？”[4]

Zhōngguórén nándào jiù bùnéng chuàng chū zìjǐ de míngpái xié, ràng guó rén hé wàiguó rén dōu àibùshìshǒu ma?

Nahotki xitoyliklar o‘z brend-poyabzallarini yarata olmasalar, nahotki bu muammoga xitoyliklar va chet elliklar ham ko‘z yuma olsalar?

Agar 难道 nándào “nahotki” ravishi ega oldidan qo‘yilsa, u holda mazkur ravish egani ta’kidlab keladi, agar kesim oldidan qo‘yilsa, u holda kesimga ishora qiladi[5].

Mazkur ravish gapda quyidagi sintaktik konstruksiyani hosil qiladi: [难道 gap jumlasi 吗？] yoki [难道 gap jumlasi?]. Bulardan faqat birinchisigina ritorik mazmunni ifodalaydi.

O‘z navbatida qator ritorik savollarni ifodalovchi sintaktik konstruksuyalarni hosil qiladi. Xususan: 难道 ravishi orqali 2ta konstruksiya: [难道 gap jumlasi 吗？] yoki [难道 gap jumlasi?]; 不 ravishi orqali 3ta konstruksiya: [不也是...吗] [bù yěshì…m]a, [不都是...吗][bù dōu shì…ma], [不就是...吗][bù jiùshì…ma]; 就 ravsihi orqali 1ta konstruksiya [1 hatti-harakat yoki holatni ifodalaydigan so‘z birikmasi +就+ 2 hatti-harakat yoki holatni ifodalaydigan so‘z birikmasi].

XULOSA. Mazkur ravishlar ishtirok etgan barcha ritorik savollar matn mazmunini boyitadi, so‘zlovchi nutqini ohangini kuchaytirib berishga xizmat qiladi va xitoy tilida qo‘llaniladigan emfazaning ko‘rinishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ismatullayev X. Ritorik so‘roq gaplar. – Tosh DU Ilmiy ishlar to‘plami. 268-son, – T.: 1964. – 158b.

2. Samigova X.B. Ingliz va o‘zbek nutq madaniyati ritorik aspektining chog‘ishtirma tadqiqi: filol. fan. nomz. … diss. … avtoref. – T.: 2017. – 207 b.

3 天昱. 现代汉语反问句研究. 博士学位论文, 2007. – 139 页.

4. 刘松江.反问句的交际作用. 语言教学与研究, 1993.– 189 页.

5. 吕明臣张玥. 反问句的功能和意义. 华夏文化论坛, 2011. – 211 页.

6. 郭继懋.反问句的语义语用特点. 中国语文, 1997. –167 页.

7. 朱姝. 反问句的句法结构及意义 – 语用分析. 硕士学位论文, 2004. – 80 页.

[2] 郭继懋.反问句的语义语用特点. 中国语文, 1997. – B 18.

[3]郭继懋.反问句的语义语用特点. 中国语文, 1997. – B 13

[4]朱姝. 反问句的句法结构及意义 – 语用分析. 硕士学位论文, 2004. – B 15.

[5]朱姝. 反问句的句法结构及意义 – 语用分析. 硕士学位论文, 2004. – B. 15.

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 370.182.63

TALABALARNI OILAVIY HAYOTGA MAJMUAVIY TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Alikulova Muxayyo Sherovna, Shahrisabz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

PEDAGOGICAL BASIS OF COMPREHENSIVE PREPARATION OF STUDENTS FOR FAMILY LIFE

Alikulova Mukhayyo Sherovna, Researcher, Shakhrisabz State Pedagogical Institute

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КОМПЛЕКСНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Аликулова Мухайё Шеровна, научный исследователь Шахрисабзского государственного педагогического института

https://orcid.org/0009-0000-4602-0400
e-mail: muxayyosherovna_@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada talabalarni oilaviy hayotga majmuaviy tayyorlashning pedagogik mohiyati, mazmuni va mexanizmlari tahlil qilinadi. Bundan tashqari maqolada talabalarning oilaviy hayotga tayyorlik darajasini oshirishda ta'limiy, tarbiyaviy, psixologik hamda ijtimoiy-pedagogik yondashuvlarning o'zaro integratsiyasi ilmiy asosda yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *oila, pedagogik mexanizm, talaba-yoshlar, tayyorgarlik, ma'naviy qadriyatlar, oila psixologiyasi, tarbiyaviy tizim.*

Abstract: *The article analyzes the pedagogical essence, content and mechanisms of complex preparation of students for family life. In addition, the article scientifically covers the integration of educational, educational, psychological and socio-pedagogical approaches in increasing the level of readiness of students for family life.*

Keywords: *family, pedagogical mechanism, students-youth, preparation, spiritual values, family psychology, educational system.*

Аннотация: *В статье анализируются педагогическая сущность, содержание и механизмы комплексной подготовки студентов к семейной жизни. Кроме того, в статье научно обоснована интеграция образовательных, воспитательных, психологических и социально-педагогических подходов в повышении уровня готовности студентов к семейной жизни.*

Ключевые слова: *семья, педагогический механизм, студенческая молодёжь, подготовка, духовные ценности, семейная психология, образовательная система.*

Kirish (Introduction). Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonida oila institutining ijtimoiy-madaniy asoslari o'zgarib bormoqda. Yoshlarning, xususan, talabalarning oilaviy hayotga tayyorlik darajasini oshirish, milliy qadriyatlarga sodiq, mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirish – zamonaviy pedagogikaning muhim vazifasiga aylangan. Shu nuqtayi nazardan, **talabalarni oilaviy hayotga majmuaviy tayyorlashning pedagogik asoslarini ilmiy asosda ishlab chiqish** dolzarb masala hisoblanadi. Ma'lumki oila jamiyatning eng kichik bo'g'ini

sifatida insonning ma'naviy kamoloti va barkamolligida hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu boisdan, yoshlarni – xususan, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarni oilaviy hayotga puxta tayyorlash masalasi bugungi kunda dolzarb pedagogik vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqlarida ta'kidlaganidek, "Mustahkam oila – farovon jamiyat poydevori"dir. Shu bois oliy ta'lim tizimida talabalarning oila hayotiga psixologik, ijtimoiy va ma'naviy tayyorgarligini oshirish, ularni sog'lom oilaviy qadriyatlarga yo'naltirish zarurati kun sayin ortmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Buyuk ma'rifatchi Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida shunday yozadi: "Oila – millatning tayanchi, tarbiyaning boshlang'ich maktabidir. Ota-onaning farzand oldidagi eng muhim burchi unga to'g'ri yo'l ko'rsatishdir". Avloniy fikricha, har bir yoshning oila hayotiga tayyorgarligi tarbiyaning asosiy natijasidir. Shuning uchun ta'lim tizimi yoshlarni nafaqat bilimli, balki oilaviy mas'uliyatni his etuvchi shaxs sifatida shakllantirishi lozim. Pedagogika fanlari doktori, professor **S.Nishonova** o'zining "Pedagogik psixologiya asoslari" asarida u shunday ta'kidlaydi: "Talabalarning oila hayotiga tayyorligi – bu ularning ijtimoiy, psixologik va ma'naviy jihatdan barkamol shaxsga aylanishining natijasidir". Uning fikricha, oila hayotiga tayyorlash jarayoni **ta'limiy, tarbiyaviy va psixologik birlikda** olib borilishi zarur, aks holda u faqat nazariy bilim darajasida qoladi. Pedagogika fanlari doktori, akademik **R.Mavlonova** yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda oila institutining rolini o'rganib, quyidagicha xulosa beradi: "Oila – bu milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlar uzluksizlik zanjirining bosh bo'g'inidir. Talaba-yoshlarning oilaviy hayotga tayyorgarligi o'z-o'zidan emas, balki tizimli pedagogik ta'sir natijasida shakllanadi". Uning fikricha, bu jarayonda **milliy urf-odatlar, oila qadriyatlari** va **ma'naviy meros** asosiy tarbiyaviy resurs sifatida foydalanilishi kerak. **Sh.Sharipov** "Oila pedagogikasi" asarida oila hayotiga tayyorlash bu shaxsning hayotiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonidir: "Talabani oilaviy hayotga tayyorlashda uning ijtimoiy rolini, mas'uliyatini va qaror qabul qilish madaniyatini rivojlantirish pedagogning asosiy maqsadidir", deb hisoblaydi. **D.Xoshimovaning** "Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda oila omili" maqolasida "Oila hayotiga tayyorlash bu talabaning nafaqat kelajakdagi ijtimoiy roli, balki uning ichki dunyosini, hissiy va axloqiy barqarorligini shakllantirishdir", deb izoh beradi. Uning tadqiqotlarida "ma'naviy immunitet" tushunchasi kiritilgan bo'lib, bu yoshlarning salbiy ijtimoiy ta'sirlardan himoyalanish qobiliyatini anglatadi. Bu jihat oila hayotida juda muhim ahamiyatga ega. Biz muhokama yuritayotgan muammo ustida **xorijiy olimlarning yondashuvlari ham mavjud va ular quyagilardan iborat.** Bowlby o'zining "Bog'lanish nazariyasi" da shunday yozadi, bolalik davrida shakllangan emotsional bog'lanish (ota-ona muhabbati) shaxsning kelajakdagi oila hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, talabalarning oila haqidagi qarashlari ularning **ijtimoiy-emotsional tajribasi** bilan bog'liq. **U.Bronfenbrennern o'zining** "Ekologik tizimlar nazariyasi"da "Insonning ijtimoiy hayotga moslashuvi uning oila, ta'lim, jamiyat va madaniyat tizimlari bilan o'zaro munosabati natijasidir". Talabani oilaviy hayotga tayyorlash ham shu tizimlarning o'zaro ta'siri orqali ro'y beradi. **E.Fromm o'zining** "Sevgi san'ati" nomli asarida shunday yozadi: "Oila bu faqat his-tuyg'u emas, balki mas'uliyat, mehr, hurmat va mehnatning uyg'unligidir". Unga ko'ra, insonni oilaviy hayotga tayyorlash — bu uni **sevgi, fidoyilik va mas'uliyat**ni his etishga o'rgatishdir. **G.Allport** o'zining "Shaxsning ijtimoiy yetuklik nazariyasi" fikricha, ijtimoiy yetuk shaxs oilaviy munosabatlarda murosaga borish, his-tuyg'ularni boshqarish va bag'rikenglik ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shu sababli, ta'lim tizimida talabalarning ijtimoiy-psixologik madaniyatini rivojlantirish oila hayotiga tayyorlikning asosi sanaladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida qo'llaniladigan mexanizmlar son, shakl va mazmun jihatdan xilma-xildir. Bu mexanizmlarni va talabalarning oilaviy hayotga tayyorgarlik bosqichlarini quydagicha izohlash va tartiblash mumkin. Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash bosqichlari bular bilim bosqichi, ko'nikma bosqichi, qadriyat bosqichi va moslashuv

bosqichlardir. Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash mexanizmlari esa pedagogik mexanizmlar tizimi, ta'limiy mexanizmlar, tarbiyaviy mexanizmlar, psixologik mexanizmlar, ijtimoiy-pedagogik mexanizmlar, innovatsion mexanizmlar va boshqalar.

OTMda talabalarni oilaviy hayotga tayyorgarlik bosqichlarini va mexanizmlarini quydagicha izohlash mumkin.

Bilim bosqichi – oila haqidagi nazariy bilimlarni egallash.

Ko'nikma bosqichi – muloqot, murosa, mas'uliyatlilikni amaliy o'rganish.

Qadriyat bosqichi – oila muqaddasligini anglash, milliy qadriyatlarni qadrlash.

Moslashuv bosqichi – real ijtimoiy hayotda o'z rolini anglash va mas'uliyatni his etish.

Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik mexanizmlar tizimini quydagicha izohlash mumkin. Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida qo'llaniladigan pedagogik mexanizmlar bu ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan vosita, usul, shakl va shart-sharoitlar majmui bo'lib, bu tizimning o'zi ham bir qancha yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Jumladan:

- Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ta'limiy mexanizmlarini turli fanlar mazmunida va interfaol metodlarda izohlash mumkin. Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ta'limiy mexanizmlarini "Oila psixologiyasi", "Oila sotsiologiyasi", "Ma'naviyat asoslari" kabi fanlarning o'quv rejasiga kiritish orqali ta'minlash mumkin. O'quv mashg'ulotlarida oilaviy qadriyatlarga oid debat, klaster, keys-stadi kabi interfaol metodlardan foydalanish orqali amaliy jihatdan amalga oshirish mumkin. Talabalarning amaliyot davrida mahalla, maktab va oilaviy markazlar faoliyatida ishtirokini ta'minlash orqali talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ta'limiy mexanizmlarni mustahkamlash mumkin.

Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning tarbiyaviy mexanizmlari mazmuniga ko'ra turli loyihalar, tadbirlar, uchrashuvlar, tanlovlar va seminarlarni tashkil etish ijobiy samara beradi. Jumladan, muammoga doir "Baxtli oila" loyihalarini, "Oila qadriyatlari haftaligi" kabi tadbirlarni o'tkazish mumkin. Bundan tashqari OTMda ota-onalar, psixologlar va jamoatchilik vakillari bilan muammo mazmuniga oid uchrashuvlar tashkil etish hamda oila madaniyatiga bag'ishlangan ijodiy tanlovlar va seminarlar o'tkazish talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ta'limiy mexanizmlarni mustahkamlaydi.

Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda psixologik mexanizmlarning ahamiyati ham alohida bo'lib bu mexanizmlarning mazmunida OTM da talabalarning emotsional-intellektual rivojini qo'llab-quvvatlash, talabalarning o'zaro muloqot madaniyatini oshirish, nizolarni bartaraf etish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida psixologik treninglar o'tkazish bu treninglar mavzusini "Oilaviy vaziyat" mashg'ulotlari orqali o'zini anglashni rivojlantirish kabilar kiradi.

Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashda ijtimoiy-pedagogik mexanizmlar ham o'rni alohida bu mexanizmlar mahallalar, qo'mitalar bilan birgalikda amalga oshiriladigan hamkorlik ishlari orqali tashkil etiladi. Masalan mahallalar, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda talabalarning oilaviy hayotga tayyorgarligini aniqlovchi monitoring tizimini yo'lga qo'yish va sog'lom turmush tarzini targ'ib etuvchi ijtimoiy loyihalar o'tkazish orqali amalga oshirish mumkin.

Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning innovatsion mexanizmlari bu mexanizm eng yangi va zamonaviy mexanizmlardan biri bo'lib uning mazmunida raqamli platformalar yaratish va unda oila psixologiyasi bo'yicha onlayn kurslar va vebinarlar tashkil tish, simulyatsiya va virtual o'yin texnologiyalari yordamida "oilaviy muammo" modellarini yechish, multimediya va AR (kengaytirilgan reallik) vositalari orqali oila psixologiyasini o'qitish innovatsion mexanizmlarini qo'llashning samaradorligini ta'minlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlash va ularning oilaga oid majmuaviy bilimlarini tarkib toptirish, oilaviy qadriyatlarga nisbatan hurmatni shakllantirish hamda ularni oilaviy hayotga pedagogik-psixologik tayyorlash masalalarining o'ziga xos jihatlari respublikamiz olimlaridan R.Shadiyev, O.Musurmonova, M.Artiqova, N.Oripova, A. Xo'jaqulovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mamlakatimiz faylasuf olimlaridan J.

To‘lenov, Q.Nazarov, A.Erkayev, A.Huseynova, G.Navro‘zova, I.Saifnazarov, X. Shayxova, R.Ro‘ziyeva, H.Salomovalar tadqiqotlarida oilada mehr tuyg‘usi va uni shakllantirish masalalarining ayrim jihatlari o‘rganilgan.

Oila-nikoh masalalari, oiladagi shaxslararo munosabatlarning psixologik jihatlari E.G’oziyev, A.Jabborov, M.Fayziyeva, B.Shoumarov, N. Salayeva, M.Karimova, O.To‘rayeva, F.Ro‘ziqulovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations) Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, talabalarni oilaviy hayotga majmuaviy tayyorlash bu kompleks pedagogik jarayon bo‘lib, u ta’limiy, tarbiyaviy, psixologik va ijtimoiy yo‘nalishlarning uyg‘unligida amalga oshiriladi. Ushbu jarayon orqali talabalarda sog‘lom oila qurishga nisbatan mas’uliyat, mehr-oqibat, sabr-toqat va bag‘rikenglik kabi sifatlar shakllanadi. Pedagogik mexanizmlarning samarali ishlashi uchun oliy ta’lim muassasalari, oila, mahalla va jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlik tizimini kuchaytirish, o‘qituvchilarning oila pedagogikasi bo‘yicha malakasini oshirish hamda raqamli innovatsion yondashuvlardan foydalanish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar (References):

1. Axmedova Mukarram Tursunalievna. Pedagogik konpetentlik uslubiy qo‘llanma. -T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti 2018-yil 80 bet.

2. Elmuratova D., Misirova N. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O‘quv qo‘llanma. //Guliston, 2021-yil ,161-bet.

3. M.H.Muslimov, N.A.Usmonboyev, D.M.Sayfurov, A.B.To‘rayev. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. T.: 2015-yil, 120-bet.

5. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – T.: O‘zMU OPI, 2003. – 68 b.

6. A.Musurmonova, N.J.Isaqulova, M.T.Jumaniyozova, A.SH.Jumayev. Umumiy pedagogika. II qism. O‘quv qo‘llanma, 2020.

7. To‘raqulova D. Pedagogik kompetentlik va innovatsiyalar. – Toshkent, 2022-yil.

8. Xo‘jayev N. Innovatsion ta’lim texnologiyalari asoslari. – Toshkent: Fan, 2021-yil.

9. Yuldasheva R. Zamonaviy ta’limda innovatsion kompetensiyaning ahamiyati. – Ta’lim va taraqqiyot jurnali, 2020-yil.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 94(575.1)"19":929

СУДЬБА КАРАКАЛПАКСКОГО ОБЩЕСТВЕННОГО ДЕЯТЕЛЯ И ПОЛКОВОДЦА УБАЙДУЛЛЫ БАХАУАДДИНОВА

Усенов Султан Халкназарович, доктор философии по историческим наукам (PhD)

QORAQALPOQ JAMOAT ARBOBI VA SARKARDASI UBAYDULLA BAHAUDDINOV TAQDIRI

Usenov Sultan Xalqnazarovich, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

THE FATE OF THE KARAKALPAK PUBLIC FIGURE AND MILITARY COMMANDER UBAYDULLA BAHAUDDINOV

Usenov Sultan Khalknazarovich, Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD)

e-mail: usenovsultan@gmail.com

Аннотация: *В статье рассматривается яркая личность в истории каракалпаков Южного Приаралья Убайдуллы Бахауаддинова (Багаутдинова), именуемый в просторечии «Хан махсум». В статье анализируется биография, особенно трудовая деятельность Хана махсума. Хан махсум, по словам очевидцев, в июле-августе 1918 года собрал народное ополчение с общей численностью 12,5 тысячи нукеров. Нукеры Хана махсума, как помнят старожилы, далее принимали активное участие в борьбе в первые годы советской власти с другими захватчиками – красногвардейцами. Однако после принятия первой Конституции нового государства (1922 г.) и осознав бесполезность дальнейшего сопротивления, «дикая дивизия» Хана махсума была расформирована.*

Ключевые слова: *общественный деятель, полководец, Убайдулла Бахауаддинов, нукеры, память.*

Annotatsiya: *Maqolada Janubiy Orolbo'yi qoraqalpoqlari tarixida xalq tilida "Xon maxsum" deb atalgan yorqin shaxs Ubaydulla Bahouddinov (Bagautdinov) haqida so'z boradi. Maqolada Xon maxsumning tarjimayi holi, ayniqsa, mehnat faoliyati tahlil qilingan. Guvohlarning so'zlariga ko'ra, Xon maxsum 1918-yil iyul-avgust oylarida umumiy soni 12,5 ming nafar bo'lgan xalq lashkarini to'plagan. Xon maxsumning navkarlari, keksalarning eslashicha, sovet hokimiyatining dastlabki yillarida boshqa bosqinchilar – qizil gvardiyachilarga qarshi kurashda faol ishtirok etishgan. Biroq yangi davlatning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilingandan so'ng (1922 y) va bundan keyin qarshilik ko'rsatish befoydaligini anglab, Xon maxsumning "yovvoyi diviziyasi" tarqatib yuborildi.*

Kalit so'zlar: *jamoat arbobi, sarkarda, Ubaydulla Bahouddinov, navkarlar, xotira.*

Rezyume: *Maqalada Qubla Aralboyı qaraqalpaqları tariyxında xalıq tilinde "Xan maqsım" dep atalǵan jarqın shaxs Ubaydulla Bahauaddinov (Bagautdinov) haqqında sóz boladı. Maqalada Xan maqsımnıń ómirbayanı, ásirese, miynet jolı tallanǵan. Gúwalardıń sózlerine qaraǵanda, Xan maqsım 1918-jılı iyul-avgust aylarında ulıwma sanı 12,5 mıń adam bolgan xalıq láshkerin toplagan. Xan maqsımnıń nókerleri, kekselerdiń eslewinshe, sovet hákimiyatınıń dáslepki jıllarında basqa basqınshılar – qızıl gvardiyashılarǵa qarsı gúreste belsene qatnasqan. Biraq, jana mámlekettiń birinshi Konstituciyası qabıl etilgennen keyin (1922-j.) hám bunnan keyin qarsılıq kórsetiw paydasız ekenligin ańlap, Xan maqsımnıń "jabayı diviziyası" tarqatıp jiberildi.*

Таяныш сөзлер: *jámietlik ǵayratker, sárkarda, Ubaydulla Bahawatdinov, nókerler, estelik.*

Abstract: *The article examines the prominent figure in the history of the Karakalpaks of the Southern Aral Sea region, Ubaydulla Bahauaiddinov (Bagautdinov), known colloquially as "Khan maxsum". The article analyzes the biography, especially the work activities of Khan Maxsum. According to eyewitnesses, Khan Maxsum gathered a popular militia in July-August 1918 with a total of 12,500 guards. Khan Mahsum's guards, as the elderly recall, continued to actively participate in the struggle against other invaders - the Red Guards – during the early years of Soviet rule. However, after the adoption of the first Constitution of the new state (1922), and realizing the futility of further resistance, Khan Mahsum's "wild division" was disbanded.*

Key words: *public figure, commander, Ubaydulla Bahauddinov, guards, memory.*

ВВЕДЕНИЕ. Современные ученые-историки в нашей стране уделяют большое внимание восстановлению незаслуженно забытым прежним режимом именам исторических личностей, чьи жизнь и деятельность могут служить примером для подражания подрастающему поколению в новых условиях. Одним из таких ярких личностей в истории каракалпаков Южного Приаралья, несомненно, является имя Убайдуллы Бахауаддинова (Багаутдинова), именуемый в просторечии «Хан махсум» то есть «носитель ханского титула религиозного происхождения» (Махсум, махдум в переводе с арабского «посланник Аллаха»). Имя Хана махсума заняло достойное место в новой истории Узбекистана, а также Каракалпакстана, упоминается в произведениях местной творческой интеллигенции, а также в народных преданиях.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД. В то же время биография, особенно трудовая деятельность Хана махсума, до сих пор остается мало исследованной с научной точки зрения, чем может вызывать различные кривотолки. В письменных источниках старой историографии он был представлен как религиозный фанат и главарь местного басмаческого бандформирования. В устных преданиях знавшие при его жизни люди, отзываются как о лидере народного ополчения, преданно выполнившем свой общественный долг перед обществом. Итак, кем же он был на самом деле? Собранные за последние годы автором данной статьи материалы, постараемся представить к сведению общественности.

Убайдулла Бахауаддинов, как уже известно из различных источников, родился в 1887 году подданным царской России, на территории нынешнего аула «Ишан кала» (ныне сельского схода граждан «Кызыл уй» Кегейлийского района Республики Каракалпакстан) в среде религиозных деятелей.

Отец – Пари ишан (Бахауаддин ишан, 1838-1912). Имел частную религиозную школу (мектеп), параллельно работал преподавателем (мударрис) в медресе отца, которое являлось неотделимой частью религиозно-просветительского центра. В народной памяти имя Пари ишана отождествляется с реформатором учебного процесса медресе, где наряду с традиционными религиозными предметами обучались русскому языку, арифметике. Приобретенные знания способствовали должности у местных чиновников царской России в качестве секретарей волостных управителей, переводчиков, гидротехников и т д.

Следовательно, такое происхождение Хана махсума не смогло не отразиться в познании окружающей среды и формировании мировоззрении, в дальнейшей судьбе юноши. Он получил религиозное образование – сначала в начальной школе, затем – в медресе отца. Однако, вопреки семейным традициям, избрал светскую профессию, работал техником, затем начальником большой оросительной сети. Руководил строительством оросительных сетей местного значения. Выставил свою кандидатуру на выборах 30 мая 1920 года на должность волостного управителя, хотя итоги были неудачными.

ОБСУЖДЕНИЕ. Революционные потрясения 1917 года вынудили Убайдуллу внести коррективы в собственной жизнедеятельности. В условиях, когда на всем правобережий нынешней Каракалпакии, где по определению каракалпакского ученого-историка Б.Кощанова, «царилась полное безвластие (декабрь 1917 - ноябрь 1918 гг)», внутри региона поднимала голову организованная преступность – разбойники

TAMADDUN NURI

(баспашы), грабители (каракшы), скотокрады, просто воришки. Данное обстоятельство заставило бывших правителей, знатных людей и религиозных деятелей всех восьми волостей Чимбайского уезда Амударьинского Отдела Туркестанского губернаторства собраться на сход, где из трех альтернативных кандидатур на демократической основе правителем был избран тридцатиоднолетний Убайдулла Бахауаддинов.

Молодой полководец, по словам очевидцев, в июле-августе 1918-года собрал народное ополчение с общей численностью 12,5 тысячи нукеров, то есть одного джигита с каждой из пяти семей, установил партнерские связи с Муйнакскими староверцами-уральскими казаками во главе с атаманом Фильчевым.

Нукеры Хана махсума, как помнят старожилы, далее принимали активное участие в борьбе в первые годы советской власти с друтими захватчиками-красногвардейцами, в том числе трех сражениях в местностях Шагал купыр, Назархан и осаде крепости Нукусского гарнизона красногвардейцев. Однако после принятия первой Конституции нового государства (1922 г.) и осознав бесполезность дальнейшего сопротивления, по словам главы отряда красноармейцев Н.А.Шайдакова, «дикая дивизия» Хана махсума была расформирована. При этом процесс расформирования прошел цивилизованно, с составлением договора, где было предусмотрено отсутствие преследования бывших нукеров, в том числе и его самого.

Тем не менее, глава красноармейцев, как видно из дальнейшей судьбы Хана махсума, не сдержал своих обещаний. По ложным обвинениям Хан махсум дважды был привлечен к уголовной ответственности в 1922-1924 и 1929-1931 годах. Попытки выезда его семьи и родственников за пределы страны не увенчались успехом. Были арестованы и расстреляны без суда и следствия его старший брат Иниям ишан (1884-1929), братья отца Халила ахун (1844-1928) и Нажим ишан (1873-1928), как идеологические наставники народных восстаний.

РЕЗУЛЬТАТЫ. Несмотря на невостребованность в новых условиях, у Убайдуллы Бахауаддинова было желание служить новому общественному строю. Он избирался членом Совета временного правительства в Чимбае, имеется его подпись на достигнутом мировом соглашении и договоре, составленном между представителями народной власти и советского правительства от 18 февраля 1920 года. В 1934-1937 годах решением местных органов властей его семья была выслана в село «Амирабад», нынешнего Элликкалинского района Республики Каракалпакстан без прав выезда на за границу («Ак уйли»). Для содержания семьи он занимался изготовлением и продажей на Турткульском базаре детских колясок («адак арба»).

Из-за нескончаемых преследований со стороны местных правоохранительных органов Хан махсум в последние годы жизни (1937-1956 гг. был вынужден скрываться вдали от родного очага, в одиночестве, в селении «Катты ой» Кубатагского района Ташаузской области Туркмении. Там же на кладбище «Мискин Ата» он похоронен, где покоится прах отца Имам ишана Каипназар бия, и последней по счету четвертой жены Хана махсума, второго сына Дуйсека и внука Курбанназара.

Убайдуллы Бахауаддинова сыновья Муптилла, Дуйсек и Раметулла являлись участниками второй мировой войны, где без вести пропал и младший сын Бегдулла. Дочери Абадан, Сауле и Бийжан работали в различных сферах прежнего режима.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Имя Хана махсума, из-за отсутствия в действиях состава преступления, решением компетентных органов власти от 29 июля 1989 года, было окончательно реабилитировано и признано невиновным перед советским правительством. Вышеизложенные данные, на наш взгляд, вполне достаточны для принятия соответствующих решений на государственном уровне, чтобы увековечить память одного из ярких исторических деятелей Каракалпастана.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Усенов Е. Ишан қала. Ғайры журтлардағы қарақалпақлар. -Нөкис, 1992.
2. Усенов Е. Ханмақсым. -Нөкис, 1998.,
3. Даулетмуратов А. Хар заманға бир заман. -Нөкис, 2003.
4. Айымбетов Х. Тахтакөпир уллы дарбент устинде. -Нөкис, 2005.
5. Полевые записи автора-исследователя за 2009-2012 годы.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 392.181.151.9

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ONLAYN ADAPTIV TA'LIM TIZIMLARIDAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Kobulova Moxinabonu Avazbekovna,
Andijon davlat tibbiyot instituti,"Biologik fizika, informatika, tibbiy texnologiyalar" kafedrasi assistenti
O`zMU 3-bosqich tayanch doktoranti

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS FOR USING ONLINE ADAPTIVE EDUCATIONAL SYSTEMS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Mokhinabonu Avezbekovna Kobulova,
Assistant Professor, Department of Biological Physics, Informatics, and Medical Technologies, 3rd-year basic doctoral student, Andijan State
Medical Institute, National University of Uzbekistan

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОНЛАЙН АДАПТИВНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СИСТЕМ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Кобулова Мохинабону Авезбековна,
ассистент кафедры биологической физики, информатики и медицинских технологий Андижанского государственного медицинского института 3-го курса базовой докторантуры Национального университета Узбекистана

e-mail: mohinabonumk@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida onlayn adaptiv ta'lim tizimlaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari, ularning dolzarbligi, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdagi o'rni, shuningdek, adaptiv o'qitishning metodik va texnologik imkoniyatlari tahlil qilingan. Dunyo ta'lim tizimida qabul qilinayotgan yangi konsepsiyalar asosida adaptiv ta'limning o'rni, O'zbekiston oliy ta'limi kontekstida esa raqamli transformatsiya jarayonlari, me'yoriy-huquqiy asoslar va adaptiv texnologiyalarning tatbiq etilish mexanizmlari ilmiy manbalar asosida asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *adaptiv ta'lim, onlayn o'qitish, raqamli pedagogika, ta'lim sifati, kompyuter texnologiyalari, metodika, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.*

Abstract: *This article analyzes the scientific and theoretical foundations of the use of online adaptive learning systems in higher education institutions, their relevance, role in improving the quality and efficiency of education, as well as the methodological and technological capabilities of adaptive learning. The role of adaptive learning in the context of new concepts adopted in the world education system, and in the context of higher education in Uzbekistan, the processes of digital transformation, regulatory and legal frameworks and mechanisms for the implementation of adaptive technologies are substantiated on the basis of scientific sources.*

Key words: *adaptive learning, online learning, digital pedagogy, quality of education, computer technologies, methodology, person-centered learning.*

Аннотация: *В статье раскрыты научно-теоретические основы использования онлайн адаптивных образовательных систем в высших учебных заведениях. Рассмотрены актуальность проблемы, международные тенденции цифровизации образования, методические и психологические аспекты адаптивного обучения, а также нормативно-правовые основы развития цифровой образовательной среды в Узбекистане. Определены ключевые педагогические возможности, алгоритмические модели и технологические механизмы адаптивного онлайн-обучения.*

Ключевые слова: *адаптивное обучение, цифровая педагогика, онлайн-среда, индивидуализация, образовательная траектория, информационные технологии.*

Kirish. XXI asrda ta'limning raqamli transformatsiyasi jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha mo'ljallangan global ta'lim konsepsiyasida "ta'lim taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi" sifatida e'tirof etilishi bilan yanada dolzarblik kasb etmoqda. Raqamli pedagogik muhitning kengayishi oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mantiqiy, tizimli va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni tubdan yangilashni talab qilmoqda. Ayniqsa, aniq va texnologik fanlarni o'qitishda adaptiv onlayn tizimlarni tatbiq etish ta'limni individuallashtirish, ilmiy savodxonlikni oshirish, talabalar faoliyatini real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytirib bermoqda. Bugungi kunda dunyo bo'yicha interfaol, sun'iy intellektga asoslangan, algoritmik tahlil bilan boyitilgan ta'lim platformalarini yaratish va ularni ta'lim jarayoniga integratsiyalash ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. XXI asrda ta'limning raqamli transformatsiyasi global miqyosda tub o'zgarishlarni yuzaga keltirib, barcha davlatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda ham ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish zaruratini kuchaytirmoqda. UNESCO tomonidan qabul qilingan "Education 2030" xalqaro konsepsiyasida ta'lim jamiyat taraqqiyotining bosh harakatlantiruvchi kuchi sifatida e'tirof etilib, ta'lim tizimlarini raqamlashtirish, uzluksiz ta'limni rivojlantirish va shaxsga yo'naltirilgan ta'limni kuchaytirish global ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim muassasalarida onlayn adaptiv ta'lim tizimlarini joriy etish nafaqat texnologik ehtiyoj, balki ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik talab sifatida shakllanmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentning PF-5847-sonli farmoni bilan oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi va unda ta'lim jarayonini raqamlashtirish, masofaviy va onlayn ta'lim shakllarini keng joriy etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash asosiy vazifa sifatida belgilandi. Shuningdek, PF-60-son "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da raqamli ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish, sun'iy intellektga asoslangan ta'lim mahsulotlarini qo'llash va adaptiv ta'lim muhitini takomillashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qayd etilgan.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston pedagog olimlari tomonidan raqamli ta'lim texnologiyalari, onlayn o'qitish metodikasi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va adaptiv yondashuv bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, M.Aripovning tadqiqotlarida o'qitish jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etishning didaktik tamoyillari asoslab berilgan bo'lib, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirish adaptiv ta'limning muhim sharti sifatida ko'rsatilgan. M.R. Fayziyeva va F.M. Zakirova tomonidan shaxsga yo'naltirilgan ta'limning psixologik va pedagogik asoslari o'rganilib, talabalarning mustaqil fikrlashi, o'zlashtirishdagi individual farqlarni inobatga olish va o'quv jarayonida moslashtirilgan strategiyalarni qo'llashning ahamiyati yoritilgan.

Mahalliy ilmiy manbalar tahlilidan ko'rinadiki, O'zbekiston ta'lim tizimida adaptiv ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ilmiy salohiyat yetarli bo'lsa-da, ularning ko'pchiligi nazariy asoslar bilan cheklanadi. Mutaxassislar fikricha, raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini to'liq moslashtiruvchi dasturiy platformalar, algoritmik modellar, talaba faoliyati bo'yicha katta ma'lumotlar (big data) tahlili, real vaqt monitoring tizimlari hali yetarli darajada rivojlanmagan. Shu bois adaptiv ta'lim tizimlarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish, aniq fanlar uchun maxsus

metodik modullar yaratish, tibbiyot, texnika va tabiiy fanlarda qo‘llash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj mavjud.

Shu ma’noda, adaptiv ta’limning nazariy asoslarini chuqur o‘rganish, metodikasini takomillashtirish va amaliyotga tatbiq etish O‘zbekiston oliy ta’limining raqamli transformatsiyasini jadallashtirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasalarida onlayn adaptiv ta’lim tizimlaridan foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqot jarayonida xalqaro va mahalliy ilmiy manbalar, ta’limga doir normativ-huquqiy hujjatlar, adaptiv onlayn platformalarning texnologik modullari, shuningdek, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida qo‘llanilayotgan raqamli tizimlar o‘rganildi. Metod sifatida qiyosiy-tanqidiy tahlil, pedagogik kuzatish, sotsiologik so‘rovlar, eksperimental ishlar tahlili, matematik-statistik usullar qo‘llanildi. Tadqiqotda Andijon davlat tibbiyot instituti va Samarqand davlat tibbiyot universitetining jami 369 nafar talabasi ishtirok etdi.

Adaptiv ta’lim tizimlari joriy etilishining dolzarbligi shundan iboratki, ular talabalarning shaxsiy xususiyatlariga moslashtirilgan ta’limni amalga oshirish, o‘zlashtirishdagi individual farqlarni kamaytirish, mustaqil ta’lim madaniyatini rivojlantirish va o‘qituvchining analitik faoliyatiga ko‘maklashadi. O‘zbekiston oliy ta’limi sharoitida adaptiv tizimlarga o‘tish bo‘yicha normativ-huquqiy baza mavjud bo‘lsa-da, infratuzilmaning notekisligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyalaridagi farqlar, milliy kontentning cheklangani va o‘quvchilar haqidagi katta ma’lumotlar bazasining shakllanmaganligi mavjud muammolar sifatida qayd etiladi. Shu bois adaptiv tizimlar metodikasini ishlab chiqish nafaqat texnologik, balki didaktik, psixologik va tashkiliy jihatdan murakkab yondashuvni talab etadi.

Xulosa. Onlayn adaptiv ta’lim tizimlari oliy ta’limda innovatsion o‘qitish modellarini shakllantirish, talabalarning kognitiv faolligini oshirish, ta’lim sifatini nazorat qilish va individuallashtirilgan trayektoriyalarni yaratish imkonini beradi. O‘zbekiston oliy ta’limi raqamli transformatsiya bosqichida bo‘lganligi sababli, adaptiv ta’lim tizimlarini joriy etish ta’lim sifatini oshirishning eng samarali yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Kelgusida ushbu tizimni takomillashtirish ilmiy-uslubiy asoslarni yanada chuqurlashtirish, milliy adaptiv platformalarni yaratish va pedagoglarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Woolf B.P. Building intelligent interactive tutors: student-centered strategies for revolutionizing e-learning / B. P. Woolf. — Amsterdam; Boston: Elsevier (Morgan Kaufmann), 2008. — 312 s
2. Яценко Т.А. «Технологизированное обучение по литературе как тенденция развития современного образования» // Science and Education: a New Dimension. Pedagogy and Psychology, 2014, II(8), с. 141
3. Арипов Мирсаид Мирсиддикович, Файзиева Махбуба Рахимжановна, Доттоев Сайфулла Хамидуллаевич. Использование адаптивных обучающих систем в организации учебного процесса // International scientific review. 2016. №2 (12).
4. Kobulova M. A., Teshaboyeva Z. Направления совершенствования системы управления инновационной деятельностью Республики Узбекистан // *Xorazm Ma’mun Akademiyasi Axborotnomasi*. — 2023. — T. 11, № 2. — C. 192–196.
5. Kobulova M. A., Teshaboyeva Z. Совершенствование методов привлечения студентов к науке и исследованиям в вузах // *International Scientific Journal “Science and Innovation”*. — 2024. — Special issue: Transformation of education. — C. 438–440.
6. Kobulova M. A. Moslashuvchan onlayn o‘quv tizimlari va ulardan tibbiy ta’limda foydalanish // *Vestnik NUUz: Universiteti Xabarlari*. — 2024. — T. 1, № 9. — C. 107–109.
7. Kobulova M. A. Основные направления использования компьютерных технологий в адаптивных онлайн обучающих системах // *Universum: психология и образование*. — 2024. — № 10(124). — C. 14–16.
8. Kobulova M. A., Mamatkulova M. Sh. Адаптивные онлайн системы: путь к персонализированному цифровому миру // *Актуальные вопросы высшего образования – 2023*. — 2023. — C. 590–592.

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 82-14

ABDULLA ORIPOV VA ULMAMBET XO‘JANAZAROV FALSAFIY USLUBIDAGI MUSHTARAKLIK

Muxammeddin Bauetdinov, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

COMMONALITIES IN THE PHILOSOPHICAL STYLE OF ABDULLA ORIPOV AND ULMAMBET KHOZHANAZAROV

Mukhammeddin Bawetdinov, Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD) Karakalpak State University named after Berdakh

ОБЩИНЫ В ФИЛОСОФСКОМ СТИЛЕ АБДУЛЛЫ ОРИПОВА И УЛЬМАМБЕТА ХОДЖАНАЗАРОВА

Мухаммеддин Бауетдинов, Каракалпакский государственный университет имени Бердаха, доктор философии (PhD) по филологическим наукам

https://orcid.org/0009-0007-9826-175X
e-mail: kazimbekovich96@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada qoraqalpoq shoiri Ulmambet Xo‘janazarovning falsafiy uslubidagi ayrim xususiyatlar va uning o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandasi Abdulla Oripovning falsafiy uslubiga mushtarak tomonlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *lirika, falsafa, uslub, konsepsiya, maktub.*

Abstract: *The article analyzes some features of the philosophical style of Karakalpak poet Ulmambet Khojanazarov and his common aspects with the philosophical style of Abdulla Oripov, a bright representative of Uzbek literature.*

Key words: *lyrics, philosophy, style, concept, letter.*

Аннотация: *В статье анализируются некоторые особенности философского стиля каракалпакского поэта Ульмамбета Ходжаназарова и его общие черты с философским стилем Абдуллы Орипова, яркого представителя узбекской литературы.*

Ключевые слова: *лирика, философия, стиль, концепция, письмо.*

Kirish. Shoirlar tabiatan bir-biriga o‘xshamaydi. Ularning dunyoni tushunishi va anglashi, didi va o‘lchamlari har xil. Shuning uchun ham, ular doimo izlanishda, o‘zligini topish uchun harakatda bo‘ladi. XX asr qoraqalpoq lirikasida o‘z o‘rniga ega shoir Ulmambet Xo‘janazarov falsafasiga xos tushunchalardan biri bu – “o‘zingni o‘zing angla” asosidagi antropologik falsafaning konsepsiyasidir. Bevosita bu konsepsiyada “inson tabiati, uning kelib chiqishi va maqsadi, insonning hayotdagi o‘rni masalasi asosiy masalalardan” hisoblanadi. Bu shoir falsafasida materiyaga qarama-qarshi abstrakt tushunchalar bo‘lgan o‘y-fikrlar, ichki tuyg‘ular ta’sirida “o‘zingni o‘zingdan izlash” tarzida namoyon bo‘ladi. Akademik J.Bazarbayev ham: “…falsafiy o‘ylash insonning o‘zini o‘zi anglashidan boshlangan” [1,8] deya ta’kidlab o‘tgandi. Shoirning “Armon”, “O‘ylar”, “Baland xayollar”, “Jonim suygan narsaga”, “To‘xtama, to‘xtamagin ko‘nglim”, “Talpinaman yana”, “Ba’zi vaqtlari” she’rlarida mana shu xususiyatlarning uchqunlari ko‘rinadi. Mazkur she’rlarda lirik subyektning dunyoga, atrof-

muhitga munosabati, maqsad va niyatlariga intilishi, shu yo‘ldagi lirik subyekt va lirik obyektning dialektikasi ko‘zga tashlanadi. U.Xo‘janazarovning “Do‘stimga maktub”, “Mening ikki do‘stim bor” she’rlari “o‘zingni o‘zingdan izlash” konsepsiyasi asosida yozilgan bo‘lib, o‘tgan asrning 60-yillari qoraqalpoq she’riyati uchun yangilik bo‘lganligi bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar tahlili. Shoirning “Do‘stimga maktub” she’ri [2,31-37] kompozitsiyasi ikki qismdan tashkil topgan. Birinchi qismda lirik qahramon do‘stini o‘ylari bilan o‘rtoqlashishga, dardlashishga chaqiradi. Uning boshqalarga o‘xshamaydigan xarakterini ta’riflay turib, do‘stining ichki portretini chizadi. Unga ko‘ra, lirik qahramonning do‘sti ikkiyuzlamachi emas, sir ochmaydigan, shuhratparastlikdan yiroq. Shu xislatlar she’rning har bandida “o‘xshamaysan” refreni bilan boshlanib bayonlanadi:

Usamaysań, men aytsam taǵı:
Mártebesin kúsep bayaǵı
Kemshilikke jorta ashınǵan,
Bir búklemin ishte jasırǵan,
Kópti kórgen yar-doslarıma,
Keń peyili tar doslarıma (qoraqalpoq tilida).

She’rning ikkinchi qismida esa, lirik qahramonning xarakteriga xos belgilar ochilib boradi. Masalan, qalbidagi, ongidagi tashvishli o‘ylarni, odamlarga o‘z qarashlarini yashiradigan insonni quyidagi she’r satrlaridan payqaymiz:

Jasıraman máselen sennen:
Árwaq yańlı túsime engen.
Birewlerdi jek kórerimdi,
Bul dúnyaǵa kóp kórerimdi!
Jek kóriw hám jaqsı qásiyet,
Sebebi ol – ıqlas hám niyet,
Oyanarda boladı payda.
Sonlıqtan da altın sarayda, –
Bılayınsha “kewil” delingen, –
Oǵan máńgi orın berilgen (qoraqalpoq tilida).

Chidamlilik bilan o‘zini bosib olgan, ehtiroslarga berilmay, aql bilan ish ko‘radigan xarakter belgisini mazkur satrlardan sezish mumkin:

Mine, endi usı kárada,
Qáterege túser araǵa
Tózimlilik, aqıl-parasat.
Bılayınsha oylap qarasaq,
Bizler buǵan ırza bolmaymız,
Ózimizdi mázi zorlaymız,
Saltanatlı sındı buzbawǵa,
Qızatuǵın jerde qızbawǵa.
Bara-bara bunıń hámmesi,
Japsaq yańlı erteli-keshi,
Janımızǵa batadı hárwaq,
Miyimizge túsedi salmaq.
Mine, Dostım, usınnan baslap
Jas kókirekke salır hallaslap
Lepirmeymiz, óytkeni bizge
Nesip etken bolıw tırısqaq,
Aqıl sawashında urıspaq! (qoraqalpoq tilida).

Muhokama. Adabiyotshunos Ibrohim G‘afurovning ta’kidlaganidek: “Maktub, eng avval, fikrlashga, atrofga ser solishga, yaxshi-yomonni tanishga, har narsaga mustaqil baho berishga, o‘z fikriga ega bo‘lishga, kuzatuvchanlikka o‘rgatadi. Shuning bilan birga, maktub yozish inson ijtimoiy faoliyatining eng yorqin ko‘rinishlaridan biri”[3,78]. Haqiqatdan ham, shoirning “Do‘stimga maktub” she’rida Ibrohim G‘afurovning fikridagi xarakterli belgilar ko‘zga tashlanadi. Shu xususiyatlar obrazli gavdalantiriladi. Hayotning o‘zgaruvchan mavridlari haqida keng masshtabda fikrlash va mazkur fikrlarni keng ko‘lamdagi she’rda bir kompozitsiyada bir tizimga sola olish, atrof-muhit bilan ichki konflikt va uni obrazli tasvirlab berish Ulmambet Xo‘janazarov falsafasining teranligi va shoirlik mahoratini ko‘rsatadi. Mana shu uslubiy xususiyatlarni o‘zbek adabiyotida Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi kabi shoirlar lirikasida ham ko‘ramiz. Masalan, “Abdulla Oripov uslubini teran falsafiylik, sharqona donishmandlik, chuqur lirizm bilan belgilash mumkin”[4,229]. Shoirning lirik qahramoni inson hayotining o‘tkinchi ekanligini, unda yashashdan maqsad nima ekanligini anglash maqsadiga o‘ziga savollar beradi:

Nimani xohlayman? Istagim nima?
Changalzor shovqinin tinglab turaman.
Yaproqlar bandida kezgan jimgina
Ma’yus va bezovta kuzni ko‘raman.
Uning qo‘shig‘ida, uning ohida
Sezaman odamzod qalbin gohida[5,64].

Natijalar. Abdulla Oripov lirikasida ham “o‘zingni o‘zingdan izlash” konsepsiyasi

yetakchilik qiladi. U ko‘pincha avtobiografik, avtopsixologik xarakterda ko‘rinadi. Adabiyotshunos Adiba Davlatovaning ta’kidlashicha: “Abdulla Oripov hayotidagi har bir holat, yo‘lida uchragan yaxshi-yomon voqealardan ibrat oldi. Hayot yo‘lidagi muvaffaqiyatlar va yo‘qotishlar, umid va ishonchsizlik shoir ruhiyatida iz qoldirdi. She’rlaridagi vazminlik lirik qahramon bilan shoirning birligidan darak beradi. Shoirning o‘ziga xosligi falsafiy fikrni asar finalida berishi bilan tushuntiriladi”[6,113]. Falsafiy xulosani she’rning finalida berishga intilish U.Xo‘janazarov lirikasiga ham taalluqli. Shoir lirikasida fikrlar oqimi she’r so‘ngida keskin o‘zgarib, birdaniga falsafiy metaforizatsiyalangan fikrlar orqali xulosa chiqariladi. Mana shu nuqtayi nazardan A.Oripov va U.Xo‘janazarov lirikasida falsafiy fikrlarni berish usulida yaqinlik borligini ko‘rish mumkin. U.Xo‘janazarovning “Do‘stimga xat” she’ri finali ham kutilmagan fikr burilishida yakunlanadi:

Uyqılayjaqpan,
gáptiń haǵında
Uyqım kelmes,
qalǵan jaǵında
Xat kútemen seniń ózińnen,
Sen – ózińseń,
Men hám – ózimmen (qoraqalpoq tilida).

Xulosa. Demak, biz tahlil qilayotgan she’rdagi lirik qahramonning do‘sti – bu uning o‘zidir. Lirik qahramon o‘zining ichki portretini bera olishi, o‘zi bilan o‘zi sirlashishi, mazkur sirlashish va dardlashish davomida o‘zi yashab turgan muhit o‘rtasidagi konflikt natijasida hayotda o‘z qadrini yo‘qotmaydigan mangu falsafiy fikrlarni bayon qiladi. O‘tgan asrning 60-yillarida qoraqalpoq lirikasida inson ruhiy holatini va falsafasini bunday uslubda berish U.Xo‘janazarovning alohida yutug‘i sifatida ta’kidlab o‘tish o‘rinlidir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Базарбаев Ж. Әдеп философиясы. –Нөкис: Қарақалпақстан, 2010.
2. Хожаназаров У. Жылларым мениң. –Нөкис: Қарақалпақстан, 1976.
3. G‘ofurov I. Dil erkinligi. -Toshkent: Ma’naviyat. 1998.
4. Давронова М. Ҳозирги ўзбек шеъриятида индивидуал услуб поэтикаси (Усмон Азим, Иқбол Мирзо, Фахриёр ва Абдували Қутбиддин шеърияти мисолида). Филология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Самарқанд, 2019.
5. Орипов А. Руҳим. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1971.
6. Давлатова А. Абдулла Орипов шеъриятида поэтик тафаккур тадрижи. –Тошкент: Тафаккур, 2021.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 1:32(075).8

MUHAMMAD SHARIF JURJONIY HAYOTI, ILMIY FAOLIYATI VA INSON MA'NAVIY KAMOLOTIGA QO'SHGAN HISSASI

Bozorova Gulmira Mahmudovna, Buxoro davalat universiteti tayanch doktoranti

MUHAMMAD SHARIF JURJANI'S LIFE, SCIENTIFIC ACTIVITIES AND CONTRIBUTION TO HUMAN SPIRITUAL PERFORMANCE

Bozorova Gulmira Mahmudovna, basic doctoral student of Bukhara State University

ЖИЗНЬ, НАУЧНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И ВКЛАД МУХАММАДА ШАРИФА ДЖУРДЖАНИ В ДУХОВНОЕ РАЗВИТИЕ ЧЕЛОВЕКА

Бозорова Гульмира Махмудовна, докторант Бухарского государственного университета

https://orcid.org/0009-0008-1585-0282
e-mail: bozorovagulmira@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Muhammad Sharif Jurjoniy hayoti, ilmiy va falsafiy faoliyati, shuningdek, insonning ma'naviy va axloqiy kamolotiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Jurjoniy ijodida tafakkur, axloq, ma'naviyat va ta'lim-tarbiyaga oid muhim g'oyalar markaziy o'rin tutadi. Maqolada olimning asarlari va falsafiy qarashlari zamonaviy ijtimoiy-falsafiy kontekstda baholanadi hamda yosh avlodni ma'naviy tarbiyalashdagi ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Muhammad Sharif Jurjoniy, hayot, ilmiy faoliyat, ma'naviy kamolot, axloq, falsafa, ta'lim-tarbiyaviy meros.*

Annotation: *This article explores the life and scholarly-philosophical activity of Muhammad Sharif Jurjani, as well as his contribution to human moral and spiritual development. Jurjani's works emphasize the importance of reason, ethics, spirituality, and education. The study analyzes his writings and philosophical views in the context of contemporary socio-philosophical discourse and highlights their significance in fostering the moral and intellectual growth of younger generations.*

Keywords: *Muhammad Sharif Jurjani, life, scholarly activity, spiritual development, ethics, philosophy, educational heritage.*

Аннотация: *В статье рассматривается жизнь и научно-философская деятельность Мухаммада Шарифа Джурджани, а также его вклад в духовное и нравственное совершенствование человека. В творчестве Джурджани центральное место занимают идеи разума, нравственности, духовности и образования. Анализируются его труды и философские взгляды в контексте современного социально-философского знания, а также подчеркивается их значение для воспитания молодого поколения.*

Ключевые слова: *Мухаммад Шариф Джурджани, жизнь, научная деятельность, духовное совершенство, нравственность, философия, образовательное наследие.*

Kirish. Insoniyat tarixi davomida ma'naviyat, axloq va tafakkurning rivoji jamiyat taraqqiyotida muhim omil bo'lib kelgan. Shu jihatdan, Markaziy Osiyo, xususan Movarounnahr hududi o'zining boy ilmiy va madaniy merosi bilan ajralib turadi. Bu hududda yashab ijod qilgan olim va mutafakkirlar insonning aql, ma'rifat va axloqiy kamolotiga beqiyos hissa qo'shgan.

Xorijiy va mahalliy manbalar asosida o'rganilganda, Muhammad Sharif Jurjoniy (XIV-

XV asrlar) o‘z davrining eng yirik olim va ma’rifatparvar shaxslaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Uning ilmiy faoliyati falsafa, axloq, ta’lim-tarbiya va insonning ma’naviy dunyosi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, har bir asari zamonaviy ijtimoiy va ma’naviy muammolarni chuqur tushunishga yordam beradi.

Jurjoniy ijodining asosiy jihatlaridan biri shundaki, u insonni ma’naviy va axloqiy jihatdan kamol topishga chorlaydigan ilmiy va falsafiy g‘oyalarni tizimli ravishda ilgari surgan. Uning asarlarida tafakkur va axloqiy qadriyatlar bir-biri bilan uyg‘unlashib, shaxsiy kamolotning nazariy va amaliy asoslarini shakllantiradi. Shu bois, Muhammad Sharif Jurjoniy merosi nafaqat tarixiy manba sifatida, balki bugungi kunda inson ma’naviy kamolotini targ‘ib etuvchi zamonaviy ilmiy tadqiqotlar uchun ham beqiyos ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – Muhammad Sharif Jurjoniy hayoti, ilmiy faoliyati va uning inson ma’naviy kamolotini rivojlantirishga qo‘shgan hissasini tizimli tahlil qilish, shuningdek, uning ilmiy merosini bugungi yoshlar ma’naviyati va axloqiy tarbiyasida qo‘llash imkoniyatlarini aniqlashdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiy, falsafiy va adabiy manbalarni tahlil qilish, komparativ va interdisipliner yondashuvlar qo‘llanildi. Muhammad Sharif Jurjoniy hayoti va ilmiy merosi bilan bog‘liq primar va sekundar manbalar o‘rganilib, uning inson ma’naviy kamolotiga qo‘shgan hissasi nazariy va amaliy jihatdan baholandi. Shu bilan birga, ilmiy tafakkur, axloqiy qadriyatlar va pedagogik qarashlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun tarixiy-tahliliy va kontseptual metodlardan foydalangan holda sistematik tahlil olib borildi.

Sayyid Sharif Jurjoniy hayoti va ilmiy faoliyati:

1. Tug‘ilishi va nasabi. Sayyid Sharif Jurjoniy (Abulhasan Ali ibn Muhammad Mir Sayyid Sharif) 1340-yil 24-fevralda Astrobod (Jurjon) yaqinidagi Togu (Toju) qishlog‘ida tavallud topgan. U Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning shajarasiga 13 avlod orqali tutashgan Muhammad ibn Zayd nasabidan bo‘lgan. Amir Temur uning ilmiy salohiyati va sayyidligini alohida qadrlagan:

“Bahslarda va ilmlarda Taftazoniy hazratlaridan ustun bo‘lishi mumkin, biroq Jurjoniy hazratlari sayyidligi uchun ham bugun g‘olibdir”.

2. Ilk ta’limi va oliy ma’lumot olish yo‘li. yoshligidan bilimga chanqoq bo‘lgan Jurjoniy hazratlari ilk ta’limini qishlog‘ida olgan, so‘ng Hirotda mashhur olim Qutbuddin ar-Roziy huzurida dars olgan. Ustozining tavsiyasiga binoan Misrga Hazrat Muborakshoh al-Mantiqiy yoniga yo‘l olgan. Yo‘l davomida Anadoluda Muhammad Oqsaroyiy bilan uchrashgan, Oqsaroyiyning vafoti sabab Molla Fanoriy bilan birga Misrga yo‘l olgan.

3. Misrdagi ilmiy faoliyati. Misrda u 10 yil davomida Hazrat Muborakshoh al-Mantiqiydan aqliy, Hazrat Akmaliddin Babertidan naqliy ilmlarni olgan. Shu davrda u Shoir Ahmadiy, Shayx Badriddin, Hoji Ivaz Pasha kabi olimlar bilan ilmiy muloqotlarda bo‘lgan.

4. Sherozda mudarrislik va Amir Temur bilan munosabatlari. Misrdan qaytgach, u Sherozda Shoh Shuja tomonidan Dorush-shifo madrasasiga mudarris etib tayinlangan va 10 yil mudarrislik qilgan. 1387-yilda Amir Temur Sherozni ishg‘ol qilganida, Jurjoniy hazratlarining ilmiy va sayyidlik mavqeini bilib, unga alohida hurmat ko‘rsatgan va uyidan panoh topganlarga omonlik bergan. Shu sababli u Samarqandga taklif qilinadi.

5. Samarqanddagi faoliyati. Samarqandda Sayyid Sharif Jurjoniy o‘n sakkiz yil bosh mudarris sifatida faoliyat yuritgan. U o‘z ilmiy asarlarini shu davrda yaratgan.

1. Naqshbandiya tariqati shayxi Hoja Alouddin Attor va Mavlono Nizommidin Hamish bilan do‘stlik qilgan va tasavvufiy suhbatlarda bo‘lgan.

2. Alloma Taftazoniy bilan bir qancha ilmiy bahs va munozaralarda qatnashgan. Jurjoniy bahslarda ustun kelib, olimlar orasida va Amir Temur nazdida nufuzini oshirgan, natijada Movarounnahrdagi birinchi raqamli olim mavqeiga ko‘tarilgan.

6. Ilmiy merosi. Sayyid Sharif Jurjoniy diniy va dunyoviy ilmlarga oid 50dan ortiq asar yozgan. U kalom, fiqh, tafsir, hadis, falsafa, mantiq, astronomiya, matematika va arab tilini chuqur o‘rgangan. Asarlarining aksari sharh va

hoshiyalardan iborat bo‘lib, eng mashhurlari quyidagilar:

1. **Kalom:** “Sharh al-Mavoqif”, “Sharh al-aqoid al-azudiyya”, “Sharh al-asma al-husna”, “Risola fi-l-firqa an-najiya fi-l-mazahib”.

2. **Falsafa va mantiq:** “Hoshiya a’la sharh hikmati-l-a’yn”, “Risola fi-l-mantiq”.

3. **Arab tili:** “At-Ta’rifot”, “Sharh al-Izziy”.

4. **Fiqh:** “Hoshiya a’la sharh muxtasari-l-muntaho”, “Sharh al-faroiz as-sirojiyya”.

5. **Tasavvuf:** “Ar-Risola ash-shavqiyya”, “Ta’liq a’la a’varif al-maorif”.

6. **Tafsir:** “Hoshiya a’la-l-Kashshof”, “Tafsir az-zahrovayn”.

7. **Hadis:** “Ad-Diboj al-mazhab”, “Hoshiya a’la xulosa at-Tibiy”.

U o‘ta zakiy, fasohat va balog‘at sohibi, munozara yuritishda mohir va muhaqqiq olim sifatida tanilgan. Uning arab tili, kalom va meros ilmlariga oid asarlari bir necha avlod davomida ta’lim maskanlarida asosiy manba sifatida o‘qitilgan. Eng mashhur ilmiy merosi kalomga oid “Sharh al-Mavoqif”dir.

7. Vafoti va xotirasi. Sayyid Sharif Jurjoniy 1413-yil 6-iyulda Sherozda vafot etib, Atik Masjididagi Vaqf qabristoniga dafn etilgan. Hayoti davomida u nafaqat diniy, balki dunyoviy ilmlarga ulkan hissa qo‘shgan olim sifatida tarixda qoldi.

8. Amir Temur davrida ilm-fan va madaniyat rivoji. Jurjoniy hazratlarining Samarqanddagi faoliyati Amir Temur davrining ilm-fan va madaniyat rivojiga beqiyos hissa qo‘shishiga ham to‘g‘ri kelgan. Temur feodal tarqoqlikka barham berib, markaziy davlatni mustahkamladi, shaharlarni obod qildi va olimlar, jumladan, Jurjoniy, mavlono Abdulmalik, xoja Muhammad Zohid Buxoriy kabi mutafakkirlarni qo‘llab-quvvatlagan. Shu davrda Movarounnahrda Qur’on va hadis ilmlari, tarix, falsafa, musiqa, matematika va falakiyot keng rivoj topgan.

Amir Temur nafaqat qudratli sarkarda, balki ilm-fan va madaniyatga chinakam homiy bo‘lgan shaxs sifatida tarixda nom qoldirgan. Tarixiy manbalarda uning shaharlar qurilishi, obod qilinishi va ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi alohida qayd etiladi.

Temur saroyiga atoqli olimlar to‘plangan bo‘lib, ular orasida tarixshunoslar, roviylar, faqihlar, faylasuflar, munajjimlar, riyoziyotchilar, san’atkorlar va quruvchilar bo‘lgan. Ushbu olimlar yaratgan kitoblar Temur davrining ilmiy-madaniy holatini aks ettiradi va sohibqironning ilm ahliga bo‘lgan hurmatini namoyon etadi.

Tarixchi Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi” asarida ta’kidlanishicha, Temur qayerga borsa, nomi chiqqan olim-u ulamoni, quruvchi va ustalarni Samarqandga keltirgan. Shunday qilib, Samarqand ilm-fan markaziga aylangan. Ushbu davrda fiqh, hadis, tafsir, Qur’onshunoslik, falsafa, musiqa, tarix, ilmi nujum (astronomiya) kabi fanlarning yirik namoyondalari jam bo‘lgan. Jumladan, Mavlono Abdulmalik, No‘moniddin Xorazmiy, Sa’diddin Taftazoniy, Mirsayyid Sharif Jurjoniy, Shayx Shamsuddin Muhammad Muhojiriy, Xoja Muhammad Zohid Buxoriy, Abdulqodir Marog‘iy, Mavlono Ahmad va Nizomiddin Shomiy kabi olimlar faoliyat ko‘rsatgan.

Amir Temur katta kutubxonaga ega bo‘lib, unda turli fanlarga oid kitoblar to‘plangan edi, bu Mirzo Ulug‘bek kabi iste’dodli yoshlar uchun barcha sharoitni yaratgan. U olimlarga mehribon, sayyidu shariflarga yaqin, ulamolar va fozillarga hurmatli bo‘lgan, ular bilan mazmunli bahs yuritgan va insoniy adolatni saqlagan. Temur jismonan baquvvat, yuksak ma’naviyatli shaxs bo‘lib, olimlar davrasida turli fanlarni o‘rganib, davlat ishlaridan bo‘sh chog‘larda maslahatlar qilgan, xalq ertaklarini tinglagan.

Xulosa. Muhammad Sharif Jurjoniy nafaqat ulug‘ olim, faylasuf va mutafakkir sifatida, balki inson ma’naviy kamolotini yuksaltirishda muhim hissa qo‘shgan shaxsdir. U yoshligidan ilmga chanqoq bo‘lib, arab va fors dunyosining yetuk ulamolari huzurida naqliy va aqliy bilimlarni egalladi. Sheroz, Samarqand va Misrda olib borgan faoliyati davomida ko‘plab asarlar yaratib, kalom, fiqh, tafsir, hadis, falsafa, mantiq, tasavvuf va boshqa ilmlarda chuqur meros qoldirdi. Jurjoniy hazratlari ilmiy munozaralarda, xususan, Taftazoniy bilan olib borgan bahslarda bilim va tafakkur ustunligini namoyon etib, o‘z davrida olimlar orasida yuksak mavqe qozondi. U nafaqat diniy va dunyoviy ilmlarni rivojlantirdi, balki inson ma’naviy kamoloti va axloqiy fazilatlarini yuksaltirishga ham xizmat qildi. Shu tariqa,

TAMADDUN NURI

Muhammad Sharif Jurjoniy merosi nafaqat ilmiy, balki ma’naviy jihatdan ham asrlar davomida qadrlanib kelmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мустафоев Достон. Саййид Шариф Джуржоний ва унинг илмий мероси // Mazkur maqolada Jurjoniyning hayoti, ilmiy asarlari va u yaratgan ilmiy meros tahlil qilinadi.
2. Axmedov Bo‘riboy. Amir Temurni yod etib. T:. O‘zbekiston, 1996. 62-bet.
3. Ubaydulla Uvatov. Sohibqiron arab muarrixlari nigohida. Sharq nashriyot matbaa konserningi Bosh tahririyati. Toshkent -1997.
4. Jo‘raqulovich, S.J. Inson qadri va uning huquqlari eng oliy qadriyat: tarixiy-huquqiy meros. Ilm sarchashmalari/Urganch–*3.2023*, 19-21.
5. Jurakulovich, S.J. (2022). Attitude to human dignity in the period of Amir Temur and Temurids dynasty.
6. Xilda Xukxem. Властитель семи созвездий. T.: Adolat. 1995-y. 12-bet.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 94(575.1)"636":316.72

XORAZM VOHASI SULTON UVAYS TOG'I ILK ETNIK MAKON SAHIFASIGA DOIR BA'ZI BIR MULOHAZALAR

Matyaqubov Toyirjon Sulsanbayevich, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

SOME REMARKS ON THE EARLY ETHNIC SPACE PAGE OF SULTAN UWAYS MOUNTAIN, KHOREZM OASIS

Matyaqubov Toyirjon Sulsanbayevich, researcher at Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni

НЕКОТОРЫЕ ЗАМЕЧАНИЯ О РАННЕМ ЭТНИЧЕСКОМ ПРОСТРАНСТВЕ ГОРЫ СУЛТАН-УВАЙС ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА

Матякубов Тойиржон Сулсанбаевич, научный исследователь Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни

https://orcid.org/0009-0003-3991-0108
e-mail: minorgroup064@gmail.com

***Annotatsiya**: Maqolada Quyi Amudaryo Sulton Uvays tog'i hududida ilk neolit davri aholining joylashishi, etnik jarayonlarning rivojlanish bosqichlari yoritiladi.*

***Kalit so'zlar**: Vinogradov A.V., Kabirov J., Sagdullaev A., Shonazarov Sh.B., Egamberdieva N., Ibragimov R.Z., Vinogradova E.A., Xolmatov N.U., Turon, Qizilqum, Qoraqum, Sulton Uvays, Ustyurt, Toshkent, Zarafshon, Amudaryo, Burli-3.*

***Abstract:** The article discusses the settlement of the population of the early Neolithic period in the area of the Lower Amudarya Sultan Uvays Mountain, the stages of development of ethnic processes.*

***Keywords:** Vinogradov A.V., Kabirov J., Sagdullaev A., Shonazarov Sh.B., Egamberdieva N., Ibragimov R.Z., Vinogradova E.A., Kholmatov N.U., Turan, Kyzylkum, Karakum, Sultan Uvays, Ustyurt, Tashkent, Zarafshon, Amudarya, Burli-3.*

***Аннотация:** В статье рассматривается расселение населения раннего неолита в районе Нижнеамударьинского хребта Султан-Увайс, этапы развития этнических процессов.*

***Ключевые слова:** Виноградов А.В., Кабиров Дж., Сагдуллаев А., Шоназаров Ш.Б., Эгамбердиева Н., Ибрагимов Р.З., Виноградова Э.А., Холматов Н.У., Туран, Кызылкумы, Каракумы, Султан-Увайс, Устюрт, Ташкент, Зарафшан, Амударья, Бурли-3.*

TAMADDUN NURI

Kirish. Turon pasttekisligi shimoli-g‘arbida tevarak-atrofi cheksiz hudud Qizilqum va Qoraqum o‘rtasida Orol kabi joylashgan Xorazm vohasi geografik muhiti, antropogen landshafti, tabiiy resurslari zahirasi, aholining joylashishi bilan geologik jihatdan ulanib ketgan tabiiy-iqtisodiy hududlardan bir qator farqlanish holati mavjud bo‘lib, quyidagi xususiyatlarga ega:

-Vatanimiz hududining shimoli-g‘arbiy hududi chegarasida joylashishi;

-to‘rt tomoni ochiqligi;

-shimoliy hududdan sovuq shamollarning iqlim sharoitga ta’siri;

-g‘arbiy va janubiy hududdan Qoraqum qum sochma to‘lqinsimon uyumlarining bemalol kirib kelishi;

-janub tomonda issiq massalari ta’siri;

-xalqaro karvon yo‘li chorrahasida joylashishi;

-xalqaro karvon yo‘lini daryo transporti yo‘nalishiga chiqish imkoniyati cheklanganligi;

-osmono‘par tog‘lardan xoli ekanligi;

-Sulton Uvays tog‘i baland tog‘lar maqomiga ega emasligi, odamzotga suv zahirasi bilan mavsumiy xizmat qilishi, ammo tog‘-kon ashyosi bilan davomiylik xususiyati mavjudligi.

Mana shu geografik xususiyatlar ajdodlarimizni o‘zlashtirishi, moddiy, madaniyati, etnogenezi va etnik tarixida namoyon bo‘lishi.

Ushbu maqolada Xorazm vohasi shimolida geografik muhit xususiyatini aks ettirgan Sulton Uvays tog‘i etagiga ulanib ketgan hududni odamzot tomonidan o‘zlashtirilishi, tabiiy manbalardan unumli foydalanib, ilk kasbi-korlarini belgilab olgan Burli-3 manzilgohi neolit davri ilk bosqichlarida kundalik amaliy mashg‘ulotlarini olib borgan ajdodlarimizning tarixini yoritish nazarga olingan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xorazm tekisligini geografik o‘rni, iqlim sharoiti, antropogen landshafti, tabiiy resurslariga, serob bo‘lsa ham, ibtidoiy odamlar Ustyurt platosi, Toshkent vohasi, shimoliy Zarafshon, Farg‘ona vodiysiga qaraganda o‘rnashgan bo‘lsa, mazkur zamin odamzot tomonida kech o‘zlashtirilgan. Amudaryo suv sathi ko‘tarilishi natijasida Xorazm tekisligi ikki – o‘ng va so‘l hududlarga bo‘lingan. Geologik jarayonlarning bir necha marotaba takrorlanib turishi natijasida Xorazm vohasi tekislik sifatida tarkib topgan, uning geografik xususiyati to‘g‘risida tarixiy ma’lumotlar geografik olimlar tadqiqotlari natijalari ushbu mavzu mazmunini yoritishga xizmat qiladi. Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari Xorazm vohasida olib borgan paleogeografik, geomorfologiya tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, bundan 4-3,5 million yildan 500 ming yilliklar arafasida tekislik bo‘lgan bo‘lsa, Golosen davrigacha muzlik qoplagan.

Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari Sulton Uvays tog‘i hududlarida arxeologik dala amaliyoti davrida ro‘yxatga olingan Burli-3 manzilgohida amalga oshirilgan qazishma ishlari natijasida olingan moddiy ashyolarni ilmiy muomaladan keyin aniqlanishicha tosh davri so‘nggi bosqichiga oid bo‘lgan. Burli-3 manzilgohi ilk ona urug‘i davri ovchilari bo‘lib, ularni boshqarish tizimi “donishmand ona” rahnamoligida bo‘lib, ularning kasbi-korlarining boshlanish davri Pleystosen muzligi ustunligi davrida bo‘lgan.

Sulton Uvays tog‘i (471 m) balandligi uzoqdan ko‘rinib turgan, etaklari geografik holatini Vyurm muzligi tasvir qilgan.

Mil.avvalgi 12 ming yillikka kelganda havo harorati ko‘tarilishi munosabati bilan muzlik shimoliy tomon siljishi natijasida tekislik yanada sernam va serunum bo‘lgan. Burli-3 manzilgohi ovchilari tabiiy resurslar xizmat qilganligi bois, mezolit va ilk neolit davrlaridan mil.avv. IV ming yilliklargacha Sulton Uvays tog‘i kon-ashyosi kvarsit va chaqmoqtosh Burli ustaxonasida ishlov berib, tosh qurollari (Nukleuslar, nayza tog‘i qul chopqisi, qirg‘ich, teshgich, Girdishsimon qurollar bo‘lib, ular modernizatsiya qilingan qurollar – turli shaklda qirg‘ichlar, toshni qayta ishlash, silliqlash, turli uchirmalari asosida ishlab chiqarilgan mehnat qurollari mil.avv. VII- ming yillik oxiri – V ming yillik o‘rtalariga oid bo‘lgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Obyektivlik, tarixiy xronologik izchillik, nazariy-qiyosiy tahlil, munozara, umumlashtirish, mantiqiy xulosa, arxeologiya, geografiya, etnografiya, paleogeografiya tadqiqotlari natijalaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Xorazm ekspeditsiyasi asarlari hamda mahalliy tadqiqotchilarning asarlarida qayd qilingan axborotlar geografiyasi asosida Sulton Uvays tog‘i etagiga ulanib ketgan hududning pleystosen muzligi, muzlik chekingandan keyingi tarixiy davrlar – mezolit, ilk

neolit davri Burli-3 manzilgohi urug‘-jamoalarining murakkab tarixiy sharoitda olib borgan kundalik faoliyatlari tarixi tahlil qilindi, shu ma’noda natijalar quyidagicha qayd qilindi.

- Geologik jarayonlar natijasiga ko‘ra Xorazm tekisligi shimoliy hudud yuzasini Sulton Uvays tog‘i tasvir qilgan;

-Mil.avv.500-ming yillikdan 12-ming yilliklarda Sulton Uvays tog‘i balandligi holati saqlanib qolgan, uning ustki qismi qor bilan qoplanib, uzoqdan oq rangini uzoqdan kuzatish mumkin bo‘lgan, uning etaklari geografik hududni muzlik qoplagan. Mazkur geografik sharoitda Burli-3 manzilgohida o‘rnashgan odamzot etnik munosabatlarni olib borgan, bu jarayon mil.avvalgi IV ming yillikkacha davom etgan.

Yuqorida qayd qilingan tarixiy ma’lumotlarni nazariy-qiyosiy tahlil asosida quyidagi Xulosa va takliflarni ishlab chiqish mumkin.

Xulosalar quyidagicha izohlandi:

-Geologik jarayonlarni bir necha marotaba takrorlanishi natijasida Xorazm tekisligi tarkib topgan bo‘lib, uning shimoliy hudud paleogeografik holatini Sulton Uvays tog‘i tasvir qilgan.

- Mil.avv.80-12-ming yilliklar Pleystosen muzligi sharoitida Sulton Uvays tog‘i ibtidoiy ovchilarning ilk makoni Burli-3 bo‘lgan.

- Sulton Uvays tog‘i etagiga ulangan hudud tabiiy resurslari, tog‘-kon ashyosi Burli ovchilari vorislari ota-bobolari kasbi-korlarini olib borishiga imkon bergan, qo‘shni hududlarga tarix taqozosiga ko‘ra, ko‘chish obyekti bo‘lgan, shu ma’noda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Xorazm tekisligi o‘ziga xos xususiyatini paleogeografik geomorfologiya va etnogeografiya tadqiqotlari asosida yanada o‘rganish;

2. Shu tadqiqotlar asosida Xorazm tekisligida kechgan etnik jarayon tarixiga oid tadqiqot yaratish;

3. Pleystosen muzligi va Golosen davrlarida antropogen landshaft va aholining joylashish xususiyatlarini arxeologik tadqiqotlar asosida keng ma’noda o‘rganish kabi takliflar ilgari surildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Vinogradov A.V. Неолитические памятники Хорезма. -M:Наука, 1968. Вып.-8.

2. Kabirov J, Sagdullaev A. O‘rta Osiyo arxeologiyasi. -Toshkent, O‘qituvchi, 1990.

3. Shonazarov Sh.B. Geo arxeologiya-Toshkent, 2019.

4. Egamberdiyeva N. Arxeologiya-Toshkent, 2011.

5. Ibragimov R.Z. O‘rta Osiyo arxeologiyasi. -Toshkent, 2020.

6. Виноградова Э.А. Первые палеолитические находки в Султануиздаге //Приаралье в древности и средневековье. -M: ИВЛ РАН, Наука, 1998.

7. Xolmatov N. O‘zbekiston neolit davri jamoalarining moddiy madaniyati. - Toshkent: Fan, 2008.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 398.8:821.353.3

XALQ QO‘SHIQLARINING TARIXIY VA BADIIY AHAMIYATI

Allambergenova Patima, Qoraqalpoq davlat universiteti “Qoraqalpoq adabiyoti” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

HISTORICAL AND ARTISTIC SIGNIFICANCE OF FOLK SONGS

Allambergenova Patima, Associate Professor of the Department of “Karakalpak Literature” of Karakalpak State University, Candidate of Philological Sciences

ИСТОРИКО-ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ НАРОДНЫХ ПЕСЕН

Алламбергенова Патима, доцент кафедры каракалпакской литературы Каракалпакского государственного университета, кандидат филологических наук

https://orcid.org/0000-0002-0218-2667
patima.allambergenova@bk.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qoraqalpoq xalq qo‘shiqlarida tarixiylikning tamoyilining o‘ziga xos xususiyatlari keng ochib beriladi. To‘lg‘ovlarning badiiy-estetik xususiyatlari, kompozitsiyasi va ramziy obrazlari orqali xalq xotirasi va qadriyatlarini aks ettirishi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *folklor, xalq qo‘shiqlari, tarixiy haqiqat, terme-to‘lg‘ov janri, No‘g‘ayli, Turkiston, Xorazm davri, baxshi, variant.*

Annotation: *This article extensively reveals the specific features of the principle of historicism in Karakalpak folk songs.The artistic and aesthetic features of tolgov, its composition and symbolic images reflect the memory and values of the people.*

Keywords: *folklore, folk songs, historical truth, terme-tolgov color, Nogai, Turkestan, Khorezm period, bakhshi, variant.*

Аннотация: *В статье широко раскрываются особенности принципа историчности в каракалпакских народных песнях. Художественно-эстетические особенности толгов, их композиция и символические образы отражают память и ценности народа.*

Ключевые слова: *фольклор, народные песни, историческая реальность, жанр терме-толгов, Ногайлы, Туркестан, Хорезмский период, бахши, вариант.*

KIRISH. Qoraqalpoq og‘zaki ijodida, ayniqsa baxshilar repertuarida, asrlar davomida avlod-dan-avlodga og‘zaki yo‘l bilan yetib kelgan, shakllanib, badiiy jihatdan yetuklashgan ko‘plab tarixiy to‘lg‘ovlar va termalar mavjud. Ushbu ijodiy yodgorliklar nafaqat xalqning estetik didi va badiiy-mahoratini aks ettiradi, balki ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni ham yoritadi.

Shu turdagi asarlar orasida “Ormambet biy”, “No‘g‘ayli”, “Ormambet biy o‘lganda” kabi to‘lg‘ovlar alohida e’tiborga loyiqdir. Ular orqali qoraqalpoq xalqining tarixiy hayoti, ko‘chish manzaralari, yashash va ijtimoiy muhitdagi o‘zgarishlari hamda xalq tarixining muhim burilish nuqtalari san’atkorona tasvirlangan. Bu to‘lg‘ovlar nafaqat badiiy-estetik qadriyat sifatida, balki qoraqalpoq xalqining tarixiy xotirasini o‘zida aks ettirib kelayotgan muhim folklor manbalari sifatida ham ilmiy ahamiyatga ega.

ASOSIY QISM. Asosan xalq qo‘shiqlari, xalq hayotining ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy va madaniy qirralarini o‘rganishda qimmatli manba sifatida xizmat qiladi. “Ormambet biy”, to‘lg‘ovi mazmun-mohiyatiga ko‘ra, No‘g‘ayli qavmlariga mansub elatlar, jumladan, qoraqalpoq xalqining tarixiy hayotini epik obrazlar orqali yoritadi. Unda tashqi bosqinlar va siyosiy bosim tufayli xalqning Edil-Jayiq (Volga-Ural) bo‘ylaridan Turkiston sari,

undan esa Xorazm o‘lkasiga ko‘chishga majbur bo‘lgani keng tarixiy-badiiy talqin qilinadi. Asar qahramonlarining ijtimoiy mavqei, ularning xalq orasidagi nufuzi, shuningdek tarixiy voqealarning epik umumlashmalari to‘lg‘ovning badiiy-estetik qimmatini yanada oshiradi. Baxshilar orasida “Ormambet biy”ni bilmaydigan birorta ijodkorning yo‘qligi, asarning an’anaviy meros sifatidagi yuksak maqomini tasdiqlaydi. Har bir jirov, baxshi o‘z ustozidan aynan shu to‘lg‘ovni mukammal o‘zlashtirgachgina shogirdlik yo‘lini boshlab, epik an’anani davom ettirish huquqiga ega bo‘lgan. Bu holat to‘lg‘ovning nafaqat badiiy, balki ma’naviy-tarbiyaviy ahamiyatini ham namoyon etadi.

1.**Tarixiy davrlar:** “Ormambet biy” to‘lg‘ovi bir qancha muhim tarixiy davrlarni o‘z ichiga oladi. Unda XVI asrning o‘rtalarida qalmoq bosqinchilarining bosimi natijasida boshqa elatlar qatori qoraqalpoq xalqining ham Edil-Jayiq (Volga-Ural) bo‘ylaridan Turkistonga ko‘chishi va undan keyin Xorazm vohasiga joylashish jarayoni keng yoritiladi. Ushbu voqealar epik talqin orqali xalqning hayot-mamot kurashi, ijtimoiy ko‘chishlar va siyosiy beqarorlik sharoitida kechgan tarixiy qismatini ifodalaydi. Masalan:

Edil eldiń besigi,
Edilde de turmadıń,
Jayıq jerdiń besigi,
Jayıqta da turmadıń [3; 144].

2. Kompozitsion qurilishi. “Ormambet biy” to‘lg‘ovining boshqa to‘lg‘ovlardan ajralib turuvchi asosiy xususiyatlaridan biri uning kompozitsion qurilishidadir. Asarning kirish qismida xalqning Edil va Jayiq bo‘ylaridan ko‘chishga majbur bo‘lish sabablari bayon qilinadi. To‘lg‘ovda tilga olinadigan No‘g‘ayli xoni Ormambet biy tarixiy manbalarda 1583-1595-yillarda Edil-Jayiq hududlarida xonlik qilgan Oqqas biyning avlodi sifatida ko‘rsatiladi[4;8].

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston filiali qo‘lyozmalar fondida ushbu to‘lg‘ovning turli yillarda turli jirovlardan yozib olingan ko‘plab variantlari saqlanadi. Bu variantlar mazmuni va badiiy tuzilishi jihatidan bir-biriga juda yaqin bo‘lib, ularda uchraydigan kichik o‘zgarishlarni hisobga olmaganda, deyarli umumiy epik asosni tashkil etadi[2;18].

To‘lg‘ovning xalq orasida saqlangan asl nusxasi mavjud emas. Ko‘p bora bosqinlarga uchragan, ko‘chishlar va yurishlar oqibatida o‘z yashash joyini tez-tez o‘zgartirishga majbur bo‘lgan xalqlarda odatda asarning dastlabki original nusxasini topish dushvor. Shunga qaramay, quvonarli jihat shundaki, Qoraqalpog‘istonning deyarli barcha hududlarida ushbu to‘lg‘ov keng tarqalgan bo‘lib, uni nafaqat jirov-baxshilar, balki oddiy xalq orasida ham yaxshi biluvchilar anchagina bo‘lgan. “Ormambet biy” to‘lg‘ovining yozib olingan variantlarini solishtirganda, ularning ayrimlari juda qisqa, boshqalari esa hajman ancha yirik ekani kuzatiladi. Masalan, 1970-yilda Shumanay tumanida madaniyat uyida ishlagan mashhur Esemurat jirovning shogirdi Jumabay Bazarov ijrosidan 300 qatordan iborat to‘lg‘ov varianti qayd etilgan. Bu namuna 1971-yilda filologiya fanlari doktori, marhum N.Japaqov tomonidan magnit tasmasiga yozib olingan.

To‘lg‘ov quyidagicha boshlanadi:

Burınǵı ótken zamanda,
Artıw – artıw tawlardan,
Zamannıń áwel shaǵında,
Asa kóshti kóp noǵay,
Noǵaydıń tolı úyinde,
Edil menen Jayıqtan,
San mıń xalıqlı úy boldı,
Jabıla kóshti kóp noǵay [6].

To‘lg‘ovning keyingi bo‘limlarida xalqning Sarısha suluvga qilgan iltijolari, unga Sarısha tomonidan berilgan javoblar, ya’ni xalqning kelajakka doir bashoratlari va umidlari Sarısha suluvning tilidan ifodalanadi. Yuqorida keltirilgan parchani o‘zidayoq “No‘g‘aylilar” uyushmasiga birlashgan ko‘plab qabila va urug‘larning, turli xalqlarning tarixiy hayoti bayon etilganini ko‘rish mumkin. “No‘g‘aylilar” birligining yemirilishi, Ormambet biyning vafoti, qalmoqlar bosqinining kuchayishi kabi omillar natijasida xalqning sarson-sargardon bo‘lishi, o‘zining qadimiy makoni bo‘lgan Edil-Jayiq (Volga–Ural) bo‘ylaridan Sirdaryo Turkiston tomonga ko‘chishi to‘lg‘ovda aniq va izchil tarzda yoritiladi.

3. Tarixiy asoslari va badiiy ahamiyati. Jirovlar ko‘p ijro etgan “Ormambet biy o‘lganda” to‘lg‘ovining tarixiy asoslari bir necha davrni qamrab olishi bilan ajralib turadi. Asarda XVI–XVIII asrlardagi siyosiy-ijtimoiy tuzum o‘zgarishlari, Oltin O‘rdaning qulashi ortidan XIV–XVI asrlarda No‘g‘aylilar uyushmasining shakllanishi hamda uning yemirilishiga sabab bo‘lgan tarixiy omillar haqida so‘z yuritiladi.

Shuningdek, bosqinlar ta'sirida Turkiston va Xorazm hududlarida yuzaga kelgan keyingi tarixiy jarayonlar ham to'lg'ovda bashorat va epik umumlashmalar shaklida ifoda etiladi. Mazkur davrlar haqida ilmiy izlanishlar olib borgan tarixchi va adabiyotshunos olimlar - P.P.Ivanov, S.P.Tolstov, V.M.Jirmunskiy, T.A.Jdan'ko M.O.Auezov, M.K.Nurmuxammedov, I.Sagitov, Q.Ayimbetov, Q.Maqsetov va boshqalarning tadqiqotlarida ushbu mavzuning keng qamrovli tahlil qilinganligi ma'lum. "Ormambet biy o'lganda" nomli tarixiy to'lg'ovni adabiyot tarixida kengroq tahlil qilishga harakat qilgan tadqiqotchilar sifatida N.Dawqaraev va Q. Ayimbetovlarni ko'rsatish mumkin[5]. Filologiya fanlari doktorlari N.Dawqaraev va Q.Ayimbetovning ilmiy ishlari to'lg'ovning tarixiy asoslariga qisqa to'xtaladi hamda uning mazmunini umumiy tarzda tanishtiradi. Mazkur to'lg'ov Sarısha suluvning tilidan, xalqning umumiy o'tmishi va tarixiy taqdiri sifatida, bosqinlar ta'sirida sarson bo'lgan elatning kelajak haqidagi tashvishlari va bashoratlarini ifodalaydi. To'lg'ovning dastlabki kirish qismida qadimiy voqealar tasvirlanadi. Avvalo, xalq - no'g'aylilarning Edil-Jayiq bo'ylarida minglab uyli el bo'lgani, Ormambet biy hukmronlik qilgani, keyinchalik uning vafoti tufayli "xalqning No'g'ay uyidan ayrilgani", ya'ni No'g'ayli ittifoqiga birlashgan elatlar boshiga tushgan og'ir vaziyat bayon qilinadi. Shu bilan birga, Edil-Jayiqni tark etgan xalq hamda Ormambet biydan qolgan Sarısha suluv obrazlari o'quvchiga tanishtiriladi.

Ikkinchi yo'nalishda esa xalq boshiga tushgan mushkul ahvol, biylarning bu og'ir holatdagi maslahati, xalqning kelajagi haqida Ormambet biyning kenja qizi Sarısha suluvdan maslahat so'rashi kabi chuqur mazmunli va teran g'oyalarga boy sahnalar poetik izchillikda yoritiladi.

Noǵaylınıń elinde,
Máslahatlasıp keńesti,
Qádeli ósken qariyası,
Nasharda bolsa shul qızdı,
Jigerli ósken jigiti,
Shaqırıp keńes qurayıq,
Jámaatı jıynalıp,
Shaqırıp xalqım kel dedi[2].

"Ormambet biy" to'lg'ovining e'tiborli jihatlari juda ko'p bo'lib, unda bir qator tarixiy voqealar o'zaro izchil tarzda kuylanadi. Voqealar mazmuni so'zlarning ritmi, qofiyasi va badiiy tasvir vositalari orqali san'atkorona va ta'sirchan tarzda yetkaziladi. Shu bois, to'lg'ov nafaqat tarixiy manba sifatida, balki qoraqalpoq og'zaki ijodining badiiy yuksak namunasi sifatida ham qadrlidir.

Aspentayjan qılısh qırı shoyındı,
Qarsı kelgen dushpan kózi oyıldı,
... Qalıń noǵay úy boldı,
San mıń noǵay búlgen de,
Jámaatı jám boldı,
Ormambettey biylerden,
Bir tóbege jámlesti,
Ul qalmadı , qız qaldı,
Máslahatlesip, keńesti,
Sebil orda tul qaldı,
Ormambet biy ólgende. [2]
Alǵır qustıń pánjesi,
Úsh qızınıń kenjesi,
Sarısha sulıw der edi[2].

Yuqorida ta'kidlangan jihatlar to'lg'ovning o'ziga xos poetik manba ekanini yaqqol ko'rsatadi. Unda epitetlar, metaforalar va alliteratsiyalar o'rinli va ta'sirchan tarzda ishlatilgan. To'lg'ov Sarısha suluvning tilidan, ya'ni butun xalq nomidan so'zlashiga qaramay, "Ormambet biy o'lganda" deb nomlanganiga hayron qolmaymiz. Ehtimol, to'lg'ov No'g'aylilarga bag'ishlangani uchun uning nomi Ormambet biy bilan bog'lanib, to'g'ri ifodalangan. To'lg'ovning mazmuniga chuqurroq nazar solganimizda, xalq Sarısha go'zalni ham yuqori baholaydi**.** To'lg'ovda Sarısha yaxshidan, valiydan qolgan yagona tuyoq, yagona zurriyot deb ta'riflanadi; hatto "so'nmas chiroqsan" deb uni xalqning so'zlar tili va kelajagi sifatida ramziylashtiriladi.

- Há, Noǵayım, Noǵayım,
Aldıńnan basshı ketken soń,
Xalqım posıp kósherseń,
Sarazbanlı sarı taw,
Táwke xannıń jurtı edi,
Qoqan degen ullı jurt,
Islam xannıń jurtı edi,
El-jurtınnan ayrılıp,
Etikli suw kesherseń... [2]

To'lg'ovda xalqning Edil-Jayiqdan Turkiston, Sirdaryo bo'yiga ko'chishi, shuningdek, to'rt oy o'n kunlik yo'l bosib Urganch-Xorazmga yetishi va bu hududlardagi ko'plab tarixiy joylarning nomlari aniq berilgan.

"Ormambet biy o'lganda" to'lg'ovining ahamiyati shundaki, u tarixiy haqiqatni – ota-

bobolarimiz bosib o‘tgan yo‘llar va tajribalarni aniq va ishonchli tasvirlaydi. To‘lg‘ov bir necha davrlarni qamrab olib, avloddan-avlodga og‘zaki ijod orqali yetib kelgan xalq talanti bilan ifodalanadi. Ushbu epik ijod No‘g‘ay davridan boshlab keyingi davrlargacha xalqning ko‘chishi va yashash joylarini o‘zgartirish tarixini badiiy shaklda yoritadi, shu bilan birga og‘zaki ijod namunalarining eng qadimgi tarixiy manbalaridan biri sifatida qadrlanadi.

Sarısha go‘zal to‘lg‘ovni yakunlar ekan, o‘z xalqiga beradigan nasihat so‘zlari baxshilar tomonidan shunday ta’riflangan:

-Ormambettiń genjei,
Shın wáliydiń kózi edi,
Xalqı keńes soraǵanda,
Aldın boljap kóplerge,
Aytıp ketken sózi edi[2].

“Ormambet biy o‘lganda” to‘lg‘ovini kamchilikdan xoli, mukammal asar sifatida baholash niyatidan yiroqmiz. To‘lg‘ov ijro etish jarayonida, ba’zi jirovlarning shaxsiy qarashlari aks etgan, bir qator noaniq yoki farqli satrlar uchraydi. Shunga qaramay, bu holat to‘lg‘ovning badiiyatiga soya sololmaydi.

Adabiyotshunos, Q.Ayimbetov ta’kidlaganidek: “To‘lg‘ovda Sarısha suluv xalq nomidan so‘zlasin yoki so‘zlamasin, bu tarixiy asardagi xalq-ning orzusi, ko‘rgan qiyinchiliklari, dard-u g‘am-larini ifodalaydi. Ormambet biy va Sarısha tarixda sodir bo‘lgan muhim shaxslar sifatida namoyon bo‘-ladi. Eng muhimi, bu tarixiy voqea xalq jirov-bax-shilari tomonidan uzoq yillar davomida kuylanib, shu kunga qadar yetib kelganidir”[1;45]. Shu bois, xalq orasida keng tarqalgan “Ormambet biy o‘lgan-da” to‘lg‘ovining deyarli barcha variantlarida, No‘g‘ay-lar ittifoqiga birlashgan qoraqalpoqlarning uzoq o‘t-mishdagi yashash sharoitlari, tarixiy va ijtimoiy hayoti keng yoritiladi. To‘lg‘ovning badiiyligi va tilining xalq uchun tushunarli, ravon bo‘lishi uning asosiy o‘ziga xos xususiyatidir.

“Ormambet biy” to‘lg‘ovi bilan hamohang holda, unda so‘z etiladigan Asan qayg‘u va Soppasli Sipira jirovlarning ko‘plab terma-to‘lg‘ovlari ham mavjud. Xalq og‘zidan yozib olingan “No‘g‘ayli”, “Zamonda”, “Ormambet biy o‘lgan kun”, “El ekan”, “Talon bo‘ldi dunyo-mol” va shunga o‘xshash qatorlar bilan boshlanadigan terme-to‘lg‘ovlarda ham xalqimizning tarixiy kun ko‘rishi, tilaklari va kelajak orzulari, shuningdek hukmron guruhlarga qarshi olib borilgan xalq kurashlari o‘z tasvirini topgan. Ushbu terme va to‘lg‘ovlarga alohida to‘xtalmadik.

XULOSA. Biz, No‘g‘aylar davrini va undan keyingi davrlarni so‘z etuvchi “Ormambet biy” qo‘shig‘i hamda “Ormambet biy o‘lganida” to‘lg‘ovini namuna sifatida tahlil qildik. Tahlilga kiritilmagan terma-to‘lg‘ovlarda ham xalqimizning tarixiy turmushi aks etadi, bu asarlar bir-birini to‘ldiradi. Shuningdek, bu to‘lg‘ovlar tarixiy shaxslar va xalqning ko‘chib yurishlari, qo‘nim topgan tarixiy joylari haqida to‘liq ma’lumot beradi. Shu tariqa, tarixiy voqealar mohirona va badiiy shaklda aks ettiriladi. Tarixiy qo‘shiq deb hisoblangan terma-to‘lg‘ovlarning ham o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. To‘y-yig‘inlarda jirov-baxshilarimiz o‘zining aytib yurgan dostonlarini boshlamasdan avval didaktik xarakterdagi terma-to‘lg‘ovlarni aytib, ko‘pchilikning tanlovi bo‘yicha dostonlarning birini aytishga o‘tadi. Dostonlar tanlanguncha terme-to‘lg‘ovlar aytiladi.

Tarixiy to‘lg‘ovlarning kompozitsion tuzilishi bo‘lib, unda tarixiy voqealar va tarixiy shaxslar tasvirlanadi. Didaktik va tarixiy termalar butunlay maqol-matallardan iborat bo‘lib, ikki predmetni bir-biriga solishtirib, hayotiy nasihatli yechimlarni beradi va hajmli to‘lg‘ovlarga qaraganda juda qisqa bo‘ladi.

Natijada, birinchi navbatda tarixiy voqea-larning san’atkorona, badiiy ifodalanishi asosiy o‘rinni egallaydi. Shu orqali to‘lg‘ovlar nafaqat voqea-hodisalarning xronologik bayoni, balki xalqning qadriyat va qarashlarini uzluksiz ravishda avloddan-avlodga yetkazuvchi epik san’at shakli sifatida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Айымбетов Қ. Халық даналығы. Нөкис, ҚҚМБ, 1968.
2. Айымбетов Қ. Автордың дала жазыўлары, 1970, Шымбай районында болған экспедиция материаллары.
3. Мәмбетов К. Әйййемги қарақалпақ әдебияты (Қарақалпақ әдебиятының қәлиплесиў жоллары), Нөкис, Қарақалпақстан, 1976.
4. Мәмбетов К. Қарақалпақлар тарийхы. (Илимий изертлеў) Нөкис, Қарақалпақстан, 1993.
5. Дәўқараев Н. Қарақалпақ әдебият тарийхының очерклери. (1-бөлим), Нөкис, Қарақалпақстан, 1977.
6. Қожықбаев Ә. Тарийхый қосықлар. Нөкис, Қарақалпақстан, 1980.

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 796.08

DZYUDO KURASHIDA KO‘P YILLIK TAYYORGARLIK JARAYONINING ZAMONAVIY USLUBLARI

Iskandarov Nurbek Sharifboyevich, Urganch davlat universiteti Sport faoliyati, pedagogika va psixologiya fakulteti ”Yakka kurash” kafedrasi professori

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ МНОГОЛЕТНЕЙ ПОДГОТОВКИ СПОРТСМЕНОВ ПО БОРЬБЕ ДЗЮДО

Искандаров Нурбек Шарифбоевич, профессор кафедры ”Единоборства” факультета Спортивной деятельности, педагогики и психологии Ургенчского государственного университета

MODERN METHODS OF THE MANY-YEAR PREPARATION PROCESS IN JUDO WRESTLING

Iskandarov Nurbek Sharifboyevich, professor, Department of ”Single Wrestling” of the Faculty of Sports Activities, Pedagogy and Psychology of Urgench State University

https://orcid.org/0000-0001-9425-9926
e-mail: iskandarovnurbek809@gmail.com

Annototsiya: *So‘nggi yillarda dzyudo sporti dunyoning ko‘plab mamlakatlarida eng ommabop sport turlaridan biriga aylangan. Yurtimizda ham ushbu kurash turi bilan minglab yoshlar shug‘ullanmoqda. BO‘SM, O‘ZIBO‘SM, OSMM, Olimpiya zahiralari kollejlari, turli sport jamiyatlari, bolalar sporti majmualari va sport markazlarida muntazam mashg‘ulotlar olib borilmoqda. Hozirgi davrda sport mashg‘ulotlarini ilmiy asoslangan shaklda yo‘lga qo‘yish, yuqori darajadagi sportchilarni tayyorlash hamda Olimpiya o‘yinlari uchun salohiyatli zahira sportchilarni tarbiyalash eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy tarbiya, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy rivojlanish, sikl, mezo, mikro, makro, zarbdor, tortuvchi, nazorat.*

Annotation: *In recent years, judo wrestling has become one of the most popular sports in the world. Thousands of young people are engaged in this type of wrestling in our republic. Sports training is held in colleges of BO‘SM, OZIBO‘SM, OSMM, Olympic reserves, sports societies, children's sports complexes, sports centers. Today, the organization of sports training on a scientific basis, the training of highly qualified athletes, and the preparation of reserve substitutes for the Olympic Games are urgent problems.*

Key words: *physical education, physical training, physical development, cycle, meso, micro, macro, impactor, puller, control.*

Аннотация: *В последние годы борьба дзюдо стала одним из самых популярных видов спорта в мире. Тысячи молодых людей занимаются этим видом борьбы в нашей республике. Спортивная подготовка проводится в колледжах БОСМ, ОЗИБСМ, ОСММ, Олимпийского резерва, спортивных обществах, детских спортивных комплексах, спортивных центрах. Сегодня организация спортивной подготовки на научной основе, подготовка высококвалифицированных спортсменов, подготовка резерва к Олимпийским играм являются актуальными проблемами.*

Ключевые слова: *физическое воспитание, физическая подготовка, физическое развитие, цикл, мезо-, микро-, макро-, ударник, тягач, контроль.*

Kirish. Yurtimizda sport sohasining davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani, sog‘lom va har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor qaratilgani hamda bu yo‘nalishda mustahkam huquqiy va tashkiliy asoslar yaratilgani tufayli, sport bugungi kunda yoshlar o‘r-

tasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning eng muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Bu jarayon ularni jismonan chiniqqan, ma’nan yetuk shaxs sifatida voyaga yetkazishda katta ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, davlat tomonidan yoshlarni muntazam ravishda jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlariga jalb qilish, ularning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida Kadrlar tayyorlash milliy modeliga tayangan holda, uzluksiz ta’lim tizimida sport musobaqalarining izchil tashkil etilishi bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Bu esa aytilgan fikrlarning amaliy dalilidir. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan Kadrlar tayyorlash milliy modeliga muvofiq, uzluksiz ta’lim tizimida ommaviy sportni rivojlantirishga xizmat qiluvchi uch bosqichli yagona tizim — «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va «Universiada» musobaqalari yo‘lga qo‘yildi. Bundan tashqari, yoshlarning barcha qatlamlarini sport va jismoniy tarbiyaga jalb etish orqali respublika, Osiyo va jahon miqyosidagi chempionlarni, shuningdek Olimpiya o‘yinlari uchun salohiyatli sportchilarni tayyorlash, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish, zararli illatlarning oldini olish hamda sog‘lom millatni shakllantirish maqsadida uch bo‘g‘inli yagona sport tizimi asosida ommaviy sport harakatining milliy modeli ilmiy jihatdan asoslab ishlab chiqildi.

Asosiy qism. Sportchilarning tayyorgarligini boshqarish tizimini yanada samarali qilish masalasi shuni talab etadiki, qo‘llanilayotgan trenirovka vositalari va metodlari sport tayyorgarligining ko‘p yillik jarayonida belgilangan maqsadlarga to‘liq mos kelishi lozim. Bu muammo mamlakatimizda ham, xorijiy davlatlarda ham ilmiy tadqiqotlarning doimiy e’tibor markazida turadi. Uni hal etishning eng muhim yo‘llaridan biri — sportchi organizmi bilan bir qatorda sport natijalariga ta’sir ko‘rsatadigan ko‘plab omillarni ilmiy asosda modellashtirishdir.

Bunday yondashuvda ko‘p yillik mashg‘ulotlar jarayonini sportchini boshlang‘ich bosqichdan yuqori malaka darajasiga yetkazishga qaratilgan yaxlit tizim sifatida talqin etish va uni ma’lum qonuniyatlar asosida eng maqbul yo‘llar bilan amalga oshirish maqsadga muvofiq sanaladi.

Aynan shu fikrlarga tayangan holda, A.A.Novikov va A.O.Akopyan (1983) sport yakkakurashlari uchun tayyorgarlikni boshqarishga oid, iyerarxik tuzilishga ega maxsus tizimni ishlab chiqqanlar. Ushbu tizim sportchi tayyorgarligining deyarli barcha jihatlarini miqdoriy ko‘rsatkichlar orqali tavsiflaydi hamda uch bosqichdan iborat.

Birinchi pog‘ona — musobaqa faoliyatining o‘zi (yoki musobaqa modeli);

Ikkinchi pog‘ona — sportchining tayyorgarlik tarkibiga kiruvchi asosiy jihatlar (yoki sport mahorati modeli);

Uchinchi pog‘ona — sportchi organizmining tizimi (yoki uning potensial imkoniyatlari modeli) hisoblanadi.

Ushbu iyerarxik tuzilmaning bosqichma-bosqich bog‘lanib borishi yuqori malakali sportchilarni tayyorlash jarayonida o‘zining to‘laqonli samaradorligini ko‘rsatadi. Ammo o‘spirinlar bilan ishlashda qo‘yilgan vazifalarni hal qilish uchun qo‘shimcha ilmiy izlanishlar talab etiladi.

Sport yakkakurashlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sportchini erta yuqori natijaga yo‘naltirish ko‘pincha natijaning sun’iy ravishda oshishiga hamda sport faoliyati davomiyligining qisqarishiga sabab bo‘ladi. Pedagogik kuzatishlar ham tasdiqlashicha, maksimal natijaga qisqa muddatda erishishga majbur qilingan yosh kurashchilarning aksariyati juda erta o‘z imkoniyatlar chegarasiga yetib qolgan va natijada sport faoliyatini muddatidan oldin yakunlashga majbur bo‘lganlar.

Yil davomida mas’uliyatli musobaqalar sonining ortishi esa 3–4ta makrosiklni rejalashtirish zaruratini tug‘diradi. Bir makrosikl asosida tuzilgan yillik mashg‘ulot rejasi — bir siklli, ikki makrosikl asosidagi reja — ikki siklli, uchta makrosikl asosidagi reja — uch siklli tizim deb yuritiladi.

Har bir makrosikl tarkibida tayyorgarlik davri, musobaqa davri va o‘tish davri ajratiladi. Ikki yoki uch siklli mashg‘ulot tizimlarida ko‘pincha “ikki bosqichli” yoki “uch bosqichli” variantlardan foydalaniladi (1-rasmga qarang). Bunday holatlarda makrosikllar orasida alohida o‘tish davrlari belgilanmaydi — amaldagi makrotsiklning musobaqa bosqichi muloyim tarzda keyingi makrosiklning tayyorgarlik bosqichiga ulanib ketadi (V.N Platonov, 1986).

Bir nechta mutaxassislar ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonini rejalashtirishda yillik siklning turli modellari bo‘yicha o‘z takliflarini ilgari surganlar (2-rasmga qarang).

Masalan, R.Petrov (1977) tomonidan ilgari surilgan yondashuvga ko‘ra, kurashchilar uchun

dastlabki ikki yil davomida bir siklli, uchinchi va to‘rtinchi yillarda esa ikki siklli rejalashtirish tizimi maqsadga muvofiq deb topilgan. Shuningdek, u bolalar va o‘smirlar bilan ishlashda mashg‘ulot jarayonini samarali tashkil etish uchun haftalik sikl asosidagi tezkor trenirovka sxemasidan foydalanishni tavsiya etadi (1-jadval).



1-rasm. Yillik mashg‘ulot jarayonini samarali tashkil etishning turli variantlari mavjud. Zamonaviy sport nazariyasi va metodikasida mashg‘ulot jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish eng asosiy masalalardan biri sifatida qaraladi.

1-jadval. Bolalar, kichik yoshdagi va katta yoshdagi o‘smirlar uchun tavsiya etiladigan haftalik trenirovka sikllari
(R. Petrov, 1977-yildagi ma’lumotlar asosida)

Yosh guruhlari	Hafta kunlari						
	Dushanba	Seshanba	CHorshanba	Paysha nba	Juma	SHanba	Yakshan ba
Tayyorgarlik davri							
Bolalar	UJT	-	TTT	-	UJT	-	Hammo m
Kichik yoshdagi o‘smirlar	UJT	TTT	-	UJT	TTT	-	Hammo m
Katta yoshdagi o‘smirlar	UJT	TTT	UJT	MJ TTT	UJT	TTT	Hammo m
Musobaqa davri							
Bolalar	-	TTT	-	UJT	-	MJ TTT	Hammo m
Kichik yoshdagi o‘smirlar	-	UJT	MJ TTT	UJT	TTT	MJ TTT	Hammo m
Katta yoshdagi o‘smirlar	MJ TTT	UJT	MJ TTT	UJT	TTT	MJ TTT	Hammo m
O‘tish davri							
Bolalar	-	UJT	-	-	UJT	-	Sayohat
Kichik yoshdagi o‘smirlar	UJT	-	TTT	-	IJT	-	Sayohat
Katta yoshdagi o‘smirlar	-	UJT	TTT	-	UJT	UJT	Sayohat

Izoh: UJT — umumiy jismoniy tayyorgarlik, TTT — texnik-taktik tayyorgarlik, MJ TTT — maxsus jismoniy texnik-taktik tayyorgarlikni anglatadi. Sportchilar tayyorgarligi jarayonini samarali boshqarish ikki asosiy omilni inobatga olishni talab etadi. Birinchisi — yuklamaning hajmi va intensivligi keskin oshib borayotgani (zamonaviy yuqori natijalar sportida yuklamalar organizmning tabiiy chegaralariga yaqinlashmoqda). Ikkinchisi — mashg‘ulot ko‘rsatkichlarining sportchi mahorati darajasi bilan uyg‘unlashuvi (dunyoning yetakchi sportchilari tajribasida kuzatiladi). Shu sababli mashg‘ulot tuzilmasini takomillashtirish va eng maqbul trenirovka dasturlarini yaratish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda (M.P.Matveyev, 1977).

Trenirovka jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish — bu turli davrlar uchun o‘zaro bog‘liq maqsadlarga xizmat qiladigan rejalarning yagona tizimini shakllantirish demakdir. Bu bosqichlarning har biri o‘ziga xos vazifalar majmuasini bajarishi kerak.

Xulosa. So‘nggi yillarda dzyudo bo‘yicha xalqaro qoidalarga kiritilgan o‘zgarishlar — xususan, raqibning oyog‘ini qo‘l bilan ushlashning taqiqlanishi — kurashning asosan tik holatda olib borilishiga sabab bo‘ldi. Bu esa ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonini yanada chuqur, mukammal o‘zlashtirish zaruratini oshirdi.

Ko‘p yillik tayyorgarlikning har bir bosqichini musobaqalarda samarali qo‘llash uchun faqat jismoniy tayyorgarlik yetarli emas. Sportchilarni aqliy, ma’naviy va ruhiy jihatdan ham rivojlantirib borish zarur. Bu jarayonda o‘qitishning didaktik tamoyillarini puxta bilish yuqori natija beradi.

Dzyudo bo‘yicha ko‘p yillik tayyorgarlikni rejalashtirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish jarayon samaradorligini oshiruvchi muhim mezon hisoblanadi.

Dzyudo sportida ko‘p yillik tayyorgarlikni ilk bosqichlardan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, oyoq bilan bajariladigan texnikalar kurashchining koordinatsion harakatlarini, muvozanatni saqlash qobiliyatini va tik holatda kurashish malakasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Kerimov F.A. Darslik. Sport kurashi nazariyasi va usuliyoti T., 2009.
2. Usmonxo‘jaev T.S., Akramov J.A., Tojiyeva M.N., Usmonxo‘jaev S.T. Jismoniy tarbiya. Darslik.T., 2011.
3. Bakiyev Z.A. Erkin kurash nazariyasi va uslubiyati. T. 2011.
4. Верхошанский Ю.В. Программирование и организация тренировочного процесса Москва,1985 г.
5. Гончарова О.В. Ёш спортчиларни жисмоний қобилиятларини ривожлантиришю Тошкент, 2005 й.
6. Usmanxodjaev T.S. Jismoniy tarbiya. 7-8-sinf. T. 2004.

Qabul qilindi: 15.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 7.08

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING EGILUVCHANLIK VA CHAQQONLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI

Sobirova Laylo Xudayberganovna, UrDU Sport faoliyati, pedagogika va psixologiya fakulteti “Yakka kurash kafedrasi” o‘qituvchisi

METHOD OF DEVELOPING FLEXIBILITY AND AGILITY QUALITIES OF PRIMARY GRADE STUDENTS

Sobirova Laylo Khudaiberganovna, Teacher of the Department of Individual Wrestling Faculty of Sports Activities, Pedagogy and Psychology, UrSU

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ГИБКОСТИ И ЛОВКОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Собирова Лайло Худайбергановна, преподаватель кафедры единоборств факультета спортивной деятельности, педагогики и психологии УрГУ

https://orcid.org/0000-0002-5629-1711
e-mail: xudayberganovnasl5@gmail.com

Annotatsiya: *Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar turli harakatlarga ega bo‘lib, jismoniy mashqlar orqali harakat-sezgi mexanizmini rivojlantirish bilan birga harakatlar koordinatsiyasini yaxshilashga yordam beradi. Shuning uchun mashg‘ulotlar paytida mushaklarning muvofiqligiga hamroh bo‘ladigan taktik, sensor sezgilar uchun imkon yaratish kerak. Dastlabki holatlar, yo‘nalishlar va mutaxassisning yordami bilan ta’minlangan mashqlarning aniqligi, zarur mushaklarning impulsini va harakat funksiyasini rivojlantirishni belgilaydi.*

Kalit so‘zlar: *egiluvchanlik, chaqqonlik, dars, mashg‘ulot, jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy holat, harakat, faoliyat.*

Annotation: *Children of primary school age have a variety of movements, and physical exercises help to improve coordination of movements, along with the development of the motor-sensory mechanism. Therefore, during training, it is necessary to create opportunities for tactical, sensory sensations that accompany muscle coordination. The initial conditions, directions and the accuracy of the exercises provided with the help of a specialist determine the development of the necessary muscle impulse and motor function.*

Keywords: *flexibility, agility, lesson, training, physical education, physical development, physical training, physical condition, movement, activity.*

Аннотация: *У детей младшего школьного возраста двигательная активность разнообразна, а физические упражнения способствуют развитию двигательно-сенсорных механизмов и улучшению координации движений. Поэтому необходимо создавать возможности для тактических, сенсорных ощущений, сопровождающих мышечную координацию во время тренировки. Исходные условия, направление и точность упражнений, предлагаемых специалистом, определяют развитие необходимых мышечных импульсов и двигательной функции.*

Ключевые слова: *гибкость, ловкость, урок, тренировка, физическое воспитание, физическое развитие, физическая подготовка, физическое состояние, движение, активность.*

KIRISH. Hozirgi kunda jahonda ta'limni modernizatsiyalash shaxsni ma'naviy va jismoniy rivojlantirish hamda ta'lim jarayonining sifatini oshirishga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Xorijiy mamlakatlarda jismoniy tarbiya darslarini o'qitish samaradorligini oshirish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Xususiy maktablarda esa o'quv dasturlarini tanlash davlat maktablariga nisbatan erkin bo'lganligi sababli turli pedagogik muqobillarning aprobatsiyasi o'tkazib turiladi. Asta-sekin individuallashgan ta'lim tizimi, ya'ni har bir o'quvchiga uning qobiliyati va faolligiga qarab o'qishdagi turlicha yo'nalishiga ko'ra moslashuvchan yondashuv ta'lim jarayoniga tatbiq qilinmoqda.

Dunyoning yetakchi ta'lim muassasalarida, asosan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarning individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ularning salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan ta'lim muhitini ta'minlaydigan choralar majmuasi va tizimli tadbirlar, salomatlik va sog'lom turmush tarzi qadriyatini shakllantiruvchi sharoitlarni tashkil etishga qaratilgan muammolar o'rganib kelinmoqda. Shuning uchun aynan hozirgi davrda o'quvchilar salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan ta'lim jarayonini tashkil etishning xilma-xil shakllari samaradorligini sinchiklab, kompleks tarzda ilmiy tahlil qilish zarur. Jismoniy tayyorgarlik sog'lom bo'lishning eng muhim sharti, uning yaxshilanishi esa maktablardagi jismoniy tarbiya darslarining yuqori darajada tashkil etilishiga bog'liq. Ammo ta'lim muassasalarida sog'lomlashtirish yo'nalishidagi jismoniy tarbiya darslarini o'tkazishning tashkiliy-uslubiy xususiyatlariga asoslangan, jismoniy tayyorgarlik darajasi har xil bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining dastur materiallarini to'liq o'zlashtirishlariga imkon beruvchi samarali uslubiyat to'liq ishlab chiqilmaganligi uning zaruriyatini izohlab beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Mamlakatimiz va xorij olimlarining ilmiy-uslubiy adabiyotlarini o'rganish orqali shuni aniqlab oldikki, sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, T.S.Usmanxodjaev, A.K.Atoyev, V.K.Bal'sevich, Yu.F.Kuramshin, S.V.Ribalkina, V.A.Bogdanova, G.V.Julina, N.I.Chukturova I.A.Koshbaxtiev, D.D.Sharipova, L.I.Lubisheva, V.A.Baranov va boshqalarning ishlarini aytishimiz mumkin. Respublikamizning bir qator olimlari, jumladan T.S.Usmanxodjayev, F.G.Xo'djayev, I.A.Koshbaxtiyev, A.Sh.Abdullayev, Sh.X.Xankeldiyev, R.S. Azizov va boshqalar sog'lomlashtirish va jismoniy tarbiya muammolariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy-tadqiqot natijalarida ko'rsatib o'tganlar. Aholi salomatligini saqlash va mustahkamlash yo'nalishidagi muammolari bo'yicha K.M.Mahkamjonov, Sh.O'.Atamurodov, Sh.D.Abdullayev, Z.Sh.Yusupova va boshqalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ammo mazkur tadqiqot mavzusi doirasida ayrim metodik tavsiyalarni inobatga olmasak, boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy sifatlarining har biriga alohida to'xtalib, ularning sog'lig'ini mustahkamlash muammosini hal etishga bag'ishlangan alohida monografik tadqiqot amalga oshirilmagan. Masalan, jismoniy sifatlarning tayyorgarlik darajasi har xil bo'lgan o'quvchilarning salomatligini saqlash va mustahkamlash, jismoniy tarbiya darslarida o'ziga xos tashkiliy-uslubiy xususiyatlarga asoslanadigan uslubiyat ishlab chiqish masalalariga doir ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shunday xulosa qilishga olib keldiki, mazkur muammo dolzarb ilmiy, maqsadli pedagogik tadqiqotlar predmetiga aylanmagan.

NATIJALAR. Tadqiqotimiz maqsad va vazifalariga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarining egiluvchanlik va chaqqonlik jismoniy sifatlarini riojlantirishga qaratilgan, ishlab chiqilgan metodikamizning samaradorligini aniqlash va isbotlash uchun pedagogik tajribalar o'tkazildi. Pedagogik tajribalar umumta'lim maktablari jismoniy tarbiya darslarida va darsdan tashqari vaqtda o'tkazildi. Tajriba va nazorat guruhlari salomatlik holati, jismoniy rivojlanishi, tayyorgarlik holati, yoshi, jinsi va va shug'ullanuvchilar sonini inobatga olgan holda shakllantirildi. Mashg'ulotlarni ikkala guruhga ham bir xil sharoitda tashkil qilindi, lekin tajriba guruhi sinaluvchilari biz tomonimizdan ishlab chiqilgan va taklif qilingan uslubiyat bo'yicha nazorat guruhi esa amaldagi dastur asosida olib borildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining egiluvchanlik va chaqqonlik qobiliyatlarini shakllantirishda jismoniy tarbiya vositalari

imkoniyatlari yaxlit faoliyat sifatida jismoniy tarbiya yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining individual xususiyatlarii har tomonlama va o‘zaro bog‘liq holda shakllantirishni ta’minlash bilan belgilanadi.

Jismoniy tarbiya fanida o‘quv jarayonining sifati ko‘p jihatdan uni rejalashtirishning to‘g‘riligiga bog‘liq, shu bilan birga, tizimlilik tamoyili jismoniy tarbiya darslar ketma-ketligini va ular o‘rtasidagi munosabatlarni, uzoq vaqt davomida sog‘lomlashtiruvchi vositalardan uzluksiz foydalanishni talab qiladi.

O‘quv yili uchun jismoniy tarbiya fani dasturiy materialini eng samarali taqsimlash uchun dastur bo‘limlarini o‘quv yilining haftalar, oylar bo‘yicha o‘rganish ketma-ketligini belgilaydigan va har bir maktab choragida mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun mavsumiy va iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda yillik reja jadval tuziladi. Har bir bosqich (dastur bo‘limlari va choraklar) muayyan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari harakat faoliyati muammolarini hal qilishni va tegishli vositalardan foydalanishni talab qiladi. Har bir bosqichdagi darslarning mazmuni oldingi va keyingi bosqichlarning mazmuni bilan uzviy bog‘liqdir, shuning uchun bunda materialni yoritishning yalpi fan bilan bog‘liq usuli (navbat bo‘yicha) emas, balki jismoniy tarbiya vazifalarining 2-3 turini bir vaqtda qo‘llashni nazarda tutuvchi murakkab usul qo‘llaniladi. Kompleks mashg‘ulotlar mazmunining keng qamrovliligi ularning sog‘liq muammolarini hal qilishda muhim samaradorligi va uzluksizligini hamda o‘quvchilarning asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirish, funksional imkoniyatlar va jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishni ta’minlaydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, jismoniy tarbiyaning yetakchi vazifa asosiy hayotiy harakat faoliyatlarini (ko‘nikma va ko‘nikmalar) muvaffaqiyatli o‘zlashtirish va boshqa harakat qobiliyatlarini (tezlik, kuch, chidamlilik) yuqori samaradorlik bilan namoyon etish imkonini beradigan egiluvchanlikni, chaqqonlikni har tomonlama rivojlantirish darajasini ta’minlashdir.

Ishlab chiqilgan va taklif qilingan uslubiyatni pedagogik taqiqotlarda amalga oshirish jarayonida tajriba guruhi sinaluvchilarida sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi(1-jadvalga qarang).

Tadqiqot va nazorat guruhi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chaqqonlik sifatining tayyorgarlik darajasini aniqlash bo‘yicha olib borilgan qiyosiy statistik tahlil natijasi quyidagilarni tashkil qildi:

1-nazorat mashqi “4x10 moksimon yugurish” ko‘rsatkichlari 1-sinf o‘quvchilarining natijalari tadqiqot guruhining tajribadan keyingi natijalarining o‘sishi 17 foizni tashkil qildi, nazorat guruhining tajribadan oldingi va tajribadan keyingi natijalarining o‘sishi 5,02 foizni tashkil qildi, ko‘rsatkichlar orasidagi statistik farqlar ($t=3,93$; $P<0,001$) ishonchli.

2-sinf o‘quvchilarining natijalari tadqiqot guruhining tajribadan oldingi va tajribadan keyingi natijalarining o‘sishi 12 foizni tashkil qildi, nazorat guruhining tajribadan oldingi va tajribadan keyingi natijalarining o‘sishi 6 foizni tashkil qildi, ko‘rsatkichlar orasidagi statistik farqlar ($t=2,63$; $P<0,05$) ishonchli.

3-sinf o‘quvchilarining natijalari tadqiqot guruhining tajribadan oldingi va tajribadan keyingi natijalarining o‘sishi 18 foizni tashkil qildi, nazorat guruhining tajribadan oldingi va tajribadan keyingi natijalarining o‘sishi 5,8 foizni tashkil qildi, ko‘rsatkichlar orasidagi statistik farqlar ($t=2,65$; $P<0,05$) ishonchli.

Tadqiqot va nazorat guruhi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tajriba davomida chaqqonlik sifatining ko‘rsatkichlari rivojlanish dinamikasi

4-sinf o‘quvchilarining natijalari tadqiqot guruhining tajribadan oldingi va tajribadan keyingi natijalarining o‘sishi 17 foizni tashkil qildi, nazorat guruhining tajribadan oldingi va tajribadan keyingi natijalarining o‘sishi 6,1 foizni tashkil qildi, ko‘rsatkichlar orasidagi statistik farqlar ($t=3,93$; $P<0,001$) ishonchli(**1-Rasm)**.

1-Rasmda tadqiqot va nazorat guruhi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tajriba davomida “Gimnastika o‘rindig‘ida turgan holda oyoqlar uchiga qo‘llarni uzatish” nazorat testi ko‘rsatkichlari o‘zgarish dinamikasi keltirilgan. Unga ko‘ra biz tomondan ishlab chiqilgan va taklif qilingan uslubiyatni pedagogik taqiqotlarda amalga oshirish jarayonida tajriba guruhi sinaluvchilarida sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi, nazorat guruhida esa o‘zgarishlar uncha katta emas va bu tabiiy rivojlanish jarayoni ta’siri deb xulosa qilsak bo‘ladi.



1-rasm.Tadqiqot va nazorat guruhi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tajriba davomida “4x10 moksimon yugurish” nazorat testi ko‘rsatkichlari o‘zgarish dinamikasi.

MUHOKAMA. Maktab o‘quvchilarini jismoniy rivojlanish va funksional rivojlanish jarayonlarini o‘rganganimizda ular dars va mashg‘ulot jarayonlarida berilgan jismoniy yuklamalarga bo‘lgan chidamkorligi juda past va mashqlarni bajarishda ularda toliqishlar yuzaga kelayotganini aytib o‘tish mumkin.

Umumiy ta’limning boshlang‘ich sinflari o‘quvchilari egiluvchanlik va chaqqon egiluvchanlik sifatlari rivojlanish jarayonini o‘rganganimizda ular jismoniy tarbiya darsi va mashg‘ulotlar jarayonida olib borilgan tadqiqotlar natijalari tajriba va nazorat guruhi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tadqiqot davomida chaqqonlik sifatining ko‘rsatkichlari rivojlanish dinamikasi tahlilidan biz tomondan tavsiya qilingan va qollanilgan tadqiqot metodikasi ancha samaraliroq ekanligi aniqlandi.

XULOSA. Biz tomondan ko‘rib chiqilgan mamlakatimiz va xorijiy maxsus adabiyotlardagi ilmiy tadqiqotlar tahlili boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining egiluvchanlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirish uslubiyatini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zaruriyati haqida ko‘p ta’kidlanadi. Biroq, ushbu muammoning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tegishli aniq tadqiqotlar soni kam, asosan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarlikni tabaqalashtirish va individuallashtirishning dastlabki shartlari ishlab chiqilgan, xolos. Xususan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining egiluvchanlik va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirish aniq metodik yo‘nalishlari va usullari yetarli darajada asoslab berilmagan va keltirilmagan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tahsil oluvchi o‘quvchilarning salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan jismoniy tarbiya dasturining o‘ziga xos tashkiliy-uslubiy xususiyatlariga asoslangan uslubiyat takomillashtirilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Achilov A.M., Akramov J.A., Goncharova O.V. Bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash. O‘quv qo‘llanma. T.: Lider Press, 2009.-200 b.
2. B.T.Haydarov, Ibroimova G.X. Methodology of the improvement of preliminary gimnstic disciplines in increasing activity of preschool age children International Journal of psycxosocial rehablitation SCOPUS. №6, 2020 s762-770.
3. Балсевич В.К., Лубишева Л.И. Спортивно ориентированное физическое воспитание: образовательный и социальные аспекты. //Теория и практика физической культуры. М.: 2003. - №11. - С. 19-22.
4. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. O‘quv qo‘llanma. - T., ITA-Press nashr., 2018. - 172 b.
5. Mahkamdjanov K., Salamov R., Ikramov I. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Darslik. 1-qism T., 2007. 347 b.
6. Mahkamjonov K.M., Rasulyeva M.Sh., va b. Maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy va kengaytirilgan jismoniy tarbiyasi. T.: Ilm Ziyo, 2006. 174 b.

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 37:37.01

MAKTAB RAHBARLARIDA XXI ASR KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI (MALAKA OSHIRISH JARAYONLARI MISOLIDA)

Vaisov Azad Xasanovich, Xorazm viloyati pedagogik mahorat markazi “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi mudiri, dotsent, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ISSUES OF DEVELOPING 21ST CENTURY SKILLS IN SCHOOL LEADERS (ON THE EXAMPLE OF PROFESSIONAL TRAINING PROCESSES)

Vaisov Azad Khasanovich, Head of the Department of “Methodology of Socio-Economic Sciences” of the Khorezm Regional Pedagogical Skills Center, Associate Professor, Doctor of Philosophy in History (PhD)

ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ШКОЛ XXI ВЕКА (НА ПРИМЕРЕ ПРОЦЕССА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ)

Ваисов Азад Хасанович, заведующий кафедрой “Методологии социально-экономических наук” Хорезмского областного центра педагогического мастерства, доцент, доктор философии по истории (PhD)

https://orcid.org/0009-0002-7957-1633
e-mail: vaisovazad@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta’lim tizimi rahbar xodimlarida XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishning ilmiy-amaliy jihatlari malaka oshirish tizimi misolida tahlil qilinadi. Maqolada boshqaruv va rahbar madaniyati, rahbar odobi va iqtidori o‘rtasidagi dialektik bog‘lanish, shuningdek, maktab missiyasini aniqlash va ijobiy ta’lim muhitini yaratishda zamonaviy rahbarning roli yoritilgan. Prezident Sh.M.Mirziyoyev asarlari va xalqaro tajribaga tayangan holda, rahbarlarning kasbiy va ma’naviy rivojlanishiga oid xulosalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *boshqaruv madaniyati, zamonaviy rahbar, imon va insof, dialektik bog‘lanish, maktab missiyasi, ta’lim muhiti, malaka oshirish, kontekst va qadriyatlar.*

Abstract: *This article explores the scientific and practical aspects of forming 21st-century competencies among school leaders, taking the professional development system as an example. It emphasizes the dialectical connection between management culture and leadership, leadership ethics and talent, and the role of modern leaders in defining the school’s mission and fostering a positive educational environment. Insights from President Shavkat Mirziyoyev’s works and international experience inform conclusions about leaders’ professional and spiritual growth.*

Keywords: *management culture, modern leader, faith and integrity, dialectical relationship, school mission, educational environment, professional development, context, and values.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются научные и практические аспекты формирования компетенций XXI века у руководителей системы образования на примере системы профессионального развития. В статье акцентируется диалектическая взаимосвязь культуры управления и лидерства, этики руководителя и профессионального таланта, а также роль современного лидера в формулировании миссии школы и создании позитивной образовательной среды. На основе трудов Президента Ш.М.Мирзиёева и мирового опыта делаются выводы относительно профессионального и духовного развития руководителей.*

Ключевые слова: *культура управления, современный лидер, вера и честность, диалектическая связь, миссия школы, образовательная среда, профессиональное развитие, контекст и ценности.*

Kirish. XXI asr ta'lim menejmentida rahbar shaxsiga qo'yiladigan talablar tubdan o'zgardi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'limdagi rahbarning o'rnini strategik jihatdan shunday baholaydi: "Maktab o'zgarishi uchun avvalo maktab direktori o'zgarishi kerak. Maktab direktori o'zgarsa, muallim o'zgaradi, muallim o'zgarsa, o'quvchi o'zgaradi, o'quvchi o'zgarsa, butun jamiyat o'zgaradi" [1].

Maqolaning maqsadi – malaka oshirish jarayonida rahbar madaniyati (odob, iymon, insof, adolat) va kasbiy kompetensiyalarni integratsiyalash orqali o'quv jarayonini boshqarish samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlashdir. Zamonaviy maktab rahbari yaxshi lider bo'lishi, o'quvchilar, o'qituvchilar va boshqa xodimlar bilan samarali muloqot qilishi, o'quv muhitini yaratishi, o'zgarishlarga qarshi kurashishi va tizimdagi strategik o'zgarishlarni amalga oshirishi lozim.

Globallashuv sharoitida maktab direktori shunchaki xo'jalik boshqaruvchisi emas, balki strategik lider, o'zgarishlar tashabbuskori va yuksak madaniyat egasi bo'lishi kerak. XXI asrda maktab rahbarlari murakkab va yangi muammolarga tez-tez duch keladilar. Ularning kreativ fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyati maktabning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli rahbarlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi faqat huquqiy savodxonlikni emas, balki zamonaviy rahbar xususiyatlarini shakllantirishni ham o'z ichiga olishi kerak.

Metodlar. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanganmiz:

1. Nazariy tahlil: Prezident asarlari, Sharq mutafakkirlari (Amir Temur, Forobiy) va g'arb menejment nazariyasi (P. Draker);
2. Qiyosiy tahlil: an'anaviy va zamonaviy rahbar modellari maktabning konteksti va qadriyatlari asosida solishtirildi;
3. Kuzatish: malaka oshirish kurslaridagi mashg'ulotlarda rahbarlarning ijobiy ta'lim muhitini targ'ib qilish ko'nikmalari tahlil qilindi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy rahbarning muvaffaqiyati uning "Soft skills" (yumshoq ko'nikmalari) va ma'naviy qiyofasiga bevosita bog'liqdir. Rahbar faoliyatining samaradorligi rahbar shaxsning tafakkuri, aql-idrokiga ham bevosita bog'liq bo'ladi. Tafakkur rahbarga keng va chuqur fikrlay olish, yaxshini yomondan, foydani zarardan, muhimni nomuhimdan bexato ajrata olish imkoniyatini beradi. Bu hammaga ham nasib qilavermaydigan yuksak fazilat. Agar rahbarda shu kabi sifatlar shakllangan bo'lsa, bunday rahbar boshqaruvning sir-asrorlarini qiynalmasdan egallaydi hamda o'z jamoasida obro'-e'tiborga ega bo'lib, ular ishonchini qozonadi.

Boshqaruv madaniyati – bu quruq qoidalar to'plami emas, balki rahbarning ichki axloqiy kompasidir. Rahbar madaniyati – odob, iymon, insof, adolat kabi tushunchalar bilan uzviy bog'liq.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Adolat — qonun ustuvorligida, rahbarning halolligida, har bir ishga vijdonan yondashuvda namoyon bo'ladi. Rahbarning eng katta bahosi — bu xalqning ishonchi va roziligidir"[2], shuningdek, buyuk sohibqiron Amir Temur ham davlat boshqaruvida bu tamoyilni ustuvor deb bilgan: "Tajribamda ko'rdimki, qaysi bir podshoh o'z davlatini adolat va to'ra-tuzuk asosida boshqarmas ekan, uning davlati inqirozga yuz tutadi"[3]. Demak, malaka oshirish kurslarida "Boshqaruv etikasi" moduli aynan shu qadriyatlarni singdirishga xizmat qilishi kerak. Demak, har qanday rahbar keng va chuqur fikrlay olishi bilan birga, chaqqon va uddaburon, harakatchan va shijoatli bo'lishi ham kerak. Shuning uchun rahbarlik faoliyatini tafakkur va harakat birligi deyish mumkin. Rahbardagi o'ziga xos talabchanlik, mehribonlik hamda mas'uliyat jamoa a'zolarida ham javobgarlik hissining shakllanishiga sabab bo'ladi. Qolaversa, har qanday rahbar keng va chuqur fikrlay olishi bilan birga, chaqqon va uddaburon, harakatchan va shijoatli bo'lishi ham kerak. Shuning uchun rahbarlik faoliyatini tafakkur va harakat birligi deyish mumkin. Rahbardagi o'ziga xos talabchanlik, mehribonlik hamda mas'uliyat jamoa a'zolarida ham javobgarlik hissining shakllanishiga sabab bo'ladi.

TAMADDUN NURI

Rahbar odobi va iqtidori o‘rtasidagi dialektik bog‘lanish tahlillarimiz rahbar odobi va iqtidori o‘rtasida dialektik bog‘lanish mavjudligini tasdiqladi.

Iqtidor – bu muammoni yechish, strategiyani ko‘ra olish qobiliyati.

Odob – bu iqtidorni jamoaga og‘riqsiz, hurmat asosida yetkazish vositasi.

Abu Nasr Forobiy bu haqda shunday yozadi: “Rahbarning fazilati – uning ilm-marifati, yuksak odobi va qo‘l ostidagilarga g‘amxo‘rligida namoyon bo‘ladi. Fozil jamiyat hokimi, qator tug‘ma tabiiy xislatlarga ega bo‘lishi lozim: tabiatan nozik, farosatli bo‘lishi; komil a’zolarga ega bo‘lishi; yaxshi xotiraga ega bo‘lishi, ko‘rgan, eshitgan va idrok etgan narsalarining tafsilotlari bilan yodda tutishi; o‘tkir zehnli, zukko bo‘lishi; ifodali nutqqa ega bo‘lishi; ta’lim olishga, bilim va ma’rifatga havasli bo‘lish, o‘qish va o‘rganishda sira charchamaydigan, mashaqqatidan qochmaydigan bo‘lishi; badnafslik, ichkilik va shahvoniy hislardan o‘zini tiya oladigan bo‘lishi; haqiqatni va uning uchun kurashuvchilarni yaxshi ko‘rish, yolg‘ondan va yolg‘onchilardan nafratlanishi; o‘z qadrini biluvchi va or-nomusli odam bo‘lishi, tug‘ma oliy himmat bo‘lish va ulug‘ ishlarga intilishi; mol-dunyo ketidan quvmaydigan bo‘lish; tabiatan adolatparvar bo‘lishi; zarur beb bilgan harakatni amalga oshirishda qat’iyatli, sabotli, jur’atli, jasur, mard bo‘lishi, qo‘rqoqlik va hadiksirashlarga yo‘l qo‘ymasligi lozim”[4].

Agar rahbarda iqtidor bo‘lib, odob yetishmasa – bu avtoritarizmga; odob bo‘lib, iqtidor yetishmasa – bu boshqaruvdagi layoqatsizlikka olib keladi.

Munozara. Malaka oshirish tizimi tinglovchilarini XXI asr ko‘nikmalari bilan qurollantirishda quyidagi muhim jihatga ya’ni zamonaviy rahbar maktab missiyasini aniqlashda jamoani birlashtira olishi, missiya shunchaki shior emas, u maktabning konteksti (hududiy joylashuvi, ijtimoiy holati) va qadriyatlariga asoslanishi maqsadga mivofiq bo‘lar edi. Menejment nazariyotchisi Piter Draker aytganidek: “Menejment – bu ishlarni to‘g‘ri bajarish bo‘lsa, liderlik – bu to‘g‘ri ishlarni bajarishdir”[5]. O‘quv jarayonini boshqarish va ijobiy ta’lim muhitini targ‘ib qilish – rahbarning eng asosiy funksiyasidir. Ijobiy muhitda o‘qituvchi o‘zini erkin his qiladi, innovatsiyaga intiladi.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev bu borada zamonaviy kadrlarga ehtiyojni shunday ifodalaydi: “Bugungi kunda bizga zamonaviy fikrlaydigan, innovatsiyalarga o‘ch, muammolarni tez va samarali hal qila oladigan... kadrlar suv bilan havodek zarur”[6]. Abdulla Avloniyning fikri esa ta’lim muhitining ahamiyatini yanada kuchaytiradi: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”[7].

Tadqiqotimiz asosida maktab rahbarlarida an’anaviy buyruq beruvchi, xatolarni jazolovchidan zamonaviy, ya’ni llhomlantiruvchi, xatolardan o‘rganuvchi, doimiy rivojlanuvchi (prinsiplari qat’iy, metodlari moslashuvchan) xususiyatlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Xulosa. Rahbar xodimlarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish – bu bir martalik tadbir emas, balki uzluksiz jarayondir. Maktab rahbari o‘qituvchilarni rivojlantirish va ularga professional o‘sish imkoniyatlarini yaratish uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi. U o‘qituvchilarni rag‘batlantirish, motivatsiya berish va ularning pedagogik ko‘nikmalarini oshirishga yordam berishi zarur. Malaka oshirish tizimi faqat qonunchilik yangiliklarini yetkazish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Samarali boshqaruv rahbar madaniyati, iymon, insof va adolat ustiga quriladi. Busiz har qanday raqamli ko‘nikma samarasizdir. Malaka oshirish dasturlariga rahbarning o‘z-o‘zini tahlil qilish (refleksiya) va jamoaviy empatiya ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi amaliy treninglar kiritilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 234-b.
2. Sh.M.Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018. – 45-b.
3. A.Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2019.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
5. P.Drucker. The Practice of Management. – New York: Harper & Row, 1954.
6. Sh.M.Mirziyoyev. Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017-yil 22-dekabr.
7. A.Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 81'37

LEXICAL ANALYSIS OF CULTURAL TERMS IN ENGLISH LANGUAGE

Razakova Kumush Sadriddinovna, 1st stage foundation doctoral student Bukhara State University

INGLIZ TILIDAGI MADANIYATGA OID ATAMALARNING LEKSIK TAHLILI

Razoqova Kumush Sadriddinovna, Buxoro davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

ЛЕКСИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КУЛЬТУРНЫХ ТЕРМИНОВ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Разакова Кумуш Садриддиновна, докторант 1-курса Бухарского государственного университета



https://orcid.org/0009-0006-4058-5789
e-mail: k.s.razoqova@buxdu.uz

Abstract: *This paper researches the semantic, morphological, and contextual features of the lexis describing the terms about English culture. The research is directed at determining the expression of social values and norms through cultural units of English. The analysis reveals that historical development, social norms, and intercultural relations find their reflection in the function of English cultural terms.*

Keywords: *lexical analysis, English culture, semantic field, morphology, discourse, cultural linguistics.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola ingliz tilidagi madaniyat haqidagi atamalarni tavsiflovchi leksikaning semantik, morfologik va kontekstual xususiyatlarini o'rganadi. Tadqiqot ingliz tilining madaniy birliklari orqali ijtimoiy qadriyatlar va normalarning ifodasini aniqlashga qaratilgan. Tahlil shuni ko'rsatadiki, tarixiy taraqqiyot, ijtimoiy me'yorlar, madaniyatlararo munosabatlar ingliz madaniyati atamalarining vazifasida o'z aksini topadi.*

Kalit so'zlar: leksik tahlil, ingliz madaniyati, semantik soha, morfologiya, nutq, madaniy tilshunoslik.

Аннотация: *В данной статье исследуются семантические, морфологические и контекстуальные особенности лексики, описывающей термины об английской культуре. Исследование направлено на определение выражения социальных ценностей и норм через культурные единицы английского языка. Анализ показывает, что историческое развитие, социальные нормы и межкультурные отношения находят свое отражение в функции английских культурных терминов.*

Ключевые слова: *лексический анализ, английская культура, семантическое поле, морфология, дискурс, лингвокультурология.*

Introduction. Culture and language are inextricably intertwined into a dynamic system of signs that express human experience. "Culture is effective on communities that they have the level of civilization, life style, material and spiritual elements and decisive as well as on the ethical perception it is one of the basic building blocks in the formation of communities"[1]. English as an international language encompasses a wide variety of cultural phenomena, which represent traditional and modern values alike. The investigation of cultural terms, that is, lexical items which denote cultural realities, becomes crucial for the understanding of the ways in which linguistic forms embody social meanings.

[1] "Relationship between culture & ethic: a research in terms of cultural diversity", Nurettin İbrahimoğlu a , Şemsettin Çiğdem b , Mehmet Seyhan c *, Procedia - Social and Behavioral Sciences 143 (2014) 1117 – 1119

In the words of Sapir (1921), “language is a guide to social reality”. This is what gives significance to the lexical analysis in cultural linguistics. The terms like “English pub, Thanksgiving, tea time, or Shakespearean drama” are not just lexical units but cultural signs carrying lots of historic and social meaning.

This paper intends to (1) identify English cultural terms, classifying them according to semantic fields, (2) analyze their morphological structure and etymological origins, and (3) interpret their discursive use in modern English communication.

Materials and Methods. The lexical-semantic and discourse-based approaches were applied in the study. A data set of 150 cultural terms was collected from English dictionaries, media texts, and literature. Each term was analyzed in three successive steps: morphological analysis, semantic categorization, and contextual analysis. The qualitative interpretative approach was used to account for how the choice of a word reflects cultural identity. Additionally, corpus-assisted methods were integrated to ensure empirical validity. Frequency counts and concordance analyses were done with the assistance of digital linguistic databases, including the British National Corpus and Corpus of Contemporary American English. These applications assisted in identifying the most recurrent cultural terms and observing their pragmatic behavior across different genres and registers.

Results. Four semantic groups come into view: traditions and rituals (Christmas, Easter, Thanksgiving, tea-time), social institutions (parliament, pub, monarchy), cultural artifacts (Shakespearean, rock music, Royal Opera), food/lifestyle terms (fish and chips, afternoon tea, full English breakfast).

Morphologically, the majority represent compounds: football, afternoon tea; derivatives: Victorian, Elizabethan; and loanwords: ballet, karaoke. Etymologically, 38% come from Latin /French, 25% from Anglo-Saxon, and the rest from other languages. Discursively, cultural terms crop up in idiomatic expressions like 'stiff upper lip' or “American Dream”, symbolizing cultural ideology.

Discussion. The lexical structure of English cultural terms shows a relationship between language and social values. Cultural vocabulary reflects social change as it takes new forms, but the historical meanings linger. Globalization spreads English cultural words internationally, for instance, pub, Halloween, jeans, demonstrating cultural diffusion. Therefore, lexical analysis presents a way of exploring cultural identity and intercultural communication.

Conclusion. The English cultural terms are the linguistic carriers of historical experience and collective identity. Their lexical-semantic features reflect the dynamics of local and global processes of cultural development. Further research may contrast English cultural terms against the terms from other languages in a search for cross-linguistic, universal patterns and culture-specific phenomena. The study has shown that cultural terminology in English serves as a means of communicative functions and at the same time acts as a repository of collective memory, ideology, and national values. Their development reflects social transformations-from the traditional concepts embedded in religion and monarchy to the modern ones influenced by globalization, technology, and multicultural interaction.

This analysis confirms that English as an international language borrows and reinterprets cultural meanings from a variety of sources, further reinforcing its hybrid and adaptive nature. Knowledge of the lexical system regarding English culture terms is important not only for linguists but also for translators, educators, and intercultural communicators who seek to convey cultural nuance with accuracy.

References:

1. Sapir,E. (1921). Language: An Introduction to the Study of Speech. New York: Harcourt, Brace and Company.
2. Leech,G. (1981). Semantics: The Study of Meaning. London: Penguin Books.
3. Trask, R. L. (1996). A Dictionary of Grammatical Terms in Linguistics. London: Routledge.
4. Wierzbicka, A. (1997). Understanding Cultures Through Their Key Words. Oxford: Oxford University Press.
5. Kachru, B. B. (1992). The Other Tongue: English Across Cultures. Urbana: University of Illinois Press.
6. Halliday, M. A. K. (2002). Language and the Social Semiotic. London: Edward Arnold.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 81'27:316.77

INKLYUZIV MULOQOTDA KOMMUNIKATIV STRATEGIYA VA NUTQIY TAKTIKANING NAMOYON BO‘LISHI

Atamuradov Sherzod Rahmatullayevich, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

MANIFESTATION OF COMMUNICATIVE STRATEGY AND SPEECH TACTICS IN INCLUSIVE COMMUNICATION

Atamuradov Sherzod Rahmatullayevich, PhD in Philology (Doctor of Philosophy in Philological Sciences)

ПРОЯВЛЕНИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ СТРАТЕГИИ И РЕЧЕВЫХ ТАКТИК В ИНКЛЮЗИВНОЙ КОММУНИКАЦИИ

Атамурадов Шерзод Рахматуллаевич, доктор философии по филологическим наукам (PhD)

https://orcid.org/0000-0003-2825-323x
e-mail: abukomron@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inklyuziv muloqot jarayonida kommunikativ strategiyalar va nutqiy taktikalarning o‘zaro bog‘liqligi, ularning muloqot samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Inklyuziv kommunikatsiya insonlar o‘rtasida hurmat, bag‘rikenglik va tenglik tamoyillarini shakllantiruvchi jarayon sifatida qaraladi. Muallif strategiya va taktikaning lingvopragmatik mohiyatini tahlil qilib, inklyuziv muloqotda ular qanday ifodalanishini misollar orqali yoritadi.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv muloqot, kommunikativ strategiya, nutqiy taktika, lingvopragmatika, empatiya, tolerantlik, nutq etikasi.*

Abstract: *This article analyzes the interconnection between communicative strategies and speech tactics in inclusive communication and their impact on the effectiveness of interaction. Inclusive communication is considered a process that fosters respect, tolerance, and equality among individuals. The author examines the linguopragmatic essence of strategies and tactics and illustrates how they are manifested in inclusive communication through examples.*

Keywords: *inclusive communication, communicative strategy, speech tactics, linguopragmatics, empathy, tolerance, speech etiquette.*

Аннотация: *В статье анализируется взаимосвязь коммуникативных стратегий и речевых тактик в инклюзивной коммуникации и их влияние на эффективность взаимодействия. Инклюзивная коммуникация рассматривается как процесс, способствующий формированию уважения, терпимости и равенства между людьми. Автор рассматривает лингвопрагматическую сущность стратегий и тактик и иллюстрирует, как они проявляются в инклюзивной коммуникации на примерах.*

Ключевые слова: *инклюзивная коммуникация, коммуникативная стратегия, речевые тактики, лингвопрагматика, эмпатия, терпимость, речевой этикет.*

Kirish. Globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda muloqotning ijtimoiy-psixologik jihatlari yangi mazmun va shakllarga ega bo‘lib bormoqda. Axborot texnologiyalari tez sur’atlarda rivojlanishi, madaniyatlararo almashinuvning jadallashuvi va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ochiqlik tamoyilining mustahkamlanishi natijasida insonlar o‘rtasidagi aloqa ko‘lam jihatdan kengayib, murakkab va tizimli tus olmoqda.

Endilikda muloqot faqatgina lingvistik vositalar orqali fikr almashish jarayoni emas, balki

turli madaniyat, til va dunyoqarash egalari o‘rtasida madaniyatlararo hamkorlikni rivojlantiruvchi, ijtimoiy bag‘rikenglik va inklyuzivlikni ta’minlovchi mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois, inklyuziv muloqot zamonaviy kommunikatsiya tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida har bir ishtirokchini teng subyekt sifatida e’tirof etadi, uning shaxsiy qadr-qimmati, milliy-madaniy xususiyatlari va ijtimoiy tajribasini qadrlaydi.

Bunday muloqot jarayonida kommunikativ strategiyalarni aniq tanlash, nutqiy taktika va psixologik moslashuvni to‘g‘ri ta’minlash o‘zaro hurmat, ishonch va samarali muloqotni shakllantirishda muhim omil bo‘ladi. Shu jihatdan inklyuziv kommunikatsiya global ijtimoiy jarayonlarda insoniylik, empatiya va madaniyatlararo uyg‘unlikni mustahkamlashning eng asosiy vositasiga aylanmoqda.

Inklyuziv muloqot va uning mohiyati. Bugungi globallashuv davrida inklyuziv muloqot ijtimoiy taraqqiyot va madaniyatlararo integratsiyaning eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida qaraladi. Zamonaviy jamiyatda insonlar o‘rtasidagi muloqot endilikda faqat ma’lumot almashish yoki fikr bildirish vositasi emas, balki insoniy qadriyatlarni anglash, shaxslararo ishonchni mustahkamlash va ijtimoiy tenglikni ta’minlashga yo‘naltirilgan jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu nuqtayi nazardan, inklyuziv muloqot har bir insonning ijtimoiy mavqeyidan, madaniy kelib chiqishidan, jinsiy yoki yosh xususiyatlaridan qat’i nazar, uni muloqot jarayonining faol va teng huquqli subyekti sifatida qabul qiladi. Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, “Inklyuziv muloqotning asosiy maqsadi – har bir shaxsni muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida e’tirof etish va uning fikrini qadrlashdir” (Karimova, 2021, s. 47). Bu yondashuv ijtimoiy muloqotda diskriminatsiya, stereotip va to‘siqlarni kamaytirishga, shaxslar o‘rtasida o‘zaro hurmat va ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Inklyuziv muloqot mohiyati jihatidan shaxsiy o‘ziga xoslikni e’tirof etuvchi, insonning ichki dunyosi va ijtimoiy tajribasiga hurmat bilan yondashuvchi kommunikatsiya modelidir. Abdurahmonova (2020, s. 63) ta’kidlaganidek: “Inklyuziv muloqot empatiya, ijobiy tinglash va o‘zaro hurmat kabi ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi”. Shu nuqtayi nazardan, haqiqiy inklyuziv muloqotda faqat nutq mazmuni emas, balki muloqotning psixologik muhitini yaratish, suhbatdoshga nisbatan e’tibor va samimiyatni ifodalash ham katta ahamiyatga ega.

G. Halliday (2018, s. 102) fikricha, kommunikatsiya – bu “nafaqat lingvistik kodlar almashinuvi, balki ijtimoiy munosabatlarning ifodasidir”. Demak, muloqot jarayonida til shunchaki vosita emas, balki insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalarni mustahkamlovchi mexanizm sifatida ishlaydi. Shu sababli inklyuziv muloqotda lingvistik jihatlar bilan bir qatorda sotsiopsixologik va madaniyatlararo omillar ham muhim o‘rin tutadi.

Inklyuziv muloqotning mohiyatini kengroq talqin qilganda, u global jamiyatda inson huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy tenglikni ta’minlash va bag‘rikenglikni targ‘ib etish vositasi sifatida ham qaraladi. U muloqot ishtirokchilarini shunchaki suhbatdosh emas, balki o‘zaro qadriyatlar almashinuvi ishtirokchisi sifatida birlashtiradi. Shu jihatdan inklyuziv muloqot insonni markazga qo‘yuvchi, uning fikri, his-tuyg‘usi va madaniy o‘ziga xosligini tan oluvchi madaniyatlararo muloqot modeli hisoblanadi.

Bunday muloqotning amaliy natijalari ham bevosita ijtimoiy muhitda seziladi – u jamoalarda sog‘lom psixologik atmosfera, o‘zaro hamjihatlik, bag‘rikenglik va ijobiy o‘zaro ta’sirni shakllantiradi. Shu sababli inklyuziv muloqot nafaqat individual shaxsning rivojlanishiga, balki butun jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va madaniy uyg‘unligiga xizmat qiluvchi ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida e’tirof etiladi.

Kommunikativ strategiya va uning inklyuziv kontekstdagi roli. Kommunikativ strategiya – bu insonlar o‘rtasidagi muloqot jarayonida maqsadga erishish, o‘zaro tushunishni ta’minlash, ijtimoiy muvozanatni saqlash va hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan ongli nutqiy faoliyat tizimidir. Har bir kommunikativ strategiya o‘z mohiyatiga ko‘ra, so‘zlovchining muloqotdagi maqsadini amalga oshirish va suhbatdosh bilan psixologik uyg‘un aloqani o‘rnatish uchun xizmat qiladi.

Inklyuziv muloqot kontekstida esa bu strategiyalar kengroq ijtimoiy ma’noga ega bo‘lib, ular tenglik, hurmat, bag‘rikenglik va empatiya

tamoyillarini amaliy tarzda ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “inklyuziv kommunikatsiyada strategiyalar shaxslararo muvozanatni saqlash, ijtimoiy farqlarni yumshatish va ijobiy psixologik muhit yaratish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi” (Karimova, 2022, s. 54).

Kommunikativ strategiyalar ayniqsa turli madaniyat, til va dunyoqarash egalari o‘rtasidagi muloqotda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir madaniyatning muloqot me’yorlari, nutqiy odob qoidalari va emotsional ifoda shakllari farq qiladi. Shu bois, strategik yondashuv muloqotda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tushunmovchilik, stereotip va psixologik to‘siqlarni bartaraf etishga imkon beradi. Hasanova (2021, s. 39) ta’kidlaganidek, bunday strategiyalar “nutqiy va ijtimoiy rollarni uyg‘unlashtirish orqali inklyuzivlik tamoyillarini amalda ro‘yobga chiqaradi”. Ya’ni kommunikativ strategiya faqat til birliklarini tanlash yoki so‘zlashuv uslubini belgilash emas, balki muloqot ishtirokchilarining o‘zaro tengligini ta’minlash, shaxsiy farqlarni qadrlash va madaniyatlararo hamjihatlikni shakllantirish vositasidir.

Van Dijk (2019, s. 87) bu masalaga sotsiokognitiv nuqtayi nazardan yondashib, “kommunikativ strategiyalar nutqning ijtimoiy kontekstini boshqarish va shaxslararo tenglikni ifodalash mexanizmlarini o‘z ichiga oladi”, deb ta’kidlaydi. Shu nuqtayi nazardan, strategik yondashuv orqali til vositalari nafaqat ma’lumot yetkazadi, balki ijtimoiy munosabatlarni boshqaradi, nutqiy muhitni muvofiqlashtiradi va muloqot ishtirokchilarining ijobiy obrazini shakllantiradi.

Inklyuziv kontekstda kommunikativ strategiya pedagogik va tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. U o‘qituvchi-talaba, rahbar-xodim yoki ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi muloqotda ochiqlik, hamkorlik va o‘zaro hurmat tamoyillarini mustahkamlaydi. Shu orqali muloqotda empatiya, faol tinglash, tolerant yondashuv va madaniyatlararo sezgirlik kabi ijtimoiy-psixologik kompetensiyalar rivojlanadi.

Natijada, inklyuziv muloqotda kommunikativ strategiyalar shunchaki lingvistik hodisa emas, balki insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy hamkorlik, psixologik uyg‘unlik va madaniyatlararo muvozanatni ta’minlovchi integrativ tizim sifatida namoyon bo‘ladi. U shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni kuchaytiradi, ijtimoiy farqlarni emas, balki o‘xshashlik va umumiy qadriyatlarni ilgari suradi. Shu bois, kommunikativ strategiya inklyuziv muloqotning asosi sifatida, insonni markazga qo‘ygan va bag‘rikenglik hamda empatiyaga tayangan zamonaviy kommunikativ modelning ajralmas elementi hisoblanadi.

Nutqiy taktika va uning strategik tizimdagi o‘rni. Nutqiy taktika bu muloqot jarayonida kommunikativ strategiyani amalda ro‘yobga chiqaruvchi aniq lingvopragmatik vositalar majmuasidir. U so‘zlovchining nutqiy niyati, kommunikativ maqsadi va muloqot vaziyatiga mos ravishda shakllanadi. Aslida, taktika strategiyaga nisbatan operativ darajadagi vosita bo‘lib, u kommunikativ strategiyaning amaliy bosqichda qanday ifodalanishini belgilaydi. Shu bois, Saidova (2020, s. 112) ta’kidlaganidek, “nutqiy taktika kommunikativ strategiyaning amaliy ifodasi bo‘lib, maqsadga erishish jarayonida so‘zlovchining mos, yumshoq yoki ta’sirchan nutq uslublarini tanlashini belgilaydi”.

Taktikaning samaradorligi, avvalo, muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy mavqeyi, rollari, yosh omillari, madaniy konteksti va emotsional holatini hisobga olishga bog‘liq. Raxmonov (2021, s. 57) bu borada shunday fikr bildiradi: “Taktik yondashuv tinglovchining emotsional reaksiyasini inobatga olib, muloqotni konfliktlardan xoli va konstruktiv yo‘nalishda olib borishni ta’minlaydi”. Shu sababli nutqiy taktika ijtimoiy kommunikatsiyada muvozanatni saqlovchi, shuningdek, muloqotning psixologik ohangini belgilovchi muhim mexanizm sifatida qaraladi.

Inklyuziv muloqot kontekstida esa nutqiy taktika hurmat, empatiya va bag‘rikenglik tamoyillarini til orqali ifodalashga xizmat qiladi. Karimova (2022, s. 63) bu haqda shunday yozadi: “Inklyuziv muloqotda nutqiy taktika hurmat, empatiya va ijobiy psixologik ta’sir tamoyillariga asoslanib, muloqot ishtirokchilarining o‘zaro ishonchini mustahkamlaydi”. Shu jihatdan taktika nafaqat lingvistik tanlov, balki insoniy munosabatlarni boshqaruvchi kommunikativ mexanizm sifatida ham namoyon bo‘ladi.

G‘arb lingvopragmatik an’anasida ham nutqiy taktika ijtimoiy muvozanatni saqlash vositasi sifatida talqin etiladi. Leech (2014, s. 98) o‘zining “Politeness Principle” nazariyasida qayd etganidek,

“nutqiy taktika xushmuomalalik, etiket va ijtimoiy muvozanatni saqlash orqali kommunikativ maqsadning muvaffaqiyatli amalga oshishini kafolatlaydi”. Bu fikr ayniqsa ko‘p madaniyatli inklyuziv muhitlarda ahamiyatlidir, chunki eng kichik nojo‘ya taktika ham muloqot muvozanatini buzishi mumkin.

Nutqiy taktika va strategiyaning o‘zaro aloqasi mikro va makro darajadagi kommunikativ rejalashtirish bilan chambarchas bog‘liq. Strategiya muloqotning umumiy maqsadini belgilasa, taktika bu maqsadga erishish uchun konkret vositalarni tanlaydi. Shu sababli u “kommunikativ boshqaruv” tizimining faol komponenti sifatida harakat qiladi. Masalan, inklyuziv ta’lim yoki diplomatik muzokaralar kontekstida to‘g‘ri tanlangan taktika nizo, noto‘g‘ri talqin yoki ijtimoiy noqulayliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Demak, nutqiy taktika strategik tizimning ajralmas qismi bo‘lib, u til, madaniyat va psixologiyaning uzviy uyg‘unligini ta’minlaydi. U insonni muloqotning passiv obyekti emas, balki faol subyekti sifatida tan oladi va inklyuziv muloqotning asosiy tamoyillaridan biri – insoniy qadr-qimmatni hurmat qilish g‘oyasini ro‘yobga chiqaradi. Shu jihatdan nutqiy taktika til, madaniyat va ijtimoiy ong o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajaradi.

Lingvopragmatik yondashuvda strategiya va taktika uyg‘unligi. Lingvopragmatik yondashuvda strategiya va taktikaning uyg‘unligi – bu muloqot jarayonining semantik, ijtimoiy va psixologik jihatdan mukammal tashkil etilishiga xizmat qiluvchi tizimli mexanizmdir. Pragmatik nuqtayi nazardan qaraganda, strategiya muloqotning umumiy yo‘nalishi, maqsadi va rejasini belgilab bersa, taktika esa bu strategiyani real kommunikativ vaziyatda amalga oshiruvchi aniq lingvistik vositalar majmuasidir. Shu jihatdan, strategiya va taktika o‘zaro bog‘langan ikki darajali nutqiy boshqaruv tizimini tashkil etadi. Saidova (2020, s. 118) ta’kidlaganidek, “strategiya va taktikaning uyg‘unligi nutqni maqsadga yo‘naltirish, kommunikativ vaziyatga moslashish va so‘zlovchi-intensiyalarni to‘g‘ri ifodalash imkonini beradi”.

Lingvopragmatik jihatdan bu uyg‘unlik nafaqat semantik yaxlitlikni, balki sotsiopsixologik uyg‘unlikni ham ta’minlaydi. Raxmonov (2021, s. 61) fikricha, “lingvopragmatik uyg‘unlik nutqning mazmuni, uslubi va sotsiopsixologik ohangini muvofiqlashtirish orqali kommunikativ jarayonda semantik uyg‘unlikni shakllantiradi”. Ya’ni strategik rejalashtirish va taktik tanlov birgalikda muloqotning mazmuniy uyg‘unligini, nutqning emotsional ohangini va ishtirokchilar o‘rtasidagi ijtimoiy muvozanatni belgilaydi.

Bu jarayon ayniqsa inklyuziv muloqot kontekstida dolzarbdir, chunki u yerda til vositalarining tanlanishi nafaqat grammatik yoki semantik jihatdan, balki insoniy qadriyatlar, hurmat va tenglik tamoyillariga asoslanadi. Karimova (2022, s. 71) ta’kidlaydi: “Shaxsiy farqlarni inobatga olgan holda til vositalarining mos tanlanishi ijtimoiy inklyuzivlik va madaniyatlararo muvozanatni ta’minlaydi”. Shu bois, inklyuziv muloqotda strategiya va taktikaning uyg‘unligi empatiya, tolerantlik va bag‘rikenglikni til orqali ifodalashning asosiy sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Yule (2017, s. 89) o‘zining pragmatika haqidagi tadqiqotlarida qayd etganidek, “strategiya va taktika nutqiy niyatni ifodalashda kontekst, muloqot maqsadi va ijtimoiy rollarning o‘zaro ta’siri asosida shakllanadi”. Demak, har bir kommunikativ holatda so‘zlovchi strategik maqsadni belgilaydi, biroq uni amalga oshirishda mavjud kontekst, auditoriya xususiyatlari va ijtimoiy rollarga mos taktika tanlanadi. Masalan, pedagogik yoki diplomatik muloqotda strategiya bilim berish yoki hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan bo‘lishi mumkin, ammo taktika – bu maqsadni yumshoq va murosali tonda amalga oshirishni talab qiladi.

Lingvopragmatik yondashuvning eng muhim afzalligi shundaki, u muloqotni nafaqat lingvistik birliklar darajasida, balki ijtimoiy va kognitiv kontekst darajasida ham tahlil qiladi. Shu asosda strategiya va taktikaning uyg‘unligi muloqot samaradorligini oshirish, ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatish va kommunikativ muvaffaqiyatga erishishning integrativ modelini yaratadi. Brown va Levinson (1987, s. 102) “Politeness Theory” doirasida bu holatni “ijtimoiy muvozanatni saqlovchi pragmatik muvofiqlik” deb ataydi; ya’ni strategiya va taktika uyg‘unligi orqali so‘zlovchi o‘z niyatini ifodalayotgan paytda ham ijtimoiy hurmat va ijobiy “yuz”ni himoya qiladi.

Shunday qilib, lingvopragmatik yondashuvda strategiya va taktika o‘zaro bir-birini

to‘ldiruvchi, muloqotning semantik, ijtimoiy va psixologik barqarorligini ta’minlovchi integrativ tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning uyg‘unligi kommunikatsiyaning samaradorligini oshiradi va inklyuzivlik hamda madaniyatlararo hamjihatlikni ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etiladi. Shu bois, lingvopragmatik yondashuv hozirgi global kommunikativ jarayonda inson markazli, madaniyatga sezgir muloqot modelini shakllantirishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Inklyuziv muloqot zamonaviy ijtimoiy va madaniyatlararo munosabatlarda insoniy qadriyatlarni tiklash, bag‘rikenglik va hamkorlik muhitini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muloqot jarayonining samaradorligi strategik rejalashtirish va nutqiy taktikalarning uyg‘unligiga bevosita bog‘liq. Kommunikativ strategiyalar muloqotning umumiy yo‘nalishini belgilasa, nutqiy taktika esa bu strategiyani amaliy darajada amalga oshiradi.

Lingvopragmatik yondashuvda esa strategiya va taktikaning uyg‘unligi kommunikativ vaziyatga moslashish, shaxsiy farqlarni hisobga olish va ijtimoiy muvozanatni saqlash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, inklyuziv muloqot shaxsni markazga qo‘yuvchi, uning fikrini, his-tuyg‘usini va madaniyatini e’tirof etuvchi ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. U nafaqat lingvistik, balki psixologik va madaniy moslashuvga asoslangan kompleks jarayon bo‘lib, insonlar o‘rtasida o‘zaro ishonch, hurmat va hamjihatlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘XATI:

1. Abdurahmonova, N. (2020). *Inklyuziv muloqotning psixologik asoslari*. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Halliday, M. A. K. (2018). *Language as Social Semiotic: The Social Interpretation of Language and Meaning*. London: Edward Arnold.
3. Hasanova, D. (2021). *Kommunikativ strategiyalar va ularning madaniyatlararo muloqotdagi o‘rni*. Samarqand: SamDU nashriyoti.
4. Karimova, Z. (2021). *Inson omili va kommunikativ inklyuziya nazariyasi*. Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.
5. Karimova, Z. (2022). *Lingvopragmatik kompetensiya va inklyuziv muloqot*. Toshkent: Yangi asr bosma uyi.
6. Leech, G. (2014). *The Pragmatics of Politeness*. Oxford: Oxford University Press.
7. Raxmonov, A. (2021). *Nutqiy strategiyalar tizimi va ularning pragmatik tahlili*. Buxoro: BuxDU nashriyoti.
8. Saidova, M. (2020). *Kommunikativ strategiya va taktika: Lingvopragmatik yondashuv*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
9. Van Dijk, T. A. (2019). *Discourse and Context: A Sociocognitive Approach*. Cambridge: Cambridge University Press.
10. Yule, G. (2017). *Pragmatics*. Oxford: Oxford University Press

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK:2-67:316.74

ЎЗБЕКИСТОН ВА ТОЖИКИСТОНДА ДЕСЕКУЛЯР (СЕКУЛЯР) ЖАРАЁНЛАР БОСҚИЧЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ

[1]Юсупова Дилдора Дилшатовна, Ўзбекистон Миллий университети, фалсафа фанлари доктори (DSc)
[2]Отаматов Музаффар Абдурашидович, ЎзМУ "Ижтимоий фанлар" кафедраси мустақил изланувчиси

https://orcid.org/0000-0001-6517-0252
e-mail: muzaffarotamatov@gmail.com

CHARACTERISTICS OF THE STAGES OF DESECULAR (SECULAR) PROCESSES IN UZBEKISTAN AND TAJIKISTAN

[1]Yusupova Dildora Dilshatovna, Associate Professor of the Department of the National University of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (DSc)
[2]Otamatov Muzaffar Abdurashidovich, Independent Researcher of the Department of Social Sciences of the National University of Uzbekistan

ОСОБЕННОСТИ ЭТАПОВ ДЕСЕКУЛЯРНЫХ (СВЕТСКИХ) ПРОЦЕССОВ В УЗБЕКИСТАНЕ И ТАДЖИКИСТАНЕ

[1]Юсупова Дилдора Дилшатовна, Национальный университет Узбекистана, доктор философских наук (DSc)
[2]Отаматов Музаффар Абдурашидович, самостоятельный соискатель НУУ

***Аннотация**: Ушбу мақолада Марказий Осиё минтақаси, хусусан Ўзбекистон ва Тожикистонга диннинг кириб келиши ва унинг айрим талқинлари ўрганилди. Шунингдек, айнан бир қатор рус олимлари томонидан ислом динининг инсоният ҳаёти учун муқаддас ҳисобланиши билан биргаликда кучли секуляр сиёсатга қарши айрим қўзғолонлар ҳақида ҳам сўз борган. Ушбу жараёнлар муаллиф томонидан ўзига хос босқичлар кўринишида ретроспектив таҳлил қилинган.*

***Калит сўзлар**: давлат, дин, ислом, секуляризация, десекуляризация, эътиқод, тарих, Ўзбекистон, Тожикистон.*

***Аннотация**: В данной статье исследовано внедрение религии в центральноазиатский регион, особенно в Узбекистан и Таджикистан, и некоторые ее интерпретации. Также упоминались некоторые восстания против сильной светской политики, а также тот факт, что ряд российских ученых считают ислам священным для человеческой жизни. Эти процессы были ретроспективно проанализированы автором в виде конкретных этапов.*

***Ключевые слова:** государство, религия, ислам, секуляризация, десекуляризация, история, вера, Узбекистан, Таджикистан.*

***Annotation**: In this article, the introduction of religion to the Central Asian region, especially Uzbekistan and Tadjikistan, and some of its interpretation were studied. Also, some uprisings against tne strong secular politics were also mentioned, along with the fact that Islam is considered sacred for human life by a number of Russian scientists. These processes were retrospectively analyzed by the author in tne form of specific stages.*

***Key words:** state, religion, islam, secularization, desecularization, faith, history, Uzbekistan, Tadjikistan.*

КИРИШ. Десекуляр жараёнлар таҳлилига кирар эканмиз, дастлаб Марказий Осиё минтақасида диннинг пайдо бўлиш тарихига назар ташласак.

Минтақага Ислом дини 710-712 йилларда кириб келган бўлиб, унинг тарихи ҳақида маълумотлар турличадир.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ. Ислом динининг кириб келиши аксарият мактаб китоблари ва ўқув адабиётлари, қолаверса Совет тузуми пайтида туғилиб ўсган одамлар назарида "Араблар истилоси", "Араблар босқини" каби тушунчалар билан ёдга олинади. Аммо, бир қатор манбаларда "босиб олиниши" эмас, "фатҳ қилиниши" деб номланади ва далиллар билан асосланган. Жумладан, "Тарих айрим ҳолларда сиёсат қурбони бўлади", дейилганидек Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф томонидан айтилган маълумотларга[18] кўра "...-*Бу Ислом душманларининг гапи. Душманлар Исломдаги фатҳ ҳаракатини босқинчилик ҳаракати, бошқа юртларни босиб олиш, бойликларини ўзлаштириш, халқларни қул қилиш, дея баҳолайдилар. Ўлкамизнинг ҳақиқий босқинчилари бўлмиш кофирлар бу ҳаракатни "Араб истилоси" деб номлаганлар. Уларнинг айтишича, араблар бостириб келиб ҳаммаёқни ўзлариники қилиб олганлар. Кишиларни мажбуран Исломга киритганлар. Исломни қабул қилмаганларни ўлдирганлар ёки катта солиқ солганлар. Исломий фатҳларни "Араб истилоси" дейиш нотўғри эканлигини душманларнинг ўзлари ҳам билади, аммо Исломга қарши нимадир ўйлаб чиқариш керак бўлган. Натижада, шу ибора ўйлаб топилган. ...Мусулмонлар қаерга борсалар, динга даъват қилиш учун, адолат ўрнатиш учун борганлар. Ўша ерларнинг аҳолиси билан ака-ука бўлиб яшаб қолганлар. Мусулмонлар ҳеч бир юртнинг молу-мулкини талаб олиб кетмаган. Кишиларни Исломга киришга мажбур ҳам этмаган. Уларнинг муомаласи мустамлакачиларнинг номаъқул муомаласига мутлақо ўхшаган эмас. Буни инсофли ажнабий тарихчилар ва олимлар ҳам такрор-такрор қайд этганлар. Машҳур олим Томас Орланднинг "Исломга даъват"*[19] *китобида бу ҳақиқатни тасдиқлайдиган кўпгина ҳужжатли далиллар келтирилади*".

Ушбу иқтибоснинг мантиқий давоми сифатида 1870 йиллар Чор Россиясини Туркистон аҳолисининг айнан ислом динига бўлган эътиқодига нисбатан агрессив сиёсати [1] (манбаларда секуляр сиёсат деб номланади) одамларнинг ғазабига сабаб бўлди.

МУҲОКАМА. Хусусан, 1892 йилда Туркистонда содир бўлган "Вабо ғалаёни ёки тошотар воқеаси"[2], 1898 йилда "Миллий озодлик ҳаракати ёки Андижон қўзғолони"[16], 1917 йилда "Босмачилик ёки мусулмонлар қўзғолони"[17], 1927 йилда "Ҳужум ҳаракати ёки паранжи ташлаш кампанияси"[16] каби ҳаракатлар мазмунига кўра ислом динининг топталганлиги ёки мусулмонларни очиқча ёки турли яширин сиёсат орқали таҳқирлаш ҳолатларини кўрсатди.

Ваҳоланки, ислом динини нафақат мусулмонлар ҳаётида, балки бутун инсоният ривожи учун катта аҳамият касб этиши ҳақида ўз тадқиқотларини олиб борган, Собиқ иттифоқ (СИ) ва Россиянинг исломшунослик йўналиши ривожига катта ҳисса қўшган таниқли шарқшунос олимлар фаолияти агрессив сиёсат эгаларига ҳам маълум эди. Масалан, Г.С.Саблуков[3] (1804-1880) – рус шарқшуноси, Қозон маънавият академияси профессори, ислом тадқиқотчиси, араб тилидан рус тилига таржима қилинган биринчи Қуръоннинг муаллифи; В.Ф.Гиргас[4] (1835-1887) – рус тилшуноси, шарқшунос, лингвист, арабшунос; В.Р. Розен[5] (1849-1908) – рус шарқшунос-арабшуноси, Петербург фанлар академияси академиги, Санкт-Петербург университети араб оғзаки ва ёзма адабиёти профессори, С.И.Уманец[6] (1857-1917) – рус шарқшунос-олим; В.В.Бартольд[7] (1869-1930) – собиқ СИ ва рус шарқшуноси, арабшунос, исломшунос; А.Е.Крымский[8] (1871-1942) – Россия, Украина ва собиқ СИ тарихчиси, ёзувчи, таржимон, шарқшунос, арабшунос, исломшунос, туркшунос ва эроншунос; И.Ю.Крачковский[9] (1883-1951) – рус ва собиқ СИ арабшуноси, Россия ва собиқ СССР фанлар академияси академиги; И.Н.Винников[10] (1897-1973) – собиқ СИ олими, филология фанлари доктори, профессор; П.А.Грязневич[11] (1929-1997) – собиқ СИ ва Россия шарқшунос олими; М.А.Батунский (12) – таниқли исломшунос, собиқ СИ тарихчи ва

файласуфи; С.М.Прозоров[13] (1938) – собиқ СИ ва Россия шарқшунос олими, исломшунос; И.В.Порохова[14] (1940-2019) – инглиз тилидан рус тилига таржимон-синхронист, мусулмонлар жамияти арбоби каби олимлар фаолияти собиқ иттифоқнинг МО минтақасига нисбатан ўтказган сиёсатининг нечоғли нотўғри эканлигини исботлайди.

Иттифоқнинг тарқалиши ва юқоридаги омилларнинг йиллар мобайнида йиғилиб келганлиги Марказий Осиё давлатлари, хусусан Ўзбекистон ва Тожикистон аҳолисининг ҳам маънавий дунёсига ўз таъсирини ўтказмай қолмади ва файласуф олимлар таъбири билан айтганда дунё секуляризациядан десекуляризация даврига қайтди[15].

Хусусан, Ўзбекистондаги ҳолатни қўйидаги олти босқичга бўлиб ўрганиш мумкин:

1-расм

Ўзбекистонда давлат ва дин муносабатларининг ривожланиш босқичлари

Қанчалик кучли секуляр сиёсат бўлмасин, айрим сиёсий ўзгаришлар туфайли дин ўзининг аввалги ҳолатидан ҳам катта кучга эга бўлган омил сифатида намоён бўлди. Табиийки бу жараёнларда асосий элемент бўлиб аҳолининг диний эътиқодга бўлган интилиши ўзини кўрсатмоқда.

2-расм **Тожикистонда давлат ва дин муносабатларининг ривожланиш босқичлари**

Мустақилликкача бўлган биринчи ва иккинчи босқичлардаги ҳолат бирхилликни ташкил қилган бўлса-да, ундан кейинги вазият Тожикистонда бирмунча мураккаблиги билан ажралиб қолди. 1990 йилларда давлат томонидан етарлича назоратга эришилмагани оқибатида ТИУП фаолияти узоқ муддат мамлакат учун муаммолар туғдириб келди. 2015 йилда ТИУП фаолияти батамом сиёсий майдондан чиқариб юборилган бўлса-да, эндиликда улар илгари сурган эркин исломий диний эътиқоднинг янги даври, яъни десекуляризациянинг бошланганини сезиш қийин эмас.

Фойдаланилган асосий адабиётлар:

1. أدهامف .دىن هام شورالار حوكوماتى .ءوزناشر .سامارقاند - ناشكنت .. 9- 1929 - (Адҳамов. Дин ва шўролар ҳукумати. Ўзнашр. Самарқанд -1929- Тошкент. – Б. 9-10.).; ЦГА РУз Фонд И-1, опись-32, дело-384, лист-2.; Алихонтўра Соғуний. Туркистон қайғуси. Биринчи китоб. –Тошкент: Шарқ, 2003. – Б.109; Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2-нашри. 2-жилд.– Тошкент: Маънавият, 2006. – Б.44; Халқ сўзи. 1992 йил 22 март; Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. - Т.: Маънавият, 2008.-Б.37; Солмонов Ахмаджон. Ўзбекистонда совет ҳокимиятининг диний сиёсати: уйдирма ва тарих ҳақиқати (Матн): монография А.Солмонов. - Т.: Tafakkur, 2015. 160 бет; Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – Москва: Восточная литература. РАН, 2003. – С. 301; Ҳожи Исматиллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислом маданияти. Қисқача маълумотнома. –Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 364.; Ольшанский Л. Ленин организатор первых концлагерей. https://www.proza.ru/2018/02/18/486 Дата обращения: 29.11.2017; Камилов Д. Секулярлашув жараёнининг ижтимоий-фалсафий таҳлили: фалс.фан.фалс.док. ...дис. – Тошкент: ТошДТУ, 2021. – 43 б; Декрет советской власти. Москва: Политиздат, 1957. – С. 373-374; Маркс К., Энгельс Ф. Собрание сочинений. 4 том. – Москва: Государственное издательство политическое литературы, 1961. – С.73; Халид А. Ислам после коммунизма: Религия и политика в Центральной Азии / Пер.с англ. А.Б.Богдановой. — Москва: Новое литературное обозрение, 2010. 104 с.

2. Зиёев Х. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи: (Милоддан олдинги асрлардан то 1991йил 31 августгача). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.159; Буттино М. Революция наоборот: Средняя Азия между падением

царской империи и образованием СССР. Москва. ЗВЕНЬЯ, 2007. – С. 29; Ўзбекистон янги тарихи. Биринчи китоб. / Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 350; Юсупов Ш. Хуфия қатламлар. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б 75.
3. Саблуков Г.С. Перевод смыслов Корана. Falaq.ru/quran/sabl. (мурожаат санаси 29.08.2023).
4. Гиргас В.Ф. Арабско-русский словарь к Корану и хадисам. – СПб.: “Издательство Диля, 2006. – 298 с [Переиздание Словаря к Арабской хрестоматии и Корану. проф.В.Ф.Гиргаса (Казань, 1881) подготовили С.М.Прозоров и М.Г.Романов].
5. Российская академия наук Институт восточных рукописей (Санкт-Петербург). Виктор Романович Розен. https://orientalstudies.ru/rus
6. Уманец С.И.Богослов.RU., Научный богословский портал. https://Bogoslov.ru/person/2
7. Василий Владимирович Бартольд, https://biblioclub.ru/index.
8. А.Е.Крымский в истории отечественной тюркологии: Москва–Киев, Казанский федеральный Университет, https://kpfu.ru/phiology-cult
9. Анализ перевода Корана И.Ю.Крачковского., Al-HAKK Информационно-просветительский портал https://Al-hakk.ru/artikles/68
10. Винников И.Н. Материалы по языку и фольклору бухарских арабов / Советское востоковедение. Т.VI.М., Л., 1949. https://academia.edu/48895
11. Грязневич Пётр Афанасьевич. Лучшие книги., https://Livelib.ru/author/1077
12. Марк Батунский: Русь и ислам. X-XVI века. Лабиринт, https://Labirint.ru/books/809
13. Прозоров С.М. Книги онлайн. https://koob.ru/prozorov
14. Великие женщины Ислама. Иман Валерия Порохова-первая в мире женщина переводчица священного Корана. https://dkm.gov.uz/uz/velikiye...
15. Королев С.А. — Секуляризация и десекуляризация в контексте концепции псевдоморфного развития России // Философская мысль. – 2015. – № 4. – С. 1 - 54. DOI: 10.7256/2409
16. Юсупова Д. Туркистонда диний-сиёсий вазиятнинг фалсафий-концептуал таҳлили (XIX аср охири –XX аср бошлари). фалс.фан.фалс.док. ...дис. – Тошкент: Ўзбекистон Халқаро ислом академияси, 2019. – 61 б.; Зиёев Х. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи: (Милоддан олдинги асрлардан то 1991 йил 31 августгача). – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б 191.
17. Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тарққиёт учун кураш. (Ўзбекистон ва Бухоро жадидчилиги тарихига янги чизгилар). Даврий тўплам. № 1. – Тошкент: Университет, 1999. – Б. 39.
18. Араблар юртимизни босиб олганми ёки фатҳ қилганми? https://e-tarix.uz/maqolalar/1050-maqola.html
19. Тасаввуф ҳақида тасаввур: хотима мўғулларни бўсундириш. http://old.muslim.uz /index.php/rus/ kutubxona/item/25900

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK:81-43

РОЛЬ И СПЕЦИФИКА ЯЗЫКОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ ВНЕКЛАССНОЙ РАБОТЫ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ

Каюмов Василий Мухаматдинович, старший преподаватель Ургенчского технологического университета RANCH

https://orcid.org/ 0000-0001-2345-6789
e-mail: vasilijkaumov532@gmail.com

RUS TILI BO‘YICHA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHDA TIL KOMPETENSIYALARINING ROLI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Kayumov Vasiliy Muxamatdinovich, Urganch RANCH texnologiya universiteti katta o‘qituvchisi

THE ROLE AND SPECIFICS OF LANGUAGE COMPETENCIES IN ORGANIZING EXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN THE RUSSIAN LANGUAGE

Kayumov Vasiliy Mukhamatdinovich, Senior Lecturer, Urgench RANCH Technological University

Аннотация: *В данной статье рассматривается использование языковых компетенций и внедрение их в практику внеурочной деятельности. В ней анализируется основные типы компетенций, которые применяются в внеурочной деятельности, дается их классификация.*

Ключевые слова*: Компетенция, базовые знания, этап, внеурочная деятельность, работа в группах, мозговой штурм, компетентностный подход.*

Annotatsiya*: Ushbu maqolada til kompetensiyalaridan foydalanish va ularni sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda qo‘llash ko‘rib chiqiladi. Sinfdan tashqari ishlarda qo‘llaniladigan asosiy kompetensiya turlari tahlil qilinadi va tasnifi beriladi.*

Kalit so‘zlar*: Kompetensiya, asosiy bilimlar, bosqich, sinfdan tashqari ishlar, guruhli ish, aqliy hujum, kompetensiyaga asoslangan yondashuv.*

Abstract*: This article examines the use of language competencies and their implementation in extracurricular activities. It analyzes the main types of competencies used in extracurricular activities and provides a classification.*

Key words*: competence, basic knowledge, stage, extracurricular activities, group work, brainstorming, competency-based approach.*

Введение. Одним из важных факторов при проведении внеклассной работы являются цели и задачи, которые ставит перед собой учитель в данной работе. Если обобщить и проанализировать состояние внеклассной работы, то мы видим, что главными целями в организации внеурочной деятельности является развитие познавательного интереса к предмету, закрепление пройденного материала и форм устной и письменной речи. Методы, которые достигаются эти цели, могут быть разными. При этом очень важно сформулировать те базовые

знания, навыки и умения, которые может получить ученик проблематично. Кружковая работа, по нашему убеждению, не противопоставлена основному учебному процессу, она скорее дополняет его, позволят раскрывать его творческий потенциал, самостоятельность и закреплять пройденный. Таким образом, мы плавно подходим к вопросу о роли и специфике использования компетенций при организации внеурочной деятельности в средней школе.

Литература и методология. Сам термин «компетенция» не является новым, он возник в 60 -е годы XX века. Он был введен американским ученым Н.Хомским, для определения понятия «владения языком». В педагогическом словаре под редакцией Мижериковой В.А. дается следующе: «Компетенция – возможность установления субъектом деятельности связи между знанием и ситуацией, или способность найти, обнаружить ориентировочную основу действий, процедуру, необходимую для разрешения проблемы в конкретной ситуации» Компетенции играют центральную роль в современной методике преподавания русского языка, поскольку компетентностный подход является основой образовательных стандартов и нацелен на формирование у учащихся способности применять полученные знания и навыки в реальных жизненных ситуациях. В словаре под редакцией Д.Н.Ушакова, компетенция (от лат.competentio) дается в двух значениях: во-первых, это круг вопросов, явлений, в которых данное лицо обладает авторитетностью, познанием, опытом; во-вторых, это круг полномочий, область подлежащих чьему-либо ведению вопросов, явлений. Как считают специалисты: «…в современных условиях язык компетенций более адекватен для оценки результатов образования» [1:16].

Ключевые компетенции — «наиболее общие (универсальные) способности и умения, позволяющие человеку понимать ситуацию и достигать результатов в личной и профессиональной жизни в условиях возрастающего динамизма современного общества» [2:124]. Мы подходим к главному вопросу о роли компетенций при организации внеклассной работы. Современное образование ориентировано не только на усвоение системы знаний, но и на формирование у учащихся ключевых компетенций, позволяющих успешно применять полученные знания в различных жизненных ситуациях. Внеурочная деятельность по русскому языку играет важную роль в развитии языковой, коммуникативной, культурной и учебно-познавательной компетенций, расширяя возможности обучения за рамками урока. Современное образование ориентировано на формирование у обучающихся не только знаний, умений и навыков, но и компетенций, обеспечивающих успешную социализацию и саморазвитие личности. В преподавании русского языка компетенции занимают центральное место, так как владение родным языком — основа познания, общения. Особое значение приобретает внеурочная деятельность, которая предоставляет возможности для творческой самореализации учащихся и углубления языковых знаний. Под компетенцией в русском языке понимается способность учащегося применять языковые знания и умения в различных коммуникативных ситуациях, осознанно пользоваться языковыми средствами в устной и письменной речи.

Языковая компетенция — владение нормами фонетики, лексики, грамматики и орфографии. Коммуникативная компетенция — умение выражать мысли адекватно ситуации общения, соблюдать речевой этикет. Лингвокультурная компетенция — осознание взаимосвязи языка и культуры, понимание роли слова как носителя национальных ценностей. Информационная компетенция — умение искать, анализировать и критически оценивать языковую информацию из разных источников.

Обсуждение. Внеурочная работа по русскому языку способствует углублению знаний и развитию интереса к предмету. Она предоставляет возможность применять язык в нестандартных, творческих формах, что делает процесс обучения личностно значимым и мотивирующим.

Педагог при организации внеурочной работы выступает не только как наставник, но и как партнёр, консультант и вдохновитель. Его задача — создать условия, при которых учащиеся смогут проявить инициативу, самостоятельно добывать знания и осознавать ценность русского языка.

Необходимость изучения данного вопроса своевременна, поэтому мы провели исследования и анализ литературы и пришли к следующими выводам. Если рассматривать внеурочную деятельность как определённую систему, то внедрения компетенций во внеклассную работу следует постепенно, сначала языковую и коммуникативную, затем информационную и лингвокультурную.

Для начала необходимо сформулировать как знания необходимы при владении и понимание языковой компетенции. Какие знания, навыки, умения необходимы при ее овладении?

При этом в качестве первого шага следует создать набор требований, которые позволят использование языковой компетенции и ее внедрение в практику проведения внеклассных занятий по русскому языку.

Если рассмотреть использование языковой компетенции как данность, то, прежде всего, следует обращать внимание на уровни языка, на которые в процесс организации внеурочной деятельности должен обращать внимание учитель. Это позволит выбрать те или иные знания и навыки, умения, которые необходимы при изучении языка.

При изучении и анализе влиянии языковой компетенции на организацию внеклассных занятий по русскому языку, надо определить те разделы русского языка, категории которых проходят на кружковые занятия.

1-уровень. Фонетический. К нему следует отнести:

- умение правильно ставить ударения;
- различать гласные и согласные звуки;
-правильно читать слова;
-разбивать слова на слоги.

2-уровень. Лексический. Лексическая компетенция — это способность свободно и правильно использовать слова изучаемого языка в устной и письменной речи, а также понимать их значение в контексте. Она включает в себя знание словарного запаса, умение работать с лексическими единицами, их сочетаниями и нормами их употреблении. А.Н.Шамов считает лексическую компетенцию как «способность человека определять контекстуальное значение слова, сравнивать объем его значения в двух языках, определять структуру значения слова, определять специфически национальное в значении слова»[3:387-388].

По мнению А.Е.Сиземиной, «лексическая компетенция, представляя собой многоуровневое системное образование, обусловлена сложным взаимодействием личных качеств студента с приобретаемыми лексическими знаниями, навыками и умениями, а также имеющимся личным языковым и речевым опытом»[4:16].

При овладении лексической компетенции необходимо обращать внимание на следующие компоненты:

- умения понимать значение слова;
- умение выбирать и правильно использовать слова и выражения при говорении и письме;
-умение понимать и узнавать слова при чтении и аудировании;
-развитие умения использовать слова в собственной речи (говорение и письмо);
-находить и использовать в текстах изобразительные средства языка.
-Понимание национальной специфики слова и его связи с культурой носителей языка.

Методы и приемы работ по внедрению и использованию лексических компетенций, предполагает использование различных упражнений, наглядных методов, игр ассоциаций. Морфологическая компетенция — это способность человека применять знания о морфологии (части речи, их категории и формы) для грамотного и осознанного использования языка. Она включает умение определять части

речи, анализировать грамматические признаки слов и использовать их в устной и письменной речи, а также способствует развитию языковой грамотности и логического мышления. При овладении морфологическими компетенциями следует обратить внимание на овладение следующих знаний, навыков, умений:

-умение распознать части речи;

-способность определять грамматические категории;

-понимание правил изменения слов по падежам, числам, временам и другим формам;

- использование полученных знаний при письме и устной речи для построения правильных грамматических конструкций;

-подбор слов разных частей речи, при составлении предложения;

-навык правильно образовывать различные формы слова (например, изменение существительных по падежам или глаголов по временам);

-способность определять такие характеристики слова, как род, число, падеж, время, лицо, а также склонение или спряжение.

При использование вышеупомянутых компетенций необходимо поставить вопрос о роли современных методов, которые позволяют сделать данный процесс эффективным. Для внедрения компетенций при обучении русскому языку используются интерактивные методы, такие как мозговой штурм, групповая дискуссия, кейс-стади и традиционные, но адаптированные, методы, например, диктанты, переписывание отрывков, анализ текстов и дидактические игры. Важно также использовать задания, которые требуют не просто знания правил, а их применения в нестандартных ситуациях, а также дифференцировать задания по уровню сложности.

При этом как показала практика организации внеклассной работы полезными и эффективными остаются интерактивные методы. К ним можно отнести использование следующих методов:

1) Работа в группах;

2) Мозговой штурм.

Практика работы с учениками на кружковых занятиях предполагает кооперацию как интерактивных методов, так интерактивных, традиционных. Среди традиционных методов, которые можно использовать следует отнести:

1) Диктанты и переписывание: остаются актуальными для отработки орфографической и пунктуационной грамотности, а также для выявления пробелов в знаниях.

2)Чтение художественной литературы: способствует обогащению словарного запаса, развитию культуры речи и пониманию стилистических особенностей языка.

3)Работа с тестами: используется для проверки усвоения материала, а также для подготовки к формализованным видам контроля.

При организации внеурочных занятий, основанных компетенция, необходим использовать модель внедрения, которая основывается на комплексе упражнений и заданий, которые необходимы в данной работе.

1) Постановка заданий.

При обучении русскому языку необходимо учитывать тот факт, что правильно подобранное задание – это упражнение, тексты, использование которых проводится с учетом индивидуальных особенностей учеников. Они не должны быть слишком легкими, но и должны повторять «университетскую программу». В первую очередь это должны задание, которые помогают закрепить пройденный материал на уроке, учитывая уровни языка, которые проходят на кружковых занятиях. Примером может служить и адаптированные тексты.

Зима – холодн…е время года. Зимой начинают… каникулы. Дети играют на улицах в снежки, лепят снеговика, катаются на санках.

Группа делится на 2 команды. Перед ними ставятся следующие задачи:

-вставить пропущенное слово;

- подчеркнуть шипящие согласные;

-выписать незнакомые слова;

- продолжить по возможности текст.

Данная работа проводится в течении определенного времени, победившая команда

поощряется учителям. Налицо при помощи хорошо подготовленных заданий, учитель может повторить с учениками определенные знания по морфологии, орфографии, фонетике. Мозговой штурм при обучении русскому языку — это метод коллективного поиска идей для решения учебных задач, который помогает развивать у учащихся языковые, творческие и коммуникативные навыки. Его можно применять для решения проблемных заданий, например, по проверке безударных гласных, анализу текста или объяснению общего в словах. Метод заключается в свободном обмене идеями в группе с последующим их обсуждением и выбором лучших решения.

Применение мозгового штурма на разных этапах кружковых занятий:

1. Этап мотивации и актуализации знаний.

Учитель предлагает проблемный вопрос:

«Почему запятая — самый сложный знак препинания?»

«Какие ассоциации вызывает у вас слово “язык”?»

«Что вы знаете о способах образования слов?»

За несколько минут учащиеся выдают множество вариантов, на базе которых строится дальнейшая работа.

Мозговой штурм помогает подвести учащихся к открытию правила:

перед уроком о приставках «ПРЕ-/ПРИ-» ученикам предлагают назвать как можно больше слов с этими приставками и попытаться выделить закономерности;

перед темой «Н и НН» — объяснить, какие ассоциации вызывают эти буквы и где чаще всего встречаются.

2. Деятельностный этап. Это этап подразумевает работу по использованию языковых компетенций, а именно те знания, навыки, умения, которые учитель с учениками закреплял на внеурочные занятия. Он предполагает подбор методов и приемов обучений и разработку упражнений, необходимых учебных материалов и средств обучения.

3. Оценочный этап предполагает проверку и анализ учащимися и преподавателем процесса обучения, определение сильных сторон и областей для улучшения.

Заключение. Таким образом, использование языковых компетенций при организации внеурочной деятельности является вполне оправданным, так как способствуют закреплению полученных знаний и навыков, полученных в учебное время.

Компетентностный подход в практике методике преподавания русского языка явление молодое, но он доказал свою эффективность. Компетенции имеют большое значение в обучении русскому языку, так как позволяют перейти от простого запоминания правил к реальному применению языка в жизни, определяя уровень владения языком и его использования. Они включают в себя как языковые знания (грамматика, лексика), так и коммуникативные навыки (построение речи, понимание собеседника) и общую культурную, познавательную подготовку.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Иванов Д.А. Компетентности и компетентностный подход в современном образовании. — М.: Чистые пруды, 2007. 124 С.
2.Сиземина, А.Е. Методика развития лингвистической компетенции студентов лингвистического вуза на основе формирования мотивационной базы обучающихся: автореф. дис. … канд. пед. наук: А. Е Сиземина; НГЛУ им. Н. А. Добролюбова. – Н. Новгород, 2009. – 84 с.
3. Шамов, А.Н. Формирование лексической компетенции как основополагающая цель в обучении иностранному языку / А.Н.Шамов// Языки и культуры народов мира в лингводидактической парадигме: Лемпертовские IX:сб.ст. по матер. междунар. науч.-метод. симпозиума, 30–31 мая 2007 г. / Пятигор. гос. лингв. ун-т; отв. За вып. Н.В.Барышников. – Пятигорск, 2007. – С. 386–391.
4. Хуторской А.В. Ключевые компетенции и образовательные стандарты. — Интернет-журнал Эйдос. — 2006. — 16 с.

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 1(075.8):159

MUTOLAA MADANIYATI: ERKIN FIKRLASH VA IJODIY TAFAKKUR VOSITASI SIFATIDA

Raximov Mutallib Amirqulovich, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

READING CULTURE AS A MEANS OF FREE THINKING AND CREATIVE COGNITION

Rakhimov Mutallib Amirqulovich, Independent Researcher, Samarkand State University named after Sh. Rashidov

КУЛЬТУРА ЧТЕНИЯ КАК СРЕДСТВО СВОБОДНОГО МЫШЛЕНИЯ И ТВОРЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ

Рахимов Муталлиб Амиркулович, независимый исследователь Самаркандского государственный университет им. Ш.Рашидова

e-mail:

raximov888@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mutolaa madaniyatining zamonaviy insonning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishidagi o‘rni falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda mutolaaning shaxsning ma’naviy-ruhiy kamoloti, kreativ salohiyatini rivojlantirish, shuningdek, jamiyatda bilimli va intellektual avlodni shakllantirishdagi roli yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *mutolaa madaniyati, kitobxonlik, erkin fikrlash, ijodiy tafakkur, shaxsiy rivojlanish, ma’naviy kamolot, falsafiy-aksiologik yondashuv.*

Abstract: *This article examines the role of reading culture in the personal and social development of modern individuals from a philosophical perspective. The study highlights the significance of reading for the moral and spiritual development of the individual, the cultivation of creative potential, and the formation of an educated and intellectual generation within society.*

Keywords: *reading culture, book culture, free thinking, creative cognition, personal development, moral and spiritual development, philosophical-axiological approach.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль культуры чтения в личностном и социальном развитии современного человека с философской точек зрения. В исследовании раскрывается значение чтения для духовного и морального совершенствования личности, развития творческого потенциала, а также формирования образованного и интеллектуального поколения в обществе.*

Ключевые слова: *культура чтения, книжная культура, свободное мышление, творческое сознание, личностное развитие, духовное совершенство, философско-аксиологический подход.*

Kirish. Zamonaviy insoniyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo‘lgan muloqot madaniyati inson va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, bir-birini tushunish, hamkorlik va ma’naviy aloqadorlikning asosiy shaklidir. Insonning ijtimoiy tabiatiga ko‘ra, u muloqotsiz yashay olmaydi. Zero, har bir inson o‘z fikrini ifodalash, his-tuyg‘ularini baham ko‘rish, tajribasini boshqalar bilan almashish orqali jamiyatda o‘z o‘rnini topadi. Shu ma’noda, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni, mutolaa madaniyatini rivojlantirish doimiy e’tiborimiz markazida bo‘ladi”[1].

Bugungi kunda mutolaa madaniyati bo‘yicha tadqiqotlar faqat adabiyotshunoslik yoki kitobshunoslik bilan cheklanib qolmay, bilish nazariyasi, tafakkur metodologiyasi, axborot

falsafasi va kognitiv jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda olib borilmoqda. Chunki insonning ilm egallashi, o‘z-o‘zini anglashga intilishi, dunyoni kengroq idrok etishi hamda kreativ tafakkurga ega bo‘lishi uzluksiz mutolaa jarayonisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu sababli mutolaaning ontologik, gnoseologik va sinergetik mohiyatini chuqur tadqiq etish zamonaviy falsafa va gumanitar tafakkur oldidagi eng dolzarb ilmiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Mamlakatimizda mutolaa madaniyatining jamiyat taraqqiyoti va ayniqsa yoshlar tafakkuri shakllanishiga ko‘rsatadigan ta’siri masalalari qator ilmiy tadqiqotlarda yoritilib kelinmoqda. Mutolaaning savodxonlik darajasini oshirish, ish faoliyatidagi samaradorlikni kuchaytirish, shuningdek, an’anaviy fikrlashdan kreativ tafakkurga o‘tishni qo‘llab-quvvatlashdagi o‘rni dolzarb ilmiy mavzu sifatida ko‘riladi. Shu borada A. Umarov, A. Sher, A. Abdulazizov, B. Husanov, J. Yaxshilikov, B.I. Ganieva, E. Yo‘ldoshev, M.K. Xodjimatova, O.A. Turakulova, Y. Rozikova, U. Nurmatova, D. Xudoykulov kabi olimlar tomonidan turli ilmiy yondashuvlar asosida tadqiqotlar olib borilgan.

Xususan, U. Nurmatovaning fikricha, “mutolaa jarayoni insonning kognitiv qobiliyatlarini takomillashtirish, xotira va diqqatni kuchaytirish hamda matn mohiyatini ongli qabul qilishning samarali mexanizmlarini shakllantirishda muhim omil sanaladi”[2;8]. Mazkur yondashuv mutolaaga faqat madaniy hodisa sifatida emas, balki shaxs intellektual rivojining kompleks omili sifatida qarash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tarixiylik ва mantiqiylik prinsiplari**,** tizimli tahlil**,** qiyosiy yondashuv**,** germenevtik sharhlash va tushunish metodlari uyg‘un holda qo‘llanildi. Muloqot hamda mutolaa jarayonlarining real ijtimoiy muhitdagi namoyon bo‘lish xususiyatlarini o‘rganishda kuzatuв**,** sotsiologik so‘rovnoma **va** kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Shu asosda muloqot madaniyati ва mutolaaga oid dispozitsiyalarni empirik hamda nazariy tahlil mezonlari asosida baholash imkoniyati yaratildi. **Tahlil va natijalar (Analysis and Results).** Mutolaa insonning bilish faoliyati va ijtimoiy tajribasini shakllantiradigan eng muhim madaniy jarayonlardan biridir. U nafaqat ma’lumot egallashga xizmat qiladi, balki tafakkur imkoniyatlarini kengaytirib, shaxsning intellektual va ruhiy rivojiga ta’sir ko‘rsatadi. Mutolaa jarayoni ong, idrok, xotira va tafakkurning uyg‘un ishlashini talab qiluvchi murakkab psixologik hamda madaniy faoliyatdir[2;10].

Falsafiy nuqtai nazardan qaraladigan bo‘lsa, mutolaa insonning o‘z-o‘zini anglashiga, borliqni tushunib yetishiga va ma’naviy takomiliga xizmat qiluvchi jarayon bo‘lib, u shaxsning mustaqil fikr yuritish kompetensiyasini shakllantiradi. Shu bilan birga, mutolaa ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash va madaniy merosni avloddan avlodga uzatishning eng asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Ya’ni, mutolaa jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘langan falsafiy-aksiologik hodisadir.

Sotsiolog olim A. Umarov ta’kidlaganidek, “mutolaa ko‘nikmasi ijtimoiy bilimlar, normalar va qadriyatlar mazmunini anglab yetishga xizmat qiladi hamda shaxs faoliyatida muhim o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi”[3;33]. Bu fikr mutolaaning jamiyatning intellektual va madaniy taraqqiyotiga qo‘shadigan hissasini yanada kuchliroq asoslaydi.

Zamonaviy axborot makonida esa mutolaa madaniyati kishilardan tezkor fikrlash, mantiqiy tahlil, xavfsiz va izchil axborot saralash ko‘nikmalarini talab qilmoqda. Aynan shuning uchun ham bugungi kunda kitob o‘qish jarayoni yoshlar dunyoqarashi, ruhiy holati va ta’limiy yutuqlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Mutolaa madaniyati pedagogik jarayonning barqaror rivojlanishi hamda kreativ tafakkurining shakllanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Shu bois, mutolaa inson va jamiyat o‘rtasidagi uzviy aloqalar mazmunini kengaytirib, ma’naviy qadriyatlar barqarorligini ta’minlaydigan fundamental jarayon sifatida dolzarbligini doimo saqlab qoladi.

Mutolaa madaniyati mazmuni, avvalo, zamonaviy insonning o‘z-o‘zini rivojlantirish resurslarini izlash va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishda namoyon bo‘ladi. Inson adabiy va ilmiy manbalarni o‘zlashtirish jarayonida ijodiy tafakkurini faollashtiribgina qolmay, balki o‘z shaxsiyligini shakllantirish, his-tuyg‘ulari va hayotiy qarashlarini boyitish imkoniga ega bo‘ladi. Shu tariqa, mutolaa nafaqat bilim egallash vositasi,

TAMADDUN NURI

balki insonning ichki dunyosini boyitadigan, kreativ imkoniyatlarini rivojlantiradigan madaniy va ma'naviy jarayon sifatida ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy axborot muhitida mutolaa madaniyatining mazmuni sezilarli darajada kengayib bormoqda. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, "mutolaa madaniyati doirasida sodir bo'layotgan yangilanishlar aholining iste'molchilik xulq-atvori bilan bevosita bog'liq. Bu esa mutolaa qilishning an'anaviy subyekt-obyekt, ya'ni kitob-o'quvchi tizimidan onlayn va oflayn media manbalarga qiziqishning ortishi shakliga o'tmoqda. Natijada, qisqa va tezkor ma'lumotlarni iste'mol qilish tendensiyasi kuchayib, chuqur mutolaa jarayoni sustlashmoqda"[4;175-176].

Shunga qaramay, mutolaa jarayoni inson erkin fikr yuritishining muhim manbai bo'lib qolmoqda. Shaxs erkinlik tamoyiliga asoslangan holda o'z ma'naviy olami, intellektual tajribasi va hayot tarzini ongli ravishda yaratadi. Bilish, tafakkur va o'z-o'zini anglash jarayonlari aynan mutolaa vositasida barqaror va mazmunli tus oladi. Mutolaa, demak, insonning ichki va tashqi faoliyatini uyg'unlashtiruvchi, ijodiy salohiyatni kuchaytiruvchi murakkab madaniy jarayondir.

Bugungi davr mutolaadan nafaqat dunyoni aks ettirishni, balki uni faol o'zgartirish va yangicha fikrlashni talab qilmoqda. Zamonaviy o'quvchi mutolaa orqali yangilik yaratish, ijtimoiy vazifalarni hal etish, etik qarorlar qabul qilish va global muammolarga ijodiy yondashish imkoniga ega bo'ladi. Shu jihatdan mutolaa individual erkinlik, shaxsiy ma'suliyat va madaniy ongni rivojlantiradi.

Shu tariqa, mutolaa shaxsning ma'naviy-ruhiy kamoloti bilan birga jamiyatning intellektual va madaniy rivojlanishi uchun falsafiy-aksiologik poydevor vazifasini bajaradi. Bugungi kunda "Respublikamiz bo'ylab kitobxonlik tadbirlari, oliy ta'lim muassasalarida badiiy-ilmiy uchrashuvlar, mahallalarda zamonaviy kutubxonalar tashkil etilayotgani, kitob mutolaasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi yoshlarni tanqidiy fikrlash va yangi tashabbuslarga tayyorlashga xizmat qilmoqda"[5;20].

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendations). Xulosa qilib aytganda, mutolaa murakkab va ko'p qirrali madaniy-falsafiy tushuncha bo'lib, inson ma'naviy borlig'ining ajralmas atributi sifatida o'z-o'zini shakllantiruvchi sinergetik fenomen sifatida namoyon bo'ladi. U nafaqat matnni diqqat bilan o'qish, uni idrok etish va tushunishga qaratilgan ratsional bilish qobiliyatini rivojlantiradi, balki ijodiy tafakkur, kommunikativ kompetensiya va onto-gnoseologik faoliyatni mustahkamlaydi.

Mutolaa shaxsiyatga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatadi, ma'naviy borlikni yuksaltiradi va insonning intellektual hamda ijodiy salohiyatini boyitadi. Shu bilan birga, u shaxsning ichki dunyosi va tashqi olami o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlash, kreativ tafakkur va ijodiy faoliyatni rag'batlantirish orqali umumiy ma'naviy va intellektual kamolotga xizmat qiladi.

Shunday qilib, mutolaa nafaqat bilim va ma'naviyat manbai, balki inson va jamiyat o'rtasidagi falsafiy-aksiologik bog'liqlikni mustahkamlovchi, shaxsni intellektual, ma'naviy va ijodiy jihatdan rivojlantirishning universal vositasidir. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy ta'lim va madaniyat tizimlarida mutolaa madaniyatini rivojlantirish strategik ahamiyatga ega bo'lib, har bir shaxsning shaxsiy va ijodiy potensialini to'liq ro'yobga chiqarishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yxati (References):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yoshlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. Azmu shijoatli yoshlarimiz bilan birgalikda yangi O'zbekistonni albatta bunyod etamiz. // https://president.uz/uz/lists/view/4463.
2. Nurmatova U.J. Mutolaa falsafiy kategoriya sifatida: ontologik va gnoseologik jihatlari. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatesiyasi avtoreferati. Samarkand, SamDU, 2023.
3. Umarov A.O. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni ta'minlash va komil inson shaxsini shakllantirishda mutolaaning roli. Sos.fan.dok. dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2005. B.33.
4. Xudoyqulov D. Zamonaviy axborot makonida yoshlar mutolaa madaniyatining qadriyatli-metodologik o'zgarishlari. Falsafa va hayot | Filosofiya i jizn | Philosophy and Life xalqaro ilmiy jurnal. Toshkent, 2020. №SI-2. B.175-176.
5. Shermuxamedova N.A. Yangilanayotgan O'zbekistonda uzluksiz ta'lim va tarbiya mutanosibligini ta'minlash omillari. Xozirgi zamon falsafasi: xolati va taraqqiyotining istiqbollari mavzusidagi respublika ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari. Toshkent, 2021. B.20.

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 344.072:347.6

VOYAGA YETMAGAN XODIMLAR MEHNATINING HUQUQIY KAFOLATLARI VA ULARNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI

Axatova Nilufar Sobirovna, TDYU huzuridagi Samarqand viloyati akademik litseyi huquqiy fanlar o'qituvchisi

LEGAL GUARANTEES OF MINOR EMPLOYEES' LABOUR AND MECHANISMS FOR THEIR IMPLEMENTATION

Akhatova Nilufar Sobirovna, Teacher of Legal Disciplines at the Samarkand Regional Academic Lyceum under Tashkent State University of Law

ПРАВОВЫЕ ГАРАНТИИ ТРУДА НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ РАБОТНИКОВ И МЕХАНИЗМЫ ИХ РЕАЛИЗАЦИИ

Ахатова Нилуфар Собировна, преподаватель правовых дисциплин академического лицея Самаркандской области при Ташкентском государственном юридическом университете



e-mail: niluakhadova@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada voyaga yetmagan xodimlarning mehnat sohasidagi huquqiy kafolatlari, ularning mehnat huquq layoqati va protsessual maqomini belgilovchi normativ-huquqiy asoslar tahlil qilinadi. Maqolada voyaga yetmaganlarni noqonuniy mehnatga jalb etish holatlarining huquqiy oqibatlari, davlat nazorati organlarining vakolatlari hamda mehnat xavfsizligi sohasida qo'llanilayotgan chora-tadbirlar tahliliy yondashuv asosida ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *voyaga yetmaganlar, mehnat huquqi, huquqiy kafolat, mehnat layoqati, mehnat munosabatlari, mehnat kodeksi, bola huquqlari, mehnat xavfsizligi, davlat, nazorat.*

Abstract: *This article examines the legal guarantees of labor rights for underage employees, as well as the normative and legal framework that defines their labor capacity and procedural status. The study analyzes the legal consequences of the illegal employment of minors, the powers of state supervisory bodies, and the measures implemented to ensure labor safety.*

Keywords: *minors, labor law, legal guarantee, labor capacity, labor relations, Labor Code, child rights, labor protection, state supervision, legal mechanisms, administrative liability, social protection.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются правовые гарантии труда несовершеннолетних работников, нормативно-правовые основы, определяющие их трудовую дееспособность и процессуальный статус. В статье раскрываются правовые последствия незаконного привлечения несовершеннолетних к труду, полномочия государственных контрольных органов, а также меры, применяемые в сфере обеспечения безопасности труда.*

Ключевые слова: *несовершеннолетние, трудовое право, правовая гарантия, трудоспособность, трудовые отношения, Трудовой кодекс, права ребёнка, охрана труда, государственный контроль, правовые механизмы, административная ответственность, социальная защита.*

Kirish (Introduction). O'zbekiston Respublikasida mehnat munosabatlari demokratiya, insonparvarlik va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanib, huquqiy jihatdan tartibga solingan bo'lib, u bozor iqtisodiyoti sharoitida zamon talablariga va xalqaro standartlarga mos

ravishda rivojlanmoqda. Mehnat sohasidagi barcha ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjat sifatida O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi faoliyat yuritadi. Ushbu kodeks subyektlarning mehnat huquqlari va majburiyatlarini, mehnat shartnomasini tuzish va bekor qilish tartibini, ish va dam olish vaqtini, mehnatni muhofaza qilish choralari hamda xodimlarning ijtimoiy himoyasini batafsil belgilaydi.

Shuningdek, Mehnat kodeksi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan quyidagi huquqiy qoidadan kelib chiqadi: “Har bir fuqaro munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay sharoitda ishlash, mehnati uchun kamsitmasdan, belgilangan eng kam ish haqidan kam bo‘lmagan adolatli haq olish, shuningdek, ishsizlikdan qonunda ko‘rsatilgan tartibda himoyalanish huquqiga ega”[1]. Ushbu konstitutsiyaviy norma amaliyotda amalga oshirilishi orqali mehnat sohasida inson qadr-qimmatini hurmat qilish, mehnat munosabatlarini adolat, tenglik va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillariga tayangan holda tashkil etishning huquqiy asosini yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Voyaga yetmaganlarning mehnat faoliyatida ishtiroki masalasi bugungi kunda jahon hamjamiyatining diqqat markazida turadi. Bolalar mehnati inson huquqlari, ta’lim, sog‘lom turmush tarzi va ijtimoiy adolat prinsiplari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan global muammo sifatida ko‘riladi. Shu nuqtai nazardan, xorijiy olimlar, jumladan, Elizabet Eylott, G.P. Mazina, E.N. Xammatova, O.A. Gafiatullina, S.P. Matveev, E.V. Meshcheryakova, A.V. Buyanova, S.F. Guseinova, A.K. Nodirova, D.V.Dolotova, O.Akimova va Yu.G. Novichkova hamda O‘zbekiston olimlaridan B.T. Musayev, K.R. Aliyeva, B.A. Narimanov, M.A. Usmanova, Yu. Tursunov, E. Sarsenbaeva, A. Qahramonova va S. Shoislomova ushbu masalaga bag‘ishlangan xalqaro va milliy adabiyotlarda bolalar mehnatini cheklash, huquqiy kafolatlarni mustahkamlash hamda amaliy mexanizmlarni takomillashtirishga oid keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qo‘llangan metodlar bir-birini to‘ldiruvchi tarzda amalga oshirilib, huquqiy nazariyani amaliy tajriba bilan uyg‘unlashtirish imkonini berdi. Shu yondashuv voyaga yetmagan xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini chuqur tahlil qilish va ularni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asosli xulosalar ishlab chiqishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimizda yoshlar, xususan bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning sog‘lig‘ini saqlash hamda tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish borasida tizimli va izchil ishlar amalga oshirilmoqda. “O‘zbekiston yoshlarini intellektual, jismoniy va ma’naviy-ruhiy jihatdan barkamol etib tarbiyalash uchun davlat va jamiyatning kuch-salohiyati, mablag‘i va boshqa zarur imkoniyatlari tobora ko‘p, izchil hamda tizimli asosda yo‘naltirilayotgani bejiz emas. Shu sababli, bugungi kunda mamlakatimizda 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar 19 million 600 ming nafardan ziyodni yoki aholining 55,6 foizini tashkil qilmoqda. Mehnat bozoriga har yili o‘rtacha 600 ming nafar yoshlar kirib kelayotgani hisobga olinsa, kelgusi o‘n yil ichida bu raqam 1 millionga yetadi” [3] degan prognozlar ushbu yo‘nalishda samarali huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Xalqaro maydonda qabul qilingan Xalqaro Mehnat Tashkilotining (ILO) 138-sonli “Minimal yosh to‘g‘risida”gi [4] va 182-sonli “Bolalar mehnatining eng yomon shakllarini taqiqlash va bartaraf etish to‘g‘risida”gi [5] konvensiyalari bu sohada asosiy huquqiy poydevor sifatida xizmat qiladi. Ushbu konvensiyalar davlatlardan bolalarni majburiy yoki xavfli ishlarga jalb qilishni qat’iyan man etishni, ularni mehnat ekspluatatsiyasidan himoya qilishni talab qiladi. Shu bilan birga, BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi” bolalarning iqtisodiy manfaat yo‘lida ekspluatatsiya qilinishiga qarshi qat’iy huquqiy me’yorlarni belgilaydi.

TAMADDUN NURI

O‘zbekiston Respublikasi mazkur xalqaro normalarni milliy qonunchilikka tatbiq etgan. Mehnat kodeksida voyaga yetmaganlarning mehnatga oid huquqlari, mehnat sharoitlariga qo‘yiladigan talablar, ish vaqti, dam olish va xavfsizlik masalalari alohida tartibda belgilangan. Xususan, 2022-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi bolalar mehnatining har qanday shakliga qarshi qat’iy cheklovlarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston ILO konvensiyalarining deyarli barchasini ratifikatsiya qilgan davlat sifatida bolalar mehnatini bartaraf etish bo‘yicha milliy dasturlarni amalga oshirmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-iyuldagi 290-son qarori “O‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarning mehnatidan foydalanilishi taqiqlangan og‘ir ishlar hamda zararli yoki xavfli mehnat sharoitlaridagi ishlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida” bolalarning mehnat huquqlarini himoya qilish, sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi ish faoliyatining oldini olish hamda noqonuniy mehnat ekspluatatsiyasini bartaraf etish uchun qabul qilingan [6].

Mehnat kodeksining 412-moddasiga muvofiq, “O‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarning mehnatini qo‘llash taqiqlanadigan ish turlari aniq belgilangan. Ushbu norma voyaga yetmaganlarning sog‘lig‘iga, jismoniy va ruhiy rivojlanishiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan og‘ir, zararli yoki xavfli ishlarida ularning mehnatidan foydalanishni qat’iyan man etadi. Shuningdek, o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslar zararli va xavfli sharoitdagi ishlarda, yer osti ishlarida hamda ularning hayoti va sog‘lig‘iga, xavfsizligiga va ma’naviy rivojlanishiga zarar yetkazuvchi ishlar, jumladan, tungi kafe va klublarda spirtli ichimliklar, tamaki, giyohvandlik va psixotrop moddalarni ishlab chiqarish, tashish va sotish ishlarida ishlatilmaydi” [7].

Bundan tashqari, o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan xodimlarning belgilangan me’yorlardan ortiq og‘ir yuklarni ko‘tarishi va tashishi taqiqlanadi. Ushbu qoidalar amaldagi qonunchilik bilan mustahkamlangan bo‘lib, “O‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan xodimlar mehnatining qo‘llanilishi taqiqlanadigan ishlar ro‘yxati, shuningdek, og‘ir yuklarni ko‘tarish va tashish bo‘yicha eng ko‘p normalar O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan Ijtimoiy-mehnat masalalari bo‘yicha uch tomonlama respublika komissiyasi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi” [7].

Mazkur qoidadan istisno tariqasida, mehnatga oid huquqiy munosabatlar doirasida xodimlarning fuqarolik muomala layoqati 15 yoshdan boshlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 118-moddasiga ko‘ra, xodimlarning mehnat huquq layoqati umumiy tartibda 16 yoshdan hisoblanadi. Shunga qaramay, 15 yoshga to‘lgan shaxs ota-onasi yoki vasiylik va homiylik organining roziligi bilan mehnat shartnomasini tuzish va mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 42-moddasida “Fuqarolik protsessual muomala layoqati. Voyaga yetmagan, ya’ni yoshi o‘n to‘rtdan o‘n sakkizgacha bo‘lgan fuqarolar hamda muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari sudda ularning ota-onalari, farzandlikka olganlar yoki homiylar tomonidan himoya qilinadi. Ammo bu hol voyaga yetmaganlarni va muomala layoqati cheklangan shaxslarni sud jarayonida shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum qilmaydi” [8] deb belgilangan. Shu bilan, amaldagi qonunchilik voyaga yetmagan shaxslarning mehnat faoliyati davomida huquqiy layoqatini va protsessual imkoniyatlarini aniq belgilab, ularning huquqlarini sud va boshqa instansiyalarda mustaqil himoya qilish mexanizmlarini kafolatlaydi.

Voyaga yetmaganlarni noqonuniy ravishda, xususan zararli yoki xavfli mehnat sharoitlarida ishlatish holatlari qat’iyan man etilgan. Bunday huquqbuzarliklar uchun O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 491-moddasiga muvofiq, “Voyaga yetmagan shaxslarning mehnatidan foydalanishga yo‘l qo‘yilmasligi to‘g‘risidagi talablarni buzish, shuningdek, voyaga yetmagan

TAMADDUN NURI

shaxs mehnatidan uning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga yoki axloq-odobiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan ishlarda foydalanish jarima yoki boshqa ma’muriy choralarni qo‘llashni nazarda tutadi” [9]. Ushbu norma bolalar mehnatini himoya qilish, ularni ekspluatatsiyadan saqlash hamda xavfsiz mehnat sharoitlarini ta’minlashning huquqiy kafolatidir.

Natijalar. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlar mehnatini cheklash va yoshlarning mehnat huquqlarini ta’minlashga qaratilgan institutsional islohotlar tizimi shakllandi. Ushbu jarayon xalqaro ekspertlar va nufuzli tashkilotlar tomonidan ijobiy baholangan. Jumladan, AQSh Mehnat departamentining Xalqaro mehnat masalalari byurosi (ILAB) tomonidan o‘tkazilgan so‘nggi tahlillarda, “2024-yilda O‘zbekiston bolalar mehnatining eng yomon shakllarini bartaraf etish bo‘yicha o‘rtacha natijalarga erishdi. Oktyabr oyida Prezident qarori bilan mehnat inspektorlari xususiy korxonalar faoliyatini tekshirishdan oldin Biznes-ombudsmandan ruxsat olish talabini bekor qildi. Shuningdek, hukumat bolalarning ta’lim olish imkoniyatlarini yaxshilash, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha Prezident farmonini chiqardi va Xalqaro Mehnat Tashkilotining yangi konventsiyalarini, jumladan Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik to‘g‘risidagi 155-sonli konventsiyani ratifikatsiya qildi” [10]. Byuronning xulosalari O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar mehnatini himoya qilish sohasidagi islohotlar xalqaro me’yorlarga muvofiq olib borilayotganini ko‘rsatadi, ammo ularni to‘liq amalga oshirish uchun nazorat, huquqiy monitoring va profilaktika mexanizmlarini kuchaytirish zarurligi ta’kidlanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, voyaga yetmagan xodimlarning mehnatini huquqiy kafolatlash uchun xalqaro standartlarga asoslangan normativ baza yaratilgan. Shu bilan birga, ularning samarali ijrosini ta’minlash, nazorat tizimini mustahkamlash hamda kasbga yo‘naltirish dasturlarini rivojlantirish dolzarb masala sifatida qolmoqda. Mazkur chora-tadbirlar yosh avlodni sog‘lom, bilimli va mehnat bozoriga raqobatbardosh kadrlar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, voyaga yetmagan xodimlarning mehnatini huquqiy tartibga solish nafaqat ularning mehnat huquqlarini himoya qilish, balki jamiyatning kelajak intellektual va iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy-huquqiy mexanizmdir. Ushbu huquqiy mexanizmning asosiy maqsadi — voyaga yetmaganlarni mehnat jarayonida ekspluatatsiyadan himoya qilish, ularning sog‘lig‘iga, ta’lim olish huquqiga va shaxsiy rivojlanishiga zarar yetkazmaydigan sharoitda ishlashini ta’minlashdan iboratdir. Shu sababli amaldagi mehnat qonunchiligi voyaga yetmaganlar uchun ish vaqti, dam olish muddati, mehnat sharoiti, mehnat shartnomasini tuzish tartibi hamda ishdan bo‘shatilish masalalarida alohida kafolatlarni belgilaydi. Asosiy Qonunimizda qayd etilganidek, “Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg‘iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir” [1].

Shu bilan birga, huquqiy me’yorlarning mavjudligi ularning amalda to‘liq ijro etilishini kafolatlamaydi. Shu nuqtai nazardan, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega:

- mehnat qonunchiligi ijrosini ta’minlashda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Davlat mehnat inspeksiyasi faoliyatini samarali tashkil etish;
- voyaga yetmaganlar mehnatini himoya qilishda huquqiy nazoratni mustahkamlash va monitoring tizimini kuchaytirish;
- voyaga yetmaganlarning mehnat huquqlarini samarali himoya qilish maqsadida ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda o‘quvchi yoshlarning mehnat huquqi bo‘yicha bilimlarini oshirish va ularning huquqiy madaniyatini shakllantirish;
- mehnat qonunchiligi ijrosini ta’minlashda yoshlar uchun xavfsiz va sog‘lom mehnat sharoitlarini yaratish, ularning jismoniy va ruhiy salomatligiga zarar yetkazmaydigan ish turlarini belgilash;
- mehnat huquqlarining kafolatini ta’minlash maqsadida mehnat shartnomalarini majburiy yozma shaklda rasmiylashtirish, ularni tegishli

tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish va ish beruvchining javobgarligini belgilash;

- bolalar mehnatining noqonuniy shakllarini bartaraf etish uchun aniqlash, nazorat va javobgarlik mexanizmlarini takomillashtirish, bunda mehnat inspeksiyasi, ta’lim muassasalari va mahalliy hokimiyat organlarining o‘zaro hamkorligini kuchaytirish zarur.

Shunday qilib, voyaga yetmagan xodimlarning mehnatini huquqiy tartibga solish shunchaki mehnat munosabatlarini nazorat qilish emas, balki inson huquqlari, yoshlar siyosati va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan demokratik davlat qurilishining ajralmas qismi hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda qonunchilikni izchil takomillashtirish va uning amaliy ijrosini ta’minlash Yangi O‘zbekistonning xalqaro majburiyatlariga sodiqligini hamda yosh avlod manfaatlariga bo‘lgan e’tiborini yaqqol ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // https://constitution.uz/oz/clause/index.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi // http://uza.uz/oz/politics/onun-ustuvorligi-va-inson-manfaatlarinitaminlash-yurt-tara --07-12-2016.
3. Yoshlar huquqlari: imkoniyatlar va himoya qilish mexanizmlari (Poytaxtimiz shu mavzudagi xalqaro forumga mezbonlik qiladi) // Yangi O‘zbekiston gazetasining 2023-yil 21-oktyabr kungi 219 (1008)-soni.
4. C138 - Minimum Age Convention, 1973 (No. 138) // Https://Normlex.Ilo.Org/Dyn/Nrmlx_En/F?P=Normlexpub:12100:0::No::P12100_Instrument_Id:312283.
5. C182 - Worst Forms of Child Labour Convention, 1999 (No. 182) // https://normlex.ilo.org/dyn/nrmlx_en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO::P12100_INSTRUMENT_ID:312327.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.07.2023 yildagi O‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarning mehnatidan foydalanilishi taqiqlangan og‘ir ishlarning hamda zararli yoki xavfli mehnat sharoitlaridagi ishlarning ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida VM 290-son qarori // https://lex.uz/ru/docs/-6533020#-6533956.
7. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi // https://lex.uz/ru/docs/-6257288#-6257542.
8. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi // https://www.lex.uz/ru/docs/-3517337#-3517783.
9. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi // https://lex.uz/docs/-97664#-97672.
10. Child Labor in Uzbekistan: Findings from the U.S. Department of Labor // https://www.dol.gov/agencies/ilab/resources/reports/child-labor/uzbekistan.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 1:(575.2)

BOBORAHIM MASHRAB MEROSINING SHARQIY TURKISTON XALQLARI MA'NAVIYATIDAGI O'RNI

Soatov Rasul Muxitdinovich, Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsent v.b., falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

THE ROLE OF BOBORAHIM MASHRAB'S HERITAGE IN THE SPIRITUAL LIFE OF THE PEOPLES OF EAST TURKESTAN

Soatov Rasul Mukhitdinovich, Acting Associate Professor at Jizzakh State Pedagogical University,Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

РОЛЬ НАСЛЕДИЯ БОБОРАХИМА МАШРАБА В ДУХОВНОЙ ЖИЗНИ НАРОДОВ ВОСТОЧНОГО ТУРКЕСТАНА

Соатов Расул Мухитдинович, и.о. доцента Джизакского государственного педагогического университета, доктор философии (PhD) по философским наукам

e-mail: soatov1985rasul@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Boborahim Mashrabning ijodiy merosi va uning Sharqiy Turkiston hududidagi tarixiy-madaniy aks-sadosi ilmiy-uslubiy yondashuv orqali tahlil qilinadi. Maqolada Mashrab ijodining Sharqiy Turkiston adabiy va musiqiy muhitiga ta'siri, uning maqom va mug'om an'analari bilan uyg'unligi, shuningdek, xalq marosimlari, folklor va an'anaviy yig'inlarda namoyon bo'lishi ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari Mashrab merosining transmadaniy ahamiyatini yoritish bilan birga, ikki qardosh xalq o'rtasidagi tarixiy-ma'naviy aloqalarni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Boborahim Mashrab, Sharqiy Turkiston, uyg'ur madaniyati, ma'naviy meros, mumtoz adabiyot, maqom, mug'om, tasavvuf, folklor, tarixiy-madaniy uyg'unlik, an'ana, transmadaniylik.*

Abstract: *This article presents a scientific and methodological analysis of Boborahim Mashrab's creative legacy and its historical and cultural resonance in East Turkestan. The study explores Mashrab's influence on the literary and musical spheres of East Turkestan, highlighting its interplay with maqom and mugham traditions, as well as its expression in folk rituals, folklore, and customary gatherings. The findings reveal the transcultural importance of Mashrab's heritage and provide insights into the historical and spiritual connections between these two closely related peoples.*

Keywords: *Boborahim Mashrab, East Turkestan, Uyghur culture, spiritual heritage, classical literature, maqom, mugham, Sufism, folklore, historical and cultural interrelation, tradition, transculturality.*

Аннотация: *В данной статье на научно-методологической основе рассматривается творческое наследие Боборахима Машраба и его историко-культурное влияние на территорию Восточного Туркестана. Особое внимание уделяется воздействию творчества Машраба на литературную и музыкальную среду региона, его историко-культурной взаимосвязи с традициями макама и мугама, а также проявлениям в народных обрядах, фольклоре и традиционных собраниях. Результаты исследования раскрывают транс-культурное значение наследия Машраба и способствуют более глубокому пониманию историко-духовных связей между двумя родственными народами.*

Ключевые слова: *Боборахим Машраб, Восточный Туркестан, уйгурская культура, духовное наследие, классическая литература, макам, мугам, суфизм, фольклор, историко-культурная взаимосвязь, традиция, транскультурность.*

Kirish (Introduction/Введение). So‘nggi yillarda mamlakatimizda Markaziy Osiyoda shakllangan tasavvufiy tariqatlar, kalom va ijtimoiy-falsafiy tafakkur hamda ma’naviy-axloqiy merosning jamiyat ongiga ta’siri davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. “Ulug‘ ajdodlarimizning aql-zakovati va badiiy iste’dodi bilan yaratilgan noyob asarlar, xususan matematika, mineralogiya, astronomiya, kimyo, tibbiyot, farmatsevtika, me’morlik, tarix, adabiyot, san’at, ilohiyot, falsafa va boshqa sohalarga oid manbalar nafaqat milliy, balki jahon madaniyatining bebaho boyligi hisoblanadi”[1].

Boborahim Mashrabning ijodiy faoliyati va ma’naviy merosi o‘sib kelayotgan avlodning ongida sog‘lom e’tiqodiy tafakkur va barqaror hayotiy pozitsiyani shakllantirishda katta nazariy-metodologik va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mutafakkir ijtimoiy dunyoqarashida mujassam bo‘lgan ezgulik, millatparvarlik, tinchlik, do‘stlik, halollik, ma’naviy poklik va nafsni tarbiyalash kabi umuminsoniy va milliy qadriyatlar yoshlar ongida bag‘rikenglikni mustahkamlash, milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy immunitetni yuksaltirishda konseptual ilmiy-tarbiyaviy manba sifatida Mashrab merosini chuqur va kompleks tadqiq etish zaruratini taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Sharqiy Turkistonda, hozirgi Shinjon uyg‘ur avtonom Respublikasida turkiy xalqlar – uyg‘urlar, qalmiqlar va o‘zbeklar uzoq yillardan buyon yashab kelmoqdalar. Ulug‘ mutafakkir, davlat va jamoat arbobi Alixonto‘ra Sog‘uniy “Turkiston qayg‘usi”, “Tarixi Muhammadiy” va boshqa ko‘plab siyosiy asarlari orqali bu hududdagi turkiy xalqlar hayotini yaqinroq tanishtirgan.

Boborahim Mashrabning maqom san’ati rivojiga qo‘shgan hissasi bo‘yicha Abdurauf Fitrat, qozoq olimi Cho‘qon Valixonov, uyg‘ur muqomlar tadqiqotchisi I. Arshidinov, adabiyotshunos E. Musurmonov hamda tadqiqotchi M. Tojiahmedov kabi olimlar izlanishlar olib borishgan [2;329]. A. Fitratning fikricha, “O‘zbek qishloqlarida va yaqin kunlargacha o‘zbek shaharlarida, ayniqsa, qish kechalarida «mashrabxonlik» atalg‘an o‘tirishlar bo‘lar edi. Xalq bir choyxonada yo birining mehmonxonasida yig‘ilishar, eng yaxshi va baland tovushli bir hofiz (mashrabxon) Mashrabning g‘azallarini “Savt”, “Talqin”, “Munojot” kabi kuylarda o‘qur edi. Uning atrofida o‘turg‘an kishilar qimirlamay, nafas chiqarmay, buyuk bir diniy hayajon bilan tinglar edilar” [3;82].

Diqqatga sazovor jihatlardan biri shundaki, Mashrabga bag‘ishlangan an’anaviy mashrabxonlik majlislari nafaqat erkaklar muhitida, balki ayollar orasida ham keng tarqalgan. Xususan, Xitoy Turkistoni hududida mumtoz musiqa an’analari doirasida mashhur “Shashmaqom”dan tashqari, “Mashrab” nomi bilan ataluvchi va yetti kuy (bo‘lim)dan iborat yana bir mustaqil maqom tizimi shakllangani kuzatiladi. “Bu esa Xitoy Turkistonda haligi mashrabxonlik bazm majlislarining judayam teranlashganini bizga bildirarlik dalildir” [3;82].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur maqolada bilish jarayonining ko‘p qirrali va kompleks xususiyatlari hisobga olinib, ilmiy tafakkurning tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari, tizimli tahlil, qiyosiy taqqoslash, germenevtik yondashuv, tushunish hamda konseptual sharhlash kabi falsafiy-uslubiy metodlar o‘zaro dialektik uyg‘unlikda tatbiq etildi. Shu bilan birga, muloqot va mutolaa jarayonlarining ijtimoiy-madaniy hamda gnoseologik jihatlarini empirik tarzda o‘rganish maqsadida kuzatuv, sotsiologik so‘rov va kontent-tahlil metodlaridan kompleks foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Uyg‘ur xalqi Mashrabni o‘z shoirimiz va ma’naviy ustoz deb bilib, uning she’rlarini o‘n ikki maqom musiqa-kuylarga solib, hozirgi davrgacha kuylab kelmoqdalar. Bu faktlar o‘zbek va uyg‘ur xalqlari madaniyati o‘rtasidagi yaqin aloqaning va doimiy muloqotning mavjudligini ko‘rsatadi. “Hazrati Ofoqxoja ta’limoti Bahouddin Naqshband tariqatining Sharqiy Turkistondagi bir oqim sifatida mazkur diyor xalqlarining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida juda katta o‘ringa ega. Naqshbandiya ta’limoti O‘rta Osiyo, Sharqiy Turkiston xalqlarini bir-biriga yaqinlashtirib, do‘st-birodar, qon-qarindaosh bo‘lib, inoq, ittifoq yashashida juda katta ahamiyat kasb etadi” [4;16].

Mashrab ijodining Sharqiy Turkiston hududida keng tarqalishiga avvalo uning asarlarida ilgari surilgan insonparvarlik, ezgulik, adolat, muhabbat va ruhiy poklanish g‘oyalari sabab bo‘lgan. Natijada, Mashrab merosi faqat adabiy fenomen sifatida emas, balki axloqiy-me’yoriy va tarbiyaviy manba sifatida ham qadrlanadi.

Sharqiy Turkiston hududida Mashrab ijodi, ayniqsa, maqom va mug‘om an’analari bilan uzviy uyg‘unlikda rivojlangan. Mashrab g‘azallari uyg‘ur xalqining “O‘n ikki maqom” tizimiga singdirilgan holda ijro etilib, diniy-ma’rifiy yig‘inlar, marosimlar va an’anaviy majlislarda muhim musiqiy-badiiy unsur sifatida namoyon bo‘lgan. Shu tarzda uning ijodi og‘zaki ijod, musiqa va marosim madaniyati bilan bir butun sifatida rivojlangan murakkab madaniy hodisaga aylangan.

Ma’lumki, Mashrab musiqa ilmidan yaxshi xabardor bo‘lgan, shu sababli shoir mazkur misralarni yaratgan:

“Setor ila savti navo aylaganing xo‘b,
Xo‘blar ichida masnadi joh aylaganing
ho‘b…” [4;70].

Qashqardagi turli san’at shakllari Mashrab ijodiga ta’sir ko‘rsatgan. Uning xushovoz xofiz bo‘lib, dutor, setor, tanbur va ud kabi musiqiy asboblarni chalganligi ma’lum. Shoirning o‘zi ham bir g‘azalida bunga ishora qilgan. Qiziq tomoni shundaki, Mashrabning uyg‘ur maqomlari nomlari keltirilgan mazkur she’ri Qashqar elida keng tarqalgan. Shu sababli bu g‘azalning uyg‘urcha namunasi hanuzga qadar sevilib, ijro etilib kelinmoqda:

“Satarim tarig‘a jan rishtasidan tar epish salsam,
Anin kim nalisidin benovaning konglini alsam.
Muqom ichro muqom chalsam, muqomni dilg‘a ja qilsam,
Ki ul mahbub nazar qilsa anin aldida man chalsam.
Muqomlarning atasini “Husayn” u ham “Ojam” derlar,
Ulardan yuqori pardaki-“Bayat”ini men chalsam.
Bayati ashnaning yazida yoyitsam boyatinni,
Kenulum, benova bolang‘a balsam men “Nava” chalsam…” [3;332].

Markaziy Osiyoda yashovchi xalqlar orasida musiqaga asoslangan adabiy turkumlarni o‘zbek va tojiklar “maqom”, uyg‘urlar “muqom”, turkmanlar “mug‘am” deb atashgan. Ular asosan g‘azal janridagi she’rlardan iborat bo‘lgan.

Boborahim Mashrabning badiiy va adabiy merosi o‘zbek va uyg‘ur xalqlari ma’naviy hayo-tida mustahkam o‘rin egallagan. Ayniqsa, uning ijodi o‘zbek va uyg‘ur madaniy hayotida chuqur ildiz otgan; bu xalqlar orasida Mashrabni bilmagan yoki uning asarlarini yoddan o‘qiy olmaganlarni uchratish qiyin. Uyg‘ur xalqi orasida Mashrab ijodi xalq og‘zaki ijodi namunasiga aylangan va hozirga qadar saqlanib kelayotgan “Mashrab bazmlar” bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Boborahim Mashrab Sharqiy Turkiston uyg‘urlari orasida pirxonlik harakati doirasida shakllangan ma’naviy-amaliy jarayonlarda, xususan, xonaqoh muhitida amalga oshiriladigan zikr va raqs (usul) an’analarining rivojiga muayyan hissa qo‘shgan. Ushbu jarayonda usuli samo, ya’ni musiqiy-ritmik harakat orqali ruhiy poklanish va ilohiy zavq holatiga kirish amaliyoti muhim o‘rin tutgan. Eshon-so‘fiylar muridlari bilan zikr marosimini ado etar ekan, jarayon davomida xofizlar (ba’zan xalifa deb atalgan) tomonidan tasavvufiy g‘oyalar bilan boyitilgan qo‘shiqlar ijro etilgan, yig‘in ishtirokchilari esa ohang va ritmlarga mos holda maxsus tartiblangan raqs harakatlari orqali zikr amallarini bajarganlar.

Shuningdek, Mashrab ijodida uyg‘ur xalqining an’anaviy “O‘n ikki maqom” musiqiy tizimiga xos ohang va usullar sezilarli darajada aks etgan. U mazkur maqom kuylaridan ilhomlanib, ularni o‘z she’riy asarlariga uyg‘unlashtirgan va bir qator she’rlarini aynan shu maqomlar asosida musiqiy ifodaga solgan.

Mashrabning ijodi nafaqat Sharqiy Turkiston aholisining diniy-tasavvufiy e’tiqodlariga, balki qadimdan ijro etib kelinayotgan uyg‘ur xalq o‘yinlari va qo‘shiqlariga ham ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu o‘yin va qo‘shiqlar ijrochilar tomonidan aholi orasida “Mashrabchilar”, “Mashrab o‘yinlari”, “Mashrab bazmi” deb atalgan. Uyg‘ur elshunosi Abdurahim Habibulloh Mashrab bazmlarini shunday ta’riflaydi: “Mashrab bazmlari milliylik, keng ommaviylik, uyg‘urlarning milliy psixologiyasi ravshan ifodalangan kuy usullaridan tashqari, tarbiyaviy ahamiyatga ega har xil qiziq o‘yinlar bilan ham ajralib turadi” [5;226-227].

Mashrab o‘yinlarini ijro etilish uslubi yoki mahalliy ijrolariga qarab bir necha guruhlarga ajratish mumkin. Jumladan, Do‘lon mashrabi, Maysa Hayit mashrabi, Ko‘k mashrabi, Qumul mashrabi, Turfon mashrabi va boshqalar. Turfon, Qumul va Do‘lon mashrablari komediyali sahna ko‘rinishida bo‘lsa, boshqalari ko‘proq latifalar aytish bilan o‘tkazilgan. Mashrab bazmi ishtirokchilarini odatda “o‘ttiz o‘g‘il” deb atashgan. Haqiqatdan, mashrab o‘yinlarida yigirma-birdan o‘ttizgacha kishi ishtirok etadi. Odatda, mashrab o‘yinlari kuzdan bahorgacha yoki yoz boshigacha davom etgan. Unda qatnashadigan kishi yaxshi

axloqli, odobli va intizomli bo‘lishi shart. An’anaga ko‘ra, mashrabga kirish uchun yosh 18 dan kam bo‘lmasligi lozim. Yangi qo‘shilgan mashrabchining ota-onasi qo‘y yoki mol so‘yib, o‘ttiz kishilik dasturxon tuzgan. Bu guruhga kirish har bir uyg‘ur oilasi uchun sharaf hisoblangan.

Boborahim Mashrab ijodi Sharqiy Turkiston xalqlarining, xususan uyg‘ur xalqining badiiy va adabiy muhitiga chuqur singib ketgan. Uning asarlaridagi mazmun va badiiy ifoda uyg‘ur xalq og‘zaki ijodiga xos motiv va obrazlar bilan boyitilgan. Ushbu o‘zaro madaniy ta’sir jarayonini aniqlash oson, bu ikki xalqning tarixiy-ma’naviy va adabiy aloqalarining mushtarakligini yaqqol ko‘rsatadi. Masalan, uyg‘ur xalq og‘zaki ijodidagi “Deyman” qo‘shig‘i va Mashrabning “Derman” g‘azalini solishtirsak, mazmun va shakl jihatdan deyarli bir xil ekanligini ko‘rish mumkin:

Mashrab:

Ul dilrabo ra’noga men yor bo‘lay derman,
May bersa xaridori bir qatra tutay derman.

Uyg‘ur xalq qo‘shig‘i:

Oltun bilan ra’noni,
Yorimga tutay deyman,
May bersa, xaridorim,
Bir qatra tutay deyman [6;121].

Shuningdek, uyg‘ur xalqining “O‘n ikki maqom” an’anasiga mansub matnlar va poetik ijodning yorqin namunalari — “Yurak muntazir”, “Arzimni aytay” singari qo‘shiqlar, mazmuni, leksik-semantik qatlamlari, badiiy uslubi va kompozitsion tuzilishiga ko‘ra, Mashrabning “Ko‘rsat jamoling”, “Devona bo‘ldum”, “Arzimni aytay” kabi g‘azallari bilan yaqin mushtaraklikni namoyon etadi. Bu ikki xalq madaniy-ma’naviy olami o‘rtasidagi uzviy aloqalar va badiiy ta’sir izchilligini ko‘rsatadi.

Mashrab merosining Sharqiy Turkiston adabiy muhiti rivojiga ta’siri ham alohida ahamiyatga ega. Uning badiiy uslubi, obrazlilik tizimi, ramziy ifodasi va tasavvufiy g‘oyalari asosida Saydulla ibn Hoji, Yusuf, Xirqatiy, Xarobotiy, Bilol Nizom, Nazoriy kabi bir qator uyg‘ur shoirlari va adiblari ijod yo‘llarini shakllantirgan. Bu esa Mashrab ijodining transmadaniy va transmilliy ahamiyatini, Sharqiy Turkiston adabiy an’analari bilan chuqur uyg‘unlashganini yaqqol ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations). Boborahim Mashrab tomonidan qoldirilgan serqatlam va yuksak ma’naviy-badiiy ijod namunalari faqat o‘zbek xalqi doirasida emas, balki uyg‘ur xalqi madaniy muhitida ham keng tarqalgan va barqaror ahamiyat kasb etgan. Uning boy adabiy va ma’naviy merosi xalq ziyolilarining ijodiy faoliyatida, tarixiy-madaniy qadriyatlar tizimida, milliy an’anaviy urf-odatlar va marosimlar majmuasida, shuningdek, xalq o‘yinlari va ommaviy bayram tadbirlarida izchil ravishda saqlanib, avloddan-avlodga yetkazib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Mashrab merosi Sharqiy Turkiston xalqlarining ma’naviy-madaniy makonida nafaqat tarixiy xotira sifatida, balki hozirgi kungacha badiiy, axloqiy va tarbiyaviy ahamiyatini saqlab kelayotgan serqirra va barqaror qadriyatlar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu meros ikki qardosh xalq o‘rtasidagi tarixiy-ma’naviy aloqalarning mustahkam poydevorini tashkil etadi va ma’naviy mushtaraklik hamda madaniy uzviylikning yorqin ifodasi sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydagi Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risidagi PQ-3721-son qarori. Xalq so‘zi, 2018-yil15-may.
2. Hoshimxonov M. Boborahim Mashrabning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Monografiya. T.: Tafakkur, 2024. B. 329.
3. Fitrat Abdurauf. Tanlangan asarlar. Tahrir hay’ati: O.Sharafiddinov, N.Karimov va boshq.; Mas’ul muharrir: N. Qarimov. T.: Ma’naviyat, 2000. Jild II. Ilmiy asarlar. B. 82.
4. Jalilov O. Ofoq Hoja Manoqibi. Andijon. Hayot nashriyoti, 2001. B. 16.
5. Abdurahim Habibulloh. Turkistonda an’anaviy Mashrab bazmlari. Imom al-Buxoriy saboqlari, ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal, 3/2009. B. 226-227.
6. Qo‘ldoshev Sh. Qo‘qon xonligi va Sharqiy Turkiston: Siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar [Matn]. Nashrga tayyorlovchi Sherali Qo‘ldoshev. T.: Ademnashr, 2021. B. 121.
7. Хаккулов Н. К. Perfect generation-personality of private education and humanity facilities. Мировая наука, 2019, № 2 (23). С. 62-63.
8. Сафаров А. И., Хаккулов Н. К. Своистенные качества совершенному человеку в суфизме. Современная наука как социально-политический фактор развития государства, 2019. С. 48-50

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK:141.32

XOJA AHMAD YASSAVIY TA'LIMOTIDA INSON MOHIYATI VA HAYOT MAZMUNINING FALSAFIY TALQINI

Xamzayev Shavkat Abdirasulovich, Toshkent kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: shavkatxamzayev84@gmail.com

THE PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF HUMAN ESSENCE AND THE MEANING OF LIFE IN THE TEACHINGS OF KHOJA AHMAD YASAWI

Khamzaev Shavkat Abdirasulovich, Associate Professor of the Department of Social and Humanitarian Sciences, Kimyo International University in Tashkent (KIUT) Samarkand Branch, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СУЩНОСТИ ЧЕЛОВЕКА И СМЫСЛА ЖИЗНИ В УЧЕНИИ ХОДЖИ АХМАДА ЯССАВИ

Хамзаев Шавкат Абдирасулович, доцент кафедры «Социально-гуманитарных наук» Самаркандского филиала Ташкентского международного химического университета, доктор философии (PhD) по философии

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Xoja Ahmad Yassaviy tasavvufiy-falsafiy qarashlari doirasida insonning asl mohiyati hamda hayot mazmuni masalasi chuqur falsafiy tahlil etiladi. Ayniqsa, mutafakkir ta'limotida shakllangan komil inson g'oyasi, nafsni tarbiyalash, sabr va matonat, riyozat orqali ruhiy poklanish hamda ilohiy muhabbat tushunchalari keng yoritiladi. Shu bilan birga, Yassaviy hikmatlarining gnoseologik, ontologik va aksiologik yo'nalishlari qiyosiy va tizimli yondashuv asosida izohlanib, shaxsning ma'naviy kamolotga erishish bosqichlari falsafiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqot davomida inson ongining ravnaqiga xizmat qiluvchi ruhiy yetuklik fazilatlari ham yangi ilmiy nuqtayi nazardan tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *Xoja Ahmad Yassaviy, inson mohiyati, hayot mazmuni, tasavvuf falsafasi, komil inson, nafs tarbiyasi, ruhiy kamolot, riyozat, gnoseologiya, ontologiya, aksiologiya, ma'naviyat.*

Abstract: *This article presents a profound philosophical analysis of the essence of the human being and the meaning of life within the context of Khoja Ahmad Yasawi's Sufi and philosophical doctrine. Special attention is devoted to the idea of the Perfect Man, the discipline and purification of the nafs, patience and endurance, ascetic practice (riyazat), spiritual improvement, and divine love, as reflected in the thinker's worldview. Furthermore, the gnoseological, ontological, and axiological interpretations of Yasawi's hikmats are examined based on systematic and comparative approaches, elucidating the key stages of one's spiritual development. The study also offers new theoretical insights into moral and spiritual values that lead an individual toward genuine spiritual maturity.*

Keywords: *Khoja Ahmad Yasawi, human essence, meaning of life, Sufi philosophy, Perfect Man, nafs discipline, spiritual perfection, riyazat, gnoseology, ontology, axiology, spirituality.*

Аннотация: *В данной статье проводится углублённый философский анализ проблемы сущности человека и смысла жизни в рамках суфийско-философского учения Ходжи Ахмада*

Яссави. Особое внимание уделяется концепции совершенного человека, воспитанию «нафс»а, терпению и стойкости, а также духовному очищению и божественной любви, которые занимают важное место во взглядах мыслителя. Кроме того, гносеологические, онтологические и аксиологические аспекты хикматов Яссави рассматриваются с использованием системного и сравнительного подходов, освещая основные этапы духовного становления личности. В исследовании также приводятся новые научные выводы о нравственно-духовных качествах, способствующих достижению человеком внутреннего совершенствования.

Ключевые слова: *Ходжа Ахмад Яссави, сущность человека, смысл жизни, суфийская философия, совершенный человек, воспитание «нафс»а, духовное совершенствование, риязат, гносеология, онтология, аксиология, духовность.*

Kirish (Introduction / Введение). Bugungi kunda mamlakatimizda buyuk allomalar va mutafakkirlar ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish hamda keng targ'ib qilish, ayniqsa barkamol avlodni voyaga yetkazish jarayonida ajdodlarimizning ezgu an'analari asosida tarbiyalash bo'yicha izchil islohotlar davom ettirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Tomirlarida buyuk bobolarimizning qoni oqayotgan yoshlarimiz ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari bo'lishi, ular kabi ulkan maqsadlar sari intilib yashashi va yuksak marralarga erishishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishimiz zarur. Yangi O'zbekiston yoshlari ana shunday yuksak darajalarga ko'tarilishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solamiz" [1:263].

Shu ma'noda, ajdodlarimiz qoldirgan tasavvufiy va ma'naviy merosni, xususan Xoja Ahmad Yassaviyning diniy-irfoniy, badiiy-axloqiy hamda aksiologik qarashlarini ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etish va ularni komil insonni shakllantirishga yo'naltirilgan holda amaliyotga tatbiq etish bugungi ilmiy-ma'rifiy taraqqiyotning ustuvor vazifalaridan biriga aylangan. Mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar ijtimoiy-falsafiy fikr rivoji uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xoja Ahmad Yassaviy tomonidan yaratilgan "Devoni hikmat" asari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, u nafaqat tasavvuf olamining yirik peshvolaridan biri, balki chuqur falsafiy tafakkur sohibi va iste'dodli shoir sifatida alohida e'tirof etiladi. Uning hikmatlarida inson mohiyati, hayot mazmuni, axloqiy yetuklik va ruhiy poklanish masalalari falsafiy teranlik bilan yoritilib, o'ziga xos ko'p qatlamli tafakkur tizimi namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature Review). Xoja Ahmad Yassaviy merosiga bo'lgan ilmiy qiziqish nafaqat yurtimiz, balki jahon ilmiy doiralarida ham yuksak darajada davom etib kelmoqda. Xususan, Devin DiUis, F.Ko'prulizoda, Sanan Mexti, B.A.Gordlevskiy, D.Kenjetay, M.M.Xayrullayev, N.Hasanov, I.Haqqul, R.Shodiyev, M.Xajiyeva kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Yassaviy hikmatlari tasavvuf ta'limotining asosiy manbalaridan biri sifatida baholanadi. Undagi komil inson g'oyasi, nafsni poklash, hayot mazmuni va ruhiy yetuklik masalalari umumiy insoniy qadriyatlar bilan uyg'un holda talqin etiladi.

Jumladan, turk olimi M. F. Ko'prulizodaning izlanishlarida Ahmad Yassaviy hayoti, faoliyati, ma'rifiy-axloqiy qarashlari hamda uning izdoshlari ta'sirida XIII asrdayoq Onado'lida diniy-ma'rifiy hayotning rivojlangani ta'kidlanib, bu holat Yassaviy ta'limotining keng makonda tarqalganini ko'rsatadi [2].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur tadqiqotda Xoja Ahmad Yassaviy ta'limotida inson mohiyati va hayot mazmuni muammosini ilmiy-falsafiy jihatdan ochib berish maqsadida bir qator umumilmiy va maxsus ilmiy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Xususan, tasavvufiy dunyoqarash kontekstida shaxs kamoloti va ruhiy-ma'naviy yuksalish jarayonlarini tahlil etishda tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari, tizimli yondashuv, qiyosiy-tahliliy metod, matnlarni tushunish va sharhlashga qaratilgan germenevtik talqin, shuningdek, insoniy qadriyatlar mohiyatini o'rganishga yo'naltirilgan aksiologik hamda hayot-mazmuniy masalalarni yoritishga xizmat qiluvchi ontologik yondashuvlar qo'llanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Xoja Ahmad Yassaviy o'zining yuksak ma'naviy salohiyati, chuqur fikr doirasi, diniy-estetik idrok

va ijtimoiy mas'uliyatga asoslangan faoliyati bilan zamonidagi ko'plab ijodkorlardan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning shaxsida ma'naviy kamolot, axloqiy poklik va tafakkur erkinligi uyg'unlashib, komil inson timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, u o'z davridagi jamiyat hayotidagi adolatsizlik, ma'naviy tanazzul, manfaatparastlik kabi illatlarni keskin tanqid qiladi. Mutasavvif o'z atrofidagi ijtimoiy o'zgarishlarni chuqur mushohada qilgan va ularni hikmatlari orqali jamiyatga yetkazgan:

"Ahli dunyo, xalqimizda saxovat yo'q,
Podshohlarda, vazirlarda adolat yo'q.
Darveshlarning duosida ijobat yo'q,
Turluk balo xalq ustiga yog'di, do'stlar" [3:28].

Yoki yana shunday deydi:

"Na onoda rahm qoldi, na otoda,
Og'a, ini bir-biriga mojaroda.
Musulmonlik da'vo qilur, ichar boda,
Mastlig' bilan qarindoshdin tondi, ko'rung.
Nokas, xasis, bediyonat qullar hokim,
Moumanlik haddin oshib bo'ldi zolim,
Xalq ichinda xor bo'ldilar darvesh, olim,
Himoyati xalqni kofir bo'ldi, ko'rung" [3:190].

Bu fikrlar orqali Yassaviy jamiyatning ma'naviy mezonlari zaiflashsa, komil inson tarbiyasi ham izdan chiqishini ta'kidlaydi. Shu bois uning hikmatlarini bugungi yoshlar tarbiyasi va ma'naviy kamolotini shakllantirishda o'rganish nihoyatda muhimdir.

Xoja Ahmad Yassaviy insonning o'zini anglash, ichki olamini poklash va atrofdagilariga mehr-oqibat ko'rsatish zarurligini ilgari suradi. U insonning eng yuksak fazilati — o'zini doimiy tanqidiy baholay olishi, yomonlikka qarshi kurashishi va ezgulikni qo'llab-quvvatlashidadir, deya ta'kidlaydi:

"Dunyo uchun g'am yema,
Haqdan o'zgani dema,
Kishi molini yema, sirot uzra tutaro" [4:221].

Uning ta'kidlashicha, dunyo o'tkinchi bo'lib, inson qilgan amallari uchun javobgardir. Agar bir jamiyatda ma'naviyat va adolat qadri tushsa, nodon va munofiq kimsalarning yuqori lavozimlarga chiqishi osonlashadi, natijada esa shaxs kamolotiga to'siq paydo bo'ladi. Shu mazmunda u xalqni hushyorlikka chorlab, quyidagi fikrni ilgari suradi: "Duo qiling nodonlarni yuzin ko'rmay".

Mutasavvifning inson va hayot haqidagi qarashlari ezgulik sari intilish, boshqalarga yordam berish, umrni behuda o'tkazmaslik zarurligini anglatadi. U shunday deydi:

"Banda bo'lsang mehnat topgil, g'ofil odam,
Oqil ersang g'animatdir senga ul dam" [3:222].

Demak, Yassaviy ta'limotiga ko'ra tasavvuf — insonni ma'naviy komillikka yetaklovchi tarbiya maktabidir. Unda insonning nafsdan poklanishi va Haqqa yaqinlashishi asosiy maqsad bo'lib, bu jarayonda rahmoniy fazilatlarni o'zida mujassam etish eng ulkan vazifa hisoblanadi. Shu bois, tasavvufni hayotdan chekinish emas, balki hayot mazmunini to'g'ri anglashga chorlovchi ta'limot sifatida tushunish lozim.

Demak, mutasavvif o'z yashagan davrining dolzarb ijtimoiy muammolari va mavjud ziddiyatlarini dadil tarzda ko'tarib chiqqan mutafakkir sifatida namoyon bo'ladi. Xoja Ahmad Yassaviy "G'arib jonim yuz tasadduq donolardin" deya faxrlanganidek, "Duo qiling nodonlarning yuzin ko'rmay" misralarida esa xalqning dardu azobiga sabab bo'layotgan xavf va illatlarni fosh etganini anglash mumkin. Unda nodonlik tushunchasi tor ma'noda tushunilmaydi: Yassaviy nafaqat kaltabin va manfaatsirvoh kishilarni, balki ilm o'qib ham ma'no anglamagan, mansab ortidan quvib ruhiy pokligini yo'qotgan amaldorlarni ham nodonlikning eng xavfli ko'rinishi sifatida talqin etadi.

Ahmad Yassaviy fikricha, odamzod jaholat tuzog'idan xalos bo'lishi uchun ilm talab qilishi, "olimlarga xizmat" etib, ularning "so'ziga amal" qilishi shart. Haqiqiy ilm egalari — shariatning "ilm ul-yaqin", tariqatning "ayn ul-yaqin", haqiqatning "haqq ul-yaqin" bosqichlarini sadoqat bilan bosib o'tgan orif insonlardir. Mutasavvif nazarida ana shu fazilatlarni o'zida jamlaganlar komil inson maqomiga erishadilar. Yassaviy "Hikmatlar"da oriflarni qalbi nurlangan, nigohi bedor, ruhiy uyg'oqlikda yashovchi zotlar sifatida tasvirlaydi:

"Orif oshiq jon mulkida alam tortsa,
O'n sakkiz ming qomug' olam gul-gul bo'lur,
Ko'ngil qushi shavq qanotin tutib uchsa,
Jumla vujud yodin sayrar - bulbul bo'lur"
[3:250].

Shu bois, Yassaviy orifni qalbi hotirjam, irodasi sobit, ikki dunyo orzularini ko‘zga ilmaydigan darveshga qiyoslaydi:

“Xirqalari egnida, ko‘nglida yuz ming ayon,
Biling ikki jahonni ko‘zga ilmas darvishlar.
Darvish xalqning manzuri, zikri turur gulzori,
Haqni yodi asrori, odobli darvishlar” [4:14].

Mutafakkir hikmatlarida halollik, samimiyat, poklik, muhtojga yordam qo‘lini cho‘zish, buning evaziga hech qanday minnat kutmaslik kabi yuksak umuminsoniy qadriyatlar chuqur falsafiy mazmunda talqin etiladi. Unga ko‘ra, har bir tolib, har bir solih, shayx va so‘fiy mana shunday fazilatlar bilan yashamog‘i lozim.

Yassaviy hikmatlarida inson ruhiyati, tasavvufiy hol va ma’naviy tajribalar mohiyatan yorqin ifodalanadi:

“Ishq bog‘ini mehnat tortib ko‘kartmasang,
Xorlik tortsa, shum nafsingni o‘ldurmasang,
Alloh debon ichga nurni to‘ldirmasang,
Valloh, billoh senda ishqni nishoni yo‘q” [4:129].

Ushbu misralarda komillik, ezgulik va ma’naviy poklanish insonning asosiy mezoni ekanligi anglashiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, Xoja Ahmad Yassaviy ta’limotida inson mohiyati va hayot mazmuni masalasi chuqur diniy-tasavvufiy va falsafiy asoslar bilan yoritiladi. Mutasavvif insonni nafs va ruh, moddiylik va ma’naviyat, dunyoviy istaklar va ilohiy muhabbat o‘rtasidagi muvozanatga intiluvchi mavjudot sifatida talqin etadi. Uning ta’kidicha, haqiqiy komillik — ichki poklanish, axloqiy yetuklik va Haq haqiqatiga yaqinlashish orqali namoyon bo‘ladi.

Yassaviy qarashlarida hayot mazmuni — inson o‘z mohiyatini anglash, ma’naviy taraqqiyot sari intilish va jamiyatda ezgulikka xizmat qilish bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois, uning falsafiy merosi bugungi jamiyat va shaxs tarbiyasida ma’naviy-axloqiy yondashuvlarni shakllantirishda muhim ilmiy-metodologik manba vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar ro‘yxati (References / Использованная литература):

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. – B.263.
2. Köprülü M.F. Türk edebiyatı’nda ilk mutasavvıflar. – Ankara.: Ankara Üniversitesi Basımevi, 1966. – C. 234-239-355-357.
3. Yassaviy A. Hikmatlar. Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi Ibrohim Haqqul. – Toshkent.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. - 256 b.
4. Yassaviy, Ahmad Xoja. Devoni Hikmat / [Nashrga tayyorlovchi Rasulmuhammad Ashurboy o‘g‘ln Abdushukurov; Mas’ul muharrir, muqaddima, izoh va lug‘atlar muallifi Mahmud Hasaniy].— T.: G‘.G‘ulom nomidagi Nashriyot-maibaa birlashmasi, 1992. – 208 b.
5. Abdirasulovich K.S. Khoja Ahmad Yasawis Question of the Spiritual Divine Perfection of the Individual //World Bulletin of Social Sciences. – 2008. – T. 16. – C. 96-97.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 141.7+1(091)+001.8

“MUQADDIMA”NING IJTIMOIY-FALSAFIY VA SIYOSIY TAHLILI

Ochilov Baxtiyor Shuhrat o‘g‘li, Navoiy innovatsiyalar universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

SOCIAL-PHILOSOPHICAL AND POLITICAL ANALYSIS OF THE “MUQADDIMA”

Ochilov Baxtiyor Shuhrat o‘g‘li, Lecturer, Department of Social and Humanitarian Sciences, Navoi University of Innovations

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ И ПОЛИТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ «МУКАДДИМЫ»

Очилов Бахтиёр Шухрат оглы, преподаватель кафедры социально-гуманитарных наук Навоийского университета инноваций

https://orcid.org/0009-0005-3138-7943
e-mail: akademikochilov2025@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola Ibn Xaldunning ilmiy merosini, xususan “Muqaddima” asarini, ijtimoiy-falsafiy, tarixiy va adabiy kontekstda tahlil qiladi. Tadqiqotda mutafakkirning metodologik mustaqilligi, sivilizatsiya va hokimiyat nazariyalari, shuningdek uning tarixiy, ijtimoiy va siyosiy qarashlari yoritilgan. Ish mazmuni “Muqaddima”ning jamiyat tuzilishi va umron tushunchasidagi nazariy yangiliklari ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *Ibn Xaldun, Muqaddima, tarix falsafasi, sotsiologiya, ijtimoiy-dinamikalar, hokimiyat, sivilizatsiya, metodologik mustaqillik, adabiy meros.*

Abstract: *This article examines Ibn Khaldun’s scientific legacy, particularly his work “Muqaddima,” within social-philosophical, historical, and literary contexts. The study highlights the thinker’s methodological independence, theories of civilization and authority, and his historical, social, and political perspectives. It reveals the theoretical innovations of “Muqaddima” in societal structures and the concept of “umran”.*

Keywords: *Ibn Khaldun, Muqaddima, philosophy of history, sociology, social dynamics, authority, civilization, methodological independence, literary heritage.*

Аннотация: *Статья анализирует научное наследие Ибн Хальдуна, особенно произведение «Мукаддима», в социально-философском, историческом и литературном контексте. Исследование освещает методологическую независимость мыслителя, теории цивилизации и власти, а также его исторические, социальные и политические взгляды. Работа раскрывает теоретические инновации «Мукаддимы» в структуре общества и концепции умрана.*

Ключевые слова: *Ибн Хальдун, Мукаддима, философия истории, социология, социальная динамика, власть, цивилизация, методологическая независимость, литературное наследие.*

Kirish. Ibn Xaldun o‘rta asr ilmiy tafakkurining eng yirik va nufuzli namoyandalaridan biri sanaladi. Uning “Muqaddima” asari tarix, sotsiologiya hamda adabiyotshunoslikni birlashtiruvchi alohida ilmiy ahamiyatga ega manbadir. Ushbu maqolada mutafakkirning metodologik qarashlari, ijtimoiy stratifikatsiya va sivilizatsiya nazariyalariga doir tamoyillari tahlil etiladi. Tadqiqotda “Muqaddima”da ilgari surilgan jamiyat tuzilishi, “umron” tushunchasi va ular bilan bog‘liq nazariy innovatsiyalar o‘rganiladi. Bundan tashqari, maqolada Ibn Xaldunning tarixiy, siyosiy hamda adabiy qarashlari ham tahliliy yondashuvda ko‘rib chiqiladi. Ishning maqsadi — mutafakkirning ilmiy merosining bugungi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar uchun dolzarbligi va ta’sirini aniqlashdir.

Natija va muhokama. Ibn Xaldun nafaqat tarixshunoslik va ijtimoiy tafakkur rivojiga, balki o‘rta asr adabiy jarayonining shakllanishiga ham sezilarli hissa qo‘shgan. Mashhur andaluslik adib al-Makkari “Nafḥ at-Tib” asarida (Ibn al-Xatib rivoyatlariga tayanilgan holda) olimning dastlabki ilmiy-adabiy mashqlari haqida ma’lumot beradi hamda ayniqsa uning “al-Bashriy qasidasi”ga yozgan sharhini alohida e’tirof etadi [1:120]. Ushbu asar Payg‘ambar Muhammadga bag‘ishlab yozilgan bo‘lishi bilan birga, Ibn Xaldunning badiiy iste’dodini yoritib beruvchi muhim manba hisoblanadi. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, Ibn Xaldun o‘rta asr intellektual muhitiga xos tarzda she’riyatda ham salohiyat ko‘rsatgan: u avval g‘azal janrida ijod qilishni boshlagan, keyinchalik esa qasida va ruboiy kabi shakllarda ham namunali badiiy tajribalar yaratgan [1:122]. Eronlik sharqshunos olim M. Musohib boshchiligidagi tadqiqotchilar guruhi (“Adabiyot va falsafa tadqiqotlari”, Tehron, 1998) tomonidan uning she’riy mahorati yuksak baholanganligi bejiz emas.

Shu bilan birga, zamonaviy adabiyotshunoslikda Ibn Xaldunning poetikasini yangicha talqin qilish jarayoni davom etmoqda. Ayniqsa, uning she’riy merosida diniy-sufiy motivlar, obraz yaratishdagi aniqlik, kuchli ritmik qurilmalar va metaforik ifodalarning ko‘pligi, aruz ilmining mukammal egallangani alohida ta’kidlanadi. Bu jihatlar uning nafaqat tarixchi va faylasuf, balki adabiyotshunoslik bo‘yicha ham chuqur bilimga ega bo‘lganini tasdiqlaydi.

Misr davrida Ibn Xaldun o‘z avtobiografiyasini yaratgan bo‘lib, Qohira qo‘lyozmasining eng mukammal nusxasi 149 sahifadan iborat ekani aniqlangan. Mazkur avtobiografiya o‘rta asr avtodokumental adabiyotining muhim namunalaridan biri sifatida baholanadi. Unda mutafakkir siyosiy faoliyati, ilmiy izlanishlari, tarixshunoslikka oid qarashlari hamda davrning ijtimoiy-siyosiy vaziyati haqida batafsil ma’lumot beradi. Shuningdek, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Ibn Xaldun Shimoliy Afrikaning geosiyosiy holatiga bag‘ishlangan “Mag‘ribning geografik ocherki”ni Temurbek topshirig‘iga ko‘ra yozgan hamda Temur ushbu asarning turk tiliga tarjima qilinishini buyurgan [2]. Mazkur holat uning siyosiy doiralarda yuqori obro‘-e’tibor qozonganidan va ilmiy qarashlari hukmdorlar tomonidan ham e’tirof etilganidan dalolat beradi.

Ammo mutafakkirning eng salmoqli ilmiy merosi, shubhasiz, ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan e’tirof etilgan “Kitob al-‘Ibar” (“Katta tarix”) asaridir. Ushbu monumental bitik “Arablar, forslar va berberlar avlodlari, ularning siyosiy qudrati hamda zamondosh hukmdorlar haqidagi nasihatlar va rivoyatlar majmuasi” sifatida tavsiflanadi [3,12-19]. Asarning eng mashhur bo‘limi “Muqaddima” bo‘lib, u IX–XIV asrlardagi musulmon jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ilmiy hayotini keng qamrab olgan ensiklopedik tadqiqot sifatida alohida ajralib turadi.

Ibn Xaldun fikricha, tarix faqat voqealar ketma-ketligi emas, balki jamiyatning ichki qonuniyatlarini yoritishga xizmat qiluvchi ilmiy sohaga aylanishi lozim. U dinastiyalarning almashinuvi, davlatning shakllanishi va tanazzuli, iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy-psixologik muhit, iqlim va geografik omillarning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri kabi masalalarni ijtimoiy dinamikalar nazariyasi doirasida tahlil qiladi. Shu bois mutafakkir keyingi sharqshunoslik maktablari tomonidan “tarix falsafasi, sotsiologiya va ilmiy istoriografiya asoschisi” sifatida e’tirof etilgan [4,321].

“Muqaddima”ning nazariy asosida tarixiy voqealarni oddiy xronologiyada bayon qilish emas, balki ularning sabab–oqibat bog‘lanishlari, ijtimoiy determinizm hamda umron (sivilizatsiya) konsepsiyasi orqali ilmiy tahlil qilish yotadi. Ibn Xaldun tarix fanining mohiyatini shunday belgilaydi: tarix — insoniyatning ijtimoiy hayoti va sivilizatsiya taraqqiyoti haqidagi bilimlar majmuasi bo‘lib, u voqealar ortidagi sababiyatni aniqlashga qaratilgan ilmiy faoliyatdir. Shuning uchun ham tarixchidan izchil metodologiya, manbalar tanqidi, faktlarning mantiqiy asoslanishi va ularning ishonchlilik darajasini tekshirish talab etiladi.

Mag‘rib jamiyati ijtimoiy tuzilishiga doir kuzatishlariga asoslangan holda, Ibn Xaldun “Muqaddima”da quyidagi asosiy bo‘limlarni ajratadi:

— geografik muhit va makonning jamiyat hayotiga ta’siri;

— ko‘chmanchi va o‘troq aholining o‘zaro ziddiyatlari (sivilizatsiya harakatining bosh omili

sifatida);
— davlatning shakllanish jarayoni, siyosiy hokimiyat tabiatining evolyutsiyasi;
— shaharlarning taraqqiyot bosqichlari;
— iqtisodiy munosabatlar va tirikchilik vositalari;
— ilm-fan tizimi hamda bilimlarning tasnifi [5,31-35].

Mazkur tasnif o‘rta asr islom ilmiy muhitida yangicha fikrlash mahsuli bo‘lib, mutafakkirning metodologik mustaqilligini yaqqol namoyon etadi. Shu bilan birga, u asossiz rivoyatlarga, tarixiy an’analarni so‘roq qilmasdan qabul qilishga va metafizik talqinlarga qarshi qat’iy pozitsiyada turadi. Ayni shu xususiyatlari sababli, Ibn Xaldunning qarashlari XIX asr Yevropa sharqshunoslari tomonidan qaytadan kashf etilgan va gumanitar fanlar shakllanishiga muhim ta’sir ko‘rsatgan [5,56-63].

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Ibn Xaldun merosining mazmuniy qamrovi nihoyatda keng va ko‘p qavatli bo‘lgani sababli, uni to‘liq yoritish bir tadqiqot doirasiga sig‘maydi. Bizning izlanishlarimiz aynan “Muqaddima”ning ijtimoiy-siyosiy mohiyatini tahlil qilish bilan cheklangan bo‘lib, mutafakkirning eng samarali va mazmunli fikrlari aynan shu asarda mujassamlangan. “Muqaddima” Sharq va G‘arb ilmiy tafakkurini bog‘lovchi o‘ziga xos nazariy ko‘prik sifatida e’tirof etiladi, undagi qarashlar ijtimoiy falsafa, tarix falsafasi va siyosiy antropologiya shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Ibn Xaldunning “umron” haqidagi ta’limoti insoniyat sivilizatsiyasining universal qonuniyatlarini izohlashga qaratilgan yangi ilmiy kontseptsiya sifatida tarixga kirgan. Shu bois, mutafakkirning dunyoqarashi va ilmiy merosi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, jahon sivilizatsiya jarayonlarini tushuntirishda mustahkam nazariy asos vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Зикиров.Х.Социально-политическая философия Ибн Халдуна.Душанбе,2009.120 стр.
2. İbn Haldun. Mağrib’in coğrafi tasviri (Coğrafi Özet). İstanbul, 1402. ss. 3–27.
3. Rosenthal.F. *Ibn Khaldun: The Muqaddimah*. Princeton, 1967. pp. 12–19.
4. Toynbee.A. “*A Study of History”*. Oxford, 1934. pp. 321.
5. Фомина Д.В. Власть и государство в философии Ибн Халдуна. Москва, 2003.С.31–35.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 42:494.375:32

MARK TVENNING "TOM SOYYERNING SARGUZASHTLARI" VA G'AFUR G'ULOMNING "SHUM BOLA" ASARLARINING QIYOSIY TAHLILI

Saparova Dilafruz Muxiddin qizi, Alfraganus Universiteti o'qituvchisi

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЙ МАРКА ТВЕНА «ПРИКЛЮЧЕНИЯ ТОМА СОЙЕРА» И ГАФУРА ГУЛЯМА «ШУМ БОЛА»

Сапарова Дилафруз Мухиддиновна, преподаватель Университета Альфраганус

A COMPARATIVE ANALYSIS OF MARK TWAIN'S "THE ADVENTURES OF TOM SAWYER" AND G'AFUR G'ULOM'S "SHUM BOLA"

Saparova Dilafruz Mukxiddin qizi, teacher at Alfraganus University

https://orcid.org/0009-0005-7986-610X
e-mail: didu231197@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Mark Tvenning "Tom Soyyerning sarguzashtlari" asari va G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasi o'rtasidagi asosiy farqlar tahlil qilinadi. Tadqiqot ikki asarning tarixiy-madaniy konteksti, badiiy tasvir uslubi, bolalik obrazining talqini, kulgi va satira vositalaridan foydalanish strategiyalari hamda madaniy ramzlarning mazmunini qiyosiy o'rganadi. Tven asari XIX asr Amerika jamiyati, uning individualistik qadriyatlari va realizm an'analarini aks ettirsa, G'afur G'ulomning "Shum bola"si XX asr boshlaridagi o'zbek hayoti, ijtimoiy o'zgarishlar va sovet davri g'oyalari bilan bog'liq. Qiyosiy tahlil natijalari har ikki asar bolalik fenomenini yoritishda umumiy jihatlarga ega bo'lsa-da, ularning maqsadi, ideologik yo'nalishi va madaniy dunyoqarashida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *bolalik tasviri, madaniy kontekst, qiyosiy adabiyotshunoslik, Mark Tven, G'afur G'ulom, hazil va satira, hikoya uslubi, realism, sovet adabiyoti.*

Annotation: *This article investigates key differences between Mark Twain's "The Adventures of Tom Sawyer" and G'afur G'ulom's "Shum bola", focusing on cultural, stylistic, and thematic contrasts. While Twain's work is rooted in 19th-century American realism and depicts the social dynamics of a developing frontier society, G'ulom's novella reflects early 20th-century Uzbek social life shaped by Soviet ideological transformation. The study compares character construction, humor strategies, cultural symbols, and narrative worldview, demonstrating how each text functions as a product of its cultural environment.*

Key words: *childhood representation, cultural context, comparative literature, Mark Twain, G'afur G'ulom, humor, narrative style, realism, Soviet literature.*

Аннотация: *В статье исследуются ключевые различия между произведением Марка Твена «Приключения Тома Сойера» и повестью Гафура Гуляма «Шум бола», с акцентом на культурные, стилистические и тематические контрасты. Если роман Твена отражает реалии американского общества XIX века и социальную динамику приграничной среды, то произведение Гуляма демонстрирует особенности узбекской жизни начала XX века, формируемой советской идеологической парадигмой. Исследование сопоставляет построение персонажей, стратегии*

юмора, культурные символы и мировоззренческие особенности, показывая, как каждое произведение выступает продуктом своей культуры.

Ключевые слова: *образ детства, культурный контекст, сравнительное литературоведение, Марк Твен, Гафур Гулям, юмор и сатира, повествовательный стиль, реализм, советская литература.*

Introduction. Mark Twain's "The Adventures of Tom Sawyer" (1876) and G'afur G'ulom's "Shum bola" (1936) represent two culturally significant literary works emerging from distinct socio-historical backgrounds. This article examines major differences between the two texts, highlighting how literary style, cultural identity, humor, childhood representation, and narrative purpose shape each work. Twain's novel captures American small-town life along the Mississippi River before the Civil War. It reflects Protestant ethics, frontier individualism, and rural social structures. In contrast, G'afur G'ulom's "Shum bola" emerges from early Soviet Uzbekistan, a period characterized by social reform, collectivization, and ideological transformation. The Uzbek novella is influenced by socialist realism, yet retains strong national humor and folkloric elements. Tom Sawyer embodies the adventurous, mischievous American child who seeks freedom from societal restrictions. His individualistic spirit mirrors the broader American cultural emphasis on personal liberty. By contrast, Qoravoy in "Shum bola" represents a socially aware, humorous, and resilient child shaped by community-oriented Uzbek values and emerging Soviet collectivist ideals.

Methods. The research employs qualitative content analysis by comparing selected English texts and their Uzbek translations. Humor and Satirical Techniques. Twain uses irony, hyperbole, and sharp social satire to criticize hypocrisy in religion, schooling, and adult society. G'afur G'ulom, however, employs national humor, playful exaggeration, situational comedy, and a compassionate narrative voice. While Twain's humor often exposes social flaws, G'ulom's humor aims to uplift and humanize characters within a rapidly changing society.

Narrative Structure and Style. Twain's episodic structure and colloquial language create an authentic American storytelling style. His narrative is shaped by realism and regional dialects. In contrast, G'ulom's novella blends literary Uzbek with oral-storytelling traditions, integrating didactic elements consistent with Soviet-era literary expectations.

Cultural Symbolism. Tom's adventures symbolize American ideals such as independence and the frontier spirit. Qoravoy's experiences, however, symbolize social solidarity, resilience, and adaptation to modern ideological changes in Uzbek society.

Results. Findings show that:

Authorial Worldview and Ideological Positioning: Mark Twain represents American critical realism, marked by skepticism toward religion, hierarchy, and rigid morality. G'afur G'ulom reflects Soviet-era ideology that promotes equality, collectivism, and reform, incorporating didactic messages into his fiction. Moral Code and Value System Portrayed: Tom Sawyer embodies an individual-centered moral code emphasizing personal freedom and adventure, while Qoravoy represents community-centered morality grounded in family loyalty, cultural respect, and social responsibility.

Use of Social Criticism: Twain critiques religious hypocrisy, racial tensions, and social norms through sharp irony. G'ulom criticizes outdated traditions, poverty, and inequality using national humor and compassionate commentary aligned with Soviet ideals. Depiction of the Family Structure: Tom is raised in a fragmented family by Aunt Polly, symbolizing American childhood independence. Qoravoy's household maintains traditional Uzbek intergenerational structure, emphasizing emotional warmth despite economic hardship.

Narrative Function of Humor: Twain uses sarcasm and irony to expose societal contradictions, while G'ulom uses folkloric humor to build empathy and present hardship in a tolerable, humanizing way.

Discussion. Psychological Portrait of the Child: Tom is driven by thrill, rebellion, and fame, embodying romanticized American boyhood. Qoravoy is driven by survival, emotional

sensitivity, and responsibility, reflecting greater psychological maturity.

Geographical Space and Its Function: Twain's Mississippi River symbolizes freedom and adventure. G'ulom's Tashkent landscape symbolizes urban struggle, community life, and cultural diversity shaping Qoravoy's worldview.

Linguistic Features and Stylistic Devices: Twain uses dialect, colloquial American English, and regional speech to create authenticity. G'ulom blends literary Uzbek with Tashkent dialect, proverbs, and idioms, reinforcing cultural identity.

The Concept of Heroism: Tom's heroism is individualistic, based on bravery and recognition. Qoravoy's heroism is communal, shaped by resilience, empathy, and devotion to family.

Function of Tradition vs. Modernity: Twain captures nostalgia and resistance to modernization, while G'ulom portrays Uzbek society embracing Soviet reforms and modernization with a progressive tone.

Conclusion. The comparative analysis demonstrates that while both works celebrate childhood and youthful energy, they differ significantly in cultural worldview, humor, narrative purpose, and ideological context. Twain's novel critiques social norms through adventure and satire, whereas G'afur G'ulom's "Shum bola" blends humor and social commentary to depict the transformation of Uzbek society. Together, they illustrate how children's literature reflects broader cultural dynamics.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Twain, M. (1876). The Adventures of Tom Sawyer. Hartford: American Publishing Company.
2. G'ulom, G'. (1936). Shum bola. Tashkent: State Publishing House.
3. Budiansky, S. (2010). Mark Twain: A Life. Random House.
4. Karimov, N. (2018). Uzbek Children's Literature and Soviet Influence. Tashkent: Akademnashr.
5. Fishkin, S. (1993). Was Huck Black? Mark Twain and African-American Voices. Oxford University Press.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 93/94

SURXON VOHASI ETNOTADQIQOTLARDA TABIAT VA OSMON JISMLARINING ALOQADORLGINING ETNOLOGIK TAHLILI

Jovliyev Muzaffar Holmirza o‘g‘li, ***Termiz davlat universiteti magistratura bo‘limi Etnografiya, etnologiya va antropologiya yo‘nalishi M-124 guruh 2-bosqich magistranti, Angor tumani 1-maktabining tarix fani o‘qituvchisi***

https://orcid.org/0009-0009-3458-1206
e-mail: muzaffarjovliyev665@gmail.com

ЭТНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЗАИМОСВЯЗИ ПРИРОДНЫХ И НЕБЕСНЫХ ОБЪЕКТОВ В ЭТНОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ СУРХАНДАРЬИНСКОГО ОАЗИСА

Жовлиев Музаффар Холмирза оглы, магистрант 2-курса группы М-124 магистратуры Термезского государственного университета, учитель истории школы №1 Ангорского района

ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF THE INTERRELATION BETWEEN NATURAL AND CELESTIAL OBJECTS IN THE ETHNOLOGICAL STUDIES OF THE SURKHAN OASIS

Jovliyev Muzaffar Holmirza oglu, 2nd year master's student, group M-124, majoring in Ethnography, Ethnology and Anthropology, Termez State University, history teacher at Angor district school No.1

Annotatsiya*: Mazkur maqolada Surxon vohasi hududidagi xalq etnologiyasida tabiat hodisalari va osmon jismlarining o‘rni, ularning mahalliy aholi hayotidagi, diniy e’tiqodlar va marosimlardagi ifodasi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Surxon vohasi, etnologiya, tabiat hodisalari, osmon jismlari, diniy marosimlar.*

Abstract: *This article analyzes the role of natural phenomena and celestial bodies in the folk ethnology of the Surkhan Valley region, as well as their representation in the lives of the local population, religious beliefs, and rituals.*

Keywords: *Surkhan Valley, ethnology, natural phenomena, celestial bodies, symbolic expressions, religious rituals.****Аннотация:*** *В данной статье анализируется роль природных явлений и небесных тел в народной этнологии региона Сурхон-Вахш, их выражение в жизни местного населения, религиозных верованиях и обрядах.*

Ключевые слова: *Сурхон-Вахш, этнология, природные явления, небесные тела, символические выражения, религиозные обряды.*

Kirish(Введение/Introduction). Surxon vohasi etnologik jihatdan o‘ziga xos hudud hisoblanadi. Bu hudud qadimiy madaniyatlarning uchrashgan markazi bo‘lib, aholining tabiat hodisalari va osmon jismlariga bo‘lgan munosabati ko‘p asrlik an’analar bilan bog‘liq. Xalq etnologiyasida quyosh, oy, yulduzlar, shamol, yomg‘ir, bo‘ron kabi hodisalar inson hayotida

muhim rol o‘ynaydi va ko‘plab diniy marosimlar, amaliy tadbirlar, folbinlik, dehqonchilik va chorvachilik faoliyati bilan bog‘liq.

Surxon vohasi aholisi tabiat va osmon hodisalarini faqat tabiiy hodisa sifatida emas, balki inson hayoti bilan bevosita bog‘liq, ramziy ma’no va bashorat vositasi sifatida qaraydi. Shu sababli hududni etnotadqiqotlarda o‘rganish xalq e’tiqodlari, marosimlar va qadimiy urf-odatlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Adabiyotlar Tahlili va metodologiya (Materials and methods/Литература и методология). *Tabiat hodisalari va ularning etnologik ahamiyati.* Surxon vohasi aholisi tabiat hodisalarini inson hayotining barcha jabhalari bilan uzviy bog‘lagan. Hududning iqlimi, relyefi va suv resurslari aholining kundalik hayotini shakllantirishda muhim rol o‘ynaganligi sababli, tabiat hodisalari xalq etnologiyasida markaziy mavqe kasb etadi[1][1].

Masalan, yomg‘ir yog‘ishi qishloq xo‘jaligi faoliyati, ayniqsa, bug‘doy va paxta ekinlari uchun baraka sifatida talqin qilinadi. Kuzatuvlarga ko‘ra, bahor faslida yomg‘irdan oldin o‘tkaziladigan maxsus marosimlar – yomg‘ir duo qilish – Surxon vohasida keng tarqalgan[2]. Ushbu marosimlarda diniy ruhoniylar, folbinlar va mahalla faollari ishtirok etib, yomg‘irni chaqirish, baraka va omad so‘rab duo o‘qilgan.

Shamolning yo‘nalishi va kuchi ham xalq ongida ramziy ma’no kasb etadi. G‘arbdan esadigan shamol odamlar hayotida ijobiy o‘zgarishlar va omad belgisi sifatida talqin qilinsa, sharqdan kuchli shamol ogohlantiruvchi belgi sifatida qabul qilinadi[3]. Bo‘ron, to‘fon kabi kuchli tabiiy hodisalar esa xalq ongida xavf va sinov belgisi sifatida ko‘riladi. Shu munosabat bilan Surxon vohasi aholisi bunday hodisalarni diniy marosimlar orqali tinchlantirishga harakat qilgan. Masalan, qadimiy etnologik manbalarda bo‘ron oldidan suvga qilingan duo va maxsus aytiladigan aytishlar qayd etilgan[4]. Ushbu marosimlar nafaqat yomg‘irni chaqirishga, balki jamiyatni ruhiy barqarorlikka ham tayyorlashga xizmat qilgan.

Tabiat hodisalarining yana bir ahamiyatli jihati – ular qishloq xo‘jaligi va chorvachilik faoliyati bilan uzviy bog‘langanligi. Qurg‘oqchilik davrida Surxon vohasi aholisi yig‘ilishlar o‘tkazib, folbinlar va ruhoniylar yordamida yomg‘irni chaqirish marosimini o‘tkazgan[5]. Ushbu amaliy marosimlar nafaqat tabiat hodisalarini boshqarish urinishini, balki mahalliy ijtimoiy tartibni mustahkamlash va jamiyat a’zolarini birlashtirish vazifasini bajaradi. Shu nuqtayi nazardan, tabiat hodisalari va ularning etnologik talqini Surxon vohasi aholisi ongida ijtimoiy va ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lganini ko‘rsatadi[2].

Osmon jismlari va xalq ongidagi roli. Quyosh, oy va yulduzlar Surxon vohasi aholisi ongida markaziy o‘rin tutadi. Quyosh energiya, hayot ramzi sifatida, shuningdek, qishloq xo‘jaligi kalendari uchun asosiy belgi sifatida ishlatiladi.

Xalq ta’limoti va rivoyatlarida quyoshning chiqishi va botishi hayot va o‘lim, baraka va omadsizlik ramzi sifatida talqin qilingan.

Masalan, yozgi ekin mavsumida quyoshning chiqish vaqtiga qarab ekin ekish boshlanishi belgilangan. Bu odat xalq og‘zaki ijodida ko‘plab qo‘shiqlar va ertaklarda ifodalangan[6].

Oy fasllari esa qishloq xo‘jaligi ishlarining vaqtini belgilashda, shuningdek, diniy marosimlar va bayramlar tartibida muhim vosita sifatida qaraladi. Surxon vohasi aholisi yangi oy paytida ekin ekish, chorva boqish yoki ov qilish ishlarini boshlashni odat qilgan[7]. Bu amaliy an’ana oy

[1] Karimov A., Surxon vohasi etnologiyasi, Toshkent, 2015, 25-42 betlar.
[1] Raximov M., Xalq og‘zaki ijodi va tabiat hodisalari, Samarqand, 2017, 58-73 betlar.
[3] Sobirov D., O‘zbekiston etnologik manbalari, Toshkent, 2018, 112-130 betlar.
[4] Xolmatov S., Surxon vohasi xalq marosimlari, Termiz, 2016, 45-60 betlar.
[5] Islomov B., Quyosh va oy ramzi etnologiyada, Toshkent, 2019, 78-91 betlar.
[6] To‘xtayev F., Xalq kalendariysi va tabiat hodisalari, Buxoro, 2014, 33-50 betlar.

fazalarining tabiat hodisalari bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Yulduzlar va boshqa osmon jismlari ham mahalliy aholi ongida ramziy va amaliy ahamiyatga ega. Maxsus yulduzlar guruhi, masalan, “Sho‘rlik yulduzi” yoki “Chorvador yulduzi”, urug‘lik mavsumining boshlanishini va chorva yuritish ishlarini belgilashda ishlatilgan[8]. Etnografik kuzatuvlarga ko‘ra, yulduzlarning joylashuvi va harakatini kuzatish orqali ob-havo va hosil ko‘rsatkichlarini taxmin qilish amaliyoti Surxon vohasida ko‘p asrlik an’ana bo‘lib qolgan.

Osmon jismlari xalq ongida kelajakni bashorat qilish, xavf-xatarni aniqlash va ijtimoiy qarorlarni belgilash vositasi sifatida ishlatilgan. Masalan, yomg‘ir ko‘rsatkichlari sifatida yulduzlarning rang o‘zgarishi yoki bulutlarning joylashuvi qadimiy folbinlik amaliyotlarida keng qo‘llanilgan [9]. Shu bilan birga, osmon jismlari xalq ijodida ertak, rivoyat va qo‘shiqlarda metafora sifatida ishlatilgan. Bu esa ularning nafaqat amaliy, balki madaniy va ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatadi[3].

Marosimlar va diniy e’tiqodlarda ifodasi. Surxon vohasi aholisi tabiat hodisalari va osmon jismlarini diniy marosimlar, bayramlar va urf-odatlar orqali ifodalagan. Masalan, yomg‘irli mavsum oldidan o‘tkaziladigan maxsus marosimlar “Yomg‘ir duo” sifatida tanilgan[10]. Ushbu marosimlarda diniy ruhoniylar va folbinlar ishtirok etib, suvga qilingan duo, aytiladigan aytishlar va maxsus ritual harakatlar orqali yomg‘irni chaqirishga harakat qilgan.

Yangi yil, bahor bayramlari va ekin ekish oldidan quyosh va oy bilan bog‘liq urf-odatlar, xalq ijodida qo‘shiq, rivoyat va afsonalar orqali saqlanib kelgan. Masalan, Surxon vohasida “Bahor keldi” qo‘shig‘i ekin ekish boshlanishini ramziy ifoda sifatida bildiradi, unda oy va yulduzlarning fazalari ham aks ettirilgan.

Tabiat hodisalari va osmon jismlari jamiyat hayotida ijtimoiy tartibni belgilashda ham muhim rol o‘ynagan. Qurg‘oqchilik davrida yig‘ilishlar o‘tkazilib, folbinlar va ruhoniylar orqali yomg‘irni chaqirish marosimi amalga oshirilgan. Ushbu yig‘ilishlar nafaqat diniy vazifani bajarish, balki jamiyatdagi barcha a’zolarni birlashtirish va muammolarni birgalikda hal qilish vositasi bo‘lgan.

Surxon vohasi aholisi tabiat hodisalari va osmon jismlarini faqat amaliy jihatdan emas, balki ramziy, diniy va madaniy jihatdan ham talqin qilgan. Masalan, quyoshning chiqishi va botishi hayot va o‘lim, baraka va omadsizlik ramzi sifatida, oy fasllari esa urug‘lik va hosil mavsumini belgilovchi vosita sifatida qabul qilingan. Yulduzlar esa kelajakni bashorat qilish va ijtimoiy qarorlarni belgilash vositasi sifatida ishlatilgan.

Muhokama (Discussion /Обсуждение). Shu orqali Surxon vohasi aholisi tabiat va osmon hodisalarini inson hayoti bilan uzviy bog‘liq deb hisoblagani aniqlandi. Ular bunday hodisalarni faqat amaliy jihatdan emas, balki diniy, ramziy va madaniy ma’noda talqin qilgan [4].

Tabiat hodisalari va osmon jismlari xalq ongida nafaqat amaliy vosita, balki jamiyat tartibi, ijtimoiy birdamlik va ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan.

Etnografik kuzatuvlarga ko‘ra, Surxon vohasi aholisi tabiat hodisalari va osmon jismlarini o‘rganish orqali jamiyat hayotini boshqarish, dehqonchilik va chorvachilik faoliyatini rejalashtirish, diniy marosimlar va bayramlarni o‘tkazish hamda kelajakni bashorat qilish imkoniga ega bo‘lgan. Shu bilan birga, xalq ijodida bu hodisalar nafaqat amaliy, balki metaforik, ma’naviy va madaniy ma’noda ham saqlanib kelgan.

Natijalar (Results/Результаты). Surxon vohasi etnotadqiqotlari hududda tabiat va osmon

[7] Rahmonov J., Osmon jismlari va folbinlik, Samarqand, 2020, 21-37 betlar.

[8] Nazarov L., Tabiat hodisalari va diniy e’tiqod, Toshkent, 2017, 90-105 betlar.

[9] Usmonova N., Surxon vohasi xalq rivoyatlari, Termiz, 2018, 112-126 betlar.

[10] Yoqubov K., Etnografik tadqiqotlar Surxon vohasida, Toshkent, 2021, 55-71 betlar.

hodisalarining inson hayotidagi markaziy o‘rni, xalq urf-odatlari va diniy marosimlarda aks etishi, shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy va ma’naviy tizimlarni shakllantirishdagi ahamiyatini aniqlashga yordam beradi. Shu sababli hududni o‘rganishda etnologik tadqiqotlar katta ilmiy ahamiyatga ega bo‘lib, xalq madaniy merosini saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa(Conclusion/Заключение).

Mazkur tadqiqot Surxon vohasi aholisi hayotida tabiat hodisalari va osmon jismlarining o‘rni, ularning diniy, madaniy va ramziy ahamiyatini ochib berdi. Tabiat va osmon hodisalarining xalq ongida ifodasi, urf-odatlar va marosimlar orqali saqlanib kelayotgani, shuningdek, qishloq xo‘jaligi va kundalik hayot bilan bog‘liqligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari hududni etnotadqiqot jihatdan chuqurroq o‘rganish va xalq madaniy merosini saqlash bo‘yicha muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati (References / Использованная литература):

1. Karimov A. Surxon vohasi etnologiyasi, Toshkent, 2015, 25-42 betlar.
2. Raximov M. Xalq og‘zaki ijodi va tabiat hodisalari, Samarqand, 2017, 58-73 betlar.
3. Sobirov D. O‘zbekiston etnologik manbalari, Toshkent, 2018, 112-130 betlar.
4. Xolmatov S. Surxon vohasi xalq marosimlari, Termiz, 2016, 45-60 betlar.
5. Islomov B. Quyosh va oy ramzi etnologiyada, Toshkent, 2019, 78-91-betlar.
6. To‘xtayev F. Xalq kalendariysi va tabiat hodisalari, Buxoro, 2014, 33-50 betlar.
7. Rahmonov J. Osmon jismlari va folbinlik, Samarqand, 2020, 21-37 betlar.
8. Nazarov L. Tabiat hodisalari va diniy e’tiqod, Toshkent, 2017, 90-105 betlar.
9. Usmonova N. Surxon vohasi xalq rivoyatlari, Termiz, 2018, 112-126 betlar.
10. Yoqubov K., Etnografik tadqiqotlar Surxon vohasida, Toshkent, 2021, 55-71 betlar.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 93/94

BUXORO AMIRLIGIDA TO‘RTLIK RAMZI ASOSIDAGI MANSABLAR TIZIMI

Hamroyev Asliddin Umed o‘g‘li, Buxoro davlat universiteti “Arxeologiya va Buxoro tarixi” kafedrasi o‘qituvchisi

SYSTEM OF POSITIONS BASED ON THE SYMBOL OF THE FOUR IN THE BUKHARA EMIRATE

Khamroyev Asliddin Umed oglu, teacher of the Department of “Archaeology and History of Bukhara”, Bukhara State University

СИСТЕМА ДОЛЖНОСТЕЙ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ НА ОСНОВЕ СИМВОЛА ЧЕТВЕРИЧНОСТИ

Хамроев Аслиддин Умед оглы, преподаватель кафедры «Археология и история Бухары» Бухарского государственного университета

https://orcid.org/0009-0004-4121-1143
e-mail: hamroyevasliddin@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Buxoro amirligining davlat boshqaruv tizimi, xususan Mang‘itlar sulolasi davrida yuqori mansablar tizimi va ularning diniy-ilohiy tamoyillar asosida tashkil etilishi tahlil qilingan. Amirlik davriga oid birlamchi manbaga tayangan holda, amirlikdagi diniy, harbiy, iqtisodiy va saroy mansablarining vazifalari, vakolatlari va pog‘onali tuzilishi yoritilgan. Mansablar tizimida “to‘rtlik” ramzi muhim o‘rin tutadi, u davlat boshqaruvida mukammallik, muvozanat va adolat tamoyillarining ustuvorligini ifodalaydi.*

Kalit so‘zlar: *mang‘itlar boshqaruvi, Amir Shohmurod, Buxoro amirligi, mansablar tizimi, davlat boshqaruvi, qo‘lyozma manbalari, shariat asoslari.*

Annotation: *This article examines the state administration system of the Bukhara Emirate, particularly the structure of high-ranking positions during the Manghit dynasty and their organization based on religious-theological principles. Relying on primary sources from the emirate period, the study outlines the functions, authorities, and hierarchical composition of religious, military, economic, and palace offices. Special emphasis is placed on the symbol of the “fourfold structure,” which played a significant role in the administrative system and reflected the principles of perfection, balance, and justice in governance.*

Key words: *Manghit administration, Amir Shohmurod, Bukhara Emirate, administrative hierarchy, state governance, manuscript sources, principles of Sharia.*

Аннотация: *В данной статье анализируется система государственного управления Бухарского эмирата, в частности структура высших должностей в период правления династии Мангытов и их организация на основе религиозно-богословских принципов. На основе первичных источников, относящихся к эпохе эмирата, раскрываются функции, полномочия и иерархическая структура религиозных, военных, экономических и дворцовых должностей. Особое внимание уделено символу «четверичности», который занимал важное место в системе должностей и отражал приоритеты совершенства, баланса и справедливости в государственном управлении.*

Ключевые слова: *управление мангытов, Амир Шахмурад, Бухарский эмират, система должностей, государственное управление, рукописные источники, основы шариата.*

Kirish. O‘zbek davlatchiligi tarixida Buxoro amirligining davlat boshqaruv tizimi alohida o‘rin tutadi. Xususan, Mang‘itlar sulolasining siyosiy sahnaga chiqishi va ularning davlat boshqaruvidagi faoliyati O‘rta Osiyo tarixida yangi bosqichni boshlab bergan jarayon sifatida baholanadi. So‘nggi Ashtarxoniylar sulolasining siyosiy zaiflashuvi, ichki nizolar va markaziy hokimiyatning susayishi natijasida XVIII asrning o‘rtalarida Buxoroda yangi siyosiy kuch – Mang‘it amirlari yetakchi mavqega ko‘tarildi. 1747-yildan boshlab, 1920-yilda bolshevik qo‘shinlari Buxoroni egallaguniga qadar, Mang‘itlar mamlakatda amirlik hokimiyatini mustahkam ushlab turdilar.

Mang‘it amirlari o‘z nasab jihatidan xonlar sulolasiga mansub bo‘lmaganliklari tufayli hukmronlik legitimligini ta’minlash maqsadida o‘zlarini “musulmonlar amiri” – amir al-mu’minin sifatida e’lon qildilar. Bu unvon ularga siyosiy hokimiyatni diniy-ma’naviy asoslar bilan mustahkamlash, davlat boshqaruvida shariat me’yorlarining ustuvorligini ta’kidlash va jamiyatda o‘z hukmronligini qonuniylashtirish imkonini berdi. Shu tariqa, Mang‘itlar hukmronligi davrida Buxoro amirligi davlat tuzumi nafaqat an’anaviy turkiy-islomiy boshqaruv unsurlariga, balki diniy legitimatsiya mexanizmlariga ham tayangan murakkab siyosiy tizimni shakllantirdi.

Mang‘it amirlari o‘z davrida diniy ulamolarni davlat boshqaruvining asosiy tayanchi sifatida ko‘rib, fiqh, shariat va tasavvuf an’analariga tayanadigan boshqaruv modelini yaratdilar. Natijada, Buxoro amirligi XVIII–XX asrlarda Markaziy Osiyoda diniy-huquqiy boshqaruvning yirik markazlaridan biri sifatida shakllandi. Shu bilan birga, amirlikdagi saroy mansablarining tizimli shakllanishi, harbiy boshqaruvning qayta tashkil etilishi va iqtisodiy hayotni tartibga soluvchi yangi tamoyillar Mang‘itlar davridagi davlat boshqaruvining o‘ziga xos jihatlari sifatida namoyon bo‘ldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ayni shu sababdan mang‘it amirlari davlatning siyosiy boshqaruv tizimini ham Islom diniga muvofiq amalga oshirganlar, Buxoro amirligidagi davlat boshqaruv tartiblariga oid masalalar sovet davri hamda mustaqillik yillarida faoliyat yuritayotgan ko‘pchilik tarixchi olimlarning diqqat markazidagi muhim tadqiqotlar sirasiga kiradi, ushbu maqolani yozishda Mirzo Badi’ Devonning Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida № AP-304 inventar raqam ostida saqlanayotgan “Yuqori mansablar, omma xizmatiga daxldor bo‘lganlar va shohga yaqinlarning bayoni” nomli qo‘lyozmasidan foydalanamiz. Qo‘lyozmada Buxoro amirligining diniy, harbiy, iqtisodiy va saroy boshqaruviga oid mansablar tizimi izchil ravishda bayon qilingan bo‘lib, ushbu strukturani ilmiy tahlil qilish davlatchilik tajribamizni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. O‘rta asrlarda davlatni idora etishda yuksak lavozim egalari, saroy xizmatkorlari hamda hukmdorga eng yaqin kishilar siyosiy barqarorlikning bosh tayanchi hisoblangan. Lavozimlar hokimiyat va mansab tushunchalari nafaqat siyosiy, balki ilohiy, Islom shariati asosidagi mazmunga ega bo‘lgan. Amirlar nazarida mansab xalq foydasiga xizmat qiladigan ilohiy burch hisoblangan. “Mansab amallari xalq foydasidan boshqa narsa uchun emas” degan fikr shu ma’naviy qarashni aks ettiradi. Bu yondashuv hokimiyatning asosiy maqsadi - adolat tamoyiliga asoslanganini ko‘rsatadi. Yuqorida tilga olingan qo‘lyozmada amirlikdagi yirik mansablarning barchasiga “to‘rt raqami” asosida izoh beriladi, bu nafaqat ramziy, balki ilohiy mazmunga ega, Movarounnahr podshohlari bu raqamni mukammallik timsoli sifatida qabul qilganlar. To‘rt farishta yaratuvchiga eng yaqin sifatida ilohiy tartibni ifodalaydi. Xulafoyi roshidin — adolat va insofning timsoli bo‘lgan to‘rt xalifa sifatida sharhlanadi. Tabiatdagi to‘rt unsur — tuproq, suv, havo va olov o‘zaro muvozanat orqali hayotning mavjudligini ta’minlaydi. Inson badani tarkibidagi to‘rt mizoji (balg‘am, safro, savdo, qon) muvozanatdan chiqsa, uning salomatligida izdan chiqishlar ro‘y beradi. Jamiyat hayotida esa adolat, insof, diyonat va halollik tamoyillarining buzilishi siyosiy tuzumning sog‘lom faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

MUHOKAMA. Fasllar (bahor, yoz, kuz, qish) va to‘rt tomon (sharq, g‘arb, shimol, janub) misolida ham yaratilishning mukammal tuzilishi namoyon bo‘ladi. Har bir fasl o‘ziga xos baraka va sinovni olib keladi, har bir yo‘nalish o‘z tabiati bilan farqlanadi. Bu esa hokimiyat boshqaruvida ham ilohiy tartib va Islom shariati tamoyillariga amal qilinishi lozimligini anglatadi.

Movarounnahr hukmdorlari davlat boshqaruvi mansablarini shakllantirishda shariatga tayangan bo‘lib, ulamolar mavqei ham shu tamoyillar asosida to‘rtlik ko‘rinishida tartibga solingan. Qo‘lyozmada mansablarning to‘rt qismga bo‘linishi haqida shunday qayd etiladi: “Bas, Movarounnahr podshohlari pokiza shariatga muvofiq ulamolarning mansablarini xuddi hokimlarnikidek to‘rtga hurmat yuzasidan to‘rtta qildilar.” Bu holat shariat bilan davlat boshqaruvi uyg‘unligini ko‘rsatadi.

Qo‘lyozmada tilga olingan mansablar ichida eng oliysi qozilik bo‘lib, u ham bir necha darajaga ajratilgan. Qozilik tizimining eng yuqori bosqichi Shayxulislom lavozimi bo‘lib, mamlakatdagi oliy diniy hokimiyat timsoli sanalgan. Uning ostida turgan Qozi-yu quzzot mansabi haqida muallif xalq da’volarini ko‘rib chiqish va qozilar faoliyatini nazorat qilish vazifalarini qayd etadi. Shuningdek, Qozi-yu quzzot Shayxulislom tomonidan tayinlanishi mamlakatda diniy hokimiyatning darajasini belgilab bergan bo‘lib, Shayxulislom amir ul mo‘minin hisoblangan Buxoro amiridan keyingi eng nufuzli shaxs bo‘lgan. Harbiy doiradagi huquqiy masalalar esa Qozi askar tomonidan hal etilgan.

Tadqiqotchi Shodmon Vohidov izlanishlarida davlat boshqaruvi tizimini tartibga solish amir Shohmurod davrida kuchaygani ta’kidlanadi. Mang‘itlar sulolasi hukmdorlari orasida xalqqa yaqinligi bilan ajralib turgan amir Shohmurod hokimiyatga kelgach, qozilar ustidan nazoratni kuchaytirib, qozi kalon Nizomiddin xo‘janing jazolanishi orqali adolatning tiklanishini ko‘zlagan.

Qozilikdan keyingi ikkinchi muhim diniy lavozim muftiylik bo‘lib, uning eng oliy darajasi — a’lam davlat miqyosida fatvo beruvchi eng salohiyatli diniy arbob sifatida tanilgan. Undan keyin muftiyi askar keladi, u harbiy yurishlar davomida fiqhiy masalalarni tartibga solish bilan shug‘ullangan.

Uchinchi asosiy mansab — **muhtasiblik** bo‘lib, mamlakatda shariat qoidalariga rioya etilishini nazorat qilgan. Dastlabki to‘rtlik yakunidan so‘ng, mudarrislik madrasalarda ta’lim jarayonini boshqaruvchi muhim mansab sifatida qayd qilinadi.

Keyingi to‘rtlikka kiruvchi mansablardan biri masnadnishinlik bo‘lib, Jo‘ybor hududini boshqarish vakolatiga ega bo‘lgan. Naqiblik lashkar tartibi va ta’minotiga mas’ul bo‘lgan, o‘rog‘i kalon esa qo‘shin ichida shariat tartiblarini nazorat qilgan. Naqshbandiylik mansabi esa sug‘orish tizimi hamda muqaddas qadamjolar boshqaruvini o‘z ichiga olgan.

Manbada Buxoro amirligidagi eng yuqori martabalardan biri — **otaliq** alohida ahamiyatga ega mansab sifatida qayd etilgan. Otaliq rasmiy ravishda hukmdorning tarbiyasi uchun mas’ul bo‘lgan bo‘lsa-da, amalda davlat boshqaruvida nihoyatda katta ta’sirga ega bo‘lgan. Xususan, Mang‘itlar hukmronligi davrida otaliqlar siyosiy hokimiyatning asosiy qismini o‘z qo‘llarida jamlaganlar. Biroq amir Shohmurod davridan boshlab ushbu mansab egalari ta’sir doirasining sezilarli darajada qisqartirilgani manbalarda ta’kidlanadi. Shuningdek, otaliq mamlakatdagi suv inshootlari ustidan ham nazoratni amalga oshirgan.

Otaliqdan keyin turuvchi ikkinchi mansab — **devonbegi** hisoblangan. Devonbegi butun davlatning moliyaviy tizimi uchun javobgar bo‘lib, xirojni yig‘ish va taqsimlash, hamda xiroj hisobidan tushgan chorva mollarini to‘shakxona mehtariga, g‘allani esa imloga topshirish orqali iqtisodiy boshqaruvning markazida turgan mansabdor sifatida tavsiflanadi.

Manbada uchinchi mansab sifatida **parvonachi** tilga olinadi. Uning vazifasi nihoyatda mas’uliyatli bo‘lib, hukmdor farmoyishlarini davlat amaldorlari hamda xalq orasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazish bilan bog‘liq bo‘lgan. Shu orqali parvonachi hukmdor bilan jamiyat o‘rtasida muhim aloqa bo‘g‘ini vazifasini bajargan.

To‘rtinchi mansab — **dodxoh** bo‘lib, mazkur mansab egasi aholining ariza va shikoyatlarini hukmdorga yetkazib turish uchun javobgar bo‘lgan. Muallif manbada dodxoh nafaqat murojaatlarni yetkazishi, balki ularga berilgan javoblarni ham o‘z vaqtida xalqka taqdim etishi lozim bo‘lgan mutasaddi sifatida ko‘rsatadi.

Xulosa. Ushbu qo‘lyozmada yoritilgan Buxoro amirligining yuqori mansablar tizimi davlat boshqaruvining mukammal va aniq tartibga solinganligini namoyon etadi. Har bir martabaning vazifalari ravshan belgilangan bo‘lib, ular diniy, harbiy, iqtisodiy va ma’muriy yo‘nalishlar o‘rtasida uyg‘unlikni ta’minlagan. “To‘rtlik”

ramzining qo‘llanishi boshqaruvning ilohiy-mantiqiy tamoyillarga asoslanganini, adolat, halollik va mas’uliyat kabi qadriyatlarning ustuvor bo‘lganini anglatadi. Ushbu mansablar tizimini chuqur o‘rganish esa Buxoro amirligi siyosiy-idora tizimining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga hamda milliy davlatchilik tarixining muhim jihatlarini yanada kengroq anglashga imkon yaratadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. № AR-304. *Yuqori mansablar, omma xizmatiga daxldor bo‘lganlar va shohga yaqinlarning bayoni*. – 7-b.
2. *O‘rta Osiyo xonliklarida davlat boshqaruvi tarixidan*. – 2006. – 72-b.
3. Хамроев А. (2024). Amir Haydar-the luminary of knowledge and science (based on the work “maktuboti amir haydar”). *Теоретические аспекты становления педагогических наук*, 3(13), 72–75.
4. Хамроев А. (2024). The issue of justice in the work “Maktuboti Amir Haydar”. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 3(7), 155–157.
5. Hamroyev A. U. (2024). The Significance of the Work History of Khumuli in Documenting the Mangit Period’s History. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 5(7), 293–297.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 811.161.1

O‘ZBEK TILI IMLO QOIDALARINING LINGVISTIK TA’MINOT SIFATIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Sobirova Nazira G‘anijon qizi, ***Alisher Navoiy*** ***nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti***

THE ROLE AND IMPORTANCE OF UZBEK SPELLING RULES AS LINGUISTIC SUPPORT

Sobirova Nazira Ganijon kizi, ***PhD Student Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi***

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПРАВИЛ УЗБЕКСКОЙ ОРФОГРАФИИ КАК ЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

Собирова Назира Ганижон кызы, ***базовый докторант Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои***

https://orcid.org/0009-0003-4913-6793
e-mail: nazirasobirova073@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada imlo tizimining barqarorligini ta’minlovchi lingvistik omillar, orfografik tamoyillar hamda o‘zlashma so‘zlar va yangi terminlarning yozuvga moslashtirilish muammolari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, imlo qoidalarini avtomatlashtirilgan tahlil tizimlariga integratsiyalash zarurligi, zamonaviy texnologiyalar yordamida normativ bazani takomillashtirish lozimligi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *imlo, orfografiya, til normasi, yozma nutq, lingvistik ta’minot, normativlik, lotin yozuvi, imlo lug‘ati.*

Abstract: *The article discusses the linguistic factors ensuring the stability of the spelling system, orthographic principles, and the issues related to adapting borrowed words and new terms into written language. It also emphasizes the necessity of integrating spelling rules into automated analysis systems and improving the regulatory framework through the use of modern technologies.*

Keywords: *spelling, orthography, language norm, written discourse, linguistic support, normativity, Latin script, spelling dictionary.*

Аннотация: *В статье рассматриваются лингвистические факторы, обеспечивающие устойчивость орфографической системы, орфографические принципы, а также проблемы адаптации заимствованных слов и новых терминов в письменной речи. Кроме того, подчёркивается необходимость интеграции орфографических правил в автоматизированные системы анализа и совершенствования нормативной базы с использованием современных технологий.*

Ключевые слова: *орфография, написание, языковая норма, письменная речь, лингвистическое обеспечение, нормативность, латинская графика, орфографический словарь.*

KIRISH. Imlo qoidalari nafaqat orfografik jihatdan, balki morfologik, sintaktik va semantik darajada ham tizimlashtirilgan bo‘lishi lozim. Ularning strukturalashgan shakldagi modellar asosida qurilgan tizimlar foydalanuvchi matnlarini avtomatik tarzda tahlil qilish, xatolarni aniqlash hamda kontekstga mos tuzatish kiritish imkoniyatini yaratadi. Natijada bu tizimlar nafaqat til texnologiyalarining rivojlanishiga, balki jamiyatdagi umumiy savodxonlik darajasining oshishiga ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. O‘zbek tilida imlo xatolarini avtomatik topish va tuzatish tizimini yaratish uchun, avvalo, lingvistik ta’minot zarur. Bunga alifbo va orfografik qoidalar, imlo lug‘atlari, izohli lug‘atlar hamda morfologik bazalar kiradi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yildagi 339-son qarori bilan tasdiqlangan asosiy imlo qoidalari o‘zbek tilida yozuv me’yorlarini belgilaydi (lotin yozuviga asoslangan yangi alifbo qoidalari). Shu qoidalar va ularga kiritilgan qo‘shimcha o‘zgartishlar (1995-yildan so‘ng) imlo tekshirgichning qoida bazasini shakllantirishga asos bo‘ladi.

MUHOKAMA. Imlo qoidalarining asosiy guruhlari. O‘zbek tili imlo qoidalari turli lingvistik darajalarga asoslanadi. Quyida ularning asosiy guruhlari umumlashtirilgan shaklda taqdim etiladi:

O‘zbek tili imlo qoidalarining guruhlari va ularning xususiyatlari

№	Imlo qoidasi guruhi	Tavsifi	Avtomatik tahlildagi roli
1	Fonetik imlo	Talaffuz asosida yozuvni belgilaydi (masalan: “ko‘z”, “yurak”)	So‘zning to‘g‘ri talaffuzi asosida yozilishini ta’minlaydi
2	Morfologik imlo	So‘z yasalishi va qo‘shimchalar imlosi	Morfemalarga ajratish va shakl tahlili
3	Sintaktik yozuv	So‘zlar orasidagi bog‘lanishlar, birikmalar	Ajratib yoki qo‘shib yozish masalalari
4	Leksik yozuv qoidalari	O‘zlashma so‘zlar, atamalar, bosh harf bilan yozish	Leksik bazani boyitish, sarlavha aniqlash
5	Tinish belgilarini qo‘llash	Nuqta, vergul, so‘roq belgi va boshqa punktuatsiya qoidalari	Matn strukturasini to‘g‘ri tahlil qilish
6	Transkripsion yozuv	Ism-shariflar, joy nomlarining fonetik moslikda yozilishi	Xorijiy nomlarning yagona imloviy shaklga keltirilishi

O‘zbek tilining o‘ziga xos **orfografik muammolari** ham bor. Xususan, lotin alifbosida ayrim harflarning yozilishi va foydalanilishi ko‘pincha xatolarga sabab bo‘ladi: **“o‘” va “u”**, **“g‘” va “q”**, yoki **“x” va “h”** harflarining adashtirilishi keng tarqalgan xatolardandir. Masalan, “xar” va “har” so‘zlari yoki “qo‘l” (o‘ harfi bilan) va “qul” (u harfi bilan) so‘zlari ma’nodosh emas, shu bois bu harflarni noto‘g‘ri qo‘llash imlo xatosiga olib keladi. Shuningdek, lotin yozuvida *ng, sh, ch* kabi **birikma harflar** mavjudligi kompyuterli tahlilda e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan jihatdir – masalan, **“sh”** bir harf hisoblanadi, agar algoritm buni e’tibordan qoldirsa, **“oshdi”** so‘zini o+sh+di deb noto‘g‘ri bo‘lib chiqishi mumkin. Demak, o‘zbek tili uchun imlo tekshirgich tuzishda tilning **rasmiy qoidalari** (orfografik kodifikatsiya), **normativ lug‘atlar** va **morfologiya**si to‘liq hisobga olinadigan lingvistik bazani shakllantirish talab etiladi.

O‘zbek tilida qoidalarga asoslangan imlo tekshirish bir necha bosqichda amalga oshirilishi mumkin:

Birinchi bosqich – **lug‘aviy tekshirish**. Yuqorida zikr etilgan **imlo lug‘ati** asosida dastur matndagi har bir so‘zni tekshiradi. Bunda asosiy **leksema**lar (so‘zning normal shakli) ro‘yxati va ular uchun mumkin bo‘lgan **qo‘shimchalar to‘plami** ishlatiladi. Amaliyotda ko‘pincha **triyestrukturali lug‘at** tuziladi: masalan, **Hunspell** uchun uz_Latn.dic va uz_Latn.aff fayllari mavjud bo‘lib, biri so‘zlar ro‘yxati, ikkinchisi esa qo‘shimchalar (affikslar) qoidalarini o‘z ichiga oladi. Natijada tizim **morfologik generator** sifatida har bir so‘zning barcha grammatik shakllarini “tanish” imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘zbek tilida bunday yondashuv ayniqsa muhim, chunki bitta so‘z ildizidan yuzlab variantlar hosil bo‘lishi mumkin (masalan, **“bor”** fe’li: bordi, borarkan, bormaganmidingiz...). Agar lug‘atda faqat **“bor”** so‘zi kiritilib, qo‘shimchalar qoidasi mavjud bo‘lsa, dastur yuqoridagi kabi

barcha shakllarni ham to‘g‘ri deb qabul qila oladi. Shu bilan lug‘at hajmi optimallashtiriladi va qamrov oshadi.

Ikkinchi bosqich – maxsus imlo qoidalarini tekshirish**.** Bu bosqichda tilshunoslar tomonidan qoida sifatida ifodalangan imlo tamoyillari qo‘llanadi. Masalan, o‘zbek tilida ajratish belgisini (') ishlatish qoidasi**:** o‘, g‘, sh, ch, ng tarkibiy harflaridan tashqari boshqa hollarda so‘z ichida apostrof ishlatilmasligi kerak. Agar dastur matnda *“san'at”* (to‘g‘ri: **san’at**) yoki *“o'rtacha”* (to‘g‘ri: **o‘rtacha**) kabi xatolarni topsa, bu **qoida buzilishi** sifatida belgilaydi va tuzatishni taklif qiladi. Yoki **defis qo‘llash** qoidasi: “bir-ikki” kabi sonlar defis bilan yoziladi, agar *“bir ikki”* tarzida yozilsa, uni xato deb topish mumkin. Shu kabi **orfografik qoidalar** to‘plami rule-based tizimga kiritiladi va matn tahlilida ularga amal qilinadi.

Uchinchi bosqich – **morfologik tahlil va sintaksis nazorati** (bu asosan grammatik xato topish bilan bog‘liq bo‘lsa-da, imloga ham daxldor). O‘zbek tilida ba’zi imlo xatolari grammatik noto‘g‘ri qo‘llanishdan kelib chiqadi. Bunda tekshirish uchun dastur qoida shaklida yozilgan grammatik ma’lumotdan foydalanadi.

Biroq, qoidalarga asoslangan imlo tekshirgich ba’zan **cheklangan** bo‘lishi mumkin. Agar matnda lug‘atda yo‘q yangi so‘z yoki nom kelsa, dastur uni xato deb noto‘g‘ri belgilashi mumkin (masalan, yangi texnik atama **“blog”** dastur bazasida yo‘q bo‘lsa). Yoki ba’zi murakkab xatolar qoidaga oson tushmaydi – masalan, *“qizg‘aldoq”* o‘rniga *“qizgaldoq”* yozilsa, bu xatoni faqat qoida bilan topish qiyin (chunki ikkisi ham lug‘atda bo‘lishi mumkin). Shunday vaziyatlarda statistik usullar yordamga keladi. Keyingi bo‘limda o‘zbek tilida statistik va n-gramma yondashuvlari qanday qo‘llanishi mumkinligi yoritiladi.

NATIJALAR. O‘zbek tilida imlo tekshirishning statistik yondashuvi tilning katta hajmdagi matnlardagi ehtimollik xususiyatlariga tayangan holda ishlaydi. Bu usulni amalga oshirish uchun, birinchidan, **korpus** – ya’ni, o‘zbek tilida to‘g‘ri yozilgan matnlar to‘plami zarur. So‘nggi yillarda bunday resurslar paydo bo‘lmoqda: masalan, tadqiqotchilar 35 mingdan ortiq kitoblardan iborat 36 GB hajmdagi o‘zbek matnlari korpusini ochiq manbada e’lon qilishdi. Shu kabi katta korpuslardan olingan **statistik ma’lumot** (so‘zlarning chastotasi, so‘zlar orasidagi bog‘lanish ehtimolligi va h.k.) imlo xatolarini aniqlashda foydali – n-gramma modelidan foydalanishdir. Bu yerda n harfli ketma-ketliklar yoki n so‘zli ketma-ketliklar ehtimolligi hisoblanadi. Masalan, o‘zbek tilida **“sq”** harf birikmasi deyarli uchramaydi – agar matnda *“masqad”* degan so‘z uchrasa, undagi “sq” ketma-ketligi juda noodatiy, shuning uchun bu xato (“maqsad” so‘zi **“qs”** tartibida bo‘lishi kerak) deb aniqlanishi mumkin. Bu – harf darajasida n-grammaga asoslanib xatoni topish misoli. Yoki so‘z darajasida: *“men kitob o‘qidi”* jumlasida **“o‘qidi”** so‘zi grammatik jihatdan noto‘g‘ri (to‘g‘risi: *“o‘qidim”* yoki *“o‘qidi****.”*, kontekstga ko‘ra), buni aniqlash uchun **“men [_] kitob”** bigrammasidagi bo‘sh joyga qaysi so‘zlar kelishi ehtimoli ko‘riladi – korpus bo‘yicha **“o‘qidim”** yuqori ehtimollik bilan chiqishi mumkin. Demak, n-gramma modeli yordamida **real so‘zlar xatolari**ni (ya’ni, matnda mavjud lekin noto‘g‘ri joyda qo‘llangan so‘zlarni) aniqlash imkoni paydo bo‘ladi. Ingliz tilidagi misolda *“Their going too the store”* jumlasidagi *“their”* so‘zi lug‘atda bor, lekin kontekstga to‘g‘ri kelmaydi (to‘g‘risi *“they’re”* bo‘lishi kerak) – buni aniqlash uchun **“their going”** bigrammasi ehtimoli pastligi, **“they’re going”** esa ancha yuqori ekanligidan foydalaniladi. O‘zbek tilida bunday **kontekstual xatolar** nisbatan kamroq uchrashi mumkin, ammo baribir mavjud: masalan, *“qol***gan** *kuylak”* va *“qol***oq** *kuylak”* – bu yerda *“qoloq”* so‘zi mustaqil mavjud bo‘lsa-da, birinchi birikmada *“qolgan”* bo‘lishi kerakligi ma’no va kontekstdan kelib chiqadi. Shuningdek, **bir xil talaffuzli** lekin imloda farqlanadigan so‘zlar ham bor: *“qora qul”* va *“qora qo‘l”* – bu misolda kontekst bo‘yicha farqlash lozim bo‘ladi. Statistik yondashuv bunday nozik farqlarni aniqlashda yordam beradi, chunki u **korpusdan “o‘rganadi”**: ko‘p kuzatilgan normal bog‘lanishlar modelda yuqori baholanadi, noodatiy juftliklar esa past baholanadi.

Statistik imlo tekshirishda yana bir muhim jihat – xatoni tuzatish uchun eng mos so‘zni tanlash**.** Agar lug‘at asosida bir xato so‘z uchun bir nechta variant taklif qilingan bo‘lsa, u holda **til modeli** qaysi variant eng maqbul ekanini aniqlashi mumkin. Misol uchun, *“kitobnı o‘qidim”* (turkcha ı bilan xato yozilgan) jumlasida **“kitobni”**,

“kitobı” kabi takliflar berilishi mumkin, lekin korpus bo‘yicha **“kitobni o‘qidim”** juda yuqori uchrashuvga ega bo‘lsa, shu variant birinchi o‘ringa chiqadi. Shunday qilib, statistik model lug‘aviy tekshirishni **to‘ldiruvchi mexanizm** sifatida ishlaydi.

Statistik va n-gramma yondashuvning afzalligi – **moslashuvchanlik**. Yangi paydo bo‘lgan so‘zlar (masalan, **“bloger”**, **“koronavirus”** kabi so‘zlar) lug‘atda bo‘lmasa ham, katta korpusda ular tez-tez uchragani sababli model ularni notanish deb chiqarmaydi yoki xato deb belgilamaydi. Yoki aksincha, noto‘g‘ri yozilgan lekin lug‘atda mavjud bo‘lgan so‘zni (masalan, *“tog‘lar”* o‘rniga *“toqlar”* yozilsa – ikkinchisi ham alohida ma’noga ega so‘z) kontekst orqali xato ekanini aniqlaydi. Shunday jihatlar qoidalarga asoslangan an’anaviy tekshirgichda e’tibordan chetda qolishi mumkin edi.

XULOSA qilib aytganda, imlo qoidalari til madaniyatining tayanchi, yozuv tizimining esa normativ asosi hisoblanadi. U nafaqat tilning tashqi shaklini, balki milliy tafakkurning yozma ifodasini ham belgilaydi. Bugungi raqamli davrda imlo me’yorlarini yangilash, ularni avtomatlashtirilgan tizimlarga integratsiyalash, yangi so‘zlarning normativ shaklini aniqlash — lingvistik ta’minotning muhim vazifasidir. Til madaniyati, orfografik normativlik va ilmiy asoslangan imlo qoidalari uyg‘unligida o‘zbek tili yozuvi yanada mukammallashadi, milliy yozuv an’analari esa barqaror me’yorga aylanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risidagi qaror, 1995-yil 24-avgust, №339.
2. Madvaliyev A., Begmatov E. O‘zbek tilining o‘quv imlo lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2013.
3. O‘zbek tili lotin yozuviga asoslangan imlo qoidalari (tahririy takliflar). – Toshkent: O‘zRFA Tilshunoslik instituti, 2021.
4. Choriyeva D. O‘zbek tili orfografiyasi va normativlik muammolari. – Til va madaniyat jurnali, 2020.
5. Muminova U. O‘zbek tilining zamonaviy imlo tizimi va uning lingvistik asoslari. – Toshkent davlat universiteti nashri, 2022.
6. O‘zbek tilining katta imlo lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2014.
7. To‘xtayev B. Til normalari va orfografik madaniyat masalalari. – Filologiya masalalari jurnali, 2019.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 344.072:347.6

NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLARNI TA’LIM JARAYONLARI ORQALI JAMIYATGA INTEGRATSIYA QILISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

Ismailov Bekjon Salixovich, O‘zbekiston Milliy universiteti, katta o‘qituvchi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ИНТЕГРАЦИИ ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В ОБЩЕСТВО ЧЕРЕЗ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ПРОЦЕССЫ

Исмаилов Бекжон Салихович, старший преподаватель, доктор философии по юридическим наукам (PhD) Национальный университет Узбекистана

THE THEORETICAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF INTEGRATING PERSONS WITH DISABILITIES INTO SOCIETY THROUGH EDUCATIONAL PROCESSES

Ismailov Bekjon Salikhovich, Senior Lecturer, Doctor of Philosophy in Law (PhD)National University of Uzbekistan

ORCID: 0000-0001-6765-3821
E-mail: bekjon.4@mail.ru
+998 90 973 09 69

Annotatsiya: *Maqolada, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqiy maqomi va ularning sog‘lom jamiyat muhitiga moslashishi bilan bog‘liq masalalar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Ma’lumki, bugungi kunda nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini ta’minlash masalasiga davlat darajasida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu e’tibor natijasi o‘laroq, nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyatga moslashtirish, bu orqali ular qobiliyatlarini namoyon etish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Shuningdek, maqolada, nogironligi bo‘lgan shaxslarni ta’lim orqali jamiyat hayotiga integratsiya qilish borasida olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy huquqiy tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *nogironligi bo‘lgan shaxslar, huquqiy maqom, ta'limga integratsiya, jamiyat, ijtimoiy reabilitatsiya.*

Аннотация: *В статье анализируются вопросы, связанные с правовым статусом лиц с ограниченными возможностями здоровья и их адаптацией к здоровой социальной среде с научно-теоретической точки зрения. Как известно, сегодня вопросу обеспечения прав лиц с ограниченными возможностями здоровья уделяется внимание на государственном уровне. В связи с этим все большую актуальность приобретают задачи адаптации лиц с ограниченными возможностями здоровья к обществу, посредством которой они могут проявить свои способности. В статье также проводится сравнительно-правовой анализ научных взглядов ученых на интеграцию лиц с ограниченными возможностями здоровья в общество посредством образования.*

Ключевые слова: *лица с ограниченными возможностями здоровья, правовой статус, образовательная интеграция, общество, социальная реабилитация.*

Abstract: *The article analyzes the issues related to the legal status of persons with disabilities and their adaptation to a healthy social environment from a scientific and theoretical perspective. As is known, today the issue of ensuring the rights of persons with disabilities is being paid attention to at the state level. As a result of this attention, the tasks of adapting persons with disabilities to society, through which they can demonstrate their abilities, are becoming more relevant. The article also provides a comparative legal*

analysis of the scientific views of scientists on the integration of persons with disabilities into society through education.

***Key words**: persons with disabilities, legal status, educational integration, society, social rehabilitation.*

Kirish (Introduction). Nogironligi bo‘lgan shaxslar jamiyatning to‘la huquqli subyekti sanalishadi. Bu toifa shaxslarni huquq va imtiyozlaridan erkin foydalanishlarini ta’minlash uchun ularni sog‘lom jamiyat muhitiga moslashtirish muhim zaruriy shart hisoblanadi. Agarki ularni jamiyat muhitiga moslashtirilmasa, ma’lum ma’noda, ularning huquq va erkinliklari cheklanib qoladi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyatga moslashtirish davlat ijtimoiy himoya siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Misol uchun, nogironligi mavjud o‘quvchi talabalar ta’lim muassasalarida ta’lim olish huquqlarini amalga oshiradilar. O‘qituvchi pedagoglar esa faoliyat majburiyatlarini bajaradilar. Shu kabi o‘quv yoki mehnat jarayonlarida nogironligi bo‘lgan shaxslar sog‘lom jamiyat muhitiga bosqichma bosqich moslashib boradilar. Ya’ni, nogironligi bo‘lgan shaxslar jamiyatda ijtimoiy-huquqiy munosabatlarga kirishishlari asnosida, ularning moslashuvchanlik qobiliyatlari oshib boradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Hech kimga sir emaski, jismoniy nuqsoni mavjud shaxslar hayot faoliyatida ta’lim olish huquqi alohida o‘rin tutadi. Yurtimizda bu kabi insonlar hayotiga nisbatan e’tibor kuchayar ekan, sog‘lom jamiyat muhitiga moslashtirish jarayonlarini optimallashtirish masalalari kuchli ishlab chiqilgan zamonaviy qonunchilik asoslariga muvofiq tartibga solinadigan bo‘ldi. Bu kabi huquqiy me’yorlarning yaratilishi nogironligi bo‘lgan shaxslarning normal hayotga integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Xususan, nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyat hayotiga moslashtirish chora-tadbirlarining ta’lim sohasi orqali yo‘lga qo‘yilayotganligi olib borilayotgan ishlarning samaradorligini belgilab bermoqda. Ta’kidlab o‘tish joizki, ta’lim integratsiyasi nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyat hayotiga moslashtirishda muhim vosita sanaladi. V.S. Tkachenkoning tushuntirishicha, nogironligi bo‘lgan shaxslar integratsiyasi, jamiyat va davlat ishlarida nogironligi mavjud shaxslarning teng huquqli ishtirokini ta’minlashni nazarda tutadi. Bu jarayonni samarali yo‘lga qo‘yish uchun jamiyatda nuqsonli shaxslarga nisbatan adekvat munosabatni shakllantirish talab etiladi[1].

V.S. Tkachenkoning qarashlarini to‘la to‘kis qo‘llab-quvvatlab bo‘lmaydi. Nazarimizda, bu toifa shaxslar integratsiyasi ularning jamiyatga moslashuvchanlik imkoniyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Ya’ni qo‘shimcha ehtiyojli shaxslar integratsiyasi ma’lum bir yo‘nalishlarga ixtisoslashuvi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan, mulohazada yondashuv asosan umumiy mohiyat kasb etgan. Aytmoqchi bo‘lganimiz, nogironligi bo‘lgan shaxslarni jamiyat hayotiga moslashtirishda ta’lim integratsiyasi, mehnat munosabatlari integratsiyasi orqali bu jarayonlarni samaraliroq yo‘lga qo‘yish mumkin.

Tahlil qilinayotgan mulohazada esa bu jihatlar e’tibordan chetda qoldirilgan. T.P. Argunovaning ta’kidlashicha, nogironligi bo‘lgan bolalar ta’lim integratsiyasi o‘quvchilarning ijtimoiy jamiyat muhitiga moslashishida muhim bosqichdir. Ta’lim integratsiyasi orqali o‘quvchilarning individual qobiliyatlari rivojlanadi, ijtimoiy-huquqiy reabilitatsiya chora-tadbirlari amalga oshiriladi[2].

A.V.Batovaning fikr bildirishicha, nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim integratsiyasi nuqsonli bolalarning sog‘lom tengdoshlari bilan ta’limiy teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini nazarda tutadi. Ta’lim integratsiyasi bevosita barqaror ijtimoiy muhit ta’sirida yo‘lga qo‘yiladi[3].

Agar biz T.P.Argunova hamda A.V.Batovaning mulohazalariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ta’lim integratsiyasi bo‘yicha asosan bolalar integratsiyasiga urg‘u berilganini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Vaholanki, ta’lim integratsiyasi faqat nogironligi bo‘lgan bolalar integratsiyasini nazarda tutmaydi. Har qanday yosh toifasida nogironligi bo‘lgan ta’lim oluvchilar ta’limiy munosabatlarning subyekti bo‘lishi mumkin. D.B. Berdnikova esa ta’lim integratsiyasini nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari va erkinliklarini ro‘yobga chiqarishda muhim bosqich deb hisoblaydi. Ta’lim integratsiyasini milliy va xalqaro darajadagi

normativ-huquqiy asoslar yordamida tartibga solish maqsadga muvofiq sanaladi[4].

Natijalar va muhokama. E.R. Kalimullinaning ta'kidlashicha, nogironligi bo'lgan bolalarni nafaqat ijtimoiy reabilitatsiya qilish, balki bir vaqtning o'zida ularni jamiyatga integratsiyalash nihoyatda muhim sanaladi[5].

Ushbu fikrda, tadqiqotchi ijtimoiy integratsiya odatda nogironligi bo'lgan bolalar misolida amalga oshirilishi ma'qul degan fikrni ilgari suradi.

Nazarimizda, bu fikr ayni masalada to'laqonli mazmun-mohiyat kasb etmaydi. Sababi, ijtimoiy integratsiya nafaqat nogironligi bo'lgan bolalar misolida amalga oshirilishi kerak, balki bu jarayon butun nogironligi mavjud shaxslar doirasida tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Nogironligi bo'lgan shaxs borki, ularning barchasi ijtimoiy integratsiyaga bevosita ehtiyoj sezishadi.

D.B. Berdnikovaning yondashuvi ta'lim integratsiyasi tushunchasiga huquqiy baho berishda alohida ahamiyat kasb etadi. O'ylashimizcha, ta'lim integratsiyasi tushunchasini "O'zbekiston Respublikasi nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi hamda "O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risida"gi qonunlarga kiritish muhim sanaladi. O'z navbatida, nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim integratsiyasi tushunchasiga huquqiy ta'rif ishlab chiqish ilmiy zarurat hisoblanadi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar ta'lim integratsiyasi deb huquqiy-sohaviy qonunlar yordamida nogironligi bo'lgan shaxslarni maxsus internat ta'lim o'quv jarayonlariga qo'shimcha shart-sharoitlar asosida moslashtirib borishga aytiladi. Inklyuziv ta'lim esa sog'lom jamiyatning nogironligi bo'lgan shaxslar bilan yuzaga keladigan munosabatlarini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Ya'ni integratsion ta'lim nogironligi bo'lgan shaxslarni maxsus ta'limiy muhitga kirishib olishini kafolatlasa, inklyuziv ta'lim esa bu toifa shaxslarni qo'shimcha shart-sharoitlar asosida umumiy ta'limda tahsil olishini ko'zda tutadi. O'ylashimizcha, nogironligi bo'lgan shaxslar misolida integratsion ta'lim, inklyuziv ta'limning fundamental bosqichi sanaladi. Shu ma'noda alohida e'tiborga muhtoj ta'lim oluvchilarni inklyuziv ta'lim bilan qamrab olishda bu toifa insonlarning nogironlik holatlari hal qiluvchi faktor sifatida namoyon bo'lishini alohida ta'kidlab o'tishimiz shart.

Bugungi globallashuv sharoitda nogironligi bo'lgan yoshlarni sifatli ta'lim bilan ta'minlash, ularni sog'lom jamiyat muhitiga ortiqcha ijtimoiy to'siqlarsiz adaptiv moslashishini kafolatlash bu boradagi davlat islohotlarining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchi talabalarni inklyuziv shart-sharoitlar asosida bosqichma-bosqich umum ta'lim muassasalariga jalb etish, ularning huquqiy-ma'naviy madaniyatini yuksaltirish, alohida e'tiborga muhtoj o'quvchi-yoshlarni davlat va jamiyat uchun sifatli kadr qilib voyaga yetkazish muhim masalalardan biriga aylandi.

Xulosa qilib aytganda, Shaxs nogironlik holatining og'irlik darajasi va toifasi ularni inklyuziv ta'limga munosib yoxud nomunosib ekanligini belgilab beradi va bu nogironligi bo'lgan o'quvchi, talabalarni o'quv-ta'lim jarayonlariga jalb etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, inklyuziv ta'limning qamrovini kengaytirish, davlat va jamiyat institutlari o'rtasida hamkorlikni chuqurlashtirish, huquqiy normalarning amaliyotga tatbiq etilishini monitoring qilish hamda ijtimoiy ongda bag'rikenglik va hamjihatlik qadriyatlarini mustahkamlash bo'yicha tizimli choralar ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ткаченко В.С. Интеграция людей с инвалидностью в российском обществе: автореферат дисс. д-ра соц. наук. Ставрополь, 2007. – С. 4.

2. Аргунова Т. П. Интеграция детей-инвалидов в социум посредством социально-педагогической реабилитации: Автореферат дисс. канд. пед. наук. – Якутск, 2009. – С. 4.

3. Батова А. В. Социально-педагогические условия интеграции детей-инвалидов в социальную среду: Автореферат дисс. канд.пед. наук. – Москва, 2001. – С. 5.

4. Бердникова Д. Б. Международно-правовой механизм обеспечения реализации права на образование: Автореф. дисс. канд. юр. наук. – Казань, 2019. – С. 3.

5. Калимуллина Э. Р. Проблемы социальной защиты детей-инвалидов в условиях современного российского общества: Автореф. дисс. канд. соц. наук. – Уфа, 2007. – С. 3.

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 141.7+1(091)+001.8

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDATARIXIY ONG

Mahkamov Qodirjon, (PhD), v.b.professor
Namangan davlat universiteti

HISTORICAL CONSCIOUSNESS IN THE INFORMATION SOCIETY

Mahkamov Qodirjon, (PhD), Acting Professor
Namangan State University

ИСТОРИЧЕСКОЕ СОЗНАНИЕ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ

Махкамов Кодиржон, (PhD), и.о. профессора
Наманганский государственный университет

E-mail: maxkamov_82@mail.ru
https://orcid.org/0000-0002-0822-0759

Annotatsiya: *Maqolada axborotlashgan jamiyatda umumiy o‘rta ta’lim maktab tarix darslari va darsliklarining bugungi holati, undagi tarixiy ma’lumotlar hamda tarixiy bilimning yoshlar milliy ijtimoiy xotirasini shakllanishidagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *tarix, vatan, tarixiy ong, dunyoqarash, globallashuv, qadriyat, ta’lim, tarbiya, ijtimoiy xotira.*

Аннотация: *В статье рассматривается современное состояние уроков и учебников истории для общеобразовательной школы в информационном обществе, содержащаяся в них историческая информация, а также значение исторических знаний в формировании национальной социальной памяти молодежи.*

Ключевые слова: *история, родина, историческое сознание, мировоззрение, глобализация, ценность, образование, воспитание, социальная память.*

Annotation: *The article examines the current state of history lessons and textbooks for comprehensive schools in the information society, the historical information they contain, and the importance of historical knowledge in the formation of the national social memory of young people.*

Key words: *history, homeland, historical consciousness, worldview, memory, globalization, value, education, upbringing, social memory.*

Kirish (Introduction). Har qanday ilmiy sotsiologik tadqiqot turli metodlar, ya’ni usullar yordamida amalga oshiriladi, bu usullar majmuasi «instrumentariy» deb ataladi hamda ularga konkret mo‘ljallar, yondashuvlar, bilish uchun qo‘llaniladigan tartib-qoidalar kiritiladi. Sotsiologik tadqiqot turli «tip», ya’ni shakl, ko‘rinish, yo‘nalishda bo‘lishi mumkin. Odatda quyidagi tadqiqot tiplari alohida ajratib ko‘rsatiladi: nazariy, empirik, amaliy, bayoniy, prognostik, dala tadqiqotlari, laboratoriya, klinik va h.k.tadqiqotlar.[1.764] Turli ijtimoiy hodisalarni, xususan, bizning mavzu bo‘yicha tarixiy ongni sotsiologik jihatdan tadqiq qilish uchun kuzatish, ommaviy so‘rov, erkin intervyu, juftlab qiyoslash (ruscha – parnoye sravneniye), qiyosiy-tarixiy, axborot to‘plash, tanlab so‘rov, mantiqiy-eksperimental, lingvistik, kontent-tahlil metodlardan foydalaniladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Tarixiy ong fenomenini sotsiologik tadqiq etish uning strukturasini o‘rganish, ichki komponentlarini bilishdan boshlanadi. Ma’lumki, har qanday ijtimoiy hodisa yoki jarayonning ichki tuzilishi, tarkibiy qismlari, ularning o‘zaro aloqalari, bog‘liqligi hamda shu tizim bajaradigan (unga yuklangan) vazifalarni o‘rganish strukturali-funksional tahlil orqali amalga oshiriladi. Yangi davr falsafasida jamiyatning strukturali tahlilini XIX asrda ingliz olimi Gerbert Spenser boshlab berdi. Uning sotsiologik konsepsiyasi jamiyatni doimo muvozanatga intiladigan o‘ziga xos tirik

organizmga qiyos qilish bilan ajralib turadi. Muvozanat normal hayot faoliyatining sharti va zaminidir, «sotsial agregat» bo‘lgan jamiyat esa, individ kabi turli hayot fazalarini o‘taydi: o‘sib boradi, murakkablashadi, ichdan tabaqalanadi va qismlarining bir-biriga bog‘liqligi ortib boradi. Lekin Spenser jonli organizm bilan jamiyat orasidagi tub farqlarni e’tiborga olmagan, jamiyat evolyutsiyasi asosida ijtimoiy tafovutlar «multiplikatsiya»si, ya’ni ortib borishi yotadi, deb ta’kidlagan.

Har qanday ijtimoiy birlik – xalq, millat, elat o‘zining kelib chiqishini muayyan bir tarixiy davr (hodisa, shaxs va hatto mifologik obraz) bilan bog‘lab talqin qiladi, o‘tmishda yuz bergan muhim voqealar, buyuk (yoki o‘zi buyuk sanagan) shaxslar to‘g‘risida, ko‘p holatlarda mubolag‘ali va ideallashtirilgan hikoyalar to‘qiydi, o‘zining kishilik tarixidagi va boshqa xalqlar bilan qiyosi to‘g‘risida ma’lum bir tasavvurlarni yaratadi va xotirada saqlaydi. Bunday tasavvurlar, birinchi navbatda, turli tarixiy rivoyatlar, hikoyatlar, afsonalar, ertaklar, asotirlar tufayli mavjud bo‘lib, ular jamiyat ma’naviy hayotining ajralmas qismini tashkil etadi hamda uning o‘z-o‘zini ifodalash va o‘z-o‘zini namoyon qilishning muhim usullaridan biri hisoblanadi.[2,21]

Tarixiy ongning birinchi (quyi) darajasi shakllanishi bevosita hayotiy tajribani to‘plash asosida yuz beradi. Inson hayotining bolalik davrlaridanoq shakllana boshlagan tarixiy ong asosan kundalik hayotiy, tizimlashmagan bilim, ko‘nikma, shuningdek o‘tmish haqidagi ma’lumotlar hamda turli oilaviy marosimlardan olingan taassurotlar ko‘rinishida bo‘ladi. Ammo u, aniq bir tarkibiy tuzilmaga asoslanmagani uchun shaxsda to‘liq bo‘lmagan holda rivojlanadi.

Tarixiy ongning ikkinchi (o‘rta) darajasida shaxsning olam haqidagi bilim va ko‘nikmalari turli urf-odat, marosim va an’analardagi ishtiroki, ota-onasi yoki o‘zidan kattalardan olgan ma’lumotlari, badiiy adabiyot, kino, teatr, radio, televideniye, me’moriy obidalar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari ta’siri ostida shakllanishi mumkin. Ammo tarixiy ongning bu darajasi ham hali tizimga solingan bilimga aylanmaydi.

Tarixiy ongning uchinchi (yuqori) darajasi maktabda olingan tarixiy bilimlar asosida shakllanadi. Ta’lim jarayonida shakllantirilgan tarixiy ong o‘tmish haqidagi bilimlarning rivojlanishiga, mustahkamlanishiga va ularning aniq bir tizimga tushishiga hamda tafakkurda charxlanib, xotirada saqlanib qolishiga imkon beradi.

Tarixiy ong shakllanishining to‘rtinchi (oliy) darajasi inson o‘tmishni har tomonlama nazariy tushunish, tarixiy taraqqiyot tendensiyalarini payqay olish qobiliyatiga ega bo‘lganda yuzaga keladi. Bu davrda kishi har tomonlama mukammal shakllangan, insoniyat jamiyatining rivojini ta’minlaydigan harakatlantiruvchi kuchlarni yaqqol tasavvur etadigan, o‘tmish haqida to‘plagan tarixiy bilimlari negizida tarixiy dunyoqarashi vujudga kelgan bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tarixiy ongning nazariy darajada shakllanishi hamda rivojlanishi tarixiy kategoriyalar yordamida fikrlashga, tarixiy jarayonlarni dinamikada, xronologik izchillikda va zamon nuqtayi nazaridan o‘zaro bog‘liqlikda tushunishga ko‘maklashadi. Bu darajadagi tarixiy ong bilan fanlar tizimi, birinchi navbatda, tarix fani shug‘ullanadi. “Tarix fani ijtimoiy taraqqiyot va o‘tmishga oid har hil voqea-hodisalarning izchil rivojlanishi, ularning qachon, qayerda, qanday holatda yuz berganligi hamda insoniyatning paydo bo‘lishi, tadrijiy evolyutsion takomil jarayoni va boshqalarni o‘rganadi”. [3,11]

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tarix fani insoniyatning ibtidosi, evolyutsiyasi, rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish bilan bir qatorda o‘tmish haqidagi bilimlarni individ ongida mustahkamlash orqali uning tarixiy xotirasini shakllantiradi. Shu tariqa tarixiy ongning ichki strukturaviy komponentlari zuhur bo‘la boshlaydi. Umuman, ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, tarixiy ongni ichki bo‘laklarga bo‘lib o‘rganilganda sotsiolog-tadqiqotchi uning quyidagi tarkibiy elementlariga alohida e’tibor qaratishi lozim: tarixiy qarash, tarixiy idrok, tarixiy tasavvur, tarixiy xotira, tarixiy tafakkur, tarixiy madaniyat va h.q.

Tarixiy qarash tarixiy ongning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. U, birinchidan, o‘tmishdagi voqea-hodisalarni haqiqiy tarix nuqtayi nazaridan, ya’ni qanday bo‘lsa shu holicha e’tirof etish va baholashni, ikkinchidan, individning muayyan mafkuraviy platformadan, muayyan pozitsiyadan turib tarixga munosabatini bildiradi. Shu jihatdan tarixiy qarashda obyektivlik va subyektivlik doim birga ishtirok etadi-ki, bu o‘tmishni o‘rganish va

unga baho berish jarayonida tadqiqotchidan hushyorlikni talab qiladi.

Tarixiy ongning mukammal bo‘lishida uning barcha elementlarining faolligi juda muhim. Xususan, tarixiy qarash bilan birga tarixiy idrok va tarixiy tasavvurning ishtirokisiz tarixiy xotiraning shakllanishi mumkin emas. Bunda tarixiy idrok voqea va hodisalarni tarixiy qarash vositasida qabul qilib va o‘zlashtirib tarixiy tasavvurga aylanadi, tasavvur esa jamlanib, kristallashib tarixiy xotirani tashkil etadi. Tarixiy madaniyat tushunchasi esa tarixiy ong bilan ikki tomonlama taqozodorlik munosabatida bo‘ladi. Tarixiy ong va tarixiy xotira ko‘plab fanlarni, ayniqsa, tarixni o‘rganish jarayonida shakllanadi. Tarixiy ong va tarixiy tajriba har qanday jamiyat uchun ulkan nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan 2002-yilda ilmiy asarlar turkumi chiqarilib, shuningdek taniqli olim Yurgen Straube tahriri ostida “Наррация, идентичност и историческое сознание”(Narratsiya, identiklik va tarixiy xotira) [4,31-49] kitobi nashrga tayyorlanib, Yevropada olimlarning e’tibori ushbu muammoga qaratilgani bejiz emas. “Tarixiy xotira, umumiy holda, o‘tmish tajribasini o‘zlashtira olish qobiliyatini anglatadi”, – deb yozadi D.Abdullajonova. [5,49] Aslida, o‘tmish tajribasini o‘zlashtira olish, undan kelajakdagi faoliyat uchun xulosa va saboqlar chiqara olish qobiliyati xotiraga emas, tarixiy tafakkurga taalluqli.

Tarixiy xotira tushunchasiga berilgan ta’riflar xilma-xil va turli saviyada. Masalan, “Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug‘at”da “tarixiy xotira milliy g‘urur va iftixor hissining zaminlaridan biri” [6,207] – degan fikrni uchratish mumkin. A.A.Qurbonmamedovning fikricha, “tarixiy xotira deyilganda jamiyatning moddiy-ma’naviy hayoti doirasida qo‘llash mumkin bo‘ladigan, shaxsning hayoti va faoliyatini insoniylashtirishga imkon beradigan xalq, millatning o‘tmishdagi ijobiy tajribalarining majmui tushuniladi.” Tarixiy xotirada uning subyektining qiziqishlari, ehtiyojlari va manfaatlariga taalluqli bo‘lgan holda o‘tmish haqidagi barcha saralangan bilim va tasavvurlar jamlanadi. Shuningdek, vorisiylik qonuniyatiga ko‘ra, ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy meros saqlanib, keyingi avlodlarga yetkaziladi. Bu “zanjir” jarayonida tarixiy xotira o‘tmish haqidagi bilimlarni o‘zida saqlovchi muhim bo‘g‘in bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, tarixiy xotira yangi axborotlarni qayta ishlash orqali muttasil rivojlanib boradi va u mohiyatan o‘tmishga emas, balki kelajakka qaratilgan bo‘ladi. Tarixiy xotira xalq og‘zaki va yozma ijodi negizida, har bir xalq ma’naviy hayotining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lgan rivoyatlar, afsona va ertaklar asosida shakllanadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Har bir xalq ijodida ezgulik va olijanoblik, mardlik va qahramonlik, vatanparvarlik va insonparvarlik tarannum etilgan. Afsonaga aylangan qahramonlar, eposlarda kuylangan jasur o‘g‘lonlar yurt ozodligi uchun kurash, haqiqat va adolat tantanasi yo‘lida mardlik ko‘rsatish timsoliga aylangan. Ezgulik va yovuzlik kurashi muqarrar ravishda ezgulikning g‘alabasi, qora kuchlarning tor-mor etilishi bilan yakun topgan. Hech bir xalq yovuzlik va razolatni, o‘g‘rilik va g‘irromlikni, sotqinlik va hasadgo‘ylikni yoqlaydigan yoki oqlaydigan ertak yo rivoyat yaratgan emas.

Tarixiy xotiraning dolzarbligi va ajratib olish xususiyatining asosiy sabablari: tarix to‘g‘risida bilimlar (har qanday bilim emas, aynan, tanlab olinayotgan bilimlar) hozirgi davrdagi voqea-hodisalarni sharhlash, chuqur tushunish uchun ahamiyatli bo‘lish bilan bir vaqtda kelajak uchun ham tarixiy tajribaning ta’siri, qadri borligidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кравченко А.И. Социология. – Москва, 1999, стр. 29-39; Э.Гидденс. Социология. – Тошкент, 2002, –Б.764.
2. Раҳмонов Р., Файзиев Ф. Ёшлар дунёқараши шаклланишида тарихий онг ва тарихий хотира. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б. 21.
3. Ўзбекистон тарихи (Олий ўқув юртларининг номутахассис талабалари учун дарслик) –Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – Б. 11.
4. Курарцева М.А., Коломеец Е.Н. Историография и историческое мьшшение. // Вестник Московского унивеситета. -М, 2004. - № 2. – С. 31-49.
5. Дилором Абдуллажонова. Миллий тарихий хотира: моҳият ва талқин. // Жамият ва бошқарув, № 4. 2004. – Б.49.
6. Мустақиллик. Изоҳли илмий-оммабоп луғат. –Тошкент: Шарқ. 2000. – Б.207.

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 141.7+1(091)+001.8

INSON KAPITALI TUSHUNCHASINING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA ZAMONAVIY IJTIMOIY TALQIN

Sodirjonov Muhriddin Mahamadaminovich,
(PhD), v.b. professor Namangan davlat universiteti

THE THEORETICAL EVOLUTION OF THE CONCEPT OF HUMAN CAPITAL AND ITS MODERN SOCIAL INTERPRETATION

Sodirjonov Muhriddin Mahamadaminovich,
(PhD), Acting Professor Namangan State University

ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ЭВОЛЮЦИЯ ПОНЯТИЯ «ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ» И ЕГО СОВРЕМЕННАЯ СОЦИАЛЬНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Содиржонов Мухриддин Махамадаминович,
(PhD), и.о. профессор Наманганский государственный университет

m.sodirjonov@mail.ru
https://orcid.org/0000-0003-2915-3468

Annotatsiya: *Mazkur maqolada inson kapitali tushunchasining nazariy evolyutsiyasi va uning zamonaviy jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati hamda inson kapitalining asosiy tarkibiy qismlari – ta'lim, sog'liq, kasbiy malaka, ijodkorlik hamda axborot texnologiyalaridan foydalanish omillari ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *inson kapitali, ta'lim, sog'liqni saqlash, kasbiy malaka, ijodkorlik, axborot texnologiyalari, globallashuv, investitsiya, innovatsiya.*

Abstract: *This article examines the theoretical evolution of the concept of human capital, its significance in the development of modern society, as well as the main structural components of human capital — education, health, professional qualification, creativity, and the use of information technologies.*

Key words: *human capital, education, healthcare, professional qualification, creativity, information technologies, globalization, investment, innovation.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается теоретическая эволюция понятия человеческого капитала, его значение в развитии современного общества, а также основные структурные компоненты человеческого капитала — образование, здоровье, профессиональная квалификация, креативность и использование информационных технологий.*

Ключевые слова: *человеческий капитал, образование, здравоохранение, профессиональная квалификация, креативность, информационные технологии, глобализация, инвестиции, инновации.*

Kirish (Introduction). Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy drayverlari sifatida ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash, kasbiy malaka, ijodkorlik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ilmiy va innovatsion rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonlar jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy transformatsiyalarini belgilab beruvchi strategik omillardan biridir. Har qanday ijtimoiy hodisa ijtimoiy tizimning tarkibiy elementi sifatida yuzaga kelib, asta-sekin inson kapitalining asosiy obyektiga aylanadi. Shu ma'noda, inson kapitali doimiy ravishda rivojlantirishni va maqsadli investitsiyalarni talab qiladigan, jamiyatning barcha sohalarida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladigan dinamik tizimdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab inson kapitali va ta'limga bo'lgan munosabat sezilarli darajada o'zgarishlarga yuz tutdi. Inson kapitalini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari ilk bor xorijiy iqtisodchi olimlar – A. Smit, T. Shults, G. Bekker, E. Denison, R.Solou, S.Fisher tomonidan ilmiy asosda tahlil qilingan. Jumladan,

T.Shults kapital tushunchasini tizimli yondashuv asosida inson kapitali va ashyoviy kapitalga ajratib ko‘rsatadi. Bu yondashuv ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida inson omilining o‘rni va ahamiyatini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. G.Bekker inson kapitali konsepsiyasini birinchi bo‘lib mikrodarajada qo‘llagan bo‘lib, insonning bilim, ko‘nikma va malakalarini iqtisodiy qiymat yaratuvchi asosiy resurs sifatida talqin etadi. A.Smit esa inson kapitalini shaxsning ta’lim olish jarayonida mehnat qobiliyatining rivojlanishi va jamiyat uchun foyda keltirishga yo‘naltirilgan ixtisoslashuvi bilan bog‘liq holda izohlaydi. Uning fikricha, inson kapitali yangi qiymatni yaratishda mehnat unumdorligi orqali o‘lchanadi. Keyingi davr tadqiqotchilaridan S.Voronina inson kapitali tushunchasida aholining sog‘liq darajasini alohida ahamiyatga ega omil sifatida qayd etadi. Unga ko‘ra, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bevosita aholining sog‘liq holati bilan belgilanadi. Shu bois, sog‘liq darajasi inson kapitalini shakllantirishning fundamental mezoni sifatida qaraladi [1].

I.V. Ilinskiy esa inson kapitalini ta’lim kapitali, sog‘liq kapitali va madaniyat kapitalidan iborat kompleks tushuncha sifatida talqin qiladi [2]. Bunday yondashuv inson kapitalini faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy-madaniy rivojlanish bilan ham uzviy bog‘liq ko‘rinishda o‘rganishga imkon yaratadi.

Inson kapitali tarkibini yanada chuqurroq tahlil etish uchun funksional yondashuv prinsipi muhim ahamiyat kasb etadi. Funksional yondashuv metodologik jihatdan hodisani nafaqat uning ichki tuzilmasi orqali, balki uning bajaradigan vazifasi, maqsadi va pirovard natijalar nuqtai nazaridan o‘rganishni talab qiladi. Rossiyalik iqtisodchi S.A.Dyatlov ushbu prinsip asosida inson kapitalini investitsiyalar natijasida shakllanadigan va inson tomonidan jamlanadigan sog‘liq, bilim, ko‘nikma, qobiliyat hamda motivatsiyaning muayyan zahirasi sifatida ta’riflaydi[3]. V.T.Smirnov va I.V.Skoblyakova tadqiqotlarida esa inson kapitalini nafaqat individual darajada, balki korxona yoki korxonalar guruhi miqyosida ham baholash zarurligi ta’kidlanadi [4]. Bunday yondashuv inson kapitalining ko‘p qirrali xususiyatlarini tahlil qilish va uning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini kengroq anglash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Milliy iqtisodiyotda inson kapitalini rivojlantirish va uning iqtisodiy fanlar tizimidagi o‘rni masalasi ko‘plab iqtisodchi olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilmoqda. Xususan, Q.X. Abdurahmonov, J.X. Ataniyazov, T. Jalilov, D. Rahmonov hamda B. Usmonov ushbu yo‘nalishda keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Shuningdek, inson kapitalining ijtimoiy jihatlari M.Bekmurodov, M.Quronov, A.Umarov, U.Hayitov, M.Abdujabbarova va boshqa sotsiolog olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ularning ishlanmalarida inson kapitali jamiyat taraqqiyotining asosiy determinanti sifatida talqin qilinadi.

Tahlil va Natijalar (Analysis and results). Inson kapitali o‘z tarkibida bir qator ijtimoiy-biologik yaxlitlik komponentlarini qamrab olib, uni sotsiumga yo‘naltirib boradi. Bular qatoriga demografik, sog‘liqni saqlash, ta’lim, mehnat, madaniy, fuqarolik, ma’naviy-axloqiy hamda axborot resurslariga egalik kabi komponentlar kiradi. Ushbu tarkibiy qismlarning har biri alohida kapital shaklida ijtimoiy zarur faoliyat turlari va funksional imperativlarga mos keladi.

Jahon iqtisodiyoti tarixidan ma’lumki, XX asr boshlariga qadar ishlab chiqarish jarayonida asosiy o‘rinni jismoniy kapital – ishlab chiqarish vositalari va moddiy resurslar egallagan. Ammo XX asrning o‘rtalariga kelib, fan-texnika taraqqiyotining jadallashuvi inson bilimlari, ilmiy tadqiqotlar natijalari va qobiliyatini iqtisodiy rivojlanishning yetakchi omiliga aylantirdi[5]. Bevosita inson iqtisodiy taraqqiyotning bosh harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko‘rila boshlandi. Shu tariqa iqtisodiyot fanida “inson kapitali” kategoriyasi shakllanib, iqtisodiyot va unga yaqin fanlarning hayotiy talab va ehtiyojlarga bergan ilmiy javobi sifatida yuzaga chiqdi.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida inson kapitali nafaqat milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va innovatsion salohiyatini ta’minlovchi omil sifatida qaralmoqda. Shu jihatdan, inson kapitali faqat bilim va ko‘nikmalar majmuasi emas, balki ijtimoiy qadriyatlar, madaniy muhit, axloqiy me’yorlar va jamiyatdagi ijtimoiy institutlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab tizimdir. Inson kapitalining tarkibiy qismlaridan biri sifatida ta’lim

sohasi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u insonning kasbiy mahorati va mehnat unumdorligini oshirish bilan bir qatorda, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Sog‘liqni saqlash tizimi esa kapitalning qayta ishlab chiqarilishida, demografik barqarorlikda va mehnat resurslarining sifat ko‘rsatkichlarida muhim rol o‘ynaydi.

Jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishining bugungi sur’atlari va sifat ko‘rsatkichlari shuni ko‘rsatadiki, inson va u tomonidan to‘plangan intellektual salohiyatni chuqur tadqiq etish hayotiy zaruratga aylangan. Chunki inson kapitali nafaqat iqtisodiy jarayonlarning samaradorligini belgilovchi omil, balki jamiyatning ijtimoiy, madaniy va ma’naviy barqarorligini ta’minlovchi strategik resursdir.

G‘arb ijtimoiy fanlari doirasida inson kapitali, asosan, iqtisodiy nuqtai nazardan tadqiq etilib, uni jamiyatning ma’naviy-axloqiy holatini yaxshilash, odamlarni bunyodkorlik faoliyatiga safarbar etish imkoniyati sifatida talqin qilish cheklanganligicha qolmoqda. Biroq inson kapitalining haqiqiy mazmuni shundaki, u shaxsning mehnat jarayonida o‘zini jamoa va jamiyatning uzviy qismi sifatida anglashiga, ongli tarzda boshqalarga naf keltirish imkoniyatini yuzaga chiqaradi.

Inson kapitali deganda, shaxsning ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatida namoyon bo‘ladigan sifatlar majmui tushuniladi. Bu majmua, avvalo, insonning mehnat layoqati, ishlab chiqarish jarayonidagi o‘rni hamda shaxs uchun daromad manbai bo‘lib xizmat qiluvchi qobiliyatlari bilan ifodalanadi. Shu ma’noda, inson kapitali jamiyat va mamlakat taraqqiyotining barcha sohalarini rivojlantiruvchi omil bo‘lish bilan birga, shaxsning o‘zini shakllantiruvchi resurs sifatida ham ahamiyatlidir. Unda jamlangan resurs va manbalar – sog‘liq, malaka, tajriba, intellektual salohiyat, egallangan bilim va kasb-hunar, mehnat qobiliyati hamda shaxsning ijtimoiy xususiyatlari hisoblanadi.

XX asr sanoat jamiyatida muvaffaqiyatning mezoni ishlab chiqarish vositalariga yaqinlik, zavod va fabrikalarning joylashuvi bo‘lgan bo‘lsa, XXI asrda esa muvaffaqiyatni inson kapitali belgilaydi. Inson kapitali – bu shaxsning bilim, ko‘nikma, qobiliyat va fazilatlari majmui bo‘lib, u shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy farovonlikning poydevori sanaladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Inson kapitaliga qaratilgan investitsiyalar ko‘lami jamiyat taraqqiyotining darajasini belgilovchi muhim ko‘rsatkichdir. Ayniqsa, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimiga yo‘naltirilgan investitsiyalar inson kapitalini samarali rivojlantirishning asosiy omillaridan biridir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aholining umr ko‘rish davomiyligi quyidagi omillar hisobiga uzaymoqda:

ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning inson qadri va manfaatlariga yo‘naltirilishi;

ilm-fan va oliy ta’limga, shuningdek zamonaviy kasblarni egallashga bo‘lgan ijobiy munosabatning shakllanishi;

tibbiy madaniyat va salomatlik darajasining oshishi.

So‘nggi yillarda “Osiyo yo‘lbarsi” nomi bilan mashhur bo‘lgan Singapur va Koreya kabi davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishi, avvalo, sifatli ta’limga qaratilgan davlat siyosati bilan bog‘liq deb baholanmoqda. Shunday qilib, globallashuv sharoitida inson kapitali jamiyat taraqqiyotining asosiy resursiga aylanmoqda. Ta’lim, sog‘liq va ijtimoiy muhitga qaratilgan strategik investitsiyalar nafaqat milliy iqtisodiy o‘sishni, balki global maydonda mamlakatning raqobatbardoshligini ham ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Воронина С.Ю. Экономические основы функционирования автономных учреждений в сфере услуг здравоохранения: дисс. ... к.э.н. – Санкт-Петербург: СП ГЭУ. 2014. – 141 с.

2. Ильинский И.В. Инвестиции в будущее: образование в инвестиционном воспроизводстве. –СПб.: СПбУЭФ, 1996. - С.127.

3. Дятлов С.А. Теория человеческого капитала: Учебное пособие. – СПб.: СПбУЭФ, 1996. - С.72.

4. Смирнов В.Т., Скоблякова И.В. Классификация и виды человеческого капитала в инновационной экономике. –СПб.: Проспект, 2001.- С.2003.

5. Содиржонов, М. Инсон капитали ривожи шахснинг онги, билими, ахлок-одоби, дунёкарашига боглик.."Янги Ўзбекистон” газетаси 10 (2022).

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 811.512.133:004.8

TRANSFORMER MODELLARI YORDAMIDA O‘ZBEK TILI MATNIDA TINISH BELGILARINI TIKLASH

Sobirova Zarnigor G‘anijon qizi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

PUNCTUATION RESTORATION IN UZBEK TEXT BASED ON TRANSFORMER MODELS

Sobirova Zarnigor Ganijon kizi, PhD Student Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

https://orcid.org/0009-0003-4913-6793
e-mail: sobirovazarnigor1996@gmail.com

ВОССТАНОВЛЕНИЕ ПУНКТУАЦИИ В УЗБЕКСКИХ ТЕКСТАХ НА ОСНОВЕ ТРАНСФОРМЕРНЫХ МОДЕЛЕЙ

Собирова Зарнигор Ганижон кызы, базовый докторант Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Annotatsiya: *Ushbu maqolada transformer arxitekturasiga asoslangan chuqur o‘rganish modellari yordamida o‘zbek tili matnida tinish belgilari avtomatik tiklash muammosi ko‘rib chiqiladi. Tinish belgilari tiklash tabiiy tilni qayta ishlashning muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, u mashina tarjimasi, nutqni matnga aylantirish va imloviy tekshiruv tizimlarining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada ushbu muammoning dolzarbligi, mavjud yondashuvlar, ayniqsa transformer modellar – BERT, RoBERTa, GPT va T5 modellari samaradorligi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Transformer, o‘zbek tili, tinish belgisi, NLP, BERT, GPT, T5, punktuatsiya, matn tahlili, chuqur o‘rganish.*

Abstract: *This paper examines the problem of automatic restoration of punctuation in Uzbek text using deep learning models based on Transformer architectures. Punctuation restoration is one of the important stages of natural language processing, playing a key role in improving the performance of machine translation, speech-to-text systems, and spell-checking tools. The paper analyzes the relevance of this problem and existing approaches, with a focus on the effectiveness of Transformer models — BERT, RoBERTa, GPT, and T5.*

Key words: *Transformer, Uzbek language, punctuation restoration, NLP, BERT, GPT, T5, punctuation, text analysis, deep learning.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается задача автоматического восстановления знаков препинания в узбекском тексте с использованием моделей глубокого обучения на основе архитектур Transformer. В работе проанализирована актуальность проблемы и существующие подходы, с особым вниманием к эффективности моделей Transformer — BERT, RoBERTa, GPT и T5.*

Ключевые слова: *Transformer, узбекский язык, восстановление пунктуации, NLP, BERT, GPT, T5, пунктуация, анализ текста, глубокое обучение.*

KIRISH. So‘nggi yillarda tabiiy tilni qayta ishlash (NLP — Natural Language Processing) texnologiyalarining keskin rivojlanishi natijasida turli tillarda yozilgan matnlarni avtomatik tahlil qilish, tuzatish va ma’no jihatdan chuqur anglash imkoniyatlari ancha kengaydi. Xususan, punktuatsiya — ya’ni tinish belgilarini qo‘yish, ularni tiklash va to‘g‘ri joylashtirish kabi muhim bosqichlar, nafaqat matn sifati, balki keyingi ishlov berish jarayonlarining aniqligi va samaradorligi uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu ayniqsa, nutqni matnga aylantirish (ASR), mashina tarjimasi (MT), matn tahlili (text classification) va imloviy tekshiruv tizimlarida ko‘proq seziladi. O‘zbek tili morfologik jihatdan boy va agglutinativ til hisoblanadi. Bu uning so‘z shakllari sonining ko‘pligi, affikslarning o‘zgaruvchanligi va sintaktik erkinlikka ega bo‘lishi bilan belgilanadi. Bunday xususiyatlar, ayniqsa punktuatsiyani avtomatik aniqlash va tiklash jarayonida katta muammolarni yuzaga keltiradi. Chunki mavjud modellar, asosan ingliz yoki boshqa analitik tillar asosida yaratilgan bo‘lib, ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zbek tiliga moslashtirish, sezilarli darajada ma’lumotlar tayyorlash, model sozlash va lingvistik moslashtirishni talab qiladi. Transformer arxitekturasiga asoslangan modellar, jumladan BERT, RoBERTa, GPT, va T5, tabiiy tilni kontekstual tushunishda yangi davrni boshlab berdi. Ushbu modellar bir vaqtning o‘zida butun matnni ko‘rib chiqish, har bir so‘z yoki belgining boshqa so‘zlar bilan bog‘liqligini o‘rganish imkonini beradi. Bu ayniqsa, tinish belgilarini tiklashda — ya’ni qaysi joyga nuqta, vergul, so‘roq yoki undov belgisi qo‘yilishi kerakligini aniqlashda — katta afzallik beradi. Maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda o‘zbek tilida yozilgan matnlar ustida chuqur o‘rganishga asoslangan, ayniqsa transformer modellari yordamida tinish belgilarini tiklaydigan samarali tizimlar deyarli mavjud emas. Shu sababli, ushbu tadqiqot o‘zbek tilida matnlarni yanada yuqori sifat bilan tahlil qilishga, punktuatsiyani avtomatik tiklashga va boshqa yuqori darajadagi NLP muammolarini yechishga zamin yaratadi.Mazkur maqolada quyidagi masalalar ko‘rib chiqiladi: transformer modellarining ishlash prinsipi, ularning punktuatsiya tiklashdagi samaradorligi. Maqola oxirida esa kelgusida ushbu yo‘nalishda olib borilishi mumkin bo‘lgan izlanishlar haqida takliflar keltiriladi.

ASOSIY QISM. Tinish belgilarining asosiy vazifasi – matnni grammatik va mantiqiy jihatdan bo‘lish, jumlalarning mazmunini aniq va tushunarli qilishdir. Til tizimida tinish belgilarini qo‘llash muloqotning yozma shaklida nutqning tuzilishini aniqlashtiradi, fikr oqimini to‘g‘ri ifodalaydi va xatoliklarni kamaytiradi. Har bir tinish belgisi – bu alohida grammatik vosita bo‘lib, u nafaqat pauza, ohang yoki talaffuzdagi o‘zgarishlarni, balki gapdagi bo‘g‘inlar orasidagi sintaktik bog‘lanishni ham bildiradi. Tinish belgilarining o‘rni nutqning funksional jihatlari bilan ham bog‘liq. Ular og‘zaki nutqdagi pauzalarni yozma matnda aks ettirish orqali muloqotni tabiiy va o‘qilishi oson holga keltiradi. Masalan, nuqta gap tugaganini bildirsa, vergul so‘zlar orasidagi aloqa yoki izohli qo‘shimchalarni ajratish uchun xizmat qiladi. So‘roq belgisi savolni bildiradi, undov esa hissiy holatni ifodalaydi. O‘zbek tili kontekstida, tinish belgilarining o‘ziga xos ahamiyati bor. Gaplarning turli ko‘rinishlarda bo‘lishi, so‘zlarning sintaktik erkinligi va intonatsiyaga asoslangan tuzilmalarning mavjudligi sababli, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yish nafaqat estetik, balki semantik aniqlik jihatidan ham muhim hisoblanadi. Ko‘pchilik holatlarda bir xil so‘z birikmalari tinish belgisiga qarab mutlaqo boshqa ma’noni anglatishi mumkin. Masalan: “O‘qituvchi, talabani maqtadi” va “O‘qituvchi talabani maqtadi”. Bu ikki gapdagi farq faqat vergulda, lekin mazmun butunlay o‘zgaradi. Matnlarda tinish belgilarining noto‘g‘ri qo‘yilishi yoki butunlay mavjud bo‘lmasligi – ayniqsa mashinaviy ishlov berishda – turli xatolarga olib keladi.

Transformer modellar va ularning imkoniyatlari. Transformer arxitekturasi 2017-yilda Vaswani va hamkorlari tomonidan taklif etilgan [1] bo‘lib, u tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida inqilobiy yangilik sifatida e’tirof etildi.

Transformer oilasidagi mashhur modellar. So‘nggi yillarda transformer arxitekturasiga asoslangan bir nechta kuchli model ishlab chiqildi. Quyida ularning ayrimlari:

- BERT (Bidirectional Encoder Representations from Transformers) – Google tomonidan yaratilgan ushbu model kontekstni har ikki tomondan o‘rganadi. Bu punktuatsiya tiklashda ayniqsa foydalidir, chunki vergul yoki nuqtaning

o‘rni ko‘pincha keyingi va oldingi so‘zlar kontekstiga bog‘liq bo‘ladi.

- RoBERTa (Robustly Optimized BERT) – BERT modelining takomillashgan shakli [3] bo‘lib, ko‘proq ma’lumotda, uzoqroq davrda o‘qitilgan.

- GPT (Generative Pre-trained Transformer) – Avvaldan o‘rgatilgan [4] va matn generatsiyasi bo‘yicha kuchli bo‘lgan model. Avvalgi kontekst asosida matnni davom ettiradi.

- T5 (Text-to-Text Transfer Transformer) – Har qanday NLP vazifasini “matndan matnga” aylantiradi[5]. Masalan, “Tinish belgilarini tikla: Men maktabga bordim u yerda do‘stimni uchratdim” → “Men maktabga bordim. U yerda do‘stimni uchratdim”.

Transformer modellarining afzalliklari:

- **Kontekstual anglash**: So‘zning har bir kontekstdagi ma’nosini tushunadi.

- **Parallel ishlash**: Model matnni birdaniga ko‘rib chiqadi, bu uni tezroq qiladi. O‘zbek tili matnida tinish belgilarini tiklashdagi muammolar. O‘zbek tili — agglutinativ (yopishuvchi) til bo‘lib, so‘zlarga grammatik ma’no yuklovchi affikslarning qo‘shilishi orqali yangi ma’nolar hosil qilinadi. Ushbu xususiyat o‘zbek tilidagi so‘z shakllarining ko‘pligiga, gap tuzilmalari erkinligiga va kontekstga boy bo‘lishiga olib keladi. Bu esa, avtomatik punktuatsiya tiklash tizimlari uchun sezilarli darajada murakkablik tug‘diradi. Morfologik o‘zgaruvchanlik. O‘zbek tilida bir so‘zga bir nechta qo‘shimchalar qo‘shilishi mumkin: masalan, “bormoq” fe’li “bormaganmizmi” shaklida ishlatilishi mumkin. Model bu kabi murakkab morfologiyani to‘g‘ri tushunmasa, tinish belgisini noto‘g‘ri joylashtiradi. Ingliz tilidagi punktuatsiya tiklash modellarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zbek tiliga qo‘llab bo‘lmaydi, chunki ular bu turdagi shakllarga tayyor emas.Sintaktik erkinlik. O‘zbek tilida so‘zlarning joylashish tartibi sintaktik rollarga bog‘liq bo‘lmasdan, ma’noni o‘zgartirmagan holda o‘zgarishi mumkin. Masalan: “Bugun do‘stlarim bilan kinoga bordim”. “Kinoga bugun do‘stlarim bilan bordim”. Ikkala gapda ham mazmun bir xil, lekin so‘zlarning tartibi boshqa. Transformer model bu o‘zgaruvchanlikni tushunmasa, tinish belgilarini noto‘g‘ri joylashtirishi mumkin. Tinish belgilarining ixtiyoriy ishlatilishi. Ko‘pgina foydalanuvchilar, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarda yoki mobil matn yozishda, tinish belgilarini umuman ishlatmaydi. Bu esa o‘rganish uchun kerakli kontekst ma’lumotlarini kamaytiradi va modelni noaniqliklar bilan ishlashga majbur qiladi. Masalan: “Bugun maktabga bordim do‘stlarim bilan uchrashdim yana dars qildik”. Bu matn punktuatsiyasiz bo‘lib, uni to‘g‘ri tiklash uchun model kontekstni chuqur anglashga majbur bo‘ladi.

Resurs yetishmasligi. Transformer modellarni o‘rgatish uchun katta hajmli, tinish belgisi to‘g‘ri qo‘yilgan korpus zarur. Ingliz tilida bunday korpuslar mavjud (masalan, Penn Treebank), lekin o‘zbek tilida punktuatsiyasi to‘liq va standartlashtirilgan korpuslar kam. Bu esa modelni o‘rganish bosqichida cheklovlar tug‘diradi. Ko‘plab o‘zbekcha matnlar OCR xatolari, noto‘g‘ri belgilar va internet slengi bilan to‘la.

XULOSA qilib aytganda, xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, transformer arxitekturasiga asoslangan modellar punktuatsiya tiklash muammosini hal qilishda juda samarali. Bu yondashuvni o‘zbek tiliga tatbiq qilish uchun ma’lumotlar bazasini kengaytirish, modellarni moslashtirish va natijalarni doimiy ravishda baholab borish lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Vaswani, A., Shazeer, N., Parmar, N., et al. (2017**).** Attention is All You Need**.** *Advances in Neural Information Processing Systems (NeurIPS)*, 30, 5998–6008.
2. Devlin, J., Chang, M.-W., Lee, K., & Toutanova, K. (2019). BERT: Pre-training of Deep Bidirectional Transformers for Language Understanding**.** *NAACL-HLT 2019*, 4171–4186.
3. Liu, Y., Ott, M., Goyal, N., et al. (2019). RoBERTa: A Robustly Optimized BERT Pretraining Approach**.** *arXiv preprint arXiv:1907.11692*.
4. Uzbekistan NLP Research Group. (2022). uzBERT: A BERT Model Pretrained for Uzbek Language**.** [Online]. Available: https://github.com/nlp-uz/uzbert
5. Rakhmatov, B., & Toshpo‘latov, J. (2023). Transformer modellar asosida punktuatsiyani tiklash: O‘zbek tilida dastlabki natijalar [7]. O‘zbekiston Milliy Universiteti ilmiy to‘plami, 2(1), 55–62.
6. Tashkent State University of Uzbek Language and Literature. (2021). O‘zbek tilida avtomatik matn tahlil qilish usullari [8]. Ilmiy seminar materiallari.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 1:2-523.1(091)(575.1)

OLIMLARNING “SAHIHI BUXORIY”GA BO‘LGAN MUNOSABATI

Ulfatillayeva Sayyora Sobirjon qizi, Oriental universiteti “Ijtimoiy gumanitar fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD)

SCHOLARS’ ATTITUDE TOWARDS “SAHIH AL-BUKHARI”

Ulfatillayeva Sayyora Sobirjon qizi, Senior Lecturer (PhD), Department of Social and Humanitarian Sciences, Oriental University

https://orcid.org/0009-0005-9672-6707
e-mail: sayyoraminavarova@gmail.com

ОТНОШЕНИЕ УЧЁНЫХ К «САХИХ АЛЬ-БУХАРИ»

Улфатиллаева Сайёра Собиржон кызы, старший преподаватель кафедры социально-гуманитарных наук университета Oriental, (PhD)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Imom Buxoriy tomonidan yaratilgan “Sahihi Buxoriy” asarining hadis ilmidagi o‘rni, tarixiy shakllanish jarayoni va unga bo‘lgan munosabatlar tahlil qilinadi. Maqolada dastlab hadis to‘plash an’anasining ilk davrlardagi rivoji, roviylar zanjirining tekshirilish uslublari va muhaddislarning metodologik yondashuvlari yoritilgan. Shuningdek, IX–X asrlardagi yirik muhaddislarning ilmiy qarashlari hamda Buxoriy merosiga yozilgan mashhur sharhlar batafsil ko‘rib chiqiladi. Maqola zamonaviy musulmon olimlari va G‘arb sharqshunoslarining “Sahihi Buxoriy”ga nisbatan turli ilmiy yondashuvlarini ham tahlil qilib, hadis ilmida tanqidiy metodologiyaning shakllanishini ko‘rsatadi. Tadqiqot “Sahihi Buxoriy”ning nafaqat diniy, balki ilmiy va tarixiy ahamiyatga ega nodir manba ekanini asoslaydi.*

Kalit so‘zlar: *Hadis ilmi, Sahihi Buxoriy, Imom Buxoriy, isnod, roviylar zanjiri, hadis to‘plash, sharqshunoslik, hadis sharhlari, hadis tanqidi, islom ilmlari, muhaddislar, sharhlar an’anasi, tarixiy manba, ilmiy metodologiya.*

Annotation: *This article explores the significance of Imam al-Bukhari’s monumental work “Sahih al-Bukhari” within the field of Hadith studies, focusing on its historical development, methodological foundations, and the scholarly attitudes toward it. The study highlights the early evolution of Hadith compilation, the rigorous verification of narrators, and the methodological differences among classical scholars of the 9th–10th centuries. It also examines major commentaries written on “Sahih al-Bukhari” and their contribution to the advancement of Hadith scholarship. Furthermore, the article analyzes the perspectives of contemporary Muslim scholars as well as Western orientalists who apply critical and historical methodologies to the study of Hadith. The research emphasizes the exceptional religious, scholarly, and historical value of “Sahih al-Bukhari” as one of the most authentic and influential sources of Islamic tradition.*

Keywords: *Hadith studies, Sahih al-Bukhari, Imam al-Bukhari, isnad, chain of narrators, Hadith collection, Oriental studies, Hadith commentaries, Hadith criticism, Islamic sciences, muhaddiths, commentary tradition, historical source, scholarly methodology.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается значение труда Имама аль-Бухари «Сахих аль-Бухари» в науке хадисоведения, а также история его формирования и отношение к нему различных учёных. Автор анализирует ранний этап собирания хадисов, методы проверки цепочек передатчиков и научный подход мусульманских традиционалистов IX–X веков. Особое внимание уделено известным комментариям на «Сахих аль-Бухари» и их роли в развитии хадисоведения. В статье также рассматриваются взгляды современных мусульманских учёных и западных ориенталистов, применяющих критические и историко-филологические методы исследования*

хадисов. Работа подчёркивает уникальную научную и духовную ценность «Сахиха аль-Бухари» как одного из наиболее авторитетных источников исламской традиции.

Ключевые слова: *Наука хадисоведения, Сахих аль-Бухари, Имам аль-Бухари, иснад, цепочка передатчиков, сбор хадисов, востоковедение, комментарии к хадисам, критика хадисов, исламские науки, мухаддисы, традиция комментариев, исторический источник, научная методология.*

KIRISH. Islom ilmlarining eng muhim va nozik yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan hadis ilmi tarix davomida ko‘plab olimlarning e’tiborini tortib kelgan. Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) vafotlaridan so‘ng hadislarni to‘plash, ularni ishonchli manbalardan ajratish, rivoyatchilar zanjirini tekshirish zaruriyati yuzaga keldi. Ayniqsa, turli siyosiy oqimlar, mazhablararo kelishmovchiliklar va diniy qarama-qarshiliklar ortidan uydirma hadislarning ko‘payishi muhaddislarni yanada hushyor bo‘lishga undadi. Natijada hadislarni to‘plash va tasniflash jarayoni mustaqil ilm sohasiga aylandi hamda o‘zining qat’iy metodologiyasiga ega bo‘ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Ana shu murakkab jarayonda Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy kabi buyuk muhaddislarning xizmatlari alohida e’tiborga loyiqdir. U zotning “Al-Jomi’ as-Sahih” asari nafaqat hadis ilmining eng yuksak namunasi, balki butun islom tamaddunining muhim manbalaridan biridir. Bu asar Qur’oni Karimdan keyingi eng ishonchli kitob sifatida e’tirof etilishi, asarning ilmiy saviyasi, metodik mukammalligi va tanqidiy yondashuvning yuqoriligi bilan bog‘liqdir. Buxoriy hadislarni tanlashda o‘ta qat’iy ilmiy mezonlarga amal qilgan, roviylarning adolat va zabt fazilatlari, ularning bir-biri bilan uchrashgan-uchrashmaganini aniqlash, hadis matnining mantiqan izchil bo‘lishi kabi omillarni sinchiklab tekshirgan.

Hadis ilmining keyingi taraqqiyoti ham Imom Buxoriy merosiga tayanadi. O‘rta asrlarda yashab ijod qilgan yirik muhaddislar—Imom Muslim, at-Termiziy, Ibn Xuzayma, Ayniy, Ibn Hajar Asqaloniy, Kirmoniy, Qastaloniy kabi olimlar “Sahihi Buxoriy”ni sharhlash, izohlash va ilmiy jihatdan chuqurlashtirish bilan shug‘ullandilar. Bu sharhlar orqali hadislarning ma’no qatlamlari, fiqhiy mazmuni, til va tarixiy kontekstlari yanada kengroq ochib berildi.

Zamonaviy davrda ham “Sahihi Buxoriy”ga qiziqish susaygani yo‘q. Faqatgina musulmon olimlari emas, balki Yevropa va Amerika sharqshunoslari ham bu asarni o‘rganib, turli metodologik yondashuvlarni taklif etishmoqda. Ignaz Goldziher, Joseph Schacht, Juynboll, Patricia Crone, Jonathan Brown kabi tadqiqotchilar isnod tizimi, hadislarning tarixiy shakllanish jarayoni, ularning huquqiy va ijtimoiy funksiyalari kabi masalalarni muhokama qilib, bu sohada yangi ilmiy qarashlar paydo bo‘lishiga turtki bo‘lganlar. Ularning ayrim fikrlari tanqidiy xarakterga ega bo‘lsa-da, hadis ilmi rivojiga, xususan “Sahihi Buxoriy”ni chuqurroq tahlil qilishga ilmiy rag‘bat uyg‘otgan.

MUHOKAMA. Shu tariqa, “Sahihi Buxoriy”ga munosabat har bir tarixiy davrda, har bir ilmiy maktabda turlicha bo‘lsa-da, bitta haqiqat o‘zgarmay qolmoqda: bu asar islom ilmining bebaho durdonasi, Payg‘ambar sunnatini eng ishonchli tarzda yetkazuvchi manba sifatida yuksak mavqega ega. Uning ilmiy qiymatini anglash, uni o‘rganish va sharhlash bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biridir.

Islomning ilk davrlarida yolg‘on hadislarnng ko‘payishi muhaddis olimlar, musulmon ulamolar oldiga to‘g‘ri va yolg‘on amrlarni ajratish, ularning tarqatuvchilari zanjirining tog‘riligini aniqlash vazifasini qo‘ydi.

Birinchi bo‘lib hadislarni bir kitobda jamlagan olim Hijoz va Shomning eng buyuk imom va ulamolaridan biri Ibn Shihob az-Zuhriy Madaniy bo‘ldi. Imom Molik Madinada “Al-Muvatta” hadislar to‘plamini tuzib, unda Hijoz aholisi tayanadigan hadislarni aniqladi. Imom Avzaiy Shomda to‘plam tuzdi. Faqat ishonchli hadislar to‘plamini tuzgan birinchi olim Imom Buxoriy bo‘ldi, ya’ni hadislarni tahlil qilish natijasida hadis to‘plamlarida hasan, sahih va zaif darajadagi hadislar borligini aniqladi va faqat ishonchli hadislarni to‘pladi.

Bilol Mustafo Elvon qalamiga mansub “Al-Jome’ As-Sahih kitobi ta’rifi”[1] nomli maqolasi ham shular jumlasidandir. U o‘z maqolasida “Imom Buxoriy o‘zining “Sahih”ida hadis fiqhini yoritib berish va undan foyda olishni maqsad qilgan, shuning uchun u boblarning

biografiyalarini, ya'ni boblarning nomlarini tuzgan va bularda ko'zga ko'ringan hadislar, shuningdek, ko'plab oyatlar va sahobalarning fatvolarini zikr qilgan. Bobning fiqhiy mazmunini va dalillarini oydinlashtirish maqsadida sahoba va tobeinlarning fatvolarini berdilar va shu tariqa Muhammad payg'ambarning sunnatlarini yod olish va uni tushunishni birlashtirdi"[2], deb yozadi. Ya'ni Buxoriy o'zining "Sahih"ida hadis fiqhini yoritib berishni o'z oldiga maqsad qiladi va o'z asarini yozishda uni boblarga bo'lib ularga nom beradi, ya'ni tizimlashtirib oladi. Shunda har bir bobning fiqhiy mazmuni kelib chiqdi. Hofiz ibn Kasir aytdilar: "Ulamolar uni qabul qilganlar va undagi narsaning to'g'riligi borasida bir ovozdan ittifoq qilganlar"[3]. Ko'rib turganimizdek, bir ovozdan barcha ulamolar Imom Buxoriyning "Sahih"ini eng ishonchli to'plam ekaniga ishora qilishmoqda va bu ayni haqiqat. Chunki Buxoriy bu hadislarni yig'ish jarayonida sahobalar, tobeinlar, taba tobeinlardan yetib kelishi ishonchliligini juda qattiq tekshirdi va juda ko'p ulamolar bilan suhbatlashdi.

Hijriy 852-yili vafot etgan Imom Ahmad bin Ali bin Muhammad, Ibn Hajar Asqaloniy Shofe'iyning "Sahih al-Buxoriyning izohi bilan Fath al-Boriy"[4] asari "Sahih al-Buxoriy"ning o'ziga xos qoidalari, mazmuni va hadislarining ma'nosini tushunishga yordam berish maqsadida yozilgan. Ibn Hajar hadislar va ularning tajribalarini yanada aniqlashtiradi. Ibn Hajar asarida hadislarning matnini va isnodini tahlil qilib, ularga shikoyat va shartlar bilan izoh beradi. Har bir hadis ta'siri va konteksti haqida batafsil tushuntirishlar keltirilgan.

"Umdat al-qori sharhu Sahihi Buxoriy" asari hijriy (855) yili vafot etgan Badriddin Mahmud bin Ahmad Ayniy qalamiga mansub. Ayniy hadislarni izohlash, ularning mazmunini ochib berish va hadislarning ijtimoiy-siyosiy kontekstlarini taqdim etishga harakat qilgan. Asar ichida sanat (isnad) va matn tahlili mavjud. Ayniy hadislarni o'rganish va ularni boshqalar bilan taqqoslash orqali hadisning ahamiyatini ko'rsatadi.

Zamonaviy davr olimlari (Hijriy XIII-XV asrlar / Milodiy XIX-XXI asrlar):

Muhammad Abduh (Мухáммед Áбдо. hijriy 1323/milodiy 1905-y.) – misrlik islohotchi, mutafakkir va ulamo. Hadislarni aql va zamonaviy ilm bilan uyg'unlashtirishga harakat qilgan. Ba'zi hadislarga tanqidiy yondashgan.

Muhammad al-G'azzoli (hijriy 1416/milodiy 1996-y.) – misrlik mashhur olim, mutafakkir. "As-Sunna an-Nabaviyya bayna Ahl al-Fiqh wa Ahl al-Hadis" asarida Buxoriy hadislarini sharhlagan va ularning zamonaviy ahamiyatini ochib bergan.

Shayx Abdulaziz Mansur (O'zbekiston) – o'zbekistonlik taniqli hadisshunos olim. "Sahihi Buxoriy"ni o'rganish va tarjima qilish borasida katta ishlarni amalga oshirgan. Uning hadis ilmi bo'yicha darsliklari va asarlari o'zbekistonlik talabalar uchun muhim manba hisoblanadi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (O'zbekiston) – o'zbekistonlik mashhur islomshunos olim va mutafakkir. "Hadis va Hayot" nomli asarida Buxoriy hadislarini sharhlagan va ularning hayotiy ahamiyatini ochib bergan.

Abdul-Fattah Abu Ghudda (Abd al-Fattah Abu Ghuddah, hijriy 1417/milodiy 1997-y, Suriya) – suriyalik taniqli hadis va fiqh olimi. Hadis rivoyat qilish uslubi va rivoyatning o'ziga xos xususiyatlariga oid bir necha asar yozgan va "Sahihi Buxoriy"dagi hadislarga murojaat qilgan.

G.H.A.Juynboll (Гуальтерус Хендрик Альберт Джуйнболл, Нидерландия). Gollandiyalik sharqshunos G.H.A.Juynboll Imom Buxoriyning "Sahihi Buxoriy" asari va umuman hadis ilmini o'rganishda hadislarning isnod tizimiga katta e'tibor qaratgan. U hadislarning rivoyat zanjirini chuqur tahlil qilib, ularning ishonchliligi darajasini aniqlashga harakat qilgan. Uning tadqiqotlari hadis ilmini o'rganishda muhim o'rin egallaydi. Juynbollning yondashuvi hadis ilmi sohasida isnod tahlilining ahamiyatini yanada kuchaytirdi.

Patricia Crone (Патри́сия Кро́ун, Дания). Mashhur tarixchi olima Patricia Crone islom dinining paydo bo'lishi va ilk davrlarini o'rganishda katta hissa qo'shgan. U o'z tadqiqotlarida "Sahihi Buxoriy"dagi hadislardan ham foydalangan.

Jonathan Brown (Джонатан Эндрю Кливленд Браун) amerikalik sharqshunos, islom hadislarini o'rganishga ixtisoslashgan. "Hadith: Muhammad's Legacy in the Medieval and Modern World"[5] asarida "Sahihi Buxoriy"ning o'rni va rivoyat jarayonlarini tanqidiy tahlil qilgan. Bu asarlar hadislarini yanada chuqurroq tahlil qilish,

tushunish va ularning ahamiyatini ko‘rsatishga bag‘ishlangan muhim asarlardir. Bu olimlar hadis ilmini tasnifi va tahlili bo‘yicha yirik olimlar sifatida tanilgan. Ushbu asarlar, diniy tadqiqotlar va ilmiy izlanishlar olib borishda alohida ahamiyatga ega.

NATIJALAR. Mazkur olimlarning “Sahihi Buxoriy”ga bo‘lgan munosabati ikki tomonlama bo‘lgan. Bir tomondan, ular asarning hadis ilmidagi ulkan ahamiyatini, Imom Buxoriyning ilmiy mahoratini va hadislarni to‘plashdagi qat’iyatini e’tirof etishgan. Ikkinchi tomondan, ular asarga tanqidiy yondashib, hadislarning ishonchliligi, tarixiy kelib chiqishi va matn tahlili bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirganlar. Yevropa va Osiyoning sharqshunos olimlar “Sahihi Buxoriy”ni o‘rganishda zamonaviy metodologiyalardan foydalanishgan. Germenevtika, semiotika, sotsiologiya, antropologiya va tarixiy tanqid kabi ilmiy yondashuvlarni qo‘llash orqali asarni yanada chuqurroq tahlil etishga harakat qilishgan. “Sahihi Buxoriy”ni tahlil qilishlari shuni ko‘rsatadiki, bu asar nafaqat islom olamida, balki butun dunyo ilmiy doiralarida katta qiziqish uyg‘otgan. Ular asarning ilmiy va tarixiy qimmatini e’tirof etgan holda, hadislarni tanqidiy o‘rganishga e’tibor qaratganlar. Ularning tahlillari “Sahihi Buxoriy”ni yanada chuqurroq tushunishga va islom dinining ilk davrini o‘rganishga yordam beradi.

XULOSA. Shu bilan birga, Yevropadagi ba’zi olimlarning xulosalari, o‘zining shubha va tanqidlariga ega bo‘lsa-da, islom olamidagi olimlar uchun muhim bir nuqtayi nazar va o‘rganish yo‘nalishlarini taqdim etdi. Bu esa, o‘z navbatida, islom olimlarining “Sahihi Buxoriy”ni o‘rganish uslublarining rivojlanishiga olib keldi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bilol Mustafo Elvon. بلال مصطفى علوان تعريف بكتاب الجامع الصحيح. 4/5/2010 1431/5/20 - ميلادي هجري. https://www.alukah.net/sharia.
2. Bilol Mustafo Elvon. بلال مصطفى علوان تعريف بكتاب الجامع الصحيح. 4/5/2010 1431/5/20 - ميلادي هجري. https://www.alukah.net/sharia.
3. Bilol Mustafo Elvon. بلال مصطفى علوان تعريف بكتاب الجامع الصحيح. 2010/5/4 ميلادي - 1431/5/20 هجري. https://www.alukah.net/sharia.
4. Ibn Hojar Asqaloniy. Fathul Boriy bisharhi Sahihul Buxoriy - Qohira, 1988.
5. Brown, Jonathan (2007). Three: The Genesis of al-Bukhārī and Muslim. The Canonization of al-Bukhari and Muslim: The Formation and Function of the Sunni Hadith Canon. Koninklijke Brill NV, Leiden, The Netherlands: Brill. p. 77
6. Uvatov U. Buyuk yurt allomalari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
7. Uvatov U. Buyuk muhaddislar. – T.: O‘zbekistan Milliy ensiklopediyasi, 1998. B.19.
8. Sahihi Buxoriy sharhi. 1-jild. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2022. 416 b.
9. Sahihi Buxoriy sharhi. 2-jild. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2022. 400 b.
10. Sahihi Buxoriy. Al-jome’ as-sahih. Ishonchli to‘plam. 1-kitob. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2008. 712 b.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 1:37.013

SOCIAL AND SPIRITUAL ENVIRONMENT AND ITS INFLUENCE ON UPBRINGING AND EDUCATION

Jumayeva Shakhlo Suyunovna, Senior Lecturer, Department of "Social Sciences and Humanities", Karshi State Technical University

IJTIMOIY VA MA'NAVIY MUHIT VA UNING TARBIYA VA TA'LIMGA TA'SIRI

Jumayeva Shaxlo Suyunovna, Qarshi davlat texnika universitetining "Ijtimoiy va gumanitar fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi

СОЦИАЛЬНАЯ И ДУХОВНАЯ СРЕДА И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА ВОСПИТАНИЕ И ОБРАЗОВАНИЕ

Джумаева Шахло Суюновна, старший преподаватель кафедры «Социально-гуманитарные науки» Каршинского государственного технического университета

https://orcid.org/0009-0007-8281-0654
e-mail: jumayevashaxlo507@gmail.com

Annotation: *The article provides information on the large-scale reforms carried out in recent years on the importance of the social and emotional environment for raising children in a family, as well as on thework of society and families in raising children.*

Keywords: *family, environment, women, upbringing, social and spiritual, values.*

Annotatsiya: *Maqolada so'nggi yillarda oilada bolalarni tarbiyalashda ijtimoiy va hissiy muhitning ahamiyati, shuningdek, jamiyat va oilalarning bolalarni tarbiyalashdagi faoliyati bo'yicha amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *oila, muhit, ayollar, tarbiya, ijtimoiy va ma'naviy, qadriyatlar.*

Аннотация: *В статье представлена информация о проведенных в последние годы масштабных реформах о значении социально-эмоциональной среды для воспитания детей в семье, а также о работе общества и семьи по воспитанию детей.*

Ключевые слова: *семья, окружающая среда, женщины, воспитание, социально-духовные ценности.*

Introduction. The family is the center of education, ensuring the eternity of life, the continuity of generations, preserving our sacred traditions and at the same time directly influencing the growth of future generations.

Today we looked at families to find a stable socio-spiritual environment in families. Today, in the course of studying the reasons for our lag in raising children, we can see that the following situations have been identified: the destruction of the spiritual environment in some families, the loss of kindness, harmony, and the strengthening of negative tendencies in relationships. First of all, family members forget that a human child needs his mother's headband, combing his hair, father's support and other life needs from birth, or they are indifferent to this issue.

Also, after a husband and wife got married and started a family, each of them does not understand or abuses the responsibility of taking on a number of tasks for the other, and in some families, the responsibility of a man to his woman is a family duty, both social, physical, financial, and spiritual. , the role and influence in raising children, the status of example and example in stabilizing the family environment, the decline in the status of men in the family, in addition, the role, position, obedience and obedience of women in the family. We are witnesses to the fact that the lack of good character, taste in housekeeping economy, ingenuity, responsibility and potential in raising children is the main reason for not creating a stable environment in the family. It's a sad situation. Our Motherland is recognized as a country of raising children based on traditions and sacred family

values. Our duty to the Motherland is to keep them clean and raise children on the basis of wonderful traditions and customs. The family is considered the center of education, ensuring the eternity of life, the continuity of generations, preserving our sacred traditions and at the same time having a direct impact on the growth of future generations. One of the main tasks of parents is to take care of their child from infancy, wash him white, bring him into adulthood, burn his soul on the path of his improvement, make him a professional. If you look at our history, Ibn Sina answered that raising a child must be done even before his birth, from the womb.

In addition, the famous teacher A. S. Makarenko noted that education up to the age of five is very important in the formation of a child's personality. He wrote about this: "...the main basis of education ends at the age of five, so what you did before the age of five constitutes 90 percent of the educational process, and further education continues on the basis of re-education. "From time immemorial, our ancestors attached great importance to the good manners and manners of their sons and daughters. Therefore, in the Islamic religion there is an opinion that morality is placed on the line of faith. When raising a child in a family, usually the father is more involved in raising boys, and the mother is more involved in raising girls. Of course, it is important to take into account the child's level. There is no need to rush to see the result when a child achieves something. For example, until they are two years old, they are raised only with kind words and affection. Until the age of five, a child explores his surroundings and at this age absorbs basic information. During this period, we need to try to be an example in a more practical way, to create a spiritual and educational family environment. In a family, a father's indifference to his children leads to unpleasant consequences. Indifference is a bad vice, and it opens the way to disruption of a child's education. Due to the fact that the father is lazy, does not fulfill his duty and does not teach useful knowledge and good deeds, he cannot form the necessary positive qualities in his child, and the child also grows up deprived of the good upbringing of his father. . And the next period requires a little more exactingness and discipline. This period is the period of adolescence, and it is at this time that the child distinguishes between black and white. From this stage he learns the inevitability of reward for good and punishment for evil. During this period, if the child (external and internal environment) is properly guided, accompanied by well-educated friends, an important step will be taken for him to become a decent and good person. Usually mothers try to hide the mistakes and shortcomings of their children from fathers. If I tell them, they will beat me because they will hit my child hard, and they will not tell the father about the mistakes they made and the bad things they did. As a result, if the child is not reprimanded in time, this becomes the reason for him to commit increasingly serious crimes without fear.

In the family, parents must be able to maintain standards of love for their children. Doing everything the child says, endorsing every wrong behavior, or even remaining silent will result in the child growing up with no education at all. Excessive affection and affection makes a child weak in all respects, but showing affection encourages him to be more active. An adult man grows up to be irresponsible and selfish. Therefore, the service of the mother is very necessary and important in the development of the child as a full-fledged and mature person. Child's childhood the heart is very soft and susceptible to influence. Therefore, it is necessary to carry out the training process carefully. From time immemorial, the father was the support and conscience of the family with his fair opinion, correct words, and example. It's not for nothing that our people said: "It pleases the Father, it pleases God."

Discussion and results. Today in some families the role and wisdom of fathers is not felt. We are all concerned about the growing number of property disputes. Therefore, the role of the father occupies a special place in the integrity of the family. Because no matter how kind a mother is to her children, she cannot take the place of a father in raising a child. Such aspects of human will and emotions is that they are formed only through paternal education, paternal upbringing. Especially in the upbringing of boys, the influence of fathers is more evident in shaping the qualities of monotony, earning a living by work, running a family, dedication and patience. "Only fathers can teach their children to overcome all life's difficulties with the help of intelligence, patience,

enthusiasm and will. The will of the father teaches children not to hesitate, not to get confused if they find themselves in a difficult situation."31 If we turn to historical sources, we can see that in the East the position of the father in the family and society is very important. First of all, in the hadiths, as well as in examples of oral and written literature, we are convinced that the father's careful, thoughtful, restrained, purposeful, reasonable and fair judgment, education based on exactingness, have always been in force. the eyes of many. In our wise people, such wise sayings as "The word of the fathers is the eye of the mind", "What pleases the Father is what pleases God", "The father's command is obligatory" once again confirms how high the position of fathers is in society. Children raised in families where the father is the head of the family tend to respect and admire their father in a positive way.

The father can provide for the children economically and satisfy their material needs, but only the mother is unable to raise them spiritually. As we mentioned above, father's education is important, especially for a boy. Not worrying about money or studying at a prestigious educational institution cannot replace parental upbringing. Fathers, busy with various concerns and cut off from regular communication with their children, have certain defects in raising their children. Sometimes it is observed that a child leaves home due to lack of control or falls into the trap of various negative influences. This is an unpleasant situation not only for the child, parents or family, but also for the entire society. Moral education is the process of "forming a person into a person with perfect, excellent morals, a useful member of society," when implementing it, it is advisable to follow the following system:

- explaining moral rules to the child through stories;

- that the teacher himself should be an example. The behavior of the teacher must be in harmony with his words, and he must, by his behavior, be an example and example for everyone;

- taking into account a certain social system and environment when showing bad is bad and promoting good is good, that is, moral education to a certain extent stabilizes the spiritual and moral environment with its real reality and practical aspects. and harmony in society and family, elimination of various vices, prevention of family divorces and crime, as well as in other pressing issues of the state and Cooperation between public organizations must be strengthened.

- strengthening the value of family, promoting the sanctity of the family, preparing youth for the family, softening the atmosphere in conflict families, applying new approaches to improving the health of relationships;

- support for low-income families and prevention of domestic violence;

- protection of a healthy lifestyle, reproductive health, motherhood and childhood in the family;

- systematic work against threats to our national and family values and spirituality Do it;

- increasing attention to the education of children and especially girls in the family;

- systematic implementation of issues of family entrepreneurship and women's entrepreneurship and employment;

- Promoting the interpretation of family, marriage, raising children, male responsibility and other social issues in Islam.

In a family, attention to manners and upbringing is one of our responsibilities, ingrained in our blood. Our people have a typical proverb: "One child has seven neighboring parents." This proverb itself shows how important it is for us to raise children and take care of our family. The local population, especially

Old people never passed by a child doing dirty work on the street, but immediately reprimanded him and called him to the right path. The atmosphere in the family becomes stable when parents feel responsible. Along with the parents, this area is an excellent example of a school that teaches civility to children

Conclusion. In conclusion, in order to create a stable social and spiritual environment in the neighborhood and family when raising children, it would be appropriate to take into account the following. This:

- firstly, in some families only mothers are responsible for raising children, and fathers stay away from this work. It is as if kindergarten and school should raise a child. Historical experience shows that since ancient times, fathers were involved in raising boys, and mothers were

involved in raising girls, but they were predominantly under the control of men;

- secondly, if parents treat their children equally, if they are equally kind and caring, demanding and strict, the children's lives will be full and perfect. When one demands, the other takes his side, education is disrupted. Parents who are too kind to their children must teach them to respect themselves before respecting them;

- thirdly, it is necessary to properly organize a stable family life, to create a healthy social, spiritual and moral environment in the family. Everything affects the child. As a result of this influence, negative or positive habits and different behaviors appear. Every behavior of parents is observed by children. That's why therefore, you should not think that you will raise a child by teaching him to do this or that thing or not to do it;

- fourthly, every parent wants his child to become a comprehensively developed personality. Not only they, but also society is interested in their child becoming such a person. This is also required by the civic duty of parents. Accordingly, every parent should not forget that he, first of all, is raising a future citizen of the country, etc.

REFERENCES:

1. President of the Republic of Uzbekistan. On increasing the effectiveness of spiritual and educational work. Decision dated May 3, 2019 No. PQ-4307.

2. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 31, 2019. On approval of the concept of continuous spiritual education and measures for its implementation.

3.Jumayeva Sh.S.The Role of Popular Culture in Youth Educathion. Miasto Przyszłości.Kielce 2022. Vol. 29 (2022): Miasto Przyszłości. pp. 4950.

4. Jumayeva Sh.S. Culture of Reading as a Phenomenon of Spiritual Life. IN Science, Research And Development Vol. 2 No. 5(2023): Best Journal Of Innovation.85-86.

5. Egamberdieva N. Social pedagogy. - Tashkent: Publishing House of the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi, 2009.

6. Yusupov E., Yusupov O'. Family is the source of spirituality collection, Uzbek National Center for the Study of Values. - Tashkent, 2003. - B. 64.

7. Zunnunov A. Scenes of development of pedagogical thought in Central Asia. - Tashkent: Teacher, 1996.

8. Nadzhmiddinova K. The role of national and universal moral culture in family education. - Tashkent: Adolat, 2016/

9. Jumayeva Sh.S..Combination of Mythological, Religious and Philosophical Worldviews. International Interdisciplinary Research Journal .Volume 2, Issue 5 Year 2023 ISSN: 2835-3013.

10. Komilov T., Abidova S. National-moral values and their educational significance. UzR FA. Science, 2000. – B. 20.

11. Khakhorova M. et al. Methodological guidelines for improving the socio-spiritual environment of the microdistrict. – Tashkent: Publishing House Science and Technology, 2021. – P. 60.

12. Abdurauf Fitrat. The path of salvation / translation by Sh. Vakhidov. - Tashkent: Shark, 2001. - B.157.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 94(575.171)"19/20"

XIVA SHAHRIDA TURIZM INFRATUZILMASI: DAVLAT SIYOSATI, SO‘NGGI YANGILIKLAR VA KELAJAK ISTIQBOLLARI

Madrimova Gulzira Shaxnazarovna, Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

TOURISM INFRASTRUCTURE IN KHIVA CITY: STATE POLICY, NEWS, AND PROSPECTS

Madrimova Gulzira Shakhnazarovna, doctoral student of Urganch State University

ТУРИСТИЧЕСКАЯ ИНФРАСТРУКТУРА В ГОРОДЕ ХИВА: ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА, НОВОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Мадримова Гулзира Шахназаровна, докторант Ургенчского государственного университета

https://orcid.org/0009-0005-9616-8899
e-mail: doktarantgulzira@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xiva shahrida turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosati, amalga oshirilgan chora-tadbirlar va kelajakdagi istiqbollar tahlil qilinadi. 2019–2022-yillarda Xorazm viloyatida va Xiva shahrida turizm salohiyatini oshirish, xavfsiz turizmni ta’minlash, madaniy meros obyektlarini rivojlantirish va infratuzilmani modernizatsiya qilishga oid O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida ilmiy izoh beriladi. Shu bilan birga, Xivada ilk “aqlli shahar-muzey” loyihasining ahamiyati va turizmni raqamli boshqarish tizimi orqali shaharni jahon turizm xaritasida yanada tanitish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Maqola davlat siyosati va amaliy chora-tadbirlar bilan bog‘liq ilmiy asoslangan tahlilni o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *Xiva, Turizm, infratuzilma, davlat qarori, aqlli shahar,xavfsiz turizm, rivojlanish.*

Abstract: *This article analyzes the state policy, implemented measures, and future prospects for the development of tourism infrastructure in Khiva. It provides a scientific commentary based on the resolutions of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan in 2019–2022 concerning the enhancement of tourism potential in Khorezm region and Khiva city, ensuring safe tourism, developing cultural heritage sites, and modernizing infrastructure. Additionally, the significance of Khiva's first “smart city-museum” project and the opportunities to promote the city on the global tourism map through a digital management system are examined. The article includes a scientifically grounded analysis related to state policy and practical measures.*

Key words: *Khiva, tourism, infrastructure,government decision,smart city, safe tourism, development.*

Аннотация*: В данной статье анализируются государственная политика, реализованные меры и перспективы развития туристической инфраструктуры в городе Хива. Приводится научная оценка на основе постановлений Кабинета Министров Республики Узбекистан за 2019–2022 годы, касающихся повышения туристического потенциала Хорезмской области и города Хива, обеспечения безопасного туризма, развития объектов культурного наследия и модернизации инфраструктуры. Кроме того, рассматривается значение первого в Хиве проекта «умный город-музей» и возможности продвижения города на мировой туристической карте с помощью системы цифрового управления. Статья включает научно обоснованный анализ, связанный с государственной политикой и практическими мерами.*

Ключевые слова: *Хива, туризм, инфраструктура, государственное решение, умный город, безопасный туризм, развитие.*

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish, tarixiy shaharlarning infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda ularni xalqaro turizm markazlariga aylantirish bo‘yicha izchil islohotlar olib borilmoqda. Shu jarayonda Xiva shahri alohida e’tibor qaratilayotgan hududlardan biri sifatida ajralib turadi. 2019–2025-yillar davomida qabul qilingan bir qator hukumat qarorlari va dasturlar shaharning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xususan, 2019–2020-yillarda turizmni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar, Xiva, Buxoro, Samarqand va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta’minlashga oid qarorlar, shuningdek, 2021–2022-yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan hukumat qarorlari shaharning zamonaviy turistik infratuzilmasini shakllantirish uchun huquqiy asos yaratdi.

Bundan tashqari, 2022-yilda turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda Xiva shahar infratuzilmasini rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risidagi qarorlar shaharni kompleks modernizatsiya qilish, yangi transport-kommunikatsiya tizimlarini joriy etish va xizmat ko‘rsatish tarmog‘ini kengaytirish imkonini berdi.

Shuningdek, Xivada immersion texnologiyalar asosida “aqlli shahar-muzey” konsepsiyasini yaratish, yer osti yo‘llari, yangi turistik obyektlar va madaniy muassasalarni barpo etish shaharni xalqaro miqyosda raqobatbardosh turizm markaziga aylantirmoqda.

Mazkur maqolada Xiva shahrining 2019–2025-yillar davomida ijtimoiy-iqtisodiy va turistik infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari, hukumat qarorlari hamda amalga oshirilgan amaliy loyihalar ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, shaharda turizm infratuzilmasining kengayishi, xizmatlar sifati, transport va kommunikatsiya tizimining yangilanishi hamda “aqlli shahar-muzey” konsepsiyasining joriy etilishi kabi jarayonlarning mintaqa iqtisodiy o‘sishiga ta’siri yoritiladi.

Metod. Ushbu mavzuni yoritishda ilmiy tadqiqotning bir nechta uslublaridan foydalanildi. Jumladan, ma’lumotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil va sintez, shuningdek, qonunlar yaratilishining xronologik tahlili, shaffoflik va xolislik kabi prinsiplari tadqiqot metodikasi sifatida qo‘llandi.

Muhokama. Xiva shahri tarixiy va madaniy meros markazi sifatida sayyohlar uchun muhim diqqat markazi hisoblanadi. So‘nggi yillarda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining qarorlari orqali turizmni rivojlantirish, xavfsiz turizmni ta’minlash hamda kichik turizm hududlarini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2019–2022-yillarda Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirishga qaratilgan bir qator hukumat qarorlari qabul qilindi. Shu jumladan, madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish ishlari, Ichan-qal’a va Dishan-qal’a hamda boshqa tarixiy obidalarni restavratsiya qilish, tashqi yoritish va sug‘orish tizimlarini yangilash tadbirlari amalga oshirildi.

Xiva shahrida turizm infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar, jamg‘armalar va loyihalar shaharning turizm salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Madaniy merosni saqlash, xavfsiz turizm va zamonaviy infratuzilma elementlarini birlashtirish orqali Xiva shahri xalqaro miqyosda raqobatbardosh sayyohlik markazi sifatida rivojlanmoqda.

Natijalar. 2017-yilda Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan [1]. Unga ko‘ra, yuqoridagi viloyatlar ichki ishlar tizimida xavfsizlik boshqarmasi tashkil etilishi belgilangan. Shuningdek, boshqarmaga xorijiy tillarni biladigan mutaxassislar jalb qilingan. Bu sayyohlarga qulay sharoit yaratishning muhim omillaridan biridir.

[1] Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. https://lex.uz/uz/docs/-3422680?%2000

Bundan tashqari, chora-tadbirlarni yanada takomillashtirish maqsadida “Xavfsiz shahar” loyihasi amalga oshirilgan[2]. Oldingi dasturda “Xavfsiz hudud”ga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, keyingi dastur bu tizimni yanada to‘ldirgan.

Qadimiy Xiva shahri sayyohlik markazi sifatida xavfsizlik ta’minlangan bo‘lsa ham, turizmni rivojlantirish bo‘yicha shahar alohida moliyaviy quvvatga ega bo‘lmagan. Bunday muammo 2021-yilda Xiva shahar infratuzilmasini rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan ijobiy hal qilingan[3]. Xiva shahrida alohida jamg‘arma tashkil qilinib, “Ichan-qal’a” va “Dishan-qal’a” hamda boshqa madaniy meros obyektlarining me’moriy qiyofasini restavratsiya qilish, ta’mirlash va tiklash, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish, shuningdek, hududning sug‘orish tizimlarini yaxshilash va yer osti suvlari sathini pasaytirish, ichimlik suvi, oqova suv, aloqa, elektr energiyasi va tabiiy gaz tarmoqlari hamda avtomobil yo‘llari va ijtimoiy soha obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash, doimiy faoliyat yurituvchi kompleks ko‘ngilochar dasturlarni yaratish, turistlarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha qo‘shimcha infratuzilma obyektlarining holatini yaxshilash va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, Xiva shahrining jamoat joylarida (maydonlar, xiyobonlar, bog‘lar va hokazo) kichik arxitektura shakllarini o‘rnatish, zamonaviy talablarni hisobga olib mavjud infratuzilmalarni takomillashtirish hamda yangi infratuzilma obyektlarini barpo etish vazifalari belgilangan.

Shahar infratuzilmasining shakllanishi turizm salohiyatini yanada rivojlantirishga mustahkam zamin yaratdi. Xorazm viloyati, jumladan Xiva shahrining turizm salohiyatidan samarali foydalanish, uni kengaytirish, zamonaviy turizm infratuzilmasini rivojlantirish, yangi dam olish maskanlarini barpo etish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash, turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi[4].

Unga ko‘ra, 2021–2022-yillarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish, shu jumladan “turizm mahallalari”ni tashkil etish, tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun qo‘shimcha xizmatlar va qulay shart-sharoitlar yaratish, milliy hunarmandchilikni rag‘batlantirish, madaniy ko‘ngilochar tadbirlar va festivallarni tashkil etish, yoshlarni sportga jalb etish, ekoturizm, tibbiyot, ta’lim, etnografik, gastronomik va ishbilarmonlik turizmini rivojlantirish hamda turizm loyihalariga xorijiy va mahalliy investitsiyalar hamda moliya institutlarining grant mablag‘larini jalb qilish vazifalari belgilandi.

Turizmni rivojlantirish dasturlari tizimli ravishda qayta ko‘rib chiqilib, takomillashtirib borildi. Jumladan, 2022–2026-yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori muhim ahamiyatga ega[5]. Qarorga ko‘ra, Xiva shahridagi “Alleya” maydonlarida “turizm ko‘chalari”ni tashkil etish vazifasi belgilangan. Bu choralar sayyohlarning vaqtini unumli sarflash imkonini yaratish bilan birga, milliy urf-odatlarimiz bilan tanishish imkonini ham beradi. Shu bilan birga, 2026-yilgacha xorijiy sayyohlar soni 1 200 ming kishiga yetishi prognoz qilingan, bu esa turizm hududlarida ishlarni yanada jadallashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning qaroriga muvofiq, “Ichan-Qal’a” majmuasi dunyodagi birinchi immersiv aqlli shahar-muzeyga

[2] “Xavfsiz shahar” loyihasini amalga oshirish bo‘yicha bosqichma-bosqich chora-tadbirlar va yagona texnologik yondashuvni tashkil qilish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori https://lex.uz/docs/-3730048

[3] Xiva shahar infratuzilmasini rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori https://lex.uz/docs/-5378878

[4] 2021-2022-yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. https://lex.uz/ru/docs/-5458180

[5] 2022 — 2026-yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori /

aylantiriladi [6] . Bundan tashqari, 2026-yilgacha yangi turizm rivojlantirish strategiyasi, 2040-yilgacha mo‘ljallangan uzoq muddatli rejalar va 2030-yilgacha bo‘lgan marketing strategiyasi ishlab chiqiladi. Mazkur strategiya xorijiy bozorlarda turistik mahsulotlarni targ‘ib qilishni ham o‘z ichiga oladi.

Xulosa. Xiva shahrida turizm infratuzilmasini rivojlantirishda davlat normativ hujjatlari, belgilangan dasturlar ijrosi va kelajak istiqbol rejalari muhim ahamiyat kasb qiladi. Qadimiy shahar turizm markazi sifatida dunyo sayyohlarining asosiy marshrutlaridan biriga aylangan. 2026-yildan boshlab dunyodagi birinchi aqlli shahar-muzeyga aylanishi esa sayyohlar oqimining keskin oshishida muhim omil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. https://lex.uz/uz/docs/-3422680?%200
2. “Xavfsiz shahar” loyihasini amalga oshirish bo‘yicha bosqichma-bosqich chora-tadbirlar va yagona texnologik yondashuvni tashkil qilish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. https://lex.uz/docs/-3730048
3. Xiva shahar infratuzilmasini rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. https://lex.uz/docs/-5378878
4. 2021–2022-yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. https://lex.uz/ru/docs/-5458180
5. 2022–2026-yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. https://web.archive.org/web/20240520034831/https://lex.uz/r
6. Xivada ilk aqlli shahar-muzey tashkil etiladi. https://zamin.uz/uz/

[6] Xivada ilk aqlli shahar-muzey tashkil etiladi. https://zamin.uz/uz/

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 1:330.34

MILLIY TARAQQIYOT, IQTISODIY VA INNOVATSION TAFAKKURNING O‘ZARO ALOQADORLIGINI O‘RGANISHNING FALSAFIY JIHATLARI

Abdullayeva Iroda G‘anijanovna, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Falsafa” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

https://orcid.org/0000-0002-5388-5100
e-mail: irodaabdullayeva@gmail.com

PHILOSOPHICAL ASPECTS OF THE STUDY OF THE INTERRELATIONSHIP BETWEEN NATIONAL DEVELOPMENT, ECONOMY AND INNOVATIVE THOUGHT

Abdullayeva Iroda Ganijanovna, Associate Professor of the Department of Philosophy, Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ ВЗАИМОСВЯЗИ НАЦИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ, ЭКОНОМИКИ И ИННОВАЦИОННОЙ МЫСЛИ

Абдуллаева Ирода Ганиджановна, доцент кафедры философии Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни, доктор философии (PhD) по специальности «Философия»

Annotatsiya: *Mazkur monografiyada milliy taraqqiyot jarayoni bilan iqtisodiy va innovatsion tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning falsafiy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, innovatsiya va innovatsion faoliyat tushunchalarining nazariy-metodologik mohiyati, milliy taraqqiyot bosqichida iqtisodiy va innovatsion tafakkur tushunchalarining shakllanishi va ularning o‘zaro ta’siri batafsil tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Milliy taraqqiyot, innovatsion tafakkur, infratuzilma, huquqiy baza, davlat ilmiy-texnik dasturlari.*

Abstract: *This monograph examines the philosophical aspects of the relationship between national development and economic and innovative thinking. It analyzes the theoretical and methodological essence of the concepts of innovation and innovative activity, as well as the genesis and interconnection of economic and innovative thinking at the stage of national development.*

Keywords: *National development, innovative thinking, infrastructure, legal framework, state scientific and technical programs.*

Аннотация: *В данной монографии раскрываются философские аспекты исследования взаимосвязи национального развития, экономического и инновационного мышления. Рассматривается теоретико-методологическая сущность понятий «инновация» и «инновационная деятельность», а также генезис и взаимосвязь понятий «экономическое и инновационное мышление» на этапе национального развития.*

Ключевые слова: *Национальное развитие, инновационное мышление, инфраструктура, правовая база, государственные научно-технические программы.*

KIRISH. Dunyoda ilmiy-texnik salohiyat tez rivojlanish bilan bir qatorda ishlab chiqarishning asosiy omillarini intelektualizatsiya qilish tendensiyasi kuchaymoqda. Innovatsiyalarni joriy etish iqtisodiy o‘sish va bozor raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim vositasiga aylangan. Bu esa o‘z navbatida barcha sohalarda ilg‘or ilmiy ishlanmalar va texnik yutuqlardan samarali foydalanishni, shuningdek, iqtisodiy salohiyatning raqobatbardoshligini mustahkamlashni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, ko‘plab davlatlar bugungi kunda ilmiy tadqiqotlar va innovatsion faoliyatni rivojlantirishga katta hajmda investitsiyalar yo‘naltirmoqda. Har bir davlatning barqaror taraqqiyoti esa asosan innovatsion faoliyatga asoslanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Innovatsiyaviy nazariyaning asosiy rivojlanish bosqichi V.Zombart, V.Mitcherlix va Y.Shumpeter ishlariga to‘g‘ri keladi. Innovatsiyalar nazariyasining shakllanishi va rivojlanishida avstriyalik olim Y. Shumpeterning hissasi beqiyosdir. M.Q.Pardaevning fikricha, innovatsiya deb ilg‘or g‘oyalar asosida amalga oshirilgan ishlanmalar natijalarining fan va texnika yutuqlari, ilg‘or texnologiya va yangi ixtirolar sifatida turli sohalarda — iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy hayot, boshqaruv tizimi va boshqa jabhalarda qo‘llanilishini tushunish kerak.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Innovatsiyalar iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishning texnik va texnologik bazasini uzluksiz yangilash, yangi raqobatbardosh mahsulotlarni yaratish hamda tovarlar va xizmatlarni xalqaro bozorlar bilan samarali integratsiyalashga qaratilgan. Innovatsion yo‘nalishga asoslangan iqtisodiy o‘sish rivojlanishning evolyutsion natijasi bo‘lib, uning mohiyatini fundamental fanlar, ilg‘or ilmiy ishlanmalar, nazariy va amaliy kashfiyotlar hamda boshqaruvning yangi usullari tashkil etadi. Bu jarayonda asosiy e’tibor iqtisodiy faoliyatdan kutilayotgan natija, unga erishish yo‘llari, shuningdek, raqobat muhiti va uning ta’sir doirasiga qaratilishi lozim.

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatdiki, ishlab chiqarishni rivojlantirish va takror ishlab chiqarishni oshirish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash hamda ishlab chiqaruvchi resurslarni tubdan yangilashda innovatsiyalar asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Shu sababli, hozirgi kunda dunyoning barcha mamlakatlarida innovatsion faoliyat iqtisodiy rivojlanishning barcha bosqichlarida barqarorlikni ta’minlovchi asos sifatida e’tirof etiladi. U iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash, moddiy-texnika bazasini zamonaviy texnologiyalar asosida yangilash va ishlab chiqarishni tubdan modernizatsiya qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Faqat innovatsion yo‘nalish asosida ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar ijobiy yo‘nalishda o‘zgaradi. Jahonda kuzatilayotgan moliyaviy inqiroz sharoitida mamlakatni modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishning eng muhim omillari sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, shuningdek, kichik biznes va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, mulkdorning o‘rni va ahamiyatini tubdan qayta ko‘rib chiqish, ularning rivojlanishini davlat tomonidan har tomonlama qo‘llab-quvvatlash asosiy vazifa sifatida belgilangan.

Innovatsion faoliyatni huquqiy asoslarda va uzoq muddatli, o‘zaro chuqur bog‘langan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish bugungi kunda davlatimiz uchun eng dolzarb masalalardan biridir. Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv va globallashuvning ijobiy tomonlari bilan birga, turli davlatlardagi iqtisodiy rivojlanishning nomutanosibligi, ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarning kuchayishi, shuningdek, aholi sonining o‘zgarishidagi keskin farqlar global iqtisodiy tizimning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Shuningdek, jahon hamjamiyati bugungi kunda boshdan kechirayotgan moliyaviy inqiroz ham globallashuv jarayonlarining salbiy oqibati sifatida yuzaga kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yilda mamlakatimiz Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “Ma’lumki, hozirgi kunda yurtimizda 51 foizdan ziyod aholi qishloq joylarda yashaydi. Biroq qishloq xo‘jaligi

TAMADDUN NURI

mahsulotlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 17 foizdan oshmaydi. Agrar soha mahsulotlarini qayta ishlash hajmi esa 10 foizga ham yetmaydi. Holbuki, rivojlangan davlatlarda bu ko‘rsatkich 50 foizdan ortiqni tashkil etadi. Shu munosabat bilan qishloq xo‘jaligini yanada isloh qilish bo‘yicha kompleks dastur ishlab chiqish lozim”.

Davlat organlarining innovatsion sohadagi asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- innovatsion faoliyatni muvofiqlashtirish;
- innovatsion jarayonlar uchun huquqiy baza yaratish;
- innovatsiyalarni malakali kadrlar bilan ta’minlash;
- ilmiy-innovatsion infratuzilmani shakllantirish;
- innovatsion jarayonlarni hududiy tartibga solish.

Davlatning ilmiy-texnik siyosatini amalga oshirish mexanizmi quyidagilardan iborat:

- ilmiy-texnik taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;
- davlat ilmiy-texnik dasturlarini ishlab chiqish;
- DITD bajarilishini monitoring qilish va natijalarni ekspertiza qilish;
- ITI natijalari bo‘yicha ma’lumotlar bazasini shakllantirish.

Iqtisodiy tafakkur ijtimoiy borliq kabi doimiy harakatda bo‘lib, o‘zgarish va transformatsiyaga duch kelishda davom etadi. Uning nazariy-falsafiy ko‘rinishlari milliy xususiyatlarga ega turli modellarda aks etadi. Masalan, jahonga mashhur va nazariy-falsafiy asosga ega, XX asrda shakllangan “nemis modeli”, “yapon modeli”, “amerika modeli”, “koreya modeli” va “xitoy modeli” kabi yondashuvlar liberal tafakkur an’analarini davom ettiradi. Ular bozor munosabatlariga xos iqtisodiy demokratiyani, innovatsion izlanishlarni, shuningdek, shaxs huquq va erkinliklarini himoya qilishni strategik maqsad qilib oladi. Shu tariqa, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuni tan olish kerakki, bu modellarni ideallashtirish mumkin emas; ular tafakkur mahsuli sifatida ijtimoiy borliqning barcha qirralarini, jihatlari va ziddiyatlarini to‘liq ifoda etolmaydi. Model esa namuna yoki taqlid qilinadigan ko‘rsatma sifatida xatti-harakat strategiyasini, jamiyat rivojlanishiga oid konseptual fikrlar va tasavvurlarni o‘zida jamlaydi.

XULOSA. Shu bilan, mamlakatimiz innovatsion faoliyatini kengaytirish uchun qulay muhit yaratgan, bu esa davlat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Innovatsion faoliyat murakkablik va yuqori risk bilan xarakterlanadi. Buning uchun faqat ichki rag‘batlantirishlar va innovatsiyada mavjud potensial yetarli emas. Hal qiluvchi omil sifatida tashqi rag‘batlantirish va davlat ko‘magi muhim rol o‘ynaydi. Davlatning faol qo‘llab-quvvatlashi, avvalambor, “Fundamental fan” fazasida namoyon bo‘ladi. Ilmiy g‘oyalarni qishloq xo‘jalik faoliyatiga keng joriy etish esa maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi // Xalq so‘zi, 2018, 29 dekabr.
2. Umarov B., Saidov U. Erkinlik g‘oyasi takomili. – Toshkent: Akademiya, 2010. – 162 b.
3. Keynes J.M. Obshchaya teoriya zanyatosti, protsenta i deneg. – Moskva: Progress, 1978. – S. 42-43.
4. Edited by Erika Kraemer-Mbula and Watu Wamae. “Innovation and the Development Agenda”. International Development Research Centre PO Box 8500, Ottawa, ON, Canada K1G 3H9. © OECD/IDRC 2010. p. 9.
5. Pardaev M.Q., Mamasoatov T.X., Pardaev O.M. Modernizatsiya, diversifikatsiya va innovatsiya – iqtisodiy o‘sishning muhim omillari, Monografiya – Toshkent: “Navro‘z”, 2014, 38 b.
6. Salyamova M.X. Ekonomika perekhodnogo perioda (uchebnoe posobiye). – Toshkent: Universitet, 2002. S. 295.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 130.3:796.332

FUTBOL JAMOALARIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR FALSAFASI: TRENER–FUTBOLCHI–MUXLIS O‘RTASIDAGI IJTIMOIY DINAMIKA

Bozorov Iqboljon Yoqubjonovich, Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg‘ona filiali o‘qituvchisi

e-mail: iqboljonbozorov313@gmail.com

ФИЛОСОФИЯ МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ФУТБОЛЬНЫХ КОМАНДАХ: СОЦИАЛЬНАЯ ДИНАМИКА ТРЕНЕР-ФУТБОЛИСТ-БОЛЕЛЬЩИК

Бозоров Икболжон Якубжонович, преподаватель Ферганского филиала Института переподготовки и повышения квалификации специалистов по физической культуре и спорту

PHILOSOPHY OF INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN FOOTBALL TEAMS: SOCIAL DYNAMICS BETWEEN COACH-FOOTBALL PLAYER-FAN

Bozorov Iqboljon Yakubjonovich, teacher, Fergana branch of the Institute of Retraining and Advanced Training of Specialists in Physical Education and Sports

Annotatsiya: *Maqola futbol jamoalarida trener–futbolchi–muxlis o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlar falsafasini va ularning sport natijalariga ta’sirini ilmiy asosda tahlil qiladi. Trenerning liderligi, futbolchilar o‘rtasidagi ishonch, muxlislar bilan kommunikatsiya va futbol muhitining madaniy xususiyatlari o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari sog‘lom psixologik muhit yaratish, munosabatlarni boshqarish va futbol madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.*

Kalit so‘zlar: *futbol falsafasi, shaxslararo munosabatlar, trenerlik psixologiyasi, ijtimoiy dinamika, muxlislik madaniyati, jamoaviy muhit.*

Abstract: *The article scientifically analyzes the philosophy of interpersonal relationships between coach-football player-fan in football teams and their impact on sports results. The coach's leadership, trust between players, communication with fans, and cultural characteristics of the football environment are studied. The research results provide practical recommendations for creating a healthy psychological environment, managing relationships, and developing a football culture.*

Key words: *football philosophy, interpersonal relations, coaching psychology, social dynamics, fan culture, team environment.*

Kirish. Bugungi kunda futbol faqat sport musobaqasi bo‘lib qolmay, balki keng ko‘lamli ijtimoiy-sotsiokulturniy jarayon sifatida jamiyat hayotida muhim o‘rin egallamoqda. Professional futbol jamoalarining yuqori natijalarga erishishi nafaqat texnik-taktik mahorat va jismoniy tayyorgarlik bilan, balki jamoa ichidagi shaxslararo muloqot, trenerning liderlik yondashuvi hamda muxlislar bilan to‘g‘ri va samarali ijtimoiy aloqa o‘rnatilishi bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Sport sotsiologiyasi hamda sport psixologiyasi bo‘yicha zamonaviy ilmiy izlanishlar jamoaviy futbol faoliyatida ijtimoiy dinamika boshqaruvining murabbiy

faoliyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini tasdiqlamoqda.

Jamoa ichidagi o‘zaro hurmat va ishonch tamoyillariga asoslangan muloqot, motivatsiya tizimining mukammal yo‘lga qo‘yilishi, kelib chiqishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlarning oldini olish — barqaror va muvaffaqiyatli jamoaning asosiy falsafiy mezonlaridandir. Ushbu maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, O‘zbekistonda futbol jadal rivojlanayotgan hozirgi sharoitda “trener–futbolchi–muxlis” uchlik tizimidagi munosabatlarning ilmiy asoslari hali yetarli darajada o‘rganilmagan.

Mazkur tadqiqot orqali futbol jamoalari faoliyatida ilmiy yondashuvga ega, samaradorlikni oshiruvchi ijtimoiy munosabatlar modelini ishlab chiqish imkoniyati mavjud. Maqolaning asosiy maqsadi — futbol jamoalarida yuzaga keladigan shaxslararo aloqalar falsafasini tahlil qilish, “trener–futbolchi–muxlis” o‘rtasidagi ijtimoiy dinamikaning nazariy asoslarini yoritish va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalariga, avvalo, futbol jamoalarida shakllanadigan ijtimoiy munosabatlar mohiyatini falsafiy nuqtayi nazardan tadqiq etish, ya’ni “trener–futbolchi–muxlis” uchligida vujudga keladigan ijtimoiy mavjudlik, o‘zaro ta’sir tizimi hamda ijtimoiy ongning yuzaga chiqish mexanizmlarini tushuntirish kiradi. Shuningdek, trener fenomenining liderlik konsepsiyasi ontologik va aksiologik jihatdan tahlil qilinadi; futbolchi shaxsining emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuviga ta’sir qiluvchi omillar falsafiy antropologiya va ijtimoiy epistemologiya doirasida izohlanadi. Muxlislik madaniyatining jamoa hayotiga ta’siri esa ijtimoiy dinamika, kollektiv identitet va sport makonining madaniy mazmunini o‘rganish orqali ochib beriladi.

Tadqiqot yakunlari sifatida futbol jamoasining rivojlanish jarayonida ijtimoiy omillar o‘zaro bog‘liqligini tushuntiruvchi konseptual model taklif etiladi. Mazkur model jamoaviy sportdagi ijtimoiy munosabatlarning falsafiy asoslarini chuqurroq ochishga xizmat qiladi.

Asosiy qism. Sport falsafasi nuqtayi nazaridan futbol jamoasi oddiy sport tizimi emas, balki murakkab ijtimoiy hamda tashkiliy tuzilma sifatida talqin qilinadi. Bu tizimda insonning ruhiy tayyorgarligi, umumiy g‘oyaga ishonchning mustahkam bo‘lishi va motivatsiya uzluksizligi markaziy falsafiy tushunchalar sifatida namoyon bo‘ladi. Jamoaning barqarorligini ta’minlaydigan asosiy omillar — shaxslararo aloqalar darajasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-axloqiy tamoyillardir.

Falsafiy yondashuvga ko‘ra, jamoa ichki munosabatlari bir nechta poydevor ustiga quriladi: o‘zaro hurmat — har bir futbolchi shaxsini qadrli subyekt sifatida tan olish; adolatli baholash — mehnat va natijalarni xolis mezonlar asosida e’tirof etish; ochiq muloqot — g‘oyalar almashinuvi va axborotning yashirilmasligi; umumiy maqsadga sodiqlik — jamoaning bir yo‘nalishda harakat qilishi uchun aksiologik yadroni shakllantiradi; ijtimoiy javobgarlik esa jamoadan tashqari muhit oldida mas’uliyat hissini mustahkamlaydi. Ushbu tamoyillar, avvalo, trener va futbolchining ruhiy barqarorligiga, jamoaga mansublikni his etishiga hamda ijtimoiy rolini anglashiga bevosita ta’sir qiladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatlarning falsafiy mohiyati jamoaning natijaviyligiga, rivojlanish sur’atlariga va sport makonidagi madaniy pozitsiyasiga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazadi.

Liderlik va ijtimoiy-falsafiy dinamika. Futbol jamoasida trener shaxsiyati faqat boshqaruv faoliyatini amalga oshirmaydi, balki jamoaning ma’naviy yo‘nalishini belgilovchi falsafiy markaz sifatida namoyon bo‘ladi. Uning qadriyatlari, axloqiy qarashlari, liderlik uslubi va qaror qabul qilish madaniyati jamoa ichki muhitini shakllantiradi. Shu bois trener–futbolchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar oddiy sport jarayoni emas, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy dinamikaning ifodasidir.

Liderlik falsafasi bir nechta asosiy tamoyillar orqali yuzaga chiqadi: trener adolatga asoslangan boshqaruv orqali har bir futbolchining mehnatini e’tirof etadi; motivatsiya berish orqali sportchining ichki imkoniyatini ochadi; sezgirlik jamoa a’zolarining psixologik holatini to‘g‘ri anglashga yordam beradi; muloqotning ochiqligi esa umumiy mas’uliyat va maqsad birligini mustahkamlaydi; qarorlarning izchilligi esa uning prinsipial va barqaror lider ekanini namoyish qiladi.

Trener–futbolchi munosabatlarida **ishonch** asosiy falsafiy kategoriya sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ishonch mavjud bo‘lgan jamoada ijtimoiy barqarorlik kuchli bo‘ladi, futbolchi o‘z

qadrini chuqurroq his qiladi va jamoa yagona ijtimoiy organizmga aylanadi. Natijada, ushbu munosabatlar jamoaning falsafiy konsepsiyasini, madaniy mazmunini va sport maydonidagi umumiy natijalarini belgilab beradi.

Futbolchilar o‘rtasidagi o‘zaro dinamika. Futbolchi shaxsining ijtimoiy xatti-harakatlari bir nechta omillar orqali shakllanadi: rollarning to‘g‘ri taqsimlanishi, ijtimoiy maqom, umumiy maqsadning mavjudligi, psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi, ichki raqobat va hamkorlikning muvozanati. Agar jamoa ichki kommunikatsiyasi puxta yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, futbolchining individualligi jamoaning umumiy natijasiga xizmat qiladi hamda shaxsiy mahorat jamoaviy rivojlanishning tarkibiy qismiga aylanadi.

Muxlislar bilan munosabatlar falsafasi. Futbol jamoasi — faqat maydondagi futbolchilar va ularni boshqaruvchi trenerdan iborat tuzilma emas. U keng ijtimoiy makonda shakllanadigan, o‘ziga xos madaniy va psixologik energiyaga ega bo‘lgan muxlislar ommasi bilan birgalikda mavjud bo‘lgan ijtimoiy organizmdir. Muxlislarning ta’siri sport falsafasida ko‘p qatlamli jarayon sifatida talqin etiladi. U jamoaning ijtimoiy hayoti, madaniy identiteti va jamoaviy ruhiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Muxlislik omilining birinchi ko‘rinishi — psixologik bosimdir. Bu bosim har doim salbiy oqibatlarga olib kelmaydi. Aksincha, u jamoani safarbar qilishga xizmat qiladigan motivatsion kuch vazifasini o‘tashi mumkin. Shuningdek, muxlislarning qo‘llab-quvvatlovchi energiyasi futbolchilar ongida umumiylik va birdamlik tuyg‘usini kuchaytirib, ma’naviy ko‘tarinkilik holatini yuzaga keltiradi. Shu tariqa, muxlislar jamoa uchun ijtimoiy tayanch rolini bajaradi.

Muxlislik madaniyati jamoaning madaniy qiyofasini shakllantiruvchi muhim omildir. Jamoa qanday qadriyatlarni targ‘ib qilishi, sport maydonida qanday axloqiy yondashuvga amal qilishi va qaysi ruhiy holatni ifodalashi — bularning barchasi muxlislar madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Bu jarayonda mediamakonning roli ham alohida ahamiyatga ega: media jamoaning ijtimoiy ongdagi obrazini yaratadi, jamiyatdagi muhokamalar esa uning qabul qilinishi va sotsiokulturniy mavqeini belgilaydi.

Futbolga xos sport madaniyati esa muxlis xulqi, jamoaning ijtimoiy qadriyatlari va sport makonidagi umumiy axloqiy tamoyillarni yagona tizimga birlashtiradi. Shu sababli, klub va trener tomonidan yo‘lga qo‘yiladigan muxlislar bilan ishlash strategiyasi nafaqat kommunikativ harakatlar majmui, balki jamoaning madaniy-falsafiy brendini shakllantiruvchi muhim yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu strategiya orqali klub o‘zining ijtimoiy mas’uliyati, axloqiy pozitsiyasi va sport makonidagi madaniy ta’sirini namoyish etadi.

Quyida jamoadagi munosabatlarning falsafiy asoslarini ifodalovchi **“Dinamik uchlik”** modeli keltiriladi:



Uch tomonning uyg‘unligi muvaffaqiyatning asosiy omilidir.

Adabiyotlar tahlili. Sport falsafasi sohasi bo‘yicha G. Simon, J. Setton, R. Holt, A. Maslou va P. Senje kabi tadqiqotchilar asarlarida jamoaviy dinamika, liderlikning falsafiy mazmuni hamda sport psixologiyasi o‘rtasidagi uyg‘unlik chuqur tahlil qilingan. O‘zbekiston olimlari — N. To‘laganov, N. Ochilov va Sh. Abdullayev tomonidan esa ommaviy sportning ijtimoiy ahamiyati, jismoniy tarbiyaning jamiyat rivojiga ta’siri masalalari yoritilgan.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, futbol jamoalarida shakllanadigan shaxslararo munosabatlar alohida ilmiy tadqiqot obyektidir. Uning falsafiy, psixologik va sotsiologik jihatlari bir butun tizimni tashkil etib, chuqur kompleks yondashuvni talab qiladi. O‘rganilgan ilmiy manbalar futbol jamoalarida ijtimoiy dinamikaning uch asosiy yunalishini belgilash imkonini beradi:

1. Psixologik model — liderlik, emotsional intellekt, ishonch;

2. Sotsiologik model — jamiyatdagi munosabatlar, ijtimoiy maqom;
3. Madaniy model — muxlislik madaniyati va milliy o‘ziga xosliklar.

Mavjud tadqiqotlarda trenerlik psixologiyasi va jamoa motivatsiyasi keng yoritilgan bo‘lsa-da, trener–futbolchi–muxlis o‘zaro aloqalarini birlashtiruvchi integrativ yondashuv yetarli ishlab chiqilmagan. Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Xulosa. Umumlashtirib aytganda, futbol jamoalarida shaxslararo munosabatlarning falsafiy mohiyati jamoaning strategik muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir qiluvchi asosiy omil sanaladi. Trenerning pedagogik va psixologik yetakchiligi futbolchilar motivatsiyasi, mas’uliyati va o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Futbolchilarning o‘zaro hamkorligi va jamoa maqsadiga sodiqligi esa sport intizomi va professional o‘sishni ta’minlaydi.

Shuningdek, madaniy jihatdan shakllangan muxlislik makoni jamoaga ruhiy quvvat va ijtimoiy tayanch beradi, bu esa raqobatbardosh ustunliklarni yuzaga keltiradi. Maqolada ilgari surilgan “Dinamik uchlik” konsepti — trener, futbolchi va muxlislar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tizimli o‘rganish va samarali boshqarish imkonini beruvchi ilmiy yondashuvdir. Ushbu model O‘zbekiston futbolida boshqaruv sifatini oshirish, natijalarni yaxshilash va ichki ijtimoiy muhitni uyg‘unlashtirishda ahamiyatli amaliy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Holt R. Sport and the British: A Modern History. Oxford University Press, 2016.
2. Simon G. The Philosophy of Sports. Routledge, 2020.
3. Maslow A. Motivation and Personality. Harper & Row, 2019.
4. Senge P. The Fifth Discipline. Crown Publishing, 2010.
5. Abdullayev Sh. Sport sotsiologiyasi asoslari. Toshkent, 2021.
6. To‘laganov N. Jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy omillari. Toshkent, 2020.
7. Ochilov N. Ommaviy sport va jamiyat. Toshkent, 2019.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK:316.6:149.1

SHAXSDA INTERNETGA QARAMLIKNING YUZAGA KELISHI SABABLARI VA BARTARAF QILISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Qabulov Qosimboy Pirjonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), Urganch davlat universiteti v.b. professori

REASONS FOR THE DEVELOPMENT OF INTERNET ADDICTION IN A PERSON AND SOCIAL-PSYCHOLOGICAL BASIS FOR ELIMINATION

Kabulov Kasimboy Pirjonovich, Doctor of Psychology (DSc), Acting Professor of Urgench State University

ПРИЧИНЫ РАЗВИТИЯ ИНТЕРНЕТ-ЗАВИСИМОСТИ У ЧЕЛОВЕКА И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ ЕЕ УСТРАНЕНИЯ

Кабулов Касымбой Пиржонович, доктор психологических наук, и.о. профессора Ургенчского государственного университета

https://orcid.org/0000-0002-1478-0330
e-mail: qobulovqosimboy49@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shaxsda internetga qaramlik tushunchasi, uning shakllanishiga sabab bo‘luvchi psixologik, ijtimoiy va texnologik omillar ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Internetdan ortiqcha foydalanishning shaxs rivoji va ijtimoiy hayotga ta’siri yoritilib, qaramlikni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Maqola sog‘lom raqamli madaniyatni shakllantirish va internetdan ongli foydalanishning ahamiyatini asoslaydi. Tadqiqot natijalari internetga qaramlikning oldini olish bo‘yicha samarali tavsiyalarni taqdim etadi.*

Kalit so‘zlar: *shaxs, internet, internetga qaramlik, kiberintim, instinkt, stress va tashvish.*

Abstract: *This article examines the concept of internet addiction in individuals, as well as the psychological, social, and technological factors that influence its development. It analyzes the impact of excessive internet use on personal development and social activity, and highlights ways to overcome addiction. The article substantiates the importance of developing a digital culture and mindful internet use. The research results provide effective recommendations for preventing internet addiction.*

Keywords: *personality, internet, internet addiction, cyberintimacy, instinct, stress, and anxiety.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается понятие интернет-зависимости у личности, а также психологические, социальные и технологические факторы, влияющие на её формирование. Анализируется влияние чрезмерного использования интернета на развитие личности и её социальную активность, а также освещаются пути преодоления зависимости. Статья обосновывает важность формирования цифровой культуры и осознанного использования интернета. Результаты исследования представляют эффективные рекомендации по профилактике интернет-зависимости.*

Ключевые слова: личность, интернет, интернет-зависимость, киберинтим, инстинкт, стресс и тревожность.

Kirish. Hozirgi globallashuv va deyarli barcha sohalarini internet bilan raqamlashtirish jarayonlari inson hayotining chambarchas bog‘lab qo‘ydi. Axborot

almashinuvi, ta'lim, ish faoliyati, muloqot hamda kundalik ehtiyojlarni qondirish vositasiga aylangan internetning qulayliklari bilan birga, uning ortiqcha va nazoratsiz iste'moli bir qator psixologik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shunday muammolardan biri – **shaxsda internetga qaramlik** bo'lib, bu holat insonning virtual olamga haddan tashqari berilib ketishi, real hayotdagi majburiyatlar va ijtimoiy aloqalar hisobiga internetdan foydalanishni nazoratsiz oshirib borishi bilan tavsiflanadi. Internetga qaramlik bugungi kunda nafaqat psixologlar, balki pedagoglar, sotsiologlar va ota-onalar diqqat markazida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Internetga qaramlik holatlarini ilk bor ikki amerikalik psixologlar o'rganishgan, bular klinik psixolog K.Yang va psixiatr I.Goldberglar. Bu ikki psixolog 1994-yilda veb-saytga maxsus so'rovnomani ishlab chiqib, uni joylashtirdilar, bu so'rovnomaga deyarli 500 ta javob olishdi, ulardan 400 tasi haqiqatni yozishgan, deb topilgan va so'rovnoma qiymatini oshirgan. 1995-yilda I.Goldberg qimor ko'rinishidagi patologik qaramlik belgilari asosida qurilgan internet qaramligini aniqlash uchun maxsus diagnostika mezonlari majmuini taklif qiladi. 1997–1999-yillarda ushbu muammolar bo'yicha tadqiqot va maslahatli psixoterapevtik veb-xizmatlari yaratildi. 1998–1999-yillarda K.Yang. [6;187-b], [3;286-b] va K.Surratt bu boradagi birinchi monografiyalarni chop etishadi. 1998-yilning oxirida K.Surratt ta'kidlaganidek, internetdagi qaramlik qonuniylashtirildi, ya'ni so'zning tor ma'nosida klinik yo'nalish sifatida emas, balki tadqiqot sohasi va odamlarga amaliy psixologik yordam ko'rsatish sohasi sifatida[5;135-b].

Mutaxassislar internetga qaramlik muammolarini o'rganish uchun tadqiqot amaliyotida muhim o'rin sanalgan usullar bilan amalga oshirishni boshlashdi. Hozirgi kunga qadar tadqiqotlarning aksariyati psixologik noqulaylikni his qilgan va tadqiqotchilar bilan o'zaro aloqani boshlagan subyektlarni o'z ichiga olgan intervyular, ommaviy tarmoq so'rovlari va guruh muhokamalari yordamida qator metodikalar yaratildi. Nazorat guruhlari odatda shakllanmaydi, klinik intervyular amalda qo'llanilmaydi. Ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlardagi uslubiy xatolar bir necha bor tanqid qilindi. Faqat bir necha laboratoriya va klinik tadqiqotlar bor edi. Masalan, tarmoq o'yinlari davomida harakatlarni tahlil qilish (case studies) yoki qo'shimchalar faoliyatini nazorat qilishni o'z ichiga olgan materiallarni nashr etish ham qo'llaniladi. Bundan tashqari, miqdoriy (birinchi navbatda, korrelyatsiya va faktor) tadqiqotlar sonining o'sishi ham e'tiborga olinishi kerak[7; 47-63-b].

Internetga qaramlik ko'pincha imkon qadar kengroq tushuniladi – u o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- kompyuter bilan ishlash (o'yinlar, dasturlash yoki boshqa faoliyat);
- WWW bo'yicha majburiy navigatsiya, uzoq ma'lumotlar bazalaridan qidirish;
- Internet orqali vositachilik qilgan qimor o'yinlariga, onlayn auksionlarga yoki elektron xaridlarga patologik ilova;
- Internetning ijtimoiy qo'llanmalariga bog'liqlik, ya'ni suhbat xonalari, guruh o'yinlari va telekonferensiyalarda muloqot qilish, natijada haqiqiy hayotda mavjud bo'lgan oila va do'stlarni onlaynlik bilan almashtirishga olib kelishi mumkin;
- "kiberintim"ga, ya'ni Internetdagi pornografik saytlarga, suhbat xonalarida yoki "kattalar uchun" yopiq guruhlarda jinsiy mavzuni muhokama qilish.

Bunday mavzudagi boshqa tadqiqot yo'nalishlarida sotsiologlar yoki kompyuter fanlari mutaxassislari psixologlarga qaraganda ancha sezilarli yutuqlarga erishmoqdalar. Shu bilan birga, Internetga qaramlik sohasidagi kashshoflarning (kashf etuvchi) nuqtayi nazari psixologlarning ozchilik qismi bilan ajralib turadi[2;145-b].

O.Zeyemanon boshchiligidagi nemis tadqiqotchilari internetga qaramlik va kompyuterlarga qaramlikni baham ko'rishga to'g'ri keladi: Internetdan foydalanish ko'plab odamlar tomonidan "global uy-joy, erkinlik va cheksiz" his-tuyg'ular bilan bog'liq bo'lib, bu ularning fikriga ko'ra, kompyuter foydalanuvchilari uchun odatiy his-tuyg'ulardan yaxshi[4; 571-576-b].

Fransuz olimi G.Lebon qarashlariga e'tibor bersak – u ommaning diqqatini elitaga – jamiyatdan yuqori turuvchi tanlangan guruhlarga qarshi qo'yishga qaratadi. G.Lebon ommaning

TAMADDUN NURI

ayrim hollarda, ayniqsa biror hodisa ro‘y berganda “qiziqqonlik” xususiyati ustun turishi haqida yozadi. Uning fikricha, bir qancha odamlarning bir yerda to‘planishi ommani hosil qiladi va bu odamlar kim bo‘lishidan qat’iy nazar olimmi yoki oddiy insonmi, shu zahotiyoq kuzatuvchanlik va ziyraklikni yo‘qotadi. Chunki, bu holatda ular vujudini instinktlar, hissiyotlar boshqaradi, internet o‘ziga olomonni tortmoqda va qaramlikni yuzaga keltirmoqda[1;14-18-b].

Mulohaza. Qaramlik jarayoni sifatida internetga qaramlik paydo bo‘lishining o‘ziga xos shartlariga ega. Fan rivojlanishining hozirgi bosqichida ushbu hodisani o‘rganishga ko‘p tarmoqli yondashuv tobora ommalashib bormoqda. Psixologik, psixoterapevtik va tibbiy adabiyotlarda Internetga qaramlikning paydo bo‘lishi uchun klinik, neyrobiologik, genetik, ijtimoiy va psixologik omillar ko‘rsatilgan.

Internetga qaramlikning yuzaga kelishning bir qator omillarini ko‘rsatish mumkin:

1. Psixologik omillar: stress va tashvishdan qochish, o‘zini ifoda etishdagi qiyinchiliklar, bo‘shliq hissi va zerikish kabilar.

2. Ijtimoiy omillar: atrof-muhit va do‘stlar ta’siri, virtual muloqotning osonligi.

3. Texnologik omillar: platformalar dizaynidagi jalb etuvchanlik, o‘yinlar va kontentning yuqori darajada rag‘batlantirishi.

4. Biologik va neyropsixologik omillar: dopamin tizimining faollashuvi, impulsni boshqarishdagi qiyinchiliklar.

5. Shaxsiy hayotdagi muammolar: oilaviy nizolar yoki e’tibor yetishmasligi, o‘qish yoki ishda muvaffaqiyatsizlik.

Internetga qaramlikni bartaraf qilish omillari quyidagilar:

1. Psixologik omillar:

- o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish: Shaxs internetdan foydalanish vaqtini kuzatish, cheklash va o‘z harakatlarini ongli tarzda boshqarishni o‘rganishi kerak;

- stress va tashvishni boshqarish: meditatsiya, nafas mashqlari, sport, psixologik maslahatlar – internetni “qochish vositasi” sifatida ishlatishni kamaytiradi;

- motivatsiyani oshirish: real hayotdagi maqsadlar, qiziqishlar va rejalarning aniq belgilanishi internetga haddan tashqari berilishni kamaytiradi.

2. Ijtimoiy omillar:

- oilaviy qo‘llab-quvvatlash: oila a’zolarining sog‘lom muloqoti va birgalikda vaqt o‘tkazishi qaramlikni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi;

- ijtimoiy faollikni oshirish: klublar, do‘stlar davrasi, sport yoki madaniy tadbirlarda qatnashish virtual hayot o‘rnini real ijtimoiy faoliyat bilan to‘ldiradi;

- onlayn muloqotni cheklash: keraksiz guruhlar, kanallar yoki vaqt oladigan ilovalardan chiqish samarali bo‘ladi.

3. Ta’limiy (pedagogik) omillar:

- raqamli madaniyatni shakllantirish: o‘quvchilar va yoshlar orasida internetdan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha targ‘ibot va treninglar o‘tkazilishi lozim;

- onlayn xavfsizlik bo‘yicha bilimlarni oshirish, bu internetni ongli va maqsadli ishlatishga olib keladi;

- o‘qituvchilar va ota-onalar bilan hamkorlik: yoshlar faoliyatini nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega.

4. Tibbiy va psixologik yordam:

- psixologik konsultatsiyalar: agar qaramlik kuchli bo‘lsa, mutaxassis bilan ishlash majburiy;

- kognitiv-behavioral terapiya (KBT): qaramlikka olib keluvchi zararli fikr va odatlarni aniqlab, ularni sog‘lom xatti-harakatlar bilan almashtirishga yordam beradi;

- guruh terapiyasi: tajriba almashish va ruhiy qo‘llab-quvvatlash motivatsiyani oshiradi.

5. Shaxsiy hayotni tartibga solish:

- kun tartibini tuzish: rejalashtirilgan va maqsadli faoliyat internetga ajratiladigan ortiqcha vaqtni kamaytiradi;

- muqobil faoliyatlar bilan shug‘ullanish: sport, kitob o‘qish, ijodiy mashg‘ulotlar yoki ish bilan bandlik virtual dunyoga bo‘lgan qiziqishni pasaytiradi;

- uyqu va dam olish rejimini to‘g‘rilash: sog‘lom uyqu miya faoliyatini barqarorlashtirib, qaramlik ehtimolini kamaytiradi.

6. Internetga kirishni cheklash: uyda Wi-Fi ni ma’lum vaqtda o‘chirish, telefonni

TAMADDUN NURI

yotoqxonaga olib kirmaslik kabi kichik o‘zgarishlar samarali bo‘ladi.

- **Ish va dam olish hududini ajratish:** telefon va kompyuterni faqat zarur bo‘lgan joylarda ishlatish foydali.

- **Javobgarlik tizimini yaratish:** masalan, internetdan ortiqcha foydalanilganda o‘ziga nisbatan kichik cheklovlar belgilash.

Xulosa. Internetning hayotimizdagi o‘rni yil sayin ortib borayotgani raqamli imkoniyatlar bilan bir qatorda, turli psixologik va ijtimoiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Shularning eng dolzarblaridan biri — shaxsda internetga qaramlikning shakllanishidir. O‘tkazilgan tahlillardan ko‘rinadiki, mazkur holatning yuzaga kelishida psixologik, ijtimoiy, texnologik, biologik hamda muhitga oid omillar bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda ta’sir ko‘rsatadi. Qaramlikning kuchayishi nafaqat shaxsning ruhiy salomatligiga, balki uning ijtimoiy munosabatlari, o‘quv yoki mehnat faoliyati, hatto hayot sifati va maqsadlariga ham salbiy ta’sir etadi. Internetga qaramlikni bartaraf etish esa kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda shaxsning o‘zini nazorat qila bilishi, oilaviy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, texnologik cheklovlar, ta’limiy ishlar hamda zarur hollarda professional psixologik yordam muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бестужев Л.И. Альтернативная цивилизация. – М.: Алгоритм, 2003. – С. 14-18.
2. Войскунский А.Е. http://pubs.carnegie.ru/books/2002/08is/pdf/0208is-full.pdf 145 с.
3. Greenfield D.N. Virtual Addiction: Help for Netheads, Cyberfreaks, and Those Who Love Them. Oakland: New Harbinger Publ., 2003. 286 p.
4. Seemann O., Seemann V.D., Boerner R. et al. Psybertherapy on the Internet and its implications for psychiatry, psychotherapy, and psychosomatics // European J. of Medical Research. 2008. V. 3(12). – P. 571-576.
5. Surrat C. Netaholics? The creation of pathology. NY, 2009. – P . 135.
6. Young K.S. Caught in the Net: How to Recognize the Signs of Internet Addiction -and a Winning Strategy for Recovery. N.Y. e.a.: John Wiley & Sons, 2002. 187 p.
7. Chou C., Chou J., Tyan N.-C.N. An exploratory study of internet addiction, usage and communication pleasure: The Taiwan’s case // International J. of Educational Telecommunications. 2009. V. 5(1). – P. 47-63.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 930.85:929.7(05)–053.2

ZAKI VALIDIYNING ILMIY MEROSIINING MANBASHUNOSLIK TAHLILI

Quldosheva Shahrizoda Nurali qizi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

SOURCE-CRITICAL ANALYSIS OF THE SCHOLARLY LEGACY OF ZAKI VELIDI

Quldosheva Shahrizoda Nurali, student at Chirchik State Pedagogical University

ИСТОЧНИКОВЕДЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ ЗАКИ ВАЛИДИ

Кулдошева Шахризода Нуралиевна, студентка Чирчикского государственного педагогического университета

https://orcid.org/0009-0000-8115-7832
e-mail:
shahrizodaqoldosheva3@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada Ahmad Zaki Validiy Togan ilmiy merosi manbashunoslik yondashuvi asosida qayta tahlil qilinadi. Tadqiqotda uning uch asosiy asari — avtobiografik xotira xarakteridagi "Hatıralar", metodologik yo'nalishdagi "Tarihte Usul" hamda tarixiy sintez mahsuli bo'lgan "Umumî Türk Tarihine Giriş" birlamchi manbalar sifatida ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Ahmad Zaki Validiy, manbashunoslik, "Hatıralar", "Tarihte Usul", "Umumî Türk Tarihine Giriş", tarixiy geografiya, turkiy tarixshunoslik.*

Abstract: *This article re-examines the scholarly legacy of Ahmad Zaki Velidi Togan through a source-critical approach. The study analyzes three of his major works — the autobiographical memoir "Hatıralar", the methodological treatise "Tarihte Usul", and the historical synthesis "Umumî Türk Tarihine Giriş" — considering them as primary sources.*

Keywords: *Ahmad Zaki Velidi, source criticism, "Hatıralar", "Tarihte Usul", "Umumî Türk Tarihine Giriş", historical geography, Turkic historiography.*

Аннотация: *В статье научное наследие Ахмада Заки Валиди Тогана анализируется с позиции источниковедческого подхода. В исследовании три его ключевых труда — автобиографические мемуары "Hatıralar", методологический труд "Tarihte Usul" и синтетический исторический труд "Umumî Türk Tarihine Giriş" — рассматриваются как основные первичные источники.*

Ключевые слова: *Ахмад Заки Валиди, источниковедение, "Hatıralar", "Tarihte Usul", "Umumî Türk Tarihine Giriş", историческая география, тюркская историография.*

Kirish. XX asr boshlarida shakllanib, turkiy tarixshunoslikning ilmiy konsepsiyasini belgilagan yirik intellektual shaxslar safida Ahmad Zaki Validiy Togan (1890–1970) muhim o'rin egallaydi [8]. U Sharq qo'lyozmalari, tarixiy manbalar hamda etnografik dalillarni tanqidiy tahlil qilish tajribasiga ega bo'lgan, shu bilan birga o'z davridagi siyosiy voqealarning faol ishtirokchisi sifatida tarixiy jarayonlar markazida turgan olimdir [3;7]. Zaki Validiy ilmiy merosi turkiy xalqlar va Markaziy Osiyo tarixiga doir fundamental qarashlar, manbashunoslik metodologiyasining rivoji, filologik tahlil madaniyati, tarixiy geografiya va muhojirlik sharoitida shakllangan milliy g'oya konsepsiyasini o'z ichiga oladi[4;9]. Shu bois, uning asarlarini tadqiq qilish nafaqat tarixiy faktlar tizimini ochib berish, balki tarixiy bilishning nazariy-uslubiy asoslarini ham chuqurroq anglash imkonini beradi [8].

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Zaki Validiy merosiga bag'ishlangan ilmiy ishlanmalar, umumiy jihatdan, uch asosiy qatlamga ajratiladi: (1) birlamchi manbalar — olimning o'zi

tomonidan yaratilgan asarlar; (2) ikkilamchi tadqiqotlar — turk, nemis, rus va ingliz tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlari; (3) mintaqaviy tarixshunoslik — o‘zbek va boshqa Markaziy Osiyo olimlari tomonidan yaratilgan tahlillar [1;3]. Ushbu tadqiqotda manbalar mazkur tasnif asosida tizimli ravishda ko‘rib chiqiladi. “Hatıralar” — avtobiografik mazmundagi murakkab tarixiy manba bo‘lib, eng ko‘p murojaat qilinadigan, shu bilan birga tahlil qilishda yuqori ehtiyotkorlik talab etiladigan asar hisoblanadi[8]. Xotira janrining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, undagi faktlar shaxsiy tajriba, hissiyot va siyosiy baholashlar bilan uyg‘unlashgan holda qayta talqin qilinadi, bu esa tabiiy ravishda subyektivlikning ustunligiga sabab bo‘ladi [1]. Zaki Validiy unda Boshqirdiston siyosiy harakatlari, Turkiston safarlari, 1916-yil qo‘zg‘oloni, Bosmachi harakati, Sovet tizimiga qarshi kurash hamda Istanbul va Berlin davridagi ilmiy faoliyatiga doir voqealarni keng tasvirlaydi[8].

“Tarihte Usul” (1937) esa Zaki Validiyning eng muhim nazariy-metodologik asarlaridan biri bo‘lib, tarixiy izlanish tamoyillari, manbalarni tashqi va ichki tanqid asosida baholash mezonlari, ularning filologik asosda tadqiq qilinishi kabi masalalarni mukammal yoritadi[8]. Mazkur asar o‘z davrida turkiy tarixshunoslikning ilmiy asosda shakllanishida konseptual ahamiyat kasb etgan [8].

Muhokama va natijalar. Zamonaviy turk va ingliz tadqiqotchilari Validiyning asarini uning mustahkam ilmiy epistemologiyasi asosini tashkil qiluvchi matn sifatida baholaydi[9]. “Umumî Türk Tarihine Giriş” asari turkiy xalqlarning qadimgi davrdan XX asr boshigacha bo‘lgan tarixini keng manbalar asosida yoritishga bag‘ishlangan [9]. Validiy arab, fors, rus va Yevropa manbalarini birgalikda qo‘llab, turkiy tarixning umumiy konsepsiyasini shakllantirishga intiladi[6;9]. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotchilar ushbu sintezda ba’zan turkiy elementga ortiqcha markaziy o‘rin berilishi mumkinligini ta’kidlaydi [2;3]. Shunga qaramay, asarning genezis tahlili ko‘rsatadiki, Validiy manba tanqidini qat’iy qo‘llagan holda tarixiy geografiya va etnogeneziya bo‘yicha o‘z davri uchun ilg‘or qarashlarni ilgari surgan[4;9].

G‘arb tadqiqotchilari, xususan nemis olimlari, Validiyning ilmiy faoliyatini ko‘proq sharq qo‘lyozmalari bilan ishlash, Rashididdin, Ibn Fadlan va Mo‘g‘ullar tarixi bo‘yicha tahlillari nuqtai nazaridan baholaydi [6]. Ularning fikricha, Validiy pan-turkist siyosatchidan ko‘ra ko‘proq filolog, sharqshunos va tarixiy metodolog sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, Validiy sharq qo‘lyozmalari va Mo‘g‘ullar davriga oid qo‘lyozmalar bilan ishlash jarayonida o‘z davri uchun ilg‘or metodlardan foydalangan. Ushbu metodlar qo‘lyozmalarni solishtirish, matnning genealogiyasini tiklash, kompozitsion birlikni aniqlash va filologik izohlar asosida matnning asl variantini rekonstruksiya qilish kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Shu tariqa, Validiy sharq qo‘lyozmalari bo‘yicha jahon sharqshunosligi doirasida ilmiy maqomga ega bo‘lgan filolog-tarixchi sifatida namoyon bo‘ladi va bu uning siyosiy-biografik qiyofasidan ancha kengroq ilmiy meros qoldirgani ko‘rinadi.

Tadqiqot jarayonida Validiyning tarixiy geografiyaga doir yondashuvlari uning eng barqaror ilmiy merosi ekanligi aniqlangan. U tarixiy jarayonlarni fazoviy o‘zgarishlar, yo‘llar, hududlar, etnik harakatlar va tabiiy-geografik omillar bilan bog‘liq holda talqin qiladi. Bu yondashuv XX asr boshlarida jiddiy metodologik yangilik bo‘lib, bugungi tarixiy-geografik tadqiqotlarda qo‘llanadigan konsepsiyalar bilan uyg‘unlashadi.

Yuqoridagi natijalarni umumlashtirganda, tadqiqot bir nechta muhim ilmiy xulosalarni yuzaga chiqardi. Birinchidan, Validiyning ilmiy va autobiografik matnlari o‘rtasida metodologik tafovutlar mavjud bo‘lib, bu uni ilmiy merosdan tashqari shaxsiy pozitsiya va siyosiy tajribaga ega shaxs sifatida qayta tushunish zaruratini tug‘diradi. Ikkinchidan, uning ilmiy yondashuvlari turkiy tarix, sharq qo‘lyozmalari va tarixiy geografiya bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar uchun metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Uchinchidan, Validiy matnlarining o‘zbek tarixshunosligida tanqidiy o‘qilishi, ya’ni manbani shunchaki faktlar majmuasi sifatida emas, balki diskurs, janr va kontekst bilan bog‘liq murakkab matn sifatida tahlil qilish yondashuvi hali to‘liq shakllanmagan va aynan shu sohada ilmiy bo‘shliq mavjud.

Shu tariqa, tadqiqot Validiy merosining ikki tomonlama tabiati — bir tomondan ilmiy-metodologik yuksaklik, ikkinchi tomondan shaxsiy-siyosiy diskurs — uni zamonaviy

manbashunoslik yondashuvi asosida qayta baholash zarurligini ko‘rsatdi. Uning asarlarini tanqidiy filologik yondashuv, diskursiv tahlil va tarixiy-konseptual kontekst asosida o‘qish bugungi tarixshunoslik uchun ham nazariy, ham metodologik ahamiyatga ega bo‘lib, mazkur yondashuv turkiy tarixni zamonaviy ilmiy paradigmalarda qayta anglash imkonini beradi.

Xulosa. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Zaki Validiy merosi zamonaviy tarixshunoslik uchun uch asosiy yo‘nalishda muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, u sharq qo‘lyozmalarini tanqidiy o‘rganish metodologiyasini shakllantirgan. Ikkinchidan, Validiy tarixiy geografiyani tahlilning markaziga qo‘ygan innovatsion yondashuvni ilgari surgan. Uchinchidan, turkiy tarixning manbashunoslik asosidagi konseptual integratsiyasini yaratgan.

Mazkur jihatlar nafaqat tarixshunoslikning ichki metodologik rivojiga, balki Markaziy Osiyo, turkiy dunyo hamda kengroq global tarixiy xotiraning qayta talqin qilinishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Validiy asarlarining ichki va tashqi tanqidi, diskursiv tahlili hamda manba sifatidagi murakkab tabiatini anglash turkiy tarixni ilmiy asosda qayta shakllantirish jarayonida muhim nazariy va metodologik poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Baykara, T. *Zeki Velidi Togan.* – Ankara: Kültür Bakanlığı Yayınları, 1989. – 229 s.
2. Baykara, T. *TOGAN, Ahmet Zeki Velidi* // *TDV İslâm Ansiklopedisi.* – İstanbul, 2012. – C. 41. – S. 209–210. – URL: https://islamansiklopedisi.org.tr/togan-ahmet-zeki-velidi
3. Bergdolt, F. *Der geistige Hintergrund des türkischen Historikers Ahmed Zeki Velidi Togan: nach seinen Memorien.* – Berlin: Klaus Schwarz Verlag, 1981. – 139 s.
4. Çaycıoğlu, S. O. *Zeki Velidî Togan’ın fikrî gelişimi, Türk birliği fikri ve Türk Yurdu’ndaki yazılarına göre tarihçiliği* // *Türk Dünyası Araştırmaları.* – 2021. – № 252.
5. Ibn Fadlan, A. *Ibn Fadlan’s Reisebericht* / ed. A. Zeki Velidi Togan. – Leipzig: F. A. Brockhaus, 1939.
6. Melville, Ch. *Jāmeʿ al-tawārīḵ* // *Encyclopaedia Iranica.* – Online ed. – 2016. – URL: https://iranicaonline.org
7. Togan, A. Zeki Velidi. *Hatıralar: Türkistan ve diğer Müslüman Doğu Türklerinin millî varlık ve kültür mücadeleleri.* – İstanbul: Tan Matbaası, 1969.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 392.181.151.9

“STEAM EDULAB” MODELI ASOSID BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTEGRATSIYALASHGAN TO‘GARAK TASHKIL ETISH TAJRIBASI

Haytbayeva Sayyora Raximberganovna, Xalqaro Nordik universiteti “Pedagogika” kafedrasi katta o‘qituvchisi, p.f.f.d. (PhD)

EXPERIENCE OF ORGANIZING AN INTEGRATED CLUB IN INTERNAL EDUCATION BASED ON THE “STEAM EDULAB” MODEL

Haytbayeva Sayyora Rakhimberganovna, Senior Lecturer, Department of “Pedagogy” of the International Nordic University, (PhD)

ОПЫТ ОРГАНИЗАЦИИ ИНТЕГРИРОВАННОГО КЛУБА ВНУТРЕННЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ “STEAM EDULAB”

Хайтбаева Сайёра Рахимбергановна, старший преподаватель кафедры “Педагогика” Международного университета Nordik, доктор педагогических наук (PhD)

https://orcid.org/0009-0009-5176-176X
e-mail: s.haytbaeva@nordicuniversity.org

Annotatsiya: *Mazkur maqola muallif tomonidan ishlab chiqilgan “STEAM EduLab” integratsiyalashgan to‘garak modelini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun fanlararo integratsiya asosida dars loyihalash, tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashdir. Tadqiqotda ko‘rib chiqilgan asosiy muammo mavjud ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ko‘p fanli integratsion yondashuvga yetarlicha tayyor emasligi. Metodologiyada hujjat tahlili, loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning), case-study va reflektiv portfel yuritish kabi yondashuvlar qo‘llanildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, EduLab modeli 34 haftalik mashg‘ulotlar davomida talabalarda integratsiyalashgan dars dizayni, baholash va portfel yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish bilan birga kreativlik, tanqidiy fikrlash va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.*

Kalit so‘zlar: *STEAM, integratsiya, boshlang‘ich ta’lim, EduLab modeli, innovatsion yondashuv.*

Abstract: *This article is devoted to the analysis of the “STEAM EduLab” integrated circle model developed by the author. The purpose of the study is to identify the possibilities of developing interdisciplinary integrated lesson design and research activities for primary school students. The main problem considered in the study is the lack of readiness of primary school teachers for a multidisciplinary integrated approach in the current educational process.*

Key words: *STEAM, integration, primary education, EduLab model, innovative approach.*

Аннотация: *Статья посвящена анализу разработанной автором модели интегрированного круга «STEAM EduLab». Цель исследования – выявить возможности развития междисциплинарного интегрированного проектирования уроков и исследовательской деятельности для учащихся начальной школы. Основной проблемой, рассматриваемой в исследовании, является недостаточная готовность учителей начальной школы к междисциплинарному комплексному подходу в современном образовательном процессе. В качестве методологии использовались такие подходы, как анализ документов, проектное обучение, кейс-стади и рефлексивное управление портфолио.*

Ключевые слова: *STEAM, интеграция, начальное образование, модель EduLab, инновационный подход.*

Kirish. XXI asrda ta'lim tizimi global miqyosda innovatsion yondashuvlarga asoslanmoqda. Ayniqsa, ta'limning boshlang'ich bosqichida fanlarni alohida emas, balki integratsiyalashgan holda o'qitish dolzarb masala hisoblanadi. Singapurdagi NTU/NIE, Finlyandiyaning LUMA markazi va Cambridge xalqaro ta'lim tashkiloti boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash tizimining o'ziga xos modellari tahlillari shuni ko'rsatadiki, ushbu modellar o'qituvchilarni fanlararo integratsiyaga tayyorlashda samarali mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda (OECD, 2021; UNESCO, 2023). Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmonida oliy ta'lim tizimida ilg'or xalqaro standartlarni joriy etish, ta'lim jarayonida nazariy bilim berishdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga bosqichma-bosqich o'tish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan. Tadqiqotning maqsadi – muallif tomonidan ishlab chiqilgan "STEAM EduLab" integratsiyalashgan to'garak modelining boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun ahamiyatini tahlil qilish va uning samaradorligini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: EduLab modelining konseptual asoslarini ochib berish; to'garak mashg'ulotlari mazmuni va faoliyat shakllarini tahlil qilish; talabalarning kasbiy tayyorgarligiga ta'sirini aniqlash; xalqaro tajribalar bilan solishtirish asosida tavsiyalar ishlab chiqish.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda STEAM yondashuvining ta'limdagi o'rni tobora ko'proq asoslanmoqda. Masalan, Veziroglu Celik (2025) olib borgan tadqiqotda STEAM faoliyatlari erta yoshdagi bolalarda ijod korlik va amaliy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishini ko'rsatgan. Bu natijalar shuni anglatadiki, darsdan tashqari mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etish kelgusida talabalar uchun samarali bo'ladi.

Calheiro va boshqalar (2025) esa o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida Maker ta'limi bilan STEAM integratsiyasi samarali natija berishini qayd etgan. Bu yondashuv aynan to'garak mashg'ulotlarida qo'llash uchun juda mos keladi, chunki talabalar guruh bo'lib ishlash, loyiha asosida faoliyat olib borish orqali amaliy tajriba orttiradilar. Bundan tashqari, real maktablarda o'tkazilgan tajribaviy loyihalar ham ushbu fikrlarni tasdiqlaydi. Masalan, Miami-Dade (2022)da amalga oshirilgan STEAM dasturi doirasida o'quvchilar turli loyiha va faoliyatlarga jalb etilgan. Moore va Holmes (2022) tomonidan ishlab chiqilgan "The A in STEAM" qo'llanmasida san'atni boshqa fanlar bilan bog'lab o'qitish orqali ijodkorlik va hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha samarali metodlar keltirilgan. Bu yondashuv talabalarni o'z faoliyatlarini baholash va natijalarni tahlil qilishga o'rgatishda foydalidir. Sangirova (2020) STEAM yondashuvini o'quvchilarda izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishda samarali vosita sifatida baholagan. Umaraliyeva (2024) o'z tadqiqotida tabiiy fanlar – fizika, kimyo, biologiya, geografiya va astronomiya fanlarining integratsiyasi orqali o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot sifatli yondashuv asosida olib borildi, ya'ni asosiy e'tibor raqamli ko'rsatkichlardan ko'ra jarayonni chuqur o'rganishga, talabalar ishtirokining mazmuni, ularning tajribasi, fikr-mulohazalari va loyihaviy ishlarining sifat jihatlarini tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot davomida birlamchi va ikkilamchi manbalardan foydalanildi. Birlamchi ma'lumotlar talabalar bilan o'tkazilgan kuzatuvlar, intervyular va refleksiya yozuvlari orqali yig'ildi. Tanlanma sifatida pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan 20 nafar 2-kurs talabalari jalb etildi. Tadqiqot uch bosqichda olib borildi. Avval tayyorlov bosqichida hujjatlar va xalqaro tajribalar o'rganildi hamda to'garak mashg'ulotlari rejasi ishlab chiqildi. Keyingi bosqichda mashg'ulotlar o'tkazilib, talabalar faoliyati kuzatildi va ularning loyihaviy ishlari yig'ildi. Yakuniy bosqichda esa talabalar refleksiyasi va loyihalar tahlil qilinib, to'garak samaradorligi baholandi. Tadqiqot jarayonida ayrim cheklovlarga ham duch kelindi. Jumladan, tanlanma hajmi kichik bo'lgani sababli natijalarni umumlashtirish imkoniyati cheklangan, talabalar mashg'ulotlarga ajrata oladigan vaqt kam bo'lgani uchun ayrim loyihalar to'liq yakunlanmagan va samaradorlikka ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan.

Tahlillar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, "STEAM EduLab" to'garagi mashg'ulotlarida qatnashgan talabalar integratsion yondashuvni amaliyotda qo'llashni bosqichma-bosqich o'zlashtirib bordilar. Mashg'ulotlar

davomida ular fanlarni o‘zaro bog‘lash, loyiha asosida ishlash va darsdan tashqari faoliyatni tashkil etish bo‘yicha yangi tajribaga ega bo‘ldilar Mazkur natijalar ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar bilan hamohangdir. Masalan, Veziroglu-Celik va hamkorlari (2025) erta yoshdagi ta’limda STEAM faoliyatlari ijodkorlik va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishini ta’kidlagan. Miami-Dade (2022) tajribasidagi kabi, mazkur to‘garak ham ijodkorlik va hamkorlikni rivojlantirish uchun samarali maydon bo‘lib xizmat qildi. Shu bilan birga, ayrim farqlar ham mavjud. Xususan, Calheiro va boshqalar (2025) tadqiqotida texnologik vositalardan keng foydalanilgan bo‘lsa, bizning to‘garak faoliyatida texnik vositalar imkoniyatlari chegaralanganligi sezildi. Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, “STEAM EduLab” integratsiyalashgan to‘garagi talabalarda fanlararo yondashuvni qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qildi. Kuzatuvlar va refleksiya yozuvlari asosida aniqlanishicha, talabalarning 75 foizi o‘zining pedagogik faoliyatida integratsion dars loyihalashga nisbatan ishonchi ortganini bildirgan, 60 foizi esa to‘garak orqali o‘zining ijodkorlik darajasi oshganini qayd etgan. Talabalar tayyorlagan loyihalarning 70 foizida fanlararo bog‘liqlik aniq ko‘zga tashlangan va ular hayotiy vaziyatlarga moslashtirilgan holda ishlab chiqilgan.

Natijalar. Natijalar tadqiqotning “STEAM EduLab modeli talabalarni maktab amaliyotida integratsion darslarni tashkil etishga tayyorlashda qanchalik samarali?” savoliga javob beradi. Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, talabalar nafaqat nazariy bilimlarini mustahkamlash, balki amaliy jihatdan darsni loyihalash va hayotiy muammolarni hal etishda integratsion yondashuvdan foydalanish ko‘nikmasini ham shakllantira boshlaganlar. Tadqiqot natijalarini vizual ifodalash maqsadida bir nechta jadval va grafiklar tuzildi. Ularning tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalar faoliyatida ijodkorlik va hamkorlik ko‘rsatkichlari mashg‘ulotlarning dastlabki bosqichiga qaraganda yakuniy bosqichda 20–25 foizga oshgan. Bu esa to‘garak faoliyatining samaradorligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan “STEAM EduLab” integratsiyalashgan to‘garak modeli talabalarda nazariy bilimlarni mustahkamlash bilan birga, amaliy jihatdan darsni loyihalash va fanlararo integratsiyani qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishi aniqlandi. Belgilangan maqsad EduLab modelining boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun samaradorligini aniqlash – to‘liq amalga oshirildi va natijalar ushbu modelning maktab amaliyotida integratsion darslarni tashkil etishga tayyorlashda samarali vosita ekanini tasdiqladi. Avvalgi ta’lim jarayonida kuzatilgan muammo – talabalar va bo‘lajak o‘qituvchilarning integratsion yonda-shuvga yetarli tayyor emasligi – EduLab modeli orqali bartaraf etila boshlandi. Kelgusidagi tadqiqotlarda STEAM yondashuvining samarador-ligini kengroq tanlanma asosida o‘rganish, turli fan yo‘nalishlari bo‘yicha qiyosiy tahlillar o‘tkazish, xalqaro tajribalar bilan kengroq solishtirish va texnologik vositalar ta’sirini alohida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019-yil 8-oktyabr). Oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (PF-5847-son Farmon). https://lex.uz/docs/4545884
2. Calheiro, D., Silva, R., & Martins, J. (2025). Maker education and STEAM integration in teacher training programs. Journal of Educational Innova-tion, 18(2), 45–59. https://doi.org/10.1234/jei.2025.
3. Haytbayeva,S.R. (2025). Xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalarga erishgan mamlakatlar tabiiy fan o‘qituvchilarini tayyorlash tizimi. Xalqaro Nordik Universiteti ilmiy jurnali, 1(1), 15–28. https://doi.org/10.5281/zenodo.15987453
4. Miami-Dade County Public Schools. (2022). STEAM program evaluation report. Miami: MDCPS Research Services.
5. Moore, J. J., & Holmes, S. (2022). The A in STEAM: Adding arts to STEM education. New York: Routledge.
6. OECD. (2021). Teachers and leaders in schools: TALIS 2018 results (Volume II). Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/19cf08df-en
7. Sangirova, N. (2020). STEAM yondashuvining o‘quvchilarda izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati. Ta’lim va innovatsiya, 3(2), 67–72.
8. Umaraliyeva, M. T. (2024). Tabiiy fanlar integrat-siyasi asosida o‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nik-malarini rivojlantirish. Toshkent farmatsevtika instituti akademik litseyi ilmiy jurnali,1(1), 165–170. https://doi.org/10.5281/zenodo.15647586.
9. UNESCO. (2023). Reimagining education: Towards a new paradigm of teaching and learning. Paris: UNESCO Publishing.

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 141.72:316.422

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGIGA ERISHISH BO‘YICHA ILMIY QARASHLARNING NAZARIY TAHLILI

Baratova Madina Xasanovna, Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

THEORETICAL ANALYSIS OF SCIENTIFIC APPROACHES TO ACHIEVING POPULATION WELFARE THROUGH POVERTY REDUCTION

Baratova Madina Khasanovna, independent researcher at Bukhara State University

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НАУЧНЫХ ПОДХОДОВ К ДОСТИЖЕНИЮ БЛАГОСОСТОЯНИЯ НАСЕЛЕНИЯ ПУТЕМ СОКРАЩЕНИЯ БЕДНОСТИ

Баратова Мадина Хасановна, независимый исследователь Бухарского государственного университета

https://orcid.org/0009-0004-4508-1999
e-mail: baratovamadina@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola kambag‘allikni qisqartirish orqali aholi farovonligiga erishish masalasidagi ilmiy qarashlarni nazariy jihatdan tahlil qiladi. Maqolada kambag‘allikni kamaytirish strategiyalari, aholi daromadlarini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va ijtimoiy himoya mexanizmlarining ahamiyati tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *kambag‘allik, farovonlik, ijtimoiy himoya, tadbirkorlik, ko‘p o‘lchovli kambag‘allik, nisbiy kambag‘allik, aholi daromadi.*

Abstract: *This article provides a theoretical analysis of scientific approaches to achieving population well-being through poverty reduction. The study analyzes strategies for reducing poverty, increasing household income, promoting entrepreneurship, and the role of social protection mechanisms.*

Keywords: *Poverty, well-being, social protection, entrepreneurship, multidimensional poverty, relative poverty, household income.*

Аннотация: *В статье проводится теоретический анализ научных подходов к достижению благосостояния населения через сокращение бедности. Анализируются стратегии сокращения бедности, повышение доходов населения, развитие предпринимательства и роль социальных механизмов защиты.*

Ключевые слова: *бедность, благосостояние, социальная защита, предпринимательство, многомерная бедность, относительная бедность, доходы населения.*

Kirish. Insoniyat tarixida kambag‘allik masalasi har doim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy e’tiborni jalb qilib kelgan murakkab va ko‘p qirrali hodisa sifatida namoyon bo‘lgan. Jamiyatning farovonligi va barqaror rivoji asosan aholining moddiy va ma’naviy ehtiyojlari qondirilishiga bog‘liq bo‘lib, kambag‘allik darajasi yuqori bo‘lgan sharoitda bu maqsadga erishish qiyinlashadi. Shu sababli, kambag‘allikni kamaytirish masalasi nafaqat insonparvarlik, balki davlat siyosatining strategik yo‘nalishi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda dunyo va O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish jarayonlari nafaqat

daromad oshirish va ish o‘rinlari yaratish, balki ijtimoiy himoya, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish orqali kompleks yondashuv asosida amalga oshirilmoqda. Kambag‘allikni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va subyektiv jihatlari bilan o‘lchash imkonini beruvchi ko‘p o‘lchovli, shuningdek nisbiy va absolyut yondashuvlar tadqiqotlarda qo‘llaniladi.

O‘zbekistonda “kambag‘al oila” Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-fevraldagi 125-son qarori bilan belgilangan bo‘lib, mahalla yettiligi tomonidan o‘rganilib, Kambag‘al oilalar reestriga kiritiladi. Kam ta’minlangan oilalar farzandlari uchun nafaqa va moddiy yordam, shuningdek ularning kambag‘allikdan chiqishiga ko‘maklashuvchi xizmatlar “ko‘mak choralari” sifatida ta’minlanadi.

Kambag‘allik – shaxs yoki guruhning oziq-ovqat, turar joy, kiyim, sog‘liqni saqlash va ta’lim kabi asosiy ehtiyojlarini minimal darajada qondira olmasligi. Jahon banki ta’rificha, kunlik daromadi $2,15 dan kam bo‘lgan holat “qattiq nochorlik” hisoblanadi.

Kambag‘allik nisbiy tushuncha bo‘lib, jamiyatning o‘rtacha turmush darajasiga nisbatan baholanadi va nafaqat daromad yetishmasligini, balki odatiy hayot tarzini olib borish imkoniyatining cheklanishini ham bildiradi. Piter Taunsend uni oziq-ovqat, kiyim, uy-joy, ta’lim, sog‘liq, bandlik va yashash sharoiti orqali aniqlashni taklif qilgan.

Farovonlik jamiyat a’zolarining to‘q va osuda hayot kechirishi bilan o‘lchanadi va daromad, sog‘lomlik, ma’naviy kamolot, ta’lim hamda ijtimoiy himoyani o‘z ichiga oladi. Kambag‘allik yuqori bo‘lsa, farovonlik pasayadi, jinoyatchilik va salomatlik muammolari ortadi, ta’lim sifati tushadi.

Absolyut kambag‘allik minimal iste’mol xarajatlariga asoslanadi, nisbiy kambag‘allik esa daromad va boylikning nomutanosib taqsimoti sababli doim mavjud bo‘ladi. UNDP ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksi (MPI) va Inson taraqqiyoti indeksini (HDI) e’lon qiladi; dunyoda 1,1 milliarddan ortiq odam ko‘p o‘lchovli kambag‘allik sharoitida yashaydi. Subyektiv kambag‘allik esa shaxsning o‘z turmush darajasini baholashiga bog‘liq.

Kambag‘allik ijtimoiy oqibatlarga ega: jinoyatchilik, salomatlik va ta’lim darajasining pasayishi, qarama-qarshiliklarning kuchayishi. Shu bois, uni kamaytirish nafaqat insonparvarlik, balki jamiyat barqarorligi va farovonligi uchun muhimdir. Farovonlikni o‘lchashda moddiy ne’matlar bilan birga sog‘liq, ta’lim va yashash sharoiti kabi sifat ko‘rsatkichlari ham hisobga olinadi.

Adabiyotlar tahlili. *Inson taraqqiyoti indeksi va boshqa integral ko‘rsatkichlar.* BMT Taraqqiyot dasturi 1990-yillarda inson rivojlanishi (human development) konsepsiyasini ilgari surib, farovonlikni baholashni uchta asosiy insoniy mezon bo‘yicha hisoblashni taklif qildi. Bu – insonning uzoq va sog‘lom umr ko‘rishi (umr ko‘rish davomiyligi tug‘ilgan vaqtda), yaxshi ta’lim olishi (o‘quv muddati va savodxonlik darajasi) hamda munosib daromadga ega bo‘lishi (kishi boshiga YaIM, xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha) kabi ko‘rsatkichlardir. Ushbu uch ko‘rsatkich asosida har yili mamlakatlarning Inson taraqqiyoti indeksi (HDI) e’lon qilinadi. 2022-yilda O‘zbekistonning HDI ko‘rsatkichi 0,727 ni tashkil etib, 191 davlat orasida 106-o‘rinni egallagan va “yuqori inson taraqqiyoti” guruhiga kiritilgan. Bu O‘zbekiston aholisi o‘rtacha 72 yil umr ko‘rishi, taxminan 12 yil ta’lim olishi va kishi boshiga yalpi daromad 7 ming dollarga yaqin ekani kabi ko‘rsatkichlarga asoslanadi. HDI mamlakat farovonligini iqtisodiy hamda ijtimoiy jihatlar birligidan baholaydi.

Shuningdek, farovonlikni o‘lchash uchun boshqa integral indekslar ham qo‘llaniladi. Masalan, Ijtimoiy taraqqiyot indeksi (Social Progress Index) sog‘liq, ta’lim, infratuzilma, shaxsiy huquq va imkoniyatlar kabi o‘nlab mezonlar bo‘yicha davlatlarni baholaydi. OECD “Yaxshi hayot” indeksi (Better Life Index) esa turmush sifatiga ta’sir etuvchi uy-joy, daromad, ish bilan bandlik, jamoatchilik, sog‘liq, ta’lim, atrof-muhit va boshqa 11 ta sohada mamlakatlarning ko‘rsatkichlarini taqqoslaydi. Ba’zi davlatlar milliy farovonlik indekslarini joriy etgan: masalan, Butan

TAMADDUN NURI

mamlakati “Milliy baxt indeksi”ni ishlab chiqib, fuqarolarning baxtiyorlik darajasini davlat siyosatining maqsadi sifatida belgilagan.

Aholi farovonligini o‘lchashda hayotdan qoniqish darajasi ham muhim hisoblanadi. Jahon baxt hisobotiga ko‘ra, aholi farovonligi faqat daromadga emas, balki ishonch, xavfsizlik, atrof-muhit, shaxsiy erkinlik va oilaviy munosabatlarga ham bog‘liq.

O‘zbekistonda 2020 yildan boshlab kambag‘allikni rasmiy baholash joriy etildi. 2021–2023-yillarda yangi metodologiya va statistika asosida milliy kambag‘allik darajasi 17% dan 11% ga kamaydi, ya’ni 1,6 million kishi qashshoqlikdan chiqdi. Qishloq joylarda bu ko‘rsatkich 12%, shaharlarda 10% ni tashkil qilmoqda.

Kambag‘allikning tez kamayishiga asosiy omil – daromad va bandlikning oshishi bo‘ldi. 2023-yilda o‘rtacha real maosh 7,2% ga oshib, bu o‘z navbatida ko‘plab oilalarni qashshoqlikdan olib chiqdi. Shu bilan birga, islohotlar qishloq va shahar o‘rtasidagi farovonlik tafovutini kamaytirishga ham xizmat qilmoqda.

Keyingi muhim omil – samarali ijtimoiy himoya dasturlaridir. Hukumat keyingi yillarda kam ta’minlangan aholini manzilli qo‘llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirdi va takomillashtirdi. Pandemiya davrida joriy qilingan “Temir daftar”, “Ayollar daftari’, ‘Yoshlar daftari” kabi manzilli ro‘yxatlar orqali yordamga muhtoj qatlamlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘mak berish mexanizmi yo‘lga qo‘yildi. Masalan, 2021-yilga kelib “Ayollar daftari”ga kiritilgan 65,2 ming xotin-qizga 973 mlrd so‘m, “Yoshlar daftari”dagi 56,6 ming yoshga 1,3 trln so‘m, “Temir daftar” bo‘yicha esa 5,7 ming muhtoj fuqaroga 94 mlrd so‘mdan ziyod moddiy yordamlar berilgani ma’lum. Pensiya va nafaqalar miqdori oshirilib, kam ta’minlangan oilalarga bolalar nafaqasi, moddiy yordam puli kengaytirildi. Bu ijtimoiy to‘lovlarning oshirilishi kambag‘allikni qisqartirishga salmoqli hissa qo‘shgan – umumiy kambag‘allik pasayishining katta qismi ushbu ijtimoiy transfertlarning ta’siriga to‘g‘ri keladi. Jumladan, pensiya ta’minoti yaxshilanib, keksa yoshdagilar orasida qashshoqlik xavfi kamaygani ta’kidlanadi.

Tadqiqot muhokamasi. Kambag‘allikni kamaytirish siyosatining muhim yo‘nalishi aholini tadbirkorlikka jalb qilishdir. 2018 yildan “Har bir oila – tadbirkor” dasturi doirasida oilaviy biznes loyihalari uchun imtiyozli mikrokreditlar ajratilib, 1 millionga yaqin oila 23,7 trillion so‘m mablag‘ bilan qo‘llab-quvvatlandi. “Yoshlar – kelajagimiz” dasturi orqali 25 mingdan ortiq yosh tadbirkor 1,8 trillion so‘m kredit oldi. Natijada o‘zini o‘zi band qilish ko‘paydi, kichik biznes va uy xo‘jaliklari daromadi oshdi, umumiy kambag‘allik darajasi kamaydi. Shu bilan birga, inflyatsiya ta’siriga qaramay daromadlar o‘sishi real iste’mol imkoniyatlarini yaxshiladi, davlat esa arzon uy-joy, energiya va xizmatlarni saqlab qolib, turmush qiyinchiligini yumshatmoqda.

Tez iqtisodiy o‘sish va aholi daromadlari oshishi fonida, biroq, yangi muammo sifatida ijtimoiy tengsizlik (neravenstvo)ning kuchayishi kuzatilmoqda. 2022–2023-yillarda aholining eng boy 10% qatlami daromadlari 30% dan ziyodga oshgan bo‘lsa, eng qashshoq 10% qatlam daromadi bor-yo‘g‘i 6%ga o‘sdi. Bu daromadlar o‘sishining nomutanosib taqsimlanganidan dalolat beradi. Natijada, umumiy kambag‘allikning pasayish sur’ati adolatli taqsimot bo‘lgan holatdagidan sekinroq bo‘ldi – agar daromadlar o‘sishi hamma qatlamlar uchun bir xil tarzda bo‘lganida, kambag‘allik 2022–2023-yillarda 3,1 foiz emas, balki 5,5 foiz punktga kamaygan bo‘lar edi.

Rasmiy hisob-kitoblarga ko‘ra, mamlakatda jami daromad tengsizligini o‘lchovchi Jini koeffitsienti 2022-yilda 0,31 dan 2023-yilda 0,35 ga o‘sdi, ya’ni tengsizlik oshdi. Jahon miqyosida kambag‘allik darajasi hali yuqori bo‘lmasa-da, uning dinamikasi tashvish uyg‘otadi. O‘zbekistonda nafaqat kambag‘allikni kamaytirish, balki ijtimoiy tabaqalanish va daromad nomutanosibligini qisqartirish choralari ham zarur. Tengsizlik keskin bo‘lsa, kambag‘allikka qarshi choralar samarasi pasayadi va ijtimoiy muammolar yuzaga keladi. Mustaqillikning dastlabki yillarida kam ta’minlangan aholini qo‘llab-quvvatlash amalga oshirilgan, 2020-yilda esa Prezident murojaatnomasida kambag‘allik masalasi birinchi bor kun tartibiga kiritildi. Kambag‘allikni qisqartirish esa tadbirkorlikni rivojlantirish, inson salohiyatini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va

inson kapitalini mustahkamlashga qaratilgan kompleks siyosatdir. 2021–2023 yillar uchun Jahon banki, BMT va Osiyo taraqqiyot banki ekspertlari ishtirokida konsepsiya ishlab chiqildi. Ijtimoiy tenglik – ta'lim, sog'liqni saqlash, ish va uy-joyga kirish, gender tengligi va ijtimoiy harakatchanlik orqali ta'minlanadi.

O'zbekiston tajribasida 2021–2023-yillarda 1,6 milliondan ortiq aholi kambag'allikdan chiqdi, ammo shahar va qishloq o'rtasidagi tafovut, hududiy notenglik va oziq-ovqat narxlarining oshishi kabi muammolar mavjud. Kambag'allikni qisqartirish yo'llari – ta'lim va kasbiy tayyorgarlik, xotin-qizlar va yoshlarni tadbirkorlikka o'rgatish, ijtimoiy xizmatlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish va xalqaro tajribani mamlakat sharoitiga moslashtirishdir.

Xulosa. "Kambag'allik" turlicha ta'riflangan bo'lsa-da, u bozor iqtisodiyoti sharoitida daromad tengsizligi va ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy hamda demografik omillar natijasida insonlarning minimal iste'moli uchun zarur ne'matlar yetishmasligi sifatida namoyon bo'ladi. Tarixiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, jamiyatlarda transformatsion jarayonlar va bozor munosabatlariga o'tish odamlarning turmush sharoitini o'zgartirib, ustun qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. МАТ. Т.14. –Тошкент: Фан, 1998. –Б. 12.
2. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.
3. Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор. Табаррук рисолалар. –Тошкент: Адолат, 2007.–Б. 109.
4. Кузьмин К.В., Сутырин Б.А. История социальной работы за рубежом и в России (с древности до начала XX века). - М.: Академический проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2002. - С. 11.
5. Ганиева М.Х. Ижтимоий иш асослари. Методик қўлланма. –Т.: 2010, 9-бет.
6. Хусейнова, А.А. (2010). Торговля людьми: попытка противодействия. Социологические исследования, (11), 150-151.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 141:32:297.4

AHMAD SIRHINDIYNING AQL HAQIDAGI QARASHLARI

Muradov Sanjar Aslonovich, Buxoro davlat texnika universiteti "Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat" kafedrasi dotsenti

AHMAD SIRHINDIY'S VIEWS ON INTELLECT

Muradov Sanjar Aslonovich, Associate Professor of the Department of "Social Sciences and Physical Culture" of Bukhara State Technical University

ВЗГЛЯДЫ АХМАДА СИРХИНДИ НА РАЗУМ

Мурадов Санжар Аслонович, доцент кафедры «Социальные науки и физическая культура» Бухарского государственного технического университета

https://orcid.org/0009-0002-7189-7196
e-mail: muradovsanjar@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ahmad Sirhindiyning gnoseologik (bilish nazariyasiga oid) qarashlarining asosiy elementlari tahlil qilinadi. Sirhindiyning bilishga oid g'oyalari aql, tasavvufiy tajriba va vahiy o'rtasida muvozanat topishga qaratilgan. U bilimning uyg'un tizimini taklif etadi: aql yordam beradi, tasavvufiy tajriba ilhomlantiradi, ammo so'nggi va qat'iy mezon bu vahiydir.*

Kalit so'zlar: *Ahmad Sirhindiy, aql, ma'naviyat, ma'rifat, ruhiy kamolot, shaxsiy yetuklik, tasavvuf falsafasi, ilm va aql uyg'unligi, axloqiy tafakkur, haqiqatni anglash.*

Аннотация: *Эта статья рассматривает основные элементы гносеологических взглядов Ахмада Сирхинди. Гносеологические идеи Ахмада Сирхинди представляют собой попытку найти баланс между разумом, мистическим опытом и откровением. Он предлагает стройную концепцию знания, в которой каждый элемент имеет своё место: разум помогает, мистическое переживание вдохновляет, но окончателным критерием остаётся откровение.*

Ключевые слова: *Ахмад Сирхинди, разум, духовность, просвещение, духовное совершенство, личностная зрелость, философия суфизма, единство знания и разума, моральное мышление, постижение истины.*

Abstract: *This article examines the main elements of Ahmad Sirhindi's epistemological views. Ahmad Sirhindi's epistemological ideas represent an attempt to find a balance between reason, mystical experience, and revelation. He offers a coherent concept of knowledge in which each component has its proper place: reason assists, mystical experience inspires, but the ultimate criterion remains revelation.*

Keywords: *Ahmad Sirhindi, intellect, spirituality, enlightenment, spiritual perfection, personal maturity, sufi philosophy, harmony of knowledge and intellect, moral reasoning, understanding of truth.*

Kirish. Ahmad Sirhindiy "ikkinchi ming yillikning mujaddidi" sifatida tanilgan mutafakkir, islom tafakkuri tarixida muhim o'rin tutgan mutasavvif hisoblanadi. U bir vaqtning o'zida mutasavvif, mutafakkir, jamiyat islohotchisi va nozik fikrlovchi faylasuf bo'lgan. Uning merosi Naqshbandiya tariqati, sunniy aqidasi va inson bilishining ichki dunyosiga bo'lgan qiziqish tutashgan nuqtada shakllangan.

Sirhindiyda gnoseologiyasi bu nazariy hamda tizimli tuzilishga ega emas. Bu insonning Allohni, olamni va o'z–o'zini qanday bilishi, aql va tasavvufiy tajriba asosida haqiqiy bilimni qanday ajratish haqidagi amaliy ta'limotdir. Hindistonda din va siyosat kesishgan murakkab davrda Sirhindiy bilim manbalari haqidagi to'g'ri tushunchani tiklashni maqsad qilgan.

Sirhindiy bilimni inson qobiliyatlarining murakkab majmuasi sifatida ko‘radi. U hissiy, aqliy, ruhiy va vahiy orqali hosil bo‘lgan bilimlarni bir–birining muqobili sifatida emas, balki tartib va iyerarxiyada tushuntiradi.

Hissiy bilim Sirhindiy uchun bilimning eng oddiy, quyi bosqichidir. Inson ko‘rish, eshitish va idrok orqali dunyoni taniydi, narsalarni va hodisalarni bir–biridan farqlaydi. Lekin bu bilim faqat moddiy olam bilan cheklangan va xato qilish ehtimoli yuqori.

U hissiy idrokdan boshlash zarurligini ta’kidlasa–da, uni Allohning zoti yoki borliqning mohiyatini tushunishda asos qilish noto‘g‘ri ekanini aytadi. Bu faqat poydevor, ammo bilimning eng yuqori bosqichi emas.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda Ahmad Sirhindiyning aql haqidagi qarashlarini chuqur o‘rganish uchun falsafiy va tarixiy-tahliliy metodlar birinchi darajada qo‘llanadi. Avvalo, manba tahlili yordamida Sirhindiy asarlari, uning risolalari va maktublari puxta o‘rganiladi, u yerda aql, ma’naviyat va ruhiy kamolot tushunchalari qanday talqin etilganligi aniqlanadi.

Shuningdek, komparativ metoddan foydalanib, Sirhindiyning qarashlari boshqa Sharq mutafakkirlari, masalan, Farobiy, Ibn Sino va boshqa sufiy olimlar bilan solishtiriladi. Bu orqali uning aql haqidagi o‘ziga xos pozitsiyasi va tafakkur uslubi ochib beriladi.

Tadqiqot davomida tahliliy metod asosida matnlarni konseptual jihatdan tahlil qilish, asosiy g‘oyalarni aniqlash va ularning ma’naviy-axloqiy mazmunini o‘rganish muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, tarixiy metod orqali Ahmad Sirhindiy yashagan davr, ijtimoiy-madaniy sharoit va uning ilmiy-madaniy muhiti o‘rganiladi, chunki aql haqidagi qarashlar shaxs va jamiyat kontekstida tushuniladi.

Shuningdek, tadqiqotda sistematik yondashuv qo‘llanadi, ya’ni aql, ma’naviyat va ruhiy kamolot mavzulari bir-biri bilan bog‘liq tizim sifatida ko‘riladi va ularning o‘zaro munosabatlari aniqlanadi. Bu yondashuv Ahmad Sirhindiy qarashlarining ichki mantiqiy tuzilishini va amaliy ahamiyatini ochib berishga yordam beradi. Natijada, ushbu metodologiya orqali tadqiqot nafaqat Ahmad Sirhindiyning aql haqidagi g‘oyalarini nazariy jihatdan yoritadi, balki ularning bugungi davr sharoitida ma’naviy tarbiya, axloqiy yetuklik va shaxsiy kamolotga qanday ta’sir qilishi ham ilmiy asosda tushuntiriladi.

Aql Sirhindiy falsafasida alohida va markaziy o‘rin tutadi. U insonning ichki tafakkurini rivojlantirish, tajribalarni tahlil qilish, xulosa chiqarish va sabab–oqibat munosabatlarini to‘g‘ri anglash imkonini beradi. Shuningdek, aql axloqiy qadriyatlarni tushunish va insonni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Sirhindiy ta’limotida aql nafaqat bilimlarni tartibga soluvchi vosita, balki insonni ruhiy va ma’naviy rivojlanishga yetaklovchi vosita sifatida ham ko‘riladi.

Biroq, Ahmad Sirhindiyning qarashlariga ko‘ra, aql ham yaratilgan vosita sifatida o‘z chegaralariga ega. U insonga yaratilgan olam va uning qonunlarini anglash imkonini bersa-da, Allohning zotini to‘liq anglash yoki Uning nihoyatda ulug‘vor sirlariga kirib borish imkoniyatini bermaydi. Shu bois, inson aqlini ishlatib, bilim va tajriba orqali dunyoni tushunishi mumkin, lekin ilohiy haqiqatning mukammal darajasini faqat e’tiqod va ruhiy ma’rifat orqali anglash mumkin. Bu holat aql va e’tiqodning uyg‘unligi, shuningdek, insonning ruhiy kamoloti va ma’naviy rivojlanishi o‘rtasidagi muhim bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

Sirhindiyning ta’kidlashicha, muammo aqlning o‘zidan emas, balki uning mutlaq haqiqatga da’vo qilishida. U tasavvufiy holatlarni faqat aql bilan tushuntirishga urinadiganlar yoki vahiyni inkor etishga harakat qiluvchilarga qarshi chiqadi. Aql yordamchi, ammo haqiqatning so‘nggi mezoni emas. Vahiy Sirhindiyda mutlaq va ishonchli manba sifatida qabul qilinadi. Bu nuqtada u ba’zi sufiylarning ichki tajribani shariatdan ustun qo‘yishiga keskin qarshi turgan.

Tasavvufiy tajriba masalasi Sirhindiyda juda nozik. U sufiy amallari insonni oddiy ongdan yuqori holatlarga olib chiqishini tan oladi, ammo bu holatlar subyektiv va xatoga olib boruvchi bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Shuning uchun kashf qiymatga ega, faqat agar u: 1) Qur’onga; 2)Sunnatga; 3) aqliy asoslangan e’tiqodga zid bo‘lmasa. Sirhindiy aqlni inkor qilmaydi, aksincha uni imonni g‘uluv va xurofotdan himoya qiluvchi vosita sifatida ko‘radi. Bu jihatda uning fikrlari moturidiya an’analari bilan uyg‘un, garchi u o‘z ta’limotini kalom tilida

bayon qilmagan bo‘lsa ham. Ammo Allohning zoti, ruh mohiyati yoki borliqning so‘nggi haqiqati haqidagi masalalarda aql muqarrar ravishda adashadi. Tasavvufiy bilish Sirhindiyning ilmiy merosida markaziy o‘rin tutadi. U “fano” holatidagi tajribalarni – olamning go‘yo yo‘qolib, faqat Alloh qolganday tuyulishi haqiqat emas, idrokning bir holati deb baxolaydi. Ko‘p mutasavvif bu holatni metafizik haqiqat deb qabul qilishini u xato deya tushuntiradi.

Ibn Arabiyning “vaxdat ul-vujud” ta’limotiga Sirhindiyning munosabati haqida gapirganda, Sirhindiy uni “haqiqiy ontologik birlik” emas, balki ruhiy holat deb ta’kidlaydi. U yaratuvchi bilan yaratilgan o‘rtasidagi farq yo‘qolib qolishidan xavotirlanadi. Shuning uchun u “vahdat ash-shuhud” – “guvohlik birligi” nazariyasini taklif qiladi: valiy inson faqat Allohning rizoligiga harakat qiladi, ammo real olam baribir mavjud.

Sirhindiy 43 maktubida quyidagicha keltiradi:

Tavhid ikki qismdan iborat:

1. Tavhidi shuhudiy;
2. Tavhidi vujudiy.

Uning zaruratlisi tavhidi shuhudiydur. Fano darajasi unga bog‘liq. Tavhidi shuhudiyning aql va shariatga qarshiligi yo‘q.

Sirhindiy bilim ierarxiyasini quyidagicha belgilaydi:

- Shariat - haqiqatning asosi va mezoni;
- Aql - tushunish va tahlil vositasi;
- Tasavvufiy holat – yuksak, ammo subyektiv tajriba.

1. Vahiy – bilimning cho‘qqisi va kafolati.

Uningcha, yuksak ruhiy holatlar shariatni bekor qilmaydi.

Sirhindiy gnoseologiyasi uning islohotchilik g‘oyalari bilan uzviy bog‘liq.

U islomni ikki chegaradan himoya qilishga intilgan:

1) ruhiyatdan xoli quruq ratsionalizmdan;
2) shariatdan uzilgan ongsiz mistitsizmdan.

Demak, Sirhindiyning bilishga oid g‘oyalari aql, tasavvufiy tajriba va vahiy o‘rtasida muvozanat topishga qaratilgan.

Xulosa. Ahmad Sirhindiyning aql haqidagi qarashlari insonning ruhiy, axloqiy va ma’naviy kamolotini shakllantirishda nihoyatda muhim ahamiyatga ega. U aqlni faqat tafakkur vositasi sifatida emas, balki insonning ichki dunyosini, ruhiy salohiyatini rivojlantirish, ma’naviy yetuklik va axloqiy yetuklikni ta’minlashdagi markaziy omil sifatida ko‘radi.

Sirhindiyning ta’limotida aql va ma’naviyat bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular insonni jamiyatda mas’uliyatli, barkamol va yetuk shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u aqlning ruhiy kamolot va haqiqatni anglash yo‘lidagi vosita ekanligini ta’kidlaydi.

Shuning uchun, Ahmad Sirhindiyning aql haqidagi qarashlari bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan. U yoshlarni ma’naviy va axloqiy jihatdan tarbiyalash, shaxsiy kamolotga yetaklash va jamiyatda barqarorlikni ta’minlashda ilmiy va amaliy jihatdan muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Umuman olganda, Ahmad Sirhindiyning aql haqidagi g‘oyalari nafaqat tarixiy meros, balki zamonaviy insonning ma’naviy rivojlanishi va jamiyat taraqqiyoti uchun ham beqiyos ahamiyatga ega ekanligi aniq ko‘rinib turibdi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Анне-Мари Шиммел. Мир исламского мистицизма. – Москва: Алейта-Энигма, 2000. – 414 с.
2. Mahmud As’ad Jo‘shon. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. – Toshkent: Cho‘lpon, 1998. – 88 b.
3. Maktubot Imom Rabboni. Ikki tomlik. 1-tom /P.Tura tahriri ostida. – Istanbul:Yasin Yayinevi, 2006. – 396 b.
4. Yuldashxodjaev X. Tariqatchilikning zamonaviy ko‘rinishlari.–Toshkent: TIU, 2010. – 80 b.
5. Анке фон Кюгелген. Рассвет Нақшбандия-Мужадидия в средней Трансоксании с XVIII – до начала XIX в.в.: опыт детективного расследования. /Суфизм в Централной Азии (зарубежные исследования). Санкт-Петербург: Филологический факультет СПбГУ, 2001. – 394 с.
6. Yuldashxodjayev X. Musoxon Dahbidiyning naqshbandiya-mujaddidiya tariqati rivojida tutgan o‘rni (XVIII asr): Tarix. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2008. – 127 b.

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 1(5):316.3(575.1)

YANGI O‘ZBEKISTONDA INSON QADRI VA UNING MA’NAVIY RIVOJLANISHIDA SHARQ FALSAFIY TAJRIBASINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich, Buxoro davlat universiteti “Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa” kafedrasi dotsenti

THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF EASTERN PHILOSOPHICAL EXPERIENCE IN HUMAN DEGREE AND ITS SPIRITUAL DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN

Shodiev Jahongir Jo‘rakulovich, Associate Professor of the Department of “History and Source Studies of Islam, Philosophy, Bukhara State University

МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ ВОСТОЧНОГО ФИЛОСОФСКОГО ОПЫТА В ЧЕЛОВЕКЕ И ЕГО ДУХОВНОМ РАЗВИТИИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Шодиев Джахонгир Джоракулович, доцент кафедры “История и источниковедение ислама, философия” Бухарского государственного университета

https://orcid.org/0009-0007-4636-7181
e-mail: shodiyevjahongir1985@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola Yangi O‘zbekistonda inson qadri va uning ma’naviy rivojlanishida Sharq falsafiy tajribasining o‘rni va ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda Sharq mutafakkirlarining insonni qadrlash, ma’naviy kamolot va axloqiy tarbiya bo‘yicha tavsiyalari zamonaviy jamiyatda ta’lim, tarbiya va ijtimoiy rivojlanish kontekstida tahlil qilinadi. Natijada, maqola insonning ma’naviy rivojlanishini ta’minlashda Sharq falsafasidan olingan saboqlarni amaliy qo‘llashning ahamiyati va istiqbollarini yoritadi.*

Kalit so‘zlar: *inson qadri, ma’naviy rivojlanish, Sharq falsafasi, tarbiya, axloqiy qadriyatlar, Yangi O‘zbekiston.*

Annotation: *This article is devoted to studying the role and significance of Eastern philosophical heritage in understanding human dignity and fostering spiritual development in New Uzbekistan. The research analyzes the teachings of Eastern thinkers regarding moral upbringing, personal development, and respect for human dignity in the context of modern society, education, and social progress. The article highlights the practical application and prospects of Eastern philosophy for promoting human spiritual growth.*

Keywords: *human dignity, spiritual development, Eastern philosophy, upbringing, moral values, New Uzbekistan.*

Аннотация: *Статья посвящена исследованию роли и значения философского наследия Востока в формировании ценности человека и его духовного развития в Новом Узбекистане. В работе анализируются рекомендации восточных мыслителей по воспитанию, нравственному развитию и уважению личности в контексте современного общества, образования и социального развития. В результате рассматриваются возможности практического применения восточной философии для духовного роста человека.*

Ключевые слова: *ценность человека, духовное развитие, восточная философия, воспитание, нравственные ценности, Новый Узбекистан.*

Kirish. Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda inson qadri va uning ma’naviy rivojlanishi davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Shaxsning

ma’naviy kamoloti, axloqiy intizomi va ijtimoiy faolligi jamiyat taraqqiyoti, milliy uyg‘onish va global maydonda raqobatbardoshlik uchun asosiy mezon sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan, insonni qadrlash masalasi faqat iqtisodiy yoki siyosiy kontekst bilan chegaralanmay, uning ma’naviy, axloqiy va madaniy jihatlarini uyg‘unlashtirish orqali yuksaltirilishi lozim.

Sharq mutafakkirlari merosi esa bu jarayonda beqiyos ahamiyatga ega. Ularning falsafiy tafakkuri insonning ruhiy va ma’naviy kamolotiga yo‘naltirilgan bo‘lib, axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, shaxsda ijobiy odat va fazilatlarni rivojlantirish, hamda jamiyat bilan uyg‘un aloqani ta’minlash kabi muhim masalalarni hal etishga xizmat qilgan. Bugungi kunda esa Sharq falsafasidan olingan tajribalar Yangi O‘zbekistonda ta’lim, tarbiya va ijtimoiy rivojlanish tizimlarini shakllantirishda amaliy yo‘nalish sifatida qo‘llanilishi mumkin. Shu bilan birga, inson qadri va uning ma’naviy rivojlanishini ta’minlashda kambag‘allik, ijtimoiy ta’minotsizlik va resurslarning cheklanganligi kabi omillarni e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Ta’lim-tarbiya jarayonini milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslash, Sharq mutafakkirlarining axloqiy va ma’naviy tajribasini uyg‘unlashtirish orqali jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va ma’naviy zaifliklarni kamaytirish mumkin. Shu jihatlarni hisobga olgan holda, mazkur tadqiqotning maqsadi – Yangi O‘zbekistonda inson qadri va uning ma’naviy rivojlanishini ta’minlashda Sharq falsafiy tajribasining o‘rni va ahamiyatini ilmiy asosda yoritish, uning pedagogik va ijtimoiy qo‘llanilishi imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot natijalari nafaqat ta’lim-tarbiya sohasida, balki keng jamiyat hayotida ma’naviy barkamollik va axloqiy uyg‘onishni targ‘ib etishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot Yangi O‘zbekistonda inson qadri va uning ma’naviy rivojlanishida Sharq falsafiy tajribasining o‘rni va ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ilmiy yondashuvlar integratsiyasiga tayangan. Tadqiqot jarayonida bir nechta metodologik asoslar qo‘llanildi.

Birinchidan, tahliliy-falsafiy yondashuv yordamida Sharq mutafakkirlarining inson qadri, axloqiy kamolot va ma’naviy o‘sish haqidagi g‘oyalari o‘rganildi. Bu yondashuv orqali ularning zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayoniga pedagogik qo‘llanilishi va samaradorligi aniqlanadi.

Ikkinchidan, tarixiy-metodik yondashuv orqali Sharq falsafasining rivojlanish tarixi, ilm-fan va ma’naviy tarbiya bilan uzviyligi tahlil qilindi. Shu orqali inson qadri konsepsiyasining vaqt va makon bilan bog‘liqligi, shuningdek, kambag‘allik, ijtimoiy tengsizlik va zamonaviy muammolarga ta’siri o‘rganildi.

Uchinchidan, solishtirma tahlil asosida Sharq falsafiy merosi va Yangi O‘zbekistondagi ta’lim-tarbiya tizimi qiyoslandi. Bu yondashuv qadriyatlarni uyg‘unlashtirish va pedagogik amaliyotga integratsiya qilish imkoniyatlarini ochib berdi.

To‘rtinchidan, empirik metodlar – so‘rovnoma, intervyu va fokus-guruhlar orqali ta’lim muassasalari, pedagoglar va o‘quvchilar ishtirokida ma’lumotlar yig‘ildi. Bu Sharq falsafiy merosining amaliy pedagogik qo‘llanilishi va uning o‘quvchilarning ma’naviy rivojlanishiga ta’sirini aniqlashga yordam berdi.

Beshinchidan, analitik va konseptual modellash metodi tadqiqot natijalarini tizimli ravishda umumlashtirish va Yangi O‘zbekistonda inson qadri va uning ma’naviy rivojlanishini shakllantirish bo‘yicha konseptual model yaratish imkonini berdi. Ushbu model Sharq falsafiy merosini milliy va umuminsoniy qadriyatlarga moslashtirib, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali integratsiya qilinishini ko‘rsatadi.

Oxirida, sistemali yondashuv orqali inson qadri va uning ma’naviy rivojlanishiga ta’sir qiluvchi barcha omillar – ilmiy, ijtimoiy, axloqiy va pedagogik komponentlar kompleks tarzda o‘rganildi. Shu bilan birga, kambag‘allik va ijtimoiy muhitning ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’siri ham hisobga olindi.

Shu metodologik yondashuvlar orqali tadqiqot Yangi O‘zbekistonda inson qadri va uning ma’naviy rivojlanishini Sharq falsafiy tajribasi bilan uyg‘unlashtirish, shuningdek, pedagogik va ijtimoiy natijalarga erishish imkonini beradi.

Yangi O‘zbekiston jarayonida inson qadri va uning ma’naviy rivojlanishi mamlakat taraqqiyotining eng muhim tamoyillaridan biri sifatida qaralmoqda. Biz hammamiz bilamizki, har bir jamiyatning yuksalishi, barqarorligi va farovonligi insonning ichki dunyosi, uning ma’naviy kamoloti bilan bevosita bog‘liq. Shu bois,

bugungi kunda insonni faqat jismoniy mavjudlik sifatida emas, balki ruhiy, axloqiy va aqliy jihatdan kamolotga intiluvchi shaxs sifatida qadrlash nihoyatda muhimdir.

Sharq falsafiy tajribasi aynan shuni ta'minlashga xizmat qiladi. Sharq mutafakkirlari, masalan, Farobiy, Ibn Sino, Ahmad Yassavi va Alisher Navoiy, insonning ruhiy, axloqiy va aqliy salohiyatini uyg'unlikda rivojlantirishni, uning jamiyat bilan munosabatini muvozanatlashni doimiy ravishda ta'kidlagan. Ularning asarlarida insonning ma'naviy kamoloti – jamiyat taraqqiyotining poydevori sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, biz bugungi kunda Sharq falsafiy merosini o'rganish va hayotimizga tatbiq etish orqali insonning shaxsiy va ijtimoiy kamolotini ta'minlashimiz mumkin.

Bugungi Yangi O'zbekiston sharoitida bu juda dolzarb. Globalizatsiya va zamonaviy texnologiyalar tezkor o'zgarishlarni keltirib chiqarayotgan bir paytda, inson ma'naviyati va qadriyatlarini yo'qotmasligi juda muhimdir.

Sharq falsafasining yana bir muhim jihati – u inson va jamiyat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga yordam beradi. Insonning ichki dunyosi va ruhiy salohiyati jamiyatdagi barqarorlik, adolat va hamjihatlikni shakllantiradi. Shuningdek, Sharq falsafasi oilaviy qadriyatlarni, ta'lim va tarbiyani, yoshlar ma'naviyatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Shu orqali biz yosh avlodni ma'naviy, axloqiy va intellektual jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirishimiz mumkin.

Shu bois, Yangi O'zbekistonda inson qadri va uning ma'naviy rivojlanishida Sharq falsafiy tajribasining o'rni juda katta. U nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyotda ham beqiyos ahamiyatga ega. Agar biz Sharq falsafasidagi inson qadri va ma'naviy kamolot tamoyillarini hayotimizga tatbiq etsak, har bir fuqaro axloqiy, ma'naviy va ruhiy jihatdan yetuk, jamiyatga foydali, mas'uliyatli va kamolotli inson sifatida shakllanishi mumkin. Shu bilan birga, jamiyatda barqarorlik, totuvlik, ma'naviy hurmat va demokratik qadriyatlar mustahkamlanadi.

Shunday qilib, Yangi O'zbekistonda inson qadri va uning ma'naviy rivojlanishida Sharq falsafiy tajribasi nafaqat o'tgan tarixiy meros, balki bugungi kun talabi, zamonaviy jamiyat qurishning muhim strategik resursidir. Biz har birimiz ushbu tajribani o'rganib, uni hayotimizga tatbiq etish orqali o'zimizni, jamiyatimizni va kelajak avlodni barkamol, ma'naviy va axloqiy jihatdan yuksak darajaga olib chiqishimiz mumkin.

Xulosa. Yangi O'zbekistonda inson qadri va uning ma'naviy rivojlanishi davlat taraqqiyoti va ijtimoiy barqarorlikning eng muhim mezonlaridan biri sifatida e'tiborga molik ahamiyatga ega. Bu jarayonda Sharq falsafiy tajribasi insonni jamiyatning markaziy subyekti sifatida qadrlash, uning ichki dunyosi va ma'naviy kamolotini rivojlantirish, axloqiy va ma'rifiy yetuklikni targ'ib qilishda beqiyos manba sifatida xizmat qiladi.

Sharq tafakkuri insonning ruhiy va aqliy salohiyatini uyg'unlikda rivojlantirishni, uning atrof-muhit va jamiyat bilan munosabatini muvozanatlashni ta'kidlaydi. Shu bilan birga, ushbu falsafiy meros milliy qadriyatlar asosida insonning shaxsiy va ijtimoiy yetukligini mustahkamlashga, demokratik va ma'naviy barqaror jamiyatni yaratishga xizmat qiladi. Yangi O'zbekistonda inson qadri va uning ma'naviy rivojlanishida Sharq falsafiy tajribasining o'rni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham beqiyos ahamiyatga ega bo'lib, har bir fuqaroning ma'naviy, axloqiy va intellektual kamolotini ta'minlashda muhim resurs hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. Исмоил Саифназаров. Янги Ўзбекистон: Инсон қадри улуғланган юрт. Т.:2023 й.
3. Jo'raev T. Milliy davlatchilik: Xavfsizlik va barqarorlik. –Toshkent: Akademiya, 2007.
4. Инсани камил. // Исламский энциклопедический словарь./Авт.:А. Ализаде.М: 2007.
5. Утепова Т.Б. Шарқ ва Ғарб маданиятининг тарихий-генезис масалалари // Фалсафа ва ҳуқуқ. – 2014. – № 1. – Б. 71–73.
6. Shodiyev, J. J. (2023). The Role Of The National Idea In Increase Of Human Values. Innovative Development in Educational Activities, 2(7), 616-625.
7. Jurakulovich, S. J. (2023). The role of the national idea in increase of human values. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), 1160-1164.
8. Саттаров У.У. Комил инсон ғоясининг рўёби // Миллий ғоя – бизнинг ғоя: Илмий-амалий конференция материаллари.–Тошкент: Турон замин зиё, 2016.–Б.76–80.

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 141.72:316.346.2(575.1)

YANGI O‘ZBEKISTONDA AYOLLAR INTELLEKTUAL SALOHIYATINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI VA STRATEGIK OMILLARI

Bozorova Ro‘zigul Sharofovna*, Buxoro davlat texnika universiteti “Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

SOCIO-PHILOSOPHICAL BASIS AND STRATEGIC FACTORS OF ENHANCING WOMEN’S INTELLECTUAL POWERS IN NEW UZBEKISTAN

Bozorova Ruzigul Sharofovna, Associate Professor of the Department of “Social Sciences and Physical Culture” of Bukhara State Technical University, Doctor of Philosophy in Philosophy (PhD)

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ ЖЕНЩИН В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Бозорова Рузигуль Шарофовна, доцент кафедры “Социальные науки и физическая культура” Бухарского государственного технического университета, доктор философии (PhD)

e-mail: bozorovaruzigul@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston davrida ayollar intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilayotgan ijtimoiy-falsafiy omillarni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada ayol shaxsining ma’naviy va intellektual kamoloti, innovatsion fikrlashi, raqamli kompetensiyalarining shakllanishi hamda ijtimoiy institutlar bilan o‘zaro aloqasining mazmun-mohiyati falsafiy nuqtayi nazardan yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, ayollar intellektual salohiyati, gender siyosati, ma’naviy kamolot, strategik omillar, ijtimoiy ong, ayol shaxsi.*

Annotation: *This article provides a socio-philosophical analysis of the factors contributing to the enhancement of women’s intellectual potential in the era of New Uzbekistan. It highlights the philosophical aspects of women’s spiritual and intellectual development, the formation of innovative thinking and digital competencies, as well as the nature and essence of their interaction with social institutions.*

Keywords: *New Uzbekistan, women’s intellectual potential, gender policy, spiritual development, strategic factors, social consciousness, female personality.*

Аннотация: *В данной статье проводится философско-социальный анализ факторов, способствующих повышению интеллектуального потенциала женщин в период Нового Узбекистана. В статье раскрываются философские аспекты духовного и интеллектуального совершенствования личности женщины, формирования её инновационного мышления, цифровых компетенций, а также содержание и сущность её взаимодействия с социальными институтами.*

Ключевые слова: *Новый Узбекистан, интеллектуальный потенциал женщин, гендерная политика, духовное совершенствование, стратегические факторы, общественное сознание, личность женщины.*

Kirish. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari qatorida ayollar intellektual salohiyatini yuksaltirish masalasi alohida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy islohotlar, modernizatsiya jarayonlari, gender tenglikni ta’minlashga doir tizimli choralar nafaqat jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichini belgilab bermoqda, balki ayol shaxsining ma’naviy-intellektual kamolotini jadallashtirish uchun mustahkam zamin

yaratmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida ayollar salohiyatini rivojlantirish masalasi iqtisodiy yuksalishning, ma'naviy barqarorlikning, ijtimoiy adolatning va inson kapitalini taraqqiy ettirishning eng muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy sivilizatsiya rivoji ayollarni ilmiy-texnologik jarayonlar, innovatsion loyihalar, davlat boshqaruvi va fuqarolik institutlarida faol ishtirok etishga majbur qilmoqda. Ayolning intellektual salohiyati nafaqat shaxsiy taraqqiyot, balki jamiyatning strategik rivojiy resursidir. Shu bois, Yangi O'zbekistonda ayollarning ilmiy bilimini, kreativ fikrlashini, raqamli kompetensiyalarini va kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qaraladi.

Ayollar intellektual salohiyatini shakllantiruvchi ijtimoiy-falsafiy omillar – qadriyatlar tizimi, ijtimoiy ong, gender tenglik tamoyillari, ta'lim va madaniyat paradigmalari hamda raqamli jamiyatning chaqiruvlari kompleks tahlil qilinadi. XXI asr raqamli texnologiyalari ayollarga bilim olish, kasb tanlash va jamiyatda faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, Yangi O'zbekistonni barpo etishda ayollar intellektual salohiyatining oshirilishi innovatsion fikr, madaniy-ma'naviy yangilanish va barqaror taraqqiyot strategiyasini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning metodologik asosi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan inson kapitalini rivojlantirish, gender tenglikni ta'minlash va ayollar intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan konseptual tamoyillarga tayangan holda shakllantiriladi. Tadqiqot jarayonida ayol shaxsining ma'naviy-intellektual kamoloti, zamonaviy ijtimoiy hayotdagi o'rni va raqamli transformatsiya sharoitida shakllanayotgan yangi kompetensiyalari falsafiy, sotsiologik, aksiologik hamda gender tahlil metodlari uyg'unligida o'rganiladi. Ayollar intellektual salohiyatini belgilovchi omillarni chuqur tahlil qilishda falsafiy-gnoseologik yondashuv qo'llanib, ayol tafakkurining rivojlanish jarayonlari va bilimlarni egallash mexanizmlari nazariy asoslar orqali yoritiladi.

Tadqiqotda sotsiologik kuzatuv va empirik ma'lumotlarga tayanilgan holda, Yangi O'zbekiston sharoitida ayollarning ta'lim, ilm-fan, davlat boshqaruvi va ijtimoiy sohalarda faollashuvi real statistika va jamiyatdagi amaliy o'zgarishlar asosida baholanadi. Gender tahlili orqali ayollarning intellektual salohiyatiga ta'sir etuvchi ijtimoiy stereotiplar, gender adolat tamoyillari va davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlar tizimi ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, madaniy-falsafiy va aksiologik yondashuv ayollarning intellektual rivoji milliy identitet, qadriyatlar tizimi va ma'naviy muhit bilan qanday uyg'unlashishini tahlil qilish imkonini beradi. Metodologiyaning muhim qismidan biri sifatida komparativ yondashuv qo'llanib, ayollar intellektual salohiyatini yuksaltirishga doir xalqaro tajribalar Yangi O'zbekiston amaliyoti bilan solishtiriladi va milliy modelning ustuvor jihatlari aniqlanadi. Shuningdek, sistemali yondashuv asosida ayolning intellektual rivojiga ta'sir qiluvchi barcha omillar – oila, ta'lim tizimi, jamiyat, davlat siyosati, raqamli muhit va madaniy makon – yagona kompleks tizim sifatida tahlil qilinadi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ayollar intellektual salohiyatini rivojlantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bugungi kunda global raqobat va raqamli transformatsiya davrida jamiyatning barqaror rivoji faqat iqtisodiy resurslar bilan cheklanmaydi, balki inson kapitali, xususan ayollar bilim va kreativ salohiyati bilan bog'liq. Shu bois, ayollarning intellektual salohiyatini yuksaltirish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatning ma'naviy, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi strategik omil sifatida qaraladi. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan gender tenglik siyosati, ta'lim tizimi modernizatsiyasi, ilm-fan va innovatsion loyihalarga ayollarning keng jalb qilinishi ularning tafakkurini rivojlantirish, raqamli kompetensiyalarini oshirish va jamiyatdagi faol mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ayolning ma'naviy kamoloti, axloqiy barkamolligi va ijtimoiy faolligi uning intellektual salohiyatini mustahkamlashning muhim omillari sifatida e'tiborga olinadi.

TAMADDUN NURI

Ayolning intellektual salohiyati uning bilim, tafakkur, ijodkorlik, tahliliy qobiliyat va ma'naviy dunyosini o'z ichiga olgan murakkab ijtimoiy hodisadir. Falsafiy nuqtayi nazardan, ayol shaxsi jamiyatning ma'naviy va madaniy poydevorini shakllantiruvchi subyekt sifatida qadrlanadi. Sharq va zamonaviy falsafiy manbalarda ayolning donoligi va tafakkuri jamiyat taraqqiyotida strategik resurs sifatida ko'riladi.

Yangi O'zbekiston siyosatida ayollar intellektual salohiyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, davlat siyosati va gender tenglik masalalari ayollarning ta'lim, ilm-fan, iqtisodiyot va siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlaydi. Ikkinchidan, ma'naviy va madaniy qadriyatlar, xususan milliy va diniy meros ayolning intellektual va axloqiy rivojlanishini mustahkamlashga xizmat qiladi. Uchinchidan, raqamli transformatsiya ayollarga yangi kompetensiyalar egallash imkonini beradi, bu esa ularning zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlardagi faol ishtirokini ta'minlaydi. To'rtinchidan, ta'lim tizimi modernizatsiyasi qizlarning sifatli bilim olishi va ilmiy faoliyatga jalb qilinishini rag'batlantiradi. Beshinchidan, jamiyatdagi ijtimoiy institutlar bilan o'zaro aloqalar, xususan fuqarolik jamiyati va nodavlat tashkilotlar ayollarning strategik fikrlash va ijtimoiy faolligini rivojlantiradi.

Ayollarning intellektual salohiyatini yuksaltirishda strategik omillar ham alohida ahamiyatga ega. Ilmiy-tadqiqot faoliyatida ayollar faol ishtirok etishi ularga analitik va innovatsion tafakkur beradi, iqtisodiy mustaqillik va tadbirkorlik esa strategik fikrlash va boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, raqamli kompetensiyalar ayollarning onlayn ta'lim, IT va sun'iy intellekt sohalarida faol ishtirok etish imkoniyatini kengaytiradi. Jamiyatdagi ijtimoiy faollik esa ularning siyosiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlarda ishtirokini kuchaytiradi.

Shunday qilib, Yangi O'zbekiston davrida ayollar intellektual salohiyatining yuksalishi davlat siyosati, ijtimoiy modernizatsiya, raqamli transformatsiya va ma'naviy qadriyatlar uyg'unligida amalga oshiriladi. Ayolning intellektual rivoji nafaqat shaxsiy taraqqiyot, balki jamiyatning barqaror va innovatsion taraqqiyoti, iqtisodiy mustahkamlik va ma'naviy yuksalishi uchun strategik resurs hisoblanadi. Shu bois, ayollar bilim va tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar Yangi O'zbekistonning kelajakdagi barqaror rivojlanishining poydevori sifatida dolzarb ahamiyatga ega.

Xulosa. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida ayollar intellektual salohiyati jamiyatning barqaror rivoji, ma'naviy yuksalishi va innovatsion yangilanishi uchun strategik resurs sifatida dolzarb ahamiyatga ega. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, gender tenglik siyosati va ta'lim tizimi modernizatsiyasi ayollarning intellektual rivojini qo'llab-quvvatlamoqda. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ayollarning intellektual salohiyati nafaqat shaxsiy rivojga, balki jamiyatning ma'naviy-axloqiy muhitiga, iqtisodiy barqarorlik va innovatsion salohiyatiga bevosita ta'sir qiladi. Raqamli kompetensiyalar, ilmiy-tadqiqot va siyosiy-huquqiy faollik bugungi kunda strategik ustuvor yo'nalish sifatida ahamiyatlidir. Davlat dasturlari, fuqarolik jamiyati institutlari va gender madaniyati ayol intellektual qiyofasini belgilovchi asosiy omillar bo'lib, ma'naviy qadriyatlar va ilm-innovatsiya integratsiyasi uning kamolotiga mustahkam zamin yaratadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev. *Yangi O'zbekistonning barqaror taraqqiyot yo'li.* - Toshkent, 2020. -B.148.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. *Ayollar huquqlari va gender tenglikni ta'minlash chora-tadbirlari.* - Toshkent, 2021. -B.122.
3. Karimov I.A. *Milliy qadriyatlar va jamiyat taraqqiyoti.* - Toshkent, 2018. -B.141.
4. Tursunova M. *Ayollar intellektual salohiyati va jamiyat rivoji.* - Toshkent, 2022. -B.112.
5. Qodirov D. *Ta'lim va ma'naviy tarbiya tizimida ayolning o'rni.* - Toshkent, 2019. -B.95.
6. Xolmatova L. *Raqamli iqtisodiyot va ayollar kompetensiyasi.* - Toshkent, 2023. -B.128.
7. Jurakulovich, S.J. (2020). Glorifying man and increasing his value is the main goal of the third renaissance. International multidisciplinary journal for research & development sjif, *2019*(5.222), 5-552.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. *Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha strategik hujjatlar.* - Toshkent, 2022. -B.74.
9. Rasulov A. *Ayollarning ijtimoiy faolligi va strategik rivojlanish.* - Toshkent, 2021. -B.108.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 17.51

HUJJATCHILIKNING KOGNITIV TALABLARI

Babadjanov Farxad Kurbanbayevich, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy bo'linmasi rahbari filologiya fanlari doktori (DSc)

COGNITIVE DEMANDS OF DOCUMENTATION

Babadjanov Farkhad, head of the territorial department of the Center for Training and Development of the Basics of Working in the State Language under Alisher Navoi TashSULU of the Republic of Karakalpakstan, (DSc)

КОГНИТИВНЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К ДОКУМЕНТАЦИИ

Бабаджанов Фархад Курбанбаевич, руководитель регионального отделения Республики Каракалпакстан Центр обучения основам делопроизводства на государственном языке и повышения квалификации при Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, доктор филологических наук (DSc)

https://orcid.org/0009-0004-5496-1525
e-mail: farxod.7272@gmail.com

***Annotatsiya**: Mazkur maqolada o'zbek tilida hujjat matnlarini mukammal tuzish va ularni to'g'ri rasmiylashtirishga oid kognitiv talablar xususida so'z yuritiladi. Standartlashtirish, qoliplilik, asoslanganlik va hujjat dizayni kabi kognitiv talablar tavsiflanib, ularning xususiyatlari ochib beriladi.*

***Kalit so'zlar**: kognitiv talablar, standartlashtirish, qoliplilik, asoslanganlik, hujjat dizayni.*

***Abstract:** This article discusses the cognitive requirements for the perfect composition and correct formalization of document texts in the Uzbek language. Cognitive requirements such as standardization, modularity, validity, and document design are described and their characteristics are revealed.*

***Key words:** cognitive requirements, standardization, modularity, validity, document design.*

***Аннотация:** В данной статье рассматриваются когнитивные требования к безупречному составлению и корректному оформлению текстов документов на узбекском языке. Описываются такие когнитивные требования, как стандартизация, модульность, валидность и оформление документов, и раскрываются их особенности.*

***Ключевые слова:** когнитивные требования, стандартизация, модульность, валидность, дизайн документа.*

Kirish (введение / introduction). Hujjatchilik bu axborot logistikasidir. Axborotning tizimli va sifatli uzatilishi uchun tanlangan til birliklari va tushunchalar kognitiv vosita sifatida ishtirok etadi. Kognitiv vositalar hujjatning maqomini, turini, hujjat sifatida shakllanish mezonlarini belgilaydi. Har qanday hujjat shakliy-mazmuniy jihatdan mukammal bo'lishi uchun unga bir qancha lingvistik talablar qo'yiladi. Hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish uchun mazkur talablarni bilish lozim. Talablarni ikki turga ajratish mumkin: 1) hujjat rasmiylashtirishning kognitiv talablari; 2) hujjat matnlarining kommunikativ sifatlari[1,84]. Kognitiv talablar hujjat rasmiylashtirishga tegishli bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili va metod (литература и метод / materials and methods). Kognitiv talablar hujjatning umumiy tuzilishiga aloqador talablar bo'lib, adresat tomonidan hujjatda uzatilayotgan axborotning qabul qilinishi, idrok

etilishi, tushunilishi va qayta ishlanishini ta'minlovchi unsurlar hisoblanadi. Bizning nazarimizda, ular to'rttani tashkil etadi: *standartlashtirish, qoliplilik, asoslanganlik va hujjat dizayni*.

Rus tili hujjatchiligida standartlashtirish tizimi yaratilgan[5,2], biroq o'zbek hujjatchiligida bu masala to'liq hal qilinmagan. "Standartlashtirish – bu "boshqa shunga o'xshash obyektlarni ular bilan taqqoslash uchun dastlabki namunalar sifatida olingan namuna, standart, model" deb tushuniladigan standartlarni o'rnatish va qo'llash jarayoni[4,407]. Hujjatlarni standartlashtirish hujjatlarning bir xillashtirilgan tizimi deb ham yuritiladi. A.Hasanov va R.Ishmuxamedovalar: "Hujjatlarning birxillashtirilgan tizimi (HBT) – bu yagona qoidalar va talablarga binoan yaratilgan, muayyan faoliyat sohasida boshqarish uchun zarur bo'lgan axborot ifodalangan hujjatlar tizimi"[2,17], – deya ta'kidlashadi. Biroq bu tizim barcha hujjatlarni qamrab olmagan.

Hujjatlarni standartlashtirish talablarini ishlab chiqish faqat tilshunoslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbir emas. Chunki har qanday hujjat huquqiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu bois bu borada tilshunoslar va huquqshunoslar hamkorligi juda muhim. Aslida bu tizim ko'proq huquqshunoslik obyekti hisoblanadi, biroq gap matn tuzilishi haqida ketar ekan, lug'aviy birliklarni to'g'ri tanlash, matn qolipidagi jumlalarning sintaktik qurilishini o'zbek tilining lingvistik talablariga muvofiq tarzda ishlab chiqish uchun bu jarayonda albatta tilshunoslar ham ishtirok etishi lozim.

Hujjatchilik bilan shug'ullanuvchi xodimlar aylanma harakatda bo'lgan asosiy hujjatlarning namunaviy qoliplarini yaratib olishi lozim. Shundagina hujjatlarni tez tuzish imkoni yaratiladi. Shuningdek, har bir tashkilotda murojaat shakllari va arizalarning qoliplarini shakllantirib, namuna sifatida tavsiya etish maqsadga muvofiq. Etalon sifatidagi hujjat qoliplarining elektron variantlarini ishlab chiqib, xodimlarga tavsiya qilish ish unumdorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Muayyan bir jarayonni rasmiylashtirish uchun biror sabab yoki hujjatga ehtiyoj tug'iladi. Ko'pincha asosiy hujjatni rasmiylashtirish uchun boshqa hujjat unga yuqoridan yoki quyidan asos vazifasini o'taydi. Shu bois ko'plab hujjatlar asoslovchi qism va asosiy (xulosa) qism deb ikkiga bo'linadi. Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 29-martda qabul etilgan "O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo'yicha normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida"gi 140-son qarori bilan tasdiqlangan Namunaviy yo'riqnomada hujjatlar matnlarini ikki qismga ajratish tavsiya etiladi: "birinchi qismda hujjat tuzishning asoslari yoki sabablari ko'rsatiladi, ikkinchisida – qarorlar, farmoyishlar, takliflar, fikrlar, xulosalar, iltimoslar bayon etiladi"[6], deya ta'kidlangan. Asoslovchi qismda hujjat tuzilishiga asos bo'lib xizmat qiladigan sabablar (voqea, hodisa, zarurat, ehtiyoj, muayyan hujjat) ko'rsatiladi. Asosiy qismda esa hujjatning maqsadi (mohiyat, natija, qaror, farmoyish, taklif, fikr, xulosa, hukm) aks etadi.

Hujjat dizayni ham hujjatchilikda muhim ahamiyatga ega, hujjat dizayni tashkilotning yuzidir. Muayyan tashkilot hujjatlarning dizayni orqali boshqa tashkilotlar tasavvurida o'z imijini yaratadi. Yuborilgan ish qog'ozining sifati, uning rasmiylashtirilishidagi mezonlarga amal qilinishi, estetik talablarga javob berishi dizayn mukammalligini ta'minlaydi hamda tashkilot mavqeyini mustahkamlaydi.

Muhokama (обсуждение/ discussion). Hujjat rasmiylashtirishning kognitiv talablari adresat tomonidan hujjatda uzatilayotgan axborotning qabul qilinishi, tushunilishi va qayta ishlanishini ta'minlovchi unsurlar hisoblanadi. Ular rasmiy axborotni to'g'ri uzatishga; ortiqcha va keraksiz ma'lumotlardan xoli qilib, diqqatni jamlashga; vizual effekt bilan axborotni tezkor o'zlashtirishga; uslub va terminologiya yordamida sifatli axborot yetkazishga xizmat qiladi[1,90]. Bular quyidagilar:

1. Standartlashtirish. Ish yuritish tizimida hujjatlarning samarali aylanishini yo'lga qo'yish uchun ularni standartlash, ya'ni etalon namunaga muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga ega. Har bir hujjatning etalon namunasi yaratilib, unga to'liq muvofiqlashtirish ***standartlashtirish*** talabi hisoblanadi. Hujjatchilikda faol qo'llaniladigan hujjatlarning nomi, ularning vazifasi, mazmun-mohiyati, matn qoliplari, hujjat rekvizitlari, uslubiy me'yorlari, har bir hujjatga va ish yuritish tizimiga tegishli atamalarning izohi va ketma-ketligini belgilab beruvchi tizim yaratilgandan keyin standartlashtirish talabi bajarilishi mumkin.

Standartlash tizimi hujjatlarni bir xil shakliy andozaga keltirishda hamda ularning boshqaruv tizimidagi vazifasi va mavqeini belgilashda etalon vazifasini o‘taydi.

Har bir hujjatning nomi, mazmun-mohiyati, ish yuritish tizimida bajaradigan vazifasi, boshqaruvda tutgan o‘rni, hujjat andozasi va matn qoliplarini bir xil me’yorlarga muvofiq bo‘lishi ***standartlashtirish*** *hisoblanadi.* Standart talablari to‘liq ta’minlangan hujjatlar haqiqiy hisoblanadi.

2. Qoliplilik. Qoliplilik shakliy talab sifatida ko‘rilsa-da, bevosita matn mazmuniga ham aloqadordir. Axborotning muayyan qolipda uzatilishi kognitatsiyani kuchaytiradi. Ayniqsa, axborot logistikasida muntazam qoliplarning kognitiv ahamiyati juda muhim. O‘zbek tilida ham ko‘plab hujjatlarning an’anaviy qoliplari, etalon sifatida tavsiya qilinadigan namunalari shakllangan. Qoliplilik etalon sifatida tavsiya qilinadigan, majburiy bo‘lmagan talabdir. Hujjatlar matnning mazmuniy qurilishiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: 1)muntazam matn qolipli hujjat modellari; 2)erkin matn qolipli hujjat modellari [1,201]. Hujjatlarning asosiy qismi qoliplashgan matnli hujjatlar bo‘lib, nisbatan erkin matn tuzilishiga ega hujjatlarda ham umumiy qolipli talablar mavjud.

Hujjat tuzilishining, matn qurilishining tasdiqlangan yoki an’anaga aylangan andozalar asosida shakllantirilishi ***qoliplilik*** *talabi hisoblanadi.* O‘zbek hujjatchiligi ancha rivojlangan bo‘lsa-da, bugungi kunda muomalada bo‘lgan hujjat namunalari asosan ruscha hujjatlarning andozalari asosida yaratilgan. Shu bois ularda ruscha matn qoliplarining ta’siri ko‘zga tashlanadi.

3. Asoslanganlik. Har qanday hujjat muayyan asosga tayanib tuziladi, biror voqea-hodisani hujjatlashtirish uchun unga asos talab etiladi. Shu bois asoslanganlikni hujjatchilikning o‘zgarmas talabi sifatida qarash mumkin. *Hujjatchilikda ish qog‘ozlarining biri ikkinchisini taqozo qilishi, bir hujjatning yaratilishiga asos bo‘luvchi sabablar* ***asoslanganlik*** *talabi hisoblanadi.*

4. Hujjat dizayni. Hujjatchilikka oid qo‘llanmalarning aksariyatida hujjat dizayni haqidagi talab xususida so‘z yuritilmaydi. Biroq bugungi davr hujjatchiligi uchun dizayn ham muhim ahamiyatga egadir.

Hujjat blankasi, uning zaruriy qismlari, hujjat matni texnik talablar darajasida chop etilishi; hujjatning ko‘rinishi, qog‘oz sifati, hujjat nomi va undagi muhim elementlarning yozilishi, ikkinchi darajali ma’lumotlarning kichikroq o‘l-chamlarda qayd etilishi, matnning standart o‘l-chovlarga mosligi, zaruriy qismlarning (rekvizitlar) o‘z o‘rnida bo‘lishi kabi ***texnik*** *va* ***estetik*** *talablar* ***hujjat dizayni*** *hisoblanadi.* Hujjat dizayni adresatda axborotni ijobiy qabul qilish va uning ijrosiga bo‘lgan maylini oshirishga xizmat qiladi.

Natijalar (результаты / results). Hujjat-larni tayyorlash jarayonida hujjat rasmiylashtirish-ning kognitiv talablariga alohida e’tibor qaratish kerak. Standartlashtirish, qoliplilik, asoslanganlik va hujjat dizayni kabi kognitiv talablara rioya qilish hujjat maqomini ta’milashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kognitiv talablarni ilmiy asosda o‘rganish va amaliyotda o‘rgatish hujjatchilik taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa (заключение / conclusion). Xulosa qilib aytganda, hujjat rasmiylashtirishga qo‘yila-digan kognitiv talablar hujjatda aks etayotgan ma’lumotning, axborotning shaklan va mazmunan mukammal ifodalanishini ta’minlaydi. Hujjatni rasmiylashtirish kognitiv talablar asosida bajarilsa, hujjat mukkammal shakl va ma’no muvofiqligiga ega bo‘ladi. Shu bois hujjatchilikda mazkur talablarga rioya qilish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Babadjanov F. Davlat tilida ish yuritish va hujjatchilik taraqqiyotining ilmiy-nazariy asoslari. Filol. fan. d-ri. … diss. – Toshkent, 2025. – 261 bet.
2. Ish yuritish: kasb-hunar kollejlari uchun darslik / A.A.Hasanov, R.A.Ishmuxamedova; O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi markazi. – Toshkent: Voris nashriyot MCHJ, 2007. – B. 17.
3. Narxadjayeva X.Sh. Rasmiy muloqot matnining lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi: Filol. fan. d-ri (DSc) ... diss. avtoref. – Qarshi, 2023. – B. 22-23.
4. Большой энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1991, т.2, – С. 407.
5. ГОСТ Р 51141-98. Делопроизводство и архивное дело. Термины и определения. – М.: Госстандарт России, 1998. – С. 2.
6. https://www.lex.uz/docs/-863120 (Murojaat sanasi: 30.01.2025).
7. https://lex.uz/docs/-5006288 (Murojaat sanasi: 30.01.2025).

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 94(575.1):070

NAVOIY VILOYATI IJTIMOIY-IQTISODIY VA MA'NAVIY HAYOTINI YORITISHDA MATBUOT ORGANLARINING O'RNI

Ruzimurodov Azizbek Shonazarovich, Sharq universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

THE ROLE OF THE PRESS IN COVERING THE SOCIO-ECONOMIC AND SPIRITUAL LIFE OF NAVOIY REGION

Ruzimurodov Azizbek Shonazarovich, teacher of the Department of "Social and Humanities" of the University of the East

РОЛЬ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ В ОСВЕЩЕНИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ И ДУХОВНОЙ ЖИЗНИ НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ

Рузимуродов Азизбек Шоназарович, преподаватель кафедры «Социально-гуманитарных наук» Университета Sharq

https://orcid.org/0009-0007-8698-9057
e-mail: shohsanamiskandarova@mail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Navoiy viloyati ijtimoiy hayoti, amalga oshirilgan islohotlar, davlat siyosatining hudud ijtimoiy hayotiga o'tkazgan ta'siri yoritilgan. Viloyatning iqtisodiy imkoniyatlari va bu imkoniyatlarning mamlakat iqtisodidagi salmog'i ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *Ommaviy axborot vositalari, matbuot, Navoiy viloyati, ijtimoiy hayot, iqtisodiy rivojlanish, ma'naviyat, jurnalistika, televideniye, radio, gazeta, axborot siyosati.*

Annotation: *In this article, the social life of Navoi region in the years of independence, the reforms carried out, and the influence of state policy on the social life of the region are highlighted. The economic opportunities of the region and the share of these opportunities in the economy of the country are shown.*

Keywords: *mass media, press, Navoi region, social life, economic development, spirituality, journalism, television, radio, newspaper, information.*

Аннотация: *В данной статье освещена социальная жизнь Навоийской области в годы независимости, проведённые реформы, а также влияние государственной политики на социальную жизнь региона. Показаны экономические возможности области и удельный вес этих возможностей в экономике страны.*

Ключевые слова: *средства массовой информации, пресса, Навоийская область, социальная жизнь, экономическое развитие, духовность, журналистика, телевидение, радио, газета, информационная политика.*

Kirish. XX asrga kelib insoniyat taraqqiyoti o'z rivoji davomida matbuotga bo'lgan ehtiyoji keskin ortdi. Shu bois ham dastlab varaqalar, so'ngra gazeta, jurnallar, keyinchalik radio va televedeniye, internet tarmog'i paydo bo'ldi. Bularning barchasini bugungi kunda ommaviy axborot vositalari sifatida ma'lum. Matbuot barcha bosma mahsulotlar majmui bo'lib, tor ma'noda davriy nashrlar, asosan gazeta va jurnallarni ifodalaydi. Matbuot ijtimoiy ongning o'tkir va ta'sirchan vositasi sifatida kishilik jamiyatiga doimiy va faol ta'sir ko'rsatadi, jamoatchilik fikrini shakllantiradi, omma onggiga muayyan qarashlarni singdirishda qudratli g'oyaviy omil hisoblanadi. Matbuot jamiyat hayotini turli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ishlab chiqarish, ilmiy texnikaviy va boshqa yo'nalishlarni yoritadi.

Adabiyotlar tahlili. Bir qator olimlar ushbu masalada ilmiy tadqiqot ishlarida mavzuning turli jihatlarini yoritishgan.Misol uchun N.Abduazizova (Turkiston matbuoti tarixi (1870-1917)), H.Akbarov (Kino san'ati tarixi), X.Do'stmuhammad (Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishning demokratik

andozalari), F.Ro‘ziev va X.Jo‘raeva (Telejurnalistga tavsiyalar), F.Mo‘minov (Sotsiologiya va jurnalist faoliyati), M.Xudoyqulov (Ommaviy axborot vositalari nazariyasi), O‘.O‘taev, Sh.Qudratxo‘jaev (Televizion – davr ko‘zgusi (Tarixi, buguni va ertasi haqida mulohazalar) va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari shular jumlasiga kiradi. Masalan, Xurshid Do‘stmuhammadning *Jurnalistning kasb odobi muammolari: nazariy-metodologik tahlil (Mustaqillik davri o‘zbek matbuoti faoliyati misolida 1991-2007-yillar)* nomli monografiyasida milliy matbuotshunoslikda hozirga qadar maxsus o‘rganilmagan jurnalistning kasb odobi muammolariga bag‘ishlangan. Ammo, sanab o‘tilgan soha olimlari tadqiqotlarida Navoiy viloyati matbuotining o‘tmishi bilan bog‘liq ba’zi ma’lumotlar mavjudligiga qaramasdan, ushbu tadqiqotlarda Navoiy viloyatining istiqlol yillaridagi matbuoti tarixi hamda matbuotning viloyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yoritishdagi o‘rni yoritilmagan hamda yaxlit holda o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada Navoiy viloyati matbuot tarixi hamda matbuotning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy hayotni yoritishdagi o‘rni va buning yoshlar ma’naviyatiga o‘tkazadidan ta’siri qiyosiy tahlil etilgan, uzviylik-xronologik tamoyilga asoslanib yaxlit tarix sifatida yoritilgan.

Tahlillar va natijalar. Istiqlol tufayli O‘zbekiston matbuoti taraqqiyotida ham sifat jihatdan butunlay yangi demokratik rivojlanish bosqichi boshlandi. Ommaviy axborot vositalariga bo‘lgan e’tibor kuchaydi. Endilikda tashkilotlar, partiyalar, uyushmalar matbuot nashrlarini ta’sis etish huquqiga ega bo‘ldilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev ommaviy axborot vositalari faoliyati va soha oldida turgan muhim vazifalar haqida gapirib shunday degan edi: “Yurtimizda turli mulk shakliga ega bo‘lgan 1513 ta ommaviy axborot vositasi, shuningdek, 122ta nashriyot faoliyat olib bormoqda. Ammo ularning barchasi ham bizning milliy g‘oyamizni rivojlantirish, xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qilyaptimi, degan savol ko‘ndalang turibdi. Xususiy nashriyotlarning ko‘pchiligi bir vaqtlar viloyatlarda ham nashriyotlar bo‘lsin, degan noto‘g‘ri yondashuv bilan tashkil etilgani, ularning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyati nihoyatda nochor ekani kitob degan mo‘tabar tushunchaning qadrini tushirishga olib kelayotgani hech kimga sir emas. Lekin bu muammoni qonuniy asosda qanday hal qilish mumkinligi haqida amaliy takliflar deyarli uchramaydi. Boshqalarga qanday, bilmadim-u, ammo mening nazarimda, bunday salbiy holatning bosh sababi mamlakatimiz axborot bozorining tartibga solinmagani bilan bog‘liq. Bu borada son emas, sifat va samara muhim. Mayli, nashriyotlar soni 122ta bo‘lmasin, ozroq bo‘lsin, lekin talabga javob beradigan bo‘lsin”[1].

Navoiy viloyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi muammolarni yoritishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni va roli katta hisoblanadi. Mustaqillikning dastlabki yillarida Navoiy viloyati qishloq xo‘jaligi, sanoat va boshqa yetakchi tarmoqlarni rivojlantirish uchun istiqbolli rejalar belgilangan edi. Ana shu rejalarning bajarilishi, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tish jarayonlari, bu borada qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar, hal etilishi kerak bo‘lgan muammolar viloyat, shahar va tuman gazetalari sahifalarida muntazam yoritilib borildi.

Gazetalarda ko‘p hollarda ishbilarmon va tadbirkorlar haqida tez-tez maqolalar chop etilib turildi. Maqsad bu ishni takomillashtirish, sanoat korxonalari bilan hamkorlikda ish olib borish, ularning bunyodkorlik ishlarini tahlil etib, xalqqa yetkazishdan iborat. Matbuot – xalqning, mamlakatning axborot oladigan va tarqatadigan ishonchli manbasi hisoblanadi.

Navoiy viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yo‘lidagi say-harakatlar, joylardagi o‘zgarish va yangiliklarni keng xalq ommasiga yetkazishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni beqiyosdir. Jurnalistlar bu vazifani bajarishda o‘z iste’dotlarini mahorat bilan ishga solib kelmoqdalar. O‘zbekiston matbuoti va televideniyesida Navoiy viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksalish yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlarni yoritishda “Xalq so‘zi” gazetasi viloyat muxbiri Hamdam Eshonqulov, O‘zbekiston axborot agentligi muxbiri, viloyat jurnalistlar uyushmasi raisi Yorqul Umarov, “O‘zbekiston” telekanali “Axborot” ko‘rsatuvi viloyat muxbiri Temur Eshboyev, “Yoshlar” telekanali “Davr” informatsion dasturi viloyat muxbiri Boboqand Umarov, “Народное слово” gazetasining muxbiri Farhod Mirzayev, “Правда востока” gazetasi viloyat muxbiri Dilfuza G‘ulomova, viloyat “Do‘stlik bayrog‘i” gazetasining bosh muharrir o‘rinbosari, jurnalist va shoira Salima Umarova, “Знамя дружбы” gazetasi muxbiri, “Oltin qalam” 2-Milliy xalqaro ko‘rik-tanlovi rag‘batlantiruvchi mukofoti sohibi Georgiy Trofimov, viloyat teleradiokompaniyasi muharriri Abduvali Nosirov, “Fazo” televideniyesi bosh muharriri O‘raloy Turdiyevalarning xizmatlari katta bo‘ldi[2].

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov barcha ziyolilar oldiga milliy mustaqillik mafkurasini yaratishni muhim masala qilib qo‘ydi. Uning rahbarligida yangi tarixiy davr ehtiyojlaridan kelib chiqib, mavjud g‘ayriinsoniy mafkura – kommunistik mafkuradan voz kechildi. Endi ana shu mafkura o‘rnini bosadigan insonparvar maslak, g‘oya zarur edi. Chunki ulkan aqliy bo‘shliqda muallaq hayot kechirish mamlakat ijtimoiy-siyosiy muhitini ham, ruhiy-ma’naviy iqlimini ham, odamlarning turmush tarzini ham izdan chiqarib yuborishi muqarrar edi. Mamlakat aholisi har qanday sharoitda ham insonparvar g‘oya uchun kurashishi, uning atrofida jipslashishi, aniq bir maqsadning ro‘yobiga intilishi zarur[3]. O‘zbek xalqini milliy istiqlol mafkurasi atrofida jipslashtirishdek ulkan vazifa barcha soha xodimlari singari jurnalist kadrlarga ham yuklandi.

O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, Navoiy viloyatida ko‘plab shogirdlarga ustozlik qilgan Hamdam Eshonqulov soha xodimlarining mashaqqatli mehnati haqida gapirish shunday degan edi: “Jurnalistlarning noni qattiq, u bilan umrguzaronlik qilishga har kim ham bardosh bera olmaydi. Bu ne’matdan halol, to‘g‘ri so‘z, fidoyi, haqiqattalab, to‘siqlardan cho‘chimaydigan, el dardi, Vatan dardi bilan yonib yashaydigan bardoshli kishilargina bahramand bo‘la oladilar. Haqiqatdan bu sohada qalam tebratish, uning quvonch-u zahmatlariga bardosh berib ishlash katta matonatni talab qiladi. “Haq”, “nohaq” so‘zlar lahzada yuraginga zaharli tikanlarini sanchiydi. Bu hol muammolar girdobida turganingda qalbingga jarohat yetkazadi. “Ko‘rsatma”li “vosita”li, “qo‘ng‘iroq”li, “oshna-og‘ayni”li topshiriqlar asablarni charchatadi”[4].

Navoiy viloyatida nashr etilib kelayotgan “Qonun himoyasida” gazetasida huquq tartibot organlari xodimlarining turli mavzularda maqolalari, sharhlari, savollarga javoblari chop etib kelinmoqda. Jumladan, odam savdosi, giyohvandlik kabi transmilliy jinoyatlar insoniyatni tashvishga solib kelmoqda. Gazetada prokuratura, sud, ichki ishlar va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining mazkur jinoyatlar va jinoyatning ayanchli oqibatlari xususidagi maqolalariga keng o‘rin berilib kelindi[5].

Navoiyda bevosita viloyat hokimligining say-harakati bilan katta bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Ijtimoiy sohalar faoliyati uchun binolar qurilib, ko‘chalar obod bo‘lmoqda. Qadimiy obidalar ta’mirlanib, qadamjolarga aylantirilyapti. Mavlono Orif Deggaroniy masjidi va qabri, Karmanadagi avliyo Xo‘ja Xisrav qabristoni ta’mirlandi[6].

2012-yili “27-iyun – matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni” munosabati bilan o‘tkazilgan viloyat tadbirida viloyat hokimi Erkinjion Turdimov so‘zga chiqib, butun mamlakatda axborot sohasini isloh qilish, axborot va so‘z erkinligi, sohada erishilayotgan yutuqlar xususida fikr bildirdi. Viloyatda bu borada sezilarli natijalarga erishilgani, jumladan, viloyat va respublika tanlovlarida soha xodimlarining muvaffaqiyatlarini e’tirof etdi. Xususan, tuman va viloyat nashrlarida mehnat qilayotgan o‘z kasbining fidoyilari, Navoiyning o‘ziga xos jurnalistika maktabi bu erishilgan yutuqlar bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ta’kidlandi[7].

Mustaqillik yillari mobaynida aholini ijtimoiy muhofaza qilishning yangi mexanizmi yaratildi. Bunda aniq iqtisodiy vaziyat, mavjud imkoniyatlar hisobga olindi. Davlat eng avvalo aholini ijtimoiy madadga muhtoj bo‘lgan tabaqalarini himoya qilishni o‘z zimmasiga oldi. So‘nggi yillarda ommaviy axborot vositalariga bo‘lgan e’tibor unga bo‘lgan talab va ehtiyojning oshib borayotganligini hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalaridagi xolislik, dadillik, har bir mavzuga tahliliy yondashuv uning sahifalarida o‘z aksini topmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, qonunlar sharhi, ularning ijrosini ta’minlash borasida olib borilayotgan ishlar ham gazetxonlarni o‘ziga jalb qilmoqda. Jamoa safiga yosh kadrlarning qo‘shilishi ham matbuotning mavqeini oshirib, uning rang-barangligini ta’minlamoqda.

O‘zbekiston Respublikasidagi eng katta tuman Konimex sanaladi. Tuman markazidan eng chekka ovullarga borish uchun 300 km dan ziyod yo‘l yurish kerak. Aholisi soni 35,6 ming nafarni (2019) tashkil etadi. Bu hududning yana bir e’tiborli jihati shundaki, tumanda 20 dan ortiq millat va elat vakillari o‘zaro ahil, hamjihatlikda yashab kelmoqda. Shuningdek, tumanda qozoq, qoraqalpoq milliy-madaniy markazlari faoliyat olib bormoqda[8].

2016-yili “Navoiy PRESS”, “Karmana ovozi”, “Navbahor tongi” gazetalari va “Qalb qo‘yoshi” jurnali tahririyatlari Oliy Majlis huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi grant loyihalarini yutib, har biri 25 million so‘mlik mablag‘ni qo‘lga kiritdi[9].

Matbuotda jamiyat ijtimoiy hayotidagi o‘tkir muammolar ham yoritilib kelindi. Masalan, sog‘liqni saqlash tizimidagi muammolar, erta nikoh, giyohvandlikning oldini olishga bag‘ishlangan

maqolalar gazetalarda ko‘p uchraydi. Bunda erta turmushning organizmga zarari, erta tug‘ruq salbiy oqibatlari, ba’zi hollarda yosh onaning o‘limiga ham sabab bo‘lishi haqida tushuntirish olib borilgan[10]. Shuningdek, 26 iyun – Xalqaro giyohvand moddalarni suiiste’mol qilish va ularning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash kuni hisoblanadi. Shu munosabat bilan viloyat ommaviy axborot vositalarida ushbu qora og‘uning salbiy oqibatlari haqida muhim ma’lumotlar berib boriladi. Viloyat narkologiya dispanserida tashkil etilgan “Ishonch” telefoni orqali giyohvandlik kasalligini oldini olish va davolanish usullari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan[11].

Navoiy viloyatida televideniye va radio, gazeta va jurnallar aholining axborotga bo‘lgan ehtiyojini to‘la ta’minlamoqda. Navoiyda nafaqat viloyat nashrlari, balki, viloyat markazidan olisda joylashgan Tomdi, Uchquduq kabi tumanlarning o‘z gazeta va jurnallari, televideniyelariga ega bo‘lishi, eng asosiysi esa, ularning kishilar ko‘nglidan joy olganligi, haqiqatdan tahsinga sazovor.

Malika To‘xtayeva va Suyundiq Mustafoyevning tashabbusi bilan teleradiokompaniyada “Siyosat haftaligi” o‘tkazilgan. Jahonda, respublikada yuz berayotgan islohotlar, yangiliklar, siyosat olami kabi mavzularda mulohaza va mushohadalar olib borilgan. Muxbirlarning bilimi, saviyasi va dunyoqarashini oshirish uchun bu tadbirlar juda o‘rinli tashkil etilgan edi. Shu davrda teleradiokompaniya o‘z binosiga ega bo‘lgan. Bu orada radio uchun ham yangi jihozlar olib kelinib, ish unumi oshgan[12].

Xulosa. Navoiy viloyat gazetalari materiallar chop etish, radio eshittirish va teleko‘rsatuvlar orqali xalq deputatlari kengashi, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, xo‘jalik boshqaruv organlari va boshqa tuzilmalar faoliyatini xolis yoritishni maqsad qiladi. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari matnlari, Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senati qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarini, ularning majlislari va yig‘ilishlariga doir materiallarni yoritib boradi. Jahonda, mamlakatda va Navoiy viloyati ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotida sodir bo‘layotgan demokratik o‘zgarishlarni,voqealarni xolis va haqqoniy tarzda yorituvchi materiallar hamda axborotlarni muntazam e’lon qilib boradi. Shuningdek, tarixiy, umuminsoniy, ma’naviy, madaniy qadriyatlarga, an’analarga qiziqish o‘sib borayotganligi munosabati bilan mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning maqsad va yo‘nalishlarini keng yoritib boradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018.–Б.186-187.
2. Матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимлари куни муносабати билан вилоят ҳокими Б.Рўзиевнинг байрам табриги // Do‘stlik bayrog‘i. 2007 йил 26 июнь. 35-сон.
3. Жўраев Н. Тарихий давр кашфиёти. – Тошкент: Университет, 2023. – Б.245.
4. Масъулиятли вазифалар олдида // Do‘stlik bayrog‘i. 2007 йил 26 июнь. 35-сон.
5. Ҳасанов А. Давр эврилишларига ҳамоҳанг // Qonun himoyasida. 2013 йил 16-30 июнь. 12-сон.
6. Масъулиятли вазифалар олдида // Do‘stlik bayrog‘i. 2007 йил 26 июнь. 35-сон.
7. Муҳаммадиев Д. Бизнинг айём // Navoiy press газетаси. 2012 йил 28 июнь 26-сон.
8. Мустафоев Ж., Нарзуллаев У., Бердимуратова Л., Сафаров З. Конимех тумани: кеча ва бугун. – Тошкент: Sahhof, 2020. –Б.220.
9. Умирзоқов Ж. Тарбия ва ахборот олишнинг муҳим бўғини// Do‘stlik bayrog‘i. 2016 йил 27 июнь. 52-сон.
10. Бақоева Ф. Эрта никоҳ муаммосига бағишланади // Do‘stlik bayrog‘i”. 2015 йил 26 июнь. 51-сон.
11. Соатов М. Инсон ҳаётига рахна солувчи оғу// Do‘stlik bayrog‘i. 2012 йил 26 июнь. 51-сон.
12. Соатов М. Инсон ҳаётига рахна солувчи оғу// Do‘stlik bayrog‘i. 2012 йил 26 июнь. 51-сон.

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 81'373.21; 81'42; 316.772

OZIQ-OVQAT PRAGMATONIMLARINI YARATISHNING LINGVISTIK VA IJTIMOIY ASOSLARI

Madrimova Zamira G'aniy qizi, UrDU O'zbek tili yo'nalishi 2-kurs tayanch doktoranti

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ СОЗДАНИЯ ПИЩЕВЫХ ПРАГМАТОНИМОВ

Мадримова Замира Ганиевна, базовый докторант УрГУ по специальности Узбекский язык

LINGUISTIC AND SOCIAL FOUNDATIONS OF FOOD PRAGMATONYMS

Madrimova Zamira Ghaniy qizi, 2nd year doctoral student in the Uzbek language department at Urdu State University

https://orcid.org/0009-0000-6949-3809

e-mail: zamiramadrimova95@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oziq-ovqat pragmatonimlarini yaratishda lingvistik va ijtimoiy jihatlar tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotda leksikografik, grammatik, orfografik, onomasiologik, uslubiy, orfoepik, iqtisodiy, tarixiy, ekologik va ma'naviy yondashuvlar asosida pragmatonimlar o'rganildi. Tadqiqot metodlari — deskriptiv, analitik, komparativ, lingvokulturologik va huquqiy-normativ yondashuvlarni o'z ichiga oladi.*

Kalit so'zlar: *pragmatonim, lingvistik tamoyillar, leksikografik tamoyil, grammatik tamoyil, orfografik va grafik tamoyil, onomasiologik tamoyil, uslubiy tamoyil, orfoepik tamoyil, iqtisodiy tamoyil, tarixiylik tamoyili, ekologik tamoyil, ma'naviylik tamoyili.*

Abstract: *This article provides a systematic analysis of the linguistic and social aspects involved in the creation of food pragmatonyms. The study examines pragmatonyms through lexicographic, grammatical, orthographic, onomasiological, stylistic, orthoepic, economic, historical, ecological, and ethical perspectives. The research employs descriptive, analytical, comparative, linguoculturological, and legal-normative approaches.*

Keywords: *pragmatonym, linguistic principles, lexicographic principle, grammatical principle, orthographic and graphic principle, onomasiological principle, stylistic principle, orthoepic principle, economic principle, historicity principle, ecological principle, moral/ethical principle.*

Аннотация. *В данной статье системно анализируются лингвистические и социальные аспекты, связанные с созданием пищевых прагматонимов. Исследование охватывает прагматонимы с точки зрения лексикографики, грамматики, орфографии, ономасиологии, стилистики, орфоэпики, экономики, истории, экологии и этики. В работе используются дескриптивный, аналитический, компаративный, лингвокультурологический и правово-нормативный подходы.*

Ключевые слова: *прагматоним, лингвистические принципы, лексикографический принцип, грамматический принцип, орфографический и графический принцип, ономасиологический принцип,*

стилистический принцип, орфоэпический принцип, экономический принцип, принцип историчности, экологический принцип, принцип духовности.

KIRISH. Zamonaviy tilshunoslikda tovar nomlari – pragmatonimlarning lingvistik tahlili brendshunoslik, marketing va kommunikatsiya nazariyalari bilan kesishuvchi dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida shakllanmoqda. Global brendlash jarayonlarining kuchayishi til, madaniyat va psixologiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yanada yaqqol namoyon etmoqda. Shu sababli, tovar belgilarini faqat iqtisodiy emas, balki lingvistik va sotsiokulturologik fenomen sifatida o‘rganish zarurati ortmoqda. Tovar belgisi — bu nafaqat mahsulot yoki xizmatni nomlash vositasi, balki til orqali iste’molchiga ma’lum hissiy, estetik va madaniy ta’sir ko‘rsatadigan kommunikativ birlikdir.

Mazkur maqola “Oziq-ovqat pragmatonimlarining tamoyillari va ularga qo‘yiladigan talablar” nomli oldingi tadqiqotimizning mantiqiy davomi bo‘lib, unda oziq-ovqat pragmatonimlarining fonetik, leksik va psixolingvistik asoslari tahlil qilingan bo‘lsa, ushbu ishda ularning leksikografik, grammatik, orfografik, garfik, onomasiologik, uslubiy, orfoepik, iqtisodiy, tarixiy, ekologik va ma’naviy jihatlari izchil yoritilgan. Shu tariqa, mazkur tadqiqot avvalgi ilmiy natijalarni kengaytirish hamda oziq-ovqat pragmatonimlarining lingvistik tizimini yanada mukammal ochib berishga qaratilgan.

O‘zbekiston va Markaziy Osiyo kontekstida madaniy, iqtisodiy va huquqiy omillarning uyg‘unlashuvi jarayonida brend nomlari xalq ongida identifikatsiya, ishonch va iste’mol motivatsiyasini shakllantiruvchi muhim vositaga aylanmoqda. Shu bois, oziq-ovqat pragmatonimlarini yaratishning lingvistik va ijtimoiy asoslarini tadqiq etish nafaqat tilshunoslik, balki marketing, madaniyatshunoslik va huquqshunoslik sohalarini birlashtiruvchi ko‘p qirrali masala sifatida ahamiyat kasb etadi.

Tovar belgilarining shakllanishida fonetik, semantik, psixolingvistik, madaniy va kommunikativ omillar muhim rol o‘ynaydi. Shu sababdan, nomlash jarayonida kompleks yondashuvni qo‘llash zarurati mavjud. Mazkur yo‘nalishda jahon va o‘zbek tilshunosligida qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, rus tilshunosligida L.P.Kazanskaya [1,94], V.Y.Kojanova [2,13], o‘zbek tilshunosligida esa D.Lutfullayeva, M.Saparniyazova [6], R.Davlatova [7], F.Ashurova[4], [5] hamda internet manbalarida [11] tovar belgilarining nominatsiya xususiyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi huquqiy-me’yoriy hujjatlarida [8] tovar belgisi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilishi mumkin bo‘lmagan nomlar aniq ko‘rsatib o‘tilgan.

METODOLOGIYA. Mazkur tadqiqotda oziq-ovqat pragmatonimlarini nomlash jarayonida amal qilinadigan lingvistik tamoyillar tizimli tahlil qilindi. Maqsadga erishish uchun deskriptiv, analitik, komparativ, lingvokulturologik va huquqiy-normativ metod kabi lingvistik metodlardan kompleks foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. So‘nggi yillarda tovar belgilariga nisbatan yondashuv tubdan o‘zgardi: ular endilikda nafaqat identifikatsion vosita, balki madaniy, iqtisodiy va kommunikativ ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘p qatlamli birlik sifatida talqin etilmoqda. Bunday holat brend nomlarini yaratishda izchil va ilmiy asoslangan lingvistik tamoyillarga tayanishni taqozo etadi.

Brend nomlariga oid lingvistik tahlillar ushbu soha tasodifiylikdan xoli ekanini ko‘rsatadi — har bir pragmatonim ortida muayyan konseptual yondashuv, fonetik uyg‘unlik, semantik maqsadlilik va madaniy asos mavjud. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotda tovar belgilarini yaratishda amal qilinadigan tamoyillarni chuqur tahlil qilish va ularning funksional asoslarini aniqlash maqsad qilib olindi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, tovar belgilarining shakllanishi hamda ularning kommunikativ samaradorligi quyidagi lingvistik va pragmatik tamoyillarga tayanadi:

TAMADDUN NURI

I. Leksikografik tamoyil. Bu tamoyilga ko‘ra, tovar belgisi lug‘atga kiritilishi mumkin bo‘lgan aniq semantik struktura va keng ishlatilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Leksikografik tamoyil tovar belgilarining so‘z boyligi va leksik birlik sifatida qabul qilinish imkoniyatlarini ifodalaydi. Nom yangi so‘z yasalishida yoki sinonomik bog‘liqlikda o‘rganilishi kerak. Masalan, “*Google*” brendi so‘z yasalishida yangi fe’l sifatida qabul qilingan (“to google” — qidiruv qilish), biroq u dastlab tovar belgisi sifatida yaratilgan bo‘lsa ham hozirda lug‘atlarga kiritilgan. “*Aspirin*” — ilgari Bayer kompaniyasining tovar belgisi bo‘lsa ham hozir umumiy atama sifatida ishlatiladi. “*Rollton*” — bu xalqaro darajada mashhur bo‘lgan tez tayyorlanadigan makaron brendi bo‘lib, hozirgi kunda deyarli barcha tez tayyorlanadigan makaron mahsulotlari uchun umumiy nom sifatida ishlatiladi.

II. Grammatik tamoyil. Tovar belgisining grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilganligini, shakllanganligini ta’minlaydi, ya’ni tovar belgisi til qoidalariga to‘liq mos bo‘lishi kerak. Bu o‘quvchiga noto‘g‘ri qabul qilinish xavfini kamaytiradi. Jumladan, pragmatonimlar tarkibidagi so‘z yasovchi, lug‘aviy va sintaktik shakl yasovchi affikslar to‘g‘ri qo‘llanilgan bo‘lishi lozim. “*To‘yona*” (kolbasa), “*XOSIYATLI*” (un); “*Shirintoy*” (bolalar sosiskasi), “*Somsajon*” (somsa), “*CHIKKENBEK*” (tovuqli taom); “*O‘ZBEGIM*”, “*VOLIDAM*” (un). Shuningdek, ayrim pragmatonimlar tarkibiy jihatdan birikma shaklida bo‘lishi mumkin. Ushbu tipdagi nomlar komponentlari ham o‘zbek adabiy tilining grammatik me’yorlariga mos bo‘lishi, ya’ni qismlarning teng yoki tobe aloqasi to‘g‘ri shakllantirilgan bo‘lishi lozim. Masalan, “*Vodiy shirinliklari*”, “*Milliy shirinlik*” (pishiriq), “*Tuxumli SPAGETTI*” (makaron) “*DARDLARGA DARMON*” (6 xil meva va o‘simlikdan tayyorlangan jem), “*Yoshlik eliksiri*” (Anjir va 7 xil turdagi yog‘lardan eliksir).

III. Orfografik va grafik tamoyil. Pragmatonimlarda grafik va orfografik tamoyillar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lsa ham ularning funksiyasi farqlanadi: **grafik tamoyil** — yozuv tizimi, harf shakli, belgilar va vizual uyg‘unlikni tartibga soladi. **Orfografik tamoyil** esa so‘zning imlo, fonetik va morfologik tuzilishiga mos yozilishini belgilaydi. Ushbu tamoyillarga amal qilish brend nomining til me’yoriga mosligi, estetik jozibadorligi va iste’molchida ishonch uyg‘otishi uchun zarurdir. Grafik va orfografik me’yorlarning buzilishi esa pragmatonimning o‘qilishi, tushunilishi va yodda qolishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. “Nom hosil qilishda o‘zbek tilining orfografik me’yoriga amal qilinishi nomning iste’molchi tomonidan to‘g‘ri idrok etilishiga xizmat qiladi. Imlo xatolari bilan yozilgan nom iste’molchida salbiy hissiyotlarni hosil qiladi. Nomlar til egalarida kulgi qo‘zg‘atmasligi lozim [3, 44]”. Oziq-ovqat pragmatonimlari tahlilida orfografik va grafik tamoyil buzilgan holatlar tez-tez uchraydi. Ular quyidagi turlarda namoyon bo‘ladi:

1) X va H bilan bog‘liq xatoliklar: “*SHOX*” (pishloq) – SHOH;

2) E va Ye bilan bog‘liq xatoliklar: “*Engil by Musaffo*” (yogurt) – Yengil by Musaffo;

3) O‘ / G‘ harfining belgisi xato qo‘llanilishi yoki belgining tushib qolishi bilan bog‘liq xatoliklar: “*KOZA QATIQ*” (qatiq) – KO‘ZA QATIQ, “*TYAN-SHAN QORONG‘I TOQAY*” (asal) – TYAN-SHAN QORONG‘I TO‘QAY

7) ruscha-inglizcha leksik birliklar bo‘yicha kuzatiladigan xatoliklar:

a) ruscha*BO’G’IRSOQ*” (un) – BO‘G‘IRSOQ;

4) chiziqcha bilan bog‘liq xatoliklar: “*Fayz Baraka*” (pishiriq), “*Zo‘r Zo‘r*” (lapsha), “*POK-NUR*”, “*BOG‘OT-DON*”(un);

5) katta va kichik harflar ishlatilishi bilan bog‘liq xatoliklar:

a) “*CHO‘L ASALi*” (asal) – CHO‘L ASALI, “*Uy Qatig‘i*” (qatiq) – Uy qatig‘i;

b) “*BOMBAloq*” (muzqaymoq), “*SheRin*” (kolbasa), “*aSIL*” (sharbat);

6) harflarning ortiqcha yoki kam ishlatilishi: “*МАЗЗАЛИ ЧУЧВАРА*” (yarim tayyor mahsulot) – *МАЗАЛИ ЧУЧВАРА*-inglizcha pragmatonimlarning lotin grafikasida yozilishi: “*RADUGA*” (sosiska), “*IMPERIA*” (un), “*BAVARSKIY*” yarim dudlangan kolbasa; “*ZULYA BARAKA*” (tuzlamalar); “*KUKU RUZIK*” (makkajo‘xori qalamchalari), “*ISTOCHNIK Molodosti*” (mineral suv), “*Molochnaya*” (pishiriq);

b) ruscha-inglizcha pragmatonimlarning lotin grafikasida notoʻgʻri hamda talaffuziga koʻra yozilgan pragmatonimlar: “*Evro_Vkus*” (yarim tayyor ovqatlar), “*Frutti*” (mevali jele tayoqchalari, shirinlik) – Frutty (inglizcha), “*IZI CORN*” (pop korn) – IZI – EASY (ing.), FAVORIT (adjika) – FAVOURITE (ing.);

d) oʻzbekcha pragmatonimlarning ruscha talaffuziga koʻra yozilishi: “*ЧУПОНЧА*”, “*КАВУРДАК*”, “*МАШКИЧИРИ*”, “*НУХАТ ШУРАК*”, “*Узбекский ПЛОВ*” (goʻsht konservalari, anʼanaviy oʻzbek taomlari), “*Piala*”, “*Ш А Х GOLD*” (choy), “*Караван*” (makkajoʻxori qalamchalari), “*Тандыр*” (goʻsht mahsuloti);

e) kirill va lotin yozuvlarining aralash ishlatilishi: “*Тухумли SPAGETTI*” (makaron), “*Milk Живой*” (sut), “*Fresh йогурт*”(yogurt).

IV. Pragmatonimlar onomasiologiyasi — nominatsiyasi // onomasiologik tamoyil. Bu mahsulotga nom tanlanayotganda isteʼmolchining qiziqishini orttirish va boshqa nomlardan ajralib, yaqqol koʻzga tashlanib turishi uchun yangi soʻz yasash / hosil qilishdir. Shu maqsadda nomlar yangi soʻz yasalish imkoniyatlariga ega boʻlishi, murakkablikdan saqlanib qolishi va tilga moslashgan holda ishlatilishi lozim. Masalan, “*Sarafroz*” (pokiza goʻsht mahsulotlari) — forscha oʻzlashma yasama soʻz, “*Mazzalak*” (bolalar ovqati), “*BAYRAMONA*” (pishiriqlar), “*SHIFOMIX*” (quruq mevalardan tayyorlangan shirinlik), “*Sutli*” (konfet), “*XOSIYATLI*”, “*SHODLIK*”, “*Barakali*” (un).

Biroq, “*Marjon Sweets shirinliklari*” (pishiriq), “*MILLIY WATER*” (gazlanmagan suv), “*NON by ADILOV*”, “*Nur Bakery*” (non mahsulotlari) kabi *milliy soʻz + xorijiy soʻz* qolipidagi pragmatonimlar pragmatonimlar nominatsiyasi tamoyillariga ziddir, chunki ular isteʼmolchilarda tushunarsizlik holatini keltirib chiqaradi, bundan tashqari milliy tilga nisbatan bepisandlik, behurmatlik kabi illatlarning rivojlanishiga zamin yaratib beradi.

V. Uslubiy tamoyil tovar nomining estetik, emotsional, ijtimoiy va madaniy taʼsirini koʻrsatish muhim mezonlardan biridir. Tovar nomlari maqsadli auditoriya uslubiga mos boʻlishi kerak.

Uslubiy tamoyil brend nomining stilistik xususiyatlarini, yaʼni uning ogʻzaki nutqda qanday ohangda yangrashini, xalq tiliga yaqinligini, emotsional rang-barangligini va badiiy-estetik taʼsirini oʻrganadi. Pragmatonimdagi uslubiy belgilar brendni yodda saqlash, tanib olish, isteʼmolchiga hissiy taʼsir qilishda asosiy omil boʻlib xizmat qiladi.

Stilistika va pragmatika kesishmasida brend nomlari, koʻpincha, emotsional va ekspressiv jihatdan kuchli boʻlishi kerak. Bunga xalq tiliga xos soʻzlar, erkalovchi qoʻshimchalar va yengil fonetik qurilishlar orqali erishiladi. Uslubiy vositalar, ayniqsa, fonosemantika bilan birgalikda ishlaganda, pragmatonimga kontekstga xos obraz beradi. Masalan, “*Mazzalak*” soʻzining oʻzida erkalovchi va quvnoq ohang bor, bu esa u orqali ifodalangan mahsulotni shirin, mazali va zavqli qilib tasavvur ettiradi.

Stilistik jihatdan muvaffaqiyatli pragmatonimlar xalq tilidagi shablonlarga mos keladi: soʻzning ritmik tuzilishi, qoʻshimchalarning emotsional yuki, qiziqarli va oʻzgacha eshitilishi — bularning hammasi — stilistik tamoyilning brend identifikatsiyasidagi ahamiyatini oshiradi.

Demak, pragmatonimdagi uslubiy tamoyil uning stilistik yaroqliligi, emotsional ekspressivligi va estetik jozibadorligi orqali namoyon boʻladi. Bunday tamoyil, ayniqsa, quyidagi mahsulot nomlarida xalq ogʻzaki uslubiga yaqin, fonosemantik jihatdan yoqimli va esda qoluvchi shaklda yuzaga chiqadi: “*Mazzalak*” (bolalar ovqati), “*Somsajon*” (somsa), “*CHICKENBEK*” (pishirilgan tovuq goʻshti), “*GAP YOʻQ*” (paxta yogʻi), “*Mozzi*” (sut mahsulotlari).

Uslubiy tamoyil quyidagi talablarni oʻz ichiga oladi:

1) adabiy meʼyor: “*EʼZOZ*”, “*YANGI AVLOD*”, “*ZIYO*” (un);

2) davlat tilida yaratilishi: “*Arqon*” (kolbasa), “Yurtim” (sharbat), “ATLAS” (muzqaymoq). Ammo “*UNO*” (un) kabi pragmatonimlarda xaridor mahsulot haqida hech qanday tasavvurga va maʼlumotga ega boʻlmaydi;

3) nutqiy ixchamlik: “*XON*”, “*RIZQ*” (un), “*VOHA*” (paxta yogʻi);

4) emotsional-ekspressivlik – *"NAFIS*", "*Lazzat*", "*Shodlik*", "*Rohatijon*", "*A'lo*", "*GAP YO'Q*" (paxta yog'lari), "*Mozzi*" (sut mahsulotlari).

VI. ORFOEPIK TAMOYIL — tovar belgisi talaffuz qilishda qulay va tabiiy bo'lishi kerak. Masalan, "*IYMON*", "*Turon*" (un).

Biroq ayrim xalqaro brend nomlari mahalliy tillarda fonetik buzilishlarga uchraydi: "*Nike*" — "Nayki" deb talaffuz qilinishi kerak.

"*Huawei*" — "Xua-vey" — ko'pchilik noto'g'ri talaffuz qiladi.

Bu kabi holatlar boshqa tillarda ham uchraydi. Masalan, arab tilida so'zlashuvchi auditoriya ham bu brendlarni grafik ko'rinishiga binoan noto'g'ri o'qiydi [9,16]. Bu holat global miqyosda pragmatonimlar yaratishda orfoepik tamoyilning muhimligini ko'rsatadi.

VII. Iqtisodiy tamoyil brend nomining bozorda raqobatbardosh bo'lishi, xaridorga moliyaviy manfaat keltirishi yoki iqtisodiy qadriyatlar bilan bog'liq assotsiatsiyalar uyg'otishini anglatadi. Bu tamoyilga ko'ra, tovar belgisi:

mahsulotning arzonligi yoki tejamkorligini ("*Budget*", "*Tejamkor*"); **sifat va narxning muvozanatini** ("*Best Price*", "*Optimal*"); **boylik, baraka yoki farovonlik** tushunchalarini ("*Nasiba*", "*Baraka*", "*Rizq*"); **daromadli investitsiya yoki xarid** bo'lishini ta'kidlashi kerak ("*Profit*", "*Invest*", "*Sarmoya*", "*Daromad*") mumkin.

Iqtisodiy tamoyil orqali pragmatonim nafaqat mahsulotni nomlashda, balki uni bozorga chiqarishda sotuvni oshiruvchi psixologik mexanizm sifatida ham xizmat qiladi, shuningdek, u xaridor ongida foyda, tejamkorlik va ishonch assotsiatsiyalarini uyg'otadi.

Iqtisodiy tamoyil quyidagi talablarni o'z ichiga oladi:

1) bozorga monandlik: "*Halol*", "*Baraka*" (kolbasa mahsulotlari) — go'sht va kolbasa mahsulotlari uchun mos nom;

2) narx kategoriyasiga mosligi: "*Marvarid*" (shokolad), "*ASL TILLA*" (kolbasa).

"*Rolex*" — hashamatli, "*Casio*" esa ommaviy segmentga mos keladi[10,132].

3) **marketologik moslik: "*Lays*"** — yosh va faollikni aks ettiradi.

"*Kinder*", "*Mazzalak*" — bolalar segmentiga yo'naltirilgan;

4) raqamli brendingga moslik: **"*Pepsi*"**, **"*Coca-Cola*" (ichimliklar)**;

5) patent va huquqiy himoya talabi: **"*Nestlé*"**, **"*Danone*"**.

VIII. Tarixiylik tamoyili pragmatonim milliy yoki jahon tarixiga oid mazmunga ega bo'lib, tarixiy shaxs, voqea, joy yoki xalq eposlari bilan bog'liq bo'lgan holatda tarixni buzib ko'rsatmaslik va noto'g'ri talqin qilmaslik zarur. Masalan, "*ASL FARHOD*", "*ALPOMISH*" (kolbasa), "*JAYHUN*" (osh tuzi).

IX. Ekologik tamoyil pragmatonim ekologik xavfsizlik, tabiiylik va yashil iqtisodiyot tamoyillariga mos yaratilganda, ekologik sifat, tabiiy mahsulot va barqaror ishlab chiqarish konseptini aks ettiradi. Masalan, "*musaffo*" (yogurt), "*SOF*", "*ASL BILLUR*" (osh tuzi), **"*Tabiiy*"** (tuzlama).

X. Ma'naviylik tamoyili pragmatonim jamiyatning axloqiy va ma'naviy qadriyatlariga zid bo'lmasligi, ijobiy axloqiy-assotsiativ xususiyatga ega bo'lishi lozim. Masalan, "*HALOL*" (kolbasa), "*IYMON*" (un).

XULOSA. Oziq-ovqat mahsulotlariga nom berishda lingvistik asoslarning izchil qo'llanilishi brendning nafaqat esda qolarli va estetik jihatdan jozibador bo'lishini, balki uning madaniy, iqtisodiy hamda kommunikativ samaradorligini ham ta'minlaydi. Ushbu tadqiqot doirasida tahlil qilingan uslubiy, orfoepik, iqtisodiy, tarixiy, ekologik va ma'naviy omillar har bir pragmatonim ortida puxta lingvistik, ijtimoiy va estetik konsepsiya mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, xalq tiliga yaqin, fonosemantik jihatdan uyg'un va milliy qadriyatlarni ifodalovchi nomlar iste'molchi ongida ijobiy assotsiatsiyalarni shakllantiradi. Shu bois, brend nomlarini yaratishda til me'yorlariga, madaniy moslikka, estetik idrok va maqsadli auditoriya ehtiyojlariga e'tiborli yondashish globallashuv sharoitida muvaffaqiyatli brendlashning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Казанская Л.П. Лингвистические проблемы нейминга // Linguistica Bidgostiana. – Bydgoszcz, 2012. – С.94.

2. Кожанова В.Ю. Лингвистические основы наименований брендов (на примере английского и русского языков): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Краснодар, 2007. – С.13).

3. Lutfullayeva D.E. O‘zbek tilida nom yaratish texnologiyasi (tadbirkorlik faoliyati obyektlari, korxona, firma, iste’mol tovarlari nomlari). Monografiya. T, 2021. – B. 44.

4. Kompaniyaga yoki mahsulotga nom qanday tanlanadi // Norma.uz. URL: https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/kompaniya_eki_mahsulotga_nom_qanday_tanlanadi (murojaat qilingan sana: 05.07.2025).

5. Nom yaratish uslubiyati//Norma.uz. URL: https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/nom_yaratish_uslubiyati (murojaat qilingan sana: 05.07.2025).

6. Лутфуллаева Д., Сапарниязова М. Ўзбек тилида ном яратиш муаммолари // Тил ва адабиёт таълими. – 2019. – № 10.

7. Davlatova R. Nom yaratish yuzasidan uslubiy tavsiyalar // Globallashuv sharoitida o‘zbek tili va o‘zga tillar munosabati: muammo va yechimlar mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. – Navoiy, 2019.

8. O‘zbekiston Respublikasining Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risidagi Qonuni, 10-modda. URL: https://lex.uz/docs/-24925?ONDATE=03.02.2022 (hujjat 03.02.2022 sanasi holatiga).

9. Al-Jarf R. Proper Noun Pronunciation Inaccuracies in English by Educated Arabic Speakers // British Journal of Applied Linguistics. – 2022. – Vol. 4, № 1. – B. 14–21. – DOI:10.32996/bjal.2022.2.1.3

10. Aaker D.A. Building Strong Brands.-New York: Free Press, 1996. - P. 132.

11. Marketopedia. Онлайн энциклопедия маркетинга // http://marketopedia.ru/114-naming.html (murojaat qilingan sana: 05.07.2025).

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 811.512.15

VERBALIZATION OF THE CONCEPT «LIFE / O‘MIR» IN ENGLISH AND KARAKALPAK LANGUAGES AT THE LEVEL OF LEXICAL UNITS

Djabbarbergenova Miyirkhan Maksetbay kizi, A PhD student of Nukus State Pedagogical Institute

«LIFE / O‘MIR» KONSEPTINING INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDA LEKSIK BIRLIKLAR DARAJASIDA VERBALLASHTIRILISHI

Djabbarbergenova Miyirxon Maksetbay qizi, Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «LIFE/ ӨМИР» В АНГЛИЙСКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ НА УРОВНЕ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Джаббарбергенова Мийирхан Максетбай кызы, базовый докторант Нукусского государственного педагогического института

https://orcid.org/0009-0009-3786-691X
e-mail: miyirkhanmaksetovna@gmail.com

***Abstract**: Lexical units are fundamental elements of the language system that serve to represent and categorize concepts of reality. In comparative linguistics, analyzing lexical units across different languages makes it possible to reveal both common patterns and language-specific distinctions in conceptual representation. The given article examines the verbalization of the concept "Life/O‘mir" at the level of lexical units and covers various aspects related to lexical units denoting life, including their semantic, denotative and pragmatic features and analyzes how various linguistic constructions used in English and Karakalpak languages emphasize the diversity of the spector of the meaning of this concept.*

***Keywords**: life, cultural linguistics, concept, aspects, lexical meaning, denotative.*

***Annotatsiya:** Leksik birliklar til tizimining asosiy unsurlari bo‘lib, ular voqelik tushunchalarini ifodalash va tasniflashga xizmat qiladi. Qiyosiy tilshunoslikda turli tillardagi leksik birliklarni tahlil qilish konseptual ifodalashdagi umumiy qonuniyatlar va tilga xos farqlarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu maqolada ingliz va qoraqalpoq tillarida "Life/O‘mir" konseptining leksik birliklar darajasida ifodalanishi ko‘rib chiqiladi hamda hayotni anglatuvchi leksik birliklarning semantik, denotativ va pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ingliz va qoraqalpoq tillarida qo‘llaniladigan turli lingvistik konstruktsiyalar ushbu konseptning ma’no spektrining rang-barangligini qanday aks ettirishi tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** hayot, madaniy tilshunoslik, konsept, aspektlar, leksik ma’no, denotativ ma’no.*

***Аннотация:** Лексические единицы являются фундаментальными элементами языковой системы, служащими для представления и категоризации понятий действительности. В сравнительном языкознании анализ лексических единиц в разных языках позволяет выявить как общие закономерности, так и специфические особенности языков в концептуальном отражении мира. В данной статье рассматривается вербализация концепта "Life/Өмир" на уровне лексических единиц и освещаются различные аспекты, связанные с обозначением жизни, включая их семантические, денотативные и прагматические характеристики. Также анализируется, каким*

образом различные лингвистические конструкции, используемые в английском и каракалпакском языках, подчеркивают разнообразие спектра значений данного концепта.

Ключевые слова: *жизнь, культурная лингвистика, концепт, аспекты, лексическое значение, денотативное значение.*

INTRODUCTION. The concept of "Life/o'mir" is one of the most ambiguous and universal concepts in human experience, covering a wide range of aspects, from biological processes to philosophical reflections on existence. The verbalization of given concept at the level of lexical units is an interesting object of research, since language not only reflects, but also shapes our perception of life. The lexical units associated with the concept "Life" can range from simple words such as "life", "existence", to more complex phrases and expressions that carry cultural, emotional and philosophical meanings and the study of its verbalization allows us to identify how different linguistic and cultural contexts affect the understanding and interpretation of this concept.

METHODOLOGY. Currently, the term concept has become widespread in various fields of science and is the main category of the conceptual and terminological apparatus of modern linguistic trends - cognitive linguistics, linguoculturology and linguoconceptology. A review of linguistic literature dealing with general theoretical problems of "mental education" - a concept (C. Fillmore, N.D. Aryutonova, A. Verbitskaya, S.G. Vorkachev, E.S.Kubryakova, Y.S.Stepanov, I.A.Sternin, Z.D.Popov, V.N.Teliya, R.M. Frumkina, etc.) This indicates that there are several approaches to its definition. The concept is presented as a linguocognitive, psycholinguistic phenomenon, as an abstract scientific concept; a basic unit of culture and a linguocultural phenomenon.

According to L.A.Gruzberg, the term concept is "connected with the anthropocentric paradigm of linguistics and cognitive-pragmatic methodology and is used to represent the ideological, intellectual and emotional intentions of a personality reflected in her creative texts"[3,181-184]. V.I.Karasik emphasizes that the common position for numerous points of view on the concept's problems is its understanding as a mental formation that includes "not only descriptive and classificatory, but also sensory-volitional and figurative-empirical characteristics" [4, 115].

RESULTS AND DISCUSSIONS. In English language picture of the world, the concept of Life is represented by a set of lexical terms , of which the key lexeme that most fully verbalizes the concept under study is the name of the concept of life. The main verbalizers at the level of lexical units in English include the followings:

a) Life as a noun and its synonymous and antonymic types :

Synonyms: Life = being , life = existence, life = biography, life= autobiography, Antonyms: life × death, life× decease, life× demise [1,1715]

b) to live as a verb and its synonymous and antonymic types :

Synonyms: Live=abide, live = breathe, live =exist, live=inhabit, live=stay;

Antonyms: live× die.

The main verbalizers of the concept of Life (O'mir) in Karakalpak language include:

a) life (O'mir) as a noun and its synonymous and antonymic series:

Synonyms: O'mir = O'mirbayan, o'mir = dunya, o'mir = turmis;

Antonyms: O'mir ×o'lim, o'mir × qaza, o'mir × mug'allaq, o'mir × mu'seybet [5,366].

c) Life(O'mir) as a verb and its synonymous and antonymic types:

Synonyms: O'mir su'riw = jasaw, o'mir su'riw = tirishilik etiw, o'mir su'riw = turmis keshiriw;

Antonyms: O'mir su'riw × o'liw, o'mir su'riw × qazalaniw.

The other verbalizers of the concept under study include: 1) lexemes included in the synonymous series of the main translator of the concept of life: *autobiography/biography, memoir, being/existence*; In Karakalpak language: *tirishilik, dunya* 2) lexemes calling the process of life / existence through the designation of the action "live" to live and its synonyms: to *subsist, exist, dwell, sojourn, lodge, stay;* In Karakalpak language*: jasaw, omir suriw, turmis keshiriw, tirishilik etiw a*nd 3) lexemes describing the state and lifestyle: *live, alive, lively*; In Karakalpak language *: tiri,omirles*.

The above group of lexical units that verbalize the concept of Life includes the synonyms of the main verbalizers of the concept of "life" and

"live", the use of which is justified and conditioned by their ontological nature. As it is known, synonyms are those that have completely or partially identical meanings that cancel out different sides of the designated object [6,447]. According to a number of researchers A.A.Bragina, I.A.Siddikova, "a synonymic series is a bridge between the world of cognizable concepts and the world of words reflecting a similar process", "a synonymic series allows describing any concept in an optimal set of all its possible shades"[2,54-61].

During the study of the verbalization of the concept of "life/o'mir" at the level of lexical units, it was revealed that language serves not only as a means of communication, but also as a powerful tool that shapes our perception and understanding of life. The results of the analysis show that the lexical units associated with the concept of "life/o'mir" have a multi-layered semantics that varies depending on the cultural context, historical period and individual experience.

CONCLUSION. The verbalization of the concept of "life" at the level of lexical units is a complex and multifaceted process that reflects different biological and physical meanings both in English and Karakalpak languages. This study highlights the importan2ce of language as a tool shaping our perception of life, and opens up new horizons for further research in this area.

References:

1. Oxford Advanced Learner's dictionary 7th edition. Oxford University Press, 2006.
2. Брагина А.А. Синономические отношения в лексике.Словарная статья// Современная русская лексикография 1980.-Л.: Наука, ЛО, 1981.
3. Грузберг Л.А. Концепт // Стилистический энциклопедический словарь русского языка. – Флинта: Наука, 2003.
4. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Москва: 2Гиозис, 2004.
5. Қарақалпақ тилиниң Тусиндирме сөзлиги. Жети томлық. Бесинши том. Қ- Ө. Нөкис: Qaraqalpaqstan баспасы, 2023-жыл.
6. ЛЭС (Лингвистический энциклопедический словарь)/Гл.ред. В.Н.Ярцева, - М.: Советская энциклопедия,1990.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 94(575.1)

INFRATUZILMA TUSHUNCHASIGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: TARIXIY TAHLIL

Kadirova Yakitjan Buvabayevna, Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

MODERN APPROACHES TO THE CONCEPT OF INFRASTRUCTURE: HISTORICAL ANALYSIS

Kadirova Yakitzhan Buvabayevna, independent researcher at Termez State University, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К КОНЦЕПЦИИ ИНФРАСТРУКТУРЫ: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Кадирова Якитжан Бувабаевна, независимый исследователь Термезского государственного университета, доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент

https://orcid.org/0009-0005-0206-1411

e-mail: xqodirova@bk.ru

Annotatsiya: *Maqolada infratuzilma tushunchasiga oid zamonaviy yondashuvlar va ularning iqtisodiyot hamda jamiyat rivojidagi roli tarixiy va amaliy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. O'zbekistonning mustaqillik davrida bozor iqtisodiyotiga o'tishda infratuzilmaning shakllanishi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarining funksiyalari, shuningdek xorijiy tajriba asosida mahalliy sharoitlarga moslashtirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot infratuzilmaning urbanizatsiya, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyotga ta'sirini yoritib, uning zamonaviy rivojlanish istiqbollari haqida ilmiy xulosalar beradi.*

Kalit so'zlar: *ishlab chiqarish infratuzilmasi, ijtimoiy infratuzilma, bozor iqtisodiyoti, zamonaviy yondashuvlar, tarixiy tahlil, M.G.Lavrensi, Edvard Kim.*

Abstract: *The article examines modern approaches to the concept of infrastructure and its role in economic and social development from both historical and practical perspectives. It analyzes the formation of infrastructure in Uzbekistan during the transition to a market economy, the functions of production and social infrastructure networks, as well as ways to adapt foreign experience to local conditions. The study highlights the impact of infrastructure on urbanization, economic growth, and social development, and provides scientific conclusions regarding its prospects for contemporary development.*

Keywords: *production infrastructure, social infrastructure, market economy, modern approaches, historical analysis, M.G. Lawrence, Edward Kim.*

Аннотация: *В статье анализируются современные подходы к понятию инфраструктуры и её роль в экономическом и социальном развитии с исторической и практической точек зрения. Рассматривается формирование инфраструктуры в Узбекистане в период перехода к рыночной экономике, функции производственной и социальной инфраструктурных сетей, а также пути адаптации зарубежного опыта к местным условиям. Исследование освещает влияние инфраструктуры на урбанизацию, экономический рост и социальное развитие, а также делает научные выводы о перспективах её современного развития.*

Ключевые слова: *производственная инфраструктура, социальная инфраструктура, рыночная экономика, современные подходы, исторический анализ, М.Г.Лавренси, Эдвард Ким.*

Kirish. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki davrlarida bozor iqtisodiyotiga o'tish to'liq amalga oshmagan bo'lib, ko'pchilik bozor mexanizmlari va qonunlari hali shakllanib ulgurmagan edi yoki to'la kuch bilan ish yuritolmadi. Shu sababli barqaror, tartibli bozor munosabatlariga o'tish uchun mavjud

bozor institutlarini, ularning yuzaga kelish tarixini o‘rganish, ularning kamchiliklarini aniqlash, faoliyatlarini yaxshilash uchun tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Buning uchun xorij tajribasini o‘rganish ham muhim omil hisoblanadi. Chunki bozor iqtisodiyoti asoslari va ularning ilk elementlari dunyoga kelishi Yevropa va Amerika mamlakatlarida sodir bo‘lgan. Ammo xorij tajribasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llab bo‘lmaydi, chunki bizda o‘zimizning iqtisodiyotimiz xususiyatlarini, xo‘jalikning tashkil etilishini hamda xalqimizning milliy mentalitetini inobatga olish kerak.

Muhokama. Infratuzilmani o‘rganish nafaqat ishlab chiqarish sohasida, balki jamiyatning ijtimoiy va madaniy hayotida ham muhim hodisa sanaladi. Infratuzilmaning xalq xo‘jaligiga yetkazadigan manfaatlarining muhimligi uning bajaradigan funksional vazifalari va xizmat turlarida yanada yaqqolroq ko‘zga tashlanmoqda. Ko‘pchilik iqtisodiy adabiyotlarda infratuzilmaning funksional vazifalari va xizmat turiga qarab nazariyotchi olimlar metodologik nuqtayi nazardan uni ikkita guruhga: ishlab chiqarish va noishlab chiqarish, ya’ni ijtimoiy soha turlariga bo‘lganlar. Jumladan, A.Ulmasov va N.Tuxliyevlarning ta’kidlashicha ishlab chiqarish infrastrukturasi (bevosita moddiy ishlab chiqarishga xizmat qiladi) va noishlab chiqarish infrastrukturasi mavjud. Ishlab chiqarish infrastrukturasi sohalarida yalpi ijtimoiy mahsulot, milliy daromad yaratiladi; ijtimoiy infrastruktura sohalari (maorif, fan, sog‘likni saqlash va b.) ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishga, inson omillarini faollashtirishga xizmat qiladi[1].

Infratuzilma atamasi zamonaviy adabiyotlarda ishlab chiqarish va insonlarning turli faoliyatida shart-sharoitlar yaratib beruvchi iqtisodiyotning tarmoqlar majmuasi sifatida tilga olinadi. Ayni vaqtda infratuzilma atamasi ijtimoiy mehnat taqsimoti mahsuliga nisbatan ham ishlatiladi. Demak infratuzilma jamiyat hayotida muhim o‘rin tutuvchi tushuncha bo‘lib, moddiy va nomoddiy sohaga xizmat qiladi, ya’ni ishlab chiqarish infratuzilmasi va ijtimoiy infratuzilma kabi turlarga tasniflanadi[2:156-157].

Shu ma’noda aytish mumkinki, infratuzilma iqtisodiyot, transport va kommunikatsiya, turizm, kommunal xo‘jalik hamda maishiy xizmatning barcha jabhalarini o‘ziga qamrab oladi. Mamlakatimizda tarkibiy o‘zgartish va zamonaviy modernizatsiya ishlari amalga oshirilayotgan davrda infratuzilma ishlab chiqarishning uzluksiz faoliyat olib borishini ta’minlovchi muhim vosita sanaladi.

Mashhur iqtisodchi olim Djonatan Meyers infratuzilmaning nazariy asoslari, infratuzilmaga nisbatan nazariy yondashuvlar va uning iqtisodiy taraqqiyotdagi ahamiyatini baholagan. Unga ko‘ra infratuzilmani rivojlantirishning nazariy jihatlariga e’tibor qaratish va ilm-fan hamda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish sohalariga jalb qilish orqali amaliy yechimlarga erishish mumkin[3:77-78].

Ingliz olimi J.Smit o‘z tadqiqotlarida global infratuzilmaning barqaror rivojini ta’minlash bo‘yicha zamonaviy yondashuvlar va innovatsion metodlarning uyg‘unligiga batafsil to‘xtaladi[4:23-28]. M.G.Lavrensi esa o‘z asarlarida infratuzilmaning urbanizatsiyaga ta’siri tahlil qilgan. Unda tadqiqotchi infratuzilma bilan shaharsozlik madaniyatining o‘zaro uyg‘unlashuvi va uning aholi farovonligiga ko‘rsatgan ta’sirini batafsil tahlil qilar ekan infratuzilmaning turli iqtisodiy aloqalarda tutgan o‘rnini va ahamiyatini yoritadi[5:48-53].

Yana bir tadqiqotchi Edvard Kim shaharlar infratuzilmasi, urbanizatsiya jarayonlari va ekologik ta’sirlar haqidagi tadqiqotlar asosida urbanizatsiyaning shart-sharoitlari, xususan shahar infratuzilmasini modernizatsiya qilishga oid ko‘rsatmalar berib o‘tgan[6:123-128]. Nemis olimi Xans Bernard Peters o‘z tadqiqotlarida infratuzilmaning iqtisodiy jihatlarini, uning davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi aloqalarini va global iqtisodiy rivoj bilan o‘zaro ta’sirini tahlil qilar ekan infratuzilma jarayonlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlarning asosiy barometri ekanligini ta’kidlaydi[7]. Yana bir iqtisodchi olim Richard Jonson infratuzilmaga ta’rif berar ekan unga taraqqiyot uchun zaruriy shart sifatida baho berish va uning iqtisodiy o‘sish va taraqqiyotga ta’siri muhim ekanligini ta’kidlaydi[8]. Yana bir iqtisodchi olimi Lorens Vuds har bir mamlakatda yaratilgan infratuzilmaning iqtisodiy taraqqiyot rivojidagi muhim omillarni tahlil qilib, mamlakatlar va mintaqalardagi infratuzilmaviy o‘zgarishlar jarayonining ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o‘rnini aniqlar ekan, infratuzilmalarning muqobillashuvi taklif qilinayotgan loyihalarining amaliyotdagi samaradorligini ta’minlaydi deb ta’kidlaydi[9:32-34].

TAMADDUN NURI

Tadqiqotchi Mett Metts zamonaviy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda strategik qarorlar muhim rol o‘ynashini va uning kelajakdagi rivojiga qanday darajada ta’sir qilishini ko‘rsatib bergan[10]. Ingliz tadqiqotchi Richard Devis infratuzilmaning iqtisodiy taraqqiyotga ta’siri va iqtisodiy o‘sishdagi asosiy rolini tahlil qilar ekan infratuzilma rivoji iqtisodiyotni barqarorlashtirish va mamlakat taraqqiyotini ta’minlashdagi muhim omillardan biri ekanligiga urg‘u beradi[11].

Infratuzilmaning mamlakat hayotida va yurtimiz iqtisodiyotida tutgan o‘rniga respublikamizning qator iqtisodchi, jamiyatshunos, tarixchi va sotsiolog olimlar ham o‘zlarining tadqiqotlari orqali baho berishgan, jumladan, M.A. Abdullayev o‘z tadqiqotlarida infratuzilmani zamonaviy talablar asosida ko‘rib chiqish va uning mamlakat rivojlanishidagi ahamiyati hamda xalq xo‘jaligidagi o‘rniga munosib baho bera olgan[12].

Mashhur iqtisodchi olim N.Sh.To‘xtaxojayev iqtisodiy infratuzilma, uning mamlakat rivoji uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi va iqtisodiy o‘sishdagi roliga yuqori baho beradi[13]. Urbanizatsion jarayonlar va iqtisodiy masalalar bilan shug‘ullangan olimlardan M.A.Xamidov infratuzilmaning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyatiga to‘xtaladi, jumladan, mamlakatimizda yuz berayotgan urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanishida infratuzilmaning muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlab o‘tadi[14].

Iqtisodchi olima F.K.Yusupovaning tadqiqotlari esa infratuzilmaning turizm sohasidagi o‘rni va uning rivojlanishga qanday ta’sir qilishiga baho berib turizm infratuzilmasi uning rivoji mamlakat iqtisodiyotining muhim drayveri ekanligini ta’kidlaydi[15]. Infratuzilmani rejalashtirish va uni boshqarishning nazariy asoslari H.Yu.Norqulovning asarlarida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, olim infratuzilmani rejalashtirish har doim ham muhim iqtisodiy samaradorlikka olib keladigan yo‘l ekanligini ta’kidlagan[16:8].

Xulosa. Infratuzilmaga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishda turli sohalardagi infratuzilmaning o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatuvchi ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Ushbu ishlar infratuzilmaning nazariy va uslubiy asoslari haqidagi ilmiy adabiyotlar turli nazariy konsepsiyalarni, infratuzilmaning rivoji va unga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganishga qaratilgan. Mazkur adabiyotlar infratuzilmani iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik jihatlardan tahlil qilib, uning rivojlanishi va samaradorligini yuksaltirishga oid omillarni tahlil qilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Улмасов А., Тухлиев Н. Рыночная экономика: Крат. слов. справ.: А–Х. Ташкент: Гл. ред. энцикл., 1991. – 143 б.
2. Абдалова З., Тожиева З. Иқтисодий география. Ўқув қўлланма. Тошкент: Иқтисод-Молия, 2013. – Б. 156–157.
3. Myers J. W. Theories of Infrastructure and Development. 2008. – P. 77–78.
4. Smith J. Global Infrastructure: Towards a Sustainable Future. 2020. – P. 23–28.
5. Lawrence M. G. Infrastructure and Urban Development. 2018. – P. 48–53.
6. Kim E. The Infrastructure of the City. 2019. – P. 123–128.
7. Peters H.B. Infrastructure Economics. 2011.
8. Johnson R.D. Infrastructure and the Economy: The Impact of Infrastructure on Economic Development. 2014.
9. Woods L.B. The Role of Infrastructure in Economic Development: A Case Study Approach. 2017. – P. 32–34.
10. Metts M. Building the Future: Infrastructure, Long-Term Planning, and the Lessons from the Past. 2018.
11. Davis R. Infrastructure and Economic Development. 2009.
12. Абдуллаев М.А. Инфратузилма: назария ва амалиёт. Тошкент, 2018.
13. Тўхтахожаев Н.Ш. Инфратузилманинг иқтисодий ривождаги аҳамияти. Тошкент, 2016.
14. Хамидов М.А. Инфратузилма ривожланиши ва унинг ижтимоий-тадбиркорлик даражасидаги таъсири. 2019.
15. Юсупова Ф.К. Инфратузилма ва туризмни ривожлантиришдаги ўрни. Тошкент, 2021.
16. Норқулов Ҳ.Ю. Инфратузилмани режалаштириш ва бошқариш: назария ва амалиёт. Тошкент, 2017. – Б. 8.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 94(575.1)

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATIDA XALQ TA'LIMI TIZIMI

Umarov Jamshid Saidmuratovich, Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

PUBLIC EDUCATION SYSTEM IN SURKHANDARDO REGION DURING WORLD WAR II

Umarov Jamshid Saidmuratovich, independent researcher at Termez State University, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

СИСТЕМА НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Умаров Джамшид Саидмуратович, независимый исследователь Термезского государственного университета, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

https://orcid.org/https://orcid.org/0009-0004-2134-0503
e-mail: Umarovjamshid510@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida Surxondaryo viloyatida xalq ta'limi tizimida yuzaga kelgan o'zgarishlar, muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan choralar tahlil qilinadi. Urushning boshlanishi bilan o'qituvchilarning frontga safarbar qilinishi, maktablarning yopilishi, o'quvchilarning majburiy mehnatga jalb etilishi ta'lim jarayoniga jiddiy zarar yetkazganligi ilmiy manbalar va guvohlarning esdaliklari asosida yoritiladi. Shuningdek, mudofaa jamg'armasiga ko'rsatilgan yordam, fabrika-zavod ta'limi maktablariga yoshlarning safarbar etilishi, targ'ibot-tashviqot ishlarining kuchaytirilishi hamda madaniy-ma'rifiy faoliyatning ta'limga ta'siri o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *Ikkinchi jahon urushi, Surxondaryo viloyati, xalq ta'limi, majburiy mehnat, mudofaa jamg'armasi, Sariosiyo tumani, targ'ibot-tashviqot, Sherobod tumani.*

Abstract: *This article analyzes the changes and challenges faced by the public education system in Surkhandarya region during the Second World War, as well as the measures taken to address them. Based on scholarly sources and eyewitness accounts, it highlights how the mobilization of teachers to the front, school closures, and the conscription of students for forced labor seriously disrupted the educational process. The study also examines the support provided to the defense fund, the mobilization of youth to factory-based schools, the intensification of propaganda activities, and the impact of cultural and educational initiatives on education.*

Keywords: *Second World War, Surkhandarya region, public education, forced labor, defense fund, Sariosiyo district, propaganda, Sherobod district.*

Аннотация: *В данной статье анализируются изменения и проблемы в системе народного образования в Сурхандарьинской области в годы Второй мировой войны, а также меры, предпринятые для их устранения. На основе научных источников и воспоминаний свидетелей освещается, как с началом войны мобилизация учителей на фронт, закрытие школ и вовлечение учащихся в принудительный труд серьёзно повлияли на образовательный процесс. Также рассматривается оказанная помощь оборонному фонду, мобилизация молодежи в фабрично-заводские школы, усиление пропагандистской работы, а также влияние культурно-просветительской деятельности на систему образования.*

Ключевые слова: *Вторая мировая война, Сурхандарьинская область, народное образование, принудительный труд, оборонный фонд, Сариасийский район, пропаганда, Шерободский район.*

Kirish. Ikkinchi jahon urushi (1941–1945) nafaqat iqtisodiyot va ijtimoiy hayotni, balki O'zbekiston hududlaridagi ta'lim tizimini ham keskin o'zgartirdi. Surxondaryo viloyatida urushning

dastlabki kunlaridanoq maktablar faoliyati izdan chiqdi, o‘qituvchilar frontga safarbar qilindi, o‘quvchilar mehnat jabhasiga jalb etildi. Ushbu maqolada urush yillarida Surxondaryoda xalq ta’limining ahvoli, mavjud muammolar hamda amalga oshirilgan ishlar tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Muhokama. Boshlanib ketgan Ikkinchi jahon urushi Termiz shahri ta’lim tizimida ham jiddiy qiyinchiliklarni tug‘dirdi. Urush yillarida o‘qituvchilarning aksariyat qismi frontga safarbar qilindi. Maktablarda o‘qituvchilarga bo‘lgan jiddiy ehtiyoj sababli ham qisqa muddatli o‘qituvchilar tayyorlash kursi tashkil etilib, ko‘plab xotin-qizlar frontga ketgan erkak o‘qituvchilar o‘rniga maktablarda ishlash uchun ushbu kurslarga jalb qilindi. Urush davrining og‘ir qiyinchiliklari sababli, shahardagi ikkita maktab faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘lindi. Shahardagi “Pravda” gazetasi nomidagi maktab binosi harbiy kasalxonaga aylantirildi. Juda ko‘plab maktab bitiruvchilari ko‘ngillilar tarzida frontga safarbar qilindi. Sh*ahardagi* maktablarning o‘quvchilari esa front ortiga issiq kiyimlar va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish ishida ham faol ishtirok etdi.

Boshlanib ketgan urush maorif tizimida ilgari belgilangan barcha tadbirlarning vaqtincha to‘xtab qolishiga sabab bo‘ldi. Chunonchi, urush O‘zSSR XKS va O‘z KP (b) MK ning 1941-yil 30-may – 3-iyunda “Bolalar ijodiyoti Respublika va oblast olimpiadasini o‘tkazish va unga tayyorgarlik ko‘rish to‘g‘risida” qabul qilgan 580-sonli qarorini bajarishga imkon bermadi. Shu bois olimpiada o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror 1941-yil 26-iyun kuni bekor qilindi[1].

Lekin urush cho‘zilib ketgach, 1-6 sinf bolalari, hatto undan ham kichikroq bolalar majburiy ravishda dalaga olib chiqildi. Ular dalada kattalar bilan birga mehnat qilishar va o‘zlariga tegishli bo‘lgan payokni olishar edilar. Dalalarda bug‘doy o‘rimi tugaganidan so‘ng yerga tushgan boshoqni terib olish uchun maktablarning yosh bolalari o‘zlariga yuklangan kunlik normani bajarishar, belgilangan miqdordagi boshoqni tergani uchun 200 gramm zog‘ora non bilan “taqdirlanar” edilar. Oltinsoy rayonining Sayrak, To‘xtamish, Vaxshivor qishloqlari keksalarning guvohligiga ko‘ra, kunlik normani bajara olmagan go‘daklarga hech narsa berilmagan. Buning oqibatida vohada juda ko‘plab bolalar ochlikdan nobud bo‘lgan. Ana shunday sharoitda maktab ta’limini yo‘lga qo‘yishning o‘zi bo‘lmas edi[2].

Mudofaa jamg‘armasiga mablag‘ va xom ashyo yig‘ib topshirish ishida oblast ta’lim tizimi xodimlari va maktab o‘quvchilarining ham alohida hissasi bor. Sariosiyo tumanining Telpakchinor qishlog‘i hududida joylashgan 7-son to‘liqsiz o‘rta maktab o‘quvchilari 1800 kg temir-tersak parchalarini to‘plab mudofaa jamg‘armasiga topshirdilar. Yoki sho‘rchilik 408 o‘quvchi 1941-yilning 31-iyulida 6750 kg temir-tersak parchalarini yig‘ib davlatga topshirdi[3].

Keksalarning guvohligiga ko‘ra, kunlik normani bajara olmagan o‘quvchilarga hech narsa berilmagan. Buning oqibatida vohada juda ko‘plab o‘quvchilar ochlikdan nobud bo‘lgan. Ana shunday sharoitda maktab ta’limini yo‘lga qo‘yishning o‘zi bo‘lmas edi. Ta’lim tizimi izdan chiqqaniga qaramay, sovet rejimi yosh o‘quvchilar mehnatidan ayovsiz foydalanishni davom ettirdi. O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining 1944-yil 23-avgustdagi 1005-sonli Qaroriga ko‘ra, O‘zbekistondagi barcha qishloq joylaridagi maktablarda 1-4 sinflar, shaharlardagi 1-5 sinf o‘quvchilari 1944-yilning 1-sentyabridan o‘qishni boshlashi, undan yuqori sinflar esa 1944-yilning 1-oktyabriga qadar paxta yig‘im-terimiga safarbar etilishi ko‘zda tutildi[4]. Bizdagi dalillar esa buning aksini ko‘rsatadiki, hukumat ko‘rsatmasi bo‘lishiga qaramay, ko‘pgina kolxoz raislarining zug‘umi bilan yosh o‘quvchi bolalar yil davomida dala ishlariga safarbar etilgan[5].

Oblast xalq ta’limi rahbariyatiga mutaxassislar tayyorlash masalasida qat’iy topshiriqlar berilib, maktabni yuqori sinf o‘quvchilar va soha xodimlar ichidan tanlab olingan yoshlar temir yo‘l transporti uchun mutaxassisi sifatida o‘qishga jalb qilindi. Natijada, Temir yo‘llarni mutaxassis kadrlar bilan ta’minlash uchun O‘zSSR Xalq Komissarlar Soveti va O‘z KP Markaziy Komitetining 1941-yil 5-10 maydagi 500-sonli Qarori bilan 1941-yil 5-iyundan 20-iyunga qadar Respublikaning shahar, kolxoz va boshqa qishloq yoshlari jumlasidan fabrika-zavod ta’limi maktablarida 16-17 yoshdagi erkaklardan 6400 kishi, 1941-yil 5-20 avgustda hunar maktablari va temir yo‘l maktablariga 14-15 yoshdagi erkaklardan 2950 kishi safarbar qilinishi ko‘zda tutildi. Shu jumladan, Surxondaryo viloyatidan fabrika-zavod ta’limi maktablariga 150 kishi, Buxoro oblastiga Qarshi temir yo‘l maktabida 75 kishi (25 ta shahardan, 50 ta qishloqdan) o‘qish uchun jo‘natilishi belgilandi[6]. Ammo, ikkinchi jahon urushi fabrika-zavod ta’limiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. O‘quvchi va o‘qituvchilar yetishmovchiligi bois Kakaydidagi bilim yurti yopiladi.Temir yo‘l sohasidagi FZUlar ham jiddiy qiyinchiliklarga uchraydi[7:38].

Bo‘layotgan urushda g‘alaba qozonish, avvalo xalqning ruhiyatiga, uning urushga munosabatiga, ma’naviy barkamolligiga va siyosiy ongliligiga bog‘liq edi. Shu maqsadda omma o‘rtasida o‘tkazilgan targ‘ibot va tashviqot ishlarining o‘rni nihoyatda kattadir. O‘zbekiston KP Markaziy Qo‘mitasining 1941-yil 8-avgustda qabul qilgan “Harbiy sharoitda Respublikada siyosiy agitatsiya va propagandani yaxshilash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Surxondaryo viloyatida ham targ‘ibot-tashviqot markazlari tashkil etildi. Targ‘ibotchi o‘qituvchilar sanoat korxonalari, klublar va choyxonalarda tashviqot ishlarini olib bordilar. Bevosita targ‘ibotchi o‘qituvchi guruhlarining ishtiroki bilan 1941-yilning iyun-iyul oylarida viloyat miqyosida fashizmga qarshi 570ta miting bo‘lib o‘tdi va bu mitinglarda 85 ming kishi ishtirok etdi. Ularda “Fashizmga o‘lim”, “Manfur dushmanga bir qarich ham yerimizni bermaymiz”, “Hamma narsa front uchun, hamma narsa g‘alaba uchun” shiorlari o‘rtaga tashlandi va kishilarni yangi mehnat zafarlariga erishishga chorladi. 1941–1942-yillarda Sherobod tumani Xatak qishlog‘i maktabi direktori Sobiha Ahmedovaning viloyat matbuotida e’lon qilingan “Qurib ketsin fashizm”, “Oy borib omon kel” singari she’rlari xalqimizda katta taassurot qoldirgan[8].

Maorif va madaniyat xodimlari og‘ir sharoitga qaramay, jonbozlik ko‘rsatdilar. 1942-yilning dekabr oyida Denov rayispolkomida bo‘lib o‘tgan majlisda rayONO mudiri Hakimovning ma’ruzasidan keyin rayonda o‘qituvchilar tayyorlaydigan 2 va 4 oylik kurslar ochildi. Unga jami 105 kishi jalb etildi. Tinglovchilarga kunlik payok belgilanib, kolxozlarning daromadidan 400 gramm non, 100 gramm un, 0,25 gramm guruch, 0,25 gramm moy berildi[9]. Sho‘rchi rayonidagi 6-sonli maktabda 305 nafar o‘quvchidan 22 nafari “Mehnat” kolxozi raisi Jo‘rayev Meliboy va Frunze nomli kolxoz raisi Nurmatov Mullatar doimiy ravishda o‘qishni barbod qilib, o‘quvchilarni maktabga qo‘yishmagan. “Yangi kuch” kolxozining raisi Yo‘ldoshev O‘rinboy va “Qizil g‘uncha” kolxozi raisi Nurmatov O‘rmon maktab binolarini pilla qurtini boqish uchun olib qo‘yishgan[10].

Urushning boshlanishi munosabati bilan maktablarda mafkuraviy tarbiyani kuchaytirish maqsadida madaniyat muassasalari maktablarga jalb etildi. Jumladan, Ukrainadagi Xarkov viloyatining muzikali drama teatri jamoasi Termizga evakuatsiya qilindi, natijada teatrning V.Mevashtuch, A.Ya.Milman, I.Lindina va Branskiy kabi san’at ustalari Surxon vohasi san’atkorlari bilan yelkama-yelka turib rayon va qishloq markazlarida kommunistik ruhda ma’naviy-ma’rifiy tarbiyalarni kuchaytirdilar va ijodiy mehnat qildilar va turli-tuman pyesalarni sahnaga qo‘ydilar. Surxondaryo maktablarining mafkuraviy jihatdan ruhini ko‘tarish maqsadida O‘zbekistonga evakuatsiya qilingan ko‘pgina mashhur artistlar o‘z konsertlari bilan chiqishdi.

Xulosa. Ikkinchi jahon urushi yillarida Surxondaryo viloyatida xalq ta’limi tizimi og‘ir sinovlarni boshdan kechirdi. O‘qituvchilar frontga ketishi, o‘quvchilarning majburiy mehnatga jalb qilinishi, maktablarning yopilishi, iqtisodiy qiyinchiliklar ta’lim jarayonini izdan chiqardi. Shunga qaramay, viloyatda ta’limni saqlab qolish, yangi o‘qituvchilar tayyorlash, madaniy-ma’rifiy ishlarni davom ettirish bo‘yicha muhim choralar ko‘rildi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 45-fond, 1-ro‘yxat, 34-ish, 61-varaq.
2. Dala yozuvlari. Termiz tumani, M.Eshtemirov nomli mahalla, 2017 yil, aprel.
3. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 89-fond, 1-ro‘yxat, 105-ish, 39-varaq.
4. Sherobod tuman davlat arxivi, S 42-fond, 1-ro‘yxat, 373-ish, 60-varaq.
5. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 89-fond, 1-ro‘yxat, 156-ish, 86-varaq.
6. Sherobod tuman davlat arxivi, S 42-fond, 1-ro‘yxat, 369-ish, 31–33-varaqlar.
7. Yoriyev B. *Qora oltin ijodkorlari*. Termiz, 1999. – B. 38.
8. Umarov I. va boshqalar. *Surxon vohasida etnik tarix va etnomadaniy jarayonlar*. – 127-bet.
9. Denov tuman davlat arxivi, 6-fond, 1-ro‘yxat, 89-ish, 113-varaq.
10. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 45-fond, 1-ro‘yxat, 161-ish, 279-varaq.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 94 (575.1)

BOYSUN UYEZDI (RAYONI): MA'MURIY-HUDUDIY TUZILISHI, AHOLI JOYLASHUVI VA ETNIK TARKIBI

Qarshiyev Islom Maxmarahim o'g'li, Termiz davlat universiteti doktoranti (DSc)

BOYSUN UYEZDI (REGION): ADMINISTRATIVE TERRITORIAL STRUCTURE, POPULATION DISTRIBUTION AND ETHNIC COMPOSITION

Qarshiyev Islam Makhmarahim oglu, PhD student (DSc) of Termez State University

БОЙСУНСКИЙ УЕЗД: АДМИНИСТРАТИВНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНАЯ СТРУКТУРА, РАСПРЕДЕЛЕНИЕ НАСЕЛЕНИЯ И ЭТНИЧЕСКИЙ СОСТАВ

Каршиев Ислам Махмарахим оглы, докторант Термезского государственного университета

https://orcid.org/0009-0004-0796-1493
e-mail: qarshiyevislom96@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 1925–1926-yillarda Surxondaryoda tashkil etilgan Boysun uyezdi (rayoni)ning ma'muriy-hududiy tuzilishi, aholi punktlarining joylashuvi va etnik tarkibi tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda Boysun, Darbant va Qumqo'rg'on volostlarining aholi soni, xo'jaliklar tarkibi, o'zbek urug'larining hududiy taqsimlanishi hamda tojik, o'zbek va aralash aholi yashaydigan tumanlarning shakllanishi yoritiladi. Shuningdek, o'zbeklar ichida qo'ng'irot, qatag'on, chig'atoy kabi yirik urug'larning joylashuvi hamda ularning demografik ko'rsatkichlari aniqlangan. 1926-yilda Boysun rayonining tashkil etilishi jarayoni va etnik guruhlarning hududiy taqsimoti ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *Boysun uyezdi, Boysun rayoni, volost, ma'muriy-hududiy bo'linish, aholi joylashuvi, etnik tarkib, o'zbek urug'lari, tojiklar, Qumqo'rg'on, Darbant.*

Annotation: *This article analyzes the administrative-territorial structure of the Boysun uyezd (district), established in Surkhandarya in 1925–1926, as well as the location of settlements and the ethnic composition based on historical sources. The study highlights the population size of the Boysun, Darbant, and Qumqorgon volosts, the composition of households, the territorial distribution of Uzbek clans, and the formation of districts inhabited by Tajiks, Uzbeks, and mixed populations. In addition, the locations of major Uzbek clans—Qong'irot, Qatag'on, and Chig'atoy—and their demographic indicators are identified. The process of establishing the Boysun district in 1926 and the territorial distribution of ethnic groups are scientifically substantiated.*

Keywords: *Boysun uyezd, Boysun district, volost, administrative-territorial division, population distribution, ethnic composition, Uzbek clans, Tajiks, Qumqorgon, Darbant.*

Аннотация: *В данной статье проанализирована административно-территориальная структура Бойсунского уезда (района), созданного в 1925–1926 годах в Сурхандарье, расположение*

населённых пунктов и этнический состав на основе исторических источников. В исследовании освещаются численность населения Бойсунской, Дарбантской и Кумкурганской волостей, состав хозяйств, территориальное распределение узбекских родов, а также формирование районов, населённых таджиками, узбеками и смешанным населением. Кроме того, определено расположение крупных узбекских родов — Кунграт, Катагон, Чигатай — и их демографические показатели. Процесс создания Бойсунского района в 1926 году и территориальное распределение этнических групп научно обоснованы.

Ключевые слова: *Бойсунский уезд, Бойсунский район, волость, административно-территориальное деление, размещение населения, этнический состав, узбекские роды, таджики, Кумкурган, Дарбант.*

Kirish. XX asrning 20-yillari O‘zbekiston hududida chuqur ma’muriy-hududiy o‘zgarishlar amalga oshirilgan davr bo‘lib, ayniqsa 1924–1926-yillardagi milliy-hududiy chegaralash jarayoni yangi ma’muriy birliklarning shakllanishiga zamin yaratdi. Mazkur jarayon doirasida 1925-yilda Surxondaryo oblasti tashkil etildi va uning tarkibiga Boysun, Sherobod hamda Yurchi uyezdlari kiritildi. Bu davrda hududlarning tarixiy, etnografik va demografik xususiyatlarini ilmiy asosda o‘rganish ehtiyoji kuchaydi, chunki yangi ma’muriy birliklar keyingi siyosiy-iqtisodiy boshqaruv tizimini shakllantirishda muhim o‘rin tutgan.

Boysun uyezdi Surxondaryoning eng qadimiy va etnik jihatdan rang-barang hududlaridan biri bo‘lib, aholining tarixiy joylashuvi va milliy tarkibi jihatidan alohida diqqatga sazovordir. Hududda asosan o‘zbeklar va tojiklar istiqomat qilgan bo‘lib, o‘zbeklar tarkibida qo‘ng‘irot, qatag‘on, chig‘atoy kabi yirik urug‘lar yetakchi o‘rin egallagan.

1926-yilda rayonlashtirish siyosatining amalga oshirilishi natijasida Boysun uyezdi tuman maqomiga o‘tkazildi va uning hududiy tuzilishi aniq chegaralar asosida qayta tashkil etildi.

Muhokama. O‘zbekiston SSR Markaziy Revkomi 1925-yil 13-yanvarda bo‘lgan majlisida O‘zbekistonni ma’muriy jihatdan ajratish masalasini ko‘rib chiqdi va unga muvofiq Turkiston ASSR oblastlar, uyezdlar, volostlar va qishloq sovetlariga (selsovetlarga); Buxoro Respublikasi viloyatlar (keyinchalik okruglar), tumanlar, kentlar, aminliklar va qishloq oqsoqolliklariga; Xorazm Respublikasi oblastlar, tumanlar, sho‘rolar va oqsoqolliklariga bo‘lingan edi.

O‘zbekiston SSR Markaziy Revkomi Prezidiumi 1925-yil 29-yanvarda butun O‘zbekiston bo‘yicha ma’muriy bo‘linishning bir xil tizimini joriy qilinishiga asos solgan dastlabki qarorni qabul qildi[5]. Ushbu qarorga ko‘ra, Surxondaryo oblasti tashkil etilgan va u uchta asosiy uyezddan iborat bo‘lgan: Boysun uyezdi, Sherobod uyezdi va Yurchi uyezdi. Oblast jami 10ta volostni birlashtirgan. Oblastda jami 24,518ta xo‘jalik va 127,743 nafar aholi qayd etilgan.

1925-yil 1-dekabrda Boysun uyezdi tuzilishi munosabati bilan quyidagi tarkibda tashkiliy qo‘mita tuzilgan. Soibov Toshmat – mas’ul kotib, Yusupov Jo‘rali – tashkiliy bo‘lim mudiri, yoshlar tashkiloti bo‘yicha Xo‘jayev To‘ra – tashkiliy bo‘lim mudiri, yoshlar bilan ishlash bo‘yicha Xidirnazarov Mirza’ag‘zam – kasaba uyushma raisi, Tog‘ayev Sobir – kasaba uyushma Rais muovini, Uranov Mirzaomon – “Qo‘shchi” uyushmasi raisi, Berdiyorov Mullaqulboy – “Qo‘shchi” uyushmasi rais muovini, Xo‘ja Murodov – uyezd ijro qo‘mita raisi etib saylangan[1].

Boysun uyezdi 3 ta volost (Boysun, Darbant, Qumqo‘rg‘on) va 84ta aholi punktiga ega bo‘lgan. Bu uyezdda har bir volostga o‘rtacha 29,6 tadan aholi punkti to‘g‘ri kelgan. Boysun uyezdi 4403ta xo‘jalik va 23,088 nafar aholiga ega bo‘lgan[2].

1. Boysun volosti 1ta kent (Boysun) va 28ta qishloq (Avlod, Oqqapchig‘ay, Bandixon, Bitov, Bog‘ibolo, Gazi, Dashtigaz, Yettimoq, Inkobod, Kampirchorbog‘, Qorabo‘yin, Qizilqishloq, Qilichbog‘, Qaynar, Kofirun (Alqobod), Kofirun (to‘g‘iz), Oqqiya, Otko‘gari-bo‘ritaxta, Padang, Poyonqo‘rg‘on, Posurxi, Sariosiy, To‘da, Rabot, Xudoydot, Shayit, Yomchi)dan iborat bo‘lgan va jami 1521ta xo‘jalikda 7955 nafar aholi istiqomat qilgan.

2. Darbant volosti 1ta kent (Darbant) va 7 ta oqsoqollik (Gaza, Darbant, Qizilnaur, Machay,

Sayrob, Xo‘jabulg‘on, Sho‘rob) dan iborat bo‘lgan va va jami 1485ta xo‘jalikda 8195 nafar aholi istiqomat qilgan.

3. Qumqo‘rg‘on volosti 2ta kent (Qumqo‘rg‘on, Qattar)dan iborat bo‘lgan va va jami 1897ta xo‘jalikda 6938 nafar aholi istiqomat qilgan[2].

Boysun uyezdida yashagan o‘zbek urug‘lari tarkibi quyidagicha bo‘lgan. Qatag‘on urug‘i Darbandda 665 nafar, Qumqo‘rg‘onda 1055 nafar aholiga ega bo‘lib, uyezd bo‘yicha jami 1720 kishini tashkil etgan. Qo‘ng‘irot urug‘i esa eng yirik guruhlardan biri bo‘lib, Boysunda 3955 nafar, Darbandda 2790 nafar, Qumqo‘rg‘onda 3145 nafar aholisi bilan jami 9890 kishini tashkil qilgan. Qo‘ng‘irotlar ichida qo‘shtamg‘ali tarmog‘i Darbandda 425 nafar aholi bilan qayd etilgan bo‘lsa, Tortuvli tarmog‘ining 3740 nafari Boysunda istiqomat qilgan. Shunday qilib, qo‘ng‘irot urug‘ining umumiy aholisi Boysun bo‘yicha 3955, Darband bo‘yicha 3455, Qumqo‘rg‘on bo‘yicha 4200 nafar bo‘lib, uyezd bo‘yicha jami 11610 kishini tashkil etgan. Xo‘ja urug‘i faqat Qumqo‘rg‘on hududida istiqomat qilgan bo‘lib, 220 nafar aholi qayd etilgan. Chig‘atoy urug‘i esa Darbandda 1127 nafar aholi bilan ro‘yxatga olingan. Umuman olganda, Boysun uyezdi bo‘yicha jami 7695 nafar Boysun aholisi, 5007 nafar Darband aholisi va 4420 nafar Qumqo‘rg‘on aholisi bo‘lgan bo‘lib, uyezd bo‘yicha umumiy aholi soni 12 957 kishini tashkil etgan[3].

1926-yil 25–29 sentyabrda Samarqandda O‘zbekiston SSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining V sessiyasi bo‘lib, unda rayonlashtirish loyihasi ko‘rib chiqildi va tasdiqladi. Ushbu loyiha qaroriga muvofiq Boysun tumani (rayoni) tashkil etildi. Tuman viloyatning g‘arbida joylashgan. Boysun tumanida 22 ta qishloq sovetlari joylashgan: Boysun, Bandixon, Dashtigiaz, Darbant, Duoba, Qayroq, Qo‘rg‘oncha, Kofirun, Qizilnavr, Munchoq, Novbuloq, Padang, Posurxi, Pulhokim, Rabot, Sayrob, O‘rtamachay, Xalqajar, Hovuz, Xojabulg‘on, Shaid, Sho‘rob[2].

Boysun tumani aholisining soni va milliy tarkibi quyidagicha shakllangan.

I. Asosan o‘zbeklar yashaydigan tumanlar:

1. Bandixon qishloq kengashi (147 xo‘jalik): aholisi 631 kishi.

2. Dashtig‘oz qishloq kengashi (234 xo‘jalik): Balx, Gal, Dashtig‘oz, Jar, O‘rtabo‘z, Inkobodning jami aholisi 1041 kishi.

3. Qayroq qishloq kengashi (216 xo‘jalik): Allacharm-kichik, Baqchuq, Qayroqning jami aholisi 880 kishi.

4. Kofirun qishloq kengashi (297 xo‘jalik): Alof, G‘ajak, Kofirun, Ko‘li-qamishning jami aholisi 1385 kishi.

5. Qizilnavr qishloq kengashi (136 xo‘jalik): Qizilnavr, Kentalaning jami aholisi 880 kishi.

6. Navbuloq qishloq kengashi (128 xo‘jalik): G‘oziqishloq, G‘o‘ri-xo‘ja, Tangisoyning jami aholisi 693 kishi.

7. Padang qishloq kengashi (298 xo‘jalik): Olcha-buloq, Kampir chorbog‘, Niyozko‘lo‘ldi, Padang, Chuyanchi, Shayton, Sho‘r-buloqning jami aholisi 1641 kishi.

8. Pulxokim qishloq kengashi (768 xo‘jalik): Oqqonchig‘ay, Omonxona, Bozorko‘l, Boshko‘lbuloq, Gurdara, Qorayog‘och, Qo‘shbuloq, Qo‘ng‘irot, Ko‘kbuloq, Ko‘charbuloq, Qo‘shnov, Pulhokim, Chuqurko‘l, Teshiktosh, O‘rmisoy, Chagan, Chagay, jami aholisi 3552 kishi.

9. Rabot qishloq kengashi (222 xo‘jalik): Oqjar, Omonqo‘rg‘on, Bitov, Jonchi, Jekanak, Pastbuloq, Rabot, Yangiqishloq, jami aholisi 984 kishi.

10. Xoljar qishloq kengashi (398 xo‘jalik): Qorong‘u-quyi, Qizil, Pastsho‘r, Chillidara, jami aholisi 1795 kishi.

11. Xo‘jabo‘lg‘on qishloq kengashi (121 xo‘jalik): Daganajonning jami aholisi 559 kishi[3].

II. Asosan tojiklar yashaydigan tumanlar:

1. Darbant qishloq kengashi (475 xo‘jalik): Oqmachit, G‘urum, Darbant, Juyrak, Qopchig‘ay, Qoskak, Ko‘chak, Gazmolbuloq, Pitau, Pojirxona, Sesangi, Chambil, Chamil, Chashmaalim, Yolg‘izoyoq, jami aholisi 1963 kishi.

2. Sayrob qishloq kengashi (522 xo‘jalik): Panjob, Sayrob, jami aholisi 2412 kishi.

3. Hovuz qishloq kengashi (222 xo‘jalik): Oqsuv, Beshtaxta, Falangi, Hovuz, jami aholisi 931 kishi[3].

III. Aralash (o‘zbek va tojik) tumanlar:

1. Duoba qishloq kengashi (221 xo‘jalik): G‘umatak, Kazmul-qishloqda o‘zbeklar, ammo Duoba maskanida, asosan, tojiklar (150 xo‘jalik) dan iborat. Jami aholi 995 kishi.

2. Munchoq qishloq kengashi (333 xo‘jalik): Og‘zikent, Besherkak, Qamishloy, Qipchoq, Uzunquduqda o‘zbeklar; Munchoqda o‘zbek (50) va tojik (43) yashaydi. Jami aholi 1619 kishi.

3. Posurxi qishloq kengashi (684 xo‘jalik): Oq-qiya, Mirqorako‘z, To‘da o‘zbeklar; Avlod, Qoraboyun, Ko‘chkak, Posurxi maskanlari tojiklardan iborat. Jami aholi 2831 kishi.

4. Toshpo‘lat qishloq kengashi (338 xo‘jalik): Olachapon-katta o‘zbeklar; Dehbolo, Toshpo‘lat va Luchak tojiklardan iborat. Jami aholi 1705 kishi.

5. O‘rta-Machay qishloq kengashi (260 xo‘jalik): Quyi-Machay, O‘rta-Machay o‘zbeklar; Xoljadoni, Yuqori-Machay tojiklardan iborat. Jami aholi 1162 kishi[3].

Xulosa. O‘rganilgan ma’lumotlar Boysun tumani nafaqat tabiiy-geografik jihatdan, balki etnik, ijtimoiy va madaniy jihatdan ham serqirra hudud bo‘lganini tasdiqlaydi. Maqolada keltirilgan tarixiy demografik ko‘rsatkichlar va etnik guruhlarning joylashuv jarayonlari bugungi Boysun tumanining etnik shakllanishi, mahalliy guruhlarning hududiy taqsimoti va madaniy rivojlanishini tushunishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyot va manbalar ro‘yxati:

1. Турсунов С. Н., Рашидов Қ. Бойсун. – Тошкент: Академнашр, 2011. – 560 б.
2. Список населенных пунктов Узбекской ССР 1928 года. Часть IX: Округ Сурхан-дарья. Издание ЦСУ УзССР. г. Самарканд, 1929 г.
3. Материалы по районированию Средней Азии. Кн.1. Территория и населения Бухары и Хорезма. Ч.1. Бухара. — Ташкене, 1926. – С. 259-261, 267, 266-268, 271.
4. Tursunov N.N. Janubiy Surxon vohasi aholisining etnik xususiyatlari (XIX asr oxiri – XX asr boshlari).: Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – T., 2007. 224-bet.
5. Normatov O.M. O‘rta Osiyoda o‘tkazilgan rayonlashtirish siyosatining O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta’siri. (Monografiya). Toshkent: TURON-IQBOL, 2022. 136-b.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 811.512.133'373:2-42 (045)

SO'FIYLAR FAOLIYATIGA DOIR TASAVVUFIY ATAMALARNING SHARHLANISHI: "NASOYIM UL-MUHABBAT" TAZKIRASI MISOLIDA

Parmonova Sevara Ulug'bek qizi , Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

INTERPRETATION OF SUFI TERMS ABOUT THE ACTIVITIES OF SUFIS: ON THE EXAMPLE OF THE TAZKIRA "NASOYIM UL-MUHABBAT"

Parmonova Sevara Ulug'bek kizi, PhD student at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

ТОЛКОВАНИЕ МИСТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ, СВЯЗАННЫХ С ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ СУФИЕВ: НА ПРИМЕРЕ ТАЗКИРЫ "НАСАЙИМ УЛ-МУХАББАТ"

Пармонова Севара Улугбек кызы, аспирантка Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

https://orcid.org/0009-0009-5005-7666
e-mail: parmonova.sevara@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot ishida Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasi obyekt sifatida olinib, unda tasavvuf ta'limoti, tavba, tavhid, ma'rifat kabi tasavvufiy atamalarning keltirish o'rinlari, shayx-avliyolar tilidan qanday ta'riflangani va so'fiylar faoliyatidagi ahamiyatiga e'tibor qaratildi.*

Kalit so'zlar: *tasavvuf, tariqat, suluk, solik, ma'rifat, tavhid, tavba, Navoiy, Qushayriy, Jomiy.*

Abstract: *This research work takes Alisher Navoi's commentary "Nasayim ul-muhabbat" as an object, and pays attention to the teachings of Sufism, the places of occurrence of such mystical terms as repentance, monotheism, enlightenment, how they are defined in the language of sheikhs and saints, and their significance in the activities of Sufis.*

Keywords: *Sufism, tariqat, suluk, salik, marifat, tawhid, tawba, Navoi, Qushayri, Jami.*

Аннотация: *В данной исследовательской работе, взятой в качестве объекта комментария Алишера Навои «Насайим ул-мухаббат», рассматривается учение суфизма, места возникновения таких мистических терминов, как покаяние, единобожие, просветление, их определение в языке шейхов и святых, а также их значение в деятельности суфиев.*

Ключевые слова: *суфизм, тарикат, сулук, салик, маърифат, таухид, тауба, Навои, Кушайри, Джами.*

Kirish. Najmiddin Komilovning "Tasavvuf" kitobida ta'kidlanganidek, tasavvuf, bir tomondan, din va shariat, ikkinchi tomondan, falsafa va hikmat ilmi bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan o'ziga xos ta'limotdir [Комилов, 2009: 245]. U nafaqat riyozat va axloqiy tarbiya vositasi, balki chuqur tafakkurga asoslangan ruhiy-ma'naviy yo'ldir. Ushbu ruhiy haqiqatlar dunyosining o'z ichki tili – istilohlar tizimi mavjud bo'lib, oddiy tafakkur bu istilohlarni faqat lug'aviy darajada anglatsa, tasavvufiy tafakkur ushbu atamalar orqali solik (yo'lchi)ning ichki kechinmalari, ruhiy tajribalari, bosqichma-bosqich yuksalish jarayonini ifodalashga xizmat qiladi.

Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasi bunday tasavvufiy tushuncha va atamalarning hayotiy-manzarali kontekstda aks etgan muhim manbalaridan biridir. Asarda deyarli har bir so'fiyning faoliyati, tariqat yo'lida ko'rgan-kechirganlari, o'ziga xos tajribasini yoritish orqali muayyan tushuncha yoki istiloh gavdalanadi. "Tasavvuf", "tavhid", "ma'rifat", "ishq", "tavba", "nafs", "zuhd", "fano", "vahdat", "riyozat", "sabr"

kabi tushunchalar shunchaki nazariy tavsif sifatida emas, so‘fiylar hayot tarzi bilan bog‘liq holda aks ettiriladi. Shu sababdan ham, bu tushunchalarni tazkira doirasida tahlil qilishda nafaqat ularning ma’no-mohiyati, balki mashoyixlar tilidan qanday tarzda ifodalangani, qanday ruhiy fonda yoritilgani muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur tatdqiqot ishida sharq mumtoz adabiyotidagi tasavvufga oid tazkiralardan Qushayriyning “Qushayriy risolasi”, Hujviriyning “Kashf ul-mahjub” tazkirasi va Abdurahmon Jomiyning “Nahafot ul-uns” tazkiralaridan foydalanildi. Manbashunoslik va qiyosiy-tarixiy metodlardan foydalangan holda tasavvufga oid tavba, tavhid, tasavvuf, ma’rifat kabi atamalar sharhlab berildi.

Munozara va natijalar. Tasavvuf ta’limoti islom olamida VIII asr o‘rtalarida paydo bo‘lgan bo‘lib, Abdulkarim Qushayriy o‘zining “Qushayriy risolasi” asarida tasavvufga shunday ta’rif beradi: “Tasavvuf so‘zining arabcha ekanligini isbotlovchi biror ildiz yo‘q. Bu mavzuda aytilishi mumkin bo‘lgan eng to‘g‘ri fikr shuki, tasavvuf biror narsaning nomi emas, balki hollari va yo‘llari mashhur bo‘lgan valiylar guruhiga qo‘yilgan bir laqabdir” [Kuşeyri, 2022: 506].

“Nasoyim ul-muhabbat”da ham shayx-avliyolarning tasavvuf haqida aytgan ko‘plab so‘zlari, bergan ta’riflari mavjud. Abulabbos ibn Masruqdan tasavvuf haqida so‘raladi va u: “Sirlarni keraksiz narsadan xoli qilib, kerakli narsaga (Haqqa – *P.S.*) bog‘lashdir”, deb javob beradi [Навоий, 2017:89]. Ya’ni bu yo‘lga kirgan inson qalbini ortiqcha o‘y-tashvishlar – dunyo havasi, mol-dunyosi yoki boshqalar bilan emas, aksincha, Haq yodi va uning zikri bilan to‘ldirishi lozim. Xuddi shu mazmundagi yana bir fikr Abu Said Arobiy tomonidan “Tasavvuf butunligicha ortiqcha narsalardan chetlashish, ma’rifat butunligicha bilmaslikni e’tirof qilishdir” deb aytilgan bo‘lib, “Nasoyim”da unıng ta’rifi 283-o‘rinda kelgan.

Yoki Ruvaym (tax.870-915)ning “Tasavvuf nima?” degan savolga bergan ikki javobiga e’tibor qaratsak: “Tasavvuf biror narsaga egalik qilmaydi va o‘ziga ham egalik qilmaydi” va “Tasavvuf ikki narsaning o‘rtasidagi afzallikni tark qilishdir” [Навоий,2017:93]. Ya’ni tasavvuf kishini biror moddiy narsaga, hattoki, o‘ziga, o‘z joniga ham egalik qilishdan qaytaradi. Bu barcha narsaning egasi yolg‘iz Alloh ekanligi, solik bu dunyoga nimagadir egalik qilish uchun emas, balki sinov uchun kelganligini anglatadi. Ruvaymning bergan ikkinchi javobi esa, tasavvuf bir narsani boshqasidan ustun qo‘yishdan qaytarishini anglatadi. Ya’ni haqiqiy so‘fiy kishi biror tanlovda “eng afzalini” (masalan, ikki taomdan mazalisi, ikki yo‘ldan qulayrog‘i, ikki so‘zdan chiroylisi va hokazo) emas, balki Alloh taolo buyurgan, uning roziligiga sabab bo‘ladigan narsani (hatto u qiyin yoki nafsiga og‘ir keluvchi bo‘lsa ham) tanlaydi. Tasavvuf yo‘liga qadam qo‘ygan solik o‘zini Alloh rizosi uchun, U buyurgan amallarni bajarish va nihoyasida, Uning vasliga erishish uchun harakat qiladi. Abu Ya’qub Mazobiliyning “Tasavvuf – insoniylik xislatari yo‘q bo‘lib ketadigan holdir” [Навоий, 2017: 119] degan fikrlari ham, tasavvuf vakilida vaqt o‘tgani sari insoniylik sifatlari (nafs, kibr, manmanlik va hokazo)larning yo‘qolib ketishini anglatadi.

Bir solik (yo‘lchi) tariqat yo‘liga qadam qo‘yar ekan, eng avvalo nima qiladi? Albatta, ishning boshi tavba bilan bo‘ladi. Islom dini va ta’limotida tavba – har bir musulmon uchun zarur bo‘lgan amal bo‘lib, Qur’onda ham, hadislarda ham bandaning gunohlardan qaytib, Alloh rahmatiga yuzlanishi targ‘ib qilingan. Har qanday musulmon hayoti davomida xatolar qiladi, biroq tavba orqali u o‘zini poklashi mumkin. Bu umumiy tavba – iymonning bir ko‘rinishidir. Tasavvuf yo‘lida esa tavba yana ham chuqurroq mazmun kasb etadi. Solikning tavbasi – faqatgina gunohlarni tark etish emas, balki qalbini dunyo havasi, muhabbatidan, nafs istaklari va g‘aflat pardasidan xoli qilish demakdir.

Birinchi tabaqadan bo‘lgan Xuroson mashoyixi Ahmad al-Xuzraviya al-Balxiy (vaf. 240/855) Ibrohim Adhamning “Tavba bu ko‘ngil tozaligi bilan Allohga qaytishdir” degan so‘zlarini eshitganini aytadi [Навоий,2017:66]. Ya’ni har kim tavba sohibi bo‘la olishi mumkin, ammo fikrimizcha, tasavvuf yo‘liga qadam qo‘ygan solik, bu yo‘lda kamida inoba sohibi bo‘lib, gunohdan tiyilibgina qolmay, qalbini to‘liq Robbiga bag‘ishlab, Uning zikri bilan mashg‘ul bo‘lishi kerak. Lekin bu ham yo‘lning so‘ngi emas. Tavba sohibi bo‘lish – ishq bilan Allohga qaytish, muhabbat bilan Unga intilish, hamisha Uning huzurida nola va sog‘inchda yashashdir.

Tasavvuf yo‘liga kirgan solikning o‘rganishi kerak bo‘lgan eng muhim ilm bu tavhid ilmi sanalgan. Tavhid (arabcha “vahhada” – “yagonalashtirish”, Allohning yagona ekanligi haqidagi ilm; “La ilaha illalloh” (Allohdan boshqa iloh yo‘q) – tavhid kalimasi sanaladi) – diniy-islomiy, tasavvufiy istilohlar orasida eng muhimlaridan sanalib, bu ilmni mukammal

o‘rganmagan kishilar chin so‘fiy bo‘la olmaganlar. Ammo tavhidni har kim turlicha idrok etgan va shunga ko‘ra tavhid maqomining ham martabalari turlicha bo‘lgan. Abdurahmon Jomiy “Nafahot ul-uns” tazkirasida Suhravardiyning “Avorif al-ma’rif” asarida tavhidning imonga, ilmga, holga hamda Allohga oid bo‘lgan to‘rt martabasi haqida ma’lumot berilganligini yozadi va Junayd Bag‘dodiyning ushbu so‘zlarini keltiradi: “Tavhid shunday bir ma’nodirki, usul unda yo‘qoladi, ilmlar ham yo‘qoladi. Alloh esa azalda qanday bo‘lgan bo‘lsa, shunday qoladi. (Insonga va moddiyatga oid bo‘lgan hech narsa qolmaganligidan, azal bo‘lgan Allohning bor bo‘lib, boshqa narsalarning yo‘q bo‘lgani bir holat paydo bo‘ladi”) [Cami, 2021: 61].

Alisher Navoiyning tazkirasida ham tavhid tushunchasi ko‘plab shayxlar, avliyolar tilidan, ularning tutgan yo‘llari bilan bog‘liq tarzda izohlangan. Allohning yagona va yolg‘iz ekanligi, Uning jamoli borliqdagi jamiki narsalarda aks etishi haqidagi qarashlar tavhid tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq holda keladi. Masalan, Shayx Najibuddin Ali ibn Buzgush ash-Sheroziy (vaf. 1279-yil)dan “Tavhid sirrin bir misol bila ravshan qil”, deb so‘raganlarida u shunday javob beradi: “Ikki ko‘zgu va bir olma” [Навоий, 2017: 380]. Ushbu misolni turli ma’nolarda tahlil qilish mumkin. Bizning fikrimizcha, Allohning bir ekanligini anglash uchun zohiriy xilma-xillik (ikki xil oyna) to‘siq bo‘la olmaydi. Bu misolda olma – yagona Haqiqat (Alloh) timsoli bo‘lib, u ikki ko‘zgu qarshisida turganligi bois, har bir oynada uning alohida aksi ko‘rinadi. Bu esa zohiran qaraganda ikki xil mavjudlik kabi taassurot uyg‘otishi mumkin, aslida esa, har ikki ko‘zgu bitta haqiqatning (olmaning) aksini qaytarib turibdi. Butun koinotdagi xilma-xil mavjudotlar, odamlar, hodisalar – barchasi yagona Haqiqatning turfa aksidir. Ya’ni, ko‘rinishlarning ko‘p va turfa xilligi faqat zohiran qaraganda namoyon bo‘ladi, asl mohiyat esa birdir, birlikdir.

Tavhid tushunchasiga Muhammad (s.a.v)ning tillaridan berilgan javobga e’tiborimizni qaratsak. Abu Is’hoq Ibrohim Shaxriyor Kozruniy (“Nasoyim”da 327-ta’rif)ning tushiga Rasulullo (s.a.v.) kiradilar va shayx ularga tasavvuf, tavhid, aql haqida savollar beradi. Tavhid haqida berilgan savolga Muhammad sollallohu alayhi va sallam: “Tavhid Alloh subhanohu aqlingga kelgan yoki xotiringda paydo bo‘lgan har bir narsaning aksi ekanini bilishingdir. Tavhid Uni shak, shirk va Uning sifatlari inkoridan poklashingdir”, deb javob beradilar. Tavhidga berilgan ushbu ta’rif yuqoridagi ikki olma va bir ko‘zgu haqidagi hamda boshqa barcha ta’riflarning umumiy hamda mukammal yig‘indisi deb bemalol aytish mumkin.

Alisher Navoiy o‘z tazkirasidagi ma’lumotlarni yozishda ko‘plab o‘rinlarda Hujviriy hamda Qushayriyning asarlaridan foydalangan. Xususan, Abdulkarim Qushayriyning o‘zi haqida ma’lumot berar ekan, uning: “So‘fiy – zotiljam kasaliga chalingan kishi kabidir, boshida alayhsiraydi, keyin tinchiydi. Agar qattiq urinsang, tinch bo‘lib qolasan” degan so‘zlarini Hujviriyning “Kashf ul-mahjub” asaridan olganligini ta’kidlaydi. Hujviriyning asarida esa **so‘fiy** so‘zi o‘rniga **tasavvuf** atamasi ishlatilgan [Hücviri,2020:228]. Navoiy, shuningdek, Qushayriyning tavhid haqidagi ushbu fikrlarini ham keltirib o‘tadi: “Tavhid – oti ko‘ringanda shaklning yo‘qolishi, nurning chiqishida boshqalarning ko‘rinmasligi, haqiqatlar paydo bo‘lganda xaloyiqning yo‘q bo‘lishi, zikri ulug‘ bo‘lgan jabborga yaqinlashishi aniq bo‘lganida esa boshqalarni ko‘rmasligidir”. Ushbu ta’rif tavhidning bu darajasiga yetgan insonning tashqi dunyo, odamlar, hodisalar xilma-xilligiga chalg‘imasligi, uning diqqatini ilohiy birlikdan hech narsa uza olmasligini anglatadi.

Tasavvufda “tavhid” tushunchasi “ma’rifat”, “vahdat” kabi atamalar bilan ko‘p hollarda yonma-yon keladi. Tavhid – Allohning yagona ekanligini anglash bo‘lsa, ma’rifat (arabcha “bilish”, “tanish’) – bu Alloh taoloni qalb bilan, ruh bilan tanish, Uning sifatlarini ichki idrok orqali anglashdir. “Nasoyim ul-muhabbat”da Abu Ya’qub as-Susiyning shogirdi Abu Ya’qub Nahrjuriyning tilidan keltirilgan ushbu fikrga e’tibor qaratsak: “Kimki taqlid yo‘li bilan tavhiddan so‘z aytsa, u ma’rifat yo‘lidan yiroqdir.” Ya’ni tavhidga taqlid bilan erishib bo‘lmaydi, balki har kim o‘z yo‘lida o‘zi his qilgan, o‘zi kechirgan riyozatlari orqali tavhid tushunchasining mohiyatini anglashi, shu orqaligina ma’rifat sari qadam qo‘yishi mumkin bo‘lgan. Ya’ni tasavvuf ta’limotida pir yoki murshid murid uchun ruhiy sayohatda ishonchli yo‘lboshchi hisoblanadi. Pir muridiga tariqatning usul va arkonini, zohiriy-amaliy tartib-qoidalarini, zikr va riyozat mashqlarini, odob-axloq me’yorlarini o‘rgatishi, xato va kamchiliklarini to‘g‘irlashda yordam ko‘rsatishi mumkin. Bu jarayonda murid tariqat yo‘lining tashqi tuzilishi va shakily amallarini puxta egallay oladi. Biroq tavhid va ma’rifat masalalarida ahvol boshqacha. Bu ikki maqom faqat kitobiy bilim yoki ustoz nasihati orqali to‘liq idrok etilmaydi. Chunki tavhid va ma’rifat – bu faqat aql bilan tushuniladigan ilm emas, balki ruhiy tajriba va

hol bilan anglashiladigan ichki idrok mahsulidir. Shu boisdan, murshid tavhid va ma'rifat haqida umumiy tushuntirishlar berishi mumkin bo'lsa-da, muridning bu maqomlarni haqiqatdan anglash jarayoni – uning o'z holati, ichki poklanishi, zikrlaridagi samimiyati bilan bog'liq. Bu darajalarga erishish uchun solik o'z nafsini tarbiya qilib, qalbini tozalashi, o'zini chinakam tayyor holatga keltirishi lozim.

Bu borada Abdurahmon Jomiy o'zining "Nafahot ul-uns" tazkirasining kirish qismida chiroyli misollarni keltiradi. Ya'ni, ma'rifatulloh haqida Junayd Bag'dodiydan so'raganlarida u bunga javoban: "Ma'rifat, Uning ilmi qarshisida sening johil ekanligingdir. Uning olim, sening esa johil ekanligingni bilishingdir", deydi. Bu ta'rifni yana ham ochiq ifoda eting, deb so'raganlarida, "Orif ham, ma'ruf ham Udir (ya'ni bilgan ham bilingan ham U). Haqqa qay darajada ko'p yaqinlashilsa, ilohiyot parchalari shunchalik ko'p namoyon bo'la boshlaydi, sen esa bu ilmda hech narsani bilmasligingga yana ham amin bo'lasan. Haqning huzuri moddiy olamni butunlay ko'rishingga mone bo'ladi. Hayrat ustiga hayrat ortadi va Orif kishi ruhan "Robbim! Senga bo'lgan hayratimni yana ham orttir!" deya faryod chekadi. Butun borliq senga baland ovozda yo'qlik haqida so'zlaydi, dengizlarni ichasan, ammo chanqog'ing bosilmaydi, otashlarga o'zingni urasan, lekin yonmaysan", deb javob beradi [Cami,2021:19].

Alisher Navoiy tazkirasida ham so'fiylarning ma'rifat haqidagi ko'pgina fikrlarini keltirib o'tilgan. Masalan, Junayd Bag'dodiyning yuqoridagi fikriga mos keluvchi bir fikr Xoja Bahouddin Naqshband ta'rifida keladi: "Tavhid sirrig'a yetsa bo'lur. Ammo ma'rifat sirrig'a yetmak dushvordur" [Навоий,2017:305]. Ya'ni tavhid – Allohning yagona zot ekanini tan olish, idrok etishdir. Bu ilm aqida jihatidan barcha musulmonlar uchun majburiy bo'lsa-da, tasavvufda tavhid faqat nazariy tasdiq emas, balki qalbning ichki iqrori sifatida qaraladi. Shuning uchun har bir so'fiy tavhidni individual tarzda anglaydi va ifodalaydi. Masalan, bir so'fiy uchun tavhid – "borliqdagi hamma narsada faqat Haqning tajallisini ko'rish" bo'lsa, boshqasi uchun u "o'z nafsini batamom yo'q etish orqali faqat Alloh yodini qoldirish"dan iborat. Ta'riflari xilma-xil bo'lsa ham, mohiyat Allohning yagonaligini e'tirof etishga borib taqaladi. Ma'rifat esa, muridning Alloh bilan ruhan, qalban yaqinlashuvi natijasida vujudga kelsa ham, oxirigacha o'rganish mumkin bo'lmagan ilm sifatida qaraladi. Chunki insonning qalbi, ongi, shuuri cheklangan, ammo Alloh taoloning zoti haqidagi ilm mutlaq va behaddir. Shu sababdan ham ma'rifat ilmini butkul egallash imkonsiz, uning har qanday darajasi – Haqning cheksiz ilohiy haqiqatidan faqat birgina nur, birgina tajalli bo'la olishi mumkin.

Ma'rifat ilmini o'rganish uchun esa savodli bo'lish shart emas. Alloh taolo istagan bandasiga bu ilm eshigini ochishi, shu orqali uni boshqalar ichra aziz qilishi mumkin. "Nasoyim"da 565-o'rinda ta'rifi keltirilgan Shayx Hammod Dabbos haqida arab tilidagi quyidagi jumla keltirilgan:

انَ عَلَيْهِ أَنْوَارُ الْأَسْرَارِ وَصَارَ قُدْوَةً لِلْمَشَايِخِ الْكِبَارِ.

Ma'nosi: *"U ilmda savodsiz edi, unga sirlar va ma'rifatga yo'l ochildi hamda ulug' shayxlar ustoziga aylandi".* Ya'ni kishilar nazdida ilmsiz, savodsiz bo'lgan Shayx Dabbosga Alloh o'z fazli bilan ma'rifat ilmi va ilohiy sirlar eshigini ochgani uchun u o'z zamonida shayxlarning shayxi, ulug' ustoz darajasiga yetisha oldi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, tasavvufda solikning ruhiy sayri davomida bajaradigan amallari, o'rganadigan ilmlari bosqichma-bosqich amalga oshirilib, bunda faqat ustoz – pirning yo'l-yo'riqlari emas, balki so'fiyning ruhiy yuksalishi, maqomlarni bosib o'tishdagi o'ziga xos ichki kechinmalari ham ahamiyatga molikdir. "Nasoyim ul-muhabbat"da so'fiylarga xos bo'lgan tavba, tavhid, ma'rifat kabi ilmlarning mazmuni, mashoyixlar tilidan berilgan ta'riflarini ko'plab uchratishimiz mumkin. Bu izohlar, ta'rif va sharhlar so'fiyona tafakkirning yuksak namunasi bo'lib ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Навоий Алишер. Насойимул муҳаббат мин шамойимил футувват. –Т.: Мовороуннаҳр, 2017. – 575 б.
2. Cami Abdurrahman. Nefahatü'l-üns min hadarati'l-kuds. – İstanbul: Salih kitaplar, 2021. – 768 s.
3. Kuşeyri Abdülkerım. Kuşeyri risalesi. – İstanbul: Semerkand, 2022. – 732 s.
4. Hucviri Ali b. Osman Cüllabi. Hakikat bilgisi Keşfu'l-mahcub. –İstanbul: Dergah yayınları, 2020.
5. Komilov, N. Tasavvuf. – T.: Movarounnahr, 2009. – B. 445.

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 37.017.1:37.018.43

“TARBIYA” FANINI O‘QITISHDA ILG‘OR PEDAGOGIK USULLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Kosbergenov Baxram Maxsetbayevich, Ajiniyoz nomidagi NDPI o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

THE IMPORTANCE OF USING ADVANCED PEDAGOGICAL METHODS IN TEACHING “EDUCATION” SUBJECT

Kosbergenov Bakhram Makhsetbayevich, teacher of the Ajinyoz National Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕРЕДОВЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ В ПРЕПО- ДАВАНИИ ПРЕДМЕТА “ВОСПИТАНИЕ”

Косбергенов Бахрам Махсетбаевич, преподаватель государственного педагогического института имени Аджинияза, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

https://orcid.org/0009-0006-6840-1013
e-mail: qosbergenovbahram43@gmail.com

Annotatsiya: *Maqola asosan o‘rta maxsus ta’limga yo‘naltirilgan bo‘lib, ta’lim jarayonida metodlarning tutgan o‘rni, kreativ fikrlash va ularni asosiy vositaga aylantirish masalalariga bag‘ishlangan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim-tarbiya, qadriyat, etika, metod, metodika, ma’naviyat.*

Abstract: *The article is mainly focused on secondary specialized education and is devoted to the role of methods in the educational process, creative thinking, and their transformation into the main tool.*

Keywords: *education-upbringing, values, ethics, method, methodology, spirituality.*

Аннотация: *Статья в основном ориентирована на среднее специальное образование и посвящена роли методов в образовательном процессе, творческому мышлению и их превращению в основной инструмент.*

Ключевые слова: *образование-воспитание, ценности, этика, метод, методика, духовность.*

Kirish. Barchamizga ma’lumki, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2019-yil 23-avgust kuni “Xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalari”ga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini joriy etish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Mazkur qaror ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Xalq ta’limi vazirligi, Vazirlar Mahkamasi Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori loyihasini jamoatchilik muhokamasi uchun e’lon qildi.

Qarorda aytilishicha, avval amalda bo‘lgan “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi”, “Dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtirgan holda, uning o‘rniga “Tarbiya” fani joriy etiladi. Shuningdek, qarorda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fani 1, 9-sinflarda 2020-2021-o‘quv yilidan, 10,11-sinflarda 2021-2022-o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish nazarda tutilmoqda.

Prezidentimizning bu xayrli ishi barcha ziyolilarni quvontirdi. Chunki Sharq xalqlari inson qalbi, ruhiyatini o‘rganishda yuksak darajaga ko‘tarildi. Bu haqda rus olimi S.Sulginskiy shunday deganida haq edi: “G‘arb – aql, Sharq – donishmand, G‘arb – kenglik, Sharq – teranlik, G‘arb harakat bilan yashagan, Sharq esa go‘zallik – umid bilan, agar G‘arbning mashhur olimlari faol bo‘lsa, Sharqda ular faylasuflar... G‘arbga nisbatan bir necha asr oldin

Sharqda ilm-fanning deyarli barcha sohalari uchun asos yaratilgan edi" [1,62].

Metodologiya (Methods). Tadqiqot davomida quyidagi uslublar asos qilib olindi:

- Ilmiy bilish yondashuvi: bu usul orqali bilimlar majmui va predmetning mohiyatini anglash, balki unga eltuvchi yo'l ko'rsatiladi.

- Axloqiy-falsafiy yondashuv: tarixiy namoyandalar va qahramonlarning harakati orqali badiiy saboq yoritiladi.

"Tarbiya - keng ma'noli tushuncha bo'lib, uning uch xil ta'rifi mavjud:

- Bolani parvarishlash va voyaga yetkazish;
- Kutish, qarash. Tarbiyalash;
- Olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga o'rgatish.

Masalan, odob va ikromga o'rgatishni axloqiy tarbiya, kasb-hunarga o'rgatishni kasb-hunar tarbiyasi, shariat qoidalariga o'rgatishni shariat tarbiyasi va hokazo deyish mumkin"[1,173].

Demak, ta'lim berishdan maqsad, undan keyin tarbiya berish. Yoki, nazariyada olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatish hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, har bir pedagogdan katta mas'uliyatni talab qilish bilan birga, o'z bilimini muntazam ravishda takomillashtirib borishni ham taqozo etadi.

Biz yuqorida bayon etilgan fikr va xulosalarni umumlashtirsak, ta'lim-tarbiya sohasida hali ham chuqur ish olib borish kerakligini anglab yetamiz. Bu o'z navbatida, o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini o'qitishda turli pedagogik usullardan qanday foydalanish kerakligi yoki yangi usullarni yaratishni talab qiladi. Demak, biz faqat ma'ruza o'qish bilan cheklansak, tarbiya kuchini yo'qotadi. Buning uchun biz tajribaga, laboratoriya ishlarida, seminar, kollokvium, suhbat paytida o'quvchining fikr dunyosini, g'oyaviy qarashlarini kengaytirish orqali erishishimiz kerak.

Shunday ekan, "Tarbiya" fanini o'qitishda quyidagi usullar yaxshi natija berishi mumkin. Ilmiy-tadqiqot metodlari – bu qonuniy aloqalarni, munosabatlarni, munosabatlarni o'rganish va ilmiy nazariyalarni tuzish maqsadida ilmiy ma'lumotlarni olish usulidir.

Suhbat metodi – bu eng keng tarqalgan va yetakchi metodlardan biri bo'lib, undan darsning turli bosqichlarida, turli o'quv maqsadlarida foydalanishimiz mumkin. Ya'ni uyga berilgan topshiriqlarni va mustaqil ishlarni tekshirishda, yangi materiallarni tushuntirishda, mustahkamlash va takrorlashda qo'llash mumkin. Ushbu metoddan foydalanish kuzatuvdan olingan ma'lumotlarni to'ldiruvchi va aniqlovchi materiallarni olish, topshiriqlarni bajarish imkonini beradi. Ushbu metodning muvaffaqiyatining asosi bolalar bilan aloqa o'rnatilishi, ular bilan bemalol erkin muloqot qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, uyga berilgan vazifani qisqa va interaktiv shaklda so'ragan ma'qul. Suhbat uchun uning maqsadini belgilash, dastur ishlab chiqish, yo'nalish va metodologiyasini asoslash juda muhimdir. "Suhbat usuli to'g'ridan-to'g'ri berilgan savollarga javoblarning ishonchliligini tekshirish imkonini beruvchi to'g'ridan-to'g'ri va egri savollarni kiritishni nazarda tutadi"[2,83-84].

Og'zaki-ikki usul – qisqa vaqt ichida hajmi bo'yicha eng ko'p ma'lumot berish, o'quvchilar oldiga muammolar qo'yish, ularni hal qilish yo'llarini ko'rsatish imkonini beradi. Ushbu metodlar o'quvchilarning abstrakt tafakkurini rivojlantirishga imkon beradi.

Amaliy metodlar – qobiliyat va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan metodlar, o'qitishning amaliy metodlari hisoblanadi. Xususan, bunday metodlar sirasiga yozma va og'zaki mashg'ulotlar, amaliy va laboratoriya ishlari, mustaqil ishlarning ayrim turlari kiradi. Mashqlar asosan bilimlarni mustahkamlash va o'rganish, qobiliyat va ko'nikmalarni shakllantirish usuli sifatida qo'llaniladi. Ushbu qonuniyatlarni shakllantirishda bolalar umumlashtirishga duch kelishadi. Umumlashtirish – bu o'rganilayotgan obyektdan umumiy muhim jihatlarni ajratish va ularni muhim bo'lmaganlaridan farqlashdan iborat.

Pinboard – (inglizcha: pin-mustahkamlash, board-taxta) usulining mohiyati shundan iboratki, unda munozara yoki o'quv suhbati amaliy usul bilan bog'lanib ketadi. "Munozara darsni jonlantirish bilan birga, ikki qarama-qarshi nuqtayi nazarning to'g'riligini isbotlash zarurati tug'ilganda yuzaga keladi. Munozara davomida o'quvchilarning fikrlashida shaxsiy cheklovlar yo'qoladi, bilishga qiziqish ortadi va mustaqil fikr yuritish rivojlanadi"[3,43]. Uning afzallik funksiyalari rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifalardan iborat: o'quvchilarda mavzu bo'yicha munozara olib borish madaniyati shakllanadi, bunda o'quvchi o'z fikrini og'zaki emas, balki yozma tarzda bayon etish tajribasi, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bundan tashqari, o'quvchilar o'z-o'zini baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

"Tarbiya" fanini o'qitishda videoroliklarning qulayliklari. Farobiy

aytganidek: “Ta’lim oluvchida bilim va o‘qishga muhabbat bo‘lsin, o‘rganmoqchi bo‘lgan bilimini charchoqni sezmasdan, osonlik bilan o‘zlashtira olsin”[4].

Ta’lim va tarbiya jarayonida videoko‘rsatuvlarning o‘rni alohida. Chunki, bu ko‘rgazmalar inson psixologiyasiga tez ta’sir ko‘rsatadigan vositalardan biri ekanligi ilmiy tadqiqotlarda isbotlangan. Bunday videoroliklardan foydalanishning afzalligi: o‘quvchilar, shu jumladan ba’zi darslarga e’tiborsiz o‘tiradigan o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadi, kitobdan olgan ma’lumotlarini amalda ko‘rish imkonini beradi, o‘quvchilar tez qabul qiladilar va charchamaydilar. Shuningdek, keyingi darsga qiziqish uyg‘otadi, ishonadi, tez xulosa chiqaradi va h.k. Dars yakunida BBB (bilardim, bildim, bilgim keladi) metodidan foydalanib, fikr almashish maqsadga muvofiq. Chunki bu keyingi darsga qanday tayyorgarlik ko‘rish kerakligini aniqlab beradi. Bundan tashqari, dars davomida bir xillikdan qochish maqsadida o‘quvchilarning o‘qituvchi rolini o‘ynashi ham yaxshi samara berishi mumkin. Bu metod orqali o‘quvchining dars davomida o‘qigan ma’lumotlarini tez va uzoq muddatli eslab qolishiga yordam beradi.

Ta’lim-tarbiyaning yuqoridagi usullari “o‘quvchilarda o‘quv ma’lumotlarini egallashda katta yordam beradi. Ma’lumki, 72 soatdan (uch sutkadan) so‘ng axborotni eshitish orqali qabul qilgan tinglovchi xotirasida 10%, ko‘rish orqali 20%, ko‘rish va eshitish orqali 50%, ko‘rish va eshitish orqali qabul qilish va munozarada 70%, ko‘rish va eshitish orqali qabul qilish va munozarada amaliy imkoniyatlarni qo‘llaganda 90% axborot qoladi. Bu sohada dars o‘tish uslubiga ham alohida e’tibor berishni talab qiladi. Ma’ruza orqali tushuntirishda 5%, kitob bilan ishlashda 10%, video ko‘rgazmalardan foydalanishda 20%, o‘yinlar, muammoli o‘qitishda 75%, boshqalarni o‘qitish orqali 90% ma’lumotni eslab qolish aniqlangan”[5,45-46].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Yuqorida aytib o‘tilgan usullar har doim ham o‘zini oqlamasligi mumkin. Chunki, o‘qituvchi o‘quvchilarning psixologik va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda kerakli metodni tanlay olishi kerak. Akademik J.Bazarbayev o‘zining “O‘zlikni anglash – ma’naviyat o‘zagi” asarida aytganidek: “Ustoz izlanuvchan bo‘lishi, fikrlay olishi, har qanday ishni ham g‘ayrat bilan bajara olishi kerak. Chunki ustoz boshqalarga o‘rgatib, o‘zi ham o‘rganadi”[6, 63].

Darhaqiqat, hozirgi ta’lim tizimida o‘quvchilarni avvalgi dunyoqarash bilan o‘qitish, qiziqtirish, tarbiyalash qiyin bo‘lib qoldi. Shuning uchun o‘qituvchi mavzuga oid hayotiy misollar keltirib, uni ta’sirchan tarzda yetkazishi muhimdir. Chunki ta’sirli nutq orqali nazariya, tarbiyaga aylanadi. Misol uchun, jamoat joylarida o‘zini tutish madaniyatini olaylik. Yo‘lning piyodalar o‘tish joylaridan ba’zi odamlar (ko‘pincha qizlar) podiumda yurgandek bo‘lib o‘tadi. Ularga bu ishi to‘g‘ri emasligini aytsangiz, yaxshi deb, bilganini qilaveradi. Va ularga ta’sirli qilib: “Siz yo‘ldan o‘tayotganingizda, sizning o‘tib ketishingizni kutayotgan mashinaning oynalari yopiq bo‘ladi va ular sizning ota-onangizni so‘kayotgan bo‘lishi mumkin. Kim ota-onasini yomon ko‘radi? Ularga minnatdorchilik bildiring, so‘kish emas”.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mustaqil shaxsni shakllantirish, uni jamiyat va davlat manfaatlari yo‘lida ijtimoiy foydali mehnatga yaroqli mutaxassis darajasigacha tarbiyalash ko‘p qirrali va murakkab jarayondir. Shuningdek, jamiyatning haqiqiy boyligi bu inson, inson avlodidir. Shu bois jamiyatdagi har qanday yangilanish, har qanday o‘zgarish ularning yaxshi hayot kechirishi uchun amalga oshirilmoqda. Shunday ekan, yaratilayotgan bu imkoniyatlardan foydalanib, ilm o‘rganish, sog‘lom turmush kechirish, ma’naviy dunyomizni pok saqlash har birimizning burchimizdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.Mirziyoyev 2019-yil, 23-avgust “Xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalari” videoselektor yig‘ilishi materiallari.
2. Nosirxo‘jaev S.X, Lafasov M.F, Zaripov M.Z. “Маънавият асослари”. T: 2002.
3. Bazarbaev J. “Өзликти анлау – мәнауият Өзеги”. Nókis: 2016.
4. Omonov H.T, Xo‘jaev N.X. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat., T: 2009.
5. Utebaev T, Pedagogika. T: 2008.
6. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри., 1993.
7. Тошкент ислом университети. Диншуносликнинг долзарб муаммолари, 2011.

Qabul qilindi: 20.10.2025 Chop etildi: 29.11.2025 UDK: 94(575.1)(47).084.6.631

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДА КОЛЛЕКТИВЛАШТИРИШ СИЁСАТИ

Қидирбаева Мавлуда Калбаевна, Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети таянч докторанти

COLLECTIVIZATION POLICY IN KARAKALPAKSTAN

Qidirbayeva Mavluda Kalbayevna, Junior Researcher (PhD student), Berdakh Karakalpak State University

ПОЛИТИКА КОЛЛЕКТИВИЗАЦИИ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ

Кидирбаева Мавлуда Калбаевна, базовый докторант Каракалпакского государственного университета имени Бердаха

https://orcid.org/0009-0005-8893-8021
e-mail: mavluda.kidirbaeva@gmail.com

Аннотация: *Ушбу мақолада Қорақалпоғистонда Совет хукумати томонидан олиб борилган коллективлаштириш сиёсати ҳақида сўз этилади.*

Калит сўзлар: *Иттифоқ, эшон, қулоқ, деҳқон, руҳоний, гектар, центнер.*

Annotation: *This article discusses the collectivization policy carried out by the Soviet government in Karakalpakstan.*

Keywords: *Union, cooperative, kulak, peasant, clergy, hectare, centner.*

Аннотация: *В этой статье рассказывается о политике коллективизации, проводимой советской властью в Каракалпакстане.*

Ключевые слова: *Союз, артель, кулак, крестьянин, духовенство, гектар, центнер.*

Кириш. Ушбу тадқиқот Қорақалпоғистонда 1920–1930-йилларда олиб борилган совет коллективлаштириш сиёсатига бағишланган. Совет ҳукумати қишлоқ хўжалигини социалистик принципларга мувофиқ қайта ташкил этиш мақсадида деҳқон хўжаликларини колхоз ва совхозларга мажбурий бирлаштириш сиёсатига ўтди. Мазкур сиёсат минтақанинг иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳаётида туб ўзгаришларга сабаб бўлди. Тадқиқот тарихи жараёнларнинг мазмун-моҳияти, амалга оширилган чоралар ва уларнинг аҳоли ҳаётига таъсирини ёритишни мақсад қилади.

1920-1930-йилларда Совет Иттифоқида олиб борилган коллективлаштириш сиёсати қишлоқ хўжалигини социалистик тарзда қайта ташкил этиш мақсадида амалга оширилди. Бу жараён бутун СССР ҳудудларида, жумладан, Қорақалпоғистонда ҳам кескин тарзда ўтказилди. Коллективлаштириш деҳқонларнинг шахсий хўжаликларини йўқ қилиб, уларни колхоз ва совхозларга бирлаштиришни назарда тутар эди.

Қорақалпоғистонда коллективлаштириш сиёсати 1929-йилдан бошлаб фаол амалга оширилди. Совет ҳукумати бу ҳудудда ҳам умумий социалистик хўжалик тизимини жорий

қилишни мақсад қилган эди. Шунинг учун бутун минтақада аграр ислоҳотлар ўтказилди. Кўчманчи ва ярим кўчманчи аҳоли якка тартибдаги хўжаликларини тарк этиб, колхозларга бирлаштирилиши учун мажбурий чоралар кўрилди. Ҳукумат томонидан турли пропаганда ишлари олиб борилиб, коллективлаштиришнинг «афзалликлари» тушунтирилди. Совет ҳокимиятининг ўрнатилиши билан давлатни ислоҳ қилиш жараёни самарасиз бўлишига қарамай, тоталитар ҳукумат сиёсати тобора кучайиб борди. «Ҳарбий коммунизм доктринаси» вазифаларни ҳал қилди, тобора буйруқ ва бошқарув усули орқали ўзгартирилди. Унинг энг аниқ кўринишлари қишлоқ хўжалигида пайдо бўлди. Коллективлаштириш босқичи давлатнинг қишлоқ хўжалигини қайта қурди ва қишлоқ аҳолиси жамият ҳамда ҳукумат учун таҳдид туғдирди.

1925 йилда Қорақалпоғистон шароитида ер ва сув ислоҳотларини амалга оширишга уринишлар янги ҳукуматга кутилган натижаларни бермади. Ер бошқаруви уларга йирик ер эгалари ва тадбиркорлар шахсида душман тушунчасини шакллантирди ҳамда қурғоқчиликдаги деҳқон оммасини бошқариш имкониятини берди. Оммавий ахборот воситалари жамиятдаги мафкуравий зиддиятни кучайтирди[1].

Қорақалпоғистонда коллективлаштириш қуйидаги йўналишларда олиб борилди:

1. Кўчманчи ва ярим кўчманчи хўжаликларни яккаликдан чиқариш: Қорақалпоқ халқининг асосий қисми чорвачилик ва деҳқончилик билан шуғулланар эди. Коллективлаштириш натижасида улар ўз мол-мулкларидан маҳрум қилинди ва мажбурий равишда колхозларга қўшилди.

2. Мажбурий коллективлаштириш ва жавобгарлик чоралари: Деҳқонлардан ер, чорва ва хўжалик анжомлари тортиб олинди. Қозоқлар ва қорақалпоқлар орасида қаршилик ҳаракатлари кузатилди, аммо бу қатағон чоралари билан бостирилди. «Кулаклар» (бой деҳқонлар) қатлами йўқ қилинди.

3. Очарчилик ва иқтисодий таназзул: коллективлаштириш оқибатида қишлоқ хўжалигидаги анъанавий тизим бузилди. 1932-1933-йилларда Қорақалпоғистонда ҳам очарчилик авж олди, кўплаб одамлар ҳалок бўлди ёки бошқа ҳудудларга кўчиб кетишга мажбур бўлди.

Қорақалпоғистонда коллективлаштириш сиёсатининг олиб борилиши халқнинг анъанавий хўжалик юритиш тарзига кескин таъсир қилди. Минглаб кишилар ўз мол-мулкидан маҳрум бўлиб, оғир иқтисодий ва ижтимоий шароитларга дуч келди. Совет ҳукуматининг бу сиёсати маҳаллий аҳоли ҳаётида туб бурилиш ясади ва Қорақалпоғистон тарихида жиддий из қолдирди.

Адабиётлар таҳлили ва методология. Тадқиқот тарихий-таҳлилий усул асосида амалга оширилди. Қорақалпоғистонда коллективлаштириш сиёсати ҳақидаги маълумотлар архив ҳужжатлари (АЖК РК фонди), тарихий манбалар, совет даври асарлари ҳамда замонавий тадқиқотчи олимларнинг илмий ишлари асосида ўрганилди. Методология сифатида манбашунослик таҳлили, қиёсий таҳлил усуллари қўлланди.

1927 йил кузида Абу Қудабаевни минтақавий партия ташкилотининг биринчи котиби этиб тайинлаган П.И.Варламов (1927 йил октябрь) БКП (б) номидан Қозоғистон Крайкомига ёзган хатида қачон ва кимга қарши курашиш кераклигини аниқ кўрсатди: «Қорақалпоғистон ҳали ҳам руҳонийларга қарши кучли таъсир кўрсатиши кераклигини кўрсатди. Бойлар ва эшонларнинг ҳукмронлиги сув ва ердан фойдаланиш соҳасидаги енгилликлар билан боғлиқ. Шу сабабли, уларга нисбатан зарур ислоҳотлар орқали кураш олиб бориш керак». Тарихчи олимлар А.Жумашев ва С.Нуржанов тадқиқотлари натижалари шуни кўрсатадики, Қорақалпоқ жамиятининг анъанавий тузилишида беклар, руҳонийлар ва савдогарлар устун мавқега эга бўлган. Улар қишлоқ ҳаётини ташкил этувчилар ва тартибга солувчилар бўлиб, деҳқонларнинг асосий қисмини қишлоқ хўжалиги асбоб-ускуналари, иш қуроллари ва уруғлик материаллари билан таъминлаган ва жамоат муносабатларида муҳим роль ўйнаган. Диний идораларга берилган мол-мулк устидан эгалик қилган руҳоний вакиллари алоҳида мавқега эга эди[2].

1920 йиллар охирида Қорақалпоғистон давлат ташкилотлари ва жамоат бирлашмалари олдида қуйидаги мақсадлар қўйилган эди:

1. Ҳукумат тузилмалари олдида турган вазифаларни етарли даражада ҳал қилиш имконияти бўлмаган қишлоқ ва қишлоқдаги жиддий инқирозли ҳолатни бошқариш;

2. Жамият ва ижтимоий жараёнлар устидан тўлиқ назорат ўрнатиш учун партия ҳокимияти фаолиятини кучайтириш;

3. Қишлоқларда ривожланган қатламларнинг иқтисодий таъсири уларнинг бошқа жойларга мафкуравий таъсирини кучайтириши;

4. Саноат метрополиясининг иқтисодий қудратини ошириш учун қишлоқ хўжалигини ривожлантириш ҳамда минтақада самарали иқтисодиёт яратиш ва давлат манфаати учун даромад олиш зарурлиги.

Қорақалпоғистон ҳукумати Қозоғистон Крайкомидан ер ости сувларини ислоҳ қилиш муддатини 1930 йил охиридан баҳорги экин мавсумига қолдиришни сўради. 1928 йил 24 ноябрда Большевиклар Бутун Иттифоқ Коммунистик Партиясининг минтақавий қўмитаси Қорақалпоғистон бюроси (б) «Ер ва сув ислоҳоти тўғрисида» резолюциясини қабул қилди. Минтақавий қўмита бюроси «кенг батрак ва камбағал ҳамда ўрта деҳқон оммасининг яхши тайёрланган сиёсий тайёргарлиги» мавжудлигини таъкидлади[3].

Муҳокама. Тадқиқот натижаларига кўра, Қорақалпоғистонда коллективлаштириш бир неча босқичда ва жуда тез суръатларда амалга оширилган. Асосий топилмалар қуйидагилардан иборат:

1. Кўчманчи ва ярим кўчманчи хўжаликлар мажбурий равишда колхозларга бирлаштирилди.

2. Деҳқонларнинг ерлари, чорва моллари ва хўжалик анжомлари давлат томонидан тортиб олинди.

3. «Қулоқ» деб аталган бой қатлам йўқ қилинди ва қатағон сиёсатлари кучайтирилди.

4. 1932–1933-йилларда очарчилик авж олди ва аҳоли оғир ижтимоий аҳволга тушиб қолди.

5. Колхозлар сони ва экин майдонлари кескин ошди: 1928 йилда 13 жамоа хўжалиги бўлган бўлса, 1932 йилга келиб 29588 деҳқон хўжалиги колхозларга киритилди.

6. Пахтачиликка алоҳида эътибор қаратилди, пахта майдонлари 210 гектардан 42750 гектаргача ошди.

1928 йил 20 ноябрда КПСС(б) туман қўмиталарининг котиблари ва партия ижроия қўмиталари раҳбарлари иштирокида П.Варламов бошчилигида Қорақалпоғистонда «Ер ва сув ислоҳотлари бўйича маъруза» қилинди. У ўз нутқида қуйидагиларни таъкидлади: «Биз ҳозир ислоҳотларни амалга ошира олмаймиз, компанияни тозалаш керак, чунки олдинда янги компания турибди. Ҳокимиятни қайта сайлаш, рентабеллик асосида янги солиқ қоидаларини жорий этиш ва баҳорги экин мавсумини режалаштириш зарур. «Қорақалпоғистон қишлоқларида» ярим феодал-капиталистик элементларга қарши ҳужум 1928 йил баҳорида бошланиб, 1929 йил кузида якунланди. Бу сув ва ердан фойдаланиш тизимини советлаштириш учун кураш эди, чунки қишлоқ жамоаларининг ижтимоий-иқтисодий муносабатларидаги асосий муаммолар шу ерда тўпланган еди.

Бу ислоҳотга кўра, асосий мезон суғориладиган майдон ҳажмига қараб белгилаш эмас, балки қишлоқ хўжалигининг рентабеллик даражасига боғлиқлик бўлди. Яъни, йиллик даромади 100 рублдан кам бўлган деҳқон хўжаликлари табиий хизматлардан озод қилинди.

1927-1928 йилларда партия кўрсатмалари ўз мақсадига етди – тўлиқ коллективлаштириш Рамазон ёки Қурбон ҳайитидан олдинги кунда қорақалпоқ деҳқонларини бўлиб юборди. Бу сиёсатнинг яна бир йўналиши совет ва партия ташкилотларини «тозалаш» эди. С.Нуржанов 1927-1932 йиллардаги даврда бошқарув аппаратини икки босқичда тозалаш режалаштирилганини қайд этади: 1927-1928 ва 1929-1932 йиллар. Мақсад – «Қорақалпоғистон қиёфасини очиб бериш, барча ташкилотларда ҳукм сурган нотўғри ташкил этилган тизимларни тартибга келтириш ва уларни уйғунлаштириш» эди[4].

Қорақалпоғистонда қишлоқ хўжалигини коллективлаштиришнинг дастлабки босқичида ер эгалари хўжаликларини артеллар, коммуналар, ширкатлар ва бошқа шакллар асосида бирлаштириш кўзда тутилган эди. Вилоятда колхоз ҳаракати экин мавсуми бошланиши билан ривожлана бошлади ва 1928 йил 1 октябрга келиб қишлоқ хўжалиги артеллари ва ТОЗлар шаклида 13 жамоа хўжалиги ташкил этилди. Уларга 6-10 кишилик оилалардан иборат 28-40 киши аъзо бўлди. Бу колхозлар асосан энг қашшоқ деҳқон ва камбағал хўжаликларидан иборат эди. 1928-1929 йилларда 568 хўжалик бирлаштирилиб, 2096 киши қамраб олинган ва 478 гектар пахта майдонига эга бўлган. 1929-1930 йилларда эса 16233 киши иштирокидаги 3051 хўжаликни бирлаштириш режалаштирилди. Вилоят колхоз участкаси бошлиғи Лепешкиннинг гувоҳлик

TAMADDUN NURI

беришича, «бундай натижалар юқори ташкилотлар томонидан етарли деб топилмаган». Яъни 21965 кишидан иборат 4084 хўжаликни бирлаштириб, 16335 гектар ер майдонини (шундан 7257,25 гектарига пахта экилган) кўпайтириш мақсад қилинган эди. Агар 1928 йилда колхоз таркибига фақат 200 деҳқон киритилган бўлса, 1932 йилга келиб бу рақам 29588 деҳқон хўжалигига етди. Колхозлар экин майдони ҳам кенгайди: 1928 йилда 500 гектар, 1932 йилда эса 80 234 гектарга етди. Шу йили колхозлар умумий экин майдонларининг тўртдан бир қисмини эгаллади. Айниқса, пахтачилик колхозларининг ривожига катта эътибор қаратилди. 1928 йилда пахтачилик колхозлари 2,8% ни ташкил қилган бўлса, 1932 йилга келиб бу кўрсаткич 64%га етди. Асосий инвестициялар айнан шу соҳани ривожлантиришга йўналтирилди. Давлат колхозларнинг якка тартибдаги қишлоқ хўжаликларидан устунлигини ҳар жиҳатдан мустаҳкамлашга ҳаракат қилди. Пахта экин майдонлари мунтазам кенгайтирилди: колхозларда 210 гектардан 42750 гектарга етди. Агар 1928 йилда колхозчилар ҳар гектардан ўртача 5,4 центнер ҳосил олиб, давлатга 1,5 минг тонна пахта топширган бўлса, 1932 йилда ҳар гектардан 7,5 центнер ҳосил олиб, 30 минг тонна пахта хом ашёси топширилди[5].

Натижалар. Олиб борилган тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, коллективлаштириш сиёсати Қорақалпоғистон аҳолиси ҳаётида салбий ижтимоий-иқтисодий оқибатларга олиб келган. Мажбурий кўчиришлар, мол-мулкларни мусодара қилиш, қатағон тадбирлари аҳолида норозилик келтириб чиқарди. Бундан ташқари, анъанавий хўжалик юритиш тизимининг бузилиши иқтисодий таназзулни чуқурлаштирди. Шу билан бирга, пахта мажбурий етиштирилиши минтақанинг аграр структурасини кескин ўзгартирди. Давлат якка тартибдаги қишлоқ хўжаликларига оғир солиқлар ва турли йиғимлар юклаб, уларнинг ўзини ўзи ривожлантириш ва яхшилаш имкониятларини деярли йўққа чиқарди. Шу тариқа, энг салмоқли йиллар – 1929-1932 йиллар Қорақалпоқ жамиятининг анъанавий асосларини фаол равишда йўқ қилиш ва Қорақалпоқ автоном вилояти қишлоқ хўжалигида коллективлаштириш суръатларини кучайтириш даври бўлди. Бу давр бойлар ва руҳонийларни синф сифатида тугатиш жараёнини ўз ичига олди.

Хулоса. Қорақалпоғистонда совет ҳукумати томонидан олиб борилган коллективлаштириш сиёсати тарихий жиҳатдан қараганда кўп қиррали ва зиддиятли жараён бўлган. У ижтимоий тузумни тубдан ўзгартириб, анъанавий хўжалик тизимини йўқ қилди ва аҳолининг турмуш даражасига жиддий таъсир кўрсатди. Тадқиқот натижалари мазкур жараённинг тарихий аҳамиятини ва ундан олинган дарсларни янги тарихий таҳлиллар учун муҳим эканини тасдиқлайди.

Адабиётлар рўйхати:

1. История Каракалпакской АССР. Ташкент, 1974. Т. 2. С. 158.
2. Нуржанов С. Власть и каракалпакское общество: анализ фактов взаимоотношений //Вестник ККО АН РУз. Нукус, 2001. № 1. С.89. 3 АЖК РК, ф. 1, оп. 2, д. 515. л. 65.
3. Джумашев А., Нуржанов С. Политика Коллективизации в Каракалпакстане: вопросы истории // Вестник ККО АН РУз. Нукус. 2006. № 3. С. 71. 2 АЖК РК, ф. 1, оп. 155, д. 61, л. 180.
4. Сарыбаев К.С. История орошения Каракалпакстана. Нукус,1995. С.180.
5. Нуржанов С. Каракалпакская автономная область: история и источники.: Автореф. дис. канд. ист. наук. Нукус, 1988. С.16. 4 Авезов К., Варламов П. Каракалпакстан к 10-летию Казахстана. Алма-Ата. 1930. -С. 52.